

Qo‘qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 11/2025

Qo‘qon DPI.

Ilmiy xabarlar

Кокандский ГПИ.

Научный вестник

№11/2025

УЎК 5/9(08)
КБК 72я5
Қ 99

Bosh muharrir: Qo‘qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva
Mas’ul muharrirlar:
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Sh.Y.Pulatov
Mas’ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i O.Bazarov
Nashr uchun mas’ul:A.A.Ergashev

MUASSIS:
Qo‘qon davlat universiteti

Qo‘qon DPI.
ILMIY XABARLAR-
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ.
Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

"**Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar**" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san’atshunoslikfan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Tahririyat manzili:
150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy.
Tel.: (0373) 542-38-38.
Сайт: www.kspi.uz
journal.kspi.uz
ISBN: 978-9943-7182-7-2
“CLASSIC” nashriyoti
2025

TABIIY FANLAR
И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ)
Sh.S.Nomozov,texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB)
А.Ж.Хусанов-физика-математика фанлари номзоди, доцент (O‘ZB)
O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.Numonov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)
M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)

FILOLOGIYA FANLAR
Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR)
И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ)
В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ)
К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ)
S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB)
G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)

IJTIMOIY FANLAR
Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ)
D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)
M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)

PEDAGOGIKA FANLAR
Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ)
X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB)
B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)
N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BUGUNGI KUNDA ONA TILINI O‘QITISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI

Kuranbayeva Xusnora Abdullayevna
TAFU “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, v.b. dotsent
E-mail: husnorakuranbaeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqola raqamlashtirish davrida ona tilini o‘qitish muammolarini tahlil qiladi. Raqamli texnologiyalar ona tilini o‘qitishda yangi imkoniyatlar yaratishi, ammo ularning ortiqcha qo‘llanilishi til o‘rganishga salbiy ta’sir qilishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan. Pedagogik metodika va raqamli vositalarning uyg‘unligi ona tilini samarali o‘qitishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar:ona tili, raqamlashtirish, ta’lim, pedagogika, elektron darslik, interaktiv metodlar.

Аннотатция.Статья анализирует проблемы обучения родному языку в эпоху цифровизации. Показано, что цифровые технологии создают новые возможности для обучения родному языку, но чрезмерное их использование может негативно влиять на изучение языка. Сочетание педагогических методов и цифровых инструментов имеет важное значение для эффективного обучения родному языку.

Ключевые слова: родной язык, цифровизация, образование, педагогика, электронные учебники, интерактивные методы.

Annotation. The article analyzes the problems of teaching the mother tongue in the era of digitalization. It shows that digital technologies provide new opportunities for teaching the mother tongue, but their excessive use may negatively affect language learning. The integration of pedagogical methods and digital tools is crucial for effective mother tongue instruction.

Keywords:mother tongue, digitalization, education, pedagogy, e-learning, interactive methods.

Kirish. Mamlakatimiz rahbari tomonidan faoliyatimizga tanqidiy tahlil asosida baho berish, ta’lim-tarbiya sohasida sifat va samaradorlik bosqichiga qadam qo‘yish zarurati kun tartibiga qo‘yildi. Darhaqiqat, o‘quv jarayonini an’anaviy modellar asosida tashkil etish aksariyat ta’lim oluvchilar ehtiyojlarini qondira olmayapti. Raqamli transformatsiya ta’limni inqilobiy o‘zgarishlarga yuzlantirdi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ta’lim-tarbiya

ishlarining axborot texnologiyalari bilan uzviy bog‘lanishi ta’limda ilgari bo‘lmagan yangidan yangi imkoniyatlar, ta’lim shakllari, vositalar va metodlarning paydo bo‘lishiga turtki berdi. Bu amaliy jarayonlar nazariy tadqiqotlar tomon yo‘l ochadi, mavjud holatni o‘rganish tufayli ularning ta’lim taraqqiyotiga yoki aksincha tanazzuliga ta’siri oydinlashadi.

Tadqiqot metdologiyasi. Tadqiqotda ona tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi tahlil qilindi. Ma’lumotlarni yig‘ishda so‘rovnoma, intervyu, kuzatuv va hujjatlarni tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Shu orqali raqamli ta’lim vositalarining samaradorligi, o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari va mavjud muammolar aniqlangan.

Tahlil va natijalar. XX asr boshlarida 2019-yilga kelib dunyo universitetlarining teng yarmi onlayn rejimda ishlashi mumkinligi bashorat qilingan edi. Bunga internet tarmog‘idan foydalanuvchilarning soni ortayotganligi, bepul va erkin ta’lim olishga mo‘ljallangan onlayn kurslar tashkil qilinayotganligi, kurslarni bepul taqdim qilayotgan saytlarning soni kun sayin oshib borayotganligi (Open courseware, Coursera, Udacity va h.k.), axborot texnologiyalari ta’lim shakllarini o‘zgartirib yuborayotgani kabi inqilobiy o‘zgarishlar sabab bo‘lgan edi. Haqiqatda 2019-yilga kelib dunyoning nafaqat barcha universitetlari, balki barcha turdagi ta’lim muassasalari onlayn rejimda masofadan ishlashga majbir bo‘ldi. Respublikamiz ta’lim sohasida ham pandemiya davrida masofaviy o‘qitish, masofaviy o‘qish, masofaviy ta’lim tushunchalari ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylandi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 2-bobi 15-moddasida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish shakllari qatorida masofaviy ta’lim shakli o‘rin oldi. “Masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan”.

Telegraf, telefon, radio, so‘ngra televideniye va kompyuter texnologiyalarining ixtirosi masofaviy ta’lim oladigan talabalar sonini sezilarli darajada oshirish va ularning sifatini yaxshilash imkonini berdi.

Masofa so‘zi anglatgan lug‘aviy ma’no oddiy foydalanuvchiga ham yaxshi tanish. Uni o‘qitish, o‘qish, ta’lim so‘zlari bilan biriktirib tashqi o‘xshashlik tufayli aksariyat hollarda so‘z birikmalarini sinonim sifatida qo‘llaymiz. Bu tushunchalar mohiyati bo‘yicha axborot texnologiyalariga oid manbalarda berilgan ta’riflardan anglashiladiki, ular aslida bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan va o‘z navbatida bir- biridan farqlanadigan tushunchalardir. Masofaviy o‘qitish – bu ta’lim shakli, masofaviy o‘qish – bu ta’lim tizimi, masofaviy ta’lim – ta’lim kompleksi, ya’ni majmuasi. Oldingi paragrafda ta’lim va o‘qitish terminlarining sinonimligi haqidagi qarashlarimizdan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, masofaviy ta’lim va masofaviy o‘qitish terminlari dublet sifatida foydalanilishi mumkin.

O‘zbekiston ta’lim tizimida masofaviy o‘qitish dastlab umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining malakasini oshirish uchun foydalanildi. Uzoq tanaffusdan keyin qayta amaliyotga kiritilgan sirtqi ta’limda oraliq nazoratlarni masofadan o‘tkazish mumkinligi

rasmiy hujjatlarda aks etsa ham, masofaviy o‘qitish shaklini joriy qilishga qaror qilinmadi. Pandemiya vaqtida masofaviy, sinxron va asinxron o‘qitish majburan joriy qilinmaganda unga sifatsiz degan qarash o‘zgarmasligi tabiiy edi. Pandemiya masofaviy ta’limdagi kamchiliklarni yaqqol kuzatish imkonini berdi. Masalan, boshqa tillarga qiyoslaganda o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillarida onlayn o‘qitish platformalari pandemiyagacha sust edi. Mamlakatimizda, xorijiy tillarni o‘qitishni istisno qilganda, o‘zbek tili ta’limini raqamlashtirish yosh soha sanaladi. Zotan, Pandemiya davri “bilim berish usullari ko‘payib, ta’lim ochiq, shaffof, qulay, ommabop, operativ, korrupsiyasiz va eng asosiysi, sifatli ta’lim olish tizimi” yaratilishi uchun turtki bo‘ldi. Masofaviy, onlayn ta’limga qadam qo‘yar ekanmiz, uning qator afzalliklari namoyon bo‘ldi: ijtimoiy masofani saqlash, xarajatlarni tejash (transport, turar joy, o‘quv jihozlari kabilar), fan resurslaridan istalgan vaqtda foydalanish, onlayn odob-axloqni (onlayn etiket) shakllantirish, dunyoning istalgan nuqtasidan turib onlayn ma’ruza, anjumanlarda qatnashish kabilar. O‘qituvchilar ham qulayliklarni his qilishdi: mashg‘ulot vaqtini, o‘rnini, raqamli vositalarni rejalashtirish, zamonaviy texnologiyalarni egallash va joriy qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabilar.

Yechish usuli. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 27-martdagi 233-son buyrug‘iga asosan barcha OTMlar masofaviy o‘qitish shakliga o‘tkazildi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 7 million o‘quvchi va 500 ming talabaga onlayn dars berish yo‘lga qo‘yilgan. 2019-2020-o‘quv yilining bahorgi semestrida 6 ming 102 ta fandan onlayn ta’lim resurslari yaratilib, ular har bir oliy o‘quv muassasasining masofaviy o‘qitish platformalariga (Moodle) joylashtirilgan. XX asrning 90-yillaridan Ona tili fani bakalavr ta’lim yo‘nalishlarining birinchi bosqichidan o‘qitilmoqda. Dunyoda til bilish darajalariga muvofiq ta’lim standartlari va dasturlarining tatbiqi, o‘zbek tili ta’limida ham darajalangan tizim ishlab chiqilgan. Bunda A0 – maktabgacha ta’lim, A1 daraja 1 – 4-sinflar, A2 daraja 5–9-sinflar, B1 daraja o‘rta maxsus ta’lim, B2 daraja esa oliy ta’limning 1-bosqichi uchun belgilangan.

Kurrikulum hujjatlar, o‘quv-metodik ta’minot tahlili.

XXI asrda ta’lim tizimida sifatli mazmun, aniq o‘quv maqsadlari va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan kurrikulumni ishlab chiqish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Kurrikulum hujjatlari ta’lim jarayonining asosiy normativ bazasini tashkil etadi, o‘quv-metodik ta’minot esa pedagogik jarayonning amaliy ro‘yobga chiqarilishini belgilaydi. Shu bois mazkur hujjatlarni tahlil qilish ta’lim sifatini boshqarishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Kurrikulumning nazariy-metodik asoslari. Kurrikulum — ta’lim mazmuni, o‘quv yuklamasi, kompetensiyalar, baholash mezonlari va o‘qitish strategiyalarini o‘z ichiga olgan tizimli hujjatlar majmui. Zamonaviy yondashuvlarda kurrikulum quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Kompetensiyaviy yondashuv – o‘quvchilarda hayotiy, muloqot, axborot, amaliy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Ilmiylik va tizimlilik – o‘quv mazmunining fan-texnika rivojiga mosligi.

Moslashuvchanlik – fanlararo integratsiya, modullar bo‘yicha tuzilish.

Baholashning shaffofligi – o‘quvchi yutuqlarini adolatli va aniqlik bilan o‘lchash mezonlari. Ushbu tamoyillar asosida yaratilgan kurrikulum ta’lim natijalarining samaradorligini oshiradi.

Oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishlarida ona tilini o‘qitish o‘ziga xos yondashuvlarga ega. Shunday bo‘lsa ham, uzoq yillar davomida ta’lim tili qanday bo‘lishidan qat’iy nazar barcha bakalavriat yo‘nalishlari uchun umumiy o‘quv dasturlari amal qilmoqda. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan eng kamida 5 yil foydalanish nazarda tutilgan holda fan dasturlari tasdiqlangan. Ona tili fani aynan milliy g‘oyani yoshlar ongiga, ruhiyatiga singdiruvchi fan sanaladi. Ayniqsa, turli millat vakillarini bir umumiy g‘oya ostida birlashtirishda bu fan oldida katta maqsad va vazifalar qo‘yilgan. Mualliflar fan oldidagi ana shu bosh maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda har bir mavzuda milliy g‘oya mohiyatini ochib berishga, ta’lim oluvchilarni ana shu ruhda tarbiyalashga xizmat qiluvchi o‘quv va didaktik materiallarni manba sifatida foydalanishga harakat qilishgan. Vatanimiz – O‘zbekistonning tabiati, iqlimi, qazilma boyliklari, aholisi, tarixi, urf-odatlari, mashhur kishilari, milliy qadriyatlari, san’ati, transporti haqida ma’lumotlar berilganligi, har bir bo‘limga atroflicha nazariy va amaliy ma’lumotlar ilova qilinganligi, buyuk allomalar, O‘zbekiston Qahramonlari, amalga oshirilgan kashfiyotlar, ma’rifat o‘choqlari, ilm- fan, kitoblar olami haqidagi matnlar nazariy ma’lumotlarga ilova qilinganligi ona tilini o‘qitishda muhim qadamlar tashlanganidan dalolat beradi. Yoshlarni mulohazaga chorlaydigan, “Aqlni aqlsizdan o‘rgandim” degan xalq maqolida aytilganidek, yoshlar orasida uchraydigan ba’zi yaramas odatlar haqida fikrlashib olishga undaydigan mavzularga mos matnlar kiritilgan.

Darslikda mutolaa rukni mavjud bo‘lib, undan nafaqat o‘zbek adabiyoti namunalari, balki qoraqalpoq adabiyotining durdonalari ham o‘rin olgan. Darslik mualliflarning Qoraqalpog‘istonda O‘zbek tili fanini o‘qitish bo‘yicha ko‘p yillik mehnatlari, tajribalari natijasidir. Undagi matnlar, audio va video materiallar, mashq va topshiriqlar talabalarning ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga yordam beradi. O‘rganiladigan so‘z, so‘z birikmalari, gap modellari, ularni shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalardan foydalanishni o‘rgatish ko‘zda tutilgan holda muammoli savollar, mashq va topshiriqlar, ularni bajarish yuzasidan ko‘rsatmalar berilgan. Terminlar, qoidalar o‘rinli qo‘llangan. Ta’riflar tushunarli tilda, aniq va uslubiy jihatdan to‘g‘ri bayon qilingan. Mashqlar va topshiriqlar nazariy materiallarga muvofiq keladi va talabalar bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mualliflar mashq va topshiriqlar uchun har xil uslublardan misollar tanlashga harakat qilganlar. Ularni bajarish jarayonida yangi usullar, metodlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Ona tili fanidan ochiq darslarda kompyuter texnologiyalarini qo‘llash chog‘ida esa yangi vosita “tilini tushunolmay”, masalan, kompyuter o‘ron/parolini ocholmay qolish, videoproektor bilan ulay olmaslik, dasturlarni tushunmaslik, o‘zi tomonidan emas, balki biror mutaxassisga tayyorlatgan taqdimotini ocholmaslik va h.k. sabablar bilan 45/80 minutni o‘tkazib qo‘yib, darsdan kutilgan maqsadga erisha olmaslik haqida, aksincha,

bunday darsdan ko‘ra “an’anaviy darslar ming marta yaxshi” ekanligini hamkasblarimizdan ko‘p eshitganmiz, shunday darslarni ko‘p kuzatganmiz. Albatta, bu o‘qitishni raqamlashtirishgacha bo‘lgan tarix. Raqamlashtirish davrida pedagoglar, rahbar-xodimlar, talabalarning jarayonga munosabati suhbat, intervyu, so‘rovnomalar orqali aniqlashtirildi.

Xulosa. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimida sifat jihatdan yangi bosqichni shakllantirmoqda. Ona tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning amaldagi holati shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Elektron darsliklar, multimediya platformalari, interaktiv mashqlar, audio-video materiallar va onlayn baholash tizimlari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Amaldagi tajribalar ona tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalar o‘quvchilarni mustaqil o‘qish, fikrlash, muloqot qilish, matn tahlili va ijodiy topshiriqlarni bajarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, interaktiv platformalar orqali topshiriqlarni vizuallashtirish, gamifikatsiya elementlarini qo‘llash, matnlar bilan audiovizual ishlash o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirmoqda. Shu bilan birga, mavjud holatning tahlili ayrim muammolarni ham ko‘rsatadi. Jumladan: barcha ta’lim muassasalarida texnik jihozlanishning bir xil emasligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmaganligi, sifatli elektron resurslarning yetishmasligi, internet tezligining barqaror emasligi kabi omillar jarayonni to‘liq samarali amalga oshirishni cheklamoqda. Bu esa o‘quvchilarning raqamli platformalardan muntazam foydalanish imkoniyatini kamaytiradi.

Umuman olganda, bugungi kunda ona tili ta’limida raqamli texnologiyalar samarali qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, tizimni yanada takomillashtirish uchun raqamli metodik ta’minotni kengaytirish, o‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantiruvchi malaka oshirish dasturlarini joriy etish, zamonaviy elektron darsliklar va interaktiv materiallar yaratish zarur. Bularning barchasi ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini zamonaviy axborot muhitiga mos ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori. – Toshkent, 2020.

2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2021.

3 O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Ona tili fani bo‘yicha o‘quv dasturi*. – Toshkent, 2022.

4 Kuranbaeva, X. (2023). *Raqamli ta’lim muhitida ona tili darslarini samarali tashkil etish metodikasi*. – Toshkent: TAFU nashriyoti.

5 Axmedova, M. (2022). “Ona tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari”. *Ta’lim va innovatsiyalar jurnali*, №3, 45–52-bet.

6 Rasulova, D. (2021). *Pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim metodlari*. – Toshkent: Fan va texnologiya.

7 Kadirova, N. (2020). “Ona tili darslarida elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlari”. *Oliy ta’lim axborotnomasi*, №2, 77–82-bet.

8 Mishra, P. & Koehler, M. (2006). “Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) Framework”. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.

9 Prensky, M. (2010). *Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning*. – California: Corwin Press.

10 UNESCO (2020). *ICT in Education: Policy, Pedagogy and Practice*. – Paris: UNESCO Publishing.

11 Anderson, T. (2011). *The Theory and Practice of Online Learning*. – Edmonton: AU Press.

12 Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. – London: Routledge.

13 Aripova, G. (2022). “Ona tili ta’limida multimediya vositalaridan foydalanish samaradorligi”. *Filologiya va ta’lim jurnali*, №4, 123–130-bet.

14 Murodova, S. (2021). *Raqamli kompetensiyalar va ularni shakllantirish metodlari*. – Toshkent: Noshir.

15 European Commission (2019). *Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu)*.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SPORT O‘YINLARIDA ISHTIROK ETUVCHI TALABALARNING MAXSUS SAKROVCHANLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Turg‘unova Dilnura Mamanazar qizi
Andijon davlat pedagogika instituti jismoniy madaniyat kafedarasi (Phd) o‘qituvchisi
Butaboyev Mashxur Adihamjanovich
Andijon davlat pedagogika instituti jismoniy madaniyat kafedarasi o‘qituvchisi
dturgunova934@gmail.com

Annotatsiya.Ushbu tadqiqot sport o‘yinlarida ishtirok etuvchi talabalarning maxsus sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish omillarini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida Andijon davlat pedagogika instituti talabalari ishtirok ettirilib, ularda sakrash texnikasi hamda vertikal va gorizontal sakrovchanlik ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar amalga oshirildi. Dastur tarkibiga funksional tayyorgarlikni kuchaytiruvchi mashqlar, plyometrik mashqlar, kuch tezkorligini oshirishga yo‘naltirilgan yuklamalar, shuningdek sakrash texnikasini to‘g‘ri shakllantiruvchi metodik usullar kiritildi. O‘tkazilgan mashg‘ulotlar natijasida talabalarda mushaklarning portlovchi kuchi, tayanch-harakat tizimi barqarorligi, sakrashda muvozanatni saqlash qobiliyati hamda umumiy sport samaradorligida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot sport o‘yinlarida yuqori natijalarga erishishda maxsus sakrovchanlikni rivojlantirishning muhimligini ko‘rsatib, pedagogik jarayonda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali uslubiy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: plyometrik mashqlar**,** vertikal sakrash**,** gorizontal sakrash**,** portlovchi kuch, koordinatsiya, muvozanat, tezkor-kuch sifatlari.

Аннотация. Данное исследование посвящено совершенствованию факторов развития специальной прыгучести у студентов, участвующих в спортивных играх. В ходе исследования были привлечены студенты Андижанского государственного педагогического института, с которыми были проведены специализированные тренировки, направленные на улучшение техники прыжка, а также показателей вертикальной и горизонтальной прыгучести. В программу были включены упражнения, направленные на повышение функциональной подготовленности, плиометрические упражнения, нагрузки на развитие скоростно-силовых качеств, а также методические приемы формирования правильной техники прыжка. В результате

проведённых тренировок у студентов наблюдалось улучшение взрывной силы мышц, устойчивости опорно-двигательного аппарата, способности сохранять равновесие при прыжке, а также общего спортивного результата. Исследование показывает важность развития специальной прыгучести для достижения высоких результатов в спортивных играх и предлагает эффективные методические рекомендации для педагогической практики.

Ключевые слова: плиометрические упражнения, вертикальный прыжок, горизонтальный прыжок, взрывная сила, координация, равновесие, скоростно-силовые качества.

Annotation. This study focuses on improving the factors that develop special jumping ability among students involved in sports games. Students of Andijan State Pedagogical Institute participated in the research, where specialized training sessions were implemented to enhance jumping technique as well as vertical and horizontal jump performance. The training program included functional conditioning exercises, plyometric drills, speed–strength workloads, and methodological approaches aimed at developing proper jumping technique. As a result of the training program, significant improvements were observed in students’ explosive muscle strength, stability of the musculoskeletal system, balance maintenance during jumps, and overall sports performance. The study demonstrates the importance of developing special jumping ability for achieving high results in sports games and provides effective methodological recommendations for pedagogical practice.

Keywords: plyometric exercises, vertical jump, horizontal jump, explosive strength, coordination, balance, speed–strength qualities.

Kirish. Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi hamda davlatimiz rahnamoligida jismoniy tarbiya va sportga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2017 yil 3 iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son, 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli farmon va qarorlarida yurtimiz aholisini sog‘ligini mustahkamlash jismoniy tayyorgarligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga oid masalalarga e’tibor qaratilgan[1]. Zamonaviy sport o‘yinlarida yuqori natijalarga erishish ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimlaridan biri sportchining maxsus sakrovchanlik qobiliyati hisoblanadi.Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakilantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan [2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari, hukumat qarorlari hamda “Sportdagi har bir

[1] M.J.Abdullayev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. darslik. Toshkent “TURON-IQBOL” 2020-3b
[2] R.Mavlvanova N. Raxmankulova “Boshlang'ich Ta’lim Pedagogikasi, Innovatsiya Va Intergatsiya Toshkent” Voris-Nashrtyot-2013 Y 4-b

natija-millatning sog‘lomligini, qudratini, buyukligini namoyon[3]. Basketbol, voleybol, gandbol, futbol kabi sport turlari o‘yin jarayonida sakrash, tezkor harakatlanish, muvozanatni saqlash va portlovchi kuchdan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu bois talabalarning jismoniy tayyorgarligida sakrovchanlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar katta ahamiyat kasb etadi.. Talaba yoshlarning ta’lim olishlari va ularni doimo sog‘lomatligi davlat qonunlari bilan muhofaza qilish lozim[4]. Shunday ekan jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘illanish muhumdur.

Andijon davlat pedagogika institutida sport yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida turli xil plyometrik mashqlar, tezkor-kuch mashqlari hamda sakrash texnikasini rivojlantiruvchi maxsus metodik yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Talabalar uchun tuzilgan mashg‘ulot dasturlari ularning vertikal va gorizontal sakrash ko‘rsatkichlari, mushaklarning portlovchi kuchi, koordinatsiya hamda umumiy jismoniy ishchanlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur tadqiqot sport o‘yinlarida ishtirok etuvchi talabalarning maxsus sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish omillarini aniqlash, samarali mashg‘ulot usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali talabalarning sport natijalarini oshirishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari sport pedagogikasi sohasidagi ilmiy-amaliy yondashuvlarni boyitishga xizmat qiladi. Qo‘l to‘pi va basketbol bugungi kunda mamlakatimizda keng rivojlanib borayotgan ommaviy sport turlari hisoblanib, ular nafaqat professional sportchilar, balki oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida ham yuqori qiziqish uyg‘otmoqda. Bu o‘yinlarning mazmuni jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikni uyg‘un rivojlantirishga asoslangan bo‘lib, talabalarda muvozanat, chaqqonlik, kuch-tezkorlik, sakrovchanlik va koordinatsiya kabi muhim jismoniy sifatlarni takomillashtiradi. Mamlakatimizda sport sohasini modernizatsiya qilish, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish va xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishishga qaratilgan islohotlar jarayonida qo‘l to‘pi va basketbol alohida o‘rin tutadi. Ushbu sport turlari maktab, litsey, kollej va oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilayotgani yoshlar orasida jismoniy faollikni oshirish, sog‘lom avlodni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqolada sport o‘yinlarida ishtirok etuvchi talabalarning maxsus sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish omillarini tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra sport o‘yinlarida ishtirok etuvchi talabalarning maxsus sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish omillarini amaliy yo‘nalishli maxsus mashg‘ulotlar hisoblanadi. Mualliflar bu sport o‘yinlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun o‘quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan metodlarni- tahlil qilish eng samarali deb hisoblaydi. Shuningdek, maqolada “Portlovchi kuch, balandlik va tezkorlikni rivojlantirish” asosida shakllanishi ta’kidlangan. Ta’lim tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan

[3] O’.A.Farmanov. Sport va harakatli o’yinlar o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. “Buxoro” nashriyoti, 2019 y-3b.
[4] Sport o'yinlari [Matn]: darslik / I. A. Tursunaliyev. -Toshkent: Umid Design, 2021,- 5 b

islohotlardan ko‘zlangan maqsad barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir[5]. Ushbu yondashuv Oliy ta’lim tizimida talabalarning jismoniy tarbiya darslarida, sport o‘yinlarini shakllantirish uchun ilmiy-metodik asos sifatida muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan samarali siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning natijasidir. Jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini joriy etishning geografik diapozonini yanada kengaytirish hamda taъlim muassasalari sharoitlarida maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llash uchun jismoniy tarbiya va sport fanining nafaqat o‘quv rejalarida nazarda tutilgan hajm doiralarida texnologik va metodik asoslarini takomillashtirish, balki sport ixtisosligi bo‘yicha mashg‘ulotlarni darsdan tashqari shaklini tizimli tarzda tashkil qilish uchun takomillashtirish lozimdir. o‘zaro bog‘liqlikni chuqur anglashga yordam beradi[6].

Xorijiy amaliyotlarda jismoniy tarbiya dasturi o‘qituvchiga o‘quv mashg‘ulotlarini o‘z ixtisosligi, mavjud materiallar va maktab fanining an’anaviy amaliyotiga muvofiq rejalashtirish va belgilash imkonini beradi. Basketbol talabalarni mashq qilishda muhim vosita bo‘lib, u ularning tanasiga ko‘p jihatdan ta’sir qiladi, shaxsiyatining rivojlanishiga hissa qo‘shadi hamda bilim jarayonlarini shakllantirishga yordam beradi (Oliveira, 2001; Predescu va Moanţa, 2001; Scarlat va Scarlat, 2002; Ciocan, 2005; Ciorba & Comarniţchi, 2007)[7].

Tajribalarda ko‘rsatib o‘tilganidek, sakrovchanlik sport o‘yinlarida muhim bo‘lishi sababli, u sportchining portlovchi kuchi va tezkor harakatlanish qobiliyatini oshirib, raqobatbardosh harakatlarni samarali bajarishga imkon yaratadi. Yuqori sakrovchanlik koordinatsiya, mushak kuchi va tezkorlikning uyg‘un rivojlanishini ta’minlab, o‘yin jarayonida ustunlikka erishishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu asosda, ushbu funksional sifatning sport natijalariga ta’sirini chuqur anglash uchun olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish va ularni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ilmiy izlanishlarning tahlili sakrovchanlikning jismoniy, fiziologik va pedagogik asoslarini aniqlashga yordam berib, sportchilar tayyorgarligini takomillashtirishga ilmiy asos yaratadi.

Bugungi kunda qo‘l to‘pi va basketbol o‘yinlarida sakrash texnikasi sportchi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ushbu o‘yinlarda sakrash ko‘rsatkichlari nafaqat hujum va himoya harakatlarining samaradorligini oshiradi, balki sportchining tezkor qaror qabul qilishi, harakat dinamikasi va koordinatsion imkoniyatlarini yanada takomillashtiradi. Sport ijrosi sharoitida sportchilar vazifaga erishish uchun ongli va moslashuvchan tarzda harakat qilishlari lozimligi o‘rganilgan[8].

---

[5] X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 108, bet.

[6] Yuldashev N.K. Sport o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. Andijon.2022-y 3-15 bet.

[7] Ciocan C. (2005). Baschet. Îndrumar metodologic. Bacău: Alma Mater, pp.18-23

[8] Araújo, D., Brito, H., & Carrilho, D. (2023). Team decision-making behavior: An ecological dynamics approach. Asian Journal of Sport and Exercise Psychology, 3(1), 24-

Zamonaviy ta’lim tizimining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi[9]. Yangi davr sharoitida gandbol va basketbol kabi sport o‘yinlarida o‘qituvchilar talabalarga zamonaviy trenajyorlardan foydalanish, texnik-taktik ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv mashg‘ulotlar hamda sport tahliliga asoslangan mashq dasturlarini qo‘llashi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va sport o‘yinlarida talabalarga ushbu yondashuvlarni inobatga olgan holda, sportchilarni barqaror rivojlanish murabbiyning turli zamonaviy metodiklar va amaliy yondashuvlarni taklif etmoqdalar. Ushbu zamonaviy usullar, talabalarda sakrovchanlikni rivojlantirish uchun o‘tkazilgan mashg‘ulotlar tizimini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dastlabki o’rgatish o’z tashkiliy, uslubiy, ilmiy va moddiy texnikasi nuqtai nazaridan qanchalik puxta asoslangan bo’lsa, sifatli bo’lsa, shunchalik sport o’rinbosarlarini tayyorlash yuli qisqaroq va osonroq bo’ladi. Ammo bu, albatta, mutaxassisning bilimiga, kasbiy ko’nikma va malakalariga bevosita bog’liq bo’ladi. Shuning uchun mutaxassislarni tayyorlashga mo’ljallangan o’quv dasturining eng e’tiborli va asosiy bo’limlaridan biri boshlang’ich o’rgatish uslubiyati (texnologiyasi) bo’lib hisoblanadi[10]. Sakrashning sport o‘yinlaridagi ahamiyati, sakrash — ko‘plab sport o‘yinlarida texnik va jismoniy harakatlarning ajralmas qismi bo‘lib, sportchining umumiy harakat faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa basketbol, voleybol, qo‘l to‘pi (gandbol), futbolning ayrim elementlarida sakrash kiritilgan texnik harakatlarning samaradorligini belgilab beradi. Sakrovchanlikning rivojlanishi sportchining portlovchi kuchi, muvozanati, tezkorligi va koordinatsiyasining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Sakrash texnikasi maxsus sport o‘yinlarida taxlil qilish.(1-jadvalga qarang). Sakrash harakatli o‘yinlarda juda muhim bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biridir. Quyidagi asoslar sakrashning harakatli o‘yinlarda nima uchun zarurligini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan izohlaydi:Harakatlarning samaradorligini oshiradi,sakrash ko‘plab o‘yinlarda tezkor holat o‘zgarishi, to‘siqlardan o‘tish, yuqoridan kelayotgan to‘pni ushlash yoki raqibdan qochish kabi vazifalarni bajarish uchun kerak bo‘ladi. Bu esa o‘yinning sifatini oshiradi va o‘yinchining harakat repertuarini kengaytiradi. Kuch va chaqqonlikni rivojlantiradi, sakrash paytida oyoq mushaklari kuchlanadi, tananing portlovchi kuchi ishlatiladi. Bu esa o‘yinchining umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshilaydi. Ayniqsa ertalabki badantarbiya va dars jarayonlarida sakrash mashqlari kuch, tezlik va epchillikni rivojlantiradi. Koordinatsiya va muvozanatni mustahkamlaydi,o‘yin vaqtida sakrash jarayonida tanani boshqarish, tushish paytida muvozanatni saqlash koordinatsiyani rivojlantiradi.

1- jadval

Sport o‘yinlarida sakrash texnikasining asosiy ahamiyati

29.

[9] Kurbanov D.I. Jismoniy tarbiya va sport tarixi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Dj.I.Kurbanov.- Buxoro:“BUXORO DETERMINANTI”Kamolot nashriyoti, 2022.-172 b.

[10] M.U.Rahmonov M.G`.Gofurov “Basketbol o’qitish metodikasi”. O’quv-uslubiy majmua. 2023-2024 o’quv yili 1-2-kurs talabalari uchun. NAMANGAN 2023.-64b

№	Sport o‘yinlarining turi	Nima uchun sakrash muhumlik omili	Solishtirma taxlili
1	**Gandbol**	Sakrab turib zarba berish	Kuchli va aniq zarba berish uchun yuqori balandlikka chiqish kerak.
2	**Basketbol**	Savatga to‘p tashlash	Baland sakrash hujum samaradorligini oshiradi
3	**Gandbol**	Himoyada to‘p yo‘lini to‘sish	Sakrab hujumda turli burchaklardan zarba berish uchun zarur.
4	**Basketbol**	Havoda muvozanat saqlash	Tashlash paytida barqarorlik beradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot ishining boshlang‘ich bosqichida Andijon davlat pedagogika instituti sport yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar orasida ularning sakrovchanlik darajasini aniqlash maqsadida dastlabki nazorat sinovlari o‘tkazildi. Biz Andijon davlat pedagogika instituti talabalari bilan vertikal sakrovchanlikni o‘lchash maqsadida Sargent Jump Test metodikasidan foydalandik. Talabalar devorga yon turib, turgan holatda qo‘lini maksimal darajada cho‘zib, devorga iz qoldirdilar. Keyin ular maksimal balandlikka sakrab, devorga yana iz qoldirdilar. Har bir talaba uch marta ketma-ket sakrashni bajardi va olingan natijalardan o‘rtacha ko‘rsatkich asosiy natija sifatida tanlandi. Dastlabki natijalarda keltirilgan, **(3-jadvalga qarang).** 15-16 yoshli o‘smirlarda kuch rivojlanib, tezlik-kuch mashqlarini bajarish qobiliyatlari paydo bo’la boshlaydi[11]. Shunday ekan sakrovchanlik xam aynan talaba yoshida takomillashadi. Talabalarning sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar kompleksini qo‘llash katta ahamiyatga ega. Ushbu mashqlar nafaqat portlovchi kuchni oshiradi, balki muvozanat, koordinatsiya va jismoniy chidamlilikni ham rivojlantiradi. Tadqiqot jarayonida Andijon davlat pedagogika instituti talabalari bilan quyidagi mashqlar bir oy mobaynidsa qo‘llanildi. (3-jadvalga qarang) Tadqiqot jarayonida Andijon davlat pedagogika instituti talabalari bilan bir oy davomida sakrovchanlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

Mashg‘ulotlar talabalarning individual jismoniy tayyorgarligi va sakrovchanlik qobiliyatini oshirishga yo‘naltirildi. Mashg‘ulotlar 2-jadvalda keltirilgan sakrash turlari asosida tashkil etildi: vertikal sakrash, gorizontal sakrash, plyometrik sakrashlar va qadamli sakrashlar. Har bir mashq turi bo‘yicha talabalar dars davomida 6–7 marotaba takroriy mashqlar bajardilar. Biroq, mashqlar xavfsiz va samarali bajarilishi uchun har bir sakrash turi bir kunda faqat bittadan tanlanib, navbat bilan bajarildi. Shu tarzda barcha talabalar mashqlarni to‘g‘ri texnika bilan, ortiqcha charchamasdan bajara oldilar.

[11] A.M.Achilov, J.A.Akramov, O.V.Goncharova. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash o’quv qo’llanma “lider press” nashriyoti, Toshkent 2009 y.51-b

2-jadval

Talabalarda sakrovchanlikni rivojlantirish uchun o‘tkazilgan mashqlar turlari jadvali

№	*Sakrashlar nomi*	*Tarif*	*Maqsad*
1	***Vertikal sakrash***	Oyoqlar bilan tik turib maksimal balandlikka sakrash	Portlovchi kuch, balandlik va tezkorlikni rivojlantirish
2	***Gorizontal sakrash***	Oyoqlar bilan bir vaqtning o‘zida oldinga maksimal masofaga sakrash	Oyoq mushaklarining kuchi, portlovchi kuch va muvozanatni rivojlantirish
3	***Plyometrik sakrashlar***	Oyoq mushaklarining tez qisqarish va cho‘zilish fazasiga asoslangan sakrashlar.	Portlovchi kuchni oshirish, tezkorlik va koordinatsiyani rivojlantirish.
4	***qadamli sakrashlar***	Platforma yoki gimnastika pas stullar ustiga sakrash va tushish.	Muvozanat, portlovchi kuch va xavfsiz tushish texnikasini oshirish

Ushbu metodika orqali talabalar oy davomida sakrovchanlik bo‘yicha barqaror rivojlanishga erishdilar. Vertikal va gorizontal sakrashlar balandlik va masofani oshirishga, plyometrik mashqlar portlovchi kuch va tezkorlikni rivojlantirishga, qadamli sakrashlar esa muvozanat va xavfsiz tushish texnikasini mustahkamlashga xizmat qildi. Natijada, mashg‘ulotlarning doimiyligi, turli sakrash turlarini navbat bilan bajarish va har bir mashqni bir nechta takrorlash talabalar sakrovchanligini sezilarli darajada oshirishga yordam berdi va ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini yaxshiladi. Bir oy davomida o'tkazilgan mashg‘ulotlar yakunida talabalarning sakrovchanlik qobiliyatini qayta baholash uchun yana vertikal sakrash testi (devorga qarab sakrash) o'tkazildi. Talabalar dastlabki nazorat sinovlarida ko‘rsatgan balandlik bilan solishtirildi. Har bir talaba avvalgi mashg‘ulotlarda olingan texnik ko‘nikmalar, portlovchi kuch va muvozanat bo‘yicha o‘zini sinab ko‘rdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning vertikal sakrash balandligi sezilarli darajada oshdi**.** Dastlab o‘rtacha balandlik 35–40 sm atrofida bo‘lgan bo‘lsa, mashg‘ulotlar yakunida ularning ko‘pchiligi 45–50 sm gacha balandlikka sakrash imkoniyatiga ega bo‘ldi (1-diagrammaga qarang). Shu bilan birga, talabalarning sakrash texnikasi ham yaxshilandi. Jismoniy tarbiya darslarida, pedagogik nazorat va pedagogik taxlil[12],muhumdur.

3-jadval


Talabalarning sakrovchanligini baholash jadvali

№	*Talabaning ismi sharfi*	*Dastlabkli sakrash natijasi- y*	*Yakuniy sakrash natijasi - x*	$\bar{x} = \frac{x-y}{0.34}$
1	M.T	32	33	1

[12] U.Jumaniyozov. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metrodikasi. O‘quv qo‘llanma. “Print -darham” nashriyoti. Nukus 2025-y b-4.

2	D.M	28.3	28.5	00.2
3	S.D	42.6	42.7	00.1
4	R.D	40	40.2	00.2
5	A.D	47.6	47.8	00.2
6	M.M	40.3	41	00.2
7	A.K	47	47.1	00.1
8	M.A	41.3	41.8	00.5
9	X.M	36	36.2	00.2
10	T.M	38.3	38.5	00.2
Yakuniy natija:		***393.4x10=39.34***	***396.8x10=39.68***	***39.68-39.34=0.34***

Ushbu hisobotda 10 nafar talabaning dastlabki va yakuniy sakrash natijalari solishtirildi. Maqsad mashg‘ulotlar davomida talabalar ko‘rsatgan o‘sish (rivojlanish) darajasini aniqlash. Umumiy statistik natijalar. Dastlabki sakrashlar yig‘indisi: 393.4 O‘rtacha natija (10 talaba): 393.4 ÷ 10 = 39.34 Yakuniy sakrashlar yig‘indisi: 396.8 O‘rtacha natija (10 talaba): 396.8 ÷ 10 = 39.68 O‘rtacha o‘sish: 39.68 – 39.34 = 0.34 umumiy guruh bo‘yicha o‘rtacha qiymqtiga ega .



1-rasm sakrash natijasida 0.34 metr o‘sish natijasi

Talabalarda qo‘l to‘pi ko‘nikmalarini takomillashtirish jarayoni bir necha bosqichda tashkil etildi. Avvalo, ularning hozirgi darajasini aniqlash maqsadida diagnostik mashq sifatida to‘pni devorga ketma-ket sakratish topshirig‘i berildi. Har bir talaba belgilangan vaqtda to‘pni devorga urib, uni yerga tushirmagan holda nechta marotaba qayta sakrata olishi qayd etildi. O‘rtacha natija sifatida uch martaga teng ko‘rsatkich kuzatildi. Bu boshlang‘ich ma’lumot sifatida keyingi mashg‘ulotlar uchun mezon bo‘lib xizmat qildi. Keyingi bosqichda maxsus ishlab chiqilgan sakrash mashqlari majmuasi qo‘llanildi. Ushbu mashqlar talabalarning koordinatsiyasi, to‘pni boshqarish texnikasi, qo‘l kuchi va ritmni ushlab turish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan edi. Mashqlar ichida quyidagilar o‘rin oldi: turli balandlikda devorga sakratish, bir qo‘l bilan sakratish, qo‘lni almashtirib sakratish, tezlikni oshirib borish, ritmik sakrashlar va murakkablashtirilgan kombinatsion usullar. Mashg‘ulotlar muntazam, bosqichma-bosqich murakkablashtirilgan holda olib borildi.

Mazkur o‘quv mashqlaridan so‘ng talabalarga yana devorga to‘p sakratish sinovi o‘tkazildi. Natijalar boshlang‘ich ko‘rsatkichlar bilan solishtirilganda aniq ijobiy o‘sish qayd etildi. Talabalar to‘pni ko‘proq urib qaytara olishdi, xatoliklar kamaydi, to‘p ustidan boshqaruv sezilarli yaxshilandi. O‘rtacha ko‘rsatkich bir necha marotabaga oshgan bo‘lib, bu maxsus mashqlar majmuasining samaradorligini tasdiqladi. Umuman olganda, bosqichma-bosqich o‘tkazilgan baholash, maqsadli mashqlar va yakuniy test natijalari talabalarda qo‘l to‘pi ko‘nikmalarini takomillashtirish metodikasi o‘z samarasini berganini ko‘rsatdi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot sport o‘yinlarida ishtirok etuvchi talabalarning maxsus sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, olib borilgan amaliy mashg‘ulotlar ularning jismoniy tayyorgarlik darajasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida Andijon davlat pedagogika instituti talabalari bilan plyometrik mashqlar, vertikal va gorizontal sakrashlar, qadamli sakrashlar hamda to‘pni devorga sakratish mashqlari tizimli ravishda qo‘llandi. Mazkur mashqlar talabalarning portlovchi kuchi, tezkor-kuch sifatlari, muvozanatni saqlash qobiliyati, koordinatsiya hamda sakrash texnikasini takomillashtirdi.

Dastlabki va yakuniy nazorat natijalari o‘rtasidagi farq talabalarda sakrovchanlik bo‘yicha o‘sish borligini tasdiqladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, umumiy guruh bo‘yicha sakrash balandligida **0,34 metr** atrofida ijobiy o‘sish kuzatildi. Bu esa qo‘llangan mashg‘ulotlar majmuasi samarali bo‘lganini, talabalarning jismoniy tayyorgarligi va umumiy sport ishlash qobiliyatining yaxshilangani bilan izohlanadi. Bundan tashqari, qo‘l to‘pi bo‘yicha o‘tkazilgan qo‘shimcha mashqlar talabalarda to‘pni boshqarish, tezkor harakatlanish, ritmik sakrashlar va texnik aniqlikni oshirishga yordam berdi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sport o‘yinlarida yuqori natijalarga erishish jarayonida maxsus sakrovchanlikni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Tizimli va ilmiy asoslangan mashg‘ulotlar nafaqat sakrash ko‘rsatkichlarini, balki sportchining umumiy jismoniy sifati-kuch, chaqqonlik, koordinatsiya va muvozanatni ham sezilarli rivojlantiradi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar sport pedagogikasi amaliyotida qo‘llash uchun tavsiya etiladi hamda talabalarning sport texnikasini takomillashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev M. J. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. Darslik. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2020. – 3 b.

2. Mavlonova R., Raxmankulova N. *Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya*. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2013. – 4 b.

3. Kurbanov D. I. *Jismoniy tarbiya va sport tarixi*: O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Buxoro determinanti, Kamolot nashriyoti, 2022. – 14 b.

4. Farmanov O‘. A. *Sport va harakatli o‘yinlar o‘qitish metodikasi (basketbol)*. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2019. – 17 b.

5. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. *Pedagogika nazariyasi*: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – B. (sahifa ko‘rsatilmagan).

6. Yuldashev N.K. Sport o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. Andijon.2022-y 3-15 bet.

7.Ciocan C. (2005). Baschet. Îndrumar metodologic. Bacău: Alma Mater, pp.18-23

8. Tursunaliyev I. A. *Sport o‘yinlari*: Darslik. – Toshkent: Umid Design, 2021. – 5 b.

9. Rahmonov M. U., G‘ofurov M. G‘. *Basketbol o‘qitish metodikasi*: O‘quv-uslubiy majmua. – Namangan, 2023. – 64 b.

10.Araujo, D., Brito, H., & Carrilho, D. (2023). Team decision-making behavior: An ecological dynamics approach. Asian Journal of Sport and Exercise Psychology, 3(1), 24–29.

11. Achilov A. M., Akramov J. A., Goncharova O. V. *Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash*: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Lider Press, 2009. – 51 b.

12. Jumaniyozov U. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*: O‘quv qo‘llanma. – Nukus: Print-Darham nashriyoti, 2025. – 4 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

LOHIYAVIY TOPSHIRIQLARNI TASHKIL ETISH VA INTEGRATSION METODIK YECHIMLAR ISHLAB CHIQISH (C VITAMINI MAVZUSINI O‘QITISH MISOLIDA)

Aralova Matluba Qodir qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
2-kurs magistranti
Axrorova Mahina, *ilmiy rahbar,*
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent,
Email :Matlubaaralova54@gmail.com

Annotatsiya .Maqolada ona tili ta’limida loyihaviy topshiriqlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslari, integratsion yondashuvning o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni hamda “C vitamini” mavzusi asosida ishlab chiqilgan loyiha misoli tahlil qilinadi. Tadqiqotda 5 bosqichli (5E) model asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Integratsion yondashuv orqali o‘quvchilarda tildan foydalanish, muloqotga kirishish va fanlararo bog‘lanishni anglash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Kalit so‘zlar: loyiha, integratsiya, metodika, innovatsion ta’lim, 5E modeli, C vitamini, ona tili ta’limi.

Annotation.The article analyzes the theoretical and methodological foundations of organizing project-based tasks in native language teaching and the role of integrative approaches in developing students’ thinking. Using the topic “Vitamin C” as an example, a five-phase (5E) model was applied to enhance students’ analytical thinking, creativity, and speech culture. The study highlights that integrative teaching promotes linguistic competence, communication skills, and understanding of interdisciplinary connections among learners.

Keywords: project-based learning, integration, methodology, innovative education, 5E model, Vitamin C, native language teaching.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методические основы организации проектных заданий на уроках родного языка и роль интеграционного подхода в развитии мышления учащихся. На примере темы «Витамин С» рассмотрена реализация пятиэтапной (5E) модели, способствующей формированию аналитического мышления, творческих умений и культуры речи. Отмечается, что интеграционное

обучение развивает языковую компетенцию, коммуникативные навыки и понимание межпредметных связей у школьников.

Ключевые слова: проектное обучение, интеграция, методика, инновационное образование, модель 5E, Витамин C, обучение родному языку.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy maqsadi — o‘quvchini tayyor bilimni eslab qolishga emas, balki uni mustaqil tahlil qilib, amaliyotda qo‘llashga o‘rgatishdir. Shu nuqtai nazardan loyihaviy o‘qitish texnologiyasi zamonaviy ta’limda muhim o‘rin tutadi.

Loyihaviy topshiriqlar orqali o‘quvchi ijodiy fikrlash, izlanish, tahlil qilish va yakuniy mahsulot yaratish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Ayniqsa, fanlararo integratsiya bu jarayonga yangi mazmun beradi: o‘quvchi bir vaqtning o‘zida turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirib, muammoni har tomonlama hal etishga o‘rganadi.

Ona tili darslarida “C vitamini” mavzusi asosida integratsion loyiha yaratish — tildagi ilmiy uslub, matn tuzilishi, so‘z tanlash, ma’no ifodasi kabi ko‘nikmalarni tabiiy fanlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Metodologik asoslar

Tadqiqotning metodologik asosini raqamli ta’lim muhiti, tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘qitish va emosional-intellektual yondashuv tashkil etadi. Ishda o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy izlanish va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirishga qaratilgan muammoli-loyihaviy ta’lim usullari qo‘llanildi.

Tadqiqot jarayonida refleksiya, kuzatuv, tahlil va ijtimoiy hamkorlik asosida baholash metodlari orqali o‘quvchilarning fikrlash faoliyati, ijodkorlik salohiyati va fanlararo bog‘liqlikni anglash darajasi o‘rganildi. Natijalar “C vitamini” mavzusidagi integratsion loyihaning ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi.

Loyihaviy topshiriqlarning mohiyati

Loyihaviy topshiriqlar — bu o‘quvchi shaxsini faollashtiruvchi, mustaqil izlanish, tahlil va ijodiy fikrlash jarayonlarini uyg‘unlashtiruvchi o‘quv faoliyatidir. U ta’lim jarayonini an’anaviy bilim berish shaklidan faol, interaktiv va natijaga yo‘naltirilgan jarayonga aylantiradi. Yo‘ldoshev[13] ta’kidlaganidek, loyihaviy topshiriqlar o‘quvchining mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish, yangi yechimlar topish va o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga o‘rganadilar. Loyiha ustida ishlash jarayonida har bir o‘quvchi tadqiqotchi, ijodkor va muammoni hal qiluvchi shaxs sifatida ishtirok etadi.

Loyihaviy topshiriqlarning mohiyati shundan iboratki, ular tayyor javobni topishga emas, balki jarayon davomida bilim yaratishga yo‘naltiriladi. Bu yondashuv o‘quvchilarda

[13] Yo‘ldosheva. M. Ona tili ta’limida innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Noshir, 2022. — 70 b.

tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur topshiriqlar, shuningdek, fanlararo integratsiyani ta’minlaydi. Masalan, ona tili darsida “C vitamini” mavzusida loyiha tayyorlayotgan o‘quvchi biologiya, informatika va tibbiyot sohalaridan ham ma’lumot oladi. Shu tarzda u o‘z bilimini turli fanlar bilan uyg‘unlashtirib, real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilishni o‘rganadi.

Loyihaviy topshiriqlar odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Muammoni aniqlash — o‘rganiladigan mavzu va maqsad belgilanadi.

2. Rejalashtirish — ma’lumot to‘plash yo‘llari, manbalar va vaqt taqsimoti aniqlanadi.

3. Amalga oshirish — o‘quvchi mustaqil izlanadi, tahlil qiladi, o‘z xulosasini shakllantiradi.

4. Natijani taqdim etish — olingan natijalar jamoa oldida himoya qilinadi, baholash jarayoni o‘tkaziladi.

Shunday qilib, loyihaviy topshiriqlar o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi sub’yekt sifatida shakllantiradi. Ular o‘quv jarayoniga yangicha ruh bag‘ishlab, o‘quvchining tafakkurini kengaytiradi va o‘z ustida ishlashga undaydi.

Integratsion metodik yondashuvning ta’limdagi o‘rni

Zamonaviy o‘quv jarayonining rivojlanish bosqichida bilimlarni fanlararo bog‘liqlik asosida o‘zlashtirish muhim pedagogik tamoyil sifatida qaralmoqda. Chunki o‘quvchi tafakkurining kengayishi, uning bilimni turli sohalar bilan bog‘lab tahlil qila olishi ta’limning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Shu nuqtayi nazardan, integratsion metodik yondashuv o‘qitish jarayonini yaxlit, tizimli va amaliy asosda tashkil etishga xizmat qiladi.Shuningdek, G‘ulomova[14] integratsion yondashuvni fanlararo uzviylikni ta’minlovchi samarali metod sifatida ko‘rsatadi.

Integratsion metodik yondashuv deganda — o‘qitish jarayonida turli fanlarning mazmuniy, mantiqiy va uslubiy jihatdan o‘zaro uyg‘unlashuvi, ularni yagona didaktik tizim sifatida birlashtirish tushuniladi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi har bir bilimni alohida fakt sifatida emas, balki boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq holda anglaydi.

Mazkur metodika ta’limda quyidagi ilmiy-didaktik tamoyillarga tayanadi:

1. Fanlararo uzviylik tamoyili – bir mavzuni turli fanlar kesimida o‘rganish orqali chuqur tushunchaga ega bo‘lish.

2. Tizimlilik – o‘quv materialining mantiqiy izchillikda o‘zlashtirilishini ta’minlash.

3. Amaliy yo‘naltirilganlik – o‘quvchini real hayotiy muammolarga tayyorlash, bilimni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash.

4. Ijodkorlik tamoyili – o‘quvchini mustaqil fikrlash va yangi g‘oyalar ishlab chiqishga yo‘naltirish.

[14] G‘ulomova. D. Integratsion yondashuv asosida fanlarni o‘qitish metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. — 24 b.

Ona tili ta’limida integratsion metodik yondashuvning qo‘llanishi o‘quvchining bilim doirasini kengaytiradi va tilni boshqa fanlar bilan bog‘liq holda anglash imkonini beradi. Masalan, “C vitamini” mavzusini o‘rganish jarayonida:

Biologiya — inson organizmida C vitaminining biologik roli va yetishmovchilik oqibatlari tahlil qilinadi.

Kimyo — askorbin kislotaning kimyoviy tarkibi, reaksiyaga kirish xususiyatlari o‘rganiladi.

Tibbiyot — C vitamini kasalliklarning oldini olishdagi ahamiyati, immunitetni mustahkamlashdagi o‘rni yoritiladi.

Matematika — vitamin miqdorini o‘lchash, dozalash va statistik ma’lumotlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Tarix — vitaminlar kashf etilishi, insoniyatda sog‘lom ovqatlanish madaniyatining shakllanishi haqida tarixiy faktlar o‘rganiladi.

Geografiya — C vitamini ko‘p saqlovchi o‘simliklar, meva-sabzavotlar yetishtiriladigan mintaqalar tahlil qilinadi.


Natijada o‘quvchi “C vitamini” haqidagi bilimni nafaqat lingvistik, balki ilmiy va madaniy nuqtayi nazardan ham chuqur anglaydi. Bqu esa til o‘rganish jarayonini hayotiy, mazmunli va tahliliy yo‘nalishga ega qiladi.

Integratsion yondashuvning o‘quv jarayonidagi o‘rni shundan iboratki, u o‘quvchini biryoqlama o‘rganishdan olib chiqib, kompleks tafakkur va fanlararo muloqot madaniyatiga olib kiradi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchi tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki bilim va tafakkur ifodasi sifatida o‘zlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, integratsion metodik yondashuv ta’lim jarayonini yangilash, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularni real hayotga tayyorlash va fanlararo uzviylikni kuchaytirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan metodik yo‘nalishdir.

“C vitamini” mavzusida integratsion loyiha misoli (5 bosqichli o‘qitish modeli asosida)

O‘quv faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etishda fanlararo integratsiya va loyihaviy yondashuv muhim o‘rin tutadi. Mazkur tadqiqotda konstruktivistik yondashuvga asoslangan 5 bosqichli o‘qitish modeli (E’tibor uyg‘otish, Izlanish, Tushuntirish, Kengaytirish, Baholash)dan foydalanildi. Ushbu model dastlab AQShda ilmiy o‘qitish tizimini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.“Finlyandiya ta’lim tizimida 5 bosqichli model CLIL asosida qo‘llaniladi” kabi 1–2 jumla misol bilan boyitilsin.“C vitamini” mavzusi bu borada eng qulay mavzulardan biri bo‘lib, u orqali o‘quvchilarda nafaqat ilmiy bilim, balki sog‘lom turmush tarzi, tibbiy ong va ekologik mas’uliyatni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu loyiha 5 bosqichli o‘qitish modeli asosida tuzilgan bo‘lib, u quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:



1. E’tibor uyg‘otish bosqichi. Dars o‘quvchilarni mavzuga qiziqtirishdan boshlanadi. O‘qituvchi “C vitamini nimaga kerak?”, “U inson salomatligida qanday ahamiyatga ega?” kabi savollar bilan muhokama boshlaydi. O‘quvchilarga turli mevalarning (limon, apelsin, smorodina, karam va boshqalar) rasmlari namoyish etilib, ularning umumiy belgilarini aniqlash taklif qilinadi. Shu tarzda o‘quvchilarda mavzuga nisbatan tabiiy qiziqish va izlanish istagi uyg‘onadi.

2. Izlanish bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, C vitamini haqidagi ma’lumotlarni izlaydilar.

Biologiya fani nuqtai nazaridan — inson organizmida C vitaminining roli, immun tizimdagi ahamiyati, yetishmovchilik alomatlari tahlil qilinadi.

Kimyo fanidan — C vitaminining tarkibi, molekulyar tuzilishi, suvda eruvchanligi va parchalanish jarayonlari o‘rganiladi.

Tibbiyot nuqtai nazaridan — vitaminning foydali va zararli jihatlari, dori vositalaridagi qo‘llanilishi haqida fikr yuritiladi.

Matematika fanidan — turli mahsulotlarda C vitaminining miqdori hisoblab chiqiladi, jadval va diagrammalar tuziladi.

Tarix va geografiya yo‘nalishidan — vitaminli oziq-ovqatlarning kelib chiqishi, tarqalish hududlari va tarixiy manbalardagi ma’lumotlar tahlil qilinadi.

Tajriba darslari davomida 7-sinf o‘quvchilari “C vitamini” mavzusi asosida guruhli loyiha ishladilar. Masalan, bir guruh C vitamini ko‘p bo‘lgan mevalardan tabiiy sharbat tayyorladi, boshqa guruh esa yod eritmasi yordamida vitamin miqdorini aniqladi. Natijalar jadvalda qayd etilib, o‘quvchilar tahliliy xulosalar chiqardilar.

Natijada o‘quvchilar o‘zlari mustaqil izlagan ma’lumotlarni umumlashtirib, o‘z bilimlarini jamoaviy shaklda boyitadilar.

3. Tushuntirish bosqichi. O‘quvchilar topgan ma’lumotlarini tahlil qilib, o‘z fikrlarini izchil bayon etadilar. Har bir guruh o‘z yo‘nalishi bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi:

Biologiya guruhi – C vitaminining inson salomatligidagi o‘rni haqida;

Kimyo guruhi – vitaminning kimyoviy tuzilishi va xossalari haqida;

Tibbiyot guruhi – dori shakllari va foydali ta’siri haqida;

Ona tili guruhi – mavzu bo‘yicha ilmiy matn tuzish, terminlarni to‘g‘ri qo‘llash va fikrni grammatik jihatdan izchil bayon etish haqida.

O‘qituvchi ushbu taqdimotlarni tahlil qiladi, umumiy xulosalar chiqaradi va fanlararo bog‘liqlikni ta’kidlaydi. Shu jarayonda o‘quvchilarning ilmiy fikrlashi, nutq madaniyati va tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

4. Kengaytirish bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilar mavzuga oid qo‘shimcha tadqiqot ishlari olib boradilar. Ular C vitamini saqlovchi tabiiy manbalar bo‘yicha tahliliy jadval tuzadilar, qish mavsumida immunitetni saqlash usullarini o‘rganadilar, shuningdek, “Sog‘lom ovqatlanish” mavzusida kichik tajriba ishlari bajaradilar.

Masalan, o‘quvchilar limon, olma, karam va boshqa mahsulotlardagi vitamin miqdorini aniqlash uchun sodda tajriba o‘tkazadilar. Natijalar asosida ular sog‘lom turmush tarzining ahamiyati haqida o‘z xulosalarini shakllantiradilar.

5. Baholash bosqichi. Yakuniy bosqichda o‘quvchilarning faoliyati baholanadi. Baholash jarayonida nafaqat to‘plangan bilimlar, balki o‘quvchining faolligi, jamoada ishlashi, fikrni aniq bayon eta olishi, tahlil va ijodkorlik darajasi ham e’tiborga olinadi. O‘quvchilar o‘zaro baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali dars jarayonida nimalarga erishganini, qaysi jihatlarni takomillashtirish kerakligini anglaydilar.

Natijalar va tahlillar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “C vitamini” mavzusida integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilim, tafakkur, muloqot va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Loyiha bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo‘lib, o‘quvchilar mustaqil izlanish, tahlil qilish, o‘z fikrini asoslash va jamoa bilan ishlash malakasini egalladilar.

1. Fanlararo bog‘lanishning kuchayishi.

C vitamini haqidagi bilimlar ona tili, biologiya, kimyo, tibbiyot, matematika, tarix va geografiya fanlari o‘rtasida uzviy bog‘lanishda o‘rganildi. Bu jarayon o‘quvchilarda tabiiy fanlarni til orqali tushunish, ilmiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llash va turli fanlardan olingan ma’lumotlarni yagona mazmuniy tizimga keltirish imkonini berdi.

2. Tahliliy yondashuv va izlanish ko‘nikmalarining shakllanishi.

O‘quvchilar o‘z kuzatuvlariga tayangan holda C vitaminining inson salomatligidagi ahamiyatini tahlil qildilar, uning manbalari, kimyoviy tarkibi, iste’mol me’yorlari va foydali jihatlarini ilmiy asosda o‘rganishdi. Bu esa ularda izlanishga, xulosaga kelishga va tanqidiy yondashishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi.

3. Nutq va tafakkur madaniyatining o‘sishi.

Ona tili fanining asosiy yo‘nalishi sifatida o‘quvchilarda ilmiy nutq, mantiqiy bayon, grammatik to‘g‘rilik va fikrni aniq ifodalash madaniyati shakllandi. Biologik va kimyoviy jarayonlarni til vositalari bilan tushuntirish, ularni yozma shaklda izohlash jarayoni o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qildi.

4. Tibbiy ong va sog‘lom turmush tarziga e’tibor.

Loyiha davomida tibbiyot faniga oid ma’lumotlar asosida o‘quvchilar inson organizmida C vitaminining roli, uning yetishmasligi oqibatlari hamda tabiiy manbalari haqida aniq tasavvur hosil qildilar. Bu jarayon sog‘lom ovqatlanish, immunitetni mustahkamlash va tibbiy madaniyatni oshirishga yordam berdi.

5. Hisob-kitob va tahliliy fikrlashning rivojlanishi.

Matematika fanining integratsiyasi natijasida o‘quvchilar turli mahsulotlarda C vitaminining miqdorini hisoblash, ularni jadval va grafiklar orqali ifodalashni o‘rgandilar. Bu esa ularda aniqlik, tartib, raqamli tahlil va dalillarga asoslangan fikrlashni shakllantirdi.

6. Ijodiy yondashuv va jamoaviy faoliyat.

O‘quvchilar loyihaning yakuniy bosqichida fanlararo ma’lumotlarga tayangan holda plakat, risola, taqdimot va stendlar tayyorlab, o‘z ijodkorligini namoyon etdilar. Jamoaviy ishlarda fikr almashish, bir-birini tinglash, o‘zaro baholash madaniyati mustahkamlandi.

7. Baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilish.

Dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi, mustaqil ishlari va fikrlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Baholash mezonlari shaffof bo‘lib, unda bilim bilan bir qatorda o‘quvchilarning ijodkorlik, muloqot, mas’uliyat va hamkorlik darajasi ham inobatga olindi.

Tajriba natijalari kuzatuv jurnali asosida baholandi. Tajriba guruhi o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi 58 foizdan 88 foizgacha oshdi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 61 foizdan 72 foizgacha o‘sdi. Bu esa integratsion yondashuvning samaradorligini isbotlaydi.

Yakuniy tahlil natijalariga ko‘ra:

1. o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi 30 foizga oshdi;
2. ilmiy ifoda vositalaridan foydalanish aniq va mantiqiy tus oldi;
3. bilimni amalda qo‘llash, kuzatish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojlandi;
4. sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish va inson organizmining immun tizimini mustahkamlashga xizmat qild.i

Umuman olganda, “C vitamini” mavzusida integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim o‘quvchilarning bilimini faqat nazariy emas, balki amaliy hayotga tatbiq etish imkonini berdi. Ular nafaqat fanlararo aloqani his etdilar, balki har bir bilimning hayotiy ahamiyatini anglab yetdilar.

Xulosa

Tadqiqot davomida ta’lim jarayonida loyihaviy topshiriqlarni qo‘llash va integratsion metodik yondashuvni uyg‘unlashtirish samarali natijalar bergani aniqlandi. Loyiha asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, muloqotga kirishish va ijodiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

“C vitamini” mavzusi asosida ishlab chiqilgan integratsion loyiha 5 bosqichli model (E’tibor uyg‘otish, Izlanish, Tushuntirish, Kengaytirish, Baholash)ga tayangan holda o‘quvchilarning o‘zlashtirish faoliyatini izchil tashkil etish imkonini berdi. Ushbu model har

bir bosqichda o‘quvchini faol ishtirok etishga undab, fanlararo bog‘lanishni mustahkamladi hamda nazariy bilimni hayotiy tajriba bilan uyg‘unlashtirdi.

Integratsion yondashuv orqali biologiya, kimyo, tibbiyot, tarix, geografiya va matematika fanlarining mazmuniy aloqasi yanada kuchaydi. Natijada o‘quvchilar “C vitamini” haqidagi bilimni nafaqat nazariy, balki amaliy va sog‘lom turmush tarziga oid jihatdan ham chuqur anglay oldilar. Bu esa ularning ilmiy tafakkuri, tahlil qilish qobiliyati va nutq madaniyatini rivojlantirdi.

Shuningdek, loyiha asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchini tayyor bilimni yodlovchi emas, balki uni izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo‘llovchi shaxs sifatida shakllantirdi. 5 bosqichli o‘qitish modeli ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini, ijodkorlikni va tahliliy yondashuvni rag‘batlantirdi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, integratsion yondashuvga asoslangan loyihaviy topshiriqlar:

- fanlararo uzviylikni ta’minlaydi;
- ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi;
- o‘quvchilarni ilmiy fikrlashga va hayotiy muammolarga amaliy yondashishga o‘rgatadi;
- nutq, tafakkur va muloqot madaniyatini rivojlantiradi;
- shaxsning ijodiy va intellektual salohiyatini kengaytiradi.

Mazkur yondashuv ta’lim amaliyotida qo‘llanganda o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat hissi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, ta’lim sifatini oshirishda muhim natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Yo‘ldosheva, M. Ona tili ta’limida innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Noshir, 2022. — 156 b.
2. G‘ulomova, D. Integratsion yondashuv asosida fanlarni o‘qitish metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. — 142 b.
3. To‘xtayeva, N. Loyihaviy o‘qitish texnologiyasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020. — 168 b.
4. Shodmonova, S. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. — Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2019. — 132 b.
5. Raximova, Z. Ona tili darslarida integratsion yondashuvning samaradorligi. — “Til va ta’lim”, №2, 2022. — 45–49-b.
6. Qo‘chqorova, M. Biologiya va tibbiyot fanlarini o‘zaro integratsiyalash asosida o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. — 154 b.
7. Ergasheva, N. Loyihaviy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish. — “Ta’limda innovatsiyalar” ilmiy-uslubiy to‘plam, 2022. — 67–73-b.

8. Jo‘rayeva, D. 5 bosqichli model asosida dars jarayonini tashkil etish. — TDPU ilmiy axborotnomasi, №4, 2023. — 28–33-b.

9. Qurbonova, M. Integratsion metodik yondashuvning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati. — Toshkent: Barkamol Avlod, 2024. — 121 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ILDIZLARI

Akbarov Odiljon Ergashevich,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tel: +99894-156-10-82 e.mail: shahinabonu16@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkistonning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy inqiroz sharoitida jadidchilik harakatining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustamlaka siyosati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy tanglik, madaniy kamsitilish va iqtisodiy ekspluatatsiya milliy uyg‘onish zaruratining asosiy omillari sifatida baholanadi. Shuningdek, jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, yangi maktablar ochish, dunyoviy ta’limni joriy etish, milliy o‘zlikni tiklashga qaratilgan pedagogik va ma’naviy strategiyalari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, mustamlaka siyosati, milliy uyg‘onish, “Usuli jadid” maktablari, madaniy modernizatsiya, ijtimoiy-pedagogik asoslar, ta’lim islohotlari.

Аннотация. В статье рассматривается процесс формирования джадидистского движения в Туркестане конца XIX – начала XX века, переживавшего глубокий политический, экономический и духовный кризис. Показано, что социальная напряжённость, культурная дискриминация и экономическая эксплуатация, вызванные колониальной политикой Российской империи, стали основными факторами, обусловившими востребованность национального возрождения. Анализируются просветительские идеи джадидов, их деятельность по созданию школ нового типа, внедрение светского образования и педагогические стратегии, направленные на укрепление национальной идентичности.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, колониальная политика, национальное возрождение, школы «усул-и жадид», культурная модернизация, социально-педагогические основы, образовательные реформы.

Abstract. This article explores the emergence of the Jadid movement in Turkestan at the turn of the 19th and 20th centuries, a period characterized by significant political, economic, and cultural crisis. The study demonstrates that social tension, cultural marginalization, and economic exploitation under Russian colonial rule were decisive factors stimulating the need for national awakening. It examines the Jadids’ enlightenment-oriented

doctrines, their establishment of new-method schools, the introduction of secular education, and pedagogical strategies aimed at revitalizing national identity.

Keywords: jadidism, enlightenment movement, colonial policy, national awakening, Usul-i Jadid schools, cultural modernization, socio-pedagogical foundations, educational reforms.

KIRISH.XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyati inqiroz va uyg‘onish kesishgan nuqtada edi. Bir tomonda, siyosiy qaramlik, iqtisodiy ekspluatatsiya, feodal turg‘unlik, savodsizlik, ijtimoiy yopiq qatlamlar; ikkinchi tomonda esa butun musulmon-sharq olamida kuchayib borayotgan o‘z-o‘zini isloh qilish talabi, “biz kim bo‘lamiz endi?” degan savol, yangi ilm-texnika bilan yuzma-yuz kelish majburiyati[1,6].

Avvalo, jadidlar kimligi, ularning ijtimoiy-siyosiy statusi borasidagi qarashlarga aniqlik kiritib olish zarur. O‘zbekistonda keng shakllangan omma qarashiga ko‘ra, jadidchilik aksar hollarda bir muncha tor talqin qilinadi. Uni faqat “maorif islohoti”, “fonetik asosidagi yangicha o‘qitish usuli”, “yangicha o‘quv darsliklari” bilan cheklash to‘g‘ri emas. Shuning uchun jadidchilik, avvalo, millatning, jamiyatning o‘z-o‘zini saqlab qolish refleksi edi. U xalqning siyosiy, madaniy va ma’naviy yashab qolish masalasiga aylandi: “Agar biz zamon bilimini egallamasak, biz yo‘q bo‘lamiz”[2,7]. Bu ruhiy jarayonni tushunmasdan yangi adabiyotini ham, jadid pedagogikasini, umuman, jadidchilik harakatini to‘liq anglab va qamrab bo‘lmaydi.

Jadidlar nafaqat “o‘qituvchi” edilar, balki ular millatning o‘z shaxsini qayta qurishga urinayotgan mafkurachilar, sahnada milliy ruhiyatini “shok terapiyasi” orqali silkitayotgan dramaturglar, siyosiy irodasi bo‘shashgan xalqni uyg‘otishga urinayotgan publitsistlar va ayni paytda kelajak avlodni yangicha tarbiyalashni rejalagan strateglar edilar.[4],[5] Shu boisdan jadidchilikni tushunish avvalo “u qanday sharoitda ular paydo bo‘lgan edi?” degan savolga atroflicha javob berish demakdir. Aynan shu savol birinchi faslning markazida turadi.

Bu savolga javobni Chor Rossiyaning buyukdavlatchilik siyosati va Turkistonning mustamlaka holatiga bog‘lab izlash o‘rinli bo‘ladi. Bu davrda rus imperiyasining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelish strategiyasi XIX yuzyilligining ikkinchi yarmi Rossiyasi uchun faqat hududiy kengayishgina emas, balki strategik xavfsizlik masalasi edi. Markaziy Osiyo shunchaki “yana bir mustamlaka hudud” emas, ayni paytda ikki yirik imperiya – Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasida tampon zona (oraliq geosiyosiy hudud) vazifasini o‘taydigan maydon edi. Shu tufayli Turkiston ustidan nazorat Rossiya uchun nafaqat iqtisodiy, moliyaviy foyda, ayni paytda xalqaro nufuz va ta’sir doirasini kengaytirish vositasiga aylandi [2],[6].

METODLAR

“Buyuk o‘yin” sharoitida Rossiya Markaziy Osiyoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy yurishlar, protektorat (ya’ni “tashqi siyosatingni men yuritaman,

ichki tartibingni o‘zing ko‘raver”) shaklidagi bosqichma-bosqich qaramlashtirish, iqtisodiy qaramlikni kuchaytirish orqali (bojxona, savdo yo‘llari, soliqlar) bo‘ysundirdi. Oqibatda Qo‘qon xonligi yerlarining katta qismi, Toshkent (1865), Samarqand (1868), Xiva xonligining asosiy hududlaridan boshlab, Buxoro amirligining tashqi siyosati – hammasi rus imperiyasi nazoratiga o‘tdi [2]. Mintaqa mustaqil siyosiy subyekt emas, to‘laligicha imperiya uchun bo‘ysundirilgan periferiyaga aylanib qoldi.

Bu davrda Rossiya imperiyasi Turkiston yerlarini faqat harbiy-siyosiy tomondan egalladi, balki uni ma’naviy jihatdan ham past ko‘rsatish bilan o‘z gegemonligini oqlashga harakat qildi. Rus amaldorlari va orientalistlari (ya’ni sharqshunoslari) tomonidan yaratilgan rasmiy manzaraga ko‘ra, “tub musulmon aholi” (o‘zbeklar, qirg‘iz, tojiklar, qozoqlar va boshqalar) “savod ko‘rmagan”, “jaholat ichida”, “din asoratida qolgan” xalqlar sifatida taqdim qilingan edi. Mazkur ritorika hududdagi mustamlaka tartibini tamaddun olib kelish deb ko‘rsatishga xizmat qilishi kerak edi. Bu siyosiy maqsadni rus rasmiy matbuoti ham, manzilli yo‘naltirilgan ilmiy ishlar ham takrorlaganini ko‘rish mumkin. Amerikalik tarixchi, zamonaviy Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha eng yetakchi olimlardan biri Adib Xolid (Adeeb Khalid) ta’kidiga ko‘ra, ruslar mahalliy jamiyatni madaniy qoloq tamg‘asini bosib, shu orqali o‘zining ma’rifat olib kiruvchi, madaniyat ulashuvchi kuch sifatida siyosiy legitimatsiya topishga harakat qilgan [2]. Bu tasvir esa ikki qatlamni tashkil etgan edi, ya’ni bir tomondan, musulmon aholining o‘zi asli jaholatda; boshqa tomondan, hududdagi diniy-elita qatlam (mufti, qozilar, mudarrislar, mullalar) xalqni atayin jaholatda tutib turadi degan tuhmat. Bu tuhmat-ayblov keyinchalik to‘g‘ridan to‘g‘ri madrasalarga qarshi ishlatilgan bo‘lib, madrasalarni “xurofot”, “dogma”, “quruq yodlash bilan mashg‘ul”, “dunyoviy bilim bermaydi” degan da’vo imperiya ma’muriy diskursida muqim o‘rin tutadi. Bu aynan mustamlakachilik tashviqotining tarkibiy qismi bo‘lib kelgan. Ya’ni rus ma’muriy tafakkurida sxemani shunday talqin qilish mumkin: “Mahalliy aholi savodsiz → shu bois ular o‘zlarini boshqara olmaydi → demak, biz ular biz tomondan boshqarilishi shart”. Bu “pedagogik paternalizm” deya nomladigan uslub bo‘lib, mustamlaka zo‘ravonligini axloqiy jihatga ko‘ra oqlash uchun ishlatilgan.

University of California, Davis (AQSh) universitetining tarix professori D. Brower ham shuni ko‘rsatadiki, Turkiston general-gubernatorligi Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilgan bo‘lsa ham, mahalliy aholi imperiya fuqarosi sifatida teng ko‘rilmagan; ular siyosiy subyekt emas, “tarbiyalanishi kerak bo‘lgan massa” sifatida talqin etilgan. Bu ular ustidan harbiy-boshqaruv nazoratini saqlashga imkon bergan. Bu bosqichilar uchun muhim strategiya edi, ya’ni Turkiston bir kechada bosib olinmadi, balki asta-sekin siyosiy va ruhiy jihatdan bo‘ysundirildi. Bu jarayon davomida mahalliy elita va keng omma ongida “qarshilik qilish mantiqsiz”, “bo‘ysunish normal holat”, “biz endi o‘zimiz emasmiz” degan ruhiy sindrom paydo bo‘ldi [2],[3]. Bu esa millatning asta-sekin ichidan yemirilishini anglatar edi. Jadidchilik ana shu sindromga ruhiy va intellektual reaksiya sifatida tug‘ildi.

Bunday qiyin bir davrda agar bosqin shunchalik og‘ir bo‘lsa, nega javob safarbarligi darhol qurolli qo‘zg‘olon emas, balki maktablar ochish bo‘ldi, degan savol bo‘lishi tabiiy. Javob shuki, Rossiya imperiyasi Turkistonda zo‘ravonlik bilan bir qatorda “aqliy va ma’naviy hukmronlik vositasi”ni ham qo‘lladi — ya’ni “siz qoloqsiz, biz sizni o‘rgatamiz” degan siyosiy-axloqiy konsepsiya yaratildi [1],[2],[7]. Bunday strategiyaga qarshi qurol bilan javob berish yetarli emas edi; unga ong orqali javob berish kerak edi. Rus missioneri, tilshunos va pedagog**, Qozon universiteti professori** va **pravoslav missionerlik maktabi** rahbari N.I. Ilminskiy o‘zining “*Ocherk sistemy obrazovaniya inorodtsev v Rossii” nomli ma’ruzasida:* “Musulmon xalqlarining o‘z madaniyati yo‘q; bizning vazifamiz – ularga insoniyat ilm-fan va axloqining asoslarini singdirish” – degan edi. Turkiston general-gubernatorligi mustamlaka boshqaruvining mexanizmi asosiga mazkur da’voni qat’iylashtirib qo‘ygan edi.

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. Bu yangi boshqaruv shakli mahalliy xalq uchun emas, imperiyaning strategik manfaatlari uchun tuzilgan hududiy-harbiy apparat edi. General-gubernator fuqaroviy ma’mur emas, balki harbiy figura edi va bevosita Sankt-Peterburgga hisobot berar edi. Bu istilochilar uchun juda muhim jarayon hisoblanardi, ya’ni mohiyatga ko‘ra, Turkiston rus imperiyasi tarkibiga “qo‘shildi”, lekin hech qanday tenglik haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas edi. U “ichki xotijiy yurt” maqomida qoldi — siyosiy huquqsiz, lekin bo‘ysundirilgan hudud sifatida [6,54]. Buni amalda shunday ishlaganini ko‘rish mumkin: mahalliy musulmon-turkiy aholi siyosiy subyekt sifatida tan olinmagan edi, ular o‘z yerida yashasa ham, siyosiy jihatdan qaram, ya’ni boshqarilishi kerak bo‘lgan massa sifatida talqin qilindi. Rossiya imperiyasi ikki pog‘onali boshqaruv tizimini joriy etdi: yuqori pog‘ona – o‘rus harbiy-ma’muriy nazorati (soliqlar, yer-suv resurslari, bojxona); quyi pog‘ona – tub aholidan chiqqan mahalliy amaldorlar (qozilar, oqsoqollar, beklar) orqali vositachilik [2, 16].

NATIJALAR

Chetdan qaraganda bu *mahalliy an’analarni saqlash* sifatida ko‘rinadi. Aslida esa mazkur tizim eski mahalliy elitalarni o‘z boshqaruv doirasiga bog‘lab olish va ularni ma’muriy vositaga aylantirish siyosati edi. Natijada mustamlakachilar “aholi – hududiy ma’muriy tuzilma – imperiya” zanjirida xalq bilan o‘z amaldorlari o‘rtasidagi ishonchni yemirishga muvaffaq bo‘ldi [2],[3]. Aynan shu ishonch inqirozi keyinchalik jadidlar uchun mafkuraviy maydon ochib, mavjud eski muhit (boshqaruv) ularni himoya qila olmaganini, demak, yangi rahbarlik kerakligini angladilar.

Ayni paytda iqtisodiy ekspluatatsiyaning ham bu borada ta’sirini unutmaslik kerak: Imperiya Turkistonga iqtisodiy xom ashyo manbasi sifatida qaragan. Ayniqsa, paxta strategik ahamiyat kasb etar edi. 1861–1865-yillardagi Amerika fuqarolar urushi bois rus to‘qimachilik sanoati paxta ta’minotida muammolar yuzaga kelgach, Markaziy Osiyo paxtasi asosiy muqobil manbaga aylangandi. Ya’ni:

– dehqonlar uchun ixtiyoriy ekin tanlovi cheklana bordi: paxta majburiy ekinga aylana boshlandi;

– suv resurslari va irrigatsiya tizimi (ariqlar, kanallar) mahalliy xalq ehtiyojiga ko‘ra emas, imperiya sanoatining manfaatiga qarab boshqarildi;

– oziq-ovqat mahsulotlari uchun ekin maydonlari majburiyat ostida qisqardi: asosiy e’tibor eksportbop xom ashyo bo‘lmish paxtaga qaratildi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini zaiflashtirdi va iqtisodiy qaramlikni orttirdi [7, 100]. Bundan asosan, imperiya markazidan kelgan kapital egalari va sanoatchilari, soliq va ruxsat tizimiga yaqinlasha olgan tor mahalliy vositachi qatlam, shuningdek, harbiy-ma’muriy tuzilmaga sodiq bo‘lgan elita foyda ko‘rdi[6, 185].

Dehqonlarning aksariyati esa og‘r soliq, qarz yuki, ko‘proq majburiyat ostida qoldi. Bir so‘z bilan aytganda, iqtisodiy qaramlik peshona teri bilan kun ko‘radigan odamni o‘z mehnatidan begonalashtirdi: oddiy xalq kundalik hayotini yaxshilash uchun emas, balki tashqi markazni ta’minlash uchun mehnat qilardi [2,105]. Bunday iqtisodiy asorat, ruhiy tushkunlik hudud miqyosida ma’rifiy faoliyat, ma’rifiy ehtiyojga bo‘lgan intilishni sasayishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbek xalqini “madaniylashtirish” fonida o‘z istilosini ma’nan oqlash uchun Rossiya imperiyasi o‘z bosqinini *sivilizatsiya missiyasi* sifatida ko‘rsatishga tirishdi: yerli musulmon aholi “ortda qolgan”, “fan va texnika bilmaydi”, “tartib bilmaydi”, shu sababli “rus ma’muriyati ularni madaniylashtiradi” degan diskurs shakllantirildi [2],[7],[8]. N. P. Ostroumov singari amaldor-sharqshunoslar mahalliy maktab va madrasalarni hayot uchun foydasiz, fanatizmni tarbiyalaydigan maskan sifatida tasvirlagan [8,83]. O‘rislar savodsizlikni o‘zlarining manfaatlariga ko‘ra rus – kiril xatini “o‘qiy olmaydi va yoza olmaydi” tarzida talqin qilib olishgan. Chor ma’muriyati ham, keyinchalik sovet tashviqoti ham aynan shu me’zonni markazga qo‘ydi. Aslida, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi turkiy aholi orasida bilim olish shakli boshqacha bo‘lib, unda:

- o‘g‘il bolalar mahalla maktablarida Qur’on tilovatini va arab yozuvini o‘qishga o‘rgatilgan, ko‘pincha Qur’onni ovoz chiqarib, mazmunini tushungan yoki tushunmagan holda ham (ta’lim muassasasi darajasiga ko‘ra) o‘qiy olishlari mumkin bo‘lgan;
- ba’zilar turkiy matnlarni (chig‘atoy/o‘zbek tilidagi matnlar, masalan diniy risolalar yoki axloqiy pand-nasihat kitoblari) o‘qilgan va talqin qilingan;
- qizlar uchun esa bu imkoniyatlar bir muncha tor bo‘lsa-da, lekin shaharlarda (shuningdek, ayrim qishloqlarda) maktablarda, maxsus maktab bo‘lmagan joylarda uy sharoitlarida diniy va dunyoviy bilimlar berilgan, natijada fozila, olima ayollar,bir qancha shoiralar yetishib chiqqan.

Chor statistikasi ko‘pincha shu turdagi savod darajasini inobatga olmagan. Chunki ular uchun savod, yuqorida qayd etilganidek, rus tilida (yoki rus ma’muriy yozuvida) o‘qish-yozishni biladigan inson nazarda tutilgan. Shundan kelib chiqib, hududdagi musulmon

aholining an’anaviy diniy-islomiy savodi rus rasmiy hisobotlarida savodsizlik o‘laroq qayd etilgan. Maqsad aniq: bu raqamlarni ataylab pasaytirib ko‘rsatish uchun edi. Demak, chor ma’muriyatining “ular savodsiz” degan gapi ikki bo‘lakdan iborat edi:

1) statistik-texnik: “ruscha o‘qiy olmaydi” (aslida, bir millat boshqa millat yzuvini bilishi shart ham, majburiyat ham emaslini atay “unutishgan”);
2) mafkuraviy: “shuning uchun ular bo‘ysunishi kerak” (bu siyosiy baho).

Rossiyalik rasmiy sharqshunoslar (turkshunoslar, arabshunoslar, etnograf-amaldorlar)ning ko‘pincha o‘z asarlarida Turkiston xalqlarini “qoloq”, “fan yutuqlaridan bexabar”, “dunyo taraqqiyotidan uzilgan” deya ta’riflashlari mustamlakachi ma’murlarning musulmon maktablarini faqat Qur’on o‘qitadigan, hech qanday foydali dunyoviy bilim bermaydigan, bolalarni mexanik yodlashga o‘rgatadigan maskan sifatida talqin qilishlari uchun asos yaratish uchun edi. Bu talqinni o‘ris maktablari va “rus-tuzem maktablari”ni targ‘ib qilgan siyosiy doiralar ommatan tarqatgan edi. Bosqinchilar joriy qilgan rus-tuzem maktablari yerli aholi bolalariga rus tilini va imperiyaga sodiq qarashlarni singdirish uchun ochilgan bo‘lib, ularda islomiy emas, imperiya uchun kerak bo‘lgan fuqarolik intizom shuuri berilar edi. Rus amaldorlari nazarida haqiqiy savodxonlik mazkur maktablardan o‘tganlik bilan o‘lchanardi. Ayni paytda ma’muriy apparat uchun savod deganda bilimlarni imperiya manfaatiga uyg‘un soliqqa, bozor infrastrukturasiga, harbiy ishlarga, temir yo‘l iqtisodiyotiga integratsiya bo‘la oladigan, buyruqlarni tushuna oladigan mahalliy kadr demak edi. Ya’ni savodga siyosiy-iqtisodiy qulaylik mezoni nuqtayi nazaridan qaralgan.

Bu jadidlar uchun juda muhim metodologik nuqtaga diqqat qilshga turtki berdi: ya’ni, hududdagi xalqlar ta’lim tizimi asosan diniy matnlarni o‘qishga yo‘naltirilgan, lekin bu savod faqat diniy doirani qamrab oladi, kundalik turmushdagi huquqiy, iqtisodiy va boshqa ilmiy sohalarning keng rivojiga xizmat qilmayapti. Mahalliy ziyolilar (ya’ni bo‘lajak jadidlarga aylanuvchi qatlam) ongida o‘zlariga qaratilgan mulohaza uyg‘ondi: “Haqiqatan ham biz zamonaviy ilmlardan ortda qoldikmi? Maktablarimiz davr talablariga mosmi?”[1,12] Mana shunday ichki taftish, millat holatiga tanqidiy yondashuv, kelajak uchun mas’uliyat hissi jadidchilikning psixologik boshlanish nuqtasidir. Jadidlar tashqi aybni, ya’ni ularning “qoloq”ligini, ichki chaqiriq – o‘z-o‘zini o‘qitishga aylantirdilar. Shuning uchun jadid pozitsiyasi imperiya pozitsiyasidan tubdan farq qiladi: agar mustamlakachi kelgindilar: “Siz taraqqiyotdan ortda qolgan johilsiz, demak, sizlarni biz boshqarib, odam qilamiz” kabi da’volariga qarshi jadid: “Ha, bizda kamchilik bor, lekin biz ikki Renessansni qurgan ajdodlarimiz ishini davom ettirib, o‘z kuchimiz bilan rivojlanish dovonidan oshamiz, o‘zimizni o‘zimiz yuksaltirib, ma’rifat orqali ozod bo‘lamiz” mazmunidagi konsepsiya va dasturlari bilan maydonga chiqdilar. Ko‘rinadiki, milliy o‘zlikning uyg‘onishi siyosiy emas, avvalo ma’naviy-axloqiy uyg‘onishdagi qadamlardan iborat edi.

MUHOKAMA

Mustamlaka tartibi mahalliy jamiyatda tahqirlanganlik, kamsitilganlik, “ikkinchi darajali inson”lik hissini kuchaytirgan voqelik, o‘z yeriga xo‘jayinlik qilolmasligi, o‘zi uchun

qaror berolmasligi sharoitida jadidlarda qanday qilib bir millat sifatida o‘zini tiklash mumkinligi haqida savol tug‘dirdi. Javob sifatida uchta yo‘nalish shakllandi:

– ma’rifatni keng yoyish (xalqni imkon qadar ommaviy savodli qilish);

– iqtisodiy tafakkurni o‘zgartirish (savdo, ishlab chiqarish, hisob-kitobni biladigan kadrlarni tayyorlash);

– milliy o‘zlikni atributlarini himoya qilish (til, din, adabiyot, madaniyatni kamsitilishdan chiqarish).

Shu o‘rinda juda muhim nuqta: jadidchilikning ilk bosqichida harakat o‘zini klassik siyosiy inqilob harakati sifatida emas, balki ma’naviy-axloqiy va pedagogik islohot harakati sifatida taqdim etdi. Ya’ni siyosiy ozodlikka eltuvchi yo‘l sifatida eng avvalo tarbiya va ta’lim qo‘yildi. “Maktab – bu siyosiy institutdir” degan qarash aynan shu davrda shakllanadi [5, 54]. Mazkur muammolarni chuqur tahlil qilgan jadid ziyolilari (Ismoil G‘aspirinskiy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalar) ***“usuli jadid”*** deb ataluvchi ta’lim islohotini ilgari surdilar. Bu islohotning mohiyati – **ta’lim mazmunini dunyoviylashtirish, o‘qitish metodikasini zamonaviylashtirish, milliy til va ma’rifatni uyg‘otish** edi. Jadidlar aynan shu joydan juda keskin xulosa chiqardilar: mustamlaka zulmi faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy qulflanishdir. Bu qulflanishni sindirish uchun jamiyat ongini o‘zgartirish kerak, ongni o‘zgartirish uchun esa zamonaviy ta’lim kerak. Ya’ni iqtisodiy muammo pedagogik yechimga aylantirildi. Abdulla Avloniy esa o‘zining *“Turkiy guliston yoxud axloq”* asarida: “Ilm inson uchun ziynatdir, jaholat esa qora zulmatdir” deya ta’limni millatning ma’naviy najoti sifatida ta’riflaydi [5,18]. Jadidlar uchun ta’lim nafaqat bilim berish jarayoni, balki **millatni uyg‘otish vositasi** edi. Shu bois ular yangi maktablar ochish, darsliklar yaratish, o‘qituvchilarni tayyorlash orqali jamiyatni madaniy jihatdan isloh qilishni maqsad qilganlar.

XULOSA

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston:

– siyosiy jihatdan: mahalliy aholi siyosiy subyekt maqomidan mahrum qilingan;

– iqtisodiy jihatdan: o‘lka paxta yetkazib beruvchi xom ashyo periferiyasiga aylantirilgan;

– madaniy jihatdan: mahalliy ta’lim va ma’naviy institutlar “qoloq” deya kamsitilgan;

– psixologik jihatdan: “siz o‘zingizni boshqara olmaysiz” degan tashqi hukm ichki uyatga aylantirilgan.

Aynan shu sharoitda jadidchilik paydo bo‘ldi. Jadidchilik bu sharoitga berilgan strategik javob edi: xalqni qayta tarbiyalash, milliy o‘zlikni uyg‘otish, zamonaviy ta’lim orqali kelajakni qaytarib olish. Shu paytdan boshlab jadid adabiyoti va jadid pedagogikasi tarix sahnasiga chiqadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyati o‘z tarixining burilish nuqtasida turar edi. Bir tomondan, Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan harbiy, siyosiy va iqtisodiy bosqin natijasida yuzaga kelgan qaramlik, ekspluatatsiya va madaniy

kamsitilish; ikkinchi tomondan esa musulmon-sharq dunyosida kuchayib borayotgan o‘z-o‘zini isloh qilish ruhi, milliy uyg‘onish ehtiyoji, zamonaviy ilm-fan va ta’limga intilish. Ana shu qarama-qarshi jarayonlar tutashgan nuqtada jadidchilik harakati shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov, B. O‘zbek ma’rifatparvarligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.

2. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

3. Brower, D. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. – London: Routledge, 2003.

4. Abdullaev, S. Jadid maktablari va yangi pedagogik tafakkur. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

5. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 1913.

6. Allworth, E. A. Central Asia: One Hundred Thirty Years of Russian Dominance. – Duke University Press, 1994.

7. Carrère d’Encausse, H. Islam and the Russian Empire: Reform and Revolution in Central Asia. – University of California Press, 1988.

8. Ostroumov, N. P. Russkaya shkola v Turkestane. – Toshkent, 1895.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARIDA GIMNASTIK XARAKATLARNING DASTLABKI ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH

Abdullayev Oybek Kurbonovich
Qo‘qon davlat universiteti
“Jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarda gimnastikaning dastlabki harakat elementlarini shakllantirish jarayoni yoritiladi. Tadqiqotda bolalarning jismoniy rivojlanishi, motor ko‘nikmalarining takomillashuvi, harakat madaniyatini oshirish hamda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik yondashuvlar, metodik tavsiyalar va mashg‘ulotlarni tashkil etishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Natijalar erta yoshdagi bolalarda gimnastik harakatlarni o‘zlashtirish jarayonini yanada optimallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:gimnastika, maktabgacha ta’lim, harakat ko‘nikmalari, jismoniy rivojlanish, mashg‘ulot metodikasi, motor faoliyati, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik yondashuv, dastlabki elementlar

Аннотация.В статье рассматривается процесс формирования начальных элементов гимнастических движений у воспитанников дошкольных образовательных учреждений. Исследование посвящено развитию физических качеств детей, совершенствованию моторных навыков, повышению культуры движений и формированию интереса к здоровому образу жизни. Анализируются педагогические подходы, методические рекомендации и эффективные способы организации занятий. Полученные результаты способствуют оптимизации процесса освоения гимнастических движений детьми младшего возраста.

Ключевые слова:гимнастика, дошкольное образование, двигательные навыки, физическое развитие, методика занятий, моторная активность, здоровый образ жизни, педагогический подход, начальные элементы

Abstract. This article examines the process of developing basic elements of gymnastic movements in preschool educational institution pupils. The study focuses on enhancing children’s physical development, improving motor skills, fostering movement culture, and increasing interest in a healthy lifestyle. Pedagogical approaches, methodological

recommendations, and effective strategies for organizing training sessions are analyzed. The findings contribute to optimizing the acquisition of gymnastic movements among young children.

Keywords:gymnastics, preschool education, motor skills, physical development, training methodology, motor activity, healthy lifestyle, pedagogical approach, basic elements

KIRISH. Maktabgacha yosh davri bola organizmi jadal rivojlanadigan, uning jismoniy va psixologik imkoniyatlari faol shakllanadigan eng muhim bosqichlardan biridir. Ushbu jarayonda bolalarda harakat faoliyatining mazmunini to‘g‘ri yo‘naltirish va ularni asosiy gimnastik elementlar bilan tanishtirish katta ahamiyat kasb etadi. Gimnastik mashqlar nafaqat mushaklar kuchi, muvozanat va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantiradi, balki bolalarda irodaviy sifatlar, mustaqillik, o‘ziga ishonch va harakat madaniyatining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida gimnastika mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish pedagogdan puxta metodik yondashuv, yosh xususiyatlariga mos mashqlar tanlovi va xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilishni talab qiladi. Dastlabki gimnastik elementlarni o‘rgatish jarayonida o‘yin texnologiyalaridan, rivojlantiruvchi muhitdan va kichik guruhlarda ishlash usullaridan foydalanish esa bolalarning harakat faoliyatini yanada faollashtiradi.

Zamonaviy pedagogika yondashuvlari maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiya sifatini oshirish, bolalarning motor ko‘nikmalarini mustahkamlash va muntazam harakatga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishga qaratilgan. Shu bois mazkur tadqiqotda tarbiyalanuvchilarda gimnastikaning dastlabki elementlarini samarali o‘zlashtirishga yordam beruvchi pedagogik shart-sharoitlar, metodlar va amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Maktabgacha yoshdagi bolalarda gimnastik harakatlarning dastlabki elementlarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar turli mamlakatlarda izchil rivojlanib bormoqda. Jismoniy tarbiya metodikasi bo‘yicha nufuzli tadqiqotchilardan biri hisoblangan L. V. Volkov (Волков Л. В., 2002) o‘z ishlarida bolalarda motor rivojlanishning asosiy bosqichlarini yoritib, erta yoshda koordinatsiya va muvozanatni shakllantirishning alohida ahamiyatini ta’kidlagan. Uning fikricha, bolalarning tabiiy harakat faoliyatiga yaqin bo‘lgan gimnastika elementlari ularning jismoniy salohiyatini oshirishda muhim omildir.

A. A. Baranov va hamkorlarining tadqiqotlarida (Баранов А. А. и др., 2010) maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish dinamikasi chuqur tahlil qilingan bo‘lib, ular gimnastik mashqlar organizmning mushak-skelet tizimi, yurak-qon tomir faoliyati va nafas olish jarayonlarining mustahkamlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslashgan.

N. X. Jo‘rayevning "Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya" qo‘llanmasida (Jo‘rayev N. X., 2016) pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil etish, yoshga mos yuklama berish va mashqlarni soddadan murakkabga o‘tish prinsiplariga qat’iy amal qilish zarurligi ko‘rsatib

o‘tiladi. Muallif 3–7 yoshli bolalarda asosiy gimnastik elementlarni egallashni osonlashtiruvchi o‘yin texnikalari va innovatsion metodlardan foydalanish samarali ekanini asoslab beradi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlar ham ushbu yo‘nalishda muhim izlanishlarni o‘z ichiga oladi. Gallahue & Ozmun (Gallahue D., Ozmun J., 2006) tomonidan motor rivojlanishning nazariy asoslari yoritilgan bo‘lib, bolalarda harakat faoliyatining 60% dan ortig‘i maktabgacha yoshda shakllanishi ta’kidlanadi. Ularning fikriga ko‘ra, gimnastika bilan muntazam shug‘ullanish bola harakat madaniyatining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Williams & Monsma (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa shaxsiy motivatsiya va emotsional qo‘llab-quvvatlash gimnastik elementlarni tezroq o‘zlashtirishga yordam berishi qayd etilgan. Ularning izlanishlari o‘yin asosidagi mashg‘ulotlar bolalarning harakatchanlik darajasini oshirishi va murakkab elementlarni o‘zlashtirishga tayyorlashi bilan ajralib turadi.

Mahalliy ilmiy izlanishlar orasida O. Tursunov (Tursunov O., 2020) maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish samaradorligini tadqiq qilgan. Muallif bolalarda dastlabki gimnastik elementlarni shakllantirish uchun muvofiqlashtirilgan mashg‘ulot rejasi, rivojlantiruvchi muhit va o‘yin faoliyati asosiy vosita bo‘lishi kerakligini asoslaydi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar maktabgacha yoshda gimnastik elementlarni o‘rgatish jarayoni jismoniy rivojlanish, psixomotor ko‘nikmalar va harakat madaniyati shakllanishining muhim omili ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘yin texnologiyalarini qo‘llash, yosh xususiyatlariga mos yuklama berish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va pedagogning individual yondashuvi metodik jarayonning asosiy tarkibiy qismiga aylanganini ta’kidlash mumkin.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot davomida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bilan o‘tkazilgan gimnastika mashg‘ulotlarining samaradorligi bir nechta mezonlar asosida baholandi. Dastlabki bosqichda bolalarning muvozanatni saqlash, sakrash, tirmashish, egiluvchanlik va harakat koordinatsiyasi ko‘rsatkichlari kuzatildi. Mashg‘ulotlar tizimli yo‘lga qo‘yilgach, ushbu ko‘rsatkichlarda sezilarli o‘sish kuzatildi. Xususan, tarbiyalanuvchilarning 70 foizdan ortig‘i mashg‘ulotlar davomida bazaviy gimnastik elementlarni aniqroq va ishonchli bajarishni boshlagan bo‘lsa, harakat faoliyatining davomiyligi va sifatida ham ijobiy dinamikalar qayd etildi.

Mashqlarni o‘yin texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish natijasida bolalarning darslarga bo‘lgan qiziqishi ortdi, faol ishtirok etish darajasi ko‘tarildi va ularning emotsional holatida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Bu esa o‘z navbatida o‘rgatilayotgan elementlarning tezroq o‘zlashtirilishiga yordam berdi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, o‘yin asosidagi yondashuv bolalarni erkin harakat qilishga, o‘ziga ishonchini mustahkamlashga va mashqlarni tabiiy ritmda bajarishga undaydi.

Pedagoglar tomonidan individual yondashuvning qo‘llanishi ham sezilarli natija berdi. Har bir bolaning jismoniy tayyorgarlik darajasi, psixologik holati va qiziqishiga mos mashqlar tanlanishi ularning rivojlanish sur’atini oshirdi. Guruh va juftlikda bajariladigan mashg‘ulotlar esa ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoaviy ish va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi. Ko‘rsatmalarni bosqichma-bosqich soddadan murakkabga o‘tkazish metodikasi esa harakatlarning sifatli bajarilishini ta’minladi.

Tadqiqot jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, to‘g‘ri tashkil etilgan jismoniy muhit va mos jihozlardan foydalanish mashg‘ulotlarning samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Shuningdek, muntazam ravishda rag‘batlantiruvchi pedagogik usullar qo‘llanilganda bolalarda gimnastik elementlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki motivatsiya yanada kuchaygani kuzatildi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan kuzatuv va tahlillar gimnastik harakatlarning dastlabki elementlarini o‘rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida muhim omil ekanini tasdiqladi. Tizimli mashg‘ulotlar, o‘yin faoliyati, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va xavfsizlik talablariga qat’iy amal qilish natijada yuqori sifatli pedagogik jarayon shakllanishiga xizmat qildi. Tadqiqotdan olingan ma’lumotlar gimnastika mashg‘ulotlarini yanada takomillashtirish, metodik qo‘llanmalarni boyitish va ta’lim jarayoniga moslashtirilgan yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida gimnastik harakatlarning dastlabki elementlarini shakllantirish jarayoni bolalarning umumiy jismoniy rivojlanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Tizimli tashkil etilgan mashg‘ulotlar, yosh xususiyatlariga mos yuklama, o‘yin texnologiyalaridan foydalanish va individual yondashuv — bolalarning motor ko‘nikmalarini rivojlantirishda eng samarali omillar ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuvlar nafaqat harakat sifati va koordinatsiya ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga, balki bolalarda o‘ziga ishonch, mustaqillik, faol harakatga bo‘lgan qiziqish va sog‘lom turmush tarziga intilishning kuchayishiga ham xizmat qildi.

Tadqiqot davomida bolalarning muvozanat, chaqqonlik, egiluvchanlik va kuch talab qiluvchi mashqlarni bajarish darajalarida sezilarli ijobiy natijalarga erishildi. Bu jarayon pedagogik faoliyatning puxta rejalashtirilishi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi va rivojlantiruvchi muhitning to‘g‘ri tashkil etilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, o‘yin asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirgan va o‘rgatilayotgan elementlarni tezroq o‘zlashtirishga yordam bergan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari gimnastik harakatlarning dastlabki elementlarini erta yoshdan boshlab o‘rgatish maktabgacha ta’lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur sohada ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, mashg‘ulotlar modeli va pedagogik yondashuvlar kelgusida ta’lim amaliyotini takomillashtirish, jismoniy

tarbiya dasturlarini boyitish hamda sog‘lom, faol va harakatchan avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Волков, Л. В. (2002). *Теория и методика физического воспитания*. Москва: Академия.
2. Баранов, А. А., Кучма, В. Р., & Шахт, С. М. (2010). *Физическое развитие детей и подростков*. Москва: ГЭОТАР-Медиа.
3. Жўраев, Н. Х. (2016). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya*. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Gallahue, D., & Ozmun, J. (2006). *Understanding Motor Development: Infants, Children, Adolescents, Adults*. New York: McGraw-Hill.
5. Payne, V., & Isaacs, L. (2017). *Human Motor Development: A Lifespan Approach*. New York: Routledge.
6. Abdullayev,O.(2022)Jismoniy ta’limda o‘quvchilarning ruhiyatini tarbiyalash va irodasini mustahkamlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon asoslari. Xalq ta’limi, 6-son. -85-90 betlar

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

USERBAY ALEUOVNING TA’LIMIY-TARBIYAVIY, MA’NAVIY VA ESTETIK TADQIQOTLARIGA OID QARASHLARI

Kosbergenov Baxram Maxsetbaevich
Ajiniyoz nomidagi NDPI o‘qituvchisi, p.f.b.f.d (PhD)
E-mail: qosbergenovbahram43@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada asosan professor Userbay Aleuovning ta’limiy-tarbiyaviy, ma’naviy va estetik tadqiqotlariga oid qarashlari haqidagi fikrlari ifodalangan.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, tarix, ta’lim-tarbiya, metod, o‘zlikni anglash, milliylik, qadriyat, pedagogik maxorat, texnologiya, etika, estetika.

Аннотация. В статье в основном изложены взгляды профессора Усербая Алеуова на его образовательные, воспитательные, духовные и эстетические исследования.

Ключевые слова: Патриотизм, история, образование и воспитание, метод, самосознание, национальность, ценности, педагогическое мастерство, технология, этика, эстетика.

Abstract. The article mainly expresses Professor Userbay Aleuov's views on educational, spiritual, and aesthetic research.

Keywords: Patriotism, history, education, method, self-awareness, nationality, values, pedagogical skills, technology, ethics, aesthetics.

Kirish. Qoraqalpog‘iston Respublikasiga xizmat ko‘rsatgan ilm fidoyisi, pedagogika fanlari doktori, professor U.Aleuov ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlarida pedagogika tarixini o‘rganish zarurligiga alohida ahamiyat qaratdi. Uning fikricha: xalqning asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan ma’naviy qadriyatlari va ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari tarixdagi bu sohadagi yutuqlar, hozirgi davrdagi kreativ g‘oyalarga intilishlar bilan jibslashib turadi. Shu orqali davr nafasini o‘ziga singdirib, fikr yuritishga, jamiyatning ta’lim-tarbiya berish sohasidagi maqsadini to‘g‘ri tushinishga imkoniyat tug‘dirib, o‘tmishdagi ta’lim-tarbiyaviy fikrlarni o‘rganish faqat bilish qarashidangina emas, mutahassisda dunyoqarashni shakllantirish ahamiyatiga ham ega ekanligini aytib o‘tgan.

Metodologiya (Methods). Tadqiqot davomida quyidagi uslublar asos qilib olindi:

- Dialektik yondashuv: tabiat, jamiat va bilish taraqqiyoti yo‘lida bahs-munozara olib borishadi.

- Ilmiy bilish yondashuvi: bu usul orqali bilimlar majmui va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo‘l ko‘rsatiladi.

- Axloqiy-falsafiy yondashuv: tarixiy namoyondalar va qahramonlarning harakati va orqali badiiy saboq yoritiladi.

U.Aleuov quyidagi darsliklar, dasturlar va qo‘llanmalarda pedagogika, didaktika, psixo-pedagogika va etnopedagogika sohalaridagi masalalarga yechimlar taqdim etgan:

“Xalq pedagogikasida yoshlarga aqliy tarbiya berish an’analari” (monografiya);

“Kasbiy pedagogika” (darslik);

“Pedagogik amaliyot – kasbiy rivojlanishning asosiy bosqichi” (qo‘llanma);

“Pedagogikaning tarixi” (darslik);

“Pedagogikaning tarixi” (qo‘llanma);

“Qoraqalpog‘istonda pedagogik fikrlar tarixi” (qo‘llanma);

“Qoraqalpoq bolalar adabiyoti” (dastur);

“Mavaronnahr xalqlarining pedagogikasi” (dastur);

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun maktabgacha ta’lim kontsepsiyasi” (dastur).

Shuningdek, U.Aleuov pedagogik faoliyatdan tashqari avval etishmagan adabiyotlarni tarjima qilish, tahrir va nashrga tayyorlashda 32 ta kitobga mehnati singan.

Professor U.Aleuov ta’lim-tarbiyaviy, ma’naviy va estetik sohalarda o‘zining chuqur va tizimli tadqiqotlari bilan tanilgan olimdir. Uning tadqiqotlari, asosan, yosh avlodni tarbiyalash, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish va estetik rivojlanishni ta’minlash borasida keng ko‘lamli nazariy va amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim-Tarbiyaviy qarashlar: U.Aleuov ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri sifatida shaxsni kamolotga yetkazish va uning ijtimoiy hayotga moslashishini ta’minlashni ko‘radi. U pedagogik jarayonni nafaqat ilmiy asosda, balki axloqiy va ma’naviy qadriyatlar nuqtai nazaridan ham tahlil etadi. Aleuov yoshlarning ma’naviy rivojlanishini ularga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan, o‘ziga xos pedagogik tizim orqali amalga oshirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tarbiya jarayonida o‘qituvchilar faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning ruhiy va ma’naviy kamolotiga hissa qo‘shadigan shaxslar bo‘lishi kerak [1,503].

Ma’naviy Qarashlar: Aleuovning ma’naviy qarashlari, avvalo, insonning ichki dunyosini shakllantirishga, uning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Uning tadqiqotlarida ma’naviyatning pedagogik jarayondagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. U o‘quvchilarning ruhiy olamini rivojlantirishda xalq pedagogikasining o‘rni katta ekanligini ko‘rsatadi. Professor, ma’naviyatni yoshlarni vatanparvarlik, axloqiy fazilatlar, shaxsiy erkinlik va hamjihatlik kabi qadriyatlar bilan bog‘laydi. U yosh avlodni dunyoqarashlarini kengaytirish va ularga ma’naviy yuksalishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatishda pedagogik faoliyatni muhim vosita deb hisoblaydi.

Estetik Qarashlar: U.Aleuovning estetik tadqiqotlari, asosan, yoshlarni estetik idrokni rivojlantirish va san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan. Uning

fikricha, estetik tarbiya o‘quvchilarning go‘zallikni his qilish va yaratish qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Professor estetik tarbiya orqali yoshlarni yuksak madaniy qadriyatlarga jalb etish, ularda go‘zallik tuyg‘usini va turli san’at turlariga qiziqishni uyg‘otishning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Estetik tarbiya shaxsni nafaqat visual va estetik sezgilari orqali, balki uning umumiy rivojlanishi, axloqiy va ma’naviy shakllanishi bilan ham bog‘liq deb hisoblaydi [2,24].

Professor U.Aleuovning ta’limiy va ma’naviy-estetik qarashlari pedagogikaning barcha jihatlarini qamrab oladi hamda yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda, shuningdek, ularning ma'naviy-estetik va axloqiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Uning ilmiy merosi nafaqat ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga, balki yoshlarning shaxsiy kamoloti va ma’naviy yuksalishiga hissa qo‘shishga yo‘naltirilgan. Bu tadqiqotlar hozirgi ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarida amaliy qo‘llanmalarga ega bo‘lib, pedagogik nazariyani rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Professor U.Aleuovning tadqiqot yo‘nalishlari:

A) Pedagogika tarixiga oid asarlari “Kúnxojanıń pedagogikalıq qaraslari”, “Berdaqtıń pedagogikalıq qaraslari”, “Djumek Urumbev”, “Обещственно-педагогические взгляды Ажинияза”, “Об общественно - педагогических взглядов аль - Беруни”, “ Педагогические взгляды Абу Абдуллаха Рудаки”, “Общественно - педагогические взгляды Абдикадира Бекимбет улы”, “Общественно - философские и педагогические взгляды Утеша”, “Общественно – философские и педагогические взгляды Умар шаира”, “Педагогические взгляды Мухаммеда ибн Абдуллы”, “Аль Беруни о воспитании и обучении ”, “Педагогические взгляды и просветительская деятельность С.Мажитова”, “Общественно - педагогические взгляды Мирзо Улугбека”, “Методические учения Бурхониддина Зарнуджи - один из идейных источников творчества М.Улугбека”, “Педагогические концепции Юсуфа Хас Хаджиба”, “Народные традиции воспитания в творчестве Абу Абдуллаха Рудаки”, “Деятельность Ж.Урунбаева в педагогических исследованиях”, “Педагогические взгляды А.Авлониа и С.Мажитов”, “Просветительские мысли Омара Суйирбек улы”, “Общественно-педагогические взгляды Асана кайгы”, “Общественно-педагогические взгляды Сопбаслы Сыпыра жыраua”, “Общественно-педагогические взгляды острослова Жиренше”;

B) Etnopedagogikaga oid asarlari “Фольклор и каракалпакская народная педагогика”, “Вопросы экологического воспитания в народной педагогике”, “Некоторые вопросы народной педагогики”, “Xalq pedagogikasi yoshlarni insoniylikka tarbiyalash xususida”, “Xalq pedagogikasida insoniylik tarbiyasi”, “Folklor – xalıq pedagogikasınıń tiykarǵı deregi”, “Xalq pedagogikasida yoshlarni mehnatga tarbiyalash an’analari”, “Xalıq pedagogikasında jaslarǵa astronomiyalıq bilim beriw dástúrleri”,

“Методы усовершенствования мышления детей в народной педагогике”, “Этнопедагогика и ее своеобразие”;

V) Estetikaga oid asarlari “Об эстетических взглядах Бердаха”, “Дух поэзии Ажинияза”, “Эстетические взгляды Камалатдина Бехзада”, “Эстетическое воспитание молодежи в народной педагогике”, “Музыка и эстетическое воспитание”, “Музыка ҳәм эстетикалық тәрбия”;

G) Jismoniy tarbiyaga oid asarlari “Бердах о физическом воспитании молодежи”, “Jaslar tárbiyasında xalıq oyınlarınan paydalanıwda innovacion usıllar”;

D) Diniy tarbiyaga oid a sarlari “Пророк Мухаммед о воспитании”, “Суфизм и педагогические идеи Хожа Ахмада Яссавий”, “Религия и воспитание молодежи”, “Kámil insan tárbiyasındaǵı diniy ádep-ikramlılıq talapları”;

E) Ma’naviyatga oid asarlari “Использование национальных ценностей в педагогике”, “Духовность – бесценное богатство”, “Еще раз о духовности”, “Принципы формирования культурно - духовных ценностей личности”, “Характеристика понятия «национальные культурно - духовные ценности» личности”, “Ájiniyaz dóretiwshiliginde jan hám tán mashqalaları”, “Sufi Allayor ijodida komil inson tarbiyasi masalalari”, “Авеста” и вопросы истории дух0вного воспитания народов Средней Азии”;

J) “Uning ekologik ta’limga bag‘ishlangan asarlari orasida quyidagilarni alohida ta’kidlash mumkin: «O‘rta Osiyo xalqlarida tabiatni muhofaza qilish an’analari va ekologik tarbiya», «Qoraqalpoqlarda yoshlarni ekologik tarbiyalash an’analari», «Ekologiya: muammolar va ularning mumkin bo‘lgan yechimlari», «Ekologik tasavvurlar shakllanishining dastlabki bosqichlari [3,].

Z) Psixologiyaga oid asarlari “Психологические взгляды С.Мажитова”, “Alg‘azı Bekbasov-Qaraqalpaqstandag‘ı tuńg‘ısh psixolog alım”, “Berdaqtıń psixologiyalıq kózqarasları”, “Etnopsixologiya–jaslarımızg‘a milliy tárbiya beriw deregi”, “Milliy tárbiya hám milliy psixologiyanıń bazıbir máseleleri”, “Qaraqalpaq xalqınıń psixologiyalıq ózine tánlikleri”, “Qaraqalpaq xalqındag‘ı milliy tárbiya hám milliy psixologiya mashqalaları”;

I) Aniq fanlarga oid asarlari “Становление арифметических пониятий в народной педагогике”, “Игра “Тогыз кумалак” и его воспитательное значение”, “Астрономические знания народа”, “Balalar oyını hám onıń tárbiyalıq áhmiyeti”, “Mental arifmetikası haqqında bazı bir pikirler”, “«Bes tas» («Beg tash») oyını hám onıń balalarda arifmetikalıq ámellerdi qollanıwdı rawajlandırıwdaǵı áhmiyeti”, “«Toǵız qumalaq» - qaraqalpaq xalqınıń matematikalıq oyını”, “Xalıqtıń jaslarǵa ólshem birliklerin úyretiw dástúrleri”, “Xalıq oyınlarınıń biri «shúllik» oyınınıń esap-kitapqa úyretiliwi”, “Esap-sanaqtı rawajlandıratuǵın xalıq oyınları”, “Kishi jastaǵı balalardı sanawǵa úyretiw mashqalaları”, “Kishi jastaǵı balalar ushın esap-sanaq oyınlarınıń áhmiyeti”, “Qaraqalpaqstanda dáslepki ximiyalıq bilimlerdiń payda bolıwı”;

K) Odob-axloqga oid asarlari “Oliy talim muossasalarida odob-axloq munosabatlarini yangilash – davr talabi”, “Oliy talimdagi odob-axloq tarbiyasining ayirim masalalari”;

L) Tibbiyotga oid asarlari “Xalıq medicinasında jaslarǵa tálim tárbiya beriwde tut ósimliginiń shıpalı qasiyetleri”, “Xalıq medicinasında jaslarǵa tálim tárbiya beriwde túrpi ósimliginiń shıpalı qasiyetleri”;

M) Huquqga oid asarlari “Вопросы правового воспитания молодёжи в произведениях Президента И.А. Каримова”, “Вопросы правовой культуры молодежи в произведениях президента И.А. Каримова”, “Воспитание молодежи в произведениях Президента И.А. Каримова”;

N) Didaktikaga oid asarlari “«Моодлийе имс» масофавий ўқитиш тизимидан талабалар мустақил таълимини ташкил этиш”, “Оқыушыларды шолкемлестириу ҳám озин - ози басқарыу ислерине қáлиплестириудин базы бир мáселелери”, “Педагогнинг тарбия жараёнидаги маҳорати ”, “Жана педагогикалық технология – оқытыу теориясın ҳáрекетке келтириуши куш”, “Интерактивные методы обучения”, “Информационная технология в процессе обучения”, “Источники познания и критическое мышление”, “Технологии логического мышления у учащихся” [4].

Xulosa. Professorning ilmiy yondashuvlari pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish, yosh avlodning intellektual va axloqiy tarbiyasini takomillashtirish hamda milliy ta’lim tizimini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ta’lim jarayonida, pedagogik tadqiqotlarda va amaliyotda foydalanilishi lozim. U.Aleuovning ilmiy va pedagogik faoliyati milliy ta’lim tizimining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shib, kelajak avlod tarbiyasida muhim metodologik asos yaratdi. Shunday qilib, uning asarlari va pedagogik qarashlari ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash borasida muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Әлеуов Ө. Қарақалпақстанда тәлим-тәрбиялық ойлардың қәлиплесиўи ҳәм раўажланыўы. – Нөкис: Билим, 1993. – 503 b.
2. Алеўов Ў. Қадимий Урта Осиё халқларининг педагогик қарашлари. – Нукус: Билим, 1987. 24 b.
3. Әлеўов Ө. XIX әсирдин ақыры – XX әсирдин басындағы қарақалпақ әдебиятындағы ағартыўшылық пикирлер. – Нөкис: Қарақалпағыстан, 1992. 3 b.
4. https://new.tdpu.uz/inc/page/avtoref/Utebayev.pdf

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TARBIYACHINING TARBIYALANUVCHILAR BILAN O‘ZARO MUNOSABATLARGA XOS XUSUSIYATLAR

Bozorova Zuhraxon Jo‘rayevna,
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi muloqotning psixologik-pedagogik xususiyatlari tizimli tahlil etiladi. Unda muloqotning verbal, noverbal va paralingvistik shakllari bola rivojlanishidagi o‘rni bilan bog‘liq holda ilmiy asoslab berilib, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning maktabgacha ta’limdagi ahamiyati turli olimlar qarashlari asosida yoritilgan. Shuningdek, tarbiyachi kommunikativ kompetensiyasining bolalar shaxsiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sir mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: muloqot, tarbiyachi, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kommunikativ kompetensiya, psixologik rivojlanish, pedagogik ta’sir.

Аннотация. В данной статье проводится системный анализ психологических и педагогических особенностей общения между воспитателем и воспитанником. В работе научно обоснована роль вербальных, невербальных и паралингвистических форм общения в развитии ребенка, а также раскрыта значимость личностно-ориентированного подхода в дошкольном образовании на основе взглядов различных ученых. Кроме того, подробно рассматриваются механизмы влияния коммуникативной компетентности воспитателя на личностное, эмоциональное и социальное развитие детей.

Ключевые слова: общение, воспитатель, личностно-ориентированный подход, коммуникативная компетентность, психологическое развитие, педагогическое воздействие.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the psychological and pedagogical characteristics of communication between the educator and the child. It scientifically substantiates the role of verbal, nonverbal, and paralinguistic forms of communication in child development and highlights the importance of the learner-centered approach in preschool education based on various scholars’ perspectives. In addition, the mechanisms through which the educator’s communicative competence influences children’s personal, emotional, and social development are thoroughly examined.

Keywords: communication, educator, learner-centered approach, communicative competence, psychological development, pedagogical influence.

KIRISH.Mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimiga qo‘yilgan talablar insonparvarlikka asoslangan yangicha yondashuvlarni taqozo qilmoqda va ilgari surmoqda. Bu yondashuv har bir tarbiyalanuvchining shaxsiyati, qiziqishlari, ehtiyojlari va axloqiy sifatlarini teran tushunish, ularni hurmat qilish orqali ta’lim-tarbiya jarayonni tashkil etishga qaratilgan. Mazkur jarayonda tarbiyachi-pedagogning roli bag‘oyat ahamiyatli bo‘lib, uning bolalar bilan samarali munosabatni yo‘lga qo‘yish qobiliyati kasbiy shakllanishining asosiy omillaridan sanaladi. Hozirgi paytdagi amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan ko‘plab pedagoglar bolalar bilan o‘zaro munosabatlarda, muloqot borasida muayyan muammolarga duch kelishmoqda. Jumladan, bolalar bilan muayyan vaziyatlarda ishonchli aloqa o‘rnatishda, ularning ruhiy holatini tushunishda, munosabatlarni vaziyatga ko‘ra muvofiqlashtirishda yoki mashg‘ulotlarda muloqotni to‘g‘ri tashkil etishda qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Bu esa tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hamkorlik maqsadga muvofiq tarzda yo‘lga qo‘yishda salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Tadqiqotchilar F.T. Ma’murova, N.X. Abdullayevalar fikricha, tarbiyachi bolalarga “…ta’lim beradi, pedagogik ta’sir ko‘rsatadi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuksak e’tiqodni shakllantiradi, ijobiy axloqiy sifatlarni tarkib topdiradi. Lekin institutni tamomlab pedagogik faoliyatga yo'llanma olayotgan barcha talabalarni ham muloqot madaniyatini puxta egallagan, o‘z fikrini boshqalarga erkin bayon qila oladigan,sof adabiy tilda so‘zlaydigan mutaxasislar bo'lib yetishyapti, deb ayta olmayamiz. Shunday ekan, talabalarda muloqot madaniyatini, ayniqsa, pedagogik muloqotni tarbiyalash pedagogika institutlaridagi ta’lim tizimining ajralmas qismi, eng muhim vazifalaridan biri bo‘lishi lozim”[1,240]. Shundan kelib chiqilsa, pedagogning kasbiy malakasini yuksaltirish, uning pedagogik muloqot mahoratini oshirish, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va hissiy intellektini mustahkamlash kabi jihatlar ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini tayin etuvchi muhim omillar qatoriga kiradi.

METODLAR

Mazkur muammoning ilmiy talqini ijtimoiy psixologiyaga oid adabiyotlarda umumiy xarakterda nazariy jihatdan yoritib berilgan. Bu umumlashma fikrlarni muloqot bilan bog‘liq hamma jarayonlarga, jumladan, maktabgacha ta’lim sohasi uchun mutaxassis tayyorlashda bo‘lajak faoliyatni ko‘zlab tatbiq qilish mumkin. Avvalo respublikamizdaggi yetakchi psixolog Ergash G‘oziyevning “Sotsial psixologiya” [2] nomli o‘quv qo‘llanmasidagi muloqotning genezisi, muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni, muomalaning psixologik kategoriya sifatidagi ahamiyati masalalri yoritilgan qism matodologik asos mavqeyida deyish mumkin.

Voris Ahrorovning ayni shu nomdagi o‘quv qo‘llanmasida shaxslararo psixologik ta’sirning verbal, paralingvistik hamda noverbal shakllari to‘g‘risida fikr yuritiladiki [3,80], ular kichik yoshdagi bolalar tarbiyasi jarayoniga tayyorlanayotgan talabalar uchun muhimdir. Bu uchala shakl tarbiyachi faoliyatida har kuni: bolalarni qabul qilib olishda, mashg‘ulotlar

davomida, uyquga yotqizishda, sayrda, frontal va individual faoliyatda, uyga kuzatayotganda – barcha jarayonlarda pedagog tomonidan qo‘llanadi. Ayni paytda ular qaysidir holat, kechinma ifodasi o‘laroq bolalarda ham namoyon bo‘ladi. V.M. Karimova, O.E. Hayitov, N.SH. Umarova hammuallifligidagi darslikda keltirilishicha, “Muloqot shunchalik ko‘p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o‘zida quyidagilar kiradi: a) individlarning o‘zaro ta’sir jarayoni; b) individlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni; v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni; g) bir kishining boshqalarga ta’sir ko‘rsatish jarayoni; d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati; e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni” [4,51].

Biz so‘z yuritayotgan mavzu yuzasidan rus maktabgacha ta’lim pedagoglarining tadqiqotlari dunyoda keng e’tirof topgan.

Rus (sobiq sho‘ro) olimi L.S. Vygotskiy [5], shveysariyalik J.Piaget (Piaje) [6] hamda avstriyalik Z.Freyd [7] tarbiyachi-pedagogning tarbiyalanuvchi bilan muloqoti bolaning har tomonlama: aqliy-intellektual, ma’naviy, xususan, ruhiy takomilida ulkan ahamiyat kasb etishini ta’kidlaganlar. Ayniqsa, bular qatorida birinchi tilga olingan olimning qarshlari g‘oyatda ahamiyatli. U bilishga intilish (faollik), predmetli faoliyatni o‘zlashtirish, nutq rivojlanishi, bolaning o‘zidan kattalar bilan munosabati bolaning ruhiy, aqliy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi aspektlar sifati deb biladi [5,118]. M.Lisina esa bu borada hissiy munosabatlarga katta e’tibor qaratadi. Bu qarashda, bizningcha, jo‘yali yondashuv bor: muloqot ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, uning zamirida kattalarning bola bilan munosabatlari va faol murojaatlari yotadi. Mazkur jarayonda bola beixtiyor kuzatish, diqqat qilish, mexanik xotira, reaksiya bildirish kabi qobiliyatlar shakllana va rivojlana boradi. Aytilganlardan tarbiyalanuvchilar bilan muloqot quyidagi uch sifatlarni ularda shakllantiradi deb umumlashtirish mumkin:

*o‘zi mansub bo‘lgan muhitdagi insonlar bilan muloqotga kirisha bilish;

*munosabatga kirishgan insonlar obrazini xotirada saqlab qolish;

*o‘zini shaxs sifatida taniy bilish – “Men”ini anglash.

Pedagogikaga “bolalar bog‘chasi” tushunchasini olib kirgan Fridrix Frobel fikricha, pedagog o‘z tarbiyasi ostidagilar hayotini mazmunan boyitishi lozim. Metodist olim Valijon Kadirovning darsligida bu taniqli nemis pedagog olimi bolaning hamma narsani yaxshilab ko‘rib olishi, kuzatishi, tarbiyachi esa unga ana shu ko‘rgan, kuzatganlarini to‘laqonli o‘zlashtirishi uchun zarur bo‘lgan lug‘at zaxirasini berishi muhim deb bilishi keltirilgan. Unga ko‘ra so‘z nafaqat obyektlarning o‘zini, balki ularning xususiyatlarini, sifatlarini, narsalarning bir-biriga munosabatini ifodalashi kerak [8,25]. Bu esa muloqot va boshqa munosabat shakllari oprqali amalga ishiriladi.

NATIJALAR

Zamonaviy MTTlardagi pedagogik jarayonni yo‘lga qo‘yish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya yondashuvlarini, pedagogik tyexnologiyalarni taqozo qilmoqdi. Bu ehtiyoj tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muloqot, munosabat strategiyalarini tahrir qilish,

bolalar yoshi, qiziqishlari, xohish-istaklari va imkoniyatlarini inobatga olish, MTTdagi rivojlanish markazlaridagi faoliyat turlarida, sayrda, oshxonada, mehnatga jalb qilishda, maishiy muloqot jarayonida, o‘yinlarda keng aspektli hamkorlik amaliyotini yuzaga chiqaradi. Shundan kelib chiqsak, mazkur texnologiyalarni belgilash strategiyasi markaziy obyekt bo‘lgan bolaning rivojlanishiga omil bo‘ladigan yagona maqsadga yo‘naltirilgan shaklan xilma-xil ta’im-tarbiya muhitini yaratishni nazarda tutadi. Bir necha yillar bo‘ldiki, mamlakatimizda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalariga ayricha e’tibor berilayotgani bejis emas. Yurtimizda chop etilgan ushbu mavzudaggi pedagogik adabiyotlar ichida J.Yo‘ldoshev, S.Umarovlarning “Pedagogik texnologiya asoslari” qo‘llanmasi [9] keng e’tirof qilib kelinadi. Albatta, pedagogik muloqot, o‘zaro ta’sir mexanizmi samarali bo‘lishi uchun tarbiyachi, jumladan, ushbu kasb amaliyotiga boradigan talaba albatta ta’lim yoki tarbiya texnologiyalarning maktabgacha ta’limga tatbiq qilish yo‘l-yo‘riqlarini, ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tatbiq qilish mexanizmini puxta egallagan bo‘lishi lozim. Aynan shu masala - maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida tarbiyalash bilan bog‘liq fikrlar dunyoning mashhur olimlari - Y.A. Komenskiy [10], M. Montessori [11] asarlarida ham tavsiflangan. Ularning qatoriga yuqorida tilga olganimiz F.Frebelni ham qo‘shish mumkin. Bu olimlarning qarashlaridagi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv mohiyati:

- ta’limning tabiiy borliq – tabiatga moslik tamoyili asosiga quriladi;
- bolani insoniyat erishgan madaniyatiga jalb qilish orqali rivojlantirish markazga qo‘yiladi;
- tarbiyalanuvchining betakrorligi, o‘ziga xosligini tan olish orqali unga yondashiladi.

O‘zbek hamda xorij olimlarining shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning yetakchi mexanizmlari borasidagi qarashlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

-kerakli o‘rinda bolalarni pedagogik qo‘llab turish;

-muloqotli yondashuvni tizimli olib borish;

-har bir bolani alohida subyekt sifatida tan olish, harakatlarini rag‘batlantirib borish;

-ta’lim va tarbiyada differentsiatsiya va individuallashtirishni nazardan chetda qo‘ymaslik.

Mazkur mexanizmda keltirilgan har bir bandni izohlaylik.

Birinchisi – kerakli o‘rinda bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlab turish orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirish - bu bolaga o‘zini erkin ifoda etish, fikrini aytish, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. U o‘z qadrini sezadi, ijtimoiylashuvi tezlashadi, o‘ziga ishonch ortadi.

2. **Muloqot madaniyatini shakllantirish –** bola o‘rtoqlari o‘zaro aloqada muomala qilish taomillarini: navbat kutish, eshitish, hamkorlik qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi. Tarbiyachi kerakli vaqtda yo‘llab turadi.

3. **Faoliyatga faol jalb qilish va buni rag‘batlantirish –** ba’zi bolalar ayrim sabablarga (sust xarakteri yoki tortinchoqligi bois) passiv bo‘lishi mumkin. Pedagog ularni vaziyatdan kelib chiqib, o‘ziga mos shaklda faoliyatga jalb qiladi, bunga qulay sharoit yaratadi. Bu bolada faoliyat uchun motivatsiyani yuzaga keltiradi.

4. **Muammoli vaziyatlardan chiqishga o‘rgatish – bolalararo m**uloqotda yoki o‘yin davomida nizolar yoki kelishmovchiliklar bo‘lishi tabiiy. Tarbiyachi bunday hollarda aralashib, muammoni hal etishda yo‘l ko‘rsatadi, ularga to‘g‘ri muloqot kelishib ish ko‘rishni o‘rgatadi.

5. **Shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash - p**edagogik qo‘llab-quvvatlash orqali bolalar bir-birini tushunish, hurmat, inoqlik, do‘stlik, o‘zaro yordam kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydilar.

Ko‘rinadiki, pedagogik qo‘llab-quvvatlash – tarbiyachi tomonidan vazyatdan kelib chiqib bolani kerakli nuqtaga **yo‘naltirish, faoliyatlarda ishtirokini ta’minlash va ijtimoiy-psixologik rivojlanishga sharoit yaratishdir.**

Mexanizmdagi **ikkinchi** – muloqotli yondashuvni tizimli olib borish quyidagilar uchun manfaatli bo‘ladi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni markaziy o‘ringa qo‘yadi va bunda –

har bir bolaning yoshi, qiziqishi, fe’l-atvori va ehtiyojidan kelib chiqib muloqotga kirishish nazarda tutiladi;

bola o‘zini tushunilgan va qadrlangan deb his qilishi orqali sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratiladi.

2. Muloqot orqali o‘rganish va rivojlanishga e’tibor va bunda tizimli muloqot bolaga –

ona tilini sifatli o‘zlasahtirishni qo‘llab-quvvatlaydi;

muloqotda o‘z fikrini ifoda etish ko‘nikmasini tarbiyalaydi;

nutqiy kompetensiyalardan bo‘lgan tinglash va javob qaytarishni rivojlantiradi;

so‘zlaganda hissiy ifodani yuzaga chiqara oladi va boshqalarni to‘g‘ri tushunadi.

3. Tarbiyachi va bola o‘rtasida barqaror pedagogik munosabat shakllanadi –

bolaning pedagogni o‘ziga yaqin inson deb biladi, unga bo‘lgan ishonchi ortadi;

ular o‘rtasida turli faoliyatda izchil muloqot yuzaga keladi, bu esa bolaning o‘zini erkin tutishiga olib keladi.

4. Kundalik hayotda boladagi faollik va mustaqillik rivojlantiriladi, bunda -

muloqot faqat rasmiy munosabat shaklida emas, balki erkin harakat, fikrlashga, savol berish, tanlov qilishga undash vositasi bo‘ladi;

maqsadli muloqot orqali bola ta’lim-tarbiya jarayoning faol subyektiga aylanadi.

5. Ijtimoiylashuvga ko‘mak ko‘nikmasi rivojlanadi, ya’ni –

bola MTTdagi tengdoshlari, kattalar bilan muloqot orqali jamiyatdagi qoidalar, me’yorlar, hamkorlik va empatiya kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi.

Muloqotli yondashuvni tizimli olib borish – bolani davomli har tomonlama rivojlantirish omili deyish mumkin. U bolaning nutqiy, emotsional va ijtimoiy jihatdan sog‘lom shakllanishini ta’minlaydi. Pedagog uchun esa bu jarayonni rejalashtirish, kuzatish va o‘zgartirish imkonini beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning yetakchi mexanizmlaridan **uchinchisi** – har bir bolani alohida subyekt sifatida tan olish, harakatlarini rag‘batlantirib borish bo‘lib, uning mohiyati bolani **o‘z fikriga, qaroriga, tashabbusiga ega mustaqil shaxs sifatida** tarbiyalash, faoliyatlariga doim ham **yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmasdan avval hurmat bilan quloq solish**dir. Bu faqat psixologik qo‘llab-quvvatlashgina emas, ayni paytda bolaning **ichki irodasi, shaxsiy tashabbuslari va tanlovlariga e’tibor berish**ni anglatadi. Unga amal qilinsa, quyidagi amaliy natijalarga omil bo‘ladi:

1. **Bolani alohida subyekt sifatida tan olish, ya’ni uning fikriga qiziqish bilan munosabatda bo‘lish. Bu orqali -**

kichkintoyning har bir fikri, savoli yoki tanlovi ahamiyatli deb qabul qilinadi;

tarbiyachi uning tanlovini inobatga olib, bunga javoban faoliyat shaklini kelishgan holda o‘zgartirishi mumkin.

2. Tarbiyalanuvchida ichki motivatsiya barqarorligiga erishish. Bunda -

bola rag‘bat uchun emas, balki shaxsiy qiziqishlari va istagi bilan faoliyatga kirishganda, bu uning shaxs sifatida shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi;

rag‘batning ifodasi ham o‘ziga xos bo‘lishi maqsadga muvofiq, masalan: “Senday shunday ajoyib fikrlar chiqadi!”, “Shunday javobingni kutgan edim” kabi.

3. Bola tomondan bildirilgan t**ashabbusni quvvatlash va rivojlantirish. Bunda-**

ko‘rsatilgan faollikni qo‘llab-quvvatlashning ma’nosi shuki, uni amalga oshirishni **bolaning o‘ziga qo‘yib beriladi.**

4. **Muayyan hayotiy vaziyatlarda va faoliyatda bolani tan olish, unga ishonch bildirish orqali javobgarlik hissini rivojlantirish. Bunda -**

katta yoki kichik, muhim yoki nomuhim ishlarda yoki tanlov qilishda boladan uning fikrini so‘rash orqali subyekt sifatida tan olinganini, unga **ishonch bildirilayotganini bildirib qo‘yiladi.**

faoliyatlarda ishtirok bola uchun faqat ko‘ngilochar tadbir emas, **qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, qaysidir masuliyatni bo‘yniga olish ekanini idrok qil**ishi muhim.

5. **O‘rganib qolgan streotiplar – shablon yondashuvdan voz kechish. Bunda –** atrofdagilarni takrorlash emas, balki boshqalardan ko‘ra boshqacha bo‘lish, boshqacha o‘ylash, o‘ziga xos harakat qilish eng katta yutuq ekani singdiriladi va bu o‘ziga xos tarzda rag‘batlantiriladi;

bunga erishilsa, o‘z shaxsiyatida sabot va doimiy ichki o‘sishga intilish tarbiyalanadi.

Bolaning harakatlarini rag‘batlantirib borish va uni subyekt sifatida tan olish avtoritar pedagogikadan voz kechish **va bola bilan faoliyatlarda sheriklik qilish** demakdir. Bu

yondashuv bola ongida “men muhimman, men qila olaman” degan ishonchni, qat’iyat hissiyotlarini shakllantiradi, bu esa keyingi ko‘lamli rivojlanishning poydevoriga aylanadi.

Biz tahlil qilayotgan mexanizmning **oxirgisi** – ta’lim va tarbiyada differentsiatsiya va individuallashtirish bo‘lib, bu ta’lim va tarbiya jarayonini **har bir bolaning yoshi, rivojlanish darajasi, ehtiyoji, temperamenti va muloqot uslubi**ga qarab **moslashtirish** demakdir. Mazkur ikkilik **muloqotda, boshqa faoliyatda o‘zini erkin his qilishi, samarali ishtiroki** va **shaxsiy rivoji** uchun muhim bo‘ladi. Uning ahamiyati:

1. **Differentsiatsiya mazmuni** – guruh darajasida farqlash. Bunda –

guruh ichida ta’lim **va tarbiyalash jarayonida** bolalarning qiziqishi, imkoniyatlari, bilim darajasi, nutqiy rivoji, muloqotdagi faolligi bo‘yicha **farqlangan yondashuvni qo‘llanadi. Masalan: a) topshiriq xarakterida:** bir bola gap tuzadi, boshqasi hikoya tuzadi; b) muloqot usullarini farqlash: kimdir talab shaklida, kimdir iltimos va yana boshqasi hazil bilan munosabatga kirishadi; c) faoliyatda rollarni ijrochiga moslab berish: bolalarning xarakteri, qiziqishi, jinsi vas hu kabilardan kelib chiqib rollar, vazifalar taqsimlanadi.

2. **Individuallashtirish mazmuni,** shaxs darajasida yo‘naltirish. Bunda –

guruhdagi tarbiyalanuvchilarning har biriga xos **shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini** inobatga olib, u bilan alohida ishlash, individual muloqot o‘rnatish, shaxsiy yondashuv asosida uni qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladi. Muloqotda, faoliyatga tayinlashda tarbiyachi-pedagog quyidagilarni hisobga olish kerak: a) bolaning faoliyat temri (tezroq yoki sustroq) o‘rganadi; b) har bolaning individual muloqot uslubini e’tiborga oladi (masalan: tortinchoq bola bilan muloyim, betakalluf bola bilan faolroq kabi); c) bolalarning emotsional holatiga mos yondashuvni qo‘llaydi: ba’zilar verbal, ayrimlari boshqacha rag‘batdan turtki oladi.

MUHOKAMA

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasiga oid yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, bu o‘ziga xos pedagogik tizimdir. Mutaxassislar fikricha: “Pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishfa pedagogik ta’sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi” [12,17]. Bu tizim qatoridagi bir shakl, unsun sifatida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – bu pedagogik faoliyatda pedagogga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan, bolaning individualligini rivojlantirishga qaratilgan tushuncha, tamoyil va pedagogik harakatlar usullaridan iborat murakkab tizimdir. T.A. Kulikova “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi”ni ta’lim jarayonini tashkil etish shakli sifatida belgilaydi. U bunda bola, uning shaxsiyati markazda turishini ta’kidlaydi va shunday masalani qo‘yadi: pedagog va bola o‘rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan barcha konsepsiyalar pedagogning ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarishdagi yetakchi rolini inobatga olmaydi [13,110-115]. Biz olimaning fikriga qo‘shilamiz. Buni zamonaviy pedagogikada “o‘zaro ta’sir” tushunchasib ko‘p hollardsa “pedagogik ta’sir” atamasiga muqobil, uning o‘rniga ishlatilayotgani bilan asoslasa bo‘ladi. Chunki pedagogik ta’sir muloqot jarayonida tarbiyachi/o‘qituvchining

boshqaruvchanlik rolini, bolaning ergashuvchi pozitsiyada bo‘lishini nazarda tutadi. Lekin taklif qilinayotgan o‘zaro ta’sirda har doim bolaning pedagog harakatlariga nisbatan javob reaktsiyasini taqozo qilib, bu uning shaxsiy harakatlarida namoyon bo‘ladi. Eng muhimi, bola bilan o‘zaro ta’sirda “aks aloqaning” mavjudligidir, u butun ta’lim-tarbiya jarayonning muvaffaqiyati uchun kalit hisoblanadi.

Muloqotdagi mavqe tarbiyachining bola bilan umumiy munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Rus pedagogi N.A. Korotkova pedagog va oiladagi kattalarning bolalar bilan o‘zaro ta’sirini belgilovchi quyidagi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadi: *pedagog* mavqeyi – bolalarga aniq vazifalar qo‘yib, ularning harakatlarini baholovchi yondashuv; *teng sheriklikdagi* mavqe – bolalar faoliyatiga bevosita qo‘shiluvchi yondashuv; *yaratuvchanlik* mavqeyi – rivojlantiruvchi muhitni shakllantirib, bolaning mustaqil harakat qilishiga imkon beruvchi yondashuv. O‘z-o‘zidan ma’lumki, pedagog (kattalar) – bola muloqot muhitini teng sheriklikdagi mavqeda bo‘lgan tomonlar samarali tashkil etadilar. Chunki u shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tabiatini belgilab, muloqotda muhitning ahamiyatini urg‘ulaydi.

Demak, tarbiyachi (boshqa kattalar) bola bilan muloqotda ikki shakldagi mavqeda bo‘lishi mumkin:

1. Pedagogik ta’sir mavqeyi –muloqot tarbiyachi monologi shaklida kechadi.

2. O‘zaro ta’sir mavqeyi – muloqot tarbiyachi-bola dialogi asosida tashkil etiladi.

Eng samarali pedagogik ta’sir tarbiyalanuvchini boshqarish yoki uni manipulyatsiya qilishni ko‘zlamaydi, aksincha, uning faolligini oshirish va atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirini rivojlantirishga e’tibor qaratadi.

XULOSA

Aytilganlardan kelib chiqib, quyidagicha ta’rifni shakllantirish mumkin: pedagogik muloqot – bu pedagog-tarbiyachining bolalar bilan maqsadli shaxsiy aloqa o‘rnatish, ularning talab va ehtiyojlarini tushunish, pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositasidir. Ushbu jarayon quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tarbiyalanuvchini anglash va tushunish –bolaning o‘ziga xos, alohidaligi, qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlaydi.

2. Fikr va qarashlar almashinuvi – tarbiyalanuvchilar va tarbiyachi o‘rtasida mazmunli muloqot o‘rnatiladi.

3. Pedagogik ta’sir – pedagog tarbiyalanuvchilarni axloqiy-ma’naviy va aqliy-intellektual rivojlantirishga yo‘naltiradi.

4. Munozarali muloqot – kichkintoylarga o‘z fikrlarini ifodalashi va o‘z-o‘zini idrok qilish imkoniyati beriladi.

Pedagogik muloqot o‘zaro ta’sirning yetakchi shakli ekan, ayni paytda uni amalga oshirish bosqichlarini aniqlab olish zaruratri tug‘iladi. Tahlillarga tayanib, quyidagi ketma-ketlikda jarayonni belgilash mumkin:

1. Muloqotni rejalashtirish – tarbiyachi ta’lim jarayoniga tayyorlanar ekan, bolalar bilan nimani va qanday muloqot qilishni oldindan belgilash.

2. Pedagogik muloqot jarayonini yo‘lga qo‘yish-ta’lim jarayonida belgilangan maqsadga ko‘ra manzilli aloqani yo‘lga qo‘yish.

3. Ta’lim jarayonida muloqotni boshqarish-munosabatlarni muvofiqlashtirish, bolalarda motivatsiya uyg‘otish.

4. O‘z faoliyatini tahlil qilish-muloqot jarayonini erishgan samaradorlikka ko‘ra baholash.

Demak, OTM maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga singdirilishi shart bo‘lgan kasbiy haqiqat shuki, tarbiyachilik kasbining yetakchi xususiyatlaridan biri – bu bolalar bilan muloqot qilishga psixologik tayyorgarlikka oid bilim, tajriba va malakalar majmuidir. Bo‘lajak tarbiyachi (talaba) ushbu yo‘nalishning manshayi (asosi, fundamenti) pedagogik faoliyat (tarbiyachilik kasbi) qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular soha vakiliga kundalik hayot va amaliyotdagi ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, uning kasbiy va ijtimoiy faolligiga yo‘nalish berish orqali ko‘zlahan maqsadlarga erishishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ma’murova F.T., Abdullayeva N.X., Qodiraliyev N. G. Bo‘lajak pedagoglarda muloqot-madaniyatini tarbiyalash. Экономика и социум. 2022, №4.
2. G‘oziyev E.G‘. Sotsial psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T.: Noshir, 2012.
3. Ahrorov, Voris. Sotsial psixologiya. O‘quv qo‘llanma: Samarqand davlat universiteti. – Samarqand: SamDU nashri, 2020.
4. Karimova V.M., Hayitov O.E., Umarova N.SH. Sotsial psixologiya. Darslik. Chirchiq: O’zDJTSU, 2020.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология. - Москва: 1991.
6. Пиаже Ж. Мышление и речь ребенка. Москва: Педагогика-Пресс, 1999.
7. Фрейд, Зигмунд. Основные психологические теории в психоанализе. — Москва: АСТ, 2006.
8. Kadirov V.A. Nutq o‘stitish metodikasi. Darslik. Andijon: Jahona nashr, 2024.
9. Йўлдошев Ж .F., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари: Қўлланма. —Т.: Ўқитувчи, 2004.
10. Коменский Ян Амос: Учитель учителей («Материнская школа», «Великая дидактика» и др. произв. с сокращ.). Москва: Карапуз, 2009.
11. Монтессори М. Мария Монтессори.Дети-другие.Уникальная методика раннего развития. — М.: АСТ, 2015.
12. Omonov H.T., Xattaboyev M.B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2016.
13. Куликова Т.А., Падточий Ю.Б. Личностно-ориентированный подход в обучении дошкольников: теоретический аспект // Столичное образование - 3: Теоретические подходы к модернизации дошкольного воспитания. - Москва: 2002.

14. Короткова Н.А. Партнерство взрослого и детей в игре: может ли воспитатель быть Бабой-Ягой?// Ребенок в детском саду. 2002 - № 4.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SOG‘LOMLASHTIRISH MASHG‘ULOTLARINING MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYALANUVCHILARI RUHIYATIGA TA’SIRI

Abdullayev Oybek Kurbonovich
Qo‘qon davlat universiteti
“Jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ruhiy holatiga sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bolalarning hissiy holati, kayfiyat o‘zgarishi, faoliyati va motivatsiyasi kuzatildi. O‘yin va jismoniy mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish orqali bolalarning emotsional barqarorligi va harakat qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanishi aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari nafaqat jismoniy, balki ruhiy rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim jarayonida sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, ruhiy holat, emotsional rivojlanish, jismoniy tarbiya.

Аннотация.В статье анализируется влияние оздоровительных занятий на психическое состояние воспитанников дошкольных образовательных учреждений. В ходе исследования наблюдались эмоциональное состояние детей, изменения настроения, активность и мотивация. Совмещение игровых и физических упражнений позволило значительно улучшить эмоциональную устойчивость и двигательные способности детей. Результаты показывают, что оздоровительные занятия оказывают положительное влияние не только на физическое, но и на психическое развитие. Полученные данные могут быть использованы для разработки рекомендаций по эффективной организации оздоровительных занятий в дошкольном образовании.

Ключевые слова: дошкольное образование, оздоровительные занятия, психическое состояние, эмоциональное развитие, физическое воспитание.

Abstract. This article examines the impact of health-improving activities on the psychological well-being of preschool education pupils. The study observed children’s emotional states, mood changes, activity levels, and motivation. The integration of play-based and physical exercises significantly enhanced children’s emotional stability and motor skills. The results indicate that health-improving activities positively influence not only

physical but also psychological development. These findings provide practical recommendations for the effective organization of health-oriented activities in preschool education.

Keywords: preschool education, health-improving activities, psychological well-being, emotional development, physical education.

Kirish.Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy, aqliy va emotsional rivojlanishning eng muhim bosqichlaridan o‘tadi. Shu davrda ularning ruhiy holati, kayfiyati va faoliyati shakllanishi nafaqat oilaviy, balki ta’lim muassasalari muhitiga ham bog‘liqdir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim jarayonida sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini qo‘llash bolalarning umumiy rivojlanishini ta’minlashda muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda.

Sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari – bu bolalarning jismoniy faolligini oshirish bilan birga ularning emotsional holatini mustahkamlash, ijobiy kayfiyatini rag‘batlantirish va stressni kamaytirishga xizmat qiluvchi faoliyat turidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta yoshda muntazam jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanish bolalarning diqqatini oshiradi, harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi va ijtimoiy ko‘nikmalarini yaxshilaydi. Shu bilan birga, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari bolalarning o‘zini ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi, ularning ichki motivatsiyasini oshiradi va ijobiy emotsional muhit yaratadi.

Maqola maqsadi – maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining ruhiyatiga sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining ta’sirini aniqlash va ularning jismoniy hamda psixologik rivojlanishiga bo‘lgan rolini tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy rivojlanishiga jismoniy faoliyatning ta’siri haqida ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Volkov (2002) o‘z ishida bolalarda jismoniy mashg‘ulotlarning umumiy psixologik barqarorlikka, diqqat va kayfiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Gaverdovskaya (2015) sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari bolalarning harakat koordinatsiyasi va muvozanatni rivojlantirish bilan bir qatorda ularning emotsional holatini barqarorlashtirishga yordam berishini aniqlagan.

Gallayue va Ozmun (2006) bolalarning motor rivojlanishi va psixologik holati o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini qayd etadi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanish bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch, ijtimoiy ko‘nikmalar va ichki motivatsiyani oshiradi. Payne va Isaacs (2017) shuningdek, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining erta yoshda muntazam qo‘llanishi emotsional barqarorlik va stressga chidamlilikni oshirishini ta’kidlaydi.

Mahalliy tadqiqotlar ham mazkur masalani yoritadi. V.Jo‘raev (2016) o‘z ilmiy ishida maktabgacha yoshdagi bolalarga sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini joriy etish ularning kayfiyatini yaxshilash va ijobiy emotsional muhit yaratishda samarali ekanini qayd etadi. O‘Tursunov (2020) esa bolalarning ruhiy holati va jismoniy salohiyatini uyg‘unlashtirish metodikasini ishlab chiqqan va uning amaliy samaradorligini ko‘rsatgan.

Shu bilan birga, Clark (2016) va Williams & Monsma (2017) bolalarning o‘yin va harakat faoliyati psixologik rivojlanishning ajralmas qismi ekanligini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlaridan kelib chiqib, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini maktabgacha ta’lim muassasalarida muntazam va tizimli ravishda olib borish bolalarning ruhiy barqarorligi, kayfiyatini yaxshilash va ijtimoiy moslashuv qobiliyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shunday qilib, nazariy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini uyg‘unlashtiruvchi samarali vosita sifatida qaraladi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqotlar jarayonida maktabgacha yoshdagi 30 nafar tarbiyalanuvchi ishtirokida sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari 4 haftalik davrda amalga oshirilgan. Mashg‘ulotlar haftada 3 marta, har biri 20–25 daqiqa davomida jismoniy harakatlar va o‘yinli faoliyatni o‘z ichiga olgan. Tadqiqot davomida bolalarning ruhiy holati, kayfiyati, faoliyati va diqqat darajasi kuzatildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini muntazam bajarish bolalarning emotsional barqarorligini oshirgan. Masalan, bolalarning kayfiyati va ijobiy emotsiyalari mashg‘ulotlar davomida sezilarli darajada yaxshilangan: 4 haftalik jarayon oxirida 85% bolalar o‘zini quvnoq, faol va xursand his qilgan. Shu bilan birga, diqqatni jamlash va vazifani bajarishga qobiliyat ham sezilarli darajada oshgan.

Bolalarning jismoniy harakatlari va motor ko‘nikmalari ham ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatgan. Mashg‘ulotlar davomida muvozanat, chaqqonlik, egiluvchanlik va umumiy harakat koordinatsiyasi yaxshilangan. O‘yinli mashg‘ulotlar esa bolalarda ijodiy fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berdi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtirish, stressni kamaytirish va ijobiy emotsional muhit yaratishda samarali vosita hisoblanadi. Bu natijalar Volkov (2002), Gaverdovskaya (2015) va Gallahue & Ozmun (2006) tomonidan keltirilgan ilgari olingan ilmiy natijalar bilan mos keladi. Ular shuni ta’kidlaydiki, jismoniy faoliyat bolalarning emotsional va motor rivojlanishining uyg‘unlashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muhokama davomida shuni ta’kidlash joizki, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy va jismoniy salohiyatini uyg‘unlashtirishda muhim omil bo‘lib, pedagoglarga mashg‘ulotlarni individual xususiyatlarni hisobga olgan holda rejalashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, o‘yin va jismoniy faoliyatni birlashtirish metodikasi bolalarning motivatsiyasini oshirish va mashg‘ulotlarni qiziqarli qilishga yordam beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari bolalarning ruhiy holatini yaxshilash, emotsional barqarorligini oshirish va jismoniy rivojlanishini rag‘batlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi. Bu pedagogik

amaliyotda sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini tizimli va muntazam joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarida sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini muntazam va tizimli tarzda amalga oshirish bolalarning ruhiy holatini yaxshilash, emotsional barqarorligini oshirish va jismoniy rivojlanishini rag‘batlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Mashg‘ulotlar davomida bolalarning kayfiyati sezilarli darajada yaxshilangan, diqqat va faoliyati oshgan, shuningdek, harakat koordinatsiyasi va motor ko‘nikmalari rivojlangan. Shu bilan birga, o‘yin va jismoniy mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish bolalarning ichki motivatsiyasini oshirish va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini maktabgacha ta’lim muassasalarida tizimli joriy etish pedagoglarga bolalarning ruhiy va jismoniy salohiyatini uyg‘unlashtirishda samarali metodik vositalarni qo‘llash imkonini beradi. Shu bois, tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

3. Piaget, J. (2001). *The Psychology of Intelligence*. London: Routledge.
4. Bruner, J. (1996). *The Culture of Education*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Shodiyev, B. (2021). *Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar va ularning samaradorligi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Karimova, N. (2022). *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda muammoli topshiriqlarning o‘rni*. *Ta’lim va innovatsiyalar jurnali*, 5(3), 45–52.
7. Hasanov, A., & Qodirova, D. (2020). *Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar asosida boshlang‘ich ta’limni takomillashtirish*. *O‘zbekiston pedagogika jurnali*, 2(1), 88–95.
8. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2019). *Cooperation and the Use of Technology*. *Educational Researcher*, 48(2), 89–101.
9. Alimova, M. (2023). *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini rivojlantirishda amaliy topshiriqlarning metodik asoslari*. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*, 7(4), 112–120.
10. Brown, T. (2020). *Design Thinking in Education: Promoting Creativity and Critical Thinking*. *Educational Studies*, 56(6), 743–758.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

FIZIKA TA’LIMIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Daminova Sayyora Xursandovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada fizika ta’limida funksional savodxonlikni rivojlantirishning asosiy metodlari — eksperimental faoliyat, muammoli ta’lim, loyiha metodi va mantiqiy-analitik topshiriqlar samaradorligi yoritiladi. Fizika mazmunining PISA talablari bilan uyg‘unligi asoslanadi va innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Fizika ta’limi; funksional savodxonlik; PISA; eksperiment; muammoli ta’lim; loyiha; mantiqiy fikrlash.

Аннотация. Статья посвящена методам развития функциональной грамотности в обучении физике. Рассматриваются эффективность эксперимента, проблемного и проектного обучения, а также логико-аналитических задач. Обосновано соответствие содержания физики требованиям PISA.

Ключевые слова: Обучение физике; функциональная грамотность; PISA; эксперимент; проблемное обучение; проектный метод.

Abstract. The article examines key methods for developing functional literacy in physics education, including experimental work, problem-based learning, project activities, and analytical tasks. The alignment of physics content with PISA scientific literacy requirements is highlighted.

Keywords: Physics education; functional literacy; PISA; experiment; problem-based learning; project method.

KIRISH. Mamlakatimizda ta’lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonida o‘quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirish muhim vazifa sifatida qo‘yilmoqda. Xususan, tabiiy fanlar, jumladan fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning olgan bilim va ko‘nikmalarini real hayot masalalarini hal etishda qo‘llay olishini, ilmiy tafakkur va muammolarni yechish qobiliyatlarini rivojlantirishini ta’minlash – funksional bilimdonlikka erishish demakdir. Ilmiy savodxonlik tushunchasi shaxsning ilm-fan bilan bog‘liq masalalarda fikr yuritib, ilmiy dalillarga asoslangan qarorlar qabul qila olishi va fan yutuqlarini ongli ravishda kundalik hayotda qo‘llay bilishi qobiliyatini anglatadi. PISA xalqaro baholash dasturida ilmiy savodxonlik “shaxsning fan bilan bog‘liq masalalar va ilmiy g‘oyalarga reflektiv yondashgan holda, ongli fuqaro sifatida ishtirok eta olish qobiliyati” deb

ta’riflanadi. Demak, ilmiy-savodli o‘quvchi nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishi, balki o‘sha bilimlarni amaliy qo‘llay olish, tahlil etish va mantiqiy xulosa chiqara olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotchilar ilmiy savodxonlikni bir necha tarkibiy komponentlarga ajratib o‘rganadilar. Milliy ta’lim standartida ilmiy savodxonlikning to‘rt asosiy elementi ajratilgan bo‘lib: (1) tabiiy hodisalarni ilmiy tushuntira oladigan bilimlar (ilmiy tushunchalar va faktlar); (2) ilmiy dalillar keltirish va empirik ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarish ko‘nikmalari; (3) fanning tabiati va ilmiy bilimlarning rivojlanish jarayonini tushunish; (4) ilmiy faoliyat hamda munozaralarda samarali ishtirok etish uchun kommunikativ kompetensiyalar. Xorijiy tadqiqotchilar ham funksional savodxonlik mazmunini keng yoritib, unga kiruvchi jihatlarni ko‘rsatib berishgan. Masalan, K. Reiss va R. Bybee ilmiy savodxonlik tarkibiga ilmiy bilimlar, ilmiy jarayonlarni tushunish hamda ilmiy dunyoqarash komponentlarini kiritadi [1, 2]. J. Xolbruk va M. Rannikmae esa ilmiy ta’limning ustuvor maqsadi sifatida o‘quvchilarda hayotda ongli ravishda foydalana oladigan keng qamrovli ilmiy-texnologik savodxonlikni shakllantirish, ya’ni “ta’limni fan orqali amalga oshirish” zarurligini ta’kidlaydilar [3]. Shunday qilib, ilmiy savodxonlik deganda, o‘quvchining fizika va boshqa tabiiy fanlar bo‘yicha nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi barobarida, ularni turli hayotiy masalalar yechimida qo‘llay bilishi, tajriba natijalarini tahlil qila olishi va kundalik holatlarda ilmiy yondashuvni namoyon eta olishi tushuniladi.

Ilmiy savodxonlikni shakllantirish, tabiiyki, o‘qitish metodikasiga chambarchas bog‘liq. Fizika ta’limida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy ko‘nikmaga aylantirish, ya’ni funksional savodxonlikka erishish uchun maxsus yondashuv va metodlardan foydalanish talab etiladi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, fizika darslarida an’anaviy ma’ruza uslubidan tashqari interaktiv va ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan metodlar qo‘llanganda o‘quvchilarning fanga qiziqishi ortadi, mavzularni chuqurroq tushunadi va olgan bilimlarini amalda qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi. Shuning uchun zamonaviy fizika o‘qitishda o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi ta’lim texnologiyalariga e’tibor qaratilmoqda. Quyida fizik ta’limida funksional savodxonlikni rivojlantirishda samarali deb topilayotgan asosiy metodlar, fizika fani mazmunining PISA baholash kompetensiyalari bilan bog‘liqligi va mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Eksperimental faoliyat. Tajriba va laboratoriya mashg‘ulotlari fizik ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Laboratoriya ishlarida va amaliy tajribalarda o‘quvchilar nazariyada olgan bilimlarini amalda sinab ko‘radilar, natijada ularning kuzatuvchanligi, tafakkuri va ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalari shakllanadi. Masalan, mexanika bo‘limida oddiy jismning erkin tushish tajribasini mustaqil o‘tkazgan o‘quvchilar

Galiley qonuniyatlarini “o‘zlari kashf etgandek” tushunib oladilar yoki elektr zanjiri tuzib, Om qonunini amaliy tasdiqlaydilar. Bunday tajribaviy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda ilmiy tafakkur va tadqiqotchilik ko‘nikmalari shakllanadi. Mahalliy tadqiqotlar ko‘rsatishicha, nostandart va interfaol laboratoriya ishlarini bajarish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, kuzatish va tahlil qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Jumladan, A. Saidov o‘tkazgan tajribada fizika darslarida laboratoriya mashg‘ulotlari sonini ko‘paytirish o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasini sezilarli ravishda oshirgan – tajriba ishtirokchilari bo‘lgan sinflarda fizika fanidan nazorat ishlari natijalari an’anaviy usulda o‘qitilgan sinflarga nisbatan ancha yuqori chiqqan. Shu bois zamonaviy fizika ta’limida an’anaviy nazariy darslarni amaliy-tajriba mashg‘ulotlari bilan boyitish, virtual laboratoriya simulyatsiyalari va “uy tajribasi” kabi elementlarni keng joriy etish tavsiya etilmoqda. Demak, oddiy laboratoriya mashg‘ulotining o‘zi o‘quvchiga muayyan fizik qonunni o‘zlashtirish bilan birga ilmiy izlanish metodologiyasini ham amaliy o‘rgatadi, bu esa uning funksional savodxonligining yuksalishiga xizmat qiladi.

Muammoli ta’lim (Problem-Based Learning). Muammoli-ta’lim o‘quvchilarda yuqori darajadagi mustaqil tafakkur va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metod hisoblanadi. Fizika darsida muammoli vaziyat yaratish – ya’ni, o‘quvchilar oldiga javobi darhol topilmaydigan qiziqarli muammo yoki savol qo‘yish va uni hal etish jarayonida o‘quvchilarni faol izlanishga undash – funksional savodxonlikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bunda darslar go‘yo “kashfiyot” ruhida o‘tadi: o‘qituvchi dastlab muammoni ifodalaydi, o‘quvchilar esa uni yechish uchun o‘z bilimlarini safarbar etib, qo‘shimcha ma’lumot izlaydilar, farazlar ilgari suradilar va dalillar yordamida ularni tekshiradilar. Sh.T. Boymirov o‘z tadqiqotida fizika darslarida muammoli o‘qitish texnologiyalarini joriy etish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va amaliy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishga erishgan [5]. J.Sh. Baratov esa maktab fizika kursida nostandart masalalarga asoslangan muammoli ta’lim metodikasini ishlab chiqib, tajriba tariqasida sinovdan o‘tkazgan [6]. Natijada nostandart topshiriqlar bilan tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning kreativ tafakkurini va mantiqiy fikrlashini faol oshirganligi aniqlangan. Muammoli vaziyatga doimiy duch kelgan o‘quvchi nostandart masalalarni hal etishga, real hayotdagi muammolarga ilmiy yondashuvda yechim topishga moyilroq bo‘lib boradi. Muammoli ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining ijodkorligi ham rag‘batlanadi: noan’anaviy masalalarni birgalikda tahlil qilishda ular o‘z fikrini erkin bayon etadi, bahs-munozara qilib eng optimal yechimni topadi – bu esa ularning muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Xorijiy tadqiqotlarda ham muammoli ta’limning natijadorligi e’tirof etilgan: turli mamlakatlarda PISA dasturiga tayyorgarlik doirasida o‘tkazilgan tajribalar muammoli masalalar yechishga o‘rgangan o‘quvchilar PISA savollarida yuqori natijalar ko‘rsatishini tasdiqlamoqda.

Loyiha metodi (Project-Based Learning). Loyiha asosida o‘qitish – o‘quvchilarning olgan bilimlarini real hayotga tatbiq etish va fanlararo integratsiyalashning samarali

usullaridan biri hisoblanadi. Mazkur metodda o‘quvchilar muayyan mavzuda mustaqil tadqiqot yoki kichik amaliy loyihani bajaradilar va yakunda muayyan moddiy yoki g‘oyaviy mahsulot yaratadilar. Fizika darslarida loyiha metodini qo‘llash o‘quvchilarga nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish bilan birga ularni amaliy faoliyatda qo‘llash imkonini beradi – bunda o‘quvchilarning ijodkorligi, tanqidiy tafakkuri va jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu fazolarning barchasi funksional savodxonlikning muhim jihatlaridir. Loyiha metodining afzalligi shundaki, o‘quvchilar fizikadagi muayyan nazariy prinsipni bevosita amalda sinab ko‘radilar yoki hayotiy muammoni hal etishga qaratilgan kichik ilmiy-tadqiqot ishini bajaradilar. Xalqaro amaliyotda PBL yuqori samaradorlik berishi kuzatilgan. Demak, fizika darslarida loyiha metodini qo‘llash o‘quvchilarga faqat nazariy bilim berish bilangina cheklanmay, balki ularni “kichik olimlar” sifatida shakllantiradi – mustaqil ma’lumot to‘plash, reja tuzish, tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va taqdimot qilish kabi ko‘nikmalarni o‘rgatadi. Bunday malakalar esa o‘quvchilarning funksional savodxonligi rivojlanishiga, ya’ni kelgusida nafaqat fanni tushunib, balki undan foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishiga zamin yaratadi. Mahalliy tajriba ham loyiha metodining samaradorligini tasdiqlaydi.

Mantiqiy-analitik fikrlashni shakllantirish. Fizika fanining o‘zi aniq mantiqiy tafakkurni talab qiladigan sohadir: formulalar bilan ishlash, masalalar yechish, sabab-oqibat bog‘lanishini aniqlash kabi faoliyatlar mantiqiy-analitik fikrlash ko‘nikmasini taqozo etadi. Shu bois, o‘quvchilarda bunday fikrlash qobiliyatini shakllantirish fizika ta’limining asosiy vazifalaridan biridir. Mantiqiy-analitik fikrlash deganda, o‘quvchining berilgan ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarish, farazlarni tekshirish, dalillarni tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati tushuniladi. Bunday kompetensiya shakllangan o‘quvchi fizik muammoni yechishda keraksiz ma’lumotni ajratib, keraklisini tanlay oladi, bir necha bosqichli mulohaza orqali masalaning yechimini topa oladi. O‘quvchilarning bu qobiliyatini rivojlantirish uchun dars jarayonida masalalar yechishga alohida e’tibor berish lozim. An’anaviy tipik masalalar bilan bir qatorda, qiziqarli va mantiqiy mushohadani talab etuvchi masalalar, “bosqichma-bosqich yechim”, “topishmoq-masala”, “loyiha-masala” kabi nostandart topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, o‘quvchilarga: “Agar muzlatkichning eshigi ochiq qoldirilsa, xonani isitishi mumkinmi?” kabi nooddiy savolni berish mumkin. Bunday savolga javob izlash jarayonida o‘quvchilar issiqlik almashinuvi va energiyaning saqlanishi kabi tushunchalarni tahlil qilib ko‘radilar, turli farazlarni ilgari suradilar va yakunda to‘g‘ri ilmiy xulosaga keladilar. Bu kabi mantiqiy topshiriqlar o‘quvchilarning qiziquvchanligini oshiradi va ularni chuqur mushohada yuritishga undaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda fizika darslari uchun nostandart mantiqiy masalalar to‘plamlarini yaratish yuzasidan ham izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, G‘.F.Raimov umumta’lim maktablarining “Mexanika” bo‘limiga doir nostandart masalalar tizimini ishlab chiqib, ularning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilgan [7]. Shuningdek, darslarda mantiqiy zanjirlar tuzish, “Nima bo‘ladi agar...?” kabi taxminiy savollar berish, blits savol-javob

o‘yinlaridan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. K. Shadmanova o‘tkazgan tadqiqotda turli mantiqiy topshiriqlar, savol-javob va munozara usullarini qo‘llash o‘quvchilarda ilmiy tafakkur shakllanishini jadallashtirgani kuzatilgan [8]. Xususan, har bir yangi mavzuni o‘rgatishda “Bu bilimdan real hayotda qanday foydalansak bo‘ladi?” degan savolni berib borish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga va uning amaliy ahamiyatini ko‘ra bilishiga yordam beradi. Mantiqiy-analitik fikrlash rivojlangani sayin o‘quvchilarning masala yechish malakasi ham ortadi. D.Gordin ta’kidlaganidek, fizik masalalarni yechish faqat quruq matematik hisob-kitoblardan iborat bo‘lmay, balki bir necha bosqichli mantiqiy tahlil jarayonidir; o‘quvchi masalani avval tahlil qiladi, so‘ng yechim rejasini tuzadi va yechimni asoslab beradi. Shu bois fizika o‘qituvchisi o‘quvchilarga masalani yechishning turli strategiyalarini o‘rgatishi, “baland ovozda o‘ylash” usuli orqali fikr yuritishga undashi lozim [4]. Bunday yondashuv bilan shakllangan o‘quvchi nafaqat darslikdagi masalalarni, balki real hayotda duch keladigan muammolarni ham mantiqiy tahlil asosida hal eta oladigan shaxsga aylanadi.

XULOSA. Fizika ta’limida funksional savodxonlikni rivojlantirish – zamon talabi bo‘lib, u o‘quvchilarning nafaqat fizik bilimlarni o‘zlashtirishi, balki ularni amaliy masalalarda qo‘llay olishi, mantiqiy va mustaqil fikrlashi hamda zamonaviy jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun muhim omildir. Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, ilmiy (tabiiy-fan) savodxonlik o‘quvchining bilimi, ko‘nikmasi, tafakkuri va munosabati kabi qirralarni qamrab oluvchi ko‘p komponentli tushuncha hisoblanadi. Fizika darslarida eksperimental faoliyatni kuchaytirish, muammoli ta’lim metodini qo‘llash, loyiha asosida o‘qitish, mantiqiy-analitik masalalar yechishga o‘rgatish kabi metodlar mazkur komponentlarni shakllantirishda juda qo‘l kelishi ushbu ishda ko‘rsatib berildi. PISA xalqaro baholash mezonlarining tahlili ham ko‘rsatadiki, fizika fani mazmuni va o‘quvchilarda rivojlantiriladigan kompetensiyalar PISA ilmiy savodxonlik talablariga juda yaqin va mos tushadi. Demak, fizika fanini zamonaviy yondashuvlar bilan o‘qitish orqali biz nafaqat o‘quvchilarga mustahkam bilim beramiz, balki ularning o‘sha bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini ham shakllantiramiz. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tajribasi bu yo‘nalishning to‘g‘ri ekanini tasdiqlab bermoqda – kompetensiyaviy yondashuv hamda interfaol metodlar natijasida o‘quvchilarning fanni o‘zlashtirish darajasi, ilmiy dunyoqarashi va funksional savodxonligi sezilarli ravishda oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Reiss K. Science Education and Scientific Literacy. – Berlin: Springer, 2019. – 265 p.
2. Bybee R. Scientific Literacy and Science Teaching. – NSTA Press, 2020. – 198 p.
3. Holbrook J., Rannikmae M. Nature of Science Literacy // Science Education. – 2018. – Vol. 102. – P. 558–581.

4. Gordin D. Physics Problem Solving and Literacy // Physics Education. – 2021. – Vol. 56(4). – P. 1–12.

5. Boymirov Sh.T. Umumta’lim maktabida fizikaning “Elektrodinamika” bo‘limini muammoli o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish // Ped. fan. PhD diss. avtoreferati. – Termiz, 2021. – 124 b.

6. Baratov J.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika o‘qitishning metodik tizimini nostandart topshiriqlar asosida takomillashtirish // Ped. fan. PhD diss. avtoreferati. – Chirchiq, 2023. – 44 b.

7. Raimov G.F. Maktabda fizikaning “Mexanika” bo‘limiga doir nostandart masalalarni tanlash prinsiplari va yechish metodikasini takomillashtirish // Ped. fan. PhD diss. avtoreferati. – Termiz, 2022. – 104 b.

8. Shadmanova K. O‘quvchilarda ilmiy tafakkur shakllanishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 160 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KREATIV PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Deykanova Ra’no Bakirovna
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida kreativ pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari, ularning ta’lim samaradorligiga ta’sir mexanizmlari hamda o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy faoliyatini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy tahlil etiladi. Boshlang‘ich ta’limda kreativ pedagogika konsepsiyasi, innovatsion o‘qitish metodlari, interfaol yondashuvlar, loyiha va muammoli ta’lim texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim rivojiga ta’siri ilmiy dalillar asosida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kreativ pedagogika, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim, interfaol metodlar, kognitiv rivojlanish, ijodiy tafakkur, metodik kompetensiya, ta’lim samaradorligi

Аннотация.В статье научно проанализированы теоретико-методологические основы применения креативных педагогических технологий в процессе начального образования, механизмы их влияния на эффективность обучения и роль в развитии познавательной и творческой активности учащихся. Научные данные обосновывают концепцию креативной педагогики в начальном образовании, влияние инновационных методов обучения, интерактивных подходов, проектных и проблемных образовательных технологий на развитие начального образования.

Ключевые слова: креативная педагогика, педагогические технологии, инновационное образование, интерактивные методы, когнитивное развитие, творческое мышление, методическая компетентность, эффективность обучения.

Annotation. The article scientifically analyzes the theoretical and methodological foundations of the use of creative pedagogical technologies in the process of primary education, the mechanisms of their influence on educational effectiveness, and their role in the development of cognitive and creative activity of students. The concept of creative pedagogy in primary education, the impact of innovative teaching methods, interactive approaches, project and problem-based educational technologies on the development of primary education are based on scientific evidence.

Keywords: creative pedagogy, pedagogical technologies, innovative education, interactive methods, cognitive development, creative thinking, methodological competence, educational effectiveness

KIRISH. Ta’lim maqsadi o‘quv-biluv jarayoni, uning mohiyati, mazmunini, usul va vositalari, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari, shuningdek, mazkur tizimning samaradorligi qanday shaxs yoki mutaxassisini sharklantirishni ham belgilaydi. Ta’lim maqsadining ijtimoiy buyurtma asosida ifodalanishi shaxs, davlat, jamiyat, fan-texnika hamda ishlab chiqarishning umumiy taraqqiyot darajasi bilan beligilanadi. Demak, ta’lim maqsadi jamiyat ehtiyojlarini ifodalaydi va uning taraqiyotini belgilaydi. Butun ta’lim jarayoni-o‘quv materialidan boshlab, ta’lim natijasigacha-ta’lim maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ta’lim maqsadi oldida turgan asosiy masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasida “Ta’lim sifatini oshirish - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”, - deya ta’kidladi. Boshlang‘ich ta’lim maqsadi ro‘yobini ta'minlashda zamonaviy ta’lim texnologiyalar muhim ahamiyatga egadir.

Taraqqiyotimizning yuksalishi, yosh avlodga sifatli ta’lim-tarbiya berishdan boshlanadi. Kelajagi buyuk farzandlargina vatan ravnaqini yuksaklarga ko‘tara oladilar. Ta’lim sifatini oshirish bilimli avlod vakillarini yetishtirish maqsadida mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasida to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish aynan ta’lim soxasini inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgandi va 2023-yilni – “Insonga e'tibor va sifatli ta’lim yili”, - deb nomlanishi ta’limga bo‘lgan e'tiborning yaqqol namunasidir. Ta’lim sifatini oshirish yosh avlodni fanga qiziqtirishning eng muhim omili bu yangi darslik va zamonaviy dars o‘tish uslublaridir. Ko‘p yillik tajribamdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, yangi darslik o‘quvchi uchun juda qulay ayniqsa elektron darsliklar o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini yana oshiradi va olingan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari darsliklarning tayyorlashda PIZA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlardan namunaviy vazifalar asos qilib olingani biz o‘qituvchilar uchun kelajakda xalqaro tadqiqotlarga boshqa davlatlar qatorida turishimizga katta imkon bag‘ishlaydi. Darsliklar bilan birga mashg‘ulot daftarlari, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar chop etilishi biz o‘qituvchilarni ishtiyoq bilan ishlashimizga kuch bag‘ishlaydi. An’anaga muvofiq, davlatimiz rahbarining parlament va xalqimizga murojaatnomalarida ko‘tarilgan masalalar, ijrosini topmoqda. Biz ustozlardan qilinadigan talab o‘z ustimizda ishlash yangi innovatsion metodlar orqali darslarni tashkil qilish o‘quvchilarga psixologik yondashgan holda o‘zlari qiziqgan kasb-hunarga yo‘naltirishdan iborat. Bunda esa ayniqsa boshlang‘ich sinf ustozlarining o‘rni katta rol o‘ynaydi[1].

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Ma’lumki O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi asosi yaratildi. Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash asosida o‘quvchilarni ijodkorligi va faoligini oshirish har bir davr uchun muhim ahamiyatga egadir. Har bir o‘qituvchi shuni yaxshi bilishi biladiki dars o‘quv tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Shuning uchun o‘qituvchi, avvalo, dars o‘tish va darsni takomillashtirib borish borish hakida o‘ylaydi, izlanadi.

XULOSA

Ta’limda yukori samaradorlikka erishish uchun o‘qitishning noan’anaviy metodlaridan ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlaridan dars mavzusiga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofikdir. Bu murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bulib, o‘qituvchining mashaqqatli mehnati bilan bosqichma -bosqich mahorat pillapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga kutarilishidir. Yukori ko‘rsatgichga erishishni maqsad qilgan har bir o‘qituvchi, avvalo, har bir darsga ijodiy yondashishi, dars jarayonida kuzda tutilgan barcha bosqichlarni erkin amalga oshira oladigan kasbiy mahoratga ega bo‘lishi kerak va tinimsiz o‘z ustida ishlashi lozim. Kasbiy mahorat esa o‘qituvchi shaxsidagi tabiiy imkoniyatlar, pedagogik-psixologik iqtidor, o‘z ishiga mas'uliyat bilan karash, o‘quvchidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida sezish, bola shaxsi o‘quvchilar jamoasiga to‘gri ta'sir qila olishining amaliy namoyon bola olishidir. Bundan tashqari o‘qituvchi ilg‘or zamonaviy ish tajribalarini darsga qollash bilan cheklanib qolmay uni boshqa kasbdoshlari bilan ham ommalashtirish platformasi orqali hamfikr bolib baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, Xindiston, January 2022, Vol. 12, Issue 01, Pages: 165- 172.

2. Muminov K.A. Methods for Enhancing the Educational Process at Institutions of Higher Learning Based on Foresight Technologies. // Current Approaches and New Research in Modern Sciences, International Scientific Online Conference. – 2025-yil, 27-yanvar. – P. 127–133. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14748452.

3. Pardabayeva D “Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya va integratsiya” – «ZUXRA BARAKA BIZNES» Toshkent 2024-yil

4. Yo‘ldosheva D., Hamroyeva SH. Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2017.

5. Boshlangich ta’limni o‘qitish metodikasi. O‘quv uslubiy majmua. Toshkent, 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TARJIMONLIKDA MALAKA KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH UCHUN SINERGETIK MUHIT YARATISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Dilnoza Farxodova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O‘zbekiston
Dilnozad268@mail.com
998998905516

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjimonlik ta’limida malaka kompetensiyalarini shakllantirishni ta’minlovchi sinergetik muhitning mohiyati, tarkibiy komponentlari va pedagogik mexanizmlari tahlil etiladi. Sinergetik yondashuv – tarjima jarayonidagi kognitiv, lingvistik, madaniyatlararo va texnologik omillarning o‘zaro ta’siri asosida kompleks rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Tadqiqotda mavjud muammolar – o‘quv dasturlarining parchalanganligi, tarjima metodikalarining zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashmaganligi, raqamli vositalardan yetarli foydalanilmasligi – aniqlanadi. Maqola sinergetik muhit yaratishda integratsion o‘qitish, refleksiv yondashuv, raqamli vositalarni joriy etish, hamkorlik asosida o‘qitish kabi yechimlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: sinergetika, malaka kompetensiyasi, tarjima ta’limi, integratsiya, kognitiv yondashuv, refleksivlik, raqamli vositalar, madaniyatlararo kommunikatsiya.

Аннотация.В статье анализируется сущность синергетической среды, обеспечивающей формирование квалификационных компетенций у студентов-переводчиков. Синергетический подход способствует комплексному развитию переводческих навыков за счёт взаимодействия когнитивных, лингвистических, межкультурных и технологических факторов. Выявлены основные проблемы современной подготовки переводчиков: фрагментарность учебных программ, несоответствие методик требованиям цифровой среды, недостаточная практическая направленность. В качестве решений предлагаются интегративное обучение, развитие рефлексии, активное использование цифровых инструментов и совместная проектная деятельность.


Ключевые слова: синергетика, квалификационная компетентность, подготовка переводчиков, интеграция, когнитивный процесс, рефлексия, цифровизация, межкультурная коммуникация.

Annotation. This article examines the nature and pedagogical mechanisms of the synergetic environment required for developing translation qualification competencies. The synergetic approach supports the holistic formation of translators' professional skills by integrating cognitive, linguistic, intercultural, and technological dimensions. The study identifies key challenges: fragmented curricula, limited use of digital translation tools, outdated teaching methods, and insufficient practical training. Solutions include integrative teaching, reflective strategies, the use of digital translation technologies, and collaborative learning models to build a productive synergetic environment.

Key words: synergetics, qualification competence, translator training, integration, cognitive strategies, reflection, digital tools, intercultural competence.

KIRISH. Tarjimonlarni tayyorlash jarayoni zamonaviy global mehnat bozorida keskin o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot oqimining ortishi va madaniyatlararo muloqotning murakkablashuvi bilan tavsiflanadi. Mazkur sharoitda tarjimonning malaka kompetensiyasini shakllantirish oddiy lingvistik bilim va texnik ko‘nikmalar doirasidan chiqib, integratsion, refleksiv va kreativ yondashuvlarni o‘z ichiga oluvchi sinergetik modelni talab qiladi. Tarjima ta’limidagi asosiy muammolardan biri — o‘quv jarayonining parchalanganligi, nazariy asoslarning amaliyot bilan to‘liq uyg‘unlashmaganligi, talabalar o‘zlashtirishining turli komponentlari o‘rtasida uyg‘unlikning yetarli emasligidir. Raqamli vositalar (CAT-tools, MT, GPT-modellar) bilan ishlash bo‘yicha salohiyat yetarli shakllanmagani, talabalar orasida madaniyatlararo tafakkur darajasining turlicha bo‘lishi ham muammolardan biridir. Sinergetik yondashuv aynan shu muammolarni hal etish uchun zarur bo‘lgan integrativ mexanizmlar majmuasini taklif etadi. Tadqiqot maqsadi – tarjimon talabalarida malaka kompetensiyalarini rivojlantirish uchun sinergetik muhit yaratishning nazariy asoslari va amaliy yechimlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: ushbu vazifalarni 1-rasmda aniq va tushunarli qilib tasvirlab qo’yganmiz.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


Sinergetik yondashuv nazariyasi Prigojin, Haken, Moren kabi olimlarning murakkab tizimlar haqidagi konseptual qarashlariga tayanadi. Ularning fikriga ko‘ra, murakkab tizimlar elementlari o‘zaro ta’sir qilgan holda yangi sifatlar hosil qiladi. Tarjimonlik ta’limiga tatbiq etilganda, sinergetika kognitiv, lingvistik, madaniy va texnologik komponentlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini anglatadi. Tarjima ta’limi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar (PACTE, EMT, Kiraly, Göpferich) tarjimon kompetensiyasining ko‘p komponentli tuzilmasini ta’kidlaydi. Bu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: lingvistik kompetensiya, strategik kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya, texnologik kompetensiya, psixologik va refleksiv kompetensiya.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. nazariy-tahliliy metod – sinergetik yondashuv bo‘yicha ilmiy manbalarni tahlil qilish;
2. qiyosiy metod – o‘quv jarayonidagi mavjud model va sinergetik modelni taqqoslash;
3. tizimli yondashuv – tarjimon kompetensiyasini multifunksional tizim sifatida o‘rganish;
4. diagnostik yondashuv – muammolarni aniqlab, yechimlar ishlab chiqish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu ilmiy maqolamizda tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki: Tarjima ta’limida baholash jarayoni ko‘p yillardan beri an’anaviy mezonlar asosida olib borilmoqda. Bu mezonlar asosan grammatik to‘g‘rilik, mazmunni yetkazish darajasi va til birliklaridan to‘g‘ri foydalanishga urg‘u beradi. Biroq zamonaviy tarjimonlikda strategik qaror qabul qilish, matnga tanqidiy yondashish va refleksiv tahlil kabi ko‘nikmalar ham muhim hisoblanadi. Afsuski, amaldagi baholash tizimi ushbu murakkab jarayonlarni yetarli darajada qamrab olmaydi. 2-rasmga qaraydigan bo’lsak ketma ketlikda namoyish qilganmiz



2. Sinergetik muhit yaratish uchun taklif etilayotgan yechimlar

a) Integrativ-mavzuli o‘qitish modeli

Fanlararo integratsiya orqali tarjima, lingvistika, madaniyatshunoslik, texnologiya bir tizimda o‘rgatiladi.

b) Raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan sinergetik muhit

CAT-tools, DeepL, GPT, korpus lingvistikasidan foydalanish o‘quv jarayonini dinamik va interaktiv qiladi.

c) Refleksiv yondashuvning joriy etilishi

Talabalar o‘z tarjima jarayonini tahlil qiladi, refleksiv kundaliklar yuritadi, xatolarni mustaqil aniqlaydi.

d) Hamkorlik asosida o‘qitish

Guruhlararo sinergetik loyiha ishlari – parallel tarjima, izohli tarjima, madaniyatlararo tahlil.

XULOSA

Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, tarjimonlikda malaka kompetensiyalarini shakllantirish sinergetik yondashuvsiz to‘laqonli amalga oshmaydi. Sinergetik muhit lingvistik, kognitiv, madaniyatlararo, texnologik va refleksiv komponentlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Mazkur model orqali ta’lim jarayonining parchalanganligi bartaraf etiladi, talaba o‘zlashtirishi yanada tizimli, dinamik va interaktiv xarakter kasb etadi. Taklif etilgan yechimlar – integrativ ta’lim, raqamli vositalar, refleksiya, hamkorlik asosida o‘qitish – tarjimon tayyorlash tizimini sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Prigogine I., Stengers I. *Order Out of Chaos: Man's New Dialogue with Nature*. – New York: Bantam Books, 1984. – 349 p.
2. Haken H. *Synergetics: Introduction and Advanced Topics*. – Berlin: Springer, 2004. – 450 p.
3. Morin E. *The Theory of Complexity: Knowledge and Action*. – New York: Springer, 2013. – 272 p.
4. PACTE Group. *Investigating Translation Competence: Conceptual and Methodological Issues*. – Journal of Translation Studies, 2005. – №1. – pp. 12–37.
5. EMT Expert Group. *Competence Framework for Professional Translators*. – European Commission, 2017. – 29 p.
6. Kiraly D. *A Social Constructivist Approach to Translator Education*. – Manchester: St. Jerome Publishing, 2000. – 292 p.
7. Göpferich S. *Translationsprozessforschung: Stand und Perspektiven*. – Tübingen: Narr Verlag, 2008. – 210 p.
8. Robinson D. *Becoming a Translator: An Introduction to the Theory and Practice of Translation*. – London: Routledge, 2012. – 320 p.

9. González Davies M. *Multiple Voices in the Translation Classroom*. – Amsterdam: John Benjamins, 2004. – 256 p.

10. Nord C. *Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained*. – Manchester: St. Jerome, 1997. – 145 p.

11. House J. *Translation Quality Assessment: Past and Present*. – London: Routledge, 2015. – 230 p.

12. Nida E. A. *Toward a Science of Translating*. – Leiden: Brill, 1964. – 344 p.

13. Chesterman A. *Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory*. – Amsterdam: John Benjamins, 1997. – 168 p.

14. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

15. O‘zDJTU Ta’lim standartlari. *“Filologiya va tarjima yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari”*. – Toshkent, 2021. – 67 bet.

16. Shodiev A. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 215 bet.

17. Kadirova N. *Zamonaviy tarjimon tayyorlashda kompetensiya yondashuvi*. – “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2022. – №3. – 45–52-betlar.

18. Qodirov M. *Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda integratsion yondashuv*. – “Pedagogika” jurnali, 2020. – №6. – 33–40-betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

“E-OVOZ” MOBIL ILOVASINI LOYIHALASH VA TEXNOLOGIK YECHIMLARI

Qo‘qon davlat universiteti
Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt kafedrasi
DSc dotsent ***Abdullayev Alibek Qodiraliyevich***
quqon_alibek@mail.ru
Muhammadrahimov Halilulloh Axrorjon o’g’li
70610101 - Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta’minoti
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
+998882057766
mailto:halilqahhorov789@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida kengash jarayonlarida o‘tkaziladigan tanlov va ovoz berish jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan “E-Ovoz” mobil ilovasi taqdim etiladi. Ilova Android platformasi uchun Kotlin dasturlash tilida va Google Firebase real-time ma’lumotlar bazasi yordamida yaratilgan. Tizimda ikkita asosiy panel – Admin (kengash raisi) va User (ovoz beruvchi o‘qituvchilar) panellari mavjud. Avtorizatsiya Google va telefon raqami (SMS-kod) orqali, ovoz tasdiqlash esa biometrik (barmoq izi) yoki qurilma paroli/grafik kalit yordamida amalga oshiriladi. Pilot sinovlarda jarayon davomiyligi o‘rtacha 76 % qisqarganligi, inson omilidan kelib chiqadigan xatolar butunlay yo‘qolganligi va natijalarning real vaqtda barcha ishtirokchilarga ochiq-oydin ko‘rinishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: elektron ovoz berish, mobil ilova, real-time natija, Firebase, biometrik tasdiqlash, oliy ta’lim muassasasi, raqamlashtirish.

Annotation.This article presents the “E-Ovoz” mobile application developed to digitize the voting and selection processes conducted during council meetings in higher education institutions. The application is built for the Android platform using the Kotlin programming language and Google Firebase real-time database. The system consists of two main panels: Admin panel (council chairman) and User panel (teaching staff entitled to vote). Authentication is performed via Google account or phone number (SMS-code), and vote confirmation is carried out using biometric authentication (fingerprint) or device password/pattern. Pilot testing showed that the duration of the process was reduced by an average of 76%, human-induced errors were completely eliminated, and results became visible to all participants in real time.

Keywords: electronic voting, mobile application, real-time results, Firebase, biometric authentication, higher education institution, digitalization.

Аннотация.В статье представлено мобильное приложение «E-Ovoz», разработанное для цифровизации процессов голосования и конкурсного отбора, проводимых на заседаниях учёных советов вузов. Приложение создано для платформы Android на языке программирования Kotlin с использованием облачной real-time базы данных Google Firebase. Система содержит две основные панели — панель администратора (председатель совета) и панель пользователя (преподаватели, имеющие право голоса). Аутентификация осуществляется через аккаунт Google или номер телефона (SMS-код), подтверждение голоса — с помощью биометрической идентификации (отпечаток пальца) либо пароля/графического ключа устройства. В ходе пилотных испытаний продолжительность процесса сократилась в среднем на 76 %, ошибки, вызванные человеческим фактором, полностью устранены, а результаты стали доступны всем участникам в режиме реального времени.

Ключевые слова: электронное голосование, мобильное приложение, результаты в реальном времени, Firebase, биометрическая аутентификация, высшее учебное заведение, цифровизация.

Kirish.Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchi tarkibini lavozimga tayinlash, ilmiy unvon va daraja berish masalalari hal qilinadigan kengash yig‘ilishlari an’anaviy qog‘oz varaqalar orqali ovoz berish usulida o‘tkazilmoqda. Ushbu usulning bir qator jiddiy kamchiliklari mavjud:

- jarayon o‘rtacha 40–60 daqiqa davom etadi;
- qo‘lda sanashda kamida 1 ta ovozga adashish mumkin[1];
- ovoz berish varaqalarini tayyorlash, tarqatish va yig‘ish katta miqdorda qog‘oz va inson resurslarini talab qiladi;
- kim qaysi nomzodga ovoz bergani to‘liq shaffof emas, bu esa ishonchlilikka shubha uyg‘otadi;
- natijalarni arxivlash va keyinchalik tekshirish qiyinchilik tug‘diradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida davlat boshqaruvi va ta’lim sohasini to‘liq raqamlashtirish, shu jumladan, ichki saylov va tanlov jarayonlarini elektron shaklarga o‘tkazish aniq vazifa qilib belgilangan[2]. Shu bilan birga, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-fevraldagi 57-sonli buyrug‘ida barcha oliy ta’lim muassasalarida 2025-yilgacha boshqaruv jarayonlarining kamida 80 % raqamlashtirilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Estoniya (2005-yildan), Shvetsariya (Swiss Post Voting), Janubiy Koreya va Singapur universitetlari ichki saylovlarini elektron platformalar orqali o‘tkazmoqda[3]. Biroq ushbu tajribalarning aksariyati yirik davlat saylovlari yoki ochiq

internet saylovlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalaridagi 10–300 kishilik yopiq kengashlar uchun maxsus, zamonaviy va byudjeti past yechimlar deyarli yo‘q. Shu sababli, ushbu tadqiqotning maqsadi – oliy ta’lim muassasalari uchun maxsus ishlab chiqilgan, xavfsiz, real vaqtda ishlaydigan, biometrik tasdiqlashga ega va minimal infratuzilma talab qiladigan “E-Ovoz” mobil ilovasini loyihalash va amaliy sinovdan o‘tkazishdan iborat bo‘ldi.

Adabiyotlar tahlili

Elektron ovoz berish bo‘yicha fundamental ishlar Rivest (2019) tomonidan belgilangan uch tamoyil – yaxlitlik, maxfiylik va tasdiqlanuvchanlik atrofida qurilgan[4]. Nguyen va Lee (2021) blokcheyn asosidagi universitet saylovlari tajribasini o‘rganib, inson omilini 85 % ga kamaytirish mumkinligini ko‘rsatgan[5]. Kshetri va Voas (2018) blokcheynning o‘zgarmasligi tufayli sudda isbotlanuvchanlik yuqori ekanini ta’kidlaydi[6]. Biroq blokcheyn yechimlari qimmat va murakkab infratuzilma talab qiladi. Benenson va boshqalar. (2022) Firebase Realtime Database yordamida talabalar kengashlari saylovlarini 1 sekunddan kam kechikish bilan o‘tkazish mumkinligini isbotlagan[7]. Mahalliy adabiyotda Karimov (2022) va Abdullayev (2023) ta’lim muassasalarida elektron hujjat aylanishi va ichki saylovlarni raqamlashtirish zarurligini ta’kidlagan[8,9]. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Firebase + biometrik autentifikatsiya kombinatsiyasi OTMlar uchun eng maqbul, arzon va xavfsiz yechim hisoblanadi – bu tadqiqotning asosiy yangiligi.

Tadqiqot metodologiyasi

1. 15 ta an’anaviy kengashning chronometraji va xatolar tahlili bilan tanishib chiqildi.
2. 120 nafar o‘qituvchi orasida so‘rovnoma o’tkazildi.
3. Tez prototiplash usuli bilan mobil ilova ishlab chiqish bosqichiga o’tildi.
4. Ko’p marotaba turli joylarda real sinovdan o’tkazildi.

Natija va muhokamalar


Natijalar shuni ko‘rsatadiki, elektron ovoz berish tizimlari oliy ta’lim muassasalarida qaror qabul qilish jarayonlarini sezilarli darajada samarali qiladi. Hamda jarayonning davomiyligi 76% ga qisqardi; inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar deyarli yo‘qoldi; natijalarni avtomatik tahlil qilish imkoniyati yaratildi; ishtirokchilarning ishonch darajasi sezilarli oshadi.


Texnik arxitektura va texnologiyalar:

Komponent	**Texnologiya**	**Sababi**
Platforma	Android (min SDK 21)	Eng keng tarqalgan operatsion tizim.
Dasturlash tili	Kotlin 1.9+	Null-safety hamda zamonaviy
Backend & DB	Firebase Realtime Database +	Real-timeda ishlash oson

	Firestore	va bepul,
Avtorizatsiya	Firebase Auth (Google + Phone)	Bepul SMS
Biometrik tasdiqlash	AndroidX BiometricPrompt API	Barmoq izi, PIN, Pattern
UI	Jetpack Compose	Tez va zamonaviy

Funksional panellar va jarayon sxemasi:





Admin paneli – nomzod qo‘shish, tanlov yaratish, ochiq/yopiq rejim, real-time monitoring

User paneli – nomzod ma’lumotlari, HA/YO‘Q ovoz berish, real-time natija

Xavfsizlik mexanizmlari:

- Bir kishiga faqat bir marta ovoz berish (Firebase Rules) orqali.
- Biometrik tasdiqlash majburiy.
- Server timestamp bilan ishlaydi audit uchun kerak.
- Berilgan ovozni o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Amaliy natijalar:

Ko‘rsatkich	An’anaviy	E-Ovoz	Farq
Davomiyligi	40–60 daqiqa	10–15 daqiqa	–76 %
Xatolar	Kamida 1 ta ovozga adashish	xatosiz	–100 %
Qog‘oz sarfi	60–80 varaq	0	–100 %

Biroq, bunday tizimlarni joriy etishda ayrim muammolar mavjud — xususan, texnik infratuzilma yetishmasligi, foydalanuvchilarning raqamli savodxonlik darajasi pastligi va kiberxavfsizlikka doir xavf-xatarlar. Kelgusida blokcheyn texnologiyasi asosida ovoz berish tizimlarini yaratish orqali bu muammolarni kamaytirish mumkin.

Xulosa

“E-Ovoz” mobil ilovasi oliy ta’lim muassasalarida kengash ovoz berish jarayonlarini samarali, xavfsiz va tezkor raqamlashtirishning amaliy yechimi ekanligini real sinovlarda isbotladi. Ilovani respublika miqyosida joriy etish millionlab so‘m va minglab soat tejash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov A. R. Raqamli boshqaruv tizimlarining ta’lim jarayonlaridagi o‘rni // Innovatsion texnologiyalar ilmiy-texnik jurnali.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-oktyabrdagi 623-son qarori bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 512-modda.
3. Kshetri N., Voas J. Blockchain-Enabled E-Voting // IEEE Computer.
4. Rivest R. L. On the notion of software independence in voting systems // Journal of Computer Security
5. Nguyen T., Lee J. Blockchain-based voting system for university elections // IEEE Access
6. Benenson Z., Freiling F. C., Meier S. Real-time voting with Firebase: A case study in student council elections // Proceedings of the 15th International Conference on Availability, Reliability and Security (ARES 2022).
7. Abdullayev A. Q. Oliy ta’limda raqamli transformatsiya: muammo va yechimlar // Ilm-fan va ta’lim 78–85 sahifalar
8. Park S., Lee K. Enhancing transparency and security in electronic voting using blockchain technology // Information Systems Frontiers.
9. Statcounter Global Stats. Mobile Operating System Market Share Uzbekistan [Elektron resurs]

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ERTALABKI YUGURISHNING INSON SALOMATLIGIGA IJOBIY TA’SIRI

Abdullayev Oybek Kurbonovich
Qo‘qon davlat universiteti
“Jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Jismoniy faollik yetishmasligi zamonaviy jamiyatda yurak-qon tomir kasalliklari, ortiqcha vazn, ruhiy stress va boshqa surunkali xastaliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Ertalabki yugurish sog‘liqni mustahkamlashning eng oddiy, tejamkor va samarali usullaridan biridir. Ushbu maqolada ertalabki yugurishning yurak-qon tomir tizimi, metabolik jarayonlar, ruhiy salomatlik va jismoniy tayyorgarlikka ta’siri xalqaro va mahalliy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, jismoniy faollikning bajarilish vaqti sog‘liq natijalariga qanday ta’sir qilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *Ertalabki yugurish,Jismoniy faollik,Sog‘lom turmush tarzi,Yurak-qon tomir tizimi,Ruhiy barqarorlik.*

Аннотация.Недостаток физической активности в современном обществе приводит к росту сердечно-сосудистых заболеваний, избыточного веса, психического стресса и других хронических патологий. Утренняя пробежка является одним из самых простых, экономичных и эффективных способов укрепления здоровья. В данной статье анализируется влияние утреннего бега на работу сердечно-сосудистой системы, метаболические процессы, психическое здоровье и физическую подготовку на основе международных и местных исследований. Особое внимание уделяется тому, как время выполнения физической активности влияет на результаты для здоровья.

Ключевые слова: *Утренняя пробежка,Физическая активность,Здоровый образ жизни,Сердечно-сосудистая система,Психологическая устойчивость*

Abstract.A lack of physical activity in modern society contributes to an increase in cardiovascular diseases, excess body weight, psychological stress, and other chronic conditions. Morning running is one of the simplest, most cost-effective, and efficient ways to strengthen health. This article analyzes the effects of morning running on the cardiovascular system, metabolic processes, mental well-being, and physical fitness based on both international and local research. Special attention is given to how the timing of physical activity influences health outcomes.

Keywords:*Morning running,Physical activity,Healthy lifestyle,Cardiovascular system,Mental well-being.*

Kirish. Zamonaviy hayot tarzida inson salomatligini saqlash va mustahkamlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanishi, ish jarayonlarining ko‘p hollarda o‘tirgan holda bajarilishi, noto‘g‘ri ovqatlanish odatlari va stress omillari jismoniy faollikning kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, har kuni muntazam ravishda ertalab yugurish sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ertalabki yugurish nafaqat tanani chiniqtiradi, balki ruhiy holatni yaxshilaydi, kunni tetik va samarali boshlashga yordam beradi. Ushbu maqolada ertalabki yugurishning inson salomatligiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri, uning fiziologik va psixologik afzalliklari ilmiy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Ertalabki yugurish va umuman jismoniy faollikning inson salomatligiga ta’siri ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, muntazam jismoniy mashqlar yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi, qon bosimini me’yorda ushlab turadi hamda semirish, qandli diabet va depressiya kabi kasalliklarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi (WHO, 2023).

O‘zbekistonlik mutaxassislar — X. Jo‘rayev (2019) va D. Qodirova (2021) tadqiqotlarida ertalabki yugurishning nafas olish tizimini chiniqtirish, immunitetni mustahkamlash va ish qobiliyatini oshirishdagi ahamiyati ta’kidlangan. Shuningdek, A. Karimov (2020) o‘z izlanishlarida yugurish mashg‘ulotlarining psixologik foydasiga e’tibor qaratib, u stressni kamaytirish, kayfiyatni ko‘tarish va motivatsiyani oshirishga xizmat qilishini ilmiy asoslab bergan.

Xorijiy adabiyotlarda ham ushbu masala keng yoritilgan. Masalan, J. Thompson (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har kuni ertalab 20–30 daqiqa yuguradigan shaxslarning yurak urish chastotasi barqarorlashadi, uyqu sifati yaxshilanadi va ish unumdorligi 15–20 foizga oshadi. Shu asosda aytish mumkinki, ilmiy manbalarning aksariyati ertalabki yugurishning inson organizmiga kompleks ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarning jismoniy va ruhiy holatlari muntazam ravishda kuzatilib, ertalabki yugurishning ularning umumiy sog‘lig‘iga ta’siri har tomonlama tahlil qilindi. To‘rt hafta davom etgan mashg‘ulotlardan so‘ng olingan ma’lumotlar quyidagicha natijalarni ko‘rsatdi:

1. **Fiziologik ko‘rsatkichlar**

DISCUSSION. Language awareness as an educational approach was first formally introduced within the context of mother-tongue instruction in the United Kingdom. Within this framework, language awareness was positioned alongside *knowledge about language (KAL)* as a core component of the curriculum and was defined as follows: language and the process of learning it should be incorporated into the English-language curriculum in accordance with contemporary principles of linguistics. Although this approach was initially implemented to a comparatively limited extent, it has since been extended to the teaching of modern foreign languages and to various other school subjects. In the process of learning to use English as an effective tool of communication, not only its cultural and social dimensions but also grammatical and methodological components−aimed at developing linguistic competence−were incorporated into instruction (Witold Tulasiewicz, 1993, p. 7).

In the context of language education, the concept of *language awareness as an educational process* holds a distinct place. According to Witold Tulasiewicz and Anthony Adams 1998, language awareness involves a deeper understanding of how languages function and can be developed and nurtured within the framework of school curricula. When viewed in a broader and more humanistic perspective, especially in multilingual education, language awareness can be defined as follows.

“Language awareness becomes a tool for stimulating learners’ interest in the language itself and in the cultures associated with it during the language learning process… This process is particularly strengthened when learners utilize their mother tongue as a resource a principle that has been recognized and applied in multicultural and multilingual classrooms”.

Language awareness encompasses the study of the language itself, its cultural content, linguistic phenomena, language experience and its application, language competence and performance, as well as teaching and learning strategies. It also includes the role of language in multicultural social contexts, thereby covering all relevant aspects of language. Through such a broad and profound approach, language awareness is understood not merely as a “tool,” but as a comprehensive component of language education.

Language awareness functions as an educational approach that fosters respect for the language in the learners’ environment and enables critical thinking. It provides opportunities for effective language use with a clear purpose and cultivates the ability to critically evaluate the intentions embedded in other languages. The term *critical* denotes constructive and open-minded evaluation within any communicative process, thereby creating the potential for applying language awareness in intercultural education (Tulasiewicz & Zajda, 1996: 34-35). In terms of language education, language awareness pursues three primary objectives:

1. *To develop learners’ ability to use language effectively and purposefully;*
2. *To foster the capacity for critical evaluation in language use;*
3. *To cultivate respect for other languages and cultures within multicultural and multilingual communities.*

The principles underlying language awareness are directed toward the cognitive, intellectual, and affective development of learners. Broadly understood, language awareness in education refers to the study of language as an independent phenomenon, while simultaneously encompassing all aspects of language as it relates to human life. From a methodological perspective, language awareness has been developed primarily by Rod Bolitho, Simon Borg, and Claus Gnutzman, with a focus on preparing language learners and teachers. Derek Wright and Rod Bolitho 1993 define language awareness as *“a methodology for teaching language and language use, as well as for identifying classroom practices and communicative requirements”.* Although teachers’ knowledge of language is crucial, it is often underdeveloped and needs to be strengthened.

Language awareness activities encourage teachers to become more sensitive to linguistic phenomena, to explore the language from multiple perspectives, and to analyze prior knowledge and problem-solving strategies. Building on this framework, Simon Borg 1994:62 examines the principles of language awareness methodology in language teaching. From a holistic perspective, Borg emphasizes both its methodology and its importance for teacher training. He views language learning as a continuous, dynamic process that involves understanding the evolving nature of language. For learners, tasks designed to encourage problem-solving and exploration enhance comprehension and promote active engagement with their own learning process.

Simon Borg identifies the following specific characteristics of language awareness methodology:

1. Viewing language learning as a dynamic and continuous research process;
2. Treating reflection on language as an integral part of language learning;
3. Promoting problem-solving and investigative processes as effective learning strategies;
4. Developing learners’ cognitive and affective engagement to foster conscious understanding;
5. Enhancing learners’ knowledge of language and supporting continuous, autonomous learning.

CONCLUSION. Language awareness is a complex and multidimensional phenomenon that underpins effective language learning and teaching. It involves a learner’s conscious understanding of language structures, functions, and usage, while also encompassing the ability to reflect on language in social, cultural, and educational contexts. As highlighted by linguists, language awareness operates at multiple levels−ranging from perceptual and attentional processes to higher-order cognitive reflection and understanding. This layered awareness enables learners to engage actively with language, recognize its variability, and connect linguistic knowledge to personal and societal experiences. In educational contexts, language awareness serves both as a pedagogical principle and a methodological framework. It supports learners’ cognitive and affective development, strengthens analytical and critical thinking skills, and enhances their ability to communicate

purposefully and meaningfully. The research of scholars demonstrates that fostering language awareness in the classroom encourages interactive learning, reflective exploration, and holistic engagement with language.

Through deliberate practice, learners develop skills in analyzing linguistic forms, understanding language use in context, and appreciating the cultural and social dimensions of communication. Ultimately, language awareness is not merely an abstract theoretical concept but a practical and dynamic tool that enhances linguistic competence, cognitive development, and intercultural understanding. By embedding language awareness into teaching and learning processes, educators can cultivate learners' ability to think critically, communicate effectively, and navigate the complex interplay of language, thought, and culture-preparing them for lifelong learning and active participation in a diverse and interconnected world.

LIST OF REFERENCES:

1. A.Adams, & W.Tulasiewicz Language awareness in the curriculum. London: Routledge 1998.

2. S.Borg Teacher cognition in language teaching: A review of research on what language teachers think, know, believe, and do. London: Routledge 1994.

3. R.Bolitho & D.Wright Language awareness and language teaching methodology. Oxford: Oxford University Press 1993.

4. G.Donmall Language awareness: A foundation for language teaching. London: Modern English Publications 1985.

5. G.Donmall Language awareness and the language teacher. London: Longman 1991.

6. D.Little Language awareness in European language education. Strasbourg: Council of Europe 1997.

7. H.Nicholas Language and education: Developing communicative competence. Cambridge: Cambridge University Press 1991.

9. W.Tulasiewicz & J.Zajda Critical language education: Theory and practice. London: Routledge 1996.

10. W.Tulasiewicz Language learning and cultural awareness. London: Routledge 1993.

11. D.Wright & R.Bolitho Language awareness in teacher training. Oxford: Oxford University Press 1993.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SINFDAN TASHQARI O‘QISH YORDAMIDA ALISHER NAVOIY SHAXSIYATINI O‘RGANISH

Iroda Ishonxanova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
E-mail: ishonxanova74@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy shaxsiyatini o‘rganishda ijodkor asarlarining ahamiyati borasida so‘z boradi. Shuningdek, shoir haqida yozilgan asarlarga ham to‘xtab o‘tilgan. Sinflar kesimida sinfdan tashqari o‘qish uchun adabiyotlar tavsiya qilingan. Badiiy asarlar g‘oyasi va mazmuniga izoh berilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, sinfdan tashqari o‘qish, ruboiy, g‘azal, hikmatlar, doston.

Аннотация: В статье рассматривается значение творчества Алишера Навои в изучении личности поэта. Также внимание уделяется произведениям, написанным о поэте. Рекомендована литература для внеклассного чтения по классам. Разъясняются идея и содержание литературных произведений.

Ключевые слова: Алишер Навои, внеклассное чтение, рубаи, газель, афоризмы, эпос.

Abstract: This article examines the significance of Alisher Navoi's work in the study of the poet's personality. Attention is also paid to works written about the poet. Literature is recommended for extracurricular reading by grade level. The concept and content of literary works are explained.

Key words: Alisher Navoi, extracurricular reading, rubai, ghazal, aphorisms, epic.

Kirish. Ma’lumki, g‘azal mulkining sultoni mir Alisher Navoiy hayoti va ijodi salkam 600 yil davomida dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiyot darslarida ijodkor shaxsiyatiga katta e’tibor qaratilgan. Deyarli har bir sinf adabiyot darsliklarida ulug‘ bobokalonimiz asarlaridan namunalar keltirilgan. Biz doimo o‘quvchilarga Alisher Navoiy shaxsiyati hamda ijobiy qahramonlarini ibrat sifatida ko‘rsatganmiz. Shoir asarlari ta’sirida ulg‘aygan avlod yomon illatlardan yiroq yuradi, qo‘lidan kelgancha barchaga yaxshilik qilishga harakat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili(Literature review)

O‘rta umumta’lim maktablari dasturiga kiritilgan Alisher Navoiy hayoti haqidagi asarlarni ko‘rib chiqqan holda, shunday mulohaza bildirmoqchimiz: har bir sinf o‘quvchilarining yoshiga mos ravishda Alisher Navoiy asarlarini hamda ulug‘ bobokalonimiz haqidagi badiiy asarlardan namunalarni mustaqil o‘qishlari uchun (sinfdan tashqari o‘qish) tavsiya qilish mumkin. Biz ana shu tavsiyalarimizni jadval ko‘rinishiga keltirdik:

1-jadval

Sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etilgan Alisher Navoiy asarlari

Sinf	**Asar nomi**	**Izoh**
5	Alisher Navoiy hikmatlari	Navoiy hikmatlari necha asrlardan beri o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ular hajman katta emas hamda ma’nosi chuqur. 5-sinf o‘quvchisiga hikmatlarni yod olish qiyinchilik tug‘dirmaydi.
6	Alisher Navoiy ruboiylari	Ruboiylar – ijodkorning eng ko‘p tarqalgan hamda teran mazmunli asarlari hisoblanadi. O‘quvchi ularni o‘qish barobarida ma’nosini chaqib boradi.
7	“Hayrat ul-abror” dostoni hikoyatlari nasriy bayoni	“Hayrat ul-abror” dostoni pand-nasihat yo‘nalishidagi asar bo‘lgani bois, uning tarkibidagi hikoyatlar kitobxonlarda doim qiziqish uyg‘otgan. Asliyatdan mutolaa qilish qiyinchilik tug‘dirmasligi uchun nasriy bayonini tavsiya qilamiz.
8	Alisher Navoiy g‘azallari	O‘quvchi Alisher Navoiy shaxsiyatini o‘rganishi davomida unga berilgan “g‘azal mulkining sultoni” ta’rifini eshitadi. Bu e’tirofning qanchalik haqiqatga yaqinligini tushunishi uchun g‘azallardan namuna yodlashi kerak. Shunda ijodkorning mahoratini, so‘zni qo‘llash mahoratini his qiladi.
9	“Layli va Majnun” dostoni	Odatda, 9-sinfda Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni o‘rganiladi. Agar o‘quvchilar mustaqil tarzda “Layli va Majnun” dostonini mutolaa qilsalar, Farhod va Qays muhabbatini qiyoslab ko‘rishadi. O‘qituvchi ham majoziy ishq va Ollohga bo‘lgan muhabbat haqidagi ma’lumotlarni tushuntirishi oson kechadi.
10	“Sab’ayi sayyor” dostoni	Avvalgi darsliklarga “Mehr va Suhayl” hikoyati kiritilgan edi. Lekin o‘quvchilar asarni to‘liq o‘qisa, doston sujeti haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Asardagi voqealar rivoji hamda alohida hikoyatlarni bir-biridan ajrata oladi. Har bir hikoyatdan kerakli xulosani chiqarishga harakat qiladi. Bahromshohning xatolari haqida fikrlay oladigan bo‘ladi.
10-11	“Mahbub ul-qulub”	Pand-nasihat shaklidagi bu asar shoirning so‘nggi ijod namunasi bo‘lib, hayot davomida orttirilgan xulosalar jamlangan. Unda turli kasb egalari haqida mulohazalar, yaxshi fazilatlar va yomon illatlar ta’rifi keltirilgan. Mustaqil hayotga yo‘l olayotgan o‘quvchi

		bu asardan juda ko‘p zarur ma’lumotlarni olishi mumkin. Shuningdek, “Mahbub ul-qulub” ta’sirida o‘z fe’l-atvorini shakllantirishi ham mumkin bo‘ladi.
11	“Saddi Iskandariy” dostoni	“Xamsa”ning so‘nggi dostoni hajm jihatidan eng kattasi bo‘lishi bilan birga, ma’nosi ham juda chuqurdir. Iskandar timsolida Alisher Navoiy adolatli podsho haqidagi orzu-istaklarini jamlagan. Iskandar qurdirgan devor faqatgina xalqini dushmanlardan himoya qiluvchi qalqon, balki inson ko‘nglini, fe’lini yomonliklardan qo‘riqlab turuvchi ihota ekanligini o‘quvchilar tushunib yetishi zarur bo‘ladi.

Yuqorida ayrim asarlar tilga olinmagan bo‘lishi mumkin. Lekin bu jadval tavsiya xarakteriga ega. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilar saviyasidan kelib chiqqan holda, asarlar kiritishi mumkin. Masalan, “Majolis un-nafois” tazkirasini ham yuqori sinflarga tavsiya etish mumkin. O‘quvchilar Navoiy davri adabiyot olami vakillari va ularning asarlari bilan tanishibgina qolmasdan, muallifning naqadar bilimdon adabiyotshunos ekanligiga amin bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi(Research Methodology). Agar adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, ko‘plab asarlarda Alisher Navoiy shaxsiyati tilga olinganini ko‘ramiz. Ayniqsa, zamonaviy adabiyotimiz vakillari ulug‘ ijodkorimizga bag‘ishlab turli janrlarda asarlar yaratganlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari ham shu ijod namunalari bilan tanishsa, foydadan xoli bo‘lmasdi. Shu boisdan Alisher Navoiy haqida yozilgan asarlarni ham mustaqil o‘qish uchun jadval shaklida tavsiya etdik.

2-jadval

Sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etilgan Alisher Navoiy haqidagi adabiyotlar

Sinf	**Muallif**	**Asar nomi**	**Izoh**
5	Lidiya Bat	“Hayot bo‘stoni” qissasi	Qissa “Bolalik yillari”, “Yigitlik chog‘lari”, “Kamolot”, “Keksalikning o‘git-nasihatlari” qismlariga bo‘lingan. Alisher Navoiyning bolalik chog‘laridan vafotiga qadar bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga olgan.
5	Oybek	“Alisherning bolaligi” qissasi	Alisherning to‘rt yoshligidan Iroqqa borib yashab, qaytgan paytigacha bo‘lgan voqealar hikoya qilinadi.
6	rivoyatlar to‘plami	“El desa Navoiyni”	Alisher Navoiy haqidagi xalq orasida mashhur bo‘lgan rivoyatlar keltirilgan. “Alisher va bulbul”, “Bosh va til”, “Sharafli burch”,

			“Yaxshidan bog‘ qoladi” kabi rivoyatlar katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.
7	Erkin Vohidov	G‘azallari va Alisher Navoiy haqidagi she’rlari	“Alisher Navoiy kemasi”, “O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa” she’rlari, Alisher Navoiy g‘azallariga muxammaslari – “Ayriliq oni yaqindur...”, “Ko‘z ochar gulshanda...” hamda shoirning g‘azal janrida yozgan she’rlari mustaqil o‘qish uchun beriladi.
7	Abdulla Oripov	Alisher Navoiy haqidagi she’rlari	“Alisher”, “Alisherning onasi”, “Navoiy ko‘chasi”, “Alisher Navoiy monolog so‘zi”, “Navoiy”, “Alisher va talaba” she’rlari, Alisher Navoiy g‘azaliga yozgan muxammasini o‘qish uchun tavsiya qilish mumkin.
8	Uyg‘un va Izzat Sulton	“Navoiy” dramasi	Bu drama darsliklar rejasiga kiritilmagan bo‘lsa ham, uni sahnalashtirish an’anasi ko‘plab ta’lim muassasalarida bor. Asar matni ham sodda bo‘lgani uchun o‘quvchilar yaxshi qabul qiladilar.
8	Muhammad Yusuf, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid, Nodir Jonuzoq va b.	Alisher Navoiy haqidagi she’rlar	“Navoiy”, “Alisher Navoiy”, “Mir Alisher”, “Navoiyni o‘qish” kabi she’rlarda Alisher Navoiy shaxsiyatiga zamonaviy qarashlar bor. O‘quvchilar ham so‘zlar izohida qiynalishmaydi.
9	Erkin A’zamov	“Navoiyni o‘qigan bolalar” hikoyasi	Alisher Navoiy ijodiga chuqur hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan Janobiddin Sayfiddinov hikoyaning markaziy qahramoni. Navoiy g‘azallari bilan “Bahru bayt” o‘tkazilgani sahnasi juda ta’sirli. Hikoyaning radioinssenirovkasi ham bor.
9	Isajon Sulton	“Alisher Navoiy” romani	Alisher Navoiy shaxsi haqida yaratilgan eng yangi roman. 9-sinf dasturiga Oybekning “Navoiy” romani kiritilgani sababli o‘quvchilar ikkala romanni bir-biriga qiyoslashi mumkin.
10	Isajon	“Avvalgilarga	Omon Matjonning Alisher Navoiy g‘azaliga

	Sulton	o‘xshamas” qissasi	bog‘lagan muxammasi sevimli hofizimiz Sherali Jo‘rayev tomonidan kuylangan. Qissa shu qo‘shiq ohangida yozilgan. Alisher Navoiy ijodiga cheksiz hurmat va muhabbatdan tashqari, qishloq hayotining og‘riqli muammolari berilgan.
10	Abdulla A’zamov	“Dugohi Husayniy”(drama-versiya), “O‘z-o‘zini izlagan va topgan odam”dramalari	“Dugohi Husayniy” dramasida Alisher tog‘asi Mirsaidning qizi Guli bilan unashtirilgan bo‘ladi. Abu Said mirzo buyrug‘i bilan Mirsaid Kobuliy qatl etiladi, Guli esa otasining xunini oladi va shahid bo‘ladi. “O‘z-o‘zini izlagan va topgan odam” dramasida Navoiyning vazir sifatida xalqqa bo‘lgan e’tibori ko‘rsatilgan. Saroy a’yonlari fitnasi tufayli amalidan iste’fo bergani, Xoja Abdulloh Ansoriy mozorining faxriy jorubkashi bo‘lganligi haqida hikoya qilinadi. (Bu dramalardan parchalarni sahnalashtirish ham yaxshi natija beradi)
11	Chustiy, Jamol Kamol, Omon Matjon, Muhammad Ali, Bobur Bobomurod va b.	Alisher Navoiy g‘azallariga muxammaslar	Zamonaviy shoirlarimizning ko‘pchiligi aruz vaznida ham ijod qilmoqdalar. Ayniqsa, Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari diqqatga sazovordir. Jadvalda nomlari keltirilmagan boshqa ijodkorlarimiz (masalan, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid) muxammaslarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘lardi.
11	Xotiralar	“Alisher Navoiy zamondoshlari xotirasida”	To‘plamga Alisher Navoiyni bevosita ko‘rgan, hamsuhbat bo‘lgan zamondosh ziyolilarining xotiralari kiritilgan.

Tahlil va natijalar(Analysis and results). Yozuvchining tarjimayi holini o‘rganish uning qarashlarini bilishga, shaxsiyati, fe’l-atvori va taqdirining o‘ziga xosligini ko‘rishga yordam beradi. Har bir adabiy asar uning muallifi shaxsini aks ettiradi, muallifning pozitsiyasini ifodalaydi. Bu maktab o‘quvchilarini badiiy matnni obyektiv tushunishga olib borishga xizmat qiladi. Shu sababli biz bolalar Alisher Navoiy shaxsiyatini chuqurroq o‘rganishlari uchun adibning o‘zi yozgan asarlari hamda ijodkor haqida yaratilgan asarlarni sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya qildik. Bunda o‘quvchi ham shoirning ichki dunyosi bilan tanishadi, ham zamonaviy ijodkorlar Alisher Navoiy haqida to‘plagan ma’lumotlaridan

boxabar bo‘ladi. Qahramoni Farhodni komil inson sifatida tasvirlagan g‘azal mulkining sultoni timsolining o‘zi ham kitobxonlar uchun chin inson namunasidir. Shu sababli tavsiya etilgan asarlar mutolaa qilinsa, Alisher Navoiy asarlarini tushunish va qabul qilish birmuncha yengil kechardi.

Xulosa va takliflar(Conclusion/Recommendations). Bola 5–6 yoshlarida Qur’on oyatlarini, hadislarni yod oladi. Shuning uchun o‘quvchiga quyi sinflardan ruboiy, fardlar qatori g‘azal namunalarini ham yod oldirish lozim. Tushunish keyingi jarayon hisoblanadi. 5–6-sinflarga esa Navoiyning nisbatan soddaroq, hajman kichik asarlarini tavsiya qilib o‘tdik.

Sinflar kesimida tavsiya etilgan tarixiy va zamonaviy manbalardan foydalanish Alisher Navoiy siymosi, ijod namunalari bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi ma’naviy-ma’rifiy bog‘liqlikni yuzaga keltiradi.

Har bir sinfga mustaqil mutolaa uchun kitoblar tavsiya etishda Alisher Navoiy asarlari hamda u haqida hikoya qiluvchi ijod namunalari o‘quvchilarning intellektual imkoniyati, psixofiziologiyasiga qanchalik mos kelishi, lug‘atlar ustida ishlay olish qobiliyati, so‘z boyligi zaxirasiga tayangan holda taqdim etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Навоий замондошлари хотирасида”. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1985. – 224б.
2. To‘xliyev B. va b. Alisher Navoiy hayoti va ijodi(albom) . – Toshkent: Bayoz, 2013. – 56b.
3. To‘xliyev B. va b. Ta’lim bosqichlarida Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish. – Toshkent: Bayoz, 2017. – 208b.
4. Алишер Навоий. Ғазаллар, шарҳлар. – Тошкент: Камалак, 1991. – 176б.
5. Аъзам А. Тажрибалар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 272б.
6. Мадаев О. Навоий суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи НМИУ, 2018. – 248б.
7. Навоий А. МАТ: 20 томлик. – Тошкент: Фан, 1987–2003 йиллар
8. Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1983. – 112б.
9. Навоий А. Хамса. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 428б.
10. Навоий А. Ҳайратул-аброр. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1974. – 145б.
11. Навоий А. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 256б.
12. Султон И. Алишер Навоий. Роман. – Тошкент: Адабиёт, 2021. – 512б.
13. Эл деса Навоийни. Тошкент: Чўлпон, 1991. – 160б.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA KASBIY TA'LIM O‘QUVCHILARINING TIBBIY TA'LIMINI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Jamolov Anvar Kuchkorovich
Professional ta’limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi
jamolov_anvar@mail.ru
Ashurova Sanobar Yuldashevna
Professional ta’limni rivojlantirirsh instituti bo‘lim boshlig‘i,
pedagogika fanlari doktori, professor

Annotasiya. Ushbu maqolada tibbiyot texnikumlarida differensial yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning nazariy va amaliy jixatlari taxlil qilingan. Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning individual xususiyatlari, o‘quv imkoniyatlari va kasbiy qiziqishlarini hisobga olgan holda differensiallashgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari differensial yondashuvning o‘quvchilarning bilim sifati, kasbiy ko‘nikmalari va o‘qishga motivasiyasini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Tibbiy ta'lim jarayonida differensial yondashuvni qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: differensial yondashuv, tibbiy ta'lim, kasbiy ta'lim, tibbiyot texnikumi, individuallashtirish, ta'lim mazmuni, o‘quv metodikasi.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты организации учебного процесса в медицинских техникумах на основе дифференцированного подхода. В рамках исследования разработано дифференцированное содержание обучения с учётом индивидуальных особенностей, учебных возможностей и профессиональных интересов учащихся. Результаты проведённых экспериментально-опытных работ показали, что применение дифференцированного подхода способствует повышению качества знаний, профессиональных умений и учебной мотивации учащихся. В статье даны практические рекомендации по применению дифференцированного подхода в процессе медицинского образования.

Ключевые слова: дифференцированный подход, медицинское образование, профессиональное обучение, медицинский техникум, индивидуализация, содержание образования, учебная методика.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of organizing the educational process based on a differential approach in medical colleges. Within the framework of the research, differentiated educational content was developed taking into account the individual characteristics, learning abilities and professional interests of students. The results of the experimental work showed the potential of the differential approach to improve the quality of students' knowledge, professional skills and motivation to study. Practical recommendations are given for applying the differential approach in the medical education process.

Keywords: differential approach, medical education, vocational education, medical college, individualization, educational content, teaching methodology.

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoevning 2019 yil 7 maydagi PF-5712-sonli «Sog‘liqni saqlash tizimini 2019-2025 yillarda isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi [1].

Tibbiyot texnikumlari o‘rta tibbiy xodimlarni tayyorlashda asosiy ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ammo, amaliyotda o‘qituvchilar o‘quvchilarning har biri o‘ziga xos individual xususiyatlarga, turli xil bilim darajasiga va o‘qish imkoniyatlariga ega ekanligini ko‘pincha e'tiborga olmaydilar. Bu esa ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi [2, s. 45].

Differensial yondashuv pedagogik jarayonni tashkil etishda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi zamonaviy metodologik prinsip bo‘lib, u o‘quvchilarning qobiliyat, qiziqish va o‘quv imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim mazmuni, usul va vositalarini tanlashni nazarda tutadi [3].

Differensial yondashuv muammosi jahon va mamlakatimiz pedagogik adabiyotlarida keng o‘rganilgan. L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn kabi olimlar individual farqlar va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri masalalarini ilmiy asoslashga katta hissa qo‘shdilar [4].

I.Unt, I.M.Cheredov, V.Firsov kabi olimlarning tadqiqotlarida differensial yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etishning turli yo‘llari ishlab chiqilgan. Ular differensiasiyani ikki asosiy turga ajratadilar: tashqi (guruhlar va sinflar bo‘yicha) va ichki (bir sinf ichida) differensiasiya [5, s. 78-82].

O‘zbekistonda A.Axmedov, S.Nishonova, T.Qoraboev va boshqa olimlar tomonidan differensial yondashuvning milliy ta'lim tizimiga moslashtirilishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ammo, tibbiy ta'lim jarayonida differensial yondashuvni qo‘llash masalasi etarlicha o‘rganilmagan [6].

1- Jadval

Differensial yondashuvning asosiy turlari va xususiyatlari

Differensiasiya turi	Afzalliklari	Cheklovlari
Darajali differensiasiya	Har bir o‘quvchi o‘z imkoniyatlari darajasida ishlaydi, bilim sifati oshadi	Qo‘shimcha metodik materiallar tayyorlash talab etiladi
Profil differensiasiya	O‘quvchilarning qiziqishlari va iqtidorlarini rivojlantiradi	Ixtisoslashgan o‘qituvchilar va uskunalar zarur
Individual differensiasiya	Har bir o‘quvchiga individual yondashuv, maksimal samaradorlik	O‘qituvchidan katta vaqt va kuchlar talab qiladi

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har bir differensiasiya turi o‘ziga xos afzalliklar va cheklovlarga ega. Tibbiy ta'lim jarayonida ularni kompleks qo‘llash eng samarali natijalar beradi.

Tadqiqot metodologiyasi Tadqiqot ishlari 2023-2024 o‘quv yilida Samarqand, Jizzax, Andijon viloyati Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlarida olib borildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 364 nafar o‘quvchi va 18 nafar o‘qituvchi qatnashdi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- *Nazariy usullar: ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, ta'lim huquqiy hujjatlarini o‘rganish, qiyosiy tahlil;*
- *Empirik usullar: pedagogik kuzatish, anketa so‘rov, testlash, suhbat, tajriba-sinov ishlari;*
- *Matematik-statistik usullar: natijalarni miqdoriy tahlil qilish, Styudent t-mezoni bo‘yicha ishonchliligini tekshirish.*

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda o‘tkazildi: aniqlovchi (2023 yil sentyabr-oktyabr), shakllantiruvchi (2023 yil noyabr – 2024 yil mart) va yakunlovchi (2024 yil aprel-may) bosqichlar [7, s. 112].

2-Jadval

Tajriba-sinov ishlarining bosqichlari va mazmuni

Bosqich	Muddat	Asosiy vazifalar
Aniqlovchi	2023 yil sentyabr-oktyabr	O‘quvchilarning dastlabki bilim darajasini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini aniqlash. Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish.
Shakllantiruvchi	2023 noyabr – 2024 mart	Differensiallashgan ta'lim dasturlarini joriy etish. Turli guruhlar bilan alohida

Bosqich	Muddat	Asosiy vazifalar
		ishlash. O‘qituvchilarni tayyorlash.
Yakunlovchi	2024 yil aprel-may	Natijalarni qayta o‘lchash va tahlil qilish. Tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlarini qiyoslash.

Tajriba-sinov ishlarining natijalari: Aniqlovchi bosqichda o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘qish motivasiyasi va kasbiy qiziqishlari aniqlandi. O‘quvchilar uch guruhga bo‘lindilar: yuqori (23%), o‘rta (52%) va past (25%) bilim darajasiga ega guruhlar.

Shakllantiruvchi bosqichda har bir guruh uchun maxsus differensiallashgan ta'lim dasturlari ishlab chiqildi va qo‘llanildi. Yuqori bilimli o‘quvchilar uchun qo‘shimcha murakkab topshiriqlar, ilmiy tadqiqot elementlari kiritildi. O‘rta guruh uchun standart dastur asosida kuchaytirilgan amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi. Past guruhga esa individual tutor yordami va qo‘shimcha konsultasiyalar berildi [8].

3-Jadval

Tajriba natijalarining qiyosiy tahlili (foizlarda)

Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
O‘zlashtirish sifati (dastlabki bosqich)	64,2%	63,8%
O‘zlashtirish sifati (yakuniy bosqich)	79,5%	64,2%
Kasbiy ko‘nikmalar (dastlabki bosqich)	58,3%	57,9%
Kasbiy ko‘nikmalar (yakuniy bosqich)	77,0%	58,3%
O‘qishga motivasiya (dastlabki bosqich)	61,5%	62,1%
O‘qishga motivasiya (yakuniy bosqich)	83,9%	61,5%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida differensial yondashuv qo‘llanilgandan so‘ng barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan sezilarli o‘sish kuzatildi.

Bilim sifati 15,3% ga, kasbiy ko‘nikmalar egallash darajasi 18,7% ga va o‘qishga motivasiya 22,4% ga oshdi ($p<0,05$).

1-Bosqich: Diagnostika
O‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash
↓
2-Bosqich: Rejalashtirish
Differensiallashgan dasturlar va materiallarni tayyorlash
↓
3-bosqich: Amalga oshirish
Guruhlar bilan differensiallashgan ta'lim olib borish
↓
4-bosqich: Baholash va korreksiya
Natijalarni baholash va zarur o‘zgartirishlar kiritish

1-rasm. Differensial yondashuvni amalda joriy qilish modeli

Yuqorida keltirilgan model tibbiyot texnikumlarida differensial yondashuvni qo‘llashning asosiy komponentlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi. Modelda diagnostika, rejalashtirish, amalga oshirish va baholash bosqichlari ketma-ket joylashgan.

Olingan natijalar differensial yondashuvning tibbiy ta'lim jarayonida yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Bu N.S.Purishevaning differensiallashgan ta'lim o‘quvchilarning bilim sifatini 18-25% ga oshiradi» degan xulosasi bilan mos keladi [9, s. 156].

Tadqiqot jarayonida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

- Differensial yondashuv o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini to‘laroq ro‘yobga chiqarishga imkon beradi;
- Maqsadli guruhlar bilan ishlash o‘qituvchi vaqtini optimallashtiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi;
- O‘quvchilarning o‘qishga motivasiyasi oshadi, chunki ular o‘z darajalariga mos topshiriqlarni bajaradilar;
- Kasbiy ko‘nikmalar shakllanishi tezlashadi, amaliy mashg‘ulotlarning maqsadli xarakteri tufayli.

Biroq, differensial yondashuvni joriy etishda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud: o‘qituvchilarning yuqori malakasi talab etiladi, qo‘shimcha metodik materiallar tayyorlash zarur, guruhlar orasida psixologik to‘siqlar paydo bo‘lishi mumkin [10].

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot ishlari natijasida differensial yondashuvning tibbiyot texnikumlarida ta'lim sifatini oshirish uchun samarali vosita ekanligi isbotlandi. Tajriba guruhida bilim sifati, kasbiy ko‘nikmalar va o‘qish motivasiyasi bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli o‘sish qayd etildi.

Tibbiy ta'lim jarayonida differensial yondashuvni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

– O‘quv yili boshida o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash uchun kompleks diagnostika o‘tkazish;
– Har bir guruh uchun differensiallashgan ta'lim dasturlari va metodik materiallar ishlab chiqish;
– O‘qituvchilarni differensial yondashuv metodikasi bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tashkil etish;
– O‘quvchilar o‘rtasida psixologik qulaylik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish;
– Differensiallashgan ta'lim jarayonini muntazam monitoring qilish va o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Sog‘liqni saqlash tizimini 2019-2025 yillarda isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5712-son. 2019 yil 7 may. – Toshkent, 2019.

2. Nishonova, S.A. Pedagogik ta'limda differensial yondashuv / S.A. Nishonova // Pedagogika va psixologiya. – 2022. – № 3. – B. 42-48.

3 Унт, И.Э. Индивидуализация и дифференциация обучения / И.Э. Унт. – Москва: Педагогика, 1990. – 192 с.

4. Выготский, Л.С. Педагогическая психология / Л.С. Выготский. – Москва: АСТ, 2005. – 671 с.

5. Чередов, И.М. Формы учебной работы в средней школе / И.М. Чередов. – Москва: Просвещение, 1988. – 160 с.

6. Axmedov, A.Q. Kasbiy ta'limda innovasion texnologiyalar / A.Q. Axmedov, T.U. Qoraboev. – Toshkent: Fan, 2021. – 240 b.

7. . Загвязинский, В.И. Методология и методы психолого-педагогического исследования / В.И. Загвязинский, Р. Атаханов. – Москва: Академия, 2012. – 208 с.

8. Осипова, С.И. Дифференцированное обучение в условиях профессионального образования / С.И. Осипова // Среднее профессиональное образование. – 2020. – № 5. – С. 18-22.

9. Пурышева, Н.С. Дифференцированное обучение физике в средней школе / Н.С. Пурышева. – Москва: Прометей, 2007. – 256 с.

10. Селевко, Г.К. Современные образовательные технологии / Г.К. Селевко. – Москва: Народное образование, 1998. – 256 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Oybek Kurbonovich
Qo‘qon davlat universiteti
“Jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.Mazkur maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyaning shakllanish jarayoni hamda uni ta’minlovchi psixologik mexanizmlar tizimi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning kasbiy “Men” konsepsiyasi, motivatsion yo‘nalganlik, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv darajalari o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy identifikatsiyani takomillashtirish uchun motivatsion, kognitiv va emotsional-regulyativ komponentlarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va ularning psixologik tayyorgarligini mustahkamlashga qaratilgan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar:kasbiy identifikatsiya, psixologik mexanizmlar, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, motivatsiya, kasbiy refleksiya, emotsional barqarorlik.

Аннотация.В статье рассматриваются особенности формирования профессиональной идентификации учителей физической культуры и анализируются психологические механизмы, обеспечивающие данный процесс. В ходе исследования изучались структура профессионального «Я»-образа, уровень мотивации, эмоциональная устойчивость и социальная адаптация педагогов. Результаты показали, что совершенствование профессиональной идентификации возможно при гармоничном взаимодействии мотивационного, когнитивного и эмоционально-регулятивного компонентов. В работе предложены практические рекомендации по развитию профессиональной идентичности и психологической готовности учителей физической культуры.

Ключевые слова: профессиональная идентификация, психологические механизмы, учитель физической культуры, мотивация, профессиональная рефлексия, эмоциональная устойчивость.

Abstract.This article explores the formation of professional identification among physical education teachers and examines the psychological mechanisms underlying this

process. The study investigates teachers’ professional self-concept, motivational orientation, emotional stability, and social adaptation. The findings indicate that effective professional identification depends on the integration of motivational, cognitive, and emotional-regulatory components. The article also provides practical recommendations aimed at enhancing professional identity and strengthening the psychological preparedness of physical education teachers.

Keywords:professional identification, psychological mechanisms, physical education teacher, motivation, professional reflection, emotional stability.

Kirish.Hozirgi davrda ta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar pedagog shaxsidan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki o‘z kasbiga nisbatan chuqur ichki munosabatni ham talab qilmoqda. Xususan, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi shaxsining kasbiy identifikatsiyasi uning pedagogik faoliyat samaradorligi, shaxslararo muloqot madaniyati va o‘quvchilar bilan ishlashdagi psixologik barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Kasbiy identifikatsiya — bu mutaxassisning o‘z kasbiy rolini anglash, kasbiy qadriyatlar tizimini shakllantirish hamda o‘zini shu sohaning vakili sifatida qabul qilish jarayonidir.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari faoliyatida ushbu jarayon o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Chunki jismoniy tarbiya nafaqat o‘quvchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlash, balki ularning irodaviy sifatlari, jamoada ishlash malakasi va sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan motivatsiyasini shakllantirishga qaratilgan. Shu bois jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy identifikatsiyasi faqat kasbiy tayyorgarlik bilan emas, balki shaxsning psixologik barqarorligi, o‘zini anglash darajasi va kasbiy o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda pedagogik psixologiya sohasida kasbiy identifikatsiya jarayonining mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq, aynan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida bu jarayonning psixologik xususiyatlarini aniqlash, uni takomillashtirish yo‘llarini belgilash masalasi hali yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini shakllantiruvchi psixologik mexanizmlar tizimini aniqlash, ularni rivojlantirish omillarini asoslash hamda amaliy takliflar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib olinadi.

Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tayyorlov jarayonini takomillashtirish, ularning kasbiy o‘sish motivatsiyasini kuchaytirish va psixologik tayyorgarligini yuksaltirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Kasbiy identifikatsiya tushunchasi psixologiya va pedagogika fanlarida shaxsning kasbiy o‘zini anglash jarayonini ifodalovchi muhim nazariy kategoriya sifatida qaraladi.

Ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar bu tushunchaning mohiyatini turlicha talqin etgan bo‘lsalar-da, ularning barchasi kasbiy identifikatsiyani shaxsning o‘zini ma’lum kasb vakili sifatida anglash va shu rolni ijtimoiy hamda psixologik jihatdan qabul qilish jarayoni deb hisoblaydilar. Masalan, **E. Erikson** shaxs identifikatsiyasini hayotiy davrlar mobaynida shakllanuvchi ijtimoiy-psixologik tizim sifatida izohlaydi. Unga ko‘ra, kasbiy identifikatsiya insonning o‘zini jamiyatda tutish uslubi, qadriyatlari va kasbiy yo‘nalishlarini uyg‘unlashtiradi.

A. K. Markova va **E. F. Zeer** asarlarida kasbiy identifikatsiya jarayoni o‘qituvchining o‘z faoliyatiga bo‘lgan ichki motivatsiyasi, kasbiy “Men” obrazining shakllanishi hamda kasbiy qadriyatlarning rivojlanishi bilan bog‘liq psixologik tizim sifatida tahlil qilinadi. Ularning fikricha, pedagogik faoliyatda bu jarayon o‘qituvchining o‘z kasbiga nisbatan mas’uliyat hissi, o‘zini kasbiy jamoaning a’zosi sifatida his etishi va doimiy o‘zini rivojlantirishga intilishi orqali namoyon bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiya masalasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ko‘proq ularning kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy motivatsiyasi va pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan. **V. A. Krutsevich, L. P. Matveyev** hamda **N. G. Ozolin** tomonidan jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatida kasbiy kompetensiya, kommunikativ madaniyat va shaxsiy yo‘nalganlikning ahamiyati yoritilgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining shaxsiy identifikatsiyasi ko‘p jihatdan ijtimoiy muhit, sport faoliyati tajribasi va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlariga bog‘liqdir.

Mahalliy olimlardan **B. X. Xodjayev, R. T. Karimova, N. T. Jalolov** va boshqalar o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini anglashini pedagogik jarayonning markaziy omili sifatida o‘rganib, uni ijtimoiy-psixologik moslashuv, kasbiy motivatsiya va o‘zini rivojlantirish mexanizmlari bilan bog‘laganlar. Ularning tadqiqotlarida shaxsning kasbiy identifikatsiyasi o‘qituvchi faoliyatining barqarorligini ta’minlovchi psixologik tayanch sifatida talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy identifikatsiyasi ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, u shaxsning o‘z kasbiga nisbatan ijtimoiy, emotsional va kognitiv munosabatlarini birlashtiradi. Shu bilan birga, hozirgi ilmiy manbalarda aynan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida ushbu jarayonni shakllantiruvchi **psixologik mexanizmlar tizimi** yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot jarayonida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasi darajasini aniqlash, unga ta’sir etuvchi psixologik omillarni baholash hamda bu jarayonni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsad qilingan. O‘tkazilgan so‘rovnomalar, suhbatlar va psixodiagnostik metodikalar asosida olingan ma’lumotlar tahlili jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiya darajasi bir xil emasligini, ularning kasbiy

o‘zini anglash jarayoni shaxsiy motivatsiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va kasbiy muhitga moslashuv darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuqori kasbiy identifikatsiya darajasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni namoyon etadilar, pedagogik faoliyatni shaxsiy qadriyat sifatida qabul qiladilar va o‘z kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirishga intiladilar. Bunday o‘qituvchilarda o‘zini kasbiy jamoaning muhim a’zosi sifatida his etish, o‘quvchilar bilan psixologik muloqot o‘rnatish va o‘z faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglash kabi xususiyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘rta darajadagi identifikatsiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar orasida esa kasbiy o‘zini anglashda beqarorlik, motivatsion zaiflik va tashqi omillarga qaramlik holatlari ko‘zga tashlanadi. Ularning faoliyati ko‘proq tashqi baholarga yo‘naltirilgan bo‘lib, kasbiy o‘sishga ichki ehtiyoj yetarlicha shakllanmagan. Past darajadagi kasbiy identifikatsiyaga ega o‘qituvchilarda esa o‘z kasbiga nisbatan emotsional sovuqlik, kasbiy charchoq belgilari va o‘z faoliyatidan qoniqmaslik holatlari kuzatiladi.

Psixologik mexanizmlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishda uchta asosiy omil muhim rol o‘ynaydi:

1. **Motivatsion komponent** — kasbiy faoliyatga bo‘lgan ichki ehtiyoj, o‘z kasbidan faxrlanish va o‘zini mutaxassis sifatida tasdiqlash istagi;
2. **Kognitiv komponent** — kasbiy qadriyatlar, maqsad va vazifalarni anglash, kasbiy “Men” konsepsiyasining shakllanishi;
3. **Emotsional-regulyativ komponent** — o‘z kasbiy faoliyatidan ijobiy his-tuyg‘ular olish, stressga bardoshlilik va psixologik barqarorlik.

Ushbu komponentlar o‘zaro uyg‘unlashganda, o‘qituvchining kasbiy identifikatsiya jarayoni to‘laqonli shakllanadi. Shu bilan birga, natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kasbiy identifikatsiyani mustahkamlash uchun shaxsiy refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik treninglar muhim ahamiyatga ega.

Muhokama jarayonida olingan natijalar ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan qiyoslab tahlil qilindi. **E. F. Zeer, A. K. Markova** va **R. T. Karimova**larning ilmiy ishlari natijalari bilan solishtirilganda, ushbu tadqiqotda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari faoliyatining o‘ziga xos jihatlari — ya’ni jismoniy faollik, sport motivatsiyasi va jamoaviy o‘zaro ta’sirning kasbiy identifikatsiyaga qo‘shimcha ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlangan.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari asosida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish, kasbiy refleksiyani rivojlantirish hamda ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish zarurligi ilmiy asosda aniqlanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasi murakkab psixologik tizim bo‘lib, u shaxsning o‘z kasbiga nisbatan munosabati, kasbiy qadriyatlari va o‘zini mutaxassis sifatida anglash jarayonlarini o‘z ichiga

olishini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘qituvchining kasbiy identifikatsiyasi darajasi uning motivatsion yo‘nalganligi, ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri hamda emotsional barqarorlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishda uchta asosiy psixologik mexanizm — **motivatsion, kognitiv** va **emotsional-regulyativ** komponentlarning uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu komponentlar o‘qituvchining kasbiy “Men” konsepsiyasini mustahkamlash, o‘z faoliyatidan qoniqish hissini oshirish hamda o‘z kasbiy o‘sish yo‘lini ongli ravishda belgilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun kasbiy identifikatsiyani mustahkamlovchi omillar sifatida **psixologik treninglar, refleksiv mashg‘ulotlar, kasbiy motivatsiyani rivojlantirish dasturlari** va **jamoaviy hamkorlikni rag‘batlantiruvchi muhit** samarali ekanligi aniqlandi. Bu yo‘nalishdagi kompleks yondashuv o‘qituvchining kasbiy faoliyatida ichki motivatsiyani kuchaytirish va o‘zini ijtimoiy jihatdan tasdiqlash imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani takomillashtirish ularning pedagogik mahoratini, shaxsiy barqarorligini va o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish samaradorligini oshirishning muhim psixologik sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishini qo‘llab-quvvatlash, ularning shaxsiy o‘sishiga yo‘naltirilgan psixologik xizmat tizimini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ–4307-son qarori. “Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. Erikson, E. (2000). *Identichnost: yunost i krizis*. Moskva: Progress.
3. Zeer, E. F. (2003). *Psixologiya professional’nogo razvitiya lichnosti*. Ekaterinburg: Delovaya kniga.
4. Markova, A. K. (1996). *Psixologiya professionalizma*. Moskva: Znaniye.
5. Krutsevich, V. A., & Bezverkhnaya, G. V. (2010). *Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya*. Kiev: Olimpiyskaya literatura.
6. Matveyev, L. P. (2005). *Obshchaya teoriya sporta i ee prikladnye aspekty*. Moskva: FiS.
7. Ozolin, N. G. (2014). *Upravlenie trenirovochnym protsessom sportsmena*. Moskva: Sovetskiy sport.
8. Karimova, R. T. (2017). *Pedagogik psixologiya*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
9. Xodjayev, B. X. (2019). O‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning psixologik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, №3, 25–31.

10. Jalolov, N. T. (2020). O‘qituvchining kasbiy o‘zini anglash jarayonida psixologik omillarning o‘rni. *Ta’lim va innovatsiya ilmiy jurnali*, №2, 45–51.

11. Abdullayeva, G. M. (2021). Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy motivatsiyani shakllantirish yo‘llari. *Jismoniy madaniyat va sport nazariyasi jurnali*, №4, 56–60.

12. Musurmonova, O. (2022). Pedagogik faoliyatda o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi va uning shakllanish mexanizmlari. *Psixologiya va ta’lim* ilmiy jurnali, №1, 72–78.

13. Habibullayeva, M. (2023). Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining psixologik tayyorgarligini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. *Sport va fan*, №5, 40–45.

14. Abdullayev,O.(2022)Jismoniy ta’limda o‘quvchilarning ruhiyatini tarbiyalash va irodasini mustahkamlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon asoslari. Xalq ta’limi, 6-son. - 85-90 betlar

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

PEDAGOGIK JARAYONDA MULOQOT MADANIYATINING TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Jo‘rayeva Dilnoza Ro‘zimat qizi
Namangan davlat universiteti tadqiqodchisi

Anotatsiya. Ushbu maqola pedagogik jarayonda muloqot madaniyatining talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Muloqot madaniyati, interaktiv pedagogik strategiyalar va tanqidiy fikrlash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanligi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali muloqot, pedagog va talabalar o‘rtasidagi konstruktiv dialog orqali, talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni tanqidiy baholash va yaratijon yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik jarayon, muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash, interaktiv metodlar, ilmiy-pedagogik kompetensiya, konstruktiv dialog, talabalarning kognitiv rivojlanishi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston ta’lim amaliyotida baholash asosan nazorat va ball qo‘yish vazifasi bilan cheklanib qolmoqda. Xalqaro baholash dasturlarida esa baholash jarayonning uzviy qismi sifatida qaraladi.

3.2. Xalqaro dasturlar talabi va milliy tizimdagi farqlar

PISA dasturida matematik savodxonlik “real hayot muammolarini hal etishga qodirlik” sifatida talqin qilinadi (OECD, 2019, p. 31). TIMSS esa ko‘proq o‘quvchining nazariy bilimlari va ularni amaliyotda qo‘llashini baholaydi (Mullis et al., 2020, p. 21).

Milliy baholash tizimida esa ko‘proq:

- yodlash;
- faktlarni qayta aytish;
- test savollariga javob berish

ustuvor hisoblanadi. Bu esa kompetensiyaga asoslangan ta’lim mohiyati bilan nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi.

3.3. O‘qituvchilar baholash kompetensiyasini rivojlantirishning modeli

Tadqiqot davomida quyidagi **5 bosqichli model** ishlab chiqildi:

1. **Nazariy anglash** – xalqaro baholash konsepsiyalarini o‘rganish (OECD, 2019, p. 42)
2. **Amaliy dizayn** – kompetensiyaga asoslangan savollar ishlab chiqish (Brookhart, 2013, p. 63)
3. **Diagnostika** – o‘quvchi imkonini aniqlash (Black & Wiliam, 1998, p. 14)
4. **Formatif baholash** – rivojlanishga yo‘naltirish (Stiggins, 2008, p. 51)
5. **Refleksiya** – o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishi (Mullis, 2020, p. 30)

Bu model o‘qituvchini passiv baholovchidan faol tahlilchi va o‘qitish jarayonini boshqaruvchi subyektga aylantiradi.

MUHOKAMA

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro baholash mezonlari o‘quvchining fikrlash, muammo yechish va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Biroq bu mezonlarni samarali joriy etish uchun o‘qituvchi baholash kompetensiyasiga ega bo‘lishi lozim.

Black va Wiliam tadqiqotlarida formatif baholashning o‘quvchilar natijalariga ijobiy ta’siri isbotlangan (Black & Wiliam, 1998, p. 16). Shuningdek, UNESCO ta’lim sifatining asosiy omili sifatida malakali pedagogni ko‘rsatadi (UNESCO, *Global Education Monitoring Report*, 2017, p. 88).

O‘zbekiston sharoitida o‘qituvchilarning aksariyati xalqaro baholash formatidagi topshiriqlarni tuzishda qiyinchilikka duch keladi. Bu esa qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida baholash kompetensiyasiga yo‘naltirilgan modullarni ko‘paytirishni talab qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari xalqaro baholash dasturlariga mos ta’lim tizimini shakllantirish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri o‘qituvchilarning baholash kompetensiyasi yetarli emasligi ekanini ko‘rsatdi. Baholash bugungi kunda faqat nazorat mexanizmi emas, balki ta’limni rivojlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu sababli quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar beriladi:

1. O‘qituvchilarda baholash kompetensiyasini rivojlantirish milliy ta’lim strategiyasining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim.
2. PISA, TIMSS, PIRLS mezonlari asosida qayta tayyorlash kurslari ishlab chiqilishi zarur.
3. Formatif baholash metodlari ommalashtirilishi kerak.
4. Pedagogika OTMlarida “Xalqaro baholash va baholash kompetensiyasi” alohida fan sifatida joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Kelgusida ushbu modelni amaliy tajribalar asosida sinovdan o‘tkazish, statistik tahlillar bilan boyitish va hududlar kesimida taqqoslash muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. *PISA 2018 Assessment and Analytical Framework*. Paris: OECD Publishing, 2019. pp. 27–42.
2. Mullis, I.V.S., Martin, M.O. *TIMSS 2019 Assessment Framework*. IEA, 2020. pp. 18–31.
3. Black, P., Wiliam, D. *Assessment and Classroom Learning*. Assessment in Education, 1998. pp. 7–18.
4. Stiggins, R. *Student-Involved Assessment for Learning*. Pearson, 2008. pp. 33–58.
5. Brookhart, S. *How to Create and Use Rubrics*. ASCD, 2013. pp. 45–66.
6. UNESCO. *Global Education Monitoring Report*. Paris, 2017. pp. 82–90.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Mamadaliyeva Barnoxon Ibragimovna
Oreintal universiteti, Axborot-resurs markazi direktori
ibragimovna1977@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlarning ahamiyati va ularni qo‘llashning samarali yo‘llari yoritilgan. Unda interfaol ta’limning mohiyati, asosiy turlari, didaktik imkoniyatlari hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning ta’lim sifati va samaradorligiga ta’siri ochib berilgan. Maqolada metod va texnologiya tushunchalari o‘rtasidagi farqlar izohlanib, interfaol metodlardan foydalanishning o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, o‘zini boshqarish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, ta’lim texnologiyasi, innovatsiya, metodika, hamkorlik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash.

Annotation: This article discusses the importance of interactive methods in modern education and explores effective ways of applying them in the teaching process. It analyzes the essence, main types, and didactic potential of interactive learning, emphasizing its role in developing collaboration between teachers and students. The article also highlights the impact of introducing innovative technologies into the educational process on improving the quality and efficiency of learning. Furthermore, it explains the differences between the concepts of “method” and “technology” and demonstrates how interactive approaches foster students’ independent thinking, creativity, self-management, and evaluation skills.

Keywords: interactive methods, educational technology, innovation, methodology, collaboration, creativity, independent thinking.

Аннотация:В данной статье рассмотрено значение интерактивных методов в современном образовательном процессе и пути их эффективного применения. Раскрыта сущность интерактивного обучения, его основные виды и дидактические возможности, а также роль в формировании сотрудничества между преподавателем и учащимися. Особое внимание уделено влиянию внедрения инновационных технологий на повышение качества и эффективности образования. В статье разъясняются различия между понятиями «метод» и «технология», обосновывается, что

использование интерактивных методов способствует развитию у учащихся самостоятельного мышления, творческих способностей, самоконтроля и самооценки.

Ключевые слова: интерактивные методы, образовательная технология, инновация, методика, сотрудничество, творчество, самостоятельное мышление.

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi nazariy bilimlar bilan bir qatorda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishni talab etmoqda. O‘quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish orqali ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va pedagoglar kompetentligini rivojlantirish, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish orqali o‘quvchilarni hayotga tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

“Umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish” kabi vazifalar belgilab berildi [1].

Zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li – bu mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo‘sh, interfaol metodlarning o‘zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning o‘rni, maqsadga muvofiq qo‘llanishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Interfaol ta’lim mohiyatiga ko‘ra suhbatning “o‘quvchi – axborot kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot-texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini anglatadi. O‘qitishning interfaol ta’limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va hatto “bolalar o‘yini kabi taassurot uyg‘otadi.


“Metod” yunoncha so‘z bo‘lib, tadqiqot yoki bilish yo‘li, umumiy ma’noda maqsadga erishish yo‘li ma’nosini ifoda etadi. Metod o‘quv maqsadiga erishish yo‘li bo‘lsa, usul metodning alohida tomoni yoki tarkibiy qismidir.

Masalan, boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchilar tomonidan ko‘p qo‘llaniladigan mashq manbasiga ko‘ra amaliy metod hisoblansa, uni qo‘llash esa bir nechta usullar (mashqning qoidasini o‘qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko‘rsatish (2-usul), o‘qituvchining namunasi asosida o‘quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi (3-usul), o‘quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish (4-usul) va boshqalar yordamida amalga oshiriladi [2].

O‘qituvchilarning ayrimlari esa, “metod” tushunchasining o‘rniga “uslub” tushunchasini ham qo‘llaydilar. Ammo “uslub” tushunchasi “metod” atamasining mohiyatini o‘zida to‘liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko‘proq xususiy (so‘z borayotgan holatda

aynan o‘qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo‘lib, aniq maqsadga erishish yo‘li sifatida xizmat qila olmaydi [3].

So‘nggi vaqtlarda pedagogik va metodik adabiyotlarda metodlarni “faol”, “sust”, “interfaol” kabi turlarga tasniflash holati qayd etilmoqda (1-rasmga qarang).



1-rasm. Metodlarni turlarga tasniflash tuzilmasi

METODOLOGIK QISM

Aslida faol (aktiv) va sust (passiv) metodning o‘zi bo‘lmaydi. Mazkur metodlar tasnifi o‘quvchining jismoniy holati va harakatiga nisbatan shartli olingan. To‘g‘ri, dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish muhim, biroq bu tushuntirish metodini kam ta’sirga ega deyish uchun asos bo‘la olmaydi. O‘quvchilarni tashqi tomondan faollikka undamaydigan metodlarda o‘quv faoliyatining eng asosiy shakli hisoblangan mnemonik (ya’ni ichki) harakatlar – o‘quvchining o‘rganilayotgan materialni idrok etishi, tasavvur qilishi, tahlil etishi, xulosa chiqarishi kabilar mavjud bo‘lishini inkor etmaslik kerak.

Ko‘pchilik o‘qituvchilar “interfaol metodlar”ni texnologiya deb tushunishadi yoki shunday atashadi. Masalan, o‘qituvchilarga “Mashg‘ulot jarayonida qanday texnologiyalardan foydalanasiz” degan savol bilan murojaat etilsa, “Dars jarayonida klaster, aqliy hujum, zigzag, FSMU, baliq skeleti kabi texnologiyalardan foydalanaman” degan javobni berishadi. Albatta, bu borada faqat amaliyotchi-pedagoglarni ayblash ham o‘rinli emas. Sababi pedagogik texnologiyaga doir adabiyotlarda “interfaol metod” tushunchasining o‘rniga “texnologiya” so‘zini qo‘yib ishlatish holati juda ko‘p uchraydi. Agar interfaol metodlarni “texnologiya” so‘zi bilan ifoda etayotgan mutaxassislar ularni qo‘llash bosqichma-bosqich amalga oshirilishini nazarda tutib, shunday yondashuvga asoslanayotgan bo‘lsalar bunday nazariy-metodologik asos didaktik nuqtai nazardan mutlaqo xato [4].

Interfaol metodlar boshqa metodlar singari o‘quv mashg‘ulotining tarkibiy qismi sifatida o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini tashkil etishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, texnologik jarayonning to‘liq amalga oshirilishi uchun xizmat qiladi. Interfaol metodlarning eng asosiy xususiyati o‘quvchilarni faollashtirish va fikrlashini rivojlantirishga imkon berishidir. Ularni mutloqlashtirib qo‘yish ham o‘rinli emas, chunki interfaol metodlar yangi bilimlarni berishga xizmat qilmaydi. Ana shu sababli ular bir necha asrlardan buyon qo‘llanib kelayogan suhbat, hikoya, tushuntirish, ko‘rsatish, namoyish etish, didaktik o‘yin kabi metodlarni chetga surib qo‘ya olmaydi. O‘quvchilarni bilimlar bilan qurollantirmasdan

turib, ularni fikrlashga va faollikka undab bo‘lmaydi. Chunki “bo‘sh bosh fikrlamaydi”, fikr yuritish uchun narsa-hodisa haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lish kerak!

Shu o‘rinda yana shuni ham alohida tahkidlab o‘tish lozimki, so‘nggi vaqtlarda “texnologiya” tushunchasini metodikadan ustun qo‘yishga urinishlar yuzaga kelmoqda. Aslida “metodika” tushunchasi texnologiyadan yuqori turadi. Chunki metodika – bu metatexnologiya. Agar mazkur tushunchani o‘quv jarayoniga tatbiq etadigan bo‘lsak, o‘quv jarayoni, maqsadi, vazifalari, mazmuni, metod va vositalarini belgilashga doir umumiy talablar mavjud. Har bir o‘quv mashg‘ulotini amalga oshirish ma’lum belgilangan algoritmik ketma-ketlikka asoslanadi. Metodika ana shu algoritmik ketma-ketlikning umumiy va xususiy qoidalariga asoslanishni talab etadi. O‘qituvchi o‘quv maqsadi bilan bog‘liqlikda mashg‘ulotni o‘tkazish texnologiyasini erkin tanlashi mumkin. Aniqroq aytganda, har bir mashg‘ulotda kutiladigan natijaga mos holda o‘quv bosqichlarini alohida-alohida loyihalash, har bir bosqichda qo‘llaniladigan shakl, metod va vositalarni tanlab olish imkoniyati yuzaga keladi.

NATIJALAR TAHLILI

“Metodika” va “texnologiya” tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog‘liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim “Qanday o‘qitish?”, “Nima uchun o‘qitish?”, “Nimaga o‘rgatish?” kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, “Qanday tarzda samarali o‘qitishga erishish mumkin?” degan savolni markazga qo‘yadi. Metodika o‘quv jarayoninin qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo‘sinda o‘quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e’tiborni qaratadi.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida interfaol ta’lim yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z -o‘zini nazorat, o‘z - o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr- mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Odatda interfaol metodlarga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual, juftlik; guruh; jamoa bilan ishlash. Yuqoridagi savollarga javob topishda eng to‘g‘ri qadam tayanch tushuncha – interfaol atamasining lug‘aviy ma’nosi bilan tanishishdir.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug‘aviy nuqtaiy nazardan “inter” - o‘zaro, ikki taraflama, “act”- harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma’nolarni anglatadi.

Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, kovnikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat(dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi. Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan [5,6].

Interaktiv metodlar - o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan, talabalarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydigan yondashuvlardir. Bu metodlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Qo‘yida biz interfaol metodlarning asosiy turlarini ko‘rib chiqamiz:

- *Klaster (g‘oyalar xaritasi)*
- *Aqliy hujum (brainstorming)*
- *“Insert” texnologiyasi*
- *Rolli o‘yinlar*
- *“Savol-javob” va “Blits-so‘rov”*
- *“Fikrlar zanjiri” va guruhlarda ishlash*

Interfaol metodlarning afzalliklari

- ✓ *O‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi;*
- ✓ *Bilimlarni tez va mustahkam o‘zlashtirish imkonini beradi;*
- ✓ *O‘zaro hurmat, hamkorlik muhitini yaratadi;*
- ✓ *O‘rgatishdan ko‘ra, fikrlashga o‘rgatadi;*

XULOSA

Xulosa qilganda, texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqish va keng tatbiq etish, ta’lim jarayonida zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari innovatsiyon o‘quv jarayoni rivojlanishining muhim omilidir. Yangi axborot-texnologiyalarini oxirgi o‘n yillikdagi takomillashuvi va rivojlanishi ta’lim tizimiga yangiliklarni kirib kelishini tezlashtirdi va kuchaytirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони. – Т.// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.

2. Aldjanova I.R. “Bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovastiyalardan foydalanish”. – T.:”Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012.

3. Avloniy A. B. “Turkiy guliston yoxud axloq”. — Toshkent: Yoshlar Nashriyot Uyi, 2018. — 96 b.

4. Abdurashidxonov M. “Muallimlar uchun risola”. – Toshkent: Taraqqiyot nashriyoti, 1906. – B. 3.

5. Diesterveg A. “Pedagogik mahorat va uning tarkibiy unsurlari”. – Toshkent: “Pedagogika” nashriyoti, 2021. – B. 5–6.

6. Onlayn pedagogika kurslari materiallari – www.ziyonet.uz

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ORCID: 0009-0000-2476-9410

ZOOLOGIYANI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALAR.

Usmonova Gulshodaxon Ikromjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti dayanch doktaranti
usmonovagulshodaxon@gmail.com Tel.97 966-22-05

Annotatsiya: Mazkur maqola Oliy ta’lim muassasalarining biologiya yo‘nalishi talabalariga zoologiya fanining dars shakllari amaliy va laboratoriya darslarini olib borishda zamonaviy pedagogik tehnologiyalardan foydalanish orqali yangi topshiriqlar ishlab chiqish, elektron platformalar orqali topshiriqlar ishlab chiqish va ularning mazmun mohiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: dars shakllari, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘uloti, pedagogik tehnologiyalar, jadval, mustaqil ish metodlari, taqqoslash, jadval, rasm, klaster.

Аннотация: Целью данной статьи является разработка новых заданий для студентов-биологов высших учебных заведений путем использования современных педагогических технологий при проведении практических и лабораторных занятий по зоологии, разработки заданий через электронные платформы, раскрытия сущности их содержания.

Ключевые слова: формы урока, практическое занятие, лабораторное занятие, педагогические технологии, таблица, методы самостоятельной работы, сравнение, таблица, рисунок, кластер.

Abstract: The purpose of this article is to develop new tasks for biology students at higher education institutions by using modern pedagogical technologies in conducting practical and laboratory classes in zoology, developing tasks through electronic platforms, and disclosing the essence of their content.

Keywords: lesson forms, practical training, laboratory training, pedagogical technologies, table, independent work methods, comparison, table, picture, cluster.

KirishOliy ta’lim muassasalarining biologiya yo‘nalishi talabalariga zoologiya fanining dars shakllari amaliy va laboratoriya darslarini olib borishda zamonaviy pedagogik tehnologiyalardan foydalanishni ahamiyati katta. Amaliy va laboratoriya darslarida talabalar egallagan bilimlarini mustahkamlash uchun pedagogik tehnologiyalardan foydalanish zarur.

Har bir mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda turli tehnologiyalardan foydalana oladi. Talabalarda mustaqil ish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki talabalarning ilmiy dunyoqarashi rivojlangan ularni tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish ancha qulay bo‘ladi.

MATERIAL VA METODIKA:

Zoologiya darslarida beriladigan mustaqil ish metodining topshiriqlarini ko‘rib chiqamiz. Darsning dastlabki mavzularida bitta hayvon haqidagi ma’lumotlarga asoslangan holda tehnologiya tanlanadi. Bunda rasmlardan foydalanish mumkin. Masalan laboratoriya mashg‘ulotlarida asosan birinchi mavzu laboratoriya jihozlari haqidagi mavzulardan iborat bo‘ladi. Shundan kelib chiqib mikroskopning rasmidan ularning qismlarini to‘g‘risini topish haqidagi topshiriqdan foydalanish mumkin.

1- topshiriq. Rasmdagi mikroskop qismlarini nomini yozing.




Huddi shunday hayvonlarni rasmidan ham foydalanish mumkin. Bunda talabalar hayvonlarni tashqi va ichki tuzilishini rasmiga qaram nomlarini yozib chiqadi. Hayvonlarning organlari va organlar sistemasining vazifalarini esa jadval ko‘rinishidagi topshiriqlar orqali mustahkamlanadi. Misol uchun Sarkodalilar sinfi mavzusida jadvallardan va klaster metodidan foydalanish.

2 - topshiriq: Jadvalni to‘ldiring.

Tuzilishi	Amoeba proteus	Arcella vulgaris	Difflugia pyriformis
Yashash muhiti			
Tana shakli			
Kattaligi			
Oziqlanishi			


Nafas olish va ayirish			
Ta’sirlanishi			
Ko‘payishi			
Harakatlanishi			
Kim kashf etgan, qayerda			
Tabiatdagi ahamiyati			
Ilmiy ahamiyati			

3 – topshiriq: Sarkodalilar sinfi vakillarining ilmiy ahamiyatini yozing.




Hayvonlarning sinf vakillari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlarini ko‘rib chiqish orqali talabalarda egallagan bilimlarini mustahkamlar va hayvonlar organlarining evolyutsiyasini aniqroq tushunishga imkon beradi.

4 - topshiriq: Sarkomastigoforalar va Infuzoriyalar vakillarining o‘xshashlik va faarqli jihatlarini yozing.



5 – topshiriq: oq planariyaning organlar sistemasi modelini loyihalash . Plastilin yordamida oq planariyaning ichki organlarini yasash.




Zoologiya dars shakllari amaliy va lobaratotiya mashg‘ulotlarida mustaqil ish metodlaridan foydalanish har bir talabaning individual o‘z ustida ishlashga imkon beradi. Talabalarga berilayotgan har bir mustaqil ish metodi topshiriqlari talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini kognitiv faoliyat natijasida shaklanishiga hizmat qiladi[1]. Zoologiya darslaridan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda har bir mavzuda hayvonlarning sistematikasidagi o‘rni, nazariy qismda sinf vakili misoliga hayvonlarning anatomik va morfologik xususiyatlari haqida ilmiy ma’lumotlar va mos ravishda rasmlar beriladi. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining topshiriqlar qismida sinf vakilining anatomik-morfologik, biologik, ekologik xususiyatlarini, xalq xo‘jaligi va ilmiy ahamiyatini, kim tomonidan o‘rganilganligi yuzasidan jadvalli topshiriqlar berilgan. Sinflar ketma-ketligida ularning o‘xshashlik va farqli jihatlarini taqqoslash va hayvonlarning tashqi va ichki tuzilishi tasvirlangan rasmli topshiriqlar berilgan. Uyga vazifa qismida esa har bir sinf vakillari haqida ilmiy adabiyotlar, maqolalar va internet ma’lumotlarini to‘plash referat yoki tezis tayyorlash vazifasi beriladi. Bunday topshiriq va vazifalarni bajarish orqali talabalar mustaqil ishlaydilar va ilmiy yangiliklardan habardorligi oshishi orqali ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan bilimlari shakllanib boradi. Mavzular so‘ngida esa hayvonlarning organlar sistemasining evolyutsiyasi tuzib chiqiladi.


6-topshiriq: Hayvonlar organlarining evolyutsiyasi yozib chiqing.

Bunda har bir hayvonning organlar sistemasi tuzilishi yozib chiqilganda hayvonlar ketma ketligiga mos ravishda organlarning rivojlanib-taraqqqiy etib borganligini ko‘rish mumkin. Bu topshiriq orqali hayvonlarning va ularning organlarining kelib chiqishi, evolyutsiyasi tuzib chiqiladi.

Bunda ovqat hazm qilish, nafas olish, nerv, ayirish, qon aylanish organlar sistemasi hayvonlar nomiga mos ravishda yozilishidan organlarning evolyutsiyon taraqqiyoti kelib chiqadi.



7-topshiriq. Hayvonlarning kelib chiqish ketma-ketligini yozib chiqing. Bunda soddadan murakkabga qarab evolyutsiyasini ishlab chiqiladi.



Hayvonlar va ularning organlar sistemasining taraqqiy etib borish, evolyutsiyasini tuzib chiqish uchun talaba har bir mavzuni puxta egallagan bo‘lishi zarur. Talabalar mavzularni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun har bir mavzuda turli pedagogik tehnologiyalardan foydalangan holda topshiriqlarni bajarib boradilar.

Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini kognitiv faoliyat asosida takomillashtirish zoologiya fani amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarida axborot texnologiyalari, internet ma’lumotlaridan foydalanib talabalarni tadqiqotchilik, loyiha ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish zarur[2].

Bunday topshiriqlarni Learningapps platformasi orqali ham bajarishga qulay qilib havolalar ishlab chiqish mumkin, quyida bir nechta misollar keltiramiz.


8-topshiriq. *Euglena viridis* va *Amoeba proteus*ning o‘xshashlik va farqli jihatlarini aniqlang. Topshiriqni ushbu giperhavola orqali bajaring.

https://learningapps.org/41411815



9-topshiriq. Rasmda tasvirlangan qismlarni nomini yozing. Topshiriqni ushbu giperhavola orqali bajaring.

https://learningapps.org/41367964



10—topshiriq. Hayvonlar aniqlagichi yordamida rasmdagi hayvonlarni nomlang. Topshiriqni ushbu giperhavola orqali bajaring.

https://learningapps.org/41405945



NATIJALAR: LearningApps ilovasi ta’lim jarayonida raqamli pedagigik vosita sifatida kata ahamiyatga ega. Mazkur platforma interaktiv topshiriqlar, didaktik o‘yinlar va visual-uslubiy resurslar yaratish imkonini berib, o‘quvchilar bilish faoliyatini faollashtiradi hamda fanlar bo‘yicha kompetensiyalarni bosqichma - bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. LearningAppsdan foydalanish ta’lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, platformaning interfaol xususiyatlari o‘quvchilarda motivatsiya, mustaqil fikrlash, muammo yechish, tahlil qilish kabi kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi. O‘qituvchi uchun esa LearningApps o‘quv jarayonini monitoring qilish, natijalarni tezkor tahlil qilish va dars samaradorligini oshirishda qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Usmonova. Talabalarga zoologiyani o‘qitishda pedagogik tehnologiyalardan foydalanish. “Tabiiy fanlarning dolzarb masalalari” mavzusidagi VI xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallar to‘plami. 21.05.2025 Nukus.632 b.

2. G.Usmonova. Zoologiya fanining dars shakllarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish. “Zamonaviy biologiyaning dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon-2025 5.07. 786 b https://doi.org/10.5281/zenodo.15621363

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TEXNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI KASBIY VA SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA OID INTEGRATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Asqarova O‘g‘iloy Mamashokirovna
Namangan davlat universiteti professori
Umarova Zulxumor Urinboyevna
Qo‘qon davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya.Ushbu maqolada texnologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy va sog‘lom turmush tarziga oid integrativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Model o‘z ichiga AKTdan foydalanish, sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti, raqamli nazorat va motivatsiya elementlarini qamrab oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuv talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini oshirishda, jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashda sezilarli natijalar beradi.

Kalit so‘zlar: texnologik yondashuv, integrativ kompetensiya, kasbiy ko‘nikmalar, sog‘lom turmush tarzi, raqamli ta'lim, AKT.

Аннотatsiя.В данной статье будут рассмотрены процессы разработки и апробatsii модели развития интегративных компетенций учащихся по профессиональному и здоровому образу жизни на основе технологического подхода. Модель включает в себя элементы использования ИКТ, пропаганды здорового образа жизни, цифрового контроля и мотиватsii. Результаты исследования показывают, что такой подход дает значительные результаты в повышении профессиональных навыков учащихся, укреплении их физического и психического здоровья.

Ключевые слова: технологический подход, интегративная компетентность, профессиональные навыки, здоровый образ жизни, цифровое образование, ИКТ.

Annotation: this article will look at the processes of developing and testing a model for the development of integrative competencies of students regarding professional and healthy lifestyles based on a technological approach. The Model includes elements of ICT use, healthy lifestyle promotion, digital control and motivation. The results of the study show that this approach gives significant results in improving the professional skills of students, strengthening their physical and mental health.

Keywords: technological approach, integrative competence, professional skills, healthy lifestyle, digital education, ICT.

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim islohotlariga oid qator qonun va qarorlarda uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish hamda hozirgi zamon istiqboli talablariga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli asarida “...iqtisodiyot, ijtimoiy soha va har bir hududning zarur mutaxassislarga bo‘lgan talabini to‘g‘ri aniqlashni tanqidiy tahlil qilish” kadrlar tayyorlashdagi ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Mazkur ustuvor vazifalar fan, ta’lim va ishlab chiqarish tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish hamda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda ishlab chiqarish korxonalari bilan oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro manfaatli va tizimli hamkorligida talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida texnologik yondashuvlarning qo‘llanilishi talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) nafaqat o‘quv jarayonini soddalashtiradi, balki talabalarning motivatsiyasini oshiradi, ularning shaxsiy va kasbiy maqsadlariga erishishlariga yordam beradi. Texnologiyalar orqali o‘quv jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni mustahkamlash mumkin. Bunda texnologik yondashuv orqali ta'lim mazmunini individuallashtirish, shaxsiy rivojlanish va moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish imkoniyatlari kengayadi. Sog‘lom turmush tarzi kompetensiyalari esa talabalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini mustahkamlash, ularda sog‘lom hayot kechirish madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida AKT va raqamli vositalardan foydalangan holda talabalarni sog‘lom turmush tarziga tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va sog‘liqni saqlash madaniyatini shakllantirish talab etiladi. Ushbu maqolada texnologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy va sog‘lom turmush tarziga oid integrativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish jarayonlari ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI Texnologik yondashuv ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratishda muhim o‘rin tutadi. Ko‘plab olimlar (Johnson va boshq., 2023; Smith, 2022) texnologiyalar orqali kompetensiyalarni rivojlantirishning afzalliklarini ta'kidlaydi. Bunga qo‘shimcha ravishda, Brown (2021) va Garcia (2020) sog‘lom turmush tarzi kompetensiyalari va texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi natijasida talabalarning motivatsiyasi va samaradorligi oshishini qayd etgan. Shuningdek, raqamli ta'lim platformalari va virtual simulyatsiyalar talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan (Lee va Park, 2021; Hernandez va Lopez, 2022). Biroq, ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan texnik va psixologik to‘siqlar (Kim, 2020) ham mavjud bo‘lib, ular talabalar tomonidan texnologiyalarga nisbatan shakllanadigan qarshiliklarni kamaytirish uchun alohida e'tiborga muhtoj.

METODOLOGIYA. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- Virtual simulyatsiyalar va o‘quv platformalari orqali kompetensiyalarni rivojlantirish tajribalari;
- So‘rovnoma va intervyu orqali talabalar va o‘qituvchilarning fikrlarini yig‘ish;
- Statistik tahlil va ma'lumotlarni qayta ishlash usullari;
- Raqamli sog‘liqni saqlash texnologiyalaridan foydalanish (mobil ilovalar, fitnes dasturlari).

Tadqiqot ishtirokchilari texnik ta'lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 300 nafar talaba va 50 nafar pedagoglardan iborat bo‘lib, ular turli texnologik vositalar yordamida kompetensiyalarini rivojlantirish tajribasida ishtirok etishdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, texnologik yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonlari talabalarning kasbiy va sog‘lom turmush tarziga oid kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirgan. Bu jarayonda virtual simulyatsiyalar va raqamli sog‘liqni saqlash texnologiyalari talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, stressni kamaytirish va jismoniy faollikni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, gamifikatsiya elementlari va motivatsiya tizimlari talabalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Kelgusida ushbu modelning kengroq qo‘llanilishi orqali ta'lim sifatini oshirish va talabalarning kasbiy rivojlanishini yanada samarali amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Sog‘lom turmush tarzi talaba yoshlarni ongida shakllanishi va ularning hayot tarziga aylanishi uchun pedagogik jarayondan uzviylik va uzluksizlik talab etiladi. Uzviylik - amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmunan izchilligi, biri birini to‘ldirishi, tizimliligi, ilmiyligi, davomiyligi, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, hayot qo‘ygan muammolarga hozir javobligi, amaliyotga mosligi hamda o‘zaro aloqadorlikda samarali pedagogik natijalikka olib kelishi demakdir.

Sotsiolog olimlarning fikriga ko‘ra turmush tarzi muayyan tarixiy ijtimoiy munosabatlarga mos keluvchi inson hayot faoliyatining individual yoki guruhiy turi. Jamiyat hayotida shaxs turli sohalarga oid o‘z fikrlarini namoyon etadi. Turmush tarzi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, tabiiy va boshqa sharoitlarga bog‘liq holda shakllanadi va jamiyat moddiy va ma’naviy hayoti unsurlaridan tashkil topgan yaxlit tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Turmush tarzi muayyan ijtimoiy qurilmani tavsiflaydi va bu jamiyatda individ qanday yashayotganini, u inson o‘z “Men”i rivojlanishi va takomillashishi uchun nima qilayotganini, uning ehtiyojlari manfaatlari va ijodiy imkoniyatlari amalga oshayotganini ko‘rsatadi. Turmush tarzi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mafkura va madaniyat, atrof-muhitning insonga ta’siri sifatida shakllanadi hamda jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol ta’sir etadi.

Birgalikdagi faoliyat usullari, ijtimoiy jamoaviy munosabatlar va kishilar o‘rtasidagi aloqa, ular muloqoti va xulq atvorining ustuvor shakli, muloqotning maqsad va vazifasi, faoliyatning manfaatlari turmush tarzining xarakterini belgilaydi. Turmush tarzi va

salomatlik tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi sog‘lom turmush tarzi tushunchasini keltirib chiqaradi. Tibbiyot ensiklopediyasida keltirilgan ta’rifiga ko‘ra: turmush tarzi - insonlar hayotiy faoliyatining aniq turi haqidagi tasavvurlarni muvofiqlashtiruvchi muhim ijtimoiy kategoriyalardan biri. Texnik ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy va soglom turmush tarzini rivojlantirishda ularni o‘zlarini kasblarida, muhitda ishlash uchun sog‘lom motivatsiya omilining o‘rni ham beqiyosdir, avvalo motivatsiya atamasi o‘z mazmuniga ko‘ra shaxsni ma’lum bir faoliyatini bajarishga kirishishi uchun harakatga keltirish, uning muhimligini asoslash va anglatishdan iboratdir. Jumladan sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muammosida motivatsiya omili odamlarga ularning nima uchun sog‘lom turmush tarzida yashash lozimligi, ne sababdan nosog‘lom turmush tarzini tanlash yuzasidan kerakligini anglatishga qaratilgan.

Texnologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy va sog‘lom turmush tarziga oid integrativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. **AKTdan foydalanish:** Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interaktiv o‘quv platformalaridan foydalanish.
2. **Sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti:** Jismoniy faollikni oshirish, stressni kamaytirish va sog‘lom ovqatlanish odatlarini rivojlantirish uchun raqamli vositalar (mobil ilovalar, fitnes dasturlari).
3. **Raqamli nazorat:** Talabalarning shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini real vaqtda kuzatish va tahlil qilish uchun sensorlar, aqlli qurilmalar va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish.
4. **Motivatsiya va rag‘batlantirish:** O‘quv jarayoniga gamifikatsiya elementlarini kiritish, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash uchun raqamli reyting tizimlari va rag‘batlantirish platformalarini joriy etish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, texnologik yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonlari talabalarning kasbiy va sog‘lom turmush tarziga oid kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirgan. Virtual simulyatsiyalar va raqamli sog‘liqni saqlash texnologiyalari orqali talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshgan (78%), jismoniy faollikka qiziqish ortgan (65%), stressni boshqarish ko‘nikmalari yaxshilangan (55%) va vaqtni samarali rejalashtirish darajasi o‘sdi (70%).

XULOSA

Texnologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy va sog‘lom turmush tarziga oid integrativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli zamonaviy ta'lim jarayonini yanada samarali qilishda muhim qadamdir. Ushbu modelning muvaffaqiyati talabalarning texnologik vositalarga qiziqishi, innovatsion yondashuvlarga tayyorligi va o‘z salomatligi haqida ongli yondashuviga bog‘liqdir. Kelgusida ushbu modelni takomillashtirish va kengroq joriy etish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jabborov I. Turmush tarzi, urf-odatlar va odob. -T.: O‘zbekiston, 1983.
2. Karimova V.Salomatlik psixologiyasi yoxud sog‘lom bo‘lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2005
3. Lee, J., Park, S. (2021). Virtual Simulations in Education. Elsevier.
4. Hernandez, M., Lopez, R. (2022). Digital Platforms for Skills Development. Palgrave Macmillan.
5. Kim, H. (2020). Psychological Barriers in Digital Learning. Cambridge University Press.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TIL TA’LIMIDA TRANSFORMATSIYON YONDASHUVNING AHAMIYATI

Yo‘lchiyeva Dilrabo Dilshod qizi
Nizomiy nomidagi Milliy Pedagogika Universiteti
2- kurs doktoranti E-mail: dilraboyulchiyeva2711@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim tizimida til o‘qitish jarayonida faqat grammatik bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘quvchining dunyoqarashi, tafakkuri, shaxsiy tajribasi va o‘quv identitetini chuqur rivojlantirishga qaratilgan transformatsion yondashuv tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Transformativ ta’lim o‘quvchining oldindan shakllangan tasavvurlarini qayta ko‘rib chiqish, yangi ma’no yaratish, mustaqil fikrlash va refleksiv o‘rganishni faollashtirish orqali til o‘rganish jarayoniga yanada chuqur mazmun baxsh etadi. Ushbu maqolada transformatsion ta’limning nazariy asoslari, til o‘rganuvchilarda refleksiya, tanqidiy fikrlash, identitet o‘zgarishi, madaniyatlararo sezgirlik va shaxsiy rivojlanishni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik imkoniyatlar har tomonlama tahlil qilindi. Shuningdek, transformativ topshiriqlar, reflektiv yozuvlar, bahs-munozaralar, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan muloqot faoliyatlarining o‘quv jarayonidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari transformatsion yondashuvni EFL/ESL ta’limiga samarali integratsiya qilish bo‘yicha aniq, amaliy va metodik tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: transformatsion yondashuv, refleksiya, tanqidiy fikrlash, til o‘rgatish, identitet, kommunikativ kompetensiya

Аннотация.В современной системе образования процесс преподавания иностранного языка уже не ограничивается передачей только грамматических знаний. Всё большее значение приобретает развитие мировоззрения обучающихся, их когнитивных способностей, личностного роста и формирование языковой идентичности. Трансформативный подход способствует пересмотру ранее сложившихся представлений, созданию новых смыслов, активизации рефлексии и критического мышления, что делает процесс изучения языка более глубоким и осмысленным. В статье рассматриваются теоретические основы трансформативного обучения, а также педагогические возможности, направленные на развитие рефлексии, критического мышления, изменение идентичности, интеркультурной чувствительности и личностного развития студентов. Кроме того, анализируется роль трансформативных заданий, рефлексивных записей, дискуссий, проблемных ситуаций

и коммуникативных упражнений, основанных на реальных жизненных контекстах. Результаты исследования предлагают конкретные методические рекомендации по эффективной интеграции трансформативного подхода в практику преподавания EFL/ESL и созданию учебной среды, поддерживающей активное участие, автономию и осмысленное развитие личности обучающихся.

Ключевые слова: трансформативное обучение, критическое мышление, рефлексия, языковая личность, коммуникативная компетенция

Abstract. In modern education, language teaching is no longer limited to providing learners with grammatical knowledge alone. Instead, it increasingly emphasizes developing students’ worldview, cognitive capacity, personal growth, and evolving learner identity. The transformative approach plays a crucial role in helping students reconsider their prior assumptions, build new meanings, and engage in reflective and critical thinking throughout the learning process. This makes language learning a deeper intellectual and personal experience. The article examines the theoretical foundations of transformative learning and highlights pedagogical opportunities that foster reflection, critical thinking, identity transformation, intercultural awareness, and holistic personal development among language learners. Furthermore, the study analyzes the importance of transformative tasks, reflective writing, debates, problem-based activities, and real-life communicative situations within EFL/ESL classrooms. The research findings provide concrete methodological recommendations for effectively integrating transformative learning principles into English language education and for creating learning environments that support active engagement, autonomy, and meaningful identity development.

Keywords: transformative learning, reflection, critical thinking, learner identity, language teaching, communicative competence

KIRISH. Globallashuv va raqamli jamiyatning rivojlanishi shaxsdan nafaqat til ko‘nikmalarini, balki keng dunyoqarash, madaniyatlararo muloqot, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini talab qilmoqda. Shu bois, chet tilini o‘qitish jarayonida transformatsion yondashuv – talabaning o‘quv tajribasi, dunyoqarashi va identitetini tubdan yangilovchi ta’lim modeli – dolzarb masalaga aylangan. Transformatsion ta’limning markazida o‘quvchining o‘quv tajribasini qayta ko‘rib chiqishi, fikrlash chegaralarini kengaytirishi, o‘zining avvalgi tasavvurlari ustida tanqidiy refleksiya olib borishi va yangi muloqot, yangi qabul va yangi ma’no yaratish jarayoni turadi. Til o‘rganish jarayoni esa o‘z tabiatiga ko‘ra kommunikativ, ijtimoiy va madaniy xarakterga ega bo‘lgani bois, bunday yondashuv uchun nihoyatda qulay pedagogik maydon yaratadi.

Texnologik taraqqiyot transformativ o‘qitish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Raqamli platformalar, media matnlar, global onlayn hamjamiyatlar, virtual muloqot muhiti va sun’iy intellekt vositalari til o‘rganuvchining nafaqat til ko‘nikmalarini, balki dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiluvchi innovatsion resurslar sifatida namoyon

bo‘lmoqda [3]. Bunday vositalardan maqsadli foydalanish o‘quvchini faol subyektga aylantiradi, shaxsiy o‘sish va refleksiyani kuchaytiradi, interaktiv hamkorlikni rivojlantiradi. Natijada, transformatsion yondashuvni chet tilini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning lingvistik va ijtimoiy kompetensiyalarini yuksaltirish, ularni global fikrlovchi, faol, mustaqil va innovatsion shaxs sifatida shakllantirishning muhim sharti bo‘lib bormoqda. Shu bois mazkur yondashuvning ilmiy asoslarini o‘rganish, til ta’limida qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliy samaradorligini aniqlash dolzarb ilmiy- metodik vazifadir.Mezirow (1978) ta’rifiga ko‘ra, transformativ ta’lim – bu o‘quvchining ilgari shakllangan “ma’no doiralari”ni qayta ko‘rib chiqishi va yangi, kengroq dunyoqarashni shakllantirish jarayonidir. Til ta’limi kontekstida bu jarayon o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol, mustaqil, fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatli subyektga aylantiradi. O‘zbekiston ta’limida ham kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ metodika, STEAM, CLIL, refleksiv o‘qitish kabi yo‘nalishlar transformativ ta’lim bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til o‘qitish metodikasini zamonaviylashtirishda muhim o‘rin tutmoqda.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodiga asoslangan bo‘lib, transformatsion ta’lim nazariyasi va uning chet tilini o‘qitish jarayonidagi amaliy namoyon bo‘lish shakllariga doir zamonaviy ilmiy ishlar, uslubiy qo‘llanmalar hamda mahalliy va xorijiy tajribalar o‘rganildi. Transformativ ta’lim nazariyasi dastlab J.Mezirow ishlarida shakllangan bo‘lib, u o‘rganishni shaxsning ilgari mavjud bo‘lgan “ma’no doiralari”ni tanqidiy qayta ko‘rib chiqishi va yangilashi jarayoni sifatida talqin etadi [1]. Keyingi yillarda P.Cranton, E.Taylor, K.Illeris kabi tadqiqotchilar mazkur konsepsiyani yanada rivojlantirib, unda refleksiya, tanqidiy fikrlash, dialogik muloqot, identitet o‘zgarishi va tajribaga asoslangan o‘qitish kabi komponentlarni alohida ta’kidlab kelmoqdalar [2].Chet tilini o‘qitish metodikasida so‘nggi o‘n yillikda transformatsion yondashuvni kommunikativ, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan paradigmalarga integratsiya qilish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, T.Deveci, J.Lee, Y.Yang, B.Morgan kabi tadqiqotchilar EFL/ESL kontekstida talabalarning til o‘rganish jarayonida refleksiya, o‘z-o‘zini anglash, madaniyatlararo muloqot va global ongning shakllanishini transformativ tajriba sifatida tahlil qiladilar [3]. Ularning ishlarida transformativ topshiriqlar (critical incidents, reflective journals, debate, problem-based tasks) orqali talabalarning nafaqat til ko‘nikmalari, balki dunyoqarashi, o‘quv motivatsiyasi va identitetida sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlar ilmiy asoslangan.

Zamonaviy yondashuvlar transformatsion ta’limni kommunikativ va vazifa-asosli metodlar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bunda til o‘rganish jarayoni real hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy-madaniy kontekstlar va talabaning shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog‘lanadi [4]. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi tilni muloqot vositasi sifatida egallash bo‘lsa, transformatsion yondashuv bu jarayonga o‘quvchining qadriyatlari,

qarashlari va identitetini qayta ko‘rib chiqish komponentini qo‘shadi. Ya’ni, dars jarayonida o‘quvchi faqat grammatik va leksik birliklarni emas, balki boshqa madaniyatga munosabati, o‘zining tilga va o‘qishga bo‘lgan qarashlarini ham tahlil qiladi. Shu bois CLT va TBLT asosidagi mashg‘ulotlarga reflektiv yozuvlar, bahs-munozaralar, madaniyatlararo dilemmalar va tanqidiy savollarni kiritish transformatsion o‘zgarishlar uchun qulay sharoit yaratadi [5].Mahalliy til ta’limi tizimida ham transformatsion yondashuv bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan ilmiy ishlanmalar uchraydi. Jumladan, Sh.Jalolov chet til o‘qitish metodikasida kommunikativ, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning ahamiyatini yoritib, til o‘rgatish jarayonini o‘quvchini faol subyekt sifatida ko‘ruvchi modelni taklif etadi [6]. Sh.N.Abdullayeva, X.S.Muxitdinova, D.Ahmedova va boshqalar o‘z tadqiqotlarida zamonaviy metodlar, integrativ yondashuv, differensiallashtirilgan o‘qitish, refleksiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalalarini ko‘taradilar, bu esa transformativ ta’lim konsepsiyasining mahalliy sharoitda qo‘llanishiga metodik zamin yaratadi [7], [8]. Biroq ushbu ishlarning aksariyati transformatsion yondashuvni alohida nazariy model sifatida emas, balki umumiy innovatsion metodlar tarkibida ko‘rib chiqadi.

Raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi transformatsion yondashuvning til o‘qitishdagi imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Onlayn platformalar, virtual hamjamiyatlar, multimodal matnlar, masofaviy hamkorlik loyihalari (project-based online collaboration) talabalarga turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda ishtirok etish, o‘z pozitsiyasini bildirishi va boshqa nuqtai nazarlar bilan to‘qnash kelishi uchun keng maydon taqdim etadi [9]. Bunday tajribalar o‘quvchining nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo, ijtimoiy-emotsional va refleksiv kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, CALL va MALL texnologiyalaridan transformativ topshiriqlar bilan birgalikda foydalanish, masalan, blog va vloglar yuritish, reflektiv e-portfolio, xalqaro onlayn forumlarda ishtirok etish kabi faoliyat turlari til ta’limida transformatsion o‘zgarishlar uchun samarali instrument sifatida qaralmoqda [10].O‘quvchi-markazli yondashuv va shaxsiy-faoliyatli ta’lim konsepsiyasi transformatsion ta’limning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, unda o‘quvchining ehtiyojlari, maqsadlari, tajribasi va o‘z-o‘zini anglash darajasi o‘quv jarayonini loyihalashning asosiy mezoni sifatida talqin etiladi [11]. O‘zbekiston olimlarining kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘yicha ishlarida ham o‘quvchining ijtimoiy-faol pozitsiyasi, mustaqil fikrlashi va refleksiya madaniyatini shakllantirish zarurligi ta’kidlanadi [12]. Bularning barchasi til ta’limida transformatsion yondashuvni nazariy va amaliy jihatdan asoslashga xizmat qiluvchi muhim metodologik bazani tashkil etadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahon va mahalliy tadqiqotlarda transformativ ta’limning umumiy nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, uning aynan chet tilini o‘qitish jarayonida, xususan O‘zbekiston OTMlarida, nofilologik yo‘nalish talabalari uchun (masalan, farmatsiya, iqtisodiyot, texnika) qo‘llanish mexanizmlari, konkret transformativ topshiriqlar tizimi va pedagogik sharoitlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-muammoli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, transformatsion yondashuv chet tilini o‘qitish jarayoniga yangi mazmun, yangi sifat va yangi metodik imkoniyatlarni olib kiradi. Adabiyotlar tahlili asosida aniqlangan birinchi muhim jihat shundan iboratki, transformativ ta’lim talabaning faqat til ko‘nikmalarini emas, balki uning dunyoqarashi, individual tajribasi, o‘quv motivatsiyasi va identitetini ham o‘zgartiruvchi jarayon ekanini tasdiqlaydi. Bu jarayonda talaba tilni oddiy kommunikativ vosita sifatida emas, balki shaxsiy o‘sish, madaniy tushuncha, global fikrlash va ijtimoiy faollik manbai sifatida qabul qiladi. Transformatsion yondashuvning samaradorligi, avvalo, refleksiv faoliyatning kuchayishida namoyon bo‘ladi. Reflektiv yozuvlar, o‘z-o‘zini baholash, fikrlarni qayta ko‘rib chiqish va talaba shaxsiy tajribasiga tayanadigan topshiriqlar o‘quvchilarning “o‘rganish” jarayonini chuqurroq anglashiga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, refleksiya jarayonlari talabalarning tanqidiy fikrlashini kuchaytiradi, ularda mustaqil qaror qabul qilish, dalillash va muammoga yangicha yondashish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa til o‘rganishni faqat lingvistik faoliyat emas, balki intellektual taraqqiyot jarayoniga aylantiradi.

Transformativ o‘qitishda talabalarning motivatsiyasi sezilarli ravishda oshadi. Sababi, bu yondashuvda o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki o‘zining o‘quv jarayonining subyekti, faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Real hayot mavzulari, global muammolar, dolzarb ijtimoiy-madaniy masalalarni muhokama qilish, shaxsiy tajribaga asoslangan topshiriqlar talabalarda darsga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishni oshiradi. Xususan, E.Taylor, P.Cranton va B.Morgan tadqiqotlarida transformativ topshiriqlar (munozara, case-study, dilemmalar, reflektiv esse) o‘quvchilarni faol muloqotga kirishishga, o‘z fikrini asoslashga va boshqalar nuqtai nazarini hurmat qilishga undashi qayd etilgan. Raqamli texnologiyalarning ta’limga kirib kelishi transformatsion o‘qitish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Online hamkorlik loyihalari, virtual muloqot platformalari, multimodal matnlar va raqamli portfoliolar o‘quvchilarga turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda ishtirok etish imkonini beradi. Bu holat talabaning o‘zini global jamiyatning faol a’zosi sifatida his etishiga, turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilishiga va o‘zining kommunikativ identitetini shakllantirishiga sharoit yaratadi. O‘zbek olimlari — Sh.Jalolov, X.Muxitdinova, D.Ahmedova va boshqalar — zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan o‘quv muhitining shaxsiy-faoliyatli yondashuvni kuchaytirishi va o‘quvchini mustaqil fikrlovchi subyekt sifatida shakllantirishiga alohida e’tibor qaratadilar.

Biroq transformatsion yondashuvni amaliyotga joriy etish bir qator metodik, tashkiliy va pedagogik muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Eng avvalo, o‘qituvchilarning reflektiv pedagogika, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnikalari va transformativ topshiriqlarni loyihalash bo‘yicha yetarli tayyorgarligi talab etiladi. Mahalliy ta’lim muassasalarida ko‘plab metodik qo‘llanmalar an’anaviy yondashuvlarga asoslanganligi sababli, transformativ ta’lim uchun mos yangi o‘quv materiallari yaratish zarurati mavjud. Shuningdek, o‘quvchilar

orasidagi individual farqlar — turlicha o‘rganish uslublari, til darajalari, shaxsiy tajribalar — o‘qituvchidan murakkab va differensial yondashuvni talab qiladi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, transformatsion yondashuv chet tilini o‘qitish jarayonini mazmunan boyitib, uni shaxsiy rivojlanish, madaniy tushuncha, tanqidiy fikrlash va global kompetensiyalarni shakllantiruvchi kompleks pedagogik tizimga aylantiradi. Til o‘rganish jarayonidagi bunday sifat o‘zgarishlar talabaning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, madaniy va intellektual salohiyatini ham oshiradi. Shu bois, transformativ ta’lim konsepsiyasini O‘zbekiston OTMlarida, ayniqsa ESP yo‘nalishlarida keng joriy etish til ta’limining sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yuksaltirishi mumkin.

XULOSA

Transformatsion yondashuvning til ta’limidagi o‘rni va imkoniyatlarini tahlil qilish natijasida bir qator muhim xulosalar belgilandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, transformativ ta’lim modeli an’anaviy yondashuvlarga nisbatan talabaning shaxsiy rivojlanishiga, tanqidiy fikrlashiga, reflektiv o‘rganishiga va kommunikativ faolligiga sezilarli darajada kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Transformatsion topshiriqlar, refleksiya, munozara va real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlar til o‘rganishni mazmunan chuqurlashtiradi va o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki dunyoqarashini, madaniy sezgirligini va global kompetensiyalarini oshirishga yordam beradi. Raqamli platformalar va interaktiv texnologiyalar transformativ o‘qitishni yanada samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Onlayn hamkorlik, reflektiv e-portfolio, virtual muloqot, multimodal topshiriqlar kabi innovatsion vositalar o‘quvchini global ta’lim makoniga olib kiradi va uning identitetini shakllantiruvchi o‘quv tajribalarini boyitadi. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini, metodik tayyorgarligini va didaktik malakasini kuchaytirishni talab qiladi. Ta’lim muassasalari zamonaviy texnik jihozlar bilan ta’minlanishi va o‘qituvchilar transformativ texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha maxsus o‘qitilishi zarur.

O‘quvchilarning individual ehtiyojlari, tajribasi, o‘rganish uslublari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish transformatsion yondashuvning eng muhim jihatlaridan biridir. Talabalar turlicha o‘rganish strategiyalariga ega bo‘lganligi sababli, moslashuvchan, shaxsga yo‘naltirilgan va differensial yondashuvlarni qo‘llash zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va o‘quv jarayonida o‘z rolini chuqur anglashiga sabab bo‘ladi. Umuman olganda, transformativ ta’limni chet tilini o‘qitish jarayoniga kompleks tarzda tatbiq etish eng samarali strategiya hisoblanadi. Yakka metodlardan ko‘ra, refleksiya, kommunikativ topshiriqlar, madaniyatlararo muloqot, texnologik innovatsiyalar va shaxsiy-faoliyatli yondashuvning uyg‘unlashuvi yuqori natijalar beradi. Har bir ta’lim muassasasi o‘zining imkoniyatlari va talabalarning ehtiyojlariga mos holda transformatsion metodlarni bosqichma-bosqich joriy etishi lozim. Kelajakda transformativ ta’limning O‘zbekiston OTMlaridagi tatbiqi, ayniqsa nofilologik yo‘nalishlarda (farmatsevtika, iqtisodiyot, muhandislik) qo‘llanish tajribalarini

o‘rganish, samaradorlik ko‘rsatkichlarini tadqiq etish va xalqaro amaliyot bilan solishtirish muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lib qoladi. Transformatsion yondashuv til ta’limining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi va global tafakkurini rivojlantirishda kelajakda ham katta imkoniyatlar yaratishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mezirow, J. (1991). Transformative dimensions of adult learning. Jossey-Bass.
2. Cranton, P. (2016). Understanding and promoting transformative learning. Jossey-Bass.
3. Taylor, E. W. (2017). Transformative learning theory: A critical review. Routledge.
4. Illeris, K. (2018). Transformative learning as identity change. Journal of Transformative Education, 16(1), 20–38.
5. Leaver, B. L., Tyler, M., & Guillén, G. (2021). Transformative language learning and teaching. Routledge.
6. Deveci, T. (2014). Transformative learning experiences of EFL learners in a preparatory program. Transformative Dialogues, 7(3), 1–18.
7. Yang, Y. (2022). Professional identity transformation in teacher education: A narrative inquiry. Frontiers in Psychology, 13, 949673.
8. Morgan, B. (2019). Language teaching and identity transformation in TESOL. Critical Inquiry in Language Studies, 16(1), 1–20.
9. Lee, J. (2019). Transformative learning for critical cultural awareness in ESL learners. Language and Intercultural Communication, 19(4), 305–322.
10. Oxford, R. L. (2019). Teaching and researching language learning strategies. Routledge.
11. Chapelle, C., & Sauro, S. (2017). Technology and second language teaching. Wiley.
12. Richards, J. C. (2021). Communicative language teaching today. Cambridge University Press.
13. Brookfield, S. (2016). Teaching for critical thinking. Jossey-Bass.
14. Byram, M. (2020). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters.

Mahalliy (O‘zbekiston) manbalar

15. Jalolov, J. (2012). Chet til o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
16. Abdullayeva, Sh. N. (2021). Chet til o‘qitish metodikasida zamonaviy yondashuvlar. Akademik tadqiqotlar jurnali, 2(4), 523–534.
17. Muxitdinova, X. S. (2020). O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
18. Ahmedova, D. (2020). Zamonaviy ta’lim metodikasi va innovatsiyalar. Toshkent.

19. Pulatova, N. (2022). Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning chet tili ta’limidagi o‘rni. Til va adabiyot ta’limi jurnali, 3(2), 45–52.

20. Jo‘rayeva, D. (2021). Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. Pedagogika va psixologiya jurnali, 6(1), 67–74.

21. Atadjanova, A. (2023). Raqamli ta’lim muhitida ESL o‘qitishning metodik asoslari. Innovatsion ta’lim jurnali, 5(3), 102–110.

22. To‘xliyeva, G. (2022). Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning til o‘qitishdagi o‘rni. Oliy ta’lim jurnali, 4(2), 88–95.

23. Kamoldinova, Z. (2021). Interfaol metodlarning chet tili ta’limidagi samaradorligi. Ta’lim texnologiyalari jurnali, 7(1), 55–60.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KOXLEAR IMPLANT BOLALARNI INKLYUZIV TA’LIMGA TAYYORLASHDA KORREKSION-PEDAGOGIK ISH TIZIMIDAGI QIYINCHILIKLAR

Rahimova Nargiza Alisherovna.
O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Namangan viloyati boshqarmasi tasarrufidagi To’raqo’rg’on tumani alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 48-sonli maktab-internat logoped o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada koxlear implantatsiya qilingan bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorlash jarayonida uchraydigan korreksion-pedagogik muammolar, tizimdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar tahlil qilinadi. O‘zbekiston, MDH davlatlari hamda xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida integratsiyalashgan reabilitatsiya va ta’lim yondashuvlarining afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, soha bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonun va qarorlari asos qilib olingan.

Kalit so’zlar: Koxlear implant, inklyuziv ta’lim, surdopedagogika, korreksion-pedagogik yordam, reabilitatsiya, ota-ona hamkorligi, eshitish nuqsoni, maxsus pedagogika.

Аннотация.В данной статье рассмотрены коррекционно-педагогические проблемы, возникающие в процессе подготовки детей с кохлеарным имплантом к инклюзивному обучению. Проанализированы системные недостатки и представлены рекомендации по их устранению. На основе опыта Узбекистана, стран СНГ и зарубежных государств раскрыты преимущества интегрированного подхода к реабилитации и обучению. В качестве основы исследования использованы нормативно-правовые документы Республики Узбекистан.

Ключевые слова:Кохлеарный имплант, инклюзивное образование, сурдопедагогика, коррекционно-педагогическая помощь, реабилитация, сотрудничество с

Abstract. This article analyzes the correctional–pedagogical challenges encountered in preparing children with cochlear implants for inclusive education. It examines systemic shortcomings and provides recommendations for improving the educational and rehabilitation process. The study highlights the advantages of integrated rehabilitation and educational approaches based on the experience of Uzbekistan, CIS countries, and foreign practices. Relevant legislative documents and regulations of the Republic of Uzbekistan serve as the basis of the analysis.

Keywords. Cochlear implant, inclusive education, surdopedagogy, correctional–pedagogical support, rehabilitation, parent cooperation, hearing impairment, special pedagogy.одителями, нарушение слуха, специальная педагогика.

Kirish. Koxlear implant texnologiyasi so‘nggi yillarda eshitish qobiliyatini yo‘qotgan bolalarning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishida katta yutuqlarga erishish imkonini berdi. Bu esa ular uchun umumiy ta’lim muassasalariga integratsiyani ochib berdi. Biroq implant o‘rnatilishi — faqat birinchi bosqich bo‘lib, uning samarasi keyingi reabilitatsion-korreksion jarayonlar sifatiga bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator hujjatlar qabul qilingan (“Ta’lim to‘g‘risida” Qonun, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan inklyuziv ta’lim konsepsiyasi). Ushbu huquqiy asoslar koxlear implantli bolalarni umumiy o‘rta ta’limga jalb etish uchun sharoit yaratadi. Shunga qaramay, amaliyotda korreksion-pedagogik xizmatlarda barqaror tizimning shakllanmaganligi, mutaxassislar malakasi yetishmasligi, ota-ona va pedagog hamkorligining sustligi kabi qiyinchiliklar kuzatiladi. Mazkur maqolaning maqsadi — koxlear implant o‘rnatilgan bolani inklyuziv ta’lim jarayoniga tayyorlashda uchraydigan korreksion-pedagogik muammolarni aniqlash va ularning yechimiga ilmiy-amaliy tavsiyalar berish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan reabilitatsiya va pedagogik ishlarning xorijiy va mahalliy tajribalarini tahlil qilish.
2. Muammolarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash.
3. Inklyuziv ta’limga tayyorlov mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish.

Metodologiya.

Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida amalga oshirildi:

ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish – O‘zbekiston, MDH va xorijiy davlatlardagi tajribalarni o‘rganish;

qiyosiy tahlil metodi – xorijiy reabilitatsiya markazlari tizimi bilan mahalliy tizim o‘rtasida taqqoslash;

empirik kuzatuv – koxlear implantli bolalar bilan olib borilayotgan pedagogik-amaliy jarayonlarni kuzatish;

muammoli vaziyatlarni tahlil qilish – korreksion-pedagogik tizimdagi kamchiliklarni aniqlash.

Natijalar.

Koxlear implantatsiya yo’li bilan eshitishi tiklangan bolalarni eshitishga o’rgatish ishlari ota-ona va surdopedagog hamkorligidagi izchil faoliyat orqali amalga oshiriladi.Implant qo’yilgan bolalarni dastlabki o’rganish tajribasidan ma’lum bo’lishicha implant qanchalik erta qo’yilsa, ijobiy natijalarga erishish samarasi yaxshi va qisqa muddatda

ko’rinadi. Lekin bu KI bo’lgan bolalarning barchasida shunday bo’ladi degani emas. Shuning uchun biz quyida duch kelishimiz mumkin bo’lgan muammolarni birma-bir sanab o’tamiz:

1. Tibbiy-reabilitatsion va pedagogik xizmatlar integratsiyasining zaifligi. Koxlear implant o‘rnatilgandan so‘ng bola audiolog, logoped, surdopedagog va psixologlarning muntazam kuzatuvida bo‘lishi kerak. Biroq tizimlararo hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagani sababli reabilitatsiya uzluksiz olib borilmaydi. MDH davlatlarida (Rossiya, Qozog‘iston) “koordinatsion markaz”lar mavjud bo‘lib, bunda barcha mutaxassislar bir yo‘nalishda ishlaydi. O‘zbekistonda esa bu tizim endilikda shakllanmoqda.

2. Surdopedagog va sinf o‘qituvchilari malakasining yetishmasligi. Inklyuziv sinflarda ishlaydigan pedagoglar eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalar psixofiziologik xususiyatlarini bilishi kerak. O‘qituvchilar audiologik qurilmalar bilan ishlash, tovushni differensial eshittirish, vizual metodlar, multimodal kommunikatsiya bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka muhtoj. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, koxlear implantli bolalar bilan ishlash uchun “teachers of the deaf” maxsus kurslari joriy qilingani bola rivojlanishi uchun foydali hisoblanadi. (AQSh, Buyuk Britaniya).

3. Ota-ona hamkorligidagi qiyinchiliklar. Ota-onalarning: reabilitatsiya muntazam mashg‘ulotlarni uyda tashkil qilmasligi, pedagogik ko‘rsatmalarga amal qilmasligi natijasida bolaning rivojlanishi sekinlashadi. Xalqaro tajribada (USA, Germany) “family-centered approach” — ya’ni markazda ota-ona bilan ishlash turadi. Shuning uchun ota-onalar, surdopedagog, logoped, audiologning hamkorligi muhim sanaladi.

4. Tilni rivojlantirish strategiyalarini noto‘g‘ri tanlash. Ba'zi ota-onalar faqat “nutq chiqishi”ni kutadi va imo-ishoradan foydalanishni taqiqlaydi. Natijada bolaning til o‘zlashtirish jarayoni sekinlashadi. Xorijiy amaliyot bilingval yondashuv — imo-ishora tili + og‘zaki nutqni qo‘llab-quvvatlaydi.

Muhokama.

Shuning uchun biz quyidagi amaliy tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. Tizimli hamkorlik mexanizmini yaratish — tibbiyot, ta’lim va reabilitatsiya muassasalari o‘rtasida yagona monitoring.

2. Mutaxassislarni qayta tayyorlash — surdopedagoglar, psixologlar, o‘qituvchilar uchun maxsus qisqa o‘quv kurslarini joriy etish.

3. Individual ta’lim rejasi (ITR) — har bir bola uchun maxsus reja tuzish.

4. Ota-onalar uchun treninglar — uy sharoitida mashg‘ulotlar tizimini shakllantirish.

5. Moddiy-texnik bazani kuchaytirish — FM tizimlari, akustik moslamalar, vizual qo‘llanmalar.

6. Til rivojlanishida bilingval yondashuvni qo‘llash — imo-ishora va nutqni parallel rivojlantirish.

Xulosa.

Koxlear implant bolaning eshitish qobiliyatini tiklashda inqilobiy imkoniyat yaratsa-da, inklyuziv ta’limda muvaffaqiyatga erishish faqat kompleks yondashuv bilan bog‘liq.

Reabilitatsiya tizimining puxta yo‘lga qo‘yilishi, pedagoglarning maxsus tayyorgarligi, ota-onalar faolligi va moddiy-texnik bazaning mustahkamligi asosiy omillardir. O‘zbekiston tajribasida ushbu yo‘nalishda islohotlar olib borilmoqda, ammo tizimni takomillashtirish davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2021.

3. UNICEF. Inclusive Education Policy Review in Uzbekistan. 2018.

4. Abdullaeva G. Koxlear implantatsiyalangan bolalarda inklyuziv ta’lim masalalari. – Toshkent, 2024

5. X.S.Raximova, Koxlear implantli bolalar bilan logopedik ish (o’quv qo’llanma). F.: 2021. – 209 b

6.Rossiya Federatsiyasi Surdopedagogika bo‘yicha amaliy qo‘llanma. Moskva, 2019.

7. Manrique M., et al. Guidelines on Cochlear Implantation. 2019.

8. American Academy of Audiology. Clinical Practice Guideline: Cochlear Implants, 2021.

9. Qozog‘iston Respublikasi Surdopedagogika institutining metodik qo‘llanmalari, 2020–2023.

10. The Guardian. Cochlear implants and bilingual language development. 2024.

11. Cortés-González P., et al. Educational Inclusion of Children with Cochlear Implants. MDPI, 2025.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INKLYUZIV TA’LIMDA SINERGETIK MUHIT VA UNI YARATISH MEXANIZMLARI

Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi
CHDPU Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida sinergetik muhitni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Sinergetika tamoyillari asosida pedagogik, psixologik, ijtimoiy va texnologik omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi inklyuziv sinfda ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutishi asoslab berilgan. Maqolada o‘qituvchining boshqaruvchilik roli, multidissiplinar jamoa — psixolog, surdopedagog, logoped, defektolog va ijtimoiy pedagog — ning hamkorlikdagi faoliyati, ota-onalar bilan tizimli aloqalar sinergetik muhitning asosiy mexanizmlari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, raqamli va multimodal texnologiyalarning o‘quvchilar ehtiyojiga moslashgan ta’limni ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar:inklyuziv ta’lim, sinergetik muhit, sinergetika, multidissiplinar yondashuv, pedagogik hamkorlik, raqamli ta’lim, adaptiv texnologiyalar, ijtimoiy integratsiya, o‘qituvchi roli, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar.

Аннотация.В данной научной статье раскрыты теоретические и практические аспекты формирования синергетической среды в процессе инклюзивного образования. На основе принципов синергетики обоснована роль взаимной интеграции педагогических, психологических, социальных и технологических факторов в повышении эффективности обучения в инклюзивном классе. В статье подчёркнута управляющая роль учителя, а также совместная деятельность мультидисциплинарной команды — психолога, сурдопедагога, логопеда, дефектолога и социального педагога — как ключевые механизмы формирования синергетической среды. Кроме того, проанализировано значение цифровых и мультимодальных технологий для обеспечения адаптированного обучения, отвечающего индивидуальным потребностям учащихся.

Ключевые слова:инклюзивное образование, синергетическая среда, синергетика, мультидисциплинарный подход, педагогическое сотрудничество, цифровое обучение, адаптивные технологии, социальная интеграция, роль учителя, дети с особыми образовательными потребностями.

Abstract. This scientific article explores the theoretical and practical aspects of creating a synergistic environment within the framework of inclusive education. Based on the

principles of synergetics, the study substantiates the role of integrating pedagogical, psychological, social, and technological factors in enhancing learning effectiveness in an inclusive classroom. The article highlights the managerial role of the teacher, as well as the collaborative activities of a multidisciplinary team — including a psychologist, surdopedagogue, speech therapist, defectologist, and social educator — as key mechanisms for forming a synergistic educational environment. Additionally, the importance of digital and multimodal technologies in providing instruction adapted to the individual needs of learners is examined.

Keywords:inclusive education, synergistic environment, synergetics, multidisciplinary approach, pedagogical collaboration, digital learning, adaptive technologies, social integration, teacher’s role, learners with special educational needs.

Kirish. Inklyuziv ta’limda sinergetik muhit — bu ta’lim jarayonida pedagogik, psixologik, ijtimoiy va tashkiliy omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllanadigan, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi yagona ta’lim makonidir. Sinergetika nazariyasiga ko‘ra, har qanday tizimning kuchi uning alohida elementlarida emas, balki ularning bir-biri bilan o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Inklyuziv ta’limda ham aynan shu tamoyil amal qiladi: o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona va mutaxassislarning o‘zaro hamkorligi natijasida barqaror va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti yuzaga keladi. Masalan, maxsus ehtiyojli o‘quvchi uchun individual o‘quv rejasi, psixologik qo‘llab-quvvatlov va sinfdagi ijtimoiy muhitning uyg‘unlashuvi uning rivoji uchun kuchli sinergetik ta’sir yaratadi.

Inklyuziv muhitda sinergetik o‘zaro ta’sir pedagogik jarayonning tabiiy dinamizmini ta’minlaydi. O‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan differensial yondashuv, vizual va interaktiv resurslardan foydalanish, guruhli ishlarda ijtimoiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning o‘zaro ta’sirini kuchaytiradi. Masalan, jamoaviy loyiha ishlari davomida turli imkoniyatga ega o‘quvchilar bir-birlarini to‘ldiradi: biri rasm chizishda kuchli bo‘lsa, boshqasi matn tuzishda, yana biri texnik vositalardan foydalanishda faol bo‘lishi mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘zaro o‘rganishini ta’minlaydi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

Psixologik jihatdan sinergetik muhit o‘quvchilar uchun xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi va emosional jihatdan barqaror makon yaratadi. Bunday muhitda o‘quvchi o‘zini qadrli his qiladi, o‘z fikrini erkin ifoda etadi va jamoadagi faol ishtirokchi sifatida rivojlanadi. Maksimal inkluzivlikka erishish uchun o‘qituvchi empatiya, bag‘rikenglik va kommunikativ madaniyatga asoslangan strategiyalarni qo‘llashi zarur. Masalan, maxsus ehtiyojli o‘quvchi sinfga qo‘shilganda, o‘qituvchi tengdoshlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish uchun “hamkor juftlik” metodidan foydalanishi sinergetik muhitni kuchaytiradi.

Sinergetik muhitni yaratishda ota-onalar, psixolog, defektolog, surdopedagog kabi mutaxassislarning hamkorligi markaziy o‘rin tutadi. Multidissiplinar yondashuv orqali har

bir o‘quvchining individual ehtiyojlari aniqlanadi va ta’lim jarayoni shu ehtiyojlarga mos ravishda yo‘naltiriladi. Misol uchun, koxlear implantli o‘quvchi uchun psixolog emotsional qo‘llab-quvvatlov beradi, surdopedagog eshitish va nutq mashqlarini tashkil etadi, o‘qituvchi esa dars jarayonini moslashtiradi. Shu tarzda barcha tomonlarning uyg‘un hamkorligi sinergetik ta’sirni kuchaytiradi va inklyuziv ta’limning amaliy samaradorligini oshiradi.

Metodologiya

Inklyuziv ta’limning samaradorligi, eng avvalo, barcha o‘quvchilar uchun psixologik jihatdan xavfsiz, ijtimoiy jihatdan ochiq va pedagogik nuqtai nazardan qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratilishiga bog‘liq. Bunday muhitda o‘quvchi o‘zini erkin his qilishi, o‘z fikrini qo‘rqmasdan ifoda etishi hamda o‘zining shaxsiy qadr-qimmatini anglash imkoniga ega bo‘ladi. Psixologik xavfsizlikning mavjudligi — inklyuziv sinfda muvaffaqiyatli ta’limning boshlang‘ich sharti bo‘lib, o‘quvchilarning yangi mavzularni o‘zlashtirishga ichki tayyorligini shakllantiradi. Masalan, o‘zini xavfsiz his qilgan o‘quvchi savol berishdan, fikr bildirishdan tortinmaydi va dars jarayonida faol bo‘ladi.

Sinergetik muhitda o‘quvchilar o‘zaro tajriba almashish, bir-biridan o‘rganish va turli ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Yaxlit sinf jamoasida har bir o‘quvchi ma’lum bir rolni bajaradi va bu rollarning uyg‘unlashuvi sinergetik ta’sirni vujudga keltiradi. Masalan, loyihaviy ishlarda turli imkoniyatga ega bolalar birgalikda faoliyat olib borar ekan, biri rasm chizishni, boshqasi matn tuzishni, yana biri texnik vositalarni boshqarishni bajarib, o‘zaro bir-birini to‘ldiradi. Bu jarayon nafaqat bilim almashinuvi, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Mazkur jarayon, ayniqsa, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun nihoyatda muhim. Sinergetik muhit ularning o‘zini qadrlash darajasini oshiradi, jamoadagi ishtirokini faollashtiradi va konstruktiv muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchi jamoaviy mashg‘ulotlarda qatnashganida, tengdoshlarning yordam va qo‘llab-quvvatlovini his qilishi uning psixologik barqarorligini mustahkamlaydi.

Natija

O‘qituvchilarning tolerantlikka asoslangan faoliyati sinergetik muhitning yuragi hisoblanadi. O‘qituvchi differensial yondashuvni qo‘llash, empatiya orqali o‘quvchilarning ichki holatini his eta olish, har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos metodlarni tanlash orqali inklyuziv sinfning barqarorligini ta’minlaydi. Masalan, o‘qituvchi nutqida qiyinchilik sezadigan o‘quvchi uchun ko‘rgazmali materiallardan foydalanishi, harakat asosidagi topshiriqlarni taklif qilishi yoki individual tushuntirish usulidan foydalanishi mumkin. Bu pedagogik moslashuv sinergetik jarayonni kuchaytiradi va ta’lim sifatini oshiradi.

Yakuniy natijada sinergetik muhit — bu nafaqat oddiy pedagogik jarayon, balki turli subyektlar o‘rtasidagi kompleks o‘zaro ta’sir tizimidir. Bu tizimda o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona, mutaxassislar va texnologik vositalar yagona maqsad sari uyg‘un tarzda faoliyat olib boradi. Sinergetik muhitning mohiyati shundaki, tizimning har bir bo‘g‘ini boshqasi bilan

o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda ta’lim sifatini belgilovchi integral natijani yaratadi. Bu integrativ yondashuv inklyuziv ta’limni barqaror va samarali qiladigan asosiy mexanizmdir.

Xulosa

Sinergetik muhitning ta’siri o‘quvchilarning ijtimoiy rivojida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zaro yordam, hamkorlik, jamoaviy qaror qabul qilish va tengdoshlar qo‘llab-quvvatlovi ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun sinergetik muhit ijtimoiy tajribani boyitish, o‘zini jamoaning to‘laqonli a’zosi sifatida his qilish va muloqot kompetensiyalarini shakllantirishda juda muhimdir. Masalan, nutqida muammosi bo‘lgan o‘quvchi tengdoshlari bilan qo‘shma loyiha tayyorlar ekan, u ijtimoiy muloqotga kirishishdan tortinmaydi va asta-sekin integratsiyalashadi. Bunday muhitda o‘quvchilar imkoniyatlaridan qat’i nazar, o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila oladilar va ta’lim jarayonida faol ishtirokchi sifatida shakllanadilar. Sinergetik yondashuv har bir o‘quvchining ichki potentsialini ochib berishga yordam beradi, uning mustaqil fikrlashini, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini va o‘z qobiliyatiga ishonchini mustahkamlaydi. Natijada inklyuziv sinf o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning umumiy shaxsiy va ijtimoiy yetuklik darajasini ham oshiradi. Bu esa sinergetik muhitning ta’lim tizimidagi strategik ahamiyatini yanada ravshan ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarova N. M. Korreksion pedagogika asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
2. To‘raqulova M. H. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Innovatsiya, 2019.
7. Xolbekov A. X. Pedagogik diagnostika va tahlil. — Toshkent, 2017.
8. Haken, H. Synergetics: Introduction and Advanced Topics. — Springer, 2004.
9. Vygotsky, L. S. Mind in Society. — Harvard University Press, 1978.
10. Ainscow, M. Understanding the Development of Inclusive Schools. — Routledge, 1999.
11. Florian, L., & Black-Hawkins, K. Exploring Inclusive Pedagogy. — Cambridge Journal of Education, 2011.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 30.428.303.4.028
ORCID:0009-0008-5021-5698

GID-TARJIMONLARNING KASBIY MULOQOT KOMPETENSIYASI: TARKIBIY KOMPONENTLAR VA RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Mirzayeva Lola Shermat qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti, tayanch doktorant
me.gulilolam3101@gmail.com
Tel.: +99893-071-64-46

Annotatsiya. Maqolada gid-tarjimonlarning kasbiy muloqot kompetensiyasining tarkibiy komponentlari va ularni CLIL yondashuvi asosida rivojlantirish bosqichlari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijasida kasbiy muloqot kompetensiyasining besh asosiy komponenti aniqlangan va ularni rivojlantirishning uch bosqichli modeli ishlab chiqilgan. Eksperimental tajriba ishlab chiqilgan metodikaning yuqori samaradorligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: kasbiy muloqot kompetensiyasi, gid-tarjimon, tarkibiy komponentlar, CLIL yondashuvi, rivojlantirish bosqichlari, turizm ta'limi, til va mazmun integratsiyasi.

Annotation. The article examines the structural components of professional communication competence of tour guides-interpreters and the stages of their development based on the CLIL approach. As a result of the research, five main components of professional communication competence were identified and a three-stage model for their development was developed. Experimental work demonstrated the high effectiveness of the developed methodology.

Keywords: professional communication competence, tour guide-interpreter, structural components, CLIL approach, development stages, tourism education, language and content integration.

Аннотация. В статье исследуются структурные компоненты профессиональной коммуникативной компетенции гидов-переводчиков и этапы их развития на основе подхода CLIL. В результате исследования были выявлены пять основных компонентов профессиональной коммуникативной компетенции и разработана трехэтапная модель их развития. Экспериментальная работа продемонстрировала высокую эффективность разработанной методики.

Ключевые слова: профессиональная коммуникативная компетенция, гид-переводчик, структурные компоненты, подход CLIL, этапы развития, туристическое образование, интеграция языка и содержания.

Kirish.Zamonaviy turizm industriyasining jadal rivojlanishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi yuqori malakali gid-tarjimonlar tayyorlashga bo'lgan talabni oshirmoqda. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro turistlar soni 2024-yilda 1,5 milliard kishiga yetdi va bu raqam yildan-yilga o'sib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan qarorlari turizm kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish zaruratini tug'diradi. Gid-tarjimon nafaqat ikki yoki undan ortiq tilni bilishi, balki turli madaniyatlar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlay oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gid-tarjimonlarning faoliyati asosan turli tildagi va madaniyatdagi odamlar bilan muloqotga asoslangan. Shu sababli, gid-tarjimonlarni tayyorlashda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash dolzarb muammo hisoblanadi. CLIL yondashuvi mazmun va tilni bir vaqtda o'rgatish orqali kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasidir. Ushbu yondashuv bo'lajak gid-tarjimonlarga kasbiy bilimlarni xorijiy tilda egallash, real kasbiy vaziyatlarda til ko'nikmalarini qo'llash imkoniyatini beradi.

Tadqiqotning maqsadi gid-tarjimonlarning kasbiy muloqot kompetensiyasining tarkibiy komponentlarini aniqlash va CLIL yondashuvi asosida ularni rivojlantirish bosqichlarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Kasbiy muloqot kompetensiyasi muammosi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarda keng yoritilgan. J.C. Richards va T.S. Rodgers kommunikativ kompetensiyaning to'rt asosiy komponentini ajratib ko'rsatgan. D. Coyle, P. Hood va D. Marsh CLIL yondashuvining nazariy asoslarini ishlab chiqib, uning to'rtta asosiy elementini belgilagan. M. Byram tillararo muloqot kompetensiyasi modelini taklif etib, sotsiokulturiy komponentning ahamiyatini ta'kidlagan. Mahalliy olimlardan N. Sayfurov va A. Khamrokulov kasbga yo'naltirilgan chet til ta'limining nazariy-amaliy asoslarini o'rgangan. G. Sharipova turizm yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalarini tahlil qilgan. O. Yusupov oliy ta'limda integratsiyalashgan ta'lim modellarini tadqiq etgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, so'rovnoma, test, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil. Tadqiqot O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Tarjima nazariyasi ba amaliyoti kafedrasida o'tkazildi. Tajribada 40 nafar 2-kurs talabasi ishtirok etdi: eksperimental guruh 20 nafar, nazorat guruhi 20 nafar.

Natijalar va muhokama

Kasbiy muloqot kompetensiyasining tarkibiy komponentlari. Adabiyotlar tahlili va amaliy faoliyatni o'rganish asosida gid-tarjimonlarning kasbiy muloqot kompetensiyasining besh tarkibiy komponenti aniqlandi. Lingvistik komponent tilning tizim sifatida bilimlarini va til vositalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu komponent fonologik, leksik, grammatik va orfografik ko'nikmalarni qamrab oladi. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, gid-tarjimonlar kamida 3000-3500 kasbiy terminni faol egallashi kerak. Diskursiv komponent nutqiy vaziyatga mos ravishda turli janrdagi matnlarni tuzish va tushunish qobiliyatini anglatadi. Bu monologik va dialogik nutq ko'nikmalari, turli uslublarda gapirish, og'zaki va yozma matnlar o'rtasida o'tish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Sotsiolingvistik komponent ijtimoiy kontekstga mos ravishda tildan foydalanish qobiliyatini bildiradi. Bu rasmiy va norasmiy muloqot me'yorlarini bilish, turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqot qilish, til etiket qoidalarini qo'llashni qamraydi. Strategik komponent muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engish uchun turli strategiyalardan foydalanish qobiliyatidir. Bu kompensatsion, ta'sir ko'rsatish, hamkorlik va muammolarni hal qilish strategiyalarini o'z ichiga oladi.Sotsiokulturologik komponent madaniyatlararo muloqot qobiliyatini ta'minlaydi. Bu madaniy bilimlar, madaniyatlararo farqlarni anglash va hurmat qilish, madaniyatlararo mediator sifatida harakat qilish ko'nikmalarini qamrab oladi.

CLIL yondashuvi asosida rivojlantirish bosqichlari. Kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning uch bosqichli modeli ishlab chiqildi.

Birinchi bosqich - boshlang'ich-adaptiv bosqich talabalarda turizm sohasiga oid asosiy kasbiy tushunchalar va terminlar bilan tanishish, elementar muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu bosqichda turizm terminologiyasi asoslari o'rgatiladi, oddiy kasbiy vaziyatlarda muloqot ko'nikmalari rivojlantiriladi, CLIL metodikasiga adaptatsiya amalga oshiriladi. Qo'llaniladigan texnologiyalar: vizual vositalar, ko'p tilli lug'atlar, rol o'yinlari, virtual ekskursiyalar.

Ikkinchi bosqich - asosiy-integrativ bosqich kasbiy muloqot kompetensiyasining barcha komponentlarini integratsiya qilish, real kasbiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Kasbiy leksika va diskurs kengaytiriladi, murakkab kasbiy vaziyatlarda muloqot ko'nikmalari takomillashtiriladi, madaniyatlararo muloqot strategiyalari egalllanadi. Qo'llaniladigan texnologiyalar: loyiha asosida ta'lim, keis-stadi metodikasi, vebinvestigatsiya, tandem o'qitish, professional vebinarlar.

Uchinchi bosqich - yakuniy-professional bosqich kasbiy muloqot kompetensiyasini real professional faoliyat sharoitida mustaqil qo'llash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Professional diskurs ko'nikmalari takomillashtiriladi, murakkab professional muloqot vaziyatlarida mustaqil harakat qilish qobiliyati rivojlantiriladi, madaniyatlararo mediator ko'nikmalari shaklllantiriladi. Qo'llaniladigan texnologiyalar: amaliyot, professional portfolio, real ekskursiyalar, xalqaro loyihalar, professional baholash.

Eksperimental ish natijalari. Eksperimental ishning samaradorligini baholash uchun kasbiy muloqot kompetensiyasining barcha komponentlari bo'yicha diagnostika o'tkazildi.

100 ballik tizim qo'llanildi: 0-64 ball past daraja, 65-84 ball o'rta daraja, 85-100 ball yuqori daraja. Dastlabki diagnostika natijalari eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasida sezilarli farq yo'qligini ko'rsatdi. Eksperimental guruhning o'rtacha ko'rsatkichi 50,7 ball, nazorat guruhniki 50,8 ball edi. Eksperimental guruhda ishlab chiqilgan uch bosqichli metodika qo'llanildi, nazorat guruhida an'anaviy metodika asosida ta'lim tashkil etildi. Yakuniy diagnostika natijalariga ko'ra, eksperimental guruhda barcha komponentlar bo'yicha sezilarli yaxshilanish kuzatildi. Lingvistik komponentda eksperimental guruh 81,5 ballga erishdi, nazorat guruhi 68,2 ball. Diskursiv komponentda mos ravishda 78,3 va 66,5 ball. Sosiolingvistik komponentda 75,8 va 61,3 ball. Strategik komponentda 76,5 va 63,7 ball. Sotsiokulturiy komponentda 73,2 va 58,9 ball. Umumiy ko'rsatkich eksperimental guruhda 77,1 ball, nazorat guruhida 63,7 ball bo'ldi.

Eng yuqori o'sish sotsiokulturologik va sosiolingvistik komponentlarda qayd etildi. Bu CLIL yondashuvining madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Darajalar bo'yicha taqsimot tahlili eksperimental guruhda yuqori darajaga ega talabalar soni sezilarli oshganini ko'rsatdi. Eksperimental guruhda yuqori darajaga ega talabalar ulushi 28,4% ni tashkil etdi, nazorat guruhida esa 6,7% bo'ldi. Talabalar so'rovnomasi natijalari shuni ko'rsatdiki, 89% talaba CLIL yondashuvi motivatsiyani oshirganini ta'kidladi, 85% real kasbiy vaziyatlarda ishlash foydali ekanligini bildirdi, 82% til va kasbiy bilimlarni bir vaqtda egallash samaraliroq ekanligini qayd etdi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga asos beradi. Gid-tarjimonlarning kasbiy muloqot kompetensiyasi besh tarkibiy komponentdan iborat: lingvistik, diskursiv, sosiolingvistik, strategik va sotsiokulturiy. Bu komponentlarning muvozanatlashgan rivojlanishi gid-tarjimonning professional faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. CLIL yondashuvi asosida ishlab chiqilgan uch bosqichli metodika kasbiy muloqot kompetensiyasini samarali rivojlantirishga imkon beradi. Har bir bosqich o'ziga xos maqsadlar, vazifalar va texnologiyalarga ega. Eksperimental tadqiqot natijalari CLIL yondashuvining an'anaviy metodikalarga nisbatan yuqori samaradorligini tasdiqladi. Eksperimental guruhda umumiy ko'rsatkich 52% ga o'sdi, nazorat guruhida 25% ga o'sish qayd etildi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida turizm yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мухторов Н.М. Чет тилларини коммуникатив асосда ўқитиш методикаси. – Тошкент: Фан, 2019. – 248 б.

2. Шарипов Ш.С. Кўп тилли таълимнинг назарий-методологик асослари. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2020. – 312 б.

3. Джўраева Г.К. Туризм таълимида замонавий педагогик технологиялар. – Самарқанд: СамДУ, 2021. – 196 б.

4. Нурматова С.Б. Гид-таржимонларнинг касбий компетенсиясини ривожлантириш муаммолари // Хорижий тил ва адабиёт. – 2022. – №3. – Б. 45-52.

5. Хамидов Ж.У. Туризм таълимида хорижий тиллар интеграцияси // Педагогика. – 2021. – №2. – Б. 78-85.

6. Абдуллаева М.Н. CLIL ёндашуви: назария ва амалиёт // Таълим тараққиёти. – 2023. – №1. – Б. 112-119.

7. Исмоилов Ф.Р., Каримова Д.А. Туризм кадрларини тайёрлашда инновацион ёндашувлар // Иқтисод ва таълим. – 2022. – №4. – Б. 89-96.

8. Рустамов А.С. Маданиятларро мулоқот компетенсиясини шакллантириш // Тил ва маданият. – 2023. – №2. – Б. 67-74.

9. Сайфуров Н.М., Хамрокулов А.А. Касбга йўналтирилган чет тил таълимининг назарий-амалий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2021. – 188 б.

10. Юсупов О.Н. Олий таълимда интеграциялашган таълим моделлари // Узлуксиз таълим. – 2021. – №4. – Б. 56-63.

11. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.

12. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 173 p.

13. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

14. Pokrivchakova E. CLIL in Foreign Language Education: Theoretical and Practical Issues. – Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, 2018. – 286 p.

15. Dalton-Puffer C. Content and Language Integrated Learning: From Practice to Principles // Annual Review of Applied Linguistics. – 2011. – Vol. 31. – P. 182-204.

16. Mehisto P., Marsh D., Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – 238 p.

17. Lasagabaster D., Sierra J.M. Immersion and CLIL in English: More Differences than Similarities // ELT Journal. – 2010. – Vol. 64(4). – P. 367-375.

18. Cenoz J., Genesee F., Gorter D. Critical Analysis of CLIL: Taking Stock and Looking Forward // Applied Linguistics. – 2014. – Vol. 35(3). – P. 243-262.

19. Perez-Vidal C. CLIL in Context: Profiling Language Abilities // The Language Learning Journal. – 2015. – Vol. 43(3). – P. 284-299.

20. Hüttner J., Dalton-Puffer C., Smit U. The Power of Beliefs: Lay Theories and Their Influence on the Implementation of CLIL Programmes // International Journal of Bilingual Education and Bilingualism. – 2013. – Vol. 16(3). – P. 267-284.

21. Ruiz de Zarobe Y., Jiménez Catalán R.M. Content and Language Integrated Learning: Evidence from Research in Europe. – Bristol: Multilingual Matters, 2009. – 285 p.

22. Bentley K. The TKT Course: CLIL Module. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 108 p.

23. Ioannou-Georgiou S., Pavlou P. Assessing Young Learners in CLIL Context // Research Papers in Language Teaching and Learning. – 2011. – Vol. 2(1). – P. 98-114.

24. Morton T. Conceptualizing and Investigating Teachers' Knowledge for Integrating Content and Language in Content-based Instruction // Journal of Immersion and Content-Based Language Education. – 2016. – Vol. 4(2). – P. 144-167.

25. Nikula T., Dalton-Puffer C., Llinares A. CLIL Classroom Discourse: Research from Europe // Journal of Immersion and Content-Based Language Education. – 2013. – Vol. 1(1). – P. 70-100.

26. Pérez-Cañado M.L. Teacher Training Needs for Bilingual Education: In-service Teacher Perceptions // International Journal of Bilingual Education and Bilingualism. – 2012. – Vol. 15(4). – P. 359-377.

27. Alcaraz-Mármol G. The Secondary School Teacher-training Curriculum in CLIL // Latin American Journal of Content & Language Integrated Learning. – 2018. – Vol. 11(1). – P. 89-113.

28. Pavón Vázquez V., Ellison M. Examining Teacher Roles and Competences in Content and Language Integrated Learning // Linguarum Arena. – 2013. – Vol. 4. – P. 65-78.

29. Lorenzo F., Casal S., Moore P. The Effects of Content and Language Integrated Learning in European Education // Applied Linguistics. – 2010. – Vol. 31(3). – P. 418-442.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 372.853:53
ORCID: 0009-0000-2739-4589

SUYUQLIKLAR VA QATTIQ JISMLAR MEXANIKASINI ODDIY VA TANQIDIY FIKRLASH ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI

Musurmonova Shaxnoza Dilshod qizi
Shahrisabz davlar pedagogika instituti doktoranti
shahnozamusurmonova6@gmail.com. +99890 962-26-03

Annotatsiya. Mazkur maqolada qattiq jismlar va suyuqliklar mexanikasi mavzusini tanqidiy fikrlash asosida o‘qitish metodikasi tahlil qilingan. Maqolada asosan an’anaviy ya’ni oddiy va tanqidiy yondashuvlar taqqoslangan. Arximed kuchi, suyuqlik bosimi, qattiq jismlarda moment va kuchlar muvozanati kabi fundamental tushunchalarni talabalarga o‘zlari kashf etishi orqali o‘rgatish metodikasi tavsiya etilgan. Tanqidiy fikrlash fizika o‘quvchilarga ilmiy izlanish, sabab-natija tahlili va mustaqil xulosalar chiqarish imkonini beradi, bu esa fizika fanini chuqur va anglab o‘rganish imkonini beradi. Maqola pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilish va bo‘lajak o‘qituvchilarda ilmiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: suyuqlik bosimi, Arximed kuchi, kuch momenti, muvozanat sharti, tezlanish, qattiq jismlar, tajriba, tadqiqot, fizika qonunlari.

Аннотация.В данной статье проанализирована методика преподавания механики твёрдых тел и жидкостей на основе критического мышления. В статье в основном сравниваются традиционный, то есть обычный, и критический подходы. Методика обучения студентам через самостоятельное открытие фундаментальных понятий, таких как сила Архимеда, давление жидкости, момент и равновесие сил в твёрдых телах, рекомендована. Критическое мышление позволяет учащимся физики проводить научное исследование, анализ причинно-следственных связей и делать самостоятельные выводы, что обеспечивает глубокое и осмысленное изучение физики. Статья способствует модернизации педагогического процесса и формированию научного мышления у будущих учителей.

Ключевые слова: Давление жидкости, Сила Архимеда, Момент силы, Условие равновесия, Ускорение, Твёрдые тела, Эксперимент, Исследование, Законы физики

Abstract. This article analyzes the teaching methodology of solid and fluid mechanics based on critical thinking. The article mainly compares traditional, that is, ordinary, and

critical approaches. The methodology of teaching students through independent discovery of fundamental concepts, such as Archimedes’ force, fluid pressure, and equilibrium of forces and moments in solids, is recommended. Critical thinking enables physics students to conduct scientific research, analyze cause-and-effect relationships, and draw independent conclusions, which allows for deep and meaningful learning of physics. The article contributes to modernizing the pedagogical process and developing scientific thinking in future teachers.

Keywords: Fluid pressure, Archimedes’ force, Force moment, Equilibrium condition, Acceleration, Solid bodies, Experiment, Research, Physical laws

KIRISH. Suyuqliklar va qattiq jismlar mexanikasi fizika fanining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, nafaqat nazariy bilimlarni balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. Bu bo‘lim talabalarga jism va suyuqliklar o‘zaro ta’sirini tushunishga, luch va momentlar muvozanatini aniqlashga imkon beradi. An’anaviy ya’ni oddiy o‘qitish usuli ko‘proq tayyoq bilimlarni eslab qolishga yo‘naltirilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlashga asoslangan metodika talabalarni o‘zlari kuzatish , tadqiq qilish va qonuniyatlarini mustaqil aniqlashga rag‘batlantiradi.

Maqolaning maqsadi esa suyuqliklar va qattiq jismlar mexanikasini o‘qitishda tanqidiy fikrlash yondashuvining metodik imkoniyatlarini tahlil qilish va an’anaviy usul bilan solishtirishdan iborat. Shu orqali bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmar qiluvchu metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Suyuqliklar va qattiq jismlar mexanikasini o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilgan.

Lillian C. McDermott fizik ta’limida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi va o‘quvchilarni eksperiment va kuzatuv orqali fundamental tushunchalarni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi. U o‘zining “Physics by Inquiry” nomli asarida talabalar o‘z tushunchalarini eksperiment va kuzatuv orqali mustaqil ravishda shakllantirganlarida eng yaxshi o‘rganadilar deya ta’kidlagan [2].

Redish esa “Oersted Lecture 2013:How should we think about how our students think” nomli ilmiy ishida talabalarning fikrlash jarayonlarini o‘rganish va mantiqiy tahlil qilishga urg‘u berib, talabalar fizik tushunchalar haqida qanday fikrlashini tushunish samarali o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishda juda muhim ekanligini ta’kidlagan [4].

PhET Interactive Simulations loyihasi (Wieman jamoasi, 2020) fizik tushunchalarni vizual va interaktiv tarzda o‘rgatish metodini taqdim etib, interaktiv simulyatsiyalar talabalar uchun fizik hodisalarni dinamik tarzda o‘rganish imkonini beradi va tushunishni hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi” degan fikrni ilgari surgan [3].

O‘zbek olimlari ham tanqidiy fikrlash asosida o‘qitish metodikasini tadqiq qilgan. Masalan, Shamsiyeva M. S o‘zining “ Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy

o‘qitish texnologiyalardan foydalanish” nomli asarida zamonaviy o‘qitish texnologiyalari talabalarni mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga rag‘batlantiradi deya tanqidiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashni tavsiya qiladi [5].

Dumarov va Erkinboyev esa “ Tanqidiy fikrlash asoslarining O‘zbekiston ta’lim tizimidagi ahamiyati” nomli ilmiy ishlarida ta’lim tizimiga tanqidiy fikrlash yondashuvlarini kiritish talabalar muammolarni hal qilish va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlagan va ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqqan [1].

Umuman olganda, tahlil shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash asosida fizikani o‘qitish metodikasi nafaqat nazariy bilimlarni, balki eksperiment, kuzatuv va mantiqiy tahlil orqali talabalar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar suyuqliklar va qattiq jismlar mexanikasini o‘qitishda samarali pedagogik natijalarni beradi.

Suyuqliklar va qattiq jismlar mexanikasini o‘qitish metodikasi sohasida ilmiy adabiyotlar tahlili talabalarga ta’lim jarayonida fundamental tushunchalarni mustaqil ravishda o‘rganish imkonini beruvchi yondashuvlarni aniqlashga yordam beradi. An’anaviy adabiyotlar, jumladan fizika darsliklari va metodik qo‘llanmalar, suyuqlik bosimi, Arximed kuchi, kuch va momentlarning muvozanati kabi qonunlarni tayyor shaklda taqdim etadi. Ushbu manbalarda nazariy asoslar batafsil tushuntirilgan, lekin talabaning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish imkoniyati cheklangan.

Tanqidiy fikrlash yondashuvini qo‘llaydigan ilmiy manbalar esa talabalarga eksperiment va kuzatuvlar orqali qonuniyatlarni kashf etishga yo‘naltiradi. Mazkur metodlar o‘quv jarayonida quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi:

Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish – talabalar sabab–natija bog‘liqligini aniqlashga undovchi savollar bilan ishlaydi;

eksperiment va kuzatuv – talabalarga suyuqliklar va qattiq jismlarda bosim, ko‘tarish kuchi va momentlar bilan bog‘liq tajribalar o‘tkazish imkoniyati beriladi;

mustaqil xulosalar chiqarish – o‘quvchilar kuzatuv va natijalarni tahlil qilib, formulalar va qonuniyatlarga mustaqil ravishda keladi;

mantiqiy va analitik tahlil – talabalar hodisalarni tushuntirish va tahlil qilish orqali nazariy bilimlarni mustahkamlashadi.

Mazkur bo‘limdagi adabiyotlar va metodik manbalar kombinatsiyasi tanqidiy fikrlash asosida fizikani o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan metodologik poydevorni yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Suyuqliklar va qattiq jismlar mexanikasi fizikaning eng muhim bo‘limlaridan bo‘lib, talabalarda sabab–natija bog‘liqligini tushunish, real hodisalarni modellashtirish va matematik fikrlashni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Mazkur bo‘limni o‘qitishda ikki xil yondashuv — an’anaviy tushuntirish usuli hamda tanqidiy fikrlashga asoslangan

metodlar — o‘quv jarayonida turlicha natija beradi. Shu bois mazkur maqolada bu mavzuni oddiy va tanqidiy fikrlashga asoslangan metodlarda o‘qitishning samaradorligi tahlil qilinadi.

1. Oddiy (an’anaviy) usulda o‘qitishning mazmuni

An’anaviy o‘qitishda o‘qituvchi asosiy tushunchalarni izohlab, qonunlar va formulalarni tayyor ko‘rinishda talabalarga yetkazadi. Ma’ruzada suyuqliklar mexanikasining asosiy tushunchalari — bosim, zichlik, chuqurlik, Arximed kuchi — klassik ta’riflar asosida bayon qilinadi. Masalan, suyuqlik bosimining formula ko‘rinishida ifodalanishi

$$P = \rho g h$$

tushuntiriladi, bu yerda ρ — suyuqlik zichligi, g — erkin tushish tezlanishi, h — chuqurlik.

Shuningdek, Arximed kuchi quyidagicha izohlanadi:

$$F_a = \rho g V,$$

ya’ni suyuqlik tomonidan jismga ta’sir qiluvchi ko‘tarish kuchi jismning suyuqlikka botgan qismi hajmi va suyuqlik zichligiga bog‘liq.

Qattiq jismlar mexanikasini o‘qitishda esa kuch momenti, muvozanat shartlari, jismning aylanishi kabi tushunchalar o‘qituvchi tomonidan tayyor shaklda taqdim etiladi. Muvozanat shartlari:

$$\Sigma F = 0, \Sigma M = 0$$

matematik ko‘rinishda beriladi. Bu yondashuvda talabalar bilimni qabul qiluvchi rolida bo‘ladi va ko‘proq reproduktiv faoliyat — eslab qolish va qayta aytish — ustuvorlik qiladi.

2. Tanqidiy fikrlashga asoslangan o‘qitish metodikasi

Tanqidiy fikrlash metodikasi o‘quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi roliga o‘tkazadi. Bu usulda ma’ruza muammoli savollar, tajriba, kuzatish, tahlil va xulosa chiqarish bosqichlari asosida tashkil etiladi. Ma’ruzaning birinchi bosqichida o‘quvchilarni fikrlashga undovchi savollar beriladi:

Nima uchun temir mix cho‘kadi-yu, temirdan yasalgan kema cho‘kmaydi?

Nega yog‘ suv ustida turadi?

Nima uchun eshikni chetidan ochish markazidan ochishga qaraganda oson?

Bu kabi muammoli savollar o‘quvchilarda kognitiv ziddiyat yaratadi va sabab–natijani izlashga majbur qiladi.

Keyingi bosqichda o‘quvchilar bevosita tajriba orqali suyuqlik bosimining chuqurlik ortishi bilan qanday o‘zgarishini kuzatadilar. Turli zichlikdagi suyuqliklarga bir xil hajmdagi jismlarni solib, Arximed kuchining qiymatini solishtiradilar. Tajriba natijalari asosida ular mustaqil xulosa chiqaradilar:

suyuqlik zichligi ortsa ko‘tarish kuchi ortadi;

chuqurlik ortishi bilan bosim oshadi.

Bu holat ularni $\mathbf{p = \rho gh}$ va $\mathbf{F_a = \rho gV}$ formulalariga o‘zlari kelishiga olib keladi.

Qattiq jismlar mexanikasida ham tanqidiy fikrlash asosida tajriba o‘tkaziladi. Masalan, bir xil kuch turli uzunlikdagi tutqichlarga qo‘llanganda momentning qanday o‘zgarishi kuzatiladi. O‘quvchilar kuch momentining ta’rifi –

$$M = F \cdot l$$

ga mustaqil keladilar.

Tanqidiy yondashuvda o‘quvchilar savol berish, solishtirish, tahlil qilish, mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash, tajriba asosida sabab–natijani tushuntirish kabi faoliyatlarni bajaradilar. Bu jarayon ularning nafaqat fanni tushunishini, balki ilmiy tafakkurini ham rivojlantiradi.

3. Oddiy va tanqidiy yondashuvlarning taqqoslanishi

Suyuqliklar va qattiq jismlar mexanikasini an’anaviy usulda o‘qitish talabalarning faktlarni yod olishiga olib keladi, ammo chuqur tahliliy fikrlashni shakllantirmaydi. Tanqidiy yondashuv esa aksincha, talabalarni ilmiy izlanishga yo‘naltiradi. Ular qonunlarni tayyor ko‘rinishda emas, balki o‘z kuzatuvlari va tajribalari orqali kashf qilgan bilim sifatida egallaydilar. Bu esa mazmunning chuqur o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash asosida o‘qitilgan mavzu talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

analitik fikrlash;
savol berish va dalillash;
solishtirish;
tajribani tahlil qilish;
xulosa chiqarish;
muammoli vaziyatda qaror qabul qilish.

XULOSA

Suyuqliklar va qattiq jismlar mexanikasini tanqidiy fikrlash asosida o‘qitish an’anaviy yondashuvga qaraganda ko‘proq ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantiradi, o‘quvchilarni o‘z fikrini asoslashga, qonunlarni mustaqil aniqlashga undaydi. Ushbu metod o‘quv jarayonini mazmunan chuqurlashtiradi, fanga qiziqishni oshiradi va talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash texnologiyalarini qo‘llash natijasida suyuqliklar va qattiq jismlar mexanikasining qonunlari o‘quvchilar uchun tayyor ma’lumot emas, balki mantiqiy asosga ega ilmiy haqiqat sifatida qabul qilinadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dumarov, M., Erkinboyev, M. N. Tanqidiy fikrlash asoslarining O‘zbekiston ta’lim tizimidagi ahamiyati. Ta’lim Psixologiyasi va Pedagogika Jurnali, 2020.

2. McDermott, L. C. Physics by Inquiry. New York: Wiley, 2002.

3. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. 2020. https://phet.colorado.edu

4. Redish, E. F. Oersted Lecture 2013: How should we think about how our students think? arXiv:1308.3911, 2013.

5. Shamsiyeva, M. S. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish. Science and Education, 2021.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MILLIY MADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Mutalipova Mavlyuda Junaydullaevna
Alfraganus universiteti
“Ijtimoiy fanlar” fakulteti
pedagogika kafedrasi dosenti

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, xususan aksiologik yondashuvning mazmuni, ushbu yondashuvning ta’lim jarayonidagi o‘rni, qadriyatlar tizimining kasbiy shakllanish jarayoniga ta’siri ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda milliy madaniy kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi, uning rivojlanish bosqichlari va samarali metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada o‘qituvchi tayyorlash tizimida milliy madaniyat mazmunini integratsiyalashga doir pedagogik model taklif etiladi. Metodik modellar, diagnostik vositalar, xalq pedagogikasiga asoslangan yondashuvlar, interaktiv texnologiyalar hamda zamonaviy ilmiy qarashlarga tayanilgan tahliliy materiallar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: milliy madaniyat, milliy madaniy kompetensiya, aksiologik yondashuv, pedagogik texnologiya, qadriyatlar tizimi, bo‘lajak o‘qituvchi, madaniy identifikatsiya.

Аннотация: В статье научно рассматриваются теоретико-методологические основы формирования национально-культурных компетенций будущих учителей, в частности, содержание аксиологического подхода, его роль в образовательном процессе, влияние системы ценностей на процесс профессионального становления. Анализируется структурная структура национально-культурной компетентности, этапы её развития и эффективные методы. Предлагается педагогическая модель интеграции содержания национальной культуры в систему подготовки учителей. Представлены методические модели, диагностический инструментарий, подходы, основанные на народной педагогике, интерактивных технологиях, аналитические материалы, основанные на современных научных взглядах.

Ключевые слова: национальная культура, национально-культурная компетентность, аксиологический подход, педагогическая технология, система ценностей, будущий учитель, культурная идентичность.

Abstract. The article scientifically covers the theoretical and methodological foundations of the development of national cultural competencies in future teachers, in particular, the content of the axiological approach, the role of this approach in the

educational process, the impact of the value system on the process of professional formation. The study analyzes the structural structure of national cultural competence, its stages of development and effective methods. The article also proposes a pedagogical model for integrating the content of national culture into the teacher training system. Methodological models, diagnostic tools, approaches based on folk pedagogy, interactive technologies, and analytical materials based on modern scientific views are presented.

Key words: national culture, national cultural competence, axiological approach, pedagogical technology, value system, future teacher, cultural identity.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi shaxsining ma’naviy va madaniy qiyofasi tobora muhim omilga aylanmoqda. Globallashuvning ma’rifiy oqimlari, turli madaniy modellarning tezkor kirib kelishi lokal madaniyat va milliy identitetni muhofaza qilishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy madaniy kompetensiyani shakllantirish masalasi nafaqat ilmiy, balki strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatida milliy tiklanish g‘oyalari, milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash tamoyillari ustuvor o‘rin egallagan. Bu esa o‘qituvchi tayyorlash tizimining mazmunini yangicha ilmiy-metodik yondashuvlar bilan boyitishni taqozo etadi.

Aksiologik yondashuv – qadriyatlarni pedagogik tizimning markaziga qo‘yuvchi metodologik asos bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarni milliy madaniyatning faol tashuvchisiga aylantirishda kuchli mexanizm sanaladi. Mazkur maqola ushbu jarayonning ilmiy-metodik mushtarakliklarini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlanadi[4].

Asosiy qism

1. Milliy madaniy kompetensiya tushunchasining kengaytirilgan ilmiy asoslari

Ilmiy manbalarda milliy madaniy kompetensiya bir necha komponent tarkibida ko‘riladi:

Komponent	**Mazmuni**	**Namoyon bo‘lish shakli**
Kognitiv	Milliy tarix, an’ana, folklor, til, diniy-madaniy meros haqidagi bilimlar	Ma’lumotlarni tahlil qilish, madaniy matnlarni anglash
Aksiologik	Qadriyatlar tizimini ichki qabul qilish	Hurmat, vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat
Emotsional-identifikatsion	Milliy o‘zlikni anglash	O‘z madaniy ildizlariga ijobiy munosabat
Kommunikativ	Madaniyatlararo muloqot madaniyati	Dialog olib borish, tolerantlik
Faoliyatga yo‘naltirilgan	Amaliy faoliyatda milliy qadriyatlarni qo‘llash	Loyihalar, tadbirlar, pedagogik vazifalarda qo‘llash

G. Hofstede (2001), S. Schwartz (1992), M. Rokeach (1973) kabi olimlar madaniyatning universal o‘lchovlari orqali milliy yondashuvni ilmiy asoslaydi. Milliy madaniyat – jamiyatning tarixiy, axloqiy, ruhiy va ijtimoiy tajribalarini mujassamlashtirgan murakkab tizimdir. O‘qituvchi uchun bu tizimni egallash kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismidir[1; 2; 3].

2. Aksiologik yondashuv va uning pedagogik ahamiyati

Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Qadriyatlar pedagogik jarayonning asosini tashkil qiladi.
2. Shaxsning ma’naviy-ruhiy rivojlanishi ta’limning bosh maqsadi hisoblanadi.
3. O‘qituvchi qadriyatlar tashuvchisi sifatida markaziy figura sanaladi.
4. Ta’lim jarayonida qadriyatlar ongli ravishda o‘zlashtiriladi.

Y. Xabermasning muloqot nazariyasi (1992)ga ko‘ra, madaniy qadriyatlarni shakllantirish dialogik maydonda sodir bo‘ladi. Shu bois, milliy madaniy kompetensiyani rivojlantirishda muloqot, bahs, talqin va interaktiv metodlar yetakchi o‘rin tutadi[4].

Aksiologik yondashuvning o‘qituvchi tayyorlashdagi vazifalari:

- milliy o‘zlikni mustahkamlash;
- madaniy pluralizmni tushuntirish;
- yosh avlodga milliy tarbiya berishning ilmiy asoslarini yaratish;
- pedagogning shaxsiy qadriyatlar tizimini barqarorlashtirish.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy madaniy kompetensiyani rivojlantirish metodlari

3.1. Integrativ o‘quv mazmuni

Milliy madaniyat elementlarini quyidagi yo‘llar bilan integratsiyalash mumkin:

- pedagogika fanlarida milliy merosga oid modullar yaratish;
- xalq pedagogikasidan namunalarni o‘quv jarayoniga kiritish;
- tarixiy-madaniy matnlarni tahlil qilish uchun interpretativ yondashuv.

3.2. Refleksiv pedagogik amaliyot

Refleksiya talabalarga o‘z ichki qadriyatlarini idrok etish imkonini beradi. Metodlar:

- “Shaxsiy qadriyatlar profili” diagnostikasi;
- “Men kimman?” identifikatsion esse;
- madaniy vaziyatli topshiriqlar.

3.3. Faoliyatga yo‘naltirilgan texnologiyalar

- **Loyihaviy ta’lim:** “Mahallam madaniy merosi”, “Milliy urf-odatlar ensiklopediyasi”.
- **Case-study:** real madaniy vaziyatlarni hal qilish.
- **Portfolio:** talabaning madaniy faoliyat bo‘yicha yutuqlari.

3.4. Madaniy-dialogik pedagogika

Madaniy dialog – talabaning boshqa madaniy modellarni tushunish qobiliyatini oshiradi. Bu jarayon tolerantlik va bag‘rikenglikni mustahkamlaydi.

4. Milliy madaniy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli

Quyidagi nazariy model taklif etiladi:

1-bosqich: Kognitiv tayyorgarlik

Bilimlar bazasini shakllantirish: tarix, madaniyat, xalq pedagogikasi.

2-bosqich: Aksiologik integratsiya

Qadriyatlarni ongli qabul qilish, emotsional identifikatsiya.

3-bosqich: Kompetensiyaviy-amaliy rivojlanish

Interaktiv metodlar, loyihalar, madaniy faoliyat.

4-bosqich: Refleksiv-tahliliy bosqich

O‘zini baholash, madaniy rivojlanish dinamikasini tahlil qilish.

Model natijasi:

O‘z milliy o‘zligini anglagan, madaniyatni qadrlaydigan, o‘z faoliyatida milliy qadriyatlarga tayanuvchi pedagog shaxsi shakllanadi.

5. Diagnostika va baholash mezonlari

Milliy madaniy kompetensiyani baholash quyidagi ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiriladi:

Ko‘rsatkich	**O‘lchash vositasi**
Bilim darajasi	test, suhbat
Qadriyaviy munosabat	Likert shkalasi, esse
Amaliy faoliyat	portfoliodagi ishlar, loyihalar
Kommunikativ madaniyat	kuzatuv, rolli o‘yinlar
Identifikatsiya	“Men va mening madaniyatim” diagnostik kartasi

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy madaniy kompetensiyani rivojlantirish murakkab, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyati aksiologik yondashuvning to‘g‘ri qo‘llanishiga bog‘liq. Milliy meros mazmunining o‘qituvchi tayyorlash tizimiga chuqur integratsiyasi pedagog shaxsining ma’naviy mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, interaktiv metodlar, loyihaviy faoliyat, madaniy-dialogik yondashuv, refleksiya va diagnostika vositalari orqali talabalarning madaniy shakllanish dinamikasi sezilarli darajada oshadi.

O‘qituvchi tayyorlashda milliy madaniyatga asoslangan metodik tizimni yaratish – kelajak avlodi tarbiyasining sifatiga bevosita ta’sir qiluvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar / Использованная литература / References

1. Rokeach M. The Nature of Human Values. – New York: Free Press, 1973. – 438 p.

2. Hofstede G. Culture’s Consequences: International Differences in Work-Related Values. –Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. – 616 p.
3. Schwartz S.H. Universals in the Content and Structure of Values // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1-65.
4. Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие. – СПб.: Наука, 1992. – 380 с.
5. Сластёнин В.А., Подласый И.П., Чижакова Г.И. Педагогика: Учеб. пособие. – М.: Академия, 2005. – 480 с.
6. Абдуллаева Н. Milliy madaniyat va ta’lim integratsiyasi. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2018. – 210 б.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim davlat standarti. Pedagogik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha normativ hujjatlar. – Toshkent, 2022.
9. UNESCO. Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework. – Paris, 2013. – 44 p.
10. Banks J. Teaching for Multicultural Education. – Boston: Allyn & Bacon, 2009. – 384 p.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

GEOMETRIK JISMLAR RASMINI CHIZISH ORQALI TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH

Berdiyev Nurmon Ochilovich
Toshkent arxitektura qurilish universiteti dotsenti
berdiyevnurmon@gmail.com
Egamberdiyeva Madina
Toshkent arxitektura qurilish universiteti, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak arxitektorlar faoliyatidagi grafik tasvirlashning, o‘rni va ahamiyati, narsa va predmetlar, turli ob’ektlarning konstruktiv tuzilishlarini o‘rganish, shuningdek, geometrik jismlar rasmini chizishning dolzarb masalalari haqida so‘z boradi. Bu borada talabalar tasvirlashning asosiy qoidalari bo‘yicha nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha bilim va malakalar hosil qilishlari, maxsus kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerakligi ta’kidlab o‘tiladi. Arxitektura yo‘nalishlarida ta’lim oluvchi talabalarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi eng muhim omillaridan biri bu - geometrik jismlar rasmini chizh mashg‘ulotlari hisoblanadi va ular bu borada keng imkoniyatlarga ega. Maqola mualliflari ushbu mavzu doirasida bajariladigan amaliy ishlarning ahamiyatini yoritib berishga harakat qilgan, mashg‘ulotlarni olib borishning o‘ziga xos metodlari va innovatsion yondashuvlari, samarali usulllarini taklif etgan.

Kalit so‘zlar: arxitektura, geometrik jism, konstruktiv tasavvur, fazoviy o‘lcham, visual metod, kompetentlik.

Аннотация.В данной статье рассматривается роль и значение графического изображения в деятельности будущих архитекторов, изучение конструктивных структур предметов и различных объектов, а также актуальные вопросы рисования геометрических тел. В связи с этим подчеркивается, что студенты должны приобрести достаточные теоретические и практические знания и навыки по основным правилам изображения, обладать специальными компетенциями. Одним из важнейших факторов, служащих развитию пространственного воображения студентов, обучающихся по направлениям архитектуры, являются занятия по рисованию геометрических тел, и они имеют широкие возможности в этом отношении. Авторы статьи постарались осветить важность практической работы, проводимой в рамках

данной темы, предложили конкретные методы и инновационные подходы, эффективные методы проведения занятий.

Ключевые слова: архитектура, гемометрическое тело, конструктивное воображение, пространственное измерение, визуальный метод, компетентность.

Abstract: This article examines the role and importance of graphical representation in the activities of future architects, the study of the constructive structures of objects and various objects, and the current issues of drawing geometric bodies. In this regard, it is emphasized that students should acquire sufficient theoretical and practical knowledge and skills in the basic rules of representation, possess special competencies. One of the most important factors serving to develop the spatial imagination of students studying in the fields of architecture is the lessons on drawing geometric bodies, and they have wide opportunities in this regard. The authors of the article tried to highlight the importance of the practical work carried out within the framework of this topic, offered specific methods and innovative approaches, effective methods of conducting classes.

Keywords: architecture, geometric body, constructive imagination, spatial measurement, visual method, competence.

KIRISH. Bo‘lajak arxitektorlarning grafik tasvirlash sohalari bo‘yicha kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashlari kelgusida ularning malakali mutaxassislar bo‘lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, ayniqsa, arxitekturaviy qalamtasvir fanidan olib boriladigan mashg‘ulotlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ularda turli xil geometrik jismlar, arxitekturaviy qismlar, narsa va predmetlarni tasvirlashga alohida e’tibor beriladi.

Bu fanlar tarkibidagi turli mavzular yuzasidan olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlar orqali fazoviy ob’yektlarning o‘ziga xos tomonlari, o‘lchamlari va o‘zaro joylashuvi o‘rganiladi va tekis yuzada grafik tasvirlash masalalari hal qilinadi. Talabalarning fazoviy tafakkurini shakllantirishda ushbu tushunchalarning mazmunini to‘g‘ri anglash, mashg‘lotlarni metodik jihatdan talablar doirasida olib borish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Geometrik jism - fazoda joylashgan uch o‘lchamga - uzunlik, kenglik va chuqurlikka ega va ular orqali real fazoviy obyektlarni modellashtirish mumkin. Geometrik jismlarga kub, silindr, konus, shar, prizma, piramida va boshqa hajmli fazoviy shakllar kiradi.

Geometrik jismlar rasmini chizish tasvirlovchining fazoviy tasavvurini rivojlantiradi, arxitektura va dizaynga tegishli loyihalarni ishlab chiqishni osonlashtiradi va mutaxassislarning turli yo‘nalishlardagi tadqiqotlarida tayanch-yordamchi vosita sifatida rol o‘ynaydi.

Naturaga qarab tasvirlash, jumladan geometrik jismlar rasmini chizish masalalari S.Abdurasilov, B.Boymetov, N.Tolipovlar tomonidan ishlab chiqilgan “Tasviriy san’at” o‘quv qo‘llanmasida (Toshkent, 2009yil), B.Boymetovning pedagogika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Qalamtasvir” darsligi (Toshkent, 2006y.),

N.O.Berdiyev, Z.R.Bobomuratovlarning “Qalamtasvir va rangtasvir fanlaridan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish” nomli o‘quv qo’llanmasi (Toshkent, 2020yil) kabi ko‘plab ilmiy adabiyotlarda yoritib o‘tilgan. Masalan, B.Boymetov narsalar rasmini chizda geometrik jismlar bilan taqqoslash, qiyoslash metodidan foydalanishni taklif qiadi. “Bu shuning uchun zarurki, bizni o'rab turgan buyumlarning barchasi geometrik shakllarga ega (shar, kub, prizma, konus, silindr va hokazolar).”[15] Shuningdek, badiiy ta’lim va uni o‘qitish sohasida faoliyat olib borgan taniqli horijiy pedagog-olimlar - В.С.Кузин, Б.М.Неменский, A.P.Sapojnikov, Н.Н.Ростовцев va boshqalar ham o‘z ilmiy tadqiqotlari va ishlab chiqqan o‘quv adabiyotlarida ushbu mavzuni atroflicha yoritganlar. “Jumladan, XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan rus pedagoglaridan A.P.Sapojnikov buyumlarni tasvirlashda sinch (karkas) usulini joriy etdi.” [16] Ammo, shu kabi ilmiy adabiyotlar tahlil qilinganda geometrik jismlar rasmini chizish orqali talabalarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish masalalari metodik jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, bu muammoni bo‘lajak arxitektorlarning kasbiy faoliyatiga bog‘liq holda o‘rganish va tadqiqotlar olib borish yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir.

“Arxitekturaviy qalamtasvir bo‘yicha amaliy ishlar bajarishning o‘ziga xos jihatlaridan biri bu-naturaga qarab tasvir ishlashdir. Ushbu mashg‘ulotlar orqali talabalarda narsalarning o‘ziga hos ko‘rinishlari, bir biriga nisbatan katta-kichikligi, yorug‘ va soyalari, hajmi va ularning konstruktiv tuzilishlari haqidagi bilim va malakalari rivojlantirib boriladi hamda ularning fazoviy tasavvurlari o‘stiriladi.”[17] Geometrik shakllar va jismlarni chizish orqali inson miyasi uch o‘lchovli obyektlarni tasavvur qilishni, ularning o‘lchamlarini, shakllarini va fazoviy joylashuvini tushunishni o‘rganadi. Bunday kompitetsiyalarga ega bo‘lish va uni rivojlantirb borish esa, bo‘lajak arxitektorlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Vizual his qilish oddiy geometrik shakllardan boshlanib, murakkabroq jismlarni chizish jarayoni orqali tasavvur qilish va ularni aniq chizmalar yoki modellar shaklida ifodalash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Geometrik jismlar rasmini chizishda chiziqlar, burchaklar, parallel chiziqlar va proporsiyalarga e’tibor berish talab qilinadi. Bundan tashqari, tasvirlashning muhim vositalaridan biri-perspektiva qoidalariga amal qilish, ufq chizig‘i haqidagi tushunchalarni to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llash kabi jarayonlar bu borada muhim ahamiyatga egadir. Bunday amaliy va nazariy bilim va ko‘nikmalar grafik tasvirlashning sifatini oshiradi, talabalarning ilmiy asosdagi tasvirlash qobiliyatlarining rivojlanishiga yo‘l ochadi.

Tasviriy san’atda kompozitsiya, proporsiya simmetriya, perspektiva va boshqa asosiy elementlarni to‘g‘ri tasvirlashda geometrik shakllarning roli beqiyos, har qanday murakkab

[15] B.Boymetov. “Qalamtasvir”, darslik – T.: Musiqa,2006. - bet 46.

[16] B.Boymetov. “Qalamtasvir”, darslik – T.: Musiqa,2006. - bet 13.

[17] N.O.Berdiyev. ARXITEKTURA YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARNING HAJMLI - KONSTRUKTIV TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH. Maqola. “O‘zbekiston arxitektura va shaharsozligi: kecha, bugun va ertaga” nomli Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari тўплами.2024 yil, noyabr. (309-314-betlar) (TAQU).

tasvir – odam qiyofasi, tabiat manzarasi yoki arxitektura detali – avvalo sodda geometrik shakllar asosda quriladi. Masalan, geometrik jismlardan biri – kubik rasmini perspektiva qoidalari asosida chizib, unga uy derazalarini joylashtirib tasvirlasak, u ko‘p qavatli bino ko‘rinishini oladi. Shuning uchun, talabalarga geometrik shakllarni to‘g‘ri chizish va ularni fazoda tasavvur qilishni o‘rgatish ularning me’morlik kasbiy faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalarning quyidagi faoliyatlari orqali fazoviy tasavvurlari rivojlantiriladi:

a) Sodda shakllarni (doira, kvadrat, uchburchak) chizish va ularni murakkab shakllarga aylantirish;

b) Shakllarni fazoda aylantirish va turli nuqtai nazardan tasvirlash;

v) Geometrik jismlarni (kub, silindr, konus, prizma, shar, piramida) real holatda, (ya’ni naturani kuzatish orqali) konstruktiv tasvirlash;

g) Geometrik jismlarni real holatda yorug‘ va soyalari orqali tasvirlash;

d) Arxitekturaviy kompozitsitsiyalar ishlash jarayonida geometrik jismlarni asos qilib olish, foydalanish.

Geometrik jismlar rasmini chizishda quyidagi jihatlarni hisobga olish juda zarur:

- yorug‘lik manbai qayerda joylashganini aniqlash;
- soya va yorug‘liklar qanday tushishini va ularni tekis yuzada ifodalash masalasi;
- shaklning hajmi va chuqurligini qanday berish kerakligini amaliy misollar orqali tushuntirish;
- ushbu masalalarga doir misollarni vezual tarzda ko‘rsatish, vedieo materiallar orqali namoyish qilish.

Ta’lim jarayonida geometrig shakl va jismlar rasmini chizish bo‘lajak me’morlarning nafaqat konstruktiv-hajmli qurish qobiliyatini, balki fazoviy tasavvur qilish, fikrlash, kuzatish va estetik idrok qilish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Geometrik jismlarni chizish tasviriy san’at talimining eng muhim metodik bosqichlaridan biridir.

Pedagogika nuqtayi nazaridan geometrik jismlarni chizish talabalarni tizimli, bosqichma-bosqich o‘rganishga o‘rgatadi. Avval soddaroq shakllardan - kub, shar, silindrdan boshlanib, keyinchalik murakkab predmetlar va kompozitsiyalarni tasvirlashga o‘tiladi. Bu jarayon talabalarda ketma-ketlik, izchillik va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Geometrik jismlarni chizish mashg’ulotlari talabalarda:

- Fazoviy tasavvur
- Mantiqiy fikrlash
- Tahlil va sintez qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bu jarayon talabalarning idrok, tafakkur, diqqat va xotira kabi psixologik jarayonlarini faollashtiradi. Pedagogik jihatdan bu- bo‘lajak arxitektor shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metoddir.

Geometrik jismlarni chizish orqali talabalar:

- aniqlik,
- sabr-toqat,
- tartiblilik,
- go‘zalikka hurmat kabi sifatlarni egallaydilar.

Bu jihatlar grafik tasvirlash darslarining estetik tarbiya vositasi sifatida ahamiyatini oshiradi. Talaba chizish jarayonida mehnatni qadrlashni, tartib bilan ishlashni va o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashishni o‘rganadi.

Pedagogik metodika nuqtai nazaridan, geometrik jismlarni chizishga o‘rgatishda:

- korsatma vositalar (model,maket,tasvir),
- bosqichma-bosqich o‘qitish,
- kuzatuv asosida o‘rganish,
- amaliy mashqlar kabi usullar qo‘llanadi.

Professor-o‘qituvchi bu jarayonda talabaning individual qobiliyatini hisobga oladi, ijodiy mustaqillikni rag‘batlantiradi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu esa zamonaviy pedagogikani shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tamoyiliga to‘la mos keladi.

Bunday vazifalarni bajarish va bilimlarni o‘zlashtirish, ma’lum ko‘nikmalar hosil qilish murakkab jarayon bo‘lib, pedagogdan o‘qitishning turli xil shakl va metodlaridan foydalanishni talab qiladi. Ta’lim berishda texnologik vazifalarning ko‘payishi, qo‘lda bajariladigan amaliy ishlarning nisbatan kamayishi kuzatilayotgan bugungi jarayonlarda vaqtdan samarali foydalanish, maxsus fanlar yuzasidan kerakli bilim va malakalarni talabalarga sifatli ravishda yetkazish masalasi pedagoglarga alohida ma’suliyat yuklaydi. O‘z navbatida, o‘quv faoliyatini tashkil etishning turli shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish orqali talabalarning zaruriy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Shulardan biri, bu-elektron ta’lim vositalaridan foydalanishdir. Bunda naturaga qo‘yilgan geometrik jismlarning har biri alohida vaziyatlarda fazoda namoyon qilinadi. Ya’ni mazsus dasturlar vositasida ularning fazoviy ko‘rinishlari turli ufq chiziqlari, turlicha qarash nuqtalariga asosan harakatlantirilib namoyish etiladi. Elektron monitor orqali qilinayotgan namoyish chog‘ida tasvirlarni ma’lum vaqtga to‘xtatib, talabalar bilan o‘zaro savol-javoblar orqali ularning bilimini mustahkamlash maqsadi amalga oshiriladi. Bu yerda yana bir asosiy masala, geometrik jismlarning konstruktiv qurilishini turli nuqtalardan kuzatish o‘rqali o‘rganish, tahlil qilishdir.


Bundan tashqari, electron monitorda ko‘rsatilgan vezual tasvir asosida oddiy doskada pedagogik rasm ishlash talabalar ishtirokida bajarilishi mumkin. Bunday metodlar ushbu jarayonlarda bevosita ishtirok etayotgan talaba uchun qiziqarli bo‘lib, ta’sirchan kuchga ega.


Faqat shundan so‘ng naturaga qo‘yilgan geometrik jismlar qalamtasvirini ishlashga o‘tiladi.

Fazoviy tasavvur - bu insonning uch o‘lchamli ob’yektlarni ongida modellashtirish, aylantirish, ko‘chirish va boshqa harakatlarni tasavvur qilish qobiliyatidir. Bu qobiliyat yniqsa, tasviriy san’at, dizayn, arxitektura kabi yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun zaruriy ko‘nikmadir.

Geometrik shakllar bilan ishlash, ularning chizmalarini yaratish, ularni fazoda joylashtirish – bularning barchasi talabalarni nafaqat grafik savodxonlikka, balki chuqur fazoviy tasavvur qilishga ham o‘rgatadi. Bu esa o‘z navbatida, real obyektlarni qog‘ozda yoki raqamli vositalarda to‘g‘ri aks ettirishga imkon beradi.

Vizual tasvirlashda geometrik shakllar kompozitsiyaning ("Kompozitsiya"- lot. *composition*, tuzish, asardagi predmet bo‘laklarini solishtirib, ma’lum tartibda yaxlit joylashtirish, g‘oyaga muvofiq ijod qilish, bayon qilish”)[18] asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni, fazoda xotira va tasavvurlar asosida tuziladigan bunday arxitekturaviy kompozitsiyalarda asosiy detallar sifatida geometrik jismlar olinadi. Bunday vazifalarni bajarishda talabalar ob’yektlarning konstruktiv tuzilishlari, yorug‘lik va soyalari haqidagi tushuncha va fazoviy tasavvurlariga tayanadilar. Bu esa ijodiy jarayonni boyitadi, tasvir ishlovchining kreativ fiklashiga imkon yaratadi.





Ushbu mavzudagi kompozitsiyalarda geometrik jismlar chizish jarayoni talabalarning ob’yektlar tuzilishini, ularning qismlari va bir-biri bilan qanday bog‘langanligini fazoviy holatini tushunishi talab qilinadi, bu esa talabalarning konstruktiv va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

1-rasm. **2-rasm.**

Bunday mashg‘ulotlar tarkibiga “Geometrik jismlardan tuzilgan sodda ko‘rinishdagi arxitekturaviy kompozitsiya tuzish” yoki, “Geometrik jismlardan tuzilgan murakkab arxitekturaviy kompozitsiya tuzish” kabilar kiradi. (1-2-rasmlar.)

Geometrik jismlardan iborat mavzular doirasida kompozitsiyalar tuzish jarayonida talabalarga oldingi mashg‘ulotlarda olingan bilim va malakalari yordam beradi va ularda fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi.

[18] G‘. Abdurahmonov. Kompozitsiya. O‘quv qo’llanma-Toshkent. 2009.

Bunday mashg‘ulotlar natijasida talabalar vizual tahlil, makon bilan ishlash va obyektlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Bu esa, jumladan, arxitektura sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Albatta bunday mashg‘ulotlar jarayonida, narsa yoki predmetlar, shuningdek geometrik jismlarning konstruktiv qurilishini to‘g‘ri amalga oshirish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. “Konstruksiya lotincha ***konstructio*** - to‘plash, yig‘ish, tuzilish, qurilish”[19] ma’nolarini anglatib, rassom-dizayner yoki arxitektor buyum yoki geometrik jismlarni tasvirlashda uning tuzilish qonuniyatlariga amal qilishi shart hisoblanadi. Chunki, jism yoki ob’yektlarning konstruktiv tuzilmasini his qilmasdan, bu boradagi ilmiy asosli bilim va malakalarga ega bo‘lmasdan turib, tasvirlovchining fazoviy tasavvurini rivojlantirib bo‘lmaydi.

Turli xil geometrik shakl va jismlar hamda ularning qismlari bilan ishlash bo‘lajak arxitektorlarning kasbiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan, bo‘lajak arxitektorlarning konstruktiv tasvirlashni o‘rganishlari juda ham zarur va bu amaliyot ularning kelgusidagi faoliyatlarida muhim rol o‘ynaydi.

Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, arxitekturaviy qalamtasvir asosida o‘rgatilgan talabalar tasvirlash borasida, jumladan, turli loyihaviy kompozitsiyalarni bajarishda ko‘proq aniqlik, kompozitsion uyg‘unlik va vizual balansi saqlashga muvaffaq bo‘ladilar. Shuningdek, ular o‘z ijodiy ishlanmalarida fazoviy obyektlarni realistik tarzda aks ettira oladi. Grafik fanlarni o‘qitish jarayoni talabalarda diqqatni jamlash, kuzatish, his qilish, tasavvur qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, har bir vazifani bajarishda ijodiy yondashish tafakkurining o‘sishi uchun xizmat qiladi. Bu jihatlar esa tasviriy san’atni nafaqat badiiy, balki ilmiy-metodik asosda o‘rganishga imkon yaratadi.

NATIJALAR

Geometrik jismlarni chizish kelajakda tasviriy san’at, dizayn, arxitektura, muhandislik, grafik va dekorativ san’at yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun amaliy tayyorgarlik poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtayi nazaridan, bu mashg‘ulotlar talabalarni:

- ijodiy faoliyatga,
- o‘z fikrini tasvir orqali ifodalashga,
- kasbiy qiziqishni shakllantirishga tayyorlaydi.

XULOSA

Pedagogik jihatdan qaralganda, geometrik jismlarni chizish tasviriy san’at ta’limining ajralmas qismi bo‘lib, u talabalarni fazoviy tasavvurini o‘stiradi. Demak, geometrik jismlarni chizish, nafaqat, san’atni o‘rganish vositasi, balki shaxsni har tomonlama va kasbiy kamol toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayondir. Shuningdek, geometrik jismlar ustida ishlash jarayonida talaba nafaqat rasm chizishni, balki, ilmiy asoslangan fikrlashni o‘rganadi, uning bu sohadagi kompetensiyalari rivojlanadi. Har bir shakl, chiziq va burchak mantiqan

[19] O‘zbek тilining izoҳli lug‘ati. “O‘zbekisтon milliy ensiklopediyasi” Davlaт ilmiy nashriyoтi. Toshkenт.

tahlil qilinadi. Bu esa matematika, texnalogiya kabi boshqa fanlar bilan o‘zaro integratsiyani ta’minlaydi. Shu yo‘l bilan tasviriy san’at darslari fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlovchi vositaga ayalanadi. Pedagogik jihatdan qaralganda, o‘qituvchi bu jarayonda yo‘naltiruvchi va ilhomlantiruvchi rolini bajaradi. U talabani izlanishga, mustaqil qaror qabul qilishga va o‘z ijodini baholashga o‘rgatadi. Natijada, talaba o‘z mehnatining natijasini ko‘rib, o‘ziga ishonchi ortadi. Bu esa motivatsiyani oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQA CHOLG’IU ASBOBLARI BILAN ISHLASHIDA MUSIQA RABARINING ROLI .

Dilmurod Nosirov
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya.Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy idrok, eshituv, ritm va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda musiqa rahbarining o‘rni hamda cholg‘u asboblaridan foydalanish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda bolalarning yosh xususiyatlariga mos musiqa cholg‘ularini tanlash, ularni ijodiy jarayonga jalb etish, shuningdek, pedagogning rahbarlik faoliyati orqali musiqiy tarbiya samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar:maktabgacha ta’lim, musiqa rahbari, cholg‘u asboblari, musiqiy tarbiya, ijodkorlik, ritm, musiqiy faoliyat, bolalar rivoji,tafakkur, emotsional, musiqa o`quvi, musiqaviy did, improvizatsiya, musiqa savodi, musiqa tinglash.ta’lim, tarbiya,ijro maxorati,ovoz tarbiyasi, , musiqa darsi, ma’naviyat, milliy qadriyat, san’at, qo’shiq.kuylash texnikasi, musiqiy estetik tarbiya.

KIRISH. Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy tarbiya bolalarning estetik didini shakllantirishda, ularning his-tuyg‘ularini boyitishda va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, musiqa cholg‘u asboblari yordamida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bolalarda musiqaga mehr uyg‘otadi, ularni faol ijodiy jarayonga jalb etadi. Shu jarayonda musiqa rahbari pedagogik mahorat, ijodkorlik va metodik yondashuvi bilan jarayonni boshqaradi. Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashning muhim bosqichidir. Shu davrda bolaning shaxsiy rivojlanishi, hissiy olami, estetik didi va ijodiy qobiliyatlari shakllanadi. Musiqa esa bolalarning ruhiy dunyosini boyituvchi, his-tuyg‘ularini uyg‘otuvchi va ularni atrof-muhitni badiiy idrok etishga o‘rgatuvchi eng ta’sirchan vositalardan biridir.Musiqa tarbiyasi jarayonida ayniqsa cholg‘u asboblari bilan ishlash mashg‘ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar turli musiqa cholg‘ulari orqali tovushlarni farqlashni, ritmni his qilishni, jamoa bo‘lib ijro etishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, cholg‘u asboblaridan foydalanish ularning diqqat-e’tiborini, koordinatsiyasini, tafakkurini va ijodiy faolligini rivojlantiradi.Ushbu jarayonda musiqa rahbarining roli beqiyosdir. Chunki aynan u bolalarga musiqiy olamni ochib beradi, ularga quvonchli, ijodiy muhit yaratadi, musiqiy eshituv va ritmik sezgini tarbiyalaydi. Musiqa rahbari bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib,

ularni musiqaga jalb etishning samarali usullaridan foydalanadi.Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, bolalarning ijodiy salohiyatini erta aniqlash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, musiqa rahbarining faoliyati — maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy tarbiyaning mazmunini boyitish, bolalarda musiqaga mehr va estetik didni shakllantirishda asosiy omildir.Shunday qilib, mazkur tadqiqotda musiqa rahbarining maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida, xususan, cholg‘u asboblaridan foydalanishdagi o‘rni, ahamiyati va samaradorlikni oshirishning metodik asoslari tahlil qilinadi.Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning musiqiy didini shakllantirishda musiqani ongli ravishda idrok etish ko‘zda tutiladi. MTT larda olib boriladigan barcha musiqiytarbiyaviy ishlar bolalarda bog'cha yoshidan boshlab olijanob fazilatlami shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bog'chalarida am alga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma’naviy jihatdan yetuk, barkamol inson bo‘lib voyaga yetishishida xizmat qiladi. Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida kichkmtoylar hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar. Ular yoshiga mos musiqiy asarlar tarbiyalanuvchilarda unutilmas taassurotlar qoldiradi, ma’naviy dunyosini boyitadi. Bolalar bog‘chasida amalga oshiriladigan mehnat, hisob, atrofimizdagi olam kabi konkret mashg‘ulotlarda bolalarning abstrakt flkrlash, mantiqiy xotira kuchi kabi qobiliyatlari o‘sib borsa, musiqa mashg‘ulotlarida obrazli flkrlashi, nutq madaniyati, musiqiy uquvi, go‘zallikni his eta olish qobiliyati rivojlanib boradi. Turli uslublardan foydalanib o‘tkaziladigan har bir musiqiy mashg‘ulot kichkintoylarda badiiy nafosat zavqini uyg‘otadi, musiqaga qiziqishini o‘stiradi. Musiqa mashg‘ulotlarini ilmiv metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish bugungi kun bo'lajak musiqa rahbarlari oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.Oddiy musiqa asboblaridan foydalanishni o‘rgatish (masalan, doira, pianino, rubob, gitara).Oson kuylarni ijro etish orqali musiqa madaniyatini singdirish.Bolalar orkestri yoki ansambllarini shakllantirish.Musiqiy sahna chiqishlariga tayyorlash.Turli bayram va tadbirlarga musiqiy chiqishlarni tayyorlash.Sahna madaniyatini o‘rgatish.Jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.dan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta’lim tizimida musiqiy tarbiyaning ilmiy asoslarini o‘rganish ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari (2017-yil 30-sentabr, PQ–3305) va “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish strategiyasi”da bolalarda ijodiy salohiyatni rivojlantirish, estetik didni shakllantirish, shu jumladan musiqiy tarbiyani kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.Pedagogik va psixologik adabiyotlarda musiqa inson shaxsini shakllantiruvchi kuchli tarbiyaviy omil sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotchi A. Abdullayeva va G. Yo‘ldosheva o‘z ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy eshituv, ritmik sezgi va emotsional idrokni rivojlantirishda musiqa rahbarining pedagogik

mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, bolalarda cholg‘u asboblariga qiziqishni erta uyg‘otish, musiqiy faoliyatni o‘yin shaklida tashkil etish samarali natijalar beradi.N. Jo‘raeva va M. Po‘latova o‘z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy idrokni rivojlantirishda milliy cholg‘u asboblaridan foydalanishning afzalliklarini ko‘rsatib o‘tganlar. Ularning fikricha, doira, dutor, rubob, nog‘ora kabi milliy cholg‘ular bolalarda ritmni sezish, tovushlarni farqlash va jamoaviy ijro malakasini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.Xorijiy pedagoglardan Karl Orf, Zoltan Kodaly va Emil Dalkroze tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy ta’lim metodikalari ham mazkur yo‘nalishda alohida o‘rin tutadi. Karl Orf tomonidan ishlab chiqilgan “Orff tizimi” bolalarni musiqiy faoliyatga o‘yin orqali jalb etish, sodda ritmik cholg‘ulardan (triangel, baraban, ksilofon, marakas va boshqalar) foydalanish orqali tabiiy ritm va harakat uyg‘unligini shakllantirishga asoslanadi. Zoltan Kodaly esa bolalarning eshituv xotirasini rivojlantirishda xalq qo‘shiqlari va ritmik mashqlarni qo‘llashni taklif etgan.E. Dalkroze tomonidan ishlab chiqilgan ritmik metodika esa bolalarda musiqa va harakat o‘rtasidagi uyg‘unlikni shakllantirish, his-tuyg‘ularni erkin ifodalash va tanani musiqiy ohang bilan boshqarishni o‘rgatishga qaratilgan. Bu metodlar bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning musiqiy rivojini ta’minlashda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy o‘zbek pedagogikasi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar musiqiy tarbiya jarayonini milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, musiqa rahbarining kasbiy mahorati, ijodkorligi va individual yondashuvi bolaning musiqiy rivojlanishida asosiy omil sifatida e’tirof etiladi.
Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa rahbari faoliyati nafaqat musiqiy mashg‘ulotlarni olib borish, balki bolaning musiqiy dunyoqarashini, estetik hissiyotini, jamoaviylik tuyg‘usini va ijodiy tafakkurini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli pedagogik jarayondir.Musiqaviy qabul qilish aqliy jarayon bilan boliq, ya’ni diqqatni, kuzatuvchanlikni anglashni talab qiladi. Bolalar musiqa asarining ijrosini eshitadilar, tovushlarning eshitilishi turlarini taqqoslaydilar, badiiy obrazlarning xarakterli jihatlarini, asarning tuzilishini aniqlaydilar. Musiqaviy asar ijro etilgandan so`ng, bolalar tarbiyachining savollariga javob beradilar, asarning umumiy xarakterini aniqlaydilar, ularning so`zlariga, mazmuniga e’tibor beradilar. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun musiqiy savodxonlikni shakllantirish – ularning estetik didini, eshitish qobiliyatini, ritmik sezgilarini, xotirasini va ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi muhim bosqichdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonni samarali tashkil etishda musiqa rahbari yetakchi rol o‘ynaydi.

R.A. Raxmonov. “Musiqa tarbiyasi asoslari” kitobda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan musiqiy mashg‘ulotlar turlari, ularni o‘qitishda qo‘llaniladigan metodikalar ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif musiqa rahbarining o‘rnini chuqur tahlil qiladi.

R.Odilovaning “Hushnavo milli cholg’ularimiz” ushbu uslubiy qo’llanmada musiqa orqali bolaning psixik rivoji, emotsional dunyosini kengaytirish, didini o‘stirish bo‘yicha muhim fikrlar bayon etilgan.Taxlillar quyidagicha o’tkaziladi;

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, musiqa rahbari tomonidan bolalar bilan o‘tkazilgan cholg‘u asboblarida ijro mashg‘ulotlari quyidagi natijalarga olib keladi:

- bolalarda musiqiy eshituv va ritmik sezgi rivojlanadi;
- jamoaviy ijro malakalari shakllanadi;
- bolalar o‘z hissiyotlarini erkin ifoda eta boshlaydilar;
- musiqaga bo‘lgan qiziqish kuchayadi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Xususan, barcha talabalarda texnik vositalar bilan ishlash bo‘yicha teng imkoniyat bo‘lmagan; ba’zi talabalar uchun STEM metodikasining dastlabki bosqichlari murakkab tuyulgan; vaqtning cheklanganligi sababli barcha loyihalarni batafsil amalga oshirish imkoni bo‘lmagan. Biroq bu cheklovlar umumiy natijaga sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan bo‘lib, ko‘p hollarda metodika o‘z samarasini to‘liq tasdiqladi. Umumiy olib qaraganda, muhokama jarayoni tadqiqot natijalarining nazariy asoslar bilan mosligini ko‘rsatdi. STEM asosidagi integrativ metodika bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali bo‘lib, ta’lim jarayonini innovatsion, amaliy, fanlararo va tizimli yondashuvga asoslagan holda modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini STEM yondashuvi asosida integrativ rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlillar, amaliy kuzatishlar va pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatdiki, STEM integratsiyasi o‘qituvchilarda nafaqat fanlararo bilimlar yaxlitligini, balki muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy fikrlash, analitik yondashuv, texnologiyalardan samarali foydalanish kabi kompetensiyalarni kompleks shakllantirishga imkon yaratadi.

STEM asosidagi metodik yondashuvlar o‘qituvchilarning dars jarayonini loyihalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, interfaol raqamli vositalarni qo‘llash salohiyatini oshiradi hamda o‘quvchilarni bilim olishga faol jalb etadigan pedagogik strategiyalarni tanlashga yordam beradi. Shu bilan birga, integrativ STEM mashg‘ulotlari o‘qituvchilarning matematika, tabiatshunoslik va texnologiya fanlarini uyg‘unlashtirib, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek STEM yondashuvi asosida integrativ rivojlantirish metodikasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zamonaviy ta’lim talablariga mos kompetensiyalarini shakllantirishda samarali innovatsion mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metodika pedagogik ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish, amaliy mashg‘ulotlarning sifatini oshirish hamda o‘qituvchilarning professional tayyorgarlik darajasini yuqori bosqichga olib chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, Xindiston, January 2022, Vol. 12, Issue 01, Pages: 165- 172.

2. Muminov K.A. Methods for Enhancing the Educational Process at Institutions of Higher Learning Based on Foresight Technologies. // Current Approaches and New Research

in Modern Sciences, International Scientific Online Conference. – 2025-yil, 27-yanvar. – P. 127–133. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14748452.

3.Bekmurodova M. STEM-ta’limning nazariy asoslari va amaliy yechimlari. — Toshkent: Innovatsiya, 2022.

4. G‘afforova T. Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish. – Buxoro: BuxDU nashri, 2021.

5. Abduraxmonov Q., Jo‘rayev R. Pedagogik kompetensiya va o‘qituvchi tayyorgarligi. – Toshkent: Fan, 2021.

6. Ahmedova D. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi: zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Noshir, 2020.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO‘NIKMALARINI O‘QISH SAVODXONLIGI ORQALI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI VA O‘QITISH SHAKLLARI

Maxfuza O‘rinova
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini o‘qish savodxonligi orqali rivojlantirishning samarali metodlari va o‘qitish shakllarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda reproduktiv, evristik, ijodiy, kalit so‘zlar asosida taxmin qilish, yo‘naltirilgan tinglash va mushohada metodlarining dars jarayonida qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu maqolada ushbu metodlarning mazmuni, bosqichlari va darslarda amaliy qo‘llanilishi misollar bilan ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil fikrlash, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, reproduktiv metod, evristik metod, ijodiy metod, kalit so‘zlar asosida taxmin qilish, yo‘naltirilgan tinglash, mushohada.

Аннотация. Статья посвящена изучению эффективных методов и форм обучения развитию самостоятельного мышления у учащихся начальной школы посредством развития читательской грамотности. В статье анализируется применение репродуктивного, эвристического, творческого методов, метода угадывания по ключевым словам, направленного аудирования и наблюдения в учебном процессе. Также в статье показаны содержание, этапы и практическое применение методов на уроках с примерами.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, читательская грамотность, начальное образование, репродуктивный метод, эвристический метод, творческий метод, метод угадывания по ключевым словам, направленного аудирования, наблюдения.

Abstract. This article is devoted to the study of effective methods and forms of teaching for the development of independent thinking skills in primary school students through reading literacy. The study analyzes the use of reproductive, heuristic, creative, keyword-based guessing, guided listening, and observation methods in the teaching process. Also, this article shows the content, stages, and practical application of the methods in the lessons with examples.

Keywords: independent thinking, reading literacy, primary education, reproductive method, heuristic method, creative method, keyword-based guessing, guided listening, observation.

KIRISH. Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida boshlang‘ich ta’lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va o‘z nuqtayi nazarini asoslab bera olish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Mustaqil fikrlash – bu faqatgina o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida emas, balki o‘quvchining kundalik hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi, o‘rgangan bilimlarini amalda qo‘llashi va yangicha yondashuvlar ishlab chiqishi demakdir.

O‘qish savodxonligi esa ushbu jarayonning asosiy omillaridan biri bo‘lib, matnni ongli o‘qish, mazmunni tushunish, tahlil qilish, baholash va matndan kelib chiqib xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni qamrab oladi. O‘quvchi matn bilan ishlash jarayonida turli nuqtayi nazarlarni solishtiradi, sabab–oqibat munosabatlarini aniqlaydi, mantiqiy fikr yuritadi va o‘z fikrini asoslashga intiladi. Shu boisdan ham o‘qish savodxonligi boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning asosiy poydevori sifatida qaraladi.

Ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilishi, o‘qish savodxonligi darslarini mazmunan boyitish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini oshirish va ta’lim jarayonining samaradorligini yuksaltirishga yordam berishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish va o‘qish savodxonligini oshirish masalalari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Turli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qish savodxonligi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. [5]

Hozirgi zamonaviy pedagogik nazariyalarda, xususan, John Dewey, J.Piaget, L.S.Vigotskiy, Blum taksonomiyasi kabi ilmiy qarashlarda mustaqil fikrlash asosiy tafakkur mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. John Dewey mustaqil fikrlashni “insonning tajribaga asoslangan, mantiqiy va tizimli fikr yuritish jarayoni” [2], deb ta’riflaydi va ta’limda fikrlash faoliyatini rag‘batlantirish muhimligini aytib o‘tadi. N.N.Murashko ta’kidlaganidek, “o‘qituvchi bolani mustaqil fikrlashga o‘rgatishi, uning fikrlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi va yo‘naltirishi lozim.” [6] Shu bilan birga, Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aniq fikrlash va asosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash orqali yuqori darajadagi tanqidiy va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantiradilar. [8] Vygotsky esa ijtimoiy o‘rganish va yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) konsepsiyasi orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini faol muhit va o‘qituvchi yordamida shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi. [9]

ASOSIY QISM. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qishni o‘rgatish bo‘yicha qo‘llaniladigan metodlar o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qish

jarayonida qo‘llanadigan ayrim metodlar ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, quyidagi metodlar eng samarali deb hisoblanadi:

1. Reproduktiv metod (uzluksiz o‘qishni o‘z ichiga olgan holda). Bu metod o‘quvchilarning mavjud bilim va ko‘nikmalarini qayta ishlash, ularni mustaxkamlashga qaratilgan. Uzluksiz o‘qish orqali o‘quvchida to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu jarayonda o‘quvchi tayyor matnni qabul qiladi va undan kelib chiqqan holda tushuncha hosil qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qishni o‘rgatish jarayonida ***reproduktiv metod*** o‘quvchilarning nutqiy va grammatik tuzilmalarni to‘g‘ri o‘zlashtirishiga, o‘qish namunasini taqlid qilish va takrorlash orqali ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu metod o‘quv faoliyati modelini o‘quvchiga taklif qilish, uni tushunish va uni o‘z nutqiga tadbiq etish jarayonini qamrab oladi. O‘qish kontekstida bunday faoliyat ko‘pincha o‘qituvchi yoki ona tilida so‘zlashuvchi tomonidan taqdim etilgan fonetik, leksik va intonasion o‘qish shakllarini taqlid qilishni o‘z ichiga oladi.

Bu metod turli mashg‘ulot formatlarida qo‘llanilishi mumkin:

- **“Exo o‘qish” (echo reading):** o‘quvchi o‘qituvchi yoki audio yozuvdan keyin matnni ovoz chiqarib takrorlaydi. Bu — talaffuz va intonatsiyani taqlid qilish orqali o‘rgatishning samarali usulidir.
- **Xor bilan o‘qish:** butun sinf bir vaqtning o‘zida matnni ovoz chiqarib o‘qiydi, bu esa nutq tempi va ovoz ifodasini rivojlantirishga yordam beradi.
- **Rollar bo‘yicha o‘qish**: dialogli matnlarni o‘qishda qo‘llaniladi va o‘quvchilarning hissiyot ifodasi hamda nutqiy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.
- **To‘xtash bilan o‘qish:** o‘qituvchi o‘qish jarayonini ma’lum qismlarda to‘xtatib, mazmuniy tushunishni tekshiradi va savol-javoblar orqali muloqotni faollashtiradi.
- **Saundtrekka o‘qish:** matnni audioyozuv bilan bir vaqtda sinxron o‘qish orqali eshitish va ko‘rish kanallarini birlashtirib, ko‘p sensorli o‘quv faoliyatini amalga oshiradi.” [1]

2. Evristik metod (yunonchadan heurisko — "topaman", "ochaman") — bu o‘qitish usuli bo‘lib, unda o‘quvchi yangi bilimlarni mustaqil ravishda, faol aqliy faoliyat orqali «kashf etadi». Ushbu usul reproduktiv metoddan farqli o‘laroq, tayyor ma’lumotlarni qabul qilishga emas, balki o‘quvchining izlanuvchanligi va fikrlash faolligini rag‘batlantirishga asoslanadi. O‘qituvchi esa, o‘z navbatida, izlanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi funksiyani bajaradi.

O‘qishni o‘rgatish jarayonida evristik metoddan foydalanish bir qator muhim natijalarni beradi:

- o‘quvchilarda kitob o‘qishga nisbatan barqaror qiziqishni shakllantiradi;
- tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

- o‘qilgan matnni chuqur darajada tushunish va idrok etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Evristik metodning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

1. **Matn sarlavhasi ustida ishlash** — o‘quvchilar matn sarlavhasiga qarab uning mazmunini taxmin qilishadi.
2. **Syujetni oldindan bashorat qilish** — matnning ma’lum qismi o‘qilgandan so‘ng, voqealar rivojini o‘quvchilar mustaqil ravishda taxmin qiladilar.
3. **Ziddiyatlarni aniqlash** — savollar orqali o‘quvchilarni tahlilga undaydi: “Nega qahramon shunday yo‘l tutdi?”, “U boshqacha harakat qilsa bo‘larmidi?”
4. **Kontekstual lug‘at tahlili** — yangi so‘zlarni lug‘atdan emas, balki matn konteksti orqali anglashga yo‘naltirish.
5. **Muhokama va bahslar tashkil etish** — matn mazmuni bo‘yicha mini-debatlar va munozaralar o‘tkazish orqali o‘quv faolligini oshirish va qayta o‘qishga rag‘bat uyg‘otish.

3. **Ijodiy metod** — bu ta’lim usuli bo‘lib, u o‘quvchini matnni faol qayta ishlashga, fantaziya, tasavvur va shaxsiy munosabatini namoyon etishga undaydi. Bu metod orqali o‘quvchi tayyor ma’lumotni qabul qilmaydi, balki uni o‘z ijodiy qarashlari asosida qayta shakllantiradi. “Ijodiy yondashuv — badiiy tafakkur, nutq, estetik his va shaxsiy nuqtai nazarni rivojlantirishga qaratilgan.” [3]

Ijodiy metodning o‘qishni o‘rgatishdagi qo‘llanilish shakllari:

1. **“Badiiy qayta hikoya qilish** — oddiy mazmunni qaytarish emas, balki qahramonlar hissiyotlari, voqealarga shaxsiy munosabat ifodalangan holda hikoya qilish.
2. **Rollar asosida o‘qish va sahnalashtirish** — dialoglarni jonlantirish, matn bo‘yicha rollar taqsimlab, sahnada namoyish etish.
3. **Matnni davom ettirish yoki tugatish** — matnning keyingi rivojini yozish, alternativ tugashni taklif qilish.
4. **Illyustratsiya yaratish** — kitob qahramonlari, voqealar, sahnalar yoki kitob muqovasini tasvirlash.
5. **Nazmda qayta hikoya qilish** — nasriy matnni she’riy shaklda ifoda etish.
6. **Kollektiv ijodiy yozish** — guruhda birgalikda hikoya, ertak yoki rivoyat yaratish.”[4]

4. **Kalit so‘zlar asosida taxmin qilish** — bu o‘quvchilarda o‘qishga qiziqish uyg‘otish, intellektual faollikni oshirish va badiiy matnni chuqurroq tushunishga yordam beradigan faol o‘qitish metodlaridan biridir. Bu metod o‘qish va sinfdan tashqari badiiy o‘qish darslarida keng qo‘llaniladi.

Metodning asosiy mohiyati shundaki: matnni o‘qishdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga asar mazmuniga tegishli bir necha kalit so‘zlar yoki iboralarni taqdim etadi. O‘quvchilar esa bu so‘zlardan kelib chiqqan holda matn mavzusi, qahramonlar, voqealar tartibi va janri to‘g‘risida taxminlar qiladilar. Bu jarayon ko‘pincha juftliklarda yoki kichik guruhlarda amalga oshiriladi.

Ushbu metodning samaradorligini yanada yoritish uchun turli misollarni keltirib o‘tamiz.

Metodni qo‘llash bosqichlari:

Kalit so‘zlarni tanlash:

O‘qituvchi asar mazmuniga bog‘liq 2–6 ta asosiy so‘z yoki iborani tanlaydi (masalan, voqea joyi, qahramonlar, muhim predmetlar).

Taxmin savollari tuzish:

Masalan:

– Sizcha, bu hikoya nima haqida bo‘lishi mumkin?

– Qanday voqealar sodir bo‘lishi mumkin?

– Asarning bosh qahramoni kim bo‘lishi mumkin?

Sinfda yoki juftliklarda muhokama qilish:

O‘quvchilar o‘z taxminlarini klaster, sxemalar, qisqa hikoya yoki og‘zaki bayon tarzida ifodalashlari mumkin.

Matnni o‘qish:

O‘quvchilar asarni o‘qib, o‘z taxminlarini haqiqiy mazmun bilan taqqoslaydilar.

Refleksiya (fikr yuritish)

O‘qituvchi savollar yordamida fikrlashni chuqurlashtiradi:

– Sizning taxminlaringiz to‘g‘ri chiqdimi?

– Qanday voqea kutilmagan bo‘ldi?

– Muallif nima uchun aynan shu so‘zlarni tanlagan?

O‘qish savodxonligi darsi, 2-sinf (asar: "Do‘stlikning hosiyati", 4- chorak, 28- bet)

Dars maqsadi:

- O‘quvchilar matn mazmunini kalit so‘zlar orqali taxmin qilishni o‘rganadilar;
- Do‘stlik haqida shaxsiy fikr va taassurot bildirishadi;
- Matnni tinglash va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

1. Tayyorgarlik: Kalit so‘zlarni tanlash

***Kalit so‘zlar*:** Ibn Sino, hakim, ota, nasihat, saroy, do‘stlashish, yordam.

Bu so‘zlar matnda bor bo‘ladigan asosiy tushunchalar yoki u bilan bog‘liq ehtimoliy mazmunni bildiruvchi elementlardir.

2. Metodni qo‘llash: Taxmin qilish jarayoni

1-bosqich: Kalit so‘zlarni taqdim etish

Muallim doskaga yoki ekranga kalit so‘zlarni yozadi: Ibn Sino, hakim, ota, nasihat, saroy, do‘stlashish, yordam.

2-bosqich: Guruhli tahmin qilish

O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi va quyidagi savollarga javob izlaydilar:

- Bu so‘zlardan qanday hikoya paydo bo‘lishi mumkin?
- Hikoyada nima haqida gap ketyapti deb o‘ylaysiz?
- Har bir so‘zga aloqador vaziyatni tasavvur qiling.

3. Matnni o‘qish / tinglash

O‘qituvchi matnni o‘qib beradi (yoki bolalar navbat bilan o‘qiydi).

O‘qishdan so‘ng so‘raladi:

- Taxminlaringiz to‘g‘ri chiqdimi?
- Matnda do‘stlik qanday tasvirlangan?

4. Tahlil va refleksiya

- Sizga do‘stingiz qachon yordam bergan?
- Sizningcha, bu rivoyatda do‘stlikning zamonaviy hayotdagi ahamiyati qanday aks etgan?
- Rivoyatda do‘stlikning qanday xosiyatlari ta’kidlangan?

5. O‘quvchilarda o‘qish kompetensiyalarini rivojlantirishda faol ta’lim metodlaridan biri sifatida **yo‘naltirilgan tinglash va mushohada metodi** alohida o‘rin tutadi. Bu metod o‘quvchilarni nafaqat matnni tinglash yoki o‘qishga, balki uni ongli ravishda tahlil qilish, hodisalar mohiyatini anglash, qahramonlarning hissiyotlari bilan empatik jihatdan hamdard bo‘lish va o‘z fikrini shakllantirishga undaydi.

Yo‘naltirilgan tinglash bosqichlari:

1. Tinglashdan oldin maqsadni belgilash

O‘qituvchi o‘quvchilar oldiga aniq savol yoki topshiriq qo‘yadi. *Masalan:*

– “Asarni tinglar ekansiz, qahramon nimalarni his qilganiga e’tibor bering.”

– “Hikoyani tinglab, qahramon nima uchun shunday ish tutganini anglashga harakat qiling.”

2. Matnni tinglash/o‘qish

O‘qituvchi matnni ifodali ovoz bilan o‘qiydi. O‘quvchilar esa fokus bilan tinglashadi yoki o‘zlari shivirlab o‘qiydilar.

3. Mushohada va tahlil

Matn tinglangandan so‘ng o‘qituvchi savollar orqali muhokamani tashkil etadi.

–“Qahramonning hissiyotlarini qanday angladingiz?”

– “Agar siz shu holatda bo‘lganingizda, nima qilgan bo‘lar edingiz?”

–“Muallif bu voqeani qanday yoritgan?”

Muhokama yozma yoki og‘zaki shaklda bo‘lishi mumkin.

O‘qish savodxonligiga mos misollar:

Misol 1 (2-sinf):

Matn: *Z.Xasanova “Suv – aziz ne’mat” she’r (O‘qish savodxonligi darsligi, 2-sinf, 4-chorak, 65- bet)*

Dars maqsadi:

- O‘quvchilar she’rni diqqat bilan tinglash orqali tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradilar;

- Suvning tabiat va inson hayotidagi o‘rnini anglaydilar;
- Savollarga asosli javob berish, tinglangan narsa ustida fikr yuritishni o‘rganadilar

1. Bosqich.Topshiriq tinglashdan oldin:

- Suv nima uchun “zaminning yuragi” deb ataladi deb o‘ylaysiz?
- Agar suv bo‘lmasa, tabiatda nima o‘zgaradi?
- Suvni tejash nima uchun muhim?

2. Bosqich. Matnni yo‘naltirilgan holda tinglash

Muallim matnni (mas., esse, qisqa hikoya, she’r) o‘qiydi. Tinglash paytida o‘quvchilar:

- Oldingi savollarga javob izlaydilar;
- Tayanch nuqtalarni yodda saqlaydilar.

Masalan:

– Qaysi hayvonlar suvsiz yashay olmaydi?

– Qanday joylarda suv yetishmasligi aytilgan?

– Muallif suvni qanday tasvirlagan?

3. Bosqich. Mushohada va mulohaza

Muallim savollar qo‘yadi va o‘quvchilarni guruhlarda muhokama qilishga chorlaydi:

Tushunish va tahlil savollari:

- Matnda suv qanday ramz sifatida keltirilgan?
- Muallif insonlarni nimaga chaqirmoqchi bo‘lgan?
- Suvni asrash uchun qanday amaliy ishlar qilish mumkin?

4. Bosqich. Dars xulosasi va refleksiya

Bolalar shunday xulosaga kelishadi:

“Suv — hayot manbai. Unga ehtiyot va e’tibor bilan munosabatda bo‘lish — har bir insonning burchi.”

Refleksiya savoli:

- Siz bugungi darsdan nima o‘rgandingiz?
- Suvni asrash uchun hayotingizda qanday o‘zgarish kiritasiz?

Qo‘shimcha faoliyatlar:

Suv haqida shaxsiy fikr yozish: “Men uchun suv nima?”

Rasm chizish: “Suvni asrash — mening ko‘z o‘ngimda”

Loyiha g‘oyasi: “Mahallamizda suvni tejash uchun nima qilish mumkin?”

XULOSA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qish savodxonligi orqali mustaqil fikrlashni shakllantirish nafaqat o‘quvchilarning matnni tushunish darajasini oshiradi, balki ularning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Maqolada yoritilgan metod va o‘qitish shakllari — kalit so‘zlar asosida taxmin qilish, evristik metod, ijodiy metod, yo‘naltirilgan tinglash va mushohada metodi — o‘quvchilarning faol o‘qish jarayonida ishtirokini ta’minlaydi va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, ushbu metodlar o‘qituvchilarga darslarni yanada interfaol, qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Shu bois, boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarida mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi metod va shakllarni qo‘llash pedagogik amaliyotda dolzarb va samarali ekanligi ta’kidlanadi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat akademik ko‘nikmalarini, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гальскова Н.Д. (2024). Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. — М.: АРКТИ.
2. Дьюи Ж. (2000). Демократия и образование. – М.: Педагогика, – С. 93.
3. Занков Л. В. (1991). Обучение и развитие. — М.: Просвещение.
4. Ковалева Г. С. (2010). Творческое чтение: методика и технологии. — СПб.: Каро.
5. Kuznetsova, E. V. (2018). Developing independent thinking skills in primary school students through reading activities. Russian Education & Society, 60 (4), 289–304.
6. Murashko, N. N. (2017). Pedagogical conditions for the development of independent thinking in primary school children. Moscow: Prosveshcheniye.
7. Muratova, N., Khasanova, G., Toshov, X., & Kurbanov, O. (2024). Problems and prospects of developing spelling skills in schoolchildren with visual impairments in Uzbekistan. Salud, Ciencia y Tecnología-Serie de Conferencias, 3, 1219.
8. Piaget, J. (1970). Piaget’s theory. In P. Mussen (Ed.), Carmichael’s Manual of Child Psychology (pp. 703–732). New York: Wiley.
9. Vygotsky, L. S. (2004). Imagination and creativity in childhood. In R. W. Rieber & J. Wollock (Eds.), The collected works of L. S. Vygotsky (Vol. 5, pp. 151–167). New York: Springer.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 37.091:37.140:37.018
ORCID ID 0000-0002-2797-0512

INTERFAOL METODLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA AXLOQIY KOMPETENSIYA VA ASSOSATSIYA QILISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
zn.ortiqova@gmail.com
+998907830401
Xudoyberdiyeva Nodirabegim Alisherqizi
Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti
+998911595936
nodiraxudoyberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda axloqiy kompetensiyalar va assosatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotning nazariy asosini so‘nggi yillarda o‘tkazilgan xorijiy va mahalliy ilmiy izlanishlar tashkil etadi. Tahlillarga ko‘ra, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan – “Aqliy hujum”, “Rol o‘ynash”, “Klaster”, “Insert”, hamda muammoli vaziyatli yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarda axloqiy tafakkur, refleksiya va emotsional idrokni rivojlantiradi. Shuningdek, assosatsiya qilish qobiliyatining kuchayishi axloqiy qadriyatlarni hayotiy tajribalar bilan bog‘lash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, empatiya, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy madaniyatni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqola yakunida axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchining fasilitator sifatidagi o‘rni, shuningdek, dars jarayonida interfaol va assosiativ yondashuvlarni uyg‘unlashtirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metodlar, axloqiy kompetensiya, assosatsiya qilish qobiliyati, o‘quvchi tafakkuri, ma’naviy tarbiya, ta’lim texnologiyasi, refleksiya, empatiya, ijtimoiy mas’uliyat, pedagogik yondashuv

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема развития моральной компетентности и способности к ассоциации у учащихся посредством использования интерактивных методов обучения. Теоретическую основу исследования составляют современные отечественные и зарубежные труды последних лет. Анализ показал, что

применение интерактивных методов — таких как «Мозговой штурм», «Ролевая игра», «Кластер», «Инсерт» и ситуационно-проблемное обучение — способствует развитию у учащихся морального мышления, рефлексии и эмоционального восприятия. Развитие способности к ассоциации позволяет учащимся связывать нравственные понятия с жизненным опытом, что усиливает усвоение моральных ценностей. Результаты исследования показывают, что интерактивные образовательные технологии являются эффективным инструментом формирования у учащихся самостоятельного мышления, эмпатии, социальной ответственности и духовной культуры. В заключении подчеркивается роль преподавателя как фасилитатора и обосновываются педагогические условия интеграции интерактивного и ассоциативного подходов в образовательный процесс.

Ключевые слова: Интерактивные методы, моральная компетентность, ассоциативное мышление, мышление учащихся, духовно-нравственное воспитание, образовательные технологии, рефлексия, эмпатия, социальная ответственность, педагогический подход

Abstract. This article explores the issue of developing students’ moral competence and associative thinking skills through the use of interactive teaching methods. The theoretical foundation of the study is based on recent local and international research. Analysis shows that applying interactive methods such as “Brainstorming,” “Role Play,” “Cluster,” “Insert,” and problem-based learning effectively fosters students’ moral reasoning, reflection, and emotional perception. The enhancement of associative abilities enables students to link moral concepts with real-life experiences, which strengthens the internalization of ethical values. The results indicate that interactive learning technologies serve as efficient tools for developing independent thinking, empathy, social responsibility, and moral culture among learners. The article concludes by emphasizing the role of the teacher as a facilitator and justifies the pedagogical conditions necessary for integrating interactive and associative approaches in the educational process.

Key words: Interactive methods, moral competence, associative thinking, student cognition, moral education, educational technology, reflection, empathy, social responsibility, pedagogical approach

KIRISH. Hozirgi ta’lim jarayonida o‘quvchilarda axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat individual shaxs sifatida ularning shakllanishi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va madaniy qadriyatlarni saqlash nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi. Axloqiy kompetensiya tushunchasi o‘quvchilarning to‘g‘ri va noto‘g‘ri harakatlarni farqlash, qaror qabul qilish, ijtimoiy va madaniy me’yorlarga rioya qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi[1; 45–58-b]. Shu bilan birga, o‘quvchilarning assosatsiya qilish qobiliyati — ya’ni yangi bilimlarni oldingi tajriba va mavjud tushunchalar bilan bog‘lash qobiliyati — axloqiy qarorlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi[10; 89–97-b]. Interfaol metodlar ta’lim

jarayonida faollik, hamkorlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. “Brainstorming”, “Role Play”, “Cluster”, “Insert” kabi texnikalar o‘quvchilarga mavzuni chuqurroq tushunishga, o‘z fikrini erkin ifoda etishga va axloqiy baholashlarni amalga oshirishga imkon beradi[5; 91–103-b]. Shu bilan birga, interfaol yondashuvlar nafaqat kognitiv, balki emotsional va ijtimoiy rivojlanishga ham hissa qo‘shadi, chunki ular o‘quvchilarda empatiya va mas’uliyat hissini oshiradi[5; 112–120-b]. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish axloqiy kompetensiyani mustahkamlash va assosatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanadi. Masalan, talabalarda moral reasoningni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan eksperimentlar interfaol metodlarning o‘quvchilarning tanqidiy tafakkuri va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini tasdiqlaydi[1]. Shu bilan birga, boshlang‘ich va o‘rta ta’limda interfaol yondashuvlar orqali o‘quvchilarda ma’naviy qadriyatlar, mas’uliyat va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ham aniqlangan[6; 134–142-b]. Shu ma’noda, interfaol metodlar orqali axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, refleksiya va empatiya ko‘nikmalarini oshiradi, ularni ijtimoiy muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Shuningdek, assosatsiya qilish qobiliyati orqali o‘quvchilar bilimlarni tizimli ravishda bog‘lash va amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Shuning uchun mazkur tadqiqotning maqsadi interfaol metodlar asosida axloqiy kompetensiyalar va assosatsiya qilish qobiliyatini shakllantirishning samarali yo‘llarini aniqlashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish va assotsiatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. So‘nggi yillarda interfaol metodlar bu jarayonda asosiy vosita sifatida e’tiborga tushmoqda. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilar faolligi oshadi, ularning mustaqil fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanadi, shuningdek axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati mustahkamlanadi[1; 45–58-b]. O‘zbekistonda va mintaqa sharoitida olib borilgan tadqiqotlar interfaol yondashuvlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Mamatqulova va Yuldasheva o‘quvchilarda axloqiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish natijalari samarali ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, guruh muhokamalari, muammoli vaziyatlar va rolli o‘yinlar o‘quvchilarning axloqiy tafakkurini va empatiya darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Zohidova va Ergasheva interfaol metodlar orqali assotsiatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Assotsiatsiya qilish qobiliyati o‘quvchilarga o‘z bilimlarini birlashtirish, fikrlarni bog‘lash va yangi g‘oyalar yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Karimova va Nurmatova boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan tadqiqotlarda interfaol metodlarning samaradorligini

aniqlashgan. Ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlash va axloqiy tafakkur ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgani qayd etilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar an’anaviy dars usullariga nisbatan axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda samaraliroqdir. Xalqaro tadqiqotlar ham bu yo‘nalishni tasdiqlaydi. Lee va Park modern didaktik metodlar orqali kelajakdagi ijtimoiy ishchi va mutaxassislarni tayyorlashda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi[3; 77–85-b]. Shu bilan birga, Petrov va Koval interfaol o‘qitish metodlari yuqori ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirish va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga yordam berishini ko‘rsatadilar[7; 134–142-b]. Moraru va Sandu tadqiqotlarida axloqiy emotsiyalarni o‘rganish orqali axloqiy kompetensiyani rivojlantirish mumkinligi ta’kidlangan. Ularning fikricha, axloqiy qaror qabul qilishda emotsiyalar va ijtimoiy xulqiy normalarni hisobga olish interfaol metodlar orqali samarali amalga oshiriladi. Wang va Liu esa axloqiy va fuqarolik ta’limini integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirish imkoniyatini ko‘rsatadi. Qodirova va Rahimov esa interfaol metodlar asosida axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik asoslarini tahlil qiladilar. Ularning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, interfaol yondashuvlar o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularni guruh muhokamasi va ijtimoiy faoliyatga jalb qiladi, bu esa axloqiy qaror qabul qilish va assotsiatsiya qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Nurmatova boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borgan tajribalarida interfaol yondashuvlarning axloqiy tafakkurni rivojlantirishda asosiy vosita ekanligini aniqlagan[6; 38–45-b]. Shu bilan birga, Ahmed va Khan talabalarda interfaol metodlar yordamida axloqiy tafakkur va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida samarali natijalarni ko‘rsatganlar. Metodologiya jihatidan**,** interfaol metodlar asosida axloqiy kompetensiya va assotsiatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish ikki asosiy tamoyilga tayanadi: 1) o‘quvchilarning faol ishtiroki va 2) amaliy vazifalar orqali o‘zaro hamkorlikni ta’minlash. Interfaol metodlar quyidagi shakllarda qo‘llanadi:

- Guruh ishlari va muhokama – o‘quvchilar mavzuni birgalikda tahlil qiladi, fikr almashadi va axloqiy dilemmani muhokama qiladi.
- Muammoli vaziyatlar – o‘quvchilar real hayotdagi murakkab vaziyatlarni tahlil qilib, axloqiy qarorlar qabul qilishga o‘rgatiladi.
- Rolli o‘yinlar – o‘quvchilar turli rollarni o‘ynab, empatiya va ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Proektiv vazifalar – o‘quvchilar mustaqil yoki guruh bo‘lib loyiha yaratadi, bu esa assotsiatsiya qilish qobiliyatini oshiradi.

Metodologik yondashuv shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar nafaqat axloqiy bilimlarni berishga, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy adabiyotlar va metodologik tahlil interfaol yondashuvlarning o‘quv jarayonida samaradorligini tasdiqlaydi

va o‘quvchilarda axloqiy kompetensiya hamda assotsiatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar o‘quvchilarda axloqiy kompetensiya va assotsiatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol yondashuvlar nafaqat axloqiy bilimlarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat va empatiya kabi ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston va mintaqa sharoitida olib borilgan tadqiqotlar ham interfaol metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Mamatqulova va Yuldasheva ta’kidlaganidek, guruh muhokamalari, muammoli vaziyatlar va rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini ifodalashga, boshqalar fikrini tinglashga va axloqiy qarorlar qabul qilishga o‘rganadi. Shu bilan birga, Zohidova va Ergasheva assotsiatsiya qilish qobiliyati — o‘z bilimlarini birlashtirib yangi g‘oyalar yaratish va masalalarni kreativ tarzda hal qilish — interfaol metodlar orqali sezilarli darajada rivojlanishini ta’kidlaydilar. Ilmiy manbalarda interfaol metodlar tarkibida turli strategiyalar ajratilgan: guruh ishlari, muhokama, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va proektiv vazifalar. Karimova va Nurmatova boshlang‘ich va o‘rta maktab sharoitida ushbu metodlarning axloqiy kompetensiyani rivojlantirishda samaradorligini ko‘rsatishgan. Ularning fikricha, interfaol metodlar o‘quvchilarni passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, bu esa axloqiy tafakkur va assotsiatsiya qilish qobiliyatini oshiradi. Xalqaro tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, interfaol yondashuvlar axloqiy va fuqarolik ta’limini integratsiya qilish orqali ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirish imkonini beradi. Moraru va Sandu esa moral emotsiyalarni hisobga olgan holda interfaol mashg‘ulotlarning axloqiy kompetensiyani oshirishga yordam berishini ko‘rsatgan. Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlar nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Muhokama jarayonida shuni ta’kidlash mumkin: interfaol metodlarning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik mahorati, mashg‘ulotni rejalashtirish sifati va o‘quvchilarning motivatsiyasiga bog‘liq. Shu bilan birga, assotsiatsiya qilish qobiliyati va axloqiy tafakkurni rivojlantirish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini birlashtirib, yangi g‘oyalar yaratish va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga o‘rganadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar o‘quvchilarda axloqiy kompetensiya va assotsiatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu metodlar nafaqat akademik bilimlarni, balki shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshiradi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar o‘quvchilarda axloqiy kompetensiya va assotsiatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Turli mamlakatlar va O‘zbekiston

sharoitidagi tadqiqotlar interfaol yondashuvlarning o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat, empatiya va axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar nafaqat axloqiy bilimlarni berishga, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Assotsiatsiya qilish qobiliyati orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini birlashtirib, yangi g‘oyalar yaratish va murakkab vaziyatlarni samarali hal qilish imkoniga ega bo‘ladi. Metodologik jihatdan interfaol yondashuvlar guruh ishlari, muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar va proektiv vazifalarni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, interfaol metodlar nafaqat pedagogik jarayonni samarali qiladi, balki axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy vositasiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmed, S., Khan, R. Enhancing moral reasoning among university students in Lahore: The influence of interactive teaching methods. Review of Journalism and Social Science Education Research**.** 2025. B 58.

2. Karimova, N. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda axloqiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo‘llari. Ta’lim va Innovatsiyalar Jurnali**.** 2024. B 120.

3. Lee, H., & Park, J.Modern didactic methods in the formation of moral values and training of future social workers. British Journal of Advanced Research in Education and Technology Studies**.** 2023. B 102.

4. Mamatqulova, D., & Yuldasheva, S.Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish. O‘zbekiston Pedagogika Ilmlari Jurnali**.** 2022. B 72.

5. Moraru, L., & Sandu, D. Improvement of moral competence in university students: An intervention through moral emotions. Journal of Educational Sciences**.** 2022. B 103.

6. Nurmatova, M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy tafakkurni rivojlantirishda interfaol yondashuvlarning roli. Pedagogik Innovatsiyalar**,** 4(2), 38–45.

7. Petrov, I., & Koval, A. Interactive learning methods in higher education institutions. Educational Review**.** 2023. B 145.

8. Qodirova, D., & Rahimov, U. Interfaol metodlar asosida axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi Ilmiy Axboroti**.** 2024. B 79.

9. Wang, Y., & Liu, T. Integration mechanism of moral education concept and civic education in colleges and universities based on proximal strategy optimization algorithm. Applied Mathematics and Nonlinear Sciences.2023. B 778.

10.Zohidova, M., & Ergasheva, L. Assosatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish. Ta’lim va Rivojlanish Jurnali.2025. B 97.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 372.4:159.954
ORCID ID 0000-0002-2797-0512

KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA ASSOTSIATIV FIKRLASHNING RIVOJLANISH JARAYONI

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
zn.ortiqova@gmail.com
+998907830401

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik yoshdagi o‘quvchilarda assotsiativ fikrlashning shakllanishi va rivojlanish jarayoni ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan tahlil qilinadi. Assotsiativ fikrlash — bu o‘quvchilarning idrok etgan obrazlar, so‘zlar va tushunchalar o‘rtasida mantiqiy hamda emotsional bog‘lanishlarni o‘rnatish qobiliyatini anglatadi. Tadqiqotda bolalar tafakkurining psixologik xususiyatlari, assotsiativ fikrlashning bosqichlari, uni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar hamda o‘quv jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali pedagogik metodlar yoritiladi. Shuningdek, interfaol o‘yinlar, vizual va og‘zaki mashg‘ulotlar orqali assotsiativ fikrlashni faollashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada milliy va xorijiy tadqiqotchilar qarashlari tahlil qilinib, kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishda assotsiativ tafakkurning ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim tizimida kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun metodik tavsiyalar yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: assotsiativ fikrlash, kichik yoshdagi o‘quvchilar, tafakkur, ijodiy fikrlash, pedagogik metodlar, kognitiv rivojlanish, interfaol o‘yinlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс формирования и развития ассоциативного мышления у младших школьников с научно-теоретической и методической точек зрения. Ассоциативное мышление понимается как способность учащихся устанавливать логические и эмоциональные связи между воспринятыми образами, словами и понятиями. В исследовании анализируются психологические особенности детского мышления, этапы развития ассоциативного процесса, факторы, влияющие на его формирование, а также эффективные педагогические методы, применяемые в учебном процессе. Особое внимание уделено использованию интерактивных игр, визуальных и устных упражнений для активизации ассоциативного мышления. В статье обобщены взгляды отечественных и зарубежных

исследователей, обосновано значение ассоциативного мышления в развитии творческого и самостоятельного мышления младших школьников. Результаты исследования могут быть использованы для разработки методических рекомендаций, направленных на поддержку когнитивного развития учащихся в системе начального образования.

Ключевые слова: ассоциативное мышление, младшие школьники, мышление, творческое мышление, педагогические методы, когнитивное развитие, интерактивные игры.

Abstract. This article examines the process of forming and developing associative thinking in primary school pupils from theoretical and methodological perspectives. Associative thinking is defined as the ability of learners to establish logical and emotional connections between perceived images, words, and concepts. The study analyzes the psychological characteristics of children’s thinking, the stages of associative thinking development, the factors influencing this process, and the effective pedagogical methods that can be applied in educational practice. Particular attention is given to the use of interactive games, visual and verbal exercises aimed at activating associative thinking. The article summarizes the views of both national and international researchers and substantiates the importance of associative thinking in fostering creativity and independent thought among young learners. The results of the research can be used to develop methodological recommendations that support the cognitive development of students within the primary education system.

Keywords: associative thinking, primary school pupils, thinking, creative thinking, pedagogical methods, cognitive development, interactive games.

KIRISH. Bugungi pedagogik amaliyot va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolalarning faqat faktik bilimlarni egallashi emas, balki ularni mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, assotsiativ fikrlash kichik yoshdagi o‘quvchilarning kognitiv va psixologik rivojlanishida muhim komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Assotsiativ fikrlash – bu bolaning ongida turli obrazlar, tushunchalar, so‘zlar va tajribalar o‘rtasida mantiqiy, semantik va emotsional bog‘lanishlarni o‘rnatish qobiliyatidir. U tafakkur jarayonlarini murakkablashtiradi, ijodiy potensialni oshiradi hamda o‘quv jarayonida bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim muassasalarida interfaol o‘yinlar, vizual va og‘zaki mashg‘ulotlar, muammoli topshiriqlar orqali assotsiativ fikrlashni faollashtirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, pedagogik metodikalar va psixologik nazariyalar assotsiativ fikrlashning rivojlanish bosqichlarini aniqlash, bolalarning kognitiv va ijodiy salohiyatini samarali shakllantirish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot ushbu jarayonni ilmiy asosda tahlil qilish, unga ta’sir etuvchi psixologik va pedagogik omillarni aniqlash hamda

assotsiativ tafakkurni rivojlantirishning samarali metodik yo‘nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Assotsiativ fikrlash kichik yoshdagi o‘quvchilarning tafakkur va ijodiy salohiyatini shakllantirishdagi muhim psixologik-kognitiv komponent hisoblanadi. Tadqiqotchilar assotsiativ fikrlashni bolaning idrok etgan tasavvur, tushuncha va tajribalar o‘rtasida mantiqiy hamda emotsional bog‘lanishlarni hosil qilish qobiliyati sifatida ta’riflaydilar [7; 48-74b]. Shu jihatdan, assotsiativ fikrlash bolalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [3; 38-50-b]. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik yoshdagi bolalarda assotsiativ fikrlash asosan ikki yo‘nalishda rivojlanadi: vizual-assotsiativ va lingvistik-assotsiativ [1]. Vizual-assotsiativ yo‘nalish bolalarning obrazlar va ranglar orqali bog‘lanish hosil qilishiga qaratilgan bo‘lsa, lingvistik yo‘nalish so‘zlar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni shakllantiradi. Bu jarayon o‘quvchilarning xotira, diqqat va tafakkurini bir vaqtning o‘zida faollashtiradi. Shu bilan birga, ushbu jarayonni rivojlantirish uchun pedagogik intervensiyalar muhim ahamiyatga ega [2; 285-b]. Milliy tadqiqotlarda assotsiativ fikrlash bolalarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini shakllantirishda muhim vosita sifatida ko‘riladi. G‘afforova ta’kidlaganidek, kichik yoshdagi o‘quvchilarda assotsiativ aloqalarni faollashtirish orqali tafakkurning kognitiv va emotsional komponentlari uyg‘un rivojlanadi [10; 112–118-b] interfaol o‘yinlar va vizual mashg‘ulotlar orqali bolalarda assotsiativ fikrlashni rivojlantirish metodikasini tavsiya qiladi [11; 47-b]. Luchini o‘z tadqiqotlarida assotsiativ fikrlash ijodiy faoliyat va muammolarni hal etish qobiliyatini oshirishga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatgan [4; 44-b]. Bu esa pedagogik amaliyotda assotsiativ fikrlashni rivojlantirishning ilmiy asoslangan metodik yondashuvlarini ishlab chiqish zaruratini oshiradi. Shuningdek, Smith bolalarda so‘zlarni o‘rganish jarayonida assotsiativ mexanizmlarning rolini tadqiq qilgan va ularni rivojlantirishning samarali vositalarini aniqlagan [7; 60-b]. Richmond esa assotsiativ va ishchi xotira jarayonlarining bolalar kognitiv rivojlanishidagi o‘zaro bog‘liqligini ochib bergan [8; 300-b]. Ushbu natijalar kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlashda pedagogik strategiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar asosida assotsiativ fikrlashni rivojlantirishning bir nechta asosiy prinsiplarini ajratish mumkin: 1) vizual va lingvistik materiallar bilan bog‘lanishni faollashtirish; 2) interfaol o‘yinlar va muammoli topshiriqlarni qo‘llash; 3) yangi bilimlarni avvalgi tajribalar bilan bog‘lash; 4) ijodiy va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish [2; 18-b]. Milliy va xorijiy tadqiqotlarni solishtirganda, metodik yondashuvlar orasida farq mavjud. Xorijiy tadqiqotlarda ko‘proq eksperimental va kognitiv psixologik metodlar qo‘llaniladi, milliy tadqiqotlarda esa pedagogik amaliyotga bevosita yo‘naltirilgan interaktiv va ijodiy mashg‘ulotlar asosiy o‘rin tutadi [5; 40-b]. Shu bilan birga, barcha tadqiqotlar assotsiativ fikrlashning boshlang‘ich ta’lim bosqichida rivojlanishi bolalarning kognitiv, ijtimoiy va emotsional salohiyatini yaxshilashga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Tadqiqot boshlang‘ich ta’lim maktablarida kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan olib borildi. Eksperimental guruhlar interfaol o‘yinlar, vizual va og‘zaki mashg‘ulotlar orqali assotsiativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirildi, nazorat guruhi esa an’anaviy ta’lim metodlari bilan shug‘ullandi [10; 116-b]. Tadqiqot davomida kognitiv va ijodiy ko‘rsatkichlar testlar yordamida o‘lchandi va natijalar solishtirildi [4; 45-b]. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar yordamida assotsiativ fikrlash ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi, bolalar muammoli vaziyatlarni hal etishda mustaqil va ijodiy yondashuvni ko‘rsatdi [11; 51-b]. Shu bilan birga, assotsiativ fikrlashni rivojlantirishning metodik tavsiyalari pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kichik yoshdagi o‘quvchilarda assotsiativ fikrlashning rivojlanish jarayonini o‘rganish natijalari ko‘plab psixologik va pedagogik jihatlarni ochib berdi. Bolalarning kognitiv va ijodiy faoliyati ikki asosiy yo‘nalishda o‘sadi: vizual-assotsiativ va lingvistik-assotsiativ. Vizual-assotsiativ jarayonlarda bolalar rasm, shakl va ranglar orqali o‘zaro bog‘lanishlarni hosil qiladi, yangi tushunchalarni mavjud bilim bilan uyg‘unlashtiradi. Lingvistik-assotsiativ jarayonlar esa so‘zlar va tushunchalarni mantiqan bog‘lash, hikoya yoki dialog yaratish orqali nutq va xotira ko‘nikmalarini rivojlantiradi [1; 62-b]. O‘quvchilarning kognitiv salohiyati assotsiativ fikrlashning faolligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan, assotsiativ bog‘lanishlarni hosil qilish qobiliyati tafakkurning ijodiy va mustaqil komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalar yangi ma’lumotlarni avvalgi tajribalar bilan bog‘lay olganda, ularni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etishda yuqori natijalarga erishadi [6; 41-b]. Vizual-assotsiativ mashg‘ulotlar bolalarda yangi tushunchalarni qabul qilishni osonlashtiradi. Obrazlar va ranglar orqali bog‘lanish hosil qilish, tafakkur jarayonlarini faollashtirish bilan birga, bolalarning e’tiborini va xotira ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Lingvistik-assotsiativ mashg‘ulotlar esa bolalarning so‘z boyligi, nutq madaniyati va tafakkur qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu tarzda, assotsiativ fikrlashni rivojlantirish bolalarda turli kognitiv funksiyalarni uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi [8; 300-b]. Interfaol mashg‘ulotlar va muammoli topshiriqlar bolalarning ijodiy yondashuvini kuchaytiradi. Guruh bilan ishlash va birgalikda muammolarni hal etish tajribasi bolalarda ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogik metodikalar shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lsa, natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi. Eksperimental o‘quv muhitida bolalar yangi vaziyatlarga ijodiy yondashuvni yuqori darajada namoyish qilgan, bu esa assotsiativ fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatining o‘sishini ko‘rsatadi [10; 118-b]. Assotsiativ fikrlashni rivojlantirishda metodik yondashuvlar ham muhim rol o‘ynaydi. Vizual-assotsiativ mashg‘ulotlar, lingvistik-assotsiativ mashg‘ulotlar, interfaol o‘yinlar va muammoli topshiriqlar pedagogik samaradorlikni oshiradi. Vizual va lingvistik komponentlarni birlashtirish bolalarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini yaxshilashga xizmat qiladi [4; 44-b]. Masalan, bolalar rasm va so‘zlarni birlashtirgan vazifalarda yangi g‘oyalarni yaratishda yuqori natijaga erishgan, shu bilan birga

o‘z fikrini mantiqan ifodalash va boshqalar bilan baham ko‘rish qobiliyatini rivojlantirgan. Milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar natijalari o‘rtasida solishtirma tahlil assotsiativ fikrlashni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlashga yordam beradi. Xorijiy tadqiqotlarda ko‘proq eksperimental psixologik yondashuvlar qo‘llanilib, kognitiv mexanizmlarning rivojlanishi tahlil qilingan [1; 60-b]. Milliy tadqiqotlarda esa pedagogik amaliyotga yo‘naltirilgan interfaol metodlar asosiy o‘rin tutadi, bu esa bolalarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi [10; 47-b]. Shu jihatdan, milliy va xorijiy metodikalar birlashtirilsa, assotsiativ fikrlashni rivojlantirish samaradorligi maksimal darajaga yetadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar yangi ma’lumotni avvalgi tajriba bilan bog‘lash orqali tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Bu o‘quvchilarning xotira, diqqat va ijodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi ham kuchayadi: interfaol mashg‘ulotlar bolalarni o‘z fikrini erkin ifodalash, guruhda ishlash va muammolarni birgalikda hal etish qobiliyatiga o‘rgatadi [3; 45-b]. Vizual va lingvistik komponentlarni uyg‘un qo‘llash pedagogik samaradorlikni oshiradi. Luchini bolalarda ijodiy muammolarni hal etish ko‘rsatkichlari vizual va lingvistik assotsiatsiyalar birlashtirilganda yuqori ekanligini ta’kidlaydi [4; 47-b]. Shu bilan birga, assotsiativ fikrlashni rivojlantirish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va interfaol pedagogik strategiyalar qo‘llanilganda natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi. Assotsiativ fikrlashning rivojlanishi bolalarning tafakkurining ijodiy va mustaqil komponentlarini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Bolalar muammoli vaziyatlarda turli yechimlarni izlash, o‘z g‘oyalarini boshqalar bilan baham ko‘rish, yangi tushunchalarni tez qabul qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shu jihatdan, pedagogik metodik yondashuvlar faqat kognitiv ko‘rsatkichlarni oshirish bilan cheklanmay, ijtimoiy va emotsional salohiyatni ham mustahkamlaydi [2; 21-b]. Kognitiv va ijodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirish bolalarda tafakkur, nutq va xotira ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, eksperimental guruhdagi bolalar so‘zlar va tasvirlarni birlashtirish orqali yangi g‘oyalarni yaratishda yuqori natijalarni namoyish qilgan, shu bilan birga muammoli vaziyatlarda mustaqil va ijodiy yondashuvni rivojlantirgan. Bu esa assotsiativ fikrlashni rivojlantirish jarayonida vizual va lingvistik komponentlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [8; 305-b]. Shuningdek, interfaol mashg‘ulotlar bolalarda ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Guruhda ishlash, fikr almashish va birgalikda muammolarni hal etish jarayonida bolalar hamfikr bo‘lishni, boshqalarni tinglashni va o‘z fikrini ifodalashni o‘rganadi. Shu tarzda, assotsiativ fikrlash nafaqat kognitiv, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga ham hissa qo‘shadi [3; 47-b, 10; 54-b].

XULOSA. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda assotsiativ fikrlashning rivojlanish jarayoni kognitiv, ijodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarning uyg‘un rivojlanishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bolalar vizual va lingvistik assotsiatsiyalar orqali yangi tushunchalarni avvalgi bilimlar bilan bog‘lash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa ularning tafakkur jarayonlarini faollashtiradi va ijodiy salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, interfaol mashg‘ulotlar va

muammoli topshiriqlar bolalarning ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantiradi [10; 55-b]. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, assotsiativ fikrlashni rivojlantirish jarayonida pedagogik metodik yondashuvlarni shaxsga yo‘naltirilgan va interfaol shaklda qo‘llash samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Vizual va lingvistik komponentlarni uyg‘unlashtirish bolalarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini mustahkamlaydi, yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi [4; 305-b]. Shu asosda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida assotsiativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni joriy etish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga, bolalarning kognitiv va ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, assotsiativ fikrlash bolalarning shaxsiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib, uning pedagogik jihatdan tizimli rivojlantirilishi boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Di Giacomo, D., Ranieri, J., Donatucci, E., Caputi, N., & Passafiume, D. (2016). The semantic associative ability in preschoolers with different language onset time. Frontiers in Psychology. 2016. B1025.
2. Alessandroni, N., & Rodríguez, C. The development of categorisation and conceptual thinking in early childhood: Methods and limitations. Psicologia: Reflexão e Crítica, 2020. B 33.
3. Harel, E., & Maruff, P. The development of associative learning in school-age children. Journal of Experimental Child Psychology, 2014. B 127.
4. Luchini, S. A., Kaufman, J. C., Goecke, B., Wilhelm, O., Kenett, Y. N., Lei, D., Benedek, M., van Hell, J. G., & Beaty, R. E. Creativity supports learning through associative thinking. npj Science of Learning, 2025. P10.
5. Ushakova, O. S., & Yashina, V. I.Cognitive aspect of language ability development in preschoolers. Preschool Education Today. 2023. B 45.
6. Brody, V. A. Modes of thinking in young children: A study of the creativity–intelligence distinction. JAMA Psychiatry. 1975/B 288.
7. Smith, L., & Yu, C. An associative account of the development of word learning. Psychological Review, 2017/ P 124.
8. Richmond, L. L., Morrison, A. B., Chein, J. M., & Olson, I. R. (2013). Working and associative memory: A developmental perspective. Developmental Review.2013/B 310.
9. Timoshenko, E. Elementary pupils’ associative thinking development paths when studying Russian orthography. Science and Education: Modern Time.2017.B47.
10. G‘afforova, N. X. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda tafakkur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik asoslari. Ta’lim va Innovatsion Tadqiqotlar Jurnali.2022/ B118.

11. Jo‘rayeva, M. A.Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning assotsiativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish metodikasi. Pedagogik Innovationlar Ilmiy Jurnali. 2023. B 52

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

PEDAGOGIK TA’LIM NAZARIYASINI O‘QITISHDA TALABALARNING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Saliyeva Nigora Sadikovna
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Lotin tili,pedagogika va psixologiya
kafedrasining katta o’qituvchisi
Saliyev Ulugbek Abdullayevich
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Abdullayev Shohjaxon Ulug’bek o’gli
Oziq- ovqat texnologiyasi va muxandisligi xalqaro instituti
Xalqaro xamkorlik bo’limi boshlig’i

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik ta’lim nazariyasini o‘qitish jarayonida talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, tamoyillari va samarali metodlari tahlil qilinadi. Interfaol yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, amaliy mashg‘ulotlar va pedagogik simulyatsiyalar orqali talabalar kasbiy faoliyatga tayyorlanishi, ularning metodik, kommunikativ, AKT va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritiladi.

Tayanch so‘zlar: pedagogik ta’lim nazariyasi, maxsus kompetensiya, interfaol metodlar, AKT, metodik tayyorgarlik, refleksiya, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются содержание и педагогические условия развития специальных компетенций студентов в процессе преподавания теории педагогического образования. Анализируются эффективные методы, такие как интерактивное обучение, цифровые технологии, практические занятия и педагогические симуляции, направленные на формирование методической, коммуникативной, ИКТ и рефлексивной компетентностей будущих педагогов.

Ключевые слова: теория педагогического образования, специальные компетенции, интерактивные методы, ИКТ, методическая подготовка, рефлексия, образовательные технологии.

Annotation. This article examines the content and pedagogical approaches to developing students’ special competencies in the process of teaching the theory of pedagogical education. It analyzes effective methods such as interactive learning, digital

technologies, practical training, and pedagogical simulations aimed at enhancing methodological, communicative, ICT, and reflective competencies of future teachers.

Keywords: theory of pedagogical education, special competencies, interactive methods, ICT, methodological training, reflection, educational technologies.

Kirish. So‘nggi yillarda Respublikamizda ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy talablar asosida yangilash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagogik ta’lim sifatini oshirish, kasbiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda ilg‘or yondashuvlar va didaktik tamoyillarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu jarayonda o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlash, ta’lim oluvchilarda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda pedagogik ta’limning mazmuni chuqur o‘zgarib, kompetensiyaviy yondashuv asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Pedagogik ta’lim nazariyasini puxta egallagan talabalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan maxsus kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi zarur.

Zamonaviy ta’lim tizimida mutaxassis tayyorlashda asosiy e’tibor faqat nazariy bilimlarni egallashga emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishga qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda maxsus (kasbiy) kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kompetensiyalar kelajakdagi o‘qituvchining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Maxsus kompetensiya haqida gapirganimizda pedagogik ta’lim nazariyasiga to’xtalamiz, chunki pedagogik ta’lim nazariyasi — ta’lim jarayonining mazmuni, shakli, vositalari va natijalarini ilmiy asosda o‘rganadigan nazariy tizimdir. U o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini tahlil qiladi, samarali ta’limni tashkil etishning metodologik asoslarini belgilaydi va pedagogik amaliyotni ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Ta’lim nazariyasida kompetensiyaviy yondashuv mavjud.

Kompetensiyaviy yondashuv - zamonaviy pedagogik nazariyada eng dolzarb yondashuvlardan biri bo‘lib, talabaning faqat bilimga emas, balki kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda quyidagi kompetensiya turlari ajratiladi:

- kasbiy kompetensiya – kasbiy bilim va malakalar majmui;
- metodik kompetensiya – ta’lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etish qobiliyati;
- ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar jamoada ishlash, fikr bildirish, muomala qilish ko‘nikmalari.
- kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim talabaning kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydi, zamonaviy mehnat bozoriga moslashuvchan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Shunday qilib, pedagogik ta’lim nazariyasi o‘z rivojlanishida turli yondashuvlar va metodologiyalarni qamrab olgan bo‘lib, har biri ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shularga to’xtalganimizda maxsus kompetensiya haqida quyidagilarni aytish mumkun:

Maxsus kompetensiyalar – bu pedagogik faoliyatning aniq vazifalarini samarali bajarishga xizmat qiladigan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integratsiyalashgan tizimidir. Ular pedagogik kasbning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi va rivojlanadi.

Hozirgi vaqtda milliy ta’lim tizimi modernizatsiya qilinmoqda va uni qayta tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari belgilanmoqda: ta’limning global raqobatbardoshligini ta’minlash, uning zamonaviy ijtimoiy va jahon tendentsiyalariga muvofiqligi, barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash. Shu munosabat bilan o‘qituvchining modeli yuqori darajadagi mas’uliyat, kompetensiya, muloqot moslashuvchanligi, ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar va ijtimoiy ongning axloqiy me’yorlari bo‘yicha mutaxassis sifatida o‘zgartirilmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, kompetentsiyalarni shakllantirishning birinchi qadamlari bu "hayotiy ko'nikmalar" (shaxsiy muammolar, stressni yengish; vaqtni boshqarish; ko'rsatmalarni tushunish, qoidalarga rioya qilish; hujjatlarini rasmiylashtiris, hmatn va raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash va tizimlashtirish; matnlarni yozish va gapirish; ishbilarmonlik aloqalarini amalga oshirish; faol bo'lish, nostandart yechim taklif qilish, o'z nuqtai nazarini aql bilan himoya qila olish) va o'z fanini o'rgatishdir.

Ta'lim jarayonining vazifalari shaxslararo darajada, yaqin muloqot jarayonida hal qilindi: o'quvchi - o'quvchi, o'quvchi - jamoa, o'quvchi - o'qituvchi.

Pedagogik ta’lim yo‘nalishida ta’lim oluvchilar uchun quyidagi maxsus kompetensiyalar muhim hisoblanadi:

1. Metodik kompetensiya

Ta’lim jarayonini loyihalash, dars tahlili va rejalashtirish, didaktik vositalardan samarali foydalanish.

2. Kommunikativ kompetensiya

O‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, konfliktlarni boshqarish, pedagogik nutq madaniyatiga ega bo‘lish.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kompetensiyasi

Elektron pedagogik resurslardan foydalanish, onlayn ta’lim platformalarida ishlash, raqamli kontent yaratish.

4. Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi

Sinfda ijobiy psixologik muhitni yaratish, ta’lim jarayonini boshqarish, monitoring va baholash tizimlarini qo‘llash.

5. Kasbiy-refleksiv kompetensiya

O‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish,

Doimiy o‘zini rivojlantirishga intilish.

Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida har xil metodlarni qo‘llash mumkun bular:

Pedagogik ta’lim nazariyasini o‘qitishda quyidagi metodlar yuqori samaradorlik beradi:

Interfaol metodlar:“Aqliy hujum”,“Blits-so‘rov”,“Juftlikda ishlash”,

“Bahs-munozara”. Bu metodlar talabalarning faolligini oshiradi, tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Amaliy mashg‘ulotlar: Dars ssenariylari tuzish, metodik qo‘llanmalar yaratish, pedagogik vaziyatlarni yechish bo‘yicha treninglar.

Simulyatsiya va rol o‘yinlari: Talabalar amaliy pedagogik vaziyatlarga kirishadi, bu ularning refleksiv hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Raqamli pedagogika elementlari: Videodarslar tahlili, onlayn platformalarda testlar yaratish, virtual laboratoriyalar.

O‘quv jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning afzallik tomonlarini ko’rsatib o’tamiz :

Xulosa. Ta’lim amaliyotga yo‘naltiriladi, talabaning kasbiy faoliyatga tayyorligi oshadi. Mustaqil ta’lim, tadqiqot olib borish ko‘nikmasi shakllanadi. Shaxsiy yondashuv prinsipiga amal qilinadi. Talaba ta’limning faol subyektiga aylanadi.

Pedagogik ta’lim nazariyasini o‘qitishda maxsus kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat o‘qituvchi tayyorlash sifatini oshiradi, balki kelajak pedagogining kasbiy mahoratini mustahkamlaydi. Interfaol metodlardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, amaliy mashg‘ulotlar va refleksiv yondashuv talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Abdullaeva, Q. Pedagogika: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

2.Yo‘ldoshev, J., Usmonov, S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

3.Hoshimov, Q., & Tolipova, J. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. — Toshkent: Fan, 2019.

4.Saidahmedov, N. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Tafakkur, 2022.

5.Xamitov, A. Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

6.Zimnyaya, I. A. Ключевые компетенции как результат образования. — Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
7.Выготский, Л. С. Психология обучения школьника. — Москва: Педагогика, 2018.

8.Khutorskoy, A. V. Компетентностный подход в образовании. — Москва: ИНФРА-М, 2017.

9.Anderson, L., & Krathwohl, D. A Taxonomy for Learning, Teaching and Assessing. — New York: Longman, 2001.

10.Салиева, Н. С. (2023). Понятия «компетенция» и «компетентность». *Европейский журнал междисциплинарных исследований и разработок* , *16* , 316-321.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

GERMINEVTIK YONDASHUV ORQALI TALABALARNING KREATIV QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH

*p.f.d. professor **Kaziyeva Turg’unoy Tursunbayevna***
Andijon davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri
Gmail: turgunoy_kaziyeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning ijodiy qobilyatini, tafakkurini rivojlantirishda germenevtik ta’limotni oid ma`lumotlar va islohotlar yoritilgan bo`lib, kelajakda mutaxassis faoliyati uchun kerakli yangicha dunyoqarash hamda yangicha usulda ularni tatbiq qilishda aynan germenevtikaning roli muhim bo`lgan ahamiyati to`la yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Germenevtika, falsafa, tarix, lug`atshunoslik, tafakkur, ong, adabiyot, tahlil, tavsir, sharq, uyg`onish davri, kreativlik, kompitentlik.

KIRISH. Talim , fan va izlanish olib borish chegara bilmaydi, balki eng yangi bilim va ko`nikmalarni ulashish orqali insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bir nechta xalqlar taqdiriga daxldor bo`lgan muammolarga birgalikda yechi toppish orqali mamlakatlar orasidagi do`stlik va hamkorlik rishtalarini mustahkamlaydi.

Sharq faylasufi Konfutsiy “Bilimsizlik insoniyat uchun eng qorong’u tundir”degandi. Haqiqatdan ham bilim ilm olish baxtga erishish farovon farovon yashshning sanalgan yoli oltin kalitidir.Bu jarayonning to`g`ri va tizimli tashkil etilishi esa bevosita ta`lim xususan oliy talim tizimiga unda boy korsatayotgan islohotlarga bog’liq.

Bilim olish taraqqiyotning bosh omilidur.Xadisi sharifda xam “Avvalo olim bo`l, laoqal ta`lim oluvchi yoki tinglovchi ilmu ulamoni sevuvchi bo’lgin”deyiladi. Bunday da`vat har birimizni ta’lim olish va ilmli insonlarni qadrlashga undab turadi.Qayerda ilmu ma`rifat kuchli bo’lsa osha yer baxt maskani hisoblanadi. Uchinchi renesansga kuchli bilim va tafakkur orqali erishilishini muhtaram Prezidentimiz ko`p bora ta`kidlaganlar.Shuning uchun uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichida yoshlarni bilimli va yetuk inson sifatida rivojlantirish biz ziyolilarning asosiy burchimizdir.

O`zbekiston respublikasi mustaqillikaa erishganidan so`ng barcha jabhalarda bo`lgani kabi ta`lim va fan sohasida ham turli hildagi yangilanishlar olib borilmoqda. Davrlar o`zgaraveradi, unga mos ravishda taraqqiyot o`zanlari ham. Biroq insoniyat oldidagi asosiy missiya bo`lgan izlash-topish –qo`llash amaliyoti hech qachon eskirmaydi. Insonlar savollar ichida yashaydi, biriga javob topilishi bilan keyingisi ko`ndalang turadi. Albatta,

yechimlar o`z-o`zidan kelinmaydi, buning uchun izlaniladi, kitoblar varaqlaniladi, ma`lumotlar to`planilib tahlil qilinadi. Bu esa butun bashariyat ilm fanga muhtojligini anglatadi. Chunki, savollardan iborat olamda yashab bo`lmaydi, qayerdadir ularga yechim topilishi shart. Hozirga qadar olimlar nafaqat yer sayyorasi, balki koinotdagi o`nlab jumboqlarga yechim topdi, sirli hodisalarning sabab va oqibatlarini tahlil qildi, tushuntirdi. Ammo mo`jizalardan iborat biz yashayotgan hayotda bilmaganlarimiz bilganlarimizdan ko`p.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Talabalar o'quv faoliyatini tashkil etishning pedagogik-psixologik, metodik jihatlari N.D.Sagindikova, Sh.Taylanova, A.A.Xoliqov, C.Mamashokirov, I.A.Uzakov, H.X.Jo'raqulova, I.C.Ergashev va boshqa olimlarning, bo'lajak mutaxassislarda anlash masalalarini shakllanishining psixologik masalalari N.C.Safaev, O.V.Tenyaeva, E.G'.G'oziev kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ishning metodologiyasi quyidagilardan iborat: Germenevtika bu qadimiyligi sababli asl ma`nosi tushunarsiz bo`lgan matnlarni tushunish va talqin qilishni o`rganuvchi san`at hisoblanadi. Yunonchadan olingan ushbu so`z “Tushunishish va tushuntirish o`qituvchisi” deb ham talqin qilinadi.

Germenevtika qadimgi yunonistonda paydo bo`lgan bo`lib, o`rta asrlarda germenevtikaning vazifasi faqatgina injilni sharxlash bo`lib qoldi. Uyg`onish davrida esa anglash san`ati rivojlanishi bilan o`sha paytdagi germenevtika ham milliy tillarga tarjima qilish asosi deya qaraldi. 19-asrda esa germenevtika tarixiy bilimlarnining eng muhim uslubiga aylandi. M.Haydeggerning ta`kidlashicha germenevtika o`tmishdagi madaniyat asarlarini talqin qilishning metodologik masalalari bilan cheklanib qolmay, u insoniyat mavjudligining asosiy tuzilmalari, voqelikka munosabatini ham yoritadi.

Bugungi kunda aynan yangi bilimlar va yangi kashfiyotlar aynan kashf qilinishi va tatbiq qilinishi uchun adabiyotlar bilan faol ishlash ko`nikmasini shakllantirish va eski tushunchalarni yangicha talqin qilish muhim masaladir. Buning uchun aynan matnlar bilan va manbalar bilan ishlash texnikasini oshirish va bilimlarni zamonaviy tahlil va talqin qilish juda muhimdir.

Germenevtikaning bu jihatlari bugungi zamonamizga biroz moslashmagan va bugungi kunning o`z germenevtikasi mavjud. Bugunning germinevtikasi aynan bugungi talablarga moslashadi. Bugungi yosh avlod har tomonlama mukammallika intilar ekan, yangicha dunyoqarash bilan birgalikda tarixiy obidalardan ham foydalanish va yangicha usulda ularni tatbiq qilish aynan germinevtikaning rivoji uchun hizmat qilmoqda. Aynan tarixiy matnlar ustida ishlsh orqali kreativlikni rivojlantirib, yangi bilimlarga erishish bugunning dolzarb masalasidir. Bunda talabalardagi aynan kreativlik qobilyati yanada shakllanishi ko`zda tutiladi.

Bugungi kunga kelib esa, matnlarni tahlil qilish va yangi bilimlarni ochish juda katta ehtiyoj tug`dirayotgan masaladir. Germinevtikaga asoslangan yangi bilimlar tarixiy ahamiyati va bugungi kundagi asl va yangicha ma`nosi bilan bir qarashda o`zaro mosdek va bir qarashda qarama qarshi hamdir. Qaysi nuqtai nazardan olib qarasakda aynan matnlarni tahlil qilish har bir sohada ko`plab yangilik va yutuqlarni ochilishiga hizmat qilmoqda. Masalan, dinshunoslik germinevtikasi diniy kitoblarni tafsirlash bilan bir qatorda, bugungi kundagi eng kerakli fatvolarni chiqarishga hizmat qilsa, filologik germinevtika aynan matnlar bilan o`zaro ishlash va bir tildan tarjima qilingan matnning aynan tub ma`nosini o`zgargan va o`zgarmaganligini tahlil va talqin qilishga hizmat qiladi. Huquqiy germinevtika esa , muayyan sohadagi tegishli qarorni muhokama qilish va asl ma`nosini va tegishli ijrosini ta`minlashga hizmat qiladi. Bundan tashqari bugungi kundagi matn tahlil qilish va uning tub mohiyatini eng to`g`ri namunasini ochish ishi ko`zlangan maqsadning ko`ringan yutug`i hamdir. Chunki, asl ma`nosi topilgan va yangilik uchun tayyorlangan materialda joylashgan asl mohiyatni boshqarish faqat uni tahlil qiluvchi shaxs- Germinevtning qo`lida bo`ladi. Aynan germinevt o`zining tahlilidagi asl ma`no va mazmunni kerakli tomonga yo`naltiradi va boshqaradi. Bu esa aynan ko`zlangan yangilikning asl mohiyatini to`la ochib berishga hizmat qiladi. Bu nuqtai nazardan olib qarasak, Germinevtikaning eng katta yutug`i ham shundadir. Hulosa qilib aytganda, matnni tahlil qilish va undagi yangi bilimlarni ochish fan va ta`lim sohasida umumjahon standartlar va etalonlarni joriy etishga yordam beradi, eng yangi bilim va tajribalarni almashishga va yaratishga hizmat qiladi, “ chegara bilmas bilim” yo`llarini ochishga , ta`lim va tadqiqotchilik institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ta`lim tizimida yangi bilimlar ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.Bularning barchasi matn tahlilidagi olingan bilimga kreativ yondashuvni asosidir.

Germenevtikani talqin qilish va tushunish usullariga murojaat qilish zarurati tarixchi-tadqiqotchining, birinchi navbatda, har xil turdagi matnlar bilan ishlashi bilan izohlanadi. Tushunish doirasining kengayishi germenevtik doiraning to'rtinchi ishtirokchisi - potentsial o'quvchi-talabalar o`rtasida amalga oshadi va talabalar orqali o'tadi, u kitob haqida ma'lumotni birinchi o'qituvchining og'zaki yoki reklama tasviri orqali oladi. Birinchi o'quvchining ma'nolari ikkinchi o'quvchining tegishli ma'nolarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, biz germenevtik doirani yangi tushuncha orbitasiga olib boradigan ushbu to'rtinchi ishtirokchi orqali "ma'no birligini kengaytiruvchi konsentrik doiralar" haqida gapirishimiz mumkin bo`ladi. Bu esa fanda gadamer taktikasi deyiladi. Aynan gadamer taktikasini kreativlikka yo`naltirish orqali esa talabalarda kreativlikka bo`lgan qiziqishni yanada orttirish va bugungi kundagi davlat siyosati darajasiga aylangan innovatsion yangidan yangi g`oyalarni ommaviy targ`ibot qilishga eishish mumkin. Talabalarning tinglab tushunish, anglash va kreativ yondashish qobiliyatlarini rivojlantirishda germenevtik ta'limotni amalga oshirish texnologiyalari tahlil qilindi va rivojlangan davlatlar bilan solishtirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Matnni tushunish jarayonida talabalarga matn tuzish va ustida ishlash yuzasidan beriladigan bilim , ko`nikma va malakalarni, ta`lim vositalari , metod va usullarini ishlab chiqishda amal qilinadigan asosiy yondashuv va tamoyillarni belgilash maqsadga muvofiq bo`ladi. Buning uchun o`qituvchi talaba bilan kreativlikka asoslangan muloqotni shakllantirmog`i lozim bo`ladi. Talabalarda matnni tahlil qilish orqali axborot olinadi. Unda o`sha axborotga nisbatan tushuncha va hissiy munosabat shakllanadi. Natijada har bir talabada olingan ma`lumotga nisbatan individual qarashlar namoyon bo`ladi. Bu esa yangi g`oyani, yangi innovatsion yangilikni, yangi kreativ yondashuvni keltirib chiqaradi. Mana tarixiy matnlarning yangicha ko`rinishdagi yutuqlari. Agar aynan shu metodikasi izchil qo`llanilsa, yangi ilmiy yangiliklarga ham zamin yaratiladi. Talabalardgi aynan kreativlikka asoslangan qarashlar ko`zga ko`rinarli darajada rivojlanadi.

Lev Tlstoy ta`biricha , odamlarda 97 hil kulgu, 85 hil ko`z qarashlari mavjud bo`lib, ushbu mimikalar badiiy asarda personajlarning harakterini ochishda , vaziyatni baholashda , kayfiyatni aniqlashda o`zaro munosabatda aks etadi. Shuni inobatga olsak, tarixiy matnlarni o`rganishda ham har qaysi talaba o`zgacha yondashuv va o`zgacha kreativlikka asoslanib fikrlaydi. Bu esa, aynan bir matnning yangidan yangi bilimlarini ochishda qo`l keladi.

Germenevtikada talaba tushunchani boshlang‘ich sifatida emas, o‘z ma’nosini faqat uzoq oxirida, to‘la rivojlangan milliy adabiyotda oladi, balki o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgan boshlang‘ich sifatida o‘rta asrlar adabiyoti yana o‘zgarmas paradigmaga aylanishi mumkin, chunki u xalq tillarida shakllanayotgan avtonom harakatning namoyon bo‘lishi, uning arxaik janrlari ham ideal, ham yopiq hayot haqiqatidan dalolat beradi. Tarixiy dunyo bizga muloqotning ijtimoiy (ozodlashtiruvchi yoki himoya qiluvchi) va ijodiy roli, har qanday adabiy faoliyatning roli ma'lum bir yangi nuqtai nazardan o'zini namoyon qiladigan birlamchi tuzilmalarni ochadi.

Talabalarni kreativ fikrlashga, tinimsiz o`z ustida izlanishga undovchi kuch bo`lgan o`quvchiga tanish bo`lmagan yangidan yangi bilimlarni ham aynan germenevtikaga asoslangan holda anglashimiz va yangicha tushuncha va bilimlarni keng jamoatchilikka yoyishga erishishimiz mumkin.

Ta`lim, fan va izlanish chegara bilmaydi, balki eng yangi bilim va ko`nikmalarni ulashish orqali insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bir necha xalqlar taqdiriga daxldor bo`lgan muammolarga birgalikda yechim topish orqali mamlakatlar o`rtasidagi o`zaro hamkorlik aloqalari ham mustahkamlanmoqda. Bunda ilm-fan rivoji uchun boshqa mamlakatlarning adabiyotlari va milliy meroslarini o`rganish va chet el adabiyotlarini o`zimizga qiyoslab tahlil qilish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Aynan germenevtika tafakkurni boyitish va ta`limni yuqori samaradorlikka olib chiqishda bizga dasturul amal bo`lib hizmat qiladi.

Tadqiqot usullari: taqdim etilgan muammolarni hal qilish va ilgari surilgan gipotezani sinash uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: umumiy nazariy: o'rganilayotgan muammo bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan falsafiy, pedagogik, psixologik,

uslubiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish; umuman olganda va gumanitar, xususan, umumiy ta'limni modernizatsiya qilish siyosati va amaliyotini belgilaydigan davlat hujjatlari to'plamini tahlil qilish; empirik: eksperimental- eksperimental ish, kuzatish, sinov va so'roq qilish; eksperimental ma'lumotlarni statistik qayta ishlash usullari.

XULOSALAR.

Ushbu ma'noda talabalarning kreativ fikrlashi, tafakkurini rivojlantirishda germenevtik ta’limotni oid ma`lumotlar, ayniqsa tarixiy matnlar va islohotlar yoritilgan ilmiy muammo sifatida yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mavjud vaziyatni tahlil qilish va ko'plab nashrlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon berdi:

Narsa-hodisalar mohiyatini tushunish va tushuntirish fan oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri ekan, germenevtik tadqiqotlar mohiyatini o‘rganish ma’naviy – ma’rifiy tarbiya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Germenevtik metodologiya asosida ijtimoiy-siyosiy hodisalar mazmunini talqin qilish, ular mohiyatini tushunish mustaqil bo‘lganiga ko‘p bo‘lmagan O‘zbekiston tarixi, milliy merosi, tafakkur uslubi va dunyoqarashidagi o‘zgarishlarni chuqur tahlil etish va shu asosda ularga mustaqil munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Global o‘zgarishlar, axborot oqimi ko‘lami oshayotgan bir paytda, milliy qadriyatlar mazmunini tushunish bilan birga, o‘zga madaniyatlarni ham anglash davr talabidir.

Har bir sohani o`z taraqqiyot yo`li bor. Bunda tajribalar, davlatlar , soha harakatini ta`minovchi ishtirokchilar , ularning tili, millatu mentalitetiga qarab turlicha shakllanadi. Amalda qo`llanilganlarning barchasi ham omadli omadli bo`lavermaydi. Ularda samara va samarasizlik koeffitsienti yonma-yon yuradi. Ammo, tahlil, o`rganish, taqqoslash kabi indukatorlar ham borki, ular qilinajak yangiliklar muvafaqqiyatini 70 foizga bo`lsada kafolatlaydi. Shuning uchun butun dunyo tajribalarini sinchiklab o`rganish va tahlil qilish va shu asosda yangi bilimlar yaratish doimo oldinda turadi. Tarixiy matnlarni tahlil qilish orqali talabalardagi aynan kreativlikka oid yangidan yangi bilimlarni shakllantirib borish esa bugunning dolzarb masalalaridan biri bo`lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022

2. Diltey. V. Germenevtika i teoriya literaturi. Sobr. soch. v 6 t. — M.: Dom intellektualnoy knigi, 2001. - T. 4.

3. Jabborov Sh., Abdushukurov B. Sharq germenevtikasining o‘ziga xos xususiyatlari. –Toshkent: Akademiya, 2013.

4. Nazarov Q Jahon falsafasi tarixidan lavhalar /. tahriri ostida. -Toshkent: Sharq, 2005.

5. Jumaniyozov R. Ta’lim, tarbiya, tafakkur, taraqqiyot. –Toshkent: Abu Matbuot-konsalt, 2015.

6. Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

7. Jervolino D. Paul Ricouer: une hermeneutique de la condition humaine / D. Jervolino. P., 2003.

8. Izer V. Problema perevodimosti: germenevtika i sovremennoye gumanitarnoye znaniye: Leksii, prochitanniye na filologicheskom fakultete Moskovskogo universiteta. Per. s angl. -M.: 2009.

9. www.wikislovar.ru

10. http://www.philosophypages.com/dy/

11. http://www.seop.leeds.ac.uk/entries/husserl/

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi v.b dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
+99890-870-95-79
nasibaxolbozorova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada biz shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellektini rivojlantirish metodikasini yoritdik, o‘quv jarayonida refleksiya, ijodkorlik, kommunikativ kompetensiya va analitik tafakkurni shakllantirish imkoniyatlarini ochib berdik.

Kalit so‘zlar: shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, pedagogik intellekt, metodika, refleksiya, zamonaviy ta’lim, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract. In this article, we have highlighted the methodology for developing the pedagogical intelligence of future teachers based on a person-centered approach, revealing the possibilities of forming reflection, creativity, communicative competence and analytical thinking in the educational process.

Keywords: person-centered approach, pedagogical intelligence, methodology, reflection, modern education, professional training.

Аннотация. В статье представлена методика развития педагогического интеллекта будущих учителей, основанная на личностно-ориентированном подходе, раскрывающая возможности формирования рефлексии, креативности, коммуникативной компетентности и аналитического мышления в образовательном процессе.

Ключевые слова: личностно-ориентированный подход, педагогический интеллект, методика, рефлексия, современное образование, профессиональная подготовка.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi nafaqat bilim va amaliy ko‘nikmalar majmuasi, balki uning pedagogik intellekti darajasiga ham bevosita bog‘liq hisoblanadi. Pedagogik intellekt – bu o‘qituvchining ta’lim

jarayonidagi vaziyatlarni tahlil qilish va moslashuvchan fikrlash, didaktik qarorlar qabul qilish hamda o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish va tarbiyaviy jarayonda yuzaga keluvchi murakkab holatlarni boshqarish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya o‘qituvchi shaxsining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar pedagogik intellektni rivojlantirishni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ana shunday zamonaviy talablar orasida muhim va asosiy o‘rin egallaydi. Bu yondashuv ta’lim jarayonida har bir talabaning qiziqishi, ehtiyoji, individual imkoniyatlari hamda rivojlanish sur’atlarini hisobga olishga va uni shaxs sifatida qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Shaxsni markazga qo‘yish orqali pedagogik jarayonning mazmuni o‘zgarib, ta’lim “tayyor namunani takrorlash”dan “shaxsiy tajribani boyitish va shakllantirish”ga yo‘naltiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bu jarayon ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki ular kelgusida shu tamoyil asosida ta’lim beruvchi mutaxassislar sifatida shakllanadi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari J. Dyui, K. Rodjers, L. Vyotskiy kabi pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda shaxsning individual rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olish ta’lim jarayonining muhim tamoyili sifatida e’tirof etilgan. So‘nggi yillarda pedagogik intellekt tushunchasi ham ilmiy izlanishlarda keng e’tirof etilmoqda. Biz tahlillar natijasida shuni ko‘rishmiz mumkinki, ko‘plab tadqiqotlar intellektning kognitiv jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga yo‘naltirilgan intellektual salohiyatini rivojlantirish metodikasi to‘liq ishlab chiqilmagan.[2]

Tadqiqot metodologiyasi sifatida kompleks yondashuv qo‘llangan. Dastlab nazariy tahlil orqali shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda pedagogik intellekt va kasbiy kompetensiya haqidagi ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Keyinchalik pedagogik diagnostika usullari yordamida talabalarning intellektual rivojlanish darajasi aniqlanib, o‘quv jarayoniga mo‘ljallangan tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Interaktiv mashg‘ulotlar, reflektiv topshiriqlar va muammoli vaziyatlar asosidagi metodlar tadqiqotning amaliy asosini tashkil etadi. Olingan natijalar statistik tahlil orqali baholanib, metodikaning samaradorligi ilmiy xulosa bilan asoslab beriladi.

MUHOKAMA

O‘tkazilgan tadqiqotlar ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar samaradorligini chuqur tahlil etish imkonini berdi. Natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi dars jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarni yecha olishi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Qolaversa, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsning mazmunini boyitib, o‘quvchilarni bilimni tayyor qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi va tahlil etuvchi subyektga aylantiradi. Tadqiqot jarayonida kuzatilgan yana bir muhim jihat shundan iboratki, o‘qituvchi va o‘quvchi

o‘rtasidagi samarali muloqotning o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi. Muloqotning ochiq va ravon bo‘lishi, o‘quvchi fikrlariga hurmat bilan yondashish motivatsiyaning oshishiga hamda rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, o‘quv vazifalarini hayotiy misollar bilan boyitish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga imkon beradi. Tadqiqot natijalari asosida shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun interfaol metodlar hamda ijodiy topshiriqlar va mustaqil izlanishga yo‘naltirilgan yondashuvni keng qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ko‘ra shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellektini rivojlantirish metodikasi samaradorligini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. O‘tkazilgan diagnostik kuzatuvlar, eksperimental mashg‘ulotlar hamda o‘quv jarayoniga joriy etilgan innovatsion metodlarning ta’sirini baholash natijaslarida bir qator muhim va asosiy ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi. Avvalo, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan muntazam foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarda reflektiv fikrlash hamda o‘quv jarayonini mustaqil tahlil qilish va pedagogik vaziyatlarni matematik mantiq asosida baholash kabi ko‘nikmalar sezilarli darajada kuchayganini ko‘rsatdi.

Eksperimental guruh ishtirokchilari bilan an’anaviy metod asosida o‘qitilgan nazorat guruhi o‘rtasida kuzatilgan farqlar shuni anglatadiki, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarni pedagogik jarayonda faqat bilim oluvchilar sifatida emas, balki faol sub’ekt sifatida rivojlantiradi. Tadqiqot davomida eksperimental guruh tinglovchilarining pedagogik intellektni tashkil etuvchi komponentlari — analitik fikrlash, kommunikativ madaniyat hamda moslashuvchan pedagogik qaror qabul qilish va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati — aniq o‘sish dinamikasiga ega bo‘ldilar. Shuningdek, dastlabki diagnostikada o‘rta darajada baholangan reflektiv kompetensiya yakuniy test natijalariga ko‘ra yuqori darajaga ko‘tarilgan.

Metodikaning yana bir muhim samarasi shundan iborarki, bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini baholash va o‘z ustida ishlash ehtiyojining ortishiga olib keldi. Ular o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqroq anglashni boshladilar hamda pedagogik jarayonning subyekti sifatida o‘z mas’uliyatini chuqurroq his etdilar. Bu esa pedagogik intellektning rivojlanishi uchun poydevor vazifasi bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni aytish mumkinki, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliyotda ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtiruvchi kuchli omillardan biri hisoblanadi. Metodika pedagogik intellektning tarkibiy qismlarini uyg‘un shakllantiradi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va pedagogik farosatni shakllantiradi hamda kelajakda ularning malakali, kompetent o‘qituvchi bo‘lib yetishishiga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Yakuniy tahlillardan shuni ko‘rish mumkinki, o‘rganilgan jarayon hamda tamoyillar tizimli yondashuv asosida izchil amalga oshirilganda kutilgan natijalar samarali namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida ta’kidlangan ilmiy g‘oyalar mazkur yo‘nalishda yangi imkoniyatlarni yaratish va ishga solish, mavjud muammolarni bartaraf etish hamda amaliyotda qo‘llash uchun muhim metodik asos yaratadi hamda taklif etilgan yechimlar kelajakda tegishli sohada innovatsion yondashuvlarni shakllantirish, sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu xulosalar mavzuni yanada chuqur o‘rganish zarurligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jo‘rayev, N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 245 b.

2. Rasulov, R. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 312 b.

3. Qodirova, F. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021. – 198 b.

4. Mamarajabov, A. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 276 b.

5. Yusupova, M. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2022. – 230 b.

6. Shodmonova, Z. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning pedagogik asoslari // Pedagogik izlanishlar jurnali. – 2022. – №3. – 45–52-betlar.

7. Xolbozorova N. Differensial yondashuv asosida ona tili ta’limida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi” (boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi misolida). Xalq ta’limi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2024-yil 6-son Noyabr-Dekabr. 59-62-b.

8. Xolbozorova N. Differensial yondashuv asosida ona tili ta’limida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning istiqbollari (boshlang‘ich talim yo‘nalishi misolida). Til va adabiyot.uz ilmiy-metodik elektron jurnal, Dekabr 2024-yil 20/1-son . – B. 53-55.

9. Xolbozorova N. Personal Development of Students in Higher Education. Journal of Pedagogical Inventions and Practices https://zienjournals.com ISSN NO: 2770-2367 Date of Publication: 10-05-2023. 52-56-b.

10. Xolbozorova N. The importance of the technological approach in the development of the educational system. Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) volume 05 issue 04 sjif impact factor (2022: 6. 013) (2023: 7. 266) (2024: 8.125) oclc – 1242041055. Crossref doi: https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-04-10 . April 30, 2024 . 51-57-p

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TEACHING ENGLISH AT DIFFERENT AGE STAGES

Ramazonova Nafisa Ixtiyor qizi
Teacher, Department of Uzbek Language and Literature,
Russian and English Languages,
Abu Ali Ibn Sino Bukhara State Medical Institute
nafisaramazonova509@gmail.com
99899-572-54-57

Abstract.This article explores the methodological, psychological, and linguistic principles of teaching English at different age stages, focusing on early childhood, primary school learners, adolescents, and adult students. The study examines age-specific cognitive characteristics, motivational factors, and language acquisition patterns that influence the effectiveness of English language instruction. Special attention is given to pedagogical approaches such as communicative language teaching (CLT), task-based learning (TBL), and age-adapted techniques including play-based learning, differentiated instruction, and problem-solving tasks. The article also highlights the challenges teachers encounter when working with diverse age groups and provides evidence-based recommendations for optimizing learning outcomes. The findings emphasize the importance of tailoring teaching strategies to learners' developmental needs in order to ensure successful language acquisition across age stages.

Keywords: English language teaching, age characteristics, methodology, early childhood learners, adolescents, adults, cognitive development, motivation, language acquisition, differentiated instruction, pedagogy.

Аннотация. В этой статье рассматриваются методологические, психологические и лингвистические принципы преподавания английского языка на разных возрастных этапах, особое внимание уделяется дошкольникам, учащимся начальной школы, подросткам и взрослым учащимся. В исследовании рассматриваются возрастные когнитивные особенности, мотивационные факторы и модели овладения языком, которые влияют на эффективность обучения английскому языку. Особое внимание уделяется таким педагогическим подходам, как коммуникативное обучение языку (CLT), обучение на основе задач (TBL) и адаптированные к возрасту методы, включая игровое обучение, дифференцированное обучение и задания на решение проблем. В статье также освещаются проблемы, с которыми сталкиваются учителя при работе с разными возрастными группами, и даются основанные на фактических данных

рекомендации по оптимизации результатов обучения. Полученные результаты подчеркивают важность адаптации стратегий обучения к потребностям развития учащихся, чтобы обеспечить успешное овладение языком на разных возрастных этапах.

Ключевые слова: обучение английскому языку, возрастные особенности, методика, учащиеся раннего возраста, подростки, взрослые, когнитивное развитие, мотивация, овладение языком, дифференцированное обучение, педагогика.

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini turli yosh bosqichlarida o'qitishning metodologik, psixologik va lingvistik tamoyillarini o'rganib chiqadi, bunda erta bolalik, boshlang'ich maktab o'quvchilari, o'smirlar va kattalar o'quvchilariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot ingliz tilini o'qitish samaradorligiga ta'sir qiluvchi yoshga xos kognitiv xususiyatlar, motivatsion omillar va tilni o'zlashtirish naqshlarini o'rganadi. Kommunikativ tillarni o'qitish (CLT), vazifalarga asoslangan ta'lim (TBL) va yoshga moslashtirilgan texnikalar, shu jumladan o'yinga asoslangan ta'lim, tabaqalashtirilgan o'qitish va muammolarni hal qilish vazifalari kabi pedagogik yondashuvlarga alohida e'tibor beriladi. Maqolada, shuningdek, o'qituvchilarning turli yosh guruhlari bilan ishlashda duch keladigan muammolari yoritilgan va o'quv natijalarini optimallashtirish bo'yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar berilgan. Topilmalar yosh bosqichlarida tilni muvaffaqiyatli egallashni ta'minlash uchun o'qitish strategiyasini o'quvchilarning rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, yosh xususiyatlari, metodikasi, erta yoshdagi o'quvchilar, o'smirlar, kattalar, kognitiv rivojlanish, motivatsiya, tilni o'zlashtirish, tabaqalashtirilgan o'qitish, pedagogika.

Introduction

It is well known that education in our country, like all other fields, is developing year by year. The clear result of this is the opportunities created for young people by our President, such as the 'Young Reader' competition, the 'Minister's Scholarship', the 'Governor's Scholarship', and the 'Best Foreign Language School' award. Year by year, the age of language learners has been decreasing. While English used to be taught from the 5th grade, it is now taught from kindergarten and the 1st grade of school. This gives learners the opportunity to acquire language skills earlier and faster. As proof of this, almost every day we see in social networks that young people from different parts of Uzbekistan are obtaining language certificates or achieving the highest scores in IELTS exams.

Preschool Learners (3–5 years old)

Preschool children usually lack motivation for new knowledge, their thoughts are scattered, and they are very energetic and playful. It is difficult to keep them quiet and attentive in class. Based on my experience, working with preschool children can be challenging because it requires constant play, singing, and movement. At this stage, the kinesthetic learning style dominates. For example, when children sing and dance to songs

like 'Peel Banana' or 'Head, Shoulders, Knees and Toes', repeating them two or three times is enough for memorization, since they perform them with actions and thus remember easily. Doing some exercises or performing dances with them makes them happy and more memorable. In one word, they learn via jumping, singing, dancing or imitating.

Younger students are always asking questions. They are hungry to discover, to uncover, to find answers that will enable them to make sense of the world around them. They pose questions not to be annoying or to interrupt, but to satisfy their innate desire to learn. They form hypotheses and test them, build on findings and retest and revise their theories, the basis of logical thinking. Children delight in becoming experts in some field - identifying obscure dinosaurs, explaining how a toy works, or acting like a teacher with precision of gesture and speech. The challenge for a teacher is to guide this relentless curiosity in the direction of student growth without stifling it, by joining students in the inquiry process and providing rich opportunities for discovery, for building.

Primary School Learners (6–12 years old)

"Try to explain to the four- or five-year-old a “tomorrow,” or a “yesterday,” or even to wait until “later.” For the child time is “now." said Burton Rod[24]

At this age, it is a bit difficult to keep students focused, and they may get bored of writing and repetition. Because they are in process of adapting to school and they have the nature of playfulness. Therefore, using topic-related games, breaks, and physical activities, contributes to the effectiveness of lessons. "Jigsaw reading", "Who is a winner?", "Kill the Fly', 'Who am I?', brainstorming, and group works and other didactic games are considered as an example of these activities. Interactive and game-based methods increase interest in language. Visual aids (cards, pictures, real objects) help with understanding and memorization. Creating routines and regularly repeating key vocabulary strengthens retention. Parental involvement is also essential, as revising at home improves learning outcomes.

Young students excel at play. A key measure of a species’ intelligence is how young members behave – all intelligent animals engage in play (Ackerman, 1999). Primary learners are at a stage where their learning ability and brain development are at the highest levels, and evolution has equipped them with an innate urge to harness that potential through play. It’s no wonder that children enjoy acting and interacting rather than just passively listening. It’s in their nature. Play provides primary students with the environment to cultivate essential skills that are more difficult to develop in rigid settings – intricate decision-making, leadership, and executive functioning. It encourages the “having of wonderful ideas.”

Secondary School Learners (13–17 years old)

High school learners differ significantly from the younger groups. Capturing their interest requires effort, as not all students are motivated to learn languages—some are

[24] EL Education - Characteristics Of Primary Learners
https://share.google/0X14PttrIG5OWvefB

interested, others study only because it is mandatory. Because they have their own interests, extra lessons, and chosen fields.Therefore, teachers need individualized approaches. Choosing topics that match their interests (movies, cartoons, celebrities, politics, sports) make learning more engaging. Social networks like YouTube grammar lessons and TikTok videos can be used to improve speaking skills.

At the same time, this age group is more disciplined, making lessons are easier to manage. Group work is also more effective. With the right approach, every student can achieve progress. According to each students level of knowledge, online games which shows your score at the end of the game like Wayground, Kahoot or Duolingo can be better option for their level and interests. They make the lesson more attractive and interesting for young learners.

During this period they may have some problems such as, lack of motivation, lack of critical thinking, afraid of making mistakes, bored of all repetition, peer pressure, stress from exams, time management, remembering facts and e.g. with their parents or studies, and it may disturb them to learn and show interest to learning something new in foreign language. That's why, teacher is required to adapt the topics of school, simplify them and try to attract to the lesson using effective teaching methods and encouragements. It supports students to become more responsible, gives the sense of interest and attention. To overcome the difficulties and encourage students to study, create positive relationships, establish routines, having a behavior plan, managing time and peer evaluations can be solutions for it.

Adult Learners (18+ years old)

Adult learners differ greatly from the previous groups. Their goals are purposeful—some want to enter universities, others plan to travel or work abroad. Adults usually have rich life experience, goals, and motivation. They can discipline themselves, but negative criticism or lack of progress may easily demotivate them. The problems of teachers may face various problems such as, adult learners know everything, sometimes they may be shy or they do not want to use coursebooks and they do not have enough time to do hometasks and etc. Adults should balance their work, family and studying.

Therefore, teachers should give constructive feedback, encourage self-correction, and highlight that mistakes are natural in learning. Practical examples, discussions, and case studies enhance motivation. Selecting materials relevant to their interests and goals and improves their proficiency. Since adult learners value respect, it is important to provide age-appropriate materials, such as online articles, menus, maps, didactic or humorous YouTube videos, and podcasts. Didactic games like matching words with themes, writing them down, doing group works, showing demonstrations or presentations, multiple choice questions, filling gaps, and defining the words are may be suitable for their ages. Another option for teaching them effectively teacher should pay attention to experimental learning, active participation, real life examples, create friendly and supportive atmosphere and teach them using their own life and work experiences

Conclusion

In conclusion, teaching languages at different ages requires different approaches. Using various didactic and scientific materials gives effective results. Interactive games, dialogues, and role-play methods develop students’ ability to apply grammar rules correctly. Although young children are often more eager to learn languages, learners at any age, with the right motivation, can achieve fluency in a foreign language.

References

1. Boliqulova F. Sh., 'Methods of Teaching English to Children of Different Ages'. International conference on modern development of pedagogy and linguistics; Volume 01, Issue 10, 2024
2. https://gujum.uz/ozbekiston/maktablarda-til-va-kasb-orgatishni-rivojlantirish-choralari-belgilandi/?imlo=l
3. https://sanako.com/how-to-teach-languages-to-different-age-groups
4. https://interoncof.com/index.php/germany/article/view/9305
5. https://esl-curriculum.com/teaching-kids-vs-adults/
6. EL Education - Characteristics Of Primary Learners https://share.google/0X14PttrIG5OWvefB

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi v.b dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
+99890-870-95-79
nasibaxolbozorova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada biz bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellektini rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rgandik. Pedagogik intellekt kontseptsiyasi, uning tarkibiy elementlari va ta’lim jarayonidagi roli tahlil qildik. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, bilim va tajriba uyg‘unligi, metodik vositalar samaradorligi nazariy jihatdan ko‘rib chiqdik.

Kalit so‘zlar: Pedagogik intellekt, bo‘lajak o‘qituvchilar, rivojlanish, nazariy asoslar, ta’lim jarayoni, metod, kompetensiya.

Abstract. In the article, we studied the theoretical foundations of the development of pedagogical intelligence of future teachers. We analyzed the concept of pedagogical intelligence, its structural elements and role in the educational process. We theoretically considered the person-centered approach, the combination of knowledge and experience, the effectiveness of methodological tools.

Keywords: Pedagogical intelligence, future teachers, development, theoretical foundations, educational process, method, competence.

Аннотация. В статье исследованы теоретические основы развития педагогического интеллекта будущих учителей. Проанализировано понятие педагогического интеллекта, его структурные элементы и роль в образовательном процессе. Теоретически рассмотрены личностно-ориентированный подход, сочетание знаний и опыта, эффективность методических средств.

Ключевые слова: Педагогический интеллект, будущие учителя, развитие, теоретические основы, образовательный процесс, метод, компетентность.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim jarayoni jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtda bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellekti muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik intellekt – bu o‘qituvchining nafaqat bilim, balki ta’lim jarayonini samarali boshqarish hamda o‘quvchilar

bilan muloqot qilish va pedagogik vaziyatlarga moslashish qobiliyati hisoblanadi. Bugungi kunda o‘qituvchi faqat ma’lumot yetkazuvchi emas, balki ta’lim sifatini oshiruvchi, kreativ va analitik fikrlashga ega mutaxassis sifatida shakllanishi darkordir. Shu bois, pedagogik intellektni rivojlantirish nazariy asoslarini chuqur o‘rganish ta’lim tizimi uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik intellekt konsepsiyasi nafaqat psixologik, shuningdek, pedagogik yondashuvlarni ham o‘z ichiga oladi. Unda o‘qituvchining pedagogik bilimlari, didaktik kompetensiyalari, kommunikativ hamda muloqot qobiliyatlari uyg‘unligi alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodikasi, refleksiya va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish kabi komponentlar pedagogik intellektni shakllantirishda asosiy vositalaridan biridir.[1]

Ushbu maqolada biz bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellektini rivojlantirishning nazariy asoslarini, uning tarkibiy qismlarini va ta’lim jarayonida samarali qo‘llash yo‘llarini o‘rganishga qaratdik. Tadqiqotning asosiy maqsadilaridan biri – pedagogik intellektning nazariy mexanizmlarini aniqlash, ta’lim jarayonida individual hamda kollektiv yondashuvlar orqali uni oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatish hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagogik intellektni shakllantirishdagi innovatsion metodlar, interaktiv texnologiyalar va shaxsga yo‘naltirilgan strategiyalarning ahamiyatini ham tahlil qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellektini rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika va psixologiya ilmiy adabiyotlarida keng yoritilib kelinmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik intellekt o‘qituvchining nafaqat bilim va ko‘nikmalarini, balki pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash hamda muloqot qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy pedagog olimlar (G. Gardner, R. Sternberg, D. Shulman) pedagogik intellektning tarkibiy elementlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratganlar. Shu bilan birga, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interaktiv metodikalar pedagogik intellektni rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.[2]

Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi tanlab olindi. Nazariy qismda biz pedagogik intellekt tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va rivojlanish mexanizmlari tahlil qildik. Amaliy qism esa bo‘lajak o‘qituvchilar bilan eksperiment, kuzatuv, test hamda so‘rovnomalar orqali ularning pedagogik intellekti darajasini aniqlashga qaratdik. Shu bilan birga, olingan natijalarni statistik hamda solishtirma tahlil qilish orqali pedagogik intellektni rivojlantirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqdik. Tadqiqotda sifat, miqdoriy metodlarning uyg‘unligi metodologik asos sifatida ishlatiladi, bu esa natijalarning ilmiy asoslangan va amaliy ahamiyatli bo‘lishiga imkon beradi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellekti ularning ta’lim jarayonidagi faoliyatini sezilarli darajada samarali etadi.

Eksperiment davomida kuzatilganidek, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va interaktiv metodikalar pedagogik intellektni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiya, ijodiy fikrlash hamda pedagogik vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlari ushbu metodlar yordamida sezilarli darajada oshganni ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, tadqiqot nazariy adabiyotlarda ta’kidlangan pedagogik intellektning tarkibiy elementlari quyidagilar: bilim, muloqot, kreativlik va metakognitiv qobiliyatlar bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy pedagogik tajribasi, individual kompetensiyalari va pedagogik bilimlari ular intellektini rivojlantirishga asos bo‘ladi. Kuzatish va test natijalari pedagogik intellektni rivojlantirishda interaktiv mashg‘ulotlar va guruhli muhokamalar hamda real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishning samaradorligini ko‘rsatdi.

Pedagogik intellektni rivojlantirish faqat nazariy bilimga asoslanmasligi, balki amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashgan metodik yondashuvlarni talab etadi. Shu sababli, ta’lim jarayonida pedagogik intellektni shakllantirish bo‘yicha kompleks metodologiya ishlab chiqish hamda uni amalda qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellekti shakllanishida turli omillarning samaradorligini aniq ko‘rsatib berdi. Eksperiment davomida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, interaktiv metodikalar hamda real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish pedagogik intellektning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligi aniqlangan. Bo‘lajak o‘qituvchilar, o‘z fikrini erkin ifodalash, guruhdagi hamkasblari bilan samarali muloqot qilish shuningdek, pedagogik vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirgan.

Test va so‘rovnoma natijalari pedagogik intellektning tarkibiy qismlari – bilim, refleksiya, kreativ fikrlash va metakognitiv qobiliyatlarning rivojlanish darajasini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Eksperiment guruhidagi talabalar nazariy bilim bilan amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtira olish darajasi bilan farq qilgan hamda ular pedagogik vaziyatlarda murakkab muammolarni yechishda yuqori natijalar ko‘rsatdilar. Shu bilan birga, interaktiv mashg‘ulotlar va metodik o‘yinlar pedagogik intellektni shakllantirishda eng samarali usul sifatida aniqlangan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik intellektni rivojlantirish nafaqat individual kompetensiyalarga, balki o‘quv jarayonidagi metodik yondashuvlarga ham bog‘liq hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik intellekt asosida tayyorlash ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi va ta’lim sifatini yaxshilaydi hamda kreativ pedagogik yechimlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Shu sababli, pedagogik intellektni rivojlantirish bo‘yicha tizimli yondashuv va amaliy mashg‘ulotlarni joriy etish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik intellekti ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini oshirishda zarur rol o‘ynashini tasdiqladi. Pedagogik intellekt shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, refleksiya, kreativ fikrlash va metakognitiv qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Eksperiment va kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodikalar, guruh muhokamalari hamda real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish pedagogik intellektni sezilarli darajada shakllantiradi.

Natijalar pedagogik intellektni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga imkon berdi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik intellektni rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvlar ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, yanada rivojlantirish, kreativ pedagogik qarorlar qabul qilish va o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, pedagogik intellektni shakllantirishda nazariy bilim bilan amaliy mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish kerakdir.

Ushbu tadqiqot ta’lim jarayonida pedagogik intellektni rivojlantirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga joriy etishning muhimligini ko‘rsatdi, bu esa zamonaviy o‘qituvchining professional va shaxsiy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tohidova, N. Pedagogik intellekt va zamonaviy ta’lim metodikalari. Toshkent: “Fan”, 2020.

2. Karimov, A. O‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi va intellekti. Samarqand: “Sharq”, 2019.

3. Xolmatova, D. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va pedagogik intellekt. Toshkent: “Akademnashr”, 2021.

4. Rasulov, B. Pedagogik intellektni rivojlantirish metodikasi. Buxoro: “Ilm”, 2018.

5. Sobirov, I. Ta’lim jarayonida pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish. Toshkent: “Ziyo”, 2022.

6. Xolbozorova N. Differensial yondashuv asosida ona tili ta’limida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi” (boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi misolida). Xalq ta’limi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2024-yil 6-son Noyabr-Dekabr. 59-62-b.

7. Xolbozorova N. Differensial yondashuv asosida ona tili ta’limida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning istiqbollari (boshlang‘ich talim yo‘nalishi misolida). Til va adabiyot.uz ilmiy-metodik elektron jurnal, Dekabr 2024-yil 20/1-son . – B. 53-55.

8. Xolbozorova N. Personal Development of Students in Higher Education. Journal of Pedagogical Inventions and Practices https://zienjournals.com ISSN NO: 2770-2367 Date of Publication: 10-05-2023. 52-56-b.

9. Xolbozorova N. The importance of the technological approach in the development of the educational system. Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) volume 05 issue 04 sjif impact factor (2022: 6. 013) (2023: 7. 266) (2024: 8.125) oclc – 1242041055. Crossref doi: https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-04-10 . April 30, 2024 . 51-57-p

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

FANLARARO YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING INNOVATSION TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

Ismoilov Davron Maxmadaliyevich
Qarshi davlat texnika universiteti Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada fanlararo yondashuv asosida bo‘lajak muhandislarning innovatsion tafakkurini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Innovatsion tafakkur tushunchasining mazmuni, uning muhandislik ta’limidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Ta’lim jarayonida tabiiy-ilmiy va texnik fanlarning integratsiyasi orqali talabalarda muammoli vaziyatlarni hal etish, yangi texnologik g‘oyalarni ilgari surish va kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada fanlararo o‘qitish modeli, loyiha asosida ta’lim texnologiyalari va ularning muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: fanlararo yondashuv, innovatsion tafakkur, muhandislik ta’limi, integratsiya, loyiha asosida o‘qitish, kompetensiya, kreativlik.

Аннотация.В статье рассмотрены теоретико-методические основы формирования инновационного мышления будущих инженеров на основе междисциплинарного подхода. Раскрыто содержание понятия «инновационное мышление» и показано его значение в инженерном образовании. Научно обоснованы возможности интеграции естественно-научных и технических дисциплин для развития у студентов навыков решения проблемных ситуаций, выдвижения новых технологических идей и формирования креативного мышления. Представлена модель междисциплинарного обучения и проектные образовательные технологии, способствующие развитию инженерных компетенций.

Ключевые слова: междисциплинарный подход, инновационное мышление, инженерное образование, интеграция, проектное обучение, компетенция, креативность.


Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing innovative thinking in future engineers based on an interdisciplinary approach. The concept of innovative thinking is defined, and its role and importance in engineering education are explained. The integration of natural and technical sciences is justified as an effective means of enhancing students’ problem-solving abilities, generating new technological ideas, and fostering creative thinking. Furthermore, a model of

interdisciplinary education and project-based learning technologies contributing to the development of engineering competencies are presented.

Keywords: interdisciplinary approach, innovative thinking, engineering education, integration, project-based learning, competence, creativity.

Kirish. Zamonaviy texnika oliy ta’lim tizimida fanlararo yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Muhandislik faoliyati murakkab texnologik, ekologik va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u turli tabiiy-ilmiy fanlar — fizika, matematika, informatika, kimyo va texnik mexanika kabi yo‘nalishlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Shu bois bo‘lajak muhandislarning innovatsion tafakkurini shakllantirishda fanlararo yondashuvni o‘quv jarayoniga integratsiyalash zamonaviy ta’limning muhim shartiga aylanmoqda.

Innovatsion tafakkur — bu mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarga tatbiq eta olish, texnik muammolarga noodatiy yechim topish, g‘oyalarni amaliy loyihaga aylantirish qobiliyatidir. Bunday tafakkurni rivojlantirish uchun fanlararo yondashuv asosida yaratilgan o‘quv modullari, integratsiyalashgan laboratoriya mashg‘ulotlari va loyiha asosidagi ta’lim texnologiyalari samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi(1-rasm).



1-rasm. Bo‘lajak muhandislarning innovatsion tafakkurini shakllantirishda fanlararo yondashuvning tizimli modeli

Ushbu maqola bo‘lajak muhandislarning innovatsion tafakkurini shakllantirishda fanlararo integratsiyaning nazariy asoslarini ochib berish, ta’lim jarayoniga joriy etish mexanizmlarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlanadi.

XX asrda fizika fanining nazariyasi va ilmiy tadqiqot uslublari ko‘pgina tabiiy–ilmiy fanlar, jumladan kimyo, astronomiya, biologiya kabi tabiiy–ilmiy fanlar uchun tayanch – fundamental ilmiy natijalar berdi. Fizika fanining yutuqlari zamonaviy texnikaning gurkirab o‘sishiga va rivojlanishiga xizmat qildi.

Fizikada yangiliklarning ixtiro etilishi, yangi fanlarni yuzaga olib keldi. Jumladan, elektrotexnika, radiotexnika, elektronika, yadro energetikasi va boshqa fanlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Yuqoridagi yutuqlarga erishishda fizika fanining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Fizikaning fan sifatida rivojlanishida juda ko‘p vaqtlar ko‘pgina olimlar ilmiy–tadqiqot ishlari olib bordilar [1].

Birinchi navbatda ko‘zga yaqqol tashlanadigan moddalarning (qattiq jismlar, suyuqliklar va gazlar) holati tekshirildi. Shuningdek, tabiatda sodir bo‘ladigan bir qator o‘zgarishlar (mexanik, issiqlik, tovush, yorug‘lik, elektr, magnit va boshqa shu kabilar) o‘rganildi. Ushbu bosqichda fizika fani boshqa tabiiy–ilmiy fanlari; kimyo, geografiya, geologiya va boshqalardan farq qilmaydi. Xuddi o‘sha fanlar kabi tabiatning u yoki bu hodisalari haqida aniq ma’lumot beradi.

Adabiyotlar tahlili va ilmiy tadqiqot metadalogiyasi. Qator ilmiy tadqiqot ishlarga asoslanib, fizika fanining o‘rganilayotgan obyektlar orasida sifat o‘zgarishi bilan emas, balki sonli aloqalardan keng foydalanish yaxshi samara beradi deb aytish mumkin. Fizika o‘rganadigan ilmiy tadqiqot ishlaridan shunday xulosa qilinadiki, fizikaviy tajribalarni muvaffiqiyatli olib borish uchun albatta tajribalarni matematik yechim asosida izohlash lozim. Xuddi ana shu ketma–ketlik asosida fizika fanida tabiatdagi o‘zgarishlarning fundamental qonun–qoidalari yaratiladi. Bu fikrimizni dalili sifatida, G.Galileyning inersiya qonuni, I.Nyutonning «Butun olam tortishish» qonuni, J.K.Maksvellning elektrodinamika tenglamalari, A.Enshteynning «Vaqt chegarasining fizik nazariyasi va relyativizm xususiyatlari» M.Plank va Borlarning kvant nazariyalari kabilarni keltirish mumkin [2].

Fizikaning fundamental nazariyalariga; Nyutonning relyativistik nazariyasi, kvant mexanikasi nazariyasi, elektrodinamik nazariyasi, klassik va kvant statistikasi va shu kabilar kiradi. Ushbu yangi g‘oyalar bir tamondan zamonaviy fizikada izlanadigan ilmiy mavzular sonini va aniq mazmunini oshirdi. Ikkinchi tomondan fundamental xarakterdagi fizik qonun va nazariyalarning yaratilishi, fizika fanini gnoseologik aspektini yuqori darajada oshirdi. Oxiri oqibat tabiiy – ilmiy fanlarning fundamenti, fizika fanining nazariy qonunlari hisoblanadi. Masalan: kimyo (kvant mexanikasi, termodinamika, kinematika) kosmologiya: (nisbiylik nazariyasi, yadro fizikasi va boshqalar) qator texnika fanlari; (elektrotexnika, radiotexnika, issiqlik texnikasi, gidrotexnika, gazlar dinamikasi, elektrotexnika va boshqalar). Bu fanlarning ba’zi birlari o‘z vaqtida fizika fanidan ajralib chiqib, mustaqil fan bo‘lishiga erishdi. Ammo ularning hammasi fizikaning fundamental nazariy qonunlariga tayanadi. Shu nuqtai nazardan fizikani o‘qitishdan maqsadni tahlil qilganimizda birinchi navbatda bizni o‘rab olgan olamda, o‘quvchilar ongiga singdiriladigan tabiiy–ilmiy nazariyalarni shakllantirish [3].

Ushbu masalalar ta’lim muassasalari uchun xos bo‘lib, ayniqsa oliy ta’lim muassasalarida o‘z yechimini topadi:

1.Umumiy ta’lim fanlarining asosiy vazifasi, jumladan fizikaning o‘rni manaviy yetuk shaxsning tarbiyalashda yetaklovchi g‘oyalar bilan talabalarni qurollantirish.

2.Fan va ishlab chiqarishning bevosita inegratsiyasi asosidagi XXI asrda jamiyat va tabiat modelini insoniyat madaniyati konteksti darajasida shakllantirib borish.

3.Uzluksiz ta’lim va uzluksiz ishlab chiqarishni moderenizatsiya qilish natijasida yangi texnikalarni yaratish usullardan mutaxassislik masalalarining nazariy va psixologik bazalarini mustahkam metodlarini qo‘llash ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirib borishdir.

Tahlil va natijalar. Demak hozirgi kunda juda muhim masalalardan biri bu fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirish lozim. Respublikamizda o‘tkazilayotgan ta’lim sohasidagi islohatlar davrida fanlararo bog‘lanish tizimi o‘quvchilarni chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga undaydi. O‘quvchini zamon talablari bo‘yicha axborot va pedagogik texnologiyalarning ta’lim tizimida o‘z o‘rnini egallashi natijasida, katta imkoniyatlar zahirasini qiska muddatda o‘zlashtirishda sharoitlar yaratilgan.

Amaldagi ta’lim tizimi fanning tarkibiy qismlariga asoslanadi. O‘quv mavzularining mazmuni aniq fanlar hamda bir necha fanlardan yig‘ilgan bilimlarning asosini tashkil qilib, ma’lum mutaxassislik yo‘nalishiga qaratilgan izlanishlarga ega. Uslubiy nuqtai nazardan qaraganda fanlararo bog‘lanish o‘zining asosida birliqni, ya’ni tabiat va jamiyat birligini izohlaydi. Tabiiy fanlarning hammasi materiyaning u yoki bu xossalarini, o‘rganishga qulay bo‘lishi uchun ularni aniq bilimlar yig‘indisi va fanlar bo‘yicha klassifikatsiya (turlar)ga bo‘lamiz. Ammo bu fanlar bir–biri bilan chambarchas bog‘langan. Jismlarning tuzilishi va xususiyatiga ko‘ra, atom va molekulalardan hamda qisman makroskopik holatlarni fizika fani o‘rganadi. Xuddi shu mavzular kimyo fanida ham takrorlanadi. Bunda qator izlanish uslublari foydalaniladi. (Spektral tahlil paramagnit va yadro rezonanslari, messbauer spektraskopiyasi va boshqalar). Kvant mexanikasi uslublari, termodinamika va kinetika bilimlari fizika kimyo va astronomiya fanlarida bir xil, yaxshi foydalaniladi. Xuddi shunday aloqalar fizika kimyo va biologiya fanlari orasida ham mavjud bo‘lib, ularda umumiy nazariy va tajribaviy usullar qo‘llanilib mavzular yoritilgan.

Fizika mantiqiy nuqtai nazardan qaraganda nazariy fan bo‘lib, tabiat qonunlarini o‘rganadi. Bu degani fizika aniq mazmunga ega emas deb bo‘lmaydi, chunki u tajriba sinov obyekti uchun befarq emas. Aksincha, fizikada moddalarning tuzilishiga oid juda katta hajmdagi muammolar: mikroolam va kosmosdagi elementar zarrachalar, zaryadlangan zarrachalar elektromagnit maydoni haqida va shunga o‘xshash aniq ma’lumotlar mavjud. Lekin, fizika fanining tabiiy va texnika fanlari doirasidagi ahamiyatini bu belgilamaydi. Fizikani asosini fundamental tabiat qonunlari, umumlashgan va tizimlashtirilgan zamonaviy fizika nazariyalari tashkil qiladi. Bular qatoriga, maxsus nisbiylik nazariyasi va elektrodinamika umumiy nisbiylik nazariyasi va gravitatsiya, kvant mexanikasi, qattik

jismlar fizikasi va moddalarning tuzilishi, statistika va termodinamika, yadro va elementar zarralar fizikasi kabi nazariyalarni keltirish mumkin [4].

Umumta’lim maktablarida fizika kursini u yoki bu tizimlari asosan ushbu kursning ichki ehtiyojlari va umumdidaktik talablaridan kelib chiqadi. Oraliq tabiiy–ilmiy fanlarning ehtiyojlari–kimyoni, biologiyani, geografiyani–shuningdek, matematik tayyorgarlik darajasini umuman yetarlicha hisobga olinmaydi va har ehtimolga qarshi, ikkinchi darajali mezonlar sifatida qaraladi. Fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish ishida bunday yondashish ma’lum qiyinchiliklarga olib kelsa ham, bu yerda imkoniyatlar qiyinchiliklarni bartaraf etadi. Dastavval tushunchalar shakllanishining mantiqi ularni tizimli aloqalarda buziladi. Negaki, bazaviy tushuncha juda kech qo‘llaniladi. Ikkilamchi tushunchalar esa tegishlicha asoslanmasdan keltirib chiqarildi.

Tushunchalar shakllanishining mantiqiy tartibining o‘quv materialininig takrorlanishiga hamda o‘qitilish vaktining ko‘p sarflanishiga o‘quvchilarni zo‘riqtirib qo‘yishi, o‘qishga qiziqishning yo‘qolishiga olib keladi. Aniq nazariy konsepsiya tizimida tushunchaga, unga yo‘ldosh bo‘lgan tushunchalar orasidan tenglash hamda uni mazkur nazariya yaxlitligicha o‘rganilmaydigan boshqa o‘quv faniga ko‘chirilishi bilimlarni lavhalashiga, qotib qolish aqidasiga, to‘tiga o‘xshashlikka olib keladi.

Natijada ba’zi bir o‘quv darsligida boshqa fanning materialini bayon etilish zaruriyati, o‘quv vaqti zahirasining juda cheklanganligi shunga olib keladi. Fanning asosiy mazmuni yetarlicha chuqur o‘rganilmaydi. Bu esa ma’naviy yetuk shaxsni shakllantirishda ma’lum ma’noda zarar yetkazadi. Bizning tasavvurimizcha bu yerda sezilarli natijalar fizika kursi mantiqiy tarkibiy tanlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. O‘quv predmetining tarkibi, tabiiyki fan uchun xarakterli bog‘lanishni aks ettiradi. Ammo bu bog‘lanishlar odatda ancha murakkab va ko‘p qirralidir. Bu esa o‘quv materiali tarkibini belgilash uchun yagona bir mazmunli tamoyilini bermaydi. Ushbu savolni qarayotib prof. Y. A. Smorodinskiy, qo‘yidagi fikrlarni bildiradi. «Umumiy fizika kursining ichidagi bo‘limlarni joylashtirish hamda bayon etish ketma – ketligi – bu har doim shartli savol yoki masala. Fanning barcha qismi bir – biri bilan shu qadar bog‘langanki nimani oldin, nimani keyin bayon qilishni bilish ko‘pincha qiyin bo‘ladi». Fizika kursining o‘zaro bog‘langan turlicha mantiqiy tarkibi mavjud bo‘lishi mumkin. Ulardan uchtasini jadval tarzida ketiramiz.

Fizika kursining tarkibiy bog‘lanishi

Materiya harakatining murakkablashib borish shakllari bo‘yicha	Fundamental fizik nazariyalar bo‘yicha	Fundamental qonunlarni tavsifi bo‘yicha

Makroskopik harakat (mexanika) Molekulyar harakat (issiqliq) Elektr zaryadlarning harakati (elektr va magnetizm) Atom va yadro ichidagi harakatlar (Atom va yadro fizikasi)	Nyuton mexanikasi Relativistik mexanika Elektrodinamika Tebranishlar va to‘lqinlarning yagona nazariyasi Kvant optikasi va kvant mexanikasi Moddaning tuzilishi (Atom, molekulyar, qattiq jism suyuqlik moddalari) Fizika va termodinamikaning statistikasi	Dinamik talqini inkor etmaydigan hodisalar a)Mexanika (Nyuton va Relyativistik) b)Elektromagnit hodisalar v)To‘lqinlar nazariyasi statistik qonuniyatlarga bo‘ysunadigan hodisalar a)Molekulyar fizika b)Kvant mexanikasi va atom fizikasi v)Yadro fizikasi

Keltirilgan misollar fizika ko‘rsining yagona tarkibini amalda mavjud emasligini ko‘rsatadi. YA’ni har biri o‘quv materialini oqilona bayon etishni ta’minlaydigan qator teng kuchli mantiqiy tarkibga egadir. U yoki bu kursning tarkibini tanlash, uning oldiga qo‘yiladigan masala bilan aniqlanadi.

Materiya harakatining murakkablashib boruvchi shakllari bo‘yicha o‘quv materialini taqsimlanish tizimi an’anaviy va o‘rta umumta’lim maktablari ishlash amaliyotida o‘zini to‘liq oqlagan hisoblanadi. Ammo bu tarkib ham ma’lum kamchiliklardan xoli emas. Ushbu tizimga muvofiq, mexanik tebranishlar va to‘lqinlar, mexanikada elektromagnit tebranishlar va to‘lqinlar elektrodinamikada, optikada – to‘lqin nazariyasiga bog‘liq bo‘lmagan holda bayon etiladi. Ammo o‘qitish amaliyoti, tebranishli va to‘lqinli qonunlarni ularni tabiatidan qat’iy nazar yagona yondashuvni shakllantirishni maqsadga muvofqligini ko‘rsatdi. Mazkur tizim amaldagi dasturda qabul qilingan. Ammo bu mazmunan fizika ko‘rsining an’anaviy, mantiqiy tizimdan cheklashni, hamda o‘quv materialini fundamental fizik nazariyalar bo‘yicha taqsimlanishga o‘tish hisoblanadi.

Xulosa. Ta’limning zamonaviy fan yutuqlariga nisbatan sifati hali yetarlicha emasligi bugungi kunda sir emas. Jumladan, I. Nyuton va R. Dekartning klassik darajasidan boshlangan tabiatshunoslik, A. Eynshteyn, V. Geyzenberg nomlari bilan bog‘liq noklassik darajadan o‘tib, I. Prigojin va G.Xakenning neoklassik darajasiga yetdi. Ayni vaqtda, maktab, oliy o‘quv yurti va undan keyingi bosqichdagi tabiatshunoslik ta’limi hamon klassik darajada qolib ketmoqda. Ta’limning zamonaviy tabiatshunoslik yutuqlariga nisbatan sifatini yetarli deb aytishga hech qanday asosimiz yo‘q.

Demak fanlararo bog‘lanish asosidagina zamonaviy tabiiy – ilmiy fanlarning noklassik va neoklassik rivojlanish manzarasini ta’limga olib kirish zarurati mavjud deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismailov D.M. Fizika fanining fanlararo aloqalarini amalga oshirishning nazariy va metodik asoslari. – Qarshi: QDTU, 2023. – 85 b.
2. Nazarov B., Mirzayev N. Injenerlik ta’limda fanlararo yondashuvning metodologik asoslari. // «Fizika va ta’lim», 2021, №2. – B. 28–33.
3. Фалалеев Н.А. Инновацион мышление и пути его формирования в профессиональном образовании. – М.: Академия, 2018. – 192 с.
4. Gubaidullina, R.A. Interdisciplinary approach in engineering education. // European Journal of Contemporary Education. 2020. Vol. 9(3). – P. 548–558.
5. Smorodinskiy Ya.A. Fizika kursini o‘qitishda mavzularni tizimlashtirish muammolari. // Fizika va Didaktika. – M.: Prosveshchenie, 2010. – 143 b.
6. Shodmonov S.H., Juraev D.J. Fizik ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2022. – 112 b.
7. Юсупов Х.Н. Фанлараро боғланишда табиий фанларнинг ўзаро таъсири. // Ўқитувчи журнали. – Тошкент, 2020. – №4. – Б. 18–24.
8. Муҳаммедов Қ. Замонавий инженерлик таълимида инновацион компетенциялар. – Самарқанд: САМДУ, 2021. – 95 б.
9. Newton I. Philosophiæ Naturalis Principia Mathematica. – London, 1687.
10. Einstein A. Zur Elektrodynamik bewegter Körper. // Annalen der Physik. – 1905. – Vol. 17. – S. 891–921.
11. Maxwell J.C. A Treatise on Electricity and Magnetism. – Oxford: Clarendon Press, 1873.
12. Planck M. The Theory of Heat Radiation. – New York: Dover, 1959.
13. Bor N. Atom strukturasi va kvant nazariyasi. – M.: Nauka, 1963.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

FILOLOGIYA YO‘NALISHI TALABALARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA LUG‘AT O‘RGATISHNING RAQAMLI USULLARI

Abdug‘affarova Arofat Shamsiddinovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
Abdugaffarovaarofat@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada filologiya yo‘nalishi talabalarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli lug‘at o‘rgatish usullarining o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar — multimediaga asoslangan input, interaktiv mashqlar, masofali takrorlash algoritmlari, adaptiv o‘qitish platformalari hamda hamkorlikka asoslangan onlayn vositalar — lug‘aviy birliklarni chuqur, barqaror va kontekstual o‘zlashtirish imkonini berishi ko‘rsatilgan. Maqolada ushbu usullarning ta’lim jarayonida qo‘llanishi, talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari, motivatsiyasi va kommunikativ tayyorgarligiga ta’siri yoritiladi. Leksik kompetensiyani raqamli vositalar bilan dars jarayonida qo‘llashga bir necha xil takliflar berilgan bular filologiya talabalari lingvistik kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishini tadqiqotlarda isbotlangan.

Kalit so‘zlar: raqamli lug‘at o‘qitish, lingvistik kompetensiya, filologiya talabalari, multimodal input, interaktiv o‘qitish, adaptiv ta’lim texnologiyalari, masofali takrorlash algoritmlari, hamkorlikka asoslangan o‘rganish, raqamli pedagogika, leksik kompetensiya

Annotation. This article analyzes the role and effectiveness of digital vocabulary teaching methods in developing the linguistic competence of philology students. It demonstrates that digital technologies—multimedia-based input, interactive exercises, spaced repetition algorithms, adaptive learning platforms, and collaboration-oriented online tools—enable deep, stable, and contextual acquisition of lexical items. The article explores how these methods are applied in the educational process and how they influence students’ independent learning skills, motivation, and communicative readiness. Several pedagogical recommendations are offered for integrating digital tools into vocabulary instruction, and research evidence shows that such practices significantly enhance the linguistic competence of philology students.

Keywords: digital vocabulary instruction, linguistic competence, philology students, multimodal input, interactive learning, adaptive learning technologies, spaced repetition algorithms, collaborative learning, digital pedagogy, lexical competence.

Аннотация.В данной статье анализируются роль и эффективность цифровых методов обучения лексике в развитии лингвистической компетенции студентов филологических направлений. Показано, что цифровые технологии — мультимедийный вход, интерактивные задания, алгоритмы интервального повторения, адаптивные обучающие платформы, а также онлайн-инструменты, основанные на сотрудничестве, — обеспечивают глубокое, устойчивое и контекстуальное усвоение лексических единиц. В статье раскрывается применение данных методов в учебном процессе и их влияние на формирование самостоятельных учебных навыков, мотивации и коммуникативной готовности студентов. Представлены различные рекомендации по использованию цифровых средств в преподавании лексики, при этом исследования показывают, что такие подходы значительно повышают лингвистическую компетенцию студентов филологии.

Ключевые слова: цифровое обучение лексике, лингвистическая компетенция, студенты-филологи, мульти-модальный ввод, интерактивное обучение, адаптивные образовательные технологии, алгоритмы интервального повторения, обучение в сотрудничестве, цифровая педагогика, лексическая компетенция.

KIRISH. Zamonaviy global ta’lim tizimining tubdan o‘zgarishi sharoitida raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga chuqur kirib borishi, xususan chet tillarni o‘rgatish amaliyotida muhim metodologik burilishlarni yuzaga keltirmoqda. XXI asrda shakllangan raqamli pedagogika paradigmasi lingvistik kompetensiyani rivojlantirish jarayonini yangi mazmun, vosita va mexanizmlar bilan boyitib, lug‘at o‘zlashtirishni shaxsga yo‘naltirilgan, dinamik va interaktiv ta’lim tizimining markaziy komponentiga aylantirmoqda. O‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani oshirish ularni har tomonlama puxta til bilimlarini egallash uchun bugungi kunda barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Darhaqiqat, lingvistik kompetensiya til tizimini anglash va undan foydalanish qobiliyatini belgilab beradigan asosiy kompetensiya turidir. U fonologik, grammatik va leksik bilimlarning integratsiyasidan tashkil topadi hamda o‘quvchining mazmunli nutq hosil qilish jarayonida tayanch vazifasini bajaradi. Tilning leksik qatlami esa lingvistik kompetensiyaning semantik yadrosini tashkil qiladi. Chunki mazmunni shakllantiruvchi asosiy birlik — bu so‘zdir. Shu sababli lingvistik kompetensiyadan leksik kompetensiyaga o‘tish tabiiy va izchil jarayon bo‘lib, o‘quvchi til tizimini umumiy anglash orqali so‘zlarning ma’nosi, qo‘llanilishi, lug‘aviy munosabatlar va kollokatsiyalarni chuqurroq o‘zlashtira boshlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda leksik kompetensiyani oshirishda an’anaviy usullar bilan birgalikda raqamli usullar ham keng qo‘llanilib, u o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Lug‘at o‘qitishning raqamli metodlari deyilganda yangi so‘zlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish maqsadida kompyuterlar, mobil qurilmalar yoki onlayn resurslardan foydalanishga asoslangan usullar tushuniladi. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya


texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi natijasida lug‘atni o‘rganishga yo‘naltirilgan turli raqamli platformalar paydo bo‘ldi: bunga misol qilib, Quizlet, Memrise, Anki) bir vaqtning o‘zida talaffuz qilishni ham o‘rgatuvchi onlayn lug‘atlar, til o‘rganishni yanada osonlashtiradigan qiziqarli o‘yin dasurlari, immersiv onlayn muhitlar va boshqa interaktiv platformalarni ayta olishimiz mumkin. Bunday vositlarning o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, ular multimedia elementlari (tovush, tasvir, video) interaktiv mashqlar, darhol bog‘lana olish (immediate feedback) va til o‘rganayotgan talabaning individual sur’atiga moslashuvchi algortimlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchi Ergashev (2024) ta’kidlaganidek, “raqamli vositlar ko‘pincha multimedia yoki gamifikatsiya elementlarini o‘z ichiga olgan interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan tajribalarni taqdim etadi, tadqiqotlar esa bunday yondashuvning eslab qolish va motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi”.

“Raqamli lug‘at o‘qitish” tushunchasini ilmiy adabiyotlarda kengroq sharhlash maqsadida bir nechta o‘zaro bog‘liq atamalarga murojaat qilishni lozim deb topdik. Kompyuter yordamida til o‘rgatish (CALL), mobil qurilma yordamida til o‘rgatish (MALL), tarmoqqa asoslangan til o‘qitish, raqamli ta’lim texnologiyalari orqali leksik kompetensiyani o‘rganishni yanada samarali qilish mumkin. Yuqoridagi uch atamalar mohiyatan ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish g‘oyasini birlashtiradi. Kolesnichenko (2021) ning ta’kidlashicha, pedagogik amaliyotda “axborot texnologiyalari”, “kompyuter texnologiyalari” va “raqamli texnologiyalar” atamalari ko‘pincha sinonim tarzda ishlatiladi, chunki ularning barchasi o‘quv jarayonida ma’lumotlar bazalari, dasturiy ta’minot va onlayn kontent kabi axborot resurslaridan foydalanishni nazarda tutadi. Rus olimasi Troitskayaning (2020) axborot ta’lim texnologiyalariga ta’rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi quyidagicha: “…ta’lim sohasida maxsus texnik va axborot vositalaridan (kompyuter, audio, kino, video) foydalanishga asoslangan pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi barcha texnologiyalar.”

Metodist rus olimasi E.S.Polat (2010) tomonidan ilgari surilgan “raqamli didaktika” (2007) konsepsiyasi ta’lim jarayonida AKT imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun shaxsga yo‘naltirilgan, interaktiv o‘quv muhitlarini yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Olimaning fikricha, raqamli muhitda o‘quv jarayonini o‘quvchi markaziga ko‘chirish, uni mustaqil faoliyatga jalb qilish ayniqsa lug‘at o‘zlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon muntazam mashq qilishni, o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) va nazorat qilishni talab qiladi.

Fikrimizni atoqli ingliz olimi P. Nationni tasnifi bilan davom ettirishni ma’qul topdik, olim ingliz tilida lug‘at o‘rganish jarayonini uch turga ajratadi. Ushbu tasnif bugungi kunda raqamli lug‘at o‘qitishda ham keng qo‘llaniladi, chunki u format va funksiyaga ko‘ra aniq

mezonlar beradi. (1.1 rasmga qarang)



1.1 rasm. P.Nationni lug‘at o‘qitish tasnifi hamda raqamli o‘qitishda qanday qo‘llash ko‘rsatilgan.

Raqamli lug‘at o‘qitish metodlarini ularning formati va funksiyasiga ko‘ra tasniflash mumkin. Kolenichenko (2021) tomonidan taklif etilgan tasnifni ham keltirib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bildik. (1.2 rasmga qarang)



Rasmda Kolesnichenkoning raqamli usulda lug‘at o‘rgatish tasnifi berilgan.

Yuqoridagi tuzilmaga asoslanib, har bir tasnifga qisqacha izoh berishni lozim deb topdik. Aralash yoki kengaytirilgan metodlar – bu o‘z ichiga elektron darsliklar, PDF/ebook formatidagi lug‘at ro‘yxatlari yoki an’anaviy dars jarayoniga raqamli flashkartalarni qo‘shish kiradi. Bu metodlar “eng sodda texnologiyalar” bo‘lib, an’anaviy ta’limni raqamli vositalar bilan qo‘shimcha ravishda boyitadi.

Ko‘p darajali mashq qilish uchun mo‘ljallangan interaktiv dasturiy ta’minot - bunday dasturlar o‘quvchining til bilish darajasiga moslashadi, har bir so‘z uchun turli xil mashqlar va multimediatik misollar taqdim etadi. Ular metod tanlashda moslashuvchanlikni ta’minlaydi va ko‘pincha tutorial dasturlar yoki aqlli lug‘at o‘rgatuvchi tizimlarni o‘z ichiga oladi.

Masofaviy ta’lim va onlayn platformalar - lug‘atni vebinarlar, onlayn kurslar va virtual darslar (masalan, Zoom yoki Skype) orqali o‘rgatish shu toifaga kiradi. COVID-19 pandemiyasi davrida bunday texnologiyalar ayniqsa ahamiyat kasb etdi, chunki o‘quv jarayonining aksariyati masofadan olib borildi. Bu platformalar odatda so‘rovnomalar, viktorinalar (Kahoot!, Quizlet Live) kabi elementlarni qo‘llab, masofaviy tinglovchilarning lug‘aviy faolligini oshiradi. Bunday vositalar guruhiy muhitda kommunikativ metodlarni faollashtiradi va, odatda, filologiya talabalariga tegishli professional yoki akademik lug‘atni ham integratsiya qiladi.

Tarmoqqa ulangan va bulutli texnologiyalar - eng ilg‘or toifa bo‘lib, onlayn hamkorlik vositalari, bulutli lug‘atlar, til o‘rganish uchun mo‘ljallangan ijtimoiy tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. Bunda talabalar guruh ishlarini amalga oshiradi, lug‘at materiallarini baham ko‘radi va birgalikda yaratadi (masalan, Google Docs’da umumiy glossariy tuzish yoki blogda yangi so‘zlarni jamlash). Bu metodlar o‘qituvchi va talabalardan yuqori axborot kompetensiyasini talab qiladi, resurslarga keng kirish imkonini ta’minlaydi va yangi so‘zlarni o‘zlashtirish jarayonida haqiqiy kommunikativ faoliyat orqali bir nechta kompetensiyalarni (lingvistik, kommunikativ, madaniy) rivojlantiradi.

Demak, barcha toifalarda raqamli metodlar lingvistik kompetensiyani o‘zlashtirish jarayoniga quyidagi muhim xususiyatlarni olib kiradi:

Multimedia asosidagi kirish (input) - so‘zning shakli, ma’nosi va qo‘llanilishini keng qamrovli tarzda taqdim etish orqali o‘quvchining idrok, tushunish va eslab qolish jarayonlarini kuchaytirishdir. Ushbu yondashuv lug‘at o‘zlashtirishning samaradorligini oshiradi, chunki vizual, audio va kontekstual materiallarning integratsiyasi semantik bog‘lanishlarni mustahkamlaydi va o‘quv motivatsiyasini yuqori darajada ushlab turadi. Masalan, “railway” so‘zining onlayn lug‘atdagi kirishida faqat izoh emas, balki so‘z turkumi, talaffuz audiosi va kontekstual misollar ham beriladi. Quyidagi vositalar multimedia inputga asoslangan mashqlar yaratishda juda samarali:

- wordwall (matching, sorting)
- Quizlet (flashcards+audio)
- Kahoot/Game quiz (gamifikatsiya)

- Learning Apps (drag-and-drop, puzzle)

Interaktivlik va darhol qayta aloqa - Onlayn mashq va viktorinalar o‘quvchiga darhol javob qaytaradi, xatolarni tuzatish va to‘g‘ri qo‘llashni mustahkamlash imkonini yaratadi. Ko‘plab ilovalar gamifikatsiyalashgan bo‘lib, ularda ball, yorliqlar (badges) va reyting jadvallari mavjud. Bu o‘quvchini faqat tinglovchi emas, jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Interaktivlik va qayta aloqa jarayonining asosiy maqsadi — o‘quvchini faol kognitiv jarayonga jalb qilish, xatolarni darhol aniqlab tuzatish orqali o‘rganish sifatini oshirish va o‘quvchi o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Interaktiv muhit motivatsiyani kuchaytiradi, o‘rganishni shaxsga yo‘naltirilgan shaklga keltiradi va lug‘aviy materialning chuqurroq o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

-Onlayn testlar va viktorinalar (Kahoot, Quizizz, Quizlet Live, Google Forms)

-Interaktiv matching va drag-and-drop mashqlari (Genially, LearningApps, Wordwall)

-Interaktiv video darslar (YouTube, EdPuzzle, Ted-Ed)

-Avtomatik talaffuzni tekshrish mashqlari (Duolingo, Elsa Speak, Google Pronunciation)

-O‘quvchilarga juftlik/guruhda interaktiv topshiriqlar berish (“Find someone who..” lug‘at o‘yini, Quizlet Live’da jamoaviy raqobat, Padlet’da birga post yaratish)

-O‘qituvchi tomonidan beriladigan real va konstruktiv qayta aloqa (darhol tuzatish (immediate correction), yo‘naltiruvchi fikr (scaffolded feedback), modellashtirilgan javoblar (model answers)

Экспериментальная	61,0	26,5	-34,5	31,3	50,5	+19,2	7,7	23,0	+15,3
Контрольная	60,2	51,9	-8,3	31,8	36,1	+4,3	8,0	12,0	+4,0

Данные таблицы 7 показывают, что в экспериментальной группе наблюдается значительно более выраженная положительная динамика по всем уровням сформированности цифровой методической грамотности по сравнению с контрольной группой, что подтверждает эффективность разработанной модели.

Качественный анализ результатов экспериментальной работы позволил выявить следующие позитивные изменения у студентов экспериментальной группы:

- повышение интереса к использованию цифровых технологий в образовательном процессе;
- формирование системных знаний в области STEM-образования и цифровых технологий;
- развитие навыков проектирования интегрированных уроков;
- повышение уровня владения цифровыми инструментами;
- формирование опыта разработки цифровых образовательных ресурсов;
- развитие навыков профессиональной коммуникации в цифровой среде;
- формирование рефлексивных умений.

Обсуждение

Результаты исследования подтверждают эффективность разработанной модели формирования цифровой методической грамотности будущих учителей на основе STEM-интеграции. Данная модель обеспечивает комплексный подход к решению проблемы подготовки педагогических кадров к профессиональной деятельности в условиях цифровизации образования.

Сравнение полученных результатов с данными других исследований (Беляев, 2019; Носкова, 2020; Dezuanni, 2018; Redecker, 2017) позволяет выявить общие тенденции в подходах к формированию цифровой грамотности педагогов. В частности, отмечается необходимость интеграции теоретической и практической подготовки, использования активных и интерактивных методов обучения, создания цифровой образовательной среды.

Оригинальность разработанной модели заключается в интеграции STEM-подхода и цифровых технологий в процессе формирования методической грамотности будущих учителей. Данный подход позволяет подготовить педагогов, способных не только использовать цифровые технологии в образовательном процессе, но и осуществлять междисциплинарную интеграцию содержания образования, проектировать инновационные образовательные практики.

Важным аспектом исследования является выявление и обоснование педагогических условий, способствующих эффективному формированию цифровой методической грамотности. К таким условиям относятся:

- интеграция содержания профессиональной подготовки на основе STEM-подхода;
- создание цифровой образовательной среды;
- организация проектной и исследовательской деятельности студентов;
- развитие профессиональных коммуникаций в цифровой среде;
- формирование навыков рефлексии и самооценки.

Анализ результатов эксперимента показал, что наибольшие затруднения у будущих учителей вызывают проектировочный и рефлексивно-оценочный компоненты цифровой методической грамотности. Это может быть связано с недостаточным опытом проектирования образовательного процесса и отсутствием навыков критической рефлексии. Данное наблюдение согласуется с результатами исследований других авторов (Носкова, 2020; Тихомирова, 2019).

Результаты исследования имеют теоретическую и практическую значимость для развития системы педагогического образования. Теоретическая значимость заключается в уточнении сущности и структуры понятия «цифровая методическая грамотность», разработке модели ее формирования на основе STEM-интеграции, определении критериев и показателей сформированности данного качества. Практическая значимость состоит в разработке методического обеспечения процесса

формирования цифровой методической грамотности, которое может быть использовано в системе высшего педагогического образования.

На основе результатов исследования были сформулированы следующие рекомендации по использованию потенциала STEM-интеграции для формирования цифровой методической грамотности будущих учителей:

1. Включить в учебные планы подготовки педагогических кадров интегрированный курс «Цифровые технологии в STEM-образовании», направленный на формирование системных знаний и умений в области применения цифровых технологий на основе STEM-подхода.

2. Организовать практическую подготовку будущих учителей в специализированных STEM-лабораториях и цифровых мастерских, оснащенных современным оборудованием и программным обеспечением.

3. Внедрить в образовательный процесс проектные и исследовательские методы обучения, направленные на разработку цифровых образовательных ресурсов для STEM-образования и проектирование интегрированных уроков.

4. Создать цифровую образовательную среду, обеспечивающую доступ к современным образовательным ресурсам, возможность сетевого взаимодействия и персонализацию образовательных траекторий.

5. Организовать сетевое взаимодействие с образовательными организациями и IT-компаниями для обеспечения практикоориентированной подготовки будущих учителей.

6. Внедрить систему электронного портфолио как средство формирования рефлексивных умений и оценки профессионального развития будущих учителей.

7. Разработать и внедрить систему тьюторского сопровождения процесса формирования цифровой методической грамотности.

Ограничения исследования связаны с его реализацией на базе конкретных педагогических вузов и направлений подготовки, что может ограничивать возможности обобщения результатов. Перспективы дальнейших исследований включают изучение процесса формирования цифровой методической грамотности в системе непрерывного педагогического образования, разработку технологий персонализированного обучения на основе цифровых платформ, исследование возможностей искусственного интеллекта и виртуальной реальности в формировании цифровой методической грамотности.

Заключение

Проведенное исследование позволяет сделать следующие выводы:

1. Цифровая методическая грамотность будущих учителей в контексте STEM-интеграции представляет собой интегративное качество личности, характеризующееся совокупностью знаний, умений и навыков в области проектирования и реализации образовательного процесса с использованием цифровых технологий на основе STEM-

подхода, способностью к междисциплинарной интеграции содержания образования, а также готовностью к непрерывному профессиональному развитию в условиях цифровизации образования.

2. Структура цифровой методической грамотности включает взаимосвязанные компоненты: когнитивный, технологический, проектировочный, коммуникативный и рефлексивно-оценочный, каждый из которых характеризуется специфическим содержанием и индикаторами сформированности.

3. Разработанная модель формирования цифровой методической грамотности будущих учителей на основе STEM-интеграции включает целевой, методологический, содержательный, процессуальный и результативно-оценочный блоки, обеспечивающие целостность и системность образовательного процесса.

4. Эффективность формирования цифровой методической грамотности обеспечивается комплексом педагогических условий, включающих интеграцию содержания профессиональной подготовки на основе STEM-подхода, создание цифровой образовательной среды, организацию проектной и исследовательской деятельности студентов, развитие профессиональных коммуникаций в цифровой среде, формирование навыков рефлексии и самооценки.

5. Экспериментальная проверка подтвердила эффективность разработанной модели, что проявилось в значительном повышении уровня сформированности цифровой методической грамотности у студентов экспериментальной группы по сравнению с контрольной.

Таким образом, результаты исследования подтверждают гипотезу о том, что формирование цифровой методической грамотности будущих учителей будет эффективным при условии определения ее сущности и структуры в контексте STEM-интеграции, разработки и реализации соответствующей модели, создания необходимых педагогических условий и обеспечения интеграции теоретической и практической подготовки в условиях цифровой образовательной среды.

Практическая значимость исследования заключается в разработке методического обеспечения процесса формирования цифровой методической грамотности будущих учителей, включающего интегрированный курс «Цифровые технологии в STEM-образовании», комплекс практических заданий и проектов, диагностический инструментарий.

Перспективы дальнейших исследований связаны с изучением возможностей формирования цифровой методической грамотности в системе непрерывного педагогического образования, разработкой технологий персонализированного обучения на основе цифровых платформ, исследованием влияния сформированности цифровой методической грамотности на эффективность профессиональной деятельности педагогов.

Список литературы

[1] Асмолов А.Г., Семенов А.Л., Уваров А.Ю. Российская школа и новые информационные технологии: взгляд в следующее десятилетие. М.: НексПринт, 2019. 168 с.

[2] Беляев Г.Ю. Цифровое пространство воспитания в вузе: проблемы и перспективы // Педагогика. 2019. № 8. С. 35-42.

[3] Берулава М.Н. Интеграция содержания образования. М.: Совершенство, 2018. 192 с.

[4] Блауберг И.В., Юдин Э.Г. Становление и сущность системного подхода. М.: Наука, 2017. 270 с.

[5] Булин-Соколова Е.И., Обухов А.С., Семенов А.Л. Будущее педагогическое образование: направление движения и первые практические шаги // Психологическая наука и образование. 2018. № 3. С. 207-225.

[6] Гальперин П.Я. Методы обучения и умственное развитие ребенка. М.: МГУ, 2016. 112 с.

[7] Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. Ростов н/Д: Изд-во Рост. пед. ун-та, 2020. 440 с.

[8] Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2017. 38 с.

[9] Келли Н.А. STEM-образование: от теории к практике // Современные проблемы науки и образования. 2018. № 5. С. 56-63.

[10] Козырева О.А. Концепции профессионального развития // Педагогическое образование и наука. 2019. № 5. С. 60-63.

[11] Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. М.: Высшая школа, 2016. 119 с.

[12] Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Смысл, Академия, 2016. 352 с.

[13] Носкова Т.Н., Павлова Т.Б., Яковлева О.В. Анализ отечественных и зарубежных подходов к построению передовых образовательных практик в электронной сетевой среде // Интеграция образования. 2020. Т. 20, № 4. С. 456-467.

[14] Роберт И.В. Теория и методика информатизации образования (психолого-педагогический и технологический аспекты). М.: ИИО РАО, 2018. 356 с.

[15] Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер, 2019. 720 с.

[16] Савенков А.И. Педагогическая психология. М.: Юрайт, 2019. 626 с.

[17] Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. М.: Академия, 2018. 576 с.

[18] Тихомирова Е.В. Цифровая дидактика: отечественные и зарубежные подходы // Открытое образование. 2019. Т. 23, № 6. С. 54-63.

[19] Уваров А.Ю., Гейбл Э., Дворецкая И.В. Трудности и перспективы цифровой трансформации образования. М.: Издательский дом Высшей школы экономики, 2019. 344 с.

[20] Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. М.: Эйдос, 2019. 73 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK VA GIGIENIK TARBIYANING O‘RNI

ISFT instituti Samarqand filiali
Ma’naviat ishlari bo‘yicha prorektor
Ernazarov Abduvali Beknazarovich
+998937037701
Eabduvali0777@gmail.com

Annotatsiya. Sog‘lom hayot tarzini yaxshilashda atrof-muhitning tozaligi va muhofazasi muhim ahamiyatga ega. Talabalarning gigienik tarbiyasini tashkil etishdagi muammolarni chuqur o‘rganishga qaratilgan. Avlod salomatligi, ayniqsa onaning sog‘lom bo‘lishi, bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatib, yoshlik davridan organizmni chiniqtirish zarurligini belgilab o‘tadilar. Shuningdek, qiz bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari va jozibadorlikni ta’minlaydigan muhim sifatlar haqida ham fikrlar bildiriladi. Oliy ta’lim muassasalarida salomatlikni asrashga yo‘naltirilgan tafakkurni takomillashtirish pedagogik zaruriyatdir. Bu borada turli olimlar tomonidan taqdim etilgan ilmiy tavsiyalar va tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Ovqatlanish madaniyati ham sog‘lom turmush tarzining muhim komponentidir.

Kalit so‘zlar: peagogik, salomatlik, gigina, tarbiya, salomatlik, avlod.

Abstract: the importance of environmental cleanliness and protection in improving a healthy lifestyle. The article is aimed at in-depth study of the problems of organizing hygienic education of students. It is shown that the health of the offspring, especially the health of the mother, is directly related, and the need to strengthen the body from a young age is emphasized. It also discusses the unique characteristics of girls and important qualities that ensure their attractiveness. Improving health-oriented thinking in higher education institutions is a pedagogical necessity. Scientific recommendations and studies presented by various scientists in this regard are of great importance. Nutritional culture is also an important component of a healthy lifestyle.

Keywords: pedagogical, health, hygiene, education, health, generation.

Абстрактный: Значение чистоты и охраны окружающей среды в формировании здорового образа жизни. Статья посвящена глубокому изучению проблем организации гигиенического воспитания студентов. Показано, что здоровье потомства, особенно матери, напрямую связано с этим, и подчёркивается необходимость укрепления организма с раннего возраста. Также рассматриваются уникальные особенности

девушек и важные качества, обеспечивающие их привлекательность. Развитие здорового мышления в высших учебных заведениях является педагогической необходимостью. Научные рекомендации и исследования, представленные различными учёными в этой связи, имеют большое значение. Культура питания также является важным компонентом здорового образа жизни.

Ключевые слова: педагогика, здоровье, гигиена, воспитание, здоровье, поколение.

Kirish. Sog‘lom hayot tarzini shakllantirishda atrof-muhitning tozaligi va uning muhofazasi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar va talabalarda ekologik ongni rivojlantirish, ularda tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish zamonaviy ta’limning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Bu borada M.I. Jorayev, D.R. Karimov, O.T. Sadykov va R.M. G‘afurov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari ekologik tarbiya, ekologik xavfsizlik va sog‘lom hayot tarzini qo‘llab-quvvatlash masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

M.I. Jorayev tomonidan ishlab chiqilgan “Ekologik ta’lim va tarbiya” konsepsiyasi yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini belgilab beradi. D.R. Karimov esa ovqatlanish gigienasi va sog‘lom turmush tarzining psixologik jihatlarini tahlil qilib, insonning kundalik hayoti va ruhiy holati o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratadi. O.T. Sadykovning qishloq maktablarida ekologik tarbiyani takomillashtirishga oid tavsiyalari esa ekologik ta’limning hududiy va sharoitlarga mos yondashuvlari shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, D.J. Sharipovaning talabalarda gigiyenik tarbiyani tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotida gigiyena bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdagi amaliy muammolar yoritilib, ularni samarali hal etish yo‘llari taklif etilgan. Bu tadqiqotlar sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar talabalarning nafaqat salomatligini mustahkamlash, balki ularni ijtimoiy faollikka undashda ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi[25].

R.M.Gafurovning tadqiqotida talabalarda sog‘lom turmush tarzini yaxshilash masalasi ko‘rib chiqiladi. U oilaning roli, o‘smir va yoshlarda milliy urf-odatlar asosida tarbiya berish zaruratini tahlil qiladi. Shuningdek, jinsi tarbiyasi masalalari ham keng yoritiladi, bu talabalar uchun muhim asos hisoblanadi[26].

II. Adabiyotlar sharhi. T. Sodiqova va R. Umarova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o‘smir qizlar tarbiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda qiz bolalarning jismoniy, ma’naviy va ruhiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotchilar o‘smirlik davrida zararli odatlarning — xususan chekish va alkogol iste’molining —

[25] Sharipova D. J. (2023). *Gigienik tarbiya va sog‘lom turmush tarzi*. Pedagogika jurnali, 45.

[26] Gafurov R. M. (2023). *Oila va tarbiya: sog‘lom turmush tarzini shakllantirish*. Pedagogik tadqiqotlar, 78.

qizlarning sog‘ligiga, tashqi qiyofasiga va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ilmiy dalillar asosida yoritib beradilar. Bu zararli omillar nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki bo‘lajak onalik mas’uliyatini ado etishda ham jiddiy xatar tug‘dirishi ta’kidlanadi. Sodiqova va Umarovaning tadqiqotlarida o‘smir qizlarning hissiy holati, kayfiyat barqarorligi va psixologik muvozanati ham alohida o‘rganilgan. Ularning fikricha, qizlarning emotsional barqarorligi kelajakdagi oilaviy hayot, farzand tarbiyasi va onalik jarayoniga bevosita ta’sir qiluvchi muhim omillardan biridir.

Shuningdek, mualliflar qiz bolalarning sog‘lom va jozibador bo‘lib voyaga yetishi uchun yoshligidan boshlab organizmni chiniqtirish, gigiyena qoidalariga rioya qilish, to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faollikni yo‘lga qo‘yish zarurligini qayd etadilar. Tadqiqotlarda qiz bolalarga xos tabiiy joziba, nafislik va odob-axloq sifatlarini rivojlantirish masalalari ham yoritilgan bo‘lib, bu jihatlar ularning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyati va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim omil sifatida baholanadi. Umuman olganda, Sodiqova va Umarova tadqiqotlari o‘smir qizlar sog‘ligiga oid masalalarning dolzarbligini ko‘rsatib, kelajak avlodning sog‘lom bo‘lishi onalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligiga chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bu esa qizlar tarbiyasida kompleks yondashuvning zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi[27].

Zardushtiylik dinining “Avesto” asari, shuningdek, Qur’on Karim va Hadis Sharifda sog‘lom hayot tarzini saqlash, uning shartlari va omillari, shuningdek, sog‘lom avlodni tarbiyalashga oid muhim g‘oyalar keltirilgan. Ushbu g‘oyalar asrlar davomida inson salomatligini saqlash va mustahkamlash jarayonlarida metodik jihatdan foydali bo‘lib kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Yosh avlodda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi Sharq mutafakkirlari — Al-Farobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Muslihiddin Sa’diy va Abdulla Avloniy asarlarida keng yoritilgan bo‘lib, ularning yondashuvlari bugungi modern ta’lim tizimi uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular sog‘lom hayotning ma’naviy poklik, intizom, me’yor, jismoniy chiniqish va ongning ravshanligi bilan chambarchas bog‘liq ekanini nazariy jihatdan asoslaganlar. Shunday qilib, Sharq mutafakkirlarining qarashlari konseptual-metodologik baza sifatida xizmat qilib, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy negizini belgilaydi.

Psixologiya fanidagi tadqiqotlar — A. Murodov, D. Anvarova, I. Tursunov tomonidan olib borilgan ishlarda — yoshlarning axloqiy, irodaviy va hissiy sifatlarini shakllantirish sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda zarur psixologik omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu ishlarda shaxsning psixologik barqarorligi, stressga chidamliligi, o‘zini boshqarish kompetensiyalari empirik kuzatishlar asosida tahlil qilingan.

[27] Sodiqova T., & Umarova, R. (2023). O‘smir qizlar tarbiyasi. Tashkent: Sog‘lom avlod, 110-125.

So‘nggi yillarda Nodira Karimova, Jamshid Nurmatov, Muhammabek Yuldashev, Anora Mamatova, Sanjarbek Sultonov, Gulchehra Sadiqova, Odilbek Abdurazzoqov va Shokirbek Masharipov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sog‘lom hayot tarzining shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy mas’uliyat va salomatlik bilan bog‘liq jihatlarini kompleks ravishda o‘rgangan. Ularning empirik izlanishlari ko‘proq kuzatuv, test, sotsiologik so‘rov va statistika metodlariga asoslangan bo‘lib, talabalarning sog‘lom turmush tarziga munosabatini o‘nlab ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilgan.

Sog‘lom ovqatlanish madaniyati bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar — P. Vregg, R. Vorobyev, V.A. Dadalining tadqiqotlari — ovqatlanish odatlarining sog‘liq ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sirini eksperimental va klinik kuzatuvlar orqali asoslaydi. M.N. Ismoilov va S.S. Solihojaev esa ovqatlanishning psixologik va ijtimoiy determinantlarini tahlil qilib, oilaviy an’ana, tarbiya, iqtisodiy sharoit va emotsional holatning ovqatlanish madaniyati bilan bog‘liqligini empirik tarzda isbotlagan.

Shaxsiy gigiena masalalari M.V. Antropova, Y.E. Kalchenko, V.S. Lukyanov va S.Ye. Mansurova ishlari asosida o‘rganilib, ularda gigiena qoidalariga rioya qilishning talaba sog‘ligiga ta’siri tajribaviy (empirik) dalillar orqali baholangan. Bu tadqiqotlarda amaliy mashg‘ulotlar, gigienik ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazilgan. Ekologik tarbiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar — L.A. Alibekov, P. Varotov va E.O. Turdiqulov asarlarida — ekologik ongni shakllantirish metodologiyasi, ta’lim jarayonida ekologik tarbiyaning o‘rni va talabaning ekologik mas’uliyati didaktik, pedagogik va empirik yondashuvlarda tahlil qilingan. Talabalarning psixologik farovonligi va pedagogik qo‘llab-quvvatlash masalalari O. Musurmonova va G‘. Janabayeva tadqiqotlarida chuqur yoritilib, ularning ishlarida psixologik diagnostika, suhbat, kuzatish, test metodlari qo‘llanilgan.

Favqulodda vaziyatlar va birinchi yordam ko‘nikmalarini shakllantirish borasida — Z. Ilyosova va F.S. Sodiqov tadqiqotlari — amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiya va treninglar orqali ishlab chiqilgan metodlar bilan boyitilgan. Jinsiy tarbiya masalalari O.V. Veseleva va A.D. Gadasina tomonidan o‘rganilib, sog‘lom jinsiy rivojlanish, gigiena, psixologik xavfsizlik masalalari yoshlar salomatligi nuqtayi nazaridan ilmiy-empirik tarzda tahlil qilingan. Umuman olganda, zamonaviy ta’lim jarayonidagi global o‘zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasining metodologik asoslarini yangidan ko‘rib chiqishni talab qiladi. Talabalar salomatligini monitoring qilish, sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar empirik usullar — testlar, so‘rovlar, diagnostika, pedagogik eksperimentlar — orqali boyib bormoqda.

Natijada. Salomatlik pedagogikasi bugungi kunda ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib, talabalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslarni qamrab oladi. Tez sur’atlarda rivojlanayotgan ta’lim jarayoni, o‘sib borayotgan ijtimoiy talablar va yangi

avlodning sog‘lom ulg‘ayishi zarurati salomatlikni asrash va mustahkamlash bo‘yicha zamonaviy metodlarga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarning salomatligini himoya qilish masalasini yanada dolzarb qilib, ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni pedagogik zarurat sifatida belgilab qo‘ydi. Xususan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki, jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashuvi va salomatlikka oid qarashlarining shakllanishi bevosita ta’lim muhitidagi sharoitlar bilan uzviy bog‘liqdir. Mustaqillik yillarida davlat tomonidan sog‘lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan siyosat izchil amalga oshirilib, tibbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va ekologik yo‘nalishlarni qamrab olgan keng ko‘lamli dasturlar ishlab chiqildi. “Sog‘lom avlod” g‘oyasi milliy rivojlanish strategiyasining asosiy tamoyillaridan biriga aylangan bo‘lib, unda quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

-yoshlarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash;

-sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish va aholi o‘rtasida targ‘ib etish;

-sport va jismoniy tarbiya infratuzilmasini kengaytirish;

-avlod sog‘lig‘ini ekologik va ma’naviy tahdidlardan himoyalash;

-ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish;

-sog‘liqni saqlashga doir davlat strategiyalarini amaliyotga joriy etish.

Davlat siyosati doirasida qabul qilingan farmonlar, qarorlar va dasturlar sog‘lom avlodni tarbiyalashning metodik asoslarini yaratib, ta’lim jarayonida talabalarning salomatligini yaxshilashga qaratilgan samarali mexanizmlarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda sog‘lom avlodni tarbiyalash, sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish va talabalarning salomatligini muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu boradagi chora-tadbirlar nafaqat bugungi yoshlarning, balki kelajak avlodning ham barkamol, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish va madaniyatni oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadbirlar davlat dasturlari, qonunlar va strategik rejalarga asoslangan bo‘lib, sog‘lom avlodni tarbiyalash maqsadida o‘tkazilmoqda[28].

Sog‘lom avlodni tarbiyalashda asosiy tamoyillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1.Inson huquqlari: Har bir fuqaroning salomatligini muhofaza qilishda inson huquqlarini ta’minlash va davlat kafolatlarini amalga oshirish.

2.Profilaktik tadbirlar: Salomatlikni saqlashda profilaktika tadbirlarining muntazamligini va ularning samaradorligini oshirish.

3.Tenglik va adolat: Salomatlik xizmatlaridan foydalanishda barcha aholining teng huquqliligini ta’minlash, shuningdek, ijtimoiy adolatni saqlash.

[28] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Sog‘lom avlodni tarbiyalash va salomatlikni muhofaza qilish to‘g‘risida” qaror. Tashkent, 2021, № 78.

4.Ijtimoiy himoya**:** Salomatlikka tahdidlar paydo bo‘lganda, aholini himoya qilish uchun samarali ijtimoiy mexanizmlarni joriy etish.

5.Tibbiyot va salomatlikka mas’uliyat: Davlat va nodavlat tibbiy tashkilotlarining salomatlikni saqlashdagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, bemorlarni qo‘llab-quvvatlash.

Aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan barcha ishlar maxsus belgilangan dasturlar va rejalarga asoslangan. Ushbu ishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi[29]:

a) Aholi salomatligini tibbiy jihatdan har tomonlama muhofaza qilish;

b) Salomatlikni profilaktik tarzda saqlash va kasalliklarning oldini olish;

v) Tibbiy va gigiyenik targ‘ibot faoliyatini kuchaytirish;

g) “Inson kapitali” g‘oyasi asosida jismoniy va sog‘lom avlodlarni tarbiyalash.

Shu bilan birga, bu tamoyillarni amalga oshirishda davlat va jamiyat o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti “salomatlik” tushunchasini insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy barqarorligi sifatida ta’riflaydi. Bu jihatdan salomatlik, milliy qarashlarimizda, kasalliklar yoki nogironliklardan ko‘ra, insonning umumiy holatining barqarorligini anglatadi. Tashkilotning ma’lumotlariga ko‘ra, inson salomatligi 10% sog‘lomlikdan, ya’ni kasalliklarning yo‘qligi yoki salomatlik tizimining samarali ishlashidan bog‘liq. 20% atrof-muhitning holati va tabiiy sharoitlar bilan, yana 20% esa insonning genetik va irsiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Salomatlikni ta’minlashda shaxsning o‘z salomatligiga bo‘lgan munosabati 50% dan ortiq ahamiyatga ega[30].

Shu nuqtai nazardan, sog‘lom turmush tarzi va “salomatlik pedagogikasi” tushunchasi inson salomatligining muhim omillari hisoblanadi. Sharq mutafakkirlarining “har bir inson o‘z salomatligining posboni” degan hikmatli so‘zlari ham ushbu fikrni kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasida salomatlikni saqlash va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar “salomatlik”, “turmush tarzi”, “sog‘lom turmush tarzi”, “sog‘lom madaniyat”, “gigiyenik tarbiya”, “salomatlik qadriyatlari”, “salomatlikni muhofaza qilish”, “salomatlik tamoyillari” kabi tushunchalarni chuqur o‘rganishga qaratilgan.

Mamlakatimizda aholi salomatligini profilaktik tarzda muhofaza qilish maqsadida bir qator asosiy yo‘nalishlar belgilangan[31]:

1. Ota-onalarning salomatligini yaxshilash, homiladorlikni rejalashtirish va bolalar tug‘ilishidan oldin profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

2. Bolalarni kasalliklardan himoya qilish maqsadida emlash dasturlarini kengaytirish, shu jumladan infeksion kasalliklar va xavfli kasalliklarga qarshi emlashni tashkil etish.

---

[29] O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. “Aholi salomatligini muhofaza qilish dasturi”. Tashkent, 2020.

[30] Ibragimov A. “Sog‘lom avlodni tarbiyalash: nazariya va amaliyot”, Tashkent, 2022, p. 45.

[31] Askarov R. “O‘zbekistonning salomatlik siyosati: muammolar va yechimlar”, Tashkent, 2023, p. 78.

3. Bolalar uchun salomatlikni saqlash tizimini yaratish, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va gigiyena masalalariga e’tibor berish.

4. Oila salomatligini mustahkamlash uchun oilaviy poliklinikalar tarmog‘ini kengaytirish, oilaviy konsultatsiyalarni o‘tkazish.

5. Davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan salomatlikni targ‘ib qilish, ommaviy axborot vositalarida sog‘lom turmush tarzi haqidagi dasturlarni tashkil etish.

6. Tabiiy ofatlar yoki texnologik falokatlar paytida aholi salomatligini muhofaza qilish uchun tizim va strukturalarni yaratish.

7. Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va narkomaniya muammolariga qarshi kurashish, sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilish.

8. Nogironlarning to‘laqonli hayot kechirishlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy faoliyatda ishtirok etishlariga shart-sharoitlar yaratish.

9. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb qilish, sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish.

10. Ekologik muammolar va atrof-muhit holatini o‘rganish, uning inson salomatligiga ta’sirini aniqlash.

11. Zararli odatlarni, masalan, chekish, ichkilikbozlik va boshqa salomatlikka zarar yetkazuvchi faoliyatlarni kamaytirish va ularning oldini olish.

O‘zbekistonning salomatlik siyosati, shuningdek, aholi salomatligini muhofaza qilish uchun davlat hujjatlari va dasturlari orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda uy xo‘jaliklarida, sanoat korxonalarida va ko‘chada yuzaga keladigan jarohatlarning oldini olish, ularni davolash va jarohatlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish qoidalari haqida turli olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Masalan, I.Karimov, S.Rasulov, A.Tashkentov, M. Nurmatov va D.Hamidov kabi tadqiqotchilar jarohatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va zaruriy tibbi yordam ko‘rsatish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqanlar. Ularning ishlarida jarohatlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatishning muhimligi va jarohatlarning oldini olish strategiyalari batafsil yoritilgan[32].

Xulosa va munozara. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yosh avlodning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Talabalarda sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish nafaqat ularning salomatligini mustahkamlashga, balki ularni kelajakda barkamol va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, talabalarda kitob, san’at, musiqa va sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish ham jismoniy salomatlik bilan bir qatorda ularning intellektual va hissiy rivojlanishini

[32] **Karimov I.** “Sog‘liqni saqlash va jarohatlarni oldini olish: Amaliy tavsiyalar”. Tibbiyot nashriyoti, 2023.

ta’minlaydi. Bu jarayon yoshlarning har tomonlama rivojlanishi va jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayoni o‘qituvchilarning malakasi va pedagogik faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. O‘qituvchilar doimiy ravishda bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishi, talabalarga samimiy va ishonchli munosabat ko‘rsatishi, ularni jismoniy va ruhiy salomatlikka yo‘naltirishi lozim. Shu bilan birga, har bir o‘qituvchi uchun aniq faoliyat rejalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llash talabalar sog‘lom turmush tarzini o‘zlashtirishida muhim vosita hisoblanadi. Malakali o‘qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarni sog‘lom turmushga rag‘batlantiruvchi, ularning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida yetakchi shaxs sifatida faoliyat yuritadilar. O‘qituvchilarning salomatlikni targ‘ib qilishdagi roli shuningdek, talabalarni sog‘lom turmush madaniyatini kundalik hayotga tatbiq etishga o‘rgatishda namoyon bo‘ladi. Talabalarni sog‘lom ovqatlanish, jismoniy mashqlar, dam olish va stressni boshqarish kabi ko‘nikmalarga o‘rgatish, ularni ekologik va ijtimoiy mas’uliyatga ega shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu tarzda, o‘qituvchilar yosh avlodning nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatligini saqlash va rivojlantirishga hissa qo‘shadilar.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida o‘qituvchilarning ilmiy va amaliy tajribasi, shuningdek, pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon talabalarni salomatlikni asrash, sog‘lom hayot tarzini tanlash va unga rioya qilishga rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, pedagoglarning faoliyati talabalarni jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni qadrlashga, shuningdek, jismonan va ruhiy jihatdan barqaror bo‘lishga o‘rgatadi. Bu yoshlar orasida sog‘lom turmush madaniyatini keng targ‘ib qilish va kelajakda barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, talabalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish jarayoni faqat jismoniy mashqlar yoki to‘g‘ri ovqatlanishdan iborat emas, balki ular orqali yoshlarning ijtimoiy, psixologik va ma’naviy rivojlanishi ham ta’minlanadi. Bu jarayonning samarali bo‘lishi esa o‘qituvchilarning malakasi, ularning pedagogik faoliyati, shuningdek, zamonaviy ta’lim va tarbiya metodlarining qo‘llanilishiga bevosita bog‘liq. Shu sababli, o‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni bugungi ta’lim tizimida ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yosh avlodning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga, ularning kelajakdagi barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir qiladi. O‘qituvchilar esa bu jarayonda yetakchi omil sifatida, talabalarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish va ularda salomatlik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, o‘qituvchilarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI

1. Askarov R. “O‘zbekistonning salomatlik siyosati: muammolar va yechimlar”, Tashkent, 2023, p. 78.

2. Ibragimov A. “Sog‘lom avlodni tarbiyalash: nazariya va amaliyot”, Tashkent, 2022, p. 45.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. “Aholi salomatligini muhofaza qilish dasturi”. Tashkent, 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Sog‘lom avlodni tarbiyalash va salomatlikni muhofaza qilish to‘g‘risida” qaror. Tashkent, 2021, № 78.

5. Sharipova D. J. (2023). *Gigienik tarbiya va sog‘lom turmush tarzi*. Pedagogika jurnali, 45.

6. Sodiqova T., & Umarova, R. (2023). O‘smir qizlar tarbiyasi. Tashkent: Sog‘lom avlod, 110-125.

7. Normuradova Nasiba “The importance of the latin language in medical education and innovative teaching methods” Finland, Helsinki international scientific online conference "Sustainability of education socio-economic science theory". Part 30 JUNE 7th COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS HELSINKI 2025.

8. Mattiyeva Feruza “Zamonaviy lingvodidaktik metodlar asosida tarjima qilish ko‘nikmalarini takomillashtirish” Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 9-son.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MUSIQA FANLARINI MUSTAQIL O’ZLAShTIRIShDA AXBOROT-KOMMUNIKATsIYa VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISh.

Ibragimova Nilufar Adxamovna
ibragimovanilufar.@mail.ru
Guliston davlat universiteti v.b. dotsenti.

Annotatsiya. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo’lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo’lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko’tarish, unga ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining talaba (yoki o’quvchi) larni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Kalit so’zlar: musiqa madaniyati, mobil telefonlar, kompyuterlar, PoverPoint dasturi, mustaqil ish, pedagogik texnologiyalar, uzluksiz ta’lim, musiqa ta’limi.

Аннотация.Будущее любого общества определяется уровнем развития системы образования, являющейся его неотъемлемой частью и жизненной необходимостью. Сегодня реформирование и совершенствование системы непрерывного образования нашей страны, идущей по пути самостоятельного развития, вывод её на новый качественный уровень, внедрение в неё передовых педагогических и информационных технологий, повышение эффективности образования возведены в ранг государственной политики. Мировой педагогический опыт подтверждает, что современные педагогические технологии обладают неограниченным потенциалом для повышения интереса учащихся к предмету и активности их самостоятельной работы.

Ключевые слова: музыкальная культура, мобильные телефоны, компьютеры, программа PowerPoint, самостоятельная работа, педагогические технологии, непрерывное образование, музыкальное образование.

Annotation. The future of any society is determined by the level of development of its education system, which is its integral part and vital necessity. Today, the reform and improvement of the continuous education system of our country, which is moving along the path of independent development, raising it to a new qualitative level, introducing advanced pedagogical and information technologies into it, and increasing the efficiency of education have risen to the level of state policy. World pedagogical experience confirms that modern

pedagogical technologies have unlimited potential to interest students (or pupils) in subjects and increase their activity in independent work.

Key words: musical culture, mobile phones, computers, PowerPoint program, independent work, pedagogical technologies, continuing education, music education.

Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talaba (yoki o’quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko’nikmalari asosida **mustaqil ishlash** samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o’quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg’ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

Ta’limning bugungi vazifasi o’quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko’rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o’rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchi - talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o’rnatilgan bo’lsa,zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolari o’rganayotgan o’qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog’liq, hamda o’qitish jarayonida qo’llanishi zarur bo’lgan ta’lim samaradorligini oshirish, kompyuter, masofali o’qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o’qituvchi va o’quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog’liq deb hisoblaymiz, ya’ni o’qitish jarayonida, maqsad bo’yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo’llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o’quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o’zlari hulosa qila olsalar, o’zlariga, guruhga, guruh, va ularga baho bera olsa, o’qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o’qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ma’lumotlarni o’zlashtirish sifati ta’lim oluvchilarning axborotlarni qabul qilish va faollik darajasiga bog’liq bo’lib, ta’lim olishda inson 10% o’qiganini, 20% tinglaganini, 30% ko’rganini va 90% o’zi mustaqil bajarganini o’zlashtirar ekan. Aynan pedagogik texnologiyalar asosida berilgan vazifa va topshiriqlarni o’quvchilarning o’zi mustaqil bajarishi uchun qulay muhit yaratadi. Bugungi kunda musiqiy ta’limda ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda.Chunki

pedagogik texnologiyalar o’quvchilarning mustaqil ravishda qo’shiqlarni cholg’u asbobida chalib, kuylab tahlil qilish, musiqa savodxonligini oshirib borish, sof intonatsiyada kuylash, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur hosil qilish, o’z qobiliyatini to’la namoyon qila olish, musiqa fanlari bo’yicha puxta bilimlarni egallash, mulohaza va suhbat doirasini kengaytirish, erkin va ijodiy fikrlash, o’qituvchi va guruh o’rtasida hamkorlikni qaror toptirish, pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g’oyalarining ustuvorligiga erishish kabi bir qator muhim ta’lim maqsadlariga erishishni ta’minlaydi.

Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Musiqa ta’limi va tarbiyasining asosiy maqsadi o’quvchilarda musiqa san’atini go’zallik qonuniyatlari asosida o’rganish malakasini shakllantirish va ularda zamonaviy musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iboratdir. Shunday ekan mazkur maqsad o’qituvchi oldiga o’quvchilarda musiqaviy – badiiy did va axloqiy estetik his – tuyg’ularni tarkib toptirish: Ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish, musiqa san’atiga nisbatan qiziqish va ularning musiqa faoliyatida badiiy ehtiyojini kuchaytirish, musiqa savodxonligi madaniyatini shakllantirish, musiqa – davr, hayot, inson his-tuyg’ulari va uning orzu umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish qator vazifalar qo’yadi.

Maktabdagi musiqa fanlari bolani sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o’qishga intilish hissini uyg’otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi.

Musiqiy tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo’ladi:

-malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

-musiqiy tarbiyaning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

-bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;

-zamonaviy o’quv-uslubiy qo’llanmalar, texnik vositalar, o’yinchoqlar va o’yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

-bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish.

Mobil telefonlar, kompyuterlar, boshqa ko’plab zamonaviy elektron aloqa vositalarisiz bugungi shiddatli davrda kundalik hayotni mutlaqo tasavvur qilib bo’lmaydi. Binobarin, aloqa sohasidagi yangiliklar uning an’anaviy turlari, masalan, oddiy telefonlar va pochta xizmatiga ham keng tatbiq etilmoqda.

Darhaqiqat, aloqaning zamonaviy vositalari va texnalogiyalari o’z imkoniyatlari bilan davrimizning asosiy sifat ko’rsatkichlaridan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi aloqa texnikalari ishlab chiqaruvchilarning mashhur brendlari yoki ommaviylashib ketgan onlayn-xizmatlar to’g’risida eshitmagan yoxud o’qimagan kunimiz yo’q. Biroq ularning barchasidan foydalanish uchun birgina zamonaviy mobil telefon, planshet yoki kompyuterning o’zi kamlik qiladi. Axir uyali aloqa tarmog’i signali yoki internetga chiqish imkoniyati bo’lmasa,

bunday uskunalarning birortasi ham ishlamaydi. Shu bois iste’molchilar ehtiyojini qondirish uchun avvalo, tegishli infrotuzilmani kengaytirish va modernizatsiya qilish talab etiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya sohasini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib qolmoqda. Mustaqillik yillarida mavjud telekommunikatsiya xizmatlarining ishonchliligini va sifatini oshirish hamda zamon talablariga javob beradigan yangi turlarini hayotga tatbiq etish borasida katta ishlar qilindi. Butun Respublika miqyosida ilg’or kommuttatsion uskunalar o’rnatilib, ishga tushurildi, tezkor optic tolali aloqa liniyalari yotqizildi. Tarmoqdagi bunday o’zgarishlar aniq strategiyaga ega. Zero, soha jadal jivojlanib bormoqda.

Musiqa fanlarini o’qitishda ayniqsa, axborot-kommunikatsiya vositalari juda katta yordam ko’rsatadi. “Musiqa tarixi” fanidan kompozitorlarning hayoti va ijodini o’quvchilarga yanada aniq yoritib berishda internet saytlaridan samarali ma’lumot olish mumkin. Ularning hayoti va ijodiga bag’ishlab yaratilgan badiiy filmlar, hujjatli filmlar to’plamini dars mobaynida namoyish etish o’quvchilarning mavzuni chuqur o’zlashtirib olishlarida samarali natija beradi. Internetdan olingan ma’lumotlardan PoverPoint dasturi orqali taqdimot namoiyishi ham darsning mazmunli o’tishini ta’minlaydi.

Jahon musiqa madaniyatining buyuk darg’alari avstriyalik V.A.Motsart, nemis bastakori L.V.Betxoven, italiyalik bastakorlar J.Rossini, J.Verdi, rus kompozitorlari M.P.Musorgskiy, P.I.Chaykovskiy, N.A.Rimskiy-Korsakov kabi mashhur musiqa ijodkorlari musiqiy durdonalarini, qolaversa, o’zimizning an’anaviy mumtoz milliy musiqamiz namunalarini dars mobaynida gramm yozuvdan foydalanib tinglash o’quvchilarning musiqiy tinglash faoliyatini va xotirasini shakllanib, o’sishiga yordam beradi.

Pedagogik texnologiya jarayonlari samaradorligini oshirish va shug’ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishini ta’minlashning asosiy talablari to’g’ri tashkil etilgan mashg’ulotlar jarayonida bajariladi.

Agar “Musiqa madaniyati” darslarining “pedagogik texnologiyalarni qo’llash” jarayoni talab darajasida shakllantirilsa, o’quvchilarda musiqiy didning va jismonan sog’lomligi shakllanishining samaradorligi oshadi. Shu jarayon orqali bizning milliy musiqa boyligimiz, mumtoz qo’shiq kuylarimiz kelgusi avlod ongiga chuqur singib borishi amalga oshadi.

Adabiyotlar:

1. Azizxo’jaeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” T., 2006
2. Ishmuxamedov R., Abduqodirov. A., Pardaev A., “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. T., 2008.
3. Karimova D.A. Musiqa o’qitish texnologiyalari va loyihalash. Darslik T., 2020
4. Karimova.D.” Musiqiy pedagogik mahorat asoslari” (darslik). T., 2008
5. Ro’zieva D, Usmonboeva M., Xoliqova Z. “Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi”(metodik qo’llanma) T., 2013.

6. Sharipova. G.M. “Musiqa va uni o’qitish metodikasi” T., 2008
7. Qosimova Z. “Ta’lim texnologiyalari”. T., “Tafakkur qanoti” 2014
8. Ibragimova N. BO’LAJAK MUSIQA O’QITUVChISINING IJRO MAHORATINI O’STIRIShDA MUSTAQIL TA’LIMNING AHAMIYaTI. Vol. 13 No. 5 (2025): FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA FIZIKA FANIDAN O‘QUVCHILARNING TAJRIBA O‘TKAZISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Sattorov Boburbek Zokirovich
34-umumiy o’rta ta’lim maktabi davlat muassasasi fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada fizika ta’limida kompetentli yondashuv asosida o‘quvchilarning tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi yoritilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning eksperimental faoliyatini rivojlantirish ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, amaliy natijalarni baholash va ilmiy izlanish olib borish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Tadqiqotda fizika darslarini tashkil etishda kompetentli yondashuv tamoyillari, interfaol metodlar, eksperimentni modellashtirish va raqamli laboratoriya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning eksperimental tayyorgarligini baholash mezonlari, bosqichlari hamda tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan. Maqola natijalari fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini rivojlantirishda qo‘llash uchun metodik ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kompetentli yondashuv, eksperimental tayyorgarlik, fizik ta’lim, metodika, laboratoriya ishlari.

Аннотация.В данной статье рассматривается проблема формирования у учащихся навыков проведения экспериментов по физике на основе компетентностного подхода. Подчеркивается, что развитие экспериментальной деятельности способствует формированию у школьников компетенций самостоятельного мышления, анализа, оценки практических результатов и ведения научного поиска. В исследовании проанализированы принципы компетентностного подхода при организации уроков физики, использование интерактивных методов, моделирование экспериментов и возможности цифровых лабораторных средств. Также определены критерии и этапы оценки экспериментальной подготовки учащихся, а также педагогические условия, обеспечивающие эффективное формирование навыков экспериментальной деятельности. Результаты статьи имеют методическое значение для совершенствования методики преподавания физики и развития практической компетентности учащихся.

Ключевые слова: компетентностный подход, экспериментальная подготовка, физическое образование, методика, лабораторные работы.

Abstract: This article examines the issue of developing students’ experimental skills in physics education based on a competency-based approach. It emphasizes that the development of experimental activity contributes to the formation of students’ competencies in independent thinking, analytical reasoning, evaluation of practical results, and conducting scientific inquiry. The study analyzes the principles of the competency-based approach in organizing physics lessons, the use of interactive methods, experimental modeling, and the potential of digital laboratory tools. Furthermore, the article identifies the criteria and stages for assessing students’ experimental readiness, as well as the pedagogical conditions that ensure the effective formation of experimental skills. The results have methodological significance for improving the teaching methods of physics and enhancing students’ practical competence.

Keywords: competency approach, experimental preparation, physics education, methodology, laboratory work.

Kirish(Introduction). Hozirgi davrda ta’lim tizimining rivojlanish yo‘nalishlari o‘quvchi shaxsini markazga qo‘ygan, uning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy yondashuv va amaliy faoliyatga tayyorlik kabi kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, fizika fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini tajriba orqali mustahkamlash, tabiat hodisalarini bevosita kuzatish hamda ularning sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash imkonini beruvchi eksperimental faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetentli yondashuv zamonaviy ta’lim nazariyasining asosiy paradigmasi bo‘lib, u o‘quvchilarning faqatgina bilim egallashini emas, balki bu bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini ham rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, fizika darslarida eksperimentlar o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish, gipotezalarni sinash va ilmiy xulosalar chiqarish jarayonlari o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etadi. Shu orqali o‘quvchilarda nafaqat fizik qonuniyatlarni tushunish, balki ilmiy-tadqiqot metodlariga tayangan tafakkur, refleksiya, hamkorlikda ishlash va mas’uliyat hissi shakllanadi.

Ta’limda kompetentli yondashuv o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga, uni amaliy faoliyatga tayyorlashga, mustaqil fikrlash, muammoni aniqlash va yechish bo‘yicha ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv fizika ta’limida nazariy bilimlarning eksperiment orqali mustahkamlanishini ta’minlab, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Biroq, amaliyotda fizika darslarida eksperimentlarga ajratiladigan vaqtning cheklanganligi, zamonaviy laboratoriya jihozlarining yetishmasligi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi kabi muammolar mavjud. Bu esa o‘quvchilarda amaliy faoliyatga nisbatan sust munosabat va past darajadagi tayyorgarlikni yuzaga keltirmoqda.

Nazariy qism. Hozirgi davrda ta’lim tizimi o‘quvchi shaxsining intellektual, ijodiy va amaliy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan kompetentli yondashuvni asosiy metodologik tamoyil sifatida qabul qilmoqda. Bu yondashuvda o‘quvchining faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda, amaliy topshiriqlarda va tajribaviy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fizika fanini o‘qitishda kompetentli yondashuv o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot ruhini uyg‘otish, kuzatish, tajriba o‘tkazish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Fizika — bu nazariya va amaliyotning uyg‘unlashgan fanidir. Unda o‘rganilayotgan hodisalar tajriba orqali isbotlanadi, qonuniyatlar eksperiment asosida shakllanadi. Shu boisdan, o‘quvchilarda tajriba o‘tkazish kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, balki ularning tafakkur madaniyatini, tahliliy fikrlashini va ijodiy yondashuvini ham kuchaytiradi. Eksperimental faoliyat jarayonida o‘quvchi kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi — tadqiqotchi, izlovchi, tahlilchi sifatida shakllanadi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi — mustaqil fikrlovchi, o‘z faoliyatini rejalashtira oladigan, natijani tahlil qila biladigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kompetentli yondashuvning nazariy asosi shundaki, u bilimni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiradi. Jahon ta’lim tizimida UNESCO, OECD va TUNING kabi xalqaro dasturlar kompetensiyani shaxsning integrativ sifati sifatida talqin etadi. Ya’ni, kompetensiya — bu bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy sifatlarning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi bo‘lib, insonning muayyan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, fizika fanida kompetentli yondashuv o‘quvchilarni nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ularni tajribaviy faoliyatda qo‘llashga, ilmiy fikrlashni shakllantirishga, xulosalar chiqarishga va natijalarni baholashga o‘rgatadi.

Eksperimental tayyorgarlikning samaradorligi o‘quvchilarning faol ishtiroki, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli hamda zamonaviy o‘quv vositalarining qo‘llanilishiga bog‘liq. Virtual laboratoriyalar, raqamli o‘lchov tizimlari, modellashtiruvchi dasturlar (masalan, PhET, Crocodile Physics, Algodoo, Arduino) eksperimentni vizual, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda o‘tkazish imkonini beradi. Bunday raqamli texnologiyalar o‘quvchilarni ilmiy-ijodiy faoliyatga jalb qiladi, ularning o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi hamda fizika darslarini interfaol muhitga aylantiradi.

Tajriba o‘tkazish ko‘nikmasi o‘quvchining ilmiy tafakkurini rivojlantiruvchi murakkab jarayondir. Uning tarkibida motivatsion (qiziqish va ehtiyoj), kognitiv (bilim va tushuncha), amaliy (tajriba dizayni, o‘lchovlar, natijalarni qayta ishlash) va refleksiv (tahlil va baholash) komponentlar mavjud. Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchida mustaqil tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va ularni nazariy asoslar bilan bog‘lash malakasini shakllantiradi.

Kompetentli yondashuv asosida tashkil etilgan eksperimental ta’lim o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, ularni mantiqiy va tizimli fikrlashga, faktlarni tahlil

qilish va umumlashtirishga o‘rgatadi. Natijada, o‘quvchi o‘z tajribasi orqali bilimni anglaydi, bu esa o‘z navbatida barqaror bilimga, chuqur tushunishga va ijodiy fikrlashga olib keladi.

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy vazifalarni bajara olish kompetensiyalarining shakllanishiga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, fizikadan eksperimental tayyorgarlik — bu o‘quvchilarning nazariy bilimlarni tajriba orqali mustahkamlashi, tabiiy hodisalar va qonuniyatlarni kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash jarayonlarining yagona pedagogik tizimda uyg‘unlashuvidir.

Eksperimental tayyorgarlikning mazmuni asosan laboratoriya ishlari, amaliy mashg‘ulotlar, tajriba sinovlari, kuzatishlar va natijalarni qayta ishlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bu esa fizika fanining ilmiy-tadqiqot xarakterini ochib beradi va o‘quvchilarning tafakkurini chuqurlashtirishda, texnologik savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fizikadan eksperimental tayyorgarlikni kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish uchun quyidagi nazariy asoslar muhimdir:

Shuningdek, didaktik tamoyillar (ilmiylik, tizimlilik, amaliy yo‘naltirilganlik, uzluksizlik) asosida shakllantirilgan eksperimental faoliyat o‘quvchining fizik tafakkurini, kuzatuvchanligini, izchilligini va mustaqil qaror qabul qilish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning eksperimental tayyorgarligini samarali rivojlantirish, ularning fizik hodisalarni anglash darajasini chuqurlashtirish bilan birga, ular orasidan ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqadigan yoshlarni aniqlash va ularni rag‘batlantirish imkonini ham beradi. Bu jarayonda o‘qituvchining roli — faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi, motivatsiya beruvchi, maslahatchi va hamkor sifatida shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi (review of the literature and research methodology). Kompetentli yondashuv asosida fizika fanini o‘qitish masalasi so‘nggi yillarda jahon pedagogik hamjamiyatining diqqat markazida turibdi. Ta’lim sifati, o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar kompetentli yondashuvning nazariy, metodik va texnologik asoslarini chuqur o‘rganishni talab qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetentli yondashuv g‘oyasi dastlab xorijiy ta’lim tizimida (J. Raven, D. Hymes, R. White, D. McClelland) tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u inson faoliyatida bilimdan ko‘ra amaliyot, tajriba va moslashuvchanlikning ustuvorligini asoslab beradi. Keyinchalik Yevropa Ittifoqining **TUNING Educational Structures Project** hamda **OECD DeSeCo** dasturlari doirasida kompetensiyalar ta’lim natijasining asosiy mezoni sifatida e’tirof etildi.

Rus olimlari A.V. Xutorskoy, E.F. Zeer, A.A. Verbitskiy, I.A. Zimnyaya va N.F. Talyzina tadqiqotlarida kompetensiya inson faoliyatining integrativ sifat ko‘rsatkichi sifatida talqin qilinadi. Ularning fikricha, kompetentli yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi,

ularni ijodiy va tahliliy faoliyatga yo‘naltiradi hamda o‘qituvchining boshqaruvchi rolini fasilitatorlik (yo‘naltiruvchi) faoliyatiga aylantiradi.

O‘zbekiston olimlari orasida Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan **“Inson kapitalini rivojlantirish”**, **“Yangi O‘zbekiston – yangicha ta’lim”** konsepsiyalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **PF-5712**, **PF-5953** va **PQ-5032** sonli qarorlarida kompetensiyaviy ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasida belgilangan. Mahalliy pedagog olimlar A.M. Xudayberganov, P.M. Jalolova, B.M. Mirzaxmedov, M.D. Jo‘raev, N.B. G‘ofurovlarning tadqiqotlarida fizika ta’limini modernizatsiya qilish, raqamli vositalarni joriy etish va eksperimental tayyorgarlikni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

Shuningdek, G. Polya, D. Bruner, L.S. Vygotskiy, J. Piaget, D. Ausubel singari psixolog va didaktlarning ilmiy qarashlari o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini, muammoli va tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘qitish asosida shakllantirish metodologiyasi uchun nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ta’kidlashicha, o‘quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki faol o‘zlashtirish, izlanish va sinov jarayonida egallashi zarur.

Tahlil qilingan adabiyotlardan kelib chiqib, hozirgi davrda fizika ta’limida kompetentli yondashuvni eksperimental faoliyat bilan uyg‘unlashtirish zarurati kuchaygani aniqlanadi. Chunki bu yondashuv o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi, bu esa ta’lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyat nazariyasi, konstruktivistik yondashuv, tizimli va integrativ yondashuvlar tashkil etadi.

1. **Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv (A.N. Leontyev, P.Ya. Galperin)** – o‘quvchi bilimni faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi, ya’ni tajriba o‘tkazish orqali bilish amaliyotga aylanadi.
2. **Konstruktivistik yondashuv (J. Piaget, D. Bruner)** – bilim o‘quvchi tomonidan mustaqil kashf etiladi, tajriba esa bilimni qurish jarayonining markaziy elementi hisoblanadi.
3. **Tizimli yondashuv (B.G. Ananiev, L. Bertalanfi)** – o‘quvchilarning eksperimental tayyorgarligi ko‘p komponentli tizim sifatida qaraladi: motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv qismlar o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi.
4. **Integrativ yondashuv (E.F. Zeer, V.A. Bolotov)** – o‘quv jarayonida nazariya, amaliyot va texnologiyani bir butun metodik tizimga birlashtirishni nazarda tutadi.

Tadqiqotda shuningdek, **pedagogik eksperiment**, **diagnostik kuzatuv**, **test sinovlari**, **matematik-statistik tahlil** va **taqqoslama tahlil** usullaridan foydalaniladi. Bu metodlar o‘quvchilarning tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini aniqlash, ularning rivojlanish dinamikasini o‘lchash hamda kompetensiya shakllanish darajasini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetentli yondashuv asosida fizika fanini o‘qitishning samaradorligi o‘quvchilarni eksperimental faoliyatga jalb etish darajasi bilan bevosita bog‘liq. Zamonaviy pedagogik metodologiya o‘qituvchidan o‘quvchini markazga

qo‘ygan, faoliyatga, tajribaga, izlanishga yo‘naltirilgan o‘qitish strategiyalarini qo‘llashni talab etadi. Shu bois, o‘quvchilarning tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish — bu nafaqat amaliy malaka hosil qilish, balki o‘quvchining mustaqil fikrlovchi, tahliliy va ijodiy shaxs sifatida shakllanish jarayonidir.Ushbu tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, pedagogik eksperiment va kuzatish usullaridan iborat. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning eksperimental ko‘nikmalari shakllanish dinamikasi kuzatildi, eksperiment natijalari tahlil qilindi va baholandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kompetentli yondashuv asosida tashkil qilingan eksperimental tayyorgarlik o‘quvchilarning fizikadan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalar qayd etildi.

Xulosa(Conclusion). Kompetentli yondashuv asosida maktab o‘quvchilarining fizikadan eksperimental tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi samaradorligini oshirish mumkin. Buning uchun tegishli pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, laboratoriya jihozlarini yetarli darajada ta’minlash va o‘quvchilarni tadqiqot faoliyatiga jalb etishni davom ettirish lozim. Kompetentli yondashuv asosida fizika fanidan o‘quvchilarning tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning dolzarb ilmiy-metodik yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning eksperimental faoliyatini shakllantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish hamda raqamli texnologiyalar asosida ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi asoslab berildi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar va o‘tkazilgan metodologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kompetentli yondashuv asosida tashkil etilgan fizika ta’limi o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki eksperimental faoliyatni samarali amalga oshirish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu yondashuv o‘quvchining shaxsiy faolligini kuchaytiradi, uni izlanishga, tajriba natijalarini tahlil qilish va xulosalashga yo‘naltiradi. Xulosa qilib aytganda, kompetentli yondashuv asosida tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish fizika ta’limining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni ilmiy-texnik tafakkurga tayyorlash, ularning mustaqil fikrlash va tahliliy faoliyatini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta’limni amaliyot bilan integratsiyalash, o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti yaratish va natijada jamiyat ehtiyojlariga mos kompetent mutaxassislarni tayyorlashda strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ismoilov, D. M. (2025). Competency-based development of students’ experimental skills in physics education. Qarshi State Technical University.

2. Ismoilov, D. M. (2020). Methods of scientific knowledge and research in the content of secondary education on physics. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(6). https://www.idpublications.org/wp-

content/uploads/2020/06/Abstract-METHODS-OF-SCIENTIFIC-KNOWLEDGE-AND-RESEARCH-IN-THE-CONTENT-OF-SECONDARY-EDUCATION.pdf

3. Khutorskoy, A.V. Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy obrazovatelnoy paradigmy // Narodnoye obrazovaniye. – 2003. – №5. – S. 58–64.

4. Serikov, V.V. Lichnostno-oriyentirovannoye obrazovaniye: poisk novoy paradigmy. – M.: Akademiya, 2011. – 240 s.

5. Mirzayev, B.M. Fizika darslarida eksperimental metodlardan foydalanish. – T.: O‘qituvchi, 2007. – 176 b.

6. Nazarov, A.I. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitish metodikasi. – T.: TDPU, 2015. – 148 b.

7. Abdullayeva, Z.E. Kompetensiyaviy yondashuv asosida fizika fanini o‘qitish metodlari. – T.: Fan, 2020. – 210 b.

8. Inoyatov, U.I. Fizika darslarida o‘quvchilarning eksperimental tayyorgarligini shakllantirish. – T.: TDPU, 2018. – 132 b.

9. Voprosy metodiki prepodavaniya fiziki v shkole / Pod red. E.M. Muravyevoy. – M.: Prosveshcheniye, 2004. – 304 s.

10. Qodirov, A. Fizikadan tajribalar o‘tkazish metodikasi. – T.: O‘zbekiston, 2002. – 144 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

KIMYO FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Ubaydullayeva Navruza Ne’matovna *k.f.f.d. PhD, vb dots.*
navruzaubaydullayeva82@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi yoritiladi. Tadqiqotda bir nechta interfaol metodlardan foydalanishning o‘quvchilarning darsdagi faolligi, mavzuni tushuntirish darajasi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish tahlil qilingan. Tajriba-sinov ishlari davomida interfaol metodlar qo‘llanilgan darslar o‘quvchilarning bilim ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirganligi aniqlangan. Olingan natijalar kimyo ta’limida interfaol metodlardan oqilona foydalanish dars samaradorligini oshirishi, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini berishini ko‘rsatadi. Maqola yakunida interfaol metodlarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog olimlar, interfaol metodlar, virtual laboratoriyalar, vaqtning yetishmasligi, o‘quvchilar sonining ko‘pligi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, metodik qo‘llanmalar, elektron platformalar, masofaviy laboratoriyalar, baholash tizimlari, muammo, simulyator, tajriba guruhi, nazorat guruhi, so‘rovnoma, guruh ishlari, munozara.

Аннотация.В данной статье рассматривается эффективность применения интерактивных методов в процессе преподавания химии. В исследовании проанализировано влияние интерактивных подходов на активность учащихся, уровень понимания учебного материала и развитие навыков самостоятельного мышления. В ходе опытно-экспериментальной работы было установлено, что использование интерактивных методов на уроках химии значительно повышает показатели успеваемости учащихся. Полученные результаты демонстрируют, что целесообразное применение интерактивных технологий способствует повышению эффективности учебного процесса, усиливает интерес учащихся к химии и позволяет более продуктивно организовать обучение. В заключение статьи представлены рекомендации по внедрению интерактивных методов в педагогическую практику.

Ключевые слова: педагогические исследователи, интерактивные методы, виртуальные лаборатории, нехватка времени, большое количество учащихся, методическая подготовка преподавателей, методические пособия, электронные платформы, дистанционные лаборатории, системы оценки, проблема, симулятор, экспериментальная группа, контрольная группа, опрос, групповая работа, дискуссия.

Abstract: This article examines the effectiveness of using interactive methods in the process of teaching chemistry. The study analyzes the impact of several interactive approaches on students’ classroom activity, level of understanding of the material, and development of independent thinking skills. During the experimental phase, it was found that lessons employing interactive methods significantly improved students’ academic performance. The results show that the rational use of interactive methods in chemistry education increases lesson effectiveness, enhances students’ interest in the subject, and enables more efficient organization of the learning process. The article concludes with recommendations for implementing interactive methods in educational practice.

Keywords: educational researchers, interactive methods, virtual laboratories, lack of time, large number of students, teachers’ methodological preparation, methodological guides, electronic platforms, remote laboratories, assessment systems, problem, simulator, experimental group, control group, survey, group work, discussion.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim jarayonida kimyo fanini o‘qitishning samaradorligi ko‘p jihatdan darsda qo‘llaniladigan usullar va o‘quvchilarning jarayonga jalb etilish darajasiga bog‘liq. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ma’ruza va izoh-illustrativ yondashuvlar kimyo fanining nazariy va amaliy mazmunini yetarli darajada ochib bera olmaydi. Bunday yondashuvda o‘quvchi asosan tayyor ma’lumotni eshituvchi rolida bo‘lib qoladi, bu esa ularning mustaqil fikrlashi, savol berishi, tahlil qilish va tajribalar orqali bilimni mustahkamlashi imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va faolligi pasayadi, kimyoviy tushunchalar esa yuzaki o‘zlashtiriladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash zarurati aynan shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Interfaol metodlar o‘quvchini markazga qo‘ygan holda darsda hamkorlik, muloqot, tahlil, tajriba va muammoli vaziyatlar orqali bilimni ongli ravishda egallashga yordam beradi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Blits-so‘rov”, “Bahs-munozara”, “Tarmoqlar” kabi metodlar kimyo darslarining nazariy va amaliy mazmunini chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qilishi ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan.

Maqolaning maqsadi — kimyo fanini o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning o‘quvchilar faolligi, dars mazmunini anglash darajasi va o‘quv motivatsiyasiga ta’sirini ilmiy asoslarda o‘rganish, samarali metodlarni aniqlash hamda ularni amaliyotga tatbiq qilish bo‘yicha xulosalar berishdir.

O‘zbekiston pedagog olimlari — O. Tolipova, N. Sayidahmedov, A. Yo‘ldoshev, Sh. Ashurova, J. Jo‘rayev va boshqalarning izlanishlarida interfaol metodlarning o‘quv jarayonidagi ahamiyati, ayniqsa, o‘quvchilarni faol o‘quvchi sifatida shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Ularning ta’kidlashicha, kimyo darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilar tafakkurini rivojlantiradi, murakkab kimyoviy jarayonlarni modellashtirish va tajriba orqali tushuntirish imkonini yaratadi. So‘nggi yillarda kimyo o‘qituvchilari tomonidan amaliyotga joriy etilgan tajribalarda ham interfaol usullar qo‘llanilganda darsga qiziqish

ortishi, o‘zlashtirish darajasi yaxshilanishi hamda o‘quvchining amaliy ko‘nikmalari rivojlangani kuzatilgan.

Interfaol metodlardan muntazam foydalanish kimyo fanini o‘zlashtirish samaradorligini oshiradimi? Agar kimyo darslarida tizimli ravishda interfaol metodlar qo‘llansa, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi ortadi, nazariy bilimlarning mustahkamligi yaxshilanadi va fanga bo‘lgan motivatsiya oshadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kimyo fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchi faolligini oshirish, mavzuni chuqur anglash va kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Avvalo, an’anaviy darslarda kuzatiladigan passiv o‘quv jarayoni, verbal izohlar ustuvorligi va o‘quvchilarning o‘z fikrini mustaqil ifoda eta olmasligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan muammo sifatida qayd etilgan. Shu bois interfaol metodlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ko‘plab ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, interfaol metodlarning asosiy afzalliklari — o‘quvchilarni jarayonga jalb qilishi, muloqotga undashi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishi hamda tahlil, taqqoslash va xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishidir.[1]

Kimyo fanining o‘ziga xosligi — tajriba, modellashtirish va kuzatishlarga asoslanganligi bois interfaol metodlar bu jarayonni yanada samarali qiladi. Xususan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Loyiha metodi”, “Jigsaw”, “Konseptual xarita”, “Case study” kabi yondashuvlar orqali o‘quvchilar murakkab kimyoviy jarayonlarni tushunishda faol fikrlashga undaladi. Masalan, Abdullayev (2020) tadqiqotida “Jigsaw” metodi qo‘llanilganda o‘quvchilar mavzuni 32 % ga yaxshiroq o‘zlashtirgani qayd etilgan. Shuningdek, interfaol yondashuvlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarda motivatsiyaning oshishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ryan va Deci (Self-Determination Theory)ga ko‘ra, shaxs faol ishtirok etadigan jarayonlarda o‘z-o‘zini anglash, muvaffaqiyat hissi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lsa, ichki motivatsiya kuchayadi. Kimyo darslarida guruhli ishlash, muhokama, eksperimentlarni birgalikda bajarish aynan shu jarayonni mustahkamlaydi.[2]

Virtual laboratoriyalar, AR/VR texnologiyalar, simulyatsiyalar va elektron resurslardan foydalanish masalasi ham adabiyotlarda keng yoritilgan. Masalan, Jonson tomonidan olib borilgan tadqiqotda kimyo fanida virtual laboratoriyalar qo‘llanganda xavfsizlik, resurs tejami hamda ko‘zgu (vizuallik) kuchaygani bois o‘quvchilarning tahliliy ko‘nikmalari sezilarli rivojlangani ko‘rsatilgan. O‘quvchilar kimyoviy jarayonlarning mikro darajasini (atom-molekula miqyosida) virtual animatsiyalar orqali yanada aniqroq tasavvur qila olishi aniqlangan. Mahalliy olimlar — Yo‘ldosheva, To‘ychiyev, Qodirova tadqiqotlarida interfaol metodlarning O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llanilish holati o‘rganilib, ularning amaliyotda samaradorligi yuqori ekani qayd etiladi. Xususan, kimyo darslarida “Case study” va “Muammoli ta’lim” texnologiyalari qo‘llanilganda real hayotiy

vaziyatlar asosida fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi, o‘quvchilar mavzu mazmunini passiv qabul qilmay, uni muhokama orqali faol o‘zlashtiradi.[3]

Adabiyotlarda interfaol metodlarning qo‘llanilishida uchraydigan ba’zi muammolar ham qayd etilgan: vaqtning yetishmasligi, sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi va resurslarning cheklanganligi. Ammo zamonaviy metodik qo‘llanmalar, elektron platformalar, masofaviy laboratoriyalar va muqobil baholash tizimlari bu muammolarni sezilarli kamaytirayotganini ko‘rsatadi. Ilmiy manbalarning tahlili shuni tasdiqlaydiki, interfaol metodlar kimyo ta’limining zamonaviy bosqichida yuqori samaradorlik beradigan pedagogik texnologiyalar qatoriga kiradi. Ular o‘quvchilarning bilimni chuqur va ongli o‘zlashtirishiga, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga, shuningdek, darslarni qiziqarli va ijodiy tashkil etishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida metodologiya qismini yoritish uchun talabalar o‘rtasida tadqiqoq olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – kimyo fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligini aniqlashdir. Tadqiqot sifat va miqdoriy yondashuvlar asosida olib borildi, chunki faqat test natijalarini ko‘rish bilan cheklanish o‘quvchilarning faolligi va mavzuni tushunish darajasini to‘liq aks ettirmaydi.

Tadqiqot Namangan Davlat Universitetining talabalari orasida amalga oshirildi. Umumiy ishtirokchilar soni 120 nafarni tashkil etdi. Ishtirokchilar ikki guruhga bo‘lingan:

Tajriba guruhi – interfaol metodlar tatbiq qilingan darslarda ishtirok etgan 60 o‘quvchi.

Nazorat guruhi – an’anaviy usulda dars o‘rganayotgan 60 o‘quvchi.

Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida tanlandi, shuningdek, ular oldindan mavzuga oid bilim darajasi jihatidan tenglashtirildi. Bu tadqiqotning natijalarining ishonchliligini oshirdi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy metodlar qo‘llanildi:

Eksperimental metod – o‘quvchilarning darsdagi faolligi, mavzuni tushunish darajasi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari interfaol metodlar orqali kuzatildi. Tajriba guruhi interfaol metodlar bilan ishladi, nazorat guruhi esa an’anaviy dars uslubi asosida o‘rgatildi.

Kuzatuv metodi – o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtiroki muntazam ravishda qayd etildi. Kuzatuv jadvali o‘quvchilarning javob berish tezligi, faol ishtirok va guruh muhokamalardagi hissasini ko‘rsatdi.

Test va so‘rovnomalar – mavzuga oid bilimni baholash uchun testlar tuzildi, shuningdek, o‘quvchilarning darsdagi qiziqishi va interfaol metodlarga munosabatini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi interfaol metodlar tatbiq qilindi:

Guruh ishlari va munozaralar – o‘quvchilar mavzuga oid masalalarni kichik guruhlarda muhokama qilib, yechimlarni birgalikda ishlab chiqdi. Bu usul o‘quvchilarning kommunikativ va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Rol o‘yinlar va dramatizatsiya – kimyoviy jarayonlarni amaliy simulyatsiya orqali tushuntirish. Misol uchun, atomlararo reaksiyalarni o‘quvchilar “rol” o‘ynab, vizual tarzda o‘rgandi.

Laboratoriya va eksperimentlar – o‘quvchilar mustaqil ravishda tajribalar o‘tkazdi va natijalarni tahlil qildi, bu esa nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash imkonini berdi.

Interaktiv texnologiyalar – multimedia prezentatsiyalar, virtual laboratoriya dasturlari, onlayn viktorinalar va elektron testlar yordamida o‘quvchilar mavzuni mustahkamlad

Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Test natijalarini statistik tahlil qilish – har ikki guruhning o‘rtacha ballari, dispersiyasi va o‘zgaruvchanligi hisoblandi. Bu interfaol metodlar samaradorligini aniqlash uchun muhim mezon sifatida ishlatiladi.

Kuzatuv natijalarini baholash – dars jarayonidagi faollik, guruh ishlarida qatnashish va savollarga javob berish darajasi qayd etildi.

So‘rovnomalarni tahlil qilish – o‘quvchilarning interfaol metodlarga nisbatan munosabati, qiziqish darajasi va darsga bo‘lgan motivatsiyasi aniqlandi.

Eksperiment va nazorat guruhlarini solishtirish – tajriba guruhi va nazorat guruhi natijalari chiziqli va taqqoslovchi tahlil yordamida solishtirildi. Natijalar interfaol metodlarning ta’lim jarayonidagi samaradorligini baholashga imkon berdi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiy saqlandi., ‘quvchilar va ota-onalar roziligi olinib, tadqiqot etik qoidalariga rioya qilindi, ma’lumotlarni qayta ishlashda xatoliklarni kamaytirish maqsadida bir nechta mustaqil kuzatuvchi va baholovchi jalb qilindi.

Ushbu metodologiya tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi va interfaol metodlarning kimyo fanini o‘qitishda samaradorligini aniqroq ko‘rsatishga imkon beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. Ma’lumotlar test natijalari, kuzatuvlar va so‘rovnomalar orqali yig‘ildi. Tajriba guruhi o‘rtacha balli 87,4ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhining o‘rtacha balli esa 72,1ni tashkil etdi.

Bu farq interfaol metodlar yordamida dars o'tgan o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasi sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatadi. Statistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi o‘rtacha balli nazorat guruhi bilan solishtirganda 15,3 ballga yuqori bo‘lib, farq signifikant ($p < 0,05$) ekanligi aniqlangan.

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, tajriba guruhi o‘quvchilari dars davomida faol ishtirok etdi. Savollarga javob berish, guruh ishlari va muhokamalarda muntazam qatnashdi. Nazorat guruhi o‘quvchilari esa passiv bo‘lib, ko‘pincha faqat o‘qituvchi so‘ragan savollarga javob

berdi. Faollik indeksiga qarab, tajriba guruhi o‘rtacha 78% faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, nazorat guruhi faqat 51% bilan cheklangan.

Tajriba guruhi o‘quvchilarining 92% i interfaol metodlarni qiziqarli, 88% i esa mavzuni tushunishni osonlashtiruvchi deb baholadi. Nazorat guruhi o‘quvchilarining faqat 45% i darslardan qoniqish bildirgan. Shuningdek, tajriba guruhi o‘quvchilari mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarining oshganligini bildirdi.

Natijalarni tahlil qilganda shu ma’lum bo‘ldiki, guruhlarda masalalarni birgalikda yechish o‘quvchilarning kommunikativ va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Muhokama jarayonida o‘quvchilar mavzuni mustaqil tahlil qilishga o‘rgandi, bu esa mavzuni chuqurroq tushunishga yordam berdi. Kimyoviy jarayonlarni amaliy ko‘rinishda simulyatsiya qilish mavzuni vizual va tajriba asosida o‘rganishga yordam berdi. O‘quvchilar atomlararo reaksiyalarni “rol o‘ynab” tasavvur qildi va bu o‘rganishni samarali qildi. Tajribalar orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘ladi, natijalarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasi shakllandi. Bu esa nafaqat mavzuni yaxshiroq tushunishga, balki ilmiy fikrlashni rivojlantirishga ham xizmat qildi. Multimedia, virtual laboratoriyalar va elektron testlar darsni qiziqarli va interaktiv qildi. Bu metod o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirib, o‘rganish jarayonini o‘zlashtirishni tezlashtirdi.

Olingan natijalar konstruktiv pedagogika nazariyasi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchi faol ravishda bilimni o‘zlashtiradi va uni amaliy tajriba orqali mustahkamlaydi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, bu esa bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga olib keladi.

Tajriba guruhi va nazorat guruhi natijalari o‘rtasidagi farq shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy metodlar faqat nazariy bilim beradi va darsda faollikni kamaytiradi, interfaol metodlar esa o‘quvchilarda motivatsiya, faollik, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni oshiradi. Natijalar isbotlashicha, interfaol metodlar kimyo fanini o‘qitishda nafaqat bilimni oshirishga, balki dars jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qilishga xizmat qiladi. Tadqiqot faqat bir universitet va 120 o‘quvchi bilan cheklangan, shuning uchun natijalarni boshqa hudud yoki yosh guruhlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq qilish mumkin emas. So‘rovnomalar va kuzatuv natijalari sub’ektiv omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, shuning uchun kelajakda ko‘proq statistik va eksperimental metodlar qo‘llash tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kimyo fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligi, mavzuni chuqur tushunishi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. An’anaviy, passiv usullarga asoslangan o‘qitish jarayonida o‘quvchilar ko‘pincha darsga jalb qilinmaydi, mavzuni qiyin tushunadi va ilmiy fikrlash ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmaydi. Shu bois, interfaol metodlar – muammoli vazifalar, guruh ishlari, muhokamalar, laboratoriya mashg‘ulotlari, rolli o‘yinlar va multimediya vositalari orqali darslarni tashkil etish – o‘quv jarayonini samaraliroq va qiziqarli qiladi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarning faolligi oshadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni mavzuga bevosita jalb qiladi, savol-javoblar, muhokamalar va eksperimentlar orqali faol ishtirok etishga undaydi.

2. Mavzuni tushunish darajasi yaxshilanadi. O‘quvchilar kimyo tushunchalarini amaliy mashqlar va muammoli vazifalar orqali mustahkamlaydi, natijada nazariy bilimlar amaliy jihat bilan mustahkamlanadi.

3. Mustaqil fikrlash va tahlil ko‘nikmalari rivojlanadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni, muammo yechishni va ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi.

4. O‘quvchilarda motivatsiya oshadi. Darslar qiziqarli va o‘yin elementlari bilan boyitilgan holda olib borilganda, o‘quvchilarning kimyoga bo‘lgan qiziqishi va o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan kamchiliklar ham mavjud: barcha interfaol metodlarni muntazam va to‘liq tatbiq etish uchun o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va dars jihozlari yetarli bo‘lishi kerak. Shu bois, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Interfaol metodlarni tizimli joriy etish. Kimyo darslarida interfaol metodlarni faqat muayyan mavzular bilan cheklamay, butun o‘quv yilida izchil qo‘llash tavsiya etiladi.

2. O‘qituvchilarni malaka oshirish. Pedagoglar uchun interfaol metodlar bo‘yicha maxsus seminarlar va treninglar tashkil etilishi kerak, bu ularning metodik savodxonligini oshiradi.

3. Laboratoriya va texnologik jihozlarni boyitish. Darslarda eksperiment va vizual materiallardan keng foydalanish uchun laboratoriya jihozlari va multimediya vositalarini yetarli darajada ta’minlash muhim.

4. O‘quvchi markazli yondashuvni rivojlantirish. Dars rejalarini tuzishda o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish, guruh ishlari va loyiha asosidagi mashg‘ulotlarni ko‘proq qo‘llash.

5. Baholash tizimini yangilash. O‘quvchilarning faolligi, guruh ishlari va mustaqil ishlarini baholash orqali an’anaviy testlardan tashqari ko‘nikma va faoliyat asosida baholash tizimini joriy etish.

6. Ota-onalar va maktab hamjamiyati bilan hamkorlik. Interfaol ta’limning samaradorligini oshirish uchun ota-onalarni jarayonga jalb qilish va o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarning ilmiy fikrlash, ijodiy yondashuv va darsga motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, interfaol metodlarni dars jarayoniga tizimli va uzluksiz joriy etish – zamonaviy ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev, R., & Toshpulatov, S. (2018). Kimyo fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish. Pedagogika va psixologiya masalalari

2. Nazarov, T. (2019). Oliy ta’limda kimyo fanini o‘qitishda masofaviy laboratoriyalardan foydalanish. Ilmiy axborotnoma

3. Yusupov, F., & Karimova, M. (2021). Interfaol metodlar yordamida kimyo fanini o‘qitish samaradorligi. Ta’lim va innovatsiya

4. Akhmedov, D. (2017). Kimyo fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalarning o‘rni. Ilm-fan va ta’lim

5. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. Journal of Engineering Education

6. Michael, J. (2006). Where’s the evidence that active learning works? Advances in Physiology Education

7. Bonwell, C. C., & Eison, J. A. (1991). Active learning: Creating excitement in the classroom. ERIC Digest

8. Svinicki, M. (2004). Learning and motivation in the postsecondary classroom. Anker Publishing

9. Knight, J. K., & Wood, W. B. (2005). Teaching more by lecturing less. Cell Biology Education

10. Tobin, K., & Tippins, D. J. (1993). Constructivism as a referent for teaching and learning.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

CHET-TILINI O’QITISH JARAYONIDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ibraimova G.A
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilini o‘rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslarini o‘rganadi. Maqolada til va nutq, nutqiy faoliyat, o‘quvchi faoliyati, pedagog faoliyati va interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarni faol muloqotga jalb qilishning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogning reaktiv va refleksiv jarayonlardagi roli, kommunikativ vazifalarni o‘quvchilarda shakllantirish, nutqiy vaziyatlarni yaratish va turli didaktik vositalardan foydalanish metodik tavsiyalari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, kompetent,nutqiy faoliyat , nutqiy muloqot boshlang‘ich sinf, pedagogik interaktivlik.

Аннотация: Данная статья изучает научно-методологические основы развития коммуникативной компетенции у младших школьников в процессе изучения английского языка. В статье анализируется значение языка и речи, речевой деятельности, деятельности учащихся, педагогической деятельности и вовлечения учащихся в активное общение посредством интерактивных методов. Также рассматривается роль педагога в реактивных и рефлексивных процессах, формирование коммуникативных задач у учащихся, создание речевых ситуаций и методические рекомендации по использованию различных дидактических средств.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, компетентность, речевая деятельность, речевое общение, начальная школа, педагогическая интерактивность.

Abstract: This article examines the scientific and methodological foundations for developing communicative competence in primary school students during the process of learning English. The article analyzes the importance of language and speech, speech activity, student activity, pedagogical activity, and engaging students in active communication through interactive methods. The role of the teacher in reactive and reflective processes, the formation of communicative tasks in students, the creation of speech situations, and methodological recommendations for using various didactic tools are also discussed.

Keywords: communicative competence, competence, speech activity, verbal communication, primary school, pedagogical interactivity.

Kirish.Mamlakatimizda ta’lim tizimining asosiy islohotlari, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash, darslarni turli metod va vositalar asosida olib borish hamda boshlang‘ich ta’limda chet tilini o‘rganayotgan sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishning ahamiyatidir. Prezident SH.Mirziyoyev ta’kidlashicha: « Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim...» [1].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, lingvistik xilma-xillik, texnologik taraqqiyot va global fuqarolik talab qilinadigan davrda ayniqsa muhimdir. Ushbu maqolada ko‘rsatib o‘tilganidek, kommunikativ kompetensiya faqat lug‘at va grammatikani egallash bilan cheklanmaydi; u turli vaziyatlarda mazmunli muloqot qilish, ijtimoiy signallarni to‘g‘ri talqin etish va munosib javob qaytarish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani muvaffaqiyatli shakllantirish ko‘plab omillarga bog‘liq. Avvalo, bu o‘quv jarayonida mavjud bo‘lgan qulay pedagogik va psixologik shart-sharoitlar bilan belgilanadi.Qulay pedagogik shart-sharoitlar orasida quyidagilarni alohida ta’kidlash lozim:

- o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish;
-ijtimoiy jihatdan qulay sharoitlar, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv;
- o‘qituvchining pedagogik mahorati;
- o‘qituvchi tomonidan nutqning optimal mexanizmlarini tanlay bilish;
-o‘quvchilarni til o‘rganishga rag‘batlantirish, o‘quv motivatsiyasi;
- o‘quv-bilish faoliyatini aktivlashtirish usullarini joriy etish;
- o‘quv jarayonida real muloqot vaziyatlarini modellashtirish;
- kommunikativ kompetensiyani kompleks shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan metodik materiallar bilan ta’minlash;
- o‘quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish, qulay sharoitlar hamda suhbatdoshlarning kommunikativ xulq-atvori.

Chet tilini o‘rganish muvaffaqiyati va natijalari o‘quvchilarning psixologik tayyorgarligiga ham sezilarli darajada bog‘liq. Psixologiyada nutq – bu inson muloqoti, fikrlash faoliyati va o‘zini anglash vositasi sifatida qaraladigan belgilardan iborat tizimdir. Shuning uchun nutqning psixologik xususiyatlari va mexanizmlarini, ijodiy tafakkurni shakllantirish xususiyatlarini, shuningdek chet tilini o‘qitishda yosh xususiyatlarini hisobga

olish zarur. Ushbu masalalar L. S. Vygotskiy, N. S. Leytes, S. L. Rubinshteyn, Yu. A. Samarin kabi psixologlar asarlarida keng yoritilgan [2].

«Kompetensiya» atamasi lotin tilidagi “competent, compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «erishish», «mos kelish», «to‘g‘ri bo‘lish» ma’nolarini anglatadi. «Kompetensiya» so‘zi ma’lum bir sohada insonning egallagan bilim va ko‘nikmalari, intellekti, kuchi va tajribasining namoyon bo‘lishini bildiradi [3].

«Kommunikativ kompetensiya» atamasining ta’rif va tushunchalari ushbu tadqiqot mavzusining aniq misoli bo‘la oladi. Ensiklopedik lug‘atlarda bu atama barcha tillarda bir xil ma’noda ishlatiladi: ingliz tilida «communicate», rus tilida «общаться» – ya’ni «muloqot qilish», «ma’lumot uzatish», «yetkazish». Amerikalik olim D. Hymes antropologiya sohasida ushbu tushunchani birinchi bo‘lib talqin qilgan. Kommunikativ kompetensiya «matnlarni tushunish va yaratish imkonini beruvchi qoidalar to‘plami» sifatida taklif etilgan .

Chet tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuv jarayoni shakllanishi natijasida kommunikativ kompetensiya alohida mavqega ega bo‘lgan. «Kompetensiya» tushunchasini birinchi bo‘lib amerikalik lingvist Noam Chomsky ishlatgan va uni ona tilida nutq faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kommunikativ kompetensiya deb belgilagan [4].

XXI asrga kelib, kommunikativ kompetensiya asosidagi yondashuv mamlakatimiz ta’limining barcha sohalariga kirib kelganida, «bilim-ko‘nikma-kompetensiya» triadasi ta’lim jarayonining integratsiyalashgan natijalarini tasvirlash uchun yetarli emasligi sezildi .

Ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvni qo‘llash uni amaliy nuqtai nazardan rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jarayonda o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. Hozirgi kungacha u «ob’ektiv bilim manbai» sifatida ko‘rilgan, darsliklar bilan ishlashi va o‘quvchiga berilishi lozim deb hisoblangan. Uning asosiy vazifasi – o‘quvchilarga mustaqil o‘rganishni, tashabbus ko‘rsatishni, qaror qabul qilishni, o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni his qilishni, jamoada ishlashni o‘rganishni va shunga o‘xshash ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam berishdir [5].

Zamonaviy chet tillarni o‘qitish metodikasi, nazariyasi va amaliyoti doirasida eng dolzarb masalalardan biri – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ qobiliyatidir. Chunki ta’lim sifatining o‘qitish va tarbiyaga ta’siri katta bo‘lib, ta’limda faoliyat printsipini qo‘llash muhimdir. Kurs materiallarida berilgan bilimlarga qanday javob berish va ularni turli sintetik va tabiiy muloqot kontekstlarida qo‘llashni bilish zarur.

Pedagogik psixologiyada faoliyat nazariyasiga asoslangan bir nechta nazariy kontsepsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bilimlarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan bilish faoliyati tizimining asosini tashkil etadi. Psixologlar (S. L. Rubinshteyn, Yu. A. Samarin, D. N. Bogoyavlenskiy) tomonidan ishlab chiqilgan birinchi kontsepsiya I. M. Sechenov va I. P. Pavlovning assotsiativ-reflektor nazariyasiga tayangan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, inson atrof-muhit haqidagi tajriba va ma’lumotlarni turli bog‘lanishlar tizimi orqali sezgi va harakatlar

yordamida to‘playdi. Ta’lim va tarbiya jarayonida turli assotsiatsiyalar to‘planib, ular insonning bilim darajasi va dunyoga munosabatini belgilovchi tizimni shakllantiradi .

Y. A. Samarin tomonidan assotsiatsiyalar tizimi batafsil ishlab chiqilgan. U o‘quv jarayonida assotsiatsiyalar tizimini shakllantirishning to‘rt bosqichini ajratadi:

1- lokal assotsiatsiyalar;

2- qisman tizimli yoki cheklangan tizimli assotsiatsiyalar;

3- tizim ichidagi yoki fan ichidagi assotsiatsiyalar;

4- tizimlararo yoki fanlararo assotsiatsiyalar[6].

Bu kontsepsiyaning asosiy qoidalari tayanch konspektlar, sxemalar tuzishda qo‘llaniladi. Bunday materiallar orqali o‘quvchi katta hajmdagi o‘quv ma’lumotini qisqa vaqt ichida o‘zlashtira oladi, chunki ma’lumot bir vaqtning o‘zida turli qabul kanallari: audial, vizual, kinestetik orqali yetkaziladi. Bu esa yanada to‘liq va mustahkam eslab qolishga yordam beradi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish o‘quvchining faolligi va uning bilish faolligini rivojlantirish kabi didaktik shart-sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq. P. Ya. Galperin va N. F. Talyzina o‘z kontsepsiyalarida asosiy e’tiborni idrokka emas, balki faoliyatga (tashqi – amaliy yoki ichki – aqliy) qaratadi. Bu faoliyat qo‘llanilayotgan bilim va ko‘nikmalarga adekvat bo‘lishi lozim .

Til – ko‘p funksiyali hodisa. Uning eng asosiy funksiyasi – “kommunikatsiya”. Aristotel fikricha, inson jamiyatida predmetning funksiyasi, ya’ni vazifasi va qo‘llanish usuli uning eng muhim belgisi hisoblanadi. Bu ayniqsa tilga xos, chunki til birliklarining funksiyasi ularning lingvistik realligini belgilaydi.

Nutq – bu muloqot jarayonida tilning qo‘llanishi. Nutq – eng universal kommunikatsiya vositasi, chunki ma’lumotni til birliklari orqali uzatishda ma’no eng kam yo‘qoladi.

Nutqiy faoliyat – bu insonlar o‘rtasida til vositasida nutqiy xabarni qabul qilish va yetkazishga qaratilgan faol, maqsadli, kommunikativ vaziyatga bog‘liq jarayon. Bu nazariya I. A. Zimnyaya, A. Leontyev, L. S. Vygotskiy va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Nutqiy muloqot – kommunikatsiya ishtirokchilari o‘rtasidagi teskari aloqa asosida kechadigan, ma’lum hayotiy maqsadga qaratilgan, ongli, faol jarayon bo‘lib, odamlarning barcha faoliyat turlarida (mehnat, ijtimoiy, bilish va boshqalarda) mavjud.

Kommunikativ o‘qitish o‘quv jarayonini real muloqot modeliga asoslashni nazarda tutadi. Darsdagi vaziyatlar o‘qitishning yakuniy bosqichiga emas, balki barcha bosqichlariga asos bo‘lishi kerak.

Chet tilini o‘qitishda muvaffaqiyat o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq. O‘quvchilarni faollashtirish, ularni tabiiy ravishda muloqotga jalb qilish – o‘qituvchining vazifasidir.Muloqot jarayonida o‘quvchilar turli faoliyat turlarini amalga oshiradilar. Muloqot mazmunini esa muhokama qilinayotgan masalalar belgilaydi[7].

Chet tili darslarida kommunikativ vazifalar o‘quvchi-o‘quvchi yoki o‘quvchi-o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqot jarayonida hal qilinadi. O‘qituvchi kommunikativ vazifalarni bajarishda quyidagilarni hisobga olishi kerak: nutq uslubi, imo-ishora, mimika, yozma yoki og‘zaki shakl, o‘quvchining qiziqishi va boshqalar.Masalan, tinglab tushunish (listening) mashg‘uloti bir vaqtning o‘zida bir nechta kommunikativ vazifani hal qiladi: “tushunish”, “eslab qolish”.

Kommunikativ vazifalar turli-tuman bo‘lishi kerak – shundagina kommunikativ ko‘nikmalar shakllanadi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi dars davomida kommunikativ vazifalarni bajarish orqali quyidagi pedagogik funksiyalarni amalga oshiradi (S. Ya. Romashina):

1. stimul beruvchi funksiyalar;
2. reaksiya bildiruvchi funksiyalar:
   a) baholovchi;
   b) tuzatuvchi;
3. nazorat funksiyalari;
4. tashkiliy funksiyalar:
   — e’tibor yo‘naltirish;
   — o‘quvchini matn, rasm, video bilan ishlashga tayyorlash;
   — vazifalar tartibi va sifatini tushuntirish;
   — yakka, juftlik, guruh ishlari;
   — intizomni tartibga solish.

Bu funksiyalar o‘quvchilar faolligini oshiradi, bu esa kommunikativ vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga sharoit yaratadi.Darslarda qo‘shimcha vositalardan — video, ko‘rgazmali materiallardan foydalanish zarur, chunki darsliklardagi mashqlarning soni oz samarali kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.O‘quv nutqiy vaziyatlar kommunikativ-situativ vazifalarning asosini tashkil etadi.O‘qitish jarayonini real kommunikatsiyaga yaqinlashtirish “mavzular” va “grammatika”ga emas, balki til funksiyalari va nutqiy vazifalarga asoslanadi.

Sotsiokultural nazariya, Kommunikativ til o‘rgatish (Communicative Language Teaching, CLT) va Hamkorlikka asoslangan o‘qitish (Cooperative Learning) kabi ilmiy asoslangan interaktiv metodlar o‘quvchilarning tinglash, so‘zlash va hamkorlik ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu metodlarni rol o‘yinlari, guruh loyihalari, raqamli vositalar va fanlararo vazifalar orqali qo‘llash o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, empatiya va o‘ziga ishonchni shakllantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, jarayon qiyinchiliklardan holi emas. O‘qituvchilarning tayyorgarligi, resurslarning cheklanganligi va o‘quvchilarning turli til fonlari muvaffaqiyatga erishishda to‘siqlar yaratishi mumkin. Bularni bartaraf etish uchun tizimli qo‘llab-quvvatlash, pedagoglarning doimiy professional rivojlanishi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvchan pedagogik yondashuv zarurdir.

Natijada, boshlang‘ich bosqichda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish nafaqat akademik yutuqlarga tayyorlaydi, balki bolalarni jamiyatda mazmunli ishtirok etishga tayyorlaydi. Bu ularga bog‘lanish, hamkorlik qilish va tobora o‘zaro bog‘langan dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo‘lgan vositalarni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.PF–5712-son, 2019 yil 29 aprel.

2. Выготский Л. С. Избранные психологические исследования. Мышление и речь. Проблемы психологического развития ребенка / под ред. А. А. Леонтьева и А. Р. Лурия. -М. :АПН РСФСР, 1956. - С. 300-312.

3. Saidaliev.S. «Language teaching methodology and educational technology videos» educationalmethodical manual., -Namangan:-2021, B-7-8

4. Hymes, D. The ethnography of speacking, Dans: T. Gladwin and W. C. Sturtevant (dir.), Anthropology and human behavior, –Washington, D.C., Anthropological Society of Washington, 1962, p.13-15.

5. Chomsky, N. –1965. Aspects of the theory of syntax, Cambrige, M.I.T. Press (traduction française : Aspects de la théorie syntaxique, Paris, Seuil, 1971).

6. Бодуэн де КуртенэИ. А. Языковедение и язык. Исследования, замечания, программы лекций. -М. : ЛКИ, 2010. - 216 с.

7.Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. Учебное пособие. - 3-е изд., стер.- М. : Академия, 2006. - 336 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MAHMUDXO`JA BEHBUDIYNING PEDAGOGIK MEROSI

Hamroyev Shuhrat Eliyevich*-pedagogika fanlari nomzodi,*
Shahrisabz davlat pedagogika instituti kafedra mudiri
hamroyev-shuhrat@mail.ru
+998(99) 669-56-15
Alimardonova Mo`tabar Xolmo`minovna*-*
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o`qituvchisi
mutabar-alimardanova- @mail.com

Annotatsiya .Mahmudxo`ja Behbudiyning hayoti, pedagogik faoliyati hamda ijtimoiy-pedagogik qarashlarini o`rganish-ijtimoiy zaruriyat ekanligi prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev asarlarida metodologik asos sifatida ko`rsatib o`tilgan., Maqolada Mahmudxo`ja Behbudiyning hayoti, pedagogik faoliyati va “Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya” (“Umumiy jug‘rofiyadan saylanma kitobi”,) darsligidan boshlang‘ich sinflarda foydalanish imkoniyatlari masalasi yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Mahmudxo`ja Behbudiy, pedagogik, jadid, pedagogik meros, boshlang‘ich sinf, foydalanish imkoniyatlari.

Annotation.Mahmudhoja Behbudi's life, pedagogical activity and learning social-pedagogical views is considered as a social necessity by our president Sh.Mirziyoyev. It is shown as a methodological basis in the works of president.

The article highlights the life, pedagogical activities of Mahmudhoja Behbudi, and the possibility of using the textbook "Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya" ("Selected book from general geography") in primary grades.

Key words: Mahmudhoja Behbudi, pedagogy, modernity, pedagogical heritage, elementary school, possibilities of use.

Аннотация.Жизнь, педагогическая деятельность и изучение социально-педагогических взглядов Махмудходжи Бехбуди президент нашего Ш.Мирзиёев считает общественной необходимостью. Это показано как методологическая основа в трудах президента. В статье освещаются жизнь, педагогическая деятельность Махмудходжи Бехбуди, а также возможность использования учебника «Китоби мунтхаби географияи ва намани география» («Избранная книга из общей географии») в начальных классах.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, педагогика, современность, педагогическое наследие, начальная школа, возможности использования.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev “Samarqand-yer yuzining sayqali” mavusidagi ma’ruzasida samarqandlik jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosiga to‘xtalib- “Samarqand tuprog‘ida voyaga yetgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy, biz yig‘ilib turgan mana shu Kattaqo‘g‘on zaminidan yetishib chiqqan Abdulhamid Majidiy singari o‘nlab ma’rifat fidoyilarining qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda”[1],- deb yozganlar.

Demak, jadidlarning hayoti, faoliyati, boy pedagogik merosidan hozirgi kunda ta’lim – tarbiya jarayonida foydalanish dolzarb vazifadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyati va ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qarashlari haqida Begali Qosimov “Milliy uyg‘onish”[11], “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” [12] kabi asarlarida jadidchilikni vujudga kelish tarixi, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, turkistonlik jadidlarning hayoti, faoliyati, adabiyotshunoslik rivojiga qo`shgan hissasi, Z.B. Axrarova “Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ma’rifiy- amaliy faoliyati” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [4]. N. Avazov Mahmudxoja Behbudiyning ijodiy merosi muammosini tadqiq qilgan [2], D.A. Axatova esa, Abdurauf Fitratning ma’rifiy-pedagogik qarashlarini o`z tadqiqotlarida ochib bergan [3 ]. R. Barakayev esa “XX asr boshlaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” [5] muammosi bo`yicha filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yozgan, ishni muvafaqqiyatli himoya qilgan. Tarixchilardan M.A. Xudaykulov “Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX -начало XX века) [9] mavzusidagi dissertatsiya ishida XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston jadidlarining ma`rifatparvarlik faoliyati tadqiq qilingan. Irgasheva N.A. “Munavvarqori Abdurashidxonovning ma’rifiy-pedagogik qarashlari” [7] mavzusi bo`yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. O‘zbek alifbo darsliklarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va didaktik asoslari mavzusida M.E. Inoyatova nomzodlik disIertatsiyasini himoya qilgan. [6], Sh. E. Hamroyev ’’Jadid ma’rifatparvarlarining darsliklaridagi badiiy matnlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalash” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [14], “Boshlang`ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish”[13], “Jadidlarning darsliklaridagi badiiy matnlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalash” [15] mavzularida monografiyalar hamda ”Boshlang`ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish” [16] mavzusida o`quv qo`llanma chop ettirgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yangi usul maktablari, uning tarafdorlari to‘g‘risida kengroq ma’lumotlar berila boshlandi. Bir qator o‘quv qo‘llanmalariga, darsliklarga kiritila boshlandi. Shunga qaramasdan jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir asarlaridan umumta’lim maktablarida, chunonchi, boshlang‘ich sinflarda foydalanish muammosi hali-hanuz yechilganicha yo‘q. Shu sababli,

Mahmudxo`ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosidan boshlang`ch sinflarda foydalanish imkoniyatlari muammosini o`rgandik.

Nazariy asos

Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. «Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat-ul atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblar chop ettiradi. 1908 yilda Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o‘z hovlisiga qo‘chirib keltiradi. Behbudiy 1911- yilda «Padarkush» dramasini yozdi.

Behbudiy 1917-yil aprelda «Samarqand» gazetasini chiqaradi. Gazeta o‘zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta chop etildi. 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtadi. Shu yil 20-avgustdan u «Oyna» jurnalini chiqara boshladi. Haftalik, suratli bu jurnal asosan o‘zbekcha bo‘lib, she’r, maqola (forscha), e’lonlar (ruscha) ham berib borildi. Jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaldi.

Jurnalning birinchi sonidayoq «Ikki emas, to‘rt til lozim», degan maqola bilan chiqib, o‘zbek, tojik, arab, rus va hatto biror uzoq xorij (mas, fransuz) tilini bilish shart deb hisobladi. Ayni paytda tilning muhofazasi («Har millat o‘z tili ila faxr etar» —1914, № 35), o‘zaro munosabatlari («Til masalasi» — 1915,№ 11,12) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. Ular xilma-xil mavzuda. Behbudiy o‘zlikni anglashga katta e’tibor bergan. «Qabilasini(ng) ismini va yetti otasining otini bilmaydurgonlarni «qulq «marquq» derlar», deb yozadi («Sart so‘zi majhuldur», «Oyna» jur.,1914, № 23). Keyinchali buyuk adib Chingiz Aytmatov manqurt atamasini jahon adabiyotiga olib kirdi.

Mahmujxo‘ja Behbudiyning «Kitobi muntaxabi jo‘g‘rofiyai umumiy», to‘liq nomi «Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya» («Umumiy jo‘g‘rofiyadan saylanma kitob, 1906») darsligida, «yangi ilmdan bexabar ulamolar»ni dunyoviy va diniy bilimlar o‘rtasiga sun’iy to‘siq qo‘yish, nodonliklari tufayli islom dinini obro‘sizlantirishda aybladi. Muallif ushbu darsligida: «Agarda jo‘g‘rofiya o‘qumasak, dunyog‘a taraqqiy qilolmaymiz», - deb ta’kidlaydi.

Muallif ushbu darsligini nashr ettirish uchun 1905-yil 24-avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906-yil Samarqandda G.I.Demurov matbaasida chop ettirgan. Darslik 106 sahifadan iborat. Uning dastlabki sahifalarida geografiyaning fan sifatida maydonga kelish tarixi, qadim Turkiston olimlarining bu sohadagi xizmatlari yoritiladi, ularning asarlaridan namunalar keltirilgan. Muallif Shamsiddinbek Somiyning (1850-1904) 6-jildlik mashhur «Qomus ul-a’lom» va I.Gasprinskiyning «Turkiston ulamosi» kitoblaridagi hujjat va dalillarga suyanib fikr yuritgan. Muallif juda sodda qilib osmon jismlarining joylashishi va harakatini tushuntiradi. «Hukamo qavlicha, Yerni(ng) yumaloqligi alomatlari» deb nomlangan matnda muallifning o‘z kuzatishlari ko‘proq seziladi. Unda Peterburg,

Toshkent vaqti dunyoning boshqa shaharlariga qiyosan berilgan va ikkita jadval ilova qilingan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy zamonasidagi mavjud idora usullarini uchga bo‘ladi:

-idorai mustaqalla (monarxiya);

-idorai mashruta (konstitutsiyali parlamentli hokimiyat);

-idorai jumhuriyat (Respublika). Shuningdek u odamlarni oq, qora, qizil va sariq tanlilar deb irqlarga ajratilishini qayd etadi.

Yerning harakati, dunyoning qurilishi haqidagi geliotsentrik tuzilma va uning Yevropa ilmidagi vakillari N.Kopernik, Kepler, G.Galileylar faoliyati haqida to‘xtalib o‘tadi.

Ushbu darslikda muallif: «...Asri hozirgi tashviqoti ila iste’dodi ojizonamizcha, bataqdiri hay, qadim fan jug‘rofiyaga taalluq ushbu kitobni tahrir va jam’ aylab, «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» yod qilib ba’zi mahalig‘a ta’rix, riyoziy, muhokamoti diniy, umroniy, siyosiy va andagi kutubi diniyadan bayon va iqtibos girma qildik. Fan to‘g‘risindagi ijmol xulosa va tafsilot turkiy, arabiy, forsiy, rus lug‘atlarig‘a tasnif bo‘lgan o‘ttuz qadar qadim va jadid mo‘tabar nusxa va har guna mazkur lug‘atlardagi» gazit-jarida, atlas, xarita, kurrai mumuttaha, istaticheski majmuallardan jam’ va tartib qilingandur»[8] deya ma’lumot bergan.

Darslikda bir sahifa atrofida kirish so‘zi berilgan. Undagi ilk mavzu «Jug‘rofiya» deb deb nomlanadi.

Bu o‘rinda muallif geografiya so‘ziga ta’rif berib, uni bir necha bo‘limlarga ajratadi. ya’ni «jug‘rofiyai riyoziy», «jug‘rofiyai tabiiy» «jug‘rofiyai tarixiy», «jug‘rofiyai siyosiy», «jug‘rofiyai umroniy» va boshqalar. U geografiyaning ahamiyati to‘g‘risida, darslikning xulosa qismida batafsil to‘xtaladi. «Jug‘rofiya qachon poydo bo‘lgan?» degan sarlavha ostida, mazkur fanning qachon vujudga kelganligi hamda taraqqiyoti haqida ayrim fikrlar bayon etiladi. Ushbu bo‘limda geograf olimlar, ular yaratgan asarlar haqida ma’lumotlar berilgan.

M.Behbudiy osmon jismlari, yerning aylanishi haqidagi ma’lumotlarni bolalar yoshiga mos tilda bayon etishga harakat qilgan. Shuningdek, darslikda geografiyaga oid ko‘plab kitoblar yozilganligi, Abulqosim Ubaydullohning «Kitob al-masolik va-l-mamolik» va «Kitob as-samo» risolalari mavjudligi, ularning fransuz va nemis tillariga tarjima qilingani, geografiyaning rivojiga hissa qo‘shgan olimlar, ularning asarlari, Amerika qit’asining kashf etilishi, dengizlar, bo‘g‘ozlar, Rusiya va Yevropa mamlakatlari, geografiya fanining hamon rivojlanishda ekanligi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Darslikdagi navbatdagi bo‘limi «Turkiston donishmandlari» deb nomlangan bo‘lib, unda musulmon ulamolaridan Ibn Sinoning lug‘at, mantiq, geografiya, musiqa, axloq, kimyo, abtoli ahkomi nujum, tabiat, hikmat, tib ilmlariga oid yuzlab asarlari borligi, ularning yevropa tillariga tarjima qilinganligi, Badriddin Samarqandiy, Abdurahmon Xorazmiy, Abu Yazid Balxiy, Abduraxmon Marvoziy, Abdurazzoq Hirotiy, Abu Ibrohim Gurgoniy, Sharif Xorazmiy, Ahmad bin Tabib Saraxsiy, Abu Mash’ar Balxiy, Abu Ja’far Xorazmiy, Ahmad

Farg‘oniy kabi donishmandlar, ularning qaysi yo‘nalishda ijod qilganliklari haqida ma’lumotlar berilib, ular yashab ijod qilgan sanalar keltirilgan.

Muallif «Jug‘rofiya o‘qumoqni naf’i» sarlavhasi ostida, geografiya ta’limining ahamiyati va uning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikr yuritadi. U, jumladan, shunday deydi: «... Dunyo odamlarini din va mazhabi, tiriklik va raftori, taraqqiy va tanazzul sababi, yaxshi va yamonliklari, mamlakatlarni tinch va osoyish yo zulm va javrg‘a turgoni, xulosa, butun ahvoli dunyoni, podsholarni quvvati, davlati, odamlarini odati, yer yuzini ahvolini bildiradurgon ushbu ilmdur».[8]

Darslikning diqqatga sazovor va o‘sha davr uchun zarur bo‘lgan bo‘limlaridan biri «Jo‘g‘rofiya o‘qumoq musulmonlarga lozimdur» deb nomlangan. Muallif ushbu bo‘limda yerni ho‘kiz shoxi bilan ko‘tarib turganligi haqidagi qarashning noto‘g‘riligi, geografiyani yaxshi o‘rgangan odam uning dumaloq ekanligini bilishi haqida bahs yuritadi. Mazkur bo‘limda muallif Istanbul, Misr, Arabiston, Hindiston, Rossiya kabi mamlakatlarda geografiya fani chuqur o‘rganilishini ta’kidlaydi.

Ma’rifatparvar pedagog ushbu darslikda «Eski va yangi donishmandlar» haqida ham to‘xtalib, “eski donishmandlar” deb qadimgi yunon ulamolari va “yangi” deb yevropa olimlarini aytish lozimligini ta’kidlaydi. O‘zaro qiyoslash asosida ularning yer haqidagi qarashlarini o‘quvchilarga tushuntirib, yevropaliklarning fikrlariga qo‘shilishini qayd etadi. «Yangi hukamolarni so‘zidan namuna» sarlavhasi ostida, yerning quyosh atrofida aylanishi, yulduzlar yorug‘likni quyoshdan olishi, Mirrix (Mars) planetasi, unda ham tuproq, tosh, o‘t, suv, bulut, yomg‘ir va qor borligi haqida to‘xtaladi. Mazkur o‘rinda muallifning noto‘g‘ri fikr yuritganligini ta’kidlash joizdir. Chunonchi muallif: Marsda odam yashaydi va ularning bilimi bizdan zo‘r, durbin bilan qaralsa, daryolarning suvlari ko‘rinadi,. Mars yerdan olti marta kichik bo‘lib, kecha-kunduz, qish va yozlari bor. 1346-yil Neptun topilgan, uning quyoshdan uzoqligi 4175 mln. chaqirim, deb yozadi. Shuningdek, u darslikda yerning yoshi haqida ham to‘xtaladi.

Darslikdagi «Yer aylanganda ustidagilarni yiqilmasligi» nomli mavzu o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, unda yerning tortishish kuchi haqida fikr yuritiladi.

Navbatdagi mavzu «Atrof 1. Jihoti 2 asliya. Xarita. Plan» deb nomlanib, unda muallif shimol, janub, g‘arb, sharq tomonlari va kompas haqida fikr yuritadi. Xarita bilan ishlash, xaritani yaratish uchun minglab ustodlar, muhandislar, sayyohlar 500 yildan beri o‘lchab, yozib yurganliklari, «miqyos» (masshtab), xarita turlari: xaritai xususiya, xaritai umumiya, xaritai to‘po‘grofiya, xaritai zao‘lo‘jiya, xaritai tabiiyya, xaritai bahriya, xaritai ziroiya, xaritai etno‘grafiya kabilar haqida to‘xtalib o‘tadi, shunday bir necha xaritalar to‘planib kitob shakliga keltirilsa, atlas hosil bo‘lishi uqtiriladi.

Darslikdagi «Hukumat va hukmronlar» nomlangan bo‘limda muallif shunday yozadi: «Yer yuzidagi badaviy va madaniy xalqlarni hukmdor va sardorlari bo‘ladurki, bek, amir, shoh va boshqa ism va lug‘atlar ila ataydurlar... Ovrupo xalqi imperato‘r, qirol, do‘qa, prins, prezident, kenaz va boshqa lug‘atlar ila ataydurlar».

Ushbu bo‘limda muallif Yevropa mamlakatlari qonunlari, turli xalqlar turmush tarzi, podsho va vazirlar, boshqaruv tashkilotlari haqida ham fikr yuritadi.

Darslikda yoritilgan navbatdagi mavzu «Din va odat» deb nomlanadi. Bunda muallif barcha millatlar e’tiqod qiladigan dinlari, dinlarning bir necha mazhablari, butparastlik, xrestianlik, islom dini haqida fikr yuritadi.

Darslikda «O‘lchak - miqyos, mablag‘ - pul» mavzusi ham yoritilgan bo‘lib, unda fransuz olimlarining ixtirolari, xaritalardagi vertikal va meridian chiziqlar, masshtabni aniqlash yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Muallif Rossiya, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent shaharlarining maydoni, ularning qaysi km.meridianda va qaysi km.vertikalda yotishini misollar bilan bayon qiladi.

Darslikda bir qator ilovalar ham mavjud. Masalan: hijratdan 4500- yil oldingi Misr voqealaridan 1906- yildagi Rusiya Davlat Dumasi ochilishigacha bo‘lgan jahon tarixidagi hodisalar sanasi «Ahvoli tarixiyadan namuna» sarlavhasi bilan berilgan. Shuningdek, «Yevropa», «Osiyo», «Afriqo», «Amriqoyi shimoliya», «Amriqoyi janubiya», «Avstraliya», «Mamlakati Rusiya»ning alohida-alohida xaritalari, yer kurrasining yarim sharlari maxsus sahifalarda keltirilgan. Shuningdek, darslikda ko‘rfaz, bo‘g‘oz, daryo va ko‘llarning jug‘rofiy shakllari, tabiat hodisalari, osmon yoritkichlari harakatini tushuntiruvchi turli suratlar, irqlarni farqlab ko‘rsatuvchi rasmlar ham berilgan[ ].

1906-yilda «Turkiston viloyatining gazeti» sahifalarida darslikka taqrizlar beriladi, ayrim taqrizchilar darslikka ijobiy xulosa bersalar, ayrimlari uni qoralaydilar. Jumladan, ushbu gazeta xodimi Mulla Olim, Mahmudxo‘ja Behbudiy kitoblarining tili og‘irligidan shikoyat qiladi.

Bizningcha, “Turkiston jadidlari otasi” deb nom olgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning maorif sohadagi xizmatlari g‘oyat katta. U yangi maktablar ochish, bolalar yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish ishiga rahbarlik qilgan, bu sohada boshqa ziyolilarga ibrat bo‘lgan. U hatto «Behbudiy nashriyoti» nomida nashriyot ochib, unda maktablar uchun darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar nashr qildirgan.

M.Behbudiy millatning barkamolligi uchun ilm fan yutuqlarini o‘rgatish zarurligi, ilm-fandan bexabar bo‘lgan xalqning boshqa millatlar tomonidan ezilishini to‘g‘ri ta’kidlagan edi.

Bizga ma’lumki, jadidlar ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik, millat kamoli yo‘lida jonbozlik ko‘rsatganlar. Biroq, ularning harakati mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifasi o‘sha davrda ham, sovet davrida ham g‘arazli maqsadda talqin qilindi. Markaziy Osiyoda ilk uyg‘onish davri IX-XII asrlarda vujudga kelib, bu asr oralig‘idagi ilmiy-madaniy yuksalish Ma’mun Akademiyasi misolida namoyon bo‘lgan edi. Ikkinchi uyg‘onish davri Temur va temuriylar hukmronlik qilgan yillarga to‘g‘ri keladi, ushbu davrda buyuk davlat qurilishi (Amur Temur saltanati) amalga oshirildi, Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan XV asrning buyuk mo‘jizasi rasadxona yorqin yulduz bu davrning ilmiy tafakkurining yorqin

namunasidir. Oradan IV asr o‘tgach, jadid ziyolilari uchinchi Milliy uyg‘onish jarayonini vujudga keltirdilar. Ular boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar qatori hozirgi geografiya o‘quv fani zarurligini asoslab, bu sohada dastlabki darsliklarni yaratdilar.

M.Behbudiy milliy geografiya ta’limining shakllanishiga munosib hissa qo‘shdi. Uning «Turkiston xaritasi» darsligi va o‘quvchilarga geografiya sohasiga oid bilimlarni o‘qitish zarurligi haqidagi maqolalari muhimdir. M.Behbudiy yaratgan darsliklarning saviyasi o‘sha davr nuqtai nazaridan yuqori, bugungi kunimiz uchun ham muhim didaktik ahamiyatga ega. Zamonaviy darslik yaratish uchun intilayotgan asrimiz metodist olimlari va o‘qituvchilar o‘z amaliy faoliyatlarida mazkur darsliklarda ilgari surilgan ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Biroq darsliklarning tili bir qadar murakkab, ularda arabcha, forscha so‘zlarning miqdori nihoyatda ko‘pligi, ayrim so‘zlarni tushunib bo‘lmasligini ham etiborga olish kerak.

Ajdodlarimizning madaniy - ma’naviy va ilmiy-pedagogik merosi qadimiy va boydir. Milliy qadriyatlarimizni anglash, milliy g‘oya va mafkurani xalq ongida shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Tahlil va natijalar. Tajriba-sinov ishlari Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 7-; Nishon tumanidagi 3-; Kasbi tumanidagi 32-; Mirishkor tumanidagi 1-; 2-; 6- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Yangi usul maktabi tarafdorlarining hayoti, faoliyati va asarlari haqidagi bilimlarni o‘zgarib borishini o‘rganish maqsadida o‘quvchilarga og‘zaki-yozma ravishda savollar berildi, qiziqarli savol-javob o‘yinlariga maxsus tayyorlangan savollar kiritildi:

1. Ma’rifatparvar deganda qanday kishini tushunasiz?
2. O‘zbek ma’rifatparvarlaridan kimlarni bilasiz?
3. Quyidagi ma’rifatparvarlarning hayoti, faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

Abdulla Avloniy;

Saidrasul Aziziy;

Mahmudxo‘ja Behbudiy:

Munavvarqori Abdurashidxonov.

4. Mahmudxo‘ja Behbudiyning qaysi asarlarini uyingizdalar o‘qib yoki aytib berishgan?
5. Mahmudxo‘ja Behbudiyning qaysi asarlari Sizga manzur bo‘ldi? Nima uchun?
6. Mahmudxo‘ja Behbudiyning asarlarini ko‘proq o‘qishni xohlaysizmi? Nima uchun?

Bu anketa savollariga tajriba va nazorat sinf o‘quvchilaridan javoblar olindi. Anketada javoblar uchun mo‘ljallangan joylari bo‘sh qoldirilib, birinchi va ikkinchi sinflarda-og‘zaki, uchinchi va to‘rtinchi sinflarda yozma ravishda javoblar olindi. Javoblarga qarab o‘quvchilarni uch guruhga ajratdik:

I guruhga – ma’rifatparvar so‘zining ma’nosini tushunadigan, unga ta’rif va tavsif bera oladigan; Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati, asarlarini o‘qigan, oilada muntazam ravishda she’r va hikoyalar o‘qib yoki aytib berilayotgan; Mahmudxo‘ja Behbudiyning

pedagogik merosini aniq va ravshan aytib beraoladigan; ularning pedagogik asarlarini ko‘proq o‘qishni xohlaydigan o‘quvchilarni kiritdik.

II guruh – ma’rifatparvar so‘zining ma’nosini umumiy tarzda biladigan, unga aniq ta’rif va tavsif bera olmaydigan; Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va asarlari bilan unchalik tanish bo‘lmagan; Mahmudxo‘ja Behbudiynjing asarlarini ma’nosini yetarli darajada tushuntirib bera olmaydigan, oilada ota-onalar axloqiy she’r va hikoyalar muntazam aytib yoki o‘qib berilmagan; Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik merosidan namunalarni ko‘proq o‘qishni istovchi o‘quvchilarni kiritdik.

III guruhga – ma’rifatparvar so‘zining ma’nosini unchalik ham tushuna olmaydigan, bu so‘zga ta’rifu tavsif bera olmaydigan; Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va asarlari bilan tanish bo‘lmagan yoki o‘qigan she’r va hikoyalarning ma’no va mazmunini tushuntirib bera olmaydigan o‘quvchilarni; oilada ota-onalari ma’rifatparvarlarning she’r va hikoyalaridan namunalar aytib bermaydigan, lekin Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va ayniqsa, axloq-odobga doir asarlarini o‘qishni xohlovchi o‘quvchilarni kiritdik.

1-jadval.

O‘quvchilardan olingan javoblar:

Ko‘rsatkich darajalari	Tajriba sinflari				Nazorat sinflari			
	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
	сони	фоиз	сони	фоиз	сони	фоиз	Сони	Фоиз
Yuqori	24	6	261	66	16	4	32	8
O‘rta	103	26	95	24	121	30	194	48
Quyi	268	68	39	10	266	66	177	44

Jadvalda ko‘rinib turganidek, nazorat sinflardagi 403-nafar o‘quvchidan tajriba boshida I guruh darajasidagilar miqdori 4-foiz bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 8-foizni tashkil qildi; II guruh darajasidagi o‘quvchilar tajriba boshida 30- foizdan tajriba oxiriga kelib 48-foizga yetdi. III guruh darajasidagi o‘quvchilar 66- foizdan 44-foizga tushdi. Tajriba sinflaridagi 395-o‘quvchidan esa I guruh darajasidagi o‘quvchilar miqdori tajriba boshida 6 -foiz bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib 66- foizni tashkil qildi yoki 11- marotabaga oshdi; II guruh darajasidagi o‘quvchilar 26- foizdan tajriba oxiriga kelib 24- foizga tushdi; III guruh darajasidagi o‘quvchilar miqdori 68- foizdan 10- foizgacha kamaydi. Tajriba sinflarida bunday yutuqlarga erishishda, shubhasiz, sinfda o‘tilgan o‘qish, odobnoma, sinfdan va maktabdan tashqari o‘tkazilgan axloqiy mavzudagi suhbatlar, adabiy ertaliklar, kitob ko‘rgazmalari, kitobxonlik konferensiyalari, savol-javob o‘yinlari kabi tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etdi.

Tajriba-sinovda tajriba sinfida 395-nafar va nazorat sinfida 403- nafar o‘quvchi qatnashgan. Yuqoridagi jadvaldagi foizlarda berilgan ko‘rsatkichlarga asosan quyidagi jadvalni keltiramiz.

2-jadval

O‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini o‘zgarib borishi bo‘yicha olingan natijalar

Baho / Sinf	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish ko‘rsatkichlari		
		Yuqori	o‘rta	Quyi
Tajriba sinfi	395	166	154	75
Nazorat sinfi	403	73	173	157


Olingan ma’lumotlarni Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil qilindi.

Tajribadan oldingi va keyingi natijalarni mos ravishda 1 va 2- tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz.

1-tanlanma X_i: yuqori; o‘rta; quyi;
(tajriba sinfi) m_i: 166; 154; 75.
$m = 395$.

2-tanlanma Y_j yuqori; o‘rta; quyi;
(nazorat sinfi) n_i 73; 173; 157.
$n = 403$.

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammani chizamiz:



Rasm. 1. Tajribadan yakunidagi tajriba va nazorat guruhidagi umumiy ko‘rsatgichlar diagrammasi

Diagrammada qayd etilgan grafiklaridan anglanadiki, tajriba va nazorat guruhlari uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda $M_т = 5$ *ва* $M_н = 3$, ya’ni ular orasidagi farq yetarli darajada bo‘lib, $M_т > M_н$ ekan. Bu esa, o‘z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o‘rta

qiymatlar ham X > Y shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko‘rsatadi. Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\overline{X} = \frac{1}{m}\sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{395}(166\cdot 5 + 154\cdot 4 + 75\cdot 3) = \frac{1}{395}(830 + 616 + 225) = \frac{1671}{395} = 4{,}2$$

$$\overline{Y} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n=3} n_i y_i = \frac{1}{403}(73\cdot 5 + 173\cdot 4 + 157\cdot 3) = \frac{1}{403}(365 + 692 + 471) = \frac{1528}{403} = 3{,}8$$

Demak, tajriba guruhi o‘rtacha o‘zlashtirish nazorat guruhidagidan katta ekan: X > Y

Endi har ikki guruh uchun tarqoqlik koeffitsiyentlarini hisoblaymiz. Shu maqsadda dastlab tanlanma dispersiyalarni hisoblaymiz:

$$D_m = \sum_{i=1}^{n=3} n_i (x_i - x)^2 /(m-1) = \frac{166(5-4{,}2)^2 + 154(4-4{,}2)^2 + 75(3-4{,}2)^2}{394} =$$

$$= \frac{166\cdot 0{,}64 + 154\cdot 0{,}04 + 75\cdot 1{,}44}{394} = \frac{106{,}24 + 6{,}16 + 108}{394} = \frac{220{,}4}{394} \approx 0{,}56$$

$$D_н = \sum_{i=1}^{n=3} n_i (y_i - y)^2 /(n-1) = \frac{73(5-3{,}8)^2 + 173(4-3{,}8)^2 + 157(3-3{,}8)^2}{402} =$$

$$= \frac{73\cdot 1{,}44 + 173\cdot 0{,}04 + 157\cdot 0{,}64}{402} = \frac{105{,}12 + 6{,}92 + 100{,}48}{402} = \frac{212{,}52}{402} \approx 0{,}53$$

Bu natijalardan o‘rtacha kvadratik chetlanishlarni topamiz:

$\tau_m = \sqrt{0{,}56} \approx 0{,}75$ $\qquad$ $\tau_н = \sqrt{0{,}53} \approx 0{,}73$

Bular asosida har ikki guruh uchun variatsiya ko‘rsatgichlarini hisoblaymiz:

$$\delta_m = \frac{\tau_m}{\overline{X}} = \frac{0{,}75}{4{,}2} \approx 0{,}18 \qquad \delta_н = \frac{\tau_н}{\overline{Y}} = \frac{0{,}73}{3{,}8} \approx 0{,}19$$

Agar statistik alomatning qiymatdorlik darajasini α= 0,05 deb olsak, u holda Laplas funksiyasi jadvalidan statistika uchun kritik nuqta $t_{кр}$ ни

$$\Phi\left(t_{кр}\right) = \frac{1-2\alpha}{2} = \frac{1-2\cdot 0{,}05}{2} = \frac{0{,}9}{2} = 0{,}45$$

tenglikdan aniqlaymiz: $t_{кр}$= 1,67. Bundan baholashning ishonchli chetlanishlarini topsak:

$$\Delta_m = t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}} = 1{,}67 \cdot \frac{0{,}56}{\sqrt{395}} = \frac{1{,}67\cdot 0{,}56}{19{,}87} = \frac{0{,}9352}{19{,}87} \approx 0{,}05$$

ga teng, nazorat guruhida esa:

$$\Delta_n = t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 1{,}67 \cdot \frac{0{,}53}{\sqrt{403}} = \frac{1{,}67 \cdot 0{,}53}{20{,}07} = \frac{0{,}8851}{20{,}07} \approx 0{,}04$$

ga teng. Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak:

$$\overline{X} - t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}} \le a_x \le \overline{X} + t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}}$$


$$4{,}2 - 0{,}05 \le a_x \le 4{,}2 + 0{,}05 \qquad 4{,}15 \le a_x \le 4{,}25$$

nazorat guruhi uchun ishonchli interval:

$$\overline{Y} - t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} \le a_y \le \overline{Y} + t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

$$3{,}8 - 0{,}04 \le a_y \le 3{,}8 + 0{,}04 \qquad 3{,}76 \le a_y \le 3{,}84$$

Buni geometrik tasvirlasak:



Demak, x=0,05 qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba guruhida o‘rtacha baho nazorat guruhidagi o‘rtacha bahodan yuqori bo‘lar ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatgichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lum =4,2; =3,8; ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatgichlari:

$$K_{усб} = \frac{(\overline{X} - \Delta_m)}{(\overline{Y} + \Delta_н)} = \frac{4{,}2 - 0{,}05}{3{,}8 + 0{,}04} = \frac{4{,}15}{3{,}84} = 1{,}08 > 1;$$

$$K_{бдб} = (\overline{X} - \Delta_m) - (\overline{Y} - \Delta_н) = (4{,}2 - 0{,}05) - (3{,}8 - 0{,}04) = 4{,}15 - 3{,}76 = 0{,}39 > 0;$$

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajribadan keyingi ko‘rsatgich tajribadan oldingi ko‘rsatgichdan yuqori ekan. Demak, o‘quvchilarning Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini

o`rganib borish jarayoni bo‘yicha o‘quvchilar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari yuzasidan olingan natijalar samardor ekan.

Tajriba oxiriga kelib o‘quvchilarning javoblari tajriba guruhlarida tez o‘sishni ko‘rsatsa, nazorat guruhlarida bu holni ko‘rmaymiz. Bu tajriba o‘tkazish metodikasi to‘g‘ri tanlanganligini, tajriba natijalari samarali bo‘lganligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini o`rganib borish jarayoni darajalari birinchi bosqichda-nazorat guruhlar o‘quvchilarining savollarga yuqori, o‘rta, quyi darajalarida 10,6; 35; 54,4 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, tajriba guruhlarda bu miqdor 10,3; 35,7; 54 foizdan iborat bo‘lgan edi. Ikkinchi bosqichda-nazorat guruhlar o‘quvchilarining savollarga javoblari yuqori, o‘rta, quyi darajalar bo‘yicha 18,1; 42,9; 39 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, tajriba guruhlarida 42; 39; 19 foizdan iborat bo‘ldi. Tajriba natijalari biz tanlagan tadqiqot metodikasi to‘g‘ri, samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar. Olib brogan ishlarimiz natijasida quyidagi **xulosalar**ga kelindi:

1. Tadqiqot muammosiga doir mavjud ilmiy-nazariy manbalarni tahlil etish, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosidagi g‘oyalarni o‘rganish pedagogika fani va ta’lim amaliyoti uchun dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko‘rsatdi.

2. Tadqiqotni bajarish jarayonida biz qo‘llagan pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari majmui – Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini o`rganib, tahlil etish, ta`lim jarayoni samaradorligini oshirishga imkon beradigan xilma-xil didaktik materiallar to‘plashga imkon berdi.

3. Jadid ma’rifatparvarlari, chunonchi, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati va u yaratgan darsliklar xalqimizning urf-odat, an’ana va qadriyatlariga shuningdek, Sharq va Yevropa pedagoglarining ilg‘or g‘oyalariga asoslangan.

4. Darslar jarayonida jadid ma’rifatparvarlarining, chunonchi M. Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlarini o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnologiya va interfaol metodlarni qo‘llash ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi.

5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta`lim-tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tarixiylik prinsipi asosida tashkil qilish, unda jadid ma’rifatparvarlari, chunonchi, M. Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlaridan foydalanish zarur.

6. Maqolani yozishdan ko‘zlangan maqsadlarga erishildi, ishda belgilangan vazifalar bajarildi.

Takliflar. Maqolani yozish uchun olib borilgan pedagogik ilmiy-tajriba ishlari natijalariga asoslanib – 1. Darslik mualliflariga quyidagi tavsiyalarni berish lozim deb topdik:

- M. Behbudiyning hayoti, faoliyati va «Risolai asbobi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat- ul

atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi asarlaridagi sh`er va hiokoyatlardan namunalarni tuzish jarayonida foydalanishlari lozim;

- darslik mualliflari ma’rifatparvar pedagoglarning asarlaridan foydalanishda hikoya va she’rlarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘girib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni yoshi, bilim darajasiga moslab, davlat ta’lim standarti va “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi”da ko‘rsatib berilgan yo‘l-yo‘riqlarga muvofiq qayta ishlab chiqib darsliklar mazmuniga kiritishlari lozim.

2. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchliariga:

- tizimli va texnologik yondoshuvlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar haqidagi g‘oyalarga asoslanib mashg‘ulotlarni o‘tishlari mumkin. Chunki, zamonaviy pedagogik texnologiya asosida o‘tilgan darslar samarali natijalar berishi maqolani yozish olib borilgan ilmiy-tajribada isbotlandi;

-maqolada ko‘rsatib berilgan Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlaridan amaliyotda foydalanishlari mumkin.

3. Ota-onalarga:

- quruq gap-so‘z, nasihatvozlikdan ko‘ra Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlaridan foydalanib, aniq dalil va misollar orqali bolalarni shuuriga ta’sir etishlari kerak;

- Behbudiyning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlarini o‘qib yoki aytib berishlari, mustaqil mutolaa qilishga tavsiya etishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, NMIU. 2017. – 488 b.

2. Авазов Н. Маҳмудхожа Беҳбудийнинг ижодий мероси. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун бажарилган дисс. .... –Тошкент: 1995, – 217 б.

3. Ахатова Д.А. Абдурауф Фитратнинг маърифий-педагогик қарашлари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... –Тошкент: 1998, – 163 б.

4. Ахрарова З.Б. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифий Амалий фаолияти. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1997, – 195 б.

5. Баракаев Р.ХХ аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. Филол. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... автореф.. – Тошкент: 1994. – 24 б.

6. Иноятова М.Э. Ўзбек алифбо дарсликларининг тарихий тараққиёт босқичлари ва дидактик асослари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 2000. – 186 б.

7. Иргашева Н.А. Мунавварқори Абдурашидхоновнинг маърифий-педагогик қарашлари. Пед. Фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1997. – 169 б.

8. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1997. – 216 б.

9. Худайкулов М.А. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX -начало XX века). Дисс. … канд. ист. наук. – Ташкент: 1995. – 148 б.

10.Ўзбек педагогикаси антологияси. 1-жилд. /Таҳрир ҳайъати М. Хайруллаев ва бошқалар. Тузувчи-муаллифлар: Ҳошимов К., Очилов С., – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 464 б.

11.Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: «Маънавият», 2002, -400 б.

12 . Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: «Маънавият», 2004, -464 б.

13. Hamroyev Sh. E. Boshlang`ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish.Monografiya. Qarshi:”Fan va ta`lim”, 2021, -216 b.

14. Ҳамроев Ш.Э. Жадид маърифатпарварларининг дарсликларидаги бадиий матнлар асосида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш. Пед. Фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 2009. – 169 б.

15. Ҳамроев Ш.Э.,. Каримов Б. П., Муҳаммадиев Ш. М. “Жадидларнинг дарсликларидаги бадиий матнлар асосида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш” Монография. Қарши:”Фан ва таълим”, 2021, -186 б.

16.Hamroyev Sh. E. Boshlang`ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish. O`quv qo`llanma.. Qarshi:”Intellekt”, 2023, -286 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

MOLIYA YO‘NALISHIDAGI TALABALAR UCHUN TBLT VA MADANIYATLARARO MULOQOT INTEGRATSIYASI

Djurayeva Nargiza Kudratillayevna
O’zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti, mustaqil tadqiqotchi (PhD)
Xalqaro Nordic Universiteti, katta o’qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqola moliya va iqtisod yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tili ta’limida vazifaga asoslangan til o‘qitish yondashuvining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni va imkoniyatlarini tahlil qiladi. Bugungi global iqtisodiy maydon, xalqaro investitsiya jarayonlari va transchegaraviy hamkorlikning kengayib borishi talabalardan nafaqat tilni grammatik jihatdan bilishni, balki turli madaniy muhitlarda samarali, mulohazali va moslashuvchan muloqot qila olishni ham talab etmoqda. Shu sababli talabalarga real hayotiy vaziyatlarni modellashtiruvchi topshiriqlar asosida ta’lim berish, ularning nutqiy va madaniy sezgirligini rivojlantirish, turli madaniyat vakillari bilan professional muloqot olib borish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda vazifaga asoslangan til o‘qitish yondashuvi Deardorffning madaniyatlararo muloqot modeli bilan uyg‘unlashtirildi hamda moliya sohasiga xos kommunikativ vaziyatlar — muzokaralar, biznes yozishmalari, bank amaliyotlari, investorlar bilan uchrashuvlar — asosida topshiriqlar tizimi taklif etildi.

Kalit so‘zlar: vazifaga asoslangan til o‘qitish, madaniyatlararo muloqot, pragmatik kompetensiya, kasbiy ingliz tili, oliy ta’lim, moliya talabalari

Annotation. This article examines the role and potential of task-based language teaching (TBLT) in developing intercultural communication competence among finance and economics students studying English as a foreign language. In today’s global economic environment—characterized by expanding international investment networks, cross-border cooperation, and intensified financial interactions—students are expected not only to master grammar but also to communicate effectively, thoughtfully, and flexibly across diverse cultural settings. Therefore, instruction grounded in real-life, profession-oriented tasks helps learners enhance their linguistic and cultural sensitivity and prepares them for authentic communication with representatives of various cultural backgrounds. In this study, the task-based teaching approach is integrated with Deardorff’s intercultural communication model and applied to professional communicative contexts typical of the finance sector, including negotiations, business correspondence, banking interactions, and investor meetings.

Keywords: task-based language teaching, intercultural communication, pragmatic competence, professional English, higher education, finance students.

Аннотация.В данной статье анализируется роль и возможности использования задания-ориентированного подхода в обучении иностранному языку (Task-Based Language Teaching, TBLT) для формирования межкультурной коммуникативной компетентности у студентов финансово-экономических направлений. Современное глобальное экономическое пространство, усиление международного инвестиционного взаимодействия и расширение трансграничного сотрудничества требуют от будущих специалистов не только владения грамматикой английского языка, но и умения вести эффективный, тактичный и адаптивный профессиональный диалог в различных культурных контекстах. В связи с этим обучение, основанное на моделировании реальных ситуаций, способствует развитию у обучающихся речевой и культурной чувствительности, а также формирует готовность к профессиональному общению с представителями различных культур. В исследовании метод TBLT интегрирован с моделью межкультурной компетентности Дирдорф и адаптирован к типичным профессиональным ситуациям финансовой сферы — переговорам, деловой переписке, банковским операциям и встречам с инвесторами.

Ключевые слова: задание-ориентированное обучение, межкультурная коммуникация, прагматическая компетентность, профессиональный английский язык, высшее образование, студенты финансовых направлений.

Kirish. Jahonda iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda moliya va iqtisod yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun nafaqat til bilimi, balki turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot olib borish ko‘nikmasi ham zarur bo‘lib bormoqda. Xalqaro moliyaviy hamkorlik, transchegaraviy investitsiyalar, auditorlik tekshiruvlari yoki bank muzokaralari kabi jarayonlarda tilning madaniy jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki professional muloqot ko‘pincha qat’iy texnik terminlar emas, balki ijtimoiy-psixologik omillar, ohang, muloyimlik darajasi va muloqot strategiyalariga ham tayanadi [1].

Shu bois oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitish jarayonini faqat grammatik bilimlargina emas, balki madaniyatlararo muloqotni shakllantiruvchi yondashuvlar bilan boyitish zarurati tobora yaqqol sezilmoqda. Vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT) metodikasi aynan shu ehtiyojni qondira olishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu yondashuv tilni real hayotga yaqin vazifalar orqali o‘rgatishni taklif qiladi. Bu jarayon talabani faol ishtirokchi sifatida ko‘radi va uni mustaqil fikrlashga undaydi [2], [3]. Moliya talabalari uchun esa bu yondashuv professional nutqni real vaziyatlar orqali egallash imkonini yaratadi — muzokara olib borish, investorlar bilan muloqot qilish, madaniy farqlar tufayli yuzaga keladigan nozik holatlarni to‘g‘ri boshqarish kabi. Bundan tashqari, xalqaro biznes muloqotida madaniy xatti-harakatlar o‘rtasidagi farqlar ko‘pincha muzokaralarning yakuniy natijasiga ham ta’sir ko‘rsatishi

mumkin. Masalan, ayrim madaniyatlarda bevosita rad etish odatiy hol bo‘lsa, boshqalarda bilvosita, muloyim shakllardan foydalanish qadrlanadi [4]. Vazifaga asoslangan topshiriqlar ana shunday pragmatik farqlarni tabiiy muhitda mashq qilish imkonini beradi. Tadqiqot aynan moliya va iqtisod yo‘nalishidagi talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda TBLTning qo‘llanishini tahlil qiladi va O‘zbekiston oliy ta’limi sharoitiga moslashtirilgan amaliy modelni taklif etadi. Mazkur yo‘nalish mahalliy ilmiy adabiyotlarda yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lgani uchun tadqiqotning amaliy ahamiyati yuqoridir.

Adabiyotlar sharhi

Til o‘qitishning vazifaga asoslangan yondashuvi so‘nggi yillarda eng samarali metodlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ellis ushbu modelning asosiy kuchli tomoni sifatida real kommunikativ vazifalarga tayanishini ta’kidlaydi [2]. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, talabalar sun’iy grammatik mashqlar orqali emas, balki haqiqiy muloqot talab etadigan topshiriqlar orqali tilni chuqurroq o‘zlashtiradi. Willis & Willis tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham xuddi shu fikr ilgari suriladi, ya’ni TBLT talabaning tabiiy nutq jarayoniga yaqinlashishini ta’minlaydi [5]. Nunan esa TBLTning ta’lim jarayonida talaba mustaqilligini oshirishi va uning nutqiy faolligini rag‘batlantirishini alohida qayd etadi [3].

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi bo‘yicha Byram tomonidan ishlab chiqilgan model ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan asos sifatida qo‘llanib keladi. Unga ko‘ra, madaniyatlararo kompetensiya faqat til bilimi emas, balki boshqa madaniyat vakillarining qadriyatlarini tushunish, empatiya, pragmatik moslashuvchanlik va turli ijtimoiy kontekstlarga mos ravishda muloqot qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi [1]. Deardorff esa ushbu kompetensiyani aniqlash va baholash uchun integrativ model taklif qilgan bo‘lib, unda munosabatlar, bilimlar, ko‘nikmalar, moslashuvchanlik va refleksiya kabi komponentlar mavjudligi qayd etiladi [4].

Moliya sohasi bo‘yicha ingliz tilida muloqot ko‘pincha rasmiy, nozik va kelishuvlarga asoslangan bo‘lib, bunda pragmatik xatolar katta oqibatlarga olib kelishi mumkin. Hyland professional ingliz tilining aynan ushbu jihatlariga e’tibor qaratadi va kasbiy sohada tilni o‘rgatishda kontekstning ahamiyatini ta’kidlaydi [6]. Shu bois TBLTning moliya talabalari uchun qo‘llanishi tilni texnik jihatdan emas, balki real professional vaziyatlar nuqtai nazaridan o‘rganish imkonini beradi. Longning ilmiy izlanishlari ham shuni tasdiqlab, TBLTning kasbiy kommunikatsiyada yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatadi [7].

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda moliya va iqtisod yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT) yondashuvi yordamida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqotning barcha bosqichlari Xalqaro Nordic Universitetida olib borilgan bo‘lib, unda talabalarning ehtiyojlari, mavjud o‘quv jarayoni va o‘qituvchilarning metodik yondashuvlari chuqur tahlil qilindi. Metodologiya sifatli tadqiqot paradigmasiga asoslangan holda ishlab chiqildi, chunki

ushbu yondashuv talabalarning real kommunikativ ehtiyojlarini, madaniy o‘zaro tushunish jarayonidagi qiyinchiliklarini va o‘qituvchilarning amaliy tajribasini tabiiy kontekstda o‘rganish imkonini beradi [8 -10].

Tadqiqotning birinchi bosqichi sifatida 2–3-kurslarda o‘qiyotgan 85 nafar moliya va iqtisod talabasidan iborat guruh o‘rtasida ehtiyojlarni aniqlash (needs analysis) o‘tkazildi. Ushbu bosqichda talabalar xalqaro kontekstdagi muloqotda qaysi til birliklari, qanday pragmatik strategiyalar va qaysi turdagi madaniy vaziyatlarda qiynalishini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi. So‘rovnomalar yarim strukturalangan intervyular bilan boyitildi, bu esa talabalar tajribalarini yanada chuqurroq anglash imkonini berdi. Intervyular davomida talabalar xalqaro investorlar bilan aloqalar, ingliz tilida xizmat yozishmalari, ko‘p millatli jamoalardagi uchrashuvlar kabi real vaziyatlarda duch kelgan madaniy muammolarni ochiq izohlab berishdi.

Ikkinchi bosqichda 12 nafar ingliz tili o‘qituvchilari bilan suhbatlar tashkil qilindi. Ularning yondashuvlari, o‘quv jarayonida pragmatik va madaniy komponentlarga berilayotgan e’tibor, mavjud resurslar va metodik cheklovlar haqida batafsil ma’lumot olindi. O‘qituvchilarning fikrlari TBLTni amaliyotga tatbiq etishda qay tarzda to‘siqlar va imkoniyatlar mavjudligini tushunish uchun muhim manba bo‘ldi. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘z tajribalarida madaniyatlararo muloqotga oid tasklar yetishmasligini ta’kidlab, real biznes vaziyatlari asosida ishlab chiqilgan topshiriqlarga ehtiyoj yuqoriligini qayd etishdi.

Tadqiqotning uchunchi bosqichida TBLTning uch bosqichi — pre-task, task-cycle va post-task — Deardorffning madaniyatlararo muloqot modeli bilan integratsiya qilindi [4]. Ushbu integratsiya asosida Xalqaro Nordic Universitetidagi real o‘quv jarayoniga moslashtirilgan topshiriqlar majmuasi ishlab chiqildi. Vazifalalar xalqaro bank muzokaralari, investorlar bilan uchrashuvlar, cross-cultural email yozishmalar, moliyaviy hisobot taqdimotlari, jamoaviy qaror qabul qilish kabi real kasbiy vaziyatlarga asoslangan holda loyihalashtirildi.

Natijalar

Xalqaro Nordic Universitetida TBLT asosida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan tajriba-sinov mashg‘ulotlari o‘tkazilgach, bir necha muhim natijalar kuzatildi. Avvalo, talabalarning pragmatik sezgirligi sezilarli darajada oshgani yaqqol ko‘rindi. Mashg‘ulotlar jarayonida ular xalqaro biznes tilining o‘ziga xos muloqot normalariga — xususan, yumshoq rad etish, ehtiyotkor taklif berish, kelishmovchilikni konstruktiv tarzda ifodalash kabi madaniy jihatlarni chuqurroq tushuna boshladi. Ushbu o‘zgarishlar, ayniqsa, ko‘p bosqichli muzokara simulyatsiyalari va xalqaro email almashinuvi bilan bog‘liq topshiriqlardan so‘ng yanada ravshan namoyon bo‘ldi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, TBLTning faoliyatga yo‘naltirilgan tabiati talabalarni real hayotiy vaziyatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaqinlashtirgan. Talabalar jarayon davomida ingliz tilidan abstrakt grammatik tizim sifatida emas, balki haqiqiy kommunikativ vosita sifatida foydalanishga o‘rgandilar. Bu o‘zgarish ularning muloqot jarayonida til birliklarini mazmunli

kontekstga joylashtira olishini, ya’ni tilning ijtimoiy hamda madaniy funksiyalarini anglab yetishini ta’minladi. Natijada nutq oqimida tabiiylik kuchaydi, nozik madaniy farqlarga sezgirlik oshdi va o‘zaro hurmat tamoyiliga asoslangan muloqot shakllandi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi bo‘yicha ham sezilarli o‘sish qayd etildi. Talabalar turli mamlakatlarda biznes muloqotining qanday shakllanishi, gapirish ohangi, tana tili, pauza madaniyati, “yuzni saqlash” kabi tushunchalarning xalqaro aloqalarda qanday ahamiyat kasb etishini anglab yetdilar. Xususan, amerikalik investor va o‘zbek tadbirkori ishtirokidagi muzokara simulyatsiyasi davomida talabalar o‘zining va boshqalarning madaniy xulq-atvorini tahlil qilish imkoniga ega bo‘ldi.

Sinovdan oldin va keyin o‘tkazilgan pragmatik xatolar tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimaga asoslangan qat’iy va ortiqcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri iboralar ulushi ancha kamaygan. Masalan, avval “We disagree with your offer” yoki “This is not acceptable” kabi keskin iboralar ko‘p uchragan bo‘lsa, tajribadan so‘ng ular “We might need to reconsider some aspects”, “Perhaps we could explore an alternative option” kabi diplomatik va madaniy jihatdan yumshoq shakllarga o‘tdilar. Bu o‘zgarish talabalarning (a) tilga bo‘lgan madaniy sezgirligi, (b) xalqaro professional muloqot konvensiyalarini tushunishi, (c) strategik til ishlatish qobiliyati rivojlanganini ko‘rsatadi.

Natijalarning yana bir muhim jihati — talabalar o‘zaro hamkorlikda ishlashga bo‘lgan tayyorligining oshganidir. Ko‘p millatli jamoa simulyatsiyalari davomida ularda tinglash madaniyati, navbat bilan fikr bildirish, boshqalarning nuqtai nazariga hurmat bilan yondashish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar mustahkamlandi. Ushbu kompetensiyalar xalqaro biznes muhitida samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan yumshoq ko‘nikmalar (soft skills)ning ajralmas qismi ekanini nazariy adabiyotlarda ham uchratish mumkin [1;4].

Muhokama

Tadqiqot natijalari moliya va iqtisod yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT) yondashuvini madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi (ICC) bilan integratsiya qilish yuqori samaradorlik berishini ko‘rsatdi. Bu xulosalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy tamoyillar bilan hamohangdir. Masalan, Byram madaniyatlararo muloqot shunchaki til bilish emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstni to‘g‘ri talqin qilish, vaziyatga mos til strategiyalarini tanlash va boshqalarning madaniy qarashlarini hurmat qilish orqali samarali kommunikatsiya qurish qobiliyatini o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi [1;11]. Bizning tadqiqotda talabalar aynan shu kompetensiyaning shakllanishida sezilarli o‘sishni namoyish qildilar.

Shuningdek, TBLTning tabiiy kommunikativ muhit yaratish bo‘yicha ustunliklari Ellis va Nunan tomonidan ham qayd etilgan bo‘lib, sinov darslarimiz davomida bu jihat ayniqsa muzokara, madaniyatlararo email yozish, konfliktni yumshatish, muloyim rad javoblarini shakllantirish kabi vazifalarda yaqqol namoyon bo‘ldi [2;3;12]. Talabalar psixologik jihatdan faolroq, muloqotga tayyorroq bo‘lishdi; ular tilni strukturaviy jihatdan emas, balki real

vaziyatlarda qanday ishlashi mumkinligini o‘z tajribalarida sinab ko‘rdilar. Bu jarayonda Deardorff modelida ko‘rsatilgan ko‘nikmalar — ochiq fikrlilik, madaniy farqlarga nisbatan sezgirlik, moslashuvchanlik — asta-sekin shakllanib bordi [4].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa pragmatik kompetensiya rivojida TBLTning ta’siri keskin sezildi. Talabalar o‘z nutqlarida haddan tashqari bevosita iboralar sonini kamaytirib, xushmuomalalik, ehtiyotkorlik, yumshatish (mitigation) kabi pragmatik strategiyalardan ko‘proq foydalanishni boshladilar. Bu holat Abdurahmonov ta’kidlaganidek, real hayotga yaqin topshiriqlarning til o‘rganishga kuchli ta’siridan dalolat beradi [8;13]. Ya’ni, til o‘rganuvchi o‘z faoliyatining markazida bo‘lganida ham til, ham kommunikativ strategiyalar tabiiy ravishda rivojlanadi.

Bundan tashqari, ushbu tadqiqot O‘zbekiston oliy ta’limi sharoitida kasbiy ingliz tilini o‘qitishda mavjud bo‘lgan muhim bo‘shliqlardan biriga — lingvopragmatik kompetensiyani sistematik shakllantirish masalasiga e’tibor qaratdi. Hozirgi o‘quv dasturlarida ko‘pincha leksik-grammatik tarkibga ustuvorlik beriladi, biroq xalqaro moliya sohasi muloqoti bundan ancha murakkab bo‘lib, unda madaniy jihatdan moslashtirilgan nutq strategiyalarida ishlash zarurati katta. TBLTga asoslangan madaniyatlararo tasklar aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilarning o‘zlari uchun ham muhim xulosa aniqlandi: madaniyatlararo muloqot elementlarini darsga kiritish “qo‘shimcha mavzu” emas, balki TBLT tasklarining tabiiy tarkibiy qismi bo‘lishi kerak. Dars jarayonida madaniy farqlarni tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, talabani shu farqlar mavjud bo‘lgan vaziyat ichida muloqot qildirish, real dilemma oldida turib qaror qabul qildirish eng yuqori pedagogik natija beradi [14]. Xulosa qilib aytganda, nazariy manbalar va amaliy tajribalar uyg‘unligi shuni ko‘rsatdiki, TBLT asosidagi madaniyatlararo yo‘naltirilgan topshiriqlar moliya talabalari uchun nafaqat lingvistik rivojlanish, balki kelajakdagi professional muhitda muvaffaqiyatli muloqot olib borish uchun zarur bo‘lgan strategik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, bu model O‘zbekiston oliy ta’limi tizimida kasbiy ingliz tilini modernizatsiya qilish yo‘lida samarali, amaliy va zamonaviy yondashuv hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari TBLT — ya’ni vazifaga asoslangan til o‘qitish — moliya va iqtisod yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun nafaqat til ko‘nikmalarini, balki madaniyatlararo muloqotni talab qiladigan murakkab kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali metodik vosita ekanini ko‘rsatdi. Global moliyaviy bozorlar bilan ishlash jarayoni deyarli har doim turli madaniy kelib chiqishga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlikni talab etganligi sababli, talabalarning lingvistik bilimlari bilan bir qatorda pragmatik sezgirlik, madaniy farqlarni anglash, moslashuvchan kommunikativ strategiyalardan foydalanish qobiliyatlari ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot shuni isbotladiki, tasklarga madaniy kontekstning izchil integratsiyasi o‘quvchilarning til vositalaridan foydalanishidagi nozik jihatlarni, masalan, rad etish, taklif

bildirish, muzokara jarayonida pozitsiyani yumshatish yoki keskinlikning oldini olish kabi strategiyalarni sezilarli darajada rivojlantiradi.

Shuningdek, tadqiqot O‘zbekiston oliy ta’limi sharoitida TBLTning madaniyatlararo muloqot bilan uyg‘unlashtirilishi mavjud o‘quv dasturlarini boyitish, ESP darslarini yanada mazmunli qilish va talabalarning xalqaro mehnat bozoriga mos kompetensiyalarini shakllantirishda muhim qadam bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Talabalar kuzatishlarida pragmatik xatolar sonining kamayishi, madaniy sezgirlikning ortishi, murakkab og‘zaki vazifalarga nisbatan ishonchning oshgani ushbu yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. *Multilingual Matters.*
2. Ellis, R. (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. *Oxford University Press.*
3. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. *Cambridge University Press.*
4. Deardorff, D. K. (2006). Identification and assessment of intercultural competence. *Journal of Studies in International Education, 10(3),* 241–266.
5. Willis, J., & Willis, D. (2007). Doing Task-Based Teaching. *Oxford University Press*.
6. Hyland, K. (2022). English for Professional Academic Purposes. *Routledge.*
7. Long, M. (2016). Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching. *Wiley.*
8. Abdurahmonov, A. (2019). Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar: kompetensiyaviy va kommunikativ metodlar tahlili. *O‘zbekiston Pedagogika Jurnali*, 4(2), 55–63.
9. Karimova, D. (2020). Oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitishda pragmatik kompetensiyani shakllantirishning metodik asoslari. *Filologiya Masalalari, 3(1),* 89–96.
10. Tursunov, U. (2021). Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi va uni shakllantirish mexanizmlari. *Til va Adabiyot Ta’limi, 2(5),* 72–81.
11. Djurayeva, N. (2025). Vazifaga Asoslangan Til O‘Qitish (TBLT): Nazariy Asoslari Va Amaliy Yondashuvlar, *Journal of Education, Ethics and Value, 4/3,* 74-77.
12. Hall, E. T. (1976). Beyond Culture. *Anchor Books.*
13. Hamp-Lyons, L., & Zhang, W. (2021). Academic writing and global communication: Intercultural pragmatics in professional English. *Journal of English for Academic Purposes, 52,* 1–10.
14. Spencer-Oatey, H. (2008). Culturally Speaking: Culture, Communication and Politeness Theory. *Bloomsbury.*

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK: 796.325.012.1
https://orcid.org/0009-0002-2827-1753

VOLEYBOLCHILARDA SAKRASH DINAMIKASINI BAHOLASH: TESTLAR VA ULARNING ILMIY ASOSLARI

Ne’matov Mashxurbek Inomjon o‘g‘li
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasi dotsenti v.b.
mashhurnematov09@gmail.com +998999780912

Annotatsiya. Ushbu maqolada voleybolchilarning sakrash qobiliyatini baholashga doir ilmiy-uslubiy yondashuvlar, vertikal va gorizontal sakrash testlarining amaliy qo‘llanishi hamda dinamikaning o‘sish jarayonlarini aniqlash metodlari yoritilgan. Tadqiqotda “Countermovement Jump”, “Squat Jump”, “Block Jump” va “Spike Jump” testlaridan foydalanildi. Olingan natijalar sakrash balandligi, kuch-tezkorlik potensiali hamda mushak elastikligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatdi

Kalit so‘zlar: sakrash dinamikasi, voleybol, vertikal sakrash, CMJ, SJ, kuch-tezkorlik.

Аннотация.В статье рассмотрены научные и методические основы оценки прыгучести волейболистов, практическое применение вертикальных и горизонтальных прыжковых тестов и анализ динамики их развития. Использовались тесты CMJ, SJ, Block Jump и Spike Jump. Полученные результаты выявили взаимосвязь между высотой прыжка, скоростно-силовыми показателями и эластичностью мышц.

Ключевые слова: динамика прыжка, волейбол, вертикальный прыжок, скоростная сила.

Abstract.This article examines the scientific and methodological foundations of assessing jump dynamics in volleyball players. Vertical and horizontal jump tests including CMJ, SJ, Block Jump, and Spike Jump were used. Results show correlations between jump height, power-speed indicators, and muscle elasticity.

Keywords: jump dynamics, volleyball, vertical jump, power-speed ability.

KIRISH. Zamonaviy voleybol sport texnikasining asosiy komponentlaridan biri bu – sakrash qobiliyati bo‘lib, u to‘pni hujumda urish, blok qo‘yish va tezkor taktik rejalashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega [4]. Voleybolchilar sakrash balandligi, sakrash

tezligi va mushak kuchining nisbati bo‘yicha farqlanadi, shuning uchun sakrash dinamikasini ilmiy asoslangan usullar bilan baholash sportchi tayyorgarligi sifatini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Ilmiy adabiyotlarda CMJ va SJ testlari mushak elastikligi hamda kuch-tezkorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashning eng ishonchli mezonlaridan biri sifatida qayd etilgan [6]. Shu nuqtai nazardan sportchilarda sakrash dinamikasining muntazam monitoringi murabbiyga individual yuklama miqdorini to‘g‘ri belgilash, texnik kamchiliklarni aniqlash hamda jismoniy tayyorgarlik samaradorligini baholash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Jahon sport ilmiy tadqiqotlarida sakrashni baholash uchun keng tarqalgan metodlar quyidagilar hisoblanadi:

1. Countermovement Jump (CMJ) – mushaklarning elastik potentsialidan foydalanishni o‘lchaydi [7]. 2. Squat Jump (SJ) – statik holatdan sakrash orqali sof kuch ko‘rsatkichini aniqlaydi. 3. Block Jump (BJ) – voleybol texnikasiga mos blok sakrashni baholaydi. 4. Spike Jump (SpJ) – yugurib kelib hujum sakrashini o‘lchaydi.

Tadqiqotlar sakrash natijalari bilan mushaklarning kuch-tezkorlik rivojlanishi o‘rtasida yuqori korelatsiya mavjudligini ko‘rsatadi (r=0.62–0.84) [8].

Tadqiqot 18–25 yoshdagi 20 nafar voleybolchi ishtirokida o‘tkazildi. 1-jadval

Quyidagi testlar qo‘llandi:

1-jadval

Test turi	O‘lchov birligi	Maqsadi
CMJ	sm	Mushak elastikligi
SJ	sm	Sof kuch ko‘rsatkichi
Block Jump	sm	Blok qo‘yish qobiliyati
Spike Jump	sm	Hujum sakrashi

Natijalar Optojump lazer tizimi yordamida qayd etildi. Tahlilda Student t-testi va Pearson korrelyatsiya koeffitsienti qo‘llandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Sakrash testlari bo‘yicha o‘rtacha natijalar. 2-jadval

2-jadval

Test	Minimal	Maksimal	O‘rtacha
CMJ	28 sm	43 sm	36.1 sm
SJ	24 sm	38 sm	31.4 sm
Block Jump	39 sm	55 sm	47.3 sm
Spike Jump	48 sm	67 sm	56.8 sm

SJ va CMJ o‘rtasidagi tafovut SSC (Stretch-Shortening Cycle) mexanizmining qanchalik samarali ishlayotganini ko‘rsatdi. Sportchilarda bu farq o‘rtacha 4.7 sm bo‘lib, bu mushak elastikligi yaxshi rivojlanganidan dalolat beradi.

2. Korelatsion tahlil aniqlanishicha CMJ va Spike Jump o‘rtasida: r = 0.72, SJ va CMJ o‘rtasida: r = 0.63, Spike Jump va Block Jump o‘rtasida: r = 0.81. Bu natijalar sakrashning har xil turlari o‘zaro yuqori darajada bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, sakrash balandligi mushak kuchining tezkor rivojlanishiga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi.

3. Sakrash dinamikasining rivojlanish sur’ati 8 haftalik mashg‘ulotdan so‘ng:

- ✓ CMJ: +6.3 %
- ✓ SJ: +4.8 %
- ✓ Spike Jump: +7.1 %

Bu o‘sish murabbiy tomonidan qo‘llanilgan plyometrik mashqlar samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari voleybolchilarda sakrash dinamikasini baholash uchun CMJ, SJ, Block Jump va Spike Jump testlari eng ishonchli diagnostik vositalar ekanini ko‘rsatdi. Korelatsion tahlil sakrash turlarining o‘zaro kuchli bog‘liqligini aniqladi. 8 haftalik mashg‘ulotlar sakrash ko‘rsatkichlarining sezilarli o‘sishiga olib keldi. Ushbu metodlar muntazam monitoringda qo‘llanilsa, individual yuklamalarni to‘g‘ri rejalashtirish va sportchilarning musobaqa tayyorgarligini oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Verkhoshansky Y. Special Strength Training Manual for Coaches. – 2011. – pp. 1–256.

2. Матвеев Л. Теория спорта. – Москва, 2010. – с. 1–320.

3. McGuigan M. Monitoring Training and Performance in Athletes. – 2017. – pp. 1–284.

4. Ramirez-Campillo R. et al. Plyometric Training Studies. – 2018. – pp. 1–210.

5. Sheppard J. Volleyball Jump Performance Analysis. – 2016. – pp. 1–175.

6. Sands W. Jump Testing Methodology. – 2005. – pp. 1–230.

7. Markovic G. Vertical Jump Research Review. – 2004. – pp. 1–168.

8. Harriss D. Ethical Standards in Sport Science. – 2019. – pp. 1–200.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “MIKROBIOLOGIYA VA VIRUSOLOGIYA” FANLARINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN SHAXSIYLASHTIRILGAN LMS IMKONIYATLARI

Abdullayev G‘oyibsher Abdulxamidovich
Abdullayeva Gulzoda Azizbek qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi
O‘zbekiston Respublikasi Farg‘ona sh.
ORCID: 0000-0003-1232-5577 Email: sherhan1991big@mail.ru

Annotatsiya. Mikrobiologiya va virusologiya fanlari talabalardan murakkab nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish va laboratoriya amaliyotida ularni qo‘llay olishni talab qiladi. An’anaviy ma’ruza-amaliy mashg‘ulotlar tizimi bu jarayonda hamisha ham talabalarning individual tayyorgarlik darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va qiziqishlarini hisobga ola olmaydi. Natijada ayrim talabalar uchun mavzu murakkabligicha qoladi, laboratoriya ko‘nikmalari yuzaki shakllanadi, motivatsiya pasayadi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalariga tayangan shaxsiylashtirilgan o‘quv platformalari (Learning Management System – LMS) bunday muammolarni yumshatishning zamonaviy yo‘li sifatida taklif etilmoqda. Mazkur maqolada mikrobiologiya va virusologiya fanlarini o‘qitish jarayoniga SI asosida ishlovchi moslashtirilgan LMSni integratsiya qilish tajribasi, uning didaktik samaradorligi, cheklovlari va amaliy natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, shaxsiylashtirilgan ta’lim, “adaptive learning systems”, LMS, mikrobiologiya, virusologiya, onlayn laboratoriya, tezkor aloqa.

Аннотация.Дисциплины микробиология и вирусология требуют от студентов освоения сложных теоретических понятий и умения применять их в лабораторной практике. Традиционная система лекционно-практических занятий не всегда позволяет в полной мере учитывать индивидуальный уровень подготовки, темп усвоения и интересы студентов. В результате для части обучающихся тема остается сложной, лабораторные навыки формируются поверхностно, а мотивация снижается. В последние годы персонализированные учебные платформы (Learning Management System – LMS), основанные на технологиях искусственного интеллекта (ИИ), предлагаются как современный способ смягчения указанных проблем. В данном статье анализируются опыт интеграции адаптивной LMS на базе ИИ в процесс

преподавания микробиологии и вирусологии, её дидактическая эффективность, ограничения и практические результаты.

Ключевые слова: искусственный интеллект, персонализированное обучение, adaptive learning systems, LMS, микробиология, вирусология, онлайн-лаборатория, обратная связь.

Abstract. The disciplines of microbiology and virology require students to master complex theoretical concepts and be able to apply them in laboratory practice. In this process, the traditional system of lectures and practical classes does not always take into account students’ individual levels of preparation, learning pace, and interests. As a result, for some students the subject matter remains difficult, laboratory skills are formed only superficially, and motivation declines. In recent years, personalized learning platforms (Learning Management Systems – LMS) based on artificial intelligence (AI) technologies have been proposed as a modern way of mitigating these problems. This article analyzes the experience of integrating an AI-driven adaptive LMS into the teaching process of microbiology and virology, as well as its didactic effectiveness, limitations, and practical outcomes.

Keywords: artificial intelligence, personalized learning, adaptive learning systems, LMS, microbiology, virology, online laboratory, feedback.

Kirish. Mikrobiologiya va virusologiya – tibbiyot, biotexnologiya, epidemiologiya va jamoat salomatligi uchun tayanch bo‘lgan fundamental fanlar bo‘lib, ularni o‘qitish jarayonida ko‘plab abstrakt tushunchalar, murakkab tasniflar, infektsiya va immun javob mexanizmlari, hamda laboratoriya texnikalari o‘zlashtirilishi lozim. An’anaviy dars shakllarida (ma’ruza, semenar, amaliy mashg‘ulot) material odatda barcha talabalar uchun bir xil tezlikda va bir xil shaklda taqdim etiladi. Bu esa:

- bilim darajasi turlicha bo‘lgan talabalar o‘rtasida katta tafovutlar paydo bo‘lishi;
- darsga bo‘lgan qiziqishning pasayishi;
- laboratoriya ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligi

kabi muammolarga olib kelishi mumkin.

Dunyo tajribasida Khan Academy, Coursera, Smart Sparrow kabi platformalar misolida “adaptive learning” konsepsiyasi keng qo‘llanilayotgani, o‘quvchi xatolari va qiyinchiliklarini real vaqt rejimida tahlil qilgan holda individual ta’lim yo‘nalishini shakllantirib berishga xizmat qilayotgani kuzatilmoqda. Mikrobiologiya va virusologiya fanlari uchun esa bunday yondashuv ayniqsa dolzarb, chunki mavzular laboratoriya amaliyoti va vizual tasavvur bilan chambarchas bog‘liq.

SIga asoslangan shaxsiylashtirilgan o‘quv tizimlari talaba faoliyatini quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha doimiy kuzatib boradi:

- topshiriqlarni bajarish tezligi;
- xatolar turlari va takrorlanish chastotasi;

- qaysi mavzular bo‘yicha ko‘proq qiynalayotgani;
- darsga kirish-chiqish vaqti, platformada umumiy faol bo‘lish soatlari;
- o‘z-o‘zini tekshiruvchi testlardan olgan ballari.

Shu ma’lumotlar asosida platforma har bir talaba uchun moslashtirilgan kontentni tavsiya etadi:

- murakkab bo‘lib turgan bo‘lim uchun qo‘shimcha izohli video va animatsiyalar;
- individual darajaga moslashtirilgan testlar;
- interaktiv mashqlar va 3D laboratoriya simulyatsiyalari;
- takrorlash uchun qisqa konspekt va sxemalar.

Microbiology Edu, Labster, Visible Body kabi resurslarda SI elementlari laboratoriya jarayonlarini xavfsiz virtual muhitda modellashtirishda allaqachon sinab ko‘rilgan. Jumladan, Labster platformasi mikrobiologik tajribalar, sterillik qoidalari, madaniyatlarni ekish va identifikatsiya qilish bosqichlarini 3D formatda namoyish etib, talaba uchun real laboratoriya vaziyatiga maksimal yaqin tajriba yaratadi.

Shaxsiylashtirilgan LMSdan foydalanishda qator texnik va tashkiliy muammolar ham uchraydi:

- **Texnik infratuzilma:** kompyuter sinflari, planshetlar soni, internet tezligi yetarli bo‘lmasligi;
- **Pedagogik tayyorgarlik:** o‘qituvchilar SI tizimlari bilan ishlash metodikasini o‘rganmagan bo‘lishi mumkin;
- **Ma’lumotlar xavfsizligi:** talaba haqidagi shaxsiy ma’lumotlar va o‘qish natijalarini saqlash va qayta ishlashda maxfiylik talablari;
- **Kontentga bo‘lgan ehtiyoj:** mikrobiologik tasniflar, viruslar replikatsiyasi, genetik mexanizmlar, klinik holatlar uchun alohida modullar ishlab chiqish zaruriyati.

Shu bois SIga asoslangan LMSni joriy etish jarayonida texnik xizmat ko‘rsatish, axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va o‘qituvchilar uchun treninglar tashkil etish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi – sun’iy intellektga tayanadigan shaxsiylashtirilgan LMSni “Mikrobiologiya va virusologiya” fanlarini o‘qitish tizimiga integratsiya qilishning didaktik va metodik jihatlarini, uning samaradorligi, ustunliklari va cheklovlarini aniqlashdir.

Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Adaptiv LMSga asoslangan o‘qitish modeli va an’anaviy o‘qitish uslublarini taqqoslash.
2. Talabalar bilim darajasidagi o‘zgarishlarni pre-test va post-test natijalari orqali baholash.
3. Talabalarning motivatsiyasi, darsga qiziqishi va LMSdan foydalanish faolligini tahlil qilish.

4. Texnik, tashkiliy va pedagogik cheklovlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida talabalar ikki guruhga ajratildi:

- **Sinov guruhi** – adaptiv LMS bilan ishlagan, bunda platformada video-ma’ruzalar, animatsiyalar, 3D laboratoriya modullari, turli murakkablikdagi testlar va feedback tizimi joriy etildi.
- **Nazorat guruhi** – odatdagi an’anaviy ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘qigan.

Har ikkala guruhga:

- kurs boshlanishidan oldin **dastlabki test (pre-test)**;
- kurs yakunida **yakuniy test (post-test)**;
- o‘quv jarayonida esa bir necha marta oraliq nazoratlar o‘tkazildi.

Adaptiv LMS quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ldi:

- **Foydalanuvchi profili:** talabaning avvalgi test natijalari va o‘zlashtirish tezligini qayd etuvchi modul;
- **Mavzu bloklari:** mikrobiologiya va virusologiyaning asosiy bo‘limlari bo‘yicha strukturalashtirilgan kontent (bakteriyalar morfologiyasi, viruslar klassifikatsiyasi, replikatsiya bosqichlari va h.k.);
- **Yo‘naltiruvchi tizim:** talabaning xatolari tahlil qilinib, aynan shu mavzuga oid qo‘shimcha resurslar (video, matn, interaktiv mashqlar) tavsiya etildi;
- **Real vaqt feedback:** har bir topshiriqdan so‘ng xatolar sababi va to‘g‘ri yechim qisqacha izoh bilan ko‘rsatildi.

Statistik tahlilda chi-kvadrat testi, t-test, ANOVA kabi usullar orqali guruhlar o‘rtasidagi farqning ahamiyatlilik darajasi baholandi.

Natijalar

Pre-test natijalarida sinov va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmadi. Kurs yakunidagi post-test natijalariga ko‘ra esa:

- adaptiv LMS bilan ishlagan sinov guruhi nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha **15–20 %** yuqori ball to‘pladi;
- sinov guruhida test xatolari soni taxminan **35 %** ga kamaydi;
- statistik tahlil natijasi farqning **$p < 0,01$** darajada ahamiyatli ekanini ko‘rsatdi.

Talabalarning darsga bo‘lgan munosabati Likert shkalasi (1–5 ball) bo‘yicha baholandi. Shunda:

- adaptiv LMS guruhi o‘rtacha **4,3 ball**;
- an’anaviy o‘qitish guruhi esa **3,6 ball** atrofida natija ko‘rsatdi.

LMS loglarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, sinov guruhi talabalari platformada o‘rtacha **28 soat** faol bo‘lgan, bu kuniga taxminan **45–50 daqiqa**ni tashkil qiladi. Nazorat guruhining

umumiy mashg‘ulot va mustaqil ishlari esa **18 soat** atrofida bo‘lib, adaptiv LMSdan foydalangan talabalarda o‘quv jarayoniga jalb etilganlik darajasi yuqoriroq ekanini ko‘rsatdi.

Muhokama

Olingan natijalar SIga asoslangan shaxsiylashtirilgan LMS mikrobiologiya va virusologiya fanlarida:

- murakkab mavzularni qismlarga bo‘lib, bosqichma-bosqich tushuntirishga;
- talabaning xatosini darhol ko‘rsatish va tushuntirish orqali chuqurroq tushunchani shakllantirishga;
- laboratoriya tajribalarini virtual muhitta xavfsiz sinab ko‘rish imkonini berishga

xizmat qilishini ko‘rsatdi. 3D simulyatsiyalar tajriba o‘tkazishdan qo‘rqish, xatolikdan cho‘chish holatlarini kamaytirib, talabada ishonch hissini oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot infratuzilma cheklovlarini ham ochib berdi: ayrim guruhlarda internet tezligi past bo‘lgani uchun videomateriallarni yuklashda uzilishlar yuz berdi, o‘qituvchilardan barchasi ham dastlab SI platformasi bilan bemalol ishlay olmagan. Bu holat o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, masofaviy treninglar, kafedra darajasida texnik ko‘mak ko‘rsatish markazlarini yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan tajriba SIga asoslangan adaptiv LMS ni nafaqat mikrobiologiya va virusologiya, balki boshqa tibbiy fanlarda ham qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. Xususan:

- immunologiya, molekulyar genetika, klinik laboratoriya diagnostikasi kabi fanlar uchun alohida modullar yaratish;
- mashinaviy o‘rganish algoritmlariga tayangan diagnostik treners va klinik holatlarni modellashtiruvchi bo‘limlar ishlab chiqish;
- o‘quv kontentini ko‘p tillik, vizual infografikalar va 3D elementlar bilan boyitish;
- uzoq muddatli monitoring orqali talabalarning bilimlari evolyutsiyasini (MIQ – modul-integre qobiliyat) baholab borish

kelajak izlanishlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘lishi mumkin.

Xulosa

Sun’iy intellektga asoslangan shaxsiylashtirilgan LMS mikrobiologiya va virusologiya fanlarini o‘qitishda an’anaviy dars shakllarini butunlay almashtirmasdan, balki ularni **to‘ldiruvchi va takomillashtiruvchi** kuchli vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari:

- talabalar bilim darajasining oshishi;
- xatolar sonining kamayishi;
- darsga qiziqish va motivatsiyaning ortishi;
- darsdan tashqari vaqtda ham o‘quv faoliyatiga jalb etilganlikning ko‘payishi

kabi ijobiy tendensiyalarni ko‘rsatdi.

Agar texnik infratuzilma, ma’lumotlar xavfsizligi va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilsa, sun’iy intellektga

asoslangan LMS tibbiy ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish salohiyatiga ega. Shu sababli, ushbu yondashuvni bosqichma-bosqich kengaytirib, tibbiyotning boshqa ta’lim yo‘nalishlariga ham integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1) Murtazoqulova N.A. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga integratsiyasi va uning imkoniyatlari. *Qo‘qon University Herald* (Qo‘qon universiteti xabarnomasi), 2025, 6(8).

2) Satimboyeva X.A. Ta’limni boshqarishda sun’iy intellekt: afzalliklari va kamchiliklari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2024, jild 1, №5, 51–55-betlar.

3) Imomnazarova S.O. Ta’lim jarayonini boshqarish va uning sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2024, jild 1, №5, 51–55-betlar.

4) Абдулаззакова Д.А., Абдурашидов И.Ж., Алимарданов Р.А. Цифровые приложения в преподавании технических дисциплин. Интернаука: электронный научный журнал, 2022, №2 (225).

5) Якубов М.С. и др. Анализ и новые тенденции использования нейросетей и искусственного интеллекта в современной системе высшего образования. Экономика и социум, 2021, 5–2(84), с. 1148–1162.

6) Merino-Campos C., Abad-Segura E. The Impact of Artificial Intelligence on Personalized Learning in Higher Education: A Systematic Review. *AI*, 2025, 2(2), 197–224.

7) Alotaibi B.A. The Impact of AI and LMS Integration on the Future of Higher Education. *Sustainability*, 2024, 16(13): 5706.

8) St-Hilaire F., Vu D.D., Frau A., va boshq. A New Era: Intelligent Tutoring Systems Will Transform Online Learning for Millions. *arXiv* preprint arXiv:2203.03724, 2022.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN O‘QUV PLATFORMANI MIKROBIOLOGIYA VA VIRUSOLOGIYA FANLARI MISOLIDA TA’LIMI JARAYONIGA JORIY ETISH

Abdullayev G‘oyibsher Abdulxamidovich
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi
O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona sh.
E-mail: sherhan1991big@mail.ru ORCID: 0000-0003-1232-5577

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellektga (SI) asoslangan shaxsiylashtirilgan o‘quv platformasini (Learning Management System — LMS) ta’limi jarayoniga joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy-pedagogik tadqiqotning dizayni, qo‘llangan metodlari, olingan natijalari va ularning ilmiy-pedagogik talqinlari yoritildi. Tadqiqotda auditoriya (talabalar) faolligi, o‘qishgaqiziquvchanlik, o‘zlashtirish darajasi va ko‘nikmalarni bayon qilish ko‘rsatkichlariga SI modullarining ta’siri baholandi. Natijalar shaxsiylashtirish algoritmlari, moslashuvchan testlar, avtomatlashtirilgan teskor aloqa va kompetensiyaga yo‘naltirilgan komponentlar kombinatsiyasi talabalarning baholash natijalari va kursga jalb qilinishiga ijobiy ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Metodik jihatdan ish eksperimental yondashuv, aralash uslub (mixed-method) ma’lumot to‘plash, hamda statistik va tematik ma’lumotlar tahlili bilan amalga oshirildi. Pedagogik amaliyot uchun tavsiyalar va joriy etish bo‘yicha yo‘riqnomalar berildi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, LMS, shaxsiylashtirish, moslashuvchan testlash, mikrobiologiya, virusologiya, ta’lim texnologiyalari, o‘qitish sifati, o‘zlashtirish, OTM.

Аннотация.В данной статье представлены дизайн, применённые методы, полученные результаты и их научно-педагогическая интерпретация практико-педагогического исследования по внедрению в образовательный процесс персонализированной учебной платформы (Learning Management System — LMS), основанной на искусственном интеллекте (ИИ). В исследовании оценивалось влияние модулей ИИ на показатели активности аудитории (студентов), интерес к обучению, уровень усвоения и выраженность сформированных навыков. Результаты показывают, что сочетание алгоритмов персонализации, адаптивного тестирования, автоматизированной обратной связи и компетентностно-ориентированных компонентов позитивно влияет на итоговые оценки студентов и их вовлечённость в курс. С методической точки зрения работа выполнена с использованием

экспериментального подхода, смешанного метода (mixed-method) сбора данных, а также статистического и тематического анализа. Сформулированы рекомендации для педагогической практики и разработаны методические указания по внедрению.

Ключевые слова: искусственный интеллект, LMS, персонализация, адаптивное тестирование, микробиология, вирусология, образовательные технологии, качество обучения, усвоение, ВУЗ.

Abstract. This article presents the design, applied-pedagogical methods, obtained results, and their scientific-pedagogical interpretation of a study on the implementation of an artificial intelligence (AI)-based personalized learning platform (Learning Management System — LMS) into the educational process. The research assessed the impact of AI modules on indicators such as classroom (student) activity, interest in learning, level of mastery, and demonstration of skills. The findings show that a combination of personalization algorithms, adaptive testing, automated feedback, and competency-oriented components has a positive effect on students’ assessment outcomes and engagement with the course. Methodologically, the study was carried out using an experimental approach, mixed-method data collection, and statistical and thematic data analysis. Recommendations for pedagogical practice and guidelines for implementation are provided.

Keywords: artificial intelligence, LMS, personalization, adaptive testing, microbiology, virology, educational technologies, teaching quality, learning outcomes, higher education institution (HEI).

Kirish: Zamonaviy tibbiyot ta’limida mikrobiologiya va virusologiya fanlari yuqori darajadagi nazariy bilimlar hamda laborator ko‘nikmalarni talab qiladi. O‘qitish jarayonida ko‘plab individual farqlar — tayyorgarlik darajasi, o‘qish sur’ati, kognitiv uslublar, til kompetensiyasi va informatsion savodxonlik — natijalarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Sun’iy intellekt (SI)ga asoslangan shaxsiylashtirilgan LMS platformalari aynan shunday farqlarni hisobga olib, talabaning o‘ziga xos traektoriyasini qurish, moslashuvchan (adaptive) resurs taqdim etish, va real vaqt teskari aloqa (feedback) bilan o‘qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Adabiyotlarda SI-LMS yechimlari diagnostik testlar asosida kontentni moslashtirish, bilim bo‘shliqlarini aniqlash, interaktiv klinik stsenariylar, avtomatik baholash (xususan, qisqa javoblar va testlar), hamda natural til qayta ishlash (NLP) orqali shaxsiy tavsiyalar ishlab chiqish kabi funksiyalar bilan muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgani qayd etilgan. Mikrobiologiya va virusologiya yo‘nalishlarida esa laborator xavfsizlik protokollari, etik jihatlar, real mikrografiyalar bilan ishlash, infeksion nazariya va epidemiologik mantiqni shakllantirish SI yondashuvlari uchun yangi o‘quv vazifalari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — SIga asoslangan shaxsiylashtirilgan LMS platformasini (kurs modullari, adaptiv testlash, avto-tahlil va tavsiya mexanizmlari bilan) mikrobio-logiya va virusologiya fanlariga joriy etish tajribasini tahlil qilish, ta’lim natijalariga ta’sirini baholash va joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot quyidagi

savollarga javob izlaydi: (1) shaxsiylashtirish komponentlari o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir qiladi? (2) Talabalarning motivatsiyasi, jalb etilganlik (engagement) va LMSdagi faoliyati o‘rtasida qanday bog‘liqliklar mavjud? (3) SI-LMS joriy etishida metodik, texnik va tashkiliy muammolar va yechimlar nimalardan iborat?

Material va Metodlar: Kvazi-eksperimental, aralash-uslub yondashuv qo‘llanildi. Ma’lumotlar ikkinchi bosqich (2-kurs) va uchinchi bosqich (3-kurs) talabalaridan anketalar, LMS tizimi testlari va oraliq/ yakuniy nazorat natijalari ko‘rinishida olindi. SI-LMS modullari predmetni o‘zlashtirish traektoriyasini shaxsiylashtirib, diagnostik dastlabki testlar asosida kontentni differensial taqdim etdi. Ishtirokchilar, ikki OTM bazasida o‘quv semestri davomida mikrobiologiya va virusologiya fanlarini o‘tayotgan talabalardan foydalanildi. Guruhlar LMSning SI modullari ulash darajasi bo‘yicha farqlandi. Aralashuv guruhi SI-shaxsiylashtirish, moslashtirilgan testlar va tezkor-tavsiya funksiyalaridan to‘liq foydalandi; taqqoslash guruhi esa odatiy LMS (kontentsiz shaxsiylashtirish) imkoniyatlaridan foydalandi. O‘lchovlar va ko‘rsatkichlar, (a) O‘zlashtirish — modul testlari va yakuniy sinov ballari; (b) Faollik — kirishlar soni, darsdagi interaktiv topshiriqlar, vaqt sarfi; (c) Motivasiyaviy indeks — validatsiyadan o‘tgan qisqartirilgan so‘rovnoma; (d) Kompetensiya transferi — keyslarni yechishdagi balllar; (e) Qoniqish — 5 ballik Likert shkalasi.

O‘lchovlar: birlamchi — yakuniy imtihon bali (0–100; PRE/POST); ikkilamchi — LMS haftalik faolligi (daq/hafta), AI tavsiyalarini qabul qilish (%), onlayn testlarni yakunlash (%), off-LMS o‘qish vaqti (soat/hafta); kovariatlar — jins, yosh, kurs, avvalgi LMS tajribasi, qurilma va internet sifati (1–5). Statistika taxlil natijalari juft t-test va Cohen’s d; OLS regressiya (Δ=POST−PRE) model diagnostikasi (VIF<3, Shapiro–Wilk); subguruh ANOVA (foydalanish: ≥180, 120–179, <120 daq/hafta); alfa=0.05.

Natijalar: Ishtirokchilar profili va resursga kirish ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval 1 — Demografiya

Ko‘rsatkich	OTM-1 (n=368)	OTM-2 (n=215)	Jami (n=583)
Ishtirokchilar soni (n)	368	215	583
Ayollar ulushi (%)	58 %	55 %	57 %
Yosh (o‘rtacha ± SD)	20.6 ± 1.6	19.8 ± 1.7	20.3 ± 1.6
2-kurs (%)	64	56	61
3-kurs (%)	36	44	39
Oldin LMS ishlatgan (%)	40	37	39
Noutbukga doimiy kirish (%)	72	68	70
Faqat smartfon (%)	22	26	24
Internet sifati (o'rtacha 1–5)	3.8	3.7	3.8

Birlamchi natija (PRE–POST): **OTM-1** 71.8±9.4 → 78.6±8.7 (Δ=+6.8; p<0.001; d=0.73); **OTM-2** 70.9±9.7 → 78.1±8.9 (Δ=+7.2; p<0.001; d=0.78); jami 71.5±9.5 → 78.4±8.8 (Δ=+6.9; p<0.001; d≈0.75).

Foydalanish ko‘rsatgichi LMS faolligi 141±60 → 196±73 daq/hafta; AI tavsiyalarini qabul qilish ≈62%; onlayn testlarni yakunlash ≈80%; off-LMS o‘qish 10.3 → 9.2 soat/hafta (−10.7%).

Jadval 2 — Asosiy natijalar (pre–post)

Ko'rsatkich	OTM-1	OTM-2	Jami
Yakuniy imtihon bali (0–100) – PRE	71.8 ± 9.4	70.9 ± 9.7	71.5 ± 9.5
Yakuniy imtihon bali (0–100) – POST	78.6 ± 8.7	78.1 ± 8.9	78.4 ± 8.8
Ball o‘zgarishi (Δ)	+6.8 (p<0.001; d=0.73)	+7.2 (p<0.001; d=0.78)	+6.9 (p<0.001; d=0.75)
Haftalik LMS faolligi (daqiqa) – bosqich 1	142 ± 61	138 ± 57	141 ± 60
Haftalik LMS faolligi (daqiqa) – bosqich 2	198 ± 74	193 ± 71	196 ± 73
Tavsiya qilingan mashqlarni bajarish (%)	63	61	62
Onlayn testlarni yakunlash	81 %	79 %	80 %
O‘qish vaqti (off-LMS, soat/hafta)	10.2 → 9.1 (-10.8%)	10.4 → 9.3 (-10.6%)	10.3 → 9.2 (-10.7%)

Jadval 3 — Regressiya natijalari

Prediktor (o'lchov)	β (standart)	Koef. (SE)	p-qiymat
Boshlang‘ich GPA (0–4)	0.24	+1.05 (0.18)	<0.001
Haftalik LMS faolligi (10 daq blok)	0.31	+0.80 (0.09)	<0.001
SI tavsiyalarini qabul qilish (%)	0.19	+0.05 (0.01)	<0.001
Oldin LMS tajribasi (ha=1, yo’q=0)	0.07	+0.62 (0.29)	0.029
Qurilma sifati (1–5)	0.09	+0.38 (0.15)	0.012

Eslatma: Model: OLS, R^2=0.41, n=583; VIF<3, qoldiq normal taqsimotga yaqin (Shapiro–Wilk p=0.08).

Munozara: Ushbu natijalar SIga asoslangan shaxsiylashtirilgan LMS komponentlari mikrobiologiya va virusologiya fanlarida o‘zlashtirishni oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Avvalo, adaptiv diagnostika va kontentni tabaqalashtirish boshlang‘ich tayyorgarligi past talabalarda bilim bo‘shliqlarini tezda qoplashga yordam beradi. Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan teskari aloqa va mikro-mashqlar qayta mashq qilish (spaced practice) hamda xatolardan o‘rganish siklini samarali yo‘lga qo‘yadi. Uchinchidan, laboratoriyaga yo‘naltirilgan xavfsizlik stsenariylari va real mikrografiyalar bilan ishlashga tayyorlovchi simulyatsiyalar kompetensiya transferini kuchaytiradi. Turli adabiyotlarda qayd etilganidek, SI-LMS tizimlarida kontentni moslashtirish talabaning kognitiv yuklanishini maqbullashtiradi, chalg‘ituvchi omillarni kamaytiradi va diqqatni sust joylarga yo‘naltiradi. Biroq, joriy etish muammolari — axborot texnologiyalari infratuzilmasi, akademik xodimlarning raqamli pedagogik kompetensiyasi, til va terminologiya mosligi — yaxshi boshqarilmasa, kutilgan ta’sirni pasaytirishi mumkin. Shuningdek, baholashning adolatli va shaffofligi, akademik halollikni ta’minlash uchun plagiat va AI yordamidan nomaqbul foydalanishning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

Natijalarni talqin qilishda regressiya modellari yordam beradi: odatda kirish balli va LMSga kirish chastotasi yakuniy ballning kuchli prediktorlari hisoblanadi. Shu bois SI-LMS dizaynida kirish rag‘batlarini (gamifikatsiya elementlari, kundalik vazifalar, bildirishnomalar) aqlli tarzda qo‘llash foydali. Sifat tahlili ham shuni ko‘rsatadiki, talabalar uchun "qadam-baqadam yo‘l xaritasi" va o‘z holatiga mos tavsiyalar eng ahamiyatli komponentlar sirasida.

Xulosa va tavsiyalar: SIga asoslangan shaxsiylashtirilgan LMS dasturini mikrobiologiya va virusologiya ta’limida o‘zlashtirish, faollik va motivatsiyani oshirish salohiyatiga ega. Adaptiv testlash, tezkor-tavsiya va tezkor o‘zaro aloqa komponentlari, ayniqsa, tayyorgarligi past talabalarda sezilarli qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘lib chiqadi. Joriy etish muvaffaqiyati infratuzilma, pedagogik dizayn va akademik halollikni ta’minlash mexanizmlariga bog‘liq. OTMlar uchun bosqichma-bosqich joriy etish, monitoring va doimiy yakuniy natijalarni tahlil qilish tavsiya etiladi.

- SI-LMSga kirishdan avval diagnostik skrining testini joriy eting; natijaga ko‘ra modul yo‘nalishlarini oching.
- Laborator xavfsizligi bo‘yicha qisqa, interaktiv, tilga mos eslatmalarni har bir amaliy topshiriqqa bog‘lang.
- Avtomatlashtirilgan teskor aloqa shablonlarini (xatolar bo‘yicha) kurs bo‘yicha standartlashtiring.
- Gamifikatsiya elementlarini (reyting, odat zanjiri) mo‘tadil qo‘llang; haddan ziyod raqobatni oldini oling.
- Akademik halollik protokollarini (plagiat nazorati, ochiq savollar, amaliy keyslar) kuchaytiring.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1) Murtazoqulova N.A. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga integratsiyasi va uning imkoniyatlari. *Qo‘qon University Herald* (Qo‘qon universiteti xabarnomasi), 2025, 6(8).
2) Satimboyeva X.A.Ta’limni boshqarishda sun’iy intellekt: afzalliklari va kamchiliklari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2024, jild 1, №5, 51–55-betlar.
3) Якубов М.С. и др. Анализ и новые тенденции использования нейросетей и искусственного интеллекта в современной системе высшего образования. Экономика и социум, 2021, 5–2(84), с. 1148–1162.
4) Садома С.Э. Инновационные технологии в образовательном процессе. Молодой ученый, 2025, №47(598), с. 424–426.
5) Holmes, W. et al. (2022). AI in Health Professions Education: Personalization and Assessment. Medical Teacher, 44(5), 501–512.
6) Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on AI applications in higher education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16 (1):39.
7) Chen, L., Chen, P., & Lin, Z. (2020). Artificial Intelligence in Education: A Review. IEEE Access, 8, 75264–75278.
8) Woolf, B. P. (2021). Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning. Morgan Kaufmann. 43-49

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

RAQAMLI TA’LIM MUHITI AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINING FAN OLIMPIADALARIGA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITA

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqtchisi
Giyosov Ergashboy Obidjonovich

Anotatsiya. Maqolada tayyorlangan ta'lim muhiti litsey o‘quvchilarining fan olimpiadalariga akademik tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etish o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Raqamli resurslar, onlayn platformalar, masofaviy mashg'ulotlarni o‘quvchilarning analitik fikrlash, muammoli mahsulotlarni hal etish, individual ta’lim trayektoriyani boshqarishga ko‘proq yordam berish ta’siri ilmiy asosda tahlil qilish. tadqiqot rejalashtirish ta’lim muhitining kompetensiyaga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashi, o‘quvchilarni olimpiadabop masalalarga moslashtirishdagi hamda akademik litsey sharoitlarida qo‘llashning metodik jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, akademik litsey, fan olimpiadasi, individual ta’lim trayektoriyasi, masofaviy ta’lim, raqamli resurslar, sun’iy intellekt, ta’lim texnologiyalari, kompetensiya

Kirish. Respublikamiz ta’lim tizimida joriy qilinayotgan tizimli islohotlar ta’lim oluvchilarni raqamli ta’lim resurslari vositasida mustaqil ishlash va iqtidorli o‘quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash faoliyatlarini rivojlantirish, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash, individual ta'lim yo‘nalishlariga asoslangan, ta’lim oluvchilarda noananaviy va kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda paydo bo‘ladigan ta’limiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Akademik litseylarida bu muammolarni bartaraf etishni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o‘tish rejalashtirilgan. Akademik litseylarining asosiy vazifasi Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, fan sohalarida ilmiy faoliyat yurita olish va innovatsiyalarga qodir bo‘lgan nomzodlarning ijodiy shaxsini shakllantirishdir. Bu muammolarni faqat ta’lim beruvchi pedagogdan ta’lim oluvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tayyor shaklda o‘tkazish orqali hal qilish qiyin. Ta’lim oluvchini qoniqarsiz bilim iste’molchisidan muammoni shakllantirish, uni yechish yo‘llarini izlash, ijobiy natijani topish va uning to‘g‘riligini isbotlay oladigan faol bilim yaratuvchiga o‘tkazish zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni e'tirof etish kerakki, ta’lim oluvchining ta’lim olishdagi mustaqil faoliyati nafaqat o‘quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanishi kerak.

Raqamli ta’lim resurslari ijtimoiy sohaning muhim, jadal rivojlanayotgan sohasi bo‘lib, uni tashkil etish, ta’lim oluvchilarga xizmat ko‘rsatish va axborot bilan ta’minlash jarayonining doimiy takomillashtirilishi bilan tavsiflanadi. Buning sababi ijtimoiy sohaning an’anaviy sektori va subyektlari bilan axborot muhitidagi o‘zaro aloqa bo‘lib, bu ularni o‘z faoliyati samaradorligini oshirishning yangi usullarini izlashga majbur qiladi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 son Farmoni “Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda”[2].

Zamonaviy ta’lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida keskin o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va undan samarali foydalanish masalasi pedagogik strategiyalarning markaziy nuqtasiga aylangan. Bunda eng muhim omillardan biri – ta’lim platformalarining interaktivligi, funksionalligi va o‘quvchi-o‘qituvchi uchun qulayligi hisoblanadi.

Quyida hozirgi kunda xalqaro va mahalliy miqyosda keng e’tirof etilgan, ta’lim samaradorligini oshirishda, ayniqsa fan olimpiadalariga tayyorlovda muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan beshta zamonaviy raqamli ta’lim platformasi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot beriladi.

Khan Academy – 2008-yilda tashkil topgan notijorat ta’lim platformasi bo‘lib, bepul, interaktiv darslar va video materiallar orqali ta’lim olish imkoniyatini beradi. Platformada boshlang‘ichdan to ilg‘or darajagacha bo‘lgan turli fanlar bo‘yicha o‘quv modullari mavjud.

Coursera – dunyoning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlari hamda yirik texnologik kompaniyalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan xalqaro onlayn ta’lim platformasidir. Unda akademik kurslar, mutaxassislik dasturlari, magistrlik darajalari va kasbiy sertifikatlar mavjud.

Edmodo – maktablar uchun mo‘ljallangan virtual ta’lim tarmog‘i bo‘lib, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarni yagona tizimda birlashtiradi. Keyinchalik modernizatsiya qilinib, Edsby nomi bilan faoliyat yuritmoqda. Bu platforma ayniqsa umumta’lim muassasalari va litseylar uchun mo‘ljallangan.

Google Classroom – Google kompaniyasining bepul ta’lim platformasi bo‘lib, o‘qituvchilar va o‘quvchilarga dars materiallarini almashish, topshiriqlarni yuborish, baholash va qayta aloqa berish imkoniyatini yaratadi.

ChatGPT – OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy intellekt platformasi bo‘lib, foydalanuvchi bilan muloqot shaklida ishlaydi. O‘quvchilar undan savol-javob, tushuntirish, masalalar yechish, matnlar yozish, tarjima qilish va boshqa ko‘plab vazifalar uchun foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot davomida raqamli ta’lim muhiti va uni tashkil qilish, ta’lim tizimiga joriy qilish bo‘yicha tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, respublikada raqamli ta’lim resurslarini yaratish bo‘yicha A.A.Abduqodirov[3], M.M.Aripov[4], U.SH.Begimqulov[5], S.S.G‘ulomov[6], F.M.Zakirova[7], Q.T.Olimov[8], S.Q.Tursunov[9], A.G‘.Hayitov[10] raqamli axborot-ta’lim resurslarini ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha M.E.Mamarajabov[11], U.Y.Yuldashev[12] va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Yuqorida qayt etib o‘tilgan olimlar tomonidan raqamli ta’lim muhitining umumiy didaktik, psixologik, tashkiliy faoliyati, bu faoliyatning uslubiy, mantiqiy va boshqa jihatlari ko‘rib chiqiladi, o‘rganilayotgan muammoning ko‘p jihatlari, ayniqsa, an’anaviy didaktik rejada ochib beriladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning individual qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini hisobga oladigan yaxlit pedagogik tizim bo‘lib, mustaqil bilish faoliyatini motivatsion, protsessual, texnologik ta'minlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi.

O‘quvchilarni fan olimpiadalarga raqamli ta’lim muhitida tayyorlash jarayonlari haqida pedagog olimlar tomonidan birqancha fikrlar va mulohazalar yuritilgan.

Rossiyada ijodkor va iqtidorli o‘quvchilar uchun tashkil etilgan maktabda olib borilgan tadqiqotda, raqamli texnologiyalar yordamida STEM fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitish samaradorligi o‘rganilgan. Tadqiqotda aniq muammolarni yechish orqali abstrakt tushunchalarni o‘rganish, raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga urg‘u berilgan[13].

Howard Gardnerning ko‘p intellektual nazariyasiga ko‘ra, har bir o‘quvchining o‘ziga xos kuchli tomonlari mavjud, va raqamli ta’lim platformalari bu individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Olimpiadalarga tayyorlanishda raqamli vositalar yordamida o‘quvchi o‘zining kuchli tomonlariga asoslanib o‘z ta’limini yanada mustahkamlashi mumkin[14].

Lev Vygotskiyning "yaqinlashuv zonasini" tushunchasi raqamli ta’lim muhiti uchun ayniqsa ahamiyatlidir. U ta’limni jamiyat bilan aloqada, boshqa odamlar bilan interaktsiya orqali o‘rganishni ta’kidlagan. Raqamli resurslar va onlayn guruhlar orqali o‘quvchilar o‘rtasida fikr almashish va jamoaviy ishlash imkoniyatlari yaratiladi, bu esa bilim va ko‘nikmalarni tezda oshirishga yordam beradi[15].

Ushbu adabiyotlar va olimlarning fikrlari o‘quvchilarning raqamli ta’lim muhitidan qanday samarali foydalanishlari haqida muhim jihatlarni ta’kidlaydi. Ularning ilmiy ishlari ta’lim jarayonining shaxsiylashtirilishi, interaktiv tajriba, va ijtimoiy o‘rganish kabi asosiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Raqamli ta’lim muhiti, ayniqsa, yuqori darajadagi intellektual musobaqalarga, masalan, fan olimpiadalariga tayyorgarlikda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Odatda mustaqil ishlash uchun beriladigan topshiriqlarni taqdim qilishda axborot texnologiya vositalaridan kam foydalaniladi. Lekin o‘qitish texnologiyalari sohasi tadqiqotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, aynan ushbu o‘qitish shakllarida o‘qitish sifatini oshirishning zaxiralari yashirinib yotibdi. Gap shundaki, an’anaviy o‘qitish usullarida

guruhni faol ishlashga jalb etish va ularning o‘zlashtirishini nazorat qilish hamma vaqt ham ko‘ngildagidek bo‘lavermaydi. O‘quv materialining raqamli shaklda bo‘lishi, matnli, grafikli, ovozli, animatsion materiallarni kompyuter ekranida ko‘rish, o‘rganish, o‘zgartirish kiritish va yozib olib yanada chuqurroq o‘rganishga imkon beradi. O‘quv materialining raqamli shaklini mavjud raqamli ta’lim resurslariga jamlansa, ular orqali topshiriqlarni korporativ bo‘lib echish va axborot almashish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Kompyuter sinfidagi kompyuter va dasturiy vositalar o ‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzuga individual yondashish, o‘z fikrini shakllantirish va mustaqil ishlashda faollikni oshirish imkonini beradi [10].

O‘qituvchi raqamli ta’lim resurs vositasida xar bir o‘quvchining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini va berilgan topshiriqlarning bajarilishini jarayonini nazorat qilib borishi va bajarilgan barcha topshiriqlarni qiyosiy tahlil qilib borishi mumkin bo‘ladi. Raqamli ta’lim resursidan o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikda ishlashi o ‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ijodiy hamkorlikni ta’minlaydi.

Masofaviy ta’limni tashkil etish uchun o‘qituvchidan raqamli ta’lim resurslarini yaratish bo‘yicha bilim ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni talab etadi.

Raqamli ta’lim muhitidan o‘quv jarayonida to‘liq foydalanish natijasida quyidagilarga erishiladi.		
1.Xotiraga qabul qiladi, anglaydi, yig‘adi, biroq xatosiz, ongli ravishda qayta tiklamaydi;	2.Bevosita o‘qituvchi hamkorligida tahlil qiladi, taqqoslaydi, umumlashtiradi, namuna bo‘yicha amaliy harakatlarni bajaradi;	3.Muammolarni yechish jarayonida mustaqil izlanadi, kutilayotgan natijaga erishishning yo‘l va vositalarini mustaqil ravishda aniqlaydi.

1.5-rasm Raqamli ta’lim muhitida resurslaridan foydalanish natijalari

Zamonaviy dasturlash vositalarida tayyorlangan raqamli ta’lim resurslarining sifat darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ta’lim berish jarayoni shuncha natijali bo‘ladi.

Raqamli ta’lim resurslari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik o‘quvchini dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga olib keladi, fanga bo‘lgan qiziqishlari doimiyligini ta’minlaydi [13].

Ta’lim tizimida yillar davomida rivojlanib kelayotgan axborot texnologiyalari, ta’lim berish va ta’lim olish vositasi sifatida ta’lim jarayonini sifat- samaradorligini, hamda mazmunini yanada yuqori bosqichlarga olib chiqishga hizmat qilmoqda. Bunda albatta, ta’limni to‘g‘ri tashkil etish, mazmunli yo‘lga qo‘yish uchun zamonaviy axborot texnalogiyalari, hamda texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvoffiq bo‘ladi.Ta’lim tizimida kompyuter texnalogiyalari, multimedia maxsulotlari, internet materiallari, masofali o‘qitish vositalari, raqamli ta’lim resursi va axborot kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish sifat va samaradorlikni oshirishga hizmat qilmoqda.

Muvaffaqiyatli raqamli ta’lim tashkilotilar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, foydalanuvchilarning doimiy davomatini ta’minlash uchundoimiy ravishda o‘quv materiallari va manbalarini, hamda hizmat turlarini yangilab turish zarur ekanligini ko ‘rsatadi. Raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqishda maqsadli auditoriyaning qarashlarini tasniflash haqidagi tasavvurlarini hisobga olish muhimdir. Raqamli ta’lim resurslarining mazmuni ma’lumotlar tasniflagichi bilan chegaralanmaydi.

Raqamli ta’lim resurslari yordamida o‘quvchilar mustaqil ishlashlarining maqsadlari 1.6-rasmda taqdim qilinib o‘tilgan.

Raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqishda ma’lum qonuniyatlarga amal qilinadi:

ta’lim tashkilotlari tomonidan foydalaniladigan ditaktik adabiyotlardan va fan dasturlaridan foydalanish;

amaliyotga yo‘naltirilganlik bo‘yicha ta’lim mazmuniga bo‘lgan yangi talablarni ishlab chiqish, ta’limiy axborotdan erkin foydalanish, ta’limning faoliyat bilan bog‘liq mazmuni rolini oshirish;

ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni, shuningdek, ta’limdagi an’anaviy holatlarni bartaraf etish.

Turli manbalardan yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ularning shaxsiy rivojlanishini ko‘zda tutiladi. So‘nggi paytlarda mustaqil ishlarda elektron shakldagi manbalar (Internet tizimi, kompyuter dasturlari va elektron tashuvchilardagi ma'lumotlar) bilan ishlash katta o‘rin egalladi. O‘quvchilarning elektron ta’lim resurslari orqali mustaqil ishlarini tashkil qilishda veb saytlar va elektron resurslar bilan ishlash ham tizimli bo‘lishi kerak. Bu jarayon uch bosqichdan iborat:		
Birinchi bosqichda o‘quvchi veb saytlar va elektron resurslar bilan tanishadi, mualliflarning ism-shariflariga, resursda joylashgan manbalarga e’tibor beradi, mazmunini ko‘rib chiqadi, mundarija, diagramma, chizmalarni ko‘zdan kechiradi, o‘zi qiziqqan bo‘limga murojaat qiladi.	Ikkinchi bosqichda o‘quvchi veb saytga joylashtirilgan darsliklarni birinchi sahifasidan to oxirgi sahifasigacha alohida varaqlarda majburiy yozuvlar bilan diqqat bilan o‘qib chiqadi. Ushbu belgilar o‘qilgan narsalarni asosiy va ikkilamchi, muhim va ahamiyatsiz, qiziqarli va qiziq bo‘lmagan, hodisalarning ta'riflari va tavsiflarini, shuningdek, materialni farqlashning boshqa mezonlaridan foydalangan holda farqlash imkonini beradi.	Uchinchi bosqichda elektron resursda taqdim qilingan mustaqil ishlar bo‘limidan shu darslikka doir mustaqil topshiriqlarni bajarib joylashriradi. Elektron ta’lim muhitida o‘quvchilarrning faol mustaqil ishlashi faqat jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo‘lganda o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatadi.

1.16-rasm Raqamli ta’lim resurslari yordamida o‘quvchilar mustaqil ishlashlarining maqsadlari

Raqamli ta’lim resurslardan foydalanuvchi barqaror kontingentini shakllantirishning asosiy mohiyati ta’lim oluvchilarning xohish-istaklarini o‘rganish va individual xizmatlar ko‘rsatishga asoslanadi.

Har bir o‘quvchini raqamli ta’lim resursiga jalb qilish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Bunday holatlarda ma’lumotlarni yangilash muhimdir. Yangi-yangi ma’lumotlarni taqdim qilish, didaktik adabiyotlar, virtual darsliklar taqdim qilish raqamli ta’limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Tadqiqot ishining ushbu bo‘limida akademik litsey o‘quvchilarinning fan olimpiadalarida tayyorlashni rivojlantirishda raqamli ta’lim resurslarining roliga alohida e’tibor qaratilgan.

Akademik litseylarida ta’lim olayotgan o‘quvchi yoshlarini raqamli ta’lim resurslari yordamida fan olimpiadalariga tayyorlanish kompetentligini oshirishlari uchun sharoit yaratish va fanlar bo‘yicha muhim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish va ularni amalda qo‘llay olish uchun zarur kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish maqsadini ko‘zda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Луков В. Интернет-технологии в начале нового тысячелетия. // Планета Интернет - 2000. - №10. - с. 66.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrgi PF-6079 son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Abdukadirov A.A., Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya / A.A.Abdukadirov, A.X.Pardaev; red. M.Sodikova. – T. Fan, 2009. – 145 s.
4. Aripov M., Axmedov A.B., Ikramov X..Z., Irmuxammedova R.M.va boshq. Informatika. Axborot texnologiyalari. 2-qism. – Toshkent, 2003. – 421 b
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy texnologiyalar // Pedagogik ta’lim. – Toshkent: 2005. – №. 6. – B. 15-17
6. G‘ulomov S.S., Alimov R.X., Lutfullaev X.S. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Oliy o‘quv yurtlari o’quvchilari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2000. – 592 b.
7. Закирова Ф., Эминов А. Формирование компетентности в области компьютерной графики у будущего учителя//Информатика и образование. – Москва, 2010. – № 1. – С. 100-102.
8. Olimov Q.T. va boshqalar. Kasb ta’limi metodikasi. Darslik. Fan texnologiyalari nashriyoti. – T.: 2016. 328 b.
9. Tursunov S. Ta’limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Diss.p.f.n. -T. 2011. – 154 b.
10. Hayitov A. Informatika darslarida muammoli o‘qitish // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2001. -№5.-102-104-b.
11. Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent – 2022. 176 b.
12. Юлдашев У., Закирова Ф. Рол и место учебно-методического комплекса нового поколения в информатсионно-учебном обеспечении образователного процесса // Педагогик таълим. –Ташкент, 2004. – №2. – С. 27-29.

13. Kustov, A. V., & Lapteva, M. A. (2023). Advancing STEM education through preparing students with special interest in mathematics and science. *Journal of Education and Research*, 5(2), 112–124. https://www.researchgate.net/publication/383126382

14. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books.

15. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ONA TILI FANINI FANLARARO INTEGRATSIYALAB O‘QITISHDA VIZUAL VOSITALARNING O‘RNI

To‘raboyeva Muqaddas Yoqubjanovna
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, p.f.d. (DSc)
e-mail: turaboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ona tili fanini o‘qitishda vizual vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarga ta’lim berish. Shuningdek, vizual o‘rgatuvchi tizimlar – bu axborot kommunikatsiya vositalarining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning metodikasi yuzasidan taklif va tavsiyalar ilgani surilgan.

Kalit so‘zlar: axborot kommunikatsiya vositalari, dasturiy va texnikaviy vositalar, asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari, o‘quv materiallari, ta’lim tizimi, darslik, ona tili ta’limi asoslari, vizual vositalar, uzviylik, uzluksizlik, mashq, tafakkur, ong, topshiriqlar, tafakkurni rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar, bilim, ko‘nikma va malaka.

Аннотация.В статье рассматривается обучение родному языку учащихся с использованием наглядных средств. Предлагаются наглядные обучающие системы и даются рекомендации по методике подачи учебных материалов учащимся на основе программно-технических средств информационно-коммуникационных средств с аудио-, видео-, текстовыми, графическими и анимационными эффектами.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные средства, программно-технические средства, на основе аудио-, видео-, текстовых, графических и анимационных эффектов, учебные материалы, образовательная система, учебник, основы обучения родному языку, наглядные средства, связность, преемственность, упражнение, мышление, сознание, задания, упражнения и задания, развивающие мышление, знания, умения и навыки.

Abstract. The article deals with the teaching of the native language to students using visual aids. Also, visual teaching systems are proposed and recommendations are made on the methodology for delivering educational materials to students based on software and technical means of information and communication media with audio, video, text, graphics and animation effects.

Keywords: information and communication media, software and technical means, based on audio, video, text, graphics and animation effects, educational materials, educational system, textbook, foundations of native language education, visual aids,

coherence, continuity, exercise, thinking, consciousness, tasks, exercises and tasks that develop thinking, knowledge, skills and qualifications.

Kirish. Ta’lim sifati yetakchi omilga aylangan ushbu davrda vizual vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarga ta’lim berish eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Vizual o‘rgatuvchi tizimlar – bu axborot kommunikatsiya vositalarining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o‘qitishning bu usuli hozirgi kunda ta’lim sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha tatbiq qilinmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, vizual vositalar yordamida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar unumlidir. Shuningdek, vizual vositalar asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish, ya’ni video asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlanib qolinishi 25-30% ga oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio va grafika ko‘rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ga ortadi[33].

Bundan tashqari, vizual vositalar yordamida o‘quvchilarni o‘qitish quyidagi afzalliklarga ham ega:

- ✓ berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyati keng;
- ✓ ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- ✓ ta’lim olish vaqtining qisqarish imkoniyatiga erishish mumkin;
- ✓ olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga erishiladi;
- ✓ ta’lim olish vaqtining ixtiyoriyligi va moslashuvchanligi.

Vizual vositalar yordamida o‘tilgan darslar ana shunday afzalliklariga egaligi bilan an’anaviy nazariyaga asoslangan darslardan qiziqarliroq va samaraliroq hisoblanadi. Jumladan, ona tili darslarida ham o‘quvchilarni darsga qiziqishi va ishtiyoqini oshirish maqsadida turli xil vizual vositalardan foydalangan holda o‘tilgan dars faqat nazariya va qoidalar bilan cheklangan dasrlarga qaraganda o‘zining ko‘proq ijobiy natijalarini beradi. Hatto yangi nashrdan chiqayotgan darsliklarimizda ham shunday vizual vositalardan juda unumli foydalanilganini ko‘plab o‘rinlarda ko‘rishimiz mumkin. Bunda fanlararo integratsiya jarayonida ham vizual vositalar alohida ahamiyatga ega ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ona tili darslarining metodik jihatlari ko‘plab metodist olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan,

[33] www.genderi.org

A.G‘ulomov[34], H.Ne’matov, B.Ziyomuhammadov[35], B.Abdullayeva[36] singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning ona tili ta’limidagi o‘rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi. Til ta’limiga integrativ yondashuv xususida pedagoglar U.Musayev[37] , D. Yo‘ldosheva[38]larning ilmiy izlanishlaridan ham ma’lumotlar olish mumkin. Ona tili darslarini adabiyot darslari bilan badiiy matn orqali integratsiyalash masalalari K.Mavlonova tomonidan tadqiq etilmoqda[39].


I.V.Pestalossi o‘zining didaktik maqolasida o‘quv darsliklaridagi bog‘liqlik masalasiga keng to‘xtalib o‘tar ekan: “Bir-biri bilan bog‘liq fanlarni ongingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog‘liqlik holatida ekanini angla” -deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi. O‘tmish pedagogikasida didaktik ta’sirining ruhiy-pedagogik xususiyati hamda psixologik-pedagogik bog‘liqlik to‘g‘risida K.D.Ushenskiy shunday deydi: “Har qanday fan tomonidan xabar qilinayotgan bilim va g‘oya dunyo va hayotga keng nigoh va yorituvchan holatda berilishi lozim”.

Fanlararo bog‘liqlik nazariyasining ishlab chiqishda K.D.Ushenskiy juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu metodika rivojida X.V.Stoyunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqa pedagoglar samarali ish olib bordilar. Fanlararo aloqa va integratsiyaning maktablarda o‘qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko‘p pedagog olimlar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Pedagog olimlardan D.Zvernov, A.Danilov, N.Maksimova, P.Baranov, M.Skatkin; ruhshunos olimlar Y.Kabanova-Miller, M.Polizina, A.Samarin, I.Vergelis; Metodist olimlar R.Lvov, G.Goreskiy, N.Svetlovskaya, M.Kolyagina, N.Pristupa va boshqalar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Shundan kelib chiqib, ona tili fanini tabiiy fanlar bilan aloqasini 6-sinfning 2022-yilgi yangi nashri misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, darslikning bosh muqovasiyoq kishiga tabiatni eslatadi. Ushbu nashrda darslik so‘ngida keltiriladigan odatdagi mundarijadan qochilgan va darslikning ilk sahifalaridayoq turli vizual vositalardan foydalanib shakllantirilgan mundarija o‘quvchining diqqatini o‘ziga tortishi va fanga qiziqishini ortishiga xizmat qilmog‘i maqsad qilib olingan(1.2. 1-rasm).

[34]Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълим мазмуни.-Т.: Ўқитувчи, 1995.
[35] Зиёмуҳаммадов Б., Абдуллаева Ш. Илғор педагогик технология.-Т.: Абу Али ибн Сино, 2001.
[36] Абдуллаева Б.С.Фанлараро алоқадорлик турлари щақида // Узлуксиз таълим. –2005. -.№1.
[37] Мусаев У. Интеграция даражалари // Халқ таълими. – 2002. - № 6.
[38] Йўлдашева Д. Таълим мақсадига мувофиқ келадиган таълим мазмунини белгилаш имкониятлари // Узлуксиз таълим. Тошкент, 2007.
[39] Мавлонова К. Она тили дарсларида бадиий матннинг тил хусусиятларини интеграциялаш асосида ўрганиш методикаси. Монография. –Т.: Машҳур-пресс, 2016. 254 б.



1.2. 1-rasm

Darslik sahifalarini varaqlash davomida o‘quvchi zerikib qolmaydi, undagi har bir nazariy mavzuga oid turli qiziqarli ma’lumotlar, matnlar va ko‘rgazmali rasmlar o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qiladi va mavzu doirasida ko‘proq va batafsilroq bilimga ega bo‘lishiga yordam beradi. Masalan, “Shifoxona[40]” mavzusida o‘quvchilar ona tili fanini tabiiy fanlarga bog‘lagan holda shifoxona xizmatidan foydalanishga oid tavsiyalar, grafik ko‘rinishdagi axborotlarni o‘qib tushunish, tibbiyot sohasiga oid til birliklari,so‘z va uning ma’nodoshlari, undalma haqida atroflicha ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar dastlab audiovizual vosita yordamida so‘zlarni tinglaydilar hamda talaffuz qilib ko‘radilar. So‘ngra ushbu so‘zlarning o‘zbek tilidagi muqobili yoki izohini topishga harakat qiladilar. Bu topshiriq asosida o‘quvchilarning tinglab tushunish malakasi va fikrlash qobiliyatlari sinovdan o‘tkaziladi. Keyingi topshiriqda esa o‘quvchilardan “Shifoxona” mavzusiga oid rasmlarga diqqat qilgan holda quyidagi savollarga javob berishlari talab etiladi(1.2. 2-rasm):

[40] Azimova I.,Mavlonova K.,Quronov S va boshq. – Ona tili darslik. 7-sinf.Toshkent, 2022. – B. 26., 27.



1.2. 2-rasm

1. *Shifoxona deganda xayolingizda birinchi nima gavdalanadi?*
2. *Siz qaysi shifokor qabulida bo‘lgansiz?*
3. *Shifoxonada bemorlar qabul qiluvchi xonalar qanday nomlanadi? Ularning o‘zbek tilida muqobili bormi? Qanday?*
4. *Shifokor qabulida eng ko‘p qaysi so‘z va gaplar ishlatiladi?*

Bu topshiriq o‘quvchilarning tibbiy savodxonliklari qay darajada ekanligini va yon-atroflarida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga qanchalik e’tiborli ekanliklarini aniqlab olishda va erkin fikr bildira olish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Navbatdagi topshiriqda o‘quvchilar yuqorida ko‘rgan rasmlari asosida atamalarni izohlab yozishlari kerak bo‘ladi.

Namuna:*pediatr – bolalar shifokori* Yana bir yozma mashqda esa o‘quvchilar shifokor va bemor o‘rtasidagi suhbatda qanday so‘z va gaplardan foydalanilishini haqida yozmoqliklari lozim bo‘ladi(1.2. 3-rasm). Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad egallangan bilimlar asosida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish , qolaversa, sinovdan o‘tkazish hamdir.


Namuna: - *sizni nima bezovta qilyapti?*



1.2. 3-rasm

Navbatdagi mashqdagi diagrammaga qarab o‘quvchilar hududlar bo‘yicha kasalliklar ulushi haqida so‘zlab berishlari talab qilinadi(1.2. 4-rasm). Bunda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishlari darkor hisoblanadi:

10.jadvalning nomi;
11.hududlar;
12.ranglar nimani anglatayotgani;
13.raqamlarda nimalar aks etayotgani.



1.2. 4-rasm

Ushbu mashq orqali o‘quvchilarning grafik ko‘rinishdagi axborotlarni o‘qib tushunish malakasi sinovdan o‘tkaziladi va yanada mustahkamlanadi. Uyga vazifa

sifatida o‘quvchilarga shifokor ko‘rigiga borishda qanday muhim gigiyenik qoidalar va muomala odobiga rioya qilish kerakligiga oid tavsiyalar yozib kelish buyuriladi. Shu orqali o‘quvchilarning tibbiy va imloviy savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati qay darajada ekanligi tekshiriladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqorida biz birgina mavzu doirasida ona tili fanini tabiiy fanlarga bog‘lab o‘qitishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan turli xil vizual vositalar haqida fikr yuritdik. Shulardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, ona tilini o‘qitishda vizual vositalardan foydalanish ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyati katta hisoblanadi. Chunki ushbu vositalar yordamida tashkil etilgan darslar o‘zining qiziqarliligi, tinglovchining diqqatini jamlab olishi va, eng asosiysi, ko‘z bilan ko‘rgan voqea-hodisalarning xotirada uzoq muddat saqlanib qolishligi bilan qimmatlidir.

Shuningdek, ona tili fanini integratsiya asosida o‘qitishning ko‘plab usullari mavjud. Masalan, 6-sinf darsligida berilgan “Atoqli va turdosh otlar” mavzusini geografiya o‘quv fani bilan bog‘lab o‘tishimiz mumkin. Ushbu darsda O‘zbekiston Respublikasi xaritasidan foydalanilsa yana ham maqsadga muvofiq bo‘ladi[41]. Darsda o‘quvchilarga“Atoqli va turdosh otlar” mavzusiga doir barcha ma‘lumotlar yetkazilgach, mavzuni qay darajada yaxshi o‘zlashtirilganligini aniqlash va olingan bilimlarni yana da mustahkamlash maqsadida “Zanjir” metodidan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilardan biri shahar nomini aytadi, qolgan o‘quvchilar esa shu shahar nomining oxirgi harfi bilan boshlanadigan boshqa shahar nomini topadilar. Agar qaysi bir o‘quvchi uch soniya ichida kerakli harfga shahar nomini ayta olmasa yoki ma’lumotlarni takrorlasa, o‘yinni tark etadi. O‘yin shu tariqa bitta o’quvchi qolguncha davom etadi. Bu usul o‘quvchini mustaqil izlanishga, xotirani yanada mustahkamlashga yordam beradi. O‘yinda misol tariqasida quyidagi shaharlarning nomlari keltirilishi mumkin:

Asaka – Andijon – Norin – Namangan – Nukus – Samarqand – Dashnobod – Dehqonobod…

O‘quvchilarga shaharlarning nomini yozdirish esa ularning imlo savodxonligini oshirishga yordam beradi. Ushbu metod o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq malakalarini o‘stirish, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning til va geografiya bo‘yicha nazariy bilimlarini yanada kengaytirishda, qolaversa, xotirani yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Maktabda o‘qitiladigan har qanday fandan beriladigan bilim, tarkib toptiriladigan ko‘nikma va malakalarning shakllantirilishida turdosh o‘quv fanlarning o‘zaro uyg‘unlikdagi imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish muhim ahamiyatga ega.

[41] Xurramova Z. Ona tili o’qitishda integrativ yondashuv. – Toshkent, 2018. – B.38

Hozirgi vaqtda maktablarda integratsiya deganda biz yangi aktiv pedagogik izlanishlarni, pedagogik jamoada ijodiy o‘sishni, o‘quvchilarga foydali, o‘quvchilar ongiga singdirishning qulay usullarini qo‘llash mahoratini tushunamiz.

Ta’lim sifati yetakchi omilga aylangan ushbu davrda ona tili fanini fanlararo integratsiyalab o‘qitishda vizual vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarga ta’lim berish eng dolzarb masalalardan biridir. Boshqa fanlar singari ona tili darslarida ham o‘quvchilarni darsga qiziqishi va ishtiyoqini oshirish maqsadida turli xil vizual vositalardan foydalangan holda o‘tilgan dars faqat nazariya va qoidalar bilan cheklangan dasrlarga qaraganda o‘zining ko‘proq ijobiy natijalarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълим мазмуни.-Т.: Ўқитувчи, 1995.
2. Зиёмуҳаммадов Б., Абдуллаева Ш. Илғор педагогик технология.-Т.: Абу Али ибн Сино, 2001.
3. Абдуллаева Б.С.Фанлараро алоқадорлик турлари щақида // Узлуксиз таълим. – 2005. -.№1.
4. Мусаев У. Интеграция даражалари // Халқ таълими. – 2002. - № 6.
5. Йўлдашева Д. Таълим мақсадига мувофиқ келадиган таълим мазмунини белгилаш имкониятлари // Узлуксиз таълим. Тошкент, 2007.
6. Мавлонова К. Она тили дарсларида бадиий матннинг тил хусусиятларини интеграциялаш асосида ўрганиш
   методикаси. Монография. –Т.: Машҳур-пресс, 2016. 254 б.
7. Azimova I.,Mavlonova K.,Quronov S va boshq. – Ona tili darslik. 7-sinf.Toshkent, 2022. – B. 26., 27.
8. Xurramova Z. Ona tili o’qitishda integrativ yondashuv. – Toshkent, 2018. – B.38

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA EKOLOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Suvanov Farxod Qudratovich
Buxoro davlat universiteti
Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi
E mail: farxodsuvanov1989@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida kuchayib borayotgan ekologik muammolar fonida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishning dolzarbligi, nazariy-pedagogik asoslari va psixologik-pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Ekologik tafakkurning mohiyati, uning tarkibiy komponentlari (kognitiv, emotsional-qadriyatli, faoliyatli) va kasbiy kompetentlik bilan bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, xususan, fanlararo integratsiya va kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Maqolada ekologik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli uchun asos bo‘luvchi nazariy konsepsiyalar umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik tafakkur, ekologik madaniyat, bo‘lajak biologiya o‘qituvchisi, kasbiy kompetentlik, nazariy-pedagogik asoslar, fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim tizimi, ekologik ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируются актуальность, теоретико-педагогические основы и психолого-педагогические условия формирования экологического мышления у будущих учителей биологии в контексте нарастающих экологических проблем в условиях глобализации. Раскрыты сущность экологического мышления, его структурные компоненты (когнитивный, эмоционально-ценностный, деятельностный) и взаимосвязь с профессиональной компетентностью. Также показана значимость современных подходов, направленных на развитие экологической культуры будущих специалистов в системе высшего образования, в частности междисциплинарной интеграции и компетентностного подхода. В статье обобщены теоретические концепции, служащие основой для педагогической модели развития экологического мышления.

Ключевые слова: экологическое мышление, экологическая культура, будущий учитель биологии, профессиональная компетентность, теоретико-педагогические

основы, междисциплинарная интеграция, компетентностный подход, система образования, экологическое образование.

Annotation. This article analyzes the urgency, theoretical-pedagogical foundations, and psychological-pedagogical conditions for the formation of ecological thinking in future biology teachers against the background of growing environmental problems in the context of globalization. The essence of ecological thinking, its structural components (cognitive, emotional-value, activity-based), and its relationship with professional competence are revealed. The importance of modern approaches aimed at developing the ecological culture of future specialists in the higher education system, particularly interdisciplinary integration and a competency-based approach, is also highlighted. The article summarizes the theoretical concepts that serve as a basis for the pedagogical model of developing ecological thinking.

Keywords: ecological thinking, ecological culture, future biology teacher, professional competence, theoretical-pedagogical foundations, interdisciplinary integration, competency-based approach, education system, environmental education.

Kirish. So‘nggi yillarda turli xil ekologik muammolar fonida insonning dunyodagi o‘z o‘rni, tabiatga bo‘lgan munosabati masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Vaqt tez o‘tmoqda va biz har kuni ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali atrof-muhitdagi doimiy o‘zgarishlar, tabiiy ofatlar va inson faoliyati tufayli yuzaga kelayotgan, tabiatga salbiy ta'sir ko‘rsatayotgan avariyalar haqida eshitamiz. Bunday murakkab vaziyatda jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lgan inson qanday chora ko‘rishi mumkin? Kichik miqyosda bo‘lsa-da, salbiy ta'sirlarga olib keladigan xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun u qanday harakatlarni amalga oshirishi lozim? Eng asosiy savol shuki, bunday to‘g‘ri xulq-atvorni qayerdan "o‘rganish" mumkin, bo‘lajak avlodga uni qanday o‘rgatish va bunga qanday qilib shaxsiy namuna bo‘lish kerak? Bu savollar, ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metadologiyasi

Mazkur tadqiqot mavzusini teran anglash, avvalo, uning poydevori bo‘lgan ekologiya tushunchasining mohiyatini idrok etishni taqozo etadi. Ekologiya – tirik organizmlarning, shu jumladan insonning, o‘zaro hamda yashash muhiti bilan munosabatlarining rang-barang jihatlarini o‘rganuvchi murakkab, fanlararo bilimlar majmuasidir. Uning an’anaviy tarzda autekologiya (alohida turlar ekologiyasi) va sinekologiya (populyatsiya va biotsenozlar ekologiyasi) kabi tarmoqlarga ajratilishi fanning ko‘p qirraliligidan dalolat beradi.

Zamonaviy ekologiyaning tamal toshini qo‘ygan olimlar T. Maltus va J. B. Lamark XX asr boshlaridayoq insoniyatning tabiatga salbiy ta’siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik tanazzul haqida bashorat qilgan edilar. Ularning qarashlari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, ekologiya atrof-muhitning o‘zigina emas, balki kompleks fanlar tizimidir. Shu bois, “ekologiya yomonlashdi” iborasi o‘rniga “ekologik vaziyat yomonlashdi” atamasini qo‘llash ilmiy jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Zero, fanning asosiy

vazifasi tabiiy muhit va inson o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir oqibatlarini tahlil qilish hamda prognozlashdan iboratdir.

“Ekologiya” atamasi yunoncha so‘zlardan olingan bo‘lib, tirik organizmlar va ular tashkil etgan hamjamiyatlarning o‘zaro hamda atrof-muhit bilan munosabatlari to‘g‘risidagi fandir. Ekologiyaning tadqiqot obyekti populyatsiyalar, turlar, biotsenozlar, ekotizimlar va global miqyosda butun biosferani qamrab oladi. XX asr o‘rtalariga kelib, antropogen ta’sirning kuchayishi natijasida ekologiya tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tirik mavjudotlarni muhofaza qilishning ilmiy asosi sifatida beqiyos ahamiyat kasb etdi. 70-yillardan boshlab esa inson ekologiyasi yoki ijtimoiy ekologiya yo‘nalishi shakllanib, u jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir qonuniyatlarini, shuningdek, uni muhofaza qilishning falsafiy, sotsiologik, iqtisodiy va geografik jihatlarini o‘rganishga kirishdi.

Shubhasiz, ekologiya kabi kompleks fan o‘z zamirida inson va tabiat munosabatlarining turli tomonlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ko‘plab yangi fan sohalarining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Aynan shu nuqtada bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishning nazariy va pedagogik asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanadi. Zero, har bir shaxsning tabiat bilan munosabati uning tafakkuri va dunyoqarashidan boshlanadi.

“Ekologik tafakkur” atamasi ilmiy muomalaga XX asrning 80-yillarida kirib kelgan. Bu sohadagi yetakchi tadqiqotchilar N. M. Mamedov, I. T. Suravegina, S. N. Glazachev, I. D. Zverev kabi olimlarning ishlariga tayangan holda E. A. Turdiqulov shunday qayd etadi: [tafakkurning bu turini shakllantirish jarayonining oliy natijasi – har bir insonda maktab yoshidanoq ekologik dunyoqarashni tarkib toptirish, unga ekologiya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini berishdir] [1]. Bu maqsadga erishish uchun esa ta’lim oluvchilarda izchil ravishda ekologik tafakkurni shakllantirish lozim.

O‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish va uni keyingi ta’lim bosqichlarida rivojlantirish bugungi kunda pedagogikaning istiqbolli, biroq hali to‘liq o‘rganilmagan yo‘nalishlaridan biridir. E. A. Turdiqulov va S. S. Xromov kabi olimlar ekologik tafakkurni shakllantirishni ekologik ta’limning bosh maqsadi sifatida ilgari surganlar [1, 2]. Jumladan, E. A. Turdiqulov o‘zining dastlabki tadqiqotlarida ekologik bilimlarni shakllantirish bilan bir qatorda, “ekologik tafakkurni rivojlantirish” vazifasini ham kun tartibiga qo‘yishni taklif etgan. Olim ekologik ta’lim va tarbiya tushunchasi ostida [inson ongida dunyoning moddiy birligi va inson bilan tabiatning o‘zaro munosabatlarining turli qirralarini aks ettiruvchi ekologik tafakkur uslubi, yuridik, siyosiy, axloqiy va estetik qarashlar majmuasini shakllantirish]ni nazarda tutgan [1].

Ushbu qarashlar bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini yaratishda fundamental ahamiyatga ega. Chunki bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat bilimlarni uzatuvchi, balki o‘quvchilarda tabiatga va jamiyatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni, ya’ni ekologik tafakkurning o‘zini shakllantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

Tushunchaviy-terminologik lug‘atlarda ekologik tafakkurga [sabab-oqibat, ehtimoliy va prognozli aloqalarni, shuningdek, boshqa turdagi bog‘liqliklarni o‘rnatish; axloqiy tanlov va prognoz qilish vaziyatlarida muammoning sababini, mohiyatini va yechim yo‘llarini aniqlash; atrof-muhitga nisbatan to‘g‘ri fuqarolik munosabatining asosi] sifatida ta’rif beriladi. Ekologik ta’lim faoliyatining mahsuli sifatida ekologik tafakkur – bu shaxsning shunday shakllangan sifatiki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalarni o‘zaro bog‘liqlikda anglash, ekologik tushuncha, kategoriya va qonuniyatlardan foydalanish orqali real va taxminiy vaziyatlarda mo‘ljal olish, ekologik imperativga (qat’iy talabga) bo‘ysunuvchi xulq-atvorni tanlash hamda aniq masalalarni hal qilish imkonini beradi.

“Ekologik tafakkur” tushunchasining negizida sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash yotadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har qanday o‘quvchi sabab-oqibat bog‘lanishlarini o‘rnatishda ma’lum qiyinchiliklarga duch keladi. Maktab yoshida sababdan oqibatga o‘tish jarayoni oqibatdan sababni izlashga qaraganda osonroq kechadi va bu holat ekologik tafakkurning samaraliroq shakllanishiga yordam beradi.

Kichik xulosa shuki, ekologik tafakkur – shaxsga vaziyatni mustaqil tahlil qilish va atrof-muhit bilan munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkonini beruvchi fikrlash usulidir. U inson va tabiat o‘rtasidagi eng o‘tkir muammolarni aniqlashga hamda ularni hal qilishning maqbul usullarini topishga xizmat qiladi.

Jamiyat, oila va pedagoglar yosh avlodda ekologik tafakkurni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon bola shaxsiyatini rivojlantirishning ajralmas qismidir. Insonning nafaqat jamiyatdagi, balki tabiatdagi o‘z o‘rnini anglashi uning kamoloti uchun g‘oyatda muhimdir. Jahon tarixi tabiatning o‘ziga nisbatan salbiy munosabatga befarq qolmasligini, aksincha, bu munosabatni insoniyatga qaytarishini ko‘p bora isbotlagan. Bugungi kunda insoniyat o‘z faoliyati bilan ekologik vaziyatni murakkablashtirmoqda. Turli tabiiy ofatlarda tabiatni ayblash esa insoniyatning o‘z harakatlari natijalarini tan olmaslikka urinishidir.

Shunday sharoitda, yoshlarni o‘z o‘rnini anglaydigan va tabiat bilan uyg‘unlikda yashaydigan qilib tarbiyalash hayotiy zaruriyatga aylanadi. Bu tarbiya mayda narsalardan boshlanadi: chiroyli gulni uzmaslik yoki terak momig‘ini yoqmaslik kabi oddiy harakatlar bolada o‘z faoliyati va tabiatga nisbatan barcha harakatlarini anglashning ilk kurtaklari bo‘lishi mumkin.

Bolada ekologik tafakkurni shakllantirishni izchil tizim asosida yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bolaning olam bilan tanishuvi, avvalo, ota-onasi orqali sodir bo‘ladi va u tabiat bilan muloqot qilishning ilk andozasini oiladan oladi. Ekologik tafakkurning zamonaviy ta’lim tizimida shakllanish jarayonini o‘rganish esa bizning tadqiqotimiz uchun eng katta qiziqish uyg‘otadi.

Ekologik tafakkurni rivojlantirishni, shubhasiz, maktabgacha ta’limdan boshlash lozim. M. V. Luchich o‘zining “Bolalarga tabiat haqida” nomli asarida [tabiat tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri] ekanligini ta’kidlaydi [3]. Muallifning fikricha, pedagoglar oldidagi asosiy vazifalardan biri bolada tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni

shakllantirishdir. Olima Militsa Valerianovna tabiatni ijobiy idrok etish orqali bolada hayotga quvonch va har bir tirik jonzotga mehr-oqibat shakllanishini xulosa qiladi. Uning qayd etishicha, [tabiatni sevgan bola o‘simliklarni payhon qilmaydi, hayvonlarga ozor bermaydi, o‘rmonda axlat tashlamaydi] [3]. Tadqiqotchi bolani tabiat bilan tanishtirishning jonivorlarni boqish, sabzavot va gullar o‘stirish, tabiat hodisalarini kuzatish kabi ko‘plab samarali usullarini keltiradi.

Maktabgacha ta’lim bosqichidan so‘ng boshlang‘ich ta’limda bolalarni tabiat bilan tanishtirish davom ettiriladi. “Atrofimizdagi olam” yoki “Tabiatshunoslik” fanining asosiy maqsadi ham bolalarda tabiatga mehr uyg‘otishdan iborat. Bu darslarda bir necha yil davomida bolalarga o‘yin shaklida globusdan foydalanish, o‘simlik va hayvonlarni solishtirish kabi jiddiy, ammo qiziqarli bilimlar beriladi.

Mamlakatimizda ta’limning rivojlanish yo‘nalishlari Davlat ta’lim standartlari (DTS) orqali belgilanadi. Masalan, umumiy o‘rta ta’lim DTSda maktab bitiruvchisining asosiy yutuqlari qatorida quyidagilar belgilangan:dunyoni faol va qiziqish bilan anglash, mehnat, fan va ijod qadriyatlarini tushunish;

o‘qishni, hayot va faoliyat uchun ta’lim hamda o‘z-o‘zini tarbiyalashning ahamiyatini anglash, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish;

sog‘lom va ekologik maqsadga muvofiq hayot tarzining qoidalarini ongli ravishda bajarish, o‘zi va atrof-muhit uchun xavfsiz hayot faoliyatini tashkil etish;

jamiyat va tabiatning barqaror rivojlanishi manfaatlarini ko‘zlab, kasblar olamida o‘z o‘rnini topish, professional faoliyatning inson uchun ahamiyatini tushunish.

Bundan ko‘rinib turibdiki, tabiatga mehrni tarbiyalash va atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish maktab o‘quvchilarini tarbiyalash va o‘qitish jarayonidagi eng asosiy vazifalardan biridir.

O‘sib kelayotgan avlodda ekologik tafakkurni shakllantirish bilan ko‘plab vazifalar bog‘liqdir:

1. ta’limiy vazifa – zamonaviy ekologik muammolar va ularning yechim yo‘llari haqidagi bilimlar tizimini shakllantirish;
2. tarbiyaviy vazifa – ekologik maqsadga muvofiq xulq-atvor, sog‘lom turmush tarzi motiv va ehtiyojlarini shakllantirish;
3. rivojlantiruvchi vazifa – o‘z hududidagi atrof-muhit holatini o‘rganish, baholash bo‘yicha intellektual va amaliy ko‘nikmalar tizimini rivojlantirish.
4. Ushbu vazifalar majmuasi bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash mazmunining ham negizini tashkil etishi lozim.

O‘smirlarda ekologik savodxonlikni shakllantirish vazifasi zamonaviy ta’lim islohotlari sharoitida eng murakkab, ayni paytda, eng dolzarb vazifalardan biridir. Ekologik tafakkur – bu insonning ma'naviy rivojlanishiga maqsadli ta'sir ko‘rsatish, qadriyatli yo‘nalishlarni, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos me'yorlarini shakllantirishdir.

O‘smirlarda ekologik tafakkurni shakllantirishning maqsad va vazifalari umuman tarbiyaning maqsad va vazifalari, o‘quv dasturlari talablari, bolalarning yoshiga oid axloqiy-ekologik tarbiyalanganlik darajasi, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Ular faqatgina butun maktab tarbiya tizimini faol harakatga undasa va rag‘batlantirsagina samarali bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi – shaxsning tabiat, boshqa insonlar va o‘zi bilan uyg‘un munosabatlarini rivojlantirish uchun optimal sharoitlarni yaratish, boshqacha aytganda, uning ekologik madaniyatini ekologik uyg‘unlik darajasiga ko‘tarishdir.

Ekologik tafakkurni shakllantirishning quyidagi vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- ✓ o‘smirlarda tabiat va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlar masalalari bo‘yicha o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ✓ tabiat bilan o‘zaro munosabatda, boshqa insonlar va o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatda o‘zini o‘zi tahlil qilish va baholash usullariga o‘rgatish;
- ✓ shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish;
- ✓ atrof-muhitni yaxshilash, boshqa odamlar bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ✓ tabiatning, boshqa odamlarning o‘ziga xos qarashlari va manfaatlari bilan birga mavjudligining ahamiyatini idrok etish va tan olishda ma'naviyatni rivojlantirish.

Ekologik tafakkurga o‘ziga xos tamoyillar xosdir:

1. Bilish va amaliy faoliyat birligi tamoyili – tabiatni o‘rganish va yaxshilashga qaratilgan faoliyatning uzviyligi.
2. Global, milliy va o‘lkashunoslik yondashuvlari birligi tamoyili.
3. Ta’limning o‘qituvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi funksiyalaridan foydalanish tamoyili – tabiatning o‘zgaruvchanlik funksiyasi ekologik ta’lim jarayonida atrof-muhit bilan bevosita muloqotni tashkil etish zaruratini belgilaydi.
4. Uzluksizlik tamoyili – har tomonlama ekologik bilimlarni o‘zlashtirish butun hayot davomida bosqichma-bosqich va uzluksiz amalga oshirilishini nazarda tutadi.
5. Integrativlik tamoyili – o‘quv dasturlariga “Ekologiya”, “Inson va tabiat”, “Ikkilamchi materiallardan foydalanish” kabi fakultativ kurslarni kiritishni nazarda tutadi. Ular ekologik bilimlarni tizimlashtirishga, tabiatning yaxlitligi to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

L.Y. Chubukovaning nuqtai nazariga ko‘ra, ekologik ong va ekologik tafakkur o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Dunyoqarashda va shaxs faoliyatida namoyon bo‘ladigan ekologik ongni shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

Muayyan bilimlarni o‘zlashtirish va ekologiya sohasi uchun optimal bo‘lgan ma'lum intellektual usullarni o‘rganish asosida adekvat qadriyatlarni shakllantirish va munosabatni ishlab chiqish.

Tegishli hissiyotlar asosida, tabiat bilan muloqot jarayonida, xalq an'analarini o‘rganishda, ekologik tadqiqotlar natijalarida, yorqin shaxslarning tarixiy tajribasida muayyan qadriyatlar tizimini shakllantirish va munosabatni ishlab chiqish.

Ekologik tafakkur – bu ekologik bilish vositasi, ya’ni ekologik munosabatlarning o‘zaro aloqalarini, munosabatlarini hamda obyekt va subyektlarini bilishdir. Intellektual faoliyat nuqtai nazaridan ekologik tafakkur – bu inson ongida kechadigan, aniq vaziyatni tahlil qilishda, uni ekologik qonunlar va tabiiy qonuniyatlar bilan taqqoslash va solishtirishda ifodalanadigan, jamiyat va tabiat manfaatlari muvozanati nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq qaror tanlashga olib keladigan fikrlash jarayonidir.

Ekologik tafakkurning boshqa fikrlash turlaridan ajratib turuvchi muhim o‘ziga xos xususiyati – ekologik muammoni hal qilishning bir necha mumkin bo‘lgan variantlarini izlash va ularni ekologik imperativ, ya’ni umuminsoniy qadriyatlar yordamida “saralash” (filtrlash)dir.

Ekologik tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- ✓ Tafakkurning ustun darajadagi obrazliligi;
- ✓ Integratsiya qila olish qobiliyati – turdosh (biologik, fizik va b.) fanlardagi ekologik bilimlarni birlashtirish va umumlashtirish;
- ✓ Sabab-oqibatlarni ochish orqali vaziyatni tahlil qila olish qobiliyati, shuningdek, vaziyatni prognoz qilish uchun o‘zaro bog‘liq hodisalar modellarini tuzish va qo‘llash.

Xulosa

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifasidir. Zero, bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat o‘z fanining bilimdoni, balki o‘quvchilarda tabiatga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni, ya’ni ekologik tafakkurning o‘zini shakllantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim dasturlarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rgatish, uni amaliyot bilan bog‘lashga qaratilgan metodikalarni ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shundagina biz yosh avlodda ekologik madaniyatni va tabiat bilan uyg‘un yashash ko‘nikmalarini samarali tarkib toptira olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Turdiqulov E. A. Ekologik ta’lim-tarbiya konsepsiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 28 b.
2. Глазачев С. Н. Экологическая культура учителя: исследования и разработки / С. Н. Глазачев. – Москва: Современный писатель, 1998. – 432 с.
3. Зверев И. Д. Экология в школьном обучении: Новый аспект образования / И. Д. Зверев. – Москва: Знание, 1980. – 96 с.
4. Ламарк Ж. Б. Философия зоологии: Т. 1 / Ж. Б. Ламарк; пер. с франц. С. В. Сапожникова. – Москва: Наука, 1935. – 330 с.

5. Лучич М. В. Детям о природе: Книга для воспитателя детского сада / М. В. Лучич. – 2-е изд., дораб. – Москва: Просвещение, 1989. – 143 с.

6. Мальтус Т. Р. Опыт закона о народонаселении / Т. Р. Мальтус. – Москва: Директмедиа Паблишинг, 2007. – 302 с.

7. Мамедов Н. М. Культура, экология, образование / Н. М. Мамедов. – Москва: РЭФИА, 1996. – 51 с.

8. Суравегина И. Т. Теория и практика формирования ответственного отношения школьников к природе в процессе обучения биологии: дис. ... д-ра пед. наук / И. Т. Суравегина. – Москва, 1986. – 384 с.

9. Хромов С. С. Экологическая культура и мышление: учеб. пособие / С. С. Хромов. – Москва: Высшая школа, 2005. – 150 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK FIZIKA YO‘NALISHI TALABALARIGA RAQAMLI TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA PEDAGOGIK MODELINI QURISH

Dilmurodov Shavkat Dilmurod o‘gli
Qarshi davlat universiteti umumiy fizika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida fizika yo‘nalishi talabalari raqamli texnologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan. Model raqamli ta’lim muhiti sharoitida talabalarning texnologik, axborot-kommunikatsion va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga yo‘naltirilgan. Unda loyiha asosidagi o‘qitish, interaktiv raqamli vositalardan foydalanish, refleksiv tahlil va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari uyg‘unlashtirilgan. Tadqiqot natijalari modelni qo‘llash talabalarda amaliy kompetensiyalarni, kreativ fikrlashni va raqamli madaniyatni shakllantirishda samarali ekanini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologik kompetentlik, fizika ta’limi, pedagogik model, loyiha asosida o‘qitish, raqamli ta’lim muhiti, oliy ta’lim.

Аннотация: В статье представлена педагогическая модель развития цифровой технологической компетентности студентов физического направления в высших учебных заведениях. Модель направлена на повышение уровня технологической, информационно-коммуникационной и профессиональной готовности студентов в условиях цифровой образовательной среды. В ней интегрированы методы проектного обучения, использование интерактивных цифровых инструментов, рефлексивный анализ и самооценка. Результаты исследования показывают, что применение модели способствует формированию у студентов практических компетенций, креативного мышления и цифровой культуры.

Ключевые слова: цифровая технологическая компетентность, обучение физике, педагогическая модель, проектный подход, цифровая образовательная среда, высшее образование.

Abstract. This article presents a pedagogical model for developing the digital technological competence of physics students in higher education institutions. The model aims to enhance students’ technological, informational, and professional readiness within a digital learning environment. It integrates project-based learning methods, the use of

interactive digital tools, reflective analysis, and self-assessment mechanisms. The research results demonstrate that the implementation of this model effectively fosters students’ practical competencies, creative thinking, and digital culture.

Keywords: digital technological competence, physics education, pedagogical model, project-based learning, digital learning environment, higher education.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur’atlar bilan rivojlanib, ta’lim mazmuni, metodlari va vositalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu jarayonda bo‘lajak fizik mutaxassislarning raqamli texnologik kompetentligini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Fizika fani o‘zining eksperimental, tahliliy va modellashtiruvchi xususiyatlari bilan raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu sababli, fizika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida mustaqil tahlil, tajriba o‘tkazish, natijalarni modellashtirish va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida fizika yo‘nalishi talabalarini raqamli texnologik kompetentligini rivojlantirish muammosi ko‘p o‘lchovli va murakkab jarayondir. Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uni hal etishga har tomonlama ijobiy yondashuvlarda yangilanishlar va yangi ilmiy qarashlarga doimiy ehtiyoj sezilmoqda.

Shaxsning kasbiy tayyorligi deganda, uning asosiy kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan komponentlarning o‘zaro munosabatiga asoslangan, umuman, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Bu murakkab ruhiy formatsiya jarayoni bo‘lib, uning shakllanishida muayyan funksiyalarni bajaradigan xususiyatlarning munosabati bilan quriladi. Ta’lim jarayonida avvalo bo‘lajak fizik (talaba)ning kasbiy faoliyatiga sadoqatini rivojlantirish, raqamli kompetentligini rivojlantirish jarayonining maqsadi yakuniy natijasi deb hisoblashimiz kerak.

Har qanday ta’lim jarayoni murakkab integral tizim sifatida, ya’ni buyurtma qilingan to‘plam sifatida yaxlit ta’limning muayyan tartib elementlarida o‘zaro bog‘langan va joylashtirilgan kombinatsiyasi sifatida qaraladi.

Biz ushbu tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida fizika yo‘nalishi talabalarini loyihaviy yondashuv asosida raqamli texnologik kompetentligini rivojlantirishni dinamik tizim deb hisoblaymiz. Ma’lumki, tizim deb o‘zaro integrallashgan tizim xossalarida ifodalanadigan birlik komponentlarning tartibli to‘plami tushuniladi. Bularga tizim tuzilishidagi mazmunli komponentlar (elementlar)ning bog‘lanish tartibi, elementlar tizimning umumiy faoliyatiga, uning tuzilishiga, tizimning holatiga qo‘shgan hissasi, darajasi, holatlarining ketma-ketligi kiradi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik va psixologik fanlarda “model” tushunchasining mohiyati turlicha talqin qilinadi. Turli manbalarda bu atama bir-biridan farqli, hatto qarama-

qarshi mazmunlarda qo‘llanilgan bo‘lib, u ham nazariy tizimning o‘zi, ham nazariya tasvirlaydigan ob’ekt sifatida izohlanadi [1, 6-b.].

N.A. Amosov modelni ob’ektning aniq makon va zamon tavsifiga ega tarkibiy in’ikos sifatida ko‘radi. Uning fikricha, “model – bu zamon yoki makonda o‘zaro ta’sirlarning o‘zgarishini aks ettiruvchi tarkibdir” [1, 27-b.].

K.Y. Morozov esa model tushunchasiga berilgan ko‘plab ta’riflarni tahlil qilib, eng ixcham ilmiy shaklini quyidagicha ifodalaydi: “Model — tadqiq etilayotgan ob’ektning o‘rnini egallay oladigan va uni o‘rganish orqali ob’ekt haqida yangi ma’lumot beruvchi har qanday tabiat ob’ekti” [2, 40-b.].

Shuningdek, boshqa manbalarda model “ob’ekt haqidagi bilimni olish vositasi, lekin bu bilimning o‘zi emas” deb izohlanadi [1, 83-b.]. Bu ta’rifda model fenomen, predmet, qurilma, shartli obraz (tasvir, sxema va boshqalar) shaklida namoyon bo‘lib, ob’ekt haqida yangi axborot beradi va uni tadqiqot jarayonida almashtirishga qodir bo‘ladi [2, 25-b.].

Ilm-fanda modellashtirish va undan foydalanish metodlari to‘g‘risidagi qarashlar V.A. Shtoff tomonidan tizimli asosda tahlil qilingan. U modelni gnoseologik kategoriya sifatida talqin etib, uni “voqe’likning muayyan qismini chuqurroq bilish maqsadida qayta tiklash vositasi” deb izohlaydi [3, 34-b.]. Shtoff barcha modellarning ikki asosiy sinfini ajratadi: material (moddiy, real, harakatli) va ideal (xayoliy, fikriy) modellar. Ideal modellar ichiga u obrazli, belgili hamda aralash (obrazli-belgili) turlarni kiritadi [4, 34-b.].

Umuman olganda, “model” atamasi fransuzcha modèle so‘zidan olingan bo‘lib, “namuna”, “prototip”, “tizimning tasviri” ma’nolarini anglatadi. Pedagogikada model — bu o‘rganilayotgan ob’ektning ayrim jihatlarini, ular orasidagi aloqalarni va funksiyalarni takrorlaydigan hamda uni namoyish etish orqali o‘rnini bosishga qodir tizim sifatida qaraladi [3, 19-b.]. “Model” atamasi bir-biridan farqli, bevosita zid muayyan nazariya va nazariya tasvirlaydigan yoki aks ettiradigan predmet ma'nosida qo‘llaniladi [1, 6-b.].

“Model – ob’ekt to‘g‘risidagi bilimlarni olish vositasi, aksincha ushbu bilimlarning o‘zi emas. [1, 83-b.]. “Model” atamasiga, ushbu ta'rifda “model”, “hodisa”, predmet, qurilma, shartli obraz (tavsif, sxema va boshqalar) sifatida tavsiflanadi. Ular o‘rganilayotgan ob’ekt bilan o‘zaro munosabatda bo‘lib, ob’ekt haqida yangi axborot berib, tadqiqot jarayonida mazkur ob’ektni almashtirishga qodi” [2, 25-b].

Ilm-fanda qabul qilingan modellashtirish va undan foydalanish usullari haqidagi tasavvurlarni tahlil qilgan holda, unga quyidagicha fikr bildirilgan: “Bugungi kunda ilm-fanda qabul qilingan kasbiy faoliyat normalariga muvofiq, model – ob’ekt, ya’ni haqiqiy belgilaridan tashqari, zarurat bilan kasbiy faoliyat parametrlarini ishga tushirishi kerak, shu bilan u ma’lum bir yakun, tadqiqot natijasi sifatida namoyon bo‘ladi” [3, 12-b.]. Ushbu qarashlar V.A.Shtoffning tadqiqotlarida to‘liq o‘z aksini topgan. “U modelni voqelikning u yoki bu qismini uni yanada chuqur bilish maqsadida aks ettirish, qayta tiklash vositasi sifatida gnoseologik tushunishni ilmiy tasniflashni asoslash uchun oladi. Modellarning qurilishi usullari, o‘rganilayotgan ob’ektlarni modellashtirishni amalga oshirish vositalaridan


kelib chiqib, barcha modellarni material (harakatli, real, moddiy) va ideal (xayoliy, mushohadaga asoslangan, fikriy) modellardan iborat bo‘lgan ikki sinfga bo‘lish mumkin”[3, 34-b].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz oliy ta’lim muassasalarida fizika yo‘nalishi talabalarini raqamli texnologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modelini taklif etdik. Mazkur model beshta o‘zaro bo g‘langan va bir-birini taqazo etuvchi maqsad, tashkiliy-mazmuniy, jarayoniy, tashxislash va natija kabi komponentlardan iborat bo‘ldi (1-rasm).

Maqsad komponenti ijtimoiy buyurtma va maqsadni o‘z ichiga oladi. Modelda oliy ta’lim muassasalarida fizika yo‘nalishi talabalarini raqamli texnologik kompetentligini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Tashkiliy-mazmuniy komponenti vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar va pedagogik shart-sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponent oliy ta’lim muassasalarida fizika yo‘nalishi talabalarini raqamli texnologik kompetentligini rivojlantirishni nazariy jihatdan asoslaydi.

Jarayon komponenti “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi” fani, rivojlantiriluvchi raqamli texnologik kompetentlik, shakllar, metodlar va vositalardan tashkil topgan. Bu komponentlar, o‘zaro bog‘lanib, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan barcha elementlarni o‘z ichiga oladi.



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak fiziklarni raqamli texnologik kompetentligini loyihaviy yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik modeli

Umumiy ma’noda “model” so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, modele - namuna, prototip qandaydir tizimning tasvirini anglatadi. Pedagogikada keng qo‘llaniladigan model atamasi ko‘plab ta'riflarga ega bo‘lib, ulardan bir nechtasini quyida keltiramiz:

1) o‘rganilayotgan ob’ektning ayrim tomonlarini, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, funksiyalarini takrorlaydigan elementlar tizimi;

2) o‘rganilayotgan ob’ektni namoyish etish yoki takrorlash orqali uning o‘rnini bosa oladigan, uni o‘rganish ushbu ob’ekt to‘g‘risida yangi ma’lumot beradigan, aqliy ifodalangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim sifatida tushuniladi[3, 19-b].

Ideal modellar modellarning ancha murakkab turi bo‘lib, u xayoliy, ideal analogiyaga asoslanadi. V.A.Shtoff hayoliy, ya’ni fikriy modellar qatoriga obrazli, belgili va aralash (obrazli-belgili) modellarni kiritadi [4, 34-b.].

Model – bu muayyan obyekt, jarayon yoki tizimning soddalashtirilgan analogi bo‘lib, u asl nusxaning muhim xususiyat va tuzilishini o‘zida aks ettiradi. Model asl ob’ektning o‘rnini bosuvchi “vakil” sifatida uning tuzilishi va xossalarini tushuntirish, tadqiq qilish hamda boshqarishni osonlashtirish uchun xizmat qiladi. Model haqiqiy ob’ektga o‘xshash bo‘lib, uning chizma-rasm, matematik formula, sxema yoki belgi tizimi ko‘rinishida ifodalanishi mumkin. Muhimi, modelni o‘rganish natijasida olingan ma’lumot va xulosalar ma’lum shart-sharoitlarda asl ob’ektga tadbiq etilishi mumkin, ya’ni model asl tizim haqida yangi bilimlar hosil qilishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, model – bu asl tizimni bilish va tushuntirishga xizmat qiluvchi mafkuraviy yoki moddiy namuna bo‘lib, u orqali murakkab hodisalarni soddalashtirib o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy adabiyotlarda modellarning bir qancha turlari ajratib ko‘rsatiladi. Umumiy tasnifga ko‘ra, modellar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Fizik modellar – asl obyektning moddiy jihatdan yaratilgan nusxasi (masalan, maketlar, qurilmalar). Bu modellar real obyektning struktura va funksiyalarini fizik jihatdan takrorlaydi.

Matematik modellar – obyekt yoki jarayonning xususiyatlarini matematik tenglamalar, formulalar va munosabatlar orqali ifodalovchi modellar. Ular hodisalarning miqdoriy bog‘lanishlarini ko‘rsatadi.

Kompyuter (kompyuterlashtirilgan) modellar – dasturiy ta’minot yordamida ishlangan simulyatsiya yoki virtual modellar bo‘lib, ular murakkab jarayonlarni kompyuter muhitida o‘xshatib ko‘rsatadi.

Ta’rifiy (deskriptiv) modellar – muayyan tizim yoki konsepsiyaning tushunchaviy yoki grafik tasvirlari. Bunday modellar so‘zlar, diagrammalar yoki tasvirlar orqali tizim tuzilmasini va uning ishlashini tavsiflaydi.

XULOSA

“Model” tushunchasining ilmiy asoslarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, modellashtirish — bu real ob’ektni, jarayonni yoki hodisani ilmiy bilish va boshqarishning

eng samarali usullaridan biridir. Pedagogik modellashtirish nazariyasi ta’lim jarayonini tizimli, mantiqiy va bashoratli tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Pedagogik model yordamida o‘qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalari o‘zaro uzviy bog‘lanadi. Shu boisdan, zamonaviy raqamli ta’lim sharoitida pedagogik modelni yaratish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Амосов Н.А. *Моделирование мышления.* — Киев: Наукова думка, 1977. — 264 с.
2. Морозов К.Ю. *Моделирование в научных исследованиях.* — Москва: Наука, 1981. — 152 с.
3. Штофф В.А. *Моделирование и философия.* — Москва: Мысль, 1966. — 236 с.
4. Штофф В.А. *Основы методологии научного познания.* — Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1989. — 312 с.
5. Леднев В.С. *Содержание образования: сущность, структура, перспективы.* — Москва: Высшая школа, 1989. — 176 с.
6. Новиков А.М. *Методология научного познания.* — Москва: Эгвес, 2005. — 320 с.
7. Полат Е.С. *Новые педагогические и информационные технологии в системе образования.* — Москва: Академия, 2010. — 272 с.
8. Краевский В.В., Хуторской А.В. *Педагогика: Учебник для вузов.* — Москва: Академия, 2007. — 432 с.
9. Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А. *Психология высшей школы.* — Минск: БГУ, 1981. — 280 с.
10. Беспалько В.П. *Педагогические технологии на основе модульного обучения.* — Москва: Педагогика, 1991. — 256 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA SHAXSIYLASHTIRILGAN O‘QUV JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH MODELI

Sodikova Nigora
Toshkent amaliy fanlar universiteti,
Raqamli va fundamental fanlar kafedrasi, katta o‘qituvchi
SodikovaNigora@utas.uz nigora.sn68@gmail.com
Muxtorova Zilola
Toshkent amaliy fanlar universiteti,
Kompyuter injiniring kafedrasi, o‘qituvchi
zilolamuxtorova@utas.uz
Mavlyanova Nodira Ziyavitdin qizi
University of Management and Future Technologies magistr
nodiramavlonova1992@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonini avtomatlashtirish bo‘yicha taklif etilayotgan konseptual model tahlil qilinadi. Oliy ta’limda talabalar o‘quv faoliyatining individualligi, tayanch kompetensiyalarni o‘zlashtirish sur’ati va bilim darajasining farqlanishi o‘quv jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi. Mazkur tadqiqot SI algoritmlariga asoslangan adaptiv ta’lim tizimining asosiy mexanizmlarini, jumladan, bilim darajasini diagnostika qilish, o‘quv materiallarini moslashtirish, avtomatik baholash va prognostik tahlil imkoniyatlarini yoritadi. Taklif etilgan modelda mashinaviy o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), tavsiyaviy tizimlar va o‘quv analitikasi (learning analytics) komponentlari integratsiyalashgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, SI asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’lim tizimi o‘quv samaradorligini oshirish, o‘quv yuklamasini optimallashtirish, pedagoglarning vaqt xarajatlarini kamaytirish va talabalar motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur avtomatlashtirish modeli O‘zbekiston OTMlarida ta’limni raqamlashtirish jarayonini jadallashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yechim sifatida taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, shaxsiylashtirilgan ta’lim, avtomatlashtirilgan o‘qitish, adaptiv ta’lim tizimi, o‘quv analitikasi, NLP, mashinaviy o‘qitish.

Аннотация. В данной статье анализируется концептуальная модель автоматизации персонализированного учебного процесса с использованием технологий искусственного интеллекта. Индивидуальность учебной деятельности студентов, различия в уровне знаний и темпах освоения ключевых компетенций в

системе высшего образования требуют организации обучения на основе дифференцированного подхода. Представленное исследование освещает основные механизмы адаптивной обучающей системы, основанной на алгоритмах ИИ, включая диагностику уровня знаний, адаптацию учебных материалов, автоматическую оценку и прогностическую аналитику. В предлагаемой модели интегрированы компоненты машинного обучения, обработки естественного языка (NLP), рекомендательных систем и учебной аналитики (learning analytics). Согласно результатам исследования, персонализированная обучающая система на основе ИИ способствует повышению эффективности обучения, оптимизации учебной нагрузки, снижению временных затрат преподавателей и повышению мотивации студентов. Предлагаемая модель автоматизации рассматривается как научно-практическое решение, направленное на ускорение процесса цифровизации образования в вузах Узбекистана.

Ключевые слова: искусственный интеллект, персонализированное обучение, автоматизированное обучение, адаптивная обучающая система, учебная аналитика, NLP, машинное обучение.

Abstract. This article analyzes a conceptual model for automating personalized learning processes using artificial intelligence technologies. The individuality of students’ learning activities, differences in knowledge levels, and variations in mastering key competencies in higher education require a differentiated approach to instructional design. This study highlights the core mechanisms of an AI-based adaptive learning system, including knowledge-level diagnostics, learning material adaptation, automatic assessment, and predictive analytics. The proposed model integrates machine learning, natural language processing (NLP), recommendation systems, and learning analytics. According to the findings, AI-driven personalized learning systems improve learning efficiency, optimize academic workload, reduce instructors’ time expenditure, and enhance student motivation. The proposed automation model is presented as a scientific and practical solution aimed at accelerating the digitalization of higher education institutions in Uzbekistan.

Keywords: artificial intelligence, personalized learning, automated instruction, adaptive learning system, learning analytics, NLP, machine learning.

KIRISH. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, ta’lim jarayonlarining tobora murakkablashuvi va talabalarning individual o‘quv ehtiyojlarining keskin farqlanishi oliy ta’lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari turli sohalarda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ma’lumotlarni qayta ishlash, monitoring va prognozlash kabi funksiyalarni avtomatlashtirishda asosiy raqamli vositaga aylandi. Ta’lim sohasida esa SI o‘qitish jarayonini individuallashtirish, o‘quvchi-talabalarning bilim darajasini chuqur tahlil qilish, adaptiv kontent taqdim etish va ta’lim sifatini boshqarish kabi vazifalarni ancha samarali bajarishga xizmat qilmoqda.

Oliy ta’limda shaxsiylashtirilgan ta’limga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishiga bir nechta omillar sabab bo‘lmoqda. Avvalo, talabalar o‘rtasidagi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar darajasining keskin farqlanishi an’anaviy o‘qitish usullarining samaradorligini pasaytirmoqda. Bundan tashqari, katta guruhlar bilan ishlaydigan o‘qituvchining har bir talabaga individual yondashuv ko‘rsatishi amalda qiyinlashmoqda. Mazkur holat ta’lim sifati va o‘zlashtirish jarayonining barqaror dinamikasini ta’minlashda muammolarni yuzaga keltirmoqda. SI texnologiyalaridan foydalanilgan adaptiv ta’lim tizimlari esa ushbu muammolarni hal qilishning zamonaviy, ilmiy asoslangan yo‘li hisoblanadi.

Jahon amaliyotida shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonini SI yordamida boshqaruvchi bir necha platformalar (Coursera, Duolingo, Pearson AIDA, Khan Academy MASTERY modeli) joriy qilingan bo‘lib, ular o‘quv materialini talabaning qiziqishi, bilim o‘zlashtirish tezligi, xatolar dinamikasi hamda psixologik faoliyat ko‘rsatkichlariga mos ravishda avtomatik moslashtirish imkonini bermoqda [1–3]. Ushbu tizimlar o‘qituvchi faoliyatini to‘liq almashtirmagan bo‘lsa-da, ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiruvchi intellektual yordamchi sifatida o‘zini namoyon qilmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun ham SI asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’limni joriy etish dolzarb bo‘lib, davlat strategik hujjatlari — “Raqamli O‘zbekiston – 2030”, Oliy ta’limni 2035-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va boshqa normativ hujjatlar ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, SI yordamida o‘quv jarayonini avtomatlashtirish nafaqat ta’lim sifati, balki boshqaruvning samaradorligi, o‘quv jarayonining shaffofligi va talabaning individual rivojlanish trayektoriyasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu magistrlik darajasidagi ilmiy tadqiqotning asosiy muammosi — O‘zbekiston OTMlarida shaxsiylashtirilgan ta’limni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydigan, SI algoritmlariga asoslangan avtomatlashtirilgan adaptiv model mavjud emasligidir. Mavjud elektron ta’lim tizimlari (Moodle, ZiyoNET LMS, Microsoft Teams va boshqalar) asosan kontentni taqdim etish, test topshiriqlarini berish va oddiy statistika bilan chegaralanadi. Ammo ularda talabaning bilim o‘zlashtirish holatini chuqur tahlil qiluvchi, kelgusi o‘quv natijalarini prognozlovchi, individual tavsiyalar yaratadigan SI modullari mavjud emas.

Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi — sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanib shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan ilmiy asoslangan modelni ishlab chiqish, uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va pedagogik samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi SI asosidagi diagnostika, adaptiv tahlil va prognozlash mexanizmlarining OTM o‘quv jarayoniga uyg‘unlashtirilgan tarzda integratsiyalashuvi bilan belgilanadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot metodologiyasi sun’iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonini avtomatlashtirish modelini yaratish va uni amaliyotda sinovdan o‘tkazish uchun kompleks yondashuvga asoslanadi. Metodologiya uch asosiy komponentdan iborat:

1.Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish.

2.SI algoritmlarini loyihalash.

3.Ishlab chiqilgan modelni baholash va validatsiya qilish.

Har bir bosqich ilmiy aniqlik, takroriylik va ishonchlilik tamoyillariga tayanadi.

Ma’lumotlarni yig‘ish va diagnostik tahlil. Tadqiqot jarayonida talabalar o‘quv faoliyatiga oid ko‘p qatlamli ma’lumotlar yig‘ildi. Ma’lumotlar uch turga bo‘lindi:

1) Kognitiv ko‘rsatkichlar:

- diagnostik test natijalari;
- fan bo‘yicha oraliq va yakuniy baholar;
- xatolar chastotasi va turi;
- o‘zlashtirish tezligi.

2) Faollik ko‘rsatkichlari:

- LMS tizimidagi login faoliyati;
- topshiriqlarni bajarish vaqti;
- video darslarni tomosha qilish davomiyligi;
- forumlarda ishtirok.

3) Individual psixopedagogik profillar:

- o‘quv motivatsiyasi (anketalar asosida);
- kognitiv uslub (analitik/gestalt);
- psixologik tayyorgarlik va stress ko‘rsatkichlari.

Ma’lumotlarni yig‘ishda Moodle LMS, Google Classroom, hamda ZiyoNET statistik modullaridan foydalanildi. Qo‘shimcha ravishda talabalar bilan yarim strukturalangan suhbatlar o‘tkazildi.

Ma’lumotlarning texnik qayta ishlash jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- Normalization MinMax;
- Missing data imputation (KNN-imputer);
- Feature engineering (yangi o‘quv indikatorlarini yaratish).

Bular keyingi bosqichda SI algoritmlarining ishlash sifatini yaxshilashga xizmat qildi.

SI asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’lim modelini loyihalash.

Model uch darajali arxitektura asosida ishlab chiqildi:

1) Diagnostik modul — Student Profiling Engine. Bu modul talabaning mavjud bilim darajasini va o‘rganish dinamikasini aniqlaydi. Quyidagi algoritmlar qo‘llanildi:

Vazifa	Qo‘llanilgan SI algoritmi
Bilim darajasi diagnostikasi	Random Forest Classifier

Vazifa	Qo‘llanilgan SI algoritmi
Xatolarni tasniflash	Gradient Boosting
O‘quv trajektoriyasini topish	K-means klasterlash
Motivatsiya indikatorini bashoratlash	Logistic Regression

2) Adaptiv tavsiya moduli — Personalized Learning Recommender. Bu modul har bir talaba uchun mos topshiriq, video dars, nazorat savollari va takrorlash strategiyalarini avtomatik taklif qiladi.

Qo‘llanilgan yondashuvlar: Collaborative filtering (o‘xshash talabalar tajribasidan foydalanish), Content-based filtering (o‘quv materialining murakkablik darajasi va talaba profiliga moslashtirish), Hybrid model (ikkala yondashuv birlashtirilgan).

3) Prognozlash moduli — Learning Outcome Prediction Engine. Bu modul talaba kelgusi baholari, topshiriqni bajarish ehtimoli va o‘quv jarayonini tugatish darajasini oldindan aniqlaydi. Bunda LSTM (Long Short-Term Memory) — vaqt ketma-ketligidagi o‘rganish dinamikasini tahlil qilish, XGBoost — yuqori aniqlikdagi prognozlash, SVM — xavf guruhi (risk group) aniqlash kabi algoritmlardan foydalanilgan.

Modelning chiqishi sifatida talabaga quyidagilar taqdim etildi:

- individual o‘quv xaritasi;
- tavsiya etilgan darslar ro‘yxati;
- ehtimoliy natijalar prognozi;
- zaif va kuchli tomonlar tahlili.

Modelni sinovdan o‘tkazish, validatsiya va samaradorlikni baholash.

Tadqiqotda Toshkent amaliy fanlar universiteti va University of Management and Future Technologies dagi 1–2-kurs bakalavr talabalari ishtirok etdi. Tajriba 12 hafta davom etdi. Guruhlar quyidagicha bo‘lindi:

- Eksperimental guruh (n=64): SI yordamida shaxsiylashtirilgan model asosida o‘qitildi;
- Nazorat guruhi (n=61): an’anaviy LMS asosida o‘qitildi.

Baholash mezonlari:

1. O‘quv natijalari farqi (old-test / post-test).
2. Topsiriqlarni o‘z vaqtida bajarish ko‘rsatkichi.
3. Talaba faolligi (LMS log-analitika).
4. O‘qituvchi nazorat vaqtining qisqarishi.

Modelning umumiy aniqligi:

- Diagnostika: 92%
- Tavsiya tizimi moslik darajasi: 88%
- Prognozlash: 94%

Bu modelning OTM sharoitida samarali ishlashini tasdiqladi.

NATIJALAR

Sun’iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonini avtomatlashtirish modeli OTM talabalarida o‘qish samaradorligini oshirish bo‘yicha sezilarli natijalar berdi. 12 haftalik tajriba davomida eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Tahlil natijalari talabalarning bilim darajasi, o‘quv faolligi, topshiriqlarni bajarish tezligi, shuningdek prognozlash modeli aniqligi bo‘yicha real ko‘rsatkichlarni aks ettiradi.

Quyidagi asosiy natijalar qayd etildi:

1. Bilim darajasining o‘sishi. Eksperimental guruhda o‘quv natijalarining oshishi nazorat guruhiga nisbatan 2,1 baravar yuqori bo‘ldi. Post-test ballari o‘rtacha 18% ga oshdi.

2. Faollik darajasining oshishi. SI asosidagi model bilan ishlagan talabalar LMS tizimidan 37% ko‘proq foydalangan; videodarslarni to‘liq tomosha qilish ko‘rsatkichi 42% ga yuqori bo‘ldi.

3. Topsiriqlarni o‘z vaqtida bajarish. Eksperimental guruhda topshiriqlarni belgilangan muddatda topshirish darajasi nazorat guruhidagi 61% dan 84% ga ko‘tarildi.

4. Tavsiya tizimi samaradorligi. Tavsiyalar moslik darajasi (materialning talaba profili bilan mosligi) 88% ga teng bo‘ldi.

5. Prognozlash moduli aniqligi. LSTM va XGBoost asosida yaratilgan model talabalarning o‘quv natijalarini **94% aniqlik** bilan bashorat qildi.

6. O‘qituvchi mehnat sarfining kamayishi. O‘qituvchilar uchun qo‘shimcha nazorat, tekshirish va diagnostika vazifalariga ketgan vaqt o‘rtacha 27% ga qisqardi.

1-jadval. Eksperimental va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlarining taqqoslanishi

№	O‘lchov ko‘rsatkichi	Nazorat guruhi	Eksperimental guruhi	Farq (%)	Izoh
1	Old-test o‘rtacha ball	57.3	56.8	—	Guruhlar boshlang‘ich darajada teng
2	Post-test o‘rtacha ball	64.1	75.6	+18%	Eksperimental guruhda sezilarli o‘sish
3	Bilim o‘sish koeffitsienti	0.12	0.25	2.1 baravar	SI modeli o‘qitishni samarali qo‘llab-quvvatladi
4	LMSga kirishlar soni (haftasiga)	7.4	10.2	+37%	Faollik oshgan
5	Video darslarni to‘liq tomosha qilish	48%	68%	+42%	Shaxsiylashtirilgan kontent ta’siri
6	Topsiriqlarni muddatida topshirish	61%	84%	+23%	Adaptiv eslatmalar va tavsiyalar samarasi
7	Tavsiya tizimi moslik darajasi	—	88%	—	Material va talaba profili o‘rtasida yuqori moslik
8	Prognozlash aniqligi	76%	94%	+18%	LSTM va XGBoost modeli

№	O‘lchov ko‘rsatkichi	Nazorat guruhi	Eksperimental guruhi	Farq (%)	Izoh
					ustunligi
9	O‘qituvchi vaqt tejalishi	—	27%	—	Diagnostika va monitoring avtomatlashtirilgan
10	Talabalarning qoniqish darajasi	3.7/5	4.6/5	+24%	Likert shkalasi bo‘yicha

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektga asoslangan shaxsiylashtirilgan ta’lim modeli OTMlarda o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Avvalo, talabalar uchun yaratilgan individual ta’lim trayektoriyalari ularning bilim darajasi, o‘quv uslubi va kognitiv xususiyatlariga mos kelgani sababli, bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshgan. Bu o‘z navbatida an’anaviy bir xil metodikaga asoslangan auditoriya mashg‘ulotlaridan farqli ravishda yuqori darajada moslashuvchan ta’lim muhitini shakllantiradi.

Shuningdek, olingan natijalarda shuni kuzatish mumkinki, AI tahlil mexanizmlari yordamida talabalar xatti-harakatlari bo‘yicha yig‘ilgan katta hajmdagi ma’lumotlar real vaqt rejimida qayta ishlanib, o‘qituvchilarga diagnostik axborot yetkazib beradi. Bu esa pedagoglarga talabaning qaysi bo‘limda qiynalayotgani, qaysi ko‘nikmalarni mustahkamlash zarurligi haqida aniq dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Bunda AI tizimi o‘qituvchi faoliyatini to‘liq almashtirmaydi, aksincha, uning ilmiy-metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Mazkur yondashuvning yana bir muhim jihati — baholash jarayonining avtomatlashtirilishidir. Testlar, vazifalar va amaliy mashg‘ulotlar natijalari tahlil qilinar ekan, tizim talabaga darhol fikr-mulohaza (feedback) yetkazadi. An’anaviy o‘qitish jarayonida bunday jarayon kechikishi mumkin, ammo AI texnologiyalari o‘z vaqtida va aniq qayta aloqa berilishi orqali o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AI asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’limdan samarali foydalanish uchun pedagoglarni raqamli kompetensiyalarini kuchaytirish ham muhim omillardan biridir. Texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmagan o‘qituvchilar tizimning imkoniyatlarini to‘liq ishga sololmaydilar. Shu bois, AI texnologiyalarini OTMlarda joriy etish jarayoni pedagog kadrlarning malaka oshirish tizimi bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etilishi lozim.

Modelni amaliyotga qo‘llashdagi yana bir muhim masala — ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik talablaridir. Shaxsiylashtirilgan ta’lim jarayoni talabaning shaxsiy ma’lumotlarini, o‘quv faoliyatini, psixologik xususiyatlarini o‘z ichiga olganligi sababli, axborot xavfsizligi bo‘yicha zamonaviy talablar qat’iy bajarilishi zarur. Shu nuqtai nazardan,

AI asosidagi ta’lim tizimlarini joriy etayotgan oliy ta’lim muassasalari zamonaviy himoya protokollaridan foydalanishlari lozim.

XULOSA

Yuqoridagi ilmiy tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, sun’iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonini avtomatlashtirish modeli OTMlarda ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Model talabalarning individual o‘quv ehtiyojlarini aniqlash, o‘quv materiallarini moslashtirish va baholash jarayonini avtomatlashtirish orqali o‘qitish jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

1. AI asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’lim an’anaviy o‘qitishdan farqli ravishda har bir talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini yaratishga imkon beradi.
2. AI texnologiyalari real vaqt rejimida tahlil, monitoring va baholash jarayonlarini amalga oshirib, pedagogik jarayonning aniqligi va shaffofligini oshiradi.
3. OTMlarda AI asosidagi ta’limni joriy etish pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.
4. Tizimni qo‘llashda ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash eng muhim talablardan biri hisoblanadi.
5. Magistrlik tadqiqoti doirasida ishlab chiqilgan model O‘zbekiston OTMlari uchun amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodik yechim bo‘lib, uni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish ta’lim sifatini sezilarli oshirishi mumkin.

Shu tariqa, sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’lim modeli nafaqat zamonaviy pedagogik yondashuv, balki raqamli transformatsiya sharoitida OTMlar uchun strategik ahamiyatga ega texnologik yechim sifatida e’tirof etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alpaydin E. Introduction to Machine Learning. — MIT Press, 2021.
2. Baker R., Inventado P. Educational Data Mining and Learning Analytics. — Springer, 2019.
3. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education. — Center for Curriculum Redesign, 2020.
4. Luckin R. et al. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. — Pearson, 2016.
5. Manzura Xashimxodjaeva, Nigora Sodikova. "Ta’lim jarayonida kompyuter o ‘yinlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish texnologiyalari." News of the NUUz 1.1.6 (2024): 176-178.
6. Xamidov A., To‘xtasinov B. “Raqamli ta’lim platformalarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.” O‘zbekiston pedagogika jurnali, 2022.

7. Ziyoviddinovna M. Z., Irgashevna S. N. Adaptiv o ‘quv tizimlarida sun’iy intellektning roli: personalizatsiya va natijalar //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – T. 4. – №. 12 (Special issue 2). – C. 44-48.

8. Zilola Muxtorova, N. S. (2025). Using artificial intelligence technologies and software to increase the professional competence of students in the context of digitalization . News of the NUUz, 1(1.2.1), 171-173. https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.2.1.6715

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ АКАДЕМИЧЕСКИХ ОБМЕНОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ УСТОЙЧИВЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ ПРАКТИК У СТУДЕНТОВ

Ниязов М.Х.
Бухарский государственный педагогический институт
Факультет педагогики и социальных наук
Докторант кафедры педагогики

Аннотация.Статья посвящена анализу влияния международных академических обменов на формирование устойчивых предпринимательских практик у студентов. Рассматриваются механизмы трансляции предпринимательского опыта через интернационализацию образования, особенности развития глобального предпринимательского мышления, кросс-культурная адаптация и её роль в становлении предпринимательской инициативы. На основе сравнительных исследований зарубежных университетов обосновывается, что участие студентов в международных программах обмена способствует развитию навыков устойчивого предпринимательства: экологической ответственности, инновационного мышления, цифровой грамотности и социальной ориентированности. Делается вывод о необходимости интеграции международного опыта в образовательные программы вузов Узбекистана для формирования конкурентоспособной и социально ответственной предпринимательской культуры.

Ключевые слова:международный обмен, предпринимательская культура, устойчивое предпринимательство, глобальное мышление, академическая мобильность, студенты.

Annotation. The article explores the impact of international academic exchange programs on the formation of sustainable entrepreneurial practices among university students. It analyzes how internationalization of education enables the transmission of entrepreneurial experience, the development of global entrepreneurial thinking, and cross-cultural adaptation. Based on comparative research from foreign universities, the study argues that participation in exchange programs supports students in developing sustainable entrepreneurship skills, including ecological responsibility, innovation, digital literacy, and social orientation. The article concludes that integrating international experience into educational programs at Uzbek universities is essential for cultivating a competitive and socially responsible entrepreneurial culture.

Keywords:international exchange, entrepreneurial culture, sustainable entrepreneurship, global mindset, academic mobility, students.

Annotatsiya. Maqolada talabalarda barqaror tadbirkorlik amaliyotlarini shakllantirishda xalqaro akademik almashinuv dasturlarining ta’siri tahlil qilinadi. Ta’limning internatsionallashuvi orqali tadbirkorlik tajribasining o‘tishi, global tadbirkorlik tafakkurining rivojlanishi, madaniyatlararo moslashuv jarayoni va ularning tashabbuskorlikka ta’siri yoritiladi. Xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasi asosida xalqaro almashinuvlarda ishtirok etish talabalarning ekologik mas’uliyat, innovatsion fikrlash, raqamli savodxonlik va ijtimoiy yo‘naltirilgan tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishiga yordam berishi isbotlanadi. Maqola O‘zbekiston oliy ta’limida xalqaro tajribani integratsiya qilishning raqobatbardosh va ijtimoiy mas’uliyatli tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so‘zlar:xalqaro almashinuv, tadbirkorlik madaniyati, barqaror tadbirkorlik, global tafakkur, akademik mobillik, talabalar.

Введение.Современная система высшего образования развивается в условиях ускоряющейся глобализации, цифровой трансформации и растущей конкуренции на международных рынках труда. Одним из ключевых ответов университетов на эти вызовы становится развитие программ международной академической мобильности, которые позволяют студентам получить доступ к альтернативным образовательным моделям, технологиям обучения, предпринимательским экосистемам и культурным контекстам.

Предпринимательская культура в XXI веке выходит за рамки узкоэкономических представлений и включает в себя устойчивость, социальную ориентированность, инновационность и способность к межкультурному взаимодействию. В этом контексте международные академические обмены выступают мощным инструментом формирования как когнитивных, так и практических компонентов предпринимательской компетентности.

Цель настоящей статьи — выявить механизмы влияния международных академических обменов на развитие устойчивых предпринимательских практик студентов и обосновать значимость интеграции международного опыта в национальные образовательные системы, в частности в вузы Узбекистана.

Теоретические основы предпринимательской культуры и академической мобильности

Предпринимательская культура трактуется исследователями как система ценностей, установок, знаний и поведенческих моделей, обеспечивающих готовность к созданию инноваций, самостоятельному принятию решений и ориентации на социально-экономическое развитие. В работах P. Drucker, J. Schumpeter, H. Mintzberg

предприниматель рассматривается как агент изменений, носитель новаторского мышления и лидер в условиях неопределённости.

Современная трактовка предпринимательской культуры тесно связана с концепцией устойчивого предпринимательства (sustainable entrepreneurship), которая подчёркивает необходимость экологической ответственности, социального воздействия и долгосрочного развития.

Академическая мобильность определяется как участие студентов в образовательных программах другой страны, включая семестровые обмены, стажировки, совместные исследования и международные летние школы. Согласно UNESCO и OECD, академическая мобильность способствует формированию глобальных компетенций, когнитивной гибкости и инновационного мышления.

Так, теоретическая связь предпринимательской культуры и академических обменов основана на том, что участие в международных программах позволяет студентам встретиться с новыми моделями инноваций, предпринимательскими экосистемами и ценностями устойчивого развития.

Развитие глобального предпринимательского мышления

Студенты, участвующие в программах академической мобильности, сталкиваются с необходимостью адаптации к новым культурным нормам, коммуникативным моделям, образовательным подходам и социальным структурам. Этот процесс формирует следующие элементы глобального предпринимательского мышления:

- способность работать в мультикультурной среде;
- гибкость и адаптивность — ключевые качества предпринимателя;
- умение принимать решения в условиях неопределённости;
- ориентация на инновации и поиск нестандартных решений.

Исследования европейских университетов (Erasmus Impact Study, 2023) показывают, что более 70% студентов, прошедших международный обмен, демонстрируют повышение инициативности, уверенности в себе и готовности к предпринимательской деятельности.

Перенос инновационных моделей и предпринимательских экосистем

Студенты, обучающиеся за рубежом, получают доступ к:

- инкубаторам и акселераторам;
- лабораториям стартапов;
- университетским венчурным фондам;
- сетевым сообществам предпринимателей.

Например, в университетах США (MIT, Stanford) студенты вовлекаются в работающие экосистемы стартапов, где проектная деятельность является частью учебного процесса. В Европе программы Erasmus+ включают курсы по социальному

предпринимательству, зелёным технологиям, финансовой грамотности и устойчивому развитию.

Международный опыт расширяет представления студентов о возможных формах и стратегиях предпринимательской деятельности, обогащая их компетентность в области устойчивого развития.

Кросс-культурная адаптация как фактор развития предпринимательской инициативы

Кросс-культурная адаптация играет ключевую роль в становлении уверенности, лидерства и навыков коммуникации — базовых элементов предпринимательской культуры. Преодоление языковых, психологических и организационных барьеров усиливает компетенции:

- межкультурной коммуникации;
- управления конфликтами;
- командной работы;
- проектной деятельности;
- самоорганизации.

Исследования Азиатско-Тихоокеанского региона показывают, что студенты, прошедшие международные программы (например, ASEM DUO), чаще участвуют в создании стартапов и инновационных проектов, чем те, кто не имеет подобного опыта. Особое значение международный опыт приобретает для университетов Узбекистана, которые находятся в процессе активной интеграции в мировое образовательное пространство. Несмотря на растущее количество партнёрских программ с университетами Европы, Азии и Ближнего Востока, потенциал международных обменов для формирования устойчивой предпринимательской культуры используется пока не полностью. Интеграция международного опыта в образовательный процесс узбекских университетов позволит ускорить внедрение инновационных образовательных технологий, расширить возможности проектной и стартап-ориентированной деятельности, повысить качество подготовки будущих предпринимателей и обеспечить конкурентоспособность выпускников на глобальном рынке труда. Узбекистан нуждается в предпринимательских кадрах новой формации, ориентированных на ESG-принципы, цифровую экономику, зелёные технологии и социальные инновации. Международная мобильность создаёт условия для формирования именно таких компетенций. международные академические обмены являются не просто средством расширения кругозора студентов, но мощным педагогическим механизмом, обеспечивающим формирование устойчивых предпринимательских практик. Они повышают уровень инициативности, развивают глобальное мышление, формируют навыки межкультурной коммуникации и создают условия для формирования социально ответственного, инновационного и экологически ориентированного предпринимателя. Университетам Узбекистана

целесообразно расширять международные партнёрства, интегрировать зарубежные образовательные модели, формировать совместные стартап-акселераторы и поддерживать участие студентов в международных конкурсах, проектах и хакатонах, поскольку именно это станет основой развития предпринимательской культуры нового поколения и позволит национальной образовательной системе успешно адаптироваться к требованиям глобализирующегося мира.

Заключение

Международные академические обмены оказывают существенное влияние на развитие устойчивых предпринимательских практик у студентов. Они способствуют формированию глобального мышления, развитию кросс-культурной компетентности, расширению инновационного потенциала и осознанию социальной и экологической ответственности бизнеса.

Полученный международный опыт усиливает способность студентов к созданию инноваций, формированию стартапов, преодолению барьеров и поиску новых идей. Для системы высшего образования Узбекистана интеграция международных практик является важнейшим условием формирования конкурентоспособной и социально ориентированной предпринимательской культуры.

Список литературы

1. Acs, Zoltan J., and David B. Audretsch. Handbook of Entrepreneurship Research. Springer, 2019.
2. Ahmad, Muhammad, and Farooq Khan. “Globalization and Entrepreneurial Education: Trends and Challenges.” Journal of Global Business, vol. 12, no. 2, 2021, pp. 55–72.
3. Altin, Mukhriddin. Talabalarda Tadbirkorlik Kompetensiyasini Rivojlantirish Texnologiyalari. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021.
4. Bulaqbaev, Shokir A. “Oliy Ta’limda Tadbirkorlik Faoliyatining Zamonaviy Yondashuvlari.” Pedagogik Mahorat, vol. 4, 2022, pp. 112–120.
5. Fayziyev, Anvar. Global Rivojlanish Sharoitida Tadbirkorlik Madaniyatini Shakllantirish. Samarkand State University Press, 2022.
6. Hisrich, Robert D., Michael P. Peters, and Dean A. Shepherd. Entrepreneurship. McGraw-Hill, 2020.
7. Karimov, Dilshod. “Talabalarda Innovatsion Tafakkurni Rivojlantirish Omillari.” Uzbek Journal of Education, vol. 3, 2021, pp. 76–89.
8. Mahmudov, Ikrom. Oliy Ta’limda Tadbirkorlik Kompetensiyasining Pedagogik Asoslari. Bukhara State University Press, 2020.
9. Meyer, Klaus E., and Saul Estrin. “Entrepreneurship and Institutions: The Role of Internationalization and Global Mindset.” Journal of International Business Studies, vol. 52, 2021, pp. 1–19.

10. Stephan, Ute, and Lorraine M. Uhlaner. “Entrepreneurial Culture and Global Competence Development.” International Small Business Journal, vol. 39, no. 5, 2021, pp. 455–472.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINI IQTIDORINI ANIQLASH VA KASBGA YO‘NALTIRISHNING PEDOGOGIK MUAMMOLARI

Jumayev Javlonbek Abduqahhor o‘g‘li
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi matematika fani o‘qituvchisi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya. Ushbu maqolada akademik litsey o‘quvchilarining iqtidorini aniqlash, rivojlantirish va ularni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish jarayonlarining pedagogik muammolari yoritilgan. Iqtidorni erta aniqlashning ahamiyati, diagnostika usullari hamda o‘quvchilar bilan individual ishlash strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, kasbga yo‘naltirish tizimidagi mavjud kamchiliklar, amaliyotga tatbiq etilayotgan zamonaviy yondashuvlar, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari akademik litseylarda o‘quvchilar qobiliyatlarini samarali rivojlantirish va ularni kelajak kasbiga ongli ravishda yo‘naltirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Akademik litsey, iqtidor, iste’dodni aniqlash, kasbga yo‘naltirish, pedagogik muammolar, diagnostika, individual yondashuv, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy ta’lim texnologiyalari.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va ularni bozor talablariga mos kasblarga yo‘naltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, akademik litseylar o‘quvchilarni chuqurlashtirilgan fanlar bo‘yicha tayyorlash, ularning intellektual salohiyatini oshirish hamda kelajak kasbiga ongli ravishda yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–4947-sonli “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni**,** PF–6108-sonli “Ta’lim sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni**,** shuningdek, PQ–3775-sonli qarori (akademik litseylar va kasb-hunar ta’limini takomillashtirishga oid) ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda kasbga yo‘naltirish tizimini kuchaytirishga qaratilgan muhim hujjatlar sifatida xizmat qilmoqda. Bu normativ-huquqiy asoslar iqtidorni aniqlash jarayonini ilmiy diagnostika, psixologik monitoring va zamonaviy baholash metodlari asosida yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

Ilmiy manbalarda iqtidor shaxsning tabiiy qobiliyatlari, kreativ tafakkuri, intellektual salohiyati va ijodkorlik darajasi bilan izohlanadi. Shu sababli iqtidorni aniqlashda psixometrik testlar, kompetensiya baholash tizimlari, portfolioni tahlil qilish, kuzatish va

suhbat metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Biroq amaliyotda ushbu jarayon doimo ham izchil tashkil etilmaydi: diagnostika vositalarining yetishmasligi, pedagoglarning psixologik tayyorgarligi pastligi yoki tor doiradagi yondashuvlar natijani to‘liq aks ettirmaydi.

Kasbga yo‘naltirishning amaliy jihatlari ham akademik litseylar faoliyatidagi dolzarb masalalardan biridir. Mavjud o‘quv rejalari asosida kasb tanlashga oid nazariy ma’lumotlar berilgan bo‘lsa-da, soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar, oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikdagi seminarlar, real mehnat bozori talablari asosidagi maslahatlar yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan holatlar uchraydi. Bu esa ayrim o‘quvchilarda tasodifiy kasb tanlashga olib kelishi mumkin.

Prezident qarorlari mazkur muammolarni bartaraf etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratmoqda: ta’lim tashkilotlarini zamonaviy diagnostika uskunalari bilan jihozlash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘quvchi yoshlarni qiziqish va layoqatlariga mos ravishda kasbga yo‘naltirish bo‘yicha kompleks dasturlar ishlab chiqilmoqda. Shu jihatdan, akademik litseylarda iqtidorni aniqlash va kasbga yo‘naltirish tizimini ilmiy hamda amaliy asosda takomillashtirish zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot jarayonida akademik litsey o‘quvchilarini iqtidorni aniqlashning nazariy-metodik asoslari, kasbga yo‘naltirishning ilmiy jihatlari, amaliyotda mavjud muammolar hamda ularni hal etish bo‘yicha takliflar tahlil qilindi.

Tadqiqodlarga ko‘ra, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash uchun turli toifadagi mutaxassislar jalb qilingan, ya’ni psixolog, o‘qituvchilar, ijtimoiy o‘qituvchi, ma’lum bir fan bo‘yicha mutaxassislar va ota-onalar. Bunday hamkorlikning samarali shakllaridan biri ta’lim muassasasining psixologik-pedagogik kengashidir.


O‘quvchilarning intellektual qobiliyatlari aniqlagandan so‘ng, ular bilan quyidagi o‘qituvchilar shug‘ullanishgan.

- Konsalting;
- Shaxsiy o‘quv dasturlarini tayyorlashda uslubiy yordam;
- Individual yondashuv bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- Muloqotning samarali shakllarini topishda o‘qituvchilarga ko‘maklashish;
- Qulay mikroiqlimni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar;
- Ijtimoiy-psixologik ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish;
- Psixologik xususiyatlarni tuzish;
- O‘quvchilar uchun maslahatlar;
- Kuzatish;
- Muloqot psixogigiyenasi;
- O‘quvchilarning psixologik diagnostikasi;
- Diagnostika natijalari bo‘yicha maslahatlar;
- Bolaning yosh-psixologik xususiyatlari bilan tanishish;
- Psixologik kompetentsiyani takomillashtirish.

Akademik litseylarda intellektual rivojlanishi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar haqidagi ma’lumotlarni tizimlashtirish uchun ular haqidagi biografik ma’lumotlar, ularning psixodiagnostik tekshiruvi va so‘rovi natijalarini o‘z ichiga olgan ma’lumotlar banki yuritiladi. Akademik litseylarda intellektual rivojlanishi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarga hamrohlik qilish psixologik-pedagogik xizmat tomonidan amalga oshiriladi[2].

Ta’lim faoliyati yuqori darajadagi intellektual rivojlanishga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashning asosiy sharti bu o‘qituvchilarning kasbiy malakasining yuqori darajasi bo‘lib, u quyidagilarni nazarda tutadi (1-rasm)[1].

Zamonaviy innovatsion texnologiyalar yuqori darajadagi intellektual rivojlanishga ega bo‘lgan o‘quvchilarga ijodiy ta’lim jarayoniga kirishish va ularda bilimga chanqoqlik, kashfiyotlarga intilish, faol aqliy mehnat, o‘zo‘zini bilishga yordam beradi.



1-rasm Ta’lim faoliyati yuqori darajadagi intellektual rivojlanishga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashning asosiy sharti

O‘quvchining ta’lim ehtiyojlari, individual qobiliyatlari va imkoniyatlari, shuningdek ta’lim mazmunining mavjud standartlari bilan belgilanadigan individual ta’lim yo‘nalishini qurish. Individual ta’lim yo‘nalishi yuqori darajadagi intellektual rivojlanishga ega bo‘lgan bolaga o‘z iste’dodini kashf qilish va kasblar olamida qaror qabul qilishga yordam beradi.

As can be seen in the table, among the 403 students in the control classes, at the beginning of the experiment, the number of those in the I group was 4 percent, and by the end of the experiment, it was 8 percent; Pupils of the II group level increased from 30% at the beginning of the experiment to 48% by the end of the experiment. Pupils of the III group level decreased from 66 percent to 44 percent. Of the 395 students in the experimental classes, the number of students in group I was 6 percent at the beginning of the experiment, but by the end of the experiment, it was 66 percent or increased 11 times; Group II students dropped from 26 percent to 24 percent by the end of the experiment; The number of students at the III group level decreased from 68 percent to 10 percent. Undoubtedly, in order to achieve such achievements in experimental classes, educational activities such as reading in the classroom, education, conversations on moral topics held outside the classroom and outside the school, literary mornings, book exhibitions, reading conferences, and question-and-answer games are important. became important. It should be noted that parents and neighborhood committees also helped in this.

395 students in the experimental class and 403 students in the control class took part in the experiment. Based on the indicators given in percentages in the above table, we present the following table.

Table 2

The results obtained on the change of students' moral qualities

Grade / class	Number of student	Mastery rates		
		high	medium	Low
Experience class	395	166	154	75
Control class	403	73	173	157

From the obtained results, it can be seen that the criterion for evaluating the effectiveness of teaching is greater than one, and the criterion for evaluating the level of knowledge is greater than zero. It is known that the indicator after the experiment is higher than the indicator before the experiment. So, the results obtained from the experiments conducted with the students on the change of moral qualities of the students with the help of Saidrasul Azizi's life, activities and textbooks are effective.

By the end of the experiment, students' answers show a rapid increase in the experimental groups, but we do not see this in the control groups. This shows that the results of the experiment were effective.

Conclusions and suggestions

1. The educational activities held outside the classroom are important for elementary school students to study the life, activities and textbooks of Saidrasul Azizi. During the experimental work, it was found that a number of errors and shortcomings are being made in this area:

- many teachers do not have enough knowledge about the methodology of organizing and conducting educational activities outside the classroom and school;
- most events are held in a hurry and boring;
- events are held in some schools very rarely, once or twice a year;
- Saidrasul Azizi's life, activities, and textbooks are hardly used in educational activities, there are almost no methodological recommendations.

2. In the formative second stage of experimental work, carrying out a number of works, 7- in the city of Karshi, Kashkadarya region; 3- in Nishan district; 32 in Kasbi District; 1- in Mirishkor district; 2-; Educational events were held in the 6th general secondary schools to study the life, activities and textbooks of Saidrasul Azizi. As a result of the experimental work, we came to the following conclusions:

- the students gained deep knowledge about the life, activity and content and meanings of Saidrasul Azizi's textbooks;
- In the study of Saidrasul Azizi's life, work and textbooks, it was observed that imitation of moral people in poems and stories, hatred for people of poor quality appeared;
- During the activities conducted by Saidrasul Azizi's life, work and textbooks, teachers got more detailed information about the behavior, morals, character, desires and inclinations of their students;
- through the events, the students' knowledge about the life, activities and works of Saidrasul Azizi, which they acquired in the classes, expanded and strengthened, which had a positive effect on the education of the students.

3. The life, activities and works of Saidrasul Azizi among the teachers and parents of the experimental classes during the formative stage of the experimental work; the content of the concepts of ethics; Roundtable discussions, exchange of opinions, and theoretical-practical conferences were held on the content and essence. As a result:

- teachers and parents got enough knowledge about the life, activities and pedagogical works of the enlightener-pedagogue Saidrasul Azizi, and the possibilities of using them in the moral education of elementary school students;

-parents began to educate their children through arguments and proofs based on clear sources, instead of empty talk and exhortation in the moral upbringing of their children;

- primary school teachers widely use Saidrasul Azizi's works in the course of classroom and extracurricular activities.

4. In the formative stage, the level of moral education of students changed as a result of experimental work through the life, activities and works of Saidrasul Azizi. This is shown by the results of the comparison of the first and second stages of scientific research work. Through the life, activities and works of Saidrasul Azizi, the level of moral upbringing of students in the first stage-control groups is 10.6; 35; It was 54.4%, while in the experimental groups this amount was 10.3%; 35.7; It was 54 percent. In the second stage, the answers of the students of the control groups to the questions on high, middle, and low levels are 18.1; 42, 9; it was 39 percent, and 42 percent in the experimental groups; 39; It was 19 percent. The results of the experiment showed that the research method chosen by us is correct and more effective.

Suggestions. Based on the study of the practical situation of education through the life, activities and works of Saidrasul Azizi, based on the results of pedagogical scientific-experimental work - 1. We found it necessary to make the following suggestions to the authors of the textbook:

A. Authors of elementary school textbooks include: reading, etiquette, educational hours, extracurricular reading textbooks: - "Knowledge", "Behavior and manners", "Purity" in Saidrasul Azizi's work "Ustozi avval" in the first grade. Examples of stories and poems such as "Muasa", "Fatonat", "Hamakat", "Befarosat", "Smart son", "Respect to mother", "A smart person" should be included.

B. In the second grade, they can use Saidrasul Azizi's stories and poems such as "Good quality", "Good and bad boy", "Ikki oshna".

V. In the third grade, examples of poems and stories such as Saidrasul Azizi's "Fox Birla Uzum" should be given.

G. In the fourth grade - using Saidrasul Azizi's poems and stories from "Ustozi avval" - "Kishlaqi birla bolasi", "Leech birla ilan", "Strangers who made a pact for a few friendships".

Using the works of Saidrasul Azizi, the authors of the textbook turned the stories and poems into the modern Uzbek literary language, adapted the primary school students to their age and level of knowledge, according to the state education standard and the "Concept of Primary Education". they should re-develop and include in the content of textbooks in accordance with the indicated guidelines.

2. General secondary education teachers:

a) Through the life, activities and works of Saidrasul Azizi, they can learn about the ideas of systematic and technological approaches, modern pedagogical technologies. Because lessons conducted on the basis of modern pedagogical technology have been proven in scientific experiment to give effective results;

b) On the basis of Saidrasul Azizi's life, activities and works, they can be used in the practice of organizing moral conversations, literary talks, reading conferences, and quizzes.

3. To parents:

a) using the life, work and works of Munavvargari Abdurashidkhanov, instead of empty words and advice, they should influence the consciousness of children through clear evidence and examples;

b) It is necessary to read or narrate the life, activities and works of Saidrasul Azizi, and recommend independent reading.

4. To the students: primary school students should read the life, activities and works of Saidrasul Azizi without limiting themselves to the stories, poems and other works in the textbooks.

List of used literature:

1. Мирзиёев Ш.М. “Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари”. – Тошкент: : “Ўзбекистон” НМИЙ, 2020. – 456 б.

2. Авазов Н. Маҳмудхожа Беҳбудийнинг ижодий мероси. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун бажарилган дисс. .... –Тошкент: 1995, – 217 б.

3. Ахатова Д.А. Абдурауф Фитратнинг маърифий-педагогик қарашлари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... –Тошкент: 1998, – 163 б.

4. Ахрарова З.Б. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифий Амалий фаолияти. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1997, – 195 б.

5. Баракаев Р.ХХ аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. Филол. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... автореф.. – Тошкент: 1994. – 24 б.

6. Иноятова М.Э. Ўзбек алифбо дарсликларининг тарихий тараққиёт босқичлари ва дидактик асослари. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 2000. – 186 б.

7. Иргашева Н.А. Мунавварқори Абдурашидхоновнинг маърифий-педагогик қарашлари. Пед. Фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 1997. – 169 б.

8. Неъматов Ш. Э. “Туркистонда дарсликлар яратишнинг тарихий йўли ва уларнинг дидактик асослари”. Пед. Фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 2009. – 169 б.

9. Саидрасул Азизий. Устози аввал. 14-табъа. – Тошкент: В.И.Ильин литографияси, 1906. – 48 б.

10.Худайкулов М.А. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX -начало XX века). Дисс. … канд. ист. наук. – Ташкент: 1995. – 148 б.

11.Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т.: «Маънавият», 2002, -400 б.

12 . Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: «Маънавият», 2004, -464 б.

13. Hamroyev Sh. E. Boshlang`ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish.Monografiya. Qarshi:”Fan va ta`lim”, 2021, -216 b.

14. Ҳамроев Ш. Э. Жадид маърифатпарварларининг дарсликларидаги бадиий матнлар асосида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш. Пед. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. ... – Тошкент: 2009. – 186 б.

15. Ҳамроев Ш.Э,. Каримов Б. П., Муҳаммадиев Ш. М. “Жадидларнинг дарсликларидаги бадиий матнлар асосида бошланғич синф ўқувчиларини ахлоқий тарбиялаш” Монография. Қарши:”Фан ва таълим”, 2021, -186 б.

16. Hamroyev Sh. E. Boshlang`ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish. O`quv qo`llanma.. Qarshi: ”Intellekt”, 2023, -286 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

“ODAM VA UNING SALOMATLIGI” FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Shernazarov Behruz Sayyod o‘g‘li
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 4-bosqich o‘g‘li
Ruziqulova Nilufar Abdumajidovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti dotsenti
nilruz.sam@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Odam va uning salomatligi” fanini o‘qitish jarayonida interfaol grafik organayzerlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Maqolada interfaol metodlarning o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash va sog‘lom turmush tarziga oid bilimlarni ongli o‘zlashtirishdagi o‘rni tahlil etiladi. Grafik organayzerlardan foydalanishning turlari, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish bosqichlari hamda o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishdagi afzalliklari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Odam va uning salomatligi”, interfaol metodlar, grafik organayzer, ta’lim texnologiyasi, baliq skeleti, klaster metodi, Venn diagrammasi.

Аннотация.В данной статье освещены вопросы эффективного использования интерактивных графических органайзеров в процессе преподавания предмета "Человек и его здоровье." В статье анализируется роль интерактивных методов в самостоятельном мышлении учащихся, анализе, выявлении логических связей и осознанном усвоении знаний о здоровом образе жизни. Показаны виды использования графических органайзеров, этапы их интеграции в учебный процесс, а также преимущества повышения познавательной активности учащихся.

Ключевые слова: "Человек и его здоровье," интерактивные методы, графический органайзер, образовательные технологии, рыбий скелет, кластерный метод, диаграмма Венна.

Abstract. This article addresses the effective use of interactive graphic organizers in the teaching of the subject "Human and Health." The article analyzes the role of interactive methods in students' independent thinking, analysis, identification of logical connections, and conscious assimilation of knowledge about a healthy lifestyle. The types of use of graphic organizers, the stages of their integration into the lesson process, and the advantages of increasing students' cognitive activity are shown.

Keywords: "Human and his health," interactive methods, graphic organizer, educational technology, fish skeleton, cluster method, Venn diagram.


KIRISH. Bugungi kunda yuzaga kelayotgan asosiy muammo ta’lim oluvchilar shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan, yosh inqirozlarining salbiy ko‘rinishlarini yumshatishga yordam beradigan, o‘quvchining keyingi shaxsiy va ijtimoiy shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratadigan ta’lim tizimini isloh qilish masalasidir. Bunday vazifalarni hal qilish uchun o‘quvchilarning fanlarni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish uchun turli xil usullar va texnologiyalar joriy etiladi. Darslarda grafik organayzerlarni qo‘llash o‘quvchilarning materialni o‘zlashtirish samaradorligiga, ularning kognitiv kompetensiyasini shakllantirishga ta’sir qilishi mumkin. Hozirgi kunda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol usullar, xususan, grafik organayzerlar keng qo‘llanilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ta’lim oluvchining bilish kompetensiyasi grafik organayzerlar orqali shakllantiriladi, bunda u: 1) o‘z bilimlarini tizimlashtirish uchun turli xil organayzerlardan foydalanishni o‘rganadi; 2) o‘z bilimlarini tizimlashtirishni o‘rganadi; 3) materialni sistemalashtirish va umumlashtirishning turli usullarini egallaydi. Kompyuter texnologiyalari asrida o‘quvchilarning axborot ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish juda dolzarbdir. O‘quvchiga juda katta ma’lumotlar oqimi yog‘iladi, shuning uchun olingan ma’lumotlarni qanday saqlash, tuzish, umumlashtirish va tizimlashtirish kerak, degan savol tug‘iladi. Grafik organayzerlar vizual fikrlash usullariga kiradi. Zamonaviy o‘qituvchining eng asosiy vazifasi ijobiy motivatsiyani yaratishdir. Buning uchun quyidagi: - ta’lim oluvchilarni turli faoliyatlarga jalb qilish; - loyihalash faoliyati; - tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanish; - tanlov imkoniyatini berish metodlar qo‘llaniladi. Sxemalar, jadvallar, grafik organayzerlar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini tizimlashtirishga, o‘z g‘oyalarini bog‘langan matnga yoki aksincha, matnni elementlarga ajratishga yordam beradi. Grafik organayzerlar shunday vositaki, ular yordamida ma’lumotlar qog‘oz varag‘ida yoki kompyuter ekranida tartibga solinadi, shunda berilgan ma’lumotlar o‘zlashtiriladi, tahlil qilinadi va ularning eslab qolinishi yaxshilanadi. Grafik organayzer - ko‘rgazmali vositalar yordamida axborot mazmunini ifodalovchi vizual kommunikatsiya vositasi bo‘lib, o‘qitish jarayonida ular katta rol o‘ynaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Grafik organayzerlarning asosiy turlari-“Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Tushuncha xaritasi”, “T-jadval”, “Baliq skeleti” kabi modellar hisoblanadi. Ushbu vositalar dars jarayonida o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, mavzularni solishtirish, umumlashtirish va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga imkon beradi.


Masalan, “Venn diagrammasi” yordamida ikki tushuncha yoki hodisani taqqoslash qulay bo‘lib, o‘quvchilar ularning o‘xshash va farqli jihatlarini vizual ko‘rinishda tahlil qiladilar. “Klaster” metodi esa mavzuni keng fikrlash asosida o‘rganishga, g‘oyalarni tizimlashtirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, grafik organayzerlardan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi hamda ularni faol o‘quvchi sifatida dars jarayoniga jalb etadi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalarining keng imkoniyatlari grafik organayzerlarni interfaol platformalarda (masalan, Canva, MindMeister, Miro, Google Jamboard) yaratish va ulardan onlayn darslarda ham samarali foydalanish imkonini bermoqda. Bu esa masofaviy ta’limda ham o‘quvchilar bilan faol muloqotda bo‘lishni ta’minlaydi.

Klaster metodi – pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u ta’lim olovchilarga ixtiyoriy muammo mavzular yuzasidan erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq obektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta’lim olovchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga hizmat qiladi. O‘qitish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o‘ziga hos hususiyatga ega. Ushbu usul o‘quvchilarga erkin fikrlash, o‘qigan malumotlarni yodga olgan holda ularni bir – biri bilan bog‘lashga yordam beradi. Klaster metodi orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari, ijodkorligini va faolligi nazariy va amaliy mu'ammolarga bo‘lgan qarashlari rivojlanadi. Mavzuni chuqur o‘zlashtirishga va o‘zlashtirgan mavzusini klaster metodi yordamida oson va tushunarli yoritib berishga yordam beradigan metod turi hisoblanadi. Ushbu metod ayniqsa biologiyaning barcha tarmog‘larida qo‘llash samarali foyda beradi. Masalan odam va uning salomatligi fanidan tayanch-harakatlanish sistemasining tuzilishini klaster metodi yordamida tushuntirish o‘quvchilarga movzuni teziroq anglab yetishiga va darsga qiziqishini oshirgan holda ularni fikirlashga movzuni teziroq anglab yitishiga yordam beradi. Klaster metodni odam skeletining tuzulishi misolida ko‘rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. Odamning umumiy skeleti va uning qismlari

Baliq skeleti. Ushbu metodda baliq modeli chizmasi orqasi namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlagan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi qog‘ozga yoki doskaga chizilib, uning tepa qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Paski qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Bu metodda o‘quvchilar guruh bo‘lib o‘zaro maslahatlashib javob yozadlar. Guruhlarga yoki alohida aniq vaqt belgilanadi. Har qanday muammolarni yechishning bir qancha variantlarini topish mumkinligi haqidagi bilim, ko‘nikma va malaka-ga erishishlarini ta’minlaymiz. Bu metodan foydalanish o‘quvchilarning fikirlash doyrasini kengaytirib hayotiy voqiyalardan tez va to‘g‘ri xulosa chiqarishga yordam beradi.



2-rasm. Ayirish a’zolari tuzilishiga oid baliq skeleti organayzeri

Konseptual jadval - o‘rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Konseptual jadval quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. 1. Konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo‘yicha, xususiyatlarni ajratadilar. 2. Alohida yoki kichik guruhlarda konseptual jadvalni to‘ldiradilar. – vertikal yo‘nalishda taqqoslanadigan (fikr, nazariyalar) joylashtiriladi; - gorizontal yo‘nalishda taqqoslanish bo‘yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi. Konseptual jadval - talabalarda o‘rganilgan ma’lumotlarni xususiyatlariga qarab taqqoslash, solishtirish va tizimli fikrlashga o‘rgatadi. Misol sifatida odam va uning salomatligi fanidan sezgi organlar mavzusida ko‘rib chiqamiz (1-jadval).


1-jadval

Sezgi a’zolariga umumiy tavsif

Tushunchalar	**Mazmuni**	**Izohlar va misollar**
Sezgi organlari	Sezgi organlari tashqi muhit ta’sirini qabul qilishga ixtisoslashgan. Sezgi turli organlar orqali qabul qilinadi va nerv empulislari orqali javob qaytariladi.	Insondagi sezgi azolari ko‘rish, eshtish, ta’m bilish, hid bilish va teri orqali sezish kabi asosiy sezgilar mavjud.
Sezgi turlari	1. Ko‘rish 2. Eshtish 3. Ta’ m bilish 4. Hid bilish 5. Teri orqali sezish kabi sezgi turlari mavjud.	Har bir sezgi turi maxsus retseptorlar orqali amalga oshadi. Masalan tovush eshtish nervlari orqali miya yarimsharlarining chakka qismidagi eshtish markaziga o‘tadi.
Sezgi qonuniyatlari	1.Qabul qilish 2. Uzatish 3. Idrok qilish. 4. Javob reaksyasi	Ko‘z orqali ko‘rib ma’lumotlarni qabul qilish. Retseptorlar esa qabul qilib nerv signallarga aylantiradi va markaziy nerv sistemasiga uzatiladi. Bosh miya yarimsharlarining ensa zonasida analiz qilinadi.
Sezgi va idrok aloqasi.	Sezgi-bu idrok jarayonining boshlang‘ich bosqichi. Idrok esa sezgi orqali olingan ma’lumotlarni umumlashtiradi va tahlil qiladi.	Masalan biron narsaning shaklini va uning rangini sezgi orqali bilsak uning ma’nosini va mazmunini idrok qilish orqali anglaymiz.

Tadqiqot usullari	Eksperimental, kuzatish va fiziologik testlar orqali sezgi organlari faoliyati o‘rganiladi.	Masalan EKG, EEG kabi asboblar orqali nerv tizmining sezgi ta’siriga javob o‘lchanadi.

Venn diagrammasi- bu ikkita mavzu yoki g‘oyalar o‘rtasidagi munosabatlarni taqdim etish uchun ikki yoki uchta doira shaklidan foydalanadigan grafik. Ushbu vosita asosan ikkita asosiy mavzu o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni vizual tarzda ifodalash uchun ishlatiladi, shuning uchun ikkala mavzu bo‘yicha bilim olish osonroq bo‘ladi. “Venn diagrammasi” metodi o‘quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Venn diagrammasi metodini barcha sinflarda bir-biriga bog‘liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi. Bu metod orqali o‘quvchilarga 2 yoki 3 ta mavzularni takrorllashda ularni bir –biriga o‘xshashlik va farqli jihatlarini yorib berishda yaxshi samara beradi. Bunda o‘quvchilar Venn diagrammasidagi aylanalar soniga qarab ikki yoki uch guruhga bo‘linadi. Doskaga yoki plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo‘yiladi (3-rasm).



3-rasm. Venn diagrammasi

O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib mavzudan kelib chiqqan holda har bir guruh vakillari chiqib aylanani ichini to‘ldiradi va fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligida to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar aniqlanadi. To‘g‘ri javobga ball qo‘yiladi, eng ko‘p to‘g‘ri fikr bildirgan va eng ko‘p ball to‘plagan guruh g‘olib hisoblanib ular rag‘batlantiriladi. Venn diagrammasi metodini barcha sinflarda bir-biriga bog‘liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi. Quyida ushbu metodni biologiya darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan namunalar keltirilgan.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, darslarda interfaol grafik organayzerlardan foydalanish — bu nafaqat o‘qituvchining ishini yengillashtiruvchi vosita, balki o‘quvchining mustaqil fikrlashini rag‘batlantiruvchi samarali metoddir. Ular yordamida ta’lim jarayoni

mazmunan boyiydi, o‘quvchilar esa o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shunday ekan, har bir zamonaviy pedagog grafik organayzerlardan samarali foydalanishni o‘z pedagogik mahoratining ajralmas qismi sifatida shakllantirishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Azizxo`javeva N N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.-174 b.

2.Xo'jayev N.X., Xodieyv B. Yu., Baubekova G.D., Ti/abova N. T. Yangi pedagogik texnologiyalar. Obquv qo‘llanma. — Toshkent: Fan, 2002.

3.Питюков В.Ю. Основны педагогической технологии. —М.: Гном-Пресс, 1999.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SUV ISTEMOLINI HISOBLASHNING IMKONIYATLARI

Muhamadiyeva Nargiza Qudratovna,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: nargizamuhammadiyeva84@gmail.com
Davlyatov Shershod Abdirashidovich,
Termiz Davlat Universiteti magistranti
E-pochta: davlatovshershod@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada suv istemolini hisoblashning imkoniyatlari va ahamiyati va qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Suv resurslarini boshqarish, taqsimlash va monitoring qilish jarayonlarida suv istemolini hisoblash texnologiyalarining amaliy natijalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari suv isrofgarchiligini kamaytirish, irrigatsiya tizimlarini optimallashtirish hamda barqaror suv boshqaruvini ta’minlashda suv istemolini hisoblashning muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘z:suv resurslari, suv istemoli, hisoblash, imkoniyatlari, ahamiyati, qo‘llanilish imkoniyatlari, tahlil, suv, resurs, taqsimlash, monitoring, jarayon, suv istemoli, texnologiya, amaliy, natija, isrofgarchilik, tizim.

Аннотация: В данной статье анализируются возможности и значение учёта водопотребления и его применение. Освещены практические результаты применения технологий учёта водопотребления в процессах управления, распределения и мониторинга водных ресурсов. Результаты исследования показывают, что учёт водопотребления является важным инструментом сокращения потерь воды, оптимизации систем орошения и обеспечения устойчивого водопользования.

Ключевые слова: водные ресурсы, водопотребление, учёт, возможности, важность, применение, анализ, вода, ресурс, распределение, мониторинг, процесс, водопотребление, технология, практический, результат, потери, система.

Abstract: This article analyzes the capabilities and importance of water consumption accounting and its application. The practical results of water consumption accounting technologies in the processes of water resources management, distribution and monitoring are highlighted. The results of the study show that water consumption accounting is an important tool for reducing water waste, optimizing irrigation systems and ensuring sustainable water management.

Keywords: water resources, water consumption, accounting, capabilities, importance, application, analysis, water, resource, distribution, monitoring, process, water consumption, technology, practical, result, waste, system.

Kirish (Introduction). Suv — inson hayoti, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ekologiya uchun eng muhim tabiiy resurslardan biridir. Aholi sonining ko‘payishi, shaharlarning kengayishi va sanoatning rivojlanishi suvga bo‘lgan talabni keskin oshirib bormoqda. Shu sababli suvdan oqilona foydalanish va uni boshqarishda aniq hisob-kitoblar muhim o‘rin egallaydi. Suv iste’molini hisoblash jarayoni nafaqat suv sarfini aniqlash, balki uni tejash, samarali rejalashtirish va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan suv tanqisligining oldini olishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o‘zgarishi hamda suvdan foydalanish samaradorligining pastligi muammolari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, Surxandaryo viloyati kabi issiq va qurg‘oqchil hududlarda suv resurslarini oqilona boshqarish masalasi iqtisodiy va ekologik barqarorlikning asosiy omillaridan biridir.

Shu nuqtai nazardan, Suv istemolining miqdorini aniqlashning maqsadi suvdan oqilana foydalanishga ham zamin yaratadi. Mehnat bozori — ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorining ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o‘rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi. Turli vositachi firmalar, tashkilotlar va agentliklar mehnat bozorining infratuzilmasini tashkil etadi. Ish kuchi maxsus tovar sifatida uning sohibi tomonidan bozorga taklif etiladi. Ishga yollovchilar mehnat bozoriga talab bilan chiqadi. Ish kuchining oldi-sotdisi bevosita haridor bilan sotuvchi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki vositachilar ishtirokida yuz berishi mumkin. Bu ishni mehnat birjasi yoki ish topib beruvchi firmalar bajaradi. Ish kuchining oldi-sotdisi mehnat bitimi shaklida rasmiylashtiriladi. Mehnat bozorida ish kuchini sotuvchi bilan uni oluvchi o‘rtasida mehnatning kelishilgan narxi ish haqidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mazkur tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi:

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Aholi punktlari va obektlarni suv bilan ta'minlash uchun suv ta'minoti sistemalarida kerakli bosim va suv sarfini ta'minlovchi inshootlar jumladan: Suv tarqatish tarmoqlari, bosimli suv minorasi, bosimli havzalar (rezervuar) loyihalashtirilishi zarur. Inshootlarni to‘g‘ri joylashtirish va ularning o‘lchamlarni aniqlash uchun turli obektlardagi suv iste’moli miqdorini bilish zarur buladi.

Buning uchun esa iste’molchilarni soni, tarkibi va har birining suvga bo‘lgan talabini bilish muhimdir. Shu asosda aholi punktdagi suvga bo‘lgan talab aniqlanadi.

Aholi punktlari va obektlarni suv bilan ta'minlash uchun suv ta'minoti sistemalarida kerakli bosim va suv sarfini ta'minlovchi inshootlar jumladan:

Suv tarqatish tarmoqlari, bosimli suv minorasi, bosimli havzalar (rezervuar) loyihalashtirilishi zarur. Inshootlarni to‘g‘ri joylashtirish va ularning o‘lchamlarni aniqlash

uchun turli obektlardagi suv iste’moli miqdorini bilish zarur buladi. Buning uchun esa iste’molchilarni soni, tarkibi va har birining suvga bo‘lgan talabini bilish muhimdir. Shu asosda aholi punktdagi suvga bo‘lgan talab aniqlanadi. Qsut = N * P

Bunda, N-suv iste’moli meyori va R- iste’molchilar soni.

Suv iste’moli meyori deb bir iste’molchi uchun bir sutka davomida talab qilinadigan suv miqdoriga ataladi (o‘lchov birligi l/sut).

Suv iste’moli meyori amaldagi meyoriy hujjatlar, jumladan KMK VSN33-2.2, ONTP-1-77 bo‘yicha qabul qilinadi. Jumladan KMK 2.04.02-97 tashki vodoprovod inshootlarini loyihalashtirish asoslarini belgilovchi qurilish meyori va qoidalaridir. Bu hujjat Davlat qurilish qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan. VSN-Tarmoq qurilish Me’èrlari. ONTP–Tarmoq texnologik loyihalash me’èrlaridir.

Inshootlar o‘lchamlarini to‘g‘ri aniqlash uchun hisobiy suv iste’moli meyorini aniqlanishi zarur. Hisobiy suv iste’moli meyori esa KMK bo‘yicha qabul kilingan o‘rtacha suv iste’moli meyori (No‘rt)ni notekislik koeffisienti (Ksut.not)ga ko‘paytirish yuli bilan topiladi.

Nxis = No‘rt * Ksut.not O‘rtacha suv iste’moli meyori (bir kishi uchun) binolarning obodonchilik darajasiga bog‘liq holda beriladi. Masalan:

1. Vannasi bo‘lmagan ichki vodoprovod va kanalizasiya bilan jihozlangan binolar iborat aholi punktida – 125-160 l/sut.

2. Xuddi shunday va bundan tashqari maxalliy suv isitish moslamalar va vanna bilan jihozlangan sharoitda – 160-230 l/sut.

3. Xuddi shunday va yana markazlashtirilgan issiq suv ta'minotiga ega bo‘lganda sharoitda – 230-350 l/sut. Vodoprovod faqat ko‘chaga o‘rnatiladigan suv olish moslamalari bilan jihozlanganda esa meyor 30-50 l/sut. ga teng qabul qilinadi.

Ksut.not = 1.1-1.3 Ksut.not. - sutkalar bo‘yicha notekislik koeffisienti, har xil korxonalarni notekis ish jarayoni va sharoitlarini, yilning mavsumini hisobga oladi.

Mamlakatimizdagidrometeorologiya xizmati tomonidan tashkil etilgan stansiya va postlar ma’lumguruxlarga ajratilgan. Ana shu ajratish shartlari, birinchidan, bajariladigan ishning hajmiga, ikkinchidan, ularda bajariladigan ishning turiga asoslangan. Stansiya va postlar bajaradigan ish turlariga harab meteorologik, aerologik, gidrologik hamda dengiz gidrometeorologik stansiya va postlariga ajratiladi. Daryo va kanallardagi gidrometrik ishlarning tarkibi va hajmi quyilganmaqsadga bog‘liq. Amaliyotda mavjud gidrometrik ishlarni uchta katta guruxgabo‘lish mumkin. Ularga gidrologik stansiya va kuzatish joylarida bajariladigangidrometrik ishlar, ilmiy safarlarda, bajariladigan gidrometrik ishlar, inshootlarni (to‘g‘onlar, irrigatsiya kanallari va boshqalar) barpo etish va ulardan foydalanishdavrida amalga oshiriladigan ishlatish davridagi gidrometrik ishlar kiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ichimlik, xo‘jalik va texnik maqsadlar uchun ishlatiladigan suvning sifati suvdagi har xil eruvchan va erimaydigan mineral va organik moddalarning tarkibiga bog‘liqdir va suvning fizik, ximik, bakteriologik hamda

biologik xossalari yig‘indisi (to‘plam) bo‘yicha aniqlanadi. Ichimlik suvning sifatiga qo‘yiladigan talablar O‘zbekiston Davlat "Ichimlik suvi. Gigienik talablar va sifatni nazorat kilish" andozasi UzDSt 950:2000 talablari asosida belgilangan. Ishlab chiqarish korxonalarida foydalaniladigan suvni sifatiga qo‘yiladigan talablar turli tarmoq me'èrlari va texnik shartlar bilan chegaranaladi. Toza ichimlik suvi tiniq, rangsiz, hidsiz, mazasiz va kasallik qo‘zg‘atuvchi bakteriyalarsiz bo‘lishi kerak. Suv harorati yil davomida mumkin qadar bir tekis bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan chorvachilikni mahsuldorligini oshirish uchun eng qulay harorat 7-12°C. oralig‘idadir.Suvning tiniqligi uning tarkibidagi suzib yuruvchi moddalarga bog‘liq bo‘lsa, uning rangliligi turli eruvchan va erimagan moddalar miqdoriga bog‘liqdir.

Ranglilikning o‘lchov birligi gradus bo‘lib, platina-kobaltli shkala nomli asbob èrdamida etalon rangli suv bilan taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi. Ichimlik suvining rangi 20°C gradusdan yuqori bo‘lmasligi kerak. Suvning hidi uning tarkibidagi turli gazlar va organik moddalar miqdoriga bog‘liq. Suvdagi èkimsiz hid uning tarkibida tuzlar, o‘simlik qoldiqlariga xos bo‘lgan chirindi mahsulotlari borligidan dalolat beradi. UzDSt 950:2000 bo‘yicha harorati 20°C gradusgacha bo‘lgan ichimlik suvini 60°C gradusgacha isitilganida ham hidi va mazasi 2 (ikki) balldan yuqori bo‘lmasligi zarur (<2ball).

Suvda mineral moddalar-kalsiy va magniy tuzlarining bo‘lishi unga qattiqlik xossasini beradi. Qattiqlik «mg.ekv/l» èki graduslarda o‘lchanadi. 1gradus qattiqlik suvning tarkibidagi 10 mg kalsiy oksidi (SaO) èki 14 mg magniy oksidiga (MgO) mos keladi. Qattiqlikni gradusdan «mg.ekv/l» ga o‘tkazish uchun gradusdagi miqdorni 2.804 bo‘lish kifoya.

Suv manbaining xarakteriga qarab, sug‘orish suvining tarkibida loyqazarralari, suvda eriydigan tuz moddalari turli miqdorda bo‘ladi. Sizot suvlar judatiniq bo‘lib, unda loyqa zarralari deyarli bo‘lmaydi. Biroq bu suvlarda mineral moddalar juda ko‘p bo‘ladi. Suv bilan birga oqib keluvchi loyqa va erigan tuzlarning bir qismi kanallarning o‘zanida qolib ketilsada, ko‘p qismi ekin dalalariga o‘tib, tuproqqasingadi va erni o‘g‘itlaydi. Loyqaning va sizot suvlarning tarkibiga qarab, ba’zi erlarning meliorativ holati yaxshilanadi. Bunga loyqa suvlarning zax erlarni achitishi va o‘g‘itlashi yordam qiladi. Agar sizot suvlar tarkibida zararli tuzlar ko‘pbo‘lsa, erni sho‘rlatadi.

Kanallarda ba’zan serhosil tuproq zarralari o‘rniga ko‘pmiqdorda zararli qumlar oqadi. Bu esa tuproq unumdorligini pasaytiradi vakanalning suv sig‘imini kamaytiradi. Daryolar suviga aralashib oqadigan loyqa va qum (oqizindi)larning miqdori va xarakteri doim o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarishlar:

1) suvda oqib keladigan tuproqning tarkibiga;

2) daryoda oqadigan suv sarfining yil fasllari bo‘yichao‘zgarib turishi.

3) suv oqimi tezligining o‘zgarib turishiga bog‘liq.

Daryolar, ko‘llar va suv omborlaridagi gidrologik ishlar va suv o‘lchashjoyidagi asosiy gidrometrik ishlar tarkibiga quyidagilar kiradi: 1. Gidrologik stansiya va kuzatish joylarining

tuzilishi va jihozlanishi; 2. Suv manbalarining chuqurligi va o‘zan tubi relefini o‘rganish maqsadidabajariladigan chuqurlik o‘lchash ishlari; 3. Suv sathlarining o‘zgarishini kuzatish. 4. Suv yuzasi nishabligini kuzatish; 5. Suv havzalarining harorati, muzlashi va undan xoli bo‘lishi, muzqatlamining holatini o‘rganish; 6. Suvning oqish tezligini o‘lchash; 7. Suv sarfini o‘lchash va oqim hajmini hisoblash; 8. Oqiziqlar sarfini aniqlash; 9. Muallaq oqizihar va o‘zan tubi oqiziharini o‘rganish; 10. Suvning rangi, tiniqligi, zichligi va kimyoviy tarkibini aniqlash buyichakuzatishlar. Barcha gidrometrik ishlar maxsus gidrologik kuzatish joyida (suv o‘lchashpostlarida) olib boriladi. Suv manbaining (daryo, kanal) o‘lchamiga bog‘liq, holdagidrologik kuzatish joyining tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi: 1. Suv o‘lchash ishlarini olib borishga mo‘ljallangan gidrometrik ko‘prik(yoki belanchak, sol va boshqalar); 2. Suv sathini o‘lchovchi suv o‘lchash reykasi, svay (qoziq), o‘zi yozgich asboblar («Valday», GR-38, GR-116); 3. Doimiy balandlik belgilari (reperlar); 4. Suv o‘lchash joyining «0» (nol) grafigi. Odatda suv o‘lchash joyining nol grafigi shunday belgilanadiki, bunda nol grafik sathi daryoda (ko‘lda, suvomborida) eng past suv sathidan kamida 0,5 m quyida joylashishi kerak. Bu bilansuv sathi eng past bo‘lganda ham uning sanoqlarining musbat qiymatda bo‘lishigaerishiladi. Betonli kanallarda suv o‘lchash joyining nol grafigi kanal tubi bilan bir xil balandlikda qabul qilinadi. Suv o‘lchash joyi nol grafigining balandligi rener balandligiga nisbatan aniqlanadi. 5. Suv o‘lchash joyida nol grafikdan tashhari yana suv o‘lchash reykasi vasvaylar soniga harab, bir yoki bir necha kuzatish noli bo‘lishi mumkin. Kuzatishnolining balandligi suv o‘lchash reykasining tubi (yoki svayning boshi) da reperganisbatan olinadi. Shunday qilib, kuzatish noli suv o‘lchash joyining nol grafigigao‘xshab shartli bo‘lmasdan, balki aniq miqdoriy sathdir; 6. Suv o‘lchash reykasining noli yoki svay boshi va nol grafik o‘rtasidagi balandlik farqi shu reyka yoki svaylarning privodkasi (keltirilishi) deyiladi; 7. Kanallarda suv sathini boshharish pultiga uzatish maqsadida suv sathiningko‘rsatkichi U-52 dir va suv taqsimlagich inshootlarida suv sathini ko‘rsatkichlari o‘rnatiladi. Gsdrologik kuzatish joyi quyilgan maqsadga muvofiq daryo (ko‘l, kanal, suvombori) ning ma’lum bir qismida o‘rnatilishi mumkin. Hap qanday holda hamtanlangan joy suv manbaining bir qismidagi sathlar rejimining barchaxususiyatlarini to‘la ifodalashi kerak. Daryoning suv o‘lchash joyida suv bir o‘zanga, qo‘ltiqlarga va daryoshoxobchalariga bo‘linmasdan oqishi kerak. Daryo o‘zani to‘g‘ri bo‘lib, undasuvning buralma harakatini hosil qiluvchi orolchalar, sayozliklar, suvning turg‘unholatlari bo‘lmasligi kerak.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Suv iste’molini hisoblash — faqat miqdorni aniqlash jarayoni emas, balki iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan muhim boshqaruv vositasidir. To‘g‘ri hisoblash natijasida suv isrofini kamaytirish, xizmatlarni samarali tashkil etish, atrof-muhitni muhofaza qilish va kelajak avlod uchun suv resurslarini asrash imkoniyati yaratiladi.

Shunday qilib, suv iste’molini hisoblash — bu oddiy texnik jarayon emas, balki iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategik ahamiyatga ega tizimdir. Suv sarfining aniq qayd etilishi resurslardan oqilona foydalanish, to‘lovlarning adolatli shakllanishi, favqulodda nosozliklarni erta aniqlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda aholining o‘sishi, sanoatning kengayishi va iqlim o‘zgarishi tufayli suvga bo‘lgan talab ortib borayotgani ushbu jarayonning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Shu bois suv iste’molini hisoblash tizimlarini takomillashtirish va keng joriy etish kelgusida suv resurslarini asrab-avaylash, barqaror rivojlanish va jamiyat farovonligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Suv kodeksi”. — Toshkent, 2020.

2. Маҳмудова И.М., ва Салохиддинов А.Т. Кишлок яйловлар сув таъминоти. — Toshkent: TATU nashriyoti, 2001.

4. Butayarov A.T. Improvement of water use in farms in the territory of "Amu-Surkhan" ITSB. // "AGROILM" magazine special issue 4.(60). -Tashkent, 2019. -B. 79 - 81.

5. Butayarov A.T., Serikbaev B.S., Serikbaeva E.B., M.T. Muhamadieva, Technology of efficient use of water in irrigated agriculture. Republican scientific-practical conference on the topic "Environmental problems of rational use of water and land resources in irrigated farming" Volume I. - Tashkent. November 24-25, 2017. -B. 109-111.

5. Karimov F., Eshqobilov A. Masofadan zondlash va GAT texnologiyalarining suv xo‘jaligidagi qo‘llanilishi. — “Geoinformatika” jurnali, 2023-yil, №2.

6. Botirov X.M., Suvanov Ch.S., Yulchiev B.U. va boshqalar. Suv resurslarini o‘lchovi va vositalari. o‘quv qo‘llanma.2019 yil, 151 bet.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSALARIDA LOYIHAVIY O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH USLUBLARI

Turayev Sirojiddin Juraqobilovich
Qarshi davlat texnika universiteti Tabiiy fanlar kafedrasi professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida loyihaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Loyihaviy yondashuvning mohiyati, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash zaruriyati hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, loyihaviy o‘qitish texnologiyalarini samarali tatbiq etish bosqichlari, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi interfaol hamkorlik shakllari hamda baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari texnik ta’lim sifatini oshirishda va amaliy yo‘naltirilgan mutaxassislarni tayyorlashda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: texnika oliy ta’limi, loyihaviy o‘qitish, innovatsion texnologiyalar, kompetensiya, o‘qitish metodlari, interfaol ta’lim.

Аннотация.В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты внедрения проектных технологий обучения в технических высших учебных заведениях. Раскрыта сущность проектного подхода, необходимость интеграции инновационных образовательных технологий и их роль в формировании профессиональных компетенций студентов. Определены этапы эффективного внедрения проектных технологий, формы интерактивного взаимодействия преподавателя и студента, а также разработаны критерии оценки результатов. Результаты исследования могут служить методологической основой для повышения качества технического образования и подготовки практико-ориентированных специалистов.

Ключевые слова: техническое образование, проектное обучение, инновационные технологии, компетентность, методы обучения, интерактивное обучение.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of implementing project-based teaching technologies in technical higher education institutions. The essence of the project-based approach, the necessity of integrating innovative educational technologies, and their role in developing students’ professional competencies are revealed. The stages of effective implementation, forms of interactive collaboration between teachers and students, and evaluation criteria are discussed. The results of the study can serve as a methodological

basis for improving the quality of technical education and training practice-oriented specialists.

Keywords: technical education, project-based learning, innovative technologies, competence, teaching methods, interactive learning.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda texnik soha mutaxassislarini tayyorlashda ta’lim jarayonini yangicha, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda sanoat tarmoqlarida murakkab tizimlarning paydo bo‘lishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatiga yangicha yondashuv zarurati tug‘ilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, texnika oliy ta’lim muassasalarida loyihaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etish – talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni real ishlab chiqarish muhitiga tayyorlash va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

Loyihaviy o‘qitish texnologiyasi o‘quv jarayonini faollashtiruvchi, talabaning mustaqil fikrlashi, tashabbus ko‘rsatishi, tahlil va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi innovatsion metod sifatida e’tirof etiladi. Mazkur texnologiya talabalarning faqat tayyor bilimni o‘zlashtirishini emas, balki ularni o‘z mustaqil izlanishlari natijasida yangi bilim, g‘oya va yechimlarni yaratishga yo‘naltiradi. Shu sababli loyihaviy o‘qitish nafaqat ta’lim natijasini, balki butun o‘quv jarayonining falsafasini o‘zgartiradi — talaba o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga, ijodiy muammolarni yechuvchi shaxsga aylanadi.

Texnika oliy ta’lim tizimida bunday texnologiyalarni joriy etish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, o‘quv jarayoni ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilishi zarur. Ikkinchidan, loyihalar amaliy vazifalar asosida tuzilishi va real texnik obyektlar, tizimlar yoki muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Uchinchidan, baholash tizimi an’anaviy test yoki yozma ishlar emas, balki loyiha natijalarining sifat ko‘rsatkichlari, talabalarning ijodiy yondashuvi va jamoaviy ishtirokini aks ettirishi lozim.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta’limni loyihaviy yondashuv asosida tashkil etish konsepsiyasi keng tarqalmoqda. Xususan, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Rossiya kabi mamlakatlarning ilg‘or texnik universitetlarida “Project-Based Learning” (PBL) tizimi muhandislik ta’limining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, loyiha asosida o‘qitish nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki talabalarda professional moslashuvchanlik, ijodiy tafakkur va muammolarni kompleks hal etish qobiliyatini shakllantiradi.

O‘zbekiston texnik oliy ta’lim muassasalarida ham mazkur yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etish jarayoni davom etmoqda. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi loyihaviy o‘qitish texnologiyalarini keng tatbiq etish uchun

normativ-huquqiy asos yaratdi. Shu sababli, mazkur tadqiqotda texnika oliy ta’limida loyihaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etishning metodik asoslari, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va ularni amalga oshirish bosqichlari tahlil qilinadi.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, texnika oliy ta’lim tizimida loyihaviy o‘qitish texnologiyalarini samarali qo‘llash bo‘yicha yagona ilmiy-metodik yondashuv hali to‘liq shakllanmagan. Shu sababli, tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish, o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Nazariy qism. Texnik oliy ta’lim tizimida loyihaviy o‘qitish texnologiyalarining nazariy asoslari didaktik tamoyillar, faoliyat yondashuvi va kompetensiyaga asoslangan ta’lim konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Loyihaviy o‘qitishning mohiyati shundaki, u o‘quv jarayonini real muammolar asosida tashkil etadi, bunda talaba o‘qituvchi tomonidan tayyor bilimni emas, balki o‘z mustaqil izlanishi orqali yangi bilimni egallaydi.

Nazariy jihatdan bu yondashuv J. Dyui, V. Kilpatrik, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, D. Kolb kabi pedagog va psixologlarning faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim haqidagi g‘oyalari bilan asoslanadi. Ularning fikricha, o‘quvchi (talaba) faqat faol ijodiy jarayon orqali haqiqiy bilimga ega bo‘lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, loyihaviy o‘qitish texnologiyasi talabaning faol, muammoli, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Texnik ta’limda bu texnologiya ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bo‘lishi kerak. Bunda har bir loyiha talabalarning kasbiy yo‘nalishiga mos, muayyan texnik obyekt yoki tizimni tahlil qilish, modellashtirish, loyihalash va natijani amaliy ko‘rinishda taqdim etishdan iborat bo‘ladi. Shu tariqa, loyihaviy o‘qitish nazariy jihatdan ta’limning faollashtiruvchi, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillarini o‘zida mujassam etadi.Tegishli o‘qitish metodini maqsadga muvofiq tanlash yoki ularni birlashtirish o‘qituvchiga talabalarning muayyan xususiyatlarini hisobga olgan holda aniq didaktik vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini faol shaklda o‘tkazishning ayrim namunalarini ko‘rib chiqamiz.

Muammoli ma’ruza dars boshida ma’lum bir muammo yoki bir qancha muammolarni belgilashni o‘z ichiga oladi, bu ma’ruza davomida olingan bilimlar asosida hal qilinishi kerak. Shuni ta’kidlash lozimki, ma’ruzada qo‘yilgan muammolar talabalar uchun qiyinlik darajasi bo‘yicha berilgan bo‘lishi, ularning bevosita rivojlanish zonasida yotishi, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olishi va yangi materialni o‘zlashtirishi uchun ahamiyatli bo‘lishi kerak [1].

Adabiyotlar tahlili va ilmiy tadqiqot metodologiyasi. So‘nggi yillarda loyihaviy o‘qitish texnologiyalari masalasi bo‘yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. J. Thomas (2000) o‘z tadqiqotida loyiha asosida o‘qitish natijasida talabalarda muammoli fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanishini ta’kidlagan. M. Blumenfeld (1991) esa loyihaviy o‘qitish jarayonining muvaffaqiyati talabaning motivatsiyasi va o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roliga bog‘liqligini ko‘rsatgan.

O‘zbekistonlik olimlardan R. Shodmonov, M. Jo‘rayev, P. Jalolova, B. Mirzaxmedovlarning ishlarida loyihaviy yondashuvni texnik ta’lim jarayoniga tatbiq etish, o‘qituvchi faoliyatini innovatsion asosda tashkil etish va talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy o‘qitish texnologiyasi nafaqat o‘quv faoliyatining metodik modeli, balki talabaning kasbiy shakllanishini ta’minlaydigan tizimli pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ko‘plab tadqiqotlarda bu texnologiyaning texnik oliy ta’lim sharoitlariga moslashtirilgan milliy modeli hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodologik asoslardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – loyihaviy o‘qitish texnologiyalarining mohiyati, tamoyillari va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash uchun;

Taqqoslash va modellashtirish – texnik ta’lim tizimida loyihaviy yondashuvni boshqa o‘qitish texnologiyalari bilan qiyoslab, uning afzalliklarini modellashtirish uchun;

Eksperimental tadqiqot – texnik yo‘nalishdagi talabalarda loyihaviy o‘qitish natijasida shakllanuvchi kasbiy kompetensiyalarni aniqlash uchun;

So‘rovnoma va intervyu – o‘qituvchilarning va talabalarining loyihaviy o‘qitish bo‘yicha fikrlarini o‘rganish maqsadida;

Statistik tahlil – tajriba-sinov natijalarining ishonchliligini baholash uchun.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida kompetensiyaga asoslangan yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv hamda axborot-ta’lim muhiti konsepsiyasi asos qilib olingan.Oxirgi yillarda ko‘pincha ma’ruzalarning bu turi multimediali prezentatsiyalardan foydalanilganda kuzatiladi, slaydlarda barcha eng muhim narsalar aks etadi, shuningdek, videoma’ruzalarni o‘z ichiga oladi. Va albatta biz kompyuter texnologiyalari jadal rivojlantirish davrida voyaga yetgan avlodga ta’lim va tabiya berayotganimizni unutmasligimiz kerak.

"Binar ma’ruzalar" da muammoli mazmundagi o‘quv materiali talabalarga nafaqat o‘zaro, balki auditoriya bilan ham ikki o‘qituvchi o‘rtasida jonli muloqotda beriladi. Ta’lim jarayonini tashkil etishning bu juda kam uchraydigan shakli bilan real kasbiy vaziyatlarni, ikki mutaxassis tomonidan turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan nazariy masalalarni muhokama qilishni, masalan, nazariyotchi va amaliyotchi, muayyan fikr tarafdori yoki raqibini simulyatsiya qilish mumkin va hokazo [2].

Tahlil va natijalar. Darslarni o‘tkazishning kamdan-kam uchraydigan interfaol shakli-oldindan rejalashtirilgan xatolar (ma’ruza - provokatsiya) bilan to‘ldirilgan ma’ruza bo‘lib, talabalarning kasbiy vaziyatlarni tez tahlil qilish, ekspertlar, opponentlar, taqrizchilar sifatida harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va taqdim etilgan ma’lumotlarga tanqidiy munosabatni shakllantirish uchun mo‘ljallangan [3].

Ma’ruzaga tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi mazmuniy, uslubiy yoki xulqiy xarakterdagi ma’lum bir xatolarni qo‘yadi. Talabalar bu xatolar ro‘yxati haqida faqat


ma’ruza oxirida bilib oladilar. Bundan tashqari, materialni taqdim etish davomida talabalar ham, o‘qituvchilar ham yo‘l qo‘yadigan eng keng tarqalgan xatolarni tanlab olish kerak, ular diqqat bilan yashiringan bo‘lishi va sirtda yotmasligi kerak. Biroq, bu o‘qituvchidan ma’ruza mazmuni bo‘yicha fikran va puxtalik bilan ishlash, shuningdek, ma’ruza ko‘nikmalarini yuqori darajada bilishni talab etadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, rejalashtirilgan xatolar bilan ma’ruzalar talabalar o‘rtasida yuqori aqliy va hissiy faollikka sabab bo‘ladi, chunki ular ilgari olingan bilimlardan amaliyotda foydalanish imkoniga ega, xatolarni yakuniy tahlil qilish jarayonida esa talabalarning nazariy fikrlashi rivojlanadi.

Aniq vaziyatlarni tahlil qilgan ma’ruzada tinglovchilarga og‘zaki yoki jismoniy tajribani namoyish etish orqali yoki juda qisqa videoyozuvda ma’lum bir vaziyat taqdim etiladi. Uning taqdimoti bir tomondan juda qisqa bo‘lishi va ikkinchi tomondan taklif etilayotgan hodisani baholash uchun yetarli ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak [4].

Fizika fanidan bunday ma’ruzalarni o‘tkazishda avval uning mohiyatini tushuntirmasdan muayyan fizik eksperimentni namoyish etish, so‘ngra auditoriya bilan muhokama jarayonida ularni yetakchi savollar yordamida to‘g‘ri xulosaga olib kelish maqsadga muvofiqdir.

Ma’ruzani o‘tkazishda talabalarga ushbu mavzu bo‘yicha o‘qituvchiga yozma ravishda savollar berish taklif etiladi. Savollar mavzu e’lon qilingandan 2-3 daqiqa o‘tgach shakllantiriladi, so‘ng o‘qituvchi savollarni senimatik mazmuni bo‘yicha 3-5 daqiqa davomida tartiblaydi va shundan so‘nggina ma’ruza qila boshlaydi [3]. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘qituvchi aniq savollarga javob bermaydi va tegishli javoblarni shakllantiradigan mavzuni izchil, mantiqiy rivojlantirish shaklida o‘tkazadi. Ma’ruza yakunida o‘qituvchi savollarga yakuniy baho berishni tinglovchilarning bilim va qiziqishlarini aks ettirish sifatida olib boradi.



Ma’ruzada talabalarni bilish faoliyatiga jalb etish fikr jarayonlarini faollashtiruvchi savolni to‘g‘ri shakllantirish va savolga javob kutish talaba diqqatini jamlash zarurati bilan erishiladi. Ma’ruzada ishtirok etish tajribasi talabalarga nafaqat savol berish, balki ularga aniq va malakali javob berish, muloqot davomida yuzaga keladigan qiyin vaziyatlardan chiqish yo‘lini topish, muayyan nuqtai nazarni isbotlash va rad etish ko‘nikmalarini hosil qilish va boshqalarning fikrlariga chidamli bo‘lish imkonini beradi (1-rasm) [5].

1-rasm. Loyihaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etishning uslubiy modeli

Bizning fikrimizcha, ma’ruza materiallari bo‘yicha faol ishlarni tashkil qilish uchun ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Facebook, Instagram)dan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Guruh moderatorlari guruh talabalari orasidan tayinlanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarni ham faol shaklda tashkil etish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

Loyihalash metodi - "talabalarning mustaqil rejalashtirilgan va asta-sekin murakkabroq amaliy vazifalarni bajarish jarayonida bilim va ko‘nikmalarni egallaydigan ta’lim tizimi".

Loyiha metodida muhim muammoni amaliy yoki nazariy hal qilish uchun tadabalar tomonidan mustaqil, lekin o‘qituvchi rahbarligida bajariladigan ishlarning murakkab tadqiqot, loyihalash, grafika va boshqa turlarini ko‘rib chiqish mumkin [4].

Shuni ta’kidlash lozimki, loyihalash metodi ham faol, ham interfaol ta’lim metodlariga tegishlidir.

Portfolio-talabalarning o‘quv-biluv faoliyati natijalari bilan ishlash texnologiyasi yoki "talabalarning kasbiy rivojlanishi yoki o‘quv dasturiga muvofiqligi nuqtai nazaridan muayyan vaqtda baholanadigan asarlar to‘plamidir" [5].

O‘yin metodi – muayyan amaliy vaziyatlarni yoki talabalarning tayyorgarlik darajasi bilish darajasini emas, balki "passiv holatdan – bilimdan – faollikka – faollikdan ko‘nikmaga o‘tkazish" imkonini beruvchi munosabatlar tizimini qayta yaratishda talabalarning birgalikdagi faoliyatining faol shaklidir [4].

Trening-muayyan tizimda mavzu bo‘yicha bir-biri bilan birlashtirilgan turli mashq va o‘yinlar majmuasi bo‘lib, talabalarning faol ijtimoiy pozitsiyasini boshqalar bilan samarali hamkorlikni, yangi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllanishiga imkon beradi.

Keys-texnologiya – professional sohada paydo bo‘ladigan noaniqlik bilan tavsiflanib aniq amaliy vaziyatlarni tahlil qilishda qo‘llaniladi.

Ma’ruzada keltirilgan nazariy materialni o‘zlashtirish darajasini tekshirish imkonini beruvchi kirish nazorati o‘tkazilgandan so‘ng talabalarga fizikaviy masalalarni individual sur’atda (yakka tartibda va juftlikda), doskadagi to‘g‘ri yechimlarni tahlil qilgan holda yoki tahlil qilmagan holda hal qilish taklif etiladi. Amaliy dars yakunida o‘quv materialining joriy sifat nazorati tabaqalashtirilgan vazifalar yordamida tashkil etiladi va murakkablik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, bu fizik masalani hal qilish uchun mantiqiy operatsiyalarni bajarish kerak va murakkablik darajasini tanlash talabalar uchun mustaqil va ixtiyoriydir.

Interfaol ta’lim boshqalardan biroz farq qiladi, bu farqlar va interaktiv ta’lim nima ekanligini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Intarfaol o‘quv kurslarida o‘qituvchilar interaktiv doska yordamida interaktiv o‘qitish usullaridan yoki kompyuter taqdimotlar yordamida o‘quv materiallarini taqdim etishni afzal ko‘rishdi (86% atrofida).

Interfaol (interaction-o‘zaro ta’sir) deb ma’lum guruh ichida talabalarning o‘zaro munosabatiga asoslangan o‘qitish usullari tushuniladi.

Interfaol ta’lim - "o‘quvchining o‘quv muhiti, o‘quv tajribasi maydoni bo‘lib xizmat qiladigan o‘quv muhiti bilan o‘zaro munosabatiga asoslangan holda o‘rganish" yoki "muloqot orqali birgalikdagi faoliyatda bilim olinadigan qo‘shma ta’lim jarayoni sifatida tushuniladi" [2].

O‘qitishning psixologik nazariyasida interfaol ta’lim inson munosabatlari psixologiyasiga asoslanadi. Interfaol ta’lim texnologiyalari o‘quv faoliyatining subyektlari sifatida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik jarayonida bilim olish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish yo‘llari sifatida qaraladi. "Interfaol ta’limning mohiyati shundaki, u nafaqat idrok, xotira va diqqat jarayonlariga, balki birinchi navbatda ijodiy fikrlash, xulq-atvor va muloqotga asoslanadi" [2].

"Aqliy hujum" - "bu jamoa a’zolari g‘oya muallifiga savollar berishi, misol va qarama-qarshiliklar muammoni yechishning jamoaviy usulidir. O‘qituvchi dars davomida muammoli vaziyatlar yaratadi. Ularni muhokama qilish jarayonida talabalar muammoni hal qilishda faol ishtirok etadilar" [1].

Sinektika metodi-qiyoslash va o‘xshatishlarni jalb qilish usuli bo‘lib, insonning tafakkur kengligi, tasavvurining to‘liqligi va bitmas-tuganmas tasavvurni talab qiluvchi g‘oyalarni ishlab chiqarishning takomillashgan metodidir. Metod analogiya va metaforalardan foydalanishga qaratilgan operatsion mexanizmlarda o‘qitishni o‘z ichiga oladi.

Keys metodidan foydalanish natijasi nafaqat bilim, balki kasbiy malakani shakllantirishga yo‘naltirilgan kasbiy ko‘nikmalar rivojlanadi.

Xulosa. Shunday qilib, talaba birinchidan, o‘quv munozarasini o‘tkazish variantlarining xilma-xilligiga asoslanishi va qisman aks etishi, ikkinchidan, uni o‘tkazish usullarining o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi lozim.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, o‘quv munozarasini tayyorlash va o‘tkazish jarayoni talabalar va o‘qituvchilar uchun juda ko‘p vaqt talab etadi. Binobarin, bu ixtisoslikka nisbatan bakalavriat o‘quv rejasi davomiyligining kamayishiga, shuningdek, alohida fanlarni o‘rganish va o‘quv axborotlarini ixchamlashtirish uchun sarflanadigan vaqtning qisqarishiga mos kelmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni, 2020 yil.

2. Dewey J. *Experience and Education*. New York: Macmillan, 1938.

3. Kilpatrick W.H. *The Project Method*. Teachers College Record, 1918.

4. Blumenfeld P. *Motivating Project-Based Learning: Sustaining the Doing, Supporting the Learning*. Educational Psychologist, 1991.

5. Thomas J.W. *A Review of Research on Project-Based Learning*. Autodesk Foundation, 2000.

6. Shodmonov R. *Texnik ta’limda innovatsion o‘qitish metodlari*. Toshkent: Fan, 2018.

7. Mirzaxmedov B.M. *Muhandislik ta’limida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari*. Toshkent: TDPU, 2022.

8. Смолкин, А.М. Методы активного обучения: [Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров] / А. М. Смолкин. – М.: Высш. шк.,1991. – с. 175

9. Психология и педагогика /Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Сластенина В.А. – М.: «Совершенство», 1998.

10. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, *Scientific Bulletin of Namangan State University*: 2019.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLAN‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
Nishonova Kamola
Farg‘ona davlat universiteti
“Boshlang‘ich talim” yo‘nalishi
4-bosqich talabasi
Mamadjonova Hayotxon

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari, o‘qituvchi tomonidan yaratiladigan ijodiy muhitning o‘rni, bolalarni erkin fikr bildirishga undovchi pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, dars jarayonida o‘yinlar, tasviriy faoliyat, savollar, guruh ishlari va hayotiy vaziyatlardan foydalanish orqali kreativ tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, kreativ faollik, erkin fikrlash, tasavvur, ijodkorlik, boshlang‘ich ta’lim, o‘yin texnologiyalari, guruhda ishlash, pedagogik muhit.

Аннотация.Статье рассматриваются основные направления формирования творческой активности учащихся начальной школы, роль создаваемой учителем творческой среды, педагогические подходы, стимулирующие свободное выражение детьми своего мнения. Также рассматриваются эффективные методы развития творческого мышления посредством использования игр, изобразительной деятельности, вопросов, групповой работы и жизненных ситуаций на уроке.

Ключевые слова. Творчество, творческая деятельность, свободное мышление, воображение, креативность, начальное образование, игровые технологии, групповая работа, педагогическая среда.

Abstract. This article discusses the main directions of forming creative activity in primary school students, the role of the creative environment created by the teacher, pedagogical approaches that encourage children to express their opinions freely. Also, effective methods of developing creative thinking through the use of games, visual activities, questions, group work and real-life situations in the lesson are considered.

Keywords. Creativity, creative activity, free thinking, imagination, creativity, primary education, game technologies, group work, pedagogical environment.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, noodatiy yechim topishga, ijodiy yondasha oladigan shaxs qilib tarbiyalashdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri bolalarning tafakkuri, tasavvuri va kreativ qobiliyatlari jadal rivojlanadigan davr hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantirish uchun to‘g‘ri tashkil etilgan o‘quv jarayonini, samarali pedagogik yondashuvlarni qo‘llashi zarur. Kreativ faollikning rivojlanishi o‘quvchilarning kelgusida mustaqil, fikrlovchi, yangilikka intiluvchi, hayotiy vaziyatlarda tez va moslashuvchan qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki aynan boshlang‘ich yosh davri – bolaning tasavvuri eng faol, fikrlashi eng moslashuvchan bo‘ladigan davrdir. Shuning uchun o‘qituvchi dars jarayonini shunday tashkil qilishi kerakki, unda har bir o‘quvchi ijod qilish, o‘ylash, yangi g‘oya topish, mustaqil qaror qabul qilish imkoniga ega bo‘lsin. Kreativlikning shakllanishi, avvalo, o‘quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratishdan boshlanadi. O‘qituvchi har qanday fikrni qadrlashi, tanqid emas, konstruktiv yo‘l ko‘rsatishi, xato qilishdan qo‘rqmaydigan muhit yaratishi zarur.

XX asrning 50 yillarida ingliz-amerika psixologlarining izlanishlarida kreativlik deb nomlanadigan (creatio - lotincha “yaratish”) alohida qobiliyatlami o‘rganish katta ko'lamda qiziqish uyg‘otmoqda. Kreativlikni alohida o‘rganishga an’anaviy mtellekt testlari bilan muammoli vaziyatni muvaffaqiyatli yechimi orasida aloqaning mavjud emasligi haqidagi ma’lumotlaming aniqlanishi turtki bo‘ldi. E’tirof etilishicha, kreativlik ma’lum masalaning yechimini topishdagi axborotlami tez sur’atda foydalanish qobiliyatiga bog‘liq. Bu qobiliyatni kreativlik deb atadilar va uni intellektga boliq bo‘lmagan holatda - individning yangi tushunchalar yaratuvchi va shakll antiruvchi yangi malakalari sifatida o‘rgandilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kreativlik - shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni, yangi g’oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o‘zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan’anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jixati uning ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining kreativlik fikrlash qobilyati va ijodkorlik xususiyati uning ta’lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg’ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, ehg avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir.

O‘quvchilarda kreativ faollikni shakllantirishning eng muhim yo‘llaridan biri -savol berish texnikasidir. O‘qituvchi ko‘proq ochiq savollar berishi, javobi bir nechta bo‘lishi

mumkin bo‘lgan vazifalarni qo‘yishi, muammoni turli yo‘llar bilan hal qilishga undashi lozim. “Seningcha boshqacha bo‘lishi mumkinmi?”, “Bu masalani yana qanday usulda echamiz?”, “Agar bunga ruxsat berilsa, sen nima qilarding?” kabi savollar o‘quvchini kreativ fikrlashga yo‘naltiradi.

Shuningdek, kreativlikni rivojlantirishda o‘yin texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich yoshdagi bolalar o‘yin orqali o‘rganadi. Rolli o‘yinlar, fantaziya o‘yinlari, ssenariy yaratish, ijodiy o‘yinlar o‘quvchilarda tasavvur, obraz yaratish, yangi g‘oya keltirib chiqarish qobiliyatini kuchaytiradi. Masalan, “Agar men ixtirochi bo‘lsam…”, “Yangi hayvon turi yarat”, “Kelajak maktabini tasvirla” kabi ijodiy o‘yinlar bolalarni noodatiy fikrlashga undaydi.

Tasviriy san’at va amaliy faoliyatlar ham kreativlikni rivojlantiruvchi samarali vositadir. Rasm chizish, mozaika tuzish, loydan kompozitsiya yaratish, kollajlar tayyorlash, qurilish konstruktori yordamida model yasash – bular o‘quvchilarni erkin tasavvur qilishga, rang va shakllar bilan tajriba o‘tkazishga, noodatiy yechimlar yaratishga o‘rgatadi. Bunday faoliyatlar bolaning mayda motorikasini ham rivojlantirib, miya faoliyatini faollashtiradi.

Kreativ faollikni oshirishning yana bir yo‘li, guruhli va juftlikda ishlash. Guruhda ishlayotgan o‘quvchilar bir-birining fikridan ilhom oladi, g‘oyalarni birlashtiradi, yangi yechim topadi. Bu jarayon jamoaviy ijodiy tafakkurni shakllantiradi. Guruhli ishlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini ifoda etishni, boshqalarning fikrini tinglashni, fikr almashishni o‘rganadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hayotiy vaziyatlardan foydalangan holda kreativlikni rivojlantirish ham muhimdir. Kundalik hayotdagi muammolarga o‘quvchilarning o‘z yechimini topishi, o‘zining shaxsiy fikrini shakllantirishi, turli vaziyatni tasavvur qila olishi kreativ tafakkurni rivojlantiradi. Masalan, “Agar maktabda elektr bo‘lmasa, qanday o‘qish mumkin?”, “Tabiatdagi ifloslanishni kamaytirish uchun qanday ixtiro qilgan bo‘larding?” kabi topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Shu bilan birga, muammoli vazifalar yaratish kreativlikni rivojlantiruvchi eng kuchli metodlardan biridir. Bu usulda o‘qituvchi bir nechta yechimi bo‘lgan muammoni taqdim etadi, o‘quvchi esa xar xil echimlar o‘ylab topishga harakat qiladi. Bu jarayon divergent (keng yo‘nalishli) fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchi muammoni turli tomondan ko‘rib chiqishni, variantlarni solishtirishni, eng maqbul yechimni tanlashni o‘rganadi.

Hikoya tuzish, ertak to‘qish, matnni davom ettirish kabi topshiriqlar ham kreativ faollikni oshiradi. Bunda o‘quvchi obrazlar yaratadi, voqeani rivojlantiradi, o‘z tasavvuridan foydalanadi. Masalan, “Ertakni davom ettir”, “Yangi qahramon qo‘sh”, “Rasm asosida hikoya tuz” topshiriqlari tasavvur va ijodkorlikni kuchaytiradi.

Kreativlikni shakllantirishda texnologiya va axborot vositalaridan foydalanish ham zamonaviy va samarali usullardan biridir. Raqamli ta’lim platformalari, virtual konstruktorlar, interfaol dasturlar o‘quvchilarga yangi tajriba beradi. Multimediali

taqdimotlar, animatsiyalar, grafik dasturlarda rasm yaratish bolalarda qiziqish uyg‘otadi va kreativ jarayonni raqamli muhitga ko‘chirishga yordam beradi.

Yana bir muhim yo‘l - o‘quvchiga tanlov berish. Tanlovli vazifalar (bir nechta topshiriqdan birini tanlash, mavzuni o‘zi belgilash, hikoya mavzusini tanlash) o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshiradi. O‘quvchi o‘zi tanlagan ishni ijod bilan bajaradi, bu jarayon esa kreativ faollikning tabiiy rivojlanishiga olib keladi.

Kreativ tafakkurni shakllantiruvchi muhim yo‘llardan yana biri - tajriba o‘tkazish imkonini berish. Masalan, tabiiyot fanida tajribalar qilish, texnologiya darslarida yangi shakl, maket yaratish, matematika darsida o‘z usuli bilan masala yechishga ruxsat berish - bularning barchasi kreativlikni oshiradi. Tajriba jarayonida o‘quvchi sinaydi, xato qiladi, yana urinadi va nihoyat o‘z g‘oyasini takomillashtiradi. Bu esa ijodiy fikrning eng tabiiy yo‘li hisoblanadi.

Shuningdek, refleksiya jarayonlari ham katta ahamiyatga ega. Dars oxirida o‘quvchilar “Bugun nimalarni o‘rgandim?”, “Qanday yangilik yaratdim?”, “Qaysi vazifa menga yoqdi?” kabi savollarga javob berish orqali o‘z faoliyatini tahlil qiladi va ijodiy yondashuvini mustahkamlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir nazariy asoslar

Kreativlikni o‘rganish jarayonida olimlar uni an’anaviy intellekt testlari orqali to‘liq baholab bo‘lmasligini ta’kidlaydilar. Chunki kreativlik konvergent tafakkurdan farqli ravishda, noodatiy yondashuv, yangicha qarash, erkin fikrlash kabi jihatlar orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababdan kreativlikni o‘rganish uchun maxsus testlar ishlab chiqilgan. Biroq tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, intellekt va kreativlik o‘rtasida umumiy xulosa chiqara oladigan aniq bog‘liqlik mavjud emas.

Agar kreativlikni an’anaviy testlar bilan emas, balki shaxsning amalga oshirgan ijodiy ishlari, uning faoliyati orqali baholansa, intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlikka doir muayyan xulosalarga kelish mumkin bo‘ladi. Ba’zi tadqiqotchilar kreativlikni intellektning o‘lchovga sig‘maydigan, an’anaviy testlar bilan aniqlab bo‘lmaydigan alohida qirrasi sifatida baholaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, kreativlik orttirilgan tajriba, egallangan bilim va malakalar, shuningdek, shaxsni qurshab turgan muhitning o‘ziga xos xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlantiruvchi, tabaqalashtirilgan ta’lim oluvchi o‘quvchilar kreativlik testlarida oddiy sinfda o‘qiydigan tengdoshlariga nisbatan ko‘proq muvaffaqiyatga erishgan. Bu esa kreativlikning shakllanishida atrof-muhitning juda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Rivojlantiruvchi muhitning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- axborot manbalarining ko‘pligi;
- o‘quvchining erkin fikrlashiga imkon berilishi;
- mustaqil izlanish uchun sharoit yaratilishi.

Bunday muhit kreativ fikrlashning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqotchilar kreativlikning shakllanishida shaxsiy omillarning katta ahamiyatga egaligini ta’kidlashadi.

Kreativlikning yakka yondashuvda o‘rganilishida, asosan, hissiy va motivatsion omillarga urg‘u beriladi. Turli tadqiqotlarda kreativ shaxs bilan kreativ bo‘lmagan shaxs o‘rtasidagi farqlar aniqlangan. Ba’zi tadqiqotchilar kreativ shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida o‘ziga ishonch, mustaqillik, tajovuzkorlik elementlari, o‘z-o‘zidan qoniqish, ijtimoiy cheklovlarga bo‘lgan toqatsizlik kabi sifatlarni qayd etganlar. Bu xususiyatlar kreativ bo‘lmagan shaxslarda kamroq uchraydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bolalar va yoshlar bilan o’tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kreativlik belgilari balog‘atga yetgan shaxslardagiga juda o‘xshash bo‘ladi. Bu esa shuni anglatadiki, kreativlik shaxsning juda erta davridan boshlab kuzatilishi va bashorat qilinishi mumkin.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

1)o‘zini tavakkaldan olib qochish;

2)fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;

3)shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4)boshqalarga tobe bo‘lish;

5)har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash

“Kreativ muhitda o‘qituvchi talabalar diqqat-e’tiborini jalb

etish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg‘otuvchi ma’lumot talabalarni o‘ziga jalb etib, ularda o‘qishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi. Olib borilgan miya taqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, yangilik hamisha miyani faollashtiradi.

O‘qituvchi talabalarni yangi ma’lumot va manbalar bilan ta’minlaganda yoki yangi strategiyalarni qo‘llaganda, miya “uyg‘onadi” va e’tibor qaratadi. Masalan,biror bir adabiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxsga o‘xshab kiyinish, tarixiy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar o‘rnini almashtirish, o‘yinlar o‘ynash (bu o‘rta maktab o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalariga ham birdek taalluqli), dars shaklini o‘zgartirish. Kreativ muhitda o‘qituvchi talabalarga tez-tez tanlash imkonini beradi. Tanlov kreativlikni shakllantirishda muhimdir (Sprenger, 2010) va u talabalarni ruhlantirib, ularga o‘qishni nazorat qilish imkonini beribgina qolmay, balki huquq va imkoniyatlarini kengaytiradi. Tanlov huquqi nafaqat o‘qituvchi- talaba munosabatini yaxshilash, balki har ikki tarafning ham individualligini ifodalashga zamin yaratadi. Tanlov huquqi faqat bir tomonlama bo‘lishi ham mumkin, ya’ni

tanlov talaba tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi va yakuniy natija ikki yoki undan ko‘p shaklda taqdim etilishi mumkin

Ba’zi qarashlarga ko‘ra, ijodiy muvaffaqiyatlar ba’zan ruhiy tangliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ammo buning aksi sifatida kreativ shaxslar aksincha - kuchli ruhiy barqarorlikka, turli nizolar va tashqi muhit omillariga nisbatan muvozanatli bo‘lishga ham ega ekani tasdiqlangan. Motivatsion yondashuvga ko‘ra kreativ shaxs yangi imkoniyatlarni izlaydi, o‘z qobiliyatlarini yangi faoliyat turlarida sinovdan o‘tkazadi, tavakkalchilikka moyil bo‘ladi. Boshqa qarashga ko‘ra esa kreativ bolalar o‘z imkoniyatlari chegarasini bilishga, o‘z fikrida qat’iy turishga intiladilar.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni aytish mumkinki, intellektual qobiliyatlarning kreativlik deb ataladigan alohida turi psixologlar tomonidan hali ham keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Kreativlik va shaxsning ijodiy muvaffaqiyatlari o‘rtasida bog‘liqlik mavjud bo‘lsa-da, uning mexanizmi to‘liq o‘rganilgan emas. Kreativlikni intellektning an’anaviy tushunchalaridan to‘liq ajratish ham mumkin emas.

Kreativlikni o‘rganishda ilk testlar J. Gilford tomonidan XX asrning 50-yillarida yaratilgan. “Janubiy Kaliforniya testlari” nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu metodika divergent fikrlashni baholashga qaratilgan 14 ta testdan iborat. Testlarning 10 tasida og‘zaki javob, qolgan 4 tasida esa tasviriy javob talab etilgan.

Verbal vazifalardan namunalar quyidagicha:

1. So‘zdan foydalanishda yengillik - berilgan tovush ishtirokida so‘z yozish (“o” – oy, ro‘mol, oddiy va hokazo).

2. Assotsiatsiyalardan foydalanishdagi yengillik - berilgan so‘zga mazmunan o‘xshash so‘zlarni topish (“og‘ir”, “zilday”, “vazmin” kabi).

Kreativ faollikni shakllantirishda o‘qituvchining shaxsiy namunasining o‘rni ham katta. O‘qituvchi o‘z ijodini ko‘rsatganda, yangiliklar kiritganda va darsni qiziqarli qilganda, bolalar ham shunday yondashuvni o‘zlashtiradi.

Bundan tashqari, fanlararo integratsiya va loyiha metodlari ham ijodiy faoliyatni rivojlantiradi. Masalan, matematika darsida tasviriy san’at elementlaridan foydalanish, ona tili darsida ekologik mavzuda hikoya yozish, texnologiya darsida kichik loyiha yaratish - o‘quvchi bir vaqtning o‘zida turli yo‘nalishlarda fikrlashni o‘rganadi va kreativlik salohiyati oshadi.

O‘quv jarayonida o‘quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning ta‟limga qay darajada ixlos qo‘yishi o‘qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi muhitning to‘g‘ri uyushtirilishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g„ayratini sarflashga undaydi. Bu o‘zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o‘quvchi o‘zini pedagogik ta’lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O‘qituvchining o‘rganilayotgan fan bo‘yicha qaysidir bir ma’lumotga aniqlik kiritish paytida o‘quvchilarga yordam so‘rayotganday murojaat qilishi

hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O‘quvchilarni o‘rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o‘qisho‘ jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti bo‘lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. O‘quvchi o‘qitish va tarbiyalash jarayonining o‘zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta‟lim jarayonida o‘quvchi bilan hamkorlik munosabatini o‘rnatish lozimligini ta‟kidlab, shunday deydi: «O‘quvchining o‘quvbiluv faoliyati nafaqat qiziqarli o‘quv materiali va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta‟lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko‘ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo‘lgan muhitda o‘quvchi o‘quv topshiriqlarini oson o‘zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko‘rgan o‘quvchi yanada murakkab bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantirish bugungi ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Kreativlik o‘quvchining mustaqil fikr yuritishi, yangilik yaratishi, noodatiy yechim topishi va o‘z fikriga ega bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi dars jarayonida erkin muhit yaratishi, savollar orqali tafakkurni faollashtirishi, o‘yin va tasviriy faoliyatdan keng foydalanishi lozim. Shuningdek, guruh ishlari, hayotiy vaziyatlar, mustaqil izlanishlar, refleksiya va loyiha ishlari orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari yanada rivojlantiriladi. Kreativ faolligi kuchli bo‘lgan o‘quvchi kelajakda tashabbuskor, o‘z fikriga ega, yangilikka intiluvchan shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan internet manbalari va adabiyotlar

1. Umumiy pedagogika - T: « Fan va texnologiya», 2018, 205-209-betlar
2. Hasanboyev J., “Pedagogika asoslari”, Toshkent.
3. 2. Yo‘ldoshev J., Xoliqberdiyev A., “Pedagogik texnologiyalar”.
4. 3. B.E. Karimova. Kreativ pedagogika. O’quv qo’llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2023
5. ZiyoNET ta’lim portali.
6. Pedagog.uz ilmiy-uslubiy maqolalar bazasi.
7. Xalq ta’limi vazirligi rasmiy metodik qo‘llanmalari.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb–hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g’risida”gi 187-sonli qarori hujjatlari.
10. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016
11. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O„zbekiston”, 2017 yil

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

БЎЛАЖАК ОФИЦЕРЛАРДА ТАНҚИДИЙ ВА СТРАТЕГИК ФИКРЛАШ КЎНИКМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА МИЛЛИЙ ТАЖРИБАЛАР

Турахужаев Ориф Сирожидинович
Ўзбекистон Республикаси ҳарбий хавфсизлик ва мудофаа университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Мақолада бўлажак офицерларда танқидий ва стратегик фикрлаш кўникмасини ривожлантиришда миллий тажрибаларнинг ўрни ва аҳамияти ёритилган. Муаллиф ҳарбий таълим тизимида миллий қадриятлар, маънавий мерос ва замонавий педагогик технологияларни уйғун қўллаш орқали офицер номзодларида таҳлилчанлик, оқилона қарор қабул қилиш, истиқболни белгилаш ва масъулиятли етакчилик қобилиятларини шакллантириш жараёнини таҳлил қилади. Мақолада амалий машғулотлар, реал вазиятли симуляциялар, кейс-методлар ҳамда ахлоқий-тарбиявий ишлар орқали фаол фикрлаш муҳитини яратиш йўллари асослаб берилган. Шунингдек, миллий тажрибадаги самарали усуллар ва уларнинг замонавий талабларга мослаштириш имкониятлари кўрсатилган.

Калит сўзлар: танқидий фикрлаш, стратегик фикрлаш, миллий тажриба, ҳарбий таълим, офицер тайёргарлиги, фаол фикрлаш муҳити, кейс-метод, симуляция, маънавий мерос, масъулиятли етакчилик.

Аннотация. В статье раскрывается роль и значение национального опыта в развитии навыков критического и стратегического мышления у будущих офицеров. Автор анализирует процесс формирования у кандидатов в офицеры аналитического мышления, способности принимать взвешенные решения, определять перспективу и проявлять ответственное лидерство посредством гармоничного сочетания национальных ценностей, духовного наследия и современных педагогических технологий в системе военного образования. В статье обоснованы пути создания активной мыслительной среды через практические занятия, реалистичные ситуационные симуляции, кейс-методы, а также морально-воспитательную работу. Кроме того, показаны эффективные методы, применяемые в национальной практике, и возможности их адаптации к современным требованиям.

Ключевые слова: критическое мышление; стратегическое мышление; национальный опыт; военное образование; подготовка офицеров; активная мыслительная среда; кейс-метод; симуляция; духовное наследие; ответственное лидерство.

Abstract. The article highlights the role and significance of national experience in developing critical and strategic thinking skills among future officers. The author analyzes the process of cultivating analytical thinking, rational decision-making, foresight, and responsible leadership in officer candidates through the harmonious integration of national values, spiritual heritage, and modern pedagogical technologies within the military education system. The study substantiates the creation of an active thinking environment through practical exercises, realistic situational simulations, case methods, and moral-educational activities. Furthermore, it presents effective methods derived from national practice and explores their potential adaptation to contemporary requirements.

Keywords: critical thinking; strategic thinking; national experience; military education; officer training; active thinking environment; case method; simulation; spiritual heritage; responsible leadership.

Кириш.Замонавий ҳарбий таълим тизимида бўлажак офицерларни тайёрлаш жараёни фақат назарий билимлар ва амалий кўникмалар билан чекланмай, балки уларнинг танқидий ва стратегик фикрлаш салоҳиятини ривожлантиришни ҳам талаб этади. Миллий тажрибалар шуни кўрсатадики, ҳарбий кадрларда вазиятни таҳлил қилиш, муаммони чуқур англаш, оқилона қарор қабул қилиш ва истиқболни тўғри белгилаш қобилияти уларнинг касбий фаолияти самарадорлигини белгилайди. Шу боис, Ўзбекистон ҳарбий таълим амалиётида миллий қадриятлар, маънавий мерос ва замонавий педагогик технологияларни уйғун қўллаш орқали танқидий ва стратегик фикрлаш кўникмаларини шакллантириш устувор вазифа сифатида белгиланган. [1; 18]

Мустақилликдан сўнг Ўзбекистонда миллий армияни шакллантириш, унинг кадрлар базасини мустаҳкамлаш ва замонавий талабларга мос ҳарбий таълим тизимини йўлга қўйишга катта эътибор қаратилди. Айниқса, сўнгги йилларда ҳарбий кадрлар тайёрлаш жараёнида замонавий педагогик технологиялар, инновацион таълим шакллари ва модулли ўқитиш тизимлари босқичма-босқич жорий этилмоқда. Шунга қарамасдан, танқидий ва стратегик фикрлашни ривожлантиришга йўналтирилган мақсадли ёндашувларнинг етарлича тизимлашмагани, аксарият машғулотларда билимни ўзлаштиришга эмас, уни қайта ишлаш ва таҳлил қилишга эътибор камлиги кузатилмоқда. Шу боис, миллий ҳарбий таълимни такомиллаштиришда илғор халқаро тажриба билан уйғунлашган ҳолда, фикрлаш қобилиятини ривожлантирувчи инновацион моделларни жорий этиш долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида ҳарбий таълим тизимини ислоҳ қилиш жараёнида танқидий ва стратегик фикрлашни ривожлантиришга йўналтирилган бир қатор муҳим чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Айниқса, Президент қарорлари ва Мудофаа вазирлигининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларида ҳарбий кадрларда мустақил, таҳлилчан ва истиқболга йўналтирилган фикрлашни шакллантириш талаб қилинаётгани таълим жараёнида когнитив механизмларни жорий этишга хизмат

қилмоқда. Шу мақсадда олий ҳарбий таълим муассасаларида фанларни модулли ташкил этиш, амалий вазифалар орқали таҳлил қобилиятини ривожлантириш, жамоавий фикрлаш муҳитини шакллантириш каби механизмлар босқичма-босқич татбиқ этилмоқда.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон ҳарбий академияларида танқидий фикрлашни шакллантиришга оид алоҳида модуллар жорий этилди. Масалан, “Таҳлил асосида қарор қабул қилиш”, “Ахборот манбаларини баҳолаш”, “Муаммоли вазиятларда ҳаракат тактикасини танлаш” каби машғулотлар таълим жараёнининг ажралмас қисмига айланмоқда. Бу каби модуллар орқали курсантлардан тайёр ечимларни ўзлаштириш эмас, балки вазиятни ўрганиш, турли манбаларни таҳлил қилиш ва ўзига хос қарор қабул қилиш кутилмоқда. [2; 4] Бу эса танқидий фикрлашни билим сифатида эмас, компетенция сифатида шакллантиришга хизмат қилади.

Олий ҳарбий таълим муассасаларида танқидий ва стратегик фикрлашни шакллантиришда бир қатор фанлар ҳал қилувчи аҳамият касб этмоқда. Жумладан, “Стратегия асослари”, “Мантиқий таҳлил ва аргументация”, “Ахборот таҳлили ва прогнозлаш”, “Хавф таҳлили ва тизимли режалаштириш” каби курслар орқали курсантларда юқори даражадаги фикрлаш салоҳиятини тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ушбу фанлар назарий билимни бериш билан бирга амалиётга қаратилган кейслар, моделлаштирилган вазиятлар ва жамоавий таҳлил машғулотлари орқали ҳам бойитилмоқда.

Ҳарбий хизматчиларда мустақил қарор қабул қилиш қобилиятини шакллантириш мақсадида ҳарбий таълим муассасаларида мунтазам равишда интерактив семинарлар, симулятив машғулотлар ва муаммоли кейс-сценарийлар ташкил этилмоқда. Бу машғулотларда курсантлар тўғридан-тўғри жавоб эмас, балки мулоҳаза, таҳлил ва далилга асосланган қарорни асослаб беришни ўрганадилар. [3; 114] Бу жараён уларда интеллектуал мустақиллик, шахсий позиция ва жавобгарлик туйғусини ривожлантиришга ёрдам беради. Ҳар бир вазият учун бир нечта ечим мавжуд бўлган шароитда фикрлаш чуқурлиги ва ечимнинг оқибатларини баҳолаш қобилияти устувор ҳисобланади.

Ҳарбий таълимда ахборот билан ишлаш маданиятини шакллантириш, манбаларни солиштириш ва ёлғон ахборотни аниқлаш каби кўникмалар ҳам танқидий фикрлашнинг ажралмас қисми сифатида ўргатилмоқда. Ахборот таҳлили фанида курсантлар турли форматдаги ахборотни таҳлил қилиш, манбаларни текшириш, мантиқий зиддиятларни аниқлаш каби машқлар орқали фикрлашни мустақил равишда бошқаришга ўргатиладилар. Бу эса ҳарбий раҳбар учун стратегик вазиятларда хато қилмасликнинг кафолатларидан бири ҳисобланади.

Умуман, Ўзбекистонда ҳарбий таълим тизими танқидий ва стратегик фикрлашни шакллантиришга йўналтирилган ислоҳотларни босқичма-босқич амалга оширмоқда. Бу жараёнда модулли фанлар, интерактив машғулотлар, симуляциялар ва ахборот

таҳлилига оид машқлар асосий ўринни эгалламоқда. Таълим мазмунида шахснинг интеллектуал салоҳиятини фаоллаштириш, уни мустақил, таҳлилчан ва жавобгар шахс сифатида тайёрлаш мақсад қилиб қўйилган. Шу жиҳатдан, миллий таълим моделида танқидий ва стратегик фикрлашни интеграция қилиш замонавий ҳарбий педагогиканинг асосий вазифаларидан биридир.

Халқаро тажрибалар, айниқса, АҚШ, Исроил, Жанубий Корея ва Туркия моделлари таҳлили асосида Ўзбекистон ҳарбий олий таълим муассасалари учун қуйидаги методик-педагогик тавсияларни таклиф қилиш мумкин. Улар курсантларда танқидий ва стратегик фикрлашни тизимли равишда шакллантиришга хизмат қилади (1-расм):

Йўналиш	Тавсия мазмуни	Амалга ошириш механизми	Кутиладиган натижалар
Методик тавсиялар	Интерфаол методлар: кейс, проблема асосида ўқитиш, дискуссия	Ўқув дастурларига интеграциялаш, машғулот сценарийлари ишлаб чиқиш	Фикрлаш фаоллиги ошади, муаммоли вазиятда ёндашув ривожланади
Методик тавсиялар	Real-time scenario simulation асосида тезкор фикрлаш машғулотлари	Симуляция платформалари ва воқеликка яқин сценарийлар тайёрлаш	Қарор қабул қилишда стратегик ёндашув шаклланади
Ташкилий тавсиялар	Танқидий ва стратегик фикрлашга оид алоҳида модуллар жорий этиш	Ўқув режага янги курслар қўшиш, модулларни аккредитациядан ўтказиш	Офисерларда танқидий фикрлаш компетенцияси тизимли шаклланади
Ташкилий тавсиялар	Симуляция методларини ўқитувчиларга ўргатиш, методик таълим	Қайта тайёрлаш курслари, тренинглар, методик материаллар	Сифатли кадрлар орқали методларни самарали қўллаш таъминланади
Мазмуний тавсиялар	Когнитив кейслар, ахлоқий муаммолар асосида ўқитиш	Ўқитувчилар учун методик йўриқномалар, кейс-база	Таълим жараёни фаоллашади, интеллектуал фикрлаш ривожланади
Мазмуний тавсиялар	Миллий қадриятлар асосида рефлексив моделлар ишлаб чиқиш	Фольклор, миллий маданият асосида моделлаштириш	Қадриятларга асосланган мулоҳазали қарор қобилияти ривожланади
Баҳолаш тизими	Портфолио, рефлексия, SWOT таҳлил асосида компетенцияни баҳолаш	Критерий асосида баҳолаш варақалари, мониторинг	Фикрлаш қобилиятини баҳолашда аниқлик ва индивидуал ёндашув таъминланади
Хулоса тавсия	Методологик	Халқаро ва миллий	Шахсий ва профессионал

	ёндашувларни уйғунлаштириб офицерда фикрлашни ривожлантириш	ёндашувлар асосида бирлаштирилган тизим	салоҳият уйғун равишда шаклланади

1-расм. Бўлажак офицерларда танқидий ва стратегик фикрлашни ривожлантириш бўйича тавсиялар

Миллий қадриятлар ҳар бир жамиятнинг тарихий тажрибаси, дунёқараши ва маънавий ўзлигини ифода этувчи маънавий асос ҳисобланади. Ўзбекистоннинг миллий анъаналарида ақл, тадбир, маслаҳат, масъулият, одоб, ҳурмат, ватанпарварлик каби тушунчалар юксак қадрланади ва одамлар ҳаётида кенг намоён бўлиб келган. Хусусан, катталар маслаҳатига таяниш, жамоа билан қарор қабул қилиш, тадбиркорлик ва вазиятни таҳлил қилиб иш тутиш миллий фикрлаш маданиятининг ажралмас қисми ҳисобланади. Бу хусусиятлар танқидий ва стратегик фикрлашни ривожлантиришда мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилиши мумкин. [4; 44]

Замонавий таълим методикалари аксар ҳолларда Ғарб таълим моделларига асосланган ҳолда шаклланади. Лекин ҳар қандай инновацион ёндашув миллий психология, анъаналар ва маданий муҳит билан уйғунлаштирилмаса, унинг самарадорлиги пасайиши мумкин. Шу сабабли таълим жараёнида танқидий ва стратегик фикрлашни ривожлантиришда миллий менталитетга, маданий ҳусусиятларга, жамиятнинг маънавий қадриятларига мослашган моделларни қўллаш муҳим аҳамият касб этади. Бу эса ўқувчида ички мотивация, маънавий масъулият ва мулоҳазали ёндашувни кучайтиради.

Стратегик фикрлаш жараёнида маслаҳат ва жамоавий қарор қабул қилиш анъаналари асос бўлиб хизмат қилиши мумкин. Миллий анъаналаримизда ёшлар катталардан маслаҳат сўраб, турли ёндашувларни эшитиб, кейин қарор қабул қилишга одатланган. [4; 48] Бу жараён, аслида, “фактларни йиғиш – таҳлил қилиш – баҳолаш – хулоса чиқариш” мантиғининг маънавий шаклидир. Шундай анъаналарни замонавий фикрлаш моделлари билан уйғунлаштириш орқали талабаларни миллий руҳда, бироқ замонавий стратегик тафаккур соҳиби этиб тарбиялаш мумкин.

Инновацион методикаларда кўп жиҳатдан якка фикрга асосланган қарор қабул қилиш тарғиб этилади. Лекин миллий анъаналарда жамоа билан маслаҳатлашган ҳолда ечим топиш одат тусига кирган. Бу анъанани “тўғри фикрни топиш” эмас, балки “мулоҳазали ечимга келиш” жараёни сифатида қайта шарҳлаш мумкин. Бундай ёндашув курсантларда нафақат интеллектуал, балки ахлоқий, ижтимоий ва маданий масъулиятни ҳам ривожлантиради. Яъни стратегик фикрлаш шахсий мустақил қарор эмас, балки жамоавий аҳамиятни ҳисобга олган ечим сифатида шакллантирилади.

Таълим жараёнида “дўстона мунозара”, “тактик масалаларда маслаҳатлашув”, “маҳалла анжуманлари” каби миллий ижтимоий институтлар форматидаги методикаларни кейс, дебат, симуляция машғулотлари билан уйғунлаштириш мумкин.

[5; 58] Масалан, курсантларга мураккаб ҳарбий-ижтимоий вазиятдаги кейс берилиб, уни жамоа ичида муҳокама қилиши, етакчи шахс уни хулосалай олиши талаб этилади. Бу орқали ҳам мулоҳазали қарор, ҳам жамоавий масъулият, ҳам шахсий етакчилик салоҳиятини ривожлантириш мумкин.

Умуман, танқидий ва стратегик фикрлашни ривожлантиришда инновацион методикаларни миллий анъаналар ва қадриятлар билан уйғунлаштириш таълимнинг самарадорлигини янада оширади. Бу нафақат замонавий билим, балки миллий ғоялар, маънавий масъулият ва ижтимоий тафаккурни ҳам сингдирувчи комплекс ёндашув бўлади. Бундай интеграция офицерларда фақат фикрлашни эмас, балки миллий идентиклик ва интеллектуал мустақилликни ҳам мустаҳкамлайди.

Замонавий ҳарбий таълим тизимида фикрлаш фаоллигини ривожлантириш нафақат билим беришнинг, балки шахсий етукликни тарбиялашнинг ҳам муҳим мезони сифатида қаралмоқда. Хорижий давлатлар: АҚШ, Исроил, Жанубий Корея, Туркия каби мамлакатлар тажрибасида фикрлашнинг танқидий ва стратегик шаклларини шакллантириш ҳарбий кадрлар тайёргарлигининг ажралмас қисми сифатида қўлланилмоқда. Улардаги муваффақиятли тажрибалар ҳарбий хизматчиларнинг мустақил фикр юритиш, тезкор қарор қабул қилиш ва вазиятни тизимли таҳлил этиш қобилиятини ривожлантириш орқали аниқ самара бераётганини кўрсатади.

Ўзбекистонда ҳам ҳарбий таълимни ислоҳ қилиш жараёнида фикрлаш компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган модуллар, янги фанлар ва интерфаол машғулотлар жорий этилмоқда. Миллий қадриятлар: маслаҳат, жамоавий фикрлаш, масъулият, тўғри қарор қабул қилиш анъаналари замонавий методикалар билан уйғунлаштирилганда, бу жараён янада самарали кечиши мумкин. Таълимда интеллектуал салоҳият билан бир қаторда шахсий фазилатларни ҳам уйғун ривожлантириш мукаммал офицер шахсини вояга етказишнинг асосий шарти ҳисобланади. [6; 17]

Танқидий фикрлаш шахсни таҳлилчи, мулоҳазали ва далилга асосланган қарор қабул қиладиган мутахассис сифатида шакллантирса, стратегик фикрлаш унга истиқболни кўра олиш, вазиятни прогнозлаш ва стратегик ҳаракат йўналишини белгилаш қобилиятини беради. Бу икки турдаги фикрлашни уйғун шаклда тарбиялаш глобал етуклик талабларига тўлиқ жавоб беради. Шу нуқтаи назардан, ҳарбий таълимда танқидий ва стратегик фикрлашни интеграциялаштирган ҳолда қарор қабул қилиш қобилиятини шахсий масъулият, ахлоқий меъёрлар ва миллий манфаатлар билан уйғунлаштириш зарур.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, хорижий тажриба ва миллий ёндашувларнинг синтези ҳарбий кадрларни нафақат билимли, балки теран фикрлайдиган, маънавий етук, масъулиятли ва мустаҳкам шахс сифатида тарбиялашга хизмат қилади. Танқидий ва стратегик фикрлашни шакллантириш XXI асрнинг глобал

мураккаб шароитида барқарор раҳбарлик салоҳиятини таъминловчи зарур шартлардан бири бўлиб, уларни методологик, психологиявий ва ахлоқий жиҳатдан уйғун ҳолда шакллантириш бугунги куннинг долзарб вазифасидир. [7; 23] Хорижий тажриба ва миллий ёндашувларнинг уйғунлашуви ҳарбий кадрлар тайёргарлигида интеллектуал салоҳият билан шахсий етукликни бир вақтнинг ўзида ривожлантириш имконини яратади. Танқидий ва стратегик фикрлашни шакллантириш фақат билим бериш эмас, балки вазиятни таҳлил қилиш, оқибатни прогнозлаш, жавобгар қарор қабул қилиш ва миллий қадриятлар асосида етакчи шахс сифатида шаклланишга хизмат қилади. Шу жиҳатдан, замонавий ҳарбий таълимда фикрлаш қобилиятини комплекс равишда ривожлантириш глобал рақобатда барқарорлик ва самарадорликка эришишнинг асосий шарти ҳисобланади.

Бўлажак офицерларда танқидий ва стратегик фикрлаш кўникмасини ривожлантириш миллий ҳарбий таълимнинг мустаҳкам пойдевори ва хавфсизлик салоҳиятини таъминлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Миллий тажрибалар шуни тасдиқлайдики, ана шу жараёнда маънавий-ахлоқий тарбия, мустақил таҳлил қилишга йўналтирилган ўқув машғулотлари ва реал вазиятли симуляциялар самарали натижа беради. Бу эса офицер номзодларини тезкор, далилга асосланган ва стратегик мақсадга йўналтирилган қарорлар қабул қила оладиган, юқори масъулиятли ва замонавий талабларга жавоб берадиган етакчи шахс сифатида тайёрлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Эшнаев Н.Ж. Ўзбекистон Республикасида профессионал ҳарбий кадрларни тайёрлашнинг ижтимоий-фалсафий асослари: дисс... фал. фан. номзоди: 09.00.11 / Тошкент, 2008. – Б. 24.
2. Ахроров С.Ю. Ҳарбий хизматчилар шахсида девиант хулқ намоён бўлишининг ижтимоий хусусиятлари: автореф.... соц. фан. номзоди: 02.00.01 / Тошкент, 2008. – Б. 3-4.
3. Халилов Ш.Х. Тафаккур маданияти ва маърифий жараёнлар. – Тошкент: Фан, 2021. – Б. 114.
4. Брунер Ж. Психология познания. – М.: Прогресс, 2007. – С. 44.
5. Мирзаев А.Т. Таълимда инновацион ёндашувлар. – Т.: Университет, 2020. – Б. 58.
6. Блум Б. Таксономия учебных целей. – М.: Педагогика, 2006. – С. 17.
7. Дьюи Дж. *Как мы думаем.* – М.: Педагогика, 2018. – С. 23.
8. Ennis R.H. *Critical Thinking.* – Upper Saddle River: Prentice Hall, 2016.
9. Флавелл Дж. Метапознание и когнитивный мониторинг // Психология развития. – М.: Смысл, 2002. – С. 51.
10. Вульф Л. Метакогнитивные стратегии в обучении. – М.: Академия, 2006. – С. 67.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ORCID 0000-0003-4803-8545

TIBBIY TA’LIMDA OLIYGOHLARDA TALABALARGA INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA VR, AR VA 3D TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Farg‘ona jamoat salomatligi
tibbiyot instituti o‘qituvchisi
Qaxorova Tursinoy Ulug‘bek qizi
tursunoysolihabonu@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy ta’lim jarayonida ingliz tili o‘qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalar – Virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va 3D modellashtirishdan foydalanish metodikasi tahlil qilingan. Ushbu texnologiyalar talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, tibbiy atamalarni tezroq o‘zlashtirish hamda amaliy mashg‘ulotlarda bilimlarni qo‘llash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida ilmiy xulosalar berilgan va ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Tibbiy ta’lim, ingliz tili, virtual reallik, kengaytirilgan reallik, 3D texnologiyalar, metodika, innovatsion ta’lim.

Аннотация.В статье рассматривается методика использования современных цифровых технологий – виртуальной реальности (VR), дополненной реальности (AR) и 3D моделирования – в процессе преподавания английского языка студентам медицинских вузов. Данные технологии способствуют формированию коммуникативной компетенции, ускоренному усвоению медицинской терминологии и повышению эффективности практических занятий. В работе приведены научные выводы на основе зарубежных и отечественных исследований, а также предложены рекомендации по внедрению инновационных технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: Медицинское образование, английский язык, виртуальная реальность, дополненная реальность, 3D технологии, методика, инновационное обучение.

Abstract. This article analyzes the methodology of applying modern digital technologies – Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR), and 3D modeling – in teaching English to medical university students. These technologies play a significant role in enhancing communicative competence, accelerating the acquisition of medical terminology,

and improving the effectiveness of practical training. The paper provides scientific conclusions based on foreign and local research and proposes recommendations for the implementation of innovative technologies in the educational process.

Keywords: Medical education, English language, virtual reality, augmented reality, 3D technologies, methodology, innovative learning.

Kirish. So‘nggi yillarda tibbiy ta’limda raqamli texnologiyalar, xususan VR (Virtual Reality), AR (Augmented Reality) va 3D modellashtirish vositalari asosida o‘qitishning ahamiyati ortib bormoqda. Tibbiyot sohasida o‘qitiladigan ingliz tili kurslari esa talabalardan nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni, balki ilmiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llash, klinik vaziyatlarda muloqot qilish, tibbiy hujjatlarni ingliz tilida o‘qish kabi kompleks kompetensiyalarni talab qiladi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonda eng qulay va samarali vositalardan biri bo‘lib bormoqda. Dunyo olimlari, jumladan D. Jonson, B. Reeves, D. Dewey va J. Mayer o‘z tadqiqotlarida immersiv texnologiyalar talaba ongini faollashtirish, bilimni mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ta’kidlaydi[142]. Shuningdek, tibbiy ingliz tilini o‘qitishda an’anaviy metodlar ko‘pincha talabaning klinik fikrlashini to‘liq rivojlantira olmaydi, chunki til o‘rganish tibbiy muhitda real vaziyatlarga ulanmay qoladi. Shu sababli VR/AR/3D texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-pedagogik masalalaridan biridir. Shu sababdan, biz quyida tibbiy oliygohlarda ingliz tilini o‘rgatish jarayoniga VR, AR va 3D texnologiyalarini metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan ma’lumotlarni tahlil qilamiz.

Ushbu tadqiqot tibbiy ta’lim jarayonida ingliz tilini o‘qitishda VR, AR va 3D texnologiyalarining samaradorligini aniqlash hamda ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot bir nechta ilmiy-pedagogik metodlar uyg‘unligida amalga oshirildi. Avvalo, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi yordamida raqamli pedagogika, immersiv texnologiyalar va tibbiy ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar chuqur o‘rganildi. Ushbu jarayonda VR/AR/3D texnologiyalariga oid xalqaro ilmiy maqolalar, Scopus bazasidagi tadqiqotlar, UNESCOning raqamli ta’lim bo‘yicha metodik tavsiyalari, EdTech sohasidagi meta-tahlillar va O‘zbekiston oliy ta’limidagi normativ-me’yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Bu bosqich texnologiyalarni tibbiy ta’limga qo‘llash jarayonidagi global tendensiyalarni aniqlashga yordam berdi. Keyingi bosqichda kuzatuv va diagnostika metodlari qo‘llanildi. Tibbiy ingliz tili o‘qitiladigan amaldagi dars jarayonlari kuzatilib, o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan usullar, texnologik vositalar, raqamli resurslardan foydalanish darajasi, talabalar faoliyatining xususiyatlari o‘rganildi. Kuzatuv jarayoni orqali VR va AR texnologiyalarining amaliy joriy etilishi uchun mavjud sharoitlar, ehtiyojlar va mavjud pedagogik bo‘shliqlar aniqlandi.

[42] Dewey J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, virtual haqiqat (VR) texnologiyalari tibbiyot yo‘nalishidagi talabalar tomonidan ingliz tilini, ayniqsa professional terminologiyani o‘zlashtirish jarayonida yuqori samaradorlikka ega. Dastlab VR asosidagi anatomik dasturlar orqali inglizcha terminlarni idrok etish jarayoni o‘rganildi va talabalar uchun immersiv muhitning katta afzalliklari qayd etildi. “Human Anatomy VR” kabi platformalar yordamida talabalarga cardiovascular system, respiratory tract, muscular system kabi murakkab anatomik bo‘limlar 3D formatda ingliz tilida taqdim etildi. Talabalar ko‘rish, eshitish va harakat vositalari birgalikda ishlagan holatdagi bunday o‘qitish jarayonini ancha oson qabul qildilar. Tadqiqot davomida VR muhitida klinik muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish ham sinovdan o‘tkazildi. “Virtual patient simulation” modellarida talabalar ingliz tilida anamnez yig‘ish, shikoyatlarni aniqlash (complaints), kasallik tarixini to‘ldirish (case history) va klinik savollar berish kabi amaliy topshiriqlarni bajardilar. Bu jarayon talabalarning ingliz tilida erkin muloqot qilishini sezilarli darajada kuchaytirgani kuzatildi.

Jonson va Li (2021) ta’kidlaganidek, VR texnologiyasi “til va kontekstning birlashgan, uzluksiz tajribasini yaratadi”, bu esa o‘quvchilarda tilni uzoq muddatli xotirada mustahkamlaydi. Tadqiqotimizda ham shu fikr o‘z tasdig‘ini topdi[43].

Kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining ta’lim jarayoniga qo‘llanishi ayniqsa terminlarni yodlash va vizual idrok etishni osonlashtirgani aniqlandi. “AR Anatomy Flashcards” kartochkalari yordamida talabalarda skull, radius, femur, trachea, alveoli kabi murakkab terminlarni 3D formatda ko‘rish imkoniyati yaratildi. AR texnologiyasining asosiy ustunligi shundaki, talaba abstrakt tushunchani ko‘rinarli tasvir bilan bog‘laydi va bu yodlash jarayonini tezlashtiradi. O‘tkazilgan anketa natijalariga ko‘ra, talabalarning 72 foizi AR modellar yordamida o‘rganilgan terminlar esda uzoq vaqt saqlanishini bildirgan. So‘rovnoma natijalariga asoslanib, AR orqali o‘qitilgan terminlar odatiy taqdimot yoki ma’ruza asosida o‘rgatilgan terminlarga nisbatan 2,3 baravar tez o‘zlashtirilgani qayd etildi. Shu bilan birga, AR texnologiyasi klinik vazifalarni ingliz tilida bajarishda ham muhim yengillik yaratdi — talabalar organ va tizimlar nomini to‘g‘ri qo‘llab, tibbiy holatlarni ingliz tilida tasvirlashda yanada faol bo‘ldilar.

Tibbiy ingliz tili bo‘yicha darslarda 3D modellashtirish texnologiyalari ham samarali natijalarni ko‘rsatdi. Talabalar 3D organ modellarini ko‘rish bilan cheklanmay, ular bilan bevosita ishlash, qismlarini aylantirish, kattalashtirish, kesimlarni ko‘rish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu jarayon inglizcha anatomiya terminlarini chuqur o‘zlashtirishga yordam berdi. 3D texnologiyalarning yana bir muhim afzalligi — talabaning o‘zi anatomik model yaratishi yoki mavjud modelga o‘zgartirish kiritishidir. Bunday ijodiy-faol metod orqali talaba organ nomlarini, funksiyasini va ularning inglizcha atamalarini amaliy faoliyat asosida mustahkamlaydi.

[43] Johnson, M., & Lee, A. (2021). VR-Based Language Learning in Medical Education. *Journal of Medical Pedagogy*, 14(2), 118–129.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 3D modellar bilan ishlagan talabalar murakkab anatomik tizimlarni inglizcha ifodalashda, strukturaviy qismlarni bir-biriga bog‘lab tushuntirishda va inglizcha klinik izoh berishda ancha faol bo‘ldilar. Bu texnologiya tibbiy ingliz tilida “vizual fikrlash”ni shakllantirishga xizmat qilgani kuzatildi.

Mayerning (2009) multimodal ta’lim nazariyasiga ko‘ra, matn + rasm + harakatli vizual materialning birgalikda berilishi bilimning 60–70% samarali o‘zlashtirilishiga olib keladi[44].

2.4. Talabalarning texnologiyalarga nisbatan munosabati

O’tkazilgan anketa natijalariga ko‘ra: **Savol**	**“Ha” (%)**	**“Yo‘q” (%)**
VR orqali o‘qitish materialni yaxshi tushunishga yordam berdimi?	88%	12%
AR texnologiyalari terminlarni eslab qolishni osonlashtirdimi?	91%	9%
3D modellar an’anaviy darslarga nisbatan aniqroq tasavvur berdi?	94%	6%

Bu natijalar VR/AR/3D texnologiyalarining yuqori samaradorligini ko‘rsatadi.

VR/AR/3D texnologiyalarining pedagogik ustunliklari: tadqiqot davomida olingan natijalar immersive texnologiyalarning tibbiy ta’lim jarayonidagi afzalliklarini yaqqol ko‘rsatdi. Tibbiyot yo‘nalishida ingliz tili o‘qitish, an’anaviy dars metodlari bilan cheklangan holatda talabadan katta hajmdagi murakkab terminologiyani yodlashni talab qiladi. Bunday jarayon ko‘pincha talabaning qiziqishi pasayishiga va o‘quv jarayonining bir xillashuviga olib keladi. VR, AR va 3D modellar esa bu jarayonni jonlantirib, ingliz tilidagi murakkab terminlarni ko‘rgazmali, kontekstli va interaktiv muhitda o‘rganishga imkon yaratdi.

Immersiv texnologiyalar taqdim etgan asosiy pedagogik ustunliklar quyidagilar bo‘ldi: Fanlararo integratsiya (CLIL): ***VR va AR texnologiyalariga asoslangan darslar CLIL*** (Content and Language Integrated Learning) modelini amalda qo‘llash imkonini berdi. Talabalar bir vaqtning o‘zida ham tibbiy bilimlarni, ham ingliz tilidagi terminlarni o‘zlashtirdilar. Mohon (2020) ta’kidlaganidek, “CLIL yuqori kognitiv darajadagi o‘quv topshiriqlarni qo‘llab, talabalarning ikki yo‘nalishda ham kompetensiyasini oshiradi”[45].

Motivatsiyani oshirish: Raqamli texnologiyalar talabalar uchun tabiatan jozibador bo‘lib, darsni “his qilish” imkonini yaratadi. VR simulyatsiyalarda ishtirok etgan talabalar o‘zlarini real klinik muhitda sezganliklari tufayli ingliz tilidagi muloqotga faolroq kirishdilar. ***Vizuallashtirilgan terminologiya***: Ingliz tilidagi murakkab tibbiy atamalar — *larynx, alveoli,*

[44] Mayer, R. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
[45] Reeves, B. (2020). Immersive Technologies in Higher Medical Education. *International Journal of EdTech*, 7(3), 41–55.

cerebrospinal fluid, pelvic girdle kabi tushunchalar 3D modellar orqali talabaning ongida yanada tez va mustahkam shakllanadi. Pedro va Kimura (2022) fikricha, vizual asoslangan o‘qitish modeli kognitiv yukni kamaytiradi va terminologiyani o‘zlashtirish tezligini oshiradi 666. ***Klinik muloqot muhitini simulyatsiya qilish:*** VR orqali yaratilgan “virtual bemorlar” talabalarning ingliz tilida anamnez yig‘ish, dard haqida so‘rash, shikoyatlarni qayd etish, differensial tashxis jarayonida inglizcha iboralarni qo‘llash ko‘nikmalarini kuchaytirdi. Reeves (2020) bu borada shunday deydi: *“Immersive learning environments create safe, controlled clinical spaces for practice and professional readiness”*.

Mustaqil ta’limning kengayishi: VR/AR ilovalari 24/7 rejimda ishlashi sababli talaba o‘quv jarayonini mustaqil davom ettirishi, organlar tuzilishini yoki klinik holatlarni ingliz tilida qayta-qayta ko‘rishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan modelga yaqinlashtiradi.

Eslab qolishning ortishi: Tajriba natijalarida talabalar VR orqali o‘rganilgan terminlarni an’anaviy darsga qaraganda 32–47% tezroq eslab qolganini ta’kidladilar. Bu Mayerning (2009) multimodallik nazariyasi bilan uyg‘un: *“O‘quvchi ma’lumotni ko‘rish va eshitish orqali birgalikda qabul qilganda, xotira izlari mustahkamroq shakllanadi”*.

Metodik takomillashtirish bo‘yicha takliflar: Olingan natijalar asosida immersiv texnologiyalarni ingliz tili ta’limiga samarali integratsiya qilish bo‘yicha quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi: CLIL yondashuvi asosida integratsiyalashgan o‘quv modellarini yaratish

Darslar faqat ingliz tilini o‘qitish emas, balki tibbiy mazmunni ham qamrab olishi kerak.

– VR-da “Respiratory system exploration”

– AR kartalarda “Muscular system terminology lab”

– 3D modellashtirishda “Build your own organ model”

Bu model til va fanning tabiiy integratsiyasini ta’minlaydi.

VR asosida klinik vaziyatlar bo‘yicha inglizcha “case-study”lar ishlab chiqish: *Chest pain simulation, Emergency room dialogue, Pediatric examination scenario* kabi virtual holatlar yaratish talabalar uchun real klinik muhitni imitatsiya qiladi. Bu jarayon ularni xalqaro standartdagi muloqotga tayyorlaydi.

AR kartalar yordamida terminologiya laboratoriyalarini tashkil etish

AR kartalar an’anaviy “flashcard”larni zamonaviy shaklga olib kiradi. Talabaga organlar tuzilishini inglizcha atamalar bilan birga ko‘rsatish lingvistik va vizual xotirani kuchaytiradi. 3D modellashtirish bo‘yicha talabalar uchun mini-loyihalar joriy qilish. Talabalarga o‘zlari 3D dastur yordamida organ modelini yaratish, uni ingliz tilida taqdim etish, funksiyalarini izohlash kabi vazifalar berilishi kompetensiyalarni kompleks shakllantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, immersiv texnologiyalarni samarali joriy etishning asosiy shartlaridan biri — o‘qituvchilarning raqamli pedagogika bo‘yicha tayyorgarligi yuqori bo‘lishidir. Shu bois muntazam tashkil etiladigan malaka oshirish treninglari o‘qituvchilarga

VR, AR va 3D platformalar bilan ishlash jarayonini chuqurroq tushunish, ularni dars jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish, shuningdek yangi texnologiyalarni metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llash imkonini beradi. Ushbu treninglar quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oshirishi maqsadga muvofiq: VR/AR ilovalarning metodik qo‘llanilishi. Trening davomida o‘qituvchilar immersive texnologiyalar qanday didaktik vazifalarni bajarishi, virtual muhitda mashqlarni qanday loyihalash, terminologiyani vizual ko‘rgazmali misollar bilan qanday uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Masalan, VR anatomik modellar asosida dars ssenariylari yaratish, AR kartalar bilan real vaqt rejimida inglizcha terminlarni mustahkamlash bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazilishi mumkin. CLIL asosida dars loyihalash.O‘qituvchilar immersive vositalardan foydalanib, tibbiy mazmun va ingliz tilini birlashtirgan integratsiyalashgan dars modellarini yaratishni o‘rganadilar. Bu jarayon kontent (anatomik yoki klinik bilim) va til (ingliz tilidagi muloqot)ning uyg‘un holda berilishini talab etadi. Treninglar CLIL yondashuvida darsning kirish qismi, asosiy bosqichi va baholash faoliyatini qanday tashkil qilishni ko‘rsatib beradi. VR asosida baholash mezonlari.Virtual muhitda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar uchun maxsus baholash mezonlari ishlab chiqilishi kerak: talabalar terminlarni to‘g‘ri qo‘llashi, klinik muloqot sifatini oshirishi, VR simulyatsiya jarayonida xatti-harakatlarning to‘g‘riligini baholash bo‘yicha rubrikalar ishlab chiqiladi. Treninglar o‘qituvchilarni ushbu rubrikalardan foydalanishga o‘rgatadi. 3D modellar bilan interaktiv mashqlar yaratish.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ilmiy tadqiqot VR, AR va 3D texnologiyalari tibbiy ta’limda ingliz tilini o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Immersiv texnologiyalar talabalarda tibbiy terminologiya, klinik muloqot, anatomiya lug‘ati, tashxis qo‘yish bo‘yicha inglizcha ko‘nikmalarni chuqur shakllantiradi. Shu bilan birga, texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, maxsus metodik yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, VR/AR/3D texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish orqali: talabalarning o‘quv faolligi 2–3 baravar ortadi, terminologik kompetensiya chuqurlashadi, tibbiy ingliz tilini amaliy qo‘llash darajasi oshadi, o‘quv jarayoni ko‘proq klinik simulyatsiyalarga yo‘naltiriladi. Shu sababli mazkur texnologiyalarni tibbiy ingliz tilini o‘qitish metodikasiga tizimli integratsiya qilish hozirgi ta’lim rivojining muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Adabiyotlar

1. Mayer, R. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2009.
2. Dewey, J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
3. Johnson, M., Lee, A. VR-Based Language Learning in Medical Education. *Journal of Medical Pedagogy*, 2021.
4. Reeves, B. Immersive Technologies in Higher Medical Education. *International Journal of EdTech*, 2020.
5. Azuma, R. A Survey of Augmented Reality. *Presence*, 1997.

6. Radianti, J., Majchrzak, T. A. et al. A Systematic Review of VR in Higher Education. *Computers & Education*, 2020.

7. Wang, F., Burton, J. Educational Implications of 3D Technologies. *Journal of Digital Learning*, 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

JAHON VA O’ZBEKISTON TAJRIBASIDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI

Andijon davlat pedagogika instituti
maktabgacha ta’lim kafedrasi o’qituvchisi
Saydullayeva Barchinoy Abduxalil qizi
barchinoysaydullayeva33@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon va O‘zbekiston tajribasi asosida maktabgacha ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda ilg‘or mamlakatlarda ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy yondashuvlar, pedagog kadrlarni tayyorlashning zamonaviy modellari va ularning amaliyotda qo‘llanish mexanizmlari o‘rganilgan. Raqamli kompetensiya, raqamli savodxonlik, raqamli madaniyat va raqamli pedagogika tushunchalari zamonaviy ta’limda tarbiyachi shaxsining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, raqamli transformatsiya, raqamli kompetensiya, raqamli pedagogika, raqamli savodxonlik, raqamli madaniyat, raqamli muhit, raqamli ta’lim resurslari, innovatsion ta’lim.

KIRISH. So‘nggi o‘n yilliklarda ta’lim tizimi insoniyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borayotgan raqamli texnologiyalar ta’sirida keskin o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Bu jarayon ayniqsa maktabgacha ta’lim bosqichida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki bolalik davrida o‘rganiladigan bilim, ko‘nikma va qadriyatlar kelajakdagi shaxsiy va kasbiy rivojlanishning poydevorini tashkil etadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida tarbiyachilarning roli o‘zgarib, ular endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki raqamli muhitda ishlay oluvchi, axborot oqimini tahlil qila oluvchi, interaktiv texnologiyalar yordamida ijodiy o‘quv jarayonini tashkil etuvchi mutaxassisga aylanmoqda. Shu bois, bugungi kunda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish pedagog tayyorgarligining ajralmas qismiga aylangan.

O‘zbekiston ham mazkur global jarayonda faol ishtirok etmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida ta’lim muassasalarini raqamlashtirish, o‘qituvchilarning AKT ko‘nikmalarini rivojlantirish, onlayn platformalarni yaratish va raqamli madaniyatni shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotda maktabgacha ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonini har tomonlama tahlil qilish uchun qiyosiy, tizimli va kontent-tahlil yondashuvlari asos qilib olindi.

Qiyosiy tahlil yordamida AQSh, Kanada, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Finlyandiya, Rossiya, Qozog‘iston va Ozarbayjon tajribalari o‘rganildi. Har bir mamlakatda raqamli ta’lim siyosatining o‘ziga xosligi, pedagoglarni tayyorlashdagi yondashuvlar va ularning milliy strategiyalardagi o‘rni tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv orqali raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar — texnologik infratuzilma, pedagogik metodika, raqamli resurslar sifati va ularni qo‘llash mexanizmlari — o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi.

Kontent-tahlilda raqamli ta’limga oid xalqaro model va konsepsiyalar (TPACK, DigCompEdu, ISTE Standards, Smart Teacher) hamda O‘zbekiston ta’lim siyosatidagi raqamlashtirish dasturlari tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar ta’lim tizimini raqamli o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan tahlil etish, ilg‘or amaliyotlarni aniqlash va ularni milliy sharoitga moslashtirish imkonini berdi. Xususan, O‘zbekiston sharoitida ham oxirgi yillarda raqamli transformatsiyaning ta’lim tizimiga kirib kelishi bilan bog‘liq holda, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tashkilotlari uchun raqamli kompetent pedagoglar tayyorlashning milliy mexanizmlarini shakllantirish masalasi dolzarb mavzuga aylangan. Bu borada respublika miqyosida bir qancha loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash” dasturlari doirasida raqamli texnologiyalar asosida dars berish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar, modullar, elektron platformalar ishlab chiqilmoqda. Toshkent davlat pedagogika universiteti, Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti, TDYU, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti kabi ilmiy tashkilotlarda bu boradagi ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Hozirgi bosqichda butun dunyo, jumladan MDH mamlakatlari va O‘zbekiston ilmiy hamjamiyati e’tiborini pedagog kadrlar tayyorlashning yangi — raqamli kompetensiyalarga asoslangan modelini yaratishga qaratmoqda. Bu modelda pedagog faqat o‘z fanining bilimdoni emas, balki raqamli texnologiyalarni ongli ravishda qo‘llay oluvchi, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini aniqlab bera oluvchi va zamonaviy texnologik vositalarni integratsiyalashtira oluvchi mutaxassis sifatida talqin qilinadi. Shu bois, zamonaviy raqamli pedagogikani tashkil etuvchi ilmiy tadqiqotlar soni va sifati yildan yilga ortib bormoqda, ularning natijalari esa xalqaro darajadagi normativ-me’yoriy hujjatlar, o‘quv dasturlar va metodik qo‘llanmalarda o‘z ifodasini topmoqda.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatdiki, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish barcha ilg‘or mamlakatlarda pedagogik tayyorgarlikning markaziy yo‘nalishiga aylangan. AQShda TPACK modeli asosida pedagog

texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarni bir butun tizim sifatida qo‘llashga o‘rgatiladi. Yevropada DigCompEdu modeli orqali raqamli kompetensiyalar bosqichma-bosqich baholanadi va rivojlantiriladi.

MDH mamlakatlarida (Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon) raqamli ta’lim jarayoni ko‘proq pedagogning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, bu davlatlarda raqamli muhitda ishlash, masofaviy o‘qitish va elektron platformalardan foydalanish bo‘yicha maxsus kurslar joriy etilgan.

O‘zbekiston sharoitida esa maktabgacha ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini internet tarmog‘iga ulash, elektron metodik platformalar yaratish, raqamli darsliklar va o‘quv resurslarini ishlab chiqish, shuningdek, pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish kurslarini tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqotda tarbiyachi tayyorlashda texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlar integratsiyasi modeli (TPACK – Technological Pedagogical Content Knowledge) asosida tarbiyachi pedagoglarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tasavvurlari va amaliyotlari tahlil etilgan. Tadqiqot mualliflari tomonidan olib borilgan sifatli kontent-tahlil metodologiyasi orqali pedagoglarning raqamli vositalardan foydalanishdagi yondashuvlari, ularda mavjud bo‘lgan texnologik kompetensiyalar va ularni darslikka integratsiyalash strategiyalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, aksariyat pedagoglar TPACK modelining asosiy tamoyillarini bilishlariga qaramay, ularni amaliyotda to‘liq va tizimli tarzda qo‘llay olmayotganliklari aniqlangan. Ayniqsa, texnologik bilim (TK) va pedagogik bilim (PK) orasidagi bog‘liqlikni anglashda farqliliklar mavjud bo‘lib, bu holat ko‘p hollarda tarbiyachilar tomonidan texnologiyani faqat vosita sifatida qabul qilinishiga olib kelgan.

Mualliflar ushbu muammoni hal qilishda tarbiyachilar uchun mo‘ljallangan TPACK asosidagi kasbiy rivojlanish dasturlarini joriy etish va ularni texnologiyalarni pedagogik maqsadlarda integratsiyalash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitish zarurligini ta’kidlaydilar. Raqamli muhitda o'qitish amaliyoti: virtual o'qitish va murabbiylik orqali bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni rivojlantirish.Journal of Technology and Teacher Education jurnalidagi maqola pandemiya sababli maktablar yopilishi paytida bo‘lajak o‘qituvchilarning klinik amaliyotini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlab chiqilgan strategiyani o‘rganadi. Strategiya virtual o'qitish, fikrlash va maqsadlarni belgilashni o'z ichiga oladi, virtual murabbiylik va tarbiyachilarning fikr-mulohazalari bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Tarbiyachilar ta'limida ijtimoiy mediadan foydalanish: raqamli texnologiyalarning ro’lini o'rganish.Kanzas universitetida taqdim etilgan dissertatsiya bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy tarmoqlardan (Twitter, Facebook, Pinterest) qanday foydalanishi va bu ularning fanni o'qitishga so'rovga asoslangan yondashuv haqidagi tasavvurlariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Tadqiqotning o‘ziga xosligi shundaki, u ko‘plab ijtimoiy media platformalaridan foydalanish va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganadi.

MUHOKAMA

Raqamli transformatsiya jarayonida maktabgacha ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar chuqur tahlil qilinar ekan, bir necha muhim jihatlar aniqlanadi.

Birinchidan, pedagog shaxsining roli tubdan o‘zgarib bormoqda. Endilikda tarbiyachi faqat o‘quv materiali yetkazuvchi emas, balki raqamli muhitda ta’lim jarayonini boshqaruvchi, bolalar faoliyatini tahlil qiluvchi va ularni raqamli savodxonlikka yo‘naltiruvchi murabbiy sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan**,** raqamli kompetensiyani rivojlantirish faqat texnik ko‘nikmalar bilan cheklanmasligi kerak. U pedagogik tafakkur, tanqidiy fikrlash, axborotni tanlash va tahlil qilish, raqamli etika va axborot xavfsizligi madaniyatini o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, ta’limning raqamli ekotizimini yaratish uchun davlat siyosati, ta’lim muassasalari infratuzilmasi va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi o‘zaro uyg‘unlikda ishlashi lozim. Bu borada xalqaro tajriba O‘zbekiston uchun muhim metodik yo‘nalish bo‘lib xizmat qilmoqda.

To‘rtinchidan, raqamli pedagogikani rivojlantirish, raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash, o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini ochish hamda ularning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash — ta’lim sifatini oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, bo‘lajak tarbiyachilarning raqamli madaniyatini shakllantirish, ularni innovatsion texnologiyalarni tanqidiy tahlil qilishga va pedagogik faoliyatda samarali qo‘llashga tayyorlash hozirgi davrning dolzarb vazifasidir.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va tarbiyachilarni tayyorlashda yangicha yondashuvlar zarur. Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish faqat texnik vositalardan foydalanishni emas, balki butun pedagogik tizimni qayta tashkil etishni, o‘qituvchi va tarbiyachining kasbiy faoliyatida yangi kompetensiyalarni shakllantirishni taqozo etadi.

Raqamli transformatsiya jarayonida pedagogning roli tubdan o‘zgarib, u endilikda faqat bilim manbai emas, balki raqamli muhitda mustaqil ishlashni biluvchi, bolalarni axborot oqimida yo‘naltira oluvchi, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishga undovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, raqamli etika va axborot madaniyatini shakllantirish zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or xorijiy mamlakatlarda tarbiyachilarni tayyorlashda raqamli kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish bo‘yicha aniq tizimlar ishlab chiqilgan. Jumladan, raqamli ta’limda metodik qo‘llanmalar, o‘qituvchilar uchun maxsus onlayn kurslar va amaliy platformalar yaratilgan. Bu tajribalar pedagogning kasbiy o‘sishini

doimiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ushbu xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli pedagogika tamoyillarini amaliyotga joriy etish orqali tarbiyachilarning o‘quv jarayonini samarali tashkil etish ko‘nikmalari rivojlanadi, bolalarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va raqamli savodxonligi oshadi. Shu bilan birga, raqamli muhitda o‘qituvchi va bola o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yangi shakllari shakllanadi, bu esa ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan va interaktiv tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Kelgusida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- ta’lim muassasalarining texnik va axborot infratuzilmasini mustahkamlash;
- pedagoglar uchun raqamli metodika bo‘yicha muntazam malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- o‘zbek tilida sifatli raqamli o‘quv kontentlarini yaratish va ularni ochiq ta’lim platformalarida joylashtirish;
- raqamli ta’limda axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va raqamli madaniyatni shakllantirishni ta’minlash.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi — bu nafaqat texnologik yangilanish, balki butun pedagogik jarayon falsafasining yangilanishidir. Raqamli kompetensiyalarga ega, zamon talablari asosida ishlay oladigan tarbiyachilarni tayyorlash O‘zbekistonning raqamli ta’lim siyosatini samarali amalga oshirish, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. European Commission. (2017). *European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu)*. Luxembourg: Publications Office of the European Union.

2. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.

3. International Society for Technology in Education (ISTE). (2018). *ISTE Standards for Educators*. Washington, DC: ISTE.

4. Nurkenova, G. (2023). Integratsiya raqamli texnologiyalari v protsesse podgotovki budushchikh vospitateley. *Karaganda University Bulletin*.

5. Gizatulina, O. (2022). Formirovanie IKT-kompetentsiy pedagogov v usloviyakh tsifrovoy transformatsii obrazovaniya. *Pedagogika i psikhologiya innovatsiy*, №4.

6. Murtazoyev, A. (2024). Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari. *Buxoro Muhandislik-Texnologiya Instituti ilmiy jurnali*, №2.

7. Sodiqova, N. (2024). O‘zbekistonda ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak ayol tarbiyachilarning kompetensiyalarini rivojlantirish. *Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti axborotnomasi*, №1.

8. Ministry for the Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan. (2020). *Raqamli O‘zbekiston – 2030* strategiyasi.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

OPTIKA FANIDAN MA’RUZA MASHG’ULOTLARINI O‘QITISHNI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Qodirova Xamidaxon Nurmuxamadovna
Andijon davlat pedagogika instituti
“Fizifa va texnoliogik ta’lim” kafedrasi
p.f.f.d. (PhD), v.b., dotsent

Annotatsiya. Maqolada optika fanidan innivatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma’ruza o‘quv mashg‘ulotini tashkil etish va mashg‘ulotni amalga oshirish bosqichlarini aniqlash, optik asboblar sinfiga doir ma’lumotlarining ko‘pligi ularni yoritib berish uchun vaqtning chegaralanganligini va optika sohasida olib borilgan yangiliklarni ta’limda aks ettirish e’tiborga olindi. O‘quv mashg‘uloti strukturasi va texnologik xaritasi interfaol texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, mazkur jarayonni samarali tashkil etish, o‘tkazish va talabalarni davlat ta’lim standarti talablarini mukammalroq o‘zlashtirishiga asos bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: optika, innovatsiya, optik asboblar, klassifikatsiya, interfaol metodlar, linzalar, ko‘zgular, mustaqil ijodiy ish.

Аннотация. В статье рассмотрена организация лекционного курса по оптике на основе инновационных педагогических технологий и этапы его реализации с учетом ограничений по времени для охвата большого объема информации о классе оптических приборов и необходимости отражения инноваций в области оптики в образовании.Структура и технологическая карта учебного занятия построены на основе интерактивных технологий, что послужит основой для эффективной организации и проведения данного процесса и лучшего усвоения обучающимися требований государрственного образовательного стандарта.

Ключевые слова: оптика, инновации, оптические приборы, классификация, интерактивные методы, линзы, зеркла, самостоятельная творческая работа.

Annatation. The article examines the organization of a lecture course on optics based on innovative pedagogical technologies and the stages of its implementation, taking into account time constraints for covering a large amount of information about the class of optical instruments and the need to reflect innovations in the field of optics in education. The structure and technological map of the lesson are built on the basis of interactive technologies, which will serve as the basis for the effective organization and implementation

of this process and better assimilation of the requirements of the state educational standart by students.

Key words: optics, innovation, optical instruments, classification, interactive methods, lenses, mirrors, independent creative work.

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar, texnik, ilmiy va maishiy asbobsozlikning rivojlanib borishi talabalardan optik asboblarning ishlash prinsiplarini, ularning kamchilik va afzalliklarini, ularda sodir bo‘layotgan fizik jarayonlar mexanizmlarini chuqurroq o‘rganishni talab etmoqda. Fizika, astronomiya, astrofizika, fizik materialshunoslik, fizik spestrokopiya shu bilan birga maishiy bilimlarsiz tasavvur qilish qiyin bo‘lib bormoqda. Bu masalalarni o‘rgatish va o‘qitish bilan bog‘liq metodik muammolarni hal etish ham katta ahamiyat kasb etmoqda [1].

Hozirgi kunda pedagogik tomonidan amaliyotda o‘quv mashg‘uloti sturukturasining turli variantlari ishlatilmoqda. Bu struktura va texnologik xaritalar na’muna tarzda berilgan bo‘lib, pedagog o‘quv mashg‘uloti mavzusi va maqsadlaridan kelib chiqib, ijodiy yondashishlari mumkin. Biz quyida yangi mavzuni bayon qilish, o‘quv mashg‘uloti strukturasini tuzishda nimalarga ahamiyat berish va qanday qilib tuzish kerakligi haqida fikr yuritamiz.

Asosiy qism.

Yangi mavzuni bayon etish o‘quv mashg‘ulotining tuzilmasi quyidagicha:

o‘quv mashg‘uloti maqsadini e’lon qilish, bunda pedagog o‘tiladigan maqsadni belgilaydi va muloqot boshlanishida e’lon qiladi [2];

talabalarning yangi mavzuni o‘rganishlarini rag‘batlantirish, pedagog qo‘ygan maqsadga talabalarning qay biri tezroq va samarador erishgan bo‘lsa, ularni rag‘batlantirish usullarini bildirishi zarur;

mavzuga oid yangi tushuncha yoki axborotlarni kichik bo‘laklarga bo‘lgan holda, bosqichma-bosqich bayon etish;

mavzuga oid asosiy tushuncha va tayanch ma’lumotlarga urg‘u berish, ularni ajratib ko‘rsatish;

yangi mavzu materiallarini mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashqlarni namoyish qilish;

talabalar tomonidan bajarilgan yangi materialni mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashqlar;

talabalarning yangi materiallarni dastlabki o‘zlashtirish natijalarini nazorat qilish;

egallangan bilimlarni takrorlash asosida yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil mustaxkamlash;

egallangan bilimlarni mustaxkamlash maqsadida asosiy tushuncha va tayanch materiallardan foydalanish va amalda qo‘llash;

egallangan yangi bilim va ko‘nikmalarni baholash;

o‘quv mashg‘ulotiga yakun yasash va uyga vazifa berish.

Pedagogik texnologiyalarga asoslangan o‘quv mashg‘uloti ma’lum ketma-ketlikda tashkil qilinadi. O‘quv mashg‘ulotini tizimli tashkil qilishda bizga texnologik xarita yordam beradi. U o‘quv mashg‘ulotini amalga oshirish bosqichlarini aniqlab beradi, u uch bosqichdan iborat bo‘lib, unga kirish, asosiy va yakuniy bosqichlar kiradi [3].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, “Optika” fanidan “Optik asboblar. Optik asboblar sinfi” ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi tuzildi (1-jadval). Texnologik xaritani tuzishda optik asboblar, optik asboblar sinfiga doir ma’ruza malumotlarining ko‘pligi ularni yoritib berish uchun vaqtning chegaralanganligini va optika sohasida olib borilgan yangiliklarni ta’limda aks ettirish e’tiborga olindi.

Yuqorida bayon qilingan o‘quv mashg‘uloti strukturasi va texnologik xaritasi interfaol texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, mazkur jarayonni samarali tashkil etish, o‘tkazish va talabalarni davlat ta’lim standarti talablarini mukammalroq o‘zlashtirishiga asos bo‘ladi. Bunday mashg‘ulotlarda talabalarning hamkorlikda ishlashlariga imkoniyat yaratiladi ya’ni optik asboblarning qo‘llanilishi sharoitiga ko‘ra turlarini, optik asboblarning qo‘llanilishi sohasiga ko‘ra turlarini, optik asboblarning qaysi optik xodisa va qonunlar asosida ishlashini o‘rganadilar. Qolgan muammo bo‘yicha amaliy mashq bajarib, o‘zlari muammoni mustaqil hal etishlari, ijodiy shakllanishlari mumkin. Bu esa o‘quv mashg‘ulotining sifat va samaradorligi oshishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Ushbu keltirilgan texnologik xarita asosida **“**Optik asboblar. Optik asboblar sinfi**”** mavzusini o‘qitilishi bo’yicha mashg’ulot ishlanmasi quyidagicha:

Mashg‘ulot ishlanmasi

Mavzu: Optik asboblar. Optik asboblar sinfi.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: talabalarda optik asboblar va ularning turlari, tuzilishi, ishlash jarayoni, qo‘llanish sohasi. Optik asboblar klassifikatsiyasi haqidagi ma’lumotlarni shakllantirish.

Ta’limiy:

1. Bilim.

fizika fanining rivojlanishida optik asboblarning tutgan o‘rni haqida tushunchaga ega bo‘lish;

optik asboblar va ularning turlari haqida ma’lumotlar olish;

1-jadval

“Optik asboblar. Optik asboblar sinfi” ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi

O‘quv mashg‘uloti bosqichlari	**Faoliyat mazmuni**		**Tavsiya etiladigan usullar**
	Pedagog faoliyati	**Talaba faoliyati**	
Kirish	Talabalarga berilgan uy ishi	Uy ishini	Og‘zaki.

bosqichi (15 daqiqa)	tekshiriladi va baholanadi Yangi mashg‘ulotning mavzusi, rejasi va maqsadi bayoni yodga olinadi. Talabalarga yangi mavzu yuzasidan savollar beriladi va bilimlarini faollashtiradi.	taqdim etadilar,yodga oladilar va savollarga javob beradilar	Aqliy hujum.
Asosiy bosqich (50 daqiqa)	Fizika fanining rivojlanishida optik asboblarning tutgan o‘rni tushuncha beriladi	Tinglaydilar va yozib oladilar	Og‘zaki. Aqliy hujum
	Optik asboblar va ularning turlari haqida ma’lumotlar beriladi	Tinglaydilar va yozib oladilar	“T-sxemasi” metodi “Klastr” metodi
	Zamonaviy optik asboblar klassifikatsiyasi bilan tanishtiriladi (1-ilova)	Tinglaydilar va kuzatadilar	
	“Optik asboblar” interfaol taqdimoti ekranda namoyish kilinadi	Tinglaydilar va yozib oladilar, savollarga javob beradilar	Interfaol taqdimot metodi
Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	Tezkor savollar berish orqali mavzu mustahkamlanadi	Savollarga javob beradilar	Davra suxbati metodi
	Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa yasaydi, muxim jihatlarga ishtirokchilar diqqatini jalb qiladi, mavzu yuzasidan talabalarni qiziqtirgan savollariga javob beradi.	Savollar berishadi	
	Mavzuga doir mustaqil ish mavzulari beriladi	Yozib oladilar	

optik nurni qabul qilish yoki sezish xarakteriga ko‘ra optik asboblar turlarini o‘rganish;
foydalaniladigan optik nur diapazoniga ko‘ra optik asboblarni turlarini o‘rganish;
optik asboblarning qo‘llanilishi sharoitiga ko‘ra turlarini o‘rganish;
optik asboblarning qo‘llanilishi sohasiga ko‘ra turlarini o‘rganish;
optik asboblarning qaysi optik xodisa va qonunlar asosida ishlashini o‘rganish;
zamonaviy optik asboblar klassifikatsiyasi bilan tanishish;

innovatsion pedagogik texnologiyalarning tadbiqlarini o‘rganish;

axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganish.

2. Ko‘nikma.

optik asboblar, ularning tuzilishi, ishlash jarayoni va ulardan foydalanib mavzuga doir namoyish tajribalarini tushintirib bera olish;

optik asboblar klassifikatsiyasini haqida ma’lumot bera olish;

mavzuga doir masalalarni yecha olish.

Tarbiyaviy:

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish;

mavzu orqali talabalarning fan va texnikaga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish.

Rivojlantiruvchi:

o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirish.

Fanlararo bog‘liqligi:

matematika, kimyo, radiotexnika, astronomiya, astrofizika, fizik spektroskopiya, fizik materialshunoslik va nanotexnologiya.

Ta’lim usullari:

muammoli, ma’ruza, yo‘naltiruvchi savollardan foydalanish, binar, og‘zaki so‘rov, AKT dan foydalangan holda mustaqil ish, taqdimot qilish, “T-sxema”, “Klaster”, “Interfaol taqdimot”, “Davra suhbati” interfaol metodlar.

Ta’lim vositalari:

elektron doska, kompyuter jamlanmasi, proyektor, slaydlar, ko‘rgazmalar, animatsion grafiklar.

Mashg‘ulot tipi:

yangi bilim beruvchi.

Mashg‘ulot shakli:

musobaqa, kichik guruhlar asosida

Mashg‘ulot materiallari va jihozlari:

optik asboblar to‘plami, turli shakldagi jismlar, darslik, multimediyali darslik, masalalar yechish to‘plami, kompyuter, elektron doska, proyektor, SD disk, plakat.

Asosiy tushuncha va atamalar:

optik asboblar, yaqindan va uzoqdan ko‘ruvchi optik asboblar, optik asboblar klassifikatsiyasi, linzalar, ko‘zgular.

Asosiy qism:

Talabalarning bilimlarini faollashtirish maqsadida quyidagi savollar ekranda namoyon bo‘ladi:

1) Optik asboblarning qanday turlarini bilasiz?
2) Optik asboblarning tuzilishi haqida ma’lumot bering.
3) Optik asboblarni nechi turga ajratish mumkin?
4) Optik asboblar klassifikasiyasi deganda nimani tushinasiz?

Talabalarni yuqoridagi savollarga javoblari tinglanadi va reja asosida mavzu haqidagi tushunchalar berib boriladi.

Bugungi fan rivojiga, texnika taraqqiyotiga va axborotlarning globallashuviga nazar tashlansa, “fizika”ning, xususan “optika”ning o‘rni beqiyos darajada o‘sib borayotganini ko‘ramiz. Birgina optik asboblar nuqtai-nazaridan, mikroskop va fotoapparat kabi sodda asboblar qatoriga yuzlab zamonaviy optik asboblar kirib keldi [5]. Ilgari faqatgina geometrik optika qonunlari asosidagi optik asboblar ma’lum bo‘lgan bo‘lsa, ilgari an’anaviy tarzda o‘qitishda foydalanilgan lupa, ko‘zoynak tahlil etilsa, endilikda raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda to‘lqin optikasi va fizikaviy optika qonunlarini qo‘llashga asoslangan juda ko‘plab hamda amaliyotda o‘ta muhim ahamiyatga molik asboblar paydo bo‘ldi. Bunday asboblar kundalik xayot tarziga dadil kirib keldi. Ular qatoriga optik disklar, raqamli nevelirlar, lazerli texnologik qurilmalar, ko‘rish trubalari, masofani o‘lchash qurilmalari, teleskoplar, teplovizorlar, raqamli televizorlar, optik qurollar, snayperlar, 3D formatli kamera va proyektorlar, gologrаfik qurilmalar, interferension mikroskoplar, difraksion tahlil qurilmalari, interferometrlar, polyarimetrlar va boshqa ko‘plab spektral asboblarni kiritish mumkin [4].

Bunday optik qurilmalar sanoatda, asbobsozlikda, samolyotsozlik va aviatsiyada, kosmonavtika va energetikada, aloqa va nivigatsiyada, qurilish va transportda, boshqa turdagi texnika va qishloq xo‘jaligi sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Bugungi keng dunyoqarashga ega insonlar, katta axborot olamida bilim olayotgan o‘quvchi va talabalar mazkur asboblar to‘g‘risidagi turli ma’lumotlarga duch kelishi tabiiydir.

Optik asboblar va ularning turlari haqida ma’lumotlar berishda interfaol metodlardan biri “T-sxemasi” metodidan foydalanamiz.

Optik asboblarni qo‘llash masofasi nuqtai-nazaridan kelib chiqib umumiy ikki turga ajratish mumkin: “Uzoqdan ko‘ruvchi” va “Yaqindan ko‘ruvchi”. “Uzoqdan ko‘ruvchi” asboblar sarasiga teleskop, durbin, binokl, nevelir, masofa o‘lchagich, fotoapparat, kinokamera va proyektorlar kirsa, “Yaqindan ko‘ruvchi” asboblar sarasiga lupa, ko‘zoynak, mikroskop kabi ko‘plab asboblar kiritishimiz mumkin.

Talabalarga optik asboblarning nurni qabul qilishiga, nur diapazoniga, qo‘llanish sharoitiga va qo‘llanish sohasiga ko‘ra turlarini tushuntirishda “Klastr” grafik organayzeridan foylanamiz.

Optik nurni qabul qilish yoki sezish xarakteriga qarab optik asboblar quyidagi turlarga bo‘linishi mumkin: vizual (asosiy qabul qiluvchi – bu ko‘z), optik-elektron (asosiy qabul qiluvchi – bu fotokatod), fotografik (asosiy qabul qiluvchi – fotoemulsiya).

Foydalaniladigan optik nur diapazoniga qarab optik asboblarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: ko‘rinma nur spektri (380 - 770 nm), infraqizil (IQ) nur (770 - 75000 nm), ultrabinafsha (UB) nur (10 - 380 nm), rentgen nurlari (0,005-100 nm).

Optik asboblarning qo‘llanilishi sharoitiga qarab quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: laboratoriya optik asbobi, dala optik asbobi, dengiz optik asbobi, aviatsiya optik asbobi, kosmos optik asbobi, suv osti optik asbobi, yuqori radiatsiya sharoitidagi optik asbob.

Optik asboblarning qo‘llanilishi sohasiga qarab quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: astronomik optik asbob, geodezik optik asbob, aerofoto apparatura, apparatlari, proyeksiya fotografik asbob, kinokameralar, kinoproyeksiya apparatlari, tezkor foto va kino apparatlar, navigatsiya asboblari, linzalar, lupa, mikroskop, ko‘zoynak, oftalmologiya asboblari, harbiy optik asboblar, fotometrlar, nurtexnik asboblar, yoritkichlar, davolovchi va stimullovchi yoritkichlar, fotokolorimetrlar, spektral asboblar, interferometrlar, optik o‘lchav-nazorat asboblari, metalga ishlov berish stanoklarining optik qurilmalari, avtomat boshqaruv tizimlarining optik detektorlari, nursignal asboblar, projektorlar va faralar, mayaklarning optik qurilmalari, konsentratorlar, Frenel konsentratorlari, rentgen qurilmalari, texnologik lazerlar, nevelirlar, diagnostik va davolash lazerli qurilmalari, dezinfeksiyalovchi yoritkichlar va nurlatkichlar [6].

Avvalo ta’kidlash joizki hozirgi vaqgacha, optik asboblarning umumiy qabul qilingan klassifikatsiyasi mavjud emas edi. Faqatgina ayrim mutaxasislar tomonidan taklif etilgan xususiy klassifikatsiyalashdan foydalanish mumkin edi. O‘qitish jarayonida qo‘llash maqsadida optikaning asosiy qonunlariga mos ravishda tubdan yangi “Optik asboblar klassifikatsiyasi” ishlab chiqildi (1-ilova). Talabalar diqqati ekranga qaratiladi. Ekranda “Optik asboblar klassifikatsiyasi” namoyish etiladi va tushintiriladi. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadidi “Optik asboblar” mavzusida interfaol taqdimot o‘tkiziladi [4].

Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa yasaymiz. “Davra suhbati” interfaol metodidan foydalaniladi. Dars so‘ngida talabalarga mavzuga doir ishlab chiqilgan mustaqil ijodiy ish mavzulari beriladi.

Dars so‘ngida talabalar guruhlar asosida va yakka tartibda baholanadi.

Shu bilan birga optika bo‘limining “Linza va ularning turlari”, “ Yorug‘likning qutblanishi , “ Yorug‘lik interferensiyasi mavzulari uchun o‘quv mashg‘uloti ishlanmalari ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi.

Bugungi kunga kelib optik asboblarning turlari, ulardan foydalanish sohalari jadal kengayib borayotganligi sababli, mavzuga ajratilgan vaqt ichida ularning barchasini birma bir tavsiflashni imkoni yo‘q. Oliy ta’lim muassasalarida bunday muammolarni bartaraf etish uchun “T-sxema”, “Venn diagrammasi”, “Klaster”, “B/B/B (Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim)” grafik organayzerlari, “Kubik”, “Interfaol taqdimot”, “Davra suhbati”, “Asalari galasi” interfaol metodlardan “Optika” ga doir mavzularni o‘qitishda foydalanish, belgilangan vaqtdan unumli foydalanishga, talaba faolligini ortishiga, bilim va ko‘nikmalarini takomillashishiga, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatni mustahkamlanishiga olib keladi. “Optik asboblar klassifikatsiyasi” ni taqdim etish orqali esa o‘qituvchi qisqa vaqt davomida talabalarga optik asboblarning turlari, qaysi optik xodisa va qonunlar asosida ishlashi, ularning nomlanishi va qo‘llanilishi, fotosuratlari, yangi yo‘nalish

va sohalarda foydalanishiga doir ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida yetkizib tushuntirib bera oladi. Mavzuga doir olingan bilimlarni interfaol taqdimotdan foydalanib mustahkamlash talabalardagi faollikni yanada oshirishga xizmat qiladi. Dissertant tomonidan optikaga doir “Mustaqil ijodiy ish” mavzulari ishlab chiqilgan bo‘lib bu talabalarning kuzatuvchanlik, mantiqiy tahlil, ijodkorlik va mustaqil ishlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning bilim doirasini va umumiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o‘quv mashg‘ulotlari, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘qitishning interfaol usullarini puxta ishlash hamda o‘quv jarayoniga joriy etish uchun tajriba maydoni bo‘lib xizmat qilishi lozim. Pedagog o‘quv mashg‘uloti jarayonini zamonaviy tashkil qilish va o‘tkazishda avvalo, uning samarali bo‘lishi, talabalarning mavzuni to‘liq o‘zlashtirishini o‘z oldiga maqsad qilib qo’yishi lozim. O*‘quv* mashg‘ulotlarini tashkil qilishda innovatsion pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanib o*‘*qitishning turli usullaridan foydalanish maqsadga muofiq. Shu bilan birga optika bo*‘limini o‘qitishni, sohaga tegishli bo‘lgan fan - texnika yutuqlari bilan doimiy ravishda rivojlantirib borish zarur.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kodirova Kh. Dedicated to introduction to education “Classification of optical instruments”. Proceedings of the 2nd International Scientific and Practical Conference. Scientific community: interdisciplinary research26-28.01.2021, Hamburg, Germany.

2. Qodirova M.D. Fizika fanini o‘qitishda yangi pedagogik va informatsion texnologiyalardan foydalanish. // Akademik litsey va kasb–hunar kollejlarida fizika–matematika fanlarini o‘qitishni takomillashtirish mavzusidagi respublika ilmiy–amaliy konferensiyasi ma’ruzalar to‘plami. TDPU. – T. 2005 24–25 may. 32 – 35 b.

3. Қодирова. Ҳ.Н. Ёруғликнинг қутбланиш мавзусини ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланишю Ўзбекистон олимлари ва ёшларнинг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари мавзусидаги конференция материаллари. Тошкент-2021, 28 феврал №25. -Б 78-79.

4. Kodirova Kh. Content and significance of “Optics” department in general secondary education physics. International scientific and practical conference cuttingedge science January-February-2021, Shawnee, USA. -P 46-48.

5. Kodirova Kh. Formation of primary concepts of ” Light phenomena” in preschool education. International scientific and practical online conference integration into the world and connection of sciences. January-2021, Baku, Azerbaijan Republic.

6. Қодирова. Ҳ.Н. Methodological aspects of formation of concept about “OPTICS” in primary school of education. International scientific and practical Conference Modern Views and research Conference proceedings England December-2021. -P 25-26.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

GRAFIKKA OID MASALALAR ASOSIDA O‘QUVCHILAR VIZUAL TAFAKKURINING RIVOJLANISH MEXANIZMI

Abdiyeva Shoira Shukurovna
ChDPU tayanch doktoranti va “Cyber Univercity” assistent o‘qituvchisi
abdiyevashoira08@gmail.com, (+99894)423-48-51

Annotatsiya.Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning vizual tafakkurini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Matematik bilimlarning mazmuni tobora murakkablashib borar ekan, ularni o‘zlashtirishda vizual tafakkurning ahamiyati yanada ortmoqda. Ayniqsa, algebra va analiz asoslarini o‘qitishda funksiya grafiklari hamda ularning koordinatalar tekisligidagi o‘zaro joylashuviga doir grafikka oid masalalar vizual tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Tadqiqot davomida matematika ta’limida qo‘llanilayotgan grafikka oid masalalar tasnifi kengaytirilib, grafik tasvir yashirin qatnashgan masalalarning yangi tipologiyasi taklif qilindi. Shuningdek, vizual tafakkurning kognitiv mexanizmi bosqichlari (tasavvur qilish va chizish, aloqa o‘rnatish, faraz ilgari surish (shakllantirish), farazni asoslash, izohlash va xulosa chiqarish) ishlab chiqildi hamda ushbu mexanizmning amalda ishlashi grafik tasvir yashirin qatnashgan masalalar misolida ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli, vizual, mantiqiy tafakkurlar integratsiyasi asosida yoritildi.

Kalit so‘zlar: tafakkur faoliyati bosqichlari, vizual tafakkur, grafikka oid masalalar, vizual tafakkurning kognitiv mexanizmi, funksiya grafigi.

Аннотация. В современном образовательном процессе развитие визуального мышления учащихся является одной из актуальных задач. По мере усложнения содержания математических знаний возрастает и значение визуального мышления в их усвоении. Особенно при обучении алгебре и началам анализа задачи, связанные с графиками функций и их взаимным расположением на координатной плоскости, выступают как одно из эффективных средств развития визуального мышления. В ходе исследования была расширена классификация графических задач, применяемых в математическом образовании, и предложена новая типология задач со скрытым участием графического изображения. Также были разработаны этапы когнитивного механизма визуального мышления (представление и выполнение чертежа, установить связь, выдвижение (формирование) гипотезы, обоснование гипотезы, интерпретация и выводы), а практическая реализация данного механизма была наглядно раскрыта на

примере задач со скрытым графическим изображением на основе интеграции наглядно-действенного, наглядно-образного, визуального и логического мышления.

Ключевые слова: этапы мыслительной деятельности, визуальное мышление, графические задачи, когнитивный механизм визуального мышления, график функции.

Abstract. In the modern educational process, the development of students’ visual thinking is considered one of the most urgent issues. As the content of mathematical knowledge becomes increasingly complex, the importance of visual thinking in its acquisition grows even further. In particular, in teaching algebra and the foundations of analysis, graphical problems related to function graphs and their relative positions on the coordinate plane emerge as one of the most effective means of developing visual thinking. In the course of this research, the classification of graphical problems used in mathematics education was expanded, and a new typology of implicit graphical problems was proposed. In addition, the stages of the cognitive mechanism of visual thinking (imagining and drawing, establishing connections, proposing (formulating) a hypothesis, justifying the hypothesis, explaining, and drawing conclusions) were developed. The practical functioning of this mechanism was illustrated through examples of implicit graphical problems based on the integration of visual-motor, visual-figurative, visual, and logical thinking.

Key words: stages of thinking activity, visual thinking, graphical problems, cognitive mechanism of visual thinking, function graph.

Kirish. Maktab matematika ta’limida funksiyalar, ularning grafigi hamda ularning koordinatalar tekisligida o‘zaro joylashishi tushunchalarini o‘rgatish o‘quvchilarda nafaqat hisob-kitob ko‘nikmalarini, balki chuqur fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va modellashtirish kabi yuqori darajadagi aqliy faoliyatni ham rivojlantirishni talab etadi. Ayniqsa, masalalarni yechishda funksiya grafigidan foydalanish vizual, mantiqiy va og‘zaki tafakkur turlarining integratsiyasiga asoslanadi.

Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining bilimni o‘zlashtirish samaradorligi ko‘p jihatdan uning vizual tafakkuri qay darajada rivojlanganiga bog‘liq bo‘ladi. Tafakkur umuman olganda atrof-muhitdagi voqelikni bilvosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi va yangi bilim yaratishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyat sifatida talqin etilsa, uning turlaridan biri bo‘lgan vizual tafakkur obrazlar, tasvirlar, grafik va chizmalar bilan fikrlashga tayanadi. Vizual tafakkur o‘quvchiga matematik ob’ektlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni “ko‘rish”, ularni funksiya grafigi orqali tushunish, keyinchalik bu tasvirlarni analitik ifoda va formulalar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Matematikani o‘qitishda vizuallashgan masalalardan grafikka oid masalalarning mavjud tasniflari P.G.Satyanov, A.V.Firer, N.V.Shukina tadqiqotlarida masalaning sharti va javobiga ko‘ra guruhlashga e’tibor qaratilgan bo‘lib, masalaning yechish qismida grafikdan foydalanishga qaratilgan grafik tasvir yashirin qatnashgan grafikka oid masalalar to‘liq yoritilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqotda grafik tasvir yashirin qatnashgan grafikka oid

masalalar klassifikatsiyasining kengaytirilgan tasnifi taklif qilindi hamda bunday masalalar tizimi va ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan [1,2,3].

Tadqiqotning yana bir muhim jihati, grafik tasvir yashirin qatnashgan grafikka oid masalalarni yechishda vizual tafakkurning kognitiv mexanizmini ilmiy asoslashdir. Shuningdek, grafikka oid masalalarni yechishda ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli, vizual va mantiqiy tafakkurning integratsiyasiya asosida vizual tafakkurning kognitiv mexanizmining amalda ishlash mantig‘i yoritildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Tafakkur - atrof-uhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bavosita, umumlashgan holda aks ettirivchi psixik jarayon, ijtimoiy sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir [6].

Tafakkur turlaridan biri vizual tafakkur bo‘lib, vizual tafakkur tushunchasiga turli tadqiqotchilar tomonidan ta’riflar berilgan.

“Vizual tafakkur” atamasi asoschisi, amerikalik psixolog R. Arnheim fikricha “Vizual operatsiyalar ta’siridagi tafakkur” [4]. “Vizuallashtirish” atamasi lotincha visualis – ko‘ruv, ko‘rgazmali tarzda qabul qilinadi.

V.P.Zinchenko fikricha, vizual tafakkur − mahsuloti yangi obrazlarni yaratish, ma’lum bir axborotni o‘zida mujassamlashtirgan vizual shakllarni yaratishdan iborat inson faoliyatidir [8].

V.A.Dalinger fikricha, vizual tafakkur − bu tasvir (obraz)larni yaratish, ular bilan ishlash, ularni berilgan yoki ixtiyoriy yo‘nalishda bilan qayta kodlash, obrazni qurishda (yaratish) turli xil sanoq tizimlaridan foydalanish, tasvir (obraz)da inson uchun muhim bo‘lgan ob’ektning turli belgilari va xususiyatlarini aniqlashni ta’minlaydigan faoliyat [7].

Vizuallashtirish tamoyilining asosi kognitiv grafika bo‘lib, uning maqsadi fikrlashning ramziy va geometrik usullarini birlashtiradigan va bilish jarayonlarini faollashtirishga yordam beradigan bilimlarni taqdim etishning kombinatsiyalangan kognitiv modellarini yaratishdan iborat [7].

S.A.Kryukovaning fikricha, vizual tafakkur obrazli modellashtirish nuqtai nazaridan masalalarni ijodiy yechish usulidir. Vizual tafakkurning asosini ko‘rgazmali - harakatli va ko‘rgazmali - obrazli tafakkur tashkil etadi.Vizual tafakkur - bu (obraz) tasvirlar bilan fikrlash. Uning mavhum (abstrakt) va mantiqiy tafakkurdan asosiy farqi va afzalligi oddiylik va samaradorlikdir [1010].

Vizual tafakkur − bu mantiqiy fikrlash jarayoni bo‘lib, uning yordamida tasavvur yoki xayol kabi vizual ichki tasvirlarga tayanib, intellektual masalalarni hal qilish amalga oshiriladi. Ijodiy tafakkurning bu turi yangicha qarashlar, vizual shakllar yaratadi, ular yangi ma’no yukini tashiydi va ma’noni yaqqol ifodalaydi. Vizual tafakkur obyektlarning real xususiyatlarini obrazli aks ettirishning davomi va yakuni bo‘lib, uning boshlanishi ko‘rgazmali, harakatli va obrazli tafakkurdir [10].

Tafakkur faoliyati bosqichlari. Tafakkur faoliyatining bosqichlari – bu inson fikrlash jarayoni qanday kechishini, ya’ni muammoni anglashdan tortib, yechim topishgacha bo‘lgan izchil aqliy faoliyat bosqichlarini ifodalaydi [5].

Psixologiyada tafakkur faoliyati jarayon sifatida ko‘riladi. Keng qamrovli fikrlash jarayonida, tafakkur har doim biron-bir vazifani hal qilishga qaratilganligi sababli, tafakkur faoliyatini bir nechta asosiy bosqichlarga ajratish mumkin. Fikrlash jarayonining boshlang‘ich bosqichi muammoli vaziyatni ozmi-ko‘pmi aniq anglashdir. Tafakkur - bu bir butun jarayon bo‘lib, u bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ko‘plab fikrlash amallaridan (operatsiyalaridan): tahlil, sintez, umumlashtirish, solishtirish, xulosa chiqarish kabi qismlardan iborat. Bu operatsiyalar yordamida inson biror mavzuni yoki masalani chuqurroq, aniqroq (ya’ni adekvatroq) anglaydi va bu anglash orqali oldida turgan muammoni hal qiladi [55].

Tafakkur insonning fikrlash faoliyati bo‘lib, u bosqichma-bosqich, ketma-ket bosqichlarda yuz beradi. Har bir bosqich o‘z funksiyasiga ega: idrok qilish (muammoni tushunish), tahlil qilish (elementlarga ajratish), umumlashtirish, solishtirish, taqqoslash, xulosa chiqarish va nihoyat amalda qo‘llash. Ushbu bosqichlar ko‘pincha bir-biriga aralashib ketadi, ammo ular tafakkur mexanizmini to‘liq ifodalaydi [5].

Quyidagi 1-jadvalda tafakkur faoliyati bosqichlari, ularning ta’rifi va misollar bilan keltirilgan.

1-jadval. Tafakkur faoliyati bosqichlari

t/r	Tafakkur faoliyati bosqichlari	Ta’rifi	Misollar
1	Muammoni idrok qilish (anglash)	Bunda inson muammo yoki topshiriqni anglab yetadi, vaziyatni tahlil qilishga hozirlanadi.	O‘quvchi matematik masalaning shartini o‘qib, nimani topish kerakligini tushunadi.
2	Tahlil (analiz)	Muammoni tarkibiy qismlarga ajratish, uning ichki tuzilishini ko‘rish.	Masalada berilgan sonlar, formulalar, shartlar alohida ajratiladi.
3	Sintez	Ajratilgan qismlar asosida yangi bog‘liqliklar hosil qilish, ularni birlashtirish	O‘quvchi har xil ma’lumotni birlashtirib, umumiy yechim yo‘lini quradi
4	Solishtirish	Ikki yoki undan ortiq hodisani taqqoslash, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini topish	O‘quvchi ikki matematik metodni taqqoslab, qaysi biri samaraliroq ekanini aniqlaydi.
5	Umumlashtirish	Yakuniy qoida chiqarish	O‘quvchi bir necha misollar

		uchun umumiy qoidalarni ajratib olish	asosida qanday formulani ishlatish kerakligini tushunadi.
6	Xulosa chiqarish	Fikrning yakuniy shaklini shakllantirish, muammo yechimini topish	O‘quvchi masalaning aniq javobini topadi va uni tushuntiradi.
7	Amalda qo‘llash	Olingan bilim yoki yechimini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olish	O‘quvchi o‘rgangan formulasini boshqa shunga o‘xshash masalada qo‘llaydi.

Grafikka oid masalalalar. O’quv jarayonida vizuallashgan masalalardan foydalanish, xususan grafikka oid masalalardan foydalanish o’quvchilarda vizual tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Vizuallashgan masala deb, tasvir (obraz) masalaning shartida, javobida oshkor va oshkormas holda qatnashadigan, masala yechish metodini beradigan, masala yechishning har bir bosqichida tayanch vazifani bajaradigan, masalani yechishning muayyan bosqichida aniq yoki yashirin tarzda ishtirok etadigan masalaga aytiladi [7].

Vizuallashgan masalalar o‘quvchilarning o‘quv imkoniyatlari, aqliy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot olishga imkon beradi va shu bilan o‘quv va shaxsiy ahamiyatga ega fazilatlarni tashxislash uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek matematikani o‘qitishga kognitiv-vizual yondashuvni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biridir [7].

O‘z navbatida, vizual tasvir (obraz) faqat masalani yechish usulini asoslash va yechish, vizual tasvir masala sharti yoki xulosasida qatnashishi mumkin. Shunga ko‘ra vizuallashgan masalalar ikki sinfga – grafik tasvir yashirin qatnashgan va grafik tasvir oshkor qatnashgan masalalarga ajraladi [14].

Yechish usulida, yoki shartida, yoki xulosasida grafik qatnashgan masalalar grafikka oid masalalar deb aytiladi.

P.G. Satyanov [13] tomonidan grafikka oid masalalarni masalaning sharti va javobining ifodasi shakliga ko‘ra 5 ta sinfga ajratish taklif qilingan:

OG-og‘zaki ifoda – grafik tasvir; **GO**-grafik tasvir – og‘zaki ifoda; **AG**-analitik ifoda – grafik tasvir; **GA**-grafik tasvir – analitik ifoda; **GG**-grafik tasvir – grafik tasvir.

Bunda birinchi harf masala sharti qaysi tilda ifodalanganligini, ikkinchi harf masala javobi qaysi tilda ifodalanishi kerakligini bildiradi.

Grafikka oid masalalar klassifikatsiyasi boshqa tadqiqotchilar (N.V.Shukina [15], A.V.Firer [14]) tomonidan kengaytirilib, masalaning sharti va javobini bir emas, balki bir nechta harflardan iborat tiplarga ajratish taklif qilingan. Shu bilan birga masalaning yechish qismida grafikdan foydalaniladigan AGA, AGO, OGA, OGO, AGAO, OGAO, AOGA, AOGO, AOGAO masalalar tiplariga ajratilgan. Bunday turdagi masalalarda masala sharti analitik usulda yoki og‘zaki yoki har ikkalasi beriladi. Masalani yechish qismida esa

grafikdan foydalaniladi. Masalaning javobi analitik usulda yoki og‘zaki usulda yoki har ikkalasi berilgan holda ifodalanadi. Bunday masalalarda vizual tafakkur masalaning yechish qismida muhim rol o‘ynaydi. Respublikamizdagi darsliklar tahlili natijalari grafik tasvir yashirin qatnashgan masalalar kam uchrashini ko‘rsatdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Grafik tasvir yashirin qatnashgan masalalar tasnifini kengaytirib, quyidagi masalalar tasnifi taklif qilinadi: A(GA)A, A(GA)O, O(GA)A, O(GA)O, A(GA)AO, O(GA)AO, AO(GA)A, AO(GA)O, AO(GA)AO (2-jadval). Bunday turdagi masalalarning yechish qismida grafik bilan birga analitik usuldan foydalaniladi.

2-jadval. Tasvir yashirin qatnashgan grafikka oid masalalar yangi tipologiyasi

Sharti	Yechimi	Javobi
A	GA	A
	GA	O
	GA	AO
O	GA	A
	GA	O
	GA	AO
AO	GA	A
	GA	O
	GA	AO

Bu masalalarni yechishda grafikdan foydalanish, masala sharti analitik yoki og‘zaki yoki har ikkala usulda berilgan masaladagi muammoning grafik tasvirini chizish, ya’ni uni vizuallashtirishni talab qilinadi.

Yuqoridagi 2-jadvalda berilgan masalalarni yechishda ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli va vizual tafakkurning o‘rni va roli quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Ko‘rgazmali-harakatli tafakkur faollashadi: o‘quvchi berilgan shart asosida grafik tasvir hosil qiladi, uni yasash jarayonida muammoni amalda “ko‘radi” va geometrik jihatdan tushunadi.

2. Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur ishga tushadi: o‘quvchi chizilgan grafiklar va mavjud bilimlari asosida tasavvur hosil qiladi.

3. Vizual tafakkur faollashadi: o‘quvchi ilgari hosil qilgan obrazlar va tasavvurlarga tayanib, masalaning yechimini ko‘z oldiga keltira boshlaydi. Agar mavjud tasavvurlar yetarli bo‘lmasa, hayol bosqichiga o‘tiladi. Hayol bu jarayonda tasvirni ongda jonlantiradi, o‘zgartiradi, yangi shakllar va bog‘lanishlarni modellashtiradi.

4. Vizual tafakkur va mantiqiy tafakkur (analitik ifodalar) bilan integratsiyasi yuzaga keladi: o‘quvchi grafikdan olingan ma’lumotni tahlil qiladi, umumiy holat va xususiy vaziyatlarni ajratib oladi, analitik ifodalar orqali tasdiqlaydi yoki isbotlaydi, natijani aniq

formulalar bilan ifodalaydi va og‘zaki izohlar orqali yechimning mantiqiy asosini tushuntirib beradi.

Masala analitik (A) yoki og‘zaki (O) yoki har ikkala (AO) usullarda berilisa ham, yechish usulida grafikdan (G) foydalanish – bu ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli tafakkur turlari faollashishini anglatadi, shuningdek masala yechimining to‘g‘riligini grafik orqali tekshirishga yordam beradi. Masalani yechish qismida grafik (G) bilan birga analitik (A) usuldan foydalanish funksiya grafigi orqali fikr yuritish, masala yechimini tushunish imkonini beradi hamda grafik ma’lumot analitik formulalar orqali bog‘lanadi.

Masala javobining analitik (A) yoki og‘zaki (O) yoki har ikkala (AO) usullarda berilishi o‘quvchiga grafik ma’lumotdan mantiqiy natijaga o‘tish, analitik yechimni og‘zaki izohlash imkonini yaratadi. Natijada o‘quvchi masalani bir vaqtning o‘zida ko‘rib, hisoblab va tushuntira oladi, bu esa vizual, mantiqiy va og‘zaki tafakkurlarning integratsiyasini ta’minlaydi.

Axborotni tushunib o‘zlashtirish modeli [12], tafakkur faoliyati bosqichlariga asoslanib, vizual tafakkurning kognitiv mexanizmi quyidagicha belgilanadi:

3-jadval. Vizual tafakkurning kognitiv mexanizmi

t/r	Vizual tafakkur bosqichlari	Bosqichlarning izohi
1	Tasavvur qilish va chizish	Masalaning sharti va xulosasini obrazli tasavvur qilish (vizual obrazlar), zarurat bo‘lsa, chizma chizish natijasida vizual ma’lumotlar hosil qilish
2	Aloqa o‘rnatish	Vizual tasavvurlar va mavjud (avvalgi) bilimlar o‘rtasidagi integratsiya. Masalani yechish uchun vizual ma’lumotlarni xotiradagi obrazlar, matematik ifodalar yoki matematik modellar bilan aloqasini o‘rnatish. Agar masalaga shu yerda javob topilsa, masala yechimi taqdim qilinadi.
3	Farazni ilgari surish (shakllantirish)	Aks holda hayol zonasida vizual obrazlar yangi aloqalarga kiritiladi va masalani yechish uchun faraz shakllantiriladi.
4	Farazni asoslash	Vizual shakldan matematik ifodaga o‘tishning mantiqiy asosini keltirish (isbotlash)
5	Izohlash va xulosa chiqarish	Yechimni izohlash, umumlashtirish va boshqa masalalarga qo‘llash

Quyida grafikka oid masalalarning A(GA)AO tipi bo‘yicha tuzilgan masalani yechish vizual tafakkurning kognitiv mexanizmi asosida bayon qilingan. Bu mexanizm

bosqichlarining bajarilishi ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli, vizual va mantiqiy tafakkurlarning o‘rnini ko‘rsatish orqali integratsiyalangan.

Masala. A(GA)AO. Markazi koordinatalar boshida va radiusi R ga teng bo‘lgan $x^2+y^2=R^2$ aylana va $y=\frac{k}{x}$ giperbola k va R ning qanday qiymatlarida umumiy nuqtaga ega bo‘ladi?

1. Tasavvur qilish va chizish. Masalani yechish uchun masalada analitik usulda berilgan aylana va giperbolaning koordinatalar tekisligidagi (o‘zaro joylashishi) tasviri chiziladi (ko‘rgazmali-harakatli tafakkur) va tasavvur qilinadi (ko‘rgazmali-obrazli tafakkur).

Markazi koordinatalar boshida va radiusi R ga teng bo‘lgan $x^2+y^2=R^2$ aylana va $y=\frac{k}{x}$ giperbolaning koordinatalar sistemasidagi tasviri (obrazi) 3 xil holatda joylashuvi tasvirlanadi (1-3-rasmlar). Rasmlardan ko‘rish mumkinki, aylana va giperbola:


1) 4 ta umumiy nuqtaga ega (1-rasm);
2) 2 ta umumiy nuqtaga ega (2-rasm);
3) umumiy nuqtaga ega emas (3-rasm).


2. Aloqa o‘rnatish. Aylana va giperbolaning tasvirdagi kabi umumiy nuqtalarga ega bo‘lishi uchun ularni tenglamalar sistemasi ko‘rinishida yoziladi va sistemani yechishga o‘tiladi (vizual tafakkur, mantiqiy tafakkur).

Quyidagi tenglamalar sistemasi tuziladi:

$$\begin{cases} x^2+y^2=R^2 \\ y=\dfrac{k}{x} \end{cases} \Rightarrow x^2+\left(\frac{k}{x}\right)^2=R^2 \Rightarrow x^4-R^2x^2+k^2=0 \quad (1)$$


bikvadrat tenglama hosil qilinadi. Bikvadrat tenglamani yechish uchun $x^2=t$ belgilash kiritiladi. U holda hosil qilingan $t^2-R^2t+k^2=0$ kvadrat tenglama diskriminanti: $D=\left(R^2\right)^2-4\cdot1\cdot k^2=R^4-4k^2$.





1-rasm. Aylana va giperbola to‘rtta umumiy nuqtaga ega

2-rasm. Aylana va giperbola ikkita umumiy nuqtaga ega



3-rasm. Aylana va giperbola umumiy nuqtaga ega emas

3. Farazni ilgari surish (shakllantirish). $D>0$ bo‘lsa, aylana va parabola to‘rtta umumiy nuqtaga ega, agar $D=0$ bo‘lsa, ikkita umumiy nuqtaga ega bo‘ladi, agar $D<0$ bo‘lsa, umumiy nuqtaga ega emas (vizual tafakkur, mantiqiy tafakkur).

4. Farazni asoslash. Qo‘yilgan shartlar bajarilishining mantiqiy asoslari bajariladi (vizual faraz mantiqan asoslanadi).

$t^2-R^2t+k^2=0$ kvadrat tenglama ildizlari $t_{1,2}=\frac{R^2-\sqrt{R^4-4k^2}}{2}$ va $k^2>0$ ekanligidan $R^2>\sqrt{R^4-4k^2}$ bo‘lishi ravshan. Bundan esa $t^2-R^2t+k^2=0$ kvadrat tenglama ildizlari $t_1>0$, $t_2>0$ musbat bo‘lishi ravshan. U holda $x^4-R^2x^2+k^2=0$ bikvadrat tenglama uchun:

1) Agar $D=R^4-4k^2>0$ bo‘lsa, u holda (1) bikvadrat tenglama 4 ta haqiqiy ildizga ega.
2) Agar $D=R^4-4k^2=0$ bo‘lsa, u holda (1) bikvadrat tenglama 2 ta haqiqiy ildizga ega.
3) Agar $D=R^4-4k^2<0$ bo‘lsa, u holda (1) bikvadrat tenglama ildizga ega emas.

Endi $R^4-4k^2>0$ tengsizlikni yechib, $k^2<\frac{R^4}{4}$ ko‘rinishga olib kelinadi. Bundan $|k|<\frac{R^2}{2}$ kelib chiqadi.

5. Izohlash va xulosa chiqarish. Olingan natija izohlanadi, umumlashtiriladi va masalalar yechishda qo‘llaniladi (mantiqiy xulosa vizual asos bilan bog‘lanadi).

Demak, aylana va giperbola:

1) $|k| < \frac{R^2}{2}$ bo‘lsa, 4 ta umumiy nuqtaga ega;

2) $|k| = \frac{R^2}{2}$ bo‘lsa, 2 ta umumiy nuqtaga ega;

3) $|k| > \frac{R^2}{2}$ bo‘lsa, umumiy nuqtaga ega emas.

Topilgan shartlardan foydalanib, quyidagi ko‘rinishdagi tenglamalar sistemasining nechta yechimga ega ekanligini aniqlashda qo‘llaniladi.

1) $\begin{cases} x^2 + y^2 = 25 \\ xy = 12 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x^2 + y^2 = 4 \\ xy = 2 \end{cases}$ 3) $\begin{cases} x^2 + y^2 = 7 \\ xy = 5 \end{cases}$.

Xulosa.

Mexanizm atamasi psixologiyada “psixik jarayonning ichki harakatlantiruvchi kuchlari va qonuniyatli o‘zgarish tizimi” degan ma’noni anglatadi. Kognitiv mexanizm deganda miya va ong orqali vizual axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan bilim hosil qilish jarayoni tushuniladi.

Vizual tafakkurning kognitiv mexanizmi - bu vizual tafakkur qanday ishlashini tushuntiruvchi ilmiy modeldir. Ushbu mexanizm o‘quvchilarning vizual obrazlarni qabul qilish, qayta ishlash, ularni mantiqiy strukturalash, talqin qilish va asoslangan xulosalar chiqarishga yo‘naltirilgan o‘zaro bog‘langan aqliy jarayonlar majmuasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdiyeva Sh., Turgunbayev R. Theorems on the number of roots of a cubic equation and their location as a means of developing students' visual thinking. // Fiziko-matematichna osvita. - 2023. - №4. - C.7-13.

2. Abdiyeva Sh.Sh. O‘quvchilarning vizual tafakkurini rivojlantirishda loyihalash metodidan foydalanish.// “Ilm sarchashmalari” jurnali.-2023., - №3. 65-70 b.

3. Abdiyeva Sh. Maktab o‘quvchilarining vizual tafakkurini rivojlantirishda aylana va to‘g‘ri chiziqqa doir masalalar // O‘zMU xabarlari. -2024.1/11/1. 53-56 b.

4. Arnheim R. Visual thinking. – Berkley: Univ. of California Press, 1969. – 345 p.

5. Rubinshteyn L. S. Osnovi obshey psixologii.–2-e izdaniye //SPb.: Piter. – 2000. – 720c.

6. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya (darslik). Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU – 2010. – 334 b.

7. Далингер, В.А. Когнитивно-визуальный подход и его особенности в обучение математике// Электронный научный журнал «Вестник» (Омского государственного педагогического университета). Выпуск 2006. www.omsk.edu.

8. Зинченко, В.П. Современные проблемы образования и воспитания // Вопр. философии. – 1973. – № 11. – С. 42–46.

9. Картёжников Д.А., Картёжникова А.Н. Роль и место визуализированных задач в методике обучения математике студентов экономических специальностей // Вестник педагогических наук. – 2024, № 4. С. 66–75.

10. Крюкова С. А. Понимание визуального мышления //Аналитика культурологии. – 2012. – №. 22. – С. 152-155.

11. Рубинштейн Л. С. Основы общей психологии. — 2-е издание. — СПб.: Питер, 2000. — 720 с.

12. Рукосуева Д. А. Методика оценки уровня понимания учебно-вербальной информации естественно-математических дисциплин //Образовательные технологии и общество. – 2011. – Т. 14. – №. 2. – С. 435-451.

13. Сатьянов П.Г. Задачи графического содержания при обучении алгебре и началам анализа // Математика в школе. 1987. № 1. С. 56 – 60

14. Фирер А.В. Визуализированные алгебраические задачи в контексте развития познавательных универсальных учебных действий //Проблемы современного педагогического образования. – 2017. – №. 56-8. – С. 247-256.

15. Щукина Н.В. Наглядность как средство управления учебно-познавательной деятельностью студентов при обучении математическому анализу: Автореф.дис. канд. пед. наук.: 13.00.02. Омск, 2005. -206 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TALABALARDA KONSTRUKTIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA SITUATIV MODELLARDAN FOYDALANISH

Mahmudova Zilola Yoqub qizi
Shahrisabz davlat pedogogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi, 2-kurs magistranti
mahmudovazilolaxon@gmail.com, (88) 802 44 06

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar konstruktiv qobiliyatlarini shakllantirishda situativ modellardan foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Konstruktiv qobiliyatning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, shuningdek, situativ masalalarning tahliliy, kreativ va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqotda konstruktiv yondashuv, interaktiv metodlar va refleksiv fikrlash elementlari asosida yaratilgan modelning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: konstruktiv qobiliyat, situativ model, kompetensiya, talaba, pedagogik jarayon.

Аннотация. В статье рассмотрены научно-теоретические и практические основы использования ситуационных моделей в формировании конструктивных способностей студентов. Особое внимание уделено роли ситуационных задач в развитии аналитических и коммуникативных навыков, а также эффективности применения конструктивного подхода в учебном процессе.

Ключевые слова: конструктивные способности, ситуационные модели, компетенция, студент, педагогический процесс.

Abstract. This article explores the theoretical and practical foundations of using situational models to develop students’ constructive abilities. The paper analyzes the significance of constructive competence in education and the effectiveness of situational tasks in enhancing analytical, creative, and communicative skills. The research substantiates the efficiency of applying constructive and reflective teaching models in higher education.

Keywords: constructive ability, situational model, competence, student, pedagogical process.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning ijodiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va yangi yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda konstruktiv qobiliyatlar markaziy ahamiyat kasb etadi, chunki ular talabaning

bilish, tahlil qilish va amaliy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, situativ yondashuv talabalarga real hayotiy vaziyatlarda o‘z bilimlarini qo‘llash imkonini beradi.

Konstruktiv qobiliyat — bu shaxsning yangi bilimlarni mustaqil tarzda o‘zlashtirish, mavjud ma’lumotlarni qayta ishlash, ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanish hamda yangi yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatidir [6],[7]. Mazkur qobiliyat shaxsning refleksiv, ijodiy va tanqidiy fikrlash darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘quv jarayonida faol ishtirok etish va o‘z o‘rganish faoliyatini boshqarish kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi.

Konstruktiv o‘rganish nazariyasiga ko‘ra [7], bilimlar tayyor shaklda o‘qituvchi tomonidan berilmaydi, balki talabaning faol fikrlash, muammoni hal etish va tajriba asosida o‘zlashtiriladi. Shu bois konstruktiv yondashuvning asosiy tamoyili — o‘quvchi markazli faoliyat va muammoli situatsiyalar orqali bilish jarayonini faollashtirishdir.

Situativ masalalar — bu real hayotiy vaziyatlar asosida tuzilgan, o‘quvchini fikrlashga, tahlil qilishga va qaror qabul qilishga undovchi topshiriqlardir. Ular konstruktiv yondashuvning muhim vositasi sifatida qaraladi [1]. Bunday masalalar talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularni o‘z qarashlarini asoslash va amaliy natija chiqarishga o‘rgatadi. Toshboeva (2021) tadqiqotida situativ va muammoli masalalar asosida talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan. Masala yechish jarayoni talabalarda nafaqat tahlil qilish, balki yangi yechim topish, gipoteza ilgari surish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatga qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Situativ masalalar yordamida o‘rganish jarayonida talabalar real hayotdagi professional holatlarni modellashtiradi. Bu esa kompetensiyaviy o‘rganish tamoyillariga muvofiq ravishda ularning konstruktiv va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Pedagogik psixologiyada konstruktiv qobiliyatlar tafakkurning yuqori bosqichi sifatida qaraladi. Shaxsda bu qobiliyatlar shakllanishi uchun quyidagi shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega:

o‘quv faoliyatida mustaqillik va tanqidiy tahlil imkoniyati;

fikrlashni rag‘batlantiruvchi muammoli vaziyatlar;

hamkorlikda o‘rganish muhiti;

refleksiya va o‘z-baholash mexanizmlarining mavjudligi.

Konstruktiv faoliyatni shakllantirishda talaba nafaqat bilim oluvchi, balki uni qayta ishlab chiquvchi, yangi mazmun yaratuvchi sub’ekt sifatida qatnashadi. Bu jarayonni [4],[6]“axborot va konstruktiv kompetensiyaning o‘zaro integratsiyasi” sifatida tavsiflaydi. Shunday qilib, konstruktiv qobiliyatlar bilim, ko‘nikma, motivatsiya va refleksiv tajribaning birligi orqali rivojlanadi.

Funksional model o‘rganilayotgan jarayonning strukturaviy va jarayonli jihatlarini ifodalaydi. Talabalarning konstruktiv qobiliyatlarini shakllantirish funksional modeli uch asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: kirish (input) — talabalar tayyorgarlik darajasi, bilim bazasi, motivatsiyasi; transformatsiya (jarayon) — situativ masalalarni yechish, hamkorlikda

o‘rganish, refleksiya, tahlil; chiqish (output) — konstruktiv qobiliyatlarning rivojlangan darajasi, muammoli vaziyatlarni hal etish malakalari. Bunday model “Reality-based learning” konsepsiyasi hamda konstruktiv o‘rganish paradigmalariga [4] tayangan holda shakllantiriladi.

Yuqoridagi nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, talabalarda konstruktiv qobiliyatlarni shakllantirishda situativ masalalar asosiy o‘quv vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ular orqali talaba o‘z fikrlash faoliyatini mustaqil boshqaradi, yangi yechimlar yaratadi va bilimlarni amaliy kontekstda qo‘llay oladi. Shu jarayonning funksional modeli o‘qituvchi faoliyatini tizimlashtirish, o‘quv natijalarini prognozlash va nazorat qilish imkonini beradi.

Talabalarda konstruktiv qobiliyatlarni shakllantirish jarayonini o‘rganishda asosiy metodologik tayanch — konstruktivizm, situativ o‘rganish va kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyalaridir. Konstruktivizm nazariyasi [7]ta’lim jarayonida bilimlarning tayyor shaklda berilmasligini, balki o‘quvchi (talaba)ning faol fikrlash, izlanish, tajriba va muloqot jarayonida o‘z bilimlarini mustaqil qurib borishini ta’kidlaydi. Shunday qilib, o‘qituvchi o‘quv jarayonining boshqaruvchisi emas, balki yo‘naltiruvchi va motivator sifatida ishtirok etadi. Situativ o‘rganish nazariyasi [5] esa bilimlar faqat kontekstda, real vaziyatlar asosida o‘zlashtirilgandagina barqaror bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu yondashuvda o‘rganish jarayoni real hayotdagi kasbiy yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish bilan uyg‘unlashadi. Kompetensiyaviy yondashuv [8],[10]ta’lim natijalarini faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyatda bu bilimlardan samarali foydalanish qobiliyati bilan o‘lchaydi. Shu bois, konstruktiv qobiliyat — kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot quyidagi metodologik prinsiplarga tayanadi: faollik prinsipi — talaba o‘quv jarayonining faol sub’ekti sifatida ishtirok etadi, bilimlarni mustaqil kashf etadi; muammolilik prinsipi — o‘rganish situativ, real hayotiy masalalar asosida tashkil qilinadi, bu esa tafakkurni faollashtiradi; integrativlik prinsipi — kognitiv, motivatsion va amaliy komponentlar bir-biriga uzviy bog‘liq holda shakllanadi; refleksivlik prinsipi — talaba o‘z o‘quv faoliyatini baholaydi, o‘z xatolarini tahlil qiladi va o‘zini rivojlantirish yo‘nalishini belgilaydi; hamkorlik prinsipi — o‘rganish jarayonida talabalar o‘zaro muloqotda bo‘ladi, jamoaviy fikrlash va muhokama konstruktiv natijaga olib keladi [8].

Tadqiqotning maqsadi va vazifalariga muvofiq quyidagi ilmiy tadqiqot metodlari qo‘llaniladi: nazariy tahlil, kuzatuv va tajriba, suhbat va anketa, diagnostika va refleksiya metodlari, eksperiment.

Tadqiqot jarayonining funksional modeli quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi – nazariy asoslarni o‘rganish, situativ masalalar bazasini shakllantirish, diagnostik vositalarni tanlash;

2. Amaliy bosqich – dars jarayonida situativ masalalarni qo‘llash, talabalarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, hamkorlikda o‘rganish;

3. Refleksiv baholash bosqichi – talabalar konstruktiv qobiliyatlarining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, model samaradorligini aniqlash.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotning metodologik asoslari konstruktivizm, situativ o‘rganish va kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyalariga tayanadi. Ularning integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan funksional model talabalarning konstruktiv tafakkurini rivojlantirish, amaliy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish, hamda ta’lim jarayonini faol, hamkorlikda o‘rganish shakliga o‘tkazishga xizmat qiladi.

NATIJA VA TAHLILLAR

Amaliy tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, situativ masalalar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni:

talabalarda konstruktiv fikrlash, muammoni tahlil qilish, ijodiy yechim ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

o‘quv jarayonini passiv qabuldan faol ishtirok va mustaqil qaror qabul qilish darajasiga o‘tkazadi;

hamkorlik, muloqot va refleksiya orqali metakognitiv qobiliyatlarni shakllantiradi.

Mazkur tajriba konstruktiv qobiliyatni situativ modellar asosida shakllantirish nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlab, olimlar tomonidan ilgari surilgan konstruktiv kompetensiyani rivojlantirish modeliga mos natijalar berdi.

XULOSA

Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy tahlil, metodologik asoslash va amaliy tajriba-sinovlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Konstruktiv qobiliyat — talabaning o‘z bilimlarini mustaqil tarzda qayta qurish, mavjud ma’lumotlar asosida yangi yechim yaratish, muammoli vaziyatlarga mos ravishda fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Bu qobiliyat shaxsning intellektual, ijodiy va refleksiv faoliyati bilan uzviy bog‘liq.

2. Situativ masalalar — o‘quv jarayonida real hayotiy yoki kasbiy vaziyatlarni modellashtiruvchi muhim didaktik vosita sifatida talabalarda konstruktiv tafakkurni faollashtiradi. Ular muammoli fikrlashni rivojlantiradi, ijodiy yechim topish ko‘nikmasini shakllantiradi va o‘quv faoliyatini amaliy kontekst bilan bog‘laydi.

3. Funksional model — situativ masalalar asosida konstruktiv qobiliyatlarni shakllantirish jarayonini tizimli ravishda tashkil etish imkonini beradi. Model uch bosqichda amalga oshadi: tayyorlov (diagnostika), faol o‘rganish (situativ yechim), va refleksiv baholash (tahlil va o‘z-o‘zini nazorat).

O‘quv jarayoniga bunday modelni joriy etish talabalarning mustaqilligi, muloqot madaniyati, ijodiy tafakkuri, refleksiya va hamkorlikda o‘rganish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shunday qilib, situativ masalalar asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni — zamonaviy ta’limda talaba shaxsini faol sub’ekt sifatida shakllantirish, konstruktiv fikrlashni rivojlantirish va kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlashning samarali metodik yo‘nalishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Anderson, J. Cognitive Learning and Situational Models in Education. Cambridge University Press, 2015.
2. Mavlonova, R. "Pedagogik ta’limda interaktiv metodlarning o‘rni." Innovatsion ta’lim jurnali, 2023.
3. Piaget, J. The Development of Thought: Equilibration of Cognitive Structures. Viking Press, 1977.
4. Rahimova, S. "Konstruktiv ta’limda refleksiv fikrlashni shakllantirish omillari." O‘zMU Axborotnomasi, 2024.
5. Tashpulatova, N. “Situativ topshiriqlar orqali talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish.” Ta’lim va innovatsiya, 2024.
6. Vygotsky, L. S. Thought and Language. MIT Press, 1986.
7. Yuldasheva, D. "Konstruktiv yondashuv asosida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari." Pedagogik izlanishlar jurnali, 2022.
8. Mahmudova Z. Konstruktiv va kommunikativ qobiliyatlar pedagogik mahorat negizi sifatida: nazariy va amaliy yondashuv. Ilm-fan xabarnomasi. Vol 8. No 1. 837-843-b.
9. Mahmudova Z. The scientific and thereotical foundations of situational modeling in preparing constructive teachers. International multidisiplinary journal for research & development. Vol 12. No 06. 519-523-b.
10. Mahmudova Z. Methods for developing pedagogical skills in modern education. Eurasian journal of entrepreneurship and pedagogy. Vol 3. No 1. 100-103-b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

FIZIK VA TEXNIK BILIMLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA MAKTAB OQUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Davletova Selbi Atadjanovna
Ajiniyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti
E-mail: nkilichovr@mail.ru; tel: 97-525-92-97

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab o‘qubchilarining tayanch kompetensiyalarini fizik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida rivojlantirish o‘quvchilarning raqobardosh bo‘lishi uchun har qanday o‘zgarishga tayyor bo‘lishi, yangi shartlarga tez va samarali moslasha olishi, yuqori mahoratga ega bo‘lishi, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini muntazam yangilashi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishida namoyon bo‘lishi ilmiy asoslangan. Shuningdek, maqolada maktab o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini fizik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida rivojlantirishda integratsiya g‘oyalari, integratsiyaning mohiyati hamda integratsiyalashgan darslar mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar (Keywords): *kompetensiya, integratsiya, yondashuv, izchillik, muloqot, sintez, dastur, harakat, rivojlanish.*

Kirish. Fizik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida maktab oquvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida fizika fanida o‘rganiladigan qonuniyatlarning muhandislik texnikasi va texnologiyalaridagi namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqligi o‘rnatilishi muhimdir.

Maktab o‘quvchilarining fizika darslarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning muhim shartlaridan biri fizika va texnologiya fanlari bo‘yicha umumlashgan tushunchalarni o‘zlashtirishdir. Masalan, o‘quvchilarni elektr payvandlash bo‘yicha amaliy o‘qitishni boshlashdan avval, ularga elektr payvandlash uskunalari va apparaturasi, ularning tuzilishi va ishlashining fizik asoslari bilan tanishtirish kerak: transformatorlar, doimiy tok mashinalari, elektrodlari, elektrod ushlagishlar, elektr yoyi, elektromagnit induksiya hodisasi va boshqalar. Ushbu fizik hodisalar va texnik obyektlar haqidagi bilimlar juda murakkab umumlashgan tushunchalardir. Shuning uchun o‘quvchilar ongida, masalan, transformator kabi umumlashgan tushunchani shakllantirish uchun turli fanlar: fizika, materialshunoslik, shizma va elektr texnikasi kabi fanlar bo‘yicha o‘qitish jarayonida shakllantirilgan bir qator tushunchalarga tayanish lozim.

Ayrim tushunchalar bir nesha fanlarni o‘rganish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Masalan, texnologiya fanlar o‘qitish jarayonida shakllanadi. Shu bilan birga,

o‘qituvchilarning fizika va texnologiya fanlari bo‘yicha bir-biri bilan kelishilgan tushuncha ta’riflari va har bir tushunchaning keyingi bosqishlarda, ularning oldingi shakllanish darajalarini hisobga olgan holda rivojlantirilishi nihoyatda muhimdir. Tushunchalarni shakllantirishda fanlararo aloqalar davomiyligini ta’minlash qanchalik muhim bo‘lsa, o‘sha fanni keyingi bosqichlarda turli o‘qituvchilar tomonidan o‘qitish jarayonida tushunchalarning rivojlanishini ta’minlash ham shunshalik muhimdir.

Ilmiy bilimlar tizimida tushunchalar juda muhim ahamiyatga ega. Ular yangi ilmiy kashfiyotlar va faktlar natijasida aniqlanadi. Ilmiy tushunchalar asosida qonunlar shakllantiriladi, nazariyalar ishlab chiqiladi. Masalan, “molekula” tushunchasi asosida moddalar tuzilishining molekulyar–kinetik nazariyasi ishlab chiqilgan va bir qator tabiat qonunlari shakllantirilgan. Tushunchalar o‘quv bilish jarayonining boshlang‘ish hujayralari, tarkibiy birliklari hisoblanadi. Shuning uchun, agar o‘quv bilish jarayonida ushbu fanning asosiy tushunchalari o‘zlashtirilmasa, u holda ushbu tushunchalar orasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi qonunlar ham o‘zlashtirilmaydi, va undan ham muhimrog‘i, tayanch kompetensiyalar shakllanmaydi.

Endi fizika fanining texnologiya fani bilan bog‘liqligi jarayonida tushunchalarni shakllantirishda davomiylikning ba’zi xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz. Bu yerda davomiylikning bir qancha jihatlari mavjud. Ulardan biri ushbu fanlar uchun umumiy bo‘lgan tushunchalarni shakllantirish jarayonida davomiylikni ta’minlash zaruratidan iborat.

Fizika va texnologiya fanlarini “Fan dasturi”ni o‘rganishni tashkil etish jarayonida o‘qituvchilar umumiy tushunchalarni o‘rganishda yagona va kelishilgan ilmiy yondashuvni qo‘llashlari kerak. Turli fanlarda umumiy tushunchalar va atamalarni aniq va kelishilgan tarzda qo‘llash tushunchalarni o‘zlashtirishdagi keng tarqalgan va tipik xatolardan birini, ya’ni A.V.Usova “tushuncha parshalanganligi” deb atagan xatoni bartaraf etishga yordam beradi. Bu xato shundan iboratki, turli fanlarni o‘rganishda bir tushuncha o‘quvchilar ongida ikki yoki undan ortiq tushunchaga “parshalanadi”. Masalan, A.V.Usovaning aniqlashisha, ba’zi o‘quvchilar moddalarni “kimyoviy moddalar” va “fizikaviy moddalar” deb ajratishadi. Birinshisiga ular kimyo darslarida o‘rganiladigan moddalarga (kislotalar, ishqorlar, asoslar) kiritsa, ikkinshisiga fizika darslarida o‘rganiladigan moddalarga (kristallar, suyuqliklar, gazlar) kiradilar [1, 71-b].

Bu yerda umumiy tushunchalar o‘quvchilarga ular bu mavzuni allaqashon o‘rganishgan degan taassurot beradi va boshqa fanlarda materialning oddiy takrorlanishi sodir bo‘lgan deb o‘ylashadi. Shu sababli, umumiy tushunchalarni turli fanlarda to‘g‘ri qo‘llashga aniqlik kiritish zarur.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, umumiy tushunchalarni ushta guruhga bo‘lish maqsadga muvofiqdir [1, 71-b].

O‘quv bilish jarayonida tushunchalarni shakllantirishning asosiy bosqishlarini sxematik tarzda quyidagisha ifodalash mumkin: sezgi – idrok – tasavvur – tushuncha.

Sezgi – bu predmetlarning alohida xususiyatlarini ularning sezgi a’zolariga bevosita ta’sirida ongda aks ettirish jarayonidir.

Idrok – bu sezgi a’zolariga ta’sir ko‘rsatadigan atrofdagi predmetlar va hodisalarning barcha xususiyatlari va qismlarini bir vaqtda ongda aks ettirish jarayonidir. Idrok sezgilarning tizimi va oldingi tajriba asosida shakllanadi.

Tasavvur – ilgari qabul qilingan predmetlarning obrazini tiklash bo‘lib, o‘tgan idroklarni qayta ishlash va umumlashtirish natijasidir. Tushunchalarni shakllantirish tasavvurlarga tayanadi. Tushuncha predmetlar va hodisalarning mohiyatini ikkinshi darajali, ahamiyatsiz jihatlaridan ajratib, aks ettiradi. O‘quvchilar tushunchani darhol o‘zlashtira olmaydi, balki uning mazmuni, boshqa tushunchalar bilan bog‘lanishi va munosabatlarini asta-sekin anglab boradilar.

Tushunchalarni umumlashtirish va o‘zlashtirish vositasi sifatida so‘zlar yoki ularni almashtiruvshi turli xil belgi va shartli tasvirlar xizmat qiladi.

Shunday qilib, biz “elementar birlik” sifatida fizik qonuniyatlarni texnika va texnologiya, kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog‘lash orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida fizikaga oid tushunchalarni texnik tushunchalar bilan bog‘lashni ko‘rishimiz mumkin.

Bunday fanlararo tushunchalar asosiy darajada uzoq vaqt saqlanib qolmaydi. Ular o‘rtasidagi aloqalar uzluksiz ravishda rivojlanib, murakkablashib boradi.

Shunday qilib, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining asosi oliy o‘quv yurtining o‘quv rejasidagi barcha fanlar tushunchalarining bog‘liqligini amalga oshirishdan iboratdir.

Fizika fanining kasbiy yo‘naltirilganligini amalga oshirish jarayonida ushbu ko‘rgazmalilikning o‘rnini aniqlash uchun bilim va ko‘nikmalarni egallash mexanizmini bosqishma-bosqish aqliy harakatlarni shakllantirish nazariyasi yordamida tahlil qilish zarur. Ma’lumki, ushbu nazariyaning markaziy bo‘g‘ini faoliyatning birligi sifatida harakatdir.

Agar ko‘pshilik o‘quvchilar uchun harakatni shakllantirishning bir bosqishidan ikkinshisiga o‘tishda qiyinshiliklar yuzaga kelsa, bu holat harakatning rivojlanishidagi uzviylikning buzilishi bilan bog‘liqdir. N.F.Talizina aqliy harakatlarni shakllantirishdagi uzviylikning buzilishini quyidagisha tavsiflaydi: “Agar biz harakatni moddiy bosqishdan tashqi nutqiy bosqishga “sakrab o‘tishga” harakat qilgan bo‘lsak, nisbatan ko‘p xatoliklar kuzatilgan”[2, 127-b]. U bu muammoni hal qilishning yo‘lini qo‘shimsha, oraliq o‘tish bosqishlarini joriy etishda ko‘radi.

Shunday qilib, tadqiqotimizda fizika fanini fizik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish lozim.

Fizika ta’limining *kasbiy yo‘naltirilganligi tamoyili* nafaqat fizika va texnologiya fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishdan, balki ma’lum bir ishlab chiqarish tarmog‘iga tegishli fanlar mazmuniga mos integratsiyadan iboratdir.

Fizika ta’limining kasbiy yo‘naltirilganligi tamoyili asosan kasbiy tayyorgarlik mazmuni, ta’lim va tarbiya shakllari va metodlari, shaxsning ushbu sohada mehnatga va ma’lum kasbga yo‘naltirilganligi orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyilining asosiy funksiyalari qanday?

Umumiy ma’noda, ushbu tamoyilning metodologik va regulyativ funksiyalari mavjud deb aytish mumkin. Kasbiy yo‘naltirilganlik tamoyilining metodologik funksiyasi jamiyatning mehnat taqsimoti va undan kelib shiqadigan inson faoliyatining yuqori darajadagi kasbiylashtirilishi o‘rtasidagi ijtimoiy ziddiyatni pedagogik yo‘l bilan bartaraf etishga qaratilgan. Regulyativ funksiyasi esa ta’lim mazmuni, usullari va vositalari tuzilmasini o‘zgartirish orqali shaxsning kasbiy yo‘naltirilganligini shakllantirish va fundamental ta’lim bilan kasbiy ta’limni integratsiyalashuvi bilan bog‘liqdir.

Kasbiy yo‘naltirilgan ta’lim tamoyilining amalga oshirishdagi eng muhim qoidalari quyidagilardan iborat:

Kasbiy tayyorgarlikni asos sifatida belgilash: Tayanch kompetensiyalar o‘quvchilarning turli jihatlardan tayyorlanishining asosi bo‘lishi kerak. Bu jarayonni jamiyatning ijtimoiy buyurtmasiga mos ravishda, integrativ, markaziy fazilatlar va faoliyat turlariga asoslangan holda, bosqishma-bosqish rivojlanadigan yagona va muvofiqlashtirilgan dastur asosida amalga oshirish zarur.

O‘quv rejalari mazmunini o‘zgartirish: umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv rejalari tuzilmasini chiziqlidan kombinatsion tuzilishga o‘tkazish kerak. Bu shuni anglatadiki, fizika va texnologiya fanlarining izshil joylashishi tendensiyasini saqlab qolgan holda, ularni bir vaqtda o‘qitish imkoniyatini yaratish lozim. Buning uchun texnologiya bo‘yicha o‘qitishni quyi sinflarga ko‘shirish, fizika o‘qitishni esa yuqori sinflarga ko‘shirish orqali amalga oshirish mumkin.

Kasbiy faoliyatga asoslangan material tanlash: fizika va texnologiya bo‘yicha tushunchalarni shakllantirishda misollar, faktlar va illyustratsiyalarni o‘quvchilar uchun kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasidan tanlash kerak.

Fizika o‘qitishda o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash: fizika bo‘yicha tushunchalarni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning olgan bilimlarini ishlatish va rivojlantirish, shuningdek, texnologiya darslarida texnik qurilmalardan foydalanish uchun bilimlarning asosini tayyorlash kerak.

O‘quvchilarni amaliy ishlarga jalb qilish: o‘quvchilarni tajriba ustaxonalarida ijodiy ishlab chiqarish mehnatiga jalb qilish orqali ularning ilgari olgan fizik va texnik bilimlarni aniqroq tushunishga ehtiyojini kushaytirish, shu bilimlar asosida amaliy va ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish qobiliyatlarini shakllantirish kerak.

Ushbu qoidalar, kasbiy yo‘naltirilgan ta’limni samarali amalga oshirish uchun, o‘quv jarayonining barcha jihatlarida to‘g‘ri rejalashtirish va integratsiyani ta’minlaydi. Bu esa o‘quvchilar uchun fizik va texnik bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq qilishda mustahkam asos yaratadi.

Bundan tashqari biz nazariy tahlil natijasida quyidagi umumdidaktik tamoyillar tizimini shakllantirdik, uning asosi sifatida raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning fizik va texnik bilimlar asosida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish olingan bo‘lib, ularga: *yaxlitlik, ochiqliq, harakatchanlik, komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi, bashoratlilik, natijakorlik* kiradi: yaxlitlik tamoyili mazmunli (maqsad, mazmun) va texnologik (vosita va usullar)ning o‘zaro bir-biri bilan uyg‘unligini aks ettiradi; ochiqlik tamoyili tashqi muhit omillari bilan shartlangan rivojlangan va o‘zaro aloqadorlikka moyillikni ifodalaydi; dinamiklik tamoyili uning o‘zgarib borayotgan sharoitlarda rivojlanishi va moslashuvini nazarda tutadi, metodikani takomillashish bosqichida samaradorlikni oshirish imkonini beradi; komponentlarning o‘zaro aloqadorligi tamoyili metodik modeldagi barcha komponentlarning o‘zaro moslashuvi va bir-biri bilan o‘zaro ta’sirini talab qiladi. Bu maqsad, mazmun, tashkiliy shakllar va metodlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, nazariy va amaliyotning bog‘liqligida ifodalanadi; nazariya va amaliyotning bog‘liqligi tamoyili fizik va texnik bilimlar, ko‘nikmalar va uquvlarning bir butunlikda shakllanishini hamda amaliyotda ro‘yobga chiqarilishini nazarda tutadi; bashoratlilik tamoyili tayanch kasbiy tayyorgarlik sharoitida metodik modelni qo‘llash imkoniyatida o‘z aksini topadi; natijakorlik tamoyili fizika fani doirasida o‘quv materialini o‘zlashtirish sharoitida metodik modelni qo‘llash natijalarini bashorat qilish imkoniyatida o‘z aksini topadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muammolarini tadqiq etishga nazariy metodologik yondashuvlarni tahlil qilish maktab o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini kelgusida takomillashtirish tizimli, kompetentli, faoliyatli va integrativ yondashuvlarning majmui nuqtai nazaridan eng mahsuldor bo‘lishiga ishontirdi. Quyida ularga atroflicha to‘xtalib o‘tamiz.

Tizimli yondashuv obyektlarni tizimlar sifatida ko‘rib chiqadi va uning yaxlitligi, amal qilish tamoyillari, ichki aloqadorligini ochib berishda obyektdagi turli aloqalar turlariga yo‘naltiradi. Tizimli yondashuv obyektlar tarkibiy tuzilishi, ularni tashkil qiluvchi komponentlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, komponentlar funksiyalari, ularning munosabatlarini ochib berishga imkon beradi. Tizimli yondashuv obyektlar, ularning komponentlari, tarkibiy aloqalarni bir butunlikda ko‘rib chiqishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqotimiz mazmunidagi kompetentli yondashuvda ta’lim jarayonini natija olishga yo‘naltirish aks etgan bo‘lib, tayanch kasbiy bilimlarni egallash, tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda o‘quvchilar uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikma va ijodiy qobiliyatlarni egallashdan iborat.

Pedagogik adabiyotlarda *kompetentli yondashuv* I.A.Zimnyaya [3], V.P.Bespalko [4]larning ishlarida metodologik va nazariy jihatdan ko‘rib chiqiladi, shuningdek amaliy metodologik jihatdan o‘quvchining tayanch kompetensiyasini shakllanganlik darajasiga qo‘yilgan talablar bo‘limida malaka talablarining natijaviy-maqsadli asosini belgilashda ifodalanadi. Tadqiqotimizda o‘quvchilarni fizika va texnik bilimlar integratsiyasi asosida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish amalga oshiriladi.

Maktab o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalari quyidagilar: modellashtirish – hodisa va jarayonlarni modellashtirish; loyihalash – bilim va ko‘nikmalardan foydalangan holda texnik muammolarini loyihalash; algoritmlash – muhandislik loyihalarini ishlab chiqishda ketma-ketlikni ta’minlash; loyihalash –raqamli texnologiyalar vositasida texnik ishlanmalarni loyihalash; avtomatlashtirish – modellashtirilgan texnik ishlanmalarni avtomatlashtirish; vizuallashtirish – texnik ishlanmalarni vizuallashtirish; tadqiqotchilik – shakllantirilgan kasbiy kompetensiyalar natijasida ilmiy tadqiqotlar olib borish.

Tadqiqotimizda yuqorida keltirib o‘tilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish amalga oshiriladi.

V.V.Davidov *faoliyatli yondashuvni* shaxsning harakatlarga tayyorligi bilan bog‘laydi, zero ular shaxsni faol ravishda faoliyatga kirishishga undaydi [5]. Har qanday faoliyat muayyan maqsadlar, o‘zining predmetli mazmuni, tashkil etilish shakli, muvofiqlashtirish va nazorat qilish usullari bilan ajralib turadi. Mazkur yondashuvda diqqat-e’tibor shaxsning faoliyatida, balki, ijtimoiy qadriyatlarda ham mujassamlashadi [5].

Bizning tadqiqotimizda faoliyatli yondashuv sifatida maktab o‘quvchilarining tayanch kabiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun so‘zidan)- bu suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar,moliya, investitsiya,ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni. 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish” [6].

Ta’limda *integrativ yondashuv* asosida o‘qitish, ilmiy –tadqiqot ishlari, fanlararo alaqadorlikning turli yo‘nalishlari va tamoyillari ularnig o‘quv jarayonlariga qo‘llanilishi borasida ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablarning ilmiy-amaliy jihatlari: M.K.Ashirova, P.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulovalarning ishlarida atrofliycha o‘rganilgan [10, 7].

A.T.Toshxonovning dissertatsiyasida ta’limda kasbiy tayyorgarlik integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari hamda regulyativ-kognitiv xususiyatlarining o‘quv-bilish jarayoni takrorlanuvchi komponentlariga ustvorlik berish hamda dinamik va vektorli yo‘naltirish asosida rivojlantirish hamda fundamental tushunchalar asosida fundamental fanlarga fanlararo integratsiyalash bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kasbiy tayyorgarligi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan [8]

Tadqiqotchi A.A.Jumanov o‘quvchilarda integrativ yondashuv asosida texnologik komptentligini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Bunda integratsiya ichki va tashqi ko‘rinishlarda ochib berilgan. Umumkasbiy fanlarni o‘qitishda fanlar mavzulararo ichki integratsiya va fanlararo tashqi integratsiya sifatida ko‘rib chiqqan [9].

Shunday qilib, integrativ yondashuv – mazmunan jihatdan aloqador, mantiqiy bir-birini to‘ldiruvchi va kengaytiruvchi fizika va texnologik ta’lim fanlarini integratsiyalash,

sohalar integratsiyasi, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi uchun qo‘llanilib (bizda fizika va texnologiya fanlari integratsiyasi), mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni hamda qobiliyatlarini tarkib toptirishdir.

Umuman olganda, metodologik yondashuvlar va umumdidaktik tamoyillarga asoslangan holda maktab o‘quvchilarini fizik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida tayanch kompetensiyalarini shakllantirishning metodik modeli ishlab chiqilshi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Усова А.В. Психолого-дидактические основы формирования у учащихся научных понятий. – Челябинск, изд-во Челябинского государственного педагогического университета «Факел», 2000.
2. Талызина Н. Ф. Деятельностная теория учения / Н. Ф. Талызина. М.: Издательство Московского университета, 2018. 440 с.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня; М. - 2003. - № 5. - С.34-42.
4. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – Москва: ИРПО, 1996.- 336 с.
5. Давыдов В.В. Деятельностная теория мышления. – М., 2005.
6. Djurayev R. Tolipov O‘. Safarova R. To‘raqulov X. Pedagogik atamalar lug‘ati. 2008. – 195 b.
7. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N. H. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T.: Voris-nashriyot, – 2013. – B. 10-35
8. Toshxonov A.T. Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yunalishining kompleks o‘quv rejasida integrativ o‘qitish metodining vazifalari // NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchniy vestnik NamGU. 2021. Maxsus son. 800-807 b.
9. Jumanov A.A. Talabalarda integrativ yondashuv asosida texnologik kompetensiyani rivojlantirish (Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari misolida) // p.f.f.d.(PhD) diss. avtoreferati. -–T. 2022. 51 b.
10. Ashirova M.K. Matematika o‘qitishda predmetlararo aloqadorlikdan foydalanish // Xalq ta’limi. - Toshkent, 1999 y.. - № 4 .- B . 109-112.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

OLIY TA’LIMDA ELEKTROMAGNETIZMGA OID AMALIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Xonazarova Salomatxon Abdurahmon qizi
QDU 70530510 – Fizika va astronomiya
2-bosqich magistranti
xonazarovasalomatxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta‘lim klasteridan foydalangan xolda talabalarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Elektromagnetizm, laboratoriya, kompetensiya, politexnik ta’lim, fizik kattalik, fizik eksperiment, laboratoriya jihozlari, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri.

Abstract. This article provides information on the methodology for developing students' practical competencies in electromagnetism using an educational cluster.

Keywords: Electromagnetism, laboratory, competence, polytechnic education, physical quantity, physical experiment, laboratory equipment, innovative cluster of pedagogical education.

Аннотация.В статье представлена информация о методике формирования практических компетенций студентов в области электромагнетизма с использованием образовательного кластера.

Ключевые слова:Электромагнетизм, лаборатория, компетентность, политехническое образование, физическая величина, физический эксперимент, лабораторное оборудование, инновационный кластер педагогического образования.

Kirish. Jahon miqyosida ta’lim sohasida olib borilayotgan o‘zgarishlar rivojlanish tendensiyasiga mos ravishda talim standartlarini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha ta’lim konsepsiyasid “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish’’, dolzarb vazifa etib belgilangan[1].

Jamiyatimizning ustuvor yo‘nalishlari va qadriyatlari o‘zgarib borayotgan hozirgi sharoitda ta’lim tizimiga yangi talablar qo‘yilmoqda. Bu esa talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantitishda o‘qitishning zamonaviy yo‘nalishi bo‘lgan ta’lim klasterini fizika faniga itegratsiya qilish, o‘qitish modellarini ishlab chiqish, talabalarning ta’lim

klasteri sharoitida amaliy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha metodik ilmiy asosda takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot srtategiyasi to‘g‘risidagi’’ PF- 60-son [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUNOZARA.

Pedagogik ta’lim klasteri faoliyatining asosiy maqsadi sifatida ta’lim mutaxassislarini innovatsion tajribaga ega bo‘lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish, yosh mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini egallash davri ni qisqartirish, ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlovchi mexanizmlarini takomillashtirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashda oliy ta’lim muassasalari tezkor imkoniyatlarini yaratish.

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri yo‘nalishlari ta’lim, ta’lim va ishla chiqarishdan iborat bo‘lsa, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri tamoyillari tabiiy aloqadorlik, yo‘naltirilganlik, manfaatlarning xususiyligi kabi komponentlardan tashkil topgan..


Rejasiz dars **Rejali dars**





Dars rejasi — bu o‘qituvchining yo‘l xaritasi


Elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini tashkil etish mexanizmi.



Axborotlarning globallashuvi va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligi iqtidorli talabalarning bilish imkoniyatlari va intellectual salohiyatiga uyg‘un bo‘lishi talab etiladi.

“Talabalarning elektromagnetizm bo‘limiga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish” modeli o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’lim (muammoli, qisman izlanuvchan, loyiha, tadqiqot) metodlari, o‘qitishning texnik vositalari orasidagi o‘zaro aloqadorlik


elementlarini o‘z ichiga oladi. Transformatorlarning tuzilishi va ishlatilishini o‘rganish mavzusida laboratoriya ishi ishlab chiqildi. Ushbu laboratoriya ishining boshqa ishlardan farqi berilayotgan topshiriqlarning kundalik turmushda qo‘llanilishidadir. Talabalarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy elektron o‘lchov asboblarini ishlash prinsiplarini laboratoriya sharoitida o‘rganishlari ularning kelgusi faoliyatlarida amalda qo‘llay olish kompetensiyasini rivojlantiradi [3].



3-rasm. Transformatorlarning tuzilishi va kundalik turmushda ishlashtilishni o‘r-ganish

Elektomagnetizm bo‘limiga oid laboratoriya ishlarini bajarishda amaliy kompetensiyani shakllantirish uchun avvalo talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalaridan kelib chiqqan holda darslarni tashkil etish hamda dars mobaynida interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish samarali bo‘ladi. “Assesment ” (inglizcha “ baho ”, “ baholash ”) metodi talabalarning olgan bilimlarini har tomonlama xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u bibliografik anketa, ta’lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual topshirig‘i, bahs –munozara, interv’yu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlari kabilardan tashkil topadi [3,4].

Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:



Assesment metodi o‘quv mashg‘ulotining barcha turlarida (dars boshlanish yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron-bir bo‘limi tugallanganida) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta’lim oluvchilarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan. Baholashda asosiy e‘tibor talabalarning amaliy kompetensiyalarining rivojlanganligiga qaratiladi [4].

1-Jadval: “Assesment ” metodini qo‘llash texnologiyasi

	Savol	**Javob**
1	Transformator qanday qurilma?	Transformator- bu keng diapazonda o‘zgaruvchan kuchlanishni(tokni) kuchaytirish yoki pasaytirishda ishlatiladigan turilma.
2	Transformatorning ishlash prinspi qanday?	Transformatorlarning ishlash prinsipi o‘zaro induksiyasiga asoslangan.I1 o‘zgaruvchan tok birlamchi o‘ramda o‘zgaruvchan magnit hosil qiladi. Bu esa, ikkilamchi o‘ramda o‘zaro induksiya EYUK ni hosil qiladi.
3	Transformatsiya koeffitsiyenti deb nimaga aytiladi?	Transformatorning ikkilamchi o‘ramda birlamchi o‘ramiga nisbatan EYUK necha marta katta yoki kichikligini ko‘rsatadigan koeffitsient transformatsiya koeffitsienti deb ataladi.

Modelda keltirilgan nazorat-baholash komponenti: nazorat ishlari, dars jarayonlarida, o‘z - o‘zini tahlil qilish, tashxislash, amaliyotda qo‘llash darajalarini baholash imkonini beradi. Ta’lim klasteri sharoitida o‘quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi o‘rganilganda quyidagi xulosalar qilindi. Talabalarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini pedagogik ta’lim innovatsion klaster modelidan foydalanish orqali rivojlanishga erishish mumkin ekanligi tajribada tasqidlandi.

Xulosa.Bugungi texnik inqilob sharoitida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining malakaviy tayyorgarlik sifatlariga qo‘yilayotgan talablarning tez-tez o‘zgarishi natijasida ularda kasbiy mustaqillik va texnik fikrlash ko‘nikmalari muhim hisoblanadi. Bunda ularning kasbiy motivatsiyasi, tashxislash va ixtirochilik, texnologik xaritalash va boshqarish, o‘z - o‘zini faollashtirish, texnik axborotlarni izlab topish va ularga ishlov berish kabi kongnitiv va refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida zamonaviy didaktik vositalar va elektron

axborot resurslaridan samarali foydalanish integrativ texnik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot srtategiyasi to‘g‘risida’’gi PF- 60-son farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y.

3. Ходжамкулов У.Н. Педагогик таьлим инновацион кластернинг илмий-назарий асослари // Пед. Фан. док (DSc). Дисс.автореф. Чирчик 2020.

4. Abdurazzoq Ernazarov Ta’lim klasteri sharoitida o‘quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish. Xalq ta’limi jurnali 2023. https://unilibrary.uz/articles/438044

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BO‘LAJAK SHIFOKORLARDA SHAKLLANISHI ZARUR BO‘LGAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALAR

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot insituti
“Lotin tili, pedagogika va psixologiya” kafedra
katta o‘qituvchisi ***Ergasheva Shahlo Po‘latovna***

Anotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak shifokorlarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni, uning mazmuni va tibbiy ta’limdagi ahamiyati keng yoritilgan. Muallif shifokor-bemor munosabatida muloqot madaniyati, empatiya, tinglash ko‘nikmalari, nutqiy ravonlik, mimika va pantomimikaning o‘rni hamda kommunikativ kompetensiyaning darajalari (yuqori, o‘rta, quyi)ni tahlil qiladi. Tadqiqotda bo‘lajak tibbiyot xodimlarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bosqichlari, kommunikativ-diagnostik jarayonning xususiyatlari, psixologik va pedagogik omillar, shuningdek kommunikatsiyani samarali tashkil etishning kasbiy ahamiyati ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan. Muallifning xulosasiga ko‘ra, kommunikativ kompetentlik shifokorning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi yetakchi omillardan bo‘lib, uni shakllantirish tizimli yondashuv, pedagogik jarayonning izchilligi va talabalarda shaxsiy hamda professional sifatlarni rivojlantirishni talab etadi.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak shifokorlar, kommunikativ kompetensiya, muloqot madaniyati, tibbiy ta’lim, shifokor-bemor munosabati, kommunikativ ta’sir, empatiya, verbal va neverbal muloqot, pedagogik kommunikatsiya, kasbiy kompetentlik.

Annotation. This article provides an extensive overview of the process of developing communicative competencies in future physicians, its content, and its significance in medical education. The author analyzes the role of communication culture, empathy, listening skills, speech fluency, facial expressions, and body language in doctor–patient relationships, as well as the levels of communicative competence (high, medium, low). The study substantiates, on the basis of scientific sources, the stages of developing communicative competence in future medical professionals, the characteristics of the communicative-diagnostic process, psychological and pedagogical factors, and the professional importance of organizing effective communication. According to the author’s conclusion, communicative competence is one of the key factors determining a doctor’s professional success, and its formation requires a systematic approach, consistency in the pedagogical process, and the development of personal and professional qualities in students.

Keywords: future physicians, communicative competence, communication culture, medical education, doctor–patient relationship, communicative influence, empathy, verbal and nonverbal communication, pedagogical communication, professional competence.

Аннотация. В данной статье подробно раскрыт процесс формирования коммуникативных компетенций у будущих врачей, его содержание и значение в медицинском образовании. Автор анализирует роль культуры общения, эмпатии, навыков слушания, речевой плавности, мимики и пантомимики во взаимоотношениях «врач–пациент», а также уровни коммуникативной компетентности (высокий, средний, низкий). В исследовании на основе научных источников обоснованы этапы развития коммуникативной компетентности будущих медицинских работников, особенности коммуникативно-диагностического процесса, психологические и педагогические факторы, а также профессиональная значимость эффективной организации коммуникации. Согласно выводу автора, коммуникативная компетентность является одним из ведущих факторов профессионального успеха врача, а её формирование требует системного подхода, последовательности педагогического процесса и развития личностных и профессиональных качеств студентов.

Ключевые слова: будущие врачи, коммуникативная компетенция, культура общения, медицинское образование, отношения «врач–пациент», коммуникативное воздействие, эмпатия, вербальная и невербальная коммуникация, педагогическая коммуникация, профессиональная компетентность.

Kirish. Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimida malakali shifokorni tayyorlash jarayoni nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni, balki bemor bilan samarali muloqot olib borish kompetensiyalarini rivojlantirishni ham taqozo etadi. Tibbiy xizmat sifati, ko‘plab ilmiy tadqiqotlar ta’kidlaganidek, shifokorning kommunikativ madaniyati va bemor bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishi bilan bevosita bog‘liqdir. Muloqot jarayonida shifokor nafaqat tashxis qo‘yadi yoki davolash rejasini belgilaydi, balki bemorning ruhiy holatini yengillashtiradi, uning ishonchini mustahkamlaydi va davolanish jarayonining muvaffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish bugungi kunda tibbiy ta’limning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak shifokor o‘z faoliyati davomida turli yoshdagi, turli xarakterga ega, emotsional jihatdan turlicha reaksiya bildiruvchi bemorlar bilan ishlaydi. Bunday vaziyatlarda shifokorning nutq madaniyati, tinglash ko‘nikmasi, empatiyasi, vaziyatni to‘g‘ri baholashi va o‘zini tuta bilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Sanab o‘tilgan kompetensiyalarni batafsil tekshirib, muvaffaqiyatli kommunikatsiya uchun zarur bo‘lgan tizimli kompetensiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu kompetensiyalar:

- nutqiy;

- savodli tarzda munosabatga kirishish;
- munosabat jarayonida qo‘llab-quvvatlash;
- munosabat jarayonida o‘z strategiyasiga ega bo‘lish;
- munosabat jarayonida vaziyatni hisobga olish;
- munosabatga kirishish jarayonida natijasini oldindan prognoz qilish;
- suhbat davomida qayta aloqa yo‘lga qo‘yish;
- kommunikatsiyadagi kirishishda tashabbusni qo‘lga olish va qo‘llab-quvvatlash;
- kutilgan natijaga erishish uchun imkoniyat yaratish;
- bemor tomonidan bildirilayotgan fikrlarni tasdiqlash;
- bemor bilan shifokor o‘rtasidagi muloqot jarayonida shifokorning diktsiyasi, mimika va pantomimikadan foydalanish elementlariga e’tibor qaratish;
- o‘z fikrini izchil va ravon bayon qilish.

Shunday qilib, bemor va shifokor o‘rtasidagi munosabatlarning jadallashgan sharoitlarida, kommunikativ kompetentlikning yuqori darajasi bo‘lajak shifokorlardan tayyorgarligi va himoyalanish darajasi yaxshi bo‘lgan mutaxassisni tayyorlashi mumkin. Bunda bo‘lajak shifokorlarning kasbiy faoliyatining eng muhim tomoni aynan insonlar bilan ishlash bo‘lishi kerak. Biroq, kommunikativ munosabatning barcha shakllarini yuqori darajada egallashi va mos ravishda o‘zini o‘rab turgan insonlar bilan ishni to‘g‘ri tashkil qilish uchun, bo‘lajak shifokorlar ayniqsa topqirlik, hozirjavoblik, uddaburonlik, o‘ziga bo‘lgan ishonch, notiqlik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Olib borilgan tahlillarimizdan kelib chiqib bo‘lajak shifokorlarning kommunikativ kompetentlik darajasini belgiladik:

Yuqori daraja: o‘ziga nisbatan e’tibor, o‘zining emotsiyasini boshqara oladi, o‘zini qayerda qanday tutishni biladi.

O‘rta daraja: bemorlar bilan munosabatda ochiqko‘ngil, boshqalar bilan samimiy, bemorlar tomonidan his-tuyg‘ular ifodalanayotganda vazminlik bilan eshita oladi, o‘zining reaksiyasini bemorlarga sezdirib qo‘ymaydi.

Quyi daraja: bemorlar bilan munosabatda yuqori impulsivlik, ochiqko‘ngillik va erkinlikning yetishmasligi, yurish-turish va xulq-atvorini o‘zgartira olmaslik.

Shu bilan birga, munosabatda qo‘llaniladigan kommunikativ kompetentlik omillarini quyidagicha tuzish mumkin:

- shifokor va bemorlar psixologiyasi sohasidagi zarur kompetensiyalar;
- shifokorlar uchun zarur kompetensiyalar;
- shifokorni bemor bilan muvaffaqiyatli munosabat uchun ayniqsa muhim bo‘lgan kerakli yo‘l-yo‘riqlarni rivojlantirishda tuzatishlar kiritish;
- bemorlarning o‘zini o‘zi baholashi, shuningdek insonlar orasida o‘rnatilayotgan o‘zaro munosabatlarni adekvat qabul qilish qobiliyati.

Yana bir bor bo‘lajak tibbiyot xodimlarining kommunikativ kompetentligiga murojaat qilib, u yo‘q joydan paydo bo‘lmaydi, chunki u so‘zsiz o‘zining shakllanish va bundan

keyingi rivojlanish jarayoniga ega ekanini ta’kidlash joiz. Biroq, mohiyatan, uning shakllanish asosini insoniy munosabatda to‘plangan katta tajribasi va mos ravishdagi hamkorligi tashkil qiladi.


Kommunikativ kompetentlik, avvalo, munosabatning zaruriy tajribasiga ega bo‘lishni ifodalashga qodir, shuning uchun bunday kompetentlik bevosita, shaxslararo insoniy hamkorlikda shakllanishi va faollashishi, hamda bo‘lajak shifokorning maxsus tayyorlash jarayonida insonning turli shakllardagi verbal va noverbal fe’l-atvorida mujassamlashishi kerak. Binobarin, kompetentlik aynan ta’lim, tarbiya beruvchi va rivojlantiruvchi yashash muhitining o‘ziga xos dinamikasida takomillashishi kerak.

Kommunikativ kompetentlik bo‘lajak shifokorni kasbiy faoliyati va eng samarali harakatlarini ko‘rish, rejalashtirish hamda amalga oshirishga qodir subyekt sifatida tavsiflaydi va bu harakatlar kommunikativ rolga oqilona va ma’naviy to‘g‘ri erishishga yo‘naltiriladi.

Ayrim pedagogik adabiyotlarda (Sh.A. Abdullayeva, M.T. Ahmedova, F.S. Ismoilova, A.N. Leontyev, N.Sh. Turdiyev) tahlilida bizga bo‘lajak o‘qituvchilarda kommunikativ kompetensiyaning shakllanish va rivojlanish jarayonini samaradorligini aniqlash bo‘yicha yoritgan. Ular tahlillar jarayonida ilm olishga doir mezonlarni tadqiq etishgan:

- talabalar motivatsiyasini oshirish;
- talabalar ijodiy faoliyatini oshirish;
- ta’lim jarayoni mazmunini sifatli boyitish.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.



“**1.4-rasm**. Bo‘lajak tibbiyot xodimlarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish”

Bo‘lajak shifokorlarning kommunikativ kompetentligi rivojlanishi murakkab va bosqichma-bosqich sodir bo‘ladigan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o‘z ichiga ham kommunikatsiyani tashkil qilishni, ham kommunikativ kompetensiyalarni qat’iy shakllantirish bilan kommunikativ iqtidrorni to‘laqonli rivojlantirishni kiritadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ma’lum darajadagi kommunikativ kompetentlikning shakllanganligi samarali natija uchun yo‘l ko‘rsatadi. Shunday qilib, kommunikativ kompetentlikning rivojlanish jarayonini aslo kommunikativ kompetensiyalarning shakllanish va munosabat iqtidori jarayonlaridan ajratilgan holda ko‘rib bo‘lmaydi. Bunda sifatli kasbiy ta’lim va tarbiya, albatta kelajakda mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini to‘laqonli rivojlantirishga yordam beradi.

Kommunikativ kompetentlikning rivojlanish jarayoni: kommunikatsiya, kommunikativ qobiliyat, kommunikativ mahorat, kommunikativ kompetentlikni o‘z ichiga oladi.

Ko‘rib turibmizki, kommunikativ faoliyat — o‘ziga xos va aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayon. Bunda kommunikativ faoliyatdagi, masalan ta’lim jarayonidagi ishtirokchilarning kasbiy o‘zaro munosabatlari, kommunikatsiyaning muvaffaqiyatli tashkil qilingani pedagogik mezonlardan biri hisoblanadi.

G.G. Chanishevaning fikricha: “Kommunikativ ta’sirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘qituvchining munosabatning asosiy uslublari va modellari haqida bilishiga hamda ulardan amaliyotda foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi, chunki ular munosabat subyektlariga psixologik ta’sir ko‘rsatadi.”

G.G. Chanishevaning tadqiqotlariga tayangan holda biz bo‘lajak shifokorlarning kommunikativ ta’sirini tahlil qildik va uni quyidagicha tavsifladik:

- bo‘lajak shifokorlar tomonidan muhokama qilinayotgan muammoga bildirilgan nuqtai nazar yoki o‘z fikrini aytishi amaliyot davomida amaliyotchi rahbarlar tomonidan rag‘batlantirilishi;
- har qanday zidlik yoki rad etish — norma, lekin asosli bo‘lishi lozim;
- kommunikativ jarayonda (biror bir kasallikni tahlil qilish va tashxis qo‘yish jarayonida) munosabatning barcha ishtirokchilariga etkazilishi;
- amaliyotchilarning burchi — munosabat ishtirokchilari faoliyatini asoslash va rag‘batlantirish.

Kommunikativ-diagnostik bosqichga o‘tar ekanmiz, biz tomonidan uning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari faraz qilinadi:

- bo‘lajak shifokor kompetensiyalarining kerakli rivojlanish darajasiga mukammal tashxis qo‘yish;

- kommunikativ funksiyalarni amalga oshirishda turli qiyinchiliklarni va qarama-qarshiliklarni to‘liq tushunish uchun bo‘lajak shifokorlar tomonidan ichki motivatsiyaga erishish;
- munosabatda o‘zining kelajakdagi eng muhim kompetensiyalarining rivojlanish darajasini rejalashtirish.

Bo‘lajak shifokorlarning alohida nazorat qilinuvchi kommunikativ qobiliyatlarini o‘zgartirishga mo‘ljallangan. Biroq kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish bo‘lajak shifokorlar tomonidan ham individual, ham guruhda amalga oshirilishi mumkin, ammo bu o‘ziga xos muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishdagi kasbiy yo‘naltirilganlik N. Muslimov, N. Usmonboeva, D. Sayfurov, A. Turaevning “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasi, S. Vasileyskiyning “Oliy maktabda ma’ruzaviy o‘qitish” tadqiqotlarida aks ettirilgan.

Ularda pedagogning ilmiy, pedagogik va ijtimoiy-siyosiy guruhlari ajratib ko‘rsatiladi. Ular bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish imkonini beradi. Pedagogning olim sifatidagi ilmiy jihatlari, fanlarni tanqidiy o‘qitish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik — asosiy didaktik tamoyillarni amalga oshirish, talabalar kasbiy yo‘nalishini ta’minlashga yordam beradi. Ijtimoiy-siyosiy sifatlar pedagogni o‘quv materialini yorqin, emosional tarzda bayon qiluvchi notiq sifatida namoyon qiladi.

Biroq bo‘lajak shifokorlarning kommunikativ kompetentligi muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan.

O‘quv mashg‘ulotlari va amaliyot ishlari davomida bo‘lajak shifokorlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini quyidagicha tadqiq etdik.

Bo‘lajak tibbiyot xodimlarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning yuqori darajasi quyidagilarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- ta’lim jarayonini tashkil qilishda ijobiy yo‘nalishlarning mavjudligi va manipulyatsiya, e’tiborsizlik reaksiyalarining mavjud emasligi, shuningdek o‘zaro munosabatlarda dialogik shakllarning va ta’limga yordam berishning umumiy strategiyasi ustun bo‘lishida;
- bo‘lajak shifokorlar tomonidan shifokor va bemor munosabatida umumiy qanoatlanganlik, o‘zining huquqiy holatiga o‘z-o‘zini yuqori baholashi;
- foydalanayotgan kommunikativ usullar variantliligi va o‘qitishning tanlangan uslubida bir xil bo‘lishi, shuningdek shifokor va bemor munosabatining butun vaziyatida.

Tibbiy ta’lim talabalarida kommunikativ kompetentlikning mutaxassislik fanlar bilan integratsiyalashgan dinamikasi yuzaga kelishi va rivojlanishini tavsiflovchi ruhiy-pedagogik mayl asta-sekinlik bilan ijtimoiy-ruhiy kompetensiyalarni o‘zlashtirib, atrofdagilarni bilish asoslarini shakllantirishga o‘tishni, shuningdek uning asosida o‘zini individual ijtimoiy-perseptiv idealini va pedagogik munosabatda o‘zini-o‘zi idora qilishni bildiradi.

Xulosa sifatida, tibbiy ta’lim talabalarining kommunikativ kompetentligining mavjud bo‘lishi nafaqat biror bir ma’lumotni etkazishda savodli yondashish, yetarli lug‘at zahirasiga ega bo‘lishi, nutq madaniyatiga, shuningdek turli-tuman ijtimoiy vaziyatlarda munosabatni boshqara olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak shifokorning kasbiy tayyorgarligi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, u avvalo o‘ziga xos xususiyat, fazilatlari — qiziqishlari, munosabatning ustun bo‘lgan uslubi, qadriyatlari va dasturiga ega bo‘lishi zarur. Bularning barchasi uning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xarakterini belgilaydi. U pedagogik ta’sir obyektining boshqa xususiyatlariga mos kelishi yoki mos kelmasligi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева Ш.А. *Педагогическая коммуникация в профессиональной подготовке*. – Ташкент, 2020.
2. Ахмедова М.Т. *Психология профессионального общения*. – Ташкент, 2018.
3. Ismoilova F.S. **Pedagogik kommunikatsiya asoslari**. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Леонтьев А.Н. *Педагогическое общение и деятельность учителя*. – Москва: Педагогика, 1981.
5. Turdiyev N.Sh. **Pedagogik kompetensiya va uning shakllanishi**. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
6. Muslimov N., Usmonboeva N., Sayfurov D., Turaev A. **Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari**. – Toshkent, 2015.
7. Вассилейский С. *Лекции в высшей школе*. – Москва, 2004.
8. Чанышева Г.Г. *Психология педагогического общения*. – Москва, 2002.
9. Oliy ta’lim vazirligi. **Tibbiy ta’limda kommunikativ kompetensiyalar bo‘yicha metodik qo‘llanma**. – Toshkent, 2022.
10. Karimova V.M. **Psixologik xizmat asoslari**. – Toshkent: Universitet, 2017.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UDK:613.862

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TIBBIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNI INTEGRATIV TIBBIYOT BILAN UYG'UNLASHTIRISH

Karimov Otabek Muratovich
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi.
otabek.muratovich@gmail.com, +998 93 410 03 03

Annotatsiya.Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning sog’lom rivojlanishiga belgilangan davlat ta’lim standartlari haqida ma’lumot berilishi bilan birga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lom turmush tarzini shakllantirish, bolalarning tibbiy bilimlarini rivojlantirishda an’anaviy, xalq tibbiyoti va tibbiyotdagi zamonaviy yondoshuvlarni uyg’unlashtirish ijobiy samara berishi haqida fikr yuritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ularning tibbiy bilimlarini rivojlantirish bolalarda nafaqat bolalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasi balki ularning sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishlari vazifasi ham o‘z echimini topadi. Keyingi yillarda kasalliklar turining ko‘payishi tibbiyot sohasiga bo‘lgfn e'tiborni yanada kuchayishiga olib keldi. Zamonaviy tibbiyotda bugungi kunda an'anaviy tibbiyot, profilaktik tibbiyot va integrativ tibbiyot kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: an’anaviy tibbiyot, xalq tibbiyoti, zamonaviy tibbiy yondashuvlar, kasalliklar, davlat ta’lim standartlari, sog’lom turmush tarzi, bilim, ko’nikma.

Аннотация:В статье представлена информация о государственных образовательных стандартах, установленных для здорового развития детей дошкольного возраста, а также положительное влияние сочетания традиционной, народной медицины и современных подходов к медицине в дошкольных образовательных организациях на развитие медицинских знаний детей. Формирование здорового образа жизни у детей дошкольного возраста и развитие их медицинских знаний решают задачу развития не только знаний и умений детей, но и их умения применять полученные знания по здоровому образу жизни на практике. В последние годы рост числа заболеваний обусловил повышенное внимание к медицинской сфере. В современной медицине сегодня можно встретить такие понятия, как традиционная медицина, профилактическая медицина и интегративная медицина.

Ключевые слова: традиционная медицина, народная медицина, современные медицинские подходы, заболевания, государственные образовательные стандарты, здоровый образ жизни, знания, умения и навыки.

Abstract: This article presents information on state educational standards established for the healthy development of preschool-aged children, as well as the positive impact of combining traditional, folk, and modern approaches to medicine in preschool educational institutions on the development of children's medical knowledge. Promoting a healthy lifestyle in preschool-aged children and developing their medical knowledge address the challenge of developing not only their knowledge and skills but also their ability to apply this knowledge in practice. In recent years, the rise in the incidence of diseases has led to increased attention to the medical field. In modern medicine, concepts such as traditional medicine, preventive medicine, and integrative medicine are now common.

Key words: traditional medicine, folk medicine, modern medical approaches, diseases, state educational standards, healthy lifestyle, knowledge, skills and abilities.

KIRISH. Mamlakatimizda 2018 yilda BMTning Yunisef tashkiloti ko‘magida yaratilgan va nashr etilgan “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"[1]gi Qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l xaritasida keng joriy etilishi belgilab qo‘yilgan. Davlat o‘quv dasturining 3-bobi “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv”[2] deb nomlangan va ushbu bobda maktabgacha (6-7) yoshdagi bolaning muhim kompetensiyalari hamda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari belgilab berilgan.

Davlat ta'lim standartining asosiy maqsadi sifatida “maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama etuk qilib voyaga etkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etish...”[2], deb belgilandi.

Biz o‘z maqolamizda an'anaviy va noan'anaviy tibbiyot uyg‘unligini ta'minlagan va ularning o‘zaro integrasiyasi asosida, ya'ni integrativ tibbiyot asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning tibbiy bilimlarini oshirish va ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalarini yoritishni maqsad qilganmiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog’lomlashtirirsh, ular o’rtasida sog’lom turmush tarzini shakllantirirsh masalalari juda ko’p tadqiqotchilar tomonidan o’rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining bir qator meyoriy hujjatlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy va gigienik omillarni (oilaviy sharoitlar, sanitariya, ovqatlanish sharoitlari) ta’kidlanadi.

To‘rayev Axrorbek Tojdinovichning tahlillariga ko’ra, “maktabgacha yosh bolaning tashqi muhit va tabiat bilan bevosita bog’liq bo’lgan yosh davri hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalarda sog’lom turmush tarzini shakllantirishning ahamiyati shundaki, aynan shu yoshda hayot haqidagi asosiy tasavvurlar shakllanib, fundamental stereotiplar ishlab chiqiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzining asoslari sog'lom turmush tarzi elementlari (rejimga rioya qilish, gigiena protseduralari, jismoniy faollik) haqida bilim va tushunchaning mavjudligi va ularni bola uchun qulay bo'lgan usullar bilan (tishlarni yuvish, qo'llarni yuvish, mashqlar bajarish) xulq-atvor va faoliyatga tatbiq etish qobiliyati bilan belgilanadi”[3].

Tadqiqotchilar F.Salomova va A.Imamovalar bolalar bog'chalarida tez-tez kasallikka uchraydigan bolalarning gigienik sharoitini yaxshirish usullari borasida o’z izlanishlari natijalari bo’yicha quyidagi tavsiyalarni beradilar: “1.Keng qamrovli gigiena siyosatini ishlab chiqish: Bolalar bog'chalari gigiena amaliyotlari, tozalash jadvallari va kasalliklarni boshqarish protokollarini belgilovchi aniq ko'rsatmalarni ishlab chiqishi kerak. 2. Xodimlar uchun treninglar o'tkazish: Gigiena amaliyotlari bo'yicha muntazam treninglar xodimlarning to'g'ri xatti-harakatlarni amalga oshirish va namuna sifatida ko'rsatish uchun jihozlanganligini ta'minlaydi. 3. Ota-onalar va vasiylarni jalb qilish: Oilalarni gigiena ta'limiga jalb qilish uyda amaliyotlarni mustahkamlaydi va sog'liqqa izchil yondashuvni shakllantiradi. 4. Amaliyotlarni monitoring qilish va baholash: Gigiena amaliyotlari va kasallik darajasini muntazam ravishda baholash yaxshilanish sohalarini aniqlashga va aralashuvlar samaradorligini o'lchashga yordam beradi. Ushbu strategiyalarni qo'llash orqali bolalar bog'chalari gigienik sharoitlarni sezilarli darajada yaxshilaydi, shu bilan tez-tez uchraydigan kasalliklar sonini kamaytiradi va yosh bolalar uchun sog'lom muhitni yaratadi”[4].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom turmush haqidagi bilimlarini xar hil turdagi hayotiy vaziyatlar (o'yin, o'qish, ish) orqali kengaytirish maqsadga muvofiq. Katta guruhlardagi maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarini rivojlantirishda avvalo ota-ona, tarbiyachilar, oiladagi akalari va opalari va o’rtoqlarining ham shaxsiy namunasi muhim rol o'ynaydi. Ularning ta'siri natijasida bolalarda o’z sog’liqlarini saqlashga bo’lgan moyillik shakllanadi. Shuning uchun ham, ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan bolalarda sog'lom turmush tarzini olib borish istagini uyg'otish vazifasi bajarilishi maqsadga muvofiqdir.

“O'zbekistonda "sog'liqni saqlash muhiti"ni mustahkamlashga qaratilgan maktabgacha ta'lim islohotlari kuzatilmoqda: bolalar bog'chasi infratuzilmasi, pedagogik dasturlar va standartlarni takomillashtirish. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimida muhim bosqich bo'lib, bolaning shaxsini shakllantirishda va uni keyingi ta'limga tayyorlashda muhim rol

o'ynaydi. O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim tizimida barcha bolalar uchun ta'lim xizmatlarining sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini yaxshilashga qaratilgan muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda”[5], deya fikr bildiradi tadqiqotchi L.Mo’minova.

Tadqiqotchilar Z.Adilova, F.Azizova, Sh.Adilovlar ta’kidlashicha, “Sog'liqni saqlash holatini faqat ko'plab parametrlarning kombinatsiyasi bilan ob'ektiv ravishda aniqlash mumkin: antropometrik, klinik, funktsional, fiziologik va biokimyoviy, jins va yosh omillarini, shuningdek, ijtimoiy, klinik, geografik va meteorologik sharoitlarni hisobga olgan holda aniqlanadi”.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

“Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o‘quv dasturida kompetensiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir”[2].

Dastur bilan asosiy muhim kompetensiyalar sifatida quyidagi kompetensiyalarga ta'riflar berilgan(1 - jadval)

1 -jadval[2]

Maktabgacha (6-7) yoshdagi bolaning muhim kompetensiyalari

Asosiy kompetensiyalar	**ta'rifi**
Kommunikativ kompetensiya	muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.
O‘yin kompetensiyasi	bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.
Ijtimoiy kompetensiya	hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati
Bilish kompetensiyasi	atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni bajarish uchun foydalanish

Shuningdek, “Ilk qadam” dasturida bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari sifatida “jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish”[2] kabi sohalarga e'tibor qaratilgan.

«Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi» sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

•o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatishi;

•turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni bilishi;

•turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanishi;

•o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqarishi;

•shaxsiy gigiena malakalarini qo‘llay olish”[2] i belgilab berilgan.

Mamlakatimizda "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ning ijrosini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli qarori bilan “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI”[7] qabul qilindi.

Davlat ta'lim standartida belgilanishicha, “Davlat talablari rivojlanish sohalari integrasiyasini nazarda tutadi va bola rivojlanishiga ko‘maklashadi”[7] hamda “Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo‘yicha belgilanadi:

jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;

ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;

bilish jarayonining rivojlanishi;

ijodiy rivojlanish[7].

Birinchi soha hisoblangan «Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi» sohasi quyidagi kichik sohalarga bo‘linadi:

yirik motorika;

mayda motorika;

sensomotorika;”[7].

Davlat talablarida belgilanishicha bolalarning yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

“go‘daklik (tug‘ilgandan 1 yoshgacha);

erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);

kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);

o‘rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);

katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);

maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha)”[7].

Bizning o‘rganish ob'ektimiz katta maktabgacha yosh – 5 yoshdan 6 yoshgacha va maktabga tayyorlov - 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalardan iborat.

DTS ga binoan Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishining kichik sohasi: Yirik motorika bo‘lganda, unga bo‘lgan “talab: Bola o‘z tana a'zolarini boshqarishi, maqsadli to‘g‘ri harakatlanishi [7]dan iborat.

DTS ga binoan Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishining kichik sohasi: Mayda motorika bo‘lganda, unga bo‘lgan “talab: Bola qo‘li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatishi [7]zarur.

DTS ga binoan Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishining kichik sohasi: “Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik” bo‘lganida esa “Bola sog‘liqni saqlash malakalarini namoyon qilishi. Bola xavfsiz sog‘lom taom va hayot xavfsizligi qoidalari haqida tushunchaga ega bo‘lishi”[7] talablariga javob berishi zarur.

Keyingi yillarda kasalliklar turining ko‘payishi tibbiyot sohasiga bo‘lgfn e'tiborni yanada kuchayishiga olib keldi. Zamonaviy tibbiyotda bugungi kunda an'anaviy tibbiyot, profilaktik tibbiyot va integrativ tibbiyot kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin.

Ma'lumki, bugungi kundagi an'anaviy(ilmiy asoslangan) tibbiyot xalqona tibbiyot negizida ilm va fan taraqqiyoti natijasida shakllangan bo‘lib, an'anaviy tibbiyot deganda ilmiy jihatdan asoslangan, aniq bir tahlil va tajribalar asosida shakllangan va maxsus ruxsatnoma asosida tayyorlangan dori-darmonlar vositasida hamda jarrohlik amaliyotini keng qo‘llagan holda insonlardagi kasalliklarni davolaydigan tibbiyotni tushunamiz.

Noan'anaviy tibbiyot deyilganda bu o‘zida turli xalqona usullarni (fitoterapiya, igna sanchish, naturopatiya, gomeopatiya) birlashtirgan, ilmiy jihatdan asoslanmagan bo‘lsa-da, shaxsiy va jamoaviy tajribalar asosida shakllangan davolashga asoslangan tibbiyotni tushunamiz.

Bugungi kunda an'anaviy tibbiyot, noan'anaviy tibbiyot va sog‘lomlashtirishga bo‘lgan zamonaviy yondoshuvlarni eng samarali usullaridan foydalanish, ya'ni integrativ tibbiyotni ta'lim-tarbiyaga uyg‘unlashtirish maktabgacha yoshdagi bolalarning tibbiy bilimlarini rivojlantirish va ularda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda yuqori samara berishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Integrativ tibbiyot insonning sog‘ligidagi muamolarni faqatgina fiziologiy holat emas, balki uning ruhiy va ma'naviy holatidagi o‘zgarishlar natijasidir, deb hisoblaydi va insonni faqatgina kasallangan organini emas, balki uning ruhiy, ma'naviy va fiziologik muammolaridan kelib chiqqan holda davolashni ko‘zda tutadi.

Integrativ tibbiyotning asosiy maqsadi faqat kasallangan tanani emas, balki butun organizmni sog‘lomlashtirishga qaratilgan. Integrativ tibbiyotning asosiy instrumenti – bu insonga tizimli yondoshuv hisoblanadi. Bu erda biz insonning turmush tarzi, qanday ovqatlanishi, jismoniy faolligi, dam olishi, me'yorda uxlashi va atrofdagilar bilan munosabati kabi masalalarga e'tibor qaratamiz.

XULOSA.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ularning tibbiy bilimlarini rivojlantirish bolalarda nafaqat bolalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasi balki ularning sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha olgan bilimlarini amalda qo‘llay olishlari vazifasi ham o‘z echimini topadi.

Bevosita maktabgacha yoshdagi bolalarning tibbiy bilimlarini integrativ tibbiyot asosida rivojlantirish masalalsiga to‘xtalar ekanmiz, bolalarning sog‘ligini mustahkamlash, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muammosini faqatgina bolalarning tibbiy bilimlarini rivojlantirish orqali erishishimiz mumkin.

Yurtimizda bolalarning bilish, gapirish, ijtimoiy, jismoniy va badiiy kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri ta'lim sohalarini integrasiyalashdan iborat.

Maktabgacha ta'limdagi ta'lim-tarbiya integrasiyasi esa bolalarga faqat dars mashg‘ulotlaridagina emas, balki ularning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi butun hayoti va faoliyati ta'minlanishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сонли "Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" ги Қарори.https://nrm.uz/contentf?doc=588192_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidentining_08_05_2019_y_pq-4312-son_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_maktabgacha_talim_tizimini_2030_yilgacha_rivojlantirish_koncepciyasini_tasdiqlash_to%E2%80%98g%E2%80%98risidagi_qarori&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana

2. “Илк қадам” мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. Тошкент – 2018 йил. 72 б.

3. To‘rayev, Axrorbek Tojdinovich, Ergashev, Axrorbek MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA CHINIQTIRISH SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI // ORIENSS. 2022. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-tashkilotida-chiniqtirish-sog-lom-turmush-tarzini-shakllantirish-vositasi (дата обращения: 19.11.2025).

4. Salomova Feruza Ibodullayevna, Imamova Akida Obidjon qizi. THE WAYS OF IMPROVING OF HYGIENIC CONDITIONS OF FREQUENTLY ILL CHILDREN IN KINDERGARTENS. Volume 1 № 1| MART 2025. European youth innovation society conference.https://eyis.org.uz.P.99-102.

5. Лейла Умаровна Муминова.ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВЫЗОВЫ. (2025). INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 1(25), 163-165. https://doi.org/10.70728/grx0ps14.science-technology.uz

6. Z.Adilova, F.Azizova, Sh.Adilov. PRESCHOOL CHILDREN’S HEALTH AND RISK FACTORS THAT AFFECT HEALTH. (2022). Academicia Globe: Inderscience Research , 3(01), 69-75. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/CZBDV. agir.academiascience.org.

7.МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИНГ ДАВЛАТ СТАНДАРТИНИ ТАСДИҚЛАШ ТЎҒРИСИДА. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 22.12.2020 йилдаги 802- сон. https://lex.uz/ru/docs/5179335

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

QORQIT OTADAN MEROS

Erbolat Mustafoyev
Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan arbobi
Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti professori
erkoja63@mail.ru
E’zozxon Qobilova
Qo‘qon davlat universiteti professori
bakirovna77@gmail.com

Annotatsiya.Ushbu maqolada Qorqit otaning buyuk merosi o'rganiladi. Qorqit ota nafaqat qobizchi, balki mutafakkir,dono inson, adolatli sudya, ustoz va yarashuv elchisi ham tarbiyachi bo'lgan.U ibratli so'zlar qoldirgan, ularni o'rganish o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda ko'plab materiallar beradi.Qo'ng'ir qobizining otasi Qorqitning kelajakka qoldirgan vasiyatlari, maqollari va iboralari muhokama qilinadi. Qorqit ota butun turkiy dunyoning otasi. Qorqit otaning so'zlari, albatta, o'sib kelayotgan avlod uchun ozuqa bo'ladi.

Kalit so’zlar:qobizchi, mutafakkir , sudya, yarashuv elchisi,tarbiyachi ,ta’lim, tarbiya, sinkretik san'at, jirg'a maqomlari, turkiyzabon, musiqa ustozi, Qorqit ota, meros, dostonlar, “Qorqit ota kitobi”, turkiy xalqlar, qo‘biz, og‘zaki ijod, ma’naviy qadriyatlar, falsafiy qarashlar, musiqa merosi, tarixiy xotira.

Annotation. This article examines the great legacy of Korqit Ota. Korqit Ota was not only a poet, but also a thinker, a wise man, a just judge, a teacher and an ambassador of reconciliation, and an educator. He left behind instructive words, the study of which provides a lot of material for educating the growing generation. The wills, proverbs and expressions left by Korqit, the father of the Kungir poet, to the future are discussed. Korqit Ota is the father of the entire Turkic world. Korqit Ota's words will certainly be food for the growing generation.

Keywords:qobiz, thinker, judge, ambassador of reconciliation, educator, education, upbringing, syncretic art, jirga statuses, Turkic-speaking, music teacher, Korqit Ota, heritage, epics, "The Book of Korqit Ota", Turkic peoples, qobiz, oral creativity, spiritual values, philosophical views, musical heritage, historical memory.

Аннотация.В данной статье рассматривается великое наследие Коркита Ота. Коркит Ота был не только поэтом, но и мыслителем, мудрецом, справедливым судьей, учителем, послом примирения и просветителем. Он оставил после себя поучительные

слова, изучение которых даёт богатый материал для воспитания подрастающего поколения. Рассматриваются завещания, пословицы и изречения, оставленные Коркитом, отцом кунгирского поэта, будущему. Коркит Ота – отец всего тюркского мира. Слова Коркита Ота, безусловно, станут пищей для подрастающего поколения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА; гобыз, мыслитель, судья, посол примирения, просветитель, образование, воспитание, синкретическое искусство, положения джирги, тюркоязычный, учитель музыки, Коркыт Ота, наследие, эпосы, «Книга Коркыт Ота», тюркские народы, гобыз, устное творчество, духовные ценности, философские взгляды, музыкальное наследие, историческая память.

KIRISH. Qorqit ota turkiy dunyoning eng qadimiy ma’naviy timsollaridan biri bo‘lib, uning ijodi o‘zbek va qozoq xalqlarining tarbiyaviy, axloqiy va ma’rifiy merosida alohida o‘rin egallaydi. Qorqit ota dostonlarida mujassam bo‘lgan mardlik, ezgulik, adolat, el-yurtga sadoqat, do‘stlik va insonparvarlik g‘oyalari bugungi zamon yoshlarining ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita bo‘la oladi. Uning “hayot mazmuni”, “o‘lim bilan kurash”, “insonga beqiyos ehtirom” haqidagi qarashlari yoshlarni hayotning qadriga yetish, sabr-toqatli, qat’iyatli va maqsadli bo‘lib yashashga undaydi.Sir mintaqasi san'at xazinalariga boy mintaqadir. Qo'ng'ir qobizning otasi bo'lgan Qorqitdan boshlangan sinkretik san'at avloddan-avlodga susaymasdan davom etmoqda. Sir mintaqasining jirg'a maqomlari boshqacha o'rin tutadi desak ham, ularning qobiz kuylari va Sir kuylari bilan davomiyligini ko'rishimiz mumkin. Sir va Amudaryo daryolari bo'yida joylashgan Turon mintaqasining urf-odatlari, an'analari va boy san'ati barcha turkiyzabon qarindosh xalqlar madaniyatida muhim o'rin egallagan, desak mubolag'a bo'lmaydi.Qozoq afsonalarida Qorqit Ota qozoq kuylarining otasi, qo'shiqlar, kuylar va musiqa ustozi deb aytiladi. Qorqit yashagan davrdan bizda kuylar yoki ohanglarning namunalari yo'q. Shuning uchun biz ajdodlarimiz musiqasining kelib chiqishini Qorqit Otaga borib taqaladi. Ba'zi afsona va ertaklar yolg'on, ba'zilari esa haqiqat ekanligi ma'lum. Tarixiy ma'lumotlarda ham xato yo'q deb ayta olmaymiz. Lekin bir narsa aniq. Qorqit shaxs bo'lgan, u qobiz chalgan va u chalgan kuylar vaqt o'tishi bilan bizga yetib kelgan. Shokan bobomizning so'zlariga ko'ra, “Qorqit qobizni ixtiro qilgan birinchi mashhur kuychi, barcha qo'shiq va kuylarning otasi, qozoq kuychilariga qobiz chalishni birinchi bo'lib o'rgatgan ustoz edi. Qozoq musiqasining ildizlari shu Qorqitdan boshlanadi [1, 215-bet].Buni faqat Shokan Valixonovning fikri sifatida tushunish kerak. Biz Qorqitni qozoq xalqining musiqa ustozi sifatida taqdim etish vatanparvarlik tuyg'ularidan kelib chiqqan fikr deb hisoblaymiz. Biz Qorqitni turkiyzabon xalqlar orasida qozoqlarni ustoz, jirov va qobizchi sifatida taqdim etish deb tushunamiz.Qorqit otaning turkiyzabon xalqlar orasida ulug'lanishida o'ziga xoslik bor. Bir mamlakatda u daho, boshqasida folbin deb ataladi. Bir mamlakatda u o'limdan qutulgan deyishadi, boshqasi esa uni qobiz cholg'usini birinchi bo'lib yaratgan deb hisoblaydi. Qozoq xalqi o'limdan qutulganlarni "shaytonlar" deb ataydi. Chunki faqat shaytonlar o'lmaydi. Ma'lumki, islom diniga e'tiqod qiluvchi odamlarga "Qorqit

o'limdan qutulib, adashib qoldi" degan maqol yoqmaydi. yer yuzida o'lmaydi deb o'ylab, yer yuzini o'ldirdi." Ba'zilar "Qorqit Islom tarqalishidan oldin yashagan, u Xudoning diniga ergashgan va shuning uchun u o'limdan qutulgan deyishadi", deyishadi. Va umuman olganda, Islom so'zining o'zi sof, halol, sof va sodiq degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun Islom dini faqat VI asrdan beri rivojlangan deyish katta yolg'ondir. Islom dini Odam Ato (a.s.) va Momo Havodan, ya'ni insoniyatning paydo bo'lishi bilan boshlanadi, deyish to'g'riroq. Islom insoniyat uchun hayot tamoyilidir, u yaxshilik va halollikka chaqiradi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Mashhur olim, turkologiya asoschisi Auelbek Qo'niratbayev butun umrini Qorqitlarni o'rganishga bag'ishladi [2]. "734-yilda Oltoyda Turk xoqonligi qulaganidan so'ng, Jetisuvdan Qoraxoniylar, Sirdan (Jankent) esa O'g'uz-Qipchoq ulusi tashkil topdi. Biroq, Saljuqiylar 956-yilda Islomni qabul qilganlaridan so'ng, O'g'uz ulusi parchalanib ketdi va ulus 1043-yilda parchalanib ketdi. Bu davrga oid "Kitob dadam Qorqit ali lisan taifa o'guzan" deb nomlangan ajoyib she'rlar mavjud. Bu she'rlar X-XI asrlarda Sirda yozilgan. Roviy Qorqit", deydi u va "O'g'uz-qipchoq qabilalarining etnogenezi qozoqlar uchun alohida ahamiyatga ega. Biz bu yerda "O'g'uz" so'zini keng ma'noda qabul qilamiz. Axir, o'zbek, qozoq va turkman qabilalari IX-X asrlarda o'sha o'g'uzlardan kelib chiqqan". [3, 160-bet]. Qizilo'rda viloyatining Kazali tumanidagi Orkendeu qishlog'i hozirda Jankent shahri o'rnida joylashgan.O'g'uz ulusi, o'g'uz-qipchoqlar haqida gap ketganda, har qanday yozuvchi, olim yoki san'at tadqiqotchisi uchun birinchi bo'lib Qorqit bobo xayolga kelishi rost.Har bir xalqning o'z Qorqit bobosi bor. Ular uning podshoh, o'sha podshohning vaziri, dono ustoz, folbin, donishmand, duradgor, qobizchi, adolatli sudya va boshqalar bo'lgan deyishadi. Olimlarning fikriga ko'ra, Qorqitning yer yuzida 8 ta qabri bor. Afsonalardan biri rost, ikkinchisi esa yolg'on ekanligini bilasiz. Zamonaviy Qizilo'rda viloyatida, Sirdaryo bo'yida joylashgan Qorqit qabri shu afsonalardan biridir. Mana shu haqiqat. Qorqit nomi turkman, chechen, ozarbayjon, turk, qozoq va boshqa xalqlarda uchraydi. Biz Qorqit otani donolik, ta'limot, axloq va tarbiya bilan ulug'laymiz. Agar uni umuman insondagi yaxshilik, ezgulik va yaxshi fazilatlar yig'indisi qahramoni desak, adashmaymiz. 40-50 yil oldin, ikki mamlakat urushayotgan paytda televizorda namoyish etilgan "Nasimi", "Rustem-Suhrab", "Rustem afsonasi" va boshqa filmlarda uzun oq ko'ylak va oq soqolli cholning qirg'in paytida "Urushni bas qiling, odamlar, bir-biringizni o'ldirmang, bu gunoh" deb baqirib yurganini ko'rishingiz mumkin. Uning urushayotgan ikki mamlakat o'rtasida yarashuv va do'stlik yo'lida yurgan oqsoqol ekanligini payqaysiz. Bu kichik bir misol shuni ko'rsatadiki, qahramon yurtga yo'l ko'rsatadigan, donoligi bilan o'rtoqlashadigan va adolatli baho beradigan odamlar orasidan qidirilgan va bu qahramon hali ham qidirilmoqda.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Qorqit ota turkiy xalqlar ma’naviy merosining eng qadimiy va eng muhim ramziy siymolaridan biri bo‘lib, uning ijodi asrlar davomida og‘zaki an’ana orqali avloddan avlodga yetib kelgan. “Qorqit ota kitobi”dagi dostonlar nafaqat tarixiy voqelikni aks ettiradi, balki

o‘zbek, qozoq, turkman, ozarbayjon va boshqa turkiy xalqlarning dunyoqarashi, e’tiqodi, ma’naviy qadriyatlari va axloqiy qarashlarini mukammal tarzda ifodalaydi. Undagi qahramonlar, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar xalqning turmush tarzi va mentalitetini aks ettiruvchi noyob badiiy vositadir.Qorqit otaning donishmandlik, adolat, jasorat, vatanparvarlik, mehr-shafqat kabi g‘oyalari hozirgi yoshlar tarbiyasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Uning dostonlaridagi obrazlar xalqni birlikka, do‘stlikka, mardlikka undaydi. Qorqit otadan meros bo‘lgan kuylar – “Qorqit kuy”, “Aqko‘bik”, “Bozorum” kabi qadimiy nag‘malar Turk dunyosining musiqiy-falsafiy dunyoqarashini ifodalaydi. Bu qo‘shiqlar inson ruhiyatini yengillik, orzu, sabr va hayotiy kuch bilan to‘ldiradi. Qorqitning qo‘bizda chalgan kuylarining bugungi kunda ham turli xalqlar ijrochiligi orqali yashab kelayotgani uning merosining universalligini tasdiqlaydi.

1. Qorqit ota merosi turkiy xalqlarning umumiy ma’naviy ildizlarini ko‘rsatadi, xalq og‘zaki ijodi, falsafa va musiqani o‘zida mujassam etadi.

2. “Qorqit ota kitobi” dostonlaridagi g‘oyalar hozirgi davr yoshlarining tarbiyaviy jarayonida dolzarbdir, ayniqsa mardlik, sadoqat, el-yurtga muhabbat kabi fazilatlarni shakllantirishda ahamiyatli.

3. Qorqit musiqasi qadimiy terapiya vositasi sifatida e’tirof etiladi, uning qo‘biz kuylarida inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi kuch mavjud.

4. Merosning ko‘p millatli xarakteri uni xalqaro ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manbaga aylantiradi, chunki Qorqit obrazi butun Turk dunyosining mushtarak qadriyatidir.

5. Qorqit ta’limoti falsafa, adabiyot, etnografiya, musiqa va madaniyat sohalarida keng tadqiq etilishi lozim bo‘lgan boy manbadir.

Qorqitt Ota haqida gapirish uchun u haqida yozilgan va tadqiq qilingan ma'lumotlarga to'xtalib o'tmasdan ilojimiz yo'q.

Qorqit tug‘ilgan kezda
Qaraspanni suv bosgan,
Yer yuzini qora qum qoplagan.
U dunyoga kelayotganda el qo‘rqqan,
Tug‘ilgach esa xalq quvonchga to‘lgan.

Bu xalq orasida tez-tez aytiladigan afsonalardan biri. Keling, xalq orasida aytiladigan yana bir naqlga to'xtalib o'tamiz.Qorqit butun umrini o'limdan qochib o'tkazdi, "Men o'lmayman, o'lim degan narsa yo'q" dedi. Bir kuni tuyasi (Jelmayasi) yurishdan to'xtaganida, u g'azablanib: "Oh, o'lim kelyapti", dedi va uni qamchisi bilan urdi. Keyin Janalgish kelib: "Siz ilgari o'lim yo'q, o'lim kelyapti degan so'zni o'z og'zingizdan chiqardingiz, shuning uchun siz o'limga bo'ysundingiz, endi men sizning joningizni olaman", dedi. Shunga qaramay, u o'limni yengish umidida mamlakat bo'ylab sayohat qildi. Qaerga borsa ham, odamlarning qabr qazayotganini ko'rdi. "Siz kim uchun qazyapsiz?" deb so'radi u: "Qorqit ismli odam yer yuzida kezib yuribdi, agar u bizning yurtimizga kelib o'lsa, biz uning qabrini tayyorlab qo'yishni xohlaymiz", dedi. “Qayerga borsangiz ham, Qorqitning qabri shu yerda”

degan gapni dono odamlar aytadilar.“...Islom Qorqitning tabiatiga begona edi. Chunki u ko‘chmanchi jamiyatning hayot tarziga aylangan Tengri dinining yorqin vakili edi” [4, 118-bet]. Biz qozoq millatining peshonasidan bu “ko‘chmanchi” yorlig‘ini bir marta va butunlay o‘chirish vaqti keldi, deb hisoblaymiz. Boshqa xalqlar uchun biz doimo harakatda bo‘lgan yersiz millat sifatida ko‘rilamiz. Sovet Ittifoqi davrida taqib yurgan bu unvondan qutulishimiz kerak.“Qayiq qayiqdan donolik so‘raydi, xalq esa qadimgi odamlardan donolik so‘raydi”, deydi xalqimiz. Qorqit ota qoldirgan nasihatlar va maqollar, albatta, quloqlari kar bo‘lgan o‘sib kelayotgan avlod uchun ma’naviy ozuqa bo‘ladi.“Agar insonga ishonsangiz, ikki ko‘zingiz ochiladi, agar Xudoga ishonsangiz, ikki yoningiz ochiladi”. “Qancha qor yog‘masin, yozga ketmaydi”. “Qora eshakning boshiga jilov bog‘lasangiz ham, u ot bo‘lmaydi.” “Qancha daryolar oqmasin, ular dengizlarni to‘ldira olmaydi.” “Qancha uy qurilmasin, tom bo‘lmaydi.” “O‘zini boshqalardan ustun qo‘ygan odamga Xudo baraka bermaydi.” “Ot qiyinchiliksiz yo‘lga chiqmaydi.” “Kishi kishnagan mollarni yig‘sa ham, u saxovatli deb atalmaydi.” “Axmoq bola otasining boyligi bilan faxrlanmaydi.” “Baland devordan yiqilgan mehmonsiz uydan yaxshiroq.” “Onasidan o‘rganmagan qiz yomon, otasidan o‘rganmagan o‘g‘il yomon.” Qorqit ota bizga ko‘plab maqol va matallar qoldirganini aytaylik.Sirdaryo bo‘yidagi Qorqit maqbarasini ziyorat qilish uchun nafaqat musulmonlar, balki boshqa din vakillari ham xorijiy mamlakatlardan kelib-ketishadi. Bu bejiz emas. Qorqit ota merosi butun insoniyatni yaxshilikka, halollikka va do‘stlikka chaqiradi. Shuning uchun Qorqit Ota merosi Islom tamoyillariga mos kelishi aniq [5]. Qorqit Ota she'rlari insoniyatga yo'l ko'rsatishiga katta ishonch bor. Qorqit Ota merosini o'rganish to'xtatilmaydi.

XULOSA

Qorqit otaning musiqiy merosi – qo‘biz kuylarida mujassam bo‘lgan ma’naviy kuch va ruhiy poklanish g‘oyalari o‘zbek va qozoq yoshlarining estetik didini, milliy o‘zlikni anglashini va ruhiy mustahkamligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu kuylar nafaqat tarixiy yodgorlik, balki bugungi kunda ham ruhiy tarbiya va milliy g‘ururni mustahkamlaydigan qadriyat sifatida ahamiyatlidir.Shuningdek, Qorqit ota obrazi turkiy xalqlar o‘rtasidagi birlik, do‘stlik va madaniy yaqinlikning ramzi bo‘lib, o‘zbek va qozoq yoshlarida umumturkiy o‘zlikni anglash, o‘zaro hurmat va birodarlik g‘oyalarini kuchaytiradi. Qorqit ota – turkiy sivilizatsiyaning bebaho ma’naviy merosi bo‘lib, uning ijodi xalqning tarixiy o‘zlikni anglashida, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. U yaratgan dostonlar, kuylar va donishmandlik pand-nasihatlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, yosh avlodni vatanparvarlik, mardlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy tadqiqotlar Qorqit merosining nafaqat adabiy yoki musiqiy, balki falsafiy-axloqiy jihatdan ham chuqur mazmunga egaligini namoyon qiladi. Shuning uchun Qorqit otaning ijodini o‘rganish, uni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish va yoshlar ongiga singdirish bugungi kunda dolzarb

vazifalardan biridir. Uning merosi yosh avlodni milliy qadriyatlarni qadrlashga, ajdodlar donishmandligini hurmat qilishga, ma’naviy merosni asrab-avaylashga chorlaydi.Umuman olganda, Qorqit ota ijodini o‘rganish va tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish o‘zbek va qozoq yoshlarining ma’naviy barkamolligini, milliy g‘ururini va ijtimoiy mas’uliyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR:

1. A. Margulan. Qadimgi she'rlar va afsonalar. - Olmaota, "Jazushi", 1985.

2. A. Qo'ng'irotbayev "Qorqit Ota kitobi". - Olmaota, "Jazushi", 1986.

3. A.Qo'ng'irotbayev.Qozoq dostoni va turkologiyasi."Fan" nashriyoti. - Olmaota, 1987.

4. A. Seydimbek. Kuy shejire. - Olmaota 1992.

5. E. Mustafayev. "Maqom - abadiy xotira". - Qizilo'rda, "Adast", 2006.

6.Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." *Oriental Art and Culture* 3 (2022): 51-57.

7.Qobilova, E. "THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO ‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100." 2024,

8.Qobilova, Ezozxon. "The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons." *Uzbekistan Educational Research Journal* 1.1 (2024).

9.Qobilova, E. "Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish." *Qo ‘qon DPI. Ilmiy xabarlar* (2024).

10.E.Qobilova..Musiqa darslarida o‘zbek xalq musiqa ijodini o‘rganishda she’r va ohang uyg‘unligi.KASB-HUNAR TA’LIMI 1 (9), 84-88

11.E.Kobilova.A NEW APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCES OF A MUSIC TEACHER. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI 7 (1), 108-112

12.E.Kobilova.A NEW APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCES OF A MUSIC TEACHER

PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI 7 (1), 108-112

13.E.Qobilova.MAKTAB O ‘QUVCHILARINING MA’NAVIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG ‘ZAKI IJODINING O’RNI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 14, 168-169

14. Qobilova, Ezoz. "THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES." *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* 4.02 (2024): 44-49.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

AXBOROT MAKONIDA XAVFSIZLIK MADANIYATI: TALABALAR UCHUN ZARURIY KO'NIKMALAR (PEDAGOGIK YONDASHUV)

Turon universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
Radjabova Gulnoza Bahromovna

Annotatsiya. Hozirgi axborot asrida talabalar uchun xavfsiz axborot makonida harakat qilish ko‘nikmalari, ularning media va axborot savodxonligini oshirish pedagogik jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda axborot xavfsizligi madaniyati, talabalarni onlayn va offline muhitda xavfsiz axborotdan foydalanishga o‘rgatish, tanqidiy fikrlash va axborotni baholash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik yondashuvlari o‘rganildi. Ushbu yondashuvlar talabalarni internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron axborot vositalari orqali tarqatiladigan ma’lumotlardan oqilona foydalanish, zararli kontentdan himoyalanish va axborot etikasi qoidalariga rioya qilishga tayyorlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlik madaniyati bo‘yicha ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirish, talabalar orasida axborotga mas’uliyatli yondashuvni shakllantirish va ularni demokratik, xavfsiz axborot makonida faol ishtirok etishga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar:axborot makoni, axborot xavfsizligi, xavfsizlik madaniyati, talabalar, pedagogik yondashuv, media savodxonligi, axborot etikasi, onlayn xavfsizlik, axborot ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash.

Аннотация.Данная статья посвящена изучению методов и подходов к системному развитию профессиональных навыков будущих учителей начальных классов. В исследовании анализируются эффективные стратегии повышения квалификации в педагогическом процессе, методические инструменты и современные педагогические технологии, направленные на повышение знаний и компетенций учащихся. Рассматриваются этапы развития профессиональных навыков, вопросы интеграции теоретической и практической подготовки в педагогической деятельности, а также возможности внедрения инновационных педагогических методов. Статья предоставляет практические рекомендации по эффективной организации процесса повышения квалификации и формированию профессиональных компетенций будущих педагогов.

Ключевые слова: будущие учителя начальных классов, профессиональные навыки, педагогическая система, методический подход, методы повышения

квалификации, инновационные педагогические технологии, профессиональная компетентность.

Annotation.This article explores methods and approaches for the systematic development of professional skills among future primary school teachers. The study analyzes effective strategies for professional development within the pedagogical process, methodological tools, and modern educational technologies aimed at enhancing students' knowledge and competencies. It also examines the stages of professional skill formation, the integration of theoretical and practical training in teaching practice, and the potential for implementing innovative pedagogical methods. The article offers practical recommendations for organizing an effective professional development process and for shaping the professional competencies of prospective educators.

Keywords: future primary school teachers, professional skills, pedagogical system, methodological approach, professional development methods, innovative pedagogical technologies, professional competence.

Kirish. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va boshqa elektron vositalar orqali talabalar va yosh avlod kundalik hayotida turli ma’lumotlarga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, axborot makonidagi xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi va zararli kontentdan saqlanish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Axborot xavfsizligi madaniyati yoshlarni nafaqat texnologik jihatdan bilimli, balki axborot etikasiga amal qiladigan, mas’uliyatli va tanqidiy fikrlay oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarni xavfsiz axborot muhitida faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatish bugungi ta’lim jarayonining ajralmas vazifalaridan biri hisoblanadi. Media va axborot savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqot, bilim olish va ijodiy faoliyatda zararli axborotdan himoyalanishni o‘rganadilar. Shu nuqtai nazardan, pedagogik yondashuv asosida axborot xavfsizligi bo‘yicha tizimli ta’lim berish talabalar uchun muhim shart hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, yosh avlodning internet va media resurslaridan oqilona va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni tanqidiy fikrlashga va axborotni baholashga o‘rgatish, shuningdek axborot etikasi qoidalarini hayotga tatbiq etish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli media va axborot savodxonligini ta’lim jarayoniga tizimli kiritish, xavfsizlik madaniyati bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish va talabalarni axborot makonida mustaqil va mas’uliyatli shaxslar sifatida tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar sharhi

Zamonaviy ta’lim sohasida media va axborot savodxonligi masalalari jahon va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq qilinmoqda. O‘quvchilar va talabalar axborot makonida xavfsiz harakat qilish, zararli kontentdan himoyalanish, shaxsiy ma’lumotlarni

boshqarish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini egallash bilan bog‘liq pedagogik masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda internet va media vositalarining keng tarqalishi yosh avlodning fikrlash tizimiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shuning uchun olimlar axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, media pedagogika yondashuvini qo‘llash va talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish masalalarini tadqiq qilmoqdalar. Masalan, media savodxonligi tushunchasi yoshlarni axborot oqimida mustaqil qarorlar qabul qiladigan, axborotning ijobiy va salbiy tomonlarini ajrata oladigan shaxs sifatida tayyorlashni nazarda tutadi. O‘zbekiston sharoitida media va axborot savodxonligi bo‘yicha pedagogik tadqiqotlar yetarlicha rivojlangan bo‘lib, talabalarda axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, zamonaviy pedagoglar tomonidan media vositalari orqali ta’lim jarayonida talabalarni axborotdan oqilona foydalanishga o‘rgatish, ularning epistemologik nuqtai nazarini rivojlantirish va demokratik jamiyatda faol ishtirokini ta’minlash kabi pedagogik metodlar tadqiq etilgan. Sharhlanayotgan adabiyotlarda shuningdek, yoshlarning media va internet resurslaridan foydalanishdagi xatarlar va xavfsizlikni ta’minlashning pedagogik jihatlari keng ko‘rsatib o‘tilgan. Bu borada olimlar xavfsiz internetdan foydalanish ko‘nikmalari, axborot etikasi va media madaniyatini o‘quvchilarga o‘rgatishning samarali usullarini tavsiya qiladilar. Shu bilan birga, pedagogik yondashuvlar talabalarning tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va muqobil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, adabiyotlar sharxi shuni ko‘rsatadiki, talabalar uchun axborot makonida xavfsizlik madaniyati pedagogik yondashuv asosida shakllantirilishi zarur bo‘lib, bu jarayon media va axborot savodxonligi ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va yoshlarni mas’uliyatli axborot iste’molchisi sifatida tayyorlashga qaratilgan.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini talabalarni axborot makonida xavfsizlik madaniyati bilan tanishtirish va ularni zarur pedagogik ko‘nikmalar bilan ta’minlash tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida media vositalari, internet resurslari va boshqa axborot manbalaridan samarali va xavfsiz foydalanish, axborotning ishonchliligi va sifatini baholash, zararli kontentdan himoyalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari o‘rganildi. Shu bilan birga talabalar o‘zining axborot maydonidagi harakatlari va qarorlari uchun javobgarlikni anglashga o‘rgatildi. Metodologiyada pedagogik tahlil yondashuvi asosiy o‘rin tutib, talabalarda media va axborot xavfsizligi bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini o‘rganish va baholashni ta’minlaydi, bu yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik muloqot asosida media madaniyatni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Empirik kuzatuv va so‘rov metodikasi orqali talabalar orasida internet va media vositalaridan foydalanish darajasi, axborot xavfsizligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari aniqlanadi, shuningdek ularning zararli kontentdan himoyalanish darajasi testlar, so‘rovlar va amaliy

kuzatuvlar yordamida o‘rganiladi. Qiyosiy tahlil yondashuvi rivojlangan mamlakatlarda media va axborot savodxonligini shakllantirish bo‘yicha pedagogik metodlar bilan o‘zbek muhitidagi metodlarni solishtirish, eng samarali usullarni aniqlash va ularni ta’lim jarayoniga moslashtirish imkonini beradi. Analitik va tizimli yondashuv talabalar ko‘nikmalarini tizimli tarzda aniqlash va baholashni o‘z ichiga oladi, bu yondashuv talabalarning axborot manbalarini tanlash, internet resurslarini baholash, axborotni qayta ishlash va undan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonlarini tizimli tarzda o‘rganishga xizmat qiladi. Metodologik tavsiyalar ishlab chiqish orqali tadqiqot natijalariga asoslanib o‘qituvchilar va pedagoglar uchun media savodxonlik va axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar tayyorlandi, bu tavsiyalar talabalarning media madaniyati, axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu metodologik yondashuvlar orqali talabalar axborot makonida xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish, media va internetdan samarali va xavfsiz foydalanish, tanqidiy fikrlash, axborot va kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi va tadqiqot o‘quv jarayonida media vositalari va axborot manbalaridan pedagogik yondashuv asosida foydalangan holda talabalarning ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga zamin yaratdi.

TAXLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar orasida internet va media vositalaridan foydalanish darajasi juda xilma-xil bo‘lib, ayrim talabalar axborot manbalarini tanlash va ulardan xavfsiz foydalanish bo‘yicha yetarli ko‘nikmalarga ega emas. Media va axborot savodxonligini rivojlantirish borasidagi pedagogik yondashuvlar talabalar bilimini tizimli shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi. So‘rov va kuzatuvlar natijasida talabalar axborot makonida xavfsizlikka oid asosiy ko‘nikmalardan quyidagilarni yetarli darajada egallaganligi aniqlanib, ularga quyidagi sohalarda qobiliyat yetishmasligi kuzatildi: shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, zararli kontentni ajratib olish, tanqidiy fikrlash va axborotni baholash. Shu bilan birga pedagogik yondashuv asosida media savodxonlik darslari talabalarda axborot xavfsizligi va internet etikasi bo‘yicha bilimlarni sezilarli darajada oshiradi. Empirik tahlil shuni ko‘rsatdiki, talabalar media va internetdan foydalanish jarayonida xavfsizlik qoidalarini amalda qo‘llashni o‘rganish bilan birga, axborot manbalarini tanlash, ularni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik kuzatuvlar natijasida talabalarning media madaniyati va axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha interaktiv metodlar, multimedia vositalari va amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligi aniqlanib, ularning axborotni qayta ishlash va tanqidiy baholash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan.Shuningdek, talabalarning media savodxonlik ko‘nikmalarini baholash jarayonida ularning yosh, o‘quv yili va texnologiyalardan foydalanish tajribasi bilan bog‘liq farqlar mavjudligi aniqlandi. Bu esa o‘qituvchilarga pedagogik yondashuvlarni individual tarzda moslashtirish, talabalarni xavfsiz media va axborot muhitida faol qatnashishga o‘rgatishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Natijada, talabalar axborot makonida xavfsizlik madaniyati bilan tanishtirilganda ular shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, zararli kontentdan saqlanish, tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va demokratik jamiyatda faol ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni egallashlari tasdiqlandi. Media pedagogikasi yordamida talabalarda xavfsiz internetdan foydalanish, axborotni tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlantiriladi, bu esa ularning umumiy media madaniyatini va axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jadval 1. Talabalar uchun axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlar va natijalar

Ko‘nikmalar	Pedagogik yondashuv	Faoliyat turi / Vosita	Kutilayotgan natija
Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish	Interaktiv darslar, amaliy mashg‘ulotlar	Simulyatsiyalar, testlar, onlayn platformalar	Talabalar o‘z shaxsiy ma’lumotlarini xavfsiz saqlashni o‘rganadi
Zararli kontentni ajratib olish	Case-study, muhokama metodlari	Video misollar, veb-sayt tahlili	Talabalar zararli va noto‘g‘ri axborotni tanib, undan saqlanishni o‘rganadi
Axborotni baholash	Loyiha asosida o‘rganish	Internet resurslarini tahlil qilish, maqola yozish	Talabalar axborot manbalarini tanqidiy baholashni o‘rganadi
Tanqidiy fikrlash	Diskussiya, muammoli vaziyatlar	Forumlar, seminarlar	Talabalar mustaqil va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi
Demokratik jamiyatda faol ishtirok	Media loyihalarini amalga oshirish	Blog, ijtimoiy tarmoq loyihalari	Talabalar media orqali fikr almashish va ijtimoiy masalalarda faol qatnashishni o‘rganadi
Internet etikasi va axloqi	Rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar	Onlayn forumlar, etik kodeks ishlab chiqish	Talabalar internetda madaniyatli va axloqiy muloqot qila oladi
Media vositalaridan xavfsiz foydalanish	Multimedia darslar, interaktiv mashg‘ulotlar	Video, audio, interaktiv ilovalar	Talabalar media vositalarini xavfsiz va maqsadli ishlatishni o‘rganadi

Axborot makoni kengayib, talabalar turli manbalar orqali ko‘p miqdorda ma’lumotga ega bo‘lmoqda. Shu bois, axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish pedagogik jarayonlarda ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar axborot xavfsizligi bo‘yicha shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, zararli kontentni tanib olish, axborotni tanqidiy baholash, internet etikasi va media vositalaridan xavfsiz foydalanish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishlari muhimdir. Pedagogik yondashuvlar — interaktiv darslar, muammoli vaziyatlar, case-study, loyiha asosida o‘qitish va simulyatsiyalar — talabalarning axborot xavfsizligi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, media savodxonligini rivojlantirish orqali talabalar demokratik jamiyatda faol ishtirok etish va mas’uliyatli media foydalanuvchisi

bo‘lib shakllanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada, pedagogik yondashuvlar asosida talabalar axborot makonida xavfsiz va ongli faoliyat yuritish ko‘nikmalarini egallab, internet va media resurslaridan maqsadli va xavfsiz foydalanishni o‘rganadi, bu esa ularning shaxsiy va akademik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. “Yoshlar va kelajak: Davlat siyosati va intellektual salohiyat”. Toshkent, 2023.
2. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, Volume 1, Issue 10, June 2024.
3. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. Paris, 2019.
4. Potter, W. J. Media Literacy. 8th Edition. SAGE Publications, 2020.
5. Hobbs, R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Corwin, 2017.
6. Livingstone, S., van Couvering, E. Media Literacy in the Digital Age. Polity Press, 2019.
7. Jenkins, H. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. MIT Press, 2009.
8. Rheingold, H. Net Smart: How to Thrive Online. MIT Press, 2012.
9. Buckingham, D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Polity Press, 2013.
10. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. Paris, 2013.
11. Hobbs, R. Create to Learn: Introduction to Digital Literacy. Wiley, 2018.
12. Livingstone, S. Media Literacy and Digital Competence: Challenges for Education. Routledge, 2020.
13. Mihailidis, P. Civic Media Literacies: Re-Imagining Human Connection in the Digital Age. Routledge, 2018.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN MATEMATIK TA’LIM METODLARI

Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang`ich ta`lim)
2-kurs magistranti,
raximovadilshoda62@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida qo‘llaniladigan ta’lim metodlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tajriba, kuzatish, taqqoslash, analiz va sintez, umumlashtirish, vizual va interaktiv metodlarning o‘ziga xosliklari, ularning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdagi o‘rni keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar:boshlang‘ich sinf, matematika, ta’lim metodlari, tajriba, kuzatish, taqqoslash, ilmiy izlanish.

Аннотация.В данной статье глубоко анализируются методы обучения, используемые на уроках математики для начальных классов. В частности, рассматриваются особенности таких методов, как опыт, наблюдение, сравнение, анализ и синтез, обобщение, визуальные и интерактивные методы, а также их роль в формировании знаний, умений и навыков учащихся. Каждый метод обосновывается отдельными примерами, демонстрируя реальное применение на практических уроках.

Ключевые слова: метод, методы обучения, опыт, наблюдение, сравнение, научное исследование, классификация, эффективность урока.

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the teaching methods used in primary school mathematics classes. It discusses the specific aspects of methods such as experimentation, observation, comparison, analysis and synthesis, generalization, as well as visual and interactive methods, and their role in shaping students' knowledge, skills, and competencies. Each method is supported by individual examples, illustrating its real application in practical lessons.

Keywords: method, teaching methods, experimentation, observation, comparison, scientific research, classification, lesson effectiveness.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda matematik tafakkurni shakllantirish, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, fanga bo‘lgan qiziqishni oshirishda dars metodikasining ahamiyati beqiyosdir. To‘g‘ri tanlangan metodlar orqali mavzular hayotiy

misollar bilan bog‘lanadi, o‘quvchilarning faolligi ortadi, mustaqil fikrlash rivojlanadi. Shu sababli matematika darslarida qanday metodlardan foydalanish, ularning qanday natija berishi muhim ilmiy va amaliy masaladir. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida samarali bo‘lgan metodlar tahlil qilinadi va ularning darsdagi roli yoritiladi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Metodlar o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularning tafakkurini, kuzatuvchanligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi [1; 45]. Matematika o‘qitish jarayonida og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy metodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llaniladi [2; 103]. Masalan, og‘zaki metodlar yordamida tushunchalar, qoida va qonuniyatlar bayon qilinadi, ko‘rgazmali metodlar orqali o‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzuni tasavvur qiladi [2; 110]. Amaliy metodlar esa o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda xizmat qiladi [3; 56].

Metod so`zi grekcha so`z bo`lib, “yo`l ko`rsatish” degan ma`noni bildiradi. “Ta`lim metodi” tushunchasi esa hozirgi zamon metodika va didaktika fanlaridagi asosiy tushunchalardan biridir.

Hozirgi zamon didaktikasida , jumladan , matematika o`qitish metodikasi fanida ta`lim metodining muammolari umumiy holda hal qilingan bo`lib, u o`zining ikki Tomoni bilan xarakterlanadi:

a) O`qitish (o`qituvchining faoliyati)
b) O`rganish ( o`quvchilarning ongli bilish faoliyati).

Ta`lim jarayoni o`qitish va o`rganishdan iborat bo`ladigan bo`lsa,, u holda o`qitish (o`quvchilarning bilish faoliyatlarini boshqarish va tekshirishga doir axborot turlari, usul va vositalari), o`rganish (o`quv materialini o`quvchilar tomonidan o`zlashtirishning turlari, usul va vositalari ) o`zining quyidagi metodlari orqali amalga oshiriladi. O`qitish va o`rganish metodlari o`zaro bir-biri bilan o`zaro aloqadorlikda bo`lib, maktabda o`qitish jarayonida amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodlari

Boshlang`ich sinf matematika darslarida foydalaniladigan ta`lim metodlarini - M.E.Jumayev “Matematika o`qitish metodikasidan praktikum” kitobida quyidagicha klassifikatsiyalagan:

1.Ilmiy izlanish metodlari (kuzatish, tajriba, taqqoslash, analiz va sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash va klassifikatsiyalsh) .

2.O`qitish metodlari ( everistik metod, muammoli ta`lim metodi, ma`ruza va suhbat metodlari) .

3.Xulosa chiqarish metodlari (induksiya, deduksiya va analogiya) .

Kuzatish metodlari orqali dars jarayonlaridagi o‘ziga xosliklar, o‘quvchilarning faolligi va ishtiroki tahlil qilindi.

Kuzatish metodi — bu tabiiy sharoitda pedagogik jarayonning bevosita kechishini, uning qonuniyatlarini hamda ishtirokchilarning faoliyatini maqsadli ravishda kuzatib borish va qayd etish jarayonidir.

Kuzatishdan odatda o‘quv-tarbiya jarayonining qanday kechayotganini, uning samaradorligi va o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilishda foydalaniladi. Bu metod orqali tadqiqotchi zaruriy materiallarni yig‘ib, keyinchalik ularni ilmiy tahlil qiladi. [5; 35].

Tajriba metodi.

Tajriba – bu metod ham kuzatish bo`lib, maxsus tashkil qilingan, tadqiqotchi tomonidan nazorat qilib turiladigan va sistematik ravishda o`zgartirib turiladigan sharoitda o`tkaziladi. Tajriba metodi ham kuzatishga o‘xshash bo‘lsa-da, unda sharoit tadqiqotchi tomonidan maxsus tashkil qilinadi, boshqariladi va kerakli jihatlar maqsadli ravishda o‘zgartirilib boriladi. [5; 37].

Ilmiy tahlil metodi yordamida metodlarning nazariy asoslari o‘rganildi, solishtirish orqali turli metodlar bir-biri bilan taqqoslandi. Tajriba orqali ayrim metodlarning amaliy natijalari baholandi. Shuningdek, mavjud darsliklar, metodik qo‘llanmalar va ilmiy maqolalar o‘rganilib, ularning dars jarayonidagi qo‘llanilishi tahlil qilindi.

Suhbat metodi.

Pedagogik tadqiqotlarda suhbat metodi ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu metoddan foydalanish kuzatish orqali olingan ma’lumotlarni yanada to‘ldirish, ularni aniqlashtirish va qo‘shimcha dalillar yig‘ishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, suhbat jarayonida tadqiqotchi o‘quvchilarga maxsus topshiriqlar berib, ularning fikrlash darajasi, bilimi va ko‘nikmalarini tekshirib ko‘rishi mumkin.

Suhbat metodining muvaffaqiyatli bo‘lishi, avvalo, tadqiqotchining o‘quvchilar bilan erkin muloqot o‘rnata olishiga, ular bilan samimiy munosabatda bo‘lishiga bog‘liqdir. Agar suhbat jarayonida bolalar o‘zlarini erkin his qilsalar, o‘z fikrlarini to‘liq bayon etadilar va tadqiqotchi uchun ishonchli ma’lumotlar manbai yaratiladi. [5; 38].

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, boshlang‘ich sinf matematika darslarida quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Tajriba va kuzatish metodi.

Ushbu metod orqali o‘quvchilar matematik tushunchalarni bevosita amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradilar. Masalan, geometrik shakllarni qurish, sonlar ustida amallar bajarish tajribalari orqali ular mavzuni mustahkam tushunib oladilar.

2. Taqqoslash metodi.

Taqqoslash metodi o‘quvchilarda tahlil qilish va solishtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, juft va toq sonlarni taqqoslash, ikki xonali va uch xonali sonlar orasidagi farqni aniqlash orqali ular tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtiradilar.

3. Analiz va sintez.

Analiz orqali murakkab masalalarni qismlarga ajratish, sintez orqali esa ularni birlashtirib umumiy xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu metod ayniqsa misollarni yechish, tenglamalarni tuzish va tahlil qilishda foydalidir.

4. Umumlashtirish va abstraksiyalash.

Bu metod orqali o‘quvchilarda umumiy qoidalar, formulalar, matematik tushunchalar shakllanadi. Masalan, barcha to‘g‘ri to‘rtburchaklarning yuzasini topish formulasi umumlashtirish orqali o‘zlashtiriladi.

5. Vizual metodlar.

Rasmlar, diagrammalar, grafiklar yordamida tushuntirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda samaralidir. Bu metodlar mavzularni ko‘rgazmali tarzda tushuntirishga yordam beradi.

6. Interaktiv metodlar.

Juftlikda ishlash, guruhlarda muhokama qilish, rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsdagi faolligi ortadi. Bu metodlar orqali ular bir-biridan o‘rganadilar va ko‘proq mustaqil fikrlashadi.

Munozara

Tahlil qilingan metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimini chuqurlashtirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda samarali ekani aniqlandi. Jumladan, tajriba va kuzatish metodlari orqali o‘quvchilar mavzularni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqur o‘zlashtiradilar. Masalan, birinchi sinfda geometrik figuralarni qog‘ozdan yasash orqali ularning shakli va xossalarini o‘zlashtirish kuzatiladi. Bu metod o‘quvchilarning tasavvuri va tafakkurini rivojlantiradi.

Taqqoslash metodi esa matematik tushunchalar orasidagi farqlarni anglash va tahlil qilish imkonini beradi. Ikkinchi sinfda juft va toq sonlarni taqqoslash orqali o‘quvchilarning umumlashtirish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Analiz va sintez metodlari murakkab masalalarni yechishda, ularni qismlarga ajratib, qayta birlashtirish orqali mantiqiy fikrlashni shakllantiradi. Bu metodlar ayniqsa uchinchi-sinf masalalarida, masalan, ikki bosqichli amallarni bajarishda foydalidir.

Vizual metodlarning afzalligi — mavzularni ko‘rgazmali va qiziqarli usulda tushuntirishda namoyon bo‘ladi. Diagrammalar, rasmlar, maketlar yordamida tushuntirilgan darslar o‘quvchilarda uzoq muddatli esda saqlashni ta’minlaydi. Shu jihatdan, bu metodlar past sinflarda juda samarali hisoblanadi.

Interaktiv metodlar esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarda ijtimoiy faoliyat, jamoada ishlash, savol-javob qilish va fikr almashish kabi kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi. Guruhlarda ishlash, muhokama qilish, rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat matematik bilimlarni, balki axloqiy va psixologik jihatdan ham rivojlanadi.

Shuningdek, tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bir nechta metodlarni uyg‘unlashtirib qo‘llash dars samaradorligini 30–40% ga oshiradi. Masalan, 2023-yil Samarqand viloyatining Past

Darg‘om tumanida o‘tkazilgan eksperimentda metodlar uyg‘unligidan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilar test natijalarida 38% yuqori ko‘rsatkichga erishgan.

Eng muhim jihati shundaki, metodlarning ketma-ketligi va integratsiyasi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qabul qilish darajasi va ilgari o‘zlashtirgan bilimlariga mos bo‘lishi kerak. Darsni rejalashtirishda o‘qituvchi metodlarni o‘zaro uyg‘un holda, bosqichma-bosqich qo‘llashi zarur.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida metodlarni to‘g‘ri tanlash va ularni uyg‘un qo‘llash orqali o‘quvchilarda mustahkam bilim, to‘g‘ri fikrlash, mustaqil yechim topish, mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bunday metodlar o‘quvchilarni nafaqat darsga jalb qiladi, balki ularni matematik tafakkur bilan qurollantiradi. Dars jarayonida tajriba, kuzatish, analiz, taqqoslash, umumlashtirish kabi metodlarning uyg‘unligi o‘quvchilarda chuqur tushunchalarni shakllantiradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida o‘quvchilarning individual yondashuvini ta’minlash, ularning qobiliyat va qiziqishlarini inobatga olish orqali metodlarning natijadorligi oshadi. Kelgusida bu metodlarning dars jarayonidagi ta’siri bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ularni yangi pedagogik yondashuvlar bilan boyitish dolzarb vazifadir. Bunday yondashuvlar ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning shaxsiy va ijodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktab matematika kursida ta’lim metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

2. Boshlang‘ich sinflarda matematika ta’limi metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya.

3. Ziyovuddinov N. Matematika darslarida innovatsion yondashuv. – 2021.

4. Jumayev.M.E “Matematika o`qitish metodika o`qitish metodikasidan raktikum” – Toshkent: “O`qituvchi” -2004.

5. Jumayev.M.E “Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi” – Toshkent: “Bayoz” – 2023.

6. Xoliqberdiyevna, R. D. (2025). BOSHLANGICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA LOYIHA FAOIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, *4*(3), 47-50.

7. Raximova D.(2025/4) “BOSHLANG`ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA LOYIHA FAOLIYATINING AHAMIYATI, BUGUNGI KUNDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH USULLARI”.//Pedagogik mahorat. 234-238-b

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

XALQARO PEDAGOGIK TAJRIBA ASOSIDA TALABALAR TADQIQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Rustamova Shoxista Omonjonovna
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Anotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotning tadqiqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni va samaradorligini xalqaro pedagogik tajribalar doirasida tahlil qiladi. Tadqiqotda talabalar ilmiy izlanishlar olib borish, analitik va kritik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda innovatsion o‘quv metodlarini qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Shu bilan birga, maqolada chet el olimlari tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar va amaliy tajribalar taqqoslanadi, ularning samaradorligi va milliy ta’lim tizimiga moslashuvchanligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Tadqiqiy kompetensiya, talabalar, xalqaro pedagogik tajriba, innovatsion o‘qitish metodlari, interaktiv metodlar, loyihaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar.

Аннотация.В данной статье анализируется роль и эффективность современной педагогической теории и практики в развитии исследовательских компетенций студентов в контексте международного педагогического опыта. Рассматриваются возможности формирования у студентов навыков проведения научных исследований, аналитического и критического мышления, а также применения инновационных методов обучения. Кроме того, сравниваются методологические подходы и практический опыт зарубежных ученых, оценивается их эффективность и адаптивность к национальной образовательной системе.

Ключевые слова: исследовательская компетенция, студенты, международный педагогический опыт, инновационные методы обучения, интерактивные методы, проектный подход, цифровые технологии.

Keywords: research competence, global information resources, didactic foundations, scientific inquiry, digital literacy, scientific information databases, academic integrity.

Аннотация.В данной статье анализируются дидактические основы развития исследовательской компетентности студентов посредством использования мировых информационных ресурсов. Обоснована необходимость интеграции международных научных баз данных в образовательный процесс в условиях стремительного расширения цифрового информационного пространства. Показано, что мировые

информационные ресурсы играют важную роль в формировании исследовательской культуры студентов, критического мышления, умений поиска и оценки информации, а также в развитии навыков научного обобщения. В статье раскрываются мотивационные, конструктивные, когнитивные, методические и связанные с научным мышлением дидактические условия, необходимые для формирования исследовательской компетентности.

Ключевые слова: исследовательская компетентность, мировые информационные ресурсы, дидактические основы, научный поиск, цифровая грамотность, научно-образовательные базы данных, академическая честность.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim jarayoni raqamli texnologiyalar, global axborot oqimi va ilmiy ma’lumotlarning tezkor almashuvi bilan tavsiflanmoqda. Bunday sharoitda talabalarning ilmiy izlanish olib borish, tahliliy fikrlash, manbalar bilan mustaqil ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Tadqiqotchilik kompetentligining shakllanishi ayniqsa magistratura bosqichida muhim bo‘lib, u talabaning ilmiy faoliyatga tayyorgarligi, global ilmiy maydonda erkin harakatlana olishi va innovatsion yechimlar yaratish salohiyatini belgilaydi.

Jahon axborot resurslaridan foydalanish talabaning ilmiy tafakkurini kengaytiradi, xalqaro tajribani o‘rganish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni o‘z tadqiqotiga tatbiq etish imkonini beradi. Scopus, Web of Science, Springer, JSTOR, ProQuest kabi global platformalarning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi talabalarni ilmiy ma’lumot izlash, manbani baholash, ilmiy yozuv standartlariga amal qilish kabi zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Bu jarayon talabaning mustaqil izlanishiga turtki bo‘ladi, uning motivatsiyasini kuchaytiradi va akademik halollik madaniyatini shakllantiradi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiya ishlari, xususan, “Ta’lim – ilm – innovatsiya” tamoyilining joriy etilishi, raqamli ta’lim resurslarining kengayishi va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash vazifalari talabalarda tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishga ehtiyojni yanada oshirdi. Bunday kompetensiyani shakllantirish jarayonida didaktik yondashuvlar – motivatsion, axborotli-ta’limiy, refleksiv va texnologik shartlarning uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi.

Jahon axborot resurslaridan samarali foydalanishga asoslangan o‘qitish metodikasini ishlab chiqish, talabalarda ilmiy izlanish madaniyatini shakllantirish, ilmiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mazkur maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagogikada “shart-sharoitlar” tushunchasi ko‘pincha o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlovchi tashkiliy, metodik, psixologik va didaktik omillar majmui sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy didaktik yondashuvlarda u o‘quv faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligini, talabada muayyan kompetensiyani shakllantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik imkoniyatlar tizimini ifodalaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahon axborot resurslari asosida tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish

uchun ham aynan ana shunday kompleks shart-sharoitlarni yaratish zarur bo‘lib, ular o‘quv jarayonining mazmuni, texnologiyasi va metodik ta’minoti bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

Xalqaro tadqiqotlar talabalarda tadqiqotchilik kompetentligining rivoji, avvalo, ilmiy-ta’limiy bazalar bilan ishlash madaniyati, raqamli savodxonlik va mustaqil ilmiy fikrlashning birligiga tayanishini ta’kidlaydi. Masalan, Hryn ilmiy izlanish kompetentligini talabaning kognitiv faolligi, izlanishga bo‘lgan ichki motivi va axborotni qayta ishlash ko‘nikmalarining uyg‘un tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, zamonaviy talaba JAR bilan ishlayotganda nafaqat ma’lumot topishi, balki uni baholashi, tahlil qilishi va ilmiy kontekstga moslashtira olishi ham didaktik jihatdan muhim hisoblanadi[1]. Arias-Flores esa tadqiqotchilik kompetensiyasini aniq indikatorlar orqali baholashni taklif qilib, ilmiy tahlil, metod tanlash, ma’lumotlar bilan ishlash, xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni asosiy tarkibiy qismlar sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuvlar talabalarda ilmiy izlanish faoliyatini maqsadli tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni ilmiy asoslaydi[2].

Bawden va Robinson axborot savodxonligi bo‘yicha jahon axborot resurslari bilan ishlash jarayonida talabalarda “axborot yuklamasi” ortayotganini, shu sababli ularda tanqidiy tahlil, manbaning ishonchliligini baholash va ma’lumotlarni filtrlash kabi kompetensiyalarni shakllantirish didaktik zaruratga aylanganini qayd etadi[3]. UNESCOning yangilangan Media and Information Literacy konsepsiyasi esa talaba egallashi lozim bo‘lgan yangi kompetensiyalar – media savodxonlik, data literacy, ilmiy savodxonlikni JAR bilan ishlashning asosiy omili sifatida belgilaydi[4]. ACRL tomonidan taklif etilgan “Research as Inquiry” yondashuvi ham tadqiqot faoliyatini bosqichma-bosqich o‘rgatishni, axborot bilan ishlashni ilmiy izlanishning markaziy jarayoniga aylantirishni talab qiladi[5].

Raqamli ilmiy faoliyat bo‘yicha tadqiqotlar ham didaktik shart-sharoitlarning o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Qureshi va Janjua JAR bilan ishlashni raqamli savodxonlikning ajralmas qismi sifatida ko‘rib, talabaning qidiruv strategiyasini tanlashi, ma’lumotni baholashi, elektron manbalarni solishtirishi va bibliografik tahlil qilishi tadqiqotchilik kompetentligining asosini tashkil etishini ta’kidlaydi[6]. Vermaning sistematik sharhlarida esa talabalar eng ko‘p murojaat qiladigan ilmiy platformalar – Scopus, JSTOR, SpringerLink, ProQuest, EBSCO – qayd etilib, JAR bilan ishlashda uchraydigan asosiy muammolar (til, strategiya, baholash, texnik savodsizlik) sanab o‘tilgan. Bu tadqiqotlar didaktik shart-sharoitlarning zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilishi lozimligini ko‘rsatadi[7].

O‘zbekiston olimlarining izlanishlarida ham tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Xolmuminova talabalarda ilmiy izlanishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirishda loyiha asosida o‘qitish samarali ekanini ta’kidlab, uni didaktik shart sifatida belgilaydi[8]. Hamidova tadqiqotchilik ko‘nikmalarining bosqichma-bosqich shakllanish modelini ishlab chiqib, talabaning mustaqil izlanish faoliyatiga tayyorlanishi uchun qulay pedagogik muhit zarurligini asoslaydi[9]. Asqarova, Nishonova,

Jo‘rayev kabi mahalliy tadqiqotchilar esa ilmiy izlanish madaniyati, akademik halollik, mustaqil tahlil, muammoli vaziyat yaratish kabi omillarni tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik mezonlari sifatida ko‘rsatadilar[10; 11; 12].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, talabalarda jahon axborot resurslari asosida tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish jarayoni bir nechta didaktik omillarning uyg‘unligini talab qiladi: raqamli axborot bilan ishlashga tayyorlik, ma’lumotlarni tanqidiy baholay olish, izlanish metodologiyasini bilish, mustaqil faoliyatni tashkil eta olish, akademik halollikka amal qilish. Bularning barchasi ta’lim jarayonida maxsus shart-sharoitlar – motivatsion, axborotli-ta’limiy, tahliliy-refleksiv va innovatsion-texnologik shartlarning yaratilishini taqozo etadi. Mazkur shart-sharoitlar yaratilsagina, talabada JAR asosida ilmiy izlanishning to‘liq siklini bajarish, ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish kabi kompetensiyalar shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda talabalarning jahon axborot resurslari asosida tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi didaktik shart-sharoitlarni aniqlash va ularning amaliy ahamiyatini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida kompleks yondashuv tanlanib, adabiyotlar tahlili, dastlabki diagnostika, kuzatuv, suhbat, o‘quv jarayonini tahlil qilish, shuningdek, malakali ekspertlarning fikrlarini umumlashtirish kabi metodlar qo‘llanildi. Bunday yondashuv talabalarning ilmiy-ta’limiy resurslar bilan ishlash jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni, mavjud imkoniyatlarni va zarur didaktik mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahon axborot resurslaridan foydalanish jarayoni talabalardan yuqori darajadagi kognitiv faoliyat – tahlil, sintez, solishtirish, mantiqiy bog‘liqliklarni aniqlash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi operatsiyalarni talab qiladi. Kuzatuvlar ham shuni tasdiqlaydiki, xalqaro ilmiy platformalarda izlanish olib borish talabalarda qator metodik va texnik qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi: qidiruv strategiyasini bilmaslik, ma’lumotlarni baholash mezonlarining shakllanmaganligi, manbani tanqidiy tahlil qilishda qiynalish, bibliografik rasmiylashtirishdagi noaniqliklar va plagiat xavfi shular jumlasidandir. Shuningdek, ortiqcha axborot yuklamasi va ma’lumotlarning chet tilida bo‘lishi talabalar motivatsiyasiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi.

Mazkur holatlarni inobatga olgan holda, tadqiqotning diagnostik bosqichida talabalarda JAR asosida tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan didaktik shart-sharoitlar aniqlab olindi. Ular ichida axborotli-ta’limiy shart alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki talabalarning ilmiy-ta’limiy resurslar bilan ishlash bo‘yicha nazariy poydevorini yaratmasdan turib, xalqaro ilmiy maydonda mustaqil izlanish olib borishning imkoni bo‘lmaydi. Shuning uchun “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fanining mazmuniga jahon ilmiy bazalari bilan ishlash bo‘yicha dastlabki amaliy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi elementlar kiritildi.

Motivatsion shart sifatida talabalarni global ilmiy maydonning afzalliklari bilan tanishtirish, xalqaro reytingli jurnallar, ilmiy bazalar, sitatalar tizimi va raqamli ilmiy hamjamiyatning o‘rni haqidagi ma’lumotlar berildi. Bu jarayon hozircha kuzatuv bosqichida bo‘lib, talabalar tomonidan mazkur resurslarga qiziqish ortayotgani ko‘zga tashlanmoqda, ammo bu holat hali to‘liq shakllangan xulosa sifatida emas, balki dastlabki tendensiya sifatida baholanmoqda.

Tahliliy-refleksiv shart bo‘yicha dastlabki mashg‘ulotlarda talabalar ilmiy maqola tarkibini aniqlash, manba ishonchliligini baholash, annotatsiya va metodologiyani tahlil qilish topshiriqlarini bajardilar. Ushbu bosqich hozircha o‘rganish jarayonining boshlang‘ich natijalarini ko‘rsatmoqda: ayrim talabalar tahliliy fikrlash strategiyasini tez o‘zlashtirayotgan bo‘lsa, boshqalarida qo‘shimcha yo‘naltirish zarurligi sezildi. Bu esa didaktik shartlarning amaliyotga tatbiqi talabalar o‘rtasida individual farqlarni talab qilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Raqamli-texnologik shart doirasida Google Scholar, ResearchGate, JSTOR kabi platformalar bilan tanishtirish ishlari olib borildi. Talabalar ma’lumotlarni izlash va saqlash jarayonlarini asta-sekin o‘zlashtirmoqda, biroq hali texnik malaka to‘liq shakllanmaganligi bois bu yo‘nalishda qo‘shimcha mashg‘ulotlarga ehtiyoj mavjud.

Tahlil va natijalar. O‘quv jarayonida Jahon axborot resurslaridan (Scopus, JSTOR, Google Scholar va boshqalar) foydalanishga asoslangan mashg‘ulotlar tahlili talabalar izlanish faoliyatining asta-sekin faollashayotganini ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlar jarayonida talabalar avval ma’lumot izlashda qiyinchiliklarga duch kelgan bo‘lsalar, keyingi bosqichlarda ilmiy bazalar bilan ishlashda mustaqillik darajasi ortgani kuzatildi. Xususan, ma’lumotni tanlash, saralash hamda mavzuga mos ilmiy manbalarni aniqlash jarayonida talabalar tobora aniqroq va maqsadga yo‘naltirilgan izlanish usullarini qo‘llay boshladilar.

O‘qituvchining ko‘magida dastlab oddiy qidiruv olib borgan talabalar vaqt o‘tishi bilan manbalarni taqqoslash, maqola tuzilishini tahlil qilish, muallifning asosiy g‘oyalarini ajratish kabi faoliyatlarni mustaqil bajara olish darajasiga ega bo‘ldilar. Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalar o‘zlari topgan manbalarni guruhda muhokama qila boshlaganlari, bir-birining fikrini dalillar bilan boyitishga harakat qilganlari kuzatildi. Bu esa ularda ilmiy muloqot va fikrni asoslash madaniyatining shakllanishiga xizmat qildi.

Jahon axborot resurslaridan foydalanishga asoslangan o‘qitish jarayonida talabalarda bir nechta didaktik sharoitlar shakllanadi:

– motivatsion sharoitning kuchayishi – mashg‘ulotlarda xalqaro bazalardan topilgan real ilmiy yangiliklar namoyishi talabalarda izlanishga nisbatan haqiqiy qiziqish uyg‘otadi. Ular o‘z mavzulari bo‘yicha dunyoda qanday tadqiqotlar olib borilayotgani va qaysi muammolar dolzarb ekanini mustaqil aniqlaydilar. Mazkur jarayon ilmiy izlanishga bo‘lgan ichki motivatsiyaning shakllanishiga xizmat qildi.

– konstruktiv-metodik sharoitning rivojlanishi – talabalarga qidiruv strategiyalari, kalit so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, manba filtrlaridan foydalanish, havola berish qoidalarini o‘rgatish natijasida ularning ilmiy ma’lumot bilan ishlash madaniyati sezilarli yaxshilanadi.

– tashkiliy-kognitiv sharoitning shakllanishi – jamoaviy tahlil mashg‘ulotlari, kichik guruhlarda bajarilgan izlanish topshiriqlari va jamoaviy taqqoslov jadvali talabalarning ilmiy tafakkur imkoniyatlarini kengaytirdi. Talabalar o‘zaro fikr almashish jarayonida turlicha yondashuvlarni solishtirish, bir xil manbadan turlicha xulosa chiqarish, qarama-qarshi fikrlarni asoslash kabi faoliyatlarni bajarib ko‘rish imkoniga ega bo‘ldilar.

– o‘quv-didaktik muhitning faollashuvi – mashg‘ulotlarda JSTOR, Scopus, ProQuest kabi platformalar bilan ishlash bo‘yicha berilgan qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar va misollar talabalarning JAR bilan ishlash bo‘yicha metodik tayanchini mustahkamlaydi. Talabalar asta-sekin “axborotning tashqi ko‘rinishiga emas, ilmiy mazmuniga qarab baholash” prinsipini o‘zlashtiradilar.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, JARdan foydalanishga asoslangan mashg‘ulotlar talabalar izlanish faoliyati, mustaqil o‘qish madaniyati va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarining bosqichma-bosqich shakllanishiga xizmat qiladi. Bunda talabalar faoliyatida muayyan ijobiy tendensiyalar – izlanishga qiziqishning ortishi, mustaqil fikrlashning faollashuvi, ilmiy manbalarga tanqidiy yondashuv shakllanadi.

Xulosa. Jahon axborot resurslarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning muhim didaktik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Nazariy-pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, global ilmiy-ta’limiy bazalar bilan ishlash talabalarning ilmiy tafakkurini faollashtiradi, mustaqil izlanishga tayyorlaydi, ilmiy muloqot, tanqidiy baholash, xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bundan tashqari, ilmiy-ta’limiy bazalar bilan ishlash jarayoni ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan, interfaol va o‘zaro hamkorlikka asoslangan yondashuvlar bilan boyitadi. Bu esa ta’lim jarayonida motivatsion, konstruktiv, kognitiv va metodik shartlarning mavjudligini talab qiladi. Ushbu shartlarning ilmiy asosda ishlab chiqilishi talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, jahon axborot resurslari asosida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim jarayonining didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi, talabalarda mustaqil ilmiy izlanishga tayyorlikni shakllantiradi va zamonaviy ta’lim talablariga mos innovatsion yondashuvlar bilan ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hryn O. Formation of students’ research competence in higher education. Journal of Education Science, 2024, vol. 12, no. 1, pp. 45-59.

2. Arias-Flores H. Research competence of university students: Indicators and assessment. Education & Training, 2023, vol. 65, no. 7, pp. 945-960.

3. Bawden D., Robinson L. Information overload and academic information literacy. Journal of Documentation, 2022, vol. 78, no. 4, pp. 915-934.

4. Lau J. UNESCO Media and Information Literacy: Renewed Framework. UNESCO Publishing, 2021.

5. Association of College & Research Libraries (ACRL). Framework for Information Literacy for Higher Education (Updated version). 2021.

6. Qureshi I. H., Janjua S. University students’ research competence and digital literacy. Journal of Applied Research in Higher Education, 2023.

7. Verma P. Students’ use of global scientific databases: A systematic review. Journal of Academic Librarianship, 2021, vol. 47, no. 5.

8. Xolmuminova Z. Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi orqali talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish. Pedagogika va psixologiya, 2020, no. 5(3), pp. 56-63.

9. Hamidova M. I. Talabalarda ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning bosqichli modeli. O‘zbekiston pedagogik axborotnomasi, 2020, no. 4(2), pp. 112-118.

10. Asqarova S. A. Talabalarda tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: PhD dissertatsiya. Toshkent, 2017.

11. Nishonova X. A. Talabalarning ilmiy-izlanish faoliyatini faollashtirishning metodik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

12. Jo‘rayev D. S. Tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishda pedagogik monitoringning ahamiyati. Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 2021, no. 2(1), pp. 88-95.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

O’ZBEK TELEKO’RSATUVLARIDA MEDIA TILINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi
Ingliz tilini o’qitish metodikasi
№2 kafedrasi o’qituvchisi, O’zDJTU
shnzokirova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek ko‘ngilochar teleko‘rsatuvlarida media tilining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan. Hazil-mutoyiba, maqol-matal, xalqona iboralar va sahnaviy obrazlar orqali milliy qadriyatlarning qanday aks etishi ochib beriladi. Rus va o‘zbek olimlarining nazariy qarashlari asosida televideniye nutqining madaniy kodlarni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘ngilochar dasturlar nafaqat hordiq vositasi, balki jamiyatning madaniy xotirasi va o‘zligini mustahkamlovchi kommunikativ maydon hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: televideniye, media tili, lingvokulturologiya, ko‘ngilochar dasturlar, milliy qadriyatlar.

Аннотация.В статье рассматриваются лингвокультурологические особенности медиа-языка в узбекских телевизионных развлекательных программах. Анализируется использование юмора, пословиц, народных выражений и сценических образов как отражение национальных ценностей. На основе трудов российских и узбекских ученых показана роль телевизионной речи в формировании культурных кодов. Анализ конкретных примеров демонстрирует, что развлекательные передачи выступают не только средством отдыха, но и важным каналом сохранения культурной памяти и национальной самобытности.

Ключевые слова: телевидение, медиа-язык, лингвокультурология, развлекательные программы, национальные ценности.

Annotation. This article examines the linguocultural features of media language in Uzbek television entertainment programs. It explores the use of humor, proverbs, colloquial expressions, and stage images as reflections of national values. Drawing on the perspectives of Russian and Uzbek scholars, the study highlights the role of television discourse in shaping cultural codes. The analysis of examples demonstrates that entertainment shows function not only as a source of leisure but also as an important medium for preserving cultural memory and reinforcing national identity.

Keywords: television, media language, linguoculturology, entertainment programs, national values.

Kirish. Televideniye bugungi globallashuv davrida nafaqat ommaviy axborot vositasi, balki madaniy o’zlikni shakllantiruvchi eng muhim kommunikativ maydonlardan biri sifatida ham qaralmoqda. Ayniqsa, ko‘ngilochar teleko‘rsatuvlar xalqning madaniy qadriyatlari, milliy an’analari, lingvistik xususiyatlari va ijtimoiy tasavvurlarini aks ettiruvchi o‘ziga xos ijtimoiy laboratoriya bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek televideniyesida ko‘ngilochar dasturlar matni, uslubi va vizual-kommunikativ jihatlari lingvokulturologik kodlarni shakllantirish hamda avloddan avlodga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosi Sh. Safarov ta’kidlaganidek: “Til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi va madaniy o‘zligini ifodalovchi asosiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Televideniye tilining o‘ziga xosligi shundaki, u doimiy ravishda og‘zaki va yozma nutq elementlarini uyg‘unlashtirib, ijtimoiy-madaniy kontekstni jonli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Ko‘ngilochar dasturlarda tilning ekspressiv imkoniyatlari, emotsional boyligi va xalqona qatlami keng qo‘llaniladi, natijada televideniye nafaqat axborot yetkazadi, balki madaniy qadriyatlarni ham singdiradi[46]”.

Televizion nutqning nazariy tahlili uning lingvokulturologik jihatlarini ochib beradi. Biroq bu xususiyatlar amalda qanday ko‘rinishini tushunish uchun, avvalo, ko‘ngilochar dasturlardan olingan real misollarga murojaat qilish lozim:

“O‘zizning qahramonlaringiz bor, o‘shalarni hayotdan olasiz, to‘g‘rimi, o‘shalarni kuzatasiz baribir, ularni, qaynonani kuzatasiz, kelinni kuzatasiz, o‘shani sizda qanday qiziqarli jarayonlar kechadi?

– Kuzatgan paytizda, endi bizni dunyoimizda qaynonalar soni million xil, uni hadeb ham, mana agar biz yaxshi qaynonani olib ko‘rsatsak, u kulguli bo‘lmaydi, xarakterni, qanaqadir yomonroq tarafi borligini o‘shani ko‘rsatsam, o‘shani ko‘rsam, mazza qilaman. Keyin bir yaxshi kelinlar bor, yomon kelinlar bor, har doim o‘zi hayotda ham shunaqa, yaxshi qaynonaga, albatta yomon kelin uchraydi, yaxshi kelinga, yomon qaynona uchrab qolishi mumkin, ikkalasi yaxshi bo‘lgan taqdirda ular o‘zi uchun hayot qiziq bo‘lishi mumkin, lekin uni sahnaga olib chiqqan paytingizda tomoshabinga uni qizigi yo‘q-da, nu yaxshi, yaxshi ketaveradi, bir xil ketaversa tomoshabin zerikib qoladi. O‘sha uchun ikki xil obraz, qarama-qarshi obraz topish kerak-da.

– Samimiy va qiziqarli suhbatiz uchun rahmat. Biz bilan bugun satira teatrining aktrisasi, qiziqchi so‘z ustasi Huwaydo Jumayeva bo‘ldilar.” (Zo’r TV. “Ertalabdan salom”. 25.07.2025.) O’zbek madaniyatida “qaynona-kelin” mavzusi oddiy oilaviy munosabat emas, balki jamiyatning qadimiy an’analari, urf-odatlari va ijtimoiy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan ijtimoiy kod hisoblanadi. Bu mavzu xalq og‘zaki ijodida – maqol, matal, afsona

[46] Safarov Sh. Tilshunoslik va madaniyat. Toshkent Universitet nashriyoti, 2012. – B.88.

va latifalarda keng o‘rin olgan bo‘lib, uning televideniyedagi ifodasi tomoshabinlarda darhol tanish hissiyotlarni uyg‘otadi. Chunki qaynona-kelin munosabatlari o‘zbek oilaviy hayotining ajralmas qismi, ijtimoiy tajribada deyarli har bir kishining bevosita yoki bilvosita boshidan kechiradigan hodisasidir.

“– O‘zi aslida bu gunoh yaxshi emas kuya, lekin g‘iybat qilsa odam mazza qiladidek tan olinglar odamlar...

– Ha-ha-ha, to‘ppa-to‘g‘ri.

– Humoridan chiqib gapiradida ayollar.

– Yo‘q o‘zi rostan ham mana shu aslida bu narsa yomon narsa o‘zi-ku, lekin tan olish kerak, azizlar, haqiqatdan ham g‘iybat qilsanglar bir kimnidir, g‘iybatda odam…

– Shuni g‘iybat demangda, bir shirin suhbatda kimdirni eslanglar, ayniqsa, ikkita ovsun o‘tirib oladiku, voy voy voy, ularga shunaqa tema bor.

– Hudoni o‘zi kechirsinu, maza qiladi, odam g‘uboridan chiqadi, aslida bu narsa yaxshi narsa emas.

– Qo‘shni, lekin men sizni bunchalik g‘iybatchi deb o‘ylamaganim. Birovni ko‘rganda yerga qarab, assalomu alaykum deb o‘tib ketadigan deb o‘ylagandim.

– Endi ehtiyot bo‘laverasiz-da.

– Asosan sizlar er-xotin qilasizlarmi, kim bilan bunday avjiga chiqasizlar, boshlovchilar bilan g‘iybat qilmasangiz?..” (Zo’rTV. “Ertalabdan salom” dasturi.25.07.2025.)

Bu suhbatda **xalqona ibora va hazil-mutoyiba** asosiy vosita sifatida ishlatilganini ko‘ramiz. Markaziy mavzu – *“g‘iybat”*. Diniy va madaniy qadriyatlarda g‘iybat **gunoh** sifatida qat’iy man qilingan tushuncha bo‘lsa-da, odamlar uni “ширин суҳбат” tarzida oqlab, hazil ohangida ifodalaydi. Aynan shu o‘ziga xos “axloqiy og‘irlik” va “xalqona yengillik” o‘rtasidagi zidlik televideniye ko‘rsatuvining kulgi manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu nutqda diniy-axloqiy qadriyat (g‘iybat – gunoh) bilan xalqona odat (suhbat, qo‘shnichilik, qarindoshlik suhbatlari) o‘rtasidagi madaniy kodlar to‘qnashuvi aks etgan.

Xalq hayotida ko‘p uchraydigan bu to‘qnashuv sahna yoki ekran uchun juda qulay, chunki u tomoshabinda birdan tanish holatni uyg‘otadi: bir tomondan, diniy taqiqlik hissi, ikkinchi tomondan, odatiy qo‘shnichilik yoki qarindosh-urug‘ suhbatining yoqimli “shirinligi”. Hazil vositasida bu ziddiyat yumshatiladi, og‘ir axloqiy mavzu kulgiga aylantiriladi, natijada kulgi orqali tomoshabin ham o‘zini yengil sezadi.

Tilshunos E.A. Zemskayaning fikricha: “Media-diskurs faqatgina axborot uzatish bilan cheklanmaydi. U murakkab ijtimoiy-madaniy makonni ifodalaydi, unda til, madaniyat va jamiyat qadriyatlari o‘zaro ta’sirlashadi. Ko‘ngilochar teleko‘rsatuvlarda bu yanada yaqqol ko‘rinadi: bu yerda til nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy identifikatsiya vositasiga ham aylanadi. Majoziy ifodalar, hazillar, folklordan olingan iqtiboslar va zamonaviy jargonlar

orqali alohida til muhiti shakllanadi, bu muhit an’anaviy qadriyatlarni aks ettiradi va ularni bugungi kun realiyalariga moslashtiradi[47]”.

O‘zbek olimasi N. Mahmudova fikricha: “O‘zbek televideniyesi tilida xalqona qatlamning faol qo‘llanishi milliy tilning boyligini namoyon etadi. Har bir maqol yoki matal teleekranda nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki madaniy kod sifatida ham xizmat qiladi. U orqali tomoshabin o‘zligini anglaydi, milliy qadriyatlarni qayta his etadi va jamiyat bilan uyg‘unlashadi. Ko‘ngilochar dasturlar aynan shu lingvokulturologik xususiyatlari bilan tomoshabinga yaqin bo‘ladi[48]”.

V.V. Krasnix yozadi: “Til media makonida nafaqat ma’nolarni yetkazish vositasi, balki madaniy ssenariylar tashuvchisi sifatida ham ishlaydi. Ayniqsa, ko‘ngilochar teleko‘rsatuvlarda til ekspressiv shaklda namoyon bo‘ladi: hazillar, kinoyalar, frazeologizmlar auditoriyada madaniy an’analarga daxldorlik tuyg‘usini shakllantiradi. Shunday qilib, media matn nafaqat hordiq vositasi, balki madaniy xotirani saqlash va uni avlodlarga yetkazishning muhim kanali bo‘lib xizmat qiladi[49]”.

Masalan, ko‘ngilochar dasturlarda olib boruvchi: “*Qo‘li uzun odam ko‘p narsaga yetadi, lekin bizda bugun qo‘li uzun emas, qo‘li mohir mehmon bor*” kabi iborani ishlatadi. Bu yerda ***“qo‘li uzun”*** iborasining xalq orasidagi ikki xil ma’nosi (birinchisi – o‘g‘rilik, ikkinchisi – mahorat) qo’llanilmoqda. Shunday qilib, tomoshabinda ham kulgi uyg‘onadi, ham madaniy semantik kod – xalqona iborani tanib olish hissi kuchayadi. Bu lingvokulturologik qatlam televideniyeda madaniy o‘zlikni mustahkamlaydi.Yoki bo’lmasa, tok-shoular davomida boshlovchining *“Odam odam bilan baxtli, do‘st bilan quvvatli”* kabi maqollardan foydalanishini ko’rishimiz mumkin. Maqol ko‘ngilochar mazmunda bo‘lsa ham, tomoshabinga ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik qadriyatlarini eslatadi. Televideniye orqali qadimiy maqollar yangi kommunikativ kontekstda ishlatilmoqda. Bu jarayon **madaniy xotira**ni mustahkamlaydi va yosh avlod ruhida qadriyatlarni ommalashtiradi.

Yuqoridagi fikrimizning yana bir isboti B. Yo‘ldoshevning fikrlarida ta’kidlanadi: “Ko‘ngilochar teleko‘rsatuv tomoshabin uchun nafaqat hordiq vositasi, balki madaniy-ma’naviy tarbiya maktabidir. Unda ishlatiladigan til obrazlari – xalq qo‘shiqlaridan olingan parchalar, maqol va matallar, hazil-mutoyiba – milliy madaniyatning semantik kodlari sifatida xizmat qiladi. Bunday dasturlar orqali tomoshabin o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi va milliy qadriyatlar bilan qayta bog‘lanadi[50]”.

T.V. Shmelyova esa shunday deydi: “Zamonaviy televideniye globallashuv sharoitida milliy an’analar va xalqaro formatlarni uyg‘unlashtirishga majbur. Aynan ko‘ngilochar dasturlar tilning eng yorqin namoyon bo‘ladigan maydoni hisoblanadi: hazil, xalqona

[47] Земская Е. А. Современный русский язык. Словообразование. Москва: Флинта; Наука, 2011. – 328 с.
[48] Mahmudov N. O‘zbek tili va nutq madaniyati. Toshkent Fan, 2015. – B.201.
[49] Красных В. В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. Москва: Гнозис, 2002. – С.119.
[50] Yo‘ldoshev B. O‘zbek tili va madaniy qadriyatlar. Toshkent Yangi asr avlodi, 2018. – B.76.

iboralar, madaniy ramzlar orqali bu dasturlar auditoriyani nafaqat hordiq bilan ta’minlaydi, balki madaniy chaqiriqlar sharoitida milliy o’zlikni ham mustahkamlaydi[51]”.

Shunday qilib, o‘zbek televideniyesining ko‘ngilochar dasturlari media tilining lingvokulturologik xususiyatlarini yorqin ifodalaydi. Xalqona iboralar, hazil-mutoyiba, maqol va matallar, ramziy obrazlar orqali milliy qadriyatlar nafaqat saqlanadi, balki zamonaviy talqinda qayta ishlab, tomoshabinga yetkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Земская Е. А. Современный русский язык. Словообразование. Москва: Флинта; Наука, 2011. – 328 с.
2. Красных В. В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. Москва: Гнозис, 2002. – С.119.
3. Shmelyova T.V. Zamonaviy media matn: til va madaniyat. Sankt-Peterburg Filologiya fakulteti SPbDU, 2011. – 176 b.
4. Safarov Sh. Tilshunoslik va madaniyat. Toshkent Universitet nashriyoti, 2012. – B.88.
5. Mahmudov N. O‘zbek tili va nutq madaniyati. Toshkent Fan, 2015. – B.201.
6. Yo‘ldoshev B. O‘zbek tili va madaniy qadriyatlar. Toshkent Yangi asr avlodi, 2018. – B.76.

[51] Shmelyova T.V. Zamonaviy media matn: til va madaniyat. Sankt-Peterburg Filologiya fakulteti SPbDU, 2011. – B.134.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI MUSIQIY FAOLIYATLAR ORQALI TARBIYALASHDA MUSIQA FANI O’QITUVCHISINING O’RNI.

G.Shadiyeva.
Qo’qon davlat universiteti dotsenti v/b

Annotatsiya.Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy faoliyatlar orqali tarbiyalash jarayonida musiqa fani o‘qituvchisining o‘rni, roli va mas’uliyati ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Musiqa darslarida qo‘shiq kuylash, ritmik harakatlar, cholg‘u asboblarida chalish, tinglash faoliyatlari orqali o‘quvchilarda nafosat tarbiyasi, estetik did, milliy qadriyatlarga hurmat va ijodiy qobiliyat shakllanishi yoritilgan. Maqolada musiqa o‘qituvchisining kasbiy mahorati, metodik yondashuvi hamda bolalarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqa ta’limi, musiqiy faoliyat, boshlang‘ich sinf, estetik tarbiya, o‘qituvchi mahorati, ma’naviy tarbiya, ijodkorlik, milliy qadriyatlar, musiqiy idrok,san’at,ijod,milliylik,kommunikativ**,** bilim, tashabbus, metod, ma’naviyat,ta’lim,tarbiya,madaniyat.

Аннотация.В статье анализируются роль, место и ответственность учителя музыки в процессе воспитания младших школьников посредством музыкальной деятельности с научно-педагогической точки зрения. На уроках музыки пение, ритмические движения, игра на музыкальных инструментах и аудирование способствуют развитию у учащихся эстетического вкуса, уважения к национальным ценностям и творческих способностей. В статье обосновываются профессиональные навыки, методический подход и педагогические возможности учителя музыки в развитии духовно-нравственного воспитания детей.

Ключевые слова:Музыкальное образование, музыкальная деятельность, начальная школа, эстетическое воспитание, педагогическое мастерство, духовное воспитание, творчество, национальные ценности, музыкальное восприятие,искусство, креативность, национальность, коммуникативный, знания, инициативность, метод, духовность,образование, воспитание, культура.

Annotation. This article analyzes the role, place and responsibility of a music teacher in the process of educating primary school students through musical activities from a scientific and pedagogical point of view. In music lessons, singing, rhythmic movements, playing musical instruments, and listening activities highlight the development of students'

elegance, aesthetic taste, respect for national values, and creative abilities. The article substantiates the professional skills, methodological approach, and pedagogical capabilities of a music teacher in the development of spiritual and moral education in children.

Keywords;Music education, musical activity, primary school, aesthetic education, teacher skills, spiritual education, creativity, national values, musical perception,art, creativity, nationality, communicative, knowledge, initiative, method, spirituality,education, upbringing, culture.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy va estetik dunyoqarashini shakllantirishda musiqa fanining o‘rni beqiyosdir. Musiqa san’ati inson qalbiga bevosita ta’sir etuvchi, unda ezgulik, mehr-muhabbat, vatanparvarlik va go‘zallik tuyg‘ularini uyg‘otuvchi kuchga ega. Shu bois, musiqa darslari nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy jarayon sifatida qaraladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari musiqiy faoliyatlar orqali atrof-muhitni his etishni, go‘zallikni anglashni, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni o‘rganadilar. Qo‘shiq aytish, tinglash, musiqiy o‘yinlar, raqs va ritmik mashqlar ularning hissiy olamini boyitadi, estetik didini rivojlantiradi. Bu jarayonda musiqa fani o‘qituvchisi markaziy o‘rinni egallaydi. Aynan o‘qituvchi musiqaning tarbiyaviy kuchini to‘g‘ri yo‘naltirib, bolalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat va ijobiy hissiy holatni shakllantiradi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish” hamda “Barkamol avlod” konsepsiyalarida yosh avlodni ma’naviy yetuk, estetik jihatdan boy, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilgan. Bu jarayonni amalga oshirishda musiqa fani o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, ruhshunos, san’at targ‘ibotchisi sifatida ham faoliyat yuritadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda musiqa darslarini tashkil etishda o‘qituvchining kasbiy mahorati, metodik yondashuvi va pedagogik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi.Shunday qilib, musiqiy faoliyatlar orqali o‘quvchilarda nafosat tuyg‘usini, milliy g‘ururni, Vatanga muhabbatni tarbiyalash musiqa o‘qituvchisining asosiy maqsadi va mas’uliyatli vazifasidir.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Ma’lumki musiqa musiqa san’atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalaridan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. Musiqaning milliy ma’naviyatimizga ta’sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan . Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy “Katta musiqa” kitobida musiqa nazariyasi ohanglarining turlari, kelib chiqish sabablari, kishiga ma’naviy, ruhiy ta’siri haqidagi qimmatli fikrlarini bildirgan.Forobiy musiqa ilmida faqat nazariyotchi bo’libgina qolmay, amaliyotchi ham bo’lgan. Uning o’zi taniqli musiqachi, ajoyib sozanda va bastakor, yangi musiqa asbobi ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan. Musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo’jizakor ta’siri haqida fikr yuritib, Forobiy “Ilmlarning kelib chiqishi to’g’risida” asarida shunday yozadi:

“Bu ilm shu ma’noda foydaliki, u o’z muvozanatini yo’qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi”. Musiqa, avvalo, bolalarning his-tuyg’ularini mayinlashtiradi. Musiqa asarlarini his etish kabi ularda ko’pgina insoniy fazilatlarni uyg’otadi. Albatta, insoniy fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport va boshqa sohalar katta o’rin tutadi. Binobarin, nazm va musiqa doimo yonma- yon yashaydi. Musiqani his etish tabiat taassurotlari ostida tug’iladi, qolaversa, bog’cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqa darslari o’quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma’noda ma’naviy- axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Avloddan-avlodga o’tib kelayotgan, ne-ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu-armonlari, o’ylari va intilishlarini mujassam etgan kuy-ko’shiqlarimiz, maqomlarimiz barcha turdagi ta’lim muassasalari o’quv dasturlaridan kengroq joy olsa yaxshi bo’lar edi. Zero, musiqiy bilimlarni egallash avvalo shaxsning ruhiy olami bilan chambarchas bog’liq. Musiqashunos olimlar tomonidan tavsiya etilgan kontsepsiyalarga tayanib, biz musiqiy bilimlarni o’zlashtirish jarayonida bola shaxsining qanday faoliyat turida qaysi shaxsiy xususiyatlari shakllanishini chizma yordamida ko’rsatib berdik. Musiqiy bilimlarni o’zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirishda musiqa ta’limining ahamiyatini musiqa mashg’ulotlarini tahlil qilish orqali ko’rishimiz mumkin.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang‘ich ta’lim tizimida musiqa darslari nafaqat badiiy-estetik yo‘nalishda, balki tarbiyaviy maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etilishi zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy faoliyatlar orqali bolalarda his-tuyg‘ular dunyosi boyiydi, ularning tasavvuri, nutqi va tafakkuri rivojlanadi. Shu jihatdan musiqa fani o‘qituvchisining kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlari o‘quvchilarning musiqiy hamda ma’naviy rivojiga bevosita ta’sir etadi.Musiqa darslarining samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, metodik yondashuvni to‘g‘ri tanlashi hamda o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb etish darajasiga bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun musiqiy faoliyatlar (qo‘shiq kuylash, ritmik harakatlar, musiqiy o‘yinlar, tinglash, cholg‘u chalish) ularning yosh psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilsa, bu jarayon bolalarda nafosat tarbiyasining asosini yaratadi.Musiqa fani o‘qituvchisi o‘z faoliyatida xalq qo‘shiqlari, milliy kuylar, bolalar uchun mo‘ljallangan musiqiy asarlar va o‘zbek kompozitorlarining eng yaxshi namunalaridan keng foydalanishi lozim. Bu nafaqat bolalarda milliy g‘urur va o‘zlikni anglashni kuchaytiradi, balki ularning musiqiy didini, hissiy idrokini va ijodkorlik salohiyatini rivojlantiradi.Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar — interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, musiqiy o‘yin dasturlari va multimediya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarda darsga qiziqish uyg‘otadi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar bilan individual yondashuv asosida ishlash, ularning musiqiy iste’dodini erta aniqlash va rivojlantirishga e’tibor qaratish ham muhim omil hisoblanadi.Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, musiqa fani o‘qituvchisining faoliyati faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini boshqaruvchi, estetik zavq bag‘ishlovchi, ularni ijobiy hislar

sari yetaklovchi shaxsdir. Musiqa darslari orqali bolalarda go‘zallikni idrok etish, jamoada ishlash, o‘z fikrini erkin ifoda etish, sahnada o‘zini tutish kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Musiqiy faoliyatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy va estetik tarbiyasini shakllantirishning muhim vositasidir.
2. Musiqa o‘qituvchisi dars jarayonida nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, ruhshunos va ijodiy yo‘lboshchi sifatida faoliyat yuritadi.
3. Xalq musiqasi va milliy an’analarni o‘quv jarayoniga singdirish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarga hurmatni kuchaytiradi.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni musiqa ta’limida qo‘llash darslarning interfaolligini oshirib, o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.
5. Musiqa darslari orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, estetik did, ijobiy emotsional holat va ma’naviy boylik shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda musiqa sanьatiga suyanish, uning asriy anьanalari va namunalaridan yosh avlodni ko’proq baxramand etish lozim.Oilada ota-onlar, maktabda musiqa muallimlari bolalarga yaxshi musiqa va qo’shiq odamning qalbini tozalashini, ruxini poklashini, kayfiyatiniko’tarishini, ezgu maqsadlar sari yo’naltirishini ko’p bor uqdirishadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy faoliyatlar orqali tarbiyalash — ularning ruhiy, estetik va ma’naviy kamolotini ta’minlaydigan muhim jarayondir. Musiqa o‘qituvchisi bu jarayonning bosh tashkilotchisi bo‘lib, u bolalarda musiqaga muhabbat, go‘zallikni his etish, milliy qadriyatlarga sadoqat, ijobiy his-tuyg‘ularni tarbiyalaydi. O‘qituvchi musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirganda, darslar o‘quvchilar uchun nafaqat bilim manbai, balki ruhiy zavq, ijodiy ilhom va ma’naviy ozuqa manbaiga aylanadi.Demak, musiqa fani o‘qituvchisi yosh avlodni san’at orqali tarbiyalashda, ularning estetik idroki va ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda beqiyos o‘rin egallaydi. Shu sababli har bir musiqa o‘qituvchisi o‘z faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, milliy musiqa merosi va innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda ish olib borishi zarur.Musiqaning ilohiyligi, uning ruhiyatga bog’liqligi, ohanglarning sirli olami insoniyatni doimo qiziqtirib kelgan. Xonandaning qo’shig’i dardlarga malham bo’lib, shodlikni oshirsa, sozandaning kuyi g’amni aritib, ko’ngillarga xush kayfiyat bag’ishlaydi. Shuning uchun musiqaning chinakam sehriga har ikki subьekt birdek daxldor bo’ladi. Shunday ekan, insonni kamolga etkazishda musiqa san’atining ahamiyati beqiyosdir. Musiqa hayotni insonlarning his tuyg’ularini va orzu istaklarini o’ziga xos badiiy tilda ifoda etadi. Birinchi navbatda yoshlar milliy g’urur va yuksak madaniyat egasi bo’lishlari uchun xam musiqa sanьatiga oshno bo’lishlari kerak bu vazifalarni amalga oshirishda musiqa fani o’qituvchilari zimmasiga katta masьuliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1..Darvesh Ali Changiy. Risolayi musiqiy. O’zR FA ShI .Forschadan tarjima B.Ashurovniki.

2.Қобилова, Э. Б. "ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРА ЖАНРА." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 291-295.

3.Қобилова, Э. Б. "ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРА ЖАНРА." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 291-295.

4.Bakirovna, Q. E. "Theoretical And Methodological Basis Of Overcoming Contradictions In Modern Musical And Educational Practice." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 1.1 (2021): 117-120.

5.Qobilova, Ezoz. "THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES." *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* 4.02 (2024): 44-49.

6.Qobilova, Ezoz. "THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES." *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* 4.02 (2024): 44-49.

7.Qobilova, Ezozxon. "The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons." *Onomázein* 62 (2023): December (2023): 1382-1388.

8.Qobilova, E. B., et al. "QADIMIY MUSIQIY SAN’ATNING SHAKLLANISH JARAYONI." *Science and innovation* 2.Special Issue 14 (2023): 560-565.

9.Jamoliddinova, D., et al. "BO’LAJAK MUSIQA TALIMI O ‘QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. E’zozxon Qobilova." 269.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA FIZIKA DARSLARIDA HAMKORLIKDA O‘QITISH ASOSIDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH

Shermetova Sayyora Turaxodjayevna
Churchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
shermetova.chdpi@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika darslarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi asosida mustaqil ta’limni tashkil etishning metodikasi yoritilgan. O‘quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga yo‘naltirish, o‘zaro muloqot orqali bilimlarni o‘zlashtirishga erishish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki hamkotlik ta’lim texnologiyalari asosidagi tashkil qilingan mustaqil ta’lim fizika fanini o‘qitish sifatini oshganligi tajriba-sinov orqali keltiriladi.

Kalit so‘zlar: hamkorlikda ta’lim, mustaqil ta’lim, kichik guruhlarda ishlash, o‘quv faoliyatini faollashtirish, kompetensiyaviy yondashuv, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В статье рассматривается методика организации самостоятельного обучения на уроках физики в общеобразовательных школах на основе технологии сотрудничества. Анализируются возможности усвоения знаний за счёт организации работы учащихся в малых группах. Результаты исследования показывают, что самостоятельное обучение, основанное на технологии сотрудничества, способствует повышению качества преподавания физики.

Ключевие слова: Сотрудническое обучение, самостоятельное обучение, работа в малых группах, активизация учебной деятельности, компетентностный подход, эффективность обучения.

Annotation. The article discusses methods for organizing independent learning in physics lessons in general education schools based on cooperative learning techniques. It analyzes the possibilities for knowledge acquisition through organizing students' work in small groups. The results of the study show that independent learning based on cooperative learning techniques contributes to improving the quality of physics teaching.

Keywords: Collaborative learning, independent learning, small group work, activation of learning activities, competency-based approach, learning effectiveness.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5032-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4884-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarorilarida belgilangan vazifalarda o‘qitish tizimining amaliy-tatbiqiy mazmunini boyitish, o‘quvchilarga bilim berish asnosida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan [1-3]. Yuqorida keltirilgan hujuqiy-meyoriy hujjatlar dissertatsiya ishining mazkur paragraph mazmunini yoritishda metodologik asos bo‘ladi.

Mazkur maqola fizika darslarida hamkorlikda o‘qitish asosida mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi (bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘quvchilarga fizika fanini o‘qitishda masala yechish, namoyishli tajribalar, laboratoriya ishlari, loyiha ishi kabilarni bajarishda hamkorlik asosida mustaqil ta’limni olib borishning shakllari, metodlari va vositalari muhokama qilinadi. Shuningdek, hamkorlik ta’lim asosida laboratoriya ishini bajartirishda mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha ishlanma keltirilgan

Sinf sharoitida an’anaviy dars jarayonida hamkorlikda o‘qitish o‘qituvchi darsning boshqaruvchisi emas, balki o‘quv jarayonining yo‘naltiruvchisi sifatida ishtirok qiladi. O‘quvchilar o‘z o‘rganishlari uchun mas’ul bo‘ladi, o‘qituvchi esa o‘quvchlarni dars jarayonida ular mustaqil ravishda o‘rganishga va ishlashga tayyor bo‘lguncha qo‘llab-quvvatlash harakat qiladi va ularga yordam beradi.

Turli shakldagi jismlarning zichligini aniqlash mavzusida laboratoriya ishini o‘tkazish bo‘yicha dars ishlanma

1. ***Darsning umumiy maqsadida*** quyidagilar belgilanadi: turli shakldagi (to‘g‘ri va to‘g‘ri geometrik shaklga ega bo‘lmagan) jismlarning zichligini aniqlash, jismlarning zichligini bilish muhimligini (kundalik hayotda va texnikada) bilish bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni hosil qilish.

I bosqich. Tayyorgarlik bosqichi. Mazkur bosqichda darsning o‘quv maqsadiga ko‘ra o‘quvchilar erishishi lozim bo‘lgan yakuniy o‘quv natijalar tarkibi shakllantiriladi. O‘quv natijalar tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yakuniy o‘quv natijalar

Yakuniy natijalar Reproduktiv	**Yakuniy natijalar Produktiv**	**Yakuniy natijalar Kreativ**
Zichlikni aniqlashga oid jihozlarni biladi (tarozi, chizg‘ich)	Zichlikni aniqlashga oid bo‘lgan jihozlarni ajrata oladi (tarozi, chizg‘ich, shtangensirkul, menzurka, areometr).	Zichlikni aniqlashga oid jihozlardan foydalana oladi (tarozi, chizg‘ich, shtangensirkul, menzurka, areometr)
Massa va hajmni o‘lchay	Massa va hajmni o‘lchay	Massa va hajmni o‘lchashga

oladi (tarozi, chizg‘ich).	oladi. Natijalarni jadvalda ifodalaydi.	oid bilim va ko‘nikmani hayotiy vaziyatlartda qo‘llay oladi.
Zichlikni hisoblash formulasini biladi.	O‘lchashda olingan natijalar asosida ismning zichligini hisoblaydi va xulosa chiqaradi.	Turli shakldagi jismlarning zichligini aniqlash yo‘lini o‘zlashtirgan. O‘lchash natijalarining bir-biridan farq qilish sabablarini ongli ravishda izohlaydi va xulosa chiqaradi

Tayyorgarlik bosqichi bilimlarni faollashtirish va motivatsiyani yuzaga keltirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Masalan, o‘qituvchi tomonidan savol qo‘yiladi. Massasi 120 g bo‘lgan jism 24 cm^3 hajmni egallaydi? Agar bu jism to‘rtta teng bo‘lakka bo‘linsa uninmg zichligi qanday o‘zgaradi? Suv yuzasiga qum zaralarini tashlasak ularning suvga cho‘kayotganligini ko‘ramiz. Nima uchun u cho‘kadi? Nima uchun qum zarrasidan o‘gir bo‘lgan muz bo‘lagi suvga tashlansa, u suvda qalqib qoladi? Savol guruhlarda muhokama qilinadi. O‘quvchilarning fikrlari tinglanadi va ular formativ baholanadi.

O‘quvchilarga mavzuga oid mustaqil topshiriqlar hamda kerakli o‘lchov asboblari ish holatida bo‘ladi. Sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linib ularga turli materildan tayyorlangan jismlar hamda o‘lchov asboblari taqdim qilinadi.

II bosqich. Amalga oshirish. Bu bosqichda o‘quvchilarga **y**angi bilimni kashf qilish va o‘rganishga qatatiladi. Savol qo‘yiladi. Nima uchun turli xil moddalardan tayyorlangan bir xil hajmga ega jismlarda massa har xil bo‘ladi?

O‘quvchilarga taqdim qilinadi. Ishni bajarish yo‘riqnomasi, to‘g‘ri parallelepiped va silindr shaklidagi plastmassa jismlar, parallelepiped va silindr shaklidagi yog‘och jismlar, parallelepiped va silindr shaklidagi metall jismlar hamda to‘g‘ri shaklga ega bo‘lmagan metall jism, elektron tarozi, chizg‘ich, menzurka, suv, ip.

To‘g‘ri geometrik shaklga ega bo‘lgan va bo‘lmagan jismlarning zichligini aniqlash bo‘yicha laboratoriya ishini bajarish yo‘riqnomasi yozma holda tarqatiladi.

To‘g‘ri parallelepiped shakldagi jismning zichligini aniqlash

To‘g‘ri geometrik shaklga ega bo‘lgan jismning zichligini aniqlash quyidagi ketma-ketlikda bajariladi [4, 48-b.].

1. Parallelepiped shakldagi jismning massasini (m) tarozida o‘lchang.

2. Parallelepiped asosining uzunligi a, eni b va balandligi h chizg‘ich yordamida o‘lchang.

3. Parallelepiped hajmini $V\ a\ b\ h$ formulaga ko‘ra hisoblang.

4. Parallelepiped shakldagi jismning zichligini $\rho = m/V$ formulaga ko‘ra hisoblang va uning son qiymatini jadvalga yozing.

5. O‘lchangan va hisoblangan natijalarni jadvalga yozing.

Parallelepiped shakldagi jism	**m, g**	**a, cm**	**b, cm**	**h, cm**	**V, cm3**	**ρ, g/ cm3**
Yog‘och jism						
Metall jism						
Plastmassa jism						

To‘g‘ri geometrik shaklga ega bo‘lmagan jismning zichligini aniqlash quyidagi ketma-ketlikda bajariladi [4, 48-b.].

1. To‘g‘ri geometrik shaklga ega bo‘lmagan jismning massasini tarozida o‘lchang. m = … g. Natijani jadvalga yozing.

2. Menzurkaga ma‘lum miqdorda suv quying (bunda zichligi o‘lchanadigan jism suvga to‘liq botishi kerak).

3. Menzurkadagi suv hajmini aniqlang, V_1=… cm^3. Natijani jadvalga yozing.

4. Noaniq shakldagi jismni ipga bog‘lab menzurka (suv ichiga) tushiring, suv sathiga mos keluvchi hajmni aniqlang, V_2 =… cm^3 yozib oling. Natijani jadvalga yozing.

5. Jismning hajmini quyidagi formula yordamida hisoblang:

$V = V_2 - V_1$

6. O‘lchangan va hisoblangan natijalar asosida jismning zichligini aniqlang. Natijani jadvalga yozing.

Jismlar turi	**m, g**	**V1, cm3**	**V2, cm3**	**V, cm3**	**ρ, g/ cm3**
Noaniq shakldagi jism (suvga cho‘kadi)					
Noaniq shakldagi jism (suvga cho‘kmaydi)					

Aksariyat o‘quvchilarda suvga cho‘kmaydigan aniq (yoki noaniq) shakldagi jism zichligini aniqlashda muammoga duch kelishadi **(Izoh.** Arximed kuchi mavzusi hali ularga o‘tilmagan). Savol qo‘liladi. Suvga cho‘kmaydigan jismning hajmi qanday o‘lchash mumkin? Fikrlar eshitiladi. Pedagog va o‘quvchilar orasida o‘zaro hamkorlik texnologiyasi elemetnlari qo‘llaniladi. Muhokama davomida jism suyiqlikka to‘liq tushirilganda u o‘z hajmiga teng bo‘lgan suyiqlikni siqib chiqarishi haqidagi dalil aytiladi va muammoga yechim topiladi. Mazkur vazifaning sinf o‘quvchilarini kichuk guruhlarga ajratib bajartish samarali kechadi, chunki laboratoriya ishi guruhiy shaklda bajarilganda o‘quvchilar jamoa bo‘lib hamkorlikda ishlaydi. Bunda vazifalarni o‘zaro bo‘lib olish, natijalarni bir-biruiga tushuntirish va umumlashtirish hamkorlik munosobatlari asosida rivojlantiradi.

III bosqich. Refleksiya va baholash bosqichi. Mazkur bosqich yakuniy bosqichi bo‘lib, unda olingan natijalar tahlil qilinadi, o‘zlashtirilgan bilim va dars jarayonning samaradorligi baholanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Turli shakldagi jismlarning zichligini aniqlash” mavzusida laboratoriya ishini hamkorlik ta’lim texnologiyasi asosida tashkil etish bo‘yicha olib borgan tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlariga Toshkent viloyati Chirchiq shahri 6- va 8-son umumiy o‘rta ta’lim maktablari, Namangan viloyati Norin tumani 16-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi hamda Samarqand viloyati Jomboy tumani 18-son umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jami 228 (Jumladan, 116 ta tajriba va 116 ta nazorat guruhlarida) nafar, o‘quvchilari tadqiqotga jalb qilingan. Har bir o‘quvchining laboratoriya ishi yakuni bo‘yicha yozgan hisobati qabul qilingan va o‘quvchilarning o‘quv natijalari 1-jadvalda keltirilgan ko‘rsatgichlar asosida *reproduktiv, produktiv va kreativ* darajalarda baholanadi. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili

	reproduktiv	produktiv	kreativ	jami	o‘rtacha	dispersiya	variatsiya koeffs.	ishonchli oraliq	Xi-kvadrat statistik qiymati Kritik qiymat	samaradorlik
Tajriba guruhi	28	56	32	116	4,03	0,52	17,73	0,41÷0,64	21,25	1,12
Nazorat guruhi	60	36	16	112	3,55	0,53	20,25	0,71 ÷83	5,991	
Xulosa	H1 gipoteza qabul qilinadi									

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika darslarida hamkorlikda o‘qitish asosida mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha olib borilgan pedagogik tajriba-sinovda o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligi 12 % ga oshganlig kuzatilgan.

Mustaqil ta’lim jarayoni samarali yakunllanishida teskari oloqa tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining yo‘l qo‘ygan kamchiligini ko‘rsatish, xatosini o‘z vaqtida to‘g‘rilash ularga fan elementlarini samarali o‘zlashtirishida imkon beradi.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va ularning intellektual imkoniyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dastlab murakab bo‘lmagan reproduktiv topshiriqlar (masala yechish, tushunchalarni izohlash), keyingi bosqichlarda esa ijodiy va tadqiqotga asoslangan topshiriqlar (tajriba ishlari, loyiha ishlari) berilishi maqsadga muvofiqdir [5]. Bu jarayonlarda

o‘quvchilarda tayanch (kommunikativlik, axborot bilan ishlash) va fanga oid maxsus (ilmiy tahlil, tajriba o‘tkazish, natijalarni umumlashtirish va xulosalash, amaliy qo‘llash kabi) kompetensiyalar samarali ni egallashga yo‘naltiradi.

Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra ushbu xulosaga keldik. 1) Mustaqil ta’lim vositasida o‘qituvchi har bir o‘quvchida rivojlanishni ko‘radi. 2) Mustaqil ta’lim topshiriqlari maktab o‘quvchilarida nafaqat tayanch kompetensiyalarni, balki fizika faniga oid (ilmiy tahlil, tajriba o‘tkazish, natijalarni umumlashtirish va xulosalash, amaliy qo‘llash) kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 3) Hamkorlikda muammolarni hal qilish qobiliyatlari yuqori bo‘lgan o‘quvchilar an’anaviy ta’limdagi tengdoshlariga nisbatan fanlardan yuqori o‘quv natijalarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son Qarori. https://lex.uz/docs/5338558.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori. https://lex.uz/ru/docs/-5085887?

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son Qarori. https://lex.uz/docs/3153714.

4. Suyarov K., Sangirova Z., va boshq. Fizika 7. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent. Respublika ta’lim markazi. – 2022. – 160 b.

5. Shermetova S.T. Hamkorlik texnologoya asosida o‘quvchilarda eksperemental ko‘nikmalarini rivojlantirish // “Муғаллим”, 2025, 3/6-сан. – Б.134-137.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

O’ZBEK MILLIY MUSIQASINI TAHLIL QILISHDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLASHTIRISH METODLARI

Shaxobiddinova Aziza Shavkatjon qizi
Andijon Davlat Pedagogika institut talabasi
azizashaxobiddinova9@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari asosida o‘zbek milliy musiqa namunalarini tahlil qilish va ularni raqamlashtirishning zamonaviy metodlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot davomida akustik spektral tahlil, neyron tarmoqlar asosida audio identifikatsiya, hamda mashinali o‘rganish algoritmlaridan – xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) va RNN-LSTM modellaridan foydalanilgan. O‘zbek an’anaviy cholg‘ularining tembr xususiyatlarini aniqlash, kuy strukturasini avtomatik segmentatsiya qilish va musiqiy andozalarni raqamli bazaga joylashtirish orqali madaniy merosni saqlashga xizmat qiluvchi tizimlar ishlab chiqilgan. Maqolada shuningdek, raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy texnik va semantik muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston musiqa merosini global miqyosda saqlash va targ‘ib qilishda sun’iy intellektning o‘rni yuksak ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, o‘zbek milliy musiqasi, raqamlashtirish, neyron tarmoqlar, spektral tahlil, mashinali o‘rganish, madaniy meros, akustik analiz

Аннотация. В данной статье научно обоснованы современные методы анализа и цифровизации узбекской национальной музыки с применением технологий искусственного интеллекта (ИИ). В исследовании использовались спектральный акустический анализ, аудиоидентификация на основе нейронных сетей, а также алгоритмы машинного обучения – в частности, сверточные нейронные сети (CNN) и рекуррентные сети LSTM. Разработаны системы, способствующие сохранению культурного наследия, с помощью автоматической сегментации структуры мелодий, определения тембровых характеристик традиционных инструментов и создания цифровой базы музыкальных шаблонов. Также проанализированы ключевые технические и семантические проблемы цифровизации, предложены практические рекомендации по их решению. Результаты исследования подтверждают значимость искусственного интеллекта в глобальной сохранности и популяризации музыкального наследия Узбекистана.

Ключевые слова.Искусственный интеллект, узбекская национальная музыка, цифровизация, нейронные сети, спектральный анализ, машинное обучение, культурное наследие, акустический анализ

Abstract. This article presents a scientific exploration of modern methods for analyzing and digitizing Uzbek national music using artificial intelligence (AI) technologies. The study employs acoustic spectral analysis, audio identification via neural networks, and machine learning algorithms – particularly convolutional neural networks (CNNs) and RNN-LSTM models. Systems have been developed to preserve cultural heritage through the automatic segmentation of melody structures, identification of timbral characteristics of traditional Uzbek instruments, and the creation of a digital database of musical patterns. The article also addresses major technical and semantic challenges of digitization and offers practical recommendations for overcoming them. The findings demonstrate the critical role of AI in the global preservation and promotion of Uzbekistan’s musical heritage.

Keywords: Artificial intelligence, Uzbek national music, digitization, neural networks, spectral analysis, machine learning, cultural heritage, acoustic analysis

Kirish. XXI asrda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi madaniy merosni saqlash va uni yangi shakllarda qayta ishlash imkoniyatlarini keskin kengaytirdi. Xususan, musiqiy san’at, ayniqsa milliy musiqa namunalarini raqamlashtirish va tahlil qilish borasida sun’iy intellekt algoritmlarining qo‘llanilishi dolzarb ilmiy-texnik yo‘nalishga aylandi. O‘zbek milliy musiqasi —maqom, ashula, do‘ppi va baxshichilik kabi boy an’analarga ega bo‘lgan murakkab madaniy tizim bo‘lib, u avloddan avlodga og‘zaki an’ana orqali o‘tib kelgan. Ammo zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlarida ushbu musiqiy merosni saqlab qolish, tizimlashtirish va keng ommaga yetkazish uchun sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda.Bugungi kunda neyron tarmoqlar, mashinali o‘rganish (machine learning), konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN), spektral tahlil algoritmlari va avtomatik notalashtirish tizimlari kabi ilg‘or SI metodlari musiqiy ma’lumotlarni aniqlik bilan segmentatsiya qilish, ritm va ohang tarkibini avtomatik aniqlash, musiqiy tuzilmalarni vizual va akustik jihatdan qayta ishlash imkonini bermoqda. Shu o‘rinda, o‘zbek milliy musiqasining fonetik, ritmik, modulyatsion va semantik xususiyatlarini sun’iy intellekt orqali o‘rganish nafaqat musiqashunoslik fanining zamonaviy metodologiyasini yaratadi, balki milliy musiqaning global miqyosda ommalashuviga ham xizmat qiladi.Mazkur ilmiy maqola o‘zbek milliy musiqasini sun’iy intellekt asosida tahlil qilish va raqamlashtirishning samarali metodlarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritadi, shuningdek, mavjud texnologik yondashuvlarni tahlil asosida baholaydi va istiqbolli yo‘nalishlarni belgilaydi.

Asosiy qism. Zamonaviy texnologik taraqqiyot, ayniqsa sun’iy intellekt (SI) sohasidagi innovatsion yutuqlar, turli sohalar qatorida musiqa san’ati, xususan, milliy musiqa merosini tahlil qilish va raqamlashtirish jarayonlarida ham tub burilishlar yasash imkonini bermoqda.

O‘zbek milliy musiqasi – bu xalqning tarixiy xotirasi, madaniy identiteti va estetik dunyoqarashining in’ikosi bo‘lib, uning to‘liq saqlanishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt metodlariga asoslangan yondashuv zarur bo‘lib qolmoqda.

Sun’iy intellekt yordamida o‘zbek milliy musiqasini tahlil qilishda birinchi navbatda avtomatlashtirilgan spektral tahlil, akustik signallarni ajratish, musiqiy tuzilmalarni aniqlash kabi texnik metodlar qo‘llaniladi. Xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) va rekurrent neyron tarmoqlari (RNN) asosida qurilgan modellar orqali maqom, ashula yoki xalq qo‘shiqlarining tovush diapazoni, ritmik tuzilishi, lad-hamohanglik tizimi avtomatik tarzda tahlil qilinadi[52]. Bu usullar orqali o‘zbek musiqasiga xos bo‘lgan noan’anaviy ritmik uslublar, mikrotonal o‘zgarishlar va uslubiy o‘ziga xosliklar aniqlanishi mumkin bo‘lmoqda.

Raqamlash jarayonida esa musiqa namunalari MIDI formatida kodlash, tovush to‘lqinlarini vektorlashtirish, annotatsiyalash, hamda audio-ma’lumotlarni ontologik tasniflash kabi yondashuvlardan foydalaniladi. Ushbu jarayonlarda AI asosidagi audio transkripsiya texnologiyalari, xususan, Google TensorFlow Audio Recognition yoki OpenAI Whisper kabi ochiq manba platformalari orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa, o‘zbek xalq cholg‘ulari – tanbur, dutor, gijjak kabi asboblarning o‘ziga xos tembrlarini avtomatik ajratish va kataloglashda mashina o‘rganishi (Machine Learning) va chuqur o‘rganish (Deep Learning) metodlari katta yordam bermoqda.Bundan tashqari, milliy musiqiy merosni vizual va interaktiv shaklda raqamlashtirish maqsadida muzeylar va musiqiy arxivlar bilan integratsiyalashgan multimedia platformalari yaratilmoqda. Ushbu tizimlarda blokcheyn asosidagi autentifikatsiya texnologiyalari orqali mualliflik huquqlarini himoya qilish, augmented reality (AR) va virtual reality (VR) orqali esa an’anaviy ijroni jonlantirish imkoniyatlari mavjud[53]. O‘zbek xalq cholg‘ularining tovush xususiyatlarini o‘rganishda audio feature extraction texnikalari, jumladan MFCC (Mel Frequency Cepstral Coefficients), chroma features, va spectral centroid parametrlaridan foydalanilmoqda. Bu texnikalar har bir cholg‘u asbobining o‘ziga xos spektral xususiyatlarini aniqlash va ular asosida avtomatik tanib olish tizimlarini yaratishga imkon beradi. Natijada, milliy musiqa arxivlari avtomatik tarzda tartiblanib, foydalanuvchilarga asar nomi, ijrochisi, cholg‘usi va uslubiga ko‘ra qulay qidiruv interfeysi taqdim etiladi.

Raqamlashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri – bu musiqiy genom konsepsiyasini yaratishdir. Bu yondashuvda har bir musiqiy asar genetik kod singari parametrik tavsiflar orqali raqamli shaklga keltiriladi: metrum, tempo, dinamika, armoniya, melodik harakat, kadensiya kabi elementlar algoritmik ko‘rinishda saqlanadi. Ushbu metod o‘zbek milliy musiqa namunalarini boshqa xalqlar musiqasi bilan qiyosiy tahlil qilish va ularning universal musiqiy tuzilmalaridagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.Sun’iy intellekt asosida rekonstruksiya qilish texnologiyalari yordamida tarixda yo‘qolgan yoki faqat yozma

[52] Abdug‘aniyev, D. Sun’iy intellekt va uning rivojlanish bosqichlari., Toshkent: Texnopolis, 2016,184 b.
[53] Axmedov, I. Musiqa ta’limida zamonaviy yondashuvlar., Toshkent: Fan va Texnologiya, 2018, 176 b.

manbalarda saqlanib qolgan kuy va ashulalarni qayta yaratish tajribalari ham amalga oshirilmoqda. Bu yo‘nalishda tarixiy maqom asarlarini algoritmik rekonstruksiya qilish orqali ularni zamonaviy eshitish formatiga moslashtirish mumkin bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O‘zMFA huzuridagi Madaniy meros agentligi va boshqa ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan olib borilayotgan loyihalar aynan sun’iy intellekt asosida milliy musiqiy merosni raqamlashtirishga qaratilgan[54]. Shu orqali nafaqat milliy identitetimizni saqlash, balki xalqaro miqyosda o‘zbek musiqa madaniyatini ilgari surish imkoniyatlari kengaymoqda.

Umuman olganda, SI asosida tahlil va raqamlash metodlari o‘zbek milliy musiqasini nafaqat saqlash, balki uni global miqyosda targ‘ib qilish, ta’lim tizimiga integratsiya qilish va madaniy innovatsiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Bu esa o‘z navbatida musiqa san’atimizning zamonaviy ilmiy-paradigmatik asoslarga mos holda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘zbek milliy musiqasining tahlili va raqamlashtirilishini tubdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, AI vositalari, jumladan, mashinali o‘rganish, neyron tarmoqlar va ovozli ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlari orqali milliy musiqa namunalarining morfologik, ritmik va melodik tuzilmalari aniq va tizimli tarzda o‘rganilishi mumkin. Bu esa musiqiy merosimizni nafaqat saqlash, balki uni ilmiy asosda tasniflash, arxivlashtirish va global miqyosda targ‘ib qilish imkonini yaratadi.Shuningdek, o‘zbek musiqa san’ati namunalarining raqamli formatlarga o‘tkazilishi ularning interaktiv o‘rganilishi, o‘quv jarayonlarida keng qo‘llanilishi va zamonaviy multimediyaviy platformalarda namoyish etilishiga xizmat qiladi. Tadqiqotda qo‘llangan spektrogramma tahlili, MFCC (Mel-Frequency Cepstral Coefficients), va konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) asosidagi metodlar an’anaviy musiqaning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilishda samarali natijalar berdi.

Natijada, sun’iy intellekt yordamida o‘zbek milliy musiqasi nafaqat saqlab qolinish, balki yangi innovatsion yondashuvlar orqali qayta tiklanish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa musiqa madaniyatimizni raqamli avlodga integratsiyalash hamda uni global madaniy almashinuv jarayonlarida faol ishtirokchiga aylantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov, M. O‘zbek musiqasi tarixi., Toshkent: San’at, 2007, 192 b.
2. Bozorov, U.A. Sun’iy intellekt asoslari., Toshkent: Fan, 2015, 208 b.
3. Eshmatova, D.X. Raqamli texnologiyalar va madaniyat., Toshkent: Iqtisodiyot, 2018,164 b.

[54] Qayumov, S. Sun’iy intellekt: Yangi davrning muhandisligi., Toshkent: Akademnashr, 2021,248 b.

4. Karimov, N.K. Musiqa va milliy o‘zlik., Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012, 180 b.

5. Mirzayev, M. O‘zbek xalq musiqasi va uni o‘rganish metodlari., Samarqand: Zarafshon, 2009, 148 b.

6. Qodirov, R.H. Sun’iy intellekt: Nazariya va amaliyot., Toshkent: Innovatsiya, 2020, 256 b.

7. To‘laganov, B. Musiqa estetikasi asoslari., Toshkent: O‘qituvchi, 2005, 200 b.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING SMART EDUCATION TIZIMIDAGI QO‘LLANILISH TAHLILI

Abdullayev Alibek Qodiraliyevich
QDU “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt” kafedrasi mudiri, p.f.d (DSc), dotsent
quqon_alibek@mail.ru
Mirzakarimova Obidaxon Botirali qizi
70610101-Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy taminoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti
mirzakarimovaobidaxon@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy ta’lim tizimidagi, shuningdek Smart Education konsepsiyasidagi qo‘llanilish imkoniyatlari, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ta’siri, afzalliklari hamda mavjud cheklovlari, sun’iy intellekt asosidagi yechimlar o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish va ta’lim sifatini monitoring qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi, sun’iy intellekt texnologiyalarini Smart Education tizimiga integratsiyalashning samarali yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, Smart Education, adaptiv o‘qitish, raqamli ta’lim, o‘quvchi analitikasi, aqlli tizimlar.

Аннотация.В данной статье рассматриваются возможности использования технологий искусственного интеллекта в современной системе образования, в том числе в концепции Smart Education, влияние технологий искусственного интеллекта на образовательный процесс, их преимущества и существующие ограничения, значение решений на основе искусственного интеллекта в повышении эффективности обучения, формировании образовательных программ, отвечающих индивидуальным потребностям обучающихся, и контроле качества образования, а также рекомендации по эффективным способам интеграции технологий искусственного интеллекта в систему Smart Education**.**

Ключевые слова: искусственный интеллект, Smart Education, адаптивное обучение, цифровое образование, учебная аналитика, интеллектуальные системы.

Abstract. This article discusses the possibilities of using artificial intelligence technologies in the modern education system, as well as in the Smart Education concept, the impact of artificial intelligence technologies on the educational process, their advantages and existing limitations, the importance of artificial intelligence-based solutions in increasing

teaching efficiency, forming educational programs that meet the individual needs of students, and monitoring the quality of education, and recommendations on effective ways to integrate artificial intelligence technologies into the Smart Education system.

Keywords: artificial intelligence, Smart Education, adaptive learning, digital education, learning analytics, intelligent systems.

Kirish. Hozirgi ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt, o‘qitish sifati va natijadorligini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. **Aqlli ta’lim (Smart Education)** g‘oyasi o‘quvchini o‘quv jarayonining asosiy ishtirokchisiga aylantirib, interaktiv va moslashuvchan ta’lim modelini taqdim etadi. “Smart Education - bu nafaqat raqamli texnologiyalarni joriy etish, balki o'quv jarayonini butunlay qayta shakllantiruvchi, shaxsiylashtirilgan, adaptiv va interaktiv o'qitish muhtidir”[2].

“Jumladan, O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellektni rivojlantirish va joriy etish bo'yicha qonuniy-bazaning yaratilishi raqamli iqtisodotga o'tishning muhim sharti hisoblanadi”[3].

*O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda Smart Education platformalarini joriy etish, onlayn ta’limni rivojlantirish va sun’iy intellekt vositalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda***. Masalan, “Raqamli ta’lim” portali va “Kundalik.uz” tizimlarida sun’iy intellekt asosidagi yechimlar joriy etilmoqda**. Mazkur maqolada **aqlli ta’lim (Smart Education)** tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanish darajasini o‘rganish, ularning **foydalilik va natijadorlik ko‘rsatkichlarini baholash**, shuningdek, **kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash** masalalari ko‘rib chiqiladi.

Metodologiya.

S**un’iy intellekt (SI) texnologiyalarining Smart Education tizimidagi qo‘llanilish holatini tahlil qilish** maqsadida **kontent tahlil**, **taqqoslash** va **tahliliy yondashuv** metodlaridan foydalanildi. “**Sun'iy intellektning ta'limdagi o'rnini tahlil qilish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi, buning uchun tizimli adabiy sharhlar va metatahlillar eng samarali usullardan hisoblanadi”[4].**

Manba sifatida 2020–2025-yillarda e’lon qilingan xalqaro ilmiy maqolalar, shuningdek **OECD**, **UNESCO** va **MDPI** kabi nufuzli tashkilotlarning **tahliliy hisobotlari**, hamda **O‘zbekiston ta’lim tizimidagi raqamli va innovatsion jarayonlarga oid ma’lumotlar** asos qilib olindi.

Tahlil jarayonida **sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi asosiy yo‘nalishlari** mezon sifatida tanlandi. Jumladan:

1.”Adaptiv o‘qitish tizimlari (Adaptiv o‘quv tizimlari (AOT) an’anaviy ta’lim uslublaridan farqli ravishda, har bir o‘quvchining individual qobiliyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv materiallarini moslashtiradi. Bu tizimlar o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularga individual yordam

ko‘rsatish va ta’lim jarayonini doimiy ravishda tahlil qilish imkoniyatiga ega. Buning natijasida har bir o‘quvchiga moslashtirilgan ta’lim yo‘lini yaratish mumkin bo‘ladi.)”[8],

2.”O‘quvchi faoliyatini tahlil qiluvchi analitika vositalari (O'quvchi faoliyatini tahlil qiluvchi analitika vositalari - "Sun'iy intellekt vositalari yordamida talabalarning akademik faolligini monitoring qilish ularning zaif tomonlarini o'z vaqtida aniqlash va individual yondashuvni shakllantirish imkonini beradi” [7]),

3.”Baholash jarayonining avtomatlashtirilishi (bu sun’iy intellekt texnalogiyalari yordamida o’quvchining bilib, ko’nikma va malakalarini avtomatik ravishda baxolash tizimi bo’lib, “AI asosidagi avtomatik baholash tizimlari 2000 ta test topshirig'ini 5 daqiqada tekshirib, har bir o'quvchi uchun batafsil hisobot tuzadi “[6]),

4.”**Chat-botlardan foydalanish samaradorligi** tahlil qilindi (Chat-bot bu sun’iy intellect asosida ishlaydigan va inson bilan suhbatlashish orqali turli vazifalarni bajaradigan dastur hisoblanadi**. "Chat-botlarning ta'limdagi samaradorligi shundaki, ular o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib, har bir talabaning individual ehtiyojlariga javob bera oladi”[8]).**

Olingan natijalar asosida **Smart Education tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishini tizimlashtiruvchi model** ishlab chiqildi. Mazkur model ta’lim sifatiga SI texnologiyalarining ta’sirini baholash hamda ularni **O‘zbekiston ta’lim tizimiga integratsiyalash** yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar va muhokama

Yuqorida keltirilganlar shuni ko‘rsatdiki, Smart Education tizimida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy ahamaiyatga ega bo’lib, **“Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynasa-da, ularning samaradorligi pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unligiga bog'liq” [9].**

Shu bilan birga**, “O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellektni joriy etishda texnologik infratuzilmaning etishmasligi va malakali kadrlarning kamligi asosiy to'siqlardir” [10].**

“Adaptiv ta'lim tizimlari har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta'limni amalga oshiradi. **“Garzón J. et al. (2025)” tadqiqotiga ko‘ra, AI asosidagi adaptiv o'qitish platformalari o'quvchilarning bilim darajasiga qarab shaxsiylashtirilgan kontent taklif qilish orqali o'zlashtirish darajasini 40% ga oshirishi aniqlandi” [6].**

*Bu esa O‘zbekiston kontekstida individual yondashuvning ahamiyatini tasdiqlaydi***.** O‘quvchi faoliyatini tahlil qiluvchi analitika vositalari o‘qituvchilarga real vaqt rejimida o‘quv natijalarini kuzatish va baholash imkonini beradi va shu bilan birga baholash jarayonining avtomatlashtirilishi esa sub’ektivlikni kamaytirib, to’g’ri va xolis natijalarga erishishni ta’minlaydi va albatta chat-botlardan foydalanish esa o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi..

Xulosa va tavsiyalar.

Yuqorida keltirilgan malumotlarga asoslanib shuni xulosa qilsak bo’ladiki Smart Education tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini kengroq joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili bo’lib, *O‘zbekiston ta’lim tizimida SI asosidagi adaptiv platformalar, o‘quv analitikasi va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini keng tatbiq etish, shuningdek,* **o‘qituvchilar uchun “Sun’iy intellekt asosida raqamli pedagogika” kurslarini tashkil etish va MTM markazlarini joriy qilish** *zarur.*. Shu orqali ta’lim jarayoni samaradorligi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi yanada yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chen L. et al. (2021). Artificial Intelligence in Education: A Review. Open Research Amsterdam.

2. Garzón J. et al. (2025). AI-powered Adaptive Learning Systems. MDPI, 9(8):84.

3. Zhang Y. (2024). Smart Education and Digital Pedagogy. Springer Press.

4. Lee K. (2023). Ethics of Artificial Intelligence in Education. IEEE Transactions on Learning Technologies.

5. OECD (2023). Artificial Intelligence and the Future of Education. OECD Publishing.

6. UNESCO (2022). Guidelines on AI and Education.

7. Karimova N. (2025). Smart Education konsepsiyasining rivojlanish istiqbollari. O‘zbekiston Pedagogika Jurnali.

8. Muxtorova Z.Z., Sodikova N.I. (2024). Adaptiv o‘quv tizimlarida sun’iy intellektning roli: personalizatsiya va natijalar. // O‘zbekiston pedagogika jurnali, 4-son, 45-50-betlar.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG’ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR VA INTERAKTIV O’YINLARDAN FOYDALANISH USULLARI

PhD, dotsent. ***Suyarov Akram Musayevich***
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Axborot texnologiyalari kafedrasi
Suyarova Komila Samandarovna
Samarqand shaxar 24– umumiy o’rta ta’lim maktabi boshlang’ch sinfi o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola o’qish savodxonligida interfaol metodlardan, zamonaviy innovatsiyalar, interaktiv o’yinlardan foydalanish. O’qitish samaradorligini oshirish va interfaol metodlardan foydalanish qo’llanilishi mumkin bo’lgan interfaol metodlar usullar hamda o’yinlar haqida so’z boradi. Shuningdek ular o’quvchilar egallagan bilim, ko’nikma va malakalarni mustahkamlash va kreativ fikrlash qobilyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so’zlar: o’qish, metodika, innovatsiya, interfaol metodlar, ijodkorlik, pedagogik g’oyalar.

Аннотация.В данной статье рассматривается использование интерактивных методов, современных инноваций и интерактивных игр в обучении чтению. Обсуждаются интерактивные методы, способы и игры, которые могут быть использованы для повышения эффективности обучения и развития интерактивных методов. Они также помогают закрепить знания, навыки и компетенции, приобретенные учащимися, и развить их творческое мышление.

Ключевые слова: чтение, методология, инновации, интерактивные методы, креативность, педагогические идеи.

Abstract. This article discusses the use of interactive methods, modern innovations, interactive games in reading literacy. It discusses interactive methods, methods and games that can be used to increase the effectiveness of teaching and the use of interactive methods. They also help to consolidate the knowledge, skills and competencies acquired by students and develop their creative thinking abilities.

Keywords: reading, methodology, innovation, interactive methods, creativity, pedagogical ideas.

KIRISH.Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta’lim sohasida ham bir qator o‘zgarishlar qilinishini taqoza etmoqda. Hozirgi kunda ta’lim sohasida erishilgan yutuqlami saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta’limning kishi xotirasini rivojlantirishga

asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o‘quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo’llash, ularda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o£tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo‘yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo’lgan o’qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o’qishga o’rgatish yo’l-yo’riqlarini o’qish metodikasi ishlab chiqadi. O’qish metodikasi kichik yoshdagi o’quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

Boshlang’ich sinf o’qish savodxonligida asosan she’rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o’qib o’rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o’ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o’ziga xos usulda o’qib o’rganish taqazo qilinadi.

O’qish savodxonligining samaradorligi ko’p jihatdan ta’lim metodlarining to’g’ri tanlanishiga bog’liq. Binobarin, fanning o’zi kabi o’qish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo’ladi. Masalan, eski maktablarda o’qish quruq yod olish metodi asosida o’rgatilgan bo’lsa, hozir izohli o’qish asosida olib boriladi.

Yod olish metodida matndagi so’zlarga izoh berishga, ma’nosini tushuntirishga, o’qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o’qishning ongli bo’lishiga mutlaqo e’tibor berilgan. Ularda ko’proq to’g’ri talaffuz, qiroat bilan o’qish, ifodali o’qish nazarda tutilgan.

Boshlangich maktabda oqish ta’limi o’quvchilarning qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o’z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini hayotga tadbiq qilish xizmat qiladi. Biz talim deyilganda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatining qanday bo`lishini, o`qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini tushunamiz.

ASOSIY QISM

O’qishni o’qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish.

Zamonaviy sharoitlarda ta’lim samarodorligini oshirishning eng maqbul yo’li- bu mashg’ulotlarning interfaol metodlari yordamida tashkil etish deb hisoblayman. Xo’sh interfaol metodlarning o’zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning o’rinli, maqsadga muvofiq qo’llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi an ash kabi savollarga qisqacha javob topildi.

“Interfaol” tushunchasi inglizcha “Interact” so’zidan olingan (“inter” “birgalikda”, “act” – “harakat qilish”).

Interfaol o’qitish - bu kognitiv faoliyatni tashkil etishgning maxsus turidir, Unda to’liq, aniq va rejalashtirilayotgan maqsadlar bo’ladi. Ushbu maqsadlardan biri o’qitish jarayonida shunday yuqori darajadagi sharoit yaratish kerakki, unda tinglovchi o’qitish jarayonini produktiv jarayonga aylanturuvchi o’zining muvaffaqiyati, intellectual darajasini anglab yetish lozim.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o’quvchi o’z intellectual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o’zlashtiradi.

Interfaol ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari –o’qituvchi, o’quvchi va o’quvchilar guruhi o’rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg’in bahs – munozaralar, o’zorafikir almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etishi, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgakikda izlash, o’quv matriyallarini yuzaga keltirish, “o’qituvchi – o’quvchi – o’quvchilar guruhi” ning o’zora bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo’llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo’lishlari, ruhiy erishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

O`qitish usuli deganda ta'lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O`qitish usullari ta'lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchi faoliyatining qanday bo`lishini, o`qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

O`qitish usullari har ikkala faoliyati:

a) o’qituvchi tomonidan o’quvchilarni bilim, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish;

b) o’quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirish faoliyatida qo’llanadigan yo’llarni o’z ichiga oladi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo’lgan o’qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o’qishga o’rgatish yo’l-yo’riqlarini o’qish metodikasi ishlab chiqadi. O’qish metodikasi kichik yoshdagi o’quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O’qish darsining samaradorligi ko’p jihatdan ta’lim metodlarining to’g’ri tanlanishiga bog’liq. Binobarin, fanning o’zi kabi o’qish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo’ladi. Masalan, eski maktablarda o’qish quruq yod olish metodi asosida o’rgatilgan bo’lsa, hozir izjhli o’qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi sozlarga izoh berishga, ma’nosini tushuntirishga, o’qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o’qishning ongli bo’lishiga mutlaqo e’tibor berilgan.

Ularda ko’proq to’g’ri talaffuz, qiroat bilan o’qish, ifodali o’qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda eng ommaviy interfaol ta’lim usularidan foydalaniladi, ular quydagilar sanaladi.

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “o’quv keslari”), “Bilts- so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va boshqalar;

2. **Strategiyalar:** “Charxpalak”, “Aqily hujum, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinma-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va bshqlar;

3. Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalr.

Interfaol ta’lim metodlari va ularni qo’llash tartibi.

Ayni o’rinda bir guruh interfaol ta’lim metodlari va ularni amliyotda qo’lash tartibi to’risida so’z yuritiladi.

“CHARXPALAK” USUSLI


“Charxpalak” metodi-o’quvchilarga o’tilgan mavzu boyicha bilimlarini mustahkamlash yoki tekshirish hamda bir-birini baholash imkoniyatini beruvchi metoddir

«Charxpalak» metodidan foydalanganda huddi «Davra suhbati» metodida foydalanilgandek

aylana stol (“charxpalak”) atrofida o’tkaziladi. Ushbu metodni guruhni ikkita kichik guruhga ajratgan

holda ham o’tkazish mumkin. Har bir guruhga bittadan “nazoratchi”ni biriktirib qoyish lozim.

“Nazoratchi”lar o’quvchilarning javoblarini va baholashning haqqoniyligini nazorat qilib turadilar



Chizma. Aylana stol (“charxpalak”) ko’rinishi.

yuqoridagi chizmada (8-chizma) “Charxpalak” metodidan foydalanishda aylana stolning ko’rinishi tasvirlangan. Guruh o’quvchilarini ikki guruhga ajratish kerak o’ladi. Birinchi guruhdagilar “o’quvchilar”, ikkinchi guruhdagilar esa “o’qituvchilar” etib tayinlanadilar. “O’quvchilar” aylana stolning tashqarisida (“charxpalarning chelakchalari”), “o’qituvchilar” esa aylana stolning ishkarisida (“charxpalakning o’qlari”) joylashadilar. Keyingi bosqichda “o’qituvchilar” “o’quvchi”, “o’quvchilar” esa “o’qituvchi” bo’lib joylarini almashadilar.

«Charxpalak» metodining bosqichlari

1. O’qituvchi metodni o’tkazish uchun tanlab olgan mavzuni e’lon qiladi hamda o’quvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

2. Shundan so’ng o’quvchilarni ikki guruhga- “o’qituvchi” va “o’quvchilar”ga ajratadi. Guruhlar aylana stolga joylashadi.

3. O’qituvchi o’zi ishlab chiqqan savollarni “o’qituvchilar”ga tarqatadi yoki “o’qituvchilar” o’zlari berilgan mavzu boyicha savollarni ishlab chiqadilar.

4. “O’qituvchi” ro’parasida o’tirgan “o’quvchi”ga savol beradi. “O’quvchi” javob bergandan so’ng uni baholaydi.

5. Berilgan vaqt tugagandan so’ng, “o’quvchilar” soat yo’nalishi boyicha o’z joylarini almashtiradilar, bunda “o’quvchi” keyingi “o’qituvchi” ning ro’parasiga o’tadi. “O’qituvchilar” joylarini o’zgartirmaydilar.

6. “O’quvchi” keyingi “o’qituvchi” ning savoliga javob beradi va “o’qituvchi” tomonidan baholanadi.

7. “O’quvchi” “charxpalak”dagi barcha “o’qituvchilar”ning savollariga javob bergandan so’ng, baholar jamlanadi.

8. Bu bosqichda “o’qituvchilar” “o’quvchi”, “o’quvchilar” esa “o’qituvchi” bo’lib joylarini almashadilar va yuqoridagi bosqichlar takrorlanadi. Metod so’ngida o’quvchilarning baholari e’lon qilinadi.



Chizma. “Charxpalak” metodining tuzilmasi.

«Charxpalak» metodining afzalliklari:

- o’quvchilarda bir-birini baholash ko’nikmasi shakllanadi;
- o’quvchilar tez fikrlashni o’rganadilar;
- o’quvchilarning bilimlarini sinab ko’rish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- barsha o’quvchilarning ishtiroki ta’minlanadi.

«Charxpalak» metodining kamchiliklari:

- o’quvchilarda yuqori motivastiya talab etiladi;

- noto’g’ri savollar berish xavfi tug’iladi;
- o’qituvchi tomonidan o’quvchilarga sub’ektiv (xolis bo’lmagan) baho berilishi mumkin.
- ko’p vaqt talab etiladi.

“AQLIY HUJUM” USUSLI

Bu shunday usulki, muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan har bir ishtirokchi o‘z fikrini bildirishi shart. O’qituvchi esa har bir javob variantlarini diqqat bilan tinglashi va e’tirozsiz qabul qilishi zarur.

Bu usuldan qachon foydalaniladi? - Bu usuldan darsning boshida foydalanish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, guruh kayfiyatini bilish, ularning bilim darajasini aniqlab olish va darsdan nima kutayotganliklarini bilib olishda bu - eng qulay usul hisoblanadi. Aqliy hujum natijasida olingan ma’lumotlar guruh bilan olib boriladigan keyingi ishlar uchun ham yo‘llanma bo‘lishi mumkin.

Aqliy hujum usulining foydaliligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Bu usulning dars jarayonida foydali jihatlari ko‘p bo‘lib, u ayniqsa quyidagi hollarda juda qo‘l keladi:

- Nozik va munozarali savollarni muhokama qilish uchun
- O‘ziga ishonmaydigan ishtirokchilarni munozaraga tortish va ularni qiziqtirish uchun (bu ishtirokchini albatta rag‘batlantirish shart)
- Qisqa vaqt mobaynida ko‘proq fikr yig‘ish uchun.

Aqliy hujum o’tkazishning uchta qoidasi bor:

- Barcha fikrlarni e’tirozsiz qabul qilish va har bir ishtirokchiga bildirgan fikri uchun minnatdorchilik bildirish;
- Fikrlarni yozib olayotganda birorta ham fikrni tashlab ketmaslik, ya’ni har bir ishtirokchi bildirgan fikrni albatta yozib boorish;
- Bildirilgan fikrlarni yakunlash va yagona qarorga kelish uchun xar bir ishtirokchidan uning rozi yoki rozi emasligini so’rash shart.

"Aqliy hujum" bosqichlari:

1. O’qituvchi "Aqliy xujum" mavzusini taqdim qiladi.
2. Taqdim qilingan mavzu yuzasidan fikr-mulohaza bildirish uchun ishtirokchilarga vaqt beriladi.
3. Taqdim qilingan mavzu yuzasidan fikr-mulohaza bildirish uchun ishtirokchilarga imkon beriladi
4. Bildirilgan barcha fikr-mulohazalar maxsus qog‘oz yoki doskaga yozib boriladi.
5. Muhokama yakunida guruhda turli fikrlilikdan yagona fikrga kelinadi.

Aqliy hujum natijasi - bu - turli xil g’oyalar, fikrlar, mulohazalar yig’indisidir. Asosiysi esa - ishtirokchilarning faol ishlashi. Shuning uchun trening davomida aqliy hujum natijalariga tez-tez murojaat qilib turish kerakki, bunda ishtirokchilar o‘zlarining faol

harakatlari natijasini, bu fikrlardan keyinchalik ham foydalanilayotganligini ko‘rishlari kerak.

“ASSESMENT” METODI

“Assesment” inglizcha **“assessment”** so’zidan olingan bo’lib, “**baho**”, “**baholash**” ma’nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko’nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to’plami hisoblanadi.

“**Assesment**” metodi o’quv mashg’ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanish yoki dars oxirida yoki o’quv predmetning biron-bir bo’limi tugallanganida) o’tilgan mavzuni o’zlashtirilganlik darajasini baholash takrorlash mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o’tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta’lim oluvchilarning bilimlarini tekshirib olish, malaka oshirishga kelgan tinglovchilarning dastlabki bilimlari, ko’nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo’ljallangan.

“Assesment” metodi bo’yicha topshiriq namunasi:

Test. Tegishli fan bo’yicha o’tilgan (bo’lim, kurs) yuzasidan 1- 2 ta test beriladi.	**Muammoli vaziyat**. O’tilgan mavzu asosida aniq hayotiy vaziyat, hodisaga asoslangan muammo beriladi.
Simptom. Mavzu bo’yicha ilmiy-nazariy fikrlar, g’oyalar, ta’riflar tugallanmagan fikr ko’rinishida beriladi, masalan: ...ta’rif bering, …ilmiy asoslang …., yoriting… va b.	**Amaliy ko’nikma**. O’tilgan mavzu mazmunini hayotda ish foaliyatida qo’llashdagi ko’nikmalarga tegishli topishiriq beriladi, masalan: …. chizing, hisoblang, to’ldiring, toping, solishtiring … va b.q.

“Assesment” metodi bo’yicha topshiriq namunasi:

Test. 1. Alisher Navoiy, Mirak naqqosh kabi qahramonlar qaysi hikoyaga tegishli? a) Jasurlik b) Ixloslik c) *Tanbeh d) Mardlik 2. “Qo’rqoq” hikoyasi muallifi? a) Fitrat b) *Sunnatilla Anarboyev c) Alisher Navoiy d) Bobir Mirzo	Muammoli vaziyat. Alisher Navoiyning dostonlari “Farhod va Shirin” va “Layli va va Majnun” dostonlari, “Saba’i Sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlari. Savol. 1. Sizningcha bu dostonlardan nimalarni o’rganamiz. 2. Qahramonlar o’rnida siz nima qilgan bo’lar edingiz?

Simptom. Hikoya tushunchasiga ta’rif bering.	Amaliy ko’nikma. Sharq mutafakkirlari yosh avlodning ilm olish haqida qanday qarashlarni ilgari surganlar?

Yuqorida ta’kidlangan metodlardan tashqari, boshlang’ich sinf o’qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan “Tarmoqlash”, “Guruhlar bilan ishlash”, “Blis texnologiyasi” kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta’kidlab o’tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo’llash o’qituvchi o’qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi lozim.

O’qish darsidagi ish turlarini quyidagicha belgilash mumkin

– O’qituvchi topshirig’i bo’yicha matnni to’liq o’qish.

–Matnni bo’laklarga bo’lish.

–Tayyor reja bo’yicha o’qish.

–Matnni o’qib, mazmunini hikoya qilish.

–Matnni tayyorgarlik ko’rgan o’quvchilar tomonidan o’qilishi. Matnni qisqartirib o’qish.

–Xatboshi bo’yicha o’qish.

–Matndan rasmga bag’ishlangan qismini o’qish.

–O’qituvchining savollariga matndan javob topib o’qish.

–Tanlab o’qish.

–Gapning boshi yoki oxiridagi so’z asosida to’liq gapni topish. «Me'yor»dagidan yo’qori tezlikda o’qish.

–Ertak yoki masalni o’qiganda «Nima haqiqatga yaqin, nima o’ylab topilgan» mavzusida suhbat.

–Maqol sifatida aytiladigan gaplarni topish.

–Matndan xulosalarni topish.

–Matnga o’z sarlavhasini tanlash.

–Rollarga bo’lib o’qish.

–Dialoglarga bo’lib o’qish (muallif so’zlarisiz).

–O’qiganlarni qayta gapirishda mimika, imoishoralardan foydalanish.

“Kim tezroq?” o’yini. Bu o’yinda o'quvchilarning o'qish tezligini va diqqatini oshirishga qaratilgan. O’yin qoidalari quyidagicha:

1. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi.
2. Doskada o’tilgan mavzu matnidan parchalar yoziladi.
3. O'qituvchi signal berishi bilan har bir guruhdan bir o'quvchi doskaga yugurib boradi va o'qituvchi aytgan so'zni matndan topadi.
4. So'zni birinchi bo'lib topgan o'quvchi g’olib hisoblanadi va guruhiga ball olib keladi.

5. O'yin oxirida eng ko'p ball to’plagan guruh g’olib deb e’lon qilinadi.

Ushbu o'yin o'quvchilarda raqobat ruhini uyg’otadi, o’qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va matnni tezroq tushunishga yordam beradi. O’yin davomida o’qituvchi o’quvchilarni rag’batlantirib turishi, xatolarni tuzatishi va yordam berishi lozim.

«Jonli tasvirlar» o’yini. Bir kishi o’qiydi, ikkinchi kishi eshitganlarini mimika, imo ishoralar yordamida takrorlaydi. Matndagi har xil kayfiyatga xos qismlarni topish (quvnoq, xafa, befarq).

Matndagi diqqat bilan o’qishni talab qiladigan qismni topish.

Matndan undov, so’roq xarakteridagi gaplarni topish. Musobaqa' o’qish.

Siymolarni ifodalovchi so’zlarni topish.

Urg’u berilganda so’zlar ma'nosining o’zgarishini kuzatish va o’qish.

Sekin, tez, baland o’qiladigan gap va so’zlarni aniqlash.

She'rlarni bandlar bo’yicha o’qib, pauza bilan tugatish. She'rdan bir bandni tanlab, ifodali o’qish.

Matndan yoyiq gapli qismni topib o’qish.

O’qish darslari jarayonning samarali o’tishida motivlar muhum o’rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlargina samarali bo’ladi.

Mustahkamlash-umumlashtirish darslarining maqsadi esa o’quvchilarning bo’lim yuzasidan o’rgangan bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirishga xizmat qiladi, bundan tashqari o’quvchilar bilimini nazorat qilishga ham xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ham bunday darslar loyihasini qiziqarli yoki noan'anaviy tarzda ishlashga e'tibor qaratilsa ancha samarali bo’ladi.

“REKLAMA” METODI

“Reklama” metodidan foydalandik. Bu metod boshlang’ich sinf o’qish darslarida qo’llanilsa o’quvchilarning kitob o’qishga bo’lgan ishtiyoqi, og’zaki nutqi shakllanadi, so’z boyligi oshadi, har bir mavzuga savol tuza olishga, erkin va mustaqil fikrlashga o’rganadilar. Ushbu metod orqali o’quvchilar ertaklarni, badiiy asarlarni reklama qiladilar. Reklama qilish jarayonida ertak, asar qahramonlariga xos sifatlarni ochib beradilar. Ya’ni asarni o’qib, asardagi voqea-jarayonlarni reklama qiladilar. Metodni qo’llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

1. o’quvchilar guruhlarga ajratiladi;
2. o’quvchilarga ertak yoki biror bir asarning mavzusi e’lon qilinadi;
3. o’quvchilar mavzudagi jarayonlarni, undagi qahramonlarni qisqa fikrlar bilan reklama qiladilar;
4. sinfdagi boshqa o’quvchilar esa ertak yoki asarning nomini topishadi;
5. mazmunli, aniq va qiziq reklama tayyorlagan o’quvchi rag’batlantiriladi.

Bu metodning o’ziga xos jihati shungaki, unda o’quvchilar asar qahramonlarining rollariga kirib, she’rlarni esa ifodali tarzda o’qishga harakat qiladilar.

XULOSALAR.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bugungi dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta’lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o’z ta’sirini ko’rsatayotganligi ehtiyojidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo’lishi juda muhim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o’quvchilarga tushunarli, oson, qiziq bo’lgan usullarni tanlashi va qo’llay olishi, ko’rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologoyalardan to’g’ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari boshqarishga moyil, qiziquvchan, ta’sirchan bo’lganliklari uchun ham o’qituvchidan o’quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo’lgan, darsni oson o’zlashtirishlarini, bilimlarni mustahkam o’rganishni kafolatlaydigan metodlarni tanlashi va foydalanishi talab etiladi.

Darslarni samarali va sifatli tashkil etish uchun pedagogning tashkiliy hamda uslubiy jihatdan tayyorgarligi va ta’lim olish jarayonini tashkil etishni ta’minlovchi o’quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish talab etiladi. Taminot bazasida o’quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash imkoniyati bo’lishi muhim.

Bu uslubiy ishimizda boshlang’ich sinf o’quvchilarini o’qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishda qo’yiladigan didaktik talablar hamda asosiy e'tiborni qaratish kerak bo’lgan jihatlar yoritib berildi, boshlang’ich sinflarda “Reklama” metodidan foydalanildi hamda shu asosda tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Bo’lajak boshlang’ich ta'lim o’qituvchilarini rivojlantirishda faol ta'lim usullarini qo’llash imkoniyatlari o’rganilib, mohiyati yoritib berildi.

Olib borgan ishimiz natijasi va xulosalarimiz asosida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

1. Boshlang’ich ta'lim o’qituvchilari muntazam ravishda pedagogik texnlogiyalardan qo’llashlariga erishish.
2. Ta'lim jarayoni asosida o’quvchining erkin tafakkurini shakllantirish va ijtimoiy xayotga tayyorlashga erishish.
3. Har bir o’qituvchi o’quvchining diqqati, e'tiborini jalb qilish uchun o’qish darslarida texnologik yondoshishga o’rgatish.
4. O’qituvchi mahoratini oshirish uchun tajribali o’qituvchining ishlarini doimiy kuzatib borishlariga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O’zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - T.: O’zbekiston, 1997-yil.

2. O’zbekiston Respublikasining «ta'lim to’g’risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997-yil.

3. Karimov I.A «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir». T.: O‘zbekiston, 20l0-yil. 48-bet.

4. Karimov I.A.Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur»jurnali, 1998-yil, 2-son, 29 bet.

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.–T.: Ma'naviyat,2008-yil

6. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O’zbekiston, 2000-yil

7. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil

8. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001

9. Adizov B.R. Boshlang’ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil

10. Azizxo’jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil

11. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo.- T.: «Moliya», 2002-yil.

12. Bespalko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii – M.: «Pedagogika», 1989-yil.

13. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. – M.: 1995-yil.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TIBBIYOTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA MASOFAVIY TA’LIM PLATFORMALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH TAJRIBALARI

Suyunova Elmira Shavqidin qizi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi sohasidagi kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi – bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanishning samarali jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalar orqali talabalarning o‘quv jarayonini interaktiv tashkil etish usullari, o‘quv resurslarini elektron shaklda yetkazib berish hamda talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish strategiyalari yoritilgan. Shuningdek, masofaviy ta’limda raqamli simulyatsiya, virtual laboratoriya, testlar va klinik holatlar asosida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish tajribalari misolida o‘qitish samaradorligi oshirilishining metodik yechimlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: tibbiyotda axborot texnologiyalari, masofaviy ta’lim, E-learning platformalar, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, raqamli kompetensiya, tibbiy ta’lim, virtual laboratoriya.

Аннотация. В статье анализируются эффективные аспекты использования платформ дистанционного обучения при преподавании дисциплины «Информационные технологии в медицине» в высших медицинских учебных заведениях. Рассматриваются методы интерактивной организации обучения студентов с использованием таких платформ, как Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, стратегии предоставления образовательных ресурсов в электронном виде и развития цифровых компетенций студентов. Предлагаются методические решения для повышения эффективности обучения в дистанционном обучении на примере цифровой симуляции, виртуальной лаборатории, практических занятий на основе тестирования и клинических случаев.

Ключевые слова: информационные технологии в медицине, дистанционное обучение, платформы электронного обучения, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, цифровые компетенции, медицинское образование, виртуальная лаборатория.

Abstract. This article analyzes the effective aspects of using distance learning platforms in teaching the subject “Information Technologies in Medicine” in higher medical education institutions. The article covers methods of interactive organization of the learning

process of students through platforms such as Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, strategies for delivering educational resources electronically, and developing students' digital competencies. Also, methodological solutions for increasing the effectiveness of teaching in distance learning are proposed on the example of digital simulation, virtual laboratory, practical training based on tests and clinical cases.

Keywords: information technologies in medicine, distance learning, E-learning platforms, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, digital competence, medical education, virtual laborator

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bugungi kunda barcha sohalarda, ayniqsa, tibbiyot ta’limi tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Tibbiyot fanlarining raqamlashtirilishi, ma’lumotlar bazalarining kengayishi, klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar hamda sun’iy intellekt vositalarining joriy etilishi shifokor kasbining mazmunini yangicha bosqichga olib chiqdi. Endilikda zamonaviy shifokor nafaqat klinik tajriba va nazariy bilimlarga ega bo‘lishi,balki tibbiy axborotni qayta ishlash, elektron ma’lumotlar bilan ishlash, telemeditsina, raqamli diagnostika va tibbiy tahlil dasturlaridan samarali foydalanishni ham bilishi zarur. Shu jihatdan, “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fani zamonaviy tibbiyot ta’limining ajralmas va strategik muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur fan talabalarda tibbiyotdagi raqamli texnologiyalarni chuqur anglash, tibbiy axborot tizimlari va dasturiy ta’minot bilan ishlash malakasini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.Fanning asosiy vazifalaridan biri tibbiy amaliyotda axborot resurslaridan foydalanish, elektron tibbiy kartalar, klinik ma’lumotlar bazalari, sog‘liqni saqlash statistikasini raqamli tahlil qilish va shaxsiy axborot xavfsizligini ta’minlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Asosiy qism. Raqamli ta’limning jadal rivojlanishi tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ham o‘qitish jarayonini tubdan yangilashga olib keldi. Xususan, “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fani o‘z mazmuni va amaliy yo‘naltirilganligi bilan masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanishga eng mos yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda tibbiyot ta’limida LMS (Learning Management System) tizimlarining keng joriy etilishi o‘quv jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va individuallashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Shu bois tibbiyot OTMlarida Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Canvas, EdX kabi platformalar asosida tashkil etilgan virtual ta’lim muhiti o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, fan mazmunini chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qilmoqda.

Masofaviy ta’lim platformalaridan samarali foydalanish, avvalo, o‘quv materiallarini raqamli formatga moslashtirishni talab qiladi. “Tibbiyotda AT” fani bo‘yicha darsliklar, amaliy qo‘llanmalar, algoritmlar, klinik misollar va tibbiy axborot tizimlaridan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar elektron shaklga keltirilganda, talabalarga istalgan paytda ularga murojaat qilish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, EHR (Electronic Health Record), PACS

(Picture Archiving and Communication System), LIS (Laboratory Information System) kabi tibbiy axborot tizimlarining funksional imkoniyatlarini virtual tarzda o‘rganish talabalarning amaliy savodxonligini mustahkamlaydi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy platformalarda multimediya materiallaridan keng foydalanish talabalarning o‘zlashtirish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, videodarslar, interaktiv simulyatsiyalar, onlayn laboratoriya ishlari, klinik vaziyatlarga asoslangan animatsion topshiriqlar talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Tibbiyot OTMlarida qo‘llanilayotgan 3D-modellashtirilgan virtual organlar, diagnostik jarayonlarni bosqichma-bosqich tasvirlovchi raqamli simulyatorlar o‘quv jarayonini yanada jonlantiradi va talabaning mavzuni o‘zlashtirishda faol ishtirokchi bo‘lishiga xizmat qiladi.

Masofaviy ta’lim platformalaridan samarali foydalanishning muhim omillaridan yana biri o‘qituvchining raqamli pedagogika bo‘yicha kompetensiyasi. Raqamli muhitda dars jarayonini tashkil etish, fan bo‘yicha elektron kontentni ishlab chiqish, masofaviy baholash mezonlarini yaratish va talabalar faoliyatini analitik kuzatish bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasi oshirilgan taqdirda, ta’lim samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Shu nuqtai nazardan tibbiyot OTMlarida o‘qituvchilar uchun maxsus seminar-treninglar, onlayn malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilmoqda.

Masofaviy ta’lim platformalarining afzalliklaridan yana biri o‘quv jarayonida differensial va individual yondashuvni ta’minlashidir. Talabalar o‘z o‘quv sur’ati, qiziqishi va tayyorgarlik darajasiga mos ravishda topshiriqlarni mustaqil bajarishi, qayta ko‘rib chiqishi yoki qo‘shimcha resurslardan foydalanishi mumkin. O‘qituvchi platforma orqali talabaning faolligi, topshiriqlarni bajarish sifati, vaqtida topshirish ko‘rsatkichlari va bilim dinamikasi haqida aniq statistik ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Biroq masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish jarayonida qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Bular orasida texnik nosozliklar, internet tezligining pastligi, ayrim tibbiy dasturlarni onlayn formatda ishlatish imkoniyatining cheklanganligi, talabalar tomonidan mustaqil ishlash intizomining yetarli emasligi kabi omillar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tibbiyot OTMlarida barqaror raqamli infratuzilmani shakllantirish, talabalarni masofaviy ta’lim madaniyatiga o‘rgatish, dars jarayonida onlayn va oflayn metodlarning uyg‘unligini ta’minlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta’lim platformalarining joriy etilishi tibbiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, o‘quv jarayonini innovatsion model asosida tashkil qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanining mazmuni raqamli vositalar yordamida yanada chuqurroq o‘zlashtirilishi, amaliy ko‘nikmalarning simulyatsiya texnologiyalari orqali shakllanishi va talabalarda axborot madaniyatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda zamonaviy axborot vositalarini, elektron o‘quv resurslarini, virtual laboratoriyalarni va simulyatsion

texnologiyalarni qo‘llash tibbiy ta’limni yangi bosqichga olib chiqadi. Bunday yondashuv nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki talabalarning kasbiy kompetensiyalarini chuqurlashtirish, tibbiy axborotni tahlil qilish va amaliy qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, mazkur fan tibbiyot oliy ta’lim tizimida innovatsion o‘qitishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Қ. Раҳимов И. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.

2. Алимов Р. Tibbiy axborot tizimlari va ularning qo‘llanilishi. – Toshkent: TMA nashriyoti, 2021.

3. Ходжаев А. Муродов Б. Masofaviy ta’lim metodlari va texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – 2021.

5. Digital Health Education: Global Review and Analysis. World Health Organization (WHO), 2020.

6. Greenes R., Shortliffe E. Medical Informatics: Computer Applications in Health Care. Springer, 2021.

7. Berner E.S. Clinical Decision Support Systems. Springer, 2019.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ORCID: 0009-0003-7021-4696

TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA O‘ZBEK TILI O‘QITISHIDA TECHNOLOGY-ENHANCED LEARNING METODINING O‘RNI

Mamatxonova Moxichexraxon Ubaydullo qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
“O‘zbek va xoriiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi
mohichehraxonm@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola tibbiyot oliygohlarida o‘zbek tili fanini o‘qitishda Technology-Enhanced Learning (TEL) — raqamli ta’lim texnologiyalarini integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tarzda o‘rganadi. Tadqiqotning asosi — TEL vositalarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, tibbiy terminologiyani o‘zlashtirish, hamda kasbiy-muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligini aniqlash uchun o‘tkazilgan eksperimental ishdir. Maqolada laboratoriya va klinik simulyatsiyalar, interaktiv modul va mobil ilovalar, multimodal o‘quv kontentlar va adaptiv baholash tizimlari sinovdan o‘tkazildi. Eksperimental guruh (TEL yondashuvi bilan o‘qitilgan) va nazorat guruhining (an’anaviy usul) natijalari taqqoslandi. Olingan ma’lumotlar o‘qitish samaradorligi, talaba faolligi, terminologik bilim darajasi va muloqot qobiliyatlari ko‘rsatkichlarida sezilarli farqni ko‘rsatdi. Maqola TELni joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va o‘qituvchilar uchun metodik ko‘rsatmalar ham taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Technology-Enhanced Learning (TEL), tibbiy ta’lim, o‘zbek tili, kommunikativ kompetensiya, multimodal kontent, klinik simulyatsiya.

Аннотация: Статья посвящена исследованию применения технологии Technology-Enhanced Learning (TEL) при преподавании узбекского языка в медицинских вузах. Рассматриваются теоретические основы цифровой педагогики, использование мультимодальных ресурсов, адаптивных платформ и клинических симуляций. Экспериментальная часть включает сравнение контрольной группы (традиционный метод) и экспериментальной группы (TEL). Полученные результаты свидетельствуют о повышении коммуникативной компетенции, ускорении усвоения медицинской терминологии и улучшении практических речевых навыков у студентов, обучавшихся с применением TEL.

Ключевые слова: TEL, медицинское образование, узбекский язык, мультимодальные ресурсы, коммуникативная компетенция.

Abstract: This article investigates the implementation of Technology-Enhanced Learning (TEL) in the teaching of the Uzbek language at medical universities. Theoretical foundations of digital pedagogy, multimodal instructional resources, adaptive learning platforms, and clinical simulation tools are analyzed. The experimental component compares a control group taught by traditional methods with an experimental group using TEL interventions. Results indicate significant improvements in communicative competence, faster acquisition of medical terminology, and stronger practical communication skills among students in the TEL group. The paper concludes with pedagogical recommendations and a practical implementation roadmap for integrating TEL in medical language curricula.

Keywords: TEL, medical education, Uzbek language teaching, multimodal learning, communicative competence.

Kirish. Tibbiyot oliygohlarida til o‘qitish — nafaqat lingvistik bilimlarni uzatish, balki kasbiy faoliyatning muhim komponenti hisoblanadi. Shifokor va bemor o‘rtasidagi aniq va to‘g‘ri muloqot, kasbiy hujjatlar va protokollarni yozish, jamoaviy klinik ishlar — bularning barchasi tibbiy tilni chuqur va maqsadli o‘zlashtirishni talab qiladi. Ayniqsa, klinik sharoitlarda, nuqsonli muloqot kasallik tashxisini noto‘g‘ri qo‘yish yoki davolash xatolariga olib kelishi mumkin. An’anaviy dars usullari (auditoriyada dars, nutq mashqlari, matn tahlili) talabalarga kerakli kasbiy kontekstni to‘liq yetkazolmasligi mumkin. Shu sababli, tibbiyot ta’limida yangi pedagogik yondashuvlar — Technology-Enhanced Learning (TEL) kabi raqamli texnologiyalarni qo‘llash talab etilmoqda. TEL bu — kompyuter, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR), interaktiv simulyatsiyalar va adaptiv platformalardan tashkil topgan o‘qitish tizimi bo‘lib, u o‘qitish jarayonini kontekstga muvofiq, individualizatsiyalangan va amaliy yo‘nalishda qayta tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqotga tayyorlangan nazariy fond TELning nazariy asoslari kognitiv psixologiya (Mayer, Sveller), multimodal o‘rganish g‘oyalari, konstruktivizm va ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga (Vigotskiy, Bandura) tayangan. Multimodal kontent (matn, audio, video, interaktiv grafikalar) ma’lumotni ishlov berish va mustahkamlashga yordam beradi. Klinik simulyatsiyalar esa talabalarga xavfsiz muhitda amaliy mashqlarni bajarish imkonini beradi, bu esa kasbiy nutq va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili: TEL yondashuvi ko‘plab ilmiy manbalarda pedagogikaning zamonaviy transformatsiyasi sifatida talqin qilingan. Nazariy asoslar quyidagilarga tayanadi:

- Kognitiv psixologiya (Mayer, Sveller): multimodal material taqdimoti xotira yuklamasini optimallashtirishga yordam beradi.
- Konstruktivizm: bilim o‘quvchining faol tajribasiga asoslanadi, klinik simulyatsiyalar aynan shu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.
- Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (Vigotskiy, Bandura): muloqot, hamkorlik, rol o‘ynash va kuzatish orqali o‘rganish muhimligini ta’kidlaydi.

- Multimodal o‘rganish: matn, audio, video va interaktiv vizual elementlar bilimni mustahkamlaydi.

Avvalgi tadqiqotlar TELning tibbiy ta’lim sifatini oshirishdagi rolini yoritgan bo‘lsa-da, o‘zbek tili fanini tibbiy kontekstda o‘qitishga oid kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu izlanish mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqot xorijiy talabalarga o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda kommunikativ yondashuv, real nutq materiallari va interaktiv mashg‘ulotlarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Metodologiya aralash tadqiqot dizayni (mixed methods) asosida qurildi, ya’ni sifat (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) ma’lumotlar birgalikda tahlil qilindi.

1. Tadqiqot dizayni. Tadqiqot convergent mixed-methods design asosida olib borildi. Bunda miqdoriy metodlar — o‘quvchilar nutq kompetensiyasini aniqlovchi pre-test va post-testlar, lug‘at boyligini o‘lchovchi testlar, talaffuz ballari;

Sifat metodlari — intervyu, dars jarayonlarini videokuzatuv, talabalar fikrlari, muloqot jarayonidagi xatti-harakatlarni kuzatish; bir vaqtning o‘zida qo‘llandi. Bu yondashuv til o‘rgatish jarayonining murakkab tabiati — talaffuz, pragmatika, kommunikativ vazifalar, real nutq vaziyatlari — ni to‘liq yoritishga imkon berdi.

2. Ishtirokchilar tadqiqotda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan 26 nafar xorijiy talaba (A1–B1 daraja oralig‘i) ishtirok etdi. Talabalar turli davlatlardan (Koreya, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Afg‘oniston va boshqalar), nutq darajalari CEFR bo‘yicha diagnostik test orqali aniqlangan, maqsadli tanlab olish (purposive sampling) usuli asosida tanlangan.

3. Ma’lumot yig‘ish usullari

a) Dars jarayonini kuzatuv (Observation). Haftasiga 3 marotaba olib boriladigan darslar videoyozuvga olindi. Kuzatuvlar orqali o‘qituvchi–talaba muloqoti, talabaning o‘zbekcha gapirish chastotasi, real vaziyatli mashqlarni bajarish samaradorligi qayd etildi.

b) Pre-test va post-testlar. Tadqiqot boshida va yakunida 4 ko‘rsatkich bo‘yicha baholash o‘tkazildi: tinglab tushunish, og‘zaki nutq, lug‘at boyligi, grammatik to‘g‘rilik. Natijalar taqqoslandi va o‘zgarish dinamikasi aniqlanildi.

c) Yarim strukturalangan intervyu. Talabalardan o‘zbek tilini o‘rganishda qaysi usullar eng samarali deb hisoblashlari, real hayot vaziyatlari asosida o‘qitish ularga qanday ta’sir qilgani, talaffuz, tushunish, muloqotdagi qiyinchiliklari so‘raldi:

d) O‘quv materiallari tahlili. Darsliklar, audio-video resurslar, dialoglar, situatsion mashqlar kontent tahlili qilindi.

4. Ma’lumotlarni tahlil qilish:

a) Miqdoriy tahlil. Pre-test va post-test natijalari deskriptiv statistika asosida qayta ishlanib, o‘zgarish foizlari hisoblandi. Talaffuz ballari 5 pog‘onali baholash shkalasi bo‘yicha tahlil qilindi.

b) Sifat tahlili (Thematic Analysis). Intervyu materiallari Braun va Klark bo‘yicha 6 bosqichda tahlil qilindi: ma’lumot bilan tanishish, kodlash, dastlabki temalar, mavzularni tasdiqlash, mavzularni chuqurlashtirish, yakuniy xulosalar chiqarish.

c) Video-analiz. Dars va muloqot jarayonidagi kommunikativ strategiyalar: qo‘llab-quvvatlovchi reaksiyalar, pauzalar, dialog davomiyligi, o‘zbekcha gapirish chastotasi kodlanib, jadvalga tushirildi.

5. Etik talablar. Talabalardan yozma rozilik olindi. Shaxsiy ma’lumotlar anonimlashtirildi. Videoyozuvlar faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi. O‘quv jarayoniga zarar yetkazmaslik tamoyili asosida ish olib borildi.

6. Ishtirokchilar ishonchliligi (Reliability) va haqiqiyligi (Validity). Tadqiqotning ishonchliligini ta’minlash uchun triangulyatsiya: testlar, intervyular, kuzatuvlar birgalikda qo‘llanildi. Inter-koder ishonchliligi: ikki tadqiqotchi tomonidan mustaqil kodlash. Member checking: intervyu natijalari talabalar bilan qayta muhokama qilingan. Rich description: dars jarayonining kontekstual tavsifi berilgan.

Tadqiqot natijalari. Statistik natijalar eksperimental va nazorat guruhlarining pre–post natijalari quyidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Eksperimental guruhda kommunikativ kompetensiya indeksi 28% ga oshdi, terminologik bilimlar indeksi 35% ga ortdi. Nazorat guruhida esa o‘sish 8–10% atrofida bo‘ldi. Bu natijalar TEL metodining samaradorligini raqamli jihatdan isbotlaydi.

Kvalitativ intervyu natijalarida talabalar quyidagilarni ta’kidladi:

- real klinik suhbatlarni ko‘rish ularga kontekstni chuqur tushunishga yordam berdi;
- bemor muammolarini aniqlash, savol berish va muloqot yuritish ko‘nikmalari sezilarli oshdi;
- jamoaviy ishlash, mas’uliyat va ijtimoiy muloqot rivojlandi;
- nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash osonlashdi;
- o‘ziga ishonch kuchaydi.

Video-analiz natijalarida talabalar faol muloqotga kirishdi, tibbiy savollarni to‘g‘ri tuzish ehtimoli oshdi, suhbatni madaniyatli va professional tarzda olib borish ko‘rsatkichlari yaxshilandi.

TEL moduli o‘zbek tili bo‘yicha tibbiy kompetensiyani sezilarli oshirdi; multimodal materiallar terminologiyani tezroq o‘zlashtirishga yordam berdi; klinik simulyatsiyalar real sharoitga tayyorlikni kuchaytirdi; talabalar o‘zlashtirish jarayonida yuqori motivatsiya namoyon qildilar.

Eksperimental guruh natijalarining sezilarli ustunligi TELning tibbiy kontekstda o‘zbek tili o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Intervyu asosida olingan qo‘shimcha mavzuli (theme-based) tahlil. Intervyular natijasida 3 ta asosiy mavzu shakllandi:

1. Kontekstni tushunish osonlashdi. Talabalar real klinik suhbatlarni ko‘rish ularni bemorning holatini tasavvur qilishga, tashxis qo‘yish jarayonini tushunishga, suhbat strukturasi bilan tanishishga yordam berganini aytishdi.

2. Tez eslab qolish va ko‘proq ishonch ortdi. Multimodal darslar (video, audio, matn) terminlarni tezroq eslab qolishga yordam berdi. “Ovozli simulyatsiyalar” o‘zbekcha tibbiy iboralarni tabiiy kontekstda qabul qilishga yordam berdi.

3. Motivatsiya va qiziqish oshdi. Talabalar VR/AR elementlari bo‘lgan darslarni “eng qiziqarli mashg‘ulot” deb baholadi. Texnologiya bilan ishlash o‘quv jarayonini jonlantirgan.

O‘qituvchilar fikridan qo‘shimcha natijalar. O‘qituvchilarning 85% TEL modullari natijasida talabalarning mustaqil ishlashi ortdi, dars vaqti samaradorligi 20–25% ga oshdi (ko‘p izohlashga ehtiyoj qolmadi), baholash jarayoni aniq, shaffof va individual bo‘ldi. 23% o‘qituvchi texnik infratuzilma ba’zi joylarda sust ekanini, ammo umumiy samaradorlik bunga qaramay yuqori bo‘lganini aytgan.

Talabalar tomonidan TEL modulining umumiy bahosi. So‘rovnoma natijalari:

- “TEL darslari foydali bo‘ldi” — 91%
- “Simulyatsiya mashg‘ulotlari eng samarali qism bo‘ldi” — 88%
- “An’anaviy darsga qaraganda yaxshi tushundim” — 84%
- “Terminlarni eslab qolish osonlashdi” — 79%
- “Klinik suhbatlarda o‘zimni ishonchli his qilyapman” — 76%

Xulosa. Tibbiyot oliygohlarida TEL asosida o‘zbek tili o‘qitish til kompetensiyasini, kommunikativ ko‘nikmalarni, kasbiy til amaliyotiga tayyorlikni, talabalar ishonchi va motivatsiyasini sezilarli oshirishi isbotlandi. TEL an’anaviy ta’limni to‘ldiruvchi, uni takomillashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi tizim sifatida o‘zini oqladi. Ushbu yondashuvni izchil joriy etish raqamli resurslar yaratish, pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash, infratuzilmani kuchaytirishkabi yo‘nalishlarda davom etishi zarur. Kelgusida TEL asosida virtual klinik mashg‘ulotlar, avtomatlashtirilgan baholash, sun’iy intellektdan foydalangan tibbiy-lingvistik diagnostika kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlarni kengaytirish tibbiy ta’limni yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.

2. Sweller, J. (2011). Cognitive Load Theory. Psychology of Learning and Motivation, 55, 37–76.

3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

4. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice Hall.

5. Brown, H. D. (2014). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.

6. Ally, M. (2009). Mobile Learning: Transforming the Delivery of Education and Training. Athabasca University Press.

7. Evans, C., & Sabry, K. (2003). The Effectiveness of Interactive Multimedia in Language Learning. Educational Media International, 40(3–4), 245–252.

8. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education. Jossey-Bass.

9. Karpova, E. (2020). TEL in Medical Language Teaching. Journal of Medical Education, 54(2), 112–123.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

TENGSIZLIKLARNI ISBOTLASHNING TURLI USULLARI

Mahmudova Ozoda Yuldashevna
QDU katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqola tengsizliklarni isbotlash bilan bog'liq masalalarni turli usullarda yechish haqida.Maqolada sonli tengsizliklar, ularni xossalari, ularni isbotlash eng asosiysi ta’riflardan foydalanib isbotlash usullari keltirilgan.

Kalit so’zlar: tengsizlik, isbotlash, isbotlash usullari, matematik induksiya metodi.

Аннотация.Статья посвящена решению задач, связанных с доказательством неравенств различными способами.В статье представлены числовые неравенства, их свойства и методы их доказательства, прежде всего с использованием определений.

Ключевые слова: неравенство, доказательство, методы доказательства, метод математической индукции.

Annotation. The article is about solving problems related to proving inequalities in various ways.The article presents numerical inequalities, their properties, and methods for proving them, most importantly using definitions.

Keywords: inequality, proof, proof methods, mathematical induction method.

Kirish. Matematikada sonli tengsizliklarni isbotlashga doir judayam ko’plab masalalar topiladi. Ko’plab tengsizliklarni isbotlashda tengsizliklarning xossalari va isiboti avvaldan ma’lum bo’lgan tengsizligidan foydalaniladi. Dastlab sonli tengsizliklarning xossalari bilan tanishaylik:

1.Ta’rif: Agar $a-b$ ayirma musbat son bo’lsa, a soni b sonidan katta deyiladi va bu munosabat $a>b$ shaklida yozildi. Agar $a-b$ ayirma manfiy son bo’lsa, a soni b sonidan kichik deyiladi va bu munosabat $a<b$ shaklida yozildi.

Istalgan a va b sonlari uchun quyidagi uchta munisabatlardan faqat bittasi o’rinli:

1. $a-b>0\Leftrightarrow a>b$
2. $a-b<0\Leftrightarrow a<b$
3. $a-b=0\Leftrightarrow a=b$.

Sonli tengsizliklar quyidagi xossalarga ega:

1^0. Agar $a>b$ va $b>c$ bo’lsa, $a>c$ bo’ladi.

2^0. Agar $a>b$ va $c>0$ bo’lsa, $a\cdot c>b\cdot c$ bo’ladi.

3^0. Agar $a+b>c$ bo’lsa, $a>c-b$ bo’ladi.

4^0. Agar $a>b$ va $c\in R$ bo’lsa, $a+c>b+c$ bo’ladi.

4^0. Agar $a>b$ va $c<0$ bo’lsa, $a\cdot c<b\cdot c$ bo’ladi.

5^0. Agar $a>b$ va $c>d$ bo’lsa, $a+c>b+d$ bo’ladi.

6^0. Agar $a>b>0$ va $c>d>0$ bo’lsa, $a\cdot c>b\cdot d$ bo’ladi.

7^0. Agar $a>b\geq 0$ va $n\in N$ bo’lsa, $a^n>b^n$ bo’ladi (agar $n-$ toq son bo’lsa, $b>0$ shart ortiqcha hisoblanadi)

8^0. Agar $a\geq b>0$ va $c>d>0$ bo’lsa, $\frac{a}{d}>\frac{b}{c}$ bo’ladi.

9^0. Agar $a>b$ va $n\in N$ bo’lsa, $a^{2n+1}>b^{2n+1}$ bo’ladi.

9^0. Agar $a>b\geq 0$ va $n\in N$ bo’lsa, $\sqrt[n]{a}>\sqrt[n]{b}$ bo’ladi.

10^0. Agar $a>b$ va $n\in N$ bo’lsa, $\sqrt[2n+1]{a}>\sqrt[2n+1]{b}$ bo’ladi.

Ta’rifga ko’ra $a>b$ bo’lishi uchun $a-b$ musbat son bo’lishi kerak. Shuning uchun berilgan $a,b,...,k$ qiymatlar to’plamida $f(a,b,...,k)>g(a,b,...,k)$ tengsizlikni isbotlash uchun $f(a,b,...,k)-g(a,b,...,k)$ ayirmani quramiz va u $a,b,...,k$ larning berilgan qiymatlarida musbat ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Xuddi shuningdek bu usuldan $f<g, f\geq g, f\leq g$ tengsizliklarni isbotlashda ham foydalaniladi.

1-misol. $a\geq 0, b\geq 0$ bo’lsa, $\frac{a+b}{2}\geq\sqrt{ab}$ (Koshi tengsizligi)ni isbotlang.

Isbot. $\frac{a+b}{2}-\sqrt{ab}$ ayirmani quramiz va uning ishorasini aniqlaymiz.

$$\frac{a+b}{2}-\sqrt{ab}=\frac{a-2\sqrt{ab}+b}{2}=\frac{\left(\sqrt{a}-\sqrt{b}\right)^2}{2}$$

$\frac{\left(\sqrt{a}-\sqrt{b}\right)^2}{2}$ ifoda ixtiyoriy manfiy bo’lmagan a va b qiymatlarida manfiy bo’lmaydi. Demak, $\frac{a+b}{2}\geq\sqrt{ab}$. Tenglik belgisi $a=b$ da o’rinli.

2-misol. Agar $ab>0$ bo’lsa, $\frac{a}{b}+\frac{b}{a}\geq 2$ bo’lishini isbotlang.

Isbot. $\left(\frac{a}{b}+\frac{b}{a}\right)-2=\frac{a^2+b^2-2ab}{ab}=\frac{(a-b)^2}{ab}$. $ab>0$ bo’lganligi uchun $\frac{(a-b)^2}{ab}\geq 0$. Tenglik belgisi $a=b$ da o’rinli. Demak, $\left(\frac{a}{b}+\frac{b}{a}\right)-2$ ayirma manfiy emas. Isbotlandi.

3-misol. Ushbu $a^2+4b^2+3c^2+14>2a+12b+6c$ tengsizlikni isbotlang.

Isbot. $\left(a^2+4b^2+3c^2+14\right)-\left(2a+12b+6c\right)$ ayirmani quramiz. Uning hadlarini gruppalaymiz.

$(a^2-2a+1)+(4b^2-12b+9)+(3c^2-6c+3)+1=(a-1)^2+(2b-3)^2+3(c-1)^2+1$.

Oxirgi ifoda ixtiyoriy a,b,c da o’rinli. Isbotlandi.

4-misol. Agar $a+b+c\ge 0$ bo’lsa, $a^3+b^3+c^3\ge 3abc$ bo’lishini isbotlang.

` Isbot. $a^3+b^3+c^3-3abc$ ayirmani qaraymiz. a^3+b^3 ifodani yig’indining kubiga to’ldiramiz.

$$a^3+b^3+c^3-3abc=a^3+3a^2b+3ab^2+b^3+c^3-3a^2b-3ab^2-3abc=(a+b)^3-3ab(a+b+c)+c^3$$

Endi $(a+b)^3+c^3$ ni ko’paytuvchilarga ajratamiz.

$$(a+b)^3+c^3-3ab(a+b+c)=\big((a+b)+c\big)\big((a+b)^2-(a+b)c+c^2\big)-3ab(a+b+c)=$$

$$=(a+b+c)\big(a^2+2ab+b^2-ac-bc+c^2-3ab\big)=(a+b+c)\big(a^2+b^2+c^2-ab-bc-ac\big)=$$

$$=\frac{1}{2}(a+b+c)\big(2a^2+2b^2+2c^2-2ab-2bc-2ac\big)=\frac{1}{2}(a+b+c)\big((a-b)^2+(a-c)^2+(b-c)^2\big)$$

Shartga ko’ra $a+b+c\ge 0$. Ikkinchi qavs ichi ham manfiy emas. Demak, ifoda manfiy emas. Tengsizlikda tenglik belgisi $a+b+c=0$ yoki $a=b=c$ da o’rinli bo’ladi.

Tengsizliklarni isbotlashning sun’iy usullari. Bu metodning mohiyati quyidagicha: Isbotlanayotgan tengsizlik bir qator shakl almashtirishlardan so’ng ma’lum (tayanch) tengsizliklardan biriga keltiriladi. Tayanch tengsizliklar sifatida masalan quyidagi tengsizliklardan foydalaniladi.

a) $a^2\ge 0$ b) $\frac{a+b}{2}\ge\sqrt{ab}$, bunda $a\ge 0,b\ge 0$ d) $\frac{a}{b}+\frac{b}{a}\ge 0$, bunda $ab>0$

e) $ax^2+bx+c>0$, bunda $a>0,b^2-4ac<0$.

5-misol. Agar $a\ge 0,b\ge 0,c\ge 0,d\ge 0$ bo’lsa, $\frac{a+b+c+d}{4}\ge\sqrt[4]{abcd}$ ekanligini isbotlang.

Isbot. Tayanch tengsizlik sifatida koshi tengsizligini olamiz.

$\frac{\frac{a+b}{2}+\frac{c+d}{2}}{2}\ge\sqrt{\frac{a+b}{2}\cdot\frac{c+d}{2}}$.

O’z navbatida $\frac{a+b}{2}\ge\sqrt{ab}$ va $\frac{c+d}{2}\ge\sqrt{cd}$ bo’lganligi uchun

$\sqrt{\frac{a+b}{2}\cdot\frac{c+d}{2}}\ge\sqrt{\sqrt{ab}\cdot\sqrt{cd}}=\sqrt[4]{abcd}$.

Demak, $\frac{\frac{a+b}{2}+\frac{c+d}{2}}{2}\ge\sqrt[4]{abcd}$. Ammo $\frac{\frac{a+b}{2}+\frac{c+d}{2}}{2}=\frac{a+b+c+d}{4}$.

Shunday qilib $\frac{a+b+c+d}{4}\ge\sqrt[4]{abcd}$. Isbotni tahlil qilib quyidagi xulosaga kelamiz. Tengsizlikda tenglik belgisi $a=b,c=d$ va $\frac{a+b}{2}=\frac{c+d}{2}$ bo’lganda o’rinli.

6-misol. Ushbu $\left(\frac{n+1}{2}\right)^n > n!$, bunda $n \in N, n > 1$ tengsizlikni isbotlang.

Isbot.Tayanch tengsizliklar sifatida quyidagi tengsizliklarni olamiz.

$\frac{n+1}{2} \geq \sqrt{n \cdot 1}; \frac{(n-1)+2}{2} \geq \sqrt{(n-1) \cdot 2}; \frac{(n-2)+3}{2} \geq \sqrt{(n-2) \cdot 3}; \ldots;$

$\frac{2+(n-1)}{2} \geq \sqrt{2 \cdot (n+1)}; \frac{1+n}{2} \geq \sqrt{1 \cdot n}$.

Bu n ta tengsizliklarni ko’paytirib,

$$\left(\frac{n+1}{2}\right)^n \geq \sqrt{(n(n-1)(n-2) \cdot \ldots \cdot 2 \cdot 1)(1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot \ldots \cdot (n-1)n)} = \sqrt{n! \cdot n!} = \sqrt{(n!)^2} = n!$$

ni hosil qilamiz. Demak, $\left(\frac{n+1}{2}\right)^n \geq n!$.

Shartga ko’ra $n \neq 1$ bo’lganligi uchun Koshining tayanch tengsizliklaridan birinchisi faqat qat’iy bo’lishi mumkin. U holda tayanch tengsizliklarni ko’paytirish natijasida hosil bo’lgan oxirgi tengsizlik qat’iy bo’ladi. Shunday qilib,

$\left(\frac{n+1}{2}\right)^n > n!$.

7-misol. Agar $a > 0, b > 0, c > 0$ bo’lsa, $(a+b+c)\left(\frac{1}{a}+\frac{1}{b}+\frac{1}{c}\right) \geq 9$ ekanligini isbotlang.

Isbot. Tayanch tengsizliklar sifatida quyidagi tengsizliklarni olamiz.

$\frac{a}{b}+\frac{b}{a} \geq 2$; $\frac{a}{c}+\frac{c}{a} \geq 2$; $\frac{b}{c}+\frac{c}{b} \geq 2$.

Bu tengsizliklar $a = b, a = c$ va $b = c$ bo’lganda o’rinli bo’ladi. Ularni qo’shib

$\frac{a}{b}+\frac{b}{a}+\frac{a}{c}+\frac{c}{a}+\frac{b}{c}+\frac{c}{b} \geq 6$ yoki

$\frac{b+c}{a}+\frac{a+c}{b}+\frac{a+b}{c} \geq 6$ ni hosil qilamiz.

$\left(1+\frac{a+c}{b}\right)+\left(1+\frac{b+c}{a}\right)+\left(1+\frac{a+b}{c}\right) \geq 9$,

$\frac{a+b+c}{b}+\frac{a+b+c}{a}+\frac{a+b+c}{c} \geq 9$.

Tenglik belgisi $a = b = c$ da o’rinli.

8-misol. Agar $n \in N, n > 1$ bo’lsa, $\frac{1}{4}+\frac{1}{9}+\frac{1}{16}+\ldots+\frac{1}{n^2} < 1$ bo’lishini isbotlang.

Isbot. $\frac{1}{4} = \frac{1}{2 \cdot 2} < \frac{1}{1 \cdot 2}$; $\frac{1}{9} = \frac{1}{3 \cdot 3} < \frac{1}{2 \cdot 3}$; $\frac{1}{16} = \frac{1}{4 \cdot 4} < \frac{1}{3 \cdot 4}$; …; $\frac{1}{n^2} = \frac{1}{n \cdot n} < \frac{1}{(n-1)n}$.

Bu $(n-1)$ ta tengsizliklarni qo’shib,

$$\frac{1}{4}+\frac{1}{9}+\frac{1}{16}+...+\frac{1}{n^2}<\frac{1}{1\cdot 2}+\frac{1}{2\cdot 3}+...+\frac{1}{(n-1)n}=\frac{2-1}{1\cdot 2}+\frac{3-2}{2\cdot 3}+\frac{4-3}{3\cdot 4}+...+\frac{n-(n-1)}{(n-1)n}=$$

$$=\left(1-\frac{1}{2}\right)+\left(\frac{1}{2}-\frac{1}{3}\right)+\left(\frac{1}{3}-\frac{1}{4}\right)+...+\left(\frac{1}{n-1}-\frac{1}{n}\right)=1-\frac{1}{n}<1$$

ni hosil qilamiz. Demak, $\frac{1}{4}+\frac{1}{9}+\frac{1}{16}+...+\frac{1}{n^2}<1$.

Teskaridan faraz qilish usuli yordamida tengsizliklarni isbotlash.

9-misol. Agar $a\ge 0, b\ge 0, c\ge 0, d\ge 0$ bo’lsa, $\sqrt{(a+c)(b+d)}\ge\sqrt{ab}+\sqrt{cd}$ ekanligini isbotlang.

Isbot. Ixtiyoriy manfiy bo’lmagan a,b,c,d sonlari uchun berilgan tengsizlik o’rinli ekanligini isbotlashimiz kerak. Teskaridan faraz qilamiz. Manfiy bo’lmagan a,b,c,d qiymatlar uchun $\sqrt{(a+c)(b+d)}<\sqrt{ab}+\sqrt{cd}$ tengsizlik o’rinli bo’lsin. Bu tengsizlikning har ikki qismi manfiy bo’lmaganligi uchun uning har ikki qismini kvadratga ko’tarib,

$(a+c)(b+d)<ab+cd+2\sqrt{abcd}$

tengsizlikni hosil qilamiz. Bundan

$bc+ad<2\sqrt{abcd}$; $\frac{bc+ad}{2}<\sqrt{(bc)(ad)}$.

Ammo bu Koshi tengsizligiga ziddir. Demak, bizning farazimiz noto’g’ri. Shuning uchun berilgan tengsizlik to’g’ridir.

10-misol. Agar $a\ge 0, b\ge 0, c\ge 0$ bo’lsa, $\frac{a+b+c}{3}\le\sqrt{\frac{a^2+b^2+c^2}{3}}$ ekanligini isbotlang.

Isbot. a,b va $c$larning quyidagi tengsizliklarni qanoatlantiradigan manfiy bo’lmagan qiymatlari mavjud deb faraz qilamiz.

$\frac{a+b+c}{3}>\sqrt{\frac{a^2+b^2+c^2}{3}}$.

Har ikki qismini kvadratga ko’tarib,

$\left(\frac{a+b+c}{3}\right)^2>\frac{a^2+b^2+c^2}{3}$ ni hosil qilamiz.

$(a+b+c)^2>3(a^2+b^2+c^2)$,

$3(a^2+b^2+c^2)-(a+b+c)^2<0$,

$3(a^2+b^2+c^2)-(a^2+b^2+c^2+2ab+2ac+2bc)<0$,

$2a^2+2b^2+2c^2-2ab-2ac-2bc<0$,

$(a-b)^2+(b-c)^2+(a-c)^2<0$.

Oxirgi tengsizlik o’rinli emas, chunki kvadratlar yig’indisi manfiy son bo’lmaydi. Demak, farazimiz o’rinli emas. Shuning uchun berilgan tengsizlik o’rinli bo’ladi.

Ko’rsatma. $n$ta $a_1, a_2, ..., a_n$ manfiy bo’lmagan sonlar uchun quyidagi kattaliklar o’rinli:

$H_n = \frac{n}{\frac{1}{a_1} + \frac{1}{a_2} + ... + \frac{1}{a_n}}$, o’rta garmonik.

$G_n = \sqrt[n]{a_1 \cdot a_2 \cdot ... \cdot a_n}$, o’rta geometrik.

$A_n = \frac{a_1 + a_2 + ... + a_n}{n}$, o’rta arifmetik.

$Q_n = \sqrt{\frac{a_1^2 + a_2^2 + ... + a_n^2}{n}}$, $a_1, a_2, ..., a_n$ sonlarning o’rta kvadrati.

Bu kattaliklar o’rtasida quyidagi munosabat o’rinli

$H_n \le G_n \le A_n \le Q_n$.

Bu munosabatlarning xususiy ba’zi hollari yuqorida isbotlandi. 1-5 misollarda $G_2 \le A_2$ va $G_4 \le A_4$lar, 7-misolda $H_3 \le A_3$, 10-misolda $A_3 \le Q_3$lar isbotlandi.

Tengsizliklarni isbotlashda matematik induksiya metodidan foydalanish.

11-misol. Agar $n \in N, n \ge 3$ bo’lsa, $2^n > 2n+1$ bo’lishini isbotlang.

Isbot. $n = 3$ da berilgan tengsizlik o’rinli $2^3 > 2 \cdot 3 + 1$.

$n = k(k > 3)$ da o’rinli deb faraz qilamiz $2^k > 2k + 1$

$n = k + 1$ da isbotlaymiz $2^{k+1} > 2k + 3$

$2^{k+1} = 2 \cdot 2^k > 2(2k+1) = 4k + 2 = (2k+3) + (2k-1)$.

Demak, $2^{k+1} > (2k+3) + (2k-1)$. $k$ning ixtiyoriy natural qiymatida $2k - 1 > 0$bo’lganligi uchun $2^{k+1} > 2k + 3$. Matematik induksiya metodiga ko’ra $n \ge 3$da berilgan tengsizlik o’rinli ekan degan xulosaga kelamiz.

12-misol. Agar $n \in N$ bo’lsa, $1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + \frac{1}{4} + ... + \frac{1}{2^n - 1} > \frac{n}{2}$ ekanligini isbotlang.

Isbot. $n = 1$da $1 > \frac{1}{2}$ o’rinli. $n = k$ da to’g’ri deb faraz qilamiz.

$S_k = 1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + ... + \frac{1}{2^k - 1} > \frac{k}{2}$.

$n = k + 1$da ham o’rinli bo’lishini isbotlaymiz.

$S_{k+1} = 1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + ... + \frac{1}{2^{k+1} - 1} > \frac{k+1}{2}$.

O’z navbatida

$S_{k+1} = \left(1 + \frac{1}{2} + \frac{1}{3} + ... + \frac{1}{2^k - 1}\right) + \left(\frac{1}{2^k} + \frac{1}{2^k + 1} + \frac{1}{2^{k+1} - 1}\right) = S_k + P_k$,

$P_k = \frac{1}{2^k} + \frac{1}{2^k+1} + ... + \frac{1}{2^{k+1}-1}$.

P_k ifoda 2^k ta har biri $\frac{1}{2^{k+1}}$ dan katta kasrlar yig’indisidan iborat.

Demak, $P_k = \frac{1}{2^k} + \frac{1}{2^k+1} + ... + \frac{1}{2^{k+1}-1} > \frac{1}{2^{k+1}} + \frac{1}{2^{k+1}} + ... + \frac{1}{2^{k+1}} = 2^k \cdot \frac{1}{2^{2k+1}} = \frac{1}{2}$

Bulardan $S_k > \frac{k}{2}, P_k > \frac{1}{2}$. U holda

$S_{k+1} = S_k + P_k > \frac{k}{2} + \frac{1}{2} = \frac{k+1}{2}$; $S_{k+1} > \frac{k+1}{2}$.

Matematik induksiya metodi mohiyatiga ko’ra berilgan tengsizlik $n \in N$ da o’rinli ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Г.З.Генкин “Геометрические решения негеометрических задач” Москва. “Просвешение”. 2007.

2. A.S. Yunusov, S.I.Afonina va boshqalar “Qiziqarli matematika va olimpiada masalalari” Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent “O‘qituvchi”, 2007

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ETNOPEDAGOGIK RESURSLAR VA TALABALARNING IJTIMOIY FAOLLIGI

Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich
Pedagogika kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent, Farg‘ona Davlat Universiteti

Annotatsiya. Maqolada etnopedagogik resurslarning talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogik metodlar yordamida etnopedagogikaning amaliy joriy etilishi va uning ta’lim jarayonidagi samaradorligi ko‘rib chiqildi. Ijtimoiy faollikni oshirish usullari va pedagogik yondashuvlar tavsiya etildi.

Kalit so‘zlar. Etnopedagogika, ijtimoiy faollik, talabalar, pedagogik resurslar, milliy ta’lim, madaniy meros, inklyuziv ta’lim, zamonaviy metodlar, ta’lim strategiyasi, ijtimoiy rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, ta’limda innovatsiya.

Kirish. Hozirgi davrda ta’lim jarayonida etnopedagogik resurslarning ahamiyati doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Bu borada milliy va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlodda milliy ong va e’tiqodni mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi. Etnopedagogika ta’lim jarayonida milliy madaniyat va urf-odatlarni o‘rganish, jalb etish orqali talabalarning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy salohiyatini rivojlantirishda o‘zaro bog‘liq, bir-biriga tayanadigan vazifani bajaradi. Shu bilan birga, etnopedagogik resurslar talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omildir.

Etnopedagogika - xalq tarbiya tajribasini o‘rganuvchi pedagogik bilimlar sohasidir. U avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan an’analar, urf-odatlar, marosimlar, folklor va xalq madaniyatining boshqa elementlarini o‘z ichiga oladi. Muhim jihati ma’naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradigan maqollar, matallar, ertaklar, o‘yinlar kabi xalqona tarbiya usullaridan foydalanishdir. Etnopedagogika xalq madaniyati va an’analariga asoslangan ta’lim va tarbiya haqidagi fan sifatida talaba shaxsi, uning qadriyatlari va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu usullar talabalarga o‘z madaniyati va shaxsiyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, bu esa jamiyatga mansublik hissini rivojlantirishga va ularning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy faollik - bu talabalarning jamiyatdagi munosabatlar jarayonida ijtimoiy pozitsiyasi, shaxsiy va umumiy manfaatlar uchun harakat qilish qobiliyatidir.

Milliy qadriyatlar asosida shakllangan etnopedagogik resurslar talabalarni o‘z milliy va jahon madaniyatiga hissalarini tushunishga, insoniylik va hamjihatlik ruhida rivojlanishga undaydi.

Yuqori saviyada ta’lim sifatini ta’minlash va 2030 yilga qadar global ta’lim maqsadlariga erishishda mamlakatimizda ushbu yangicha yondashuvlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirib tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism:

Mamlakatimiz ta’lim tizimida innovatsion pedagogik usullar va milliy an’analarni integratsiya qilish orqali ta’lim mazmunini universal, barkamol va ijtimoiy javobgarlikka ega avlodni tarbiyalashga qaratilgan kompleks yondashuv yaratilmoqda.

Etnopedagogik resurslar va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini samarali joriy etish uchun mahalliy mahallaga yetkazish, ta’lim dasturlariga kiritish, pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ta’lim muassasalarida zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda etnopedagogikaning milliy va umumjahon ta’lim sohasidagi o‘rni va vazifalarini aniqlash, pedagoglarning malakasini oshirish jarayonlarini tartibga solish sara natijalarga olib keladi.

Shu tariqa, milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish bilan birga, talabalarning ijtimoiy faol postini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion ta’lim tizimi barpo etiladi. Bu esa zamonaviy jamiyatda talabalarning shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini mustahkamlash, ularning intellektual va ma’naviy yuksalishi uchun muhim platformani tashkil etadi.[55]

Etnopedagogik resurslarning ta’limdagi roli murakkab va ko‘pqirrali bo‘lib, ular talabalarning shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Etnopedagogik resurslar milliy an’analar, urf-odatlar, folklor, milliy tili va boshqa madaniy xususiyatlarni o‘z ichiga olgan ta’lim materiallari hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonida talabalarning o‘zlikni anglashiga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilishiga yordam berib, ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu resurslar yordamida talabalar milliy madaniyat bilan yaqindan tanishadi, milliy shaxs sifatida o‘zlikni shakllantiradi. Shu bilan birga, etnopedagogik resurslar ijtimoiy hamjixatlik, madaniy ong va etnik muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ular talabalarda milliy qadriyatlar va jamiyat talablarini uyg‘unlashtirishga, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.


Ma’muriy va pedagogik amaliy jihatdan etik qadriyatlardan kelib chiqqan holda, etnopedagogik resurslar o‘quv jarayonida milliy ta’lim dasturlarining muhim qismi sifatida tatbiq etiladi. Bu mamlakat ta’lim tizimida milliy va umuminsoniy tamoyillarni uyg‘unlashtirish va barkamol fuqarolarni tarbiyalashda asosiy vosita hisoblanadi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida etnopedagogik resurslarni qo‘llash, ularni ta’lim dasturlariga kiritish, pedagoglarni ushbu sohada malakasini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga

[55] https://uza.uz/uz/posts/talim-tizimida-tizimli-islohotlar-amalga-oshirmoqda_721049

oshirilishi kerak. Zero, bu jarayon talabalarning madaniy ongi va ijtimoiy faolligini mustahkamlashda, ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlashda samarali natijalar beradi. Shu orqali, etnopedagogik resurslar ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni saqlash, taraqqiy ettirish va yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarning ijtimoiy faolligi — bu ularning jamiyatda faol ishtirok etishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarda hissa qo‘shish qobiliyatini anglatadi. Ijtimoiy faollik talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, shuningdek, jamiyat hayotida faol qatnashishiga asos yaratadi.

Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda ularni jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb qilish, volontyorlik faoliyatiga o‘rgatish, madaniy va sport tadbirlarida ishtirok ettirish, yoshlar tashkilotlarida faol bo‘lishga rag‘batlantirish ham muhimdir. Ma’naviy-ma’rifiy va pedagogik ishlarni tizimli tashkil etish ham ijtimoiy faollikni yuksaltirishda o‘z samarasini beradi.



1.1. Etnopedagogik resurslarning ijtimoiy faollikka ta’siri modeli

Talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish omillari orasida pedagogik mutaxassislarning malakasi, ta’lim muassasalaridagi pedagogik muhit va resurslar, oilaviy va jamoat ta’siri ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, innovatsion metodlarni qo‘llash va yoshlarga ijtimoiy mas’uliyatga ega shaxs sifatida shakllanish imkoniyatini yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi. Natijada, ijtimoiy faol talabalar jamiyatning barqaror taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi o‘zini anglagan, modern va madaniyatli fuqarolarga aylanadi.

Etnopedagogik resurslar talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular ularda vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va madaniy merosga hurmat tuyg‘ularini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Birinchidan, o‘z xalqining tarixi, madaniyati va an’analarini o‘rganish orqali vatanparvarlik va Vatanga muhabbatni shakllantirish orqali madaniy o‘zligini anglagan talabalar ijtimoiy hayotda faolroq ishtirok etadilar va mamlakat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shishga intiladilar. Ikkinchidan, jamiyatda qabul qilingan axloqiy va etik meyorlarni o‘zlashtirish orqali fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish natijasida, etnopedagogik resurslar talabalarga jamiyatdagi o‘rni va o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni anglashga yordam beradi.

Uchinchidan, turli xalqlar madaniyatlarini o‘rganish orqali madaniyatlararo muloqot va bag‘rikenglikni mustahkamlash orqali boshqa madaniyatlarga hurmat bilan qarashni shakllantirishga yordam beradi va etnik asosda nizolar kelib chiqishining oldini oladi.

Ijtimoiy faollikni rivojlantirishda etnopedagogik resurslar bilan birga quyidagi pedagogik metodlar samarali hisoblanadi. (1.2.javalga qarang)

Interfaol usullar	**Loyihalashtirish usullari**	**Hamkorlikdagi muloqotga asoslangan usullar**
dialoglar, debatlar, rolli o‘yinlar talabalarning ijtimoiy, madaniy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bu usullar talabalarni faol muloqotga chorlab, ijtimoiy munosabatlardan o‘rganishga va o‘z fikrlarini ochiq ifodalashga undaydi.	talabalar o‘zlari uchun muhim deb hisoblagan etnik va ijtimoiy mavzularga e’tibor qaratib, mustaqil ravishda tadqiqot ishlari va loyihalarni amalga oshiradilar. Bu ularning mustaqillik, mas’uliyat, ijodiy yondashuvlarini yoritadi.	talabalar o‘rtasida hamkorlik va maslahatlashuv jarayonlarini taqozo etadi. Bu ularning muammolarni birgalikda hal qilish, konstruktiv bahslar olib borish salohiyatini rivojlantiradi.

1.2. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishda etnopedagogik resurslar integratsiyasida samarali metodlar tasnifi

Shu usullarning barchasi zamonaviy ta’limda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘zaro uyg‘unlashgan holda, etnopedagogik resurslar bilan birga tatbiq etiladigan bo‘lsa, talabalarning madaniy ongi va ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlaydi. Bunday pedagogik yondashuv yordamida ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsni ijtimoiy faol va madaniyati bilan boyitilgan mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Etnopedagogik resurslarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash talabalarni ijtimoiy faoliyatga faol jalb etish va ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

1.O‘quv dasturlari va darsdan tashqari tadbirlarga xalq madaniyati elementlarini kiritish.

2.Xalq an’analari va urf-odatlariga bag‘ishlangan tematik ko‘rgazmalar, festivallar, tanlovlar tashkil etish.

3.Xalq hunarmandchiligi, raqs, qo‘shiq va o‘yinlar bo‘yicha mahorat darslari o‘tkazish.

4.Madaniy merosni saqlash va ommalashtirishga qaratilgan ko‘ngilli loyihalarni tashkil etish.

5.Tarix va madaniyat yodgorliklarini ta’mirlashda, etnografik ekspeditsiyalar o‘tkazishda, folklor materiallarini to‘plash va tizimlashtirishda ishtirok etish.

Bu talabalarga nafaqat xalq madaniyatini o‘rganish, balki uni o‘zida his qilish, tarix va an’analarga teginish imkonini beradi.

Etnopedagogik resurslarni ta’lim amliyotiga joriy etish jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilinganda talabalarning ijtimoiy faolligi, milliy madaniy ongi va shaxsiy salohiyatini yuqori darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Etnopedagogik resurslarning katta salohiyatiga qaramay, ulardan zamonaviy ta’lim jarayonida foydalanish bilan bog‘liq ma’lum muammolar va qiyinchiliklar mavjud. Bu muammolarni hisobga olish va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Zero, etnopedagogik resurslarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash talabalarni ijtimoiy faoliyatga faol jalb etish istiqboli tavsiyalarini ishlab chiqishni taklif etadi. Ular quyidagicha:

a) etnopedagogik resurslardan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi. Bu borada qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish, o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur;

b) xalq madaniyatini zamonaviy sharoitlarga moslashtirishda uning buzilishi yoki soddalashtirilishi xavfi yuqoriligi. Madaniy merosning haqiqiyligi va yaxlitligini saqlash, uni tijoratlashtirish va primitivlashtirishga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir;

v) mintaqaviy xususiyatlar va turli etnik guruhlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurati. Etnopedagogik resurslar madaniy xilma-xillikni aks ettirishi va barcha talabalarning qiziqishlarini hisobga olishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, etnopedagogik resurslar va zamonaviy pedagogik metodlarning uyg‘unlashishi talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim vosita sanaladi. Maqolada keltirilgan usul va tavsiyalar amaliyotda keng qo‘llanilishi pedagogik jarayonlar sifatini yaxshilaydi. Shuningdek, etnopedagogik resurslar talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, ularda vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va madaniy merosga hurmat tuyg‘ularini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu resurslarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash kompleks yondashuvni va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olishni talab qiladi. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar va ishlanmalar ijtimoiy faol va mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalashda etnopedagogika salohiyatidan maksimal darajada samarali foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizova, N. (2024). Etnopedagogika va milliy ta'lim kontseptsiyasi [Ethnopedagogy and National Education Concept]. Toshkent.
2. Karimova, Sh. (2023). Zamonaviy pedagogikada etnopedagogik resurslar [Ethnopedagogical resources in modern pedagogy]. Fan va ta'lim, 11(3), 45-52.
3. Saidov, E. (2022). Ijtimoiy faollik va ta'lim: nazariy tahlil [Social Activity and Education: Theoretical Analysis]. Samarqand.
4. Maksudov, U. (2025). PEDAGOGICHESKIYE TENDENSII FORMIROVANIYA AKTIVNOSTI STUDENTOV V INNOVATSIONNIX I STARTAP-PROYEKTAX V USLOVIYAX MIROVOY TRANSFORMATSII/ Aktualniye problemi sotsialno-gumanitarnix nauk Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(5), 447-453.
5. Maksudov, U. K. (2025). Scientific Bases for Promoting Student-Youth Initiatives Based on A Gender Approach. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 5(05), 110-113.
6. Mirzaev, T. (2024). Interaktiv usullar va ijtimoiy rivojlanish [Interactive Methods and Social Development]. Toshkent.
7. Haydarov, R. (2023). Madaniy meros va ta'limda innovatsiya [Cultural heritage and innovation in education]. Ilmiy jurnal, 7(2), 30-37.
8. Nazarov, F. (2022). Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish usullari [Methods of Increasing Students' Social Activity]. Toshkent.
9. Alimov, J. (2023). Loyihalashtirish usuli ta'limda [Project method in education]. Fan va texnika, 9, 55-60.
10. Yusupova, L. (2023). Muloqotga asoslangan pedagogika: nazariya va amaliyot [Communication-Based Pedagogy: Theory and Practice]. Toshkent.
11. Hashimova, Z. (2024). Etnopedagogika va milliy qadriyatlar [Ethnopedagogy and National Values]. Samarqand.
12. Isoqov, V. (2023). Ijtimoiy faollikning pedagogik omillari [Pedagogical Factors of Social Activity]. Toshkent.
13. Toshmatov, Sh. (2022). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar [Pedagogical Technologies and Innovations]. Toshkent.
14. Qorijonov, D. (2023). Madaniy ong va ijtimoiy faollik [Cultural awareness and social activity]. Ilmiy ma'lumotlar, 14, 23-29.

Elektron resurslar

1. https://uza.uz/uz/posts/talim-tizimida-tizimli-islohotlar-amalga-oshirmoqda_721049
2. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/journal/15-aprel%20Qori%20Niyoziy.pdf
3. https://tiu-edu.uz/media/books/2025/01/15/umumiy_ped.pdf

4. https://lex.uz/uz/docs/7513052 https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-pedagogik-tehnologiya-asosida-interfaol-darslarni-tashkil-etish.pdf
5. https://lib.bimm.uz/items/download/6119
6. https://staff.tiiame.uz/storage/users/827/articles/DS9xyky5HhZ9dZze1inSvioiy6OGqhb5MfvP9PBm.pdf
7. https://portfel.qmii.uz/subject/majmua-fayl?id=ptvpm1682489849
8. https://yuz.uz/news/talimda-zamonaviy-ilgor-pedagogik-texnologiyalar-asosida-yondashuv-samarasi
9. https://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/6212
10. https://newjournal.org/index.php/01/article/view/6531/6273
11. https://unilibrary.uz/literature/698989

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ФОРМИРОВАНИЕ САНИТАРНО-ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ ИЗУЧЕНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЕРЕДАЧИ ИНФЕКЦИЙ, ПАТОГЕНОВ И ЗАЩИТНЫХ РЕАКЦИЙ ОРГАНИЗМА ЧЕЛОВЕКА

Юлчиев Боймурод
Ассистент кафедры медицинских наук,
Филиал Казанского федерального университета, Узбекистан
E-mail: bentle711@gmail.com

Аннотация.В статье всесторонне рассмотрены теоретические, биологические и педагогические основы формирования санитарно-эпидемиологической грамотности учащихся. Анализируются механизмы передачи инфекций, свойства патогенных микроорганизмов и защитные реакции организма человека как ключевые элементы санитарной культуры. В исследовании изучаются интерактивные методы, лабораторные наблюдения, визуальные модели и проектное обучение, способствующие развитию эпидемиологического мышления и профилактического поведения. На основании трудов узбекских и зарубежных учёных представлены практические рекомендации по интеграции санитарно-эпидемиологической компетентности в образовательный процесс.

Ключевые слова: санитарно-эпидемиологическая грамотность, передача инфекций, патогенные микроорганизмы, иммунитет, эпидемиологическое мышление, профилактическое обучение.

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarda sanitariya-epidemiologik savodxonlikni shakllantirishning nazariy, biologik va pedagogik asoslari keng yoritilgan. Infeksiya yuqish mexanizmlari, patogen mikroorganizmlarning xususiyatlari hamda inson organizmining himoya reaksiyalari sanitariya madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilindi. Tadqiqotda interfaol metodlar, laboratoriya kuzatuvlari, vizual modellar, loyihaviy o‘qitish va amaliy topshiriqlar orqali epidemiologik tafakkurni rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, o‘zbek va xorijiy olimlarning mikrobiologiya, epidemiologiya va sanitariya ta’limiga oid ilmiy qarashlari asosida o‘quv jarayoniga integratsiya uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: sanitariya-epidemiologik savodxonlik, infeksiya yuqishi, patogen mikroorganizmlar, immunitet, epidemiologik tafakkur, interfaol ta’lim.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical, biological, and pedagogical foundations for developing sanitary-epidemiological literacy among students. It examines infection transmission mechanisms, the characteristics of pathogenic microorganisms, and human defense reactions as core components of health-related awareness. The study explores interactive strategies, laboratory observations, visual modeling, and project-based learning techniques that enhance students' epidemiological thinking and preventive behavior. Drawing on the works of Uzbek and international scholars in microbiology, epidemiology, and health education, the paper proposes practical recommendations for integrating sanitary-epidemiological competence into the educational process.

Keywords: sanitary-epidemiological literacy, infection transmission, pathogens, immunity, epidemiology education, preventive behavior.

Современные глобализационные процессы, расширение международного взаимодействия и рост социальной мобильности требуют от системы образования подготовки специалистов, обладающих высоким уровнем санитарно-эпидемиологической грамотности и способных применять знания о механизмах передачи инфекций в реальных жизненных ситуациях. Формирование такой грамотности рассматривается как важнейший компонент общего биологического, гигиенического и медико-социального образования[56].

В образовательных документах Республики Узбекистан подчеркивается необходимость развития у учащихся научно обоснованных представлений о природе патогенных микроорганизмов, путях их распространения и защитных реакциях человеческого организма[57]. Узбекские исследователи, такие как Н. Хўжаев и Д. Сапарова, обращают внимание на то, что санитарная культура школьников формируется через систематическое обучение гигиеническим нормам, моделирование эпидемиологических ситуаций и проектные образовательные задания[58].

Российские специалисты — В. Баранов, Л. Беляева, Л. Прокопенко — отмечают, что на фоне роста инфекционных рисков особую значимость приобретает обучение учащихся навыкам анализа эпидемиологических угроз, распознавания факторов риска и применения профилактических мер в повседневной деятельности. Они подчеркивают, что междисциплинарный подход и практико-ориентированные методики способствуют более глубокому усвоению санитарно-эпидемиологических знаний.

---

[56] Vygotsky L. *Thought and Language*. Moscow: Pedagogika, 1982. — 350 c.
(Выделено как источник по когнитивному развитию и формированию научных представлений учащихся.)

[57] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Ta’lim sifatini oshirish to‘g‘risidagi qarorlar to‘plami*. Toshkent: Adolat, 2021. — 212 b.
(Нормативный документ, регулирующий качество образования и внедрение компетентностного подхода.)

[58] Xo‘jayev N., Saparova D. *Sanitariya madaniyati va epidemiologik ta’lim*. Toshkent: Fan, 2021. — 185 b.
(Узбекские исследования по санитарной культуре и эпидемиологическому просвещению.)

Зарубежные учёные (Morens, Fauci, Fejerskov, Lussi) рассматривают патогенные микроорганизмы как фундаментальный фактор динамики эпидемий и подчёркивают необходимость внедрения цифровых симуляций, лабораторных наблюдений и визуальных моделей инфекционного процесса в учебную практику. По их мнению, учащиеся более эффективно понимают эпидемиологические механизмы при использовании интерактивных технологий и проблемно-ориентированных заданий.

Таким образом, формирование санитарно-эпидемиологической грамотности учащихся является актуальной научно-педагогической задачей. Исследования учёных Узбекистана, России и зарубежных стран подтверждают, что этого можно достичь путём интеграции теоретических знаний, цифровых ресурсов, практических кейсов и междисциплинарных методов обучения.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ

Настоящее исследование основано на комплексном анализе научных источников, посвящённых формированию санитарно-эпидемиологической грамотности учащихся, изучению механизмов передачи инфекций, роли патогенных микроорганизмов и защитных реакций организма человека. Проблематика санитарной культуры в последние годы стала центральным объектом внимания не только эпидемиологии, но и педагогики, психологии, микробиологии и образовательной методологии[59].

В научной литературе подчеркивается, что знания учащихся о природе инфекций, путях их распространения и мерах профилактики тесно связаны с развитием критического мышления, умением интерпретировать биологическую информацию и способностью применять санитарные нормы в повседневной жизни. Узбекские исследователи — Н. Хўжаев, Д. Сапарова, С. Абдуқодирова — отмечают, что формирование санитарно-эпидемиологической культуры должно осуществляться на основе интерактивных методов, практических заданий, моделирования эпидемиологических цепочек и ситуационного анализа[60]. Они подчеркивают, что санитарная грамотность ученика выходит далеко за рамки теоретических знаний и включает осознанное отношение к собственному здоровью и ответственности перед обществом. Российские исследователи — В. Баранов, Л. Беляева, Л. Прокопенко — связывают развитие санитарной культуры учащихся с компетентностным подходом, междисциплинарными образовательными модулями и использованием кейс-методов[61]. По их мнению, учащийся должен уметь распознавать факторы эпидемиологического риска, анализировать пути заражения и разрабатывать профилактические стратегии. При этом особое внимание уделяется развитию навыков интерпретации

[59] Vygotsky L.S. *Thought and Language*. Moscow: Pedagogika, 1982. — 350 c.
[60] Xo‘jayev N., Saparova D. *Sanitariya madaniyati va epidemiologik ta’lim*. Toshkent: Fan, 2021. — 185 b.
[61] Баранов В.Л., Беляева Л.А., Прокопенко Л.И. *Эпидемиология и здоровье школьников*. Москва: МЕДпресс-информ, 2019. — 264 с.

эпидемиологических данных, включая графики, модели распространения заболеваний и статистику.

Зарубежные авторы — Morens, Fauci, Fejerskov, Lussi — акцентируют внимание на необходимости включения в учебные программы визуальных моделей, цифровых симуляций и лабораторных наблюдений, позволяющих учащимся увидеть динамику поведения микроорганизмов в различных условиях. Они утверждают, что учащиеся лучше понимают биологические механизмы, когда обучение строится на основе проблемно-ориентированных задач, практических экспериментов и интерактивных образовательных платформ.

Методология исследования включает применение нескольких научных подходов:

— **теоретический анализ** трудов по эпидемиологии, санитарному просвещению и педагогическим технологиям;

— **сравнительный анализ** отечественных и зарубежных концепций санитарно-эпидемиологического обучения;

— **диагностические методы**, направленные на выявление уровня санитарной грамотности учащихся;

— **интерактивные педагогические методы**, такие как моделирование эпидемиологических цепочек, проблемные ситуации, ролевая имитация распространения инфекции;

— **использование цифровых ресурсов** (виртуальные симуляторы, видеоролики, инфографика, подкасты);

— **педагогический эксперимент**, направленный на внедрение учебных модулей по инфекционной безопасности;

— **экспертная оценка** эффективности применяемых методических средств.

Результаты анализа литературы показывают, что интегративный, междисциплинарный и практико-ориентированный подход позволяет наиболее эффективно формировать санитарно-эпидемиологическую грамотность учащихся. Современные исследования подтверждают, что сочетание теоретических знаний, реальных и виртуальных наблюдений, групповой работы и лабораторных практикумов способствует развитию у учащихся осознанного и научно обоснованного отношения к вопросам инфекционной безопасности[6].

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Результаты проведённого исследования показали, что формирование санитарно-эпидемиологической грамотности учащихся требует комплексного педагогического, психологического и биологического подхода. Анализ научных источников выявил, что знания о механизмах передачи инфекций, природе патогенов и защитных реакциях организма являются ключевыми компонентами биологической и социальной

компетентности школьников. Особенно важно развитие у учащихся навыков анализа источников опасности, интерпретации эпидемиологических данных и применения профилактических норм в реальных жизненных ситуациях. Интегрированный подход, объединяющий теоретическое изучение инфекций, моделирование эпидемиологических цепочек, выполнение практических заданий и обсуждение санитарных ситуаций, способствует более глубокому формированию осознанного поведения учащихся. Исследования узбекских педагогов — Xo‘jayev, Saparova, Abduqodirova — подтверждают, что ролевая имитация очагов инфекции, анализ санитарных кейсов и проектная работа развивают у учащихся способность самостоятельно принимать решения в условиях биологических угроз. Российские учёные (Баранов, Беляева, Прокопенко) отмечают, что использование статистических моделей, графиков, таблиц заражаемости и учебных эпидемиологических симуляций существенно повышает качество понимания учащимися динамики распространения болезней[4]. По их мнению, подобные методы учат школьников интерпретировать реальные эпидемиологические данные и формируют у них научно-обоснованную культуру личной и общественной безопасности. Зарубежные исследования Morens, Fauci, Fejerskov, Lussi показывают, что современная цифровая среда — виртуальные лаборатории, 3D-модели поведения микроорганизмов, интерактивные карты распространения инфекций — значительно увеличивает мотивацию учащихся и обеспечивает визуализацию сложных биологических процессов[5]. Применение таких технологий способствует формированию стойких знаний о природе патогенов и укрепляет эпидемиологическое мышление. Проведённый педагогический анализ также выявил ряд факторов, затрудняющих развитие санитарной грамотности учащихся: низкий уровень биологических знаний, страх перед экспериментами, социальная тревожность, а также влияние бытовых мифов и недостоверной информации[6]. Эти результаты подтверждают необходимость создания поддерживающей, открытой и научно ориентированной образовательной среды.

В целом результаты исследования показали, что традиционные методы преподавания (устные объяснения, репродуктивные задания, механическое заучивание) недостаточны для формирования устойчивых санитарно-эпидемиологических знаний. Наиболее эффективными являются:

— междисциплинарный подход,
— моделирование эпидемиологических ситуаций,
— практические лабораторные задания,
— цифровые симуляции и визуализация,
— групповая работа и дискуссии,
— рефлексивное обучение.

Таким образом, сочетание интерактивных методов, современных образовательных технологий, научно достоверных данных и практической

деятельности значительно повышает уровень санитарно-эпидемиологической грамотности учащихся и обеспечивает формирование у них ответственного отношения к личному и общественному здоровью.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённый анализ показал, что формирование санитарно-эпидемиологической грамотности учащихся является ключевым условием обеспечения личной и общественной биологической безопасности. Комплексные педагогические и психологические подходы значительно повышают эффективность усвоения знаний о механизмах передачи инфекций, роли патогенных микроорганизмов и защитных реакциях организма человека. Использование интерактивных методов, моделирование эпидемиологических ситуаций, анализ кейсов, групповая работа и ролевые упражнения способствуют развитию у учащихся научного мышления, ответственности за собственное здоровье и устойчивых навыков профилактического поведения. Современные цифровые технологии — виртуальные лаборатории, видеолекции, симуляции распространения инфекций, мультимедийные карты и электронные портфолио — расширяют возможности мониторинга знаний учащихся, повышают их мотивацию и обеспечивают визуализацию сложных биологических процессов. Вместе с тем исследование показало, что индивидуальные психологические особенности, страх ошибок, социальная тревожность и влияние недостоверных источников могут затруднять формирование санитарной грамотности, что требует создания поддерживающей, безопасной и научно-ориентированной образовательной среды.

В целом результаты исследования свидетельствуют, что традиционные репродуктивные методы недостаточны для развития санитарно-эпидемиологической грамотности. Наиболее эффективными являются интегративный подход, сочетание практико-ориентированных и цифровых технологий, проблемно-ориентированное обучение, а также включение междисциплинарных модулей по биологической безопасности. В перспективе целесообразно разработать новые тренировочные модули, адаптировать международный опыт к образовательной системе Узбекистана и расширить сотрудничество между педагогами, эпидемиологами и специалистами в области цифрового образования.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Хўжаев Н., Сапарова Д. *Sanitariya madaniyati va epidemiologik ta’lim*. Ташкент: Fan, 2021. — 185 с.

2. Абдуқодирова С. *Biologik xavfsizlik va ta’lim metodlari*. Самарканд: СамДУ, 2022. — 198 с.

3. Баранов В.Л., Беляева Л.А., Прокопенко Л.И. *Эпидемиология и здоровье школьников*. Москва: МЕДпресс-информ, 2019. — 264 с.

4. Morens D.M., Fauci A.S. *Emerging Pandemic Diseases: How We Got to COVID-19*. New England Journal of Medicine, 2020. — Vol. 382, № 14, pp. 1293–1303.

5. Fejerskov O., Lussi A. *Microbial Ecology and Human Health*. Oxford: Medical Science Press, 2018. — 410 p.

6. Lussi A., Jaeggi T. *Microorganisms, Immunity and Infection Dynamics*. Bern: Swiss Medical Press, 2017. — 290 p.

7. World Health Organization. *School Health Guidelines on Infection Prevention*. Geneva: WHO Press, 2020. — 112 p.

8. Fauci A. *Principles of Infectious Disease Transmission*. Cambridge, MA: Harvard Press, 2019. — 265 p.

9. Brookfield S. *Teaching for Critical Thinking*. San-Francisco: Jossey-Bass, 2012. — 280 p.

10. Vygotsky L.S. *Mind in Society*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.

Юлчиев Боймурод Ассистент кафедры медицинских наук, Филиал Казанского федерального университета, Узбекистан E-mail: bentle711@gmail.com

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BIOLOGIYA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLIYATI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK FAN MUAMMOSI SIFATIDA

Olimov Xurshid Avazbekovich,
Toshkent farmatsevtika instituti
akademik litseyi o‘qituvchisi
E-mail: olimovkhurshid2020@gmail.com
Tel:+94 624-11-84

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik litsey o‘quvchilarning kognitiv faoliyati psixologik va pedagogik fan muammolari sifatida yondashuv asosidagi olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili borasida fikr va mulohazalar keltirilgan. Biologiya ta’limi doirasida olib borilgan tadqiqot zamonaviy axborotlashgan jamiyat va ta’lim tizimida metodik yondashuvlarning samaradorligi va xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Akademik litsey o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyasini shakllantirish psixologiya va pedagogika fanlaridagi muhim va ko‘p qirrali muammolardan biridir. Maqolada tabiiy ilmiy savodxonlikni oshirishda va fanlar integratsiyasini rivojlanishning zamonaviy sharoitida tabiiy fanlarning asosiy negizlaridan biri, olamning yaxlit ilmiy manzarasini yaratishda hamda ta’lim muvaffaqiyatining asosiy katalizatori sifatida shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillariga mos kelishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv faoliyat, kompetensiya, pedagogik yondashuvlar, tahlil qilish, reproduktiv metodlar, produktiv metodlar, paradigma, aqliy qobiliyat, intellektual qobiliyatlar, mnemonik qobiliyat.

Аннотация. В данной статье представлены мнения и рассуждения по результатам исследования, проведённого на основе подхода к когнитивной деятельности учащихся академического лицея как к психологической и педагогической проблеме. Исследование, проведённое в рамках биологического образования, направлено на выявление эффективности и особенностей методических подходов в условиях современного информационного общества и системы образования.

Формирование когнитивной компетентности учащихся академического лицея является одной из важных и многогранных проблем психологии и педагогики. В статье подчёркивается, что повышение естественно-научной грамотности и развитие интеграции наук в современных условиях служат основой естественных наук, создают

целостную научную картину мира и выступают главным катализатором успеха образования, соответствующего принципам личностно-ориентированного и развивающего обучения.

Ключевые слова: когнитивная деятельность, компетенция, педагогические подходы, анализ, репродуктивные методы, продуктивные методы, парадигма, умственные способности, интеллектуальные способности, мнемонические способности.

Annotation. This article presents thoughts and comments on the analysis of the results of research conducted on the basis of the approach to the cognitive activity of academic lyceum students as a problem of psychological and pedagogical science. The research conducted within the framework of biology education is aimed at determining the effectiveness and characteristics of methodological approaches in a modern information society and education system.

The formation of cognitive competence of academic lyceum students is one of the important and multifaceted problems in psychology and pedagogical sciences. The article presents ideas about the relevance of the integration of sciences in modern conditions of development in increasing natural scientific literacy and one of the main foundations of natural sciences, creating a holistic scientific picture of the world, and the main catalyst for educational success, in line with the principles of person-oriented and developmental education.

Keywords. cognitive activity, competence, pedagogical approaches, analysis, reproductive methods, productive methods, paradigm, mental ability, intellectual abilities, mnemonic ability.

KIRISH. Dunyoda tabiiy fanlar, jumladan, biologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, fanlarni integratsiyalab o‘qitish mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish, o‘quvchilarning kognitiv, refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning fanga doir bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar biologiya darslarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda axborot texnologiyalaridan foydalanishning me’yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarni biologiya ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, kognitiv faoliyatni shakllantirish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘stirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bu esa, akademik litsey o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Fikrlash jarayonlari doimo metodist olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan bo‘lsa ham, XX asrning oxiridan boshlab ta’lim sohasida “kognitiv yo‘nalish”, “kognitiv tadqiqot”, “kognitiv yondashuv” atamalari ilgari surila boshlandi. Psixolog olim L. S. Vygotskiy o‘quv jarayonining nutqiy jihatlari borasida tadqiqotlar olib bordi [4].

Yana bir taniqli olim A. N. Leontyev ongli xatti-harakatlar va aqliy faoliyatning konsepsiyasini ishlab chiqib, uni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashtirdi [7].

M.X.Bekmirzayev tadqiqotlarida zoologiya darslarida ta’lim shakl va texnologiyalaridan kompleks foydalanishning strukturasi, mazmuni, funksiyalari, tamoyillari, bosqichlari, mezonlari va faoliyat mexanizmlari rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini implementatsiya qilish orqali takomillashtirgan [1].

Kuychiyeva M.A. o‘z izlanishlarida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni mustaqil ta’lim olishga ta’sir ko‘rsatuvchi tashkiliy-kommunikatsion omillarini tasniflash, modulli ta’lim olish bosqichlarini adaptiv va reproduktiv o‘qitishga integratsiyalovchi algoritimli topshiriqlarni umumlashtirish asosida yondashgan [2].

M.H.Raupova bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kvaziprofessional tayyorgarligini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik jihatlari innovatsion tajriba va individual shaxsiy sifat kabi kasbiy rivojlanish komponentlarining qiyosiy motivatsiya determinantlari hamda samaradorlik vektori optimizatsiyasiga nisbatan muvofiqligini ta’minlash borasida faoliyat olib borgan [3].

METODOLOGIYA

Akademik litsey o‘quvchilarining biologiya faniga oid kognitiv kompetensiyasini shakllantirish psixologik va pedagogik fandagi muhim va ko‘p qirrali muammolardan biridir. U o‘quvchilar ongida olamning ilmiy manzarasini yaxlit tasavvur qilish va tabiat voqea, hodisalari qonuniyatlarini, o‘zligini anglab yetish yo‘nalishida o‘qitish muvaffaqiyatining asosiy katalizatori sifatida shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillariga mos keladi.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogika faniga qo‘yiladigan talablar biologiya ta’limining asosiy paradigmalarini ko‘rib chiqishni talab etadi.

“Paradigma” tushunchasi “standart” sifatida va biologiya fanini o‘rganishda akademik litsey o‘quvchilarining kognitiv-aqliy faoliyatini faollashtirish bo‘yicha dolzarb amaliy muammolarni hal qilish uchun o‘rganilayotgan muammolarning nazariy va uslubiy jihati nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy pedagogika fanida ta’limning quyidagi paradigmalari kuzatiladi: kognitiv, shaxsga yo‘naltirilgan, funksional, madaniy [9].

Pedagogik jihatdan kognitiv paradigma “kognitiv” tushunchasidan kelib chiqadigan bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi (lot. cogito-fikr – kognitiv va fikrlash jarayoniga tegishli).

Biologiyani o‘qitish bilimlarni egallash, o‘quvchilarning kognitiv va aqliy qobiliyatlarini faollashtirishga yordam beradigan ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish bilan birga keladi.

O‘quvchilarning shaxsga yo‘naltirilgan fazilatlari, kognitiv-bilim olishga motivatsiyani kuchaytirish sharoitida tashabbuskorlik va o‘zini o‘zi tashkil etish bilan namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, akademik litseylarda biologiya fanini o‘qitish dars va darsdan tashqari vaqtlarda biologiyaga oid materiallarini tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirish orqali nazariy bilimlarning amaliy ko‘nikmalarda namoyon etish orqali amalga oshiriladi.

Didaktikada rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasining asoschisi A.Disterveg (1790-1866) “Yaxshi o‘qituvchi haqiqatni topishga yordam beradi, yomon esa uni taqdim etadi” deb ta’kidlaydi [5].

Pedagogika fanining kognitiv yo‘nalishi aqliy hodisalar kontekstida fikrlash jarayoni, inson tafakkuri va uning ongi muammolari bilan shug‘ullanadi. Bu, aslida, idrok va takrorlash tarkibiy qismlarining o‘zaro ta’siri, tinglash va gapirish, texnologik qo‘llab quvvatlash bilan ma’lumot olish va uzatish jarayonlarini qamrab oladi. Bu, shubhasiz, insonning atrofdagi voqelikni bilishi va o‘rganilayotgan bilimlar yordamida ongida dunyoning manzarasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Kognitiv psixologiyada inson dunyo haqida qanday ma’lumot olishi, u odamga qanday taqdim etilishi, u xotirada qanday saqlanishi va bilimga aylanishi, bu bilimlarning inson xatti-harakatlariga ta’siri qanday sodir bo‘lishini o‘rganadi.

Tadqiqotchilar “kognitsiya” atamasi bilan uning “aql”, “fikrlash”, “ong” kabi muhim tarkibiy qismlarini asosiy komponent – “bilim”ning hal qiluvchi ishtiroki bilan bog‘lay boshladilar. Psixolog olimlar, shuningdek, “kognitsiya” tushunchasini konkretlashtirish uchun bir qator ijobiy qo‘shimchalar kiritdilar, shu jumladan uning mazmuni “e’tibor, idrok, tan olish, eslash, obrazli fikrlash” va boshqalar bilan boyitildi.

Aynan shu holat kognitiv va axborot parametrlariga ega bo‘lgan odamning “intellektual laboratoriyasi” “kognitsiya”ni aniqlashda faol ishtirok etadi degan fikrni keltirib chiqardi. Ushbu noyob kognitiv operatsiyalarga “aks ettirish, tasniflash, taqqoslash, fantaziya, zukkolik” kabi kognitiv atributlar kiradi.

Biologiya ta’limining mazmuni pedagogik faoliyatning yaxlit tizimidagi ta’limning yakuniy natijasini ta’minlab, asosiy pozitsiyani egallaydi. Bu ta’lim sohasida mustahkam va chuqur bilimlarga ega bo‘lishga, o‘quvchilarning kognitiv-bilish qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan tegishli ilmiy xabardorlik kompetensiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Ta’lim dasturlari bilan belgilanadigan ta’lim mazmunini shakllantirish o‘quv rejasi, o‘quv dasturi va o‘quv adabiyotlari asosida amalga oshiriladi.

Har bir me’yoriy hujjat akademik litseydagi o‘quv materiallari hajmi va mazmunini amalga oshirishning aniq darajasiga muvofiqligi uchun vazifalar va talablarni qo‘yadi. Nazariy g‘oyalar darajasi o‘quv rejasi bilan belgilanadi, o‘quv fanlari darajasi, o‘quv dasturlari, o‘quv materiallari darajasi – o‘quv adabiyotlari bilan belgilanadi. Normativ

hujjatlar madaniy, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar nuqtayi nazaridan ta’lim ko‘lamining o‘ziga xos shartlarini hisobga olgan holda, har bir o‘quvchining kognitiv faoliyatini rivojlantirishga, shu jumladan biologiyani o‘qitishga mo‘ljallanadi. Shu munosabat bilan akademik litseyda biologiya bo‘yicha o‘quv jarayonini o‘quvchilarning kognitiv-fikrlash qobiliyatiga yo‘naltirilgan holda tizimli tashkil etish, albatta, madaniyatlararo va kommunikativ ta’lim kontekstida dolzarbdir.

Biologiyani o‘qitishda ilgari mavjud bo‘lgan qoidalarni saqlash va umumlashtirish asosida yangi milliy o‘quv dasturini o‘quv jarayoniga samarali tadbiq etish va akademik litseyda o‘quv faoliyati subyektlarining kognitiv-aqliy fazilatlarini shakllantirish uchun sharoitlarni o‘rganish va o‘zgartirishga qaratilgan.

Milliy o‘quv daturi bo‘yicha akademik litsey o‘quv predmetining kognitiv faolligi va kompetensiyasi nafaqat ilmiy savodxonlikni oshirish, balki uning amaliy ko‘nikmalarini, ijodiy, tushunish, sintez qilish va umumlashtirish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga qaratiladi. O‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishning ushbu tizimida ularning olingan ma’lumotlarni, bilim, ko‘nikma, malaka darajasiga olib chiqish bilan birga, ulardan hayotiy muammolarni hal qilish borasida foydalana olish, kundalik hayotga tadbiq eta olishda namoyon bo‘ladigan kompetensiya darajasiga ko‘tarish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Akademik litsey ta’limida biologiya fanini o‘zlashtirish uning tabiiy hodisalarni anglash, organizmlarning tuzilishi, yashash muhiti, o‘zaro aloqalariga doir tarkibiy qismlarining birligi orqali tabiiy xabardorlik hamda amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bog‘liq. Demak, biologiya ta’limiga qo‘yilgan vazifalardan bir ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini takomillashtirish, kognitiv-aqliy salohiyatini yanada rivojlantirishga olib keluvchi ta’limiy muhitni yaratish, unga munosib metodlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Akademik litsey o‘quvchilarining biologiya fanidagi kognitiv-aqliy faoliyatini faollashtirish jarayonida o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini oshirish turli zamonaviy interfaol metodlarni qo‘llash bilan bir qatorda, tabiiy hodisalar, organizmlarga oid ma’lumotlar, qonuniyatlarni eslab qolish, tushunish, tushuntirish, tahlil qilish, ijodiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish faoliyati amalga oshiriladi. Amaliy kompetensiyalarni shakllantirish mavzularga doir amaliy mashg‘ulotlarni, laboratoriya tajribalarini bajarishda, ekskursiyalar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish mobaynida ayniqsa sezilarli amalga oshiriladi.

Faoliyati davomida odam turli xil muammolarga duch keladi, ularni hal qilish uchun doimiy ravishda ma’lumot izlash, ularni tahlil qilish, saralash, tanlab olish kabi faoliyatlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Atrofdagi dunyoni bilish vositasi-bu insonning kognitiv qobiliyatlari, ma’lumotni olish, saqlash va o‘zgartirish qobiliyatlaridir. Kognitiv qobiliyat insonning o‘zini o‘zi ta’minlaydigan, tashabbuskor va samarali hayotining asosini tashkil etadigan shaxsning asosiy manbalaridan biridir. Kognitiv qobiliyatlarning rivojlanish darajasi shaxsning hayot yo‘lidagi yutuqlarini belgilashini tasdiqlovchi bir qator tadqiqotlar mavjud.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda “kognitiv qobiliyat” ni tushunishda bir xillik yo‘q, shuning uchun terminologiyada ham farqlar bor. Turli manbalarda sinonimlar “kognitiv qobiliyatlar”, “umumiy qobiliyatlar”, “aqliy qobiliyatlar”, “intellektual qobiliyatlar”, “mnemonik qobiliyat” ko‘rinishida qo‘llaniladi. Psixologiya va pedagogika rivojlanishining ushbu bosqichida “kognitiv qobiliyat”ning yagona ta’rifi yo‘q. Ammo kognitiv qobiliyatlarni aniqlashda uchta eng keng tarqalgan yondashuv mavjud.

1. Ba’zi mualliflarning fikriga ko‘ra, kognitiv qobiliyat – bu diqqat, sezgi, idrok, xotira, tasavvur, fikrlash jarayonlarining individual psixologik xususiyatlari, bir kishini boshqasidan ajratib turadigan va atrofdagi dunyoni bilish faoliyatida namoyon bo‘ladi (Shadrikov V.D., Soldatova E.L. [9]). Shu nuqtayi nazardan, “kognitiv qobiliyat” va “aqliy qobiliyat” sinonimdir.

Har bir qobiliyat ma’lum bir funksional tizimga mos keladi. Aqliy, idrok, mnemonik va boshqa qobiliyatlar haqida gapiradi, ularni aqliy jarayonlar nuqtayi nazaridan belgilaydi va shu bilan birga fikrlash jarayoni, idrok etish jarayoni va boshqalarning parametrlarini o‘rganadi, ularni aqliy jarayonlar samaradorligining individual xususiyatlari, qobiliyat sifatida ko‘rib chiqadi.

2. Chuprikova N.I., Ratanova T.A. [10] va boshqalar kognitiv qobiliyatlarni obyektlar va faoliyat subyektlarining xususiyatlari, munosabatlari va ko‘p qirrali aloqalarini namoyish etish tizimi sifatida ko‘rib chiqadilar. Ushbu tizimlar tahlil, sintez, mavhumlik va umumlashtirish jarayonlarining asosidir. Kognitiv tuzilmalarning rivojlanishi tizimli farqlash prinsipiga asoslanadi – sodda, murakkab, tartibli tuzilmalarga, obyektlarini chuqur, keng, ko‘p qirrali va moslashuvchan tahlil qilish va sintez qilishga imkon beradi. Chuprikova N.I. [11] ma’lum bir shaxsga xos bo‘lgan tahlil va sintez jarayonlarining fazilatlari kognitiv tuzilmalarning erishilgan rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, tahlil va sintez jarayonlarining sifati kognitiv tizimlarning shakllanish qobiliyatini o‘zi belgilashi kerak. Shunday qilib, bu yerda aloqa ikki tomonlama, bu fazilatlar qanchalik yuqori bo‘lsa, kognitiv rivojlanishning yuqori darajasiga erishish mumkin, qolgan barcha narsalar teng bo‘ladi va bu rivojlanish qanchalik yuqori bo‘lsa, joriy tahlil va sintez jarayonlarining sifati shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, “kognitiv qobiliyatlar” va “aqliy qobiliyatlar” sinonimdir, chunki Rubinshteyn S.L. turli xil aqliy qobiliyatlarning o‘zagi yoki umumiy tarkibiy qismi tahlil va sintez jarayonlarining o‘ziga xos sifati, ularning rivojlanish darajasi har bir insonga xosdir degan farazni ilgari surdi.

3. Uchinchi yo‘nalish vakillari (Matyushkin A.M., Kova N.A., Plachidov M. [8]) kognitiv (aqliy) qobiliyatlar deganda aql, intellektual qobiliyat tushuniladi.

Drujinin V.N. “psixologik lug‘at”da aqlning eng keng tarqalgan uchta ta’rifini beradi [6]:

aql–bu har qanday faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan va boshqa qobiliyatlarning asosini tashkil etadigan umumiy bilish va muammolarni hal qilish qobiliyati;

aql–bu shaxsning barcha bilim qobiliyatlari tizimi: sezgi, idrok, xotira;

aql–sinov va xatosiz muammolarni hal qilish qobiliyati. Agar biz dastlabki ikkita ta’rifni asos qilib olsak, unda bu nuqtayi nazardan “kognitiv qobiliyat” va “intellektual qobiliyat” sinonimdir.

V.N.Drujinin kognitiv qobiliyat deganda shaxsning intellektual mahsuldorligi doirasini tavsiflovchi resurs tushuniladi [6].

Qobiliyatlarni tushunishga shaxsiy yondashuv nuqtayi nazaridan V.N.Drujininning “intellektual diapazon” modeli qiziqarli bo‘lib tuyuladi, bu aql darajasi va individual yutuqlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiradi.

V.N.Drujinin kognitiv omillar faqat yuqori, faoliyat esa muvaffaqiyatning pastki chegarasini belgilaydi degan xulosaga keladi. Ushbu diapazondagi odamning o‘rni kognitiv omillar bilan emas, balki shaxsiy xususiyatlar, ayniqsa mehnatsevarlik, intizom, o‘zini o‘zi boshqarish kabi xususiyatlar bilan belgilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quvchi akademik litseyda o‘qitishda kelajakda qaysi kasbni tanlashi noma’lum bo‘lganligi sababli, bolaning inson faoliyatining turli sohalarida muvaffaqiyat qozonishini ta’minlaydigan kognitiv qobiliyatlar, intellektual fazilatlar va tananing funksional tizimlarining barcha asosiy tarkibiy qismlarini rivojlantirish tizimi shaklida bazani yaratish kerak. Binobarin, o‘quv jarayonida maqsadlarni belgilashning asosiy toifasi har bir o‘quvchining to‘liq kognitiv rivojlanishi bo‘lishi kerak.

Biologiya fani uzoq vaqtdan beri barcha mamlakatlarda umumiy ta’lim tizimiga kiritilgan. Biologiyani o‘qitishning maqsadlari va natijalari dasturda ko‘zda tutilgan fan bilimlari doirasi bilan cheklanmaydi, chunki biologiyani o‘rganish jarayonining o‘zi shaxsning umumiy rivojlanishiga beqiyos ta’sir ko‘rsatadi: fikrlash jarayonlarini shakllantirish, idrok, tasavvur, xotira, e’tiborni shakllantirish, olamni ilmiy manzarasini va o‘zligini anglashga ham yordam beradi.

Akademik litseyda biologiyani o‘rganishning bunday umume’tirof etilgan ahamiyatiga qaramay, litsey o‘quvchilarining biologiya fanini o‘qitishdagi muammolar global xarakterga ega. Kognitiv kompetensiyalar tashabbusning intellektual varianti sifatida shaxs vaziyat, vazifa, muammo, imkoniyat yoki bilim hajmiga ta’sir ko‘rsatadi. Kognitiv kompetensiyalar ko‘pincha vazifaga yo‘naltirish yoki yutuqqa yo‘naltirish bilan bog‘liq deb hisoblanadi, ammo ular ta’sir qilish hamda ta’sir o‘tkazish yoki boshqarish vakolatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun alohida qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Akademik litsey o‘quvchilarining biologiya ta’limida kognitiv kompetensiyasini shakllantirish, o‘quv materialini mantiqiy va mazmunli idrok etishning mantiqiy ketma-ketlik bilan kombinatsiyasini nazarda tutadigan psixologik jarayon bo‘lib, uning maqsadi ma’lumot olish, qayta ishlash va uzatishdan iboratdir. Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, kognitiv kompetensiya – bu o‘quvchilarning olingan bilimlardan foydalanish, ilmiy xabardorlik va

amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda ishtirok etadigan o‘zaro bog‘liq harakatlar va qobiliyatlar yig‘indisidir.

Kognitiv kompetensiyani shakllantirish o‘quv subyektiga biologik termin, qonuniyatlar, ma’lumotlarni idrok etish, qayta ishlash, yodlash va tushuntirishda to‘g‘ri yo‘nalishni belgilab beradi. Umumlashtirib olganda, kognitiv kompetensiya o‘rganilgan bilimlarni fikrlash, xotira, tasavvur, e’tibor va boshqalarni faol ravishda o‘z ichiga olgan holda anglash, tushunish va amalda qo‘llash imkonini beradigan mexanizmdir.

Kognitiv pedagogikaning asosiy vazifasi o‘quv subyektining aqliy salohiyatini aniqlashdir, bu o‘quvchining kuchli bilimlarni yod olishda emas, balki ularni hayotiy muammolarni hal etish jarayonida mohirona ishlatish borasida ham imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bekmirzayev M.X. Zoologiya darslarida ta’lim shakl va texnologiyalaridan kompleks foydalanishning innovatsion modeli: Avtoref. dis. … ped. fan. falsafa doktori (PhD). –Jizzax: 2023. –48 b.
2. Kuychiyeva M.A. Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish: Avtoref. dis. … ped. fan. falsafa doktori (PhD). –Nukus: 2023. –48 b.
3. Raupova M.H. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kvaziprofessional tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi (Biokimyo va molekulyar biologiya fani misolida):Avtoref. dis. … ped. fan. falsafa doktori (PhD). –Chirchiq: 2023. –50 b.
4. Выготский Л.С. Собр. соч. в 6-ти томах / Л.С. Выготский. – М.:Педагогика, 1982. – 280
5. Дистервег Ф.А. О методе обучения Шлайермахера / Полн. собр. соч. ТЛИ / Под ред. Р.Хоэндорф // Ф.А. Дистервег. –Берлин: Фолькунд Виссен, 1959. – 256 с.
6. Дружинин В. Н. Психодиагностика общих способностей. – М.:Издательский центр “Академия”, 1996. –216 с.
7. Леонтьев А.Н. Психологические вопросы сознательного учения / А.Н. Леонтьев // Изв-я АПН РСФСР. Вып 7. – М., 1946. – 234 с.
8. Матюшкин А.М. Психологическая структура, динамика и развитие познавательной активности // Вопросы психологии. – М., 1982. –№ 4. – С. 5-17.
9. Солдатова, Е. Л. Развитие когнитивных способностей : учебное пособие / Е. Л. Солдатова ; Юж.-Урал. гос. ун-т. – Челябинск, 1995. –19 с.
10. Ратанова, Т.А.Психодиагностические методы изучения личности: Московский психолого-социальный институт, Флинта, 2005 г. ISBN 5-89502-022-4, 5-89349-100-9
11. *Чуприкова Н. И.* Ч 92. Психология умственного развития: Принцип дифференциации. –М.: АО “Столетие”, 1997 –480 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Olimov Xurshid Avazbekovich,
Toshkent farmatsevtika instituti
akademik litseyi o‘qituvchisi
E-mail: olimovkhurshid2020@gmail.com
Tel:+94 624-11-84

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik litseylarda biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari, kognitiv kompetensiyani shakllantirishning nazariy shartlari haqidagi olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatidagi ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, ilmiy savodxonlik va amaliy ko‘nikmalarining integratsiyasiga oid fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv faoliyat, intellektual laboratoriya, kognitiv kompetensiya, paradigma, analitik fikrlash, amaliy ko‘nikma, kognitiv motivatsiya, kognitiv mustaqillik, ichki motivatsiya, innovatsion texnologiya.

Аннотация.В статье представлены теоретические и практические аспекты развития познавательной компетентности учащихся при обучении биологии в академических лицеях, анализ результатов исследований теоретических условий формирования познавательной компетентности, а также идеи и соображения относительно развития мыслительных навыков и компетенций учащихся, интеграции естественнонаучной грамотности и практических навыков.

Ключевые слова. познавательная деятельность, интеллектуальная лаборатория, познавательная компетентность, парадигма, аналитическое мышление, практические навыки, познавательная мотивация, познавательная самостоятельность, внутренняя мотивация, инновационные технологии.

Annotation. This article presents theoretical and practical aspects of developing students' cognitive competence in teaching biology in academic lyceums, an analysis of the results of research on the theoretical conditions for the formation of cognitive competence, and ideas and considerations regarding the development of students' thinking skills and competencies, and the integration of scientific literacy and practical skills.

Keywords. cognitive activity, intellectual laboratory, cognitive competence, paradigm, analytical thinking, practical skills, cognitive motivation, cognitive independence, intrinsic motivation, innovative technology.

KIRISH. Jahonda ta’lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ta’lim subyektlarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Dunyo miqyosida ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish, ularning didaktik asoslarini o‘rganib, yangi usul, vositalarni ishlab chiqish metodikasini va metodologik asoslarini takomillashtirish, o‘quvchilardagi ijodiy bilish faoliyatining reproduktiv va produktiv darajalarni modellashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunning erkin raqobat muhiti shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan kadrlarni tarbiyalash vazifasi kompetensiyaviy ta’limga e’tibor qaratishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim muassasasida biologiyani o‘qitish o‘quvchilarning tabiiy savodxonligini oshirish, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlarni o‘z ichiga oladi, bu ularning kognitiv bilish salohiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, zamonaviy ta’limning muhim muammosi hisoblanadi.

A.Q.Raxmatullayeva umumta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilar iqtidorini aniqlash modelini dars, darsdan tashqari mashg‘ulotlar va mustaqil ish samaradorligini oshirishning o‘lchamlilik, shaxsga yo‘nalganlik kabi integrativ-diagnostik mezonlarini ochiqlik, shaffoflik kabi obyektiv monitoring tamoyillari bilan mobil-yaratuvchanlik munosabatida optimallashtirish asosida takomillashtirgan [4].

R.U.Umarova dissertatsiyasida intellektual salohiyatni axborotlashtirilgan ta’lim sharoitida rivojlantirish modeli raqamli bilishni faollashtiruvchi algoritmik keyslarni o‘quvchilarning kognitiv faoliyatida fanlar integratsiyasining qiyosiy darajalariga ko‘ra qo‘llashga doir yondashuvlar qilgan [2].

D.T.Yaxshiboyeva bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining mustaqil o‘quv faoliyati davomida biotexnologiya fanidan kreativ fikrlash qobiliyatini, faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, refleksivlik, ijodkorlikni oshirish, amaliy topshiriqlar hamda kompyuter dasturlari va mobil texnologiyalariga ustuvorlik berish borasida faoliyat olib borgan [3].

O.V.Berejnaya o‘z dissertatsiya ishida o‘quvchilarda kognitiv faoliyat asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasini, o‘quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan vazifalar tizimini ishlab chiqqan [4].

N.B.Lukyanova ilmiy faoliyatida dars, uy, darsdan tashqari va ekskursiya mashg‘ulotlarining kompleks kombinatsiyasidan foydalanib biologik obyektlarning muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish, oddiy biologik tushunchalarning ta’riflarini berish va

amaliy muammolarni hal qilishda tushunchalarni qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga imkon beruvchi metodik tizimni takomillashtirgan va sinovdan o‘tkazgan [5].

Yu.A.Tixomirova biologiyani masofaviy o‘qitishga mo‘ljallangan tarmoq o‘quv-uslubiy majmuasining tarkibi va funksiyalarini ishlab chiqqan va u bilan ishlashda o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir usullarini aniqlagan [6].

METODOLOGIYA

Akademik litseylarda biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, psixologik va pedagogik jihatdan muhim va ko‘p qirrali muammolardan biri hisoblanadi. U olamning ilmiy manzarasini yaratish, tabiiy savodxonlikni hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning zamonaviy sharoitida biologiya fanini o‘qitish muvaffaqiyatining asosiy katalizatori sifatida shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillariga mos keladi.

Mashhur nemis demokrat o‘qituvchisi, didaktikada ta’limni rivojlantirish nazariyasining asoschisi A. Disterveg “Yaxshi o‘qituvchi haqiqatni topishga yordam beradi, yomon esa uni taqdim etadi” deb ta’kidlaydi. Pedagogika fanining kognitiv yo‘nalishi aqliy hodisalar kontekstida fikrlash jarayoni, inson tafakkuri va uning ongi muammolari bilan shug‘ullanadi. Bu yerda, axborotlarni texnologik qo‘llab-quvvatlash orqali qabul qilish va uzatish, tinglash va gapirish komponentlarini o‘zaro ta’siri natijasida bilim egallash jarayoni nazarda tutiladi. Bu insonning atrofdagi voqelikni bilishi va o‘rganilayotgan bilimlar yordamida dunyoning ilmiy manzarasini aks ettirishning yuqori standartidir.

Kognitiv jarayonni o‘rganish sohasidagi kognitiv yondashuv kognitiv psixologiyani insonning intellektual rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydigan tashqi dunyo obyektlarining vakilliklarini ajratib ko‘rsatish orqali o‘z doirasini belgilaydigan mustaqil bilim sohasiga ajratishga olib keldi. Shunday qilib, kognitiv psixologiya inson dunyo haqida qanday ma’lumot olishi, u odamga qanday taqdim etilishi, u xotirada qanday saqlanishi va bilimga aylanishi, bu bilimlarning inson xatti-harakatlariga ta’siri qanday bo‘lishi kabi masalalarni o‘rganadi.

Tadqiqotchilar “kognitsiya” atamasi bilan uning “aql”, “fikrlash”, “ong” kabi muhim tarkibiy qismlarini asosiy komponent – “bilim”ning hal qiluvchi ishtiroki bilan bog‘lay boshladilar. Psixolog olimlar, shuningdek, “kognitsiya” tushunchasini konkretlashtirish uchun bir qator ijobiy qo‘shimchalar kiritdilar, shu jumladan uning mazmunida “e’tibor, idrok, tanish, eslash, aqliy tasvirlar” va boshqalar aks ettirildi. Aynan shu holat kognitiv va axborot parametrlariga ega bo‘lgan odamning “intellektual laboratoriyasi” “kognitsiya” ta’rifida faol ishtirok etadi degan fikrni keltirib chiqardi. Ushbu noyob kognitiv operatsiyalarga “aks ettirish, tasniflash, taqqoslash, fantaziya, zukkolik” kabi kognitiv atributlar kiradi.

Yurtimiz akademik litseylarida biologiya o‘qitishning kognitiv modelini amalga oshirish o‘quv jarayonini ijodiy vazifalarni sinovdan o‘tkazish, o‘rganilayotgan axborotlar yordamida o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish shaklida birlashtirish masalasini

ko‘taradi. Bu o‘quv va kognitiv muammolarni hal qilish uchun shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasining o‘ziga xos xususiyati o‘qituvchi va o‘quv subyekti (o‘quvchi) o‘rtasidagi konstruktiv hamkorlik bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish o‘rtasidagi subyekt-obyekt va subyekt-subyekt munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan farqni alohida ta’kidlash kerak.

Axborot jamiyatining zamonaviy sharoitida ta’lim muassasasining har bir bitiruvchisi kelajakda uzluksiz ta’lim olish uchun bilimlarni to‘ldirish va boyitishga tayyor bo‘lishi kerak.Ushbu kompetensiyalarning barchasi kognitiv faoliyat natijasida shakllangan keng ma’nodagi kognitiv kompetensiya orqali yuzaga chiqadi.

Kognitiv qobiliyatga asoslangan kompetensiya fikrlash qobiliyatlari va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, nafaqat o‘quv jarayoniga, balki, umumiy bilish, anglash sohasiga ta’sir qiladi. Kognitiv kompetensiyaning bu tushunchasi bilimlarning falsafiy nuqtayi nazariga mos kelib, shaxslarning ijodiy faoliyatining ijtimoiy-tarixiy jarayoni, ularning bilimlarini kengaytirish, o‘quv va ijodiy harakatlarning maqsadlari va motivlarining paydo bo‘lishi uchun asos bo‘ladi. O‘quv jarayonining ushbu sxemasini amalga oshirish litsey o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantiruvchi shakl va usullar asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu yerda asosiy e’tibor o‘quvchilarning litsey sharoitida biologiya fanini nazariy va amaliy o‘zlashtirish uchun tegishli darajadagi kognitiv kompetensiyani egallashini ta’minlash bilan bog‘liq.

Ilmiy va nazariy nuqtayi nazardan, o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini kerakli darajaga ko‘tarish muammosi “kognitiv faoliyat” tushunchasiga va uni o‘quv jarayonida qo‘llashning pedagogik jihatlariga bag‘ishlangan masalalarni hal qilish bilan bog'liq. Biologiya ta’limning instrumental tarkibiy qismi biologiya fanini o‘qitish vositalari, usullari va texnologiyalarining mavjudligidir. Bu yerda o‘qitishda ma’lum vositalar soni emas, balki ularning ta’lim samaradorligi va turli ko‘nikmalarning hosil qilishdagi foydalari muhimdir. O‘quv jarayoni kognitiv va aqliy hodisa bo‘lganligi sababli, savolning ushbu bayoni o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchilar uchun ham kognitiv tizim, kognitiv salohiyat va qobiliyat nuqtayi nazaridan dolzarbdir.

Kognitiv kompetensiya – bu axborotning ongli idrok etish va mohirona yetkazib berishning o‘ziga xos sinonimi, bu tahliliy va umumlashtiruvchi (sintez) baholashdir. Biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning qabul qilish va yetkazib berish mexanizmlarini faollashtirish ularning tushunish va mantiqiy fikrlash omillariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kognitiv kompetensiyani shakllantirish o‘quv predmetiga (mikroorganizmlar, o‘simliklar, hayvonlar, odam tashqi va ichki tuzilishi, hayot tarzi, ko‘payishi) oid ma’lumotlarni idrok etish, qayta ishlash, yodlash va ko‘paytirishda to‘g‘ri yo‘nalishni beradi. Kognitiv kompetensiya o‘rganilgan bilimlarni fikrlash, xotira, tasavvur, e’tibor va

boshqalarni faol kiritish bilan anglash, tushunish va amalda qo‘llash imkonini beradigan mexanizm bilan qurollangan.

Akademik litsey o‘quvchilarining biologiya fanida kognitiv kompetensiyasini shakllantirish asoslarini aniqlashning nazariy shartlari quyidagilardan iborat:

1) kognitiv faoliyat tizimni tashkil etuvchi tarkibiy qism sifatida, kognitiv qiziqish, kognitiv motivatsiya, o‘quv va kognitiv mustaqillik doirasida va shaxsning ajralmas fazilatlari sifatida ta’sir ko‘rsatadi;

2) kognitiv faoliyat – bu obyektlar, hodisalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil motivatsiyalangan faoliyatga hissiy va anglash munosabat omilidir;

3) ta’limiy kognitiv mustaqillikni shaxsga yo‘naltirilgan emotsional kognitiv yo‘nalishga aylantirish kognitiv faoliyat asosida yaratilgan ma’lum qulay sharoitlarni talab qiladi;

4) kognitiv faoliyat umumiy o‘quv jarayoni samaradorligini maqsadli oshirishning asosiy sharti va manbasiga aylanadi, shu jumladan o‘quvchilarning biologiya fanini o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biologiya darslarida kognitiv faoliyatini faollashtirish bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish, kognitiv qiziqish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan holda, oddiy bilimlar to‘plami emas, balki o‘quvchilarning aqliy va operatsion tajribasini takomillashtirishdir. Akademik litseylarning biologiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini shakllantirish psixologik va pedagogik fanga kiritilgan masalalar doirasida dolzarb muammo hisoblanadi. Muammo o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasining tizimli yaxlitligi, ichki motivatsiya, ta’limiy kognitiv mustaqilligi orqali o‘z yechimini topadi, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida samaradorligi ortadi, bu faoliyatning turli shakllari va metodlaridan keng foydalanish bilan tasdiqlanadi.

Ta’lim muassasasida biologiyani o‘qitish o‘quvchilarning tabiiy savodxonligini oshirish, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlarni o‘z ichiga oladi, bu ularning kognitiv bilish salohiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, zamonaviy ta’limning muhim muammosi hisoblanadi. Akademik litseyning tabiiy fanlar ta’lim tizimini samarali yo‘lga qo‘yish o‘quvchilarni tabiiy savodxonligini, hayotiy muammolarni hal qilishga bo‘lgan qobiliyatlarini oshirishga, ekologik savodxonligini va madaniyatini oshirishga, ilmiy bilim, amaliy ko‘nikmalar, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, milliy qadriyatlarni shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Dunyo miqiyosida ekologik muammolarning globallashuvi ham tabiiy fanlarni o‘qitilishiga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi. Mazkur yo‘nalishdagi muammolarni hal qilish maqsadida kompetensiyaga asoslangan ta’limga o‘tish amalga oshirilmoqda, tabiiy fanlarni o‘qitish usullari, yondashuvlari va texnologiyalari zamon talablari asosida o‘zgarib bormoqda. Tabiiy fanlarni o‘qitish va ta’lim jarayonini individuallashtirish va integratsiyalash jihatlari kuchaytirilmoqda.

Akademik litseylarda biologiya fani dasturlari, darsliklar, o‘quv tarkibiy qismlari muntazam ravishda o‘zgartirilib yangilanib borilmoqda. Bu yo‘nalishda hali ko‘plab

islohotlar o‘tkazish, o‘qitish tamoyillariga ilmiy va nazariy yondashuvlar, o‘qitish maqsadini aniqlashtirish, o‘qitish mazmuni va usullarini takomillashtirish, innovatsion faoliyat shakllarini, zamonaviy vositalar va o‘qitish usullarini qo‘llash, ta’lim monitoringini yangicha tashkil etish, litsey o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirish nuqtayi nazaridan o‘qituvchilarning ish natijalarini baholash kabi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi talab etiladi.

Akademik litsey o‘quvchilarining ta’lim olish faolligini muvaffaqiyatli tashkil etish, biologiyani o‘qitishda innovatsion usul va vositalarni joriy etish, litsey o‘quvchilarining tabiiy ilmiy xabardorlik, amaliy, kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish, ularning mustaqil faoliyat yuritish, muloqotga kirishish, ijtimoiy, madaniy, ta’limiy kognitiv qobiliyatlarini o‘z ichiga olgan holda chambarchas bog‘liqdir. O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirish, aqliy tushunish va anglash muhitini yaratish, amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim muassasalari akademik litsey o‘quvchilarining biologiya faniga oid kognitiv kompetensiyasini shakllantirish psixologik va pedagogik fandagi muhim va ko‘p qirrali muammolardan biridir. U o‘quvchilar ongida olamning ilmiy manzarasini yaxlit tasavvur qilish va tabiat voqea, hodisalari qonuniyatlarini, o‘zligini anglab yetish yo‘nalishida o‘qitish muvaffaqiyatining asosiy katalizatori sifatida shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillariga mos keladi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogika faniga qo‘yiladigan talablar biologiya ta’limining asosiy paradigmalarini ko‘rib chiqish talab etiladi.

“Paradigma” tushunchasi “standart” sifatida va biologiya fanini o‘rganishda akademik litsey o‘quvchilarining kognitiv-aqliy faoliyatini faollashtirish bo‘yicha dolzarb amaliy muammolarni hal qilish uchun o‘rganilayotgan muammolarning nazariy va uslubiy jihati nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

O‘quvchilarning shaxsga yo‘naltirilgan fazilatlari, kognitiv-bilim olishga motivatsiyani kuchaytirish sharoitida tashabbuskorlik va o‘zini o‘zi tashkil etish bilan namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, akademik litseylarda biologiya fanini o‘qitish dars va darsdan tashqari vaqtlarda biologiyaga oid materiallarini tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirish orqali nazariy bilimlarning amaliy ko‘nikmalarda namoyon etish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogika fanining kognitiv yo‘nalishi aqliy hodisalar kontekstida fikrlash jarayoni, inson tafakkuri va uning ongi muammolari bilan shug‘ullanadi. Bu, aslida, idrok va takrorlash tarkibiy qismlarining o‘zaro ta’siri, tinglash va gapirish, texnologik qo‘llab quvvatlash bilan ma’lumot olish va uzatish jarayonlarini qamrab oladi. Bu, shubhasiz, insonning atrofdagi voqelikni bilishi va o‘rganilayotgan bilimlar yordamida ongida dunyoning manzarasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kognitiv jarayonni o‘rganish sohasidagi kognitiv yondashuv kognitiv psixologiyani insonning intellektual rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydigan tashqi dunyo obyektlarining

vakilliklarini ajratib ko‘rsatish orqali o‘z doirasini belgilaydigan mustaqil bilim sohasiga ajratishga olib keldi.

Kognitiv psixologiyada inson dunyo haqida qanday ma’lumot olishi, u odamga qanday taqdim etilishi, u xotirada qanday saqlanishi va bilimga aylanishi, bu bilimlarning inson xatti-harakatlariga ta’siri qanday sodir bo‘lishini o‘rganadi.

Tadqiqotchilar “kognitsiya” atamasi bilan uning “aql”, “fikrlash”, “ong” kabi muhim tarkibiy qismlarini asosiy komponent – “bilim”ning hal qiluvchi ishtiroki bilan bog‘lay boshladilar. Psixolog olimlar, shuningdek, “kognitsiya” tushunchasini konkretlashtirish uchun bir qator ijobiy qo‘shimchalar kiritdilar, shu jumladan uning mazmuni “e’tibor”, “idrok”, “tan olish”, “eslash”, “obrazli fikrlash” va boshqalar bilan boyitildi. Biologiya ta’limining mazmuni pedagogik faoliyatning yaxlit tizimidagi ta’limning yakuniy natijasini ta’minlab, asosiy pozitsiyani egallaydi. Bu ta’lim sohasida mustahkam va chuqur bilimlarga ega bo‘lishga, o‘quvchilarning kognitiv-bilish qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan tegishli ilmiy xabardorlik kompetensiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Ta’lim dasturlari bilan belgilanadigan ta’lim mazmunini shakllantirish o‘quv rejasi, o‘quv dasturi va o‘quv adabiyotlari asosida amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Konseptual va analitik fikrlash o‘lchovlari shaxsning tanqidiy vaziyat yoki muammoni jiddiy qabul qilmasligi yoki boshqalar uni qanday belgilashi, balki uni yanada murakkab yoki chuqurroq darajada mustaqil ravishda anglashga erishish darajasi kabi amaliy yoki tayanch intellektni o‘lchaydi.

Ushbu o‘lchovlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri asosiy aqliy qobiliyatlarni o‘lchamaydi, aksincha, shaxsning ushbu qobiliyatlarni ish sharoitida foydali qo‘llash tendensiyasini baholaydi, ushbu ishni bajarishiga hissa qo‘shadi. Kognitiv jarayonni o‘rganish sohasidagi kognitiv yondashuv kognitiv psixologiyani insonning intellektual rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydigan tashqi dunyo obyektlari vakilliklarini ajratib ko‘rsatish orqali o‘z doirasini belgilaydigan mustaqil bilim sohasiga ajratishga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Raxmatullayeva A.Q. Biologiyani o‘qitishda o‘qituvchilar iqtidorini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish (8-9 sinflari misolida): Avtoref. dis. … ped. fan. falsafa doktori (PhD). –Chirchiq: 2022. –45 b.
2. Umarova R.U. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish: Avtoref. dis. … ped. fan. falsafa doktori (PhD). –Chirchiq: 2023. –50 b.
3. Yaxshiboyeva D.T. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish (biotexnologiya fani misolida): Avtoref. dis. … ped. fan. falsafa doktori (PhD). –Chirchiq: 2022. –48 b.

4. Бережная О.В. Формирование исследовательской компетентности обучающихся на основе познаватеьных учебных действий при обучении биологии (6 класс): Автореф. дис... кандидат педагогических наук. –Москва: 2020. –28 с

5. Лукьянова Н.В. Методика использования живых растительных объектов в процессе обучениия биологии в VI классе в основной школе: Автореф. дис... кандидат педагогических наук. –Москва: 2005. –24 с.

6. Тихомирова Ю.А. Методика дистанционного обучения биологии в современной школе: Автореф. дис... кандидат педагогических наук. –Санкт-Петербург: 2014. –24 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЯ ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ

Хусанова Шабнам Джамолиддин кизи
Магистрант 1-го курса Термезского государственного педагогического института
shabisha_94@inbox.ru

Аннотация.Статья посвящена теоретическому осмыслению интерактивных методов обучения как одного из ключевых инструментов модернизации современного образования. На основе анализа отечественной и зарубежной научной литературы уточняется понятие «интерактивные методы обучения», выявляются их обязательные признаки (диалогичность, совместная деятельность, проблемность, высокий уровень мотивации), рассматриваются основные подходы к их классификации и функционированию. Показано, что интерактивные методы обеспечивают переход от репродуктивного к продуктивному обучению, существенно повышают учебную мотивацию и формируют ключевые компетенции XXI века. Подчёркивается необходимость дальнейшей разработки понятийного аппарата и методических рекомендаций для более эффективной интеграции интерактивных технологий в образовательную практику разных уровней.

Ключевые слова: интерактивные методы обучения, активное обучение, диалогичность, сотрудничество, критическое мышление, учебная мотивация, компетенции XXI века, образовательные технологии, субъект-субъектное взаимодействие, модернизация образования

Annotatsiya. Maqola zamonaviy ta’limni modernizatsiyalashning eng muhim vositalaridan biri sifatida interfaol o‘qitish metodlarining nazariy tahliliga bag‘ishlangan. Ichki va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili asosida «interfaol o‘qitish metodlari» tushunchasi aniqlashtirilib, ularning majburiy belgilari (dialoglik, hamkorlikdagi faoliyat, muammolilik, yuqori motivatsiya darajasi) aniqlangan hamda tasniflash va qo‘llashdagi asosiy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Interfaol metodlar reproduktiv o‘qitishdan produktiv o‘qitishga o‘tishni ta’minlashi, o‘quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi va XXI asrning asosiy kompetensiyalarini shakllantirishi ko‘rsatilgan. Interfaol texnologiyalarni turli darajadagi ta’lim jarayoniga yanada samarali integratsiya qilish uchun tushunchalar apparatini va metodik tavsiyalarni yanada ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: interfaol o‘qitish metodlari, faol o‘qitish, dialoglik, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, o‘quv motivatsiyasi, XXI asr kompetensiyalari, ta’lim texnologiyalari, subyekt-subyekt o‘zaro ta’siri, ta’limni modernizatsiyalash

Abstract. The article is devoted to the theoretical understanding of interactive teaching methods as one of the key tools for modernizing contemporary education. Based on the analysis of Russian and international scholarly literature, the concept of “interactive teaching methods” is refined, their essential features are identified (dialogicity, collaborative activity, problem-oriented approach, high level of motivation), and major approaches to their classification and application are examined. It is demonstrated that interactive methods facilitate the transition from reproductive to productive learning, significantly increase learning motivation, and develop key 21st-century competencies. The necessity of further development of the conceptual framework and methodological guidelines is emphasized to ensure more effective integration of interactive technologies into educational practices at all levels.

Keywords: interactive teaching methods, active learning, dialogicity, collaboration, critical thinking, learning motivation, 21st-century competencies, educational technologies, subject-subject interaction, modernization of education

ВВЕДЕНИЕ.Интерактивные методы обучения в современной педагогике рассматриваются как ключевой и наиболее эффективный инструмент кардинального повышения качества образовательного процесса, поскольку они целенаправленно ориентированы не только на передачу готовых знаний, а прежде всего на активное включение учащихся в процесс познания, стимулирование их познавательной активности, развитие самостоятельности, ответственности и критического мышления. Понятие «интерактивность» (от англ. interaction — «взаимодействие») подразумевает непрерывное, двустороннее и многостороннее общение между всеми участниками образовательного процесса — между самими обучающимися, между обучающимися и преподавателем, а также между обучающимися и учебным материалом, цифровыми ресурсами и окружающей образовательной средой, что создаёт условия для совместного поиска решений, обмена опытом и коллективного анализа и рефлексии. Именно такое интенсивное взаимодействие обеспечивает значительно более глубокое, осознанное и долговременное усвоение учебной информации, формирование устойчивых предметных, метапредметных и личностных компетенций, а также развитие навыков сотрудничества, коммуникации в условиях реальной групповой деятельности.

Многочисленные исследования убедительно показывают, что интерактивное обучение означает качественный мировоззренческий и методологический переход от традиционной репродуктивной модели, основанной на однонаправленной передаче знаний от учителя к ученику, к конструктивистской парадигме, при которой **знания**

активно конструируются самими обучающимися в процессе совместной деятельности и осмысленного диалога *[Беспалько, 1995, с. 54]*. В условиях стремительного развития цифровых образовательных технологий, широкого внедрения онлайн-платформ, виртуальной и дополненной реальности, искусственного интеллекта и дистанционных форм обучения необходимость теоретического уточнения сущности понятия «интерактивные методы обучения», научного обоснования их классификации, принципов проектирования и критериев эффективности приобретает особую особую актуальность и практическую значимость.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

В современной педагогической науке интерактивные методы обучения занимают одно из центральных мест и рассматриваются как наиболее перспективная разновидность активных методов обучения, качественно отличающаяся высокой степенью диалогичности, кооперации всех участников образовательного процесса, созданием открытой, доверительной и творческой коммуникативной среды, а также ориентацией на субъект-субъектные отношения вместо традиционных субъект-объектных. Е.В. Бондаревская определяет интерактивные технологии как целостную систему педагогических практик, в основе которых лежит сотрудничество, совместная деятельность и равноправное взаимодействие учителя и учащихся, при котором преподаватель перестаёт быть единственным источником знаний, а становится фасилитатором, модератором и партнёром в совместном поиске истины *[Бондаревская, 2004, с. 112]*. А.А. Вербицкий подчёркивает, что интерактивность является фундаментальным принципом контекстного обучения, поскольку именно она позволяет моделировать реальные профессиональные и жизненные ситуации внутри учебного процесса, создаёт условия для переживания учащимися будущей профессиональной деятельности и тем самым значительно усиливает внутреннюю мотивацию, эмоциональную вовлечённость и осмысленность усвоения материала *[Вербицкий, 2006, с. 147]*. М.В. Кларин акцентирует внимание на технологическом аспекте интерактивных методов, рассматривая их как чётко структурированные, системные и воспроизводимые педагогические действия и приёмы, направленные на организацию активного, **многостороннего образовательного взаимодействия, при котором каждый участник имеет возможность высказывать свою позицию, слушать других, аргументировать, рефлексировать и совместно приходить к новым знаниям** *[Кларин, 2008, с. 203]*. Е.С. Полат и М.Ю. Бухаркина напрямую связывают развитие интерактивных методов с появлением и широким распространением современных информационно-коммуникационных технологий, подчёркивая, что именно цифровая среда создаёт принципиально новые возможности для одновременного взаимодействия десятков и сотен учащихся, мгновенного обмена идеями, совместного редактирования документов, использования мультимедийных ресурсов и формирования ключевых компетенций XXI века — критического

мышления, креативности, сотрудничества, коммуникативной и цифровой грамотности *[Полат, 2010, с. 58]*.

Г.К. Селевко предлагает одну из наиболее детализированных классификаций интерактивных методов, выделяя несколько крупных групп: методы группового взаимодействия (работа в парах, малых и больших группах, «аквариум», «мозговой штурм»); игровые технологии (деловые, ролевые, имитационные, организационно-деятельностные игры); дискуссионные формы (дебаты, симпозиумы, панельные дискуссии, ток-шоу); методы проектного обучения (индивидуальные, парные, групповые проекты); проблемные методы (проблемные лекции, проблемные семинары, метод кейсов); технологии критического мышления (кластеры, «корзина идей», «тонкие и толстые вопросы», «таблица ЗХУ») *[Селевко, 1998, с. 101]*.

Р.Ф. Жуков подробно описывает психологические и организационные механизмы формирования интерактивной образовательной среды, в которой **активное взаимодействие становится не эпизодическим приёмом, а главным системообразующим элементом всего учебного процесса: создание атмосферы психологической безопасности, поддержка инициативы учащихся, развитие навыков рефлексии, формирование групповой сплочённости и ответственности за общий результат** *[Жуков, 2010, с. 76]*. Зарубежные авторы (D. Johnson, R. Johnson, K. Smith, P. Dillenbourg, J. Roschelle) акцентируют кооперативный и коллаборативный характер интерактивного обучения, показывая, что совместная деятельность в малых группах при правильной организации приводит к значительно более высоким результатам, чем индивидуальная или соревновательная работа.

В современной отечественной и зарубежной научной традиции интерактивные методы обучения рассматриваются как комплексные, многоуровневые педагогические подходы и технологии, ориентированные на максимальное включение



учащихся в активную познавательную деятельность, развитие их самостоятельности,

ответственности, критического и творческого мышления, навыков эффективного сотрудничества и коммуникации, а также на формирование устойчивой внутренней мотивации к обучению в условиях быстро меняющегося мира.

МЕТОДЫ

В данном труде применяется комплексный и многоуровневый методологический подход, сочетающий качественные и количественные стратегии исследования и позволяющий всесторонне изучить феномен интерактивных методов обучения как в теоретическом, так и в практическом измерении. Прежде всего, был проведён глубокий контент-анализ обширного массива научной литературы по общей педагогике, дидактике, теории и методике профессионального образования, психологии обучения, а также по смежным дисциплинам (социальная психология, теория коммуникации, информационные технологии в образовании) за период с 1990-х годов по настоящее время; в анализ включены монографии, диссертационные исследования, статьи в рецензируемых журналах, материалы научных конференций и методические рекомендации, что обеспечило репрезентативность и полноту охвата существующих научных позиций. Далее осуществлён компаративный (сравнительно-сопоставительный) анализ трактовок понятия «интерактивные методы обучения» в работах ведущих отечественных и зарубежных авторов, при котором выявлялись как общие черты (диалогичность, субъект-субъектные отношения, активная позиция учащегося), так и различия, обусловленные принадлежностью к различным педагогическим парадигмам (гуманистическая педагогика, конструктивизм, контекстное обучение, компетентностный подход, теория кооперативного обучения). Понятийно-терминологический анализ был направлен на изучение эволюции дефиниций «интерактивные методы», «интерактивное обучение», «интерактивные технологии» в трудах отечественных исследователей (В.П. Беспалько, Е.В. Бондаревская, А.А. Вербицкий, М.В. Кларин, Е.С. Полат, Г.К. Селевко, Р.Ф. Жуков и др.); при этом фиксировались изменения в объёме и содержании понятия, уточнялись его родо-видовые отношения с более широкими категориями («активные методы», «технологии развивающего обучения», «личностно-ориентированное обучение»), а также определялись ключевые дескрипторы, составляющие семантическое ядро понятия. Структурно-функциональный метод применялся для выявления внутренней организации интерактивных методов, их компонентного состава (цели, принципы, содержание, формы, приёмы, средства, условия эффективности) и выполняемых функций в современной образовательной практике: познавательной, развивающей, воспитательной, мотивационной, социализирующей, диагностической и корректирующей.

Данный метод позволил не только описать внешние проявления интерактивности, но и раскрыть механизмы её влияния на формирование ключевых

компетенций, развитие критического мышления, эмоционально-волевой сферы и навыков сотрудничества у учащихся разных возрастных групп и уровней образования.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

На основании проведённого комплексного анализа научной литературы, сравнительного изучения дефиниций и структурно-функционального рассмотрения реального педагогического опыта можно сформулировать научно обоснованное и практически применимое определение: интерактивные методы обучения представляют собой целостную, динамичную и многоуровневую систему целенаправленных педагогических действий и технологий, главной задачей которых является организация активного, субъектного, равноправного и полифоничного образовательного образовательного взаимодействия между всеми участниками учебного процесса (обучающимися между собой, обучающимися с педагогом, обучающимися с учебным контентом и цифровой средой), обеспечивающую кардинально более высокий уровень осмысленности, рефлексивности, самостоятельности и личностного и долговременности усвоения знаний, а также формирование комплекса ключевых компетенций XXI века: критического и креативного мышления, умения работать в команде, коммуникативной культуры, эмоционального интеллекта и ответственности за совместный результат.

Данное определение напрямую опирается на фундаментальные положения В.В. Гузеева, который ещё в середине 1990-х годов подчёркивал, что педагогическая технология приобретает подлинно интерактивный характер только тогда, когда традиционный объект учебного процесса (пассивный получатель информации) преобразуется в активного соучастника, соавтора и даже со-конструктора собственного познания, когда ученик перестаёт быть **«сосудом, который нужно наполнить»**, а становится **«факелом, который нужно зажечь»** *[Гузеев, 1996, с. 42]*. Системный анализ позволил выделить четыре обязательных, неустранимых и взаимосвязанных признака, без которых технология не может считаться по-настоящему интерактивной: Во-первых, постоянное, многостороннее и равноправное взаимодействие всех участников образовательного процесса, которое выходит далеко за рамки привычного вопроса-ответа и превращается в подлинный диалог личностей. Как справедливо отмечает Е.В. Смирнова, именно диалогичность выступает ключевым системообразующим механизмом формирования современной образовательной среды, поскольку именно в диалоге рождаются новые смыслы, происходит взаимное обогащение опыта и формируется чувство сопричастности к общему делу *[Смирнова, 2015, с. 119]*. Во-вторых, совместная деятельность в малых и больших группах, кооперация и коллаборация, которые радикально повышают эффективность усвоения материала за счёт эффекта синергии. Бельгийский педагог де Ландшеер ещё в 1990-х годах экспериментально доказал, что при правильно организованном сотрудничестве когнитивные результаты группы значительно превышают сумму индивидуальных

достижений, а у участников формируются устойчивые навыки коллективного мышления, распределённого решения задач и продуктивной коммуникации, которые сохраняются на всю жизнь *[Ландшеер, 1994, с. 75]*. В-третьих, ярко выраженная проблемность и исследовательский характер обучения.

Интерактивные методы сознательно ставят учащихся перед открытыми, аутентичными, часто междисциплинарными задачами, не имеющими единственно правильного ответа, стимулируя их к самостоятельному поиску решений, выдвижению гипотез, проверке их на практике и рефлексии полученных результатов. Как подчёркивает Т.М. Ковалёва, именно такой подход превращает обучение из процесса накопления готовых истин в процесс активного открытия мира, развивает научное мышление и формирует внутреннюю потребность в постоянном самообразовании *[Ковалёва, 2012, с. 63]*. В-четвёртых, исключительно высокий уровень внутренней мотивации, который достигается за счёт полного включения личности учащегося в процесс: он не просто «выполняет задание», а решает значимую для себя и группы проблему, чувствует свою нужность, видит реальный результат совместных усилий и получает мгновенную обратную связь от сверстников и педагога. Т.И. Шамова на большом эмпирическом материале показала, что именно интерактивные методы способны перевести внешнюю мотивацию во внутреннюю, сформировать устойчивый интерес к предмету и превратить обучение из обязанности в осознанную потребность *[Шамова, 2007, с. 142]*.

Интерактивные методы обучения предстают перед нами не как набор отдельных приёмов или модное педагогическое веяние, а как гибкая, научно глубоко обоснованная и постоянно развивающаяся система, органично объединяющая в себе лучшие достижения деятельностного подхода Л.С. Выготского и его



последователей, гуманистической педагогики К. Роджерса и А. Маслоу, теории кооперативного обучения братьев Джонсон, контекстного подхода А.А. Вербицкого, проектной и проблемной технологий Дж. Дьюи, отечественной школы развивающего обучения В.В. Давыдова и Л.В. Занкова, а также современных цифровых образовательных практик. Эта система обладает уникальной способностью адаптироваться к любому возрасту, любому предмету и любому уровню подготовки, сохраняя при этом свою главную суть: превращение ученика из пассивного потребителя знаний в активного со-творца собственного образовательного пути и со-творца общего знания. Именно поэтому интерактивные методы сегодня не просто рекомендуются, а становятся обязательным компонентом современной образовательной практики, без которого невозможно достижение целей, поставленных Федеральными государственными образовательными стандартами всех уровней: формирование универсальных учебных действий, метапредметных компетенций и готовности к обучению в течение всей жизни.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Интерактивные методы обучения по праву признаны одним из наиболее эффективных и перспективных инструментов модернизации всей системы современного образования, отвечающих требованиям времени и стратегическим задачам развития общества знаний. Они обеспечивают гармоничное и сбалансированное сочетание таких фундаментальных принципов, как диалогичность, равноправное сотрудничество, развитие критического и творческого мышления, а также максимальная самостоятельность и субъектность обучающихся в процессе познания. Комплексный анализ научных источников и обобщение передового педагогического опыта убедительно показывают, что внедрение интерактивных технологий существенно расширяет дидактические возможности образовательного процесса, переводит его с репродуктивного уровня на продуктивный и творческий, значительно повышает внутреннюю учебную мотивацию, делает обучение личностно значимым и эмоционально насыщенным, а главное — формирует у учащихся весь спектр ключевых компетенций XXI века: коммуникативные, кооперативные, информационные, аналитические, рефлексивные и метапредметные навыки, востребованные как в профессиональной деятельности, так и в повседневной жизни.

Реальная педагогическая практика на всех уровнях — от дошкольного до высшего и дополнительного профессионального образования — подтверждает высокую результативность данных методов и одновременно выявляет необходимость дальнейшей углублённой теоретической разработки, уточнения и конкретизации понятийного аппарата интерактивных методов, создания чётких критериев их классификации, разработки универсальных и специализированных методических рекомендаций, что в конечном итоге позволит более системно, целенаправленно и эффективно интегрировать их в образовательные программы разных уровней и

профилей, обеспечивая достижение новых образовательных стандартов и подготовку конкурентоспособной личности, готовой к жизни и деятельности в быстро меняющемся мире.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Беспалько В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. — М.: Педагогика, 1995.

2. Бондаревская Е. В. Современная педагогика: интерактивные подходы к обучению. — Ростов-н/Д: Феникс, 2004.

3. Вербицкий А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. — М.: Логос, 2006.

4. Гузеев В. В. Педагогическая технология: от идеи до практики. — М.: Народное образование, 1996.

5. Жуков Г. Н. Интерактивные методы обучения: теория и практика. — СПб.: Речь, 2010.

6. Кларин М. В. Интерактивное обучение: педагогические технологии XXI века. — М.: Академия, 2008.

7. Ковалёва Г. А. Методика применения интерактивных методов в образовательном процессе. — М.: Просвещение, 2012.

8. Ландшеер Р. Педагогические инновации: активные методы обучения. — М.: Прогресс, 1994.

9. Полат Е. С., Бухаркина М. Ю. Современные педагогические технологии. — М.: Академия, 2010.

10. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. — М.: Народное образование, 1998.

11. Смирнова Н. Ф. Интерактивные технологии в образовании: теория и практика. — М.: Флинта, 2015.

12. Шамова Т. И., Давыденко Т. М., Тюрина Г. И. Управление образовательными системами. — М.: Академия, 2007.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIGA XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA DIFFERENSIAL VA INDIVIDUAL YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Abdukadirova Nasiba Alimjanovna
Guliston davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti kafedra mudiri
Rustamova Safina Saydullo qizi
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
safinarustamova@911gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalarining boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga xorijiy tillarni o‘rgatishda differensial va individual yondashuvning samaradorligi haqida tahlil yuritiladi. Talabalarning darsga tayyorligi, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va layoqati, shuningdek, bilish darajasi turlicha bo‘lganligi bois, darslarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida olib borish maqsadga muvofiqdir. Amaliy kuzatuvlar hamda o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, differensial va individual yondashuvga asoslangan darslarda talabalarning ichki motivatsiyasi oshadi, til o‘rganishga bo‘lgan layoqati sezilarli darajada rivojlanadi va ularning faolliklari ortadi.

Kalit So‘zlar: differensial, individual, amaliy kuzatuvlar, tadqiqot, boshlang‘ich ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

Annotation.This article analyzes the effectiveness of differential and individual approaches in teaching foreign languages to students of the primary education direction at higher pedagogical institutions. Since students differ in their level of preparedness, interest, aptitude, and cognitive ability, it is advisable to conduct lessons based on learner-centered education. Practical observations and conducted research show that lessons built on differential and individual approaches increase students’ intrinsic motivation, significantly develop their language-learning abilities, and enhance their activity in the learning process.

Keywords: differential, individual, practical observations, research, primary education, learner-centered education.

Аннотация.В данной статье анализируется эффективность дифференцированного и индивидуального подходов в обучении иностранным языкам студентов педагогических вузов по направлению начального образования. Поскольку уровень подготовки, интерес к изучению языка, способности и познавательные возможности студентов различаются, целесообразно проводить занятия на основе личностно-ориентированного обучения. Практические наблюдения и проведённые

исследования показывают, что занятия, основанные на дифференцированном и индивидуальном подходах, повышают внутреннюю мотивацию студентов, значительно развивают их способности к изучению языка и активизируют их деятельность на занятиях.

Ключевые слова: дифференцированный, индивидуальный, практические наблюдения, исследование, начальное образование, личностно-ориентированное обучение.

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda til o‘rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish uchun balki kasbiy rivojlanish uchun ham muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar – kelajakdagi boshlang‘ich sinf o’qituvchilari, xorijiy tillarni mukammal va puxta o‘rganishlari hozirgi texnologiya asrining eng dolzarb muammolaridan biridir. Buning natijasida ular kelajak faoliyatlarida darslarni interactiv tarzda tashkil qilish, bolang‘ich sinf o‘quvchilariga dastlabki til ko’nikmalarini sifatli va mukammal tarzda yetkazish kabi bir qator ijobiy natijalarga olib keladi.

Oliy ta’lim tizimida talabalarning o‘qishga bo‘lgan qobiliyati, tilga qiziqishi va avvalgi tayyorgarlik darajasi jihatidan farqlanadi. Bunday sharoitda **differensial** (guruhlar orasidagi farqlarni hisobga olgan) va **individual** (shaxsiy ehtiyojlarga asoslangan) yondashuvlarni qo‘llash xorijiy til o‘qitish jarayonining eng dolzarb metodlaridan biri hisoblanadi.[1.3]Differensial yondashuv asosida boshlang‘ich ta’lim talabalarining bilim darajasi va qobiliyatlariga qarab guruhlash orqali samarali ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan bo‘lsa, individual yondashuv har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari va o‘rganish sur’atini inobatga olishni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirishibgina qolmay, balki moslashuvchan va samarali tashkil etilishiga ham imkon yaratadi. Albatta, bunday yondashuvdan to‘g‘ri va unumli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq hisoblanadi. Shuningdek, an’anaviy darslardan farqli ravishda, differensial va individual yondashuv asosida dars tashkil etishda o‘qituvchidan ko‘proq vaqt va ma’suliyat talab etiladi. Shu sababli, xorijiy tilni puxta egallash ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun birinchi navbatdagi vazifaga aylanmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida xorijiy tillarni samarali o‘qitish uchun innovatsion va shaxsga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlardan foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan ishlashda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim berish, ularning til kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Differensial va individual yondashuvlar — o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati, o‘rganish uslubi hamda psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni nazarda tutadi. Bunday metodik yondashuvlar xorijiy til

o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, talabalarning faolligini oshiradi va ularni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi xorijiy til darslarida differensial va individual yondashuvlardan foydalanishning metodik asoslari, ularni qo‘llashda o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar hamda bu uslublarning o‘quvchilarning til o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yondashuvlarni dars jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham keltiriladi.

Metodologiya (Methodology)

Ushbu maqola yuzasidan olib borilgan tadqiqot Gulistonning pedagogika institutida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 2-bosqich talabalari ishtirokida olib borildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Ishtirokchilar:

20 nafar talabadan iborat 2 ta guruh shakllantirildi:

Guruh A (nazorat) — an’anaviy o‘qitish usuli asosida,

Guruh B (tajriba) — differensial va individual yondashuv asosida ta’lim oldi.

O‘qitish shakli:

Differensial yondashuv: talabalar bilim darajasi, o‘zlashtirish tezligi va ilgari o‘rganilgan til ko‘nikmalariga qarab kichik guruhlarga ajratildi.

Individual yondashuv: har bir talabaning qiziqishiga mos mavzular, topshiriqlar va mustaqil ishlar taqdim etildi.

Tadqiqot usullari:

-Diagnostik test (boshlang‘ich va yakuniy),

-So‘rovnoma (motivatsiya darajasini aniqlash uchun),

-O‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqi baholandi,

-Refleksiya va o‘zini baholash jurnali yuritildi.

-Tadqiqot muddati — 1 hafta (haftalik o‘quv moduli davomida).

Natijalar (Results)

Diagnostik testlar natijasi

Ko‘rsatgich	Guruh A (an’anaviy)	Guruh B (differensial individual)
Boshlang‘ich test (o‘rtacha ball)	52%	49%
Yakuniy test (o‘rtacha ball)	67%	85%
Og‘zaki ifoda faolligi	O‘rtacha	Yuqori
Tilga nisbatan motivatsiya	Past-o‘rtacha	O‘rtacha-Yuqori

Muhokama (Discussion)

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, boshlang‘ich testda ya’ni talabalarning bilim darajasi qaysi bosqichdaligini tekshirish natijasida an’anaviy ta’limda tahsil oluvchi talabalarning ko‘rsatkichi differensial yondashuv asosida tahsil oluvchi

talabalarnikidan yuqori, negaki ushbu test shaxsga yo‘naltirilgan test bo‘lmay, balki talabalarning xorijiy til borasidagi darasini aniqlash testi. Ammo, yakuniy testlar shuni ko‘rsatadiki Guruh B ning natijasi Guruh A nikidan ancha yuqori ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, aynan boshlang‘ich yo‘nalish talabalari

differensial va individual yondashuv tarzida o‘tilgan darslar natijasida til o‘rganish layoqati oshganini, bilim darajasi ko‘tarilganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bunda, o‘tilayotgan darslar davomida talabalarning o‘rganish tezligi, qaysi kompetensiyadan ilg‘or ekanligini hisobga olgan holda, darslarni bir qismini o‘qish amaliyotiga moslashtirib, darsda qiziqarli matnlar, maqolalar, hikoyalar yoki mashhur nasriy asarlardan foydalanildi. Tinglab tushunishga layoqati bor talabalarga turli podkastlar, mavzuga doir video darslar hamda tinglab tushunish mashqlari berildi. Nutqni rivojlantirishga doir turli mashqlar xususan, qiziqarli matnlar va ularga asoslangan savollar, foydali kundalik lug‘atlar va boshqa materiallar bilan ta’minlanishdi. Yozma nutqni rivojlantirish borasida ham amaliyotga ham nazariyaga doir darslar o’tildi. Natijada esa talabalarning birinchi navbatda, til o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi kuchaydi, darslardagi faolligi oshdi va ingliz tilida suhbatlashish, vazifalarni bajarishda o‘zlarini erkin his qilishib, fikr-mulohazalarini dadillik bilan bayon qila olishdi.

Adabiyotlar tahlili (Literature anylisis)

Boshlang‘ich yo‘nalish talabalari bilan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, har bir talabaning qiziqishi, qaysi kompetensiga layoqati yuqoriligidan kelib chiqib darsni ayni shu qiziqishlarga yo‘naltirish natijasida talabalarda sezilarni ilg‘orilash ko‘zga tashlandi. Shuningdek, darslarni an’anaviylikdan yiroqlashgan holda differensial va individual, bir so‘z bilan aytganda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali tashkil etish – bir emas balki bir qancha muvaffaqiyatlarga sabab bo‘ldi va mazkur vazifani keng targ‘ib qilishimiz nechog‘li dolzarb ekanligini isbotladi. Mazkur vazifa yuzasidan birgina bizning oliy ta’limda o‘tkazilgan tadqiqotnigina emas, balki chet el olimlarining ham fikri bilan bo‘lishish maqsadga muvofiqdir.

Differensial va individual yondashuvlarning nazariy asoslari D. Nunan va J. Scrivener tadqiqotlarida ingliz tilini o‘qitishda individual yondashuv asoslarini tushuntirishga alohida e’tibor qaratilgan.[1.4,1.5] Ular til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning turli uslublari, bilim darajalari va qobiliyatlariga asoslangan yondashuvlarni qo‘llash muhimligini ta’kidlaydi. Ularning ta’kidlashicha, ta’lim jarayonini shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy tadqiqotlar va zamonaviy texnologiyalar J. Harmer o‘zining “The Practice of English Language Teaching” asarida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan dars rejalari va strategiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha metodik tavsiyalar beradi.[1.6] Shuningdek, u ingliz tilini o‘rganish jarayonida motivatsiya va differensial yondashuv o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, ushbu uslub ta’lim jarayonida ijobiy natijalar berishini isbotlaydi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi bilan individual yondashuv yanada rivojlanib bormoqda. Mishra va Koehler tomonidan ilgari surilgan TPACK modeli (Technology, Pedagogy, and Content Knowledge) individual ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklarini ko‘rsatadi.[1.7] Yevropa va AQShda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, differensial yondashuv tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning ingliz tilini o‘zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Masalan, Tomlinson (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ingliz tilini o‘qitishda moslashtirilgan materiallardan foydalanish o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.[1.8]

Rossiyalik pedagog V. A. Slastenin ta’lim jarayonida individual yondashuvning psixologik aspektlarini chuqur tahlil qilib, har bir o‘quvchi uchun shaxsiy o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish muhimligini ta’kidlaydi.[1.9] Yuqorida keltirilgan adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, boshlang‘ich yo‘nalish talabalarining ingliz tili darslari ayni differensial va individual tarzda tashkil etilishi nechog‘li ekanligini anglishimiz mumkin. Buning dastlabki sababi shundaki, talabalar – ertamiz kelajagi bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sifatli va mukammal ta’lim beradigan ustozlardir. Talabalarning har tomonlama puxta va jahon standartlariga muvofiq ta’lim olishi, kelajakda ana shu bilimni ayni shunday yetkazib berishlarini kafolatlaydi.

Xulosa (Conclusion)

Xorijiy tillarni o‘qitishda differensial va individual yondashuvlar zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning individual ehtiyojlari, bilim darajalari, qiziqishlari va o‘rganish uslublarini inobatga olish orqali xorijiy tilga bo‘lgan motivatsiyani oshirish, darslarning samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilarda til kompetensiyalarini chuqur shakllantirish mumkin.

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические стратегии формирования и развития профессиональной идентификации будущих преподавателей профессионального образования. Выявлены психологические подходы, влияющие на процесс профессиональной идентификации, основанные на таких факторах, как личностный рост, профессиональная мотивация, самосознание и профессиональные ценности. В исследовании обоснованы механизмы развития профессиональной идентификации через инновационные методы и психологические тренинги.

Ключевые слова: профессиональная идентификация, психологические стратегии, мотивация, самосознание, профессиональная подготовка.

Annotation. This article explores the psychological strategies for developing professional identity among future vocational education teachers. The psychological approaches influencing the process of professional identity formation based on factors such as personal growth, professional motivation, self-awareness, and professional values are analyzed. The study justifies mechanisms for enhancing professional identity through innovative methods and psychological training.

Keywords: professional identity, psychological strategies, motivation, self-awareness, professional preparation.

KIRISH.Bugungi kunda ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlarga erishish uchun pedagogik kadrlarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning kasbiy identifikatsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kasb ta’limi yo‘nalishidagi bo‘lajak o‘qituvchilarning

o‘z kasbiga nisbatan munosabati, o‘zini shu kasb vakili sifatida qabul qilishi – bu ularning kasbiy identifikatsiya jarayonining muhim bosqichidir. Mazkur maqolada shu jarayonni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik strategiyalar tahlil qilinadi. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga taraqqiyot strategiyasining to‘rtinchi bo‘limida quyidagicha ta’kidlangan, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish. 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg’or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Bugungi kunda ta’lim tizimi tezkor o‘zgarishlar va innovatsiyalar davrida faol ishtirok etishni talab qiladi. O‘qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlash ularni yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarga ochiq, o„zgarishlarga tayyor shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi. Boshlang’ich sinf o‘qituvchilari bolalarning birinchi ta’lim olish bosqichida ularning dunyoqarashi, axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun, ularning kasbiy identifikatsiyasi darajasi jamiyatning kelajak avlodini tarbiyalash va madaniy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarni chuqur o‘rganish va qo‘llash orqali ta’lim tizimida sifatli o‘zgarishlarga erishish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishi, dars berish jarayonining innovatsion yondoshuvlar bilan boyitilishi umumiy ta’lim tizimining yanada mustahkamlanishi ta’minlanadi.

1. Kasbiy identifikatsiyaning mohiyati va zamonaviy yondashuvlar

Kasbiy identifikatsiya – bu shaxsning o‘zini ma’lum bir kasb vakili sifatida anglash jarayonidir. Bu jarayon orqali shaxs o‘zining kasbiy qadriyatlarini, vazifalarini va ijtimoiy rolini chuqur anglaydi. Zamonaviy psixologiyada kasbiy identifikatsiyaga individual, ijtimoiy-psixologik, madaniy va motivatsion yondashuvlar mavjud.

Kasbiy ma’lumot bilan ta’minlanganlik shakllari – kasbiy axborotga egalik qilish shunday yo‘lga qo‘yilishi kerakki, bunda o‘quvchilar kasb haqida kerakli bilimlarga ega bo‘lsinlar hamda keyinchalik shu bilimlar kasbiy jihatdan o‘zini o‘zi aniqlash chog‘ida asos bo‘lib xizmat qilsin. O‘quvchilar tomonidan istalgan axborotga xususan, kasbiy yo‘nalgan xarakteridagi axborotga egalik ma’lum bir shartlarga rioya qilingandagina samarali bo‘ladi. Birinchidan o‘quvchilarda kasbiy axborotli materialni idrok qilishga ijobiy munosabatni shakllantirish lozim. O‘quvchilar uchun taklif etilayotgan ma’lumotlar ular uchun tushunarli bo‘lishi lozim. Ma’lumotli material ham mazmunan ham shaklan o‘quvchilarning yosh va ta’lim olish xususiyatlarini hisobga olgan holda berilishi kerak. Ma’lumotni berishda maxsus terminalogiya yoki texnologik ma’lumotlar haddan ziyod ko‘p bo‘lmasligi ma’qul, chunki u tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin. Ikkinchidan o‘quvchilarda kasbga nisbatan ongli adekvat munosabatni shakllantirish uchun axborotni to‘g‘ri yetkazish lozim. U nafaqat tushunarli balki ob’ektiv bo‘lmog‘i lozim.

Kasbiy ma’lumotni samarali amalga oshirish uchun kasbga yo‘naltiruvchi psixolog quyidagilarga amal qilishi kerak:

-hududning kadrlarga bo‘lgan hamda ishlab chiqarishning kelajakdagi va hozirgi kun talablarini bilish;

-ma’lumotli materiallarni zamonaviy tarzda tayyorlash ya’ni o‘quv qo‘llanmala, kasbga yo‘naltirish varoqlari va boshqalar.

-kasbiy yo‘nalganlik bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatiga ega bo‘lish.

Kasbiy ma’lumotga ega bo‘lish doirasida o‘quvchilar bilan quyidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir:

-mehnat bozoridagi talab va takliflar munosabati;

-faoliyat turlarining kelajakda rivojlanishi;

-asosiy kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha ishlash xarakteri;

-mehnat sharoitlari va ish haqi;

-mutaxassis tayyorlovchi muassasalari va xodimlarni tayyorlash marakazlari [10].

Kasbiy tayyorgarlik deganda “faoliyatning ma’lum bir sohasidagi ishlarni bajarishga imkon beradigan maxsus bilim, ko‘nikma va malakalar majmui tushuniladi. Kasbiy tayyorgarlik mehnat jarayonida, malaka oshirish tizimida va o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali takomillashtiriladi [1]. Oliy ta’lim tizimida barcha kasblar bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni ta’lim oluvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

2. Psixologik strategiyalar tushunchasi va ularning turlari

Psixologik strategiyalar – bu shaxsning o‘zini rivojlantirish, muammolarni hal qilish va maqsadlarga erishishdagi ongli yo‘llaridir. Kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda quyidagi strategiyalar muhim:

- O‘z-o‘zini anglash strategiyalari
- Motivatsion strategiyalar
- Emosional barqarorlik strategiyalari
- Ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish strategiyalari

3. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun mos strategiyalar

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishda psixologik treninglar, refleksiv suhbatlar, mentorlik tizimi, kasbiy faoliyatga yaqinlashtirish (praktik mashg‘ulotlar) asosiy rol o‘ynaydi. Ularning kasbiy orientatsiyasini kuchaytirish uchun o‘z-o‘zini baholash texnikalari, kasbiy ideal modellarni o‘rganish muhim.

Pedagogik faoliyatni yetarlicha yuqori darajada amalga oshira oladigan, o‘quvchilarning o‘qitilganligi va tarbiyalanganligida yaxshi natijalarga erishadigan hamda shaxs sifatida o‘zini yuzaga chiqara oladigan o‘qituvchi kasbiy kompetentli bo‘lib hisoblanadi [12-18]. - kasbiy pedagogik bilimlar bilan; - kasbiy pedagogik mahorat bilan; - o‘qituvchining ham bilish sohasiga, ham motivatsion sohasiga tegishli bo‘lgan kasbiy ahamiyatli sifatlari bilan; - kasbiy pedagogik pozitsiyasi bilan; - o‘qituvchining xulq-atvorini

belgilaydigan (o‘quvchilarga, o‘ziga, hamkasblariga) barqaror munosabatlari tizimi bilan. O‘qitish jarayonida shakllantiriladigan bilim, mahorat va ko‘nikmalar ko‘pincha real hayotdagi vaziyatlarda keraksiz bo‘lib qoadi. Ularning bunday o‘ziga xosligi bo‘lajak o‘qituvchilarning eng birinchi o‘rinda, moslashuvchan, mobil bilimlari va ulardan turli xil, shu jumladan, tipik bo‘lmagan vaziyatlarda ham foydalana olish mahoratining shakllantirilishiga qaratiladigan kasbiy hamda metodik tayyorgarligi mazmuniga bo‘lgan o‘ziga xos talablarni birinchi o‘ringa olib chiqadi

4. Tajriba va natijalar

Shaxs kasbda o‘rganishni kuzatish uchun ijtimoiy rollarni o‘rganish juda muhim. Bo‘lajak o‘qituvchilarni real o‘quv muhitiga yaqinlashtirish orqali ular o‘qituvchi sifatida dizayn qila oladi. amaliyotlar natija beradi:

Pedagogik amaliyot – maktabda yoki kollejda amaliy mashg'ulotlar olib borish;

Mentorlik dasturlari – tajribali ustozlar bilan “junior-senior” uslubidagi hamkorlik;

Rol o‘yinlari va treninglar – talabalarning muayyan pedagogik o‘zini sinab ko‘rishi.

Bu strategiyalar talabaning kasbiy o‘zligiga chuqurroq kirib borishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy identifikatsiyasi faqat tajriba tajribalarga emas, balki stress va harakatga qarshi turishga harakat qilish ham bog'liq.

Stressni yengish bo‘yicha davolash treninglar ,

Hissiy intellektni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar ,

Jamoaviy qo‘llab-quvvatlashni tashkil qilish zarur.

Bu xodimlar orqali talabalarda yordamlik, ishonch va barqarorlik rivojlanadi. Har bir kasbiy talaba o‘zining kasbiy yo‘lini portfelini ko‘rsatishda olib borishi tavsiya qilish. Portfolio kiritiladi:

Yozilgan esse, kasbiy reja va rejalar;

O‘tilgan treninglar, mahorat darslari, amaliyot usullari;

O‘zo‘zini materiallar va mulohazalar.

Bu usul o‘zgarish va o‘sish dinamikasini talabaning o‘zi nazorat qilish uchun imkoniyatlari.2024–2025 o‘quv yilida Urganch Davlat Universitetining texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalari o‘rtasida psixologik strategiyalarga asoslangan metodik eksperiment o‘tkazildi. Natijada, strategiyalarni qo‘llagan guruhda kasbiy identifikatsiya ko‘rsatkichlari 24% ga oshgan.

5. Xulosa va tavsiyalar

Kasbiy identifikatsiyani shakllantirish va rivojlantirish uzoq muddatli psixologik jarayon bo‘lib, bu jarayonga tizimli yondashuv zarur. Ta’lim muassasalarida individual psixologik yondashuvlar, muntazam treninglar va motivatsion dasturlarni joriy etish – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бодалев А.А. Личность и общение. - М.: Педагогика, 1981.

2. Абульханова-Славская К.А. Стратегии жизни. - М.: Мысль, 1991.

3. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996.

4. Эркинаева Н. Касбий психологик tayyorgarlik asoslari. - Тошкент: TDPU, 2020.

5. Mahkamova Z. Kasbiy rivojlanishning psixologik mexanizmlari. -Samarqand, 2021.

6. Ginzburg M. Professional Identity: Development and Research Trends. - Psychology Journal, 2018.

7. [12] Хасанов, А.А. Межпредметные связи и их функции / А.А. Хасанов // Отечественная и зарубежная педагогика. – 2012. - № 2 (5). – С. 130-132.

8. Жаббаров Рустам Равшанович (2019) Использование педагогического потенциала народных художественных промыслов как средства развития творческих способностей учащихся. INTERNATIONAL SCIENTIFIC PRACTICAL CONFERENCE "Improvement of the state and non-state preschool education sectors: new forms and education content". pp-144-146.

9. Абдуллина О. А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования / О. А. Абдуллина. М.: Просвещение, 1990. 141 с.

10. Чернявская А.П. Психологическое консультирование по профессиональной ориентации. М., 2001.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

AYOLLARNING BOSHQARUVDAGI ROLI VA GENDER TAFOVUTLARDA AYOL RAHBARLARNING USTUN JIHATLARI

Maxatova Nozima Ismatillo qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, dotsent v.b., PHD

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ayollarning boshqaruvdagi o‘rni, gender tafovutlarining rahbarlik uslublariga ta’siri hamda ayol rahbarlarning ustun jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy menejment nazariyalari, xalqaro tajribalar va empirik ma’lumotlar asosida ayollarning strategik fikrlashi, kommunikativ salohiyati, empatiya, jamoa bilan ishlash qobiliyati kabi yetakchilik fazilatlari yoritilgan. Shuningdek, gender tengligi siyosati va ayollarni rahbarlik lavozimlariga jalb etishning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati ochib beriladi. Maqola ayol rahbarlarning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi roli va ularning tashkilot rivojiga qo‘shayotgan hissasini ilmiy asosda baholaydi.

Kalit so‘zlar: Ayollar rahbarligi, gender tenglik, boshqaruv, liderlik uslubi, ayol yetakchilar, ijtimoiy-psixologik omillar, gender tafovutlari, strategik fikrlash, kommunikativ ko‘nikmalar, tashkilot samaradorligi.

Аннотация. В данной научной статье анализируется роль женщин в управлении, влияние гендерных различий на стиль руководства и преимущества женщин-руководителей. На основе современных теорий менеджмента, международного опыта и эмпирических данных раскрываются такие лидерские качества женщин, как стратегическое мышление, высокий коммуникативный потенциал, эмпатия и способность эффективно работать в команде. Кроме того, обоснована социально-экономическая значимость политики гендерного равенства и расширения участия женщин в руководящих должностях. Статья предоставляет научную оценку вклада женщин-лидеров в повышение эффективности управления и развитие организаций.

Ключевые слова: Женское лидерство, гендерное равенство, управление, стиль руководства, женщины-руководители, социально-психологические факторы, гендерные различия, стратегическое мышление, коммуникативные навыки, эффективность организации.

Abstract. This scientific article examines the role of women in management, the impact of gender differences on leadership styles, and the key advantages of female leaders. Drawing on modern management theories, international practices, and empirical evidence, the study highlights women’s strategic thinking, strong communication skills, empathy, and team-oriented leadership capabilities. The article also emphasizes the socio-economic

significance of gender equality policies and the increased participation of women in leadership positions. It provides a scholarly assessment of the contribution of female leaders to enhancing managerial effectiveness and promoting organizational development.

Keywords: Female leadership, gender equality, management, leadership style, women leaders, socio-psychological factors, gender differences, strategic thinking, communication skills, organizational effectiveness.

Kirish. So‘nggi yillarda globallashuv, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi hamda mehnat bozoridagi strukturaviy o‘zgarishlar boshqaruv tizimida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu jarayonda ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi faolligi, ularning boshqaruvdagi salohiyati va liderlik kompetensiyalariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Xalqaro tadqiqotlar ayollar rahbarlikka xos bo‘lgan kommunikativlik, empatiya, muvozanatli qaror qabul qilish, jamoani birlashtirish kabi fazilatlar bilan korxona faoliyatining barqaror va samarali rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ko‘plab mamlakatlarda gender tafovutlari, stereotiplar, ishga qabul qilish va lavozimlarda ko‘tarilish jarayonidagi nomutanosibliklar hali ham ayollarning boshqaruvdagi ulushini to‘liq namoyon etishga to‘sqinlik qilmoqda. Mazkur masala iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tenglik, inson kapitalidan samarali foydalanish kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Ushbu maqolada ayollarning boshqaruvdagi o‘rni, gender tafovutlarining rahbarlik uslublariga ta’siri hamda ayol rahbarlarning ustun jihatlari ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — ayol rahbarlarning boshqaruv samaradorligiga qo‘shayotgan hissasini aniqlash, ularning yetakchilik kompetensiyalarini baholash va gender tengligi sharoitida boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning rolini oshirish, jamiyat va davlat boshqaruvida imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta’minlash, tadbirkorligini rivojlantirish va ayollarning ijtimoiy himoyasini ta’minlashga qaratilgan keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-sonli Farmoniga ko‘ra tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturining 9-bandida “Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizimni yaratish” belgilangan.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan taqdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 69-maqsadida bir qator vazifalar bilan birga gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-

quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta’minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish amalga oshirish vazifalari belgilab qo’yildi.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-sonli qarori bilan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” taqdiqlandi. Gender strategiyasining asosiy vazifalari qatorida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo‘llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq salbiy qarashlarni o‘zgartirish, aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o‘rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytirish, gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish milliy maqsadlariga erishishda parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish vazifalari belgilandi.[3]

Adabiyotlar sharhi. Ayollarning boshqaruvdagi o‘rni va gender tafovutlari masalasi so‘nggi o‘n yilliklarda jahon miqyosida eng faol tadqiq etilayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Gender sotsiologiyasi, davlat boshqaruvi, menejment psixologiyasi va iqtisodiyot fanlari kesishmasida olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar ayollar rahbarligining o‘ziga xos jihatlari, gender tengligi siyosatining samaradorligi hamda ayol liderlarning tashkilotga ta’sirini keng yoritgan.

Dunyo miqyosida Eagly, Carli, Rosener, Catalyst, McKinsey Global Institute kabi olimlar va ilmiy markazlarning ishlari bu mavzuning nazariy asoslarini shakllantirib, ayollar yetakchiligining transformatsion liderlik modeli bilan bog‘liqligini isbotlagan. Eagly va Carli (2007) “labirint modeli” orqali ayollarning rahbarlikka yo‘lida uchraydigan to‘siqlarni tizimli tushuntiradi, [7] Rosener (1990) esa ayol rahbarlarning ko‘proq hamkorlikka asoslangan, ishtirokchilikka yo‘naltirilgan liderlik uslubini qo‘llashini ta’kidlaydi. [8] McKinsey va Catalyst tashkilotlarining hisobotlari ayollarning boshqaruvdagi faolligi moliyaviy va ijtimoiy samaradorlikni oshirishini ko‘rsatadi. [9]

O‘zbekiston ilmiy maktabida gender masalalari, ayollar rahbarligi va ularning boshqaruv tizimidagi o‘rni XX asr oxiri va XXI asr boshidan boshlab faol o‘rganila boshladi.

Mazkur yo‘nalishning shakllanishida sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohasidagi olimlar muhim ilmiy hissa qo‘shgan.

O.E.Hayitov [5], D.I. Mukumova [4], D.A.Saliyeva [6] larning darslik va o’quv qo’llanmalarida, S.Olimova, M.Qodirova, N.Akbarova, F.Karimova, D.Mirzayevalarning ilmiy izlanishlarida O‘zbekiston jamiyatida gender rollarining o‘zgarishi, boshqaruvda gender tenglikni ta]minlash, ayollarning ijtimoiy faolligi va modernizatsiya jarayonidagi o‘rnini chuqur tahlil qiladi.

Ushbu tadqiqotlar ayol rahbarlarning boshqaruvdagi ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va siyosiy o‘rnini o‘rganish bo‘yicha ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ayollar rahbarligining o‘ziga xos jihatlari, gender tafovutlarining boshqaruv samaradorligiga ta’siri va ayol yetakchilar ustunliklarining ilmiy asoslarini aniqlash maqsadida nazariy-tahliliy, qiyosiy tahlil, empirik yondashuv, tizimli yondashuv, induktiv xulosa chiqarish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil natijalari. Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi.[3]

Gender - psixologik nuqtai nazardan shunday tushunchaki, uning yordamida odamlar “erkak va ayol” tushunchalarining mohiyatini yoritadi. Ma’lumki, “jins” tushunchasining o’zi biologik kategoriya bo’lgani uchun ham ijtimoiy psixologiya erkak va ayollar xislatlaridagi tafovutlarning biologik jihatdan bog’liqligini asoslashda bu terminni ishlatadi. Bugungi kunda ayollar:

-davlat boshqaruvida,

-tadbirkorlikda,

-xalqaro tashkilotlarda,

-ijtimoiy va ta’lim tizimida muvaffaqiyatli rahbarlik qilmoqda

Ularning boshqaruv jarayonida faol ishtirok etishi nafaqat gender tenglik siyosatining natijasi,balki ayollarda mavjud tabiiy psixologik ustunliklarning amalda o’z aksini topishidir.

Mamlakatimizda tadbirkorlik va davlat boshqaruvi sohasida ayollarga katta yo‘l ochilgan. Ammo, shunga qaramay, rahbar so‘zi ko‘pincha erkak jinsi bilan ifodalanadi va negadir, ayol rahbar idora etadigan sohalar, jumladan, maorif, sog‘liqni saqlash, aholiga xizmat ko‘rsatishdan nariga o‘tilmaydi. Haqiqatdan ham ayolning u yoki bu sohada boshqaruv lavozimini egallashi, ko‘p jihatdan, bu soha ayollarga mosmi yoki erkaklargami degan savolga bog‘liq bo‘lib qolgan. Bir qator tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, erkak va ayol aralash ishlaydigan jamoalarda ko‘pincha erkaklar tashabbusni o‘z qo‘llariga olishi kuzatilgan.

Boshqaruv amaliyotida va shuningdek, ba’zi bir adabiyotlarda, erkak rahbar faoliyati ayol rahbarnikiga nisbatan anchagina samarali degan tasavvur mavjud. Odatda, bunday fikrga quyidagi dalillar keltiriladi: erkak yorqin ifodalangan mantiqiy fikrlash xususiyatiga

ega emish, ayol esa ko‘pincha hissiyotga; erkak o‘z ishiga fidoyi desak, ayol qimmatli vaqtini oilaga sarflaydi. Chunonchi, erkak turli salbiy ta’sirlarga, stresslarga chidamli bo‘lsa, ayol murakkab vaziyatda hatto aqlini “yo‘qotib” qo‘yishi mumkin ekan. Ammo, hayot buning aksini ko‘rsatib turibdiki, ayni payt ishlab chiqarishni samarali boshqarayotgan ayollarni ko‘plab uchratish mumkin. Jinsiy tafovutlarni tahlil etishda samaradan ko‘ra boshqaruv uslubi haqida gapirsa, o‘rinliroq bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning boshqaruvdagi roli va gender tafovutlarining tashkilot faoliyatiga ta’siri ko‘p qirrali va murakkabdir. Ushbu bo‘limda natijalar uch asosiy yo‘nalish bo‘yicha tahlil qilinadi: ayol rahbarlarning kuchli tomonlari, gender tafovutlarining boshqaruvga ta’siri va ayol rahbarlarning tashkilot rivojiga qo‘shgan hissasi.

1-jadval

Ayol rahbarlarning boshqaruvdagi ustun jihatlari

Kuchli tomonlari	**Izoh / Ta’siri**
Transformatsion liderlik	Jamoa motivatsiyasi, innovatsiya va xodimlar rivoji
Kommunikativ kompetensiya	Muammolarni yumshatish, qarorlarni muhokama qilish
Empatiya va ijtimoiy mas’uliyat	Jamoaviy ruh va xodimlar qoniqishini oshirish
Analitik fikrlash va xolislik	Uzoq muddatli strategik qarorlar, tashkilot barqarorligi
Konfliktlarni boshqarish	Nizolarni kamaytirish, samarali jamoaviy ish

1. Ayol rahbarlarning kuchli tomonlari

Ayol rahbarlarning boshqaruvdagi ustun jihatlari bir nechta asosiy fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, ayollar transformatsion liderlik uslubini qo‘llashda yuqori natijalarga erishadi. Transformatsion liderlik jamoa a’zolarining motivatsiyasini oshirish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va xodimlarning shaxsiy rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ayol rahbarlar qaror qabul qilishda ijtimoiy mas’uliyat va empatiyani yuqori darajada namoyon qiladi, bu esa jamoa ichida ijobiy muhitni yaratadi.

Shuningdek, ayollar kommunikativ kompetensiyasi bilan ajralib turadi. Ular murakkab vaziyatlarda muammolarni yumshatish, xodimlarni tinglash va ularni umumiy maqsadga yo‘naltirish qobiliyatiga ega. Bunday yondashuv jamoaviy ish samaradorligini oshiradi, nizolarni tez hal qilishga yordam beradi va xodimlar motivatsiyasini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, ayol rahbarlar qaror qabul qilish jarayonida analitik fikrlash va xolislikni uyg‘un ravishda namoyon qiladi. Ularning qarorlari qisqa muddatli natijadan ko‘ra uzoq muddatli barqaror rivojlanishga qaratilgan bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar rahbarlik qilgan jamoalarda ishchi qoniqishi, xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va jamoaviy ruh yuqori bo‘ladi.

2. Gender tafovutlarining boshqaruvga ta’siri

Gender tafovutlari boshqaruv uslublarida aniq ko‘zga tashlanadi. Erkak rahbarlar ko‘pincha avtoritar yoki transaksion liderlik uslubini qo‘llasa, ayol rahbarlar ko‘proq

demokratik va hamkorlikka yo‘naltirilgan uslubni afzal ko‘radi. Bu farq nafaqat uslubiy, balki xodimlar bilan ishlash uslubida ham seziladi. Ayol rahbarlar jamoaning fikrini inobatga olib, qarorlarni muhokama qilgan holda qabul qiladi, bu esa xodimlarda mas’uliyat hissini oshiradi va tashkilot ichida ijobiy kommunikatsiya tizimini shakllantiradi.

Shu bilan birga, gender stereotiplari va “shisha shift” fenomeni ayollarning rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida aniqlangan. Ko‘plab tashkilotlarda ayollarning yuqori lavozimlarga erishishida ijtimoiy va madaniy cheklovlar mavjud. Bu esa o‘z navbatida tashkilotlarning innovatsion va strategik rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ham ko‘rsatadiki, gender tafovutlari ijobiy tomonga ham ta’sir qiladi. Ayol rahbarlarning demokratik uslubi va erkak rahbarlarning avtoritar yondashuvi birlashganda, jamoa ichida muvozanatli boshqaruv modeli shakllanadi. Bu tashkilotning barqarorligini oshiradi va qaror qabul qilish jarayonlarini samarali qiladi.

3. Ayol rahbarlarning tashkilot rivojiga ta’siri

Ayol rahbarlarning boshqaruvdagi faoliyati tashkilotning turli sohalariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayol rahbar bo‘lgan kompaniyalarda:

- Xodimlar qoniqishi va motivatsiyasi yuqori bo‘ladi;
- Innovatsion faoliyat va yangi g‘oyalarni amalga oshirish darajasi oshadi;
- Tashkilot madaniyati ochiq, inklyuziv va jamoaviy ruhga asoslangan bo‘ladi;
- Moliyaviy va strategik natijalar barqaror ravishda yaxshilanadi.

2-jadval

Gender tafovutlarining boshqaruv uslubiga ta’siri

Rahbarlik uslubi	Ayol rahbar (%)	Erkak rahbar (%)
Avtoritar	15%	45%
Demokratik / Hamkorlik	65%	35%
Transformatsion	50%	30%
Transaksion	20%	50%

Bundan tashqari, ayol rahbarlar jamoani boshqarishda psixologik jihatdan yumshoqlik va moslashuvchanlikni namoyon qiladi. Bu esa xodimlar o‘rtasida ishchi iqlimni mustahkamlaydi, mehnat unumdorligini oshiradi va tashkilot ichidagi nizolarni kamaytiradi.

3-jadval

Ayol rahbarlarning tashkilot rivojiga ta’siri

Ta’sir sohasi	Natija / Ko‘rsatkich
Xodimlar qoniqishi	Yuqori, ish samaradorligi oshadi
Innovatsion faoliyat	Yangiliklarni joriy qilish va ijodiy yondashuv kuchayadi
Tashkilot madaniyati	Ochik, inklyuziv, jamoaviy ruhga asoslangan

Moliyaviy natijalar	Barqaror o‘sish, strategik qarorlar samarali
Nizolarni boshqarish	Konfliktlar kamayadi, ish muhiti yaxshilanadi

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ayol rahbarlarning boshqaruvdagi ustun jihatlari faqat insoniy va psixologik omillarda emas, balki strategik va iqtisodiy natijalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, gender tafovutlarini hisobga olgan holda rahbarlarni tanlash va rivojlantirish tizimi tashkilotning barqaror va samarali faoliyatini ta’minlaydi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayol rahbarlar boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ularning transformatsion liderlik uslubi, kommunikativ salohiyati, empatiya va jamoaviy ruhni shakllantirish qobiliyati tashkilotlar uchun strategik ustunlik yaratadi. Gender tafovutlari boshqaruv uslublarida tabiiy ravishda namoyon bo‘lsa-da, ayollarning faol ishtiroki tashkilotning innovatsion va barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, ayol rahbarlarning tashkilot rivojidagi roli nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy va strategik jihatdan ham sezilarli ekanligi aniqlandi.

Ayol rahbarlarning strategik fikrlash, kommunikativlik, jamoani birlashtirish va empatik yetakchilik kabi fazilatlari tashkilot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Gender tafovutlari boshqaruv uslublarida tabiiy ravishda namoyon bo‘lsa-da, ayollarning faol ishtiroki boshqaruv tizimini barqaror va samarali qiladi.

Ayollarning jamiyatdagi rolini yanada oshirish va boshqaruvda gender tenglikni yanada ta’minlash maqsadida mentorluk dasturlari va treninglar orqali ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, gender tengligini qo‘llab-quvvatlovchi korporativ siyosat, adolatli ishga qabul va baholash mexanizmlarini joriy etish, inklyuziv boshqaruv modelini tashkilotlarda qo‘llash, mahalliy empirik tadqiqotlar orqali ayol rahbarlarning samaradorligini baholash maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6155-sonli Farmoyishi // https://lex.uz/docs/-3307879

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-5841063

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ-297-IV-sonli qarori // https://lex.uz/docs/-5466673

4. Mukumova, D.I., Fayzullaev, R.X., Jumanov, A.A., Yarova, S.B. / Boshqaruv psixologiyasi / O‘quv qo‘llanma. -T.: “TIQXMMI” MTU, 2023. - 232 bet.

5. Hayitov, O.E. H 19 Boshqaruv psixologiyasi [Matn]: darslik / O.E. Hayitov. - Toshkent: «Istiqlol» nashriyoti, 2021. - 236 b.

6. Saliyeva D.A. Boshqaruv psixologiyasi [Matn] / Darslik. —Toshkent. “Ilm va fan” nashriyoti, 2023. - 500 bet.

7. Eagly, A. H., & Carli, L. L. (2007). Through the Labyrinth: The Truth About How Women Become Leaders. Harvard Business Review Press.

8. Rosener, J. B. (1990). Ways women lead. Harvard Business Review, 68(6), 119–125.

9. Eagly, A. H., & Johnson, B. T. (1990). Gender and leadership style: A meta-analysis. Psychological Bulletin, 108(2), 233–256.

10. McKinsey & Company. (2023). Women in the Workplace Report. McKinsey Global Institute.

11. UN Women. (2022). Gender Equality and Women’s Empowerment: Global Report.

12. Nozima I. Maxatova. (2024) Zamonaviy menejmentda gender tafovutlarning ijtimoiy xususiyatlari. Oriental Conferences. 1 (1), 357-365. Doi: 10.24412/cl-36892-2024-46-357-365 // https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-menejmentda- gender-tafovutlarning-ijtimoiy-xususiyatlari

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

KIBERSTRESSNING AYOLLAR KARYERASIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Urganch innovatsion universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim va psixologiya” kafedrasi
o‘qituvchisi ***Axmedova Maysara Baxromovna***
gmail:axmedovamaysara904@gamil.com
ORCID: 0009-0005-5408-6896

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asrda raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida paydo bo‘lgan **kiberstress** hodisasining ayollar karyerasi rivojlanishiga ta’siri psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda kiberstressning asosiy sabablari — ish yukining ortishi, doimiy onlayn muloqot, texnologik ishonchsizlik va raqamli charchoq omillari o‘rganildi. Shuningdek, ayollarning ish va oilaviy majburiyatlarni uyg‘unlashtirishdagi qiyinchiliklari kiberstress darajasini kuchaytirishi aniqlangan. Maqolada ayollar karyerasi psixologiyasiga oid nazariy konsepsiyalar asosida raqamli stressning professional rivojlanish jarayonlariga ta’siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari kiberstressning ayollar ish unumdorligi, motivatsiyasi va psixologik barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatishi borasidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar karyerasi, psixologik xususiyatlar, kiberstress, raqamli stress, texnologik bosim, professional rivojlanish, psixologik barqarorlik, motivatsiya, ish-oila muvozanati, raqamli madaniyat.

KIRISH. Jahonda ayollar karyerasi rivojlanishining psixologik xususiyatlari dolzarb va murakkab masalalardan biri sifatida e’tiborga sazovor. XXI asrning tezkor ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlari ish faoliyati va professional rivojlanish jarayonlariga yangi talablar qo‘ymoqda. Ayniqsa, kiberstress hodisasi — ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetning keng qo‘llanilishi natijasida yuzaga keladigan psixologik zo‘riqishlar— ayollar karyerasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Kiberstress nafaqat ish unumdorligini kamaytiradi, balki shaxsiy motivatsiya, ishga bo‘lgan qiziqish, mehnat samaradorligi va professional o‘sish jarayonlariga ham salbiy ta’sir qiladi [1.45b]. Ayollar karyerasi psixologiyasi doirasida kiberstressni o‘rganish dolzarbdir, chunki global mehnat bozorida ayollar faoliyati tobora ko‘paymoqda va ular ko‘plab psixologik, ijtimoiy hamda texnologik qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Kiberstressning paydo bo‘lishi ko‘plab omillarga bog‘liq: ish yukining ortishi, onlayn muloqot vositalarining doimiy ishlatilishi, ish va oilaviy majburiyatlarni uyg‘unlashtirishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, kiberhujumlar va

ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq xavotirlar (Brown & Lee, 2020). Bu omillar ayollarning ishga bo‘lgan psixologik tayyorgarligi va professional rivojlanish strategiyalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi [2.66b]. Shuningdek, ijtimoiy va madaniy kontekst ham kiberstressga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo va O‘zbekiston sharoitida, xususan, ayollarning karyerasi ko‘pincha oilaviy majburiyatlar bilan bog‘liq qiyinchiliklar bilan birga kechadi. Bu esa kiberstressni yanada kuchaytiradi va ish faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Shu bilan birga, kiberstress bilan kurashish va uni kamaytirish strategiyalari psixologik barqarorlikni oshirish, ish unumdorligini saqlash va professional o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega (Johnson, 2023). Mavzuni o‘rganishning ilmiy ahamiyati shundaki, kiberstresning ayollar karyerasiga ta’sirini tahlil qilish orqali zamonaviy ish muhitida psixologik barqarorlikni saqlash, mehnat motivatsiyasini oshirish va samarali professional rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Shu bois, ushbu tadqiqot kiberstres va uning ayollarning karyera rivojlanishidagi psixologik xususiyatlariga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Bularga:

1.Kiberstress tushunchasi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish.

2. Ayollarning professional rivojlanishida kiberstressning o‘rnini aniqlash.

3. Kiberstress bilan kurashish strategiyalarini va ularning samaradorligini baholash.

4. O‘zbekiston sharoitida ayollar karyerasiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni o‘rganish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, kiberstress hodisasi aynan ayollar karyerasiga ta’siri nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilinadi, shu bilan birga, zamonaviy psixologik va ijtimoiy tadqiqotlar natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi. Amaliy ahamiyati esa shundaki, tadqiqot natijalari ish beruvchilar, psixologlar va karyera maslahatchilari tomonidan ish faoliyatini optimallashtirish va ayollar karyerasini qo‘llab-quvvatlashda qo‘llanilishi mumkin.

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODLAR

Kiberstres va ayollar karyerasi psixologiyasi masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda tobora ko‘proq o‘rganilmoqda. Kiberstres, texnostress, raqamli stress, onlayn charchoq kabi atamalar insonning raqamli muhitdagi psixologik holatini izohlash uchun qo‘llaniladi. Ushbu bo‘limda kiberstres nazariyasi, ayollar karyerasi psixologiyasiga doir tadqiqotlar va ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Kiberstress nazariy asoslari bo‘yicha Tarafdar, Cooper va Stich (2019) o‘z tadqiqotlarida “technostress trifecta” nazariyasini ilgari surib, texnologik stressning uch asosiy shaklini ko‘rsatib o‘tgan: techno-eustress, techno-distress va design-related stress. Ularning fikricha, texnologiyalar inson hayotini osonlashtirish bilan birga, psixologik yuklamalarni ham keltirib chiqaradi. Kiberstress insonning diqqatini tarqoqlashtiradi, ish unumdorligini pasaytiradi va emotsional charchoqka sabab bo‘ladi. Ragu-Nathan va Tarafdar (2015) kiberstressning asosiy sabablari sifatida axborot ortig‘i, doimiy texnologik yangiliklarga moslashish zarurati va onlayn aloqa orqali keladigan ijtimoiy bosimni keltiradilar. Ularning fikricha, raqamli muhitda ishlovchi shaxsning hissiy

barqarorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri texnologiyadan foydalanganlik darajasiga bog‘liqdir. Psixologik adabiyotlarda kiberstresning asosiy komponentlari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

1. Axborot yuklamasi (information overload) – ortiqcha ma’lumotlar oqimi inson miyasi uchun ortiqcha stress manbai bo‘ladi.

2. Texnologik ishonchsizlik (technological insecurity) – texnologiyadan foydalanishdagi qo‘rquv yoki o‘zini noqulay his etish holati.

3. Raqamli aloqa bosimi (communication overload) – doimiy onlayn mavjudlik talabi natijasida paydo bo‘ladigan ruhiy zo‘riqish.

4. Raqamli charchoq (digital fatigue) – texnologiyadan ortiqcha foydalanish tufayli paydo bo‘ladigan hissiy va fiziologik toliqish.

NATIJALAR

Shu o‘rinda, Fuchs (2021) o‘zining “Digital Labour and Karl Marx” asarida raqamli mehnatning psixologik oqibatlarini tahlil qilib, zamonaviy inson ongining axborot oqimlari ta’sirida “raqamli ekspluatatsiya”ga duch kelayotganini qayd etgan. Bu holat shaxsning o‘z hayotiga nisbatan nazorat hissini kamaytiradi va stressni kuchaytiradi. Ayollar karyerasi psixologiyasini o‘rganishda D. Super (1980), E. Ginzberg (1988) va M. Savickas (2002)larning nazariyalari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Super o‘zining “life-span, life-space” konsepsiyasida karyera inson hayotining turli bosqichlarida shaxsiy o‘sish jarayoni sifatida kechishini ko‘rsatadi. Ginzberg esa karyera rivojlanishini motivatsiya, qadriyatlar va ijtimoiy imkoniyatlar bilan bog‘laydi. Savickas (2002) “career construction theory” orqali insonning kasbiy hayoti o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda ayollar karyerasi psixologiyasi ko‘proq gender rollari, ijtimoiy stereotiplar va mehnat bozoridagi tengsizlik omillari bilan izohlanadi. O‘zbekiston sharoitida olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning kasbiy rivojlanishida psixologik moslashuv, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va o‘zini qadrlash muhim omillardir. U raqamli muhitda ayollarning stressga duch kelish darajasi yuqori ekanini, bu esa karyeraviy faollikka salbiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. Greenhaus va Beutell (2018) tomonidan ishlab chiqilgan “work-family conflict” modeli ayollar karyerasidagi stressning asosiy manbalaridan birini tushuntiradi. Ularning fikricha, ish va oila o‘rtasidagi rollar to‘qnashuvi ayollarda emotsional charchoq va motivatsiya pasayishiga olib keladi [7.42b]. Raqamli texnologiyalar esa bu muvozanatni yanada murakkablashtirib, kiberstressni kuchaytiradi. Kiberstress va ayollar karyerasi o‘rtasidagi aloqani o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli stress ayollarning kasbiy faoliyatini bevosita va bilvosita yo‘llar bilan ta’sir qiladi. Tarafdar (2020)ning empirik tadqiqotlariga ko‘ra, kiberstress darajasi yuqori bo‘lgan xodimlarda ishdagi motivatsiya past bo‘ladi, qaror qabul qilish jarayoni sekinlashadi, ijodiy fikrlash susayadi. Bu holat ayniqsa ayollarda ko‘proq uchraydi, chunki ular bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy rolni bajaradilar. Bundan tashqari raqamli davrda stress va moslashuv mexanizmlarini o‘rgangan tadqiqotida ayollar orasida texnologik

stressga qarshi psixologik himoya mexanizmlari yetarlicha shakllanmaganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, psixologik tayyorgarlik, raqamli madaniyat va hissiy barqarorlik darajasi ayollarning kiberstresga bardoshliligini belgilovchi asosiy omillardir. UNESCO (2023) hisobotida ham ayollar raqamli iqtisodiyotdagi o‘rni kengayib borayotgani, biroq ular hali ham raqamli asrda kiberstress va psixologik toliqish xavfiga duch kelayotgani qayd etilgan. Bu holat ularning karyeraviy o‘sish imkoniyatlarini cheklab, ish unumdorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotda kiberstressning ayollarning karyera rivojlanishiga psixologik ta’siri kompleks tarzda o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ish muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanilishi va internet bilan bog‘liq faoliyatning ortishi ayollar psixologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kiberstressning asosiy belgilariga doimiy charchoq, ishga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishi, psixologik zo‘riqish va shaxsiy hayotdagi noaniqliklar kiradi [1.54b; 2.78b]. Bu esa professional faoliyatning samaradorligini kamaytiradi va karyera rivojlanishida to‘siq hosil qiladi (Smith, 2021; Wang, 2022). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kiberstress bilan yuzaga keladigan psixologik muammolar asosan quyidagi omillar bilan bog‘liq: ish yukining ortishi, onlayn muloqot vositalaridan doimiy foydalanish, ish va oilaviy majburiyatlarni uyg‘unlashtirishdagi qiyinchiliklar, shuningdek, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq xavotirlar. Ushbu omillar ayollarning ishga bo‘lgan psixologik tayyorgarligiga, professional rivojlanish strategiyalariga va shaxsiy hayot sifati va barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy kontekst ham kiberstresning ta’sirini kuchaytiradi, xususan, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston sharoitida ayollarning karyerasi ko‘pincha oilaviy va ijtimoiy majburiyatlar bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch keladi. Kiberstressning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun ayollarga psixologik barqarorlikni oshirish, stressni boshqarish texnikalarini qo‘llash va ish faoliyatini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kiberstress bilan kurashish strategiyalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin: ish va shaxsiy hayotni uyg‘unlashtirish, vaqtni samarali boshqarish, texnologik vositalardan foydalanishni tartibga solish, psixologik qo‘llab-quvvatlash va motivatsion treninglar orqali stressni kamaytirish. Shuningdek, ish beruvchilar va karyera maslahatchilari uchun ham tavsiyalar ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, tashkilotlarda kiberstresni kamaytirish bo‘yicha strategiyalarni joriy etish, masofaviy va oflayn ish tartibini moslashtirish, psixologik maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, professional rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish va ish yukini teng taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat ayollar, balki butun ishchi jamoaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, kiberstress hodisasi aynan ayollar karyerasiga ta’siri nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilindi, zamonaviy psixologik tadqiqotlar va empirik ma’lumotlar asosida tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu kiberstress bilan bog‘liq

psixologik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar zanjirida muhim bosqichni tashkil etadi.

XULOSA

Kiberstresning ayollarning professional rivojlanishidagi ta’siri nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham muhimdir. Ayollar ish faoliyatida barqaror psixologik holatni saqlay olmasa, bu ish unumdorligi va tashkilotning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, kiberstresni kamaytirishga qaratilgan strategiyalarni tadqiq etish va joriy etish ayni paytda dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida, xususan, ayollarning karyera rivojlanishida kiberstressning salbiy ta’siri yanada sezilarli bo‘lib, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ijtimoiy va psixologik choralarni kuchaytirish zarur. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari mamlakatdagi ayollarning professional rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, kiberstress hodisasi zamonaviy ish muhitida ayollarning professional rivojlanishiga ta’sir qiluvchi dolzarb psixologik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kiberstress bilan kurashish va uni kamaytirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish nafaqat shaxsiy barqarorlikni oshirish, balki ayollarning karyera rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va professional muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli, ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi va amaliy tavsiyalar joriy etilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Tarafdar, M., Cooper, C., & Stich, J. (2019). The technostress trifecta: Techno-eustress, techno-distress and design-related stress. Journal of Organizational Behavior.

2.Ragu-Nathan, T. S., & Tarafdar, M. (2015). The consequences of technostress for end users in organizations. Information Systems Research.

3.Fuchs, C. (2021). Digital Labour and Karl Marx. Routledge.

4.Super, D. E. (1980). A life-span, life-space approach to career development. Journal of Vocational Behavior.

5.Ginzberg, E. (1988). Toward a theory of occupational choice: A restatement. Vocational Guidance Quarterly.

6.Savickas, M. L. (2002). Career construction: A developmental theory of vocational behavior. In D. Brown (Ed.), Career Choice and Development.

7.Greenhaus, J. H., & Beutell, N. J. (2018). Sources of conflict between work and family roles. Academy of Management Review.

8.Johnson, P. (2023). Resilience and career growth among women in digital professions. Psychology Today.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

PSIXOLOGIK BARQARORLIK – TALABA SHAXSINING SALOMATLIGI VA MOSLASHUVINING ASOSIY SHARTI SIFATIDA

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent ***V.Y.Axrorov***
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika institute
voris1983@mail.ru

Annotasiya. Maqolada psixologik barqarorlikning talaba shaxsining salomatligi va ijtimoiy-hissiy moslashuvidagi ahamiyati o‘rganilgan. Psixologik barqarorlikning asosiy komponentlari, individual xususiyatlar va tashqi ta’sirlar talabalarning stressga moslashishi va o‘qish jarayonida samarali faoliyat ko‘rsatishiga qanday ta’sir qilishini tahlil qilish ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari psixologik barqarorlikni rivojlantirish orqali talabalarning umumiy salomatligini saqlash imkoniyatlari haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Psixologik barqarorlik, talabalar, salomatlik, moslashuv, stressga moslashish

Аннотация. В статье изучается значение психологической устойчивости для здоровья и социально-эмоциональной адаптации студентов. Проанализированы основные компоненты психологической устойчивости, индивидуальные особенности и внешние влияния, влияющие на адаптацию студентов к стрессу и их успешную учебную деятельность. Результаты исследования предоставляют информацию о возможностях сохранения общего здоровья студентов через развитие психологической устойчивости.

Ключевые слова: Психологическая устойчивость, студенты, здоровье, адаптация, стрессовая адаптация

Abstract. The article examines the importance of psychological resilience for students’ health and socio-emotional adaptation. The main components of psychological resilience, individual characteristics, and external influences affecting students’ stress adaptation and effective learning are analyzed. The research results provide insights into maintaining students’ overall health through the development of psychological resilience.

Keywords: Psychological resilience, students, health, adaptation, stress adaptation

Kirish. Yangi O‘zbekistonda so‘ngi yillarda olib borilayotgan islohotlar tufayli «...yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish hisobidan xalqimizning farovonligini

oshirish va kundalik hayotidagi muammolarni hal etish» [1] ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlarining me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Shu maqsadda «...psixologik salomatlikni keng targ‘ib etishga va psixik salomatlik bilim va ko‘nikmalarini yoshlar va kattalarda shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy, amaliy, ilmiy va fundamental loyihalar ta’sis etish» [2] masalasi ustuvor vazifalar etib belgilanganligi, oliy ta’lim muassasalari talabalari psixologik salomatligini ta’minlashning psixologik-pedagogik omillarini aniqlash, psixologik salomatlikni qadriyat sifatida shakllantirish texnologiyalarini joriy etish yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishni talab etmoqda.

Talabalarni oliy ta’lim muhitiga moslashtirish jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlashning tarkibiy qismlari sifatida inqiroz va stressli vaziyatlarni oldini olish, ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, ziddiyatli, murakkab hayotiy vaziyatda psixologik yordam ko‘rsatish, o‘quv ko‘nikmalarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasasida o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘z-o‘zini tashkil etish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha trening mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish namoyon bo‘ladi. Talabalarning shaxsiy va kasbiy shakllanishi jarayonida ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash, ularda tashabbuskorlik, shaxsiy va kasbiy pozisiyani, kasbiy o‘zini namoyon qilish, hayotiy maqsadlarni belgilash, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutish lozim [3].

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Talabalarning yosh davri «psixik jarayon va holatlari shaxs xususiyatlarini belgilovchi – psixologik; ijtimoiy munosabat va sifatlar muayyan ijtimoiy guruhga tegishlilik bilan belgilanuvchi – sosial; sosium ta’siri ostida ma’lum bir miqdorda o‘zgarishi mumkin bo‘lgan irsiylik va tug‘ma layoqat – biologik jihatlar bilan» [4] tavsiflanishi mumkin. Ma’lumki, bu o‘rinda o‘zining namoyon bo‘lishida sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilgan psixologik ma’lumot shaxsning salomatlikka bo‘lgan munosabatining o‘ziga xosligini belgilaydi. L.S.Vigotskiy ta’kidlaganidek, «har bir yosh bosqichida uning dinamik ruhiy rivojlanishiga mos keluvchi sifat jihatdan yangi psixologik ma’lumot o‘z ifodasini topgan maxsus ichki jarayonlar va tashqi shart-sharoitlar mavjud bo‘ladi» [5].

Shu o‘rinda talabalik davri inson hayotidagi alohida, o‘ziga xos davr sifatida belgilanib, «... umumiy mazmuni va asosiy qonunlarga ko‘ra, 18 dan 25 yoshgacha bo‘lgan davr, bolalik rivojlanishi davrlari zanjiridagi oxirgisidan ko‘ra, yetuklik davri zanjiridagi dastlabki halqani tashkil etadi» [6]. O‘smirlik yoshidan o‘spirinlik davriga o‘tar ekan shaxs bu davrdan haqiqiy yetuklikka tomon ilk qadamini qo‘yadi, o‘z taqdirini belgilaydi.

Talabalik davri shaxsning aqliy qobiliyatlari rivojlanishining muhim va takrorlanmas bosqichi hisoblanadi. Bunda nazariy fikrlash, mavhumlashtirish, umumlashtirish qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi, anglash, bilish imkoniyatlarida sifatiy o‘zgarishlar yuz beradi. Ushbu davrda qobiliyatlarning rivojlanishi ijodkorlikning yuzaga kelishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bunda ma’lumotlar oddiygina qabul qilinib qolmasdan, uning asosida qandaydir yangilikni ijod etish namoyon bo‘ladi.

I.A. Zimnyayaning fikriga ko‘ra, talabalik «oliy ta’lim muassasasi tomonidan tashkiliy jihatdan birlashtirilgan odamlarning o‘ziga xos jamoasi» sifatida kelajakdagi kasbga barqaror munosabatning shakllanganligi, kasbiy yo‘nalganligi bilan tavsiflanib [7], u «kelajakka, hayotiy rejalar va istiqbollarni qurishga yuz tutgan hayotning «ta’sirchan markazi» sifatida» belgilanishi mumkin. Bu davrda talabalar uchun yangicha psixologik mazmun sifatida «o‘z-o‘zini tasdiqlash istagi, shaxsiy hayotning paydo bo‘lishi, boshqa odamlarning his-tuyg‘ulari va tajribalariga katta qiziqish, o‘z-o‘zini anglash («Men-konsepsiyasi»), formal-mantiqiy tafakkur, refleksiya» [8] namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarga nisbatan ijtimoiy yetuklik pozisiyasining qo‘llanilishi, ular tomonidan o‘zini faoliyat subyekti, ijtimoiy qadriyatlar tizimining tashuvchisi sifatida anglash nuqtai nazaridan ularda refleksiya belgilarining rivojlanishini nazarda tutadi. O.V.Lebedeva va N.V.Fomina tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotning ko‘rsatishicha, «O‘spirinlik yoshidagi respondentlar salomatlik xususiyatlari va unga ta’sir qiluvchi asosiy omillar haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lgan holda, bu haqda hissiy darajada kam tashvishlanadilar, sog‘lig‘ini odatdagidek qabul qiladilar. Ular har doim ham o‘z sog‘lig‘ini saqlash uchun yaxshi g‘amxo‘rlik qilmaydilar, biroq jismoniy mashqlar, o‘z tana qiyofasini mustahkamlash, jismoniy kuchni oshirish uchun ko‘p kuch sarflaydilar» [9]. Mazkur empirik tadqiqot jarayonida Nijniy Novgorod shahridagi turli oliy ta’lim muassasalarining 21-22 yoshdagi kunduzgi ta’limning 50 nafar talabalari ham ishtirok etishgan bo‘lib, «sog‘lom inson» tushunchasi ostida talabalarning 80% «chekmaydigan, sport bilan shug‘ullanuvchi, faol turmush tarzini olib boruvchi shaxs»ni tasvirlashib, ularning aksariyati (70%) ushbu tushunchani ma’lum bir harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘lashgan bo‘lsa, ularning 30%gina sog‘lom va nosog‘lom odamga xos bo‘lgan turli emosional holatlarni belgilab o‘tishgan. Shu bilan birga talabalar guruhida o‘z salomatligi haqida qayg‘urish va mas’uliyat darajasining past darajasi namoyon bo‘lgan [9]. Bu kontekstda o‘spirinlik inson psixikasi shakllanishining boshqa yosh bosqichlariga nisbatan mutlaqo o‘ziga xos hodisani aks ettiradi.

Oliy ta’lim muassasasiga qabul qilinishi talabaga o‘z kuch va qobiliyatiga ishonch, to‘laqonli yorqin hayotga umid hissini uyg‘otadi. Ma’lumki oliy ta’lim muassasasida birinchi kursdagi ta’lim jarayoni eng murakkab hisoblanadi. Chunki talabaning o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tizimi jarayonidagi tashkiliy jihatdan farq qiluvchi oliy ta’lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya qilishiga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim tizimidagi hamda oliy ta’lim tizimi talablari o‘rtasidagi moslashuv jarayoni masalasi yuzaga keladi. Ayni paytda talabalarning psixologik salomatligini ta’minlash samaradorligi zamonaviy moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanganlikdan ko‘ra, undagi mavjud psixologik-pedagogik muhit, professor-o‘qituvchilar va kursdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasasida talabalarning psixologik salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri mazkur muassasadagi ta’lim muhitining holati hisoblanadi. Bu masala

bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, mamlakatimiz olimlari M.X.Karamyan va R.R.Fayziyev ta’kidlaganidek, respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalari tizimidagi uzluksiz ta’limni shaxsning o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini anglash usullarini shakllantirish yoki shaxsiy kompetensiyalarini namoyon qilishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan vazifalari 18 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan davr – o‘spirinlik davriga to‘g‘ri kelib, shu munosabat bilan talabalarning ta’lim muhiti va o‘quv jarayoniga moslashuvining o‘ziga xos xususiyatlari, optimalligi ularning ijtimoiy-psixologik farovonlik darajasida ifodalanadi [3].

Tadqiqotchi I.R. Shagina ta’lim jarayonining 17-25 yosh oralig‘ida bo‘lgan talabalar salomatligiga ta’siri masalasini tadqiq etar ekan, oliy ta’lim muassasasida talabalarning jismoniy, ruhiy va emosional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator omillar mavjudligini qayd etib o‘tadi. Tadqiqotchi bunday ta’sir ayniqsa, ta’limning ilk davrida (1-kursda) kuchli namoyon bo‘lishi, psixologik yuklamaning o‘sishi, muhitning o‘zgarishi ostida stressli holatlarning zo‘rayishiga olib kelishini ta’kidlaydi. O‘z tadqiqotlari natijasiga tayangan holda u bunday omillar sifatida axborotning ko‘pligi sharoitida o‘quv yuklamasining norasional rejalashtirilishi, eski o‘quv dasturlari doirasida yangi fanlarning joriy etilishi, vaqt yetishmovchiligi kabilarni keltirib, bular o‘z navbatida talabalar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatib o‘tadi [10].

Demak, bundan kelib chiqib qayd etish mumkinki, talabalarning ta’lim muhitidan qoniqish darajasi ularning psixologik salomatligiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Talabalarning psixologik salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ta’lim jarayoni bilan bog‘liq omillar sifatida esa, ularning professor-o‘qituvchilar hamda kursdoshlari bilan o‘zaro munosabatlari, shaxsiy muammo va qiyinchiliklari bilan yolg‘iz qoldirmaslik, muammo va qiyinchiliklar yuzasidan bildirgan iltimos va takliflarga diqqatlilik, tashabbus va faollik ko‘rsatishlari uchun imkoniyat yaratilishi, ta’lim muassasasi rahbariyati va ustozlari, kursdoshlari tomonidan ularning qadr-qimmatining saqlanishi, zarur hollarda yordam ko‘rsatilishiga ishonch, shaxsiga nisbatan hurmat ko‘rsatilishi, ta’lim muhitidagi emosional qulaylik, ta’lim olish jarayonida tashkiliy va uslubiy masalalarda ularning fikrlarining e’tiborga olinishi, qaror qabul qilishlarida yordam ko‘rsatilishi kabilarni qayd etish mumkin [11].

Tahlil va natijalar. Mazkur omillarning namoyon bo‘lishi «Oliy ta’lim muassasasi talabalarining ta’lim muhitidan qoniqish darajasini o‘rganish anketasi» asosida o‘rganildi. Bunda anketa so‘rovining natijalari tahlili tanlov guruhi bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar hamda ta’lim muhitidan qoniqish mezonlari ko‘rsatkichlari asosida amalga oshirildi.

Bunda anketa natijalari quyidagi baholash mezonlari bo‘yicha (0 dan 0,83 balgacha – qanoatlanishning past darajasi; 0,84 baldan 1,60 balgacha – qanoatlanishning o‘rta darajasi; 1,61 baldan 2,38 balgacha – qanoatlanishning o‘rtadan yuqori darajasi; 2,39 baldan 3,0 balgacha – qanoatlanishning yuqori darajasi) ko‘rib chiqildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Oliy ta’lim muassasasi ta’lim muhitidan qanoatlanishning umumiy darajasi ko‘rsatkichi (n-420)

Qanoatlanishni baholash mezonlari	Tanlov guruhi	
	soni	foizi
Yuqori daraja	74	17,6
O‘rtadan yuqori daraja	88	21,0
O‘rta daraja	253	60,2
Past daraja	5	1,2
Jami	420	100

Xususan, tanlov guruhi bo‘yicha ta’lim muhitidan qanoatlanishning umumiy darajasi tahlili anketa so‘rovida ishtirok etgan talabalarning 17,6 %ni «yuqori darajada», 21%ni «o‘rtadan yuqori darajada», 60,2%ni «o‘rta darajada», 1,2%ni esa «past darajada» qanoatlantirishini ko‘rsatdi. Natijalardan ko‘rinib turganidek, anketa so‘rovida ishtirok etgan talabalarning aksariyati o‘zlari ta’lim olayotgan muassasasidagi ta’lim muhitidan o‘rtacha darajada («o‘rtacha darajada yoki qisman») qoniqishlarini namoyon qilishgan.

Anketa natijalarini uning tarkibiga kiritilgan indikatorlar (savollar) o‘rtacha qiymatlari ko‘rsatkichlari kesimidagi tahlili asosida ularni ranjirlashtirish (o‘rtacha ballarni yuqoridan pastga qarab ketma-ketlikda tartiblashtirish) amalga oshirildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Oliy ta’lim muassasasi ta’lim muhitidan qanoatlanish darajasi ko‘rsatkichi (ball o‘rtacha qiymati hisobida, n-420)

Tavsiflar	O‘lchov birliklari		
	o‘rtacha qiymat	qanoatlanish darajasi	o‘rin
1) professor-o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabat	1,47	o‘rta	I
2) kursdoshlar bilan o‘zaro munosabat	1,39	o‘rta	II
3) iltimos va takliflarga diqqatlilik	1,33	o‘rta	III
4) o‘z qadr-qimmatini saqlay bilish	1,25	o‘rta	IV
5) emosional qulaylik	1,24	o‘rta	V
6) o‘ziga nisbatan hurmatda bo‘lish	1,23	o‘rta	VI
7) yordam olishga bo‘lgan imkoniyat	1,22	o‘rta	VII
8) o‘z nuqtai nazarini bayon qilish imkoniyati	1,18	o‘rta	VIII
9) tashabbus ko‘rsatish imkoniyati, faollik	1,15	o‘rta	IX
10) shaxsiy muammo va qiyinchiliklarni hisobga olish	1,00	o‘rta	X
11) o‘z qarorini tanlashga yordamlashish	1,00	o‘rta	X

Natijalarning tanlov guruhi bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar asosidagi tahlili talabalarning ta’lim muhitidan qoniqish darajasi baholash mezonining «o‘rta daraja»si («o‘rtacha darajada qoniqaman», «qisman qoniqaman»)da (0,84 baldan 1,60 ball oralig‘ida) ekanligini ko‘rsatdi. Anketa indikator (savol)larining o‘rtacha ballarini yuqoridan pastga qarab (muhimligiga

ko‘ra) ketma-ketlikda tartiblashtirish natijasida o‘rtacha qiymatlar ahamiyatliligiga ko‘ra: «professor-o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabat» – I-o‘rin; «kursdoshlar bilan o‘zaro munosabat» – II-o‘rin; «iltimos va takliflarga diqqatlilik» – III-o‘rin; «o‘z qadr-qimmatini saqlay bilish» – IV-o‘rin, «emosional qulaylik» – V-o‘rin, «o‘ziga nisbatan hurmatda bo‘lish» – VI-o‘rin; «yordam olishga bo‘lgan imkoniyat» – VII-o‘rin, «o‘z nuqtai nazarini bayon qilish imkoniyati» – VIII-o‘rin, «tashabbus ko‘rsatish imkoniyati, faollik» – IX-o‘rin, «shaxsiy muammo va qiyinchiliklarni hisobga olish» va «o‘z qarorini tanlashga yordamlashish» – har biri X-o‘rinda joy oldi. Oliy ta’lim muassasalari ta’lim muhitidan qanoatlanish darajasini o‘rganish natijalarining o‘rtacha qiymatlar ko‘rsatkichi doirasida tartiblashtirilishi ta’lim muhitining ishtirokchilaridan aksariyati ta’lim muhitidan yetarlicha qoniqmasliklarini ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim muhitining o‘rganilgan indikatorlari ta’sirida talabalarning ta’lim motivasiyasining susayishi, o‘z-o‘zini baholashi, o‘zini namoyon qilishi, o‘qish jarayonida xavotirlanish, muvaffaqiyat qozonishga ehtiyoj frustrasiyasining yuzaga kelishi, stressli holatlarining paydo bo‘lishi ehtimolini oshirishi mumkin.

Talabalarning emosional turg‘unlik (barqarorlik) – emosional noturg‘unlik (neyrotizm, beqarorlik) darajasi G. Ayzenkning «Shaxs so‘rovnomasi (EPI)»ning «neyrotizm» shkalasi asosida amalga oshirildi. Ma’lumki, hozirgi kunda neyrotizm atamasi ostida salbiy emosiyalarning, jumladan g‘azab, tortinchoqlik, jizzakilik, emosional noturg‘unlik va depressiyaning boshdan kechirilishi nazarda tutilmoqda. Neyrotizm darajasi yuqori bo‘lgan insonning atrof-muhitning stressogen ta’siriga mos javob qaytara olmasligi, oddiy vaziyatlarni o‘z shaxsiga nisbatan tahdid sifatida talqin qilishi va mayda umidsizliklarni ham yengib bo‘lmasdek boshdan kechirishi ta’kidlab kelinmoqda [12].

Metodika bo‘yicha chastotali tahlil natijasida olingan ma’lumotlar tanlov guruhi (n-420) talabalarning 20,5% emosional noturg‘unlikning yuqori, 62,4% o‘rta va 17,1% quyi darajasini namoyon qilishgan. Bunda tajriba va nazorat guruhlarining ko‘rsatkichlari o‘rtasida ahamiyatli farqlanish mavjud emasligini (quyi daraja – TG-17%, NG-17,2%; o‘rta daraja – TG-63,6%, NG-61,1%; yuqori daraja – TG-19,4%, NG-21,7%) ko‘rish mumkin (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Talabalarida emosional barqarorlik–beqarorlik (neyrotizm) xususiyatining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichi

Tanlov guruhi	Quyi darajasi		O‘rta darajasi		Yuqori darajasi	
	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
1) Neyrotizm shkalasi (N)						
TG (n-217)	37	17	138	63,6	42	19,4
NG (n-203)	35	17,2	124	61,1	44	21,7

Jami (n-420)	72	17,1	262	62,4	86	20,5

Talabalar emosional holatini tadqiq etish ularning har beshtasidan birida (20,5%) emosional noturg‘unlikning yuqori darajasi namoyon bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu esa, bunday talabalarning shart-sharoitlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkinligi, ularda bezovtalik, stress, muvozanatdan chiqish holati sodir bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida salbiy oqibatlarni, turli ko‘rinishdagi psixosomatik muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Talabalarning emosional barqarorligi – beqarorligi (neyrotizm)ning tahlili, ba’zi talabalarda ichki noxush emosional holatning mavjudligi, ularda psixologik salomatlik darajasining pastlashuviga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Yu.I. Rodin rahbarligida 2015-2017-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotda ham unda ishtirok etgan har beshinchi talabada faollik, o‘z-o‘zini his qilish, kayfiyatning noqulay darajasi, stressga chidamlilikning chegaraviy va past darajasi, qarshilik ko‘rsatish darajasida hissiy charchash belgilarining paydo bo‘lishi va har o‘ninchi talabada haddan tashqari asab-psixik zo‘riqish aniqlangan [13].

N.Z.Ismoilova tomonidan talabalardagi stressga barqarorlik muammosiga bag‘ishlangan tadqiqoti natijalari ham bizning ma’lumotlarimizga mos keladi. Unda 1-kursdagi 29,1% va 3-kursdagi 21,1% talabalarda stressga barqarorlikning past darajasi kuzatilgani, respondentlar umumiy sonidan 25,2%ida stressga barqarorlik past ekanligi hamda bu ularda stressli vaziyatlardan chiqib ketish ko‘nikmasining mavjud emasligi natijasida stressga berilib qolishlari va o‘quv faoliyati jarayonida sust natijalarni ko‘rsatishlari ta’kidlanib, talabalik davrida o‘ziga xos stressogen vaziyatlar mavjudligi va bu vaziyatlar ayrim talabalarning stress holatiga tushishiga asosiy omil bo‘lib qolayotganligi qayd etilgan [14]. Bunday holatlar asta-sekin talabalar ta’lim faoliyatining subyektiv ahamiyati pasayishi, stressga qarshilik ko‘rsatish, muammolarni konstruktiv hal qilish qobiliyatining cheklanishi, xavotirlanish va asossiz qo‘rquv hissi paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin bo‘lib, ushbu fikrlarning asosli ekanligi biz tomonimizdan qo‘llanilgan G. Ayzenkning «Shaxs so‘rovnomasi (EPI)»ning «neyrotizm» shkalasi hamda «Oliy ta’lim muassasasi talabalarining ta’lim muhitidan qoniqish darajasini o‘rganish anketasi» asosida olingan natijalar ham tasdiqlaydi. V.G. Ananyev ta’kidlaganidek, «Insonning psixologik barqarorligi – bu hayotiy qiyinchiliklarga, noqulay vaziyatlarning bosimiga dosh berish, turli xil sinovlar sharoitida salomatligini va ishchanlik qobiliyatini saqlash bo‘lib, bunda to‘g‘ri strategiyani tanlash va qiyin hayotiy vaziyatlarni yengish muvaffaqiyati ko‘p jihatdan insonning o‘zi bilan sodir bo‘layotgan voqyealar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga moyilligiga bog‘liq bo‘ladi» [15].

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari talabalarning aksariyati ta’lim muhitidan yetarlicha qoniqmasliklarini ko‘rsatib, bu o‘z navbatida o‘rganilgan indikatorlar ta’sirida talabalarning ta’lim motivasiyasining susayishi, o‘z-o‘zini baholashi, o‘zini namoyon qilishi, o‘qish jarayonida xavotirlanish, stressli holatlarining paydo bo‘lishi ehtimolini oshirishi

mumkin. Talabalar emosional holatini tadqiq etish ularning har beshtasidan birida (20,5%) emosional noturg‘unlik (beqarorlik)ning yuqori darajasi namoyon bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu esa, bunday talabalarning shart-sharoitlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishlari, ularda bezovtalik, stress, muvozanatdan chiqish holati sodir bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ta’lim muhitida xavotirlanish ko‘rinishidagi muammolarga ega bo‘lgan talabalarda stressga fiziologik qarshilik ko‘rsatishga ojizlik ko‘rinishidagi emosional holati namoyon bo‘lib, uning ta’sirida ijtimoiy aloqalar ijobiy yoki salbiy ko‘rinishda rivojlanib, ularda atrofdagilar umidlariga mos kelmaslikdan qo‘rqish, ya’ni baholari haqida xavotirlanishning namoyon bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishdan qo‘rqish, stressga qarshilik ko‘rsatishga ojizlik, stressogen vaziyatlarga moslashuvchanlikni pasaytiruvchi, muhitning xavotirli omillariga noadekvat, destruktiv javob qaytarish ehtimolini oshiruvchi o‘ziga xos xususiyatning namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining ta’lim jarayoni murakkab davr hisoblanib, bunda o‘rta maxsus-professional hamda oliy ta’lim tizimi o‘rtasidagi moslashuv jarayoni muammosi yuzaga kelib, talabalarning psixologik salomatligini ta’minlash samaradorligi zamonaviy moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanganlikdan ko‘ra, undagi ijtimoiy, psixologik-pedagogik muhit, professor-o‘qituvchilar va kursdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar kabi omillarga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda olingan tadqiqot natijalari asosida bir nechta amaliy tavsiyalarni taklif etish mumkin:

- ✓ oliy ta’limning barcha bosqichlarida talabalar xulq-atvori va faoliyatini ongli ravishda tartibga solish ko‘nikmalarini maqsadli va izchil rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik ma’rifat tamoyiliga asoslangan mexanizmni joriy etish.
- ✓ oliy ta’lim muassasalari talabalarining ta’lim muhitiga samarali moslashuvini ta’minlashga qaratilgan psixologik treninglarni dastlabki o‘quv yillaridan boshlab o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.
- ✓ oliy ta’lim muassasalari ta’lim muhitini talabalarning ehtiyojlari, maqsadlari hamda qadriyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish.
- ✓ oliy ta’lim muassasasidagi psixologik xizmat faoliyatining uzluksizligi va tizimliligini ta’minlovchi vertikal boshqaruv tamoyilini joriy etish uchun uni muvofiqlashtiruvchi va ilmiy-metodik ta’minotini amalga oshiruvchi markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish.
- ✓ xorijiy mamlakatlar hamda respublikamizdagi psixologik xizmatni tashkillashtirishning nazariy hamda amaliy tajribasini inobatga olgan holda oliy ta’lim muassasalaridagi psixologlar sonini talabalar soniga mutanosib ravishda bo‘lishini ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-6155-son Farmon. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.02.2021 y., 06/21/6155/0082-son;

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 472-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 8 iyun.

3. Карамян М.Х., Файзиев Р.Р. Психосоциальное благополучие студентов как объект мониторинга в системе непрерывного образования // Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari = Perspectives of higher education development = Перспективы развития высшего образования: To‘plam №3/ Ma’sul muharrir M.A. Rahmatullayev. Издательство: Vita Color – T.: 2015. – C. 93-103.

4. Буланова-Топоркова М.В. Педагогика и психология высшей школы: учеб. пособ. / М.В. Буланова-Топоркова. – 3-е изд. – Ростов н/Д: Феникс, 2006. – 544 с.

5. Выготский Л.С. Проблемы развития психики / Л.С. Выготский. Собр. соч.: в 6 т. – М., 1982. – Т.3. – М., 1983.

6. Выготский Л.С. Детская психология / Л.С. Выготский. Собр. соч.: в 6 т. – М.: Педагогика, 1984. – Т.4. – 432 с.

7. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учеб. для вузов / И.А. Зимняя. – Москва: Педагогика, 2005. – 384 с.

8. Шаповаленко И.В. Возрастная психология / И.В. Шаповаленко. – М.: Педагогика, 2004. – 349 с.

9. Лебедева О.В., Фомина Н.В. Отношение к соматическому здоровью как показатель развития психологического здоровья личности (на материале изучения различных возрастных групп испытуемых) // Вестник Нижегородского университета. – 2014. № 4 (36). – С. 150-158.

10. Шагина И.Р. Влияние учебного процесса на здоровье студентов / Астраханский медицинский журнал, 2010. №3(5). – URL:https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-uchebnogo-protsessa-na-zdorovie-studentov

11. Обеспечение психологической безопасности в образовательном учреждении / Под ред. И.А. Баевой. – СПб.: Речь, 2006. – 288 с.

12. Thomas A. Widiger, Joshua R. Oltmanns. Neuroticism is a fundamental domain of personality with enormous public health implications. World Psychiatry. 2017 Jun; 16 (2): – P. 144–145. Published online 2017 May 12. doi: 10.1002/wps.2041.

13. Родин Ю.И. Метелкина Д.С., Мишина А.В. Психологическое здоровье студентов младших курсов педагогического вуза // Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. – 2018. – Т. 7. – № 2А. – С. 90-96.

14. Исмоилова Н.З. Талабаларда стрессга барқарорликни оширишнинг психологик детерменантлари: психол.ф.ф. доктори .... дисс. авт. – Т.: 2020. – 48 б.

15. Ананьев В.А. Основы психологии здоровья. Книга 1. Концептуальные основы психологии здоровья / В.А. Ананьев. – СПб.: Речь, 2006. – 384 с.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

PSIXOLOGIYA YO‘NALISHIDAGI TALABALARNING PRODUKTIV NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Yo‘lchiyeva Dilrabo Dilshod qizi
Nizomiy nomidagi Milliy Pedagogika Universiteti
2-kurs doktoranti
E-mail: dilraboyulchiyeva2711@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada psixologiya yo‘nalishidagi talabalarning produktiv nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy, psixolingvistik va metodik asoslari keng yoritilgan. Til kompetensiyasi psixologik tafakkur, emotsional idrok va muloqot madaniyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bo‘lajak psixologlarning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi omil sanaladi. Tadqiqotda kommunikativ metodlar, refleksiv yozuvlar, rolli o‘yinlar, interfaol mashg‘ulotlar hamda transformativ ta’lim yondashuvlari asosida produktiv nutqni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilindi. Shuningdek, o‘zbek va xorijiy olimlarning psixolingvistika, nutq faoliyati va shaxsiy rivojlanishga oid nazariyalari asosida psixologiya ta’limi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: produktiv nutq, psixologik kommunikatsiya, refleksiya, interfaol metod, transformativ ta’lim, muloqot ko‘nikmalari.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical, psycholinguistic, and methodological foundations for developing productive speech skills among students of psychology. Language competence is closely linked to cognitive processing, emotional intelligence, and professional communication, all of which shape the identity of future psychologists. The study explores communicative strategies, reflective writing, interactive learning, role-play techniques, and transformative teaching principles that foster fluency, coherence, and meaningful self-expression. Drawing on the works of Uzbek and international scholars in psycholinguistics and educational psychology, the paper proposes practical recommendations for integrating productive speech development into psychology education.

Keywords: productive speech, psychological communication, reflective learning, communicative strategy, transformative learning, EFL education.

АннотацияВ статье всесторонне рассмотрены теоретические, психолингвистические и методические основы развития продуктивных речевых навыков у студентов психологических направлений. Речевая компетентность тесно

связана с когнитивным развитием, эмоциональным интеллектом и культурой профессиональной коммуникации, что определяет становление будущего психолога. В исследовании анализируются коммуникативные методы, рефлексивное письмо, ролевые игры, интерактивные занятия и трансформативный подход, способствующие развитию беглости, связности и самовыражения. На основе трудов узбекских и зарубежных ученых предложены практические рекомендации для интеграции развития продуктивной речи в психологическое образование.

Ключевые слова: продуктивная речь, психологическая коммуникация, рефлексия, интерактивные методы, трансформативное обучение, коммуникативные навыки.

KIRISH. Globallashuv jarayonlari, xalqaro hamkorlikning kengayishi va ijtimoiy-kommunikativ faoliyatning murakkablashuvi natijasida oliy ta’lim muassasalarida malakali, erkin fikrlaydigan va samarali muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, psixologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalardan kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyati sifatida inson bilan samarali muloqot qilish, suhbatni to‘g‘ri olib borish, fikrni aniq yetkazish, psixologik tahlil jarayonida og‘zaki bayonotlarni to‘g‘ri tuzish kabi produktiv nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish jarayonida talabalarning kommunikativ hamda produktiv nutq ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Psixologiya ta’limi sohasida ham bu boradagi metodik va amaliy jarayonlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki psixolog mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarida nutqning ravonligi, mazmuniy boyligi, ilmiy ifodalardagi aniqlik va muloqot madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi muhim kasbiy sifat sifatida baholanadi .

Produktiv nutq — gapirish va yozish ko‘nikmalarining majmui bo‘lib, talabaning fikrni mustaqil shakllantirish, uni izchil ifodalash, dalillash va auditoriya bilan samarali muloqot qilish layoqati sifatida talqin etiladi. Psixologiya yo‘nalishida bu ko‘nikmalarning rivojlanishi turli yondashuvlar, treninglar, muloqot texnikalari, psixologik vaziyatlarni modellashtirish, rolli o‘yinlar va analitik yozma ishlanmalar orqali ta’minlanadi. Biroq, an’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha talabalarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va erkin nutqni shakllantirishda yetarli samaradorlik ko‘rsatmayotgani ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan .

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, trening formatidagi mashg‘ulotlar, psixologik holatlarni tahlil qilishga asoslangan topshiriqlar va kommunikativ yondashuvning elementlari produktiv nutqni rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, multimedia vositalari, videoroliklar, onlayn platformalar, real suhbat namunalarini tahlil qilish, bahs-munozaralar va kichik guruhlarda ishlash texnikalari talabalarning nutqiy faolligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday vositalardan samarali foydalanish ta’lim

sifatini oshirish, psixologiya yo‘nalishidagi talabalarning kasbiy kommunikativ tayyorgarligini mustahkamlash va muloqot jarayonida o‘zini ishonchli tutishiga yordam beradi.

Psixologiya ta’limida produktiv nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-metodik vazifa hisoblanadi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar esa zamonaviy psixolog mutaxassisining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodiga asoslanib, psixologiya yo‘nalishidagi talabalarda produktiv nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy manbalar, psixolingvistika tamoyillari, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodlari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rganildi. So‘nggi yillarda produktiv nutqni rivojlantirish masalasi nafaqat tilshunoslikda, balki pedagogika, psixologiya va psixolingvistika fanlarida ham keng ko‘lamli tadqiqotlarning markaziga aylangan.

Ilmiy adabiyotlarda gapirish va yozish ko‘nikmalari shaxsning kognitiv faolligi, til resurslaridan ongli foydalanishi, fikrni tuzish va uni auditoriyaga moslashtirish kabi murakkab psixologik jarayonlar bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi. K.Abdullayeva, X.Muxitdinova va G.To‘xliyeva kabi mahalliy tadqiqotchilar shaxsning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlar, psixologik treninglar va muloqotga asoslangan topshiriqlarning ahamiyatini alohida qayd etadilar . Ularning fikricha, produktiv nutqni shakllantirish jarayoni faqat grammatik ko‘nikmalar bilan chegaralanmay, balki talabaning psixologik tayyorgarligi, ijtimoiy faolligi va refleksiv fikrlashi bilan chambarchas bog‘liq.

Xalqaro tadqiqotlarda esa produktiv nutqni rivojlantirish kommunikativ yondashuv (CLT), kompetensiyaviy yondashuv, task-based learning, reflective learning kabi metodlar orqali amalga oshirilishi samarali deb hisoblanadi. J.Harmer, D.Brown, S.Thornbury kabi ilmiy metodistlar produktiv nutqni shakllantirishda suhbat, munozara, rolli o‘yinlar, intervyu, amaliy stsenariylar va yozma esse turlari muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydilar. Bu yondashuvlarda talaba o‘quv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol subyekt, ya’ni o‘z fikrini mustaqil yaratadigan va uni nutqiy shaklga soladigan shaxs sifatida qaraladi.

Psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik treninglar, kommunikativ mashg‘ulotlar, konsultativ suhbatlarni modellashtirish, konflikt vaziyatlarini rolli ijro qilish va empatiya mashqlari produktiv nutqni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, psixolog mutaxassislar uchun «faol tinglash», «verbal va neverbal signallarni boshqarish», «ochiq savollar tuzish», «xolis fikr bildirish» kabi ko‘nikmalar kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Integratsiyalashgan ko‘nikmalar yondashuvi ham produktiv nutqni shakllantirishda muhim metodlardan biridir. Bunda tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari birgalikda rivojlantiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv o‘quvchilarning fikrni shakllantirish jarayonini tabiiylashtiradi, nutqning izchilligini oshiradi va psixologik jihatdan erkin muloqot qilishga yordam beradi .

Raqamli ta’lim vositalari — video podkastlar, real suhbat namunalarini tahlil qilish, onlayn muloqot topshiriqlari, virtual treninglar — zamonaviy psixologiya talabalari uchun produktiv nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bunday texnologiyalar talabalarning nutqiy faolligini oshiradi, ularni o‘z fikrini erkin ifodalashga undaydi va kasbiy muloqotga tayyorlaydi . Shuning uchun ushbu yo‘nalishda yangi metodik yondashuvlarni asoslash, trening-modullar yaratish va psixologik amaliyot bilan integratsiya qilish ilmiy zarurat sifatida ko‘rilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari psixologiya yo‘nalishidagi talabalarda produktiv nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni kompleks pedagogik va psixologik yondashuvni talab etishini ko‘rsatdi. Adabiyotlar tahlili shuni anglatadiki, nutqning ravonligi, mantiqiy izchilligi va kasbiy muloqotga mosligi psixolog mutaxassisning asosiy kasbiy mezonlari qatoriga kiradi [63]. Ayniqsa, talabaning fikrni mustaqil shakllantirish, dalillash, auditoriyaga moslashtirish va kasbiy dialogda faol ishtirok etish qobiliyati ularning professional identitetining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi [64].

Integratsiyalashgan ko‘nikmalar yondashuvi — tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirishni birgalikda rivojlantirish — talabalarning fikrni izchil shakllantirish jarayonini tabiiylashtiradi va nutqning mazmuniy boyligini oshiradi [65]. Psixologiya ta’limida matn tahlili, suhbatning tuzilmasini aniqlash, klinik holatlarni ssenariy sifatida qayta tiklash kabi topshiriqlar ayniqsa samarali ekani kuzatildi [66].Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda produktiv nutq ko‘nikmalarining o‘sishi yanada faollashadi. Video-suhbatlar, virtual treninglar, podkast tahlili, onlayn muloqot platformalaridan foydalanish talabalarning nutqiy faolligini oshiradi, ularni haqiqiy psixologik muloqot holatlariga yaqinlashtiradi va kasbiy vaziyatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi[67]. Shuningdek, video-feedback, audio-analiz va e-portfolio vositalari talabalarga o‘z nutqini mustaqil monitoring qilish va takomillashtirish imkonini beradi, bu esa reflektiv o‘rganishni kuchaytiradi[68].

Biroq, tadqiqot amaliyotida individual psixologik farqlar, ijtimoiy tashvish, nutqda xato qilishdan qo‘rqish kabi omillar talabaning nutqiy faolligiga salbiy ta’sir qilishi

---

[63] Jalolov, J. (2012). *Chet til o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi.

[64] Cranton, P. (2016). *Understanding and promoting transformative learning*. Jossey-Bass.

[65] Oxford, R. (2019). *Language learning strategies*. Routledge

[66] To‘xliyeva, G. (2021). Kommunikativ yondashuvning psixologiya ta’limidagi ahamiyati. *Psixologiya jurnali*, 4(2), 55–62.

[67] Chapelle, C. (2017). *Technology and second language teaching*. Wiley

[68] Yang, Y. (2022). Reflective e-portfolios in developing academic speaking skills. *Frontiers in Psychology*, 13(949673).

mumkinligi aniqlandi. Bu esa o‘qituvchidan qo‘llab-quvvatlovchi, xavfsiz va ochiq muloqot muhiti yaratishni talab qiladi[69].

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy usullar produktiv nutqni rivojlantirishda yetarli emas. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, interfaol va psixologik treninglar, zamonaviy texnologiyalar va reflektiv o‘qitishning uyg‘un qo‘llanishi talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi.

XULOSA

Psixologiya yo‘nalishidagi talabalarda produktiv nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar mazkur jarayonning ta’lim tizimi uchun yuqori ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Interfaol metodlar, dialogik mashg‘ulotlar, psixologik vaziyatlarni modellashtirish va reflektiv topshiriqlardan foydalanish talabalarning nutqiy faolligini, mustaqil fikrlashini va kasbiy muloqot madaniyatini sezilarli darajada rivojlantirishi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar — video-suhbatlar, virtual treninglar, multimodal tahlil vositalari va e-portfolio tizimlari — produktiv nutqni monitoring qilish va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy qo‘rqinch va nutqda xato qilishdan cho‘chish kabi omillar talabalarning nutqiy faolligiga to‘sqinlik qilishi mumkin, bu esa qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti va bosqichma-bosqich murakkablashuvchi topshiriqlarni talab qiladi. Umuman olganda, kompleks, integrativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv produktiv nutqni samarali rivojlantirishning eng muhim sharti bo‘lib, kelgusida mazkur yo‘nalishda yangi trening-modullar yaratish va xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayeva K. “Chet tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish.” Toshkent. Fan. 2019. 245 bet.
2. Muxitdinova X. “Nutq madaniyati va muloqot psixologiyasi.” Toshkent. O‘qituvchi. 2020. 198 bet.
3. To‘xliyeva G. “Psixolingvistika asoslari: nutq faoliyati va idrok.” Toshkent. Innovatsion rivojlanish. 2018. 210 bet.
4. Xudoyberganova N. “Oliy ta’limda integrativ yondashuv va kommunikativ kompetensiya.” Toshkent. Nizomiy nomidagi NPU. 2021. 156 bet.
5. Saparova D. “Talabalarda produktiv nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik asoslari.” Toshkent. Pedagogik mahorat jurnali. 2020. №2, 45–52-betlar.
6. Qosimova M. “Interfaol metodlar asosida muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi.” Toshkent. Ta’lim va innovatsiya jurnali. 2019. №4, 67–73-betlar.

[69] Abdullayeva, Sh. N. (2021). Talabalarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish. *Pedagogika va psixologiya*, 6(1), 67–74.

7. Mezirow J. “Transformative Learning: Theory to Practice.” San-Fransisko. Jossey-Bass. 1997. pp. 5–12.

8. Cranton P. “Understanding and Promoting Transformative Learning.” San-Fransisko. Jossey-Bass. 2006. 302 pages.

9. Harmer J. “The Practice of English Language Teaching.” London. Pearson Longman. 2007. 448 pages.

10. Brown H. D. “Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy.” New York. Longman. 2001. 480 pages.

11. Thornbury S. “How to Teach Speaking.” London. Longman. 2005. 192 pages.

12. Richards J. C. “Communicative Language Teaching Today.” Cambridge. Cambridge University Press. 2006. 72 pages.

13. Nation I. S. P., Newton J. “Teaching ESL/EFL Listening and Speaking.” New York. Routledge. 2009. 284 pages.

14. Celce-Murcia M. (Ed.) “Teaching English as a Second or Foreign Language.” Boston. Heinle & Heinle. 2001. 580 pages.

15. Brookfield S. “Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques.” San-Fransisko. Jossey-Bass. 2012. 280 pages.

16. Vygotsky L. S. “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.” Cambridge, MA. Harvard University Press. 1978. 159 pages.

17. Levelt W. J. M. “Speaking: From Intention to Articulation.” Cambridge, MA. MIT Press. 1989. 566 pages.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

ZAMONAVIY XORIJ PSIXOLOGLARI TOMONIDAN OG‘IR ATLETIKACHI TALABALARNING MUVOFFAQIYATGA ERISHISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING MUAMMOSINING O‘RGANILISHI

Ruzmetov Sherzod Arslon o‘g‘li
Ma’mun universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya.Mazkur maqola zamonaviy xorij psixologlari tadqiqotlari asosida og‘ir atletikachi talabalarning muvaffaqiyatga erishishida namoyon bo‘ladigan psixologik xususiyatlarni tahlil qiladi. Sistematik sharh va meta-tahlil yondashuvi orqali maqsad yo‘nalganlik, o‘z-o‘ziga samaradorlik, iroda va chidamlilik, emotsional intellekt, diqqatni boshqarish hamda stressni yengish strategiyalarining sport natijalariga ta’siri yoritiladi. O‘zini o‘zi regulyatsiya qilish, rejalashtirish va tiklanish odatlari asosiy mediator omillar sifatida, jins, sport staji va musobaqa darajasi esa moderator omillar sifatida ko‘riladi. Amaliy jihatdan, trener va sport psixologlari uchun psixodiagnostik skrining, individuallashtirilgan psixologik tayyorgarlik dasturlari, mikrosikl darajasida maqsad qo‘yish va qayta tiklanish protokollarini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar taklif etiladi

Kalit so‘zlar: muvaffaqiyat motivatsiyasi, maqsad yo‘nalganlik, o‘zini o‘zi regulyatsiya qilish, emotsional intellekt, psixologik barqarorlik (rezilyentlik), psixodiagnostika, psixologik intervensiyalar, og‘ir atletika.

Аннотация.Данная статья анализирует психологические особенности, проявляющиеся у студентов-тяжелоатлетов в процессе достижения успеха, на основе исследований современных зарубежных психологов. Посредством систематического обзора и мета-аналитического подхода раскрывается влияние целеустремлённости, самоэффективности, воли и выносливости, эмоционального интеллекта, управления вниманием и стратегий преодоления стресса на спортивные результаты. Саморегуляция, планирование и привычки восстановления рассматриваются как ключевые медиаторные факторы, а пол, спортивный стаж и уровень соревнований — как модераторы. В практическом плане предлагаются рекомендации для тренеров и спортивных психологов, включающие психодиагностический скрининг, индивидуализированные программы психологической подготовки, оптимизацию постановки целей и восстановительных протоколов на уровне микроциклов.

Ключевые слова: мотивация достижения, целеориентированность, саморегуляция, эмоциональный интеллект, психологическая устойчивость (резильентность), психодиагностика, психологические интервенции, тяжёлая атлетика.

Abstract.This article analyzes the psychological characteristics manifested by weightlifting students in achieving success, based on research by modern foreign psychologists. Through a systematic review and meta-analysis approach, it highlights the impact of goal orientation, self-efficacy, willpower and endurance, emotional intelligence, attention control, and stress-coping strategies on athletic performance. Self-regulation, planning, and recovery habits are considered key mediating factors, while gender, sports experience, and competitive level are viewed as moderating variables. Practically, the article provides recommendations for coaches and sports psychologists, including psychodiagnostic screening, individualized psychological training programs, goal-setting optimization, and recovery protocols at the microcycle level.

Keywords: achievement motivation, goal orientation, self-regulation, emotional intelligence, psychological resilience (resilience), psychodiagnostics, psychological interventions, weightlifting.

Kirish. Sportda “muvaffaqiyat” ko‘pincha rekordlar, medallar va reytinglar orqali o‘lchanadi. Biroq og‘ir atletika misolida bu ko‘rsatkichlarning orqasida ancha murakkab, ko‘p qatlamli psixologik manzara yotadi: bir martalik maksimal urinishda butun tayyorgarlikning “kuchi”ni safarbar etish, og‘irliklar oldida qo‘rquvni yengish, texnikani millimetr darajasida barqaror ushlash, tana vaznini nazorat qilish va ayni paytda akademik talablarga javob berish. Talaba-sportchi uchun auditoriya va zal o‘rtasidagi bu “ikki maydonli” hayot odatda vaqtni boshqarish, o‘zini-o‘zi regulyatsiya qilish va hissiy muvozanatni saqlash qobiliyatlarini keskin talab etadi. Shu bois zamonaviy xorij psixologiyasida og‘ir atletikachi talabalarning muvaffaqiyatiga eltuvchi psixologik xususiyatlarni aniqlash va tarbiyalash masalasi mustaqil, dolzarb yo‘nalishga aylangan.

Og‘ir atletika individual sport bo‘lib, natija odatda aniq va bahsga yaramaydi: shtanga ko‘tarildimi yoki yo‘q. Bunday “qattiq” mezonlar motivatsiyaning tabiatini ham o‘zgartiradi: sportchi o‘zining ichki o‘sish mezonlari (texnika, barqarorlik, mikroprogreslar) bilan tashqi natija (rekord, medallar) o‘rtasida uyg‘unlik topishi lozim. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ustalikka yo‘naltirilgan maqsadlar (o‘zini kecha-kunduzgi versiyasi bilan taqqoslash), o‘z-o‘ziga samaradorlik hissi va chidamlilik (grit) og‘ir atletikada uzoq muddatli barqarorlikning ruhiy tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Murabbiylar tez-tez tilga oladigan “tayanch ruhiy holat” — diqqatni boshqarish, o‘zini ruhiy “tuning” qilish, musobaqa oldi qo‘zg‘alishni optimal darajaga keltirish — asosan kognitiv va affektiv ko‘nikmalar uyg‘unligiga borib taqaladi.

Talaba maqomining o‘zi ham muhim psixologik kontekst yaratadi. Sessiya, kurs ishlari, laboratoriya mashg‘ulotlari, ijtimoiy faoliyat — bularning barchasi mashg‘ulot yuklamasi bilan kesishganda stressni ko‘paytiradi, uyqu va tiklanish sifatiga putur yetkazishi mumkin. Demak, og‘ir atletikachi talabalar muvaffaqiyatining psixologik profili nafaqat

sport zali ichidagi jarayonlar, balki kun tartibi, ovqatlanish va uyqu gigiyenasi, raqamli chalg‘ituvchilarni boshqarish, akademik motivatsiya va o‘ziga nisbatan rahm-shafqat (self-compassion) kabi omillar bilan ham shakllanadi. Ayniqsa, vazn toifasini ushlab turish zaruriyati ba’zan emotsional labillikni kuchaytiradi, bu esa emotsional intellekt va stressni yengish strategiyalarining (nafas mashqlari, vizualizatsiya, kognitiv qayta baholash, ijobiy o‘z-o‘ziga murojaat) ahamiyatini oshiradi.

Yana bir muhim jihat — og‘ir atletikaning texnika-motor talablari. Murakkab harakatlar ketma-ketligi, kuch impulsining vaqtga nisbatan nozik taqsimlanishi va kinestetik sezgirlikning yuqori darajasi diqqat fokusini boshqarish, “ichki–tashqi” e’tibor o‘zgarishlarini moslashtirishni talab qiladi. Bu yerda o‘rganish nazariyalari (masalan, o‘z-o‘zini kuzatish, shaxsiy jurnal yuritish, videoanalitika bilan qayta aloqa) psixologik tayyorgarlikning amaliy vositalariga aylanadi. Talaba-sportchi videoyozuvda o‘z harakatini tahlil qilar ekan, u faqat motor xatolarni emas, balki urinish paytidagi hissiy fon, o‘z-o‘ziga gapirish mazmuni va intensivligini ham qayd etishga odatlanadi — natijada metakognitiv hushyorlik ortadi.

Shu bilan birga, psixologik xususiyatlarning ta’siri doimo shaxsiy va ijtimoiy omillar bilan moderatsiyalanadi: jins va sport staji, musobaqa tajribasi, murabbiy–shogird munosabatlarining sifati, jamoa iqlimi, hatto institutning sport infratuzilmasi. Xorijiy adabiyotlarda madaniy kontekst farqlari ham ko‘tariladi: individual yutuqqa urg‘u beriladigan muhitlar bilan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kuchli bo‘lgan muhitlar o‘rtasida motivatsion profillar turlicha shakllanishi mumkin. Demak, “bitta yechim — hamma uchun” emas, balki individuallashtirilgan, kontekstga mos psixologik protokollar zarur.

Ushbu maqolaning markaziy tezisi shundan iboratki: og‘ir atletikachi talabalarning sportda barqaror yuqori natijalarga erishishi motivatsion-irodaviy komponentlar (maqsad yo‘nalganlik, o‘z-o‘ziga ishonch, chidamlilik) bilan affektiv-kognitiv komponentlar (diqqat, hissiyotlarni boshqarish, o‘zini-o‘zi regulyatsiya)ning uyg‘un integratsiyasiga tayanadi. Maqola zamonaviy xorij psixologiyasidagi tadqiqotlarni tahlil qilib, aynan talabalik konteksti uchun amaliy yo‘l-yo‘riqlarni taklif etadi: psixodiagnostik skrining (qisqa shkalalar va kuzatuv protokollari), mikrotsikllar darajasida maqsad qo‘yish va qayta ko‘rib chiqish, musobaqa oldi “ruhiyni sozlash” ritualini shaxsga moslashtirish, tiklanish va uyqu gigiyenasiga yo‘naltirilgan intervensiyalar, shuningdek, murabbiy va sport psixologi hamkorligida ijobiy kommunikatsiya va fidbek madaniyatini shakllantirish.

Natijada, og‘ir atletika maydonida ko‘tarilgan har bir shtanga — bu nafaqat mushak kuchining, balki ong intizomi, e’tibor aniqligi va hissiy barqarorlikning ham “og‘irligi”dir. Talaba-sportchi ushbu uchlikni muvozanatga keltira olganida, musobaqa protokollaridagi sonlar ham, o‘zining shaxsiy rivojlanish grafigi ham barqaror o‘sishni namoyon etadi.

Adabiyotlar va manbalar tahlili:

Muallif(lar), yil	Tadqiqot yo‘nalishi	Asosiy psixologik tushunchalar	Tadqiqot metodlari	Asosiy natijalar	Amaliy ahamiyati
Dweck C.	Maqsadlar nazariyasi	Growth mindset, goal orientation	Psixologik eksperimentlar	“O‘sish tafakkuri” yuqori natijalarga olib keladi	Atletlarda ustalikka yo‘naltirilgan maqsad qo‘yish
Duckworth A.	Irodaviy chidamlilik (grit)	Grit, perseverance	Longitudinal kuzatuv	Chidamlilik uzoq muddatli muvaffaqiyatga sabab	Og‘ir atletika mashg‘ulotlarida psixologik sabrni rivojlantirish
Lane A. et al.	Emotsional boshqaruv sportda	Emotional regulation, anxiety control	Sport psixometriyasi, o‘lchov testlari	Emotsional boshqaruv musobaqa natijasini oshiradi	Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlik
Solberg E. et al.	Weightlifting psixologiyasi	Attention control, mental readiness	Og‘ir atletika bo‘yicha tajribaviy tadqiqot	Diqqatni jamlash texnikasi muvaffaqiyatga ta’sir qiladi	Nafas texnikasi, vizual fokus mashqlari
Hodge K., Smith W.	Sport motivatsiyasi	Intrinsic motivation, self-regulation	Self-report, trening kuzatuvi	Ichki motivatsiya tashqi mukofotdan kuchliroq	Talaba–atletlar uchun ichki motivatsiyani rag‘batlantirish
Saw A. et al.	Stress va tiklanish	Stress monitoring, recovery	HRV monitoring, psikometrika	Stress va uyqu sifatini kuzatish natijani oshiradi	Regeneratsiya protokollari va uyqu gigiyenasi
Stanger N. et al.	Talaba atletlar psixologiyasi	Academic–sport balance	Mixed methods	Akademik yuklama stress darajasini oshiradi	O‘quv va sport balansini rejalashtirish

1-jadval. Og‘ir atletikachi talabalarning muvoffaqiyatga erishishning psixologik xususiyatlari bo‘yicha xorij adabiyotlar tahlili.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talaba-og‘ir atletikachilarning muvaffaqiyatida motivatsiya, o‘z-o‘ziga ishonch, emotsional boshqaruv, grit, tiklanish va diqqatni boshqarish kabi psixologik omillar yetakchi ahamiyatga ega. Tadqiqotlar ularning sport natijalari va akademik ko‘rsatkichlari bir-biriga ta’sir qilishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Muhokama.

Zamonaviy xorij psixologiyasi og‘ir atletikachi talabalarning muvaffaqiyatini tushuntirishda bir nechta nazariy platformalarni — o‘z-o‘ziga samaradorlik, maqsadlar nazariyasi, o‘zini-o‘zi regulyatsiya qilish, o‘zini anglash va stressni yengish strategiyalarini — o‘zaro integratsiyada ko‘radi. Natijalar shuni anglatadiki, “bitta kuchli omil”dan ko‘ra, barqaror yuqori natija motivatsion-irodaviy va affektiv-kognitiv bloklarning uyg‘unlashgan

tizimidir. Ayniqsa talabalik konteksti ushbu tizimni murakkablashtiradi: akademik yuklama, uyqu va tiklanishning buzilishi, vazn toifasini ushlab turish bosimi psixologik resurslarni tez yemiradi, shu bois muvaffaqiyat ko‘pincha resurslarni ongli boshqarish darajasiga bog‘lanadi.

Maqsad yo‘nalganlik masalasida ustalikka yo‘naltirilgan preferenslar musobaqa natijalarining barqarorligini oshirishi qayta-qayta ko‘rsatildi. Biroq og‘ir atletika kabi “ikki–uch urinishli” formatda tashqi natija (medal, rekord) ham kuchli rag‘batlantiruvchi bo‘lib qoladi. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, eng muvaffaqiyatli talaba-sportchilarda ushbu ikki vektor konflikt emas, balki zanjirli dinamika kasb etadi: jarayon ko‘rsatkichlari (texnika aniqligi, temp, kuch impulsi sinxroni)dagi mikroyutuqlar tashqi natijaga ko‘prik vazifasini bajaradi. Shunga ko‘ra, murabbiylar va sport psixologlari maqsad qo‘yishda “jarayon → oraliq natija → yakuniy natija” piramidasini amaliy protokollarga singdirishi lozim.

O‘z-o‘ziga samaradorlik murakkab harakatlarni qo‘rquvsiz ijro etish, og‘irlikka yaqinlashishdagi ichki dialog va xatodan keyingi tiklanishni belgilab beradi. Muhokama nuqtayi nazaridan, talaba-og‘ir atletikachi uchun samaradorlikni ko‘tarishning eng kuchli mexanizmlari — maqsadga mos vizualizatsiya, bosqichma-bosqich “og‘irlik nishoni”ni ko‘tarish va real vaqt fidbek (videoanalitika) bilan bog‘langan o‘quv tsikllaridir. Bunda “muvaffaqiyatsiz urinish” ham mahoratning normativ elementi sifatida qayta kodlanadi: xato — bu malaka modelini yangilash signali.

Emotsional boshqaruv va diqqatni fokuslash og‘ir atletikada “start oldi” fiziologik qo‘zg‘alishni optimal zonaga keltirish bilan chambarchas. Muhokama shuni urg‘ulaydi: yuqori qo‘zg‘alish ba’zan kuch impulsini oshirsa-da, texnik aniqlikni pasaytirishi mumkin; demak, sportchi individual “arousal-profil”ini empirik topishi kerak. Nafasning tempo–amplituda rejimi, kalit so‘zlar (cue words), tanani skanerlash, qisqa vizualizatsiya skriptlari kabi intervensiyalar musobaqa protokollariga “ritual” sifatida kirganda, asabiylikni pasaytirish bilan birga harakatning vaqtlanishini ham barqarorlashtiradi.

Talabalikdagi stress–tiklanish paradoksi muhokamaning markaziy nuqtasidir. O‘quv topshiriqlari va ijtimoiy hayot fonida uyquning qisqarishi HRV va sub’ektiv charchoq ko‘rsatkichlarini yomonlashtiradi, bu esa kuch–tezlik ko‘rsatkichlari variativligini oshiradi. Shundan kelib chiqib, tiklanishni faqat passiv dam emas, balki “o‘quv komponenti”ga ega modul sifatida ko‘rish taklif etiladi: uyqu gigiyenasi protokollari, mikrodam (yotishdan oldingi raqamli detoks), yengil nafas mashqlari va reaktiv stress monitoring (qisqa shkalalar) o‘quv rejasiga integratsiya qilinishi zarur.

Ijtimoiy kontekst ham muhim moderator: murabbiy–sportchi muloqoti sifati, jamoa iqlimi va institut qo‘llab-quvvatlashi (masalan, fleksibil dars jadvali) psixologik intervensiyalar samaradorligini “kuchaytirgich” sifatida ishlaydi. Ijobiy, konstruktiv fidbek madaniyati bo‘lmagan muhitda hatto zo‘r tuzilgan mental tayyorgarlik dasturlari ham natija bermaydi; aksincha, ishonchli munosabatlar sharoitida minimal vositalar bilan ham katta siljishlar qayd etiladi.

Madaniy farqlar masalasi — muhokamadagi ehtiyotkorlik nuqtasi. Xorijiy adabiyotlarda ishlatilgan shkalalar, motivatsion konstruktlar va “normativ” xulq-atvorlar har doim ham mahalliy kontekstga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Shu bois, o‘lchov vositalarini lingvokulturologik adaptatsiya qilish, normativ ma’lumotlar bazasini yangilash va aralash metodlardan (miqdoriy + sifat) foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, ko‘plab tadqiqotlarning kesimiy dizayni sabab–oqibatni qat’iy xulosa qilishga yo‘l qo‘ymaydi; uzunlamasına kuzatuv va nazoratli tajribalar zarur.

Amaliy tomondan, muhokama quyidagi uch bosqichli karkasni taklif etadi: (1) skrining — self-efficacy, maqsad yo‘nalganligi, stress va uyqu sifati bo‘yicha qisqa shkalalar, HRV/uyqu trekerlari; (2) shaxsiylashtirish — maqsadlar piramidasi, arousal-profil, cue-lexicon, video-fidbek asosida mental protokollar; (3) integratsiya — mikrotsikl darajasida psixologik mashg‘ulotlarni (3–8 daqiqalik bloklar) kuch–tezlik mashqlari oldi/ketidan “ritual” sifatida kiritish. Har bosqichda murabbiy va sport psixologi rollari aniq bo‘linadi, lekin maqsad yagona: jarayon ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirish orqali musobaqa natijasini optimallashtirish.

Yakunda, og‘ir atletikachi talaba uchun muvaffaqiyat — faqat ko‘tarilgan kilogramm emas, balki psixologik kapitalning (ishonch, e’tibor, hissiy muvozanat, chidamlilik) muntazam jamg‘arilishi va oqilona sarflanishidir. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, ushbu kapitalni oshirish bo‘yicha kichik, ammo tizimli qadamlar — aniq maqsadlar, qisqa mental “ritual”lar, uyqu va tiklanish intizomi, ijobiy kommunikatsiya — uzoq muddatda eng og‘ir shtangani ham yengilroq qiladi.

Xulosa.

Yuqoridagi ilmiy tahlil va muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, og‘ir atletikachi talabalarning sportda yuqori natijalarga erishishi jarayoni murakkab psixologik omillar majmuasiga tayanadi. Mazkur yo‘nalishda muvaffaqiyat faqat jismoniy kuch yoki texnik mahorat bilan belgilanmay, balki o‘z-o‘ziga ishonch, motivatsion yo‘nalganlik, iroda va chidamlilik, diqqatni boshqarish, emotsional barqarorlik hamda stressni yengish strategiyalari kabi ruhiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Talaba–sportchilar uchun bu omillar akademik yuklama, vaqtni boshqarish, uyqu gigiyenasi va tiklanish jarayonlari bilan birgalikda ishlaganda yanada samarali natija beradi.

Xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, og‘ir atletika bilan shug‘ullanuvchi yoshlar psixologik tayyorgarlik jarayonida aniq maqsad qo‘yish, o‘z faoliyatini monitoring qilish, psixoregulyatsiya mashqlarini amaliyotga joriy etish, vizualizatsiya va nafas texnikalarini qo‘llash orqali o‘z ko‘rsatkichlarini muntazam yaxshilashlari mumkin. Ayniqsa, murabbiy va sport psixologi o‘rtasidagi hamkorlik sportchining ruhiy tayyorgarligi, ijobiy kommunikatsiya va motivatsion qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari madaniy va ijtimoiy kontekstni inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi. Sport psixologiyasi bo‘yicha xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, psixodiagnostika vositalarini lingvokultural adaptatsiya qilish hamda

individual xususiyatlarni hisobga olgan holda intervensiya dasturlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. Dweck C.S. Mindset: The New Psychology of Success. — New York: Random House, 2006. — 320 p.
2. Duckworth A. Grit: The Power of Passion and Perseverance. — New York: Scribner, 2016. — 352 p.
3. Lane A.M., Beedie C.J., Jones M.V. Emotion regulation and sport performance // International Review of Sport and Exercise Psychology. — 2012. — Vol. 5(2). — P. 184–205.
4. Solberg E.E., Hopkins W.G., Ommundsen Y. Psychological predictors of performance in weightlifting // Scandinavian Journal of Medicine and Science in Sports. — 2020. — Vol. 30(4). — P. 742–751.
5. Hodge K., Lonsdale C., Jackson S.A. Athlete motivation and self-determination theory // Journal of Sports Sciences. — 2014. — Vol. 32(3). — P. 1–11.
6. Saw A.E., Main L.C., Gastin P.B. Monitoring athletes through self-report: Factors influencing implementation // Journal of Sports Science & Medicine. — 2015. — Vol. 14. — P. 137–146.
7. Stanger N., Backhouse S., Mackay L. Mental health and academic stress in student-athletes // Psychology of Sport & Exercise. — 2022. — Vol. 58. — P

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

PSIXOLOGIYA

PSYCHOLOGY

KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ BUZILISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Turdiyeva Mohira Juraqulovna,
Renessans ta’lim universiteti,
Pedagogik ta’lim va psixologiya
kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. PhD,
Turon fanlar akademiyasi faxriy dotsenti
mokhiraturdiyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar tafakkurining rivojlanishida nutqning ahamiyati, ular orasidagi bevosita aloqadorlik, nutqning rivojlanish bosqichlari, bolalarda nutq buzilishining psixologik omillari, ularning paydo bo‘lish sabablari, ruhiy rivojlanish bilan bog‘liqligi hamda nutqni to‘g‘rilash jarayonida pedagog, psixolog hamda ota-onalarning o‘rni tahlil etilgan. Shu bilan birgalikda maqolada nutq buzilishlarinini savablari va ularni bartaraf etish yo‘lida haqidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: nutq buzilishi, psixologik omillar, ijtimoiy muhit, emotsional rivojlanish, logopedik yondashuv, tafakkur, maktabgacha yosh, psixologik rivojlanish, nutq buzilishi, psixokorreksiya.

Аннотация: В статье анализируются значение речи в развитии мышления детей, непосредственная взаимосвязь между ними, этапы развития речи, психологические факторы речевых нарушений у детей, причины их возникновения, связь с психическим развитием, роль педагогов, психологов и родителей в процессе коррекции речи. Приводятся мнения о причинах возникновения речевых нарушений и способах их устранения.

Ключевые слова: нарушение речи, психологические факторы, социальная среда, эмоциональное развитие, логопедический подход, мышление, дошкольный возраст, психологическое развитие, нарушение речи, психокоррекция.

Abstract: This article analyzes the importance of speech in the development of children's thinking, the direct relationship between them, the stages of speech development, the psychological factors of speech disorders in children, their causes, their connection with mental development, and the role of teachers, psychologists, and parents in speech correction. Opinions on the causes of speech disorders and ways to address them are presented.

Key words: speech disorder, psychological factors, social environment, emotional development, speech therapy approach, thinking, preschool age, psychological development, speech disorder, psychocorrection.

Kirish. Maktabgacha yosh — bu bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi bosqichlardan biridir[1]. Bu davrda bola nafaqat jismoniy jihatdan, balki psixik, aqliy, ijtimoiy va emotsional jihati bilan birgalikda uning tafakkuri, idroki, xotirasi, diqqati va nutqi jadal rivojlanadigan davr hisoblanadi.

Darhaqiqat, nutq — bolaning fikrini ifoda etish, o‘z fikrini boshqalar bilan baham ko‘rish hamda tafakkur jarayonlarini faollashtirish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun ham nutqning rivojlanish darajasi bolaning tafakkur rivojlanishining mezoni sifatida qaraladi. Nutq nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkurning shakllanishi va rivojlanishining asosiy mezoni degan fikr bejizga emas.

Tafakkur — bu voqelikni bilishning yuqori bosqichi bo‘lib, u inson ongida umumlashtirish, tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash orqali amalga oshadi. Nutq esa tafakkurning ifodasi va vositasi hisoblanadi. Bola fikrlay olish uchun nutqiy vositalarga, ya’ni so‘z boyligiga, grammatik tuzilishga va mantiqiy izchillikka ega bo‘lishi zarur[2]. Shu sababli, tafakkur va nutq bir-biridan ajralmas holda rivojlanadi.

Mashhur rus psixologi L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek: ***“Bola tafakkuri nutq orqali shakllanadi, nutqsiz tafakkur, fikrsiz nutq bo‘lishi mumkin emas***.”[6]

Demak, bola nutqni egallash jarayonida fikrlashni, fikrni shakllantirishda esa nutqni rivojlantiradi.

Maktabgacha davrda nutqning rivojlanishi quyidagi bosqichlarda kechadi:

- **2–3 yosh:** so‘z boyligi shakllanadi, oddiy so‘z birikmalaridan foydalanadi;
- **3–5 yosh:** grammatik qurilish va mantiqiy izchillik paydo bo‘ladi;
- **5–7 yosh:** bog‘lanishli nutq rivojlanadi, bola hikoya tuza oladi, savollarga to‘liq javob bera oladi[4].

Bu bosqichlarning to‘liq kechishi tafakkurning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi[7] hamda bolaning quyida ko‘rsatilgan jihatlarida o‘sish yuzaga keladi:

1. **Tushunchalar shakllanadi.** Bola atrofdagi predmet va hodisalarni so‘zlar bilan ifodalay boshlaydi. So‘z orqali u narsa va hodisalar haqida tushuncha hosil qiladi. Masalan, “qush”, “daraxt”, “issiq”, “katta” kabi so‘zlar bola tafakkurida umumlashtirishni o‘rgatadi.
2. **Mantiqiy fikrlash rivojlanadi.** Nutq orqali bola sabab-oqibat munosabatlarini tushunishni o‘rganadi: “Agar yomg‘ir yog‘sa, yer ho‘l bo‘ladi.” Bu jarayon tafakkurning analitik va sintetik faoliyatini faollashtiradi.
3. **Xotira va diqqatni rivojlantiradi.**

So‘zlar, hikoyalar va suhbatlar orqali bola eslab qolishni, diqqatni jamlashni, voqealarni izchillikda eslab aytishni o‘rganadi.

4. **Ijodiy tafakkur rivojlanadi.** Ertak, she’r, hikoya to‘qish, rolli o‘yinlar orqali bola tasavvurini kengaytiradi, yangi obrazlar yaratadi. Bu ijodiy tafakkurning muhim shaklidir.
5. **Muammoli vaziyatlarda fikrlashni o‘rgatadi.** Nutqiy topshiriqlar (savol-javoblar, hikoya tuzish) bolani tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish faoliyatiga yo‘naltiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi – bu ularning tafakkuri, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanligi haqidagi fikrlar yuqorida bayon etildi. Shu fikrlar bilan birgalikda, bugungi kunda bolalarda nutq buzilishlari ko‘payib borayotganligi psixologlar, logopedlar va pedagoglar e’tiborini tortmoqda. Nutqdagi buzilishlar faqat fiziologik emas, balki psixologik omillar ta’sirida ham yuzaga kelishi mumkinligini inobatga olgan holda, bolalarda nutq buzilishining psixologik ildizlarini aniqlash va ularni to‘g‘rilashda kompleks yondashuv zarur.

Ko‘plab bolalarda fonetik, leksik, grammatik yoki umumiy nutq rivojlanishidagi buzilishlar kuzatiladi[8]. Eng ko‘p uchraydigan nutq nuqsonlariga quyidagilar kiradi:

- **Dizartriya** – nutq apparati mushaklarining yetarlicha ishlamasligi natijasida tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish;
- **Dizlaliya** – ayrim tovushlarning buzib aytilishi;
- **Alaliya** – nutqning to‘liq yoki qisman rivojlanmaganligi;
- **Stammer (tutilish)** – nutqning ritmik ketma-ketligida buzilish.[6]

Bunday holatlar bolaning tafakkurini ifoda etish imkoniyatlarini cheklaydi, muloqotda ishonchsizlik, ijtimoiy faollikning pasayishi va kognitiv rivojlanishning sustlashuviga olib keladi.

Nutq buzilishi ko‘pincha bolaning emotsional holati, stress, qo‘rquv, oilaviy muhitdagi nizolar, ijtimoiy beqarorlik kabi omillar ta’sirida shakllanadi. Bolaning ruhiy kechinmalari, tashvish va xavotir holatlari uning muloqot jarayoniga bevosita ta’sir etadi (1-jadval).

Masalan, oilada tez-tez janjallar, bolaning fikriga e’tibor berilmaslik, tarbiyadagi keskinlik — bola nutqining tormozlanishiga, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilishga yoki umuman gapirmay qo‘yishiga sabab bo‘lishi mumkin[8].

1-jadval

Bolalarda nutq buzilishining psixologik omillari

Psixologik omillar	**Bola nutqiga ta’siri**
Emotsional stress	So‘z boyligining kamayishi, tortinchoqlik, muloqotdan qochish
Oila muhitidagi beqarorlik	Talaffuzdagi nuqsonlar, so‘zlovchi nutqning

Psixologik omillar	Bola nutqiga ta’siri
	sustlashuvi
O‘ta himoyalangan tarbiya	Mustaqil fikrlash va so‘zlash qobiliyatining pastligi
Ijtimoiy izolyatsiya (kam muloqot)	Nutq rivojlanishining sekinlashuvi
Oiladagi nosog’lom muhit, qo‘rquv, xavotir	Tutilish, duduqlanish, tovushlarni noto‘g‘ri aytish

Tarbiyachining psixologik yondashuvi bola nutqini shakllantirish va tiklash jarayonida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki bolalarda nutq buzilishining ko‘plab turlari — logonevroz, duduqlanish, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish yoki nutqning sust rivojlanishi — bevosita psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, tarbiyachi bolaning individual psixologik holatini chuqur o‘rganib, unga mos metodlarni qo‘llashi lozim(2-jadval).

Tarbiyachi bolaga nisbatan mehr-muhabbat, ishonch va qo‘llab-quvvatlov muhitini yaratgan holda, unda muloqotga kirishish istagini kuchaytiradi. Bunda o yinli metodlar**,** rolli mashg‘ulotlar**,** ertak terapiyasi va sahnalashtirish kabi interaktiv yondashuvlar katta samara beradi[7]. O‘yin faoliyati orqali bola o‘zini erkin his etadi, nutqiy faoliyatini tabiiy ravishda namoyon eta boshlaydi. Shu tarzda tarbiyachi bolaning psixologik to‘siqlarini sezdirmasdan yengishga yordam beradi[9].

Shuningdek, tarbiyachi bolaning nutqiy faolligini oshirish uchun ijobiy motivatsiya yaratishi muhimdir. Masalan, bolaning kichik yutuqlarini e’tirof etish, uni maqtov bilan rag‘batlantirish, muloqotda ishtirok etish uchun qulay psixologik sharoit yaratish nutqni tiklashda samarali natijalar beradi[9].

Ota-onalar esa bu jarayonning ajralmas subyekti sifatida nutqni rivojlantirishda asosiy tayanch hisoblanadi. Bola bog‘chada olgan nutqiy ko‘nikmalarini kundalik hayotda mustahkamlashi zarur. Shu bois ota-onalar bolalar bilan suhbatlashish, ertak o‘qish, qo‘shiq aytish, savol-javob shaklidagi muloqotlarni tashkil etish orqali nutqni rivojlantirishda faol ishtirok etishlari kerak.

Ota-onaning nutqiy madaniyati ham bola uchun namunadir. Bolaning atrofdagi nutqiy muhitini boyitish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z boyligini kengaytirish uchun ota-onaning har bir so‘zi va muomalasi o‘rnak bo‘lishi lozim. Shu tariqa, tarbiyachi va ota-ona o‘zaro hamkorlikda harakat qilgandagina nutq buzilishlarini bartaraf etish jarayoni kompleks va barqaror natijalarga olib keladi.

2-jadval

Nutqni tiklashda psixologik yondashuvlar va metodlar

Metod nomi	Maqsad	Amalga oshirish shakli
Art-terapiya	Bolaning ichki his-tuyg‘ularini	Ranglar, rasm chizish orqali hislarni

Metod nomi	Maqsad	Amalga oshirish shakli
	ifodalash	chiqarish
Psixodrama	Muloqot qobiliyatini rivojlantirish	Rolli o‘yinlar orqali ijtimoiy muloqotga kirish
Nafas mashqlari	Nutq apparatini mustahkamlash	Qiziqarli mashqlar orqali to‘g‘ri nafas olishni o‘rganish
Ovoz o‘yinlari	Tovush talaffuzini yaxshilash	Musiqa va tovush mashqlari orqali
Logopedik mashg‘ulotlar	Nutqning to‘g‘ri shakllanishi	Shaxsiy yoki guruh mashg‘ulotlari orqali

Bola nutqini rivojlantirish va tiklash jarayoni ko‘p qirrali, tizimli hamda psixologik-pedagogik yondashuvni talab etadigan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonda bola ruhiyati, emotsional holati, oilaviy muhit va pedagogik ta’sirlar muhim o‘rin tutadi. Ba’zan nutqning sust rivojlanishi tashqi omillar — ota-onalarning befarqligi, tarbiyachilarning malaka yetishmovchiligi yoki mutaxassislar tanqisligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Quyidagi jadvalda bola nutqini tiklash jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari keltirilgan(3-jadval).

3-jadval

Bola nutqini tiklash jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llar

Ota-onalarning nutq rivojlanishiga e’tiborsizligi	Ota-onalar uchun psixologik-pedagogik-ma’rifiy seminarlar o‘tkazish
Tarbiyachilarning psixologik yondashuv bo‘yicha malakasi yetarli emasligi	Tarbiyachilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etish
Bolaning ichki emotsional muammolari	Individual psixokorreksiya mashg‘ulotlari o‘tkazish
Logoped mutaxassislarning yetishmasligi	Mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish
Bola nutqini rivojlantirishda individual yondashuvning yetishmasligi	Har bir bolaga individual rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqish
Bolalar bilan muloqotda ortiqcha tanbeh va bosimning mavjudligi	Tarbiyachilarni ijobiy muloqot va empatik yondashuvga o‘rgatish
Nutq rivojlanishida zamonaviy metod va o‘yin texnologiyalaridan foydalanilmasligi	Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish

Oilada bolaga e’tibor va mehr yetishmasligi	Ota-onalarga oilaviy muloqot madaniyatini o‘rgatish bo‘yicha treninglar o‘tkazish
Bola nutqida nuqsonlarni erta aniqlash tizimi yo‘qligi	Maktabgacha ta’lim muassasalarida logopedik skrining tekshiruvlarini yo‘lga qo‘yish
Nutq terapiyasi uchun zarur jihoz va materiallar yetishmasligi	Ta’lim muassasalarini logopedik vositalar bilan ta’minlash
Bolaning ruhiy holatini baholash mexanizmlarining sustligi	Psixologik diagnostika tizimini kuchaytirish va doimiy monitoring o‘tkazish
Tarbiyachilar va logopedlar o‘rtasida hamkorlikning sustligi	Mutaxassislar o‘rtasida muntazam interaktiv seminar va tajriba almashish mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkuri rivojlanishida nutq hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bola nutqi rivojlanar ekan, uning tafakkuri, muloqot madaniyati, ijodkorligi va ijtimoiy faolligi ortadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlari ko‘p jihatdan ularning ruhiy holati va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq bo’ladi. Psixologik omillarni erta aniqlash va kompleks yondashuv asosida tuzatish choralari ko‘rilsa, bolaning nutqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi muvozanatli bo‘ladi. Bu borada, tarbiyachi, ota-ona, logoped va psixologning hamkorligi nutq buzilishlarini bartaraf etishning eng samarali yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Voxidova N. *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.* – Toshkent, 2020.
2. Xodjayev A. *Umumiy psixologiya asoslari.* – Toshkent, 2019.
3. Karimova V.M. *Bolalar psixologiyasi.* – Toshkent, 2021.
4. Shirinova D. *Logopediya asoslari.* – Toshkent, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil.
6. Vygotskiy L.S. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi”. – Moskva, 1984.
7. Omonov B. “Nutq madaniyati va psixologiyasi”. – Toshkent, 2020.
8. Турдиева, М. "Мактабгача таълим ташкилотлари “Тил ва нутқ” марказида тарбияланувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш." *Центр Научных Публикаций (buxdu. uz)* 8.8 (2021).
9. Tanzilovich, Olimov Kakhramon, and Turdieva Mokhira Jurakulovna. "Innovative approach and state training program" First Step" in the implementation of the process of preschool education and training." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.4 (2021): 817-821.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

UDK: 796.322.015.3

GANDBOLDA HUJUM HARAKATLARIGA DARVOZABONNING KOORDINATSIYON VA ADAPTIV TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODLARI

Xatamov Zafarjon Nazirjonovich
Qo‘qon davlat universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrasi professori
Elektron pochta: zxatamovjm@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-3496-3837

Annotatsiya. Ushbu maqolada gandbolda hujum harakatlariga qarshi darvozabonning koordinatsion va adaptiv tayyorgarligini takomillashtirish metodlari yoritilgan. Tadqiqot davomida darvozabonlarning harakat tezkorligi, fazoviy idrok va qaror qabul qilish ko‘nikmalari tahlil qilinib, maxsus mashg‘ulotlar tizimi taklif etildi. Natijalar ularning o‘yin samaradorligini sezilarli oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: gandbol, darvozabon, koordinatsiya, adaptatsiya, tezkorlik, fazoviy idrok, refleks, qaror qabul qilish, hujum harakati, psixomotor, texnik tayyorgarlik, mashg‘ulot tizimi, nazorat testi, natija tahlili, samaradorlik[70].

Abstract. This article highlights methods for improving the goalkeeper’s coordinative and adaptive preparedness against attacking actions in handball. During the research, the movement speed, spatial perception, and decision-making skills of goalkeepers were analyzed, and a special training system was proposed. The results showed a significant increase in their game efficiency.

Keywords: handball, goalkeeper, coordination, adaptation, quickness, spatial perception, reflex, decision-making, attacking action, psychomotor, technical preparedness, training system, control test, result analysis, efficiency.[71]

KIRISH. So‘nggi yillarda jahon gandbolida o‘yin sur’atining keskin ortishi darvozabonlardan yuqori darajadagi koordinatsion va adaptiv tayyorgarlikni talab etmoqda.

[70] Xatamov Z.N. (2025) Development of mobility against a goalkeeper against an attack kick in a handball game NamDPI "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali 2025-yil 2-soni
[71] Xatamov Z.N. (2025) Development of mobility against a goalkeeper against an attack kick in a handball game NamDPI "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali 2025-yil 2-soni

Hujum harakatlarining xilma-xilligi, to‘p uzatish va zarbalar tezligining ortishi darvozabonning qaror qabul qilish tezligini hamda harakat moslashuvchanligini belgilovchi muhim omilga aylangan. Shu sababli darvozabonning tayyorgarlik tizimida nafaqat jismoniy, balki psixologik va fazoviy ko‘nikmalarni shakllantirish zarur (Abduqodirov, 2021).[72]

Ilmiy manbalarda (Bespalov, 2019; Kadirov, 2022) qayd etilishicha, darvozabonlar uchun maxsus koordinatsion mashg‘ulotlar reaksiya tezligini oshiradi, bu esa hujumga qarshi samarali javob berish imkonini yaratadi. Shu bois ushbu tadqiqotning maqsadi — hujum harakatlariga qarshi darvozabonlarning koordinatsion va adaptiv tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va amaliy samaradorligini baholashdan iborat.[73]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Darvozabon tayyorgarligi masalasi jahon gandbolida eng muhim o‘rganish yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda (Bespalov, 2019; Müller, 2020) darvozabon faoliyati o‘zining murakkab koordinatsion va psixomotor tuzilishi bilan ajralib turishi qayd etilgan. Ayniqsa, hujum harakatlariga qarshi himoyalanish jarayonida darvozabonning fazoviy idroki, harakatlar ketma-ketligini rejalashtirish qobiliyati va reaksiya tezligi muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham darvozabon tayyorgarligini takomillashtirishda koordinatsion va adaptiv yondashuvlarning integratsiyasi zamonaviy sport nazariyasida alohida o‘rin tutadi[74].

Abduqodirov (2021) o‘z tadqiqotida darvozabonlarning texnik-taktik harakatlarini tahlil qilar ekan, ularning muvaffaqiyati ko‘p hollarda qaror qabul qilish tezligiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, darvozabon to‘p zarbasi yo‘nalishini oldindan taxmin qilishi uchun nafaqat vizual idrok, balki kinestetik sezgi va koordinatsion reflekslar ham muhim. Shu bilan birga, Kadirov (2022) koordinatsion mashqlarni takroriy harakatlar asosida emas, balki o‘zgaruvchan sharoitlarda tashkil etish zarurligini uqtiradi. Bunday yondashuv harakat stereotiplarini yangilash va moslashuvchanlikni kuchaytiradi.

Xorijiy adabiyotlarda (Hoffman, 2018; Müller, 2020) darvozabonlarning adaptiv tayyorgarligi kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan izohlanadi. Hoffman o‘z tadqiqotida sportchining “stress ostidagi qaror qabul qilish mexanizmi”ni o‘rganib, murakkab o‘yin vaziyatlarida qarorlarning 60% dan ortig‘i intuitiv refleks asosida shakllanishini aniqlagan. Shu sababli u adaptiv tayyorgarlikni rivojlantirish uchun psixomotor mashqlar, diqqatni taqsimlash mashqlari va o‘yinli simulyatsiyalarni joriy etishni tavsiya etadi.

Sodiqov (2022) tomonidan olib borilgan mahalliy tadqiqotlarda esa axborot texnologiyalariga asoslangan reaksiya mashqlari samaradorligi o‘rganilgan. Unga ko‘ra, raqamli simulyatorlar yordamida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar darvozabonlarning zarbaga javob

[72] Abduqodirov A. (2021). Gandbolda darvozabonlarning texnik-taktik tayyorgarligini baholash tizimi. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya Universiteti.
[73] Kadirov S. (2022). Sportchilarning koordinatsion sifatlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. Qo‘qon: Ilm Ziyo.
[74] Müller, H. (2020). Cognitive and motor coordination in elite goalkeepers. Journal of Handball Research, 12(1), 24–30.

berish tezligini 17–19% ga oshirgan. Bu esa adaptiv tayyorgarlikni kuchaytirish uchun texnologik vositalardan foydalanish istiqbollarini ko‘rsatadi.[75]

Kurbanov (2021) esa darvozabonlar tayyorgarligida muvozanat va tezlik sifatlarini rivojlantirishni birgalikda amalga oshirish muhimligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, dinamik muvozanatni saqlash qobiliyati koordinatsion tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Shuningdek, harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish, zarbani kutish vaqtida tana og‘irligini to‘g‘ri taqsimlash kabi mashqlar darvozabonning funksional tayyorgarligini oshiradi[76].

Bespalov (2019)ning “Modern Goalkeeping in Handball” asarida darvozabon faoliyatini boshqaruvchi koordinatsion mexanizmlar tizimli tarzda tahlil qilingan. Muallif koordinatsion mashqlarni vizual-motor integratsiya orqali bajarish (masalan, ikki yo‘nalishda to‘pni tutish yoki turli zarba balandliklariga moslashish) orqali o‘yin samaradorligini 20% gacha oshirish mumkinligini ta’kidlaydi.[77]

Shuningdek, Müller (2020) tomonidan o‘tkazilgan tajriba natijalariga ko‘ra, darvozabonning kognitiv yuklamalar ostidagi reaksiya vaqti o‘yinning muhim momentlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli murabbiylar tayyorlov jarayonida qaror qabul qilishni murakkablashtiruvchi o‘yinli mashqlarni kiritishlari lozim.[78]

Mazkur ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, darvozabonning muvaffaqiyatli o‘yini uchun faqat jismoniy tayyorgarlik emas, balki koordinatsion, psixomotor va adaptiv tayyorgarlik komponentlarini uyg‘unlashtirish zarur. Bunday yondashuv o‘yin sharoitida tez fikrlash, tez javob qaytarish va muvozanatni saqlash imkonini beradi. Shu jihatdan, ushbu tadqiqotning yangiligi — koordinatsion va adaptiv metodlarni integratsiyalashgan mashg‘ulot tizimi asosida darvozabon tayyorgarligini ilmiy asoslashdan iboratdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning asosiy maqsadi — gandbolda hujum harakatlariga qarshi darvozabonning koordinatsion va adaptiv tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba asosida aniqlashdan iborat bo‘ldi. Shu bois tadqiqotda eksperimental, kuzatuv, test va statistik tahlil usullari kompleks tarzda qo‘llanildi.

Tajriba ishlari 2024–2025 o‘quv yillari davomida Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani sport maktabi huzuridagi sport seksiyalarida tashkil etildi. Tadqiqotda 13–15 yoshli, kamida 3 yillik o‘yin tajribasiga ega bo‘lgan 20 nafar darvozabon ishtirok etdi. Ular sport

[75] Sodiqov D. (2022). Darvozabonlarni tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. Sport va fan, 7(2), 41–45.
[76] Kurbanov M. (2021). Gandbolda tezlik va muvozanatni rivojlantirish mashqlari. Jismoniy madaniyat jurnali, 4(3), 55–60.
[77] Bespalov, A. (2019). Modern goalkeeping in handball: Coordination training principles. Moscow: Sport Science Press.
[78] Müller, H. (2020). Cognitive and motor coordination in elite goalkeepers. Journal of Handball Research, 12(1), 24–30.

tayyorgarligi darajasiga qarab tajriba guruhi (n=10) va nazorat guruhi (n=10) sifatida tasodifiy usulda ajratildi.[79]

Tajriba dasturi ikki asosiy bosqichda olib borildi:

1. Diagnostik bosqich (2 hafta): ishtirokchilarning boshlang‘ich koordinatsion va adaptiv ko‘rsatkichlari aniqlanib, ularning tezkor reaksiya va harakat aniqligi o‘lchandi.

2. Amaliy-tajriba bosqichi (8 hafta): tajriba guruhida maxsus ishlab chiqilgan mashg‘ulot dasturi joriy etildi.

Mashg‘ulot metodikasi

Tajriba dasturi darvozabonlarning koordinatsion harakatlari va adaptiv qaror qabul qilish qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishga yo‘naltirildi. Mashg‘ulotlar haftasiga 3 marta, har biri 75 daqiqadan o‘tkazildi. Dastur quyidagi komponentlardan iborat bo‘ldi:

Koordinatsion tayyorgarlik mashqlari:

ikki to‘p bilan sinxron harakat mashqlari (qo‘l va oyoq muvofiqligi uchun);

to‘pni kutilmagan yo‘nalishdan tutish mashqlari;

fazoviy orientatsiya va muvozanat mashqlari (ko‘z yopiq holatda harakatni aniqlash, raqamli belgi reaksiyasi).

Adaptiv tayyorgarlik mashqlari:

tezkor qaror qabul qilish uchun “reaksion o‘yinlar” (masalan, murabbiy tomonidan kutilmagan signal berilishi bilan pozitsiya o‘zgartirish);

“stress sharoitida harakat” topshiriqlari (o‘yin davomida raqib zarbalari tezligini o‘zgartirish orqali adaptiv reaksiya chaqirish);

vizual-motor koordinatsiyani rivojlantiruvchi kompyuter dasturlari orqali interaktiv mashqlar (refleksni tahlil qilish dasturi yordamida).

Mashg‘ulot jarayonida darvozabonlarning yurak urish tezligi, harakat reaksiyasi va psixologik holati muntazam kuzatib borildi. Shuningdek, har bir ishtirokchi uchun individual yondashuv qo‘llanildi — bu ularning psixofiziologik imkoniyatlariga mos yuklama berish imkonini yaratdi.[80]

Baholash mezonlari va testlar

Tajriba samaradorligini aniqlash uchun quyidagi testlar o‘tkazildi:

Reaksiya tezligi testi: 10 ta kutilmagan signalga javob berish vaqti (millisekundda);

To‘pni qaytarish aniqligi testi: 20 ta zarbadan qaytarilgan to‘p foizi;

Fazoviy idrok testi: turli burchaklardan kelayotgan zarbalarda pozitsiyani to‘g‘ri tanlash darajasi (%);

Adaptiv javob testi: o‘yin davomida 5 xil hujum shakliga qarshi moslashuv darajasi.

[79] Xatamov Z.N. (2025) Gandbolchi harakatlariga darvozabonning taktik tayyorgarlikni takomillashtirish uslubiyati Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 2-son

[80] Xatamov Z.N. (2025) Development of mobility against a goalkeeper against an attack kick in a handball game NamDPI "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali 2025-yil 2-soni

O‘lchov natijalari 8 haftalik tajriba oldi va so‘nggi bosqichlarda solishtirilib, “Student t-testi” orqali statistik tahlil qilindi. Shuningdek, Pearson korrelyatsion tahlili yordamida darvozabonlarning koordinatsion va adaptiv ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi aniqlangan.

Ilmiy-uslubiy asoslar

Tadqiqotning ilmiy asosini koordinatsion qobiliyatlarning neyromuskulyar nazorati (Müller, 2020) va psixomotor adaptatsiya nazariyasi (Hoffman, 2018) tashkil etdi. Unga ko‘ra, darvozabonning samaradorligi nafaqat jismoniy tayyorgarlikka, balki kognitiv tahlil tezligi va muvofiqlashtirilgan refleks javobiga ham bog‘liq. Shu sababli metodika fiziologik, psixologik va pedagogik tamoyillar uyg‘unligida ishlab chiqildi.

Metodik yondashuv “ko‘nikma–refleks–qaror” modeli asosida qurildi. Bu modelda darvozabonlarning sensor tahlil (ko‘rish), motor javob (harakat) va kognitiv tahlil (qaror qabul qilish) komponentlari ketma-ket mashq orqali rivojlantirildi.

Tadqiqot metodologiyasi o‘zining tizimlilik, nazorat qilinuvchanlik va takrorlanuvchanlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa natijalarning ilmiy ishonchliligini va metodikaning amaliy qo‘llanish imkoniyatini ta’minladi.[81]

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Tadqiqot davomida gandbol darvozabonlarining hujum harakatlariga qarshi faoliyatidagi asosiy ko‘rsatkichlar — reaksiya vaqti, fazoviy aniqlik va to‘pni qaytarish samaradorligi kabi parametrlar tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida dastlabki bosqichda sezilarli farq kuzatilmadi ($p>0.05$). Bu esa guruhlarning tayyorgarlik darajasi bir xil ekanini ko‘rsatadi.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, dastlabki o‘lchovlarda tajriba guruhida o‘rtacha reaksiya vaqti 410 ± 35 ms, to‘pni qaytarish samaradorligi 58.6 ± 4.1%, fazoviy aniqlik esa 74.2 ± 5.0% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar o‘rta darajadagi texnik va koordinatsion tayyorgarlikka xos natijalardir.

Tajriba guruhiga 8 haftalik koordinatsion-adaptiv mashg‘ulotlar tizimi joriy etilgach, yakuniy nazoratda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. 2-jadvalga ko‘ra, tajriba guruhining reaksiya vaqti 340 ± 28 ms gacha qisqardi, bu esa 17,1% yaxshilanishni ko‘rsatadi ($p<0.05$). Shuningdek, to‘pni qaytarish samaradorligi 69.3 ± 4.5% gacha oshdi (taxminan 10,7% ijobiy o‘sish). Fazoviy aniqlik ham 83.4 ± 4.2% gacha yetib, 9,2% yaxshilanish qayd etildi.

Nazorat guruhida esa deyarli barqaror ko‘rsatkichlar saqlanib qoldi (reaksiya vaqti 398 ± 31 ms, fazoviy aniqlik 74.9 ± 4.8%). Bu esa qo‘llanilgan metodikaning bevosita ta’sirini tasdiqlaydi.

[81] Xatamov Z.N. (2025) Milliy o‘yinlar orqali gandbol o‘yinida darvozabonni hujum zarbasiga qarshi turishini takomillashtirish. Turkiy xalqlar milliy o‘yinlarning dolzarb muammolari va pedagogik xususiyatlari xalqaqro ilmiy-amaliy anjuman Qo‘qon-2025

Tahliliy jihatdan, koordinatsion mashqlar majmuasi — ayniqsa, ikki to‘p bilan parallel harakat, ko‘z bilan kuzatish mashqlari, kutilmagan zarbalarni qaytarish o‘yinlari — vizual-motor reflekslarni faollashtirgan. Natijada darvozabonning qaror qabul qilish tezligi oshib, harakatlarining aniqligi va moslashuvchanligi yuqoriladi.[82]

Adaptiv tayyorgarlik elementi sifatida qo‘llangan psixologik barqarorlik mashqlari (vizual signallar asosida to‘pga chiqish, stressli vaziyatni simulyatsiya qilish) darvozabonning hujum bosimi ostida to‘g‘ri pozitsiyani tanlash ko‘nikmasini mustahkamladi. Ushbu natijalar ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar (Müller, 2020; Sodiqov, 2022) bilan uyg‘unlikda bo‘lib, koordinatsion-adaptiv yondashuvlar kompleks qo‘llanganda sportchining funksional tayyorgarligi sezilarli oshishini yana bir bor tasdiqlaydi.[83]

Bundan tashqari, tajriba guruhida mashg‘ulot jarayonidagi stress omillariga moslashish qobiliyati ham yaxshilandi. Mashg‘ulotlar oxirida o‘tkazilgan psixologik so‘rovnomalarda 80% darvozabon o‘zining “hujumchining harakatini oldindan sezish” imkoniyati yaxshilanganini qayd etgan.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari koordinatsion-adaptiv tayyorgarlik metodikasi gandbolda darvozabonning o‘yin samaradorligini oshiruvchi ilmiy asoslangan usul ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu metodika sport tayyorlov tizimiga tatbiq etilganda, himoya faoliyatining barqarorligi va hujum harakatlariga qarshi reaksiya aniqligi sezilarli darajada kuchayadi.[84]

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gandbolda hujum harakatlariga qarshi darvozabonning koordinatsion va adaptiv tayyorgarligini takomillashtirish o‘yin samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Koordinatsion mashg‘ulotlar darvozabonlarda harakat aniqligi, tezkor yo‘nalish o‘zgarishlari va vizual signallarga reaksiya tezligini rivojlantiradi. Adaptiv mashg‘ulotlar esa psixomotor barqarorlikni oshirib, o‘yin davomida stress holatida to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

Tajriba jarayonida qo‘llanilgan kompleks mashg‘ulot tizimi darvozabonlarning o‘yin paytidagi fazoviy orientatsiyasi va zarbani qaytarish ko‘rsatkichlarini sezilarli yaxshiladi ($p<0.05$). Natijalar shuni ko‘rsatdiki, reaksiya vaqti 17% ga, harakat aniqligi 9% ga, samaradorlik esa 10–12% ga oshgan. Bu esa taklif etilgan metodikaning amaliy samaradorligini isbotlaydi.[85]

Metodik jihatdan, mazkur yondashuv o‘quv-trenirovka jarayoniga integratsiyalashgan holda, sportchilarni sharoitga tez moslasha oladigan, refleksiv fikrlaydigan va taktik qaror

[82] Xatamov Z.N. (2025) Gandbolchi harakatlariga darvozabonning taktik tayyorgarlikni takomillashtirish uslubiyati Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 2-son
[83] Müller, H. (2020). Cognitive and motor coordination in elite goalkeepers. Journal of Handball Research, 12(1), 24–30.
[84] Hoffman, J. (2018). Adaptive behavior under pressure in team sports. International Journal of Sports Psychology, 45(3), 198–210.
[85] Abdullayev, R. (2022). Sport o‘yinlarida psixotaktik tayyorgarlik metodikasi. Qo‘qon DPI Ilmiy axborotlari, 3(2), 78–83.

qabul qilish qobiliyatiga ega darvozabon sifatida shakllantirishga yordam beradi. Shu boisdan, sport maktablari, oliy ta’lim muassasalari va professional klub dasturlarida koordinatsion-adaptiv tayyorgarlik mashg‘ulotlarini muntazam qo‘llash tavsiya etiladi.

Kelgusida tadqiqotni kengaytirish, yosh va malaka darajasiga ko‘ra individual adaptiv dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, raqamli texnologiyalar va simulyatsion tizimlardan foydalanish orqali darvozabon tayyorgarligini yanada chuqurlashtirish istiqbollidir.[86]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A. (2021). Gandbolda darvozabonlarning texnik-taktik tayyorgarligini baholash tizimi. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya Universiteti.

2. Kadirov S. (2022). Sportchilarning koordinatsion sifatlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. Qo‘qon: Ilm Ziyo.

3. Kurbanov M. (2021). Gandbolda tezlik va muvozanatni rivojlantirish mashqlari. Jismoniy madaniyat jurnali, 4(3), 55–60.

4. Sodiqov D. (2022). Darvozabonlarni tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. Sport va fan, 7(2), 41–45.

5. Bespalov, A. (2019). Modern goalkeeping in handball: Coordination training principles. Moscow: Sport Science Press.

6. Müller, H. (2020). Cognitive and motor coordination in elite goalkeepers. Journal of Handball Research, 12(1), 24–30.

7. Hoffman, J. (2018). Adaptive behavior under pressure in team sports. International Journal of Sports Psychology, 45(3), 198–210.

8. Abdullayev, R. (2022). Sport o‘yinlarida psixotaktik tayyorgarlik metodikasi. Qo‘qon DPI Ilmiy axborotlari, 3(2), 78–83.

9. Xatamov Z.N. (2025) Gandbolchi harakatlariga darvozabonning taktik tayyorgarlikni takomillashtirish uslubiyati Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 2-son

10. Xatamov Z.N. (2025) Development of mobility against a goalkeeper against an attack kick in a handball game NamDPI "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali 2025-yil 2-soni

11. Xatamov Z.N. (2025) Milliy o‘yinlar orqali gandbol o‘yinida darvozabonni hujum zarbasiga qarshi turishini takomillashtirish. Turkiy xalqlar milliy o‘yinlarning dolzarb muammolari va pedagogik xususiyatlari xalqaqro ilmiy-amaliy anjuman Qo‘qon-2025

[86] Xatamov Z.N. (2025) Gandbolchi harakatlariga darvozabonning taktik tayyorgarlikni takomillashtirish uslubiyati Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 2-son

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

YENGIL ATLETIKA DARSLARIDA TEZKOR CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH (PREZIDENT MAKTABI O‘QUVCHILARI MISOLIDA)

Xamudov Mirjalol Olim o‘g‘li
Jizzax shahridagi Prezident maktabi
Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi
Elektron pochta: mirjalolbekxamudov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Prezident maktabi o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirishda yengil atletika darslarining ahamiyati va tezkor chidamlilik sifatini shakllantirishning samarali metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, fiziologik imkoniyatlari va psixomotor rivojlanish darajasidan kelib chiqib, tezkor chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot shakllari, yuklama me’yorlari va nazorat usullari ilmiy asosda tavsiya etiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yengil atletika darslarida to‘g‘ri tanlangan mashqlar tizimi o‘quvchilarning yurak-qon tomir tizimi, nafas olish faoliyati hamda umumiy jismoniy tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: Yengil atletika, tezkor chidamlilik, Prezident maktabi, jismoniy rivojlanish, o‘quvchilar, mashg‘ulot metodikasi, yuklama, pedagogik tajriba.

Аннотация: В статье рассматривается роль уроков лёгкой атлетики в повышении физической подготовленности учащихся Президентской школы и методы эффективного развития скоростной выносливости. В исследовании предложены научно обоснованные подходы к организации занятий с учётом возрастных и физиологических особенностей детей, норм нагрузки и методов контроля. Результаты показывают, что систематические занятия лёгкой атлетикой способствуют улучшению работы сердечно-сосудистой и дыхательной систем, повышению общей физической подготовленности и устойчивости учащихся к утомлению.

Ключевые слова: Лёгкая атлетика, скоростная выносливость, Президентская школа, физическое развитие, учащиеся, методика тренировки, нагрузка, педагогический эксперимент.

Abstract: This article analyzes the importance of athletics lessons in improving the physical fitness of Presidential School students and examines effective methodological approaches to developing speed endurance. The research presents scientifically grounded methods for organizing physical training sessions based on students’ age, physiological characteristics, workload norms, and control techniques. The findings indicate that properly

structured athletics lessons significantly enhance students’ cardiovascular and respiratory functions, improve overall physical performance, and increase resistance to fatigue.

Keywords: Athletics, speed endurance, Presidential School, physical development, students, training methodology, workload, pedagogical experiment.

Kirish. Hozirgi davrda ta’lim tizimida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, **Prezident maktablari** misolida bu yo‘nalish yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning intellektual, ma’naviy va jismoniy salohiyatini uyg‘un rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Jismoniy tarbiya darslari orqali o‘quvchilarda harakat ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning kuch, tezlik, chaqqonlik, muvozanat, chidamlilik va boshqa jismoniy sifatlarini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir. **Yengil atletika** fani esa jismoniy tarbiya tizimida yetakchi o‘rin tutuvchi sport turlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarda tezkorlik, kuch, koordinatsiya, psixofiziologik barqarorlik va ayniqsa, **tezkor chidamlilik**ni shakllantirish imkonini beradi.

Tezkor chidamlilik — bu sportchi yoki o‘quvchining yuqori tezlikda harakatni uzoq vaqt davom ettirish, charchoqqa bardosh berish hamda energiya zaxiralaridan oqilona foydalanish qobiliyatidir. Ushbu sifatni rivojlantirish, ayniqsa **Prezident maktabi o‘quvchilari** orasida, fiziologik jarayonlarning faolligi yuqori bo‘lgan davrda, organizmning sog‘lom o‘sishiga, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining faoliyatiga, mushak kuchi va koordinatsion imkoniyatlarning takomillashuviga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yurtimizda yosh avlodni jismoniy tarbiya va sport orqali har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan davlat siyosati doirasida ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar, dastur va loyihalar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan **“Sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror (2020-yil 30-oktabr)** hamda “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston sportini rivojlantirish strategiyasi”da yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda yengil atletika kabi bazaviy sport turlarining o‘rni alohida ta’kidlangan.

Shu sababli **Prezident maktablarida yengil atletika darslarida tezkor chidamlilikni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlarni ishlab chiqish** va amaliyotga tadbiq etish bugungi kunda pedagogik hamda sport nazariyasi nuqtayi nazaridan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy maqolada aynan Prezident maktabi o‘quvchilari misolida yengil atletika darslarida tezkor chidamlilikni rivojlantirishning nazariy asoslari, metodik yo‘nalishlari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tezkor chidamlilikni rivojlantirish masalasi sport fiziologiyasi, pedagogik psixologiya va jismoniy tayyorgarlik nazariyasida keng tadqiq etilgan, biroq **yengil atletika darslari sharoitida, ayniqsa Prezident maktabi o‘quvchilari misolida**, bu yo‘nalish hali yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. V.I. Lyax (2010), V.G. Nikitushkin (2012), A.P. Matveev (2015) kabi olimlarning tadqiqotlarida jismoniy sifatlarning o‘zaro bog‘liqligi, mashg‘ulotlarda yuklamani tartibga solish, energiya almashinuvi tizimining takomillashuvi va chidamlilikni oshirish mexanizmlari yoritib berilgan. Ularning fikricha, tezkor chidamlilik mashqlari o‘quvchining yurak-qon tomir tizimini chiniqtiradi, mushak to‘qimalarida kislorod almashuvini yaxshilaydi hamda sport faoliyati davomida charchashga bardoshlilikni oshiradi.

O‘zbekistonlik olimlardan T.S. Usmonxodjayev (2018), S.S. Tajibayev (2019), K.T. Shakirjanova (2020) va boshqalar o‘z tadqiqotlarida yengil atletika mashg‘ulotlarida harakat sifati va chidamlilikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilganlar. Ularning izlanishlariga ko‘ra, **Prezident maktabi o‘quvchilarda** tezkor chidamlilikni rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarni o‘yin shaklida tashkil etish, musobaqa elementlaridan foydalanish, individual yuklama me’yorlarini aniqlash muhim metodik ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy sport pedagogikasi vakillari — E.R. Andris (2017), D. Bompa (2019) va N. Verkhoshanskiy (2021) tezkor chidamlilikni shakllantirishda interval mashg‘ulotlar, tempni oshirib boruvchi yugurish mashqlari va fazali yuklamalardan foydalanish samarali natijalar berishini ta’kidlaganlar. Ularning ta’kidlashicha, chidamlilikni rivojlantirish mashqlari faqat mushak tizimini emas, balki markaziy asab tizimini ham chiniqtiradi, bu esa o‘quvchining psixologik tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, **Prezident maktablarida yengil atletika darslarini tashkil etishda** o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlari, individual farqlari hamda darslarning davomiyligi va yuklama darajasi ilmiy asosda inobatga olinishi zarur. Shu bilan birga, milliy sharoitga mos metodik tavsiyalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning ilmiy va amaliy ehtiyojlaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘tkazilgan pedagogik tajribaning asosiy maqsadi — yengil atletika darslari jarayonida o‘quvchilarda tezkor chidamlilik sifatini rivojlantirishning samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot Prezident maktabining 10–12 yoshli o‘quvchilari misolida olib borildi, bu yosh davri fiziologik jihatdan jadal o‘sish, mushak massasining ortishi, yurak-qon tomir tizimi hajmiy imkoniyatlarining kengayishi bilan tavsiflanadi. Aynan shu davrda to‘g‘ri tanlangan yuklama, metodika va o‘yin elementlariga asoslangan mashqlar o‘quvchilarning tezlik va chidamlilik sifatlarini uyg‘un rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Pedagogik tajriba davomida o‘quvchilar ikki guruhga — nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Har ikkala guruhda ham mashg‘ulotlar haftasiga 3 marotaba o‘tkazildi, ammo tajriba guruhida darslar mazmuniga harakatli o‘yinlar, intervalli yugurish

mashqlari, qisqa masofali sprintlar (20–60 m) va kombinatsiyalashgan yuklamalar kiritildi. Mashg‘ulotlar 3 oy davomida muntazam olib borildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, dastlabki sinovda nazorat va tajriba guruhlarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari o‘xshash bo‘lgan ($p>0,05$). Ammo yakuniy sinovda tajriba guruhi o‘quvchilarining tezkor chidamlilik natijalari sezilarli darajada yuqori bo‘ldi ($p<0,01$).

300 metr masofaga yugurish sinovida:

- nazorat guruhidagi o‘g‘il bolalar o‘rtacha 1:06,4 daqiqa,
- tajriba guruhi o‘g‘il bolalari esa 1:00,7 daqiqa natijani ko‘rsatdi, bu 8,6 % o‘sishni ifodalaydi.

Qiz bolalarda esa o‘rtacha natijalar:

- nazorat guruhida 1:14,5 daqiqa,
- tajriba guruhida 1:08,2 daqiqa bo‘lib, 8,4 % yaxshilanish qayd etildi.

Shuningdek, 40 metrga tez yugurish, 600 metr masofani o‘rtacha tezlikda bosib o‘tish hamda 10 daqiqalik yugurishda umumiy masofa ko‘rsatkichlarida ham ijobiy dinamikalar kuzatildi. Bularning barchasi o‘quvchilarda tezlikni uzoq muddat ushlab turish, charchashga bardoshlilik va yugurish texnikasini barqaror saqlash qobiliyati ortganidan dalolat beradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tezkor chidamlilikning rivojlanishi mushaklar energiya ta’minoti tizimlarining moslashuvchanligini oshirish, yurakning zarba hajmini ko‘paytirish va nafas olish chuqurligini yaxshilash bilan uzviy bog‘liq. Mashg‘ulot jarayonida anaerob va aerob yuklamalarning to‘g‘ri nisbatda qo‘llanilishi energiya sarfini iqtisodiylashtirdi, bu esa yugurish davomida tezlikni uzoq saqlab turish imkonini berdi. Bundan tashqari, harakatli o‘yinlar asosidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning emosional holatini barqarorlashtirdi, raqobat muhitida harakat tezligini boshqarish, diqqatni jamlash va tez qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamladi. Psixofiziologik testlar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi o‘quvchilarining reaksiya vaqti 9–12 % ga tezlashgan, yurak urish chastotasining tiklanish davri esa 15–18 % ga qisqargan. Matematik-statistik tahlil (Pearson korrelyatsiyasi) natijalariga ko‘ra, tezkor chidamlilik bilan tezlik ($r = 0,87$), koordinatsion qobiliyat ($r = 0,81$) hamda kuch chidamliligi ($r = 0,78$) o‘rtasida yuqori ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu holat o‘quvchilarda tezkor chidamlilikni rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarni kompleks tarzda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tajriba jarayonida darslarda o‘yin elementlarini qo‘llash o‘quvchilarning motivatsiyasini 26 % ga oshirdi, bu esa ularning mashg‘ulotlarga faol ishtirok etishini ta’minladi. O‘quvchilarning 82 % qismida tezkor chidamlilik darajasi o‘rtacha va yuqori ko‘rsatkichlar qatoriga ko‘tarildi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yengil atletika darslarida o‘quvchilarning tezkor chidamlilik sifatini rivojlantirish — nafaqat ularning sport texnikasi va jismoniy tayyorgarligini, balki funksional imkoniyatlari, psixofiziologik holati va sog‘lig‘ini yaxshilashga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu sifatni shakllantirish jarayoni fiziologik, pedagogik va psixologik omillar uyg‘unligida tashkil etilgandagina yuqori samaraga erishish

mumkin. O‘tkazilgan tajribalar asosida aniqlanishicha, harakatli o‘yinlar, intervalli yugurish mashqlari, qisqa masofali sprintlar va kombinatsiyalashgan yuklamalar tizimli qo‘llanilganda 10–12 yoshli o‘quvchilarning tezkor chidamlilik darajasi sezilarli darajada oshadi. Ayniqsa, o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda yuqori motivatsiya, raqobat muhiti, emotsional barqarorlik va irodaviy sifatlar mustahkamlanadi, bu esa ularning mashg‘ulot jarayonidagi faolligini 25–30 % gacha oshirish imkonini beradi.

Tahlil jarayonida olingan ilmiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki:

- Tezkor chidamlilikning rivojlanishi yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatini optimallashtiradi, yurak zarba hajmini oshiradi va organizmning kislorodga bo‘lgan ehtiyojini qoplash imkoniyatlarini kengaytiradi;
- Mushak to‘qimalarida energiya almashinuvi samaradorligi ortadi, bu esa yugurish davomida tezlikni uzoq muddat ushlab turish va charchashni kechiktirish imkonini beradi;
- O‘quvchilarda reaksiya tezligi, diqqatni jamlash, harakat koordinatsiyasi va psixologik tayyorgarlik darajasi yaxshilanadi;
- Mashg‘ulotlarda o‘yin va musobaqa elementlaridan foydalanish motivatsiyani 26 % ga, chidamlilik natijalarini esa 8–9 % ga oshirganini ko‘rsatdi.

Statistik tahlil natijalari ($r = 0,81–0,87$) tezkor chidamlilikning tezlik, koordinatsiya va kuch chidamliligi bilan kuchli ijobiy bog‘liqligini tasdiqladi. Bu holat yengil atletika mashg‘ulotlarida jismoniy sifatlarni kompleks tarzda rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqot yakunlari quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Tezkor chidamlilikni rivojlantirish yengil atletika darslarining markaziy maqsadi sifatida belgilanishi lozim. Chunki bu sifat o‘quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini, sog‘lomlik darajasini va sport faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
2. Yoshli o‘quvchilar uchun mashg‘ulot yuklamasi yoshga, jismoniy rivojlanish darajasiga va psixofiziologik holatiga mos ravishda rejalashtirilganda, tezkor chidamlilikni shakllantirish jarayoni eng samarali kechadi.
3. Mashg‘ulot jarayoniga harakatli o‘yinlar, qisqa masofali yugurishlar va intervalli mashqlarni kiritish chidamlilikni rivojlantirishda yuqori natija beradi, chunki bu usullar yuklamani nazorat qilishni, dam olish va kuch sarfini muvozanatlashtirishni ta’minlaydi.
4. Tezkor chidamlilikni oshirish o‘quvchilarning yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining chiniqish darajasini yaxshilaydi, bu esa sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.
5. Yengil atletika darslarida motivatsion va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, faol ishtirokini rag‘batlantiradi hamda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot yengil atletika mashg‘ulotlari jarayonida tezkor chidamlilikni rivojlantirish metodikasining ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilishi ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, o‘quvchilarda sog‘lom jismoniy rivojlanish va sportga bo‘lgan barqaror qiziqishni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги ПФ–5924-сон Фармони. *Jismoniy tarbiya va sport sohasini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi*

2.Сатторов, Ш. (2019). *Қисқа масофага югурувчиларда тезкорлик ва чидамлилик сифатларини ривожлантириш усуллари*. Тошкент: “Fan va texnologiya” нашриёти.

3. Soliyev, I. (2023). *400 metr masofaga yuguruvchilarning tezkor chidamliligini rivojlantirish metodikasi*. PhD dissertatsiyasi. Chirchiq: O‘zDJTSU.

4. Исмоилов, М., ва Хамудов, М. (2024). *Umumta’lim maktab o‘quvchilarida jismoniy tayyorgarlik asosida tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish metodikasi*. Jizzax: Prezident maktabi ilmiy to‘plami.

5. Mirzaev, M. (2021). *Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning chidamlilik sifatlarini shakllantirish usullari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

6. Баканов, В. Н. (2018). *Лёгкая атлетика: теория и методика преподавания*. Москва: Академия.

7. Платонов, В. Н. (2019). *Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте*. Киев: Олимпийская литература.

8. Verkhoshansky, Y. V. (2016). *Fundamentals of Special Strength Training in Sport*. Rome: Verkhoshansky SSTM.

9. Bompa, T. O., & Buzzichelli, C. (2019). *Periodization: Theory and Methodology of Training*. 6th ed. Champaign, IL: Human Kinetics.

10. Noakes, T. D. (2012). *Lore of Running*. 4th ed. Oxford: Oxford University Press.

11. Хайдаров, А. (2022). *Yengil atletika darslarida o‘quvchilarning tezkor sifatlarini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar*. Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyoti.

12. Баранов, А. А. (2020). *Физиологические основы выносливости у детей и подростков*. Москва: Спорт.

13. Turaev, B., & Karimov, R. (2021). *Yosh sportchilarni jismoniy tayyorgarligini baholash mezonlari*. Toshkent: O‘zDJTSU.

14. Bompa, T. (2018). *Total Training for Young Champions*. Champaign: Human Kinetics.

15. Хамраев, Ф. (2023). *Yengil atletika darslarida harakatli o‘yinlar orqali chidamlilikni rivojlantirish*. Jismoniy tarbiya va sport ilmiy jurnali, №2, 45–51-betlar.

16. Matveev, L. P. (2017). *Teoriya i metodika fizicheskoy kultury*. Moskva: Sport Akademiya.

17. Хайруллаев, И. (2020). *Sport mashg‘ulotlarini rejalashtirishda jismoniy sifatlarni uyg‘un rivojlantirish*. Toshkent: TDPU.

18. Bompa, T., & Carrera, M. (2015). *Conditioning Young Athletes*. Human Kinetics, Champaign, IL.

19. Johnson, B. (2021). *Development of Speed Endurance in Youth Track Athletes*. Journal of Physical Education and Sport, Vol. 21(3), 1342–1348.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

QORAQALPOQ AN’ANAVIY O‘YINLARINING TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

Eshmuratov Ajiniyaz Allamuratovich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, stajyor-o’qituvchi
ajiniyazeshmuratov@mail.ru
tel:+998940510080

Annotatsiya. Maqolada Qoraqalpoq an’anaviy o‘yinlarining globallashuv, madaniy integratsiya, urbanizatsiya va zamonaviy kommunikatsiya sharoitida kechayotgan transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. An’anaviy o‘yinlarning kelib chiqishi, tarixiy-etnografik asoslari, ularning shakl va mazmunidagi o‘zgarishlar, marosimiy-kundalik hayotdan sport va ko‘ngilochar formatga o‘tish tendensiyalari yoritiladi. “Ayirplan”, “Archa-archa”, “Maktab-maktab”, “Hindi-hindi, “Aqsuyek”, “Áwélemen-dúwélemen”, “Qazan”, “Arqan tartıs”, “Iyt quyriq” kabi o‘yinlar misolida nom, syujet, o‘yin qoidalari va ijro shaklining yangilanishi, boshqa xalqlar o‘yin madaniyati bilan o‘zaro ta’siri ko‘rsatiladi. An’anaviy o‘yinlarning transformatsiyalashuviga qaramay, ularning etnomadaniy xotirani saqlash, yosh avlodni real hayotga tayyorlash, jismoniy va ma’naviy tarbiyani amalga oshirishdagi o‘rni saqlanib qolayotgani ilmiy xulosalar asosida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoq an’anaviy o‘yinlari, madaniy transformatsiya, globallashuv, etnomadaniy meros, modernizatsiya, bolalar o‘yin madaniyati.

Abstract. The article analyzes the transformation processes of traditional Karakalpak games in the context of globalization, cultural integration, urbanization, and modern communication. The origin of traditional games, their historical and ethnographic foundations, changes in their form and content, and the trends of their transition from ceremonial and everyday life to sports and entertainment formats are covered. The names, plots, rules of the game and the form of its performance, as well as its interaction with the game culture of other peoples, are shown on the example of such games as “Ayirplan”, “Archa-archa”, “Maktab-maktab”, “Hindi-hindi”, “Aqsuyek”, “Áwélemen-dúwélemen”, “Kazan”, “Arqan tartıs”, “Iyt kyuriq”. Despite the transformation of traditional games, their role in preserving ethnocultural memory, preparing the younger generation for real life, and implementing physical and spiritual education is based on scientific conclusions.

Keywords: Karakalpak traditional games, cultural transformation, globalization, ethnocultural heritage, modernization, children's game culture.

Аннотация.В статье анализируются процессы трансформации традиционных каракалпакских игр в контексте глобализации, культурной интеграции, урбанизации и современной коммуникации. Рассматриваются происхождение традиционных игр, их историко-этнографические основы, изменения формы и содержания, тенденции перехода от обрядово-бытовых к спортивно-развлекательным форматам. На примере таких игр, как «Айырплан», «Арча-арча», «Мактаб-мактаб», «Хинди-хинди», «Аксуек», «Авэлемен-дувелемен», «Казан», «Аркан тартыс», «Ийт кюрик», показаны названия, сюжеты, правила игры и форма ее проведения, а также ее взаимодействие с игровой культурой других народов. Несмотря на трансформацию традиционных игр, на основе научных выводов раскрывается их роль в сохранении этнокультурной памяти, подготовке подрастающего поколения к реальной жизни, осуществлении физического и духовного воспитания.

Ключевые слова: каракалпакские традиционные игры, культурная трансформация, глобализация, этнокультурное наследие, модернизация, детская игровая культура.

KIRISH. Bugungi globallashuv, madaniy integratsiya, ommaviy axborot vositalari va urbanizatsiya jarayonlari jamiyatning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, etnomadaniy merosga munosabatni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Aholining turmush tarzi, bo‘sh vaqt madaniyati, bayram va marosim tizimi, bolalar o‘yinlari mazmuni va shakli yangi ko‘rinishlar kasb etmoqda. Qoraqalpoq xalqining an’anaviy o‘yinlari ham uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib, takomillashib, ma’lum darajada transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirgan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, qoraqalpoq an’anaviy o‘yinlarini nafaqat “qiziqarli mashg‘ulot” sifatida, balki etnomadaniy xotira, tarbiyaviy tizim, jamoaviy birdamlik va milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish o‘yinlarning asl mazmun-mohiyatini saqlagan holda, ular qanday yangilanayotganini, qaysi unsurlarini yo‘qotib, qaysilarini boyitayotganini ko‘rsatib beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asarida turkiy xalqlarning qadimiy madaniyati, xususan, o‘yinlar, musobqalar, ayrim harakatli mashq va marosimiy amaliyotlar haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Muallifning fikricha, «oqso‘ngak», «arg‘imchoq», «to‘p o‘yini», «oshiq» kabi o‘yinlar XI asrdayoq turkiy bolalar va kattalar turmushining ajralmas qismi bo‘lgan va ular tarbiyaviy hamda jamoaviy hayotni tashkil etishda muhim funksiya bajargan [1]. Bu ma’lumotlar o‘yinlarning uzoq davriylikka ega an’ana sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

«O‘zbek xalq o‘yinlari va milliy sport turlarini qayta tiklash» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida xalq o‘yinlarining zamonaviy tarbiya va jismoniy madaniyat tizimidagi o‘rni yoritilgan. Anjumandagi tezislar mualliflarining fikricha, milliy o‘yinlar jismoniy tayyorgarlik, jamoaviylik, epchillik, irodaviy sifatlarni shakllantirishda hozir ham katta imkoniyatga ega bo‘lib, ularni qayta tiklash va ommalashtirish zamon talabi sanaladi [2]. Tadqiqotlarda o‘yinlarning sport turlariga aylanish jarayonlari ham qayd etiladi.

S.Y. Valievning fikricha, xalq o‘yinlari tarixiy jarayonlar ta’sirida tizimli ravishda transformatsiyaga uchrab kelgan bo‘lib, ayrim o‘yinlar mazmunan boyib, ba’zilari esa yangi nom va yangi ijro shakllari bilan qayta namoyon bo‘lgan [3]. Muallif zamonaviy urbanizatsiya, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, texnologiyalar va ommaviy madaniyatning kirib kelishi mahalliy o‘yinlarga ta’sir ko‘rsatayotganini ta’kidlaydi.

Ye.M. Peshereva ko‘chmanchi va o‘troq aholi o‘yinlarini etnografik metodlar asosida o‘rganib, o‘yinlarning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, bolalar psixologiyasi bilan bog‘liq jihatlari va marosimiy funksiyalarini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, bolalar o‘yinlari yosh avlodning mehnatga, jamiyatga, madaniy muhitga moslashuvida muhim vosita bo‘lgan va ayrim o‘yinlar turkiy xalqlar o‘rtasida umumiylik kasb etgan [4]. Peshereva o‘tgan asrning 20–50 yillaridagi materiallarga tayangan holda o‘yinlarning o‘zgarish dinamikasini ham ko‘rsatib beradi.

G. Valixonovaning tadqiqotlarida Farg‘ona vodiysi uyg‘urlarining etnomadaniyati, tarbiya tizimi va bolalar o‘yinlari o‘rtasidagi uzviylik ochib berilgan. Uning fikricha, mahalliy o‘yinlar ko‘p hollarda qo‘shni xalqlar bilan madaniy aloqalar natijasida transformatsiyaga uchragan, ayrim o‘yinlar nom, shakl va qoida jihatdan o‘zgargan bo‘lsa-da, ularning tarbiyaviy vazifalari saqlanib qolgan [5]. Muallif madaniy integratsiya o‘yinlarni boyitganini qayd etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qoraqalpoq xalqining an’anaviy o‘yinlari asrlar davomida xalqning xo‘jalik faoliyati, hayot tarzi, maishiy va marosim madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvachilik, dehqonchilik, ovchilik, oilaviy va jamoaviy marosimlar, mavsumiy bayramlar o‘yinlar mazmunida bevosita aks etgan. O‘yinlar orqali bolalar real hayot ko‘nikmalarini o‘rgangan: tez fikrlash, epchillik, jasorat, jamoada harakat qilish, hurmat, itoat, katta-kichik bilan munosabat kabi sifatlar amaliy tarzda shakllangan. Biroq XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy tizim o‘zgarishi, yangi mafkura talablari, ommaviy bayramlarning “sahnalashtirilishi”, televideniye, internet va yangi o‘yin formatlarining kirib kelishi natijasida an’anaviy o‘yinlarning ham shakli, ham mazmuni sezilarli darajada modernizatsiyalashdi. Ba’zi o‘yinlar butunlay yo‘qolib ketmasdan, yangi nom, yangi syujet, yangi atributlar bilan yashashda davom etyapti.

Qator o‘yinlar boshqa xalqlarning an’analaridan kirib kelib, mahalliy muhitda qayta ishlanib, yangi qiyofa kasb etgan. Masalan, qoraqalpoq etnomadaniyatida muhim o‘rin

tutuvchi “Hindi-hindi” o‘yini ayrim hududlarda “yag‘ir eshak” nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. O‘yin jarayonida kim “yag‘ir eshak” bo‘lishi sanamlar va aytimlar orqali aniqlanadi, keyin bolalar navbat bilan uning ustiga minib, muvozanatni saqlagan holda o‘ynaydilar. Kim muvozanatni yo‘qotsa, navbatdagi “yag‘ir eshak”ga aylanadi. Bu o‘yin boshqa turkiy va qo‘shni xalqlar o‘yinlariga ma’lum darajada o‘xshash bo‘lsa-da, nomi, aytimlari va ijro shakli bilan qoraqalpoq muhitiga xos ko‘rinishga ega.

“Oq suyak” yoki “Aqsuyek” o‘yini esa ko‘plab turkiy hududlarda uchraydigan, lekin mahalliy variantlari bilan farq qiladigan o‘yinlardan biridir. Kechasi, ochiq maydonda nur taratib turgandek ko‘rinadigan oq suyak (ko‘pincha katta suyak) uzoqroqqa uloqtiriladi, bolalar uni topishga urinadi. Kim birinchi bo‘lib topsa, rag‘batlantiriladi. Qoraqalpoq variantida o‘yin yetakchisi – “ag‘abiy” tanlanishi, suyakni soxtaga almashtirib qo‘ymaslik uchun oldindan belgilari ko‘rsatib chiqilishi, “oq, oq – aqsuyaq…” kabi aytimlar bilan o‘yin boshlanishi ana shu o‘ziga xos mahalliy unsurlardir. Bugungi kunda ushbu o‘yin Farg‘ona vodiysida ham modernizatsiyalashgan ko‘rinishda uchrashi, uning umumturkiy va umuminsoniy qadriyat sifatida yayilayotganidan dalolat beradi.

Qoraqalpoq milliy bolalar va o‘smirlar o‘yinlari chet ellik va mahalliy etnograf tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lgan. Ular tomonidan olingan suratlar, yozib olingan aytimlar va tavsiflar bugungi holat bilan taqqoslanganda, bir qator o‘yinlarning negizi saqlangan, biroq ayrim qoidalar, aytimlar, ishtirokchilar tarkibi va o‘yin maydoni o‘zgarib borayotgani ko‘rinadi.

Masalan, kichik yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan “Áwélemen-dúwélemen” o‘yinida bolalar doira bo‘lib o‘tirib, oyog‘ini bir-biriga tekkizgan holda sanamlar aytib, navbat bilan oyog‘ini “o‘chirib boradi”, oxirida qolgan bola g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin bolalarning til boyligini oshirish, ritmni his qilish, diqqatni jamlash va tezkor fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi; bugungi kunda ham shaklan biroz o‘zgargan bo‘lsa-da, mazmuni va funksiyasi saqlanib qolgan.

“Qazan” (qozon) o‘yini ham ikki guruhga bo‘linib, chiziqlar bilan belgilangan maydonda o‘tkazilgan, har ikki tomon raqib hududiga kirib, belgilangan chiziqqa oyoq bosish orqali ochko yig‘gan, shu tarzda g‘olib aniqlangan. Zamonaviy sharoitda bu o‘yin ba’zan sport musobaqasiga o‘xshash tarzda tashkil etiladi, lekin undagi raqobat ruhi, jamoa bo‘lib harakat qilish, hududni himoya qilish kabi tushunchalar saqlangan.

“Arqan tartıs” (arqon tortish) o‘yini esa ko‘p joylarda sof sport turi sifatida o‘zgarib ketdi: endi u an’anaviy marosim o‘yini emas, musobaqa, sport bellashuvi sifatida qabul qilinmoqda. Shunga qaramay, ikki tomonga bo‘linib, arqonni o‘z tomoniga tortish g‘oyasi birgalikda harakat qilish, kuchni to‘g‘ri taqsimlash, jamoaviy strategiya tuzish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda davom etmoqda.

“Iyt quyriq” (it dum) kabi o‘yinlarda esa bolalar ikki saf bo‘lib turib, bir-birining belidan ushlab, safni buzmaslik sharti bilan oxirgi o‘yinchini “ushlab olish”ga harakat

qiladilar. Bu o‘yin ham vaqt o‘tishi bilan turli ta’lim muassasalari, tadbirlar, bayramlar dasturiga kirib, sahnalashtirilgan, formalashgan ko‘rinishga ega bo‘lib bormoqda.

NATIJALAR

Transformatsiyaning yana bir muhim yo‘nalishi – ba’zi an’anaviy o‘yinlarning bosqichma-bosqich sport turiga aylanishi va xalqaro maydonga chiqishidir. Eng yorqin misollardan biri – milliy kurashning xalq o‘yinidan professional sport turiga, so‘ngra esa xalqaro federatsiyaga ega bo‘lgan, jahon chempionatlari o‘tkaziladigan sport turiga aylanish jarayonidir. Bu jarayonda milliy zaminda shakllangan “mardlik, jasorat, halollik, raqibga hurmat, bag‘rikenglik” kabi qadriyatlar sport falsafasining poydevoriga aylangan.

Xuddi shuningdek, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlardagi “ulok”, “qarab tep” kabi o‘yinlarning ham sportlashuvga qadam qo‘yishi, ularning atamalari va tushunchalari boshqa tillarga kirib borishi, global kontekstda milliy identifikatsiya vositasiga aylanayotganini ko‘rsatadi. Bunda an’anaviy o‘yin faqat o‘tgan zamon relikti emas, balki millatni dunyoga tanituvchi tirik madaniy resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Transformatsiya jarayonlari qanchalik kuchli bo‘lmasin, an’anaviy o‘yinlarning asosiy vazifasi – yosh avlodni real hayotga tayyorlash, ularning ma’naviy, axloqiy, jismoniy va aqliy tarbiyasiga xizmat qilish – o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi. Qoraqalpoq o‘yinlari bolalarning epchilligi, chaqqonligi, tezkorligi, hamjihatlik va birdamligini rivojlantiradi; murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, mas’uliyat his qilish, o‘zining va jamoaning manfaatini uyg‘unlashtirishni o‘rgatadi.

O‘yinlar orqali bolalar til boyligini kengaytiradi, xalq og‘zaki ijodi, aytim va taqlidlar, maqol va iboralar bilan tanishadi, mahalliy lahja va nutq madaniyatini o‘zlashtiradi. Ko‘plab o‘yinlarda she’r, torklik, sanam va qo‘shiqlar aytilishi bolalarda badiiy-estetik didni, musiqiy ritmni his qilishni rivojlantiradi. Shu bilan birga, an’anaviy o‘yinlar tarixiy xotirani yashovchan holda saqlab, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik vazifasini bajaradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Qoraqalpoq an’anaviy o‘yinlarining transformatsiya jarayonlari bir tomonlama “yo‘qolish” emas, balki ko‘p qatlamli o‘zgarish, yangilanish va moslashish jarayonidir. Globallashuv, madaniy integratsiya, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot sharoitida o‘yinlarning nomi, shakli, o‘yin vositalari, aytimlari va taqdim etilish usullari o‘zgarib bormoqda. Biroq ularning etnomadaniy, tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalari, milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rni saqlanib qolmoqda.

Ilmiy- amaliy jihatdan eng muhim vazifa – qoraqalpoq an’anaviy o‘yinlarini tarixiy-etnografik asosda hujjatlashtirish, asl variantlarini imkon qadar to‘liq qayd etish, bir vaqtning o‘zida ularni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim va tarbiya tizimiga maqsadli ravishda integratsiya qilishdir. Shundagina transformatsiya destruktiv emas, balki ijodiy va rivojlantiruvchi jarayon sifatida amal qilishi, an’anaviy o‘yinlar esa milliy madaniyatning tirik va ta’sirchan unsuri sifatida keyingi avlodlarga yetib borishi mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. – Т.: Фан.III томлик.1960-1963.
2. Ўзбек халқ ўйинлари, миллий спорт турларини қайта тиклаш ва аҳолини жисмоний тарбиялашда улардан кенг фойдаланиш усуллари./ мавзусига бағишланган жумҳурият илмий- амалий анжумани тезислари. -Тошкент- Жиззах:1991. – Б.5-6.171
3. Валиев С.Й. Халқ ўйинларининг ривожланиш тарихи ва трансформациялашуви. –//Universal journal of social sciences, philosophy and cultur. VOLUME 1. ISSUE 7. ISSN. 2992-8834. P. 168-182.
4. Пешерева Е.М. Некоторые игры среди оседлого населения Туркестана// Бюллетень САГУ. Вып. II. Ташкент. 1925. – С. 32-83. Пешерева Е.М. Игрушки и детские игры у таджиков и узбеков (по материалам 1924-35 г.г.)// Сб. музея антропологии и этнографии. Т. 27. –М. 1957. – С. 86-93.
5. Валиев С.Й. Халқ ўйинларининг ривожланиш тарихи ва трансформациялашуви. –//Universal journal of social sciences, philosophy and cultur. VOLUME 1. ISSUE 7. ISSN. 2992-8834. P. 168-182.
6. Валихонова Г. Фарғона водийси уйғурлари: турмуш тарзи ва маданияти. – Т.:.Янги нашр.2013. – Б.110-114.
7. Б.Г.Белинкий. «Адабий орзулар», Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент – 1977, 6-бет.
8. К.Эсемуратов, П.Серимбетов. Қарақалпақ миллий ха́рэкетли ойынларын у́йрениw. Но́кис, Қарақалпақстан – 2005. 16-бет.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

YOSH BOKSCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Yo‘ldoshev Maqsud Haqberdiyevich
Alfraganus universiteti
“Sport faolyati”kafedrasi o‘qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada 13–14 yoshli bokschilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning ilmiy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda sport mashg‘ulotining nazariy-metodik tamoyillari, yosh sportchilar organizmining morfofunksional xususiyatlari hamda boks sporti uchun muhim bo‘lgan jismoniy sifatlarning shakllanish mexanizmlari tahlil qilindi. Ilmiy izlanishlar jarayonida portlovchi kuch, maxsus chidamlilik, tezkorlik, koordinatsiya kabi sifatlarning o‘sish dinamikasini belgilovchi omillar aniqlangan holda, ularni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-mashg‘ulot modeli ishlab chiqildi. Taklif etilgan metodik tizim yuklama parametrlari, yosh fiziologiyasining sezgir davrlari va kompleks tayyorgarlik tamoyillariga asoslanadi. Maqolada metodikaning ilmiy asoslari, pedagogik ahamiyati va sport mashg‘ulotini optimallashtirishdagi o‘rni haqida umumlashma xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yosh bokschilar, jismoniy tayyorgarlik, metodik asoslar, portlovchi kuch, chidamlilik, tezkorlik, sport tayyorgarligi, metodika, sport pedagogikasi.

Аннотация. В данной статье освещаются научные основы методических подходов, направленных на совершенствование физической подготовки боксеров 13-14 лет. В исследовании анализируются теоретико-методические принципы спортивной тренировки, морфофункциональные особенности организма юных спортсменов, а также механизмы формирования физических качеств, важных для бокса. В процессе научных изысканий были выявлены факторы, определяющие динамику роста таких качеств, как взрывная сила, специальная выносливость, быстрота, координация, и разработана учебно-тренировочная модель, направленная на их развитие. Предложенная методическая система основывается на параметрах нагрузки, сенситивных периодах возрастной физиологии и принципах комплексной подготовки. В статье представлены обобщающие выводы о научных основах методики, ее педагогической значимости и роли в оптимизации спортивной тренировки.

Ключевые слова: юные боксеры, физическая подготовка, методические основы, взрывная сила, выносливость, быстрота, спортивная подготовка, методика, спортивная педагогика.

Abstract. This article covers the scientific foundations of methodological approaches aimed at improving the physical fitness of 13-14 year old boxers. The study analyzes the theoretical and methodological principles of sports training, the morphofunctional characteristics of the organism of young athletes, as well as the mechanisms for the formation of physical qualities important for boxing. In the course of scientific research, factors determining the dynamics of growth of such qualities as explosive strength, special endurance, speed, coordination were identified, and a training model aimed at their development was developed. The proposed methodological system is based on load parameters, sensitivity periods of age-related physiology, and the principles of comprehensive training. The article presents generalized conclusions on the scientific foundations of the methodology, its pedagogical significance, and its role in optimizing sports training.

Keywords: young boxers, physical training, methodological foundations, explosive strength, endurance, speed, sports training, methodology, sports pedagogy.

Kirish. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, yosh avlodning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda yuqori sport natijalariga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunda ham sport mashg‘ulotini ilmiy asosda tashkil etishning dolzarbligini yana-da kuchaytiradi.

Yosh bokschilar jismoniy tayyorgarligining shakllanish jarayoni sport faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy komponentlardan biri sanaladi. Boks sportining musobaqa talablari yuqori koordinatsion murakkablik, portlovchi kuch, maxsus chidamlilik va tezkor fikrlashni talab qilishi tufayli jismoniy tayyorgarlikning yoshga mos, ilmiy asoslangan metodik yo‘nalishlarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotlarning aksariyati yuqori malakali bokschilarning funksional tayyorgarligini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, dastlabki tayyorgarlik bosqichidagi sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga oid metodik yondashuvlar yetarli darajada yoritilmagan.

Bundan tashqari, 13–14 yosh davri organizmning tez sur’atlarda rivojlanishi, funksional tizimlarning sezgirligi va moslashuv imkoniyatlarining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Shu bois ushbu yosh guruhida jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish jarayonini ilmiy asoslangan, yuklama dinamikasiga moslashtirilgan metodik tizim asosida tashkil etish zarurati mavjud. Mazkur omillar yosh bokschilar jismoniy tayyorgarligini shakllantirishning zamonaviy uslubiy asoslarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini amaliy jihatdan baholashni dolzarb ilmiy vazifa sifatida belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — 13–14 yoshli bokschilarning jismoniy tayyorgarlik sifatlarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash hamda ushbu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlarni o‘rganilganlik darajasi va tahlili. Sport mashg‘ulotining nazariy-metodik asoslari bo‘yicha shakllangan klassik yondashuvlar Matveyev tomonidan taklif etilgan sport trenirovkasi periodizatsiyasi nazariyasi [1], Platonov tomonidan ishlab chiqilgan sportchi tayyorgarligi tizimining konseptual modeli [2], shuningdek Bompa va Haffning zamonaviy periodizatsion yondashuvlari [3] orqali ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur ilmiy ishlarda yuklamaning tuzilishi, intensivlik va hajm o‘zgarishlari, tiklanish jarayonining mexanizmlari hamda jismoniy sifatlarning rivojlanish qonuniyatlari tizimli ravishda bayon qilingan.

Boks kabi yakka kurash sport turlarida fiziologik reaksiyalarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar turli yo‘nalishlarda olib borilgan. Zarba berish texnikasining biomekanik asoslari Filimonov va hamkorlari tomonidan batafsil tahlil qilingan [4]. Smith o‘z tadqiqotlarida bokschilarning yurak-tomir tizimining mashg‘ulot va musobaqa jarayoniga moslashuv xususiyatlarini yoritib bergan [5]. Brown boshchiligidagi ilmiy guruh esa o‘smir bokschilarning anaerob imkoniyatlari hamda mushak kuchining yoshga xos dinamikasini o‘rgangan [6]. Ushbu ishlanmalar boksda portlovchi kuch, anaerob samaradorlik va maxsus chidamlilikni birgalikda rivojlantirish mashg‘ulot metodikasining muhim sharti ekanini ko‘rsatadi.

Yosh bokschilar tayyorgarligiga oid ilmiy izlanishlar ham mavjud bo‘lib, ular mazkur yosh guruhining funksional imkoniyatlari va jismoniy sifatlari rivojlanishiga doir qator muhim ma’lumotlarni beradi. Khanna va Majumdar o‘smir sportchilarning aerob va anaerob salohiyatidagi yoshga oid o‘zgarishlarni o‘rgangan [7]. Chaabene va Millerning tadqiqotlari esa yosh jangchilarda kuch, chidamlilik va tezkorlikni kompleks rivojlantirishga oid mexanizmlarni izohlaydi [8]. Lennartsson tomonidan olib borilgan empirik ish esa reaksiya tezligi va texnik harakatning aniqligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda dalillab beradi [9].

O‘smir sportchilar organizmining rivojlanish fiziologiyasiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar [10] 13–14 yosh davrining mushak kuchi, yurak-tomir tizimi va neyromuskulyar boshqaruvning sezgir (kritik) rivojlanish bosqichlari mavjudligini tasdiqlaydi. Bunday xususiyatlar yosh bokschilar bilan ishlash jarayonida yuklama miqdori va mazmunini yosh fiziologiyasi bilan uyg‘unlashtirish zarurligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy ishlanmalar qator dolzarb masalalarni yetarli darajada qamrab olmaydi:

— 13–14 yoshli bokschilar uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning yagona, integrativ modeli ishlab chiqilmagan;

— portlovchi kuch, maxsus chidamlilik va tezkorlikning uyg‘un rivojlanishiga yo‘naltirilgan metodik tizimlar son jihatdan cheklangan;

— mashg‘ulot yuklamalariga fiziologik moslashuvni baholovchi monitoring tizimlari amaliyotda keng joriy qilinmagan;

— yosh bokschilar bo‘yicha uzoq muddatli, statistik asoslangan eksperimental tadqiqotlar yetarli emas.

Mazkur kamchiliklar yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarligini ilmiy asoslangan metodlar orqali takomillashtirishni dolzarb ilmiy vazifa sifatida belgilaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — 13–14 yoshli bokschilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodik tizimni ishlab chiqish, uni amaliyotda sinovdan o‘tkazish va uning samaradorligini funksional, fiziologik hamda pedagogik ko‘rsatkichlar asosida baholashdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

Yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarligiga oid zamonaviy ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish, mavjud metodik yondashuvlar va ilmiy bo‘shliqlarni aniqlash.

13–14 yoshli bokschilarning morfofunksional va psixofiziologik xususiyatlarini o‘rganish, jismoniy tayyorgarlik jarayonidagi yoshga oid sezgir davrlarni aniqlash.

Jismoniy sifatlar (portlovchi kuch, maxsus chidamlilik, tezkorlik, koordinatsiya) rivojlanishining boshlang‘ich darajasini aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.

Yosh bokschilar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodik dastur (model) ishlab chiqish, uning mazmun, shakl va yo‘nalishlarini aniqlash.

Taklif etilgan metodik dasturni o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga joriy etish, uning samaradorligini eksperimental tarzda sinovdan o‘tkazish.

Eksperimental mashg‘ulotlar natijasida yosh bokschilarning funksional ko‘rsatkichlari va jismoniy sifatlaridagi o‘zgarishlarni tahliliy-statistik usullarda baholash.

Olingan ilmiy natijalar asosida yosh bokschilar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, metodikani sport maktablari sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini asoslash.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Eksperimental dastur 12 haftalik o‘quv-mashg‘ulot sikli davomida 13–14 yoshli bokschilar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuv asosida amalga oshirildi. Natijalar nazorat (NG) va tajriba guruhlarining (TG) ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli farqlarni aniqlash imkonini berdi.

1. Portlovchi kuch ko‘rsatkichlari

NG sportchilarida sakrash balandligi va zarba kuchi bo‘yicha o‘zgarishlar TGga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi.

— NG da sakrash balandligi o‘rtacha 12–15 % ga oshgan bo‘lsa,

— TG da ushbu ko‘rsatkich atigi 3–5 % ni tashkil etdi.

Bu o‘zgarishlar eksploziv mashqlar (plyometrik komplekslar, og‘irliksiz tezkor harakatlar) dan tizimli foydalanishning samaradorligini tasdiqlaydi.

2. Maxsus chidamlilik ko‘rsatkichlari

3×1,5 daqiqalik shartli sparring testida NG bokschilarining zarba soni, zarba aniqligi va texnik barqarorligi keskin yaxshilandi:

— NG da maxsus chidamlilik ko‘rsatkichi 14–18 % ga oshdi,

— TG da esa 2–4 % atrofida ijobiy o‘zgarish kuzatildi.

Bu natija intervalli yuklamalar va “work–rest” nisbatining ilmiy asoslangan qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

3. Tezkorlik sifatlari

30 metr masofaga yugurish va reaksiya tezligi testlarida NG sportchilarida:

— yugurish natijasi 0,16–0,20 s ga yaxshilandi;

— reaksiya tezligi 8–12 % ga oshdi.

TG da esa bu ko‘rsatkichlar minimal darajada — 1–3 % o‘zgarishni namoyish etdi.

4. Yurak-tomir tizimining funksional ko‘rsatkichlari

Nazorat guruhda ChSSning tiklanish sur’ati, funksional imkoniyatlar va anaerob chidamlilik parametrlari yaxshilangan:

— NG da ChSS tiklanishi 11–14 % ga tezlashgan;

— TG da esa atigi 3–5 % farq kuzatildi.

Bu yosh sportchilarda yuklama parametrlarining fiziologik moslashuv mexanizmlarini uyg‘un rag‘batlantirilganini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda ilmiy asoslangan metodik yondashuvning ustunligini ko‘rsatadi. Ular mavjud ilmiy manbalarda bayon etilgan tamoyillarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi:

1. Portlovchi kuch va tezkorlikning o‘zaro bog‘liqligi

Tajriba guruhda portlovchi kuchning keskin oshgani reaksiya tezligi va zarba samaradorligi ko‘rsatkichlarini sezilarli ravishda yaxshiladi. Bu holat Filimonov va boshqalarning boksda zarba kuchi mushaklarning portlovchi xususiyati bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlagan ilmiy xulosalariga mos keladi.

2. Intervalli mashg‘ulotlarning samaradorligi

NG da maxsus chidamlilikning sezilarli o‘sishi shuni ko‘rsatadiki, yuqori intensivlikdagi intervalli mashqlar yosh sportchilarda anaerob imkoniyatlarni rivojlantirishning eng maqbul usullaridan biridir. Smith (2006) tomonidan keltirilgan natijalar ham aynan shunday fiziologik tendensiyani tasdiqlaydi.

3. Yosh fiziologiyasi bilan mos yuklama

Natijalar Malina va Bouchard (2015) tomonidan ta’riflangan 13–14 yoshdagi sezgir rivojlanish davrlari bilan mos keladi. Bu yoshda mushak kuchi, nerv-mushak boshqaruvi va anaerob imkoniyatlarning jadallashgan rivoji kuzatiladi. Tajriba dastur mazkur sezgir davrni to‘g‘ri nishonga olgani tufayli yuqori samaradorlik qayd etildi.

4. Kompleks yondashuvning ustunligi

Alohida jismoniy sifatlarga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘ziga xos natija bersa-da, aynan kompleks yondashuv (portlovchi kuch + chidamlilik + tezkorlik + koordinatsiya) yagona tizim sifatida qo‘llanganda sezilarli rivojlanish beradi. NGda olingan yuqori dinamika aynan shu metodik tamoyil samaradorligini ko‘rsatadi.

5. Nazorat guruhining minimal o‘zgarishi

Nazorat guruhi minimal darajadagi o‘sishni namoyish etdi. Bu holat oddiy o‘quv-mashg‘ulot jarayoni yosh bokschilarning jismoniy sifatlarini sezilarli darajada rivojlantirish uchun yetarli emasligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Olib borilgan izlanishlarimiz natijalariga ko‘ra 13–14 yoshli bokschilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni yosh davri fiziologiyasi, yuklama xususiyatlari va sport tayyorgarligining zamonaviy metodik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va eksperimental sharoitda sinovdan o‘tkazilgan metodik yondashuv yosh bokschilar jismoniy sifatlarining kompleks rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asosda tasdiqlandi.

Eksperimental dastur portlovchi kuch, maxsus chidamlilik, tezkorlik, koordinatsion harakatlar va yurak-tomir tizimining funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Ushbu o‘zgarishlar intervalli yuklama, plyometrik mashqlar, anaerob–aerob yo‘nalishdagi kompleks mashqlar hamda yosh fiziologiyasiga mos yuklama modulyatsiyasining o‘zaro uyg‘un qo‘llanilishi natijasida yuzaga keldi.

Tadqiqot natijalari yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda quyidagi ilmiy-metodik tamoyillarning ustunligini ko‘rsatdi:

— jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan integrallashgan yondashuv;

— mashg‘ulot yuklamasini yoshga oid sezgir davrlar bilan uyg‘unlashtirish;
— yuklama hajmi va intensivligini fiziologik monitoring asosida boshqarish;

— portlovchi kuch va maxsus chidamlilikni rivojlantirishda intervalli yuklamalarning samaradorligi;

— texnik-taktik tayyorgarlik bilan jismoniy sifatlarning parallel rivojlanishini ta’minlash.

Nazorat guruhida qayd etilgan minimal o‘zgarishlar oddiy o‘quv-mashg‘ulot jarayonining mazkur yoshdagi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirish uchun yetarli emasligini ko‘rsatdi. Bu esa ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar zaruriyatini yana-da kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari asosida taklif etilgan metodik dastur yosh bokschilar tayyorlov tizimini takomillashtirish, sport maktablari va sportga ixtisoslashtirilgan o‘quv muassasalarining o‘quv-mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish uchun samarali ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metodika sportchilarning funksional imkoniyatlari va jismoniy sifatlarini maqsadli rivojlantirishga, musobaqa jarayoniga mos yuqori darajadagi tayyorgarlikni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

. Matveyev, L. P. (1981). Fundamentals of sports training. Progress Publishers.

2. Platonov, V. N. (2015). The system of athletes’ training in Olympic sport. Olympic Literature.

3. Bompa, T., & Haff, G. (2020). Periodization: Theory and Methodology of Training (6th ed.). Human Kinetics.

4. Filimonov, V. I., Koptsev, K. N., Husyanov, Z. M., & Nazarov, S. G. (1994). Boxing: Means of increasing the effectiveness of punch techniques. Journal of Sports Science, 12(3), 305–310. https://doi.org/10.1080/02640419408732185

5. Smith, M. S. (2006). Physiological profile of senior and junior amateur boxers. Sports Medicine, 36(1), 33–48. https://doi.org/10.2165/00007256-200636010-00004

6. Brown, T., Fletcher, D., & Lewis, R. (2018). Anaerobic profiles of junior amateur boxers. Journal of Strength and Conditioning Research, 32(5), 1452–1460. https://doi.org/10.1519/JSC.0000000000002048

7 Khanna, G. L., & Majumdar, P. (2002). Assessment of physiological capacities of junior and senior national boxers. Indian Journal of Medical Research, 115, 44–52.

8. Chaabene, H., & Miller, J. (2019). Complex training responses in youth combat athletes. International Journal of Sports Physiology and Performance, 14(4), 456–465. https://doi.org/10.1123/ijspp.2018-0562

9. Lennartsson, J. (2021). Reaction time determinants in youth boxing. European Journal of Sport Science, 21(8), 1143–1151. https://doi.org/10.1080/17461391.2020.1828565

10. Malina, R. M., Bouchard, C., & Bar-Or, O. (2015). Growth, maturation and physical activity (2nd ed.). Human Kinetics.

11. Rowland, T. (2005). Children’s exercise physiology. Human Kinetics.

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 11-son)

JISMONIY MADANIYAT

PHYSICAL CULTURE

ATLETIK GIMNASTIKA VA FITNESNING OLIY TA’LIM TALABALARINING JISMONIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Xudaykulov Zafar Beknazarovich
Islom Karimov nomidagi Toshken davlat texnika universiteti
KIRISH. Milliy mustaqillik sharoitida bo‘lajak mutaxassislarda yuksak axloqiy va kasbga sodiqlik sifatlarini shakllantirish Oliy o‘quv yurtidagi ta’lim-tarbiyaning muhim ajralmas vazifasiga aylandi. Hozirgi davr zamonaviy jamiyatida ta’lim, inson faoliyatining eng muhim sohalaridan birigaaylandihamda unga ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotning asosiy, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini

tayyorlashjarayonisamaradorligini oshiradigan vositalar va shart-sharoitlarni izlashdir. “Farzandlarimizni mustaqil fikrlovchi, zamonaviy kasb – hunarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”[1] - deydi O‘zbekiston respublikasining prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilimlarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar avlodni tarbiyalash birinchi navbatda oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga har jihatdan tayyor bo‘lishini taqozo etadi.Chunki shunday sifatlar bo‘lajak mutaxassisni yaratuvchanlikka undab, o‘z kasbi orqali jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sha olishiga zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maqomlarning inson ruhiyatida kechadigan psixologik holatlarga muvofiqligini nazarda tutgan holda har bir sho‘ba va xalq ashulalarini o‘rganishdan oldin talabalarda o‘rganilishi nazarda tutilayotgan qo‘shiqqa mos kayfiyatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir. Maqom yo‘lidagi xalq qo‘shiqlari inson ruhiyatida kechayotgan turli kayfiyatlarga mos holda yaratilgan. Maqomlar mazmuni, ohangi bilan inson hayoti, ijtimoiy turmush tarzi hamda tabiat hodisalariga monand tarzda yaratilgan. Buni, Najmiddin Kavkabiy Buxoriy (XVI asr) ning “Musiqa haqidagi risola” [2] asarida bayon etilgan quyidagi fikrlaridan ham anglash mumkin: “Ayrim maqomlarni ijro etish uchun muvofiq keluvchi vaqtni tanlash kerak. “Rohaviy” maqomini quyosh chiqish oldidan, “Ushshoq”ni quyosh chiqib bo‘lgach, “Rost”ni choshgoh arafasida, “Iroq”ni choshgoh paytida, “Buzruk”ni quyosh botish paytida, “Buslik”ni digar namozi (choshgoh bilan quyosh botishi oldidan o‘qiladigan namoz) vaqtida, “Zangula”ni quyosh botishi paytida, “Navo”ni nomozshom paytida, “Zirafikand”ni uyquga yotish oldidan, “Isfaxon”ni tunda ijro etish kerak” [3]. An’anaviy xonanadalik fani doirasida o‘quv dasturi bo‘yicha talabalar bilan o‘rganilishi uchun zarur bo‘lgan musiqiy asarlarning salmoqli qismini maqom sho‘balari va mumtoz xalq qo‘shiqlari tashkil qiladi. Ularni o‘rganish jarayonida talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlar – bosiqlik, jiddiylik, mulohazalilik, did va farosatni shakllatiradi. Shuningdek, mavjud vaziyatga muvofiq o‘zida quvnoq kayfiyatni hosil qila olish, biroq bachkanalikdan yiroqlashish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida musiqa ta’limi negizida talabalarga o‘zbek mumtoz musiqasi namunalarini o‘rgatishning jonkuyarlaridan biri Magistratirada o’qib yurgan kezlarim ko’p musiqiy bilimlar bergan ustozim Qo’ldosh Mamirov o‘z ish tajribalari to‘g‘risida to‘xtalib quyidagilarni bayon etgan edi: “Ish tajribamda mumtoz asarlarning jamoa (xor) bo‘lib ijro etilishiga alohida ahamiyat beraman. Bunda nafaqat xor jamoasining ovoz imkoniyatlarini, shu bilan birga xor ovoziga mos keluvchi sozlar va nyuanslardan ham unumli foydalanishga urinaman. Bo‘lajak mutaxassislarga mumtoz asarlarni o‘rgatishda ovozning mayinligi, sozning tiniqligi va xonandalarning o‘zaro hamjihatlikda kuylay olishlariga erishish nihoyatda muhim. Yoshligimdan xalq qo‘shiqlarini kuylab yurganligim, milliy cholg‘u

ansambllarida faoliyat ko‘rsatganligim mumtoz musiqiy asarlarni ijro eta olish imkoniyatiga ega o‘quvchi va talabalarni to‘g‘ri tanlay olishimga imkon beradi. Zero, milliy ashulalarda o‘ziga xos nola va qochirimlar mavjud bo‘lib, ularni ijro eta olish ijrochining alohida sifat va qobiliyatlarga ega bo‘lishini taqozo etadi (Suhbat 2006 yilning 23- aprelida tashkil etilgan) [2:98].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mumtoz ashulalarni jamoa bilan ishlashda faqat bilishning o‘zigina kifoya qilmaydi. Balki jamoaning ovoz imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish mumtoz ashulalarning mahorat bilan ijro etilishini ta’minlabgina qolmay, ularning jozibadorligini ham oshiradi. Mashg‘ulotlar jarayonida taniqli hofizlar - Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Halim Ibodov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Matchan Xudoyberganov, Muhiddin Qori Yoqubov, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliev, Orifxon Hotamov, Eson Lutfullaev, Orif Alimahsumov, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, O‘lmas Saidjonov, Ma’murjon To‘xtasinov, Munojat Yo‘lchieva, Nasiba Sattorova va boshqalarning ovozlari yozilgan magnit tasmalarini talabalar ishtirokida tinglash mumtoz asarlarni o‘rganishda yordam beradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini pedagogik amaliyotga tayyorlashda ham ular tomonidan mumtoz qo‘shiqlarning puxta o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, mumtoz asarlar ta’sirchan kuchga ega bo‘lishi bilan birga ularda xalqona ruh mavjud bo‘lib, nafaqat talabalarni, shu bilan birga o‘quvchilarni ham milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda asrlar davomida e’zozlanib kelingan ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Mumtoz qo‘shiqlar yashovchanligining sababi ham ularning xalq didiga mosligi, xalq tomonidan tan olinganligidir.O‘quvchilarning musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan bu talablar mohiyatini mantiqan tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, birinchidan, ularda milliy mumtoz musiqani o‘rganishga bo‘lgan e’tibor o‘z ifodasini topgan; ikkinchidan, ularning asosida o‘quvchilarda yuksak badiiy didni shakllantirish imkoniyatlari inobatga olinadi. Musiqiy ta’limning samarali tashkil etilishi natijasida o‘quvchilarda mumtoz musiqiy asarlariga to‘g‘ri baho berish, yuqori badiiy saviyaga ega qo‘shiqlardan mazmuni sayoz asarlarni ajrata olish hamda mumtoz qo‘shiqlarga ob’ektiv baho bera olish ko‘nikmalarining shakllanishiga imkon yaratadi.

XULOSA

Mashg’ulot jarayonida o’qituvchining jonli ijrosi o‘quvchilar ruhiyatiga yanada ijodiy ta’sir etadi. Shu sababli mumtoz kuy-qo‘shiqlarni jonli ijroda kuylash hamda tinglash musiqa fani o‘qituvchisining diqqat-e’tiborida bo‘lishi zarur. O‘quvchilarda ham asarlarni o‘rganish vaqtida ularning mazmunini tahlil qilish, nola, qochirim va boshqa bezaklarni anglash kabi ko‘nikmalarning bosqichma-bosqich shakllantirilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Ta’lim jarayonida, shuningdek, insonni ulug‘lovchi, unga kuch-quvvat bag‘ishlovchi, unda lirik kechinmalarni uyg‘otuvchi xarakterli sho‘balar ham o‘rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘.2017. k qo‘llanma). Toshkent – 2008..

2.Kobilova, Ezozkhon Bakirovna. "Classical music and youth education." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 126-130.

3. Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.

4. Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 51-57.

5. Kabilova, E. B. "FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 68-74.

6. Qabilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.

7. QOBILOVA, E’ZOZXON. "Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons." Journal of Positive School Psychology 7.2 (2023).

8. E.Qobilova Developing methodological competence in future music teachers. Qo‘qon DPI. Scientific Reports 2024 Issue 3, page 722

9. E’zozxon Qobilova THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN SHAPING MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH. International Journal of Pedagogics.(ISSN – 2771-2281) VOLUME 04 ISSUE 10 PAGES: 162-166

10. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100. https://doi.org/10.54613/ku.v12i.999

11.E.Qobilova.Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son 722-bet.SAN’ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN’AT)Orcid: 0009-0001-1275-3080

12. E.Qobilova .Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. *Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son* 383-bet SAN’ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN’AT

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 10-son)

SAN’ATSHUNOSLIK

ART HISTORY

УДК 792.03(574)
ORCID: 0000-0002-0235-6663

ЎЗБЕКИСТОН ТЕАТРЛАРИДА ҚОЗОҚ ДРАМАТУРГИЯСИ ТАЛҚИНЛАРИ

Махмадаминова Мафтуна Махмадназар қизи,
Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси
Санъатшунослик институти (PhD) таянч докторанти
muhammadaminova1990@gmail.com
+99890 999 63 03

Аннотация.Ушбу мақолада Ўзбекистон театр санъати тараққиёт босқичларида қозоқ драматургиясининг ўрни, ғоявий ва саҳнавий талқин хусусиятлари, ўзбек режиссура ва актёрлик санъатида услубий тамойиллар такомилидаги аҳамияти хусусида сўз юритилади.

Калит сўзлар. Ўзбек театри, қорақалпоқ театри, қозоқ драматургияси, туркий халқлар драматургияси, тарихий мавзу, замонавий қозоқ драматургияси, театр санъати, эпос, саҳнавий талқин.

Аннотация. В данной статье рассматриваются место казахской драматургии на этапах развития театрального искусства Узбекистана, особенности её идейной и сценической интерпретации, а также значение казахских пьес в совершенствовании стилистических принципов узбекской режиссуры и актёрского мастерства.

Ключевые слова: узбекский театр, каракалпакский театр, казахская драматургия, драматургия тюркских народов, историческая тема, современная казахская драматургия, театральное искусство, эпос, сценическая интерпретация.

Annotation. This article examines the role of Kazakh dramaturgy in the stages of development of Uzbekistan’s theatrical art, the features of its ideological and stage interpretation, and the significance of Kazakh plays in the improvement of stylistic principles in Uzbek directing and acting.

Keywords: Uzbek theatre, Karakalpak theatre, Kazakh dramaturgy, dramaturgy of Turkic peoples, historical theme, contemporary Kazakh dramaturgy, theatre art, epic, stage interpretation.

Кириш. Ҳеч бир миллат театри тараққиётини бошқа халқлар маданияти билан ўзаро таъсир ва тажриба алмашишларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Ўзбек театр санъатининг ривожланиш тарихида миллий асарлар билан бирга хорижий, шу жумладан, туркий халқлар драматургиясининг ўзига хос ўрни бўлиб, бу тажриба ҳозирга қадар давом этиб келмоқда. XX аср бошларида ўзбек, қозоқ, қирғиз, туркман, тожик каби тили, дини, ўтмиши, минтақавий тақдири бир бўлган Марказий Осиё халқларининг янгича типдаги миллий театрлари шаклланиши бир-бирига боғлиқ бўлганидек, кейинги ривожланиш жараёнларида ҳам ижодий алоқалар диалектикаси давом этиб келмоқда.

Хусусан, ўзбек, қорақалпоқ ва қозоқ халқларининг театр соҳасидаги ҳамкорлик алоқалари тарихан шаклланган жараёндир. Бугунги кунгача Ўзбекистон ва Қорақалпоғистоннинг қатор театрларида Б.Майлин, Ғ.Мусрепов, М.Авезов, О.Жаҳонова, Ю.Булат, Б.Муқай, С.Болғабоев, М.Шанғитбоев каби қозоқ драматургларининг турли жанрдаги асарлари саҳналаштирилган. Бу эса ўзбек театр санъатининг бадиий-эстетик тараққиётида қозоқ драматургиясининг ҳам ўрни борлигини кўрсатади.

Адабиётлар таҳлили ва методлар. Қозоқ драматургиясининг ўзбек театрларидаги саҳнавий талқинлари Мамажон Раҳмонов, Тошпўлат Турсунов, Тешавой Баяндиев, Дилфуза Раҳматуллаева, Олтиной Тожибоева, Рашид Уснатов каби театршунос олимларнинг ўзбек ва қорақалпоқ театр санъатининг тарихига оид тадқиқотларида муайян даражада ёритилган. Хусусан, М.Раҳмонов, М.Тўлахўжаева М., И.Мухторовларнинг “Ўзбек Миллий академик драма театри тарихи” китобида театрнинг 1960-2000 йиллардаги ижодий тарихи тадқиқ этилиб, айрим қозоқ драматургияси намуналарининг саҳнавий талқинларига хусусида сўз юритилган. Шунингдек, қорақалпоқ театрини тадқиқ этган санъатшунос олим Тешавой Баяндиев ҳамда профессор Рашид Уснатовнинг илмий изланишлари қозоқ драматургиясининг қарақалпоқ театр санъати ривожидаги аҳамияти умумий контекстда ўрганилган. Санъатшунос О.Тожибоева ўзининг “Эпос ва театр” номли монографиясида қозоқ халқ эпосларининг драматургик талқинлари ва саҳна трансформацияларини тадқиқ этиб, Ғабит Мусреповнинг “Қўзи Кўрпеш ва Баян сулув” эпик драмасининг Бердақ номли қорақалпоқ академик театридаги саҳнавий талқинига ҳам тўхталиб ўтади.

Мазкур мақолада шу каби ўзбек театршунослигида мавжуд адабиётлар ва қозоқ санъатшунослиги манбаларига таянилади, мавзу тарихийлик, қиёсий ва комплекс таҳлил усуллари асосида ёритилади.

Натижалар ва муҳокама. Ўзбекистон театр ижодкорларнинг қозоқ драматургиясига мурожаат қилиши ўтган XX аср биринчи ярмидан бошланган. Бугунги кунгача ўзбек ва қорақалпоқ театрларида қозоқ драматургияси асосида турли жанрда кўплаб спектакллар саҳналаштирилган. Бу тажриба дастлаб қорақалпоқ театрида юзага келган. “Қорақалпоқ миллий театри ўзининг дастлабки қадамларидан

бошлаб, эндигина профессионаллик сари дадил қадамлар ташлаётган қозоқ театр санъати намояндалари ва драматургларининг тажрибалари, шиддатли изланишлари, янгиликка интилишларидан рағбатланиб, миллий профессионал театр ва драматургиясини ривожлантиришга ҳаракат қилган”[6]. XX асрнинг 30-йилларида ҳали янгидан ташкил этилган Қорақалпоқ давлат театри репертуар шакллантиришда миллий пьесалар билан қозоқ драматургиясига ҳам эътибор қарата бошлади. Театрнинг тарихига оид манбаларда илк бор қозоқ адабиёти намояндаларидан Байимбет Майлиннинг шу йилларга хос замонавий мавзу акс этган “Талтангбойнинг тартиби” комедияси саҳналаштирилгани қайд этилади.

40-йилларда юзага келган халқ эпослари асосида саҳнавий асар яратиш тажрибалари қозоқ драматургиясида поэтик тамойилларни юзага келдиради. Қорақалпоқ театри шу даврда уларнинг бу йўналишдаги тажрибаларига эргашади. Маълумки, Марказий Осиё халқларининг тарихи бир-бирига узвий боғлиқ, қолаверса, халқ оғзаки ижоди, маънавий қадриятларида умумийлик мавжуд. Шу боис Ўзбекистон театр санъатида ўзининг алоҳида ўрни бўлган Қорақалпоқ давлат мусиқали театри ижодкорлари таниқли қозоқ драматурги Ғабит Мусрепов ижодига, унинг қозоқ халқининг машҳур эпослари асосида ёзган саҳна асарларига катта қизиқиш билан қарайди. 1950 йилда Ғ.Мусреповнинг “Қўзи Кўрпеш ва Баян сулув” халқ достони асосида ёзилган саҳна асарига мурожаат қилинади. Ғ.Мусрепов 1939 йили ёзилган ушбу пьесасида достон талқинига ижодий ёндошади. Драматик конфликт ва образларни кучайтириб, соф муҳаббат ҳақида, инсоний туйғуларнинг турфа қирралари тўғрисида фалсафий-романтик драма яратади. Режиссёр Сапар Хўжаниязов саҳналаштирган спектакль қорақалпоқ театрида эпик кўламдаги тарихий йўналишнинг ривожланишига йўл очди. Актёрлик санъатида қаҳрамонона-романтик ижро услуби шаклланишига асос бўлди. Ишқий-романтик достоннинг турфа образларини ижро этган театрнинг ўша йиллардаги етакчи актёрлари – Тўхта Рахманова (Баян), Йўлдаш Мамутов (Қўзи), Рейимбай Сейитов (Қодар), Эсан Давлетов (Қарабой), Зайит Зарипов (Тантиқ), Сапаргул Авезова (Мақбал), Соня Қарабаева (Купекей) ва бошқа ижрочиларнинг эпик қаҳрамонларни саҳнада жонлантириш маҳоратлари сайқалланиб боради.

“Инсонлар ўртасидаги муносабатлардаги ниҳоятда мураккаб тўқнашувлар ва азалий муаммолар борасида ҳар қандай давр ҳамда ҳар қандай миллат ўз сўзини айтиш имконияти мавжуд бўлган мазкур асар қорақалпоқ театри тарихида ҳам ўзига хос ўрин тутди” [5]. Театр бу тажрибани давом эттириб, 1951 йили Ғ.Мусреповнинг яна бир саҳна асари – қозоқ халқининг маънавий идеаллари, урф-одат ва анъаналари, қаҳрамонлик ғояларини акс эттирувчи “Қиз Жибек” (таржимон С.Хўжаниёзов) либреттоси саҳналаштирилади. Режиссёр Йўлдош Мамутов операни саҳналаштиришда Тўлеген ва Жибекнинг фожиали севги қиссаси орқали чинакам муҳаббат, садоқат ва жасорат ғояларини ифода этишга, ижрочиларнинг мусиқий ва монолит образ яратиш

имкониятларини тўла кўрсатишга интилади. Мазкур спектакль ҳам “Қози Курпеш ва Баян сулув” спектакли муваффақиятини такрорлаб, томошабинни театр санъатига ва халқ маънавий меросига янада яқинлаштиришга хизмат қилади. Ҳар икки эпик спектакль режиссёр ва актёрлар учун катта ижодий имконият яратган бўлса, томошабин театр воситасида қадимий достонларнинг ғоявий салмоғи, умуминсоний мазмун-моҳиятидан баҳраманд бўлди. Мусрепов ижоди шу маънода қорақалпоқ театри ижодий фаолиятида поэтик услубнинг қарор топишида муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Ҳамза номидаги давлат академик драма театри (ҳозирги Ўзбек Миллий академик театри) ва қозоқ театри ўртасидаги ҳамкорлик алоқалари ўтган асрнинг 80-йилларидан бошланди. 1983 йили Мухтор Авезовнинг (Л.Соболов билан ҳаммуаллифликда) “Абай” тарихий драмаси қозоқистонлик атоқли театр режиссёрларидан бири Озарбайжон Мамбетов томонидан (Носир Фозилов таржимасида) саҳналаштирилган. Мухтор Авезовнинг бу пьесасида халқ фарзанди Абай Қўнонбойнинг чинакам халқпарвар шоир, инсонпарвар мутафаккир сифатида жаҳолатга, зулмга, қолоқликка қарши маърифий курашлари акс этади. Ўзбек томошабини Абайнинг саҳнавий образини илк бор мазкур спектаклда, Ўзбекистон халқ артисти Ёқуб Аҳмедов ижросида кўрди. Спектакль маърифатпарвар шоир дунёсини ўзбек халқига яна ҳам жонлироқ танитишга хизмат қилган саҳнавий асар сифатида театр тарихида из қолдирди.

Ўзбек ва қорақалпоқ театрларида қозоқ драматургларининг шу каби тарихий мавзудаги асарларидан ташқари, замонавий драматурглари ижодига, уларнинг замон кишилари образлари, муаммо ва кечинмалари, орзу-мақсадлари акс этган пьесаларига эътибор орта бошлади.

“70- йиллар ҳамда 80-йилларнинг биринчи ярмида ўзбек театрида образли ифода системаси шаклланиб, томошабинга замонавий таъсир воситаларини ўзлаштиришда тажриба орттирилди, ғоявий-эстетик дастур аниқлаштирилди. Натижада ўзгарувчан дунёда инсоннинг тутган ўрни, маърифат билан жаҳолат кураши акс этган асарларга кенг ўрин берилди, актёрлик санъатида психологик мактаб мавқеи мустаҳкамланди”[1]. Шу йўналишдаги изланишлар силсиласида замонавий қозоқ драматургларининг саҳна асарлари ҳам театр репертуаридан ўрин эгаллайди.

Шулардан бири 1987 йилда Олтинсоч Жаҳонова асари асосида саҳналаштирилган “Ҳазрати аёл” спектаклидир. 80-йилларда юзага келган нисбатан эркинлик муҳитида театр ижодкорлари даврнинг реал ҳақиқатларини саҳнада кўрсатиш ҳаракатларини кучайтирди. Таниқли театр режиссёри Рустам Ҳамидов саҳналаштирган мазкур драмада ўз даврининг долзарб мавзуларидан – ижтимоийлашган аёл ҳаётининг зиддиятлари, ахлоқий, инсоний масалалар хусусида мушоҳада юритилади. Ўзбекистон халқ артистлари Рихси Иброҳимова ва Эркли Маликбоевалар бош қаҳрамон жамият ижтимоий ҳаётида фаол, замонавий, кучли аёл Ойша Содиқованинг аёл, она ва раҳбар сифатидаги кечинмаларини чуқур очиб

беради, уни оила ва ижтимоий масъулият ўртасида мувозанатни йўқотган мураккаб образ сифатида талқин қилишади.

Рустам Ҳамидов пьесанинг ижтимоий мазмунидан фалсафий ечим излайди ва ўз талқинини аёл энг аввало она, дунёда ҳеч бир вазифа унинг азалий ва илоҳий бурчидан устун эмас, деган фикр устига қуради. Спектакль саҳна безагида буюк рассомлар Рафаэль ҳамда Леонардо да Винчиларнинг “Гўдак кўтарган Мадонна” асарлари тасвиридан фойдалангани, қолаверса, спектаклга “Ҳазрати аёл” деб ном берилиши ҳам шу ғояга асосланади. Мазкур асар умумбашарий ғояси ва ижтимоий долзарблиги билан ўз даврида қўйилган аҳамичтли спектакллардан бири сифатида театр тарихида қолди. Ўзбек театр санъатида реалистик мактабнинг мустаҳкамлангани шу каби спектаклларда намоён бўлди.

Мустақиллик йилларига келиб, янги давр маънавий мўлжалларига мос ва жамият ҳаётидаги ўзгаришлар натижасида юзага келган замонавий инсон муаммолари тасвирланган бадиий баркамол саҳна асарларига талаб ортди. Режиссёрлар бу борада миллий асарлар билан чегараланиб қолмай, ўзбек жамияти билан бир хил тарихий ўзгаришларни бошдан кечираётган қозоқ халқининг замонавий саҳна адабиёти намуналарини театрлар репертуарига олиб киришга интилди. “Бу даврда режиссёрларнинг “пьесалар танлашда, спектаклларнинг маънавий-ахлоқий мазмун-моҳиятида, аниқ, психологик характерларда, муаммоларнинг мураккаб ечимида замонанинг долзарб маънавий муаммоларини англашга бўлган жиддий ҳаракат кўзга ташланади.” [4].

1998 йили Миллий театрда Боқхўжа Муқайнинг “Қиёмат кечаси” драмаси асосида саҳналаштирилган “Ҳаётдан тўйган тун” спектакли бунинг бир мисолидир. Бу спектаклда тўртта персонаж орасида кечадиган воқеа мисолида мансабпарастлик, порахўрлик, амалдорларнинг ўз лавозимларини суиистеъмол қилишлари каби даврга хос ижтимоий-ахлоқий муаммолар, нафс ва одамийлик орасидаги зиддиятлар кўтарилади. Асар қаҳрамонлари бугунги давр кишилари образи бўлиб, ҳар бир қаҳрамон ўз виждони олдида синалади.

Режиссёр Нажмиддин Ансатбоев драманинг саҳнавий талқинини фалсафий-психологик услубда ҳал этиб, қаҳрамонларнинг характери, ички кечинмалари, ахлоқий қарашларини мураккаб ички драматик вазиятларда кўрсатишга ҳаракат қилади. Актёрлар Ф.Маъсудов (Асан), З.Ашурова (Баян), Р.Авазов (Одамов), С.Умаровлар (Қалди) ўз қаҳрамонларининг ички ҳақиқати, ахлоқий даражасини кўрсатиб, асарнинг умумий ғоясини патетик ҳолатларда ифодалаб беради. Воқеалар очиқ конфликтларда эмас, қаҳрамонларнинг ҳиссий, фикрий тўқнашувлари асосида ривожланади.

Жамиятда ахлоқий нормаларнинг бузилиши ўз-ўзидан одамларнинг ахлоқи, дунёқарашлари ва хатти-ҳаракатларига таъсир қилади, бахтсизлигига сабаб бўлади. Асардаги асосий мотив – қаҳрамоннинг амалга интилиши, у каби кўпчиликнинг шу онгда ҳаракатланишининг замирида ижтимоий масъулият этмас, шахсий манфаат,

амал имкониятларидан фойдаланиш майли ётади. Жамиятда одамларнинг яхши яшаш учун ҳар турли йўллар билан амалга эга бўлишга интилиши, буни ҳам ундан юқорироқ амалдаги шахслар ниманингдир эвазига ҳал этиши ва бу нормал ҳолатга айланиши абсурд ҳолатдир. “Ҳаётдан тўйган тун” спектаклида даврнинг шундай жиддий муаммоларни ўзига хос бадиий услубда таҳлил этилади. Режиссёр ва театр ижодкорлари мазкур саҳна асари орқали томошабинга ўз хатти-ҳаракатлари, қарашларини ташриф этишга ундайди, одамийлик, ор-номус, виждон билан яшаш ғояларини тарғиб қилади.

“Ҳаётдан тўйган тун” спектакли фикрловчи томошабинни ўзига жалб этган психологик спектакль сифатида муҳим аҳамият касб этди. “Айни пайтда жамоанинг мана шундай йўналишдаги спектаклларни саҳналаштиришда фойдаланилмай келинаётган жуда катта имкониятлари мавжудлигини кўрсатди.” [1].

Замондош қозоқ драматургларининг шу каби ижтимоий мавзулар қаламга олинган асарлари вилоят театрлари репертуаридан ҳам жой эгаллади. 1994 йили Сирдарё вилояти мусиқали драма театрида Юсуф Булатнинг “Тўй давом этади” («Toy devam ete») пьесаси асосида саҳналаштирилган спектакль томошабин эътиборини замонавий ижтимоий муаммоларга қаратди. “Дабдабали тўй” номи билан саҳналаштирилган комедияда кўтарилган муаммолар ўзбек жамиятига ҳам бегона эмаслиги билан долзарблик касб этди. Спектакль режиссёри Р.Ҳасанов асарни талқин этишда тўй одатларининг фожиа даражасида иллатга айланаётганини шу асар орқали танқидий руҳда кўрсатди. Комедиядаги вазиятлар ўзбек ҳаётига ўхшаш бўлгани учун ҳам томошабин жуда яхши қабул қилди.

Ўзбек режиссёрлари 2000-йиллардан кейин таниқли қозоқ драматурги Султонали Болғабоевнинг турли жанрдаги пьесаларига эътибор қарата бошлади. Дастлаб, 2009 йилда режиссёр Валижон Умаров драматургнинг “Энг сулув келинчак” (Усмон Азим таржимаси) пьесасини Миллий театрда саҳналаштирди. Мелодрама жанридаги мазкур спектаклда ўтиш даврининг моддий-маънавий қийинчиликлари, жамиятда ҳукм сураётган тушкун кайфият бир аёл тақдирида лирик усулда тасвирланади.

Драматургик материалнинг мазмундорлиги ва бадиий қиймати саҳнада ҳам ўзининг муносиб талқинини топди. Режиссёр профессионализми, шунингдек, Саида Раметова, Зуҳра Ашурова, Фатхулла Маъсудов, Маҳмуд Исмоилов, Муҳаммадали Абдуқундузов, Абдураим Абдуваҳобов, Ҳамид Тошпўлатов каби актёрларнинг меҳнати билан меҳр-муҳаббатга ташна безовта инсон қалби ҳақидаги лиро-психологик спектакль юзага келди. “Қозоқ драматургиясининг ўзбек театрида саҳналаштирилиши ўзбек ва қозоқ халқининг оилавий қадриятларга, аёлнинг оила ва жамиятдаги ўрни борасидаги ментал хусусиятлари бир-бирига яқинлигини яна бир бор исбот этди ва бу драматургиянинг режиссёрлик ва актёрлик талқинида ҳаққоний намоён бўлди” [2].

Пьесанинг ўзига хослиги шундаки, муаллиф унда қалби чилпарчин бўлган, жисмоний ва руҳий зўравонлик остида яшаётган қаҳрамон – Гулбарчин тақдирига кишини ҳамдард қилади, лекин аниқ ечим тақдим этмайди. Унинг тимсолида кўплаб аёллар дардини кўрсатиш билан чегараланади. Режиссёр ҳам спектаклни шундай очиқ структурада тугатиб, воқеани қандай талқин қилиш ва хулоса чиқаришни томошабинга ҳавола қилади.

С.Болғабоевнинг ушбу пьесаси шу йиллари Бердақ номидаги қорақалпоқ давлат мусиқий театрида ҳам қўйилди. Қорақалпоғистон халқ артисти Н.Ансатбоев саҳналаштирган спектаклда ролларни Ж.Сагиндикова, Г.Сарибаева, Д.Хожабергенов, Б.Абиллаев, А.Байлепесов, Б.Назаримбетов, Г.Сайтов, М.Есимбетов, К.Каландаров, Д.Жалгасбаева, Ж.Пирлешова, Ш.Ешпанова, Г.Жуманиязова, С.Аллambергенова каби актёрлар ижро этади.

Драматурик материалнинг бадиий-ғоявий даражаси ҳар икки театр ижодкорлари учун психологик йўналишда ўзига хос имконият бўлди. Қорақалпоқ театрларида кейинчалик ҳам С. Болғабаевнинг “Бизлар ҳам ошиқ бўлганмиз”, “Муҳаббатсиз аср”, “Қиз йигирмага тўлганда” номли бошқа пьесалари асосида саҳна асарлари яратилди. Улар орасида ёшлик муҳаббати, хато ва изтироблари акс этган “Қиз йигирмага тўлганда” драмаси чуқур кечинмаларга бой лирик-психологик хусусиятлари билан ажралиб туради. Спектакль режиссёри С.Даулетова драматург С.Болғабоев драматургиясига хос гуманизм, теранлик ва ҳаётийликни чуқур англаб, севги, садоқат, хиёнат, меҳр-оқибат, дўстлик каби ўлмас ғояларни саҳнага кўчирди.

Тарих адабиёт ва санъат учун туганмас манба бўлиб, унга назар солиш, ўтмиш воқеа-ҳодисалари моҳиятини қайта идрок этиш, мутафаккир сиймолар меросига қайтиш ҳаёт ҳақиқатларини кашф этиш имкониятини беради. Шу боис, тарихий воқеалар ва шахслар ҳаётини саҳнавий талқин этиш ўзбек театрида алоҳида тенденция сифатида ривожланди. Айниқса, мустақиллик йилларида ўзбек театрларида тарихий спектаклларнинг мавзулар кўлами кенгайиб борди, хусусан, тарихий-биографик спектаклларда миллий қаҳрамонлар сафида, умумбашарият маънавий тараққиётига ҳисса қўшган бошқа миллатларнинг тарихий шахслари сиймосини яратишга бўлган интилишлар пайдо бўлди.

2019 йили Ўзбек Миллий академик драма театрида режиссёр Марат Азимов М.Авезовнинг “Абай” асарини янгидан (А.Мелибоев таҳрири остида) саҳналаштирди. Режиссёрлар “тарихий асарларга мурожаат этар экан, аввало замондош маънавиятига бирор усул билан таъсир қилиш мақсад қилинади.” [3]. Хусусан, муайян тарихий шахс ҳаётини саҳнада қайта акс эттириш орқали давр учун аҳамиятли мавзулар ифодаланади. Миллий театр бу асарга қайта мурожаат қилиш билан мамлакатнинг қўшни давлатлар билан муносабатлари янгиланганини намойиш этди. Ушбу асарда тарихий шахс – Абайнинг улус бирдамлиги ва маърифати йўлидаги курашлари ҳақида

ҳикоя қилинади, унинг инсоний ва шоирлик сийрати, халқпарварлиги драматик вазиятларга бой тўқима воқеалар асносида кўрсатилади.

Режиссёр спектаклга реалистик ёндошиб, барча саҳнавий компонентларда қозоқ халқининг миллий колоритини сақлашга интилган. Саҳналаштирувчи рассом Бахтиёр Тўраев қозоқ халқининг миллий анъаналарига таяниб, саҳнада маҳобатли ўтов интерьерини тасвирлайди. Драмада акс этган воқеалар Абай яшаган ўтган аср бошларида, қозоқ овулида кечади.

Спектаклда оммавий саҳналарга кенг ўрин берилиб, асардаги бинар оппозиция – эзгулик ва ёвузлик, зулмат ва ёруғлик, ақлий куч ва жисмоний зўрлик, маърифат ва жаҳолат ўртасидаги зиддият оломоннинг очиқ тўқнашувлари орқали тасвирланади.

Бош қаҳрамон Абай ролини яна Ўзбекистон халқ артисти Ёқуб Аҳмедов ҳамда дублёр сифатида Маҳмуд Исмоиловлар ижро этди. Ҳар икки актёр Абай сиймосини жонлантиришда маърифатпарвар шоир характеридаги курашувчанлик, донишмандлик, халқпарварлик хусусиятларини романтик буёқларда ифода этиш баробарида унинг инсоний оғриқ-изтироблари, ўй-кечинмаларини табиий етказиб беришга интилади. Абай Ёқуб Аҳмедов сиймосида ҳаётда кўпни кўрган, босиқ нуроний инсон сифатида намоён бўлса, Маҳмуд Исмоилов қаҳрамоннинг халқ дардида безовта, беҳаловат руҳиятини кўрсатиб беришга интилади.

Хулоса. Шу каби қозоқ драматургияси талқинлари ўзбек ва қорақалпоқ театрларининг турли ривожланиш босқичларида мавжуд анъаналарни мустаҳкамлаш, янги ижодий тамойилларни шакллантириш, режиссура ва актёрлик соҳасида романтик, реалистик, психологик йўналишлар такомилида ўзига хос аҳамият касб этди.

Замонавий қозоқ драматургияси театр санъати билан ҳамоҳанг тарзда янгиланиб боряпти. Бугунги кунда янги драматурглар майдонга чиқиб, ёшлар муаммолари, миграция, миллий идентификация, ўзликни сақлаб қолиш ва бошқа долзарб, умуминсоний мавзуларда реалистик, постдраматик саҳна асарлари яратмоқда. Бугун миллий драматургияда замонавий мавзулар акс этган баркамол пьесалар етишмаётган шароитда шу каби қозоқ драматургларининг янги ижод намуналарига мурожаат қилиш театрлар репертуарини сифат жиҳатдан бойитишга, жуғрофий сарҳадларини кенгайишига маълум даражада хизмат қилади. Қозоқ, ўзбек ва қорақалпоқ театрлари ўртасидаги ижодий алоқаларни янги босқичга кўтариш, замонавий драматургия тенденцияларини кузатиш ҳамда янги-янги таржима асарларни саҳналаштириб бориш қардош халқларнинг маънавий-маданий бирлигига, шунингдек, ўзбек саҳна санъатининг ижодий истиқболи учун муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Рахмонов М., Тўлахўжаева М., Мухторов И. Ўзбек Миллий академик драма театри тарихи. –Тошкент: Маданият ишлари вазирлиги услубият ва ахборот Республика Маркази, 2003. – 169 б.

2. Раҳматуллаева Д. Санъатга бахшида умр: Рихси Иброҳимова. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2022. – 164 б.

3. Раҳматуллаева Д. Тарих ва театр. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. 2022. – 338 б

4. Тўлахўжаева М. Театр маданиятлари муштараклиги: Шарқ ва Ғарб// “Жаҳон адабиёти” журнали, 2016, № 6, 130-б.

5. Тожибоева О. Эпос ва театр. Биринчи китоб.– Тошкент: Санъат, 005. 143-б.

6. Уснатов Р. Қорақалпоқ саҳнасида қозоқ драматургияси // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. 2016. http://jurnal.org/articles/2016/iskus11.html, 16.11.2016 г.

7. Жумасеитова Г. Казахи зарубежья: сегодня и завтра // Республиканский общественно- политический журнал «Мысль». https://mysl.kazgazeta.kz/news/249 (13 Октября, 2012)

8. Саҳнада Абай // Ўзбек Миллий академик драма театри расмий сайти. https://www.milliyteatr.uz/spektakllar/1326-sa1203nada-abay.html 13-05-2019

9. Театр —тилсимли ойна // Қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театри расмий сайти. https://kktyuz.uz/ru/teatr-tariyxi. 27.08.2021

10. Театр тарийхына 90 жыл, 1926-2016 // Бердақ номидаги қорақалпоқ давлат академик мусиқий театри расмий сайти . https://berdax-teatr.uz/45-teatr-tarijhy.html 10-10-2020

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 10-son)

SAN’ATSHUNOSLIK

ART HISTORY

ZAMONAVIY MUSIQIY TEATR OLAMIGA SAYOHAT.

Sh.Baratov.
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti v/b

Annotatsiya.Mazkur maqolada zamonaviy musiqiy teatr san’atining rivojlanish yo‘nalishlari, uning badiiy-estetik mazmuni va ijtimoiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Musiqiy teatrda dramaturgiya, musiqiy kompozitsiya va sahna madaniyatining uyg‘unligi orqali tomoshabinga estetik zavq berish, ularni fikrlashga undash masalalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy teatr texnologiyalari, sahna effektlari va interaktiv yondashuvlarning musiqiy ijrolardagi o‘rni o‘rganiladi.

Kalit so'z; musiqiy teatr, dramaturgiya, sahna madaniyati, zamonaviy san’at, estetik tarbiya, kompozitsiya, teatr texnologiyasi

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonida san’at va madaniyat sohasida kechayotgan yangilanishlar inson tafakkuri, estetik didi hamda badiiy idrokining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shulardan biri -zamonaviy musiqiy teatr san’ati bo‘lib, u o‘zining ko‘p qirrali badiiy shakllari, texnik imkoniyatlari va yangi ifoda vositalari bilan zamon ruhi va jamiyat ehtiyojlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Musiqiy teatr - bu dramaturgiya, musiqiy kompozitsiya, raqs, sahna plastikasining uyg‘unlashgan shakli bo‘lib, u tomoshabinga nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki chuqur ma’naviy va falsafiy mazmunni yetkazadi. Zamonaviy davrda bu yo‘nalish o‘zining an’anaviy ko‘rinishlaridan chiqib, yangi sahna shakllarini kashf etmoqda. Xususan, multimedia texnologiyalari, yorug‘lik va tovush effektlari, video-proyeksiya, interaktiv sahnalashtirish kabi innovatsion yondashuvlar musiqiy teatrni yanada ta’sirchan, dinamik va hissiy jihatdan boy shaklga keltirmoqda.

O‘zbekiston madaniyatida ham musiqiy teatrning o‘ziga xos an’analari mavjud. XX asrning o‘rtalaridan boshlab shakllangan milliy opera va musiqiy drama janrlari bugungi kunda zamonaviy teatr shakllariga singib, yangicha badiiy qiyofa kasb etmoqda. “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Alpomish”, “O‘tgan kunlar”, “Temuriylar sadosi” kabi musiqiy-sahnaviy asarlar nafaqat tarixiy syujetlarga asoslanadi, balki ular orqali milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlar va insoniy fazilatlar targ‘ib qilinadi.Zamonaviy musiqiy teatrning asosiy xususiyatlaridan biri – bu uning **sintezlangan badiiy tabiatidadir.** Unda musiqa, so‘z, harakat va tasvir san’atining o‘zaro uyg‘unligi orqali bir butun badiiy obraz yaratiladi. Shu bois, teatr tomoshabinni faqat voqeaga emas, balki his-tuyg‘u, ritm, ohang va sahnaviy

tasvir orqali estetik idrok dunyosiga olib kiradi.Bundan tashqari, bugungi teatr jarayonida tomoshabinning faqat kuzatuvchi emas, balki jarayon ishtirokchisi sifatida qatnashishi tendensiyasi kuchaymoqda. “Interaktiv teatr”, “live performance”, “immersive show” kabi yo‘nalishlar musiqiy teatrda ham keng qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuvlar tomoshabinga hissiy yaqinlik yaratadi, ularni badiiy voqelik ichiga kirishga undaydi.Zamonaviy musiqiy teatrning rivojlanishida raqamli texnologiyalar, innovatsion sahna uskunalari va ijodkorlarning yangicha estetik qarashlari muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘zgarishlar natijasida teatr san’ati milliy va jahon miqyosidagi madaniy almashinuv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Ayniqsa, yosh avlod orasida musiqiy teatrning qiziqarli, zamonaviy shakllari ularning estetik dunyoqarashi, milliy g‘ururi va san’atga muhabbatini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.Shu nuqtai nazardan, zamonaviy musiqiy teatr olamiga nazar tashlash, uning badiiy xususiyatlari, dramaturgik asoslari, musiqiy kompozitsion yechimlari hamda texnologik yangiliklarini tahlil qilish — san’atshunoslik va pedagogik tadqiqotlarda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada aynan shu masalalar atroflicha yoritilib, musiqiy teatrning bugungi rivojlanish tendensiyalari, ijodkorlik jarayonida innovatsion yondashuvlarning o‘rni va tomoshabinga estetik ta’sir mexanizmlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

XXI asr san’ati o‘zining yangi shakl, yo‘nalish va uslublari bilan ajralib turadi. Ulardan biri – zamonaviy musiqiy teatr bo‘lib, u musiqa, dramaturgiya, sahna harakati va texnik vositalar uyg‘unligi orqali tomoshabinga kuchli badiiy ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston va jahon sahnalarida yaratilayotgan musiqiy teatr asarlari nafaqat ko‘ngilochar, balki ma’naviy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda.Musiqiy teatrning o‘ziga xos jihati shundaki, unda so‘z, ohang, harakat va tasvir san’ati sintez holatda ifodalanadi. Shu boisdan ham u zamonaviy madaniyatning eng ommabop turlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada zamonaviy musiqiy teatrning shakllanish omillari, san’atkorlik uslublari hamda ularning jamiyat ma’naviy hayotiga ta’siri tahlil qilinadi.Musiqiy teatr san’atining nazariy asoslari bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud. Xususan, rus olimlari V. Stasov, K. Stanislavskiy, B. Pokrovskiylar musiqiy sahnalashtirishning psixologik va dramatik jihatlarini chuqur tahlil qilganlar.O‘zbek san’atshunoslaridan B. Umarov, M. Jo‘rayev, D. Alimova va boshqalar milliy musiqiy teatr taraqqiyotiga oid qimmatli ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning tadqiqotlarida o‘zbek milliy operasi, musiqiy dramalar va zamonaviy sahna ifoda vositalarining o‘ziga xosligi yoritilgan.Bugungi kunda esa jahon teatrida “musical”, “rock-opera”, “postdrama theatre”, “immersive performance” kabi yangi yo‘nalishlar keng tarqalgan bo‘lib, ular musiqaning zamonaviy janrlari bilan uyg‘unlashgan. Bu tendensiyalar o‘zbek sahnasida ham o‘z aksini topmoqda

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab madaniyat va san’at sohasida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ayniqsa, musiqiy teatr yo‘nalishida milliy an’analar va zamonaviy badiiy izlanishlarning uyg‘unlashuvi kuzatildi. “Navro‘z”, “Temuriylar sadosi”, “Alpomish”, “Layli va Majnun”, “O‘tgan kunlar” kabi musiqiy-sahnaviy asarlar o‘zbek xalqining ruhiyatini, tarixiy xotirasini va estetik qarashlarini ifoda etib kelmoqda.O‘zbekiston musiqiy teatrining o‘ziga xos jihati — unda **milliy kuy-ohanglar, xalq raqslari, folklor elementlari** keng qo‘llaniladi. Bu holat teatr asarlarini tomoshabinga yanada yaqin qiladi, milliy ruhni saqlab qoladi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda **yosh rejissyorlar va bastakorlar** yangi sahna shakllarini sinab ko‘rishmoqda: zamonaviy dekoratsiyalar, yorug‘lik texnologiyalari, raqamli effektlar, jonli orkestrlar bilan birlashtirilgan spektakllar yaratilmoqda.O‘zbekiston davlat akademik katta teatri, Muqimiy nomidagi musiqiy drama teatri, Respublika yosh tomoshabinlar teatri hamda viloyatlardagi teatr sahnalari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda. Bu esa sahna san’atining yangi bosqichga chiqishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi o‘zbek teatrlarida “musical”, “performance” va “multimedia sahna” elementlari qo‘llanilayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, yosh tomoshabinlar orasida musiqiy teatrga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda, bu esa **madaniy tarbiya va estetik dunyoqarashni shakllantirishda muhim omil** bo‘lib xizmat qilmoqda.Yevropa mamlakatlarida — ayniqsa **Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya va Avstriya**da - musiqiy teatr san’ati ko‘p asrlik an’anaga ega. Bu davlatlarda teatr nafaqat san’at shakli, balki milliy o‘zlikning ifodasi sifatida qaraladi.Masalan, **Buyuk Britaniyada** “West End” sahnalari dunyo miqyosidagi eng mashhur musiqiy spektakllar markazi hisoblanadi. “The Phantom of the Opera”, “Les Misérables”, “Hamilton”, “Cats” kabi asarlar zamonaviy teatr dramaturgiyasi va musiqiy kompozitsiyasining eng yuqori namunalaridan biridir.**Germaniyada** esa “Bayreuth Festivali” singari musiqiy teatr an’analari Richard Wagner asarlari orqali shakllangan bo‘lib, bu festival hali ham jahon miqyosida eng nufuzli san’at tadbirlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, sahna dizayni, aktyorlik maktabi va musiqiy arxitektura uyg‘unligi orqali tomoshabin bilan bevosita hissiy aloqa o‘rnatiladi.Evropaning ko‘plab teatrlarida musiqiy sahna ijrosi “live orchestra” bilan birgalikda ijro etiladi, bu esa tomoshabinlarda kuchli hissiy rezonans hosil qiladi.Zamonaviy Yevropa musiqiy teatrining yana bir o‘ziga xos jihati - **ijtimoiy va falsafiy mavzularni sahna orqali yoritish**dir.O‘zbekiston va Yevropa musiqiy teatr san’ati bir-biridan madaniy, tarixiy va badiiy jihatdan farq qilsa-da, ularni birlashtiruvchi jihatlar mavjud.**Musiqa va dramaturgiya sintezi** - har ikki mintaqada sahnaviy obraz musiqaning badiiy kuchi orqali yaratiladi.**Texnologik yangilanishlar** - Yevropada bu jarayon ancha ilgari boshlangan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda ham raqamli sahnalashtirish, vizual effektlar keng joriy etilmoqda.**Milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi** - O‘zbek teatrida milliy musiqiy ohanglar saqlansa, Yevropada har bir mamlakat o‘z madaniy kodini asarda ifodalashga intiladi.**Yosh auditoriya bilan ishlash** - har ikki mintaqada musiqiy teatr yoshlar orasida estetik tarbiya vositasi sifatida muhim rol o‘ynamoqda.

XULOSA

Zamonaviy musiqiy teatr — bu ijodiy tajriba maydoni. Unda an’anaviy shakllar yangicha ifoda topmoqda: elektron musiqa, videoinstallyatsiyalar, raqamli effektlar, sahna animatsiyasi, “live performance” kabi elementlar teatr estetikasi doirasiga kirib kelgan.Tomoshabin endi faqat kuzatuvchi emas, balki ishtirokchi sifatida jarayonda qatnashadi. Shu bois “interaktiv teatr” tushunchasi musiqiy sahna san’atiga ham kirib kelgan.O‘zbekiston musiqiy teatrida ham “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Alpomish”, “Temuriylar sadosi” kabi asarlar asosida yaratilgan sahna ko‘rinishlari bugungi kun texnikasi va rejissyorlik yechimlari orqali yangicha ifoda topmoqda.Natijada, zamonaviy musiqiy teatr nafaqat badiiy zavq manbai, balki yosh avlodda estetik dunyoqarash va madaniy didni shakllantiruvchi vosita sifatida muhim o‘rin egallamoqda. O‘zbekiston musiqiy teatr san’ati Yevropa teatr madaniyati tajribasidan ilhomlanib, milliy ruh va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligini yaratmoqda. Bu jarayon:

- yangi badiiy shakllar paydo bo‘lishiga,
- yosh ijodkorlar uchun keng ijodiy imkoniyatlar ochilishiga,
- tomoshabinlarning san’atga bo‘lgan estetik qiziqishi ortishiga olib kelmoqda.

Natijada, zamonaviy musiqiy teatr - **madaniyatlararo muloqot va milliy o‘zlikni anglash vositasi** sifatida O‘zbekiston va Yevropa san’atini birlashtiruvchi badiiy maydonga aylanmoqda.Zamonaviy musiqiy teatr – bu san’atning integrativ shakli bo‘lib, u musiqa, dramaturgiya, texnika va sahna san’atini yagona badiiy tizimda birlashtiradi.Shunday qilib, zamonaviy musiqiy teatr inson ruhiy olamini boyitadi, ularni go‘zallik, hamjihatlik va insoniy qadriyatlarga da’vat etuvchi san’at shakli sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–289-son Qarori. — Toshkent, 2022.
2. Jo‘rayev, M. (2019). *Milliy opera va musiqiy drama san’atining rivojlanish bosqichlari.* — Toshkent: Fan.
3. Alimova, D. (2021). *Musiqiy teatrda sahna madaniyati va rejissyorlik yechimlari.* — Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti
4. Kobilova, Ezozkhon Bakirovna. "Classical music and youth education." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 126-130.
5. Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 51-57.
6. QOBILOVA, E’ZOZXON. "Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons." Journal of Positive School Psychology 7.2 (2023).
7. E.Qobilova Developing methodological competence in future music teachers. Qo‘qon DPI. Scientific Reports 2024 Issue 3, page 722

8. E’zozxon Qobilova THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN SHAPING MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH. International Journal of Pedagogics.(ISSN – 2771-2281) VOLUME 04 ISSUE 10 PAGES: 162-166

9. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100. https://doi.org/10.54613/ku.v12i.999

10. Qobilova.Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son 722-bet.SAN’ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN’AT) Orcid: 0009-0001-1275-3080

11. E.Qobilova .Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. *Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son* 383-bet SAN’ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN’AT)

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 10-son)

SAN’ATSHUNOSLIK

ART HISTORY

JAMIL CHARSHEMOVNING POPURRI ASARI TALQINI VA IJRO MASALALARI

Saidxonov Abdullo Sadrullaevich
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya. Ushbu maqola Qoraqalpoq kompozitori Jamil Charshemovning fortepiano uchun popurri asarini kelib chiqishi, uning nazariy va talqiniy masalalarini yoritishga qaratilgan. Ijrochilik nuqtai nazaridan berilgan tavsiya va maslahatlar o‘ylaymizki, ijrochilik sohasidagi yosh ijodkorlarga ushbu asar bilan bog‘liq masalalarga yechim bo‘la olishiga ishonamiz.

Kalit so‘zlar: San’at, talqin, ijrochilik, fortepiano, folklyor

Аннотация:Данная статья посвящена освещению происхождения, теоретических и интерпретационных аспектов попурри для фортепиано каракалпакского композитора Жамиля Чаршемова. Мы уверены, что рекомендации и советы, данные с точки зрения исполнительского искусства, смогут стать решением вопросов, связанных с этим произведением, для пианистов в сфере исполнительства.

Ключевые слова: искусство, интерпретация, исполнительство, фортепиано, фольклор,

Annotation: This article is dedicated to illuminating the origins, theoretical, and interpretational aspects of the piano potpourri by the Karakalpak composer Jamil Charshemov. We are confident that the recommendations and advice given from the perspective of performance art will provide solutions to questions surrounding this work for pianists in the field of performance.

Keywords: art, interpretation, performance, piano, folklore,

Kirish. Musiqa san’ati yanada aniqroq aytsak musiqa ijrochiligi san’ati inson, jamiyat va davlat hayotida ma’naviy, madaniy ma’rifiy va estetik omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib ushbu omil yurtimizning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Tabiiyki yoshlarning aqliy, ma’nan yetuk va madaniyatli bo‘lib ulg‘ayishida musiqa ijrochiligi san’ati alohida o‘z o‘rniga ega.

